



YOSH
FILOLOG
OLIMLAR
JAMIYATI

anjuman materiallari to'plami



**TIL VA ADABIYOT:
ILMIY VA AMALIY IZLANISHLAR
YO'LIDAGI ILK ODIMLAR**

2020-yil 30-aprel

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“TIL VA ADABIYOT: ILMIY VA AMALIY
IZLANISHLAR YO‘LIDAGI ILK ODIMLAR”**

**mavzusidagi an’anaviy talabalar ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**

2020-yil 30-aprel

TOSHKENT – 2020

**UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)**

“Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” universitet talabalarining ilmiy-amaliy anjumani materiallari.
Toshkent – 2020. 934 bet.

Mas’ul muharrirlar:

Sh. Sirojiddinov, f.f.d, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori;

Z.Abdirashidov, PhD, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori;

N. Jo‘raqo‘ziyev, PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqotlar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i;

M. Xolmurodova, PhD, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati raisi;

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan “Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” nomli an’anaviy talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tuzilgan.

TILSHUNOSLIK

ID-020-30-T001

Charos Avazova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

O'ZBEK BOLALAR NUTQIDA METAFORIK NOMINATSIYANING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. Maqola bolalar nutqining nominativ xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda belgi-xususiyat, shakl, vazifa va harakat-holat o'xshashligi asosida yuzaga keluvchi metaforik nomlanishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *bolalar nutqi, metaforik nominatsiya, muloqot, innovatsiya, liksikon.*

Annotation. The article is devoted to the nominative features of children's speech, which analyzes the metaphorical names that arise on the basis of similarity of character, form, task and behavior.

Key words: *child's speech, metaphoric nomination, communication, innovation, lexicon.*

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida lisoniy birliklarning nutqiy faoliyatda reallashuvi bilan bog'liq muammolarning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bunda tilni uning ist'molchisi bo'lgan insonning shaxsiyati, voqelikni idrok etish darajasi, bilim saviyasi kabi jihatlarni hisobga olgan holda tadqiq etish tendensiyasi yetakchilik qilmoqda. Mazkur masala talqinida so'zlovchi shaxsning yosh jihati ham ahamiyatga molik. Shu jihatdan nutqiy muloqotning shakllanish va rivojlanish bosqichlarida kuzatiladigan umumiy hamda o'ziga xos xususiyatlarni belgilashda bolalar nutqiga oid dalillar alohida o'rin tutadi. Mashhur yozuvchi K.I.Chukovskiy bu haqda quyidagilarni yozadi: "Atrofimda o'ynab yurgan bolalarning jaranglagan tovushlari tinimsiz qulog'imga eshitilib

turardi. Avvallari, bolalarning bunday shirin soʻzlaridan faqat zavqlanardim, xolos. Keyinchalik esa uning shirinligi bilan birga, katta ilmiy ahamiyati borligiga ham ishonch hosil qildim. Chunki bolalar nutqi ustida ilmiy tadqiqot ishi olib borsak, biz ularning ajoyib fikrlash qonuniyatlarini ham ochishimiz mumkin, degan xulosaga keldim”. [1, 12]

Darhaqiqat, bolalar nutqini oʻrganish til va tafakkur munosabatiga oid masalalarning innovatsion yechimi uchun nihoyatda muhimdir. Bu boradagi dastlabki qarashlar Germaniyada D.Tideman tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda oʻz aksini topgan boʻlsa, [2, 93] bolalar nutqi lingvistikasi taraqqiyotida S.N.Seytlin, [3, 240] T.A.Gridina [4, 252] G.R.Dobrova [5] O.O.Rulova [1] singari tilshunoslarning xizmatlari kattadir. Oʻzbek tilshunosligida esa bolalar nutqi N.S.Sayidiraximova [6, 126], M.A.Qurbonova [7, 240], N.J.Yarasheva [8, 138] kabi tadqiqotchilar tomonidan lingvistik, stilistik, ijtimoiy-psixolingvistik hamda pragmatik yondashuvlar asosida oʻrganilgan. Ularning ishlari bolalar nutqining oʻziga xos xususiyatlari yuzasidan amalga oshirilishi lozim boʻlgan yangi tadqiqotlar uchun muhim nazariy manba sifatida xizmat qiladi.

Bolalar nutqi lingvistikasiga doir tadqiqotlarda ilgari surilgan qarashlar tilning paydo boʻlishi va rivojlanishi haqidagi nazariyalarni toʻldirishga muayyan darajada yordam beradi. Bunda, ayniqsa, bolalarga xos nutqiy nomlanishlar talqiniga oid tadqiqotlar alohida eʼtiborga loyiq. Jumladan, ukrain tilshunosi O.Rulovanning tadqiqotida ingliz, fransuz, yunon va ukrain millatiga mansub maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiga oid nominativ birliklarning formal-funksional hamda semantik xususiyatlarga koʻra quyidagi turlari mavjudligi aniqlangan:

1. Metonimik nominatsiya – nutq shaklini tanlash va anglash asosida yuzaga keluvchi nomlanish.

2. Metaforik nominatsiya – oʻzlashtirilayotgan obʼekt va qayta anglashilgan signifikatga xos oʻxshash belgilarni ajratish natijasida yuzaga keluvchi nomlanish.

3. Ekstensiv nominatsiya – soʻzni keng maʼnoda qoʻllash natijasida yuzaga keluvchi nomlanish.

4. Restriktiv nominatsiya – buyumlar guruhi emas, balki muayyan buyumni atash natijasida yuzaga keluvchi nomlanish.

5. Assotsiativ nominatsiya – faqat obyektga xos bosh belgi emas, balki u haqdagi umumiy tushuncha va tasavvurlar asosida yuzaga keluvchi nomlanish.

6. Elementli nominatsiya – tabiiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan maʼnolarni ajratib koʻrsatish imkoniyati bilan bogʻliq holda yuzaga keluvchi nomlanish.

7. Situatsion (vaziyatli) nominatsiya – turli xil elementlar majmuidan iborat mikrosituatsiya asosida yuzaga keluvchi nomlanish.

8. Kvalifikativ nominatsiya – obyektning tashqi belgilari asosida yuzaga keluvchi nomlanish.

9. Relyativ nominatsiya – obyektga xos belgining muayyan turi asosida yuzaga keluvchi nomlanish.

10. Substitutiv nominatsiya – turli darajada informatsiyalashgan nomlanish. [1, 65-66]

M.Qurbonovning tadqiqotida oʻzbek bolalar nominativ faoliyatida uchraydigan tipik holatlarga toʻxtalib oʻtilgan. [1, 66-79] Biroq mazkur masala hozirgi kunga qadar oʻzbek bolalari nutqi misolida monografik tadqiqot obyekti boʻlmagan. Bu esa oʻz navbatida tadqiqotimiz mavzusining oʻzbek tilshunosligi uchun nihoyatda dolzarbligini koʻrsatadi.

Maʼlumki, bolalar biror narsani uning tovushiga taqlidan nomlashda **bi-bip** (mashina), **inga-inga** (chaqaloq), **gʻa-gʻa** (gʻoz) kabi nutqiy birliklardan keng foydalanib, metonimik nominatsiyani yuzaga keltiradilar. Muloqot jarayonida ular metaforik nomlanishlarni ham faol qoʻllaydilar. Koʻpincha bolalar nutqiga oid metaforik birlik shaxs yoki narsa-predmetni belgi-xususiyatiga koʻra oʻxshashlik asosida nomlashga xizmat qiladi. Masalan:

- *Buvi, oʻrikning **suyagini** chaqib bering.* (Shuhrat. "Oltin zanglamas")

Yuqoridagi kontekstdan anglashilishicha, o'rik ichidagi narsa (danak) nomi nutqiy vaziyat yuz bergan vaqtda bola lisoniy xotirasida tiklanmagan va u qattqlik belgisiga ko'ra o'xshashlik asosida "**suyak**" deb nomlangan.

Bolalar nutqida shakly o'xshashlik asosida hosil bo'lgan metaforik nomlanishlar ham ko'p uchraydi. - *Shapkamning dumini bog'lab qo'ying* (Marat Sodiqov, 4 yosh) misolida shunday holat kuzatiladi. Bu holatning yuzaga kelishiga bola faol lug'atida qalpoqning shaklan dumga o'xshash qismini ifodalovchi "**bog'ich**" so'zining mavjud emasligi sabab bo'lgan. Bola nutqiga xos bunday nomlanishlar assotsiativ tafakkur mahsuli hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar metaforik nomlanishni yuzaga keltirishda somatizmlardan unumli foydalanadilar. Ular nutqida bu turdagi nomlanishlar vazifaviy o'xshashlik asosida hosil bo'ladi. Masalan, Marat Sodiqov (4 yosh)dan "Eshikni qanday qilib ochding?" deb so'ralganda, *Qo'lidan ushlab tortdim*, deb javob beradi.

Berilgan misolda "**qo'l**" so'zi orqali eshikning tutqichi nazarda tutilgan. Bunda bola leksikonida tutqich so'zi mavjud bo'lmagani uchun eshikning ushlashga xizmat qiladigan qismini nomlashda vazifaviy o'xshashlik asosida kundalik hayotda ko'p ishlatilib, uzoq muddatli xotiradan mustahkam o'rin olgan "qo'l" so'zidan foydalangan.

Ba'zan bolalarga xos nutqiy nominatsiyaning yuzaga kelishiga harakat-holat o'xshashligi ham sabab bo'adi. Masalan:

- *Oyijon, qarang, oymomo suvga bum etdi.* (O'. Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar").

Yuqoridagi nutqiy vaziyatda bola tasavvurida oying suvda aks etishi cho'milish maqsadida suvga otilgan kishining holati kabi gavdalangan. Shu tariqa uning nutqida harakat-holat ifodasi o'ziga xos shaklda namoyon bo'lgan.

Bolalar tomonidan ishlatiladigan aksariyat metaforik nomlanishlar ular nutqining o'ziga xos jihatlarini aks ettirish bilan birga, ijodiy tafakkur salohiyatini ham namoyon qiladi. Kattalar uchun qiziqarli va kulgili tuyuladigan bu holat bolaning shaxs sifatida shakllanib borishida zaruriy omil

sanaladi, so'zlovchining badiiy tafakkur darajasini ko'rsatadi. Bola muloqotda metaforalardan foydalanish orqali nutqiy ta'sirchanlikni oshirish maqsadini ham ko'zda tutishi mumkin. Bolalar nutqiga oid metaforik birliklarni konnotativ aspektda tadqiq etish o'zbek tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқи лексикасининг социопсихоллингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009.
2. Лурия А.Р. Мышление и речь. - М.: МГУ, 1970.
3. Цейтлин С.Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. – М.: ВЛАДОС. 2000.
4. Гридина Т.А. Онтолингвистика. Язык в зеркале детской речи. – Санкт-Петербург: Флинта, 2006.
5. Доброва Г.Р. Онтогенез персонального дейксиса: личные местоимения и термины родства. <http://www.dslib.net/jazyko-znanie/ontogenez-personalnogo-dejksisa.html>
6. Сайидирахимова Н.С. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004.
7. Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2018.
8. Ярашева Н.Ж. Филол. фан. фалсафа д-ри ... дисс. XXI аср ўзбек болалар адабиёти тили ва услубияти (Х.Тўхтабоев ижоди мисолида). – Тошкент, 2020.

ID-020-30-T002

Dilafruz Nu'monova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TAQLID SO'ZLAR LINGVOSTATISTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada taqlid so'zlarning zamonaviy o'zbek tilshunosligidagi muammolari yoritilgan. Shuningdek, taqlid so'zlarni tadqiq etishda lingvostatistika metodidan foydalib, tadqiqot keltirib o'tilgan. Unda "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi taqlid va tasvir so'zlar lingvostatistikasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, taqlid so'z, diaxronik, sinxronik, muammo, so'z turkumi, obraz, tasvir, mustaqil so'z turkumi, tadqiqot.*

Annotation. This article discusses the problems of imitation words in modern Uzbek linguistics. The study also uses the method of linguostatistics in the study of imitation words. It examines the linguistic statistics of imitation and figurative words in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek language".

Keywords: *linguistics, imitation, diachronic, synchronic, problem, phrase, image, image, independent phrase, research.*

Barchaga ma'lumki, o'zbek tilshunosligida taqlid so'zlar diaxronik va sinxronik tomondan taraqqiy etib kelmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay taqlid so'zlarni o'rganishning o'ziga yarasha muammolari mavjud: Quyida bu boradagi fikrlar tarqoqligiga e'tibor qaratamiz:

Miraziz Mirtojiyevning "Hozirgi o'zbek tili" o'quv qo'llanmasida taqlid so'zlar ikkiga ajratilgan: a) tovushga taqlid so'z; b) holatga taqlid so'z; [1.136-bet]

A.Nurmonov taqlid soʻzlarga quyidagicha yondashadi: "...oʻzbek tilida taqlid soʻzlar alohida soʻz turkumi hisoblanadi, ularning tovushga taqlid va obrazga, tasvirga taqlid soʻzlar kabi turlari mavjud...";[2.III jild]

D. Lutfullayeva, R. Davlatova, M.Saparniyozovalarning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" kitobida taqlid soʻzlarni ikkiga: tovushga taqlid va obrazga taqlid soʻzlar deb ajratilgan;[3.II qism]

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" kitobida taqlid soʻzlarni mustaqil soʻz turkumi sifatida ifodalab, uni ikki turi: tovushga taqlid va holatga taqlid turini ajratishadi;[4.257-bet]

Shavkat Rahmatullayevning "Hozirgi adabiy oʻzbek tili" kitobida ham taqlid soʻzlarni mustaqil soʻz turkumi sifatida koʻrsatiladi. Va uning nomini tasvir soʻz turkumi deb ifodalanadi.[5.178-bet] Aynan tasvir soʻz deb atalishi R.Qoʻngʻurovning dissertatsiyasida ham koʻrsatilgan edi.

Bu kabi misollar juda koʻp. Taqlid soʻzlarni tadqiq eta turib, "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"ga ham murojaat qildik. 1-2-3-tomda taqlid soʻzlar ikkiga: taqlid soʻzlar va tasvir soʻzlarga ajratilgan, 4-5-tomlarda taqlid soʻzlar ajratilmay taqlid soʻzlar nomi ostida birlashtirilgan. Taqlid soʻzlarni tadqiq etib, oʻrganishimiz natijasida biz ham oʻz ilmiy qarashimizga ega boʻldik. Taqlid soʻzlarni ikkiga boʻldik: taqlid soʻzlar va tasvir soʻzlar.

Taqlid soʻzlar – tovushga taqlidni ifodalovchi birliklar. Ularga *qur-qur*, *paq-paq*, *ang-ang*, *aka-bang* va hokazolar kiradi.

Tasvir soʻzlar – obrazga, tasvirga, holatga taqlidni ifodalovchi birliklar. Tasvir soʻzlar deyishimizga sabab, chunki bu birliklarda tasvirlash mavjud. Ularga *milt-milt*, *jaraq-jaraq*, *dirk* va hokazolar kiradi.

Taqlid soʻzlarni tadqiq etishda eng ahamiyatli metod lingvostatistik metoddir. Lingvostatistika – tilshunoslikni oʻrganishda ahamiyatli. Shu oʻrinda "lingvostatistika" terminiga izoh bersak. Har bir sohada bu sohaning rivojini, yutuq va kamchiligini koʻrsatib turadigan statistik koʻrsatkich mavjud. Masalan, tibbiyot sohasida biror kasallik yuzasidan aholining chalinishi foiz va

raqamlarda aks ettiriladi. Bu statistika deb yuritiladi. Ya'ni tibbiyot xodimlari nutqida statistikaga ko'ra shu kasallik bilan og'rigan bemorlar soni O'zbekistonda shunchani, dunyo davlatlarida shunchani tashkil etadi, degan gaplarni ko'p eshitamiz. Mana shunga o'xshagan ma'lumotlarni har sohada uchratamiz, bu statistikaning keng jabhali ekanligini, har sohada o'ziga xos ko'rinish hosil qilishini ko'rsatadi. Har bir sohaning statistik metodi bo'lgani kabi tilshunoslikda ham statistik metod mavjud. Bu metod tilshunoslik bilan bevosita aloqador bo'lganligi sababli "lingvo + statistika" kompozitsiyasi bilan nomlanadi.

Lingvostatistika tilshunoslikda yangi sohalardan biri bo'lib, u kompyuter yordamida amalga oshiriladigan metod hisoblanadi. O'zbek tilida faol qo'llaniluvchi taqlid so'zlarning miqdorini aynan lingvostatistik metod yordamida aniqlaymiz. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da o'zbek tilida faol qo'llaniluvchi taqlid so'zlar keltirilgan. Ularning miqdori 250 ta. Bundan 218 tasi taqlid so'zlar, 32 tasi tasvir so'zlar. Ularni quyidagi formula yordamida foiz ko'rsatkichlari aniqlanadi:

$$100 - (((A-M) / A) * 100)$$

Bunda A – aniq miqdorni ifodalovchi birliklarning chastotasi, M – mavhum, aniqlanayotgan miqdorni ifodalovchi birliklar chastotasi. Yoki quyidagi formula yordamida ham aniqlash mumkin:

$$n * 100 / U$$

Bunda n – noma'lum miqdor, U – umumiy miqdor chastotasi

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "a" harfi bilan boshlanuvchi taqlid va tasvir so'zlarning umumiy miqdori 5 ta. Buni quyidagi jadval yordamida ham ko'rishimiz mumkin:

No	..harf bilan boshlanuvchi	Taqlid so'zlar miqdori	Tasvir so'zlar miqdori	I tom	II tom	III tom	IV tom	V tom	Jami:
1.	A	3	2	5	-	-	-	-	5
2.	B	8	1	9	-	-	-	-	9

3.	D	18	6	24	-	-	-	-	24
4.	E	-	-	-	-	-	-	-	-
5.	F	-	-	-	-	-	-	-	-
6.	G	7	-	7	-	-	-	-	7
7.	H	11	2	-	-	-	-	13	13
8.	I	2	-	-	2	-	-	-	2
9.	J	5	2	-	7	-	-	-	7
10.	K	8	-	-	8	-	-	-	8
11.	L	1	3	-	4	-	-	-	4
12.	M	2	2	-	4	-	-	-	4
13.	N	-	-	-	-	-	-	-	-
14.	O	-	-	-	-	-	-	-	-
15.	P	22	3	-	-	25	-	-	25
16.	Q	20	-	-	-	-	-	20	20
17.	R	-	-	-	-	-	-	-	-
18.	S	-	-	-	-	-	-	-	-
19.	T	19	-	-	-	10	9	-	19
20.	U	2	-	-	-	-	2	-	2
21.	V	13	-	13	-	-	-	-	13
22.	X	4	-	-	-	-	4	-	4
23.	Y	-	4	-	-	-	-	4	4
24.	Z	2	2	-	4	-	-	-	4
25.	O'	1	-	-	-	-	-	1	1
26.	G'	25	3	-	-	-	-	28	28
27.	Sh	23	1	-	1	-	21	2	24
28.	Ch	22	1	-	-	-	23	-	23
29.	Ng	-	-	-	-	-	-	-	-

Ularning chastotali foiz ko'rsatkichi quyidagi jadvalda mavjud.

No	..harf bilan boshlanuvchi	Taqlid so'zlar foiz miqdori	Tasvir so'zlar foiz miqdori	I tom foiz miqdor	II tom foiz miqdor	III tom foiz miqdor	IV tom foiz miqdor	V tom foiz miqdor	Jami: foiz miqdor
1.	A	1,37%	6,25%	10,2 %	-	-	-	-	2%
2.	B	3,66%	3,12%	18,3	-	-	-	-	3,6%
3.	D	8,25%	18,7%	48,9 %	-	-	-	-	9,6%
4.	E	-	-	-	-	-	-	-	-
5.	F	-	-	-	-	-	-	-	-
6.	G	3,2%	-	14,2 %	-	-	-	-	2,8%
7.	H	5,04%	6,25%	-	-	-	-	19,1%	5,2%

8.	I	0,91%	-	-	6,6%	-	-	-	0,8%
9.	J	2,29%	6,25%	-	23,3%	-	-	-	2,8%
10.	K	3,6%	-	-	26,6%	-	-	-	3,2%
11.	L	0,45%	9,3%	-	13,3%	-	-	-	1,6%
12.	M	0,91%	6,25%	-	13,3%	-	-	-	1,6%
13.	N	-	-	-	-	-	-	-	-
14.	O	-	-	-	-	-	-	-	-
15.	P	10,09%	9,3%	-	-	71,4%	-	-	10%
16.	Q	9,1%	-	-	-	-	-	29,4%	8%
17.	R	-	-	-	-	-	-	-	-
18.	S	-	-	-	-	-	-	-	-
19.	T	8,7%	-	-	-	28,5%	15,2%	-	7,6%
20.	U	0,91%	-	-	-	-	3,38%	-	0,8%
21.	V	5,9%	-	26,5%	-	-	-	-	5,2%
22.	X	1,8%	-	-	-	-	6,7%	-	1,6%
23.	Y	-	12,5	-	-	-	-	5,8%	1,6%
24.	Z	0,91%	6,25%	-	13,3%	-	-	-	1,6%
25.	O'	0,45%	-	-	-	-	-	1,4%	0,4%
26.	G'	11,4%	9,3%	-	-	-	-	41,1%	11,2%
27.	Sh	10,5%	3,1%	-	3,3%	-	35,5%	2,9%	9,6%
28.	Ch	10,09%	3,1%	-	-	-	38,9%	-	9,2%
29.	Ng	-	-	-	-	-	-	-	-

Biz tadqiq etayotgan „O‘zbek tili izohli lug‘ati“dagi A(1) taqlid so‘z F marta qo‘llangan. Mana shu A (1) taqlid so‘z qo‘llanilish ehtimoli quyidagi formula yordamida aniqlanadi[6.150-bet]:

$$P(A(1)) * (F/N*2)$$

Tadqiqotda „O‘zbek tili izohli lug‘ati“dagi faol qo‘llanilgan taqlid so‘zlarning ishlatilish koeffitsientini topish masalasiga e‘tibor qaratiladi va quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$P(a) = m/n$$

Bunda $P(a)$ – soʻzning ishlatilish ehtimoli koeffitsienti, m – tahlil etilayotgan elementning nomi, n – soʻzlikning umumiy sonini bildiradi.[7.167-bet]

Tadqiqot natijasidagi lisoniy materiallarning tasdiqlashicha, qoʻllanish chastotasiga koʻra ularni belgilab koʻrsatish, aynan ushbu morfologik birliklarni koʻrsatish muhim hisoblanadi.

Tahlillardan anglashiladiki, taqlid soʻzlarning katta qismini taqlid soʻzlar, ozroq qismini tasvir soʻzlar tashkil etadi. Biz borliqdagi jonzotlarga nisbat berib turli tovush, signallar chiqaramiz shu sababdan bugungi kunga kelib taqlid soʻzlar miqdori tasvir soʻzlar miqdoridan koʻp. Tahlillardan koʻrinadiki, bugungi kunda lingvostatistik jihatdan oʻrganiladigan, tadqiq etiladigan manbalar bisyor. Lingvostatistik tahlil yordamida til birliklari, nutq birliklari haqida talaygina maʼlumotga ega boʻlish mumkin. Bugungi kunda oʻzbek tilshunosligida ham bu sohada bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi tadqiqotimizda lingvostatistik metod yordamida taqlid soʻzlar tadqiq etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Mirtojdiyev.M., Hozirgi oʻzbek tili. Toshkent: Oʻqituvchi – 1992. –B., 136.
2. Nurmonov. A., Tilshunoslikning nazariy va amaliy muammolari boʻyicha tanlangan maqolalar toʻplami. III jild.
3. Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyozova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. II qism. Toshkent – 2018.
4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. 5. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent – 2009. –B., 257.
6. Rahmatullayev Sh., Hozirgi adabiy oʻzbek tili. Toshkent: Universitet – 2006.
7. Frumkina R.M. Sticheskiye metodi izucheniye leksiki. M., 1977
8. Rizayev. S. Oʻzbek tilshunosligida lingvostatistika muammolari. Toshkent : Fan, 2006. –B. 167

ID-020-30-T003

Dilbar Mirnosirova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

O'ZBEK BOLALAR MULOQOTIDA VERBAL ASSOTSIATSIYANING IFODALANISHI

Annotatsiya. Maqola bolalar nutqining assotsiativ xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, unda narsa-predmetlarning tashqi belgilariga ko'ra o'xshashligi asosida yuzaga keluvchi verbal assotsiatsiyalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *bolalar nutqi, verbal assotsiatsiya, lingvistik presuppozitsiya, ontogenez, pragmatika.*

Annotation. The article is devoted to the associative features of children's speech, which analyzes the verbal associations that occur on the basis of the similarity of the object to the external signs.

Key words: *child's speech, verbal association, linguistic presupposition, ontogenesis, pragmatics.*

Lingvistik hodisalar mohiyatini aniqlashda til egalarining borliqni idrok etishi, olam haqidagi tasavvurlari va uni tilda aks ettirishi, lisoniy tafakkuri kabi omillar yetakchilik qiladi. Inson tafakkurida tashqi olam mazmuniy obrazining shakllanishida uning sezgi a'zolari muhim o'rin tutadi. Tilshunos olim H. Shamsiddinovning qayd etishicha, "Bu jarayonda ko'ruv sezgisiga mansub xotira tasavvurining ishtiroki eng faol hisoblanadi. Buning o'z sabablari mavjud. Birinchidan, inson borliq haqidagi informatsiyaning asosiy qismini

ko'ruv sezgisi a'zosi-ko'z orqali oladi: narsa-hodisaning shakli, rangi, holati, miqdori, harakati haqidagi ma'lumotlar ko'rish sezgisi orqali shakllanadi. Ikkinchidan, ko'rish sezgisi orqali olinadigan informatsiya narsa-hodisaning bevosita kontaktisiz muayyan masofa orqali ham shakllanishi mumkin. Shu sababli ham nom berilishi kutilayotgan narsa-hodisaga nom berishda ko'ruv xotira tasavvurlari assotsiatsiyasining o'rni beqiyos va unumlidir" [8,19].

Ko'ruv xotira tasavvurining faollashuvi, ayniqsa, bolalarda kuchli namoyon bo'ladi. Bola o'zi uchun noma'lum bo'lgan predmetni dastlab ko'ruv tasavvuriga asoslangan holda uning rangi, shakli, harakati, holati orqali nomlashga urinadi. Shu tariqa uning nutqida lingvistik assotsiatsiyaning o'ziga xos ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, verbal assotsiatsiyalar ko'lami til egasining leksik birliklar zahirasi bog'liq. Bolalar va kattalar, turli kasb egalarida assotsiativ maydon ko'lami, uning tarkibi turlicha aks etadi. [6,25] Assotsiativ maydon yadrosiga mansub yuqori chastotali birliklar 6 yoshli bola lug'at boyligidan o'rin olib ulgurgan bo'ladi. Bunday birliklar kundalik nutqiy faoliyatda qo'llanuvchi inson va uning tana a'zolari nomlari, qarindoshlik munosabatlarini ifoda etuvchi nomlar, koinot jismlari, tabiat hodisalarini anglatuvchi nomlar, ayrim rang bildiruvchi so'zlar, harakat va holatni anglatuvchi so'zlar va boshqalardir [4,42-43].

Jahon tilshunosligida bolalarga xos nutqiy assotsiatsiyalar ayrim tillar misolida o'rganilgan. Bu yo'nalishda yaratilgan qator tadqiqotlar va lug'atlarda bolalar nutqi ustida o'tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari ham o'z ifodasini topgan. [2,34], [7,81-84] Bolalardagi verbal assotsiatsiyalar tahlili orqali ularning leksik zahirasi, olamni idrok etishi va tasavvuri o'rganiladi. A.R. Luriya bolalarda hosil bo'lgan assotsiativ reaksiyalarni quyidagi turlarga ajratadi: 1) stimuly so'zga mos bo'lmagan javob reaksiyalari (неадекватные реакции) bunda stimuly so'z va javob reaksiyalari o'rtasida semantik aloqa kuzatilmaydi; 2) stimuly so'zga mos javob reaksiyalari (адекватные реакции) bunda stimuly

soʻz va javob reaksiyalari oʻrtasida semantik aloqa mavjud boʻladi; 3)asl assotsiativ reaksiyalar, bunda stimul soʻz va u orqali hosil boʻlgan obraz oʻrtasida maʼnoviy aloqa aks etadi [5].

Tilshunos olim Y.I.Goroshenkoning taʼkidlashicha, A.R.Luriyaning mazkur tasnifi tamoyillari asosida oʻtgan asrning 90-yillarida nutq ontogenezigina oid daliliy misollarni oʻrganish jarayonida qator verbal assotsiatsiyalar tasnifi yuzaga kelgan [3], Oʻzbek tilshunosligida assotsiativ lingvistikaning fan sifatida shakllanishida tilshunos olim D.Lutfullayevaning xizmatlari kattadir.Olimaning bu boradagi tadqiqotida assotsiativ tilshunoslikka oid tayanch tushunchalar izohlangan, assotsiativ tahlil usullarining tilni oʻrganishdagi ustuvorligi imiy asoslangan, tilshunoslikda assotsiativ munosabat masalasining oʻrganilishi, oʻzbek tilida verbal assotsiatsiyalarning hosil boʻlishi, assotsiativ birliklarning xususiyatlari, tasnifi, assotsiativ tajriba metodining mohiyati, assotsiativ lugʻatlarning tuzilishi xususida soʻz yuritilgan.[6,140] Mazkur monografik tadqiqotda qayd etilgan nazariyalarning amaliy ifodasi “Oʻzbek tili assotsiativ lugʻati”da oʻz ifodasini topgan. Mazkur lugʻat oʻzbek tilidagi milliy-madaniy birliklarning leksik-semantik, assotsiativ maʼnosi, boshqa birliklar bilan semantik-mantiqiy va assotsiativ bogʻlanishi asosida nutqda birga qoʻllanishi, madaniylik, ijtimoiylik, genderologik, pragmatik, kognitiv xususiyatlari haqida maʼlumot beradi.Lugʻat jahon tilshunosligida yaratilgan qator assotsiativ lugʻatlardan farqli tarzda, bogʻli assotsiativ tajriba metodi asosida tuzilgan. Biroq oʻzbek tilshunosligida bolalarga xos verbal assotsiatsiyalar hozirgi kunga qadar maxsus tadqiqot obyekti boʻlmagan. Tadqiqotimiz mavzusi shu jihatdan dolzarbdir.

Yuqorida taʼkidlanganidek, bolalar nutqining assotsiativ xususiyatlari koʻrish sezgisi vositasida hosil qilingan oʻxshatishli qurilmalarda yaqqol aks etadi. Ularning aksariyati muayyan belgi-xususiyatga koʻra oʻxshashlikka asoslangan verbal assotsiatsiyalar hisoblanadi. Masalan: *“Tuya”amaki nihoyatda jiddiy qiyofada terakdek gavdasini goʻz tutib, hovlidagi odamlarga*

murojaat qildi.(O'.Hoshimov "Ikki eshik orasi") Badiiy asarda bola tilidan ifodalangan ushbu kontekstda o'lchamga ko'ra o'xshashlikka asoslangan verbal assotsiatsiya yuzaga kelgan. Bunda o'xshatish asosi (baland) nutqda shaklan ifodalanmagan bo'lsa-da, uning mazmuniy obrazi o'xshatish etaloni (terak) yordamida lisoniy xotirada oson tiklanadi. Quyidagi kontekstda shakily o'xshashlikka asoslangan nutqiy assotsiatsiya hosilbo'lgan:-*Ammam xuddi koptokka o'xshaydi.Kichkina, dum-dumaloq...* (O'.Hoshimov."Ikki eshik orasi") Keltirilgan misolda o'zbek tili birliklarining presuppozitsion xususiyati ham yorqin namoyon bo'ladi. Bunda kontekst mazmunidan "*Koptok dumaloq bo'ladi*" tarzidagi yashrin axborotga ishora anglashiladi.

Bolalar nutqida narsa-predmetlarning rangiga ko'ra o'xshashlikka asoslangan verbal assotsiatsiyalar ham lingvistik presuppozitsiyaga yo'l ochadi. *Ammamning sigiri ham o'ziga o'xshagan qop-qora* (O'.Hoshimov."Ikki eshik orasi") misolidan "*Ammam qop-qora*" mazmunidagi presuppozitsiya anglashiladi. Bu kabi misollardagi o'xshatishli qurilmalar verbal assotsiatsiya ifodachisi sifatida xizmat qilish bilan bir qatorda, matn mazmunini murakkablashtiruvchi vosita vazifasini ham bajaradi.

Xullas, o'zbek bolalarining lisoniy ongi va tafakkuri, psixologik tasavvuri mahsuli sanalgan assotsiativ munosabatdagi leksik birliklar, ularning inson xotirasida bir-birini yodga tushurishiga sabab bo'luvchi ichki va tashqi omillar, assotsiativ birliklarning lingvistik, psixolingvistik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, genderologik xususiyatlari ontolingvistika (bolalar nutqi lingvistikasi) nuqtayi nazaridan ham o'rganilishi va tahlil etilishi lozim. Bu turdagi lug'atning yaratilishi xorij tilshunosliklarida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllangan assotsiativ tilshunoslik g'oyalarining ontolingvistikada ham chuqurroq ildiz yoyishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гольдин В.Е., Мартьянов А.О., Сдобная А.П. Ассоциативный словарь школьников Саратов и Саратовской области // sarteorlingv.narod.ru/Articles/Slovar.htm
2. Гольдин В.Е., Сдобнова А.П. Отражение современных речевых процессов в Ассоциативном словаре саратовских школьников // Активные языковые процессы конца XX века. – М., 2000.
3. Горошко Е.И. Описание механизмов ассоциирования и проблема классификации реакции // Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента // www.textologu.ru
4. Золотова Н.О. «Картина мира» и ядро лексикона носителя английского языка.// Проблемы семантики: психолингвистические исследования. – Тверь, 1991.
5. Лурия А.Р. Речевые реакции ребенка // Речь и интеллект в развитии ребенка. – М., 1927.
6. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: 2017.
7. Нефедова В.А. Зона фонетического реагирования в ассоциативном словаре школьника (на материале русского и английского языков). Автореф. дис. на соиск. уч. степ. канд. филол. наук. – Саратов, 2003.
8. Шамсиддинов Ҳ. Кўрув хотира тасаввури ассоциацияси асосида юзага келган номлар // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). III қ. – Тошкент. 2006.

ID-020-30-T004

Diyora Azizova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2- kurs talabasi

SO'Z BIRIKMALARI SINTAKTIK DERIVATSIYASI. ULARDA OPERATOR, OPERAND, DERIVATTERMINLARINING IFODALANISHI. LISONIY SINTAKTIK QOLIP (LSQ)

Annotatsiya. Bugungi kunda jamiyatimizdagi yoshlarimizni o'z tilimizni yanada chuqurroq o'rganishiga katta ahamiyat berilmoqda. Shuning uchun ham bu yo'nalishda ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada ham o'zbek tilining sintaktik tomonini tashkil etuvchi so'z birikmalari sintaktik derivatsiyasi tahlil etilgan. Maqolada juda ko'plab til ilmiy terminlar izohlangan. Ularning muqobillari topilib, misollar bilan isbotlangan. Mavzu hamma uchun tushunarli bo'lishi uchun keng qamrovda ishlangan va chet el tilshunoslik adabiyotlariga murojat etilgan. Og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda so'z birikmalarining ahamiyatiga e'tibor berilgan. Mavzu hamma uchun tushunarli tarzda bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *So'z birikmasi, birikma, operator, operand, derivat, neksus, yunksiya*

Annotation. Today, in our society great importance is attached to the fact that our young people learn more about our native language. That's why a lot of research this sphere of the knowledge. This article also analyzes the syntactic derevation of phrases that make up the syntactic side of Usbek language. The article explains many linguistic terms. Their alternatives have been found and prawn by examples. The topic has been extensively developed and referenced in foreign linguistic literature to make it understandable to all. Emphasis is placed on the importance of phrases in the formation of oral and written speech. The topic is explained in a way that is clear to everyone.

Keywords: *Phrases, accumulation, operator, operand, derivative, nexus, junction.*

Derivatsiya nazariyasi Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyondalaridan biri Yaji Kurilovich tomonidan ilmiy asoslab berilgan. Uning 1936- yilda fransuz tilida chop etilgan "Leksik derivatsiyava sintaktik derivatsiya" nomli maqolasida derivatsiyaning yangi turi "sintaktik derivatsiya" turi birinchi bor qo'llanildi.

Leksik derivatsiya - so'z yasaliishiga taalluqli bo'lsa, sintaktik derivatsiya - so'z birikmasi, gap va matnga taalluqlidir. Demak, derivatsiya keng qamrovli tushunchadir. Biz so'z birikmasi derivatsiyasiga to'xtalamiz.

Ma'lumki, so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatga kirishuvi masalasi azaldan tilshunoslarni qiziqtirib keladi. Ammo shuni ta'kidlab o'tish joizki, mazkur masala hind - ovropa tillarining boshqalaridan farqli o'laroq rus tili materiallari asosida ancha mukammal o'rganilgan. M.V. Lamonosovning "Rossiya grammatikasi" asarida fikrning ifoda etilishi uchun mustaqil so'zlarning munosabatga kirishuvi va shuning uchun sintaksisning asosiy vazifasi so'z turkumlarining o'zaro munosabatini o'rganishdan iborat bo'lishi ta'kidlangan. Bunga Peshkovskiyning quyidagi birgina fikri ham dalil bo'la oladi. "So'z birikmasi ikki yoki bir necha so'zning nutqda mazmunga ko'ra birikuvidir"

Biz yana bir muhim jihatga e'tibor berishimiz kerak. Bu birikma va so'z birikmasi terminidir. M. K. Sharipov bu jihatni farqlash kerak deydi. So'zlarning birikuvi yoki "birikma" iboralari juda keng ma'noda tushiniladi. Har qanday so'zlarning leksik va grammatik aloqaga kirishuvidan birikma hosil bo'ladi.

Rohatbaxsh - qo'shma so'z;

Rohatbaxsh va salqin - ikki teng so'z birikmasi;

Bahor keldi - gap;

Ko'ngliga tugib qo'ymoq - ibora;

Salqin havo - so'z birikmasi;

So'z birikmasi va birikma terminlarini farqlash va chegaralash zarur. "Birikma" keng ma'noni - har qanday ikki yoki undan ortiq so'zlarning so'zlarning leksik -sematik va grammatik aloqaga kirishuvidan paydo bo'lgan

butunlikni bildiradi. Lekin barcha birikmalar bir xil emas. Ularning tuzilishi, komponentlarlarining o'zaro munosabati, gapda bajargan vazifasi, spesifikasi va h.k xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlidir. Shuning uchun "birikma" keng ma'noda, "so'z birikmasi" birikma termini ichiga kiruvchi tushunchadir.

So'z birikmalari predikativ va nopredikativlik aloqasiga ko'ra farqlanadi. Buni daniyalik tilshunoslar **yunksiya va neksus** nazaryasi deb yuritishadi.

Yunksiya - nopredikativlik, ya'ni so'z birikmalari;

Neksus - predikativlik (ega va kesim munosabati)

So'z birikmasi o'z - o'zicha xabar ohangiga ega bo'lolmaydi. Uning ma'nosi ega, kesim va ular bilan gapning boshqa bo'laklari orasidagi munosabat orqali yuzaga chiqadi. So'z birikmalari o'zbek tilida ikki usulda shakllanishi ko'rsatiladi.

1. Sintetik (egalik, kelishik qo'shimchalari va predikativlikka asoslangan)

Kitobni o'qimoq, bog'da ishlamoq

2. Analitik (so'z birikmasi yordamchi so'zlarga, ohang va so'z tartibiga asoslanadi).

Ukam uchun oldim, chiroyli ko'ylak

A. G'ulomov va M. Asqarovalarning "Sitaksis" nomli kitobida so'z birikmalari mustaqil sintetik birlik sifatida talqin etilgan. Ularning nominativ funksiyasi, bu jihatdan so'zga yaqin turishi va turg'un birikmalardan farqi keltirilgan. Derivatsiyaning har qanday turi leksik, semantik, sintaktik tahlil etiladi va quyidagi terminlardan foydalaniladi. Bular **operator, operand va derivat** tushunchalardir.

1. Operator - sintaktik derivatsiyani vujudga keltiruvchi vosita - derivatsiyaning mutlaq hokim unsuri

2. Operand - sintaktik derivatsiyaning homoshiyosi - so'z birikmasi tarkibiy qismi

3. Derivat - sintaktik derivatsiya natijasi- hosila

"Kitobning varog'i" birikmasini olaylik.

Kitob va varoq - operand;

- ning - operator;

Kitobning varog'i - hosila (derivat)

Bu terminlar asosan otli so'z birikmalarida ishlatiladi.

Operator hosila sturuktursi tarkibiga tashqaridan keltiriladi va shu paytning o'zidan boshlab derivatsiyaning mutlaq hokim unsuri bo'lib qoladi. So'z birikmasining o'ziga xos yana bir jihati - morfema yoki fonema singari tilda tayyor holatda uchramaydi, shuning uchun ham u til birligi sanalmaydi. So'z birikmasi nutq birligidir. U nutqda shakllanadi. Kommunikativ jarayonning vujudga kelishida faol qatnashadi. Shu bois uni nutqda ajratib olib o'rganish maqsadga muvofiq emas.

Sintaktik derivatsiyaning mutlaq unsuri operator ham tobe komponent tarkibida keladi.

O'zbek tilida otli so'z birikmalarining turli modellari mavjud. Bular quyidagilardir:

Sifat + ot - yaxshi bola

Ot+ ot - temir qozon

Olmosh + ot - mana shu daftar

Son + ot - ikki kishi

Sifatdosh + ot - gullagan daraxt

Harakat nomi+ ot - o'qishning baxti

Ravish + ot - sekin tovush

Taqlid so'z + ot- taq-tuyaning ovozi

A. Nurmonov ta'kidlaganidek, so'zlar valentligi sintaktik munosabatlarning "skletini" tashkil qiladi. Operandlarning real munosabatida bo'sh o'rinlar to'ldiriladi. Ammo derivat shaklining kengayishi yangi derivation bosqichni taqazo etadi va buning natijasida operator ham yangilanadi.

Go'zal qiz (nul operatorli birikma)

Spitamen dahlar sardorining go'zal qizi Odatidani ko'rib ishqiy tushib qoldi.
(real operatorli derivat, operator - ning)

Soʻz birikmalari sintaktik derivatsiyasida derivatning birinchi unsuri funksiyaga koʻra ot kategoriyasidan sifat kategoriyasiga transpozitsiya qilinadi va sifat vazifasini bajaradi.

Bu yil Baxmalning bahori ham misli kutilmaydigan darajada goʻzal keldi.

Operator belgili va belgisiz ham qoʻllanilishi mumkin.

Bogʻ sahni - belgisiz

Baxmalning bahori - belgili

Derivat kengayishi tobe unsuri hisobiga ham boʻlishi mumkin. Har bir derivat kengayanda operator ham yangilanadi.

Xalqning faryodi - ning (operator)

Ezilgan nohaq xalqning faryodi - ning, - gan (operator)

Koʻmakchilar ham operator vazifasini bajaradi. Odatda koʻmakchining ot yoki otlashgan soʻzdan keyin kelib, uni feʻlga tobe qilib berishi taʻkidlanadi. Ammo koʻmakchi otni yoki otlashgan soʻzni tilidan nutqqa oʻtkazuvchi va uni funksiya bilan taʻminlovchi asosiy omil vazifasini bajaradi.

Maqsad uchun intilish- uchun (operator)

Soʻz birikmalarining komponentlari erkin tarizda munosabatga kirishadi. Shuning uchun soʻz birikmalari erkin sintaktik konstruksiyadir. Bir soʻz ikkinchi soʻz bilan soʻz birikmasi tashkil qilishda faqat oʻsha bogʻlanayotgan soʻzlarning qanday soʻz turkumiga mansubligi emas, balki ularning leksik maʼnolariga ham koʻp jihatdan bogʻliq. Har bir soʻz maʼlum semantik gruppaga bilan oʻsha gruppaga soʻzlar bilangina birikib soʻz birikmasi hosil qiladi.

Masalan: oʻqimoq feʻlini kitob, gazeta, jurnal soʻzlar bilan bogʻlanib soʻz birikmasi hosil qilishi mumkin, lekin semantik xususiyatiga yaqin boʻlmagan soʻzlar bilan birikmaydi. Oʻt, suv va shunga oʻxshash soʻzlar bilan birika olmaydi.

Soʻz birikmalari nominativ funksiyaga ega, yaʼni soʻz vazifasida qoʻllashimiz mumkin. Lekin bu soʻz birikmasining soʻz bilan teng deb qarash emas. Chunki soʻz birikmasi soʻzga qaraganda keng tushuncha. Har bir soʻz soʻz birikmasida alohida leksik maʼno ifodalaydi.

Uy – so‘z= yashash joyi- so‘z birikmasi

So‘z birikmasi gap tarkibida undalma ham bo‘lib kelishi mumkin.

Sharqqa nur beruvchi ey, O‘zbekiston

Ulug‘ oilada topding sharaf - shon! (T. To‘la)

So‘z birikmasi kiritma, atov gap ham bo‘lib keladi. M. K. Sharipov so‘z birikmalari asosi ham qo‘shma so‘z birikmalarikelib chiqqan deydi.

Son + ot = beshyog‘och – Beshyog‘och

Ravish + ot = tez yordam

A. Xojiyev aytganidek, bularda aniqlovchilik va aniqlanmishlik holatlari to‘liq saqlangan. Yana qizig‘i shundaki, so‘z birikmasiga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarni va sintaktik munosabatlarni saqlab qolgan qo‘shma so‘zlar ham uchraydi.

Qurbaqaning sallasi (o‘simlik nomi, Toshkent sheva)

Sintaktik birlik bo‘lgan so‘z birikmasi sintaktik aloqaga kirishib, tushuncha ifodalovchi birlik vujudga keladi. Sintaktik birlikning ikki tomoni bor bo‘lib, lisoniy va nutqiy jihat. So‘z birikmasining lisoniy sathga tegishli tomoni lisoniy sintaktik qolip (LSQ) dir. LSQ gisht qolipiga o‘xshaydi. Inson ongida ham so‘zlash nutqni shakillantirish maqsadida leksemalarni so‘z birikmasi shaklida keltirish qolipi mavjud. Ular LSQ, model, konstruksiya, qurilma deb nomlansa-da, bir tushunchani ifodalaydi. O‘zbek tilida so‘zlovchi kishi so‘z birikmasi tuzishga ehtiyoj sezar ekan, LSQ dan foydalanadi. Ularni lisoniy sintaktik qolipni yangi - yangi LSQ tuzishga til “qununchiligi” tomonidan yo‘l qo‘yilmaydi.

Biroq nutqiy so‘z birikmasi yaratish erkin. Qolip va nutqiy hodisaning farqi mavjud.

LSQ Nutqiy hosila

Umumiylik alohidalik

Mohiyathodisa

Imkoniyat voqealik

Sabab oqibat

Valentlik aslida ximiyaviy atama tilshunoslikda lisoniy birliklarining yuzaga chiqmagan birikuvchanlikbiriktiruvchanlik imkoniyati sifatida qaraluvchi lisoniy hodisaga nisbatan qo'llanadi. Lisoniy birlik ham ana shunday birikish- biriktirish imkoniyatiga ega. U ham lisoniy birliklarning o'zi bilan muayyan tiljamiyati a'zolari ongida yashaydi. Masalan, o'qi leksemasi kishi ongida bir nechta bo'sh o'rniga ega holda mavjud bo'ladi. Nutqda voqealanib, bir vaqtda o'ziga shuncha birikuvchini ham torta olishi mumkin.

Kim?

Nimani o'qidi?

Kimga?

Qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. V. Lamanosov. Rossiya grammatikasi. Moskva- 1757;
2. M. K. Sharipov. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalalari. Toshkent-1978;
3. M. Asqarova, H. Jamolxonov. O'zbek tili. Pedagogika bilim yurtlari uchun darslik. Toshkent-1976;
4. A. G'. G'ulomov, M. A. Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent-1987;
5. M. Chetin. Hozirgi o'zbek va turk tillarida so'z birikmalari sintaksis derivatsiyasi. Avtoreferati. Toshkent-2002;
6. A. Nurmonov. Sintagmatika. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent-1992;
7. R. Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent-2010;
8. J. Ro'zmat. O'zbek tili so'z birikmalarining XX asrdagi taraqqiyoti. Dissertatsiya. Nukus-2014.

ID-020-30-T005

Doston Ro'ziqulov

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs magistranti

KO'PLIK SHAKLIDA YASHIRINGAN MA'NOLAR XUSUSIDA

Annotatsiya. Bizning fikrimizcha, maqolada ko'plik qo'shimchasi qanday usullarda yasaladi va hozirgi kunda qaysilari faol ishlatiladi. Bu yasovchi -lar faqat ko'plikdan tashqari yana qanday yashirin ma'nolarni berishi va chet tilidan o'zlashgan ko'plikdagi so'zlarimizni biz qanday shaklda ishlatamiz birlikdami yo ko'plikdami degan savollarga tilshunos olimlarning fikrlarini ko'rib chiqqan holda o'z qarashlarimizni berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: *og'ayni, sevgi hurmati, tolib, ahvol, o'zlashma so'zlar, jamlilik, ko'plik, yashirin ma'nolar, fuqaro.*

Annotation. As we think, in this article, the scientific views, the linguists' opinions about great number and singular number. How derivated number, mastering words. This derivative -lar only great number meaning surveyed, we are explained, and how their unusage in is identified. This words are linguist scientists thought, myself give movement.

Key woeds: *friendship, love respect, student, posterity, plural number, secret word, citizen.*

Tilni ijtimoiy hodisa ekanligi ko'pchilikka sir emas. Til ham biologik jihatdan jonsiz deb qaralsada, lekin u jonli organizmlardek o'sadi, o'zgaradi va yo'qolishi mumkin. O'zbek tilida ko'plik va jamlilik degan tushunchalar bor. Ko'plik yasalish shaklini quydagicha ifodalash mumkin [1, 3-tom].

1. Morfologik ifodalanish: bolalar, aytingiz, aytdik, aytdilar.
2. Leksik ifodalanish: el, qo'shin, poda.
3. Sintaksistik ifodalanish: baland-baland tog'lar, dasta-dasta gul.

O'zbek tilida ko'plik qo'shimchasi asosan "lar" orqali ya'ni birinchi usuldan ko'p foydalaniladi. Bu uchala turdan sintaksistik ifodalanish qadimiyroqdir. "lar" asosan ot, kishilik olmoshlari va fe'llarga qo'shiladi. Ko'plik qo'shimchasi "lar" shaxs, narsa, harakatni ko'pligini bildirsada aniq miqdorni bildirmaydi. Masalan: gul- bitta gul, gullar- ko'p gul miqdori biz uchun noaniqdir.

Chet tillarga nazar solganimizda ularning grammatikasida ko'plik formasi qanday yasalishi va o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Biz hozir ko'plik shakli qo'shilganda o'zakka tasir qilish holatlariga to'xtalmoqchimiz. Ingliz va nemis tillarida esa o'zakda o'zgarish yuz beradigan holatlar bo'lib. Masalan: nemis tilida: das Museum- die Museen; das Zentrum- xona, die Zentren- xonalar. Ingliz tilida: man- odam (erkak), men – odamlar; goose – g'oz, geese – g'ozlar; mouse – sichqon, mice – sichqonlar, foot – oyoq, feet – oyoqlar, tooth- tish, teeth- tishlar kabi. O'zbek tilida ko'plik yasalganda o'zakka tasir qilmaydi [2, 76-bet]. Lekin o'zbek tili shevalarida uchrab turadi. "Biz" olmoshiga qo'shiluvchi **-ar** Toshkent shevasida **-a** formasida qo'llanadi. – Bugun **biza** unikiga boramiz.

-lar shevalararo ba'zan yo'q darajada o'zakka ta'sir etishi ham mumkin. "lar" qo'shimchasi -n bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu -n tovushi -l ga aylanadi (yoki qo'shimchani -l tovushi -n ga aylanadi). Nonlar – nolla (r), kunlar- kulla.

Rus tili va nemis tillarida son mosligi doim saqlangan bo'ladi. Yani ega kesim mosligi mos kelishi kerak. Masalan: Птицы поют, Die Vögel singen, bu kabi ikkinchi so'zlarini birlik formasida qo'llab bo'lmaydi. Biroq o'zbek tilida fikriy materialni o'zgartirmay turib, uni Qushlar sayradilar, Bolalarning kulgulari formasida ham, Qushlar sayradi, Bolalarning kulgusi formasida ham qo'llab bo'ladi. Bu so'zlarni har ikki formada qo'llasak-da, ko'plik mazmuni anglashilaberadi. Bu shuni ko'rsatadiki, u birikmalar har uch tilda mazmunan bir, biroq o'zbek tilida ikkinchi misollarda ko'plik ma'nosi shakllanmaydi, kontekstual anglashilgan. Bundan kelib chiqadiki, o'zbek tilida ko'plik ma'nosi

doim o'z ifodasiga ega bo'lmaydi. Bu tilda uning formal ifodasi juda ham qat'iy emas, fikriy tomondangina asoslanishi kuchli. Yani biror so'z (odatda kesim) orqali birlik ma'nosi ifodalansa, ko'plik ko'rinmasa, u forma faqat hurmat uchun qo'llangan bo'ladi – Buvimning bolalari ko'p (hurmat+ko'plik). Buvimning bolalari yo'q...bitta (faqat hurmat).

Yana bunday hollatlarni ham ko'rishimiz mumkin. Kesin son yo miqdor bildiruvchi so'z bilan ifodalanganda, ega birlikda keladi. Masalan: uning bolasi uchta. Puli ko'p deb, boy bolasin xushlamang.

Biz bilamizki, "lar"ning hurmat, vaqtga nisbatan, taxmin, joy va shuning atroflari, ma'no kuchaytirish, umumlashtirish, ish-harakatning uzoq davom etishi yo takrorlanishi, kulgi, mazax, masxara (Birilari mo'ltoninamo, hiylagar; birilaridur gov sifatu, govda xar) yakka predmetni anglatish, belgi ma'nosini aniq ifodalash uchun (Tabiat go'zalliklarini tamosha qildim, bu ish ma'nosi bilan bog'lanib, takror, ko'plik ma'osini ham beradi.), yaqinlari ma'nosi, ish harakatni vaqti-vaqti bilan takrorlash (Quyoshlari yong'in boshlab shunday boqarki...), o'ziga o'xshashlar, kabi bundan tashqari -lar ning hurmatdan boshqa bir ko'rinishi borki, u sevgi hurmatidir. Bunda hurmat "-lar" ni sevgilining istalgan narsasiga qo'shish bilan ifodalanadi. Bu hurmat ma'nosidan boshqachadir. Ul ko'zlari suzugim, ulardan aylansin tilla uzugim (folklordan). Dutor chalib o'qigan xolalaridan ukajon, chiroylik (folklordan). Mavj uradur, mavj uradur yorginamning so'zlari (folklordan). Va yo kamzullaringda la'lidin tugmalarining bordur (Muqumiy). Daryoning ul yuzida uylaringiz oqarib ko'rinadi bo'ylaringiz (folklordan). Yana ko'plikni takidlash (ikki ko'plik). – Bizlar, sizlar, ko'p odamlar. "-lar"ning yana boshqa ma'nolar anglatishdagi xizmatini ko'rish uchun. Masalan: devorlari mustahkam, eshigi ham bor edi (G'. G'ulom). Bunda "devorlar" har tarafdin bo'lganligidan, -lar olgandir; teks to'g'ri tutashgan bo'lganda "-lar" siz qo'llanar edi.

Kishini hurmatlashda -lar hech vaqt uning o'z ismiga qo'shilmaydi. Bunday bir qiziq holatni ko'ramiz: ega so'zlovchiga nisbatan oldingi nasl (qarindoshlik bo'yicha) nomi bo'lganda, birlikda ham ko'plikda ham kelaoladi.

(Dodam (dodamlar) aytdilar); keying nasl nomi bo'lsa, ko'plikda kelolmaydi (jiyan aytilar). Bu ko'plikni darajalanishini ko'satadi. (Kattaga ikki hurmat, kichikka bir hurmat).

Ayrim hollarda o'zbek tiliga o'zga tillardan kirib kelgan so'zlar borki, aslida ular ko'plikda turadi, lekin biz uni birlikda ishlatamiz yo unga ko'plik "lar" qo'shimchasini qo'shamiz. – Bori nozik panjalar oltin uzukdik zebinok. (Furqat). Bu misralarda "panja" (aslida forscha "panj – besh" so'zidan) olingan. U bu o'rinda o'z haqiqiy ma'nosidan chiqib, barmoq ma'nosida qo'llangandek ko'rinadi bizning fikrimizcha. Ko'plik ma'nosi shaxslarga qarab "lar" bilan "z" o'rni bilan qo'llanadi. Hurmat egasi III shaxs bilan ifodalansa "lar" bilan II shaxs bilan ifodalangan bo'lsa "z" bilan ifodalanadi. Har ikkisi ko'plik belgisi bo'lsa ham, o'rin bilan qo'llanishda farq qiladi. Buvimning ro'mollari boshlarida. – Buvi, ro'molingiz boshingizda. Ayrim o'zbekcha so'zlarimiz borki, ular birlashib yangi ma'no hosil qiladi. Ammo hosil bo'lgan so'z tarkibi ikkita so'zdan tarkib topgan bo'lsa ham unga ko'plik qo'shimchasini qo'shib ishlatamiz. Og'a va ini yani aka va uka. Ularni qo'shilishidan og'ayni- qarindosh urug', yaqin do'st ma'nosida. Bundan biz "og'aynilar" shaklida ishlatamiz.

Bugungi o'zbek tilida, arabcha so'zlarning ishlatilishi umuman oz bo'lgandek, ko'plik formasida kirganlari ham juda oz qo'llanadi. Quyida aslan ko'plik bo'lib, o'zbek tilida birlik bo'lib o'qilgan (ba'zangina ko'plik ma'nosida qo'llangan) arabcha so'zlarni ko'rib o'tamiz.

Olim- ulamo- olimlar. Nabiyo- anbiyo- anbiyolar. Fan- funun- fanlar. Hol – ahvol- ahvollar. Faqir- fuqaro- fuqarolar. Fikr – afkor – fikrlar. Valad – avlod – avlodlar. Taraf – atrof – atroflar. Haq – huquq – huquqlar. Xalq – xaloyiq – xalqlar, xaloyiqlar. Hayvon – hayvonot – hayvonlar. Shayx – mashoyix – shayxlar, mashoyixlar. Uzv – a'zo – a'zolar. Tolib – talaba – talabalar.

Bundan kelib chiqqan holatda, ko'plik shakli nimaga muhim va boshqa tillardagi ko'plik shakllardan qanday xususiyati bilan ajralib turadi, unda ko'plikdan tashqari yana qanday yashirin ma'nolari mujassam degan savollarga yechim topishga va o'z qarashlarimizni berishga harakat qildik. Bu

o‘zbek tilidagi ko‘plik qo‘shimchasi faqat hurmat, taxmin, ko‘plikdan tashqari boshqa ma‘nolarni ham yetkazib berish xususiyatlariga ega. Bundan tashqari, o‘zbek tilida ko‘plik yasovchi qo‘shimchalar qo‘shilganda asosdan, lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalardan keyin kelib adabiy tilda asosga tasir qilmagan holda qo‘shiladi. Chet tillarda ham asosdan keyin qo‘shilishini ko‘rishimiz mumkin. Ammo asosda ham o‘zgarishlar kutiladi. O‘zbek tilida esa faqat shevalarda kelganda asosda ayrim o‘zgarishlar kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. G‘ulomov. “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” 3-tom. – Toshkent: 2007.
2. M.T. Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”. // Yangi avlod, – Toshkent: 2009.
3. O‘zbek tili grammatikasi 1-tom, Morfologiyasi. // O‘zbekiston fan nashriyoti, – Toshkent: 1975.

ID-020-30-T006

Lobar Aralova

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

RUS TILINI BOYITGAN TURKIY TILLARGA BIR NAZAR

Anno tatsiya. Maqolada rus yerlarida yuzlab yillar davom etgan mo'g'ullar hukmronligi, Oltin O'rda davlatchiligi, Amir Temur saltanatining mo'g'ul xonliklari hududlariga ko'chishi natijasida rus tiliga kirib kelgan turkiy so'zlar ilmiy manbalar asosida izohlangan. Shuningdek, rus tiliga o'zlashgan so'zlarning tarixiy ildizlari, ulardagi fonetik, leksik, semantik o'zgarishlar borasida so'z boradi. Turkizmlar mavzuviy guruhlariga ajratiladi. Asosan, oziq-ovqat nomlari va ichimlik nomlarining qaysi davrda o'zlashganligi, ba'zi so'zlarning etimologiyasi ko'rsatiladi. Qiyosiy, qiyosiy-tarixiy va chog'ishtiruv kabi tilshunoslikning bir qator metodlaridan unumli foydalangan holda qardosh xalqlarda mavjud bo'lgan leksemalarga tayanib har bir misol izohlab beriladi.

Kalit so'zlar: *turkiy so'zlar, mavzuviy guruhlar, oziq-ovqat nomlari, ichimlik nomlari, jug'rot, cheburek, kurdyuk, chixir/chifir*

Annotation. In this article, Turkic words that entered the Russian language were interpreted on the basis of scientific sources as a result of hundreds of years of Mogul role in Russia, the Golden Horde statehood, the migration of Amir Temur's kingdom to the territory of the Mogul khanates. The historical roots of the words assimilated into the Russian language, the phonetic, lexical, semantic changes in them are given. Turkic words are separated into thematic groups. Basically, the etymology of some words is indicated in which period the names of food and beverages were assimilated. Each example is explained based on the lexions available in the fraternal peoples, effectively using a number of linguistic methods, such as comparative, comparative-historical.

Key words: *turkic words, tematic group, food name, drinks name, yogurt, cheburek, fanny, wine*

Til lugʻat tarkibining rivoji maʼlum qonuniyatlarga asoslanadi. Lugʻat tarkibida muayyan tarixiy davrlar oʻtishi bilan oʻziga xos maʼlum oʻzgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday oʻzgarishlar baʼzi ichki qonuniyat, tashqi kuchlar taʼsirida, obyektiv ravishda yuz beradi. Rus xalqi ham oʻzining uzoq oʻtmishi mobaynida turli xil davlatlar va millatlar bilan aloqada boʻlgan. Bu kabi aloqalarning asosiy omili siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarda namoyon boʻladi. Rus xalqining turkiy tilda soʻzlashadigan xalqlar bilan koʻp asrlik munosabati, albatta, rus leksikoniga ham taʼsir qilmay qolmaydi. Davrlar oʻtib bu hodisa ilmiy izlanishlarning oʻrganish obyektiga aylanadi. Rus xalqining leksik qatlamiga singib ketgan turkiy soʻzlar borasida Rossiya, Qozogʻistonda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan [8]. Jumladan, Goʻzal Karimullina tomonidan XVIII-XX asrdagi izohli lugʻatlarda qoʻllanilgan turkiy oʻzlashmalar fonetik, semantik, etimologik va mavzuviy jihatdan oʻrganildi [9]. Sergey Averkiyev tomonidan qardosh xalqlarimizdan rus leksikoniga oʻtgan musiqa va cholgʻu asboblari tadqiq qilingan [10]. Shipova esa 2000 ta turkiy soʻzdan iborat boʻlgan lugʻat yaratgan [11].

Tillarning oʻzaro taʼsiri va tilning tarixiy rivojlanishida mavjud boʻlgan soʻzlarning evolutsiyasini oʻrganish tilshunoslikning eng muhim, keng qamrovli muammolaridan biri sanaladi. Tilshunoslik ilmida oʻzga tillardan turkiy tillarga kirib kelgan soʻzlar borasida tadqiqot ishlari mavjud. Ammo, aynan turk tilining rus tiliga taʼsiri borasidagi ilmiy izlanishlarni Baxtiyor Abdushukurov va Toʻlqin Togʻayevning maqolalarida koʻrishimiz mumkin [7].

Rus tiliga oʻzlashgan turkizmlarni oʻrganishimiz natijasida soʻzlarni quyidagi mavzuviy guruhlariga boʻlib oldik.

Antroponimlar: *Mustafin, Pirogov, Murzich, Tyufyakov, Baskakov, Kochenivskiy, Arakov, Surin, Readov, Bektabegov, Dolomanov, Biryukov*

Toponim: *oʻrda, yurt, lachuga, tyurma, ambar, baxcha, cherdak*

Teonimlar: *namaz, muftiy, Ramazon, uroza, Kurban-iyd*

Moliya va tijorat terminlari: *dengi, tovar, tamgʻa, gazna, kabala*

Harbiy leksika: *yesaul, katorga, yanichar*

Kiyim-kechak nomlari: *kaftan, shtan, shalvari, bashmak, charik, kabluk, fata, fartuk, tulup, sarafan, kolpak, chaban/chobon*

Oziq-ovqat va ichimlik nomlari: *chag'ir, cheburek, qumis, chixir, plov, yogurt, shurpa, churek, kurdyuk, shashlik, kolbasa, braga, bo'za, lapsha, kavardak*

Fitonimlar:

a) Poliz ekinlari: *arbuz, karpuz, kabak, reven*

b) Mevalar: *ayva, armut, uryuk, uzyum*

c) Daraxtlar nomi: *kayragach, tut*

d) O'simlik nomlari: *tabalgi, karakul, baklajan*

Zoonimlar: *karagu, berkut, biryuk, karga, loshad, sobaka, tarakan*

Uy-ro'zg'or buyumlari: *stakan bardak, utyuk, najdak, balda/baldu, sunduk*

Matolar nomi: *alacha, atlas, byaz, tesma*

Musiqa asboblari nomi: *baraban, tanbur, kobza, nagara/nagra, litavr, surna/zuna, nabat*

Xususiyat bildiruvchi sifatlar: *batir, bagatir, chaliy*

Biz quyida rus leksikonida mavjud bo'lgan oziq-ovqat va ichimlik nomlarini bildiruvchi bir qator turkiy so'zlarni izohlashga harakat qildik. Tahlilga tortilgan ba'zi so'zlar asosan rus shevalarida qo'llaniladigan so'zlar bo'lib, tahlil jarayonida izohlash qiyosiy aspektida olib borildi, ularning fonetik variantdoshlari ham hisobga olindi.

Churek. XIX asrda turkiy xalqlardan ma'lum bir fonetik o'zgarishlar asosida o'zlashgan ushbu so'z O'rta Osiyo va Kavkaz xalqlarining to'rtburchak shaklli taram-taram milliy noni hisoblanadi. Turk, ozarbayjon, qrim-tatar tillaridagi "čöräk" – "oshirilmagan non, patir" ma'nolarni anglatadi [Radlov 3, 2040]. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida "čöräk" – "kulcha", ya'ni kichik non ma'nosida ishlatilgan [DLT, I, 369].

Cheburek. Rus va fransuz tillaridan turkiy tillarga kirib kelgan, deb talqin qilingan bu so'z, aksincha, turkiy tillardan rus tiliga o'zlashgan so'z bo'lib chiqdi. Bu so'zni etimologiyasiga e'tiborimizni qaratamiz. Tatar millatida börek

– bürök so‘zi “qoplamoq, ustini yopmoq” ma’nosini beruvchi “bör – bür” so‘ziga harakatning natijasini bildiruvchi –aq//–ek qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan bo‘lib, “toblamoq” ma’nosini beradi [Budagov. I, 277]] Qardosh turkiy tillarda, jumladan, no‘g‘ay, qrim-tatar, qoraqalpoq tillarida bür so‘zi “qat-qat burma, achitilgan xamir” ma’nosida qo‘llanilgan. Qrim-tatar tilida čij “yog‘li go‘sh” + bürök < čij bürök, ya’ni “yog‘li go‘shni xamirga o‘rab pishirmoq” sememasini bildiruvchi leksema vujudga keldi. Bu esa rus tiliga “cheburek” shaklida XIX asrda o‘zlashdi.

Kurdyuk. Shipova 2000 ta turkiy so‘zni o‘z ichiga qamrab olgan kitobida Dal, Korsh, Melioranskiyning fikrlariga tayanib, bu so‘zni turkiy tildan o‘zlashganligini aytadi. Dmitriyev organizmdan ajralib chiqqan qo‘y dumbasidagi quyruqni qardosh turkiy xalqlarda hozirda faol qo‘llanilayotgan fonetik variantdoshlarini ko‘rsatadi. Jumladan, turkman, tatar, qirg‘iz tillarida “quyruq”, mongollarda “xu/duruk” shaklida qo‘llangan [Dmitriyev, 1958, 28]

“*Shashlik*” - Markaziy Osiyo xalqlarining, avvalo, ko‘chmanchi aholining bu taomi shu nom bilan ruschaga o‘zlashgan. Odatda u qo‘y go‘shidan metall yoki yog‘och shish — sixda pishirilgan. “Shashlik” kabob pishirishda ishlatiladigan temir ma’nosidagi shish so‘zidan kelib chiqqan. “Devoni lug‘atit turk”da sish shaklida qayd etilgan. Bu so‘z Lutfiyda shish, Navoiyda esa hozirgi kundagidek six shakllarida qo‘llangan:

Andoq so‘rung begimki, ne shish kuysa, ne kabob,

Ul g‘amzaning so‘ziyu, ko‘ngul sharhi holini. (Lutfiy)

Bazmning asbobini qilg‘il nasaq,

Hozir etub sixu, kabobu tabaq. (Navoiy)

Navoiy asarlari tilida “shish” so‘zidan “shishlamoq” fe‘li yasalganini ko‘rishimiz mumkin:

Garchi ishq o‘tida ko‘nglumni o‘qungg‘a shishlading,

Garm bo‘lmakim, hanuz ne six kuymish, ne kabob. (Navoiy)

Turk qardoshlarimizning mana bu maqoli yuqorida alloma shoirlarimiz mahorati bilan she'riy shaklga kirgan o'zimizning o'zbekona "Six ham kuymasin, kabob ham" maqoliga g'oyat uyg'un bo'lishi bilan ushbu xalq donishmandligi namunasining ham, shish so'zining ham turkiy xalqlar uchun qadimiy va xosligini ko'rsatadi: "*Hem shish yag'lanmali, hem kebab pishmeli*" [7].

Bugungi kunda tilimizda faol bo'lgan "suzma", "qaymoq", "qatiq", "qimiz", "qurut", "qatlama", "qazi", "yogurt" kabi so'zlar "Devonu lug'atit turk" da, tilimizning keyingi bosqichi bo'lgan eski o'zbek tilida, ayniqsa, Alisher Navoiy asarlarida deyarli o'zgarmasdan uchraydi. Bular allaqachon rus tili lug'at tarkibini boyitgan. Faqat yogurt sal boshqacharoq bo'lgan.

Yogurt — Navoiyda jug'rot shaklida uchraydi. Bu so'z lug'atda "qatiq" deb izohlangan. Buning misoli "Saddi Iskandariy" dan:

Ani uyga kelturdi tortib inon,

Ravon mohazar chekti jug'rotu non.

Mazmuni: uni uyga keltirib, oldiga tayyor turgan jug'rot va nonni qo'ydi. Jug'rot hozir boshqa turkiy tillarda, xususan, tatar tilida ishlatiladigan "yug'urt" so'zining Navoiy davridagi shakli. Bu so'zning "yog'rut" fonetik shakli "Qutadg'u bilig" da ishlatilgan: qimiz, sut ya yun yag' ya yog'rut qurut (qimiz, sut yoki jun, yog' yoki qatiq, qurut). Yogurt turkiy tillardan rus tiliga o'zlashib, hozir shu shaklda faol qo'llanmoqda. Hatto ingliz tiliga ham o'tib ulgurgan [7].

Chixir/Chifir. Eski turkiy tilda faol qo'llangan ushbu so'z dastlab "Devoni lug'atit turk" asarida uchraydi: čayir – sharbat. Alisher Navoiy asarlarida esa "chog'ir" shaklida ishlatilgan.

Qaddi havosida labiddin rohat istaram,

Ichsam kerak mudom chog'iri mu'tadil bila ["Xazoyinul-maoniy", I-550; ANATIL, IV, 467].

Bobur she'riyatida ham xuddi shu tarzda qo'llanilgan: "*Firoq o'tida ovunsam chog'ir bila ne ajab...*" [O'TUL].

Hamid Olimjon o'z ijodida "chog'ir"ni "qirmiz sharob" deya izohlaydi: "*Uy egasi peshvoz bo'lib, chog'ir – qirmiz sharob tutadi*" (O'TUL).

Kumis. Mo'g'ullar davridan oldin rus tiliga turkiy xalqlardan o'tgan ushbu so'z "qimiz" shaklida "Devoni lug'atit turk" asarida keladi. Mahmud Koshg'ariy qimiz yilqi suti bo'lib, uni sanoch-meshlarga solib achitib ichilishini aytgan [DLT, I, 346]. Shuningdek, qadimgi turkiy tilda qo'llaniluvchi bu ot asli "chayqal, to'lqinlan" ma'nosini anglatgan qum-fe'lidan [Devon, II, 35] -(u)z qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan: qum+uz=qumuz [O'TIL, I, 547]. "O'zbek tilining universal lug'ati"da bu so'zga quyidagicha ta'rif berilgan: "biya sutidan maxsus idishlarda bijg'itish yo'li bilan tayyorlanadigan, yengil kayf beruvchi, shifobaxsh ichimlik" [O'TIL, V, 292]. O'zbek adiblaridan biri Oybek ham uning shifobaxsh ekanligini aytib o'tadi: *Dala havosi, qimiz, ko'kalamzor – dardimga naq davo* [O'TIL].

"Korsondagi qimiz tugab, sho'rva ham ichildi" ("O'tgan kunlar" asaridan).

Alisher Navoiyda ham xuddi shu shaklda kelgan: *Va qimizni va suzmani va boxsumni va bo'zani dag'i turkcha ayturlar* ["Muhokamatul-lug'atayn", XIV-115; ANATIL, IV, 52].

Kurt/kurut. Suzmani yong'oqdek yumaloqlab, 2-3 kun oftobga qo'yib qurutib tayyorlanadigan mahsulot [O'TIL, V, 385]. Buni pishloq ham deyiladi. Bu qurutilgan qatiq demakdir [12, 16-bet]. Ya'ni alinmish sütün ya da ayrandan yapılan kuru peynir; çökelek [13, 454-bet]. Bu ot "suvi, nami qochib, quruq holatga kel-" ma'nosini anglatuvchi qurī- fe'lidan -t qo'shimchasi bilan yasalgan [O'TIL, II, 578].

Zamonaviy tilshunoslikning hozirgi kundagi dolzarb masalaridan biri leksikografiya – lug'atchilik hisoblanar ekan, biz to'plagan materiallar yangi bir lug'atni yaratishga imkon beradi. Shuningdek, yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar sifatida noto'g'ri talqin qilinib kelinayotgan asli turkiy so'zlar aniqlangandan so'ng, bu so'zlar o'zbek tilining izohli lug'atidagi so'zlar sonining boyishiga asos bo'la oladi. Tahlil qilingan so'zlarni jamlab, mavzuviy-tematik lug'atlarni tuzish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdiraimov Sh. O'zbek tilining universal lug'ati(imlo, izohli lug'at). 2019
2. Abdurahmonov G., To'xliyev B., Rustamov A., Dadaboyev H. Qutadgu bilig. I, II, III, IV, V jildlar. – Toshkent: Jahon print, 2011.
3. Abdushukurov B. "Qissasi Rabg'uziy" leksikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2008.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. (IV jild). – Fan, 1985.
5. Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'otut – turk. (I, II jildlar). – Toshkent, 1963.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. (III, IV jild). – Toshkent.
7. Tog'ayev T. "Tovarish" o'zbekcha so'zmi yoki ruscha? – <https://uwed.uz>
8. Юналеева Р.А. Тюркизмы в русском языке: (На материале названий одежды): автореф. дис. д-ра филол. Наук. –М., 1984. Юналеева Р.А. Тюркизмы в системе заимствований русского языка/ Юналеева Р.А. // Сов. Тюркология. –Баку, 1987. Асланов Г.Н. Заимствования из азербайджанского языка в русском островном говоре: Дис. канд. филол. наук. –Баку,1967. Баскаков Н.А. Русские фамилии тюрского происхождения. –М : Наука,1979. Гиунашвили ДЖ.Ш. О происхождении слова "стакан"// Иранское языкознание. История. Этимология. Типология. –М.: Наука, 1976. Добромодов И.Г. О некоторых русских словах, заимствованных из греческого языка через тюрское посредство // Лексикология и словообразование древнерусского языка. –М.: Наука, 1966. Журавский А.И. Лексика тюрского происхождения в старобелорусском языке // Тюркизмы 1974. Кубанова Л.А. Тюркизмы в диалектной лексике русского языка (по Толковому словарю живого великорусского языка В.И.Даля): Дис. канд. филол. наук. –Пятигорск,1967.
9. Каримуллина Г.Н. Тюрские лексические элементы в русской лингвографии XVIII-XX веков. Дис. канд. филол. наук. –Казан,2007.
10. Аверкиев С. Балалайка, набат и барабан: как тюрки познакомили Русь с музыкальными инструментами. – <https://m.realnoevremya.ru>
11. Шипова Е.Н. Словарь тюркизмов в русском языке. –Алма-Ата, 1976.
12. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия [туркий тил (қипчоқ тили) ҳақида ноёб туҳфа] [Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов]. –Т.: Ўзбекистон, 1968.
13. Kâşgarlı Mahmûd. Divânü lugâti't-Türk. –Istanbul, 2005.

ID-020-30-T007

Madina Jo'raqulova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

ASSOTSIIATIV BIRLIKLARNING GENDER XOSLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada til birliklarining assotsiativ aloqasi haqida fikr yuritilib, individual assotsiativlarning genderologik xususiyatlari misollarni tahlil qilish orqali yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: *assotsiativ birliklar, assotsiativ aloqa, assotsiativ maydon, leksik assotsiativ, individual assotsiativ, genderlekt.*

Annotation. This article deals with the associative relations of units and gender examples of individual associations are studied using examples.

Key words: *associative units, associative relation, associative field, lexical association, individual association, genderlect.*

Tashqi olam inson ongida bir-biri bilan aloqador turli obyektlar, voqea-hodisalar hamrohligida aks etgani bois ular assotsiativ tarzda biri ikkinchisini yodga tushiradi. Nafaqat tashqi olamdagi obyektlar, balki insonning birgalikda va bir vaqtda boshidan kechirgan turli kechinmalari ham *aloqadorlik* tamoyili asosida bir-birini eslatib turadi. M.Vettler va R.Rappning qayd etishicha, "bir vaqtlar birgalikda his qilingan obyektlar qoidaga ko'ra xayolan bir-biriga bog'liq obyektlarga aylanadi. Shu bois ulardan biri haqidagi o'y, tabiiyki, boshqasi haqida ham avvalgidek birin-ketinlik yoki birga mavjud bo'lishlik tartibida o'y surishga olib keladi". [8] Bu jihatdan qaraganda, ongda aks etgan assotsiativ aloqalarning tilda ham ifoda topishi bejiz emas.

O'zbek tilida leksik birliklarning assotsiativ bog'lanishi, assotsiatsiyalarning xususiyatlari muammosiga munosabat bildirilgan ishlarni istisno etganda, bugungi kunda o'zbek tilida leksik assotsiatsiyalarning hosil bo'lish mexanizmlari, verbal assotsiatsiyalarning til egalarining mentaliteti, milliy-madaniy qarashlari bilan bog'lanishi, gender belgisi, ijtimoiylik xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiqi, o'zbek tili materiallari asosida assotsiativ lug'atlarni yaratish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Biz mazkur maqolada verbal assotsiatsiyalarning til egalarining gender belgisi nuqtayi nazaridan tadqiqi masalasiga to'xtalamiz.

XX asr boshlarida dunyo tilshunosligida til va nutq tadqiqiga qiziqish boshlandi. Jumladan, Amerikalik antropolog-tilshunos E.Sapir, daniyalik tilshunos O.Jespersen tadqiqotlarida [1,6] nutqning struktur xususiyatlari, xususan, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik qurilishi borasida qiziqarli fikrlar keltirilgan. Keyinchalik, XX asrning 60-70- yillariga kelib, bu tadqiqotlar jinslar nutqidagi o'zaro tafovutlarning ochilishi va o'rganilishiga turtki bo'ldi. [3,5] Ammo, XXI asr ilm-fanida genderolingvistik izlanishlar natijasida ayol va erkaklar nutqi – genderlektdagi farqli jihatlar qayta talqin qilina boshlandi. [7]

Amerika va Yevropa tilshunoslari tomonidan tadqiq qilingan genderolingvistik nazariyalar ko'p o'tmay rus tilshunosligida ham katta qiziqish bilan o'rganildi hamda rus tili asosidagi gender tadqiqotlari davri boshlandi. [9]

Bugungi kunda rus tilshunosligida mustaqil fan sohasi-gender tilshunosligining mustaqil shakllanish jarayoni kuzatilmoqda va zamonaviy gender tadqiqotlari rivojiga juda katta hissa qo'shib kelmoqda. Til va kommunikatsiyani gender tadqiqotlari nuqtayi nazaridan o'rganish va tahlil qilishda yangicha yondashuvlarning vujudga kelishi bundan dalolat beradi. Gender kategoriyasi va unga bog'liq bo'lgan jins va til tushunchalarining yangi nuqtayi nazarining vujudga kelishi natijasida tilshunoslik fani tilda jins muammolarini tadqiq etish yo'nalishlari va konsepsiyalarini o'rganishga yangi yo'l ochib berdi.

Yuqorida ta'kidlangan ilmiy ishlarda erkak va ayollar nutqining qator farqli xususiyatlari og'zaki va yozma nutq misolida aniq ifodalangan. Jumladan, ayollar nutqiga xos diskursiv qurilmalarning uzundan-uzun, erkaklarniki esa qisqaroq qoliplarda tuzilishi; ayollar nutqidagi sintaktik qurilishda gap bo'laklarining o'zgargan tartibi (inversiya) va erkaklarnikida odatdagi tartib amal qilishi; ayollar nutqi emotsionalligi, hissiy bo'yoqdorligi, undovlardan ko'p foydalanilganligi jihatidan erkaklarnikidan farq qilishi; variativlikning ayollar nutqida ko'p uchrashi, sinonimlarni erkaklarga nisbatan ko'p qo'llashi; umuman, ayollarning so'z qo'llashda erkaklardan ustunligi; ayollar nutqining maqsadsiz va aksincha, erkaklar nutqining maqsadli yo'naltirilishi; ayollar nutqida unlilarning cho'ziqroq talaffuzi va erkaklarda odatiy qisqa talaffuz qilinishi kabi qator differensialliklar misollar yordamida ochib berilgan.

O'zbek tilshunosligida bunday qarashlar XX asrning 90-yillariga kelib shakllana boshladi. Ilk tadqiqotlar davrida ayollar nutqiga xos ba'zi lingvistik jihatlar ochib berilgan, ammo ularda erkak va ayollar nutqining differensial xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida olinmagan, shuningdek, *gender* termini umuman qo'llanilmagan. Shu bois, masalaga erkak va ayollar nutqining o'zbek tili ichki qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda yondashish zamonaviy o'zbek tilshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'zbek tilida assotsiativ birliklarning gender o'ziga xosliklarini ochib berish o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biridir.

Gender tilshunosligi quyidagi muammolar guruhini har xil nuqtayi nazardan o'rganadi:

1. Til va unda jinsning ifodasi: nominativ tizim, leksikon, sintaksis, rod kategoriyasi va qator o'xshash obyektlar. Bunday yondashishning maqsadi turli xil jinsdagi shaxslarning tilda qanday namoyish etilishi, erkak va ayollarga beriladigan baholar va ularni qaysi semantik sharoitlarda yanada yorqin ifodalanganligini tasvirlash va tushuntirishdan iborat. Bu bir til yoki bir necha tillar bo'yicha chog'ishtirma tadqiqotlar bo'lishi mumkin.

2. Kommunikatsiyada yutuqqa erishish usullari, leksik birliklarning gender spetsifikasiga asoslangan holda qo'llanilishi, erkak va ayollarning nutqlarida ajraladigan o'ziga xos strategiya va usullar, ya'ni erkak va ayol nutqining spetsifik xususiyatlari. Bu o'rinda bir qancha konseptual yondashishlarni ajratib ko'rsatish mumkin, bular, avvalambor, ijtimoiy-madaniy determinizm va biodeterminizm nazariyalari.

XX asrning 60-yillari oxiri va 70-yil boshlarida gender tadqiqotlariga bo'lgan munosabat butkul yangicha tus oldi. Aynan shu davrda til va jins munosabatlarini tadqiq etish metodlarining farqlanishiga ko'ra, bir necha tilshunoslik yo'nalishlari shakllandi. Shulardan biri jinsni psixolingvistik, assotsiativ yondashuv nuqtayi nazaridan o'rganishdir. Kognitiv tilshunoslik psixolingvistika bilan chambarchas bog'liq, deyish mumkin. Chunki "psixolingvistika fan sifatida lingvistik gipotezalarni psixologik jihatdan asoslasa (yoki boshqacha aytganda, psixologik metodologiyaning tilshunoslik nazariyasiga tadbiiq etilishi), kognitiv tilshunoslik esa psixologik gipotezalarni lingvistik (realligini aniqlab) isbotlaydi". [9. 43-bet.]

N.Hoshimovning "Прагматические аспекты при исследовании ассоциаций" deb nomlangan maqolasida assotsiatsiyalarning individuallik xususiyatlari va ularni aniqlashga pragmatik yondashuv masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotchi individual assotsiatsiyalarni yuzaga keltiruvchi tashqi va ichki omillar haqida fikr yuritgan. Uning qayd etishicha, tashqi omillarga til egalarining millati, yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, kasbi kabi omillar kiradi. Shuningdek, voqelikning har bir inson tomonidan turlicha idrok etilishi, so'z bilan bog'liq holda orttirilgan bilim, insonning reprezentativ tizimi, so'z ma'nosi va u haqida insonda shakllangan tushuncha kabi ichki omillar ham individual assotsiatsiyalarning hosil bo'lishiga olib keladi. [12. 10-bet] Albatta, assotsiativ maydonda o'ziga xos individual assotsiatsiyalar ham uchraydi. Bunday assotsiatsiyalar nafaqat turli tillarda, balki bir til doirasida ham bir-biridan farq qiladi. Individual assotsiatsiyalarni o'zbek tili materiallari asosida

milliy-madaniy, gender, ijtimoiylik va boshqa omillar bilan bog'liq tarzda tadqiq etish dolzarb muammolardan biridir.

Tildagi gender markerli leksik birliklar aynan shunday belgiga ega leksik birliklar bilan assotsiativ bog'lanishlarni hosil qiladi. Masalan, *ayol* leksemasi *xotin* leksemasi bilan yoki *erkak* leksemasi bir vaqtda *er* leksemasi bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Bu holat leksik birliklarning semantik belgisi bilan birga gender xususiyati asosida ham inson tafakkurida guruhlarga birlashuvini ko'rsatadi [10. 49-50-bet].

Shunisi xarakterliki, gender belgisiga ko'ra o'zaro zidlanuvchi leksik birliklar ham assotsiativ munosabatga kirishadi. Masalan, *yigit* leksemasi *qiz* leksemasi bilan, *chol* leksemasi *kampir* leksemasi bilan gender belgisiga ko'ra zidlanadi. Bu zidlik ayni leksik birliklarning bir-birini xotirada tiklashiga yo'l ochadi. Nutqimizda tez-tez uchrab turuvchi "*Er-u xotin – qo'sh ho'kiz*", "*Erni er qiladigan ham xotin, qora yer qiladigan ham xotin*" maqollarini *er*, *xotin* leksemalarining assotsiatsiyasi sifatida baholash mumkin. Individual assotsiatsiyalarni o'zbek tili materiallari asosida milliy-madaniy, gender, ijtimoiylik va boshqa omillar bilan bog'liq tarzda tadqiq etish dolzarb muammolardan biridir. Shu sababdan biz individual assotsiatsiyalarning genderologik xususiyatlari badiiy matn asosida tahlil qilishga harakat qildik.

Quyidagi nutqlarni taqqoslaylik:

Eng aqlli jonivor

Dunyoda eng aqlli jonivor – baliq! Birinchidan, soqov! Ikkinchidan, muttasil dumini likillatadi! (E. Vohidov)

1-individual assotsiatsiya. *Shunday beozor jonivorning ham ayblari anchagina ekan-ku! Agar u mulozim bo'lsa u-u-z-oo-qqa boradi. Ne-ne hukmdorlar kelib ketishi mumkin, lekin u o'zgarmaydi. Darvoqe, bunday tabiatli "jonivor"lar aksariyat hukmdorlarga yoqqan.*

2-individual assotsiatsiya. *Har bir odamning boshiga balo o'z tilidan keladi. Doimo samimiy bo'lish esa kutilmagan balodan saqlaydi.*

Ushbu individual assotsiatsiyalar bir matnning ikki xil bayonidir. Ikkinchi nutq erkak kishi jinsiga oid bo'lib, qisqaligi bilan farqlanadi va ijobiylik ma'nosiga ega. Ya'ni *soqovlik* ko'p holatlarda foyda keltirilishi ta'kidlanadi, hatto salbiy ma'noga ega bo'lgan *likillatadi* so'zi ham ijobiy bo'lgan samimiylik bilan izohlanadi. Birinchi nutq ayol jinsiga mansub bo'lib, unda *likillatadi* so'zi kommunikativ mazmunning salbiy ma'noga ega ekanligiga asoslanadi. Demak, nutqda yashiringan informativ mazmun quyidagicha: *baliqning soqovligi, umuman hech narsaga e'tiroz bildirmasligini, muttasil dumini likillatishi xushomadgo'yligini* bildiradi. Demak, eng aqlli degan ta'rif ham majoziy ma'noga ega.

Ma'lumki, tildagi ma'noli birliklar semantikasi, tabiiy ravishda, yondosh ma'nolar (yaqin, zid, o'xshash ma'nolar) orqali ochib beriladi. Masalan, *oq* leksemasining ma'nosiga *qora* leksemasining ma'nosi asosida aniqlik kiritiladi. Bu jarayonda til birligining assotsiativ ma'nosi muhim o'rin tutadi. Leksemaning assotsiativ ma'nosi leksik ma'no kabi so'z orqali reallashadi, biroq leksik ma'no leksemada o'z ifodasini topsa, assotsiativ ma'no til egalari lisoniy ongida muayyan leksik birlik bilan bog'liq tarzda shakllanadi. Assotsiativ ma'no leksemaning nafaqat semantik jihati, grammatik shakli, intonatsion xususiyati, so'z yasalish strukturasi, uslubiy, dialektal belgisi kabi lingvistik omillar, balki ekstralingvistik omillar asosida ham hosil bo'ladi.

A. Zalevskayaning fikricha, assotsiativ ma'no tushunchasi o'ziga xos ichki strukturani, insonda nutq va tafakkur orqali o'rnashuvchi aloqa va munosabatlarning tub modellarini aniqlash jarayonida shakllanadi, "kognitiv tuzilma"lar asosida assotsiativ ma'no tushunchasi yotadi va uni faqat so'zlarning assotsiativ aloqasi tahlili orqali aniqlash mumkin bo'ladi [11. 25-bet]

Stimul so'z (eshitilishi yoki o'qilishi bilan xotirada boshqa birliklarning yodga tushishiga turtki beruvchi so'z) + javob reaksiyasi (eshitilgan yoki o'qilgan so'zga javob reaksiyasi sifatida inson xotirasida gavdalanadigan birlik,

assotsiat) modelidagi assotsiativ struktura muayyan vaziyat ifodasi uchun xizmat qila oladi.

Ushbu badiiy matnning stimul so'zi ikkita: *soqov, likillatadi*. Yana bir necha individual assotsiatsiyalarini ko'rib chiqaylik.

1. *Dunyoda jonivorlarning juda ko'p turi mavjud. Bular orasida baliq juda bebaho jonivor. Uning zarari yo'q. U odamga qandaydir ruh bag'ishlaydi, charchog'ini chiqaradi.*

2. *Soqovligi uchun kerakli, keraksiz joyda noo'rin gapirib qo'ymaydi, bekorchi safsatalar sotmaydi. Dumini muttasil likillatishi serharakat va mehnatkash ekanligi, bundan tashqari sezgir, serg'ayratligi nazarda tutiladi.*

3. *Har doim gap qaytarmay "xo'p" deydi, doimo o'zidan ustun bo'lgan insonlar xizmatida shay turuvchi inson deb atash mumkin. Bunday insonlarni har doim ham ijobiy baholash mumkinmi?*

4. *Baliqning soqovligi aqlli insonlarning kam gap bo'lishi kerakligini (ilmi chuqur bo'lgan inson kam gapiradi, u ko'p tinglaydi), muttasil dumini harakatga keltirishi aqlli insonlarning doimo mehnat bilan shug'ullanishini (qalbing Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin) bildiradi.*

Yuqoridagi misollardan faqat to'rtinchi individual assotsiatsiya erkak jinsiga mansubdir.

Ushbu badiiy matnning to'qqiz xil individual assotsiatsiyasini (to'rtta erkak va beshta ayol kishi) tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

Jins	1-stimul so'z (<i>Baliqning soqovligi</i>)		2-stimul so'z (<i>Muttasil dumini likillatishi</i>)	
	Ijobiy	Salbiy	Ijobiy	Salbiy
Erkak	4	0	4	0
Ayol	3	2	2	3

Jadvaldan ko'rinadiki, erkak kishilar 100% ijobiy fikr bildirganlar. Besh ayolning ikkitasi har ikkala belgini ham salbiy ko'rinishga ega ekanligi, bittasi esa "*baliqning soqovligi*" ni ijobiy, "*muttasil dumini likillatishi*" salbiy belgi

ekanligini ta'kidlagan. Ayollarning nutqida erkaklarnikiga qaraganda salbiylikka yon bosish ko'proq uchrashining guvohi bo'ldik.

Xulosa qilib aytganda, individual assotsiatsiyaning genderologik xususiyatlari mavjud bo'lib, bular ijtimoiy, milliy, biologik-fiziologik ko'rsatkichlar bo'lib, ular milliy mentalitetga, ular yashayotgan davrga, jamiyatga chambarchas bog'liqdir. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, erkaklar nutqi ayollarnikidan qisqa tuzilishga ega, aksincha, ayol nutqi erkaknikiga nisbatan uzundan-uzoq shaklda namoyon bo'ladi; ayolning so'z qo'llash bilan bog'liq miqdoriy ko'rsatkichi erkaklarnikidan yuqori darajani ko'rsatdi; ayollarning nutqida erkaklarnikiga qaraganda salbiylikka yon bosish ko'proq uchrashining guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Sapir. Language an introduction to the study of speech.– New York, Harcourt, Brace, 1921.
2. Crawford Mary. Talking Difference on Gender and Language. London: Sage Publications, 1995. – P.207.
3. Frank Francine, Ashen Frank. Language and the Sexes.New York Press, 1983. – P.155.
4. Kotthoff Helga, Wodak Ruth. Communicating Gender in Context.Amsterdam, 1997. – P.424.
5. Lakoff Robin. Language and Woman`s Place. Harper & Row, Publishers.–New York, 1975. – P.328.
6. O. Jespersen. Filofofiya grammatiki.–Moskva, 1958.
7. Tannen D. You just don't understand. Women and men in conversation. N. Y., 1990.; Gender and Conversational Interaction.Oxford University Press, 1993. – 327 p.; Gender and Discourse. Oxford University Press, 1996. –P. 240.
8. Wettler Manfred & Rapp Reinhard. Computation of word associations based on the coocurrence of words in large corporations. [<http://www.fask.unimainz.de/user/rapp/wvlc93/latex2html/wvlc93.html>] 1996. Accessed 03/19/2002.

9. Кирилина А.В. Гендер: Лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999.; Земская Е. А., Китайгородская М. А., Розанова Н. Н. Особенности мужской и женской речи. М., 1993.

10. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. –Тошкент: Meriyus, 2017.

11. Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Российский гос. гуманитар. ун-т, 1999.

12. Хошимова Н. Прагматические аспекты при исследовании ассоциаций // Методология современной психолингвистики. Сб. статей. – Москва; Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2003. – С. 9-17.

ID-020-30-T008

Madina Samatboyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

“TARIXI MULUKI AJAM” DA ANTROPONIMLAR ETIMOLOGIYASI (1-QISM PESHODIYLAR SULOLASI ASOSIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” (1-qism Peshodiyalar sulolasi)dagi antroponimlar atroflicha o'rganildi va etimologik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotimiz jarayonida forsiy leksikalar asosida turk va arab tili unsurlari mavjudligi aniqlandi. Antroponimlar etimologik tahlili davomida ularning leksik-semantik xususiyatlari ochib berildi, fikrlar misollar orqali isbotlandi.

Kalit so'zlar: *“Tarixi muluki Ajam”, nomshunoslik, antroponim, etimologiya, leksika.*

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida aql bovar qilmas darajada ulkan kashfiyotlar, yangiliklar sodir bo'lmoqda. Tilning ichki va tashqi tuzilishini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, til tizimida muhim o'rin tutuvchi unsurlararo munosabatlar masalasi barcha milliy tillarda kun tartibiga chiqmoqda. Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. Xalqimiz tarixining ming yillik ifodasi, milliy qadriyatlarimizning o'lmas in'ikosi sifatida o'zbek tili har sohada boshqa tillardan qolishmaydi. Fikrimizni birgina Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida qo'llangan antroponimlar misolida isbotlab berish mumkin.

Tilimiz qonuniyatlarini o'rganish yo'lida onomastika(nomshunoslik) faniga alohida e'tibor qaratib, ushbu maqolamizda antroponimlar yuzasidan

tadqiqot olib bordik. Atoqli otlar bir marta nomlangan predmetlardan bittasini ajratish uchun qayta nomlangan ikkilamchi nomlardir. Atoqli otlar bilan obyektiv olamdagi narsalar o'rtasidagi aloqa so'zlovchi tomonidan o'rnatiladi. Agar ma'lum bir atoqli ot so'zlovchi tomonidan muayyan bir obyektga bog'lanmasa, u hech narsa bildirmaydi.

Atoqli otlarni tadqiq etishning murakkabligi, uning bir qator fanlar (tarix, geografiya, etnografiya, arxeologiya kabilar) bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Har bir nomda ularning predmetlariga tegishli qandaydir tarzdagi katta yoxud kichik tarix yoki tarixiy voqelik ramzi muhrlanganligini esdan chiqarmaslik kerak. Shuning uchun bu sohada tarixiy voqealar nomi hodisalar nomi, jarayonlarning nomlari ham e'tiborga olinadi hamda rejali holatda ilmiy tahlilga tortiladi.

Tadqiqotlarimiz davomida quyidagilarni o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik:

- onomastik birliklarning ko'lemi, uning mazmuni;
- ularning tarixiy-etimologik tahlilini amalga oshirish;
- atoqli otlarning o'ziga xosligi muammolarining o'rganilishi;

Izlanishlarimiz yo'lida, xususan, nazariy onomastika sohasi bo'yicha bo'lib, "Tarixi muluki Ajam" asariga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi(etimologiyasi), ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishi o'rganildi.

XX asrning 90-yillariga kelib o'zbek antroponimiyasida tarixiy nomshunoslik yoki tarixiy antroponimiya masalalari maxsus o'rganildi. Masalan, Sh.Yoqubov "Navoiy asarlari onomastikasi" mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi, undan oldin B.Bafoev "Navoiy asarlari leksikasi" nomli monografiyasida Navoiy asarlaridagi kishi ismlari va geografik nomlarni semantik va statistik jihatdan tahlil qilgan edi"

Bundan tashqari, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"ning 4-tomida Alisher Navoiy asarlarida qo'llangan barcha kishi nomlari, geografik, astronomik va boshqa nomlar, Alisher Navoiy ijodida uchragan asar nomlarining to'la ro'yxati berilgan

Alisher Navoiy yashagan davr hayoti o'ta serqirra va murakkab bo'lib, bu holat o'z-o'zidan o'sha vaqtda yashagan insonlar tilida ham zuxr bergan. Movarounnahrda yashovchi ko'p sonli oddiy xalq tili, ya'ni turkiy til diniy e'tiqod va qarashlarning va ilm-fanning bayroqdori bo'lgan arab, badiyat tili hisoblangan fors tili ta'sirida qolib ketgan, sal bo'lmasa yo'qalayozgan bir muhit bor edi o'shanda. Faqat ulug' Navoiyning sa'y-harakatlari tufayligina turkiy til muqarrar tanazzuldan qutqarib qolindi.

Alisher Navoiyning tarixiy asari "Tarixi muluki Ajam" hijriy 890 (milodiy 1485) yildan so'ng yaratilgan. Bu asarda Eronda hukmronlik qilgan to'rt sulola: Peshdodiylar, Kayoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar tog'risida malumot keltirilgan. Navoiy bu to'rttala sulolalarning hukmronlik yillari 4336 yil-u 6 oy davom etganligini bayon qiladi. Asar oxirida Sulton Husayn Mirzo madhi o'rin olgan. Agar biz avvalroq yaratilgan «Saddi Iskandariy» dostonida ham to'rt sulola haqidagi ma'lumot borligini nazarda tutsak, doston yaratish jarayonida Alisher Navoiy to'plagan ma'lumotlarni maxsus tarixga oid asar sifatida ijod qilgan ko'rinadi. Bunda Alisher Navoiy yuqorida nomlari zikr etilgan asarlar qatorida yana Abu-al-Hayr Nasiriddin Abdulloh binni Umar ul-Qozi Bayzaviyning (vaf.685/1266) "Nizom ut-tavorix" (yozilgan 674/1275), Abu Homid G'azzoliyning (1058-1111) "Nasihah ul-muluk" va boshqa asarlarni, xususan, o'z zamondoshi Mir Muhammad Mirxondning "Ravzat us-safo" asaridan boxabar holda, Eron tarixiga oid arab va fors tillarida tarixiy asarlardan farqli, bu kitobni turkiy tilda yaratdi. Ushbu asardagi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar Alisher Navoiy o'zining dostonlarida ham mavjudligini eslatib o'tgan. Bu asar ilmiy tanqidiy matnini sharqshunos

L.Xalilov tuzib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi. Afsus hamon uning tanqidiy matni chop etilmagan.

“Tarixi muluki Ajam” asarini malum darajada, “Xamsa”, xususan, “Saddi Iskandariy” dostoniga tarixiy ilmiy ilova sifatida ham qabul qilish mumkin. Uning ichidagi ma’lumotlarning she’riy ifodasi “Saddi Iskandariy”da keltirilgan bo’lib, ularni boshqa tarixiy asarlar bilan qiyosiy o’rganish Alisher Navoiyning tarixchi olim sifatidagi ijod qirralarini ochishga yordam berishi mumkin.

Alisher Navoiy she’riy asarlari bilan bir qatorda uning ijodida «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi mulki Ajam» kabi kitoblari salmoqli ahamiyat kasb etadi. Bu ikki asar «Zubdat ut-tavorix» - «Tarix tahlili» nomi ostida bitta kitob qilingan.

“Tarixi muluki Ajam” qisqa tarix bo’lib, Eron shohlari xronikasi bayon qilingan „Tarixi Tabariy“, “Shohnoma” asarlarini mantiqan to’ldiradi, ulardagi faktlarni izchil ilmiy tizimga soladi. Afsonaviy shoh Kayumarsdan boshlab, sosoniylarning so’nggi vakili Yazdi Shahriyorgacha bo’lgan shohlar tarixini, mifologik talqinini beradi.

“Tarixi muluki Ajam” asarida har bir onomastik nom, jumladan asar nomining o’zi ham etimologik tadqiqot talab etadi. Navoiy ushbu asarni turkiy tilda yaratgan bo’lsada, asar tilida arab va fors atamalarni, onomastik nomlarni kuzatishimiz mumkin. Jumladan, Navoiy “davlat” so’zini turkiy til nuqtayi nazaridan “mulk” deb beradi. “Ajam” so’ziga to’xtalsak, asli bu so’z avval Semit xalqlari tilidan kirib kelgan. Bu so’z qadimda turli shakllarda (ajama, a’jama, ajjama) talaffuz etilgan. Hozirda zamonaviy arab tilida esa “ajam” shaklda saqlangan bo’lib, “arabdan tashqari” degan ma’noni anglatadi. Boshqa manbalarda bu so’zga aynan o’zakdosh bo’lgan (aja`m, ajam) so’z mavjud bo’lib, uning ma’nosi “danakning o’rtasi, mevaning urug’i” degan ma’nolarni anglatgani aytiladi.

“Ajam” so‘zi nafaqat fors adabiyotida, balki arab adabiyotida ham birdek qo‘llanilgan. Arab tilida bu so‘z 2 xil ma‘noda qo‘llaniladi:

1. Arab bo‘lmagan;
2. Forsiy.

Xususan, tarjimada bu so‘z ma‘nolari “savodsiz odam”, “jimlik”, yoki “ovoqsiz” degan ma‘nolarini anglatadi. Boshqa bir manbalarda esa, neytral leksika sifatida “notanish”, “chet ellik” degan ma‘nolarni yuzaga keltiradi deb ko‘rsatiladi.

Avvaliga bu so‘z ifodalanishi “Ah – jahm” tarzida bo‘lib, birikma boshidagi “ah” predlogini cho‘zib talaffuz etishni talab etadi. Birinchi marotaba bu so‘z arablar tomonidan hindistonliklar (indo-aryan) hududlariga nisbatan qo‘llanilgan. Lekin, forslar o‘zlarini (o‘z jamoalari tarkibida) bu nom bilan atashmagan.

Hozirgi kunda Eronda milliy musiqa turi(maqom)ga nisbatan ham “ajam” atamasi ishlatiladi.

Fors tilida “ajam” terminiga nisbatan “aljamiado” va “ayam” so‘zlari dublet so‘zlar sifatida qo‘llanadi. Mahaliy Eron fuqarolariga nisbatan ishlatiladigan “kushaiti” termini “ayam” atamasi bilan ma‘nodoshdir.

Bundan tashqari, ba‘zi xalq og‘zaki ijodi namunalari “ajam” so‘zining kelib chiqish etimologiyasiga boshqacha to‘xtaladi. Rivoyatlarga ko‘ra, bu so‘z tarixan dunyoning birinchi hukmdori (yoki payg‘ambari deb yuritiladi) “Jam” degan podsho nomidan kelib chiqqan. Arablar bu nom ostida ko‘pgina xalqlar: xususan, forslar, pokistonliklar, yunonlar, etiopiyalik(habash)lar, nabataliklarga nisbatan ishlatgan.

Demak, qadimgi tarixda Eron va Turon hududida ilk bor tashkil topgan davlatni “Ajam”, ya‘ni “arab davlatidan tashqari” degan nom bilan atalgani uchun Navoiy ham o‘z asarini “Tarixi muluki Ajam” deb nomlagan.

Maqolamizda har bir antroponimlarning birma-bir etimologiyasiga nazar solsak.

Peshdodiylar (eramizgacha bo'lgan 3223-782-yillar) – “Bundaxshin”, “Dinkard”, “Shohnoma” kabi manbalarga ko'ra bu sulola 2441 yil hukmronlik qilgan. “Peshdod” so'zi “Avesto”ning “Yasht”larida hamda pahlaviy tilidagi yodgorliklarda ma'lumot berilishicha bu sulolaning birinchi hukmdori Kayumars(ba'zi manbalarida Hushang)ning unvoni “paradata(peshdod)” (“hukmdor” bo'lgan). Keyinchalik bu nom sulola nomiga ko'chgan. Fors tilining izohli lug'atida “pesh” - old, avval; “dod” - adolat, to'g'rilik ma'nolarida keladi. - iy qo'shimchasi esa sifat yasovchi qo'shimcha sanaladi. Demak, “peshdodiy” so'zi “avvaldan, boshdan adolatni, to'g'rilikni oldinga surganlar” degan ma'noni bildiradi.⁵

Bu sulola hukmdorlari (bu sulolaga tegishli 11 ta shoh haqida aytiladi) nomlari etimologiyasi:

Kayumars – bu podsho haqidagi mif qadimgi O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Uning turli xil variantlarini qadimiy yozma manbalardan “Avesto”, “Tarixi Tabariy” hamda Abu Rayhon Beruniyning “O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli kitobida, Firdavsiyning “Shohnoma” asarida ko'rish mumkin. Kayumars (“Avesto”da “Gaya Maretan”(ba'zi o'rinda “Gaya Martan”-“gaya” – hayot, “Martan” – o'lik, inson” – umimiy ma'no “tirik o'lja”) ⁶; pahlaviy tilida “Gayomart”(Kayomart); fors tilida “Kavomars”; tojik tilida “Kayumars”; “Giyos ul-lug'at”da esa “Kayumars”(“Gavomard”)) – “O'lim hayoti”, “inson hayoti” yoki “tirik murda” degan ma'noni anglatib, fors mifologiyasida birinchi odam. Vediylar ta'limotidagi “Martanda”ga qiyoslanadi. Manixeylikda “Gexmurd” ismi bilan nomlangan. Fors dostonchiligida birinchi hukmdor deb yuritiladi. Boshqa bir afsonalarga ko'ra Kayumars – Xorazmda yashagan. “Govomard” so'zi etimologiyasi nazar solsak, bu so'z fors tilidan tarjima qilinganda, (“gov” – buqa, “mard”- odam) – “inson-buqa” deb tarjima qilinadi.

Hushang - (fors tilida “Hoshang”; “Avesto”da “Haoshyanxa”) Kayumarsning Siyomak o‘g‘lidan nabirasi. “Hushang” so‘zi xitoy tilida “chunguang” – “ko‘ldagi bahor yog‘dusi” deb tarjima qilinadi.

Tahmuras – (boshqa tillarda kelishi: Teimurazi, Taymuraz, Tahma Urupi). Alisher Navoiy yozishicha uning qarorgohi Marvda joylashgan. “Avesto” da bu nom “Tahma Urupi” shaklida kelib, “tulki terisiga o‘rangan bahodir”, “po‘stin bilan qoplanib yuruvchi bahodir tulki” yoki “kuchli tana” degan ma‘nolarni anglatadi.⁷

Jamshid – (qadimiy fors tilida “Yama”, “Avesto”da “Yima Xshayta”(qiro, hukmdor”, E. Benvenist, M. Drezden tomonidan “Yima yaraqllovchi”, “Yima porlovchi” deb tarjima qilingan; Edvard Fitsgerald esa “Yima” so‘zini “jamshid” deb tarjima qilgan; boshqa manbalarda “Jemshid”, “Jam”, “Yim”). Jamshidni ba‘zilar Sulaymon payg‘ambarning aynan o‘zi deb ta‘kidlashadi. Jamshid sharobni ixtiro etganligi uchun, shoirlar o‘rtasida “Qadahiy” (Jomi Jam) nomi bilan ham mashhurdir. Keyinchalik topilgan qadimgi hind braxmanlari afsonalariga ko‘ra, bu hikoyaning hind afsonalaridan naql etilgani ma‘lum bo‘ladi. Haqiqatan, Zardusht brahmaniylar dinidan ajralib chiqib, alohida bir mazhab ta‘sis etgani uchun Vatanidan badarg‘a qilinib, Eronga kelib qolgan. Shunga binoan eroniylar qadimgi hind afsonalarini o‘rganishgan. Qadimgi Eronning tarixi Zardushtning tarixiy kitobi bo‘lmish “Zandovasto”dan olingandir. Qadimgi hind afsonalarida “Jamshid” yoki “Jomo Shaydo” quyoshni anglatuvchi bir ma‘bud ismi bo‘lib, bu ismni tashkil qiluvchi so‘zlarning birinchisi(jomo) – “hukmdor” va ikkinchisi(shaydo) – “quyosh” degani bo‘lib, “quyosh hukmdori” degan ma‘noni anglatadi.

Shaddod va Shadid – ushbu so‘zlar asosi “shad” yoki “shod” so‘zlarini olsak qadimgi Turk xoqonligi boshqaruvidagi unvon. Qadimgi turk bitikdoshlarida(To‘nyuquq), Xitoy, yunon, arab manbalarida uchraydi. Xitoy manbalarida “sha” yoki “she” shakllarida qayd etiladi. Bu nom qo‘lida 700

kishini birlashtirgan ulug' jangchi(shahzoda)ga berilgan. (Masalan: Tardushad, Tug'shad).⁸

Asosdan keyingi "dod" va "did" qo'shimchalari, aslida, forscha "dodan"(bermoq) va "didan"(ko'rmoq) fe'llarining o'zagi bo'lib, "shad" unvonini bermoqlik va unga ega bo'lmoqlik ma'nosida qo'llanilgan.

Zahhok binni Marodis – (o'rta asr fors manbalarida "Azdahak Bevarasp"; "Avesto"da "Azhi-Dahak" yoki "Dahak" - Axuramazda dushmani Angra Mainyuning o'g'li; arman mifologiyasida "Ajdahak", turk xalqlari mifologiyasida "Ajdarha"; Bolqon manbalarida "Astah"; tojik mifologiyasida "Azdaxorlar") qadimgi fors mifologiyasida Traetona(Faridun) mag'lub etgan uch boshli ilon. Uning nomi "Bevarasp" "son-sanoqsiz otlarga ega bo'lish" degan ma'noni anglatadi. O'zbekistonda zamonaviy Qarshi hududida "Zahhoki Moron qal'asi" ("ilonlar shohi Zahhok qal'asi") deb nomlangan katta qadimiy shaharning xarobalari mavjud

Faridun – ((forscha: "Fereydun" yoki "Faridun", "Frodon"; "Avesto"da: "Traetona" yoki "Oraetaona"; pahlaviyda "Freddun", tojikchada "Faridun"; boshqa manbalarda "Freydun", "Faridon" va "Afridun") – asos "far"(forscha- "hukmdor, shoh", "dun"(forcha – "dunyo, olam"), ikki so'z orasidagi –i tovushi fors tilidagi izofa tovush(-ning kelishik qo'shimchasini beradi), ya'ni bu so'z "far-i dun" – "dunyoning shohi" degan ma'noni anglatadi.

Manuchehr – Manuchehr ("Avesto"da "Manushchitra", ("Manushda tug'ilgan"), pahlaviyda "Manuchixr", Manushchixr, forschada "Manuchehr" yoki "Menuchehr") fors-tojik tilida chehrasi go'zal, barno yigit. "Manu" so'zi "qadimgi eroniylar xudosi avlodiga mansub farzand" ma'nosini anglatgan; "chehr" so'zi forscha "yuz" ma'nosini berib, hozirgi kunda "chehra" shaklida qo'llaniladi.

Navdar – Novzar ("Avesto"da "Naotar"; forscha "Novzar", "Novzer", "Nouzar") ko'pgina bo'lajak jangchilar o'zlarining kelib chiqishlarini unga

qarashgan va ularni “Novzarian” deb atashgan. Arab alifbosidagi “dol” va “dzol” harflari arab tilidagi “d” va “dz” tovushlarini ifodalaydi. “Dz” tovushi fors va o‘zbek tillarida bo‘lmagani sababli, arab so‘zlarida qatnashgan bu harflar gohida “dol” harfi bilan alamshtiri ifoda etiladi. Masalan, “dzol” hafi bilan yoziladigan “ustodz” so‘zi “ustod” shaklida yoziladi va shu zayl talaffuz etiladi. Navdzar – Navdar, Kalobodziy – Kalobodiy kabi yana bir necha ismlar ham shu jumlasidandir.

Afrosiyob – (Alp Er To‘nga – turkchada. Dastlab bu so‘z laqab (To‘naxon, To‘na tegin) ma‘nosida qo‘llanilgan. “Alp” – botir, qahramon demakdir. “To‘na” – yo‘lbars jinsidan bo‘lgan bir xil hayvon. Lekin bu so‘z turklarda ma‘nosi o‘zgargan holda qo‘llaniladi. “Alp Er To‘nga” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “yo‘lbars kabi kuchli odam, botir va qahramon er” demakdir. 12 yil hukmronlik qilgan ushbu shoh fors manbalarida mana shu ko‘rinishda(Afrosiyob) tarzida keladi. “Afrosiyob” ikki so‘z: “afro” va “siyob” so‘zlaridan tashkil topgan. “Afros” so‘zi arabcha “ot” ma‘nosini bildiradi. Eron afsonalari va yozma adabiyotidagi qahramonlar nomiga azaldan “ot”(asp) so‘zi qo‘shib ishlatilgan. “Siyoh” so‘zi esa “siyohi ob” (qora suv) ma‘nosini beradi. “Afrosiyob” so‘zi “qora ot”, “qora otliq” ma‘nolarini bildiradi. Turkiylarda “qora” so‘zi faqat rang ma‘nosini berib qolmay, balki “kuch, buyuklik, bahodirlik” ma‘nolarini ham anglatadi. Biroq forslar ba‘zi manbalarida “Afrosiyob”ni yovuzlik va daxshatning timsoliga aylantirganlar. Tojik lug‘atlarida esa bu so‘z “qo‘rqinch va daxshat sochuvchi” ma‘nosida yanglish izohlanadi.

Zob binni Tahmosb – (forscha: “Zaav”, “Zav’, “Zou”) bu so‘z asosi “zubin” (nayza)so‘ziga borib taqalishi mumkin.

Girshosb – (forscha “Garshasp” yoki “Gershasp”; “Avesto”da “Kersaspa”) – Bu so‘z qo‘shma so‘z bo‘lib, forschadan tarjima qilganda “gersh”(ozg‘in) va “asp” (ot) - (“ozg‘in ot”) so‘zlarining birikmasidan olingan. Boshqa taxminlarga tayansak, ushbu so‘z asosi forscha “gereftan” (olmoq) fe‘li bo‘lib, unga qo‘shilgan “shasb” so‘zi forscha “asp” so‘zning fonetik o‘zgarishga

uchragan shaklidir. Demak, “Girshasb” so’zi “otni olmoq, otga ega bo’lmoq” ma’nolarini anglatadi. Lekin tadqiqotlarimiz asosida, birinchi fikrlar tog’riroq deb hisoblaymiz.

Ta’kidlash lozimki, qadimda yashagan Eron va Turon xalqlarining madaniyati, san’ati, dunyoqarashi bir-biriga juda yaqin bo’lgan. O’sha davrda O’rta Osiyoda istiqomat qilgan so’g’d, xorazm, sak, massaget xalqlarining tili haqida bugun aniq ma’lumotlarga ega emasmiz. Lekin tasavvur qila olamizki, yuqoridagi tillar hozirgi turkiy va forsiy tillarning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o’tagan va mazkur tillarning tarkibiga singib ketgan, zamonaviy tillarning yuzaga kelishi uchun asos bo’lib xizmat qilgan. Birgina Navoiy tilga olgan Kayumars, Jamshid, Manuchexr, Afrosiyob, Xushang kabi ismlar bugungi kunda xam o’zbek, qozoq, qirg’iz, tojik, fors tillarida faol uchraydi. Kayumars - qo’rqmas, Hushang - gulshan tarzida solishtirish, tahlil qilish bizga tarixning ochilmagan varaqlari xaqida yangicha ma’lumotlar berishi mumkin.

Bu kabi tahlillar xalqlarimiz o’rtasidagi qadimiy aloqalarni tiklashga, dunyoqarashimiz, madaniyatimiz va san’atimizning mushtarak ekanligini aniqlashga yaqindan yordam beradi. Zero, bugun dunyoni ezgulik, millatlar va xalqlar o’rtasidagi biri-biriga bo’lgan iliq munosabatlar qutqaradi. Bunda bizga til materiallari, ya’ni qadim tarixning lisoniy manzarasi yaqindan yordam berishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. A. Navoiy. Tarixi muluki Ajam. To’la asarlar to’plami. 8-jild. Toshkent. 2011
2. <http://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-be.html?page=15>
3. <http://zarnews.uz/uz/post/alisher-navoiyning-tarixi-anbiyo-va-hukamo-asari-nima-haqda-sozlaydi>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy
5. Farhangi zaboni forsiy. Lug’at.
6. Avesto
7. <https://www.behindthename.com/name/tahmuras>
8. N. Rahmonov. Turk xoqonligi. Xalq merosi. 1993

ID-020-30-T009

Nargiza Isomiddinova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

SAMARQAND VILOYATI OQDARYO TUMANI SHEVALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek dialektologiyasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri: o'rganilmagan sheva va hududlarni o'rganishga, oz bo'lsa-da, hissa qo'shish maqsadida Samarqand viloyati Oqdaryo shevasi haqida fikr bildirdik. Maqolada so'z yuritilayotgan sheva hududining tarixi, aholisi va etnik tarkibi to'g'risida ma'lumot berildi. Bu hudud shevasi yetarlicha o'rganilmagani e'tiborimizni tortdi. Biz Oqdaryo shevasining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini tahlil qildik. Eng muhimi o'rganilayotgan hududda uch sheva vakillarining shevasi mavjudligini qayd etdik. Shevalarning o'zaro va adabiy til bilan o'xshash va farqli jihatlari xususida to'xtaldik. Shevadagi so'zlarning xususiyatlari va kelishiklarning qo'llanishi haqida ham fikr yuritdik. Oqdaryo shevasida qipchoq, qarluq lahjalari va eronlashgan shevalarning o'ziga xos xususiyatlari kuzatilishi haqida so'z yuritdik.

Kalit so'zlar: *dialektologiya, sheva, lahja, qarluq, qipchoq, eronlashgan sheva, fonetik, leksik, qiyosiy tahlil, qo'shimcha.*

Annotation. In this article, one of the current problems of Uzbek dialectology is the unorganized dialect and the Akdarya dialect of Samarkand region in order to make a small contribution to the organization of the regions. The history, population and ethnic composition of the area are discussed. It is noteworthy that the dialect of this region is not sufficiently fluent. Phonetic and lexical aspects of Akdarya dialect are covered. It is thought to reveal dialectal properties. Most importantly, the dialects of the three dialects are highlighted in the dialect area being covered. The similarities and differences between the dialects and the literary language are highlighted. The features of the words in Sheva and the use of the conventions are also discussed. The mentioned Akdarya dialect speaks about the peculiarities of Kipchak, Qarluq and Iranian dialects.

Key words: *Dialectology, dialect, Qarluq, Kipchak, Iranian, phonetic, lexical, comparative analysis, appendix.*

Sheva hududi nomining tarixi, aholisining tarkibi

Sheva xususiyatlari tahlil qilinayotgan hududning nomi: *Oqdaryo*. Qadimda bu hudud "Miyonqol" deb atalgan. Har bir hududning nomlanish tarixi bo'lgani kabi, bu hududning ham o'ziga xos nomlanish tarixi mavjud. Nomning ma'nosi *ikki daryo oralig'idagi orol* degani. Zarafshon daryosi Oqdaryo va Qoradaryoga bo'lingan va daryolar orasidagi orol shunday nomlangan. Keyinchalik bu hudud nomi *Oqdaryo* deb o'zgartirilgan. Oqdaryo tumanining markazi Loyish shaharchasi hisoblanadi. Shaharcha nomining ma'nosi *Loyli ish* degani. Avval bu shaharcha botqoqlik va qamishzordan iborat bo'lgan. Keyinchalik odamlar ko'chib kelib bu hududni o'zlashtirishgan.

Oqdaryo tumani aholisi etnik jihatdan xilma-xil. Bu hududda o'zbek, tojik, qozoq, rus, turk, tatar kabi millatlar istiqomat qiladi. Oqdaryo tumani qishloqlaridagi aholi, asosan, qipchoq lahjasida gaplashadi. Ya'ni j-lovchi xususiyatga ega. Loyish shaharchasi aholisi, asosan, qarluq lahjasi va Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasi, Yangiqo'rg'on qishlog'i eronlashgan shevada gaplashadi. Bir so'z bilan aytganda, Oqdaryo tumani hududida 3ta sheva vakillarini uchratamiz:

- 1) qipchoq lahjasi (Oqdaryo tumani qishloqlari);
- 2) qarluq lahjasi (Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi)
- 3) eronlashgan sheva (Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasi)

Shevaning o'rganilishiga doir

Bugungi kunga qadar va hozirda qipchoq, qarluq lahjalari va eronlashgan shevalar bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Biz ta'kidlayotgan hudud shevasining xilma-xilligi, ularning qiyoslanishi va o'ziga xos jihatlari o'rganilganicha yo'q.

O'zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda qayd qilinadigan so'zlar

Faqatgina shevalarda qo'llaniladigan va adabiy tilda bo'lmagan so'zlar ham juda ko'p. Bunday so'zlar badiiy adabiyotda shevalarning o'ziga xos

jihatlarni namoyon etishda qo'llaniladi. Shevalarning yillar mobaynida o'zgarib borishi so'zlarning tuzilishiga ta'sir qiladi. Bunda ma'no o'zgarmasa ham, so'z tuzilishida farq bo'lishi mumkin. Oqdaryo shevasidagi ba'zi so'zlarning adabiy tildan farq qilishini ko'ramiz:

a) insonlar hayotida faol ishlatiladigan qarindoshlik nomlari, xususiyat ifodalovchi so'zlarning shevalarda qo'llanilishi: jözna – pochcha, bölä – xolavachcha, qäjnika – qaynopa, kätäta – buva, kätena – buvi, o'ta – buva, o'na – buvi, tämäqsov – ochko'z odam, arqaliq – jahli tez odam, supräqoqti – kenja farzand, suqänaq – har bir ishga kirishib ketadigan odam, arriq – ozg'in, bashmaldaq – bosh barmoq, činäqaj – kichkina barmoq, ül – o'g'il, arqaliq – jahli tez odam, mug'ambir – hiylagar odam, ena – ona, qayni – qaynuka, aytuvchi – jarchi, arriq – ozg'in, qiziqqon – jahli tez, chakak – iyak, varaja – titroq, mingrov – jinni;

b) taom, o'simlik va hayvon nomlarining shevalarda qo'llanilishi: lağčak, tuppa – kulchatoy, bärak – chuchvara, g'ilmindi – yupqa, mäjak – tuxum, särimoj – saryog', shulla – shovla, pidäna – yalpiz, olboli – gilos, qäroli – olxo'ri, čakki – suzma, zäldori – o'rik, jung'ičqa – beda, qiči – jag' – jag', chakki – suzma, olashaqshaq – chug'urchuq, pishak – mushuk, tona – yosh sigir, g'unajin – sigir, obdish – qaynagan suv, sarqit – qolgan ovqat, toqqiz – to'qqiz – ovqat ma'nosida, surguruch – shirguruch, sutlosh – shirxo'rda, ashkadi – qovoq, adrasmon – isiriq, pang' – mog'or;

d) uy-ro'zg'or buyumlarining shevalarda qo'llanishi: shuvutki – supurgi, lapatka – kurak, tavoq – lagan, lagan – tog'ora, olacha – gilam, paqir – chelak, tarnov – nov, havunchak – arg'umchoq, pishmak – bosma kran, cho'lpi – suzgich, ko'pchik – par yostiq;

d) boshqa so'zlarning shevalarda qo'llanishi: unkimoq – sasimoq, jovlik – hammasi, gartak – ozgina, gay payti – bir paytlar, uchlog'ich – qalam ochqich, chertak – chordoq, jo'n – oddiy, matal – ertak, tartanak – o'rgimchak ini, zangari – yashil, qing'ir – egri, erish – noqulay.

Fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar

a) otlarning fonetik o'zgarishga uchrashiga misollar: žuzum – uzum, nāšxona – oshxona, pičak – bichak, tevā – tepa, buzov – buzoq, sijir – sigir, tov – tog', bāla – bola, shuvut – shivit, soviz – sabzi, chaynik – choynak, belbov – belbog', juvundi – yuvundi, kipt – kift, sach – soch, chivin – chivin, kartishka – kartoshka, aqlik – oqlik(mato ma'nosida), buvday – bug'doy, dastarqan – dasturxon, savap – savob, payda – foyda, mardiqarchiliq – mardikorchiilik;

b) olmosh va ravishlarning fonetik o'zgarishga uchrashiga misollar: mänov – mana bu, anov – anavi, qajtib – qanaqa qilib, šujtib – shunaqa qilib, manag'da – mana bu yoqda, öšag'da – o'sha yoqda, bäqa – bu yerga, qag'da – qayerda, šag'da – shu yerda, äqqa – u yoqqa, qandajčiqin – qanday, šundajčiqin – shunday;

d) fe'llarning fonetik o'zgarishga misollar: täjla – tashla, kelopti – kelyapti, boropti – boryapti, boroppan – boryapman, ketoppan – ketyapman, išlopti – ishlayapti, kemadi – kelmadi, qarabjār – qaravor, borag'aj – bora qol, kelag'aj – kela qol, kelajik – kelaylik, körajik – ko'raylik, borsag' – borsak, žur – yur, žurag'aj – yura qol, baradig'an – boradigan, keladig'an – keladigan, ketadig'an – ketadigan.

Adabiy tilda uchramaydigan ba'zi so'zlar

Gärtak–biror narsa ulashilayotganda *ozroq* ma'nosida qo'llanadi, *bösag'a* –uyning ostonasi, *qorasuvoq* – birinchi suvoq, *itmurun* – na'matak, *tonä* – yosh sigir, *oläšaqšaq* – chug'urchiq, *pišak* – mushuk, *unkimoq* – sasimoq, *žovlik* –hammasi, *paqir* – chelak, *köpčik* – par yostiq, *nāšxona* – oshxona, *žittakkina* – ozgina, *orqaliq* – jahli tez odam, *suqanaq* – har bir ishga kirishib ketadigan odam, *endigi yil* – kelasi yil, *itmurun* – na'matak ko'p yillik o'simlik ma'nosida, *moltimoq* – quloch otmasdan suzish, *mulgimq* – mudramoq, *imirsiq* – yalqov odam, *uyutqi* – qatiq ivitish uchun sutga solinadigan achigan qatiq, *irga* – uy burchaklari va gir aylanasi, *uy* ma'nosi ham bor, *og'uz* – sigir bolalaganda sog'ib

olinadigan birinchi to'q sariq rangdagi sut, *qidirmoq* – mehmonga bormoq, *qidirishxola* – bolalar o'yini nomi, *ilimiq* – issiqroq ma'nosida.

Oqdaryo shevasidagi lahjalarning qiyosiy tahlili

Yuqorida qayd etilganidek, tahlil etilayotgan hududda 3ta farqli shevani uchratishimiz mumkin. Bu shevalarning o'xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilamiz. Adabiy tilga o'xshash va farqli jihatlarini ko'rishimiz mumkin.

- 1) qipchoq lahjasi (Oqdaryo tumani qishloqlari)
- 2) qarluq lahjasi (Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi)
- 3) eronlashgan sheva (Oqdaryo tumani Dahbed shaharchasi)

Adabiy tilda	Qarluq lahjasi	Qipchoq lahjasi	Eronlashgan sheva
Kulchatoy	Kulcha	Lag'chak	Tuppa
Jag'-jag'	O't	Qichi	Ko'k
Beda	Beda	Yung'ichqa	Beda
Olma	Olma	Alma	Almacha
Tuxum	Tuxum	Mayak	Tuxum
Pochcha	Pochcha	Yazna	Pochcha
Buvi	Ana	Katena	O'na
Buva	Bobo	Katata	O'ta
Qayerda	Qayda	Qag'da	Qayga
Shu yerda	Sherda	Shag'da	Shu yerga
Mana bu yerda	Manerda	Manag'da	Mamberda
Qanday	Qandey	Qandaychiqin	Qanday
Ketyapman	ketyapman	Ketappan	Ketoppan
Kelyapti	Kelyapti	Kelapti	Kelopti
Boryapman	Boryapman	Borappan	Boropman
Boryapti	Boryapti	Borapti	Boropti

Shevalarning morfologik xususiyatlari

Oqdaryo shevasidagi so'zlarga kelishik qo'shimchalari qo'shilishi natijasida ba'zi o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Masalan, qaratqich kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda fonetik o'zgarish – tovush almashishi yuzaga keladi: uy+ning» *uyding*.

Ham asos, ham qo'shimcha fonetik o'zgarishga uchrashi mumkin: mardikor+chilik» *mardiqarchiliq*. Bunda qo'shimcha bilan uyg'un holda asosda ham fonetik o'zgarish yuzaga kelgan. Yoritilayotgan shevada qo'shimchalarning adabiy tildagidan farqli tomoni ularning fonetik o'zgarishga uchraganidir.

Sifatdosh yasovchi -gan qo'shimchasining -g'an shaklida qo'llanishi e'tiborni tortadi: ber+gan shevada *berg'an*, ol+gan shevada *og'an* tarzida ishlatiladi (bunda asosda tovush tushib, qo'shimchada tovush almashyapti).

Bu shevada har qanday qo'shimcha tarkibidagi -g, -k, -q harflari -g' ga o'zgaradi: to'yga »to'yg'a, kelaqol»kelag'ay, borsak»borsag'.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Oqdaryo shevasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish galdagi muhim vazifalardan biri bo'lishi bilan birga, buning amalga oshirilishi o'zbek dialektologiyasi uchun qimmatli material berishi, shubhasiz. Bugungi kunda adabiy tilni boyitishga xizmat qiladigan shevalar ustida ko'proq izlanish va tadqiqotlar olib borish juda muhim. O'rganilmagan shevalar ustida tadqiqotlar olib borib, shu orqali adabiy tilimizning so'z boyligiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. So'nggi davrda o'zbek dialektologiyasi sohasida yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmadi. Bu esa, o'z navbatida, soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir qancha sheva va hududlar deyarli o'rganilmagan. Albatta sheva o'rganish uchun yetarlicha amaliyot tashkil qilish kerak. Qisqa qilib aytganda, biz erkin amaliyotchi bo'lib o'rganilmagan shevalar ustida izlanishlar olib borib, dialektologiya faniga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashirboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013.
2. Ishayev. A. O'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlari // O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan,1971.
3. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. Ozbek dialektologiyasi.– Toshkent: O'qituvchi, 1978.

ID-020-30-T010

Sadoqat Rajabova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

HUKUMAT QARORLARI TILI HAQIDA

Annotatsiya. Maqolada qarorlar tili terminologiyasining o'rganilish tarixi haqida so'z yuritiladi. Dastlabki fikrlarda Abu Nasr Farobiyning asarlarida Platon, Aristotelning qarorlar tili bo'yicha keltirgan fikrlariga, keyingi o'rinlarda esa Rim, Xitoy, Fransiya qonunlar tili tog'risida fikrlar keltirilgan. Bundan tashqari qadimgi manbalarimizdan biri bo'lgan "Avesto" kitobi, "Qur'oni karim" kabi muqaddas kitoblarimiz tili qarorlar tiliga yorqin misol bo'lishi aytib o'tilgan. Bu soha rivojiga Sh.Ko'chimov, G.G'ulomova, M.Qosimova va boshqa bir qancha olimlarimiz o'z hissasini qo'shgan. Qonunlar tili terminologiyasi tarixan o'rganilgan soha bo'lib, bugungi kunda tilshunoslik va huquqshunoslikning o'zaro bog'liqlikda yanada rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Bu soha to'xtab qolmasdan yangi – yangi ilmiy izlanishlarga tayanch bo'ladi...

Kalit so'zlar: *qonun, farmon, qozi, hukm, poraxo'r, aybdor, davlat ustuvorligi.*

Annotation. The article discusses the history of decision language terminology. The first ideas are those of Plato in the works of Abu Nasr al-Farabi, the ideas of Aristotle on the language of decisions, and the ideas of the language of law in Rome, China, and France. It is also said that the language of our holy books, such as the Avesta and the Qur'an, which are one of our ancient sources, is a shining example of the language of decisions. Sh.Kuchimov, G. Gulamova, M. Kasimova and many other scientists have contributed to the development of this field. In short, the terminology of the language of law is a historically studied field, and today it is a more and more interdependent field of linguistics and jurisprudence. This field will continue to be the basis for new scientific research...

Keywords: *law, decree, judge, sentence, bribe, guilty, state priority.*

Tilshunoslik ko'pgina fanlar qatori huquqshunoslik bilan ham bog'liqligi natijasida yurislingvistika nomi bilan yangi fan yuzaga keldi. Bu ikkala fan

o'zaro aloqadorlikda qonun tilini o'rganishni taqazo etadi. Qonun tili ham o'zining ma'lum bir tarixiga ega. Qadimgi davrlardan boshlab ayrim olimlar yuridik til haqida ma'lumot berganlar. Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning "Talxisu navomisi Aflotun" (Aflotun qonunlari mohiyati) nomli asarida qonunlarning mazmun va mohiyati to'g'risida Platon tomonidan yozilgan asarga batafsil sharh beriladi. Bu asarda ta'kidlanishicha, Platon qonunlarning tili masalasiga ham alohida e'tibor qaratib, bu haqda shunday yozadi: "Sohibi qonunning har bir guruh odamlarga murojaati tushunarli bo'lishi lozim. Buning uchun qonun chiqaruvchi odamlarning idrok etish imkoniyatlarini hisobga olishi kerak, toki odamlar uni tushunsinlar. Chunki odamlarga biror narsani tushunish va amalda qo'llash qiyin bo'lishi mumkin. Tushunmovchilik bunday sohibi qonundan voz kechishga turtki va ag'darib tashlashga sabab bo'lishi mumkin" [1, 24-bet] . Shuningdek, Aristotel ham o'z asarlarida yuridik til, uning o'ziga xos tabiati haqida alohida to'xtalib o'tgan. Eramizning I-III asrlarida esa qonun tilining yuksak namunasini Rim huquqida ko'rish mumkin. Bu davrda Rim huquqshunoslari huquqiy bilimlarni rivojlantirish bilan birga qonun tili, uning o'ziga xos jihatlari to'g'risidagi ham mukammal ma'lumotga ega bo'lganlar. Ular qonunlarni aniq va qisqa, qonun tuzish talablariga to'la rioya qilgan holda tuzganlar, huquqiy normalarni ravshan, tiniq, tushunarli bo'lishiga asosiy e'tiborni qaratganlar. Shuning uchun ham bu xususiyatlar Rim qonunchiligining ustun tomoni hisoblanadi. Bu qonunlar hali haligacha o'zining puxta va pishiqligi bilan qonunchilikning eng yuksak namunasi bo'lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham ko'plab buyuk daholar, sarkarda va podsholar o'z qonunlari va kodekslariga Rim qonunchilik uslubini asos qilib olganlar va o'z qonun tuzuvchilaridan Rim qonun tuzish uslubiyatini o'rganishni, uning eng muhim zarur jihatlari anglashni talab etganlar. Jumladan, Petr I o'z qonunlariga, Napoleon o'z kodekslariga Rim qonunchilik texnikasini ijodiy o'zlashtirib, qonunlarini shu davr nuqtai nazaridan mukammal tuzishga erishganlar. Mahmud Koshg'ariyning " Devoni lug'atit turk" [2, 63-bet] nomli asarida qator terminlar yoxud terminlarning fe'l

shakllari o'z ifodasini topganligini ta'kidlab o'tish joiz. Bu terminlarning ayrimlarini ko'rib chiqsak: *ichkin er – josus, ayg'oqchi, jalafar – shoh elchisi, jalachi er – har narsada odamga tuhmat qiluvchi, badgumon shaxs, kuchagi - zo'rlik qildi, boshatdi – taloq qildi va boshqalar*. Buyuk alloma Alisher Navoiy asarlarida huquqshunoslikka bevosita aloqador bo'lgan yuzlab termin ishlatilgan. Jumladan, uning "Mahbub ul qulub" nomli asarida qozilar haqidagi o'n ikkinchi faslda shunday deyilgan: "**qozi islom binosiga arkondur** na musulmonlar **xayr** va **sharriga** (yaxshilik va yomonlik) **nofizi farmondur** (hukm yurituvchidir) **Shar'iy hiylalar** guruhidan ko'ngli ochiq, **fuqaho tazvirlari** (muftiylar nayranglari) tiyraligidin zarur yoruq. **Rishvaxo'r** (poraxo'r) muftiylar qoshida mankub va hiylakor valilar –oldida **ma'yub** (aybdor) **omi qozi** may ichkay o'lturgulukdur va do'zax o'tiga yotmasdin burun kuydurgulukdur" [3, 18-bet]. Ayniqsa, qonun tili XVII-XVIII asrlarda huquqshunos olimlar tomonidan juda chuqur o'rganilgan. Buyuk fransuz olimi SH. L. Monteskening "Qonunlarning ruhi", ingliz huquqshunos olimi I.Bentam "Nomografiya" nomli asarlarida qonun tili masalasiga alohida to'xtalib o'tishgan. XIX asrda nemis huquqshunos olimlari R.Iering va A. Shtosslar qonun tili masalasiga alohida e'tibor qaratib, uning ilmiy-nazariy qoidalarini ishlab chiqishga munosib hissa qo'shganlar. Tadqiqotda Sharq huquqiy ijodkorligiga alohida e'tibor qaratilib, Manu va Xammurappi qonunlariga, muqaddas Qur'oni Karim tiliga yuqori baho beriladi. Bu qonunlarning tiliga sobiq sho'rolar davrida ayrim huquqshunos olimlar, jumladan I.M.Volkov, A.A.Ushakovlar tomonidan salbiy baho berilganligi, lekin bu fikrlar noto'g'ri ekanligi [5, 14-bet] Sh. Ko'chimovning dissertatsiyasida dalillar bilan isbotlab berilgan. Bundan tashqari xalqimizning qadimiy manbalaridan biri bo'lgan "Avesto"dagi so'zlar ham aynan qonun tilining yorqin misolidir. O'zbek yuridik tili sobiq sho'rolar davrida tarjima vositasiga aylanganligi, markaz tomonidan jo'natilgan normativ-huquqiy hujjatlar nomigagina o'zbek tiliga tarjima qilinganligi alohida ta'kidlanadi. Hatto sobiq ittifoq davrida qonunlarni milliy tillarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda erkin tarjima qilishga ham yo'l

qo'yilmagan. Milliy istiqlol o'zbek qonunchiligining tili istiqboli, ilmiy-nazariy qoidalarining fundamental asosda chuqur o'rganilishi uchun tamoman yangi bir davrni boshlab berdi. Mustaqillikdan so'ng huquqshunos olimlar G'.Abdumajidov, G'.Ahmedov, A.Saidov, H.Odilqoriyev, L.Saidova, tilshunoslar M. Qosimova, Sh. Ko'chimov va boshqalar tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz joiz. U M.Mirxamidov, S.Hasanovlarning huquq va til bir-biri bilan uzviy bog'liq ijtimoiy hodisa bo'lib, til axborot olish va berish hamda saqlashning o'ziga xos quroli vazifasini bajarsa, huquq esa jamiyatda inson xatti-harakati, huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, qonunlarning ustuvorligiga erishish, davlat boshqaruvining izchil mukammal tizimini joriy etishga xizmat qilishi haqidagi fikrlariga qo'shilib, huquqning ro'yobga chiqishi tilsiz mavjud bo'la olmasligini e'tirof etadi [6, 7-bet].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qonunlar tili terminalogiyasi tarixan o'rganilgan soha bo'lib, bugungi kunda tilshunoslik va huquqshunoslikning o'zaro bog'liqlikda yanada rivojlanayotgan sohasi hisoblanadi. Bu soha to'xtab qolmasdan yangi – yangi ilmiy izlanishlarga tayanch bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри–Т: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси. 1993.
2. Маҳмуд Кошғарийнинг “ Девону луғатит турк” I-III томлар. – Т., 1960-63.
3. Алишер Навоий. Асарлар. Ўн учинчи том. - Т., 1966.
4. Фуломова Г. Ўзбек юридик терминалогиясининг истиқлол даври тараққиёти. Афтореф.дис...филол.фан.ном.- Т. 2005.
5. Ш Кўчимов. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари. Афтореф.дис...филол.фан.докю – Т.2004. Б.
6. Мирхамидов М., Ҳасанов С. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Университет, 2004.

ID-020-30-T011

Shahnoza Sidiqova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

RANG-TUS BILDIRUVCHI BELGILARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat” ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. rang bildiruvchi so'zlarni axromatik va xromatik guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin. Axromatik ranglar guruhiga o', qora va bu ranglar o'rtasidagi barcha kulrangga yaqin ranglar kiradi. Xromatik ranglar gruppasiga barcha ranglar, ya'ni spektrdagi barcha ranglar kiradi. Rang-tus ifodalovchi ushbu so'zlar asl luga'viy ma'nosidan tashqari ko'cham ma'noda turli emotsional-ekspressiv atenkalarda qo'llanadi

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, til, rang, folklore, oq, qora, qizil, yashil, sariq.*

Annotation. Lingo culturology is a separate field of study of language and culture, the phenomena that reflect the integral connection of "language and culture", its formation and development. It is a generalization between cultural studies and linguistics, which deals with the interaction and interdependence of language and culture, the formation of this relationship and its reflection as a whole system of language and non-language. is engaged in research. Color words can be studied in achromatic and chromatic groups. The group of achromatic colors includes colors such as o, black and all the grays between these colors. The group of chromatic colors includes all colors, all colors in the spectrum. In addition to the original lexical meaning, these words, which express color, are used in a variety of emotional and expressive terms.

Key words: *lingo culture, language, color, folklore, white, black, red, green, yellow.*

Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma'noda har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda biz lingvokulturologiya tushunchasiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan - tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya - "til va madaniyat" ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar - til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi.

Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondoshuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyliigi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos

milliy til xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Ma'lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N. S. Trubetskiyning yozishicha: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart[4.14-b]. Til va madaniyatning ana shunday o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini berdi. Ya'ni, til va madaniyat. "Lingvokulturologiya" atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V. N. Teliya va V. V. Vorobyov, V. A. Maslova va boshqalarning ishlarida ko'rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V. F. Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar[7.20-b]. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A. A. Potebnya, L. Vaysgerber, X. Glins, X. Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi[3.20-b]. Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarshlarga ko'ra, til nafaqat madaniyat bilan bog'liq, balki u o'zida madaniyatning o'sishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning o'zida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini ta'minlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida ma'naviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish, materiallari real yaratiladi.

Hozirgi ishimiz til va madaniyatni jipslashtirgan holda uni rang simbolikasi bilan bog'lashdir. Bu ish nomini o'qishingiz bilan hayolingizdan bizning milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz va ayniqsa milliy merosimizning qanday tasvirlangani ko'z oldingizdan o'tgan bo'lsa ajab emas. Biz lingvokulturologiya haqida tushunchaga ega bo'lgan holda ranglar serjiloligi tomon yo'l olamiz.

Predmetning belgi alomatlaridan biri rang-tusdir. Bir turkum sifatlar predmetning ana shu belgisini ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek

tilshinusoligida rang-tus ifodalovchi soʻzlar bir qator tadqiqotlarning oʻrganish obʻyektini boʻlgan. M.Sodiqova rang bildiruvchi soʻzlarning leksik-semantik hamda grammatik xususiyatlari tadqiqi boʻyicha ish olib brogan [10.10-b]. Tilshunos rang maʼnosini ifodalovchi soʻzlarni asliy va taqlidiy ranglarga boʻlib oʻrganadi. Taqlidiy rang nomlari tabiatdagi rangdor predmetlar tusiga taqlid asosida hosil qilinadi: Gunafsha rang, qovoq rang. Asliy ranglar turkumiga oq, qora, qizil, sariq, yashil, moviy, qoʻngʻir rang nomlari kiritilib, tahlil qilinadi. Xususan, olim bu tipdagi soʻzlardagi daraja kategoriyasining ifodalanishiga alohida eʼtibor qiladi.

I.Hamdomova oʻzbek tilidagi rang bildiruvchi soʻzlarni axromatik, xromatik rang bildiruvchi soʻzlar va spektr rang sinonim guruhiga boʻlib oʻrganadi [8.5-b]. Axromatik ranglar qatoriga oq, qora, kulrang, sur, boʻz rang sifatlarini; xromatik ranglarga, spektr ranglarga qizil, yashil, havo rang, koʻk, binafsha rang leksemalarini kiritadi. Spektr ranglar sinonimlari guruhi predmet nomiga qiyos qilib olingan rang nomlarini qamrab oladi: bugʻdoy rang, binafsha rang, jigar rang. Bu guruhlarga kiritiladigan sifatlarning leksik-grammatik xususiyatlari oʻrganilgan boʻlsada, mazkur leksemalarning stilistik xususiyatlari eʼtibordan chetta qolgan. Shu bilan birga, ayni sifatlarga yuklanadigan qoʻshimcha emotsional maʼno nozikliklariga bir muncha diqqat qaratilgan. I.Gʻanixoʻjayeva oʻzbek tilidagi rang bildiruvchi sifatlarni qiyosiy-diaxronik aspekti tadqiq etadi. Bunda rang-tus sifatlari semantik- funksional jihatdan tahlil qilinadi hamda ayni soʻzlarning yozma yodgorliklardagi ekvivalentlari bilan aloqasi masalasi koʻrib chiqiladi. [1.] S. Matchanova esa rus va oʻzbek tillaridagi rang ifodalovchi soʻzlarning leksik-grammatik xususiyatlarini taqqoslab oʻrganadi, ammo ularning stilistik xususiyatlariga alohida toʻxtalmaydi. [4.] M. Mamadaliyeva tomonidan rang-tus bildiruvchi soʻzlar konnotatsiyasi qisman oʻrganilgan [8.]

Maʼlumki, rang bildiruvchi soʻzlarni axromatik va xromatik guruhlarga boʻlib oʻrganish mumkin. Axromatik ranglar guruhiga oʻ, qora va bu ranglar oʻrtasidagi barcha kulrangga yaqin ranglar kiradi. Xromatik ranglar gruppasiga

barcha ranglar, ya'ni spektrdagi barcha ranglar kiradi. Rang-tus ifodalovchi ushbu so'zlar asl luga'viy ma'nosidan tashqari ko'cham ma'noda turli emotsional-ekspressiv atenkalarda qo'llanadi.

M.Sodiqova axromatik ranglar guruhiga kiruvchi oq so'zining o'zbek tili lug'at sostavining eng eski so'zi ekanligini "Kul-taging" obidasi, "Devonu lug'atit turk" kabi yodgorliklardan olingan misollar orqali isbotlab beradi [10.30-b]. Shuningdek, oq so'zining ko'chma ma'nolari izohlanadi: 1) shevalarda "sut-qatiq" ma'nosini beradi: oq ichdim; 2) "begunoh", "haq" ma'nolarida: Oq bo'lsa, nimaga guvoh ko'rsatmaydi? 3) Oq so'zi badiiy tasvirda "qor yoqqan joy" ma'nosida, shuningdek, majoziy ma'noda "poklik", "begunohlik", "shodlik" ramzi bo'lib xizmat qiladi; 4) oq so'zi toza degan ma'noda ham qo'llaniladi: oq qog'oz oldi. Tadqiqotning asosiy maqsadi rang-tus ifodalovchi so'zlarning leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganish bo'lganligi sababli, bu so'zning stilistik xususiyatlari deyarli izohlanmagan.

Oltioylklarda oq rang motam ramzidir. Manbalar Chinda yashagan turk tilli solarlar uchun oq rangining boshqa ma'nolari bilan bir qatorda, motam timsoli bo'lganligidan ham xabar beradilar. Faqat turkiylarda emas, boshqa ayrim xalqlarda ham ko'k va oq motam libosi sanalgan [2.12-b] Ba'zi xalqlarda, jumladan, turkiy qavmalarda ham oq rang motam, musibat, hatto qurg'uoqchilik alomati hisoblangan [5.15-b]. Hozirda ham O'zbekistonning ayrim viloyatlarida, masalan, Qashqadaryo, Xorazmda yashovchi aholi uchun oq rangi motam belgisi hisoblanadi.

M.Sodiqova qora so'zini o'zbek tili lug'at fondining eng eski va asosiy so'zlaridan biri sifatida quyidagi ma'nolarni ifodalaydi, deb ko'rsatadi: 1) iflos, kir ma'nolarida qo'llanadi: Usti-boshi qora yer bo'libdi; 2) qora so'zi "ter" so'zining o'z ma'nosini aniqlab keladi: U qora terga tushib ketdi [10.34-36-b]. Bunda qora so'zining o'z ma'nosida va ko'chma ma'noda qo'llanilishi tahlili o'rinlidir. Qora leksemasi oq leksemasiga zid qo'yiladi. Qora leksemasida salbiy ma'no ottenkasi kuchli bo'lib, xilma-xil konnotativ ma'nolarni ifodalab keladi. Qora so'zi ayrim so'zlar ishtirokida kelib, "baxtsiz", "g'am-alamli kun" va

“taqdir” ma’nosini bildiradi: Qora endi kunlarim, qora edi qismatim. Ko’zim qarog’imda ham, yoshim endi limo-lim (A.O.). Keyingi misralarda qora so’zi qattiq g’ussa va kuchli qasos ma’nosini anglatib, so’zga salbiy ekspressiv ottenka yuklagan: Tunmi bu, yoyinki tunlar unut – ufqlar chaplashgan mavhum lomakon?! Bunda qo’nim topgan o’tmishdan yohud Qora g’usaa ortib qaytgan shum karvon (O.M.).

Qizil axromatik ranglar turkumiga kirib, qon rangidagi, qirmizi, alvon ma’nosini bildiradi va nutqiy sharoitlarda turlicha konnotatsiyaniyuzaga keltiradi: Mansur baxshi zar yoqalik to’n, qizil etik kiyib kuyovlardey yasanib kelgan edi (P.Q.). Uchovlari hovlidagi ustiga qizil sholcha tashlagan katta karavotda, doira xontaxta atrofida o’tirib, chexralari ochiq, uzoq gaplashishdi (M.). Qizil leksemasi qadimgi yozma yodgorliklarda bir qator ramziy ma’nolarni ifodalagan. Masalan: “Qatadg’u bilig” da Yusuf Xos Xojibning qizil rangiga bo’lgan alohida munosabatini ko’rish mumkin. Bu asarda qizil keng ma’nodagi hayot, tiriklik, mavjudlik bilan aloqador ekanligini kuzatish mumkin.

Hatto til va madaniyatning uyg’unligini biz qadimgi tarixdaham ko’rishimiz mumkin.shu bilan birga ayniqsa bu mifolog qarashlarda yorqin namoyon bo’lgan.

Oq, qizil va qora ranglarning dastlabki mifologik tasavvuridai umulashma ma’nolari haqida etnograf olim L.Миронова shunday yozgan: “Qizil rangda ibtidoiy odam, qon, olov, issiqlik va quyoshni ko’rgan” Afrikaning mahalliy marosim va udumlarini tadqiq etgan B. Тернер oq, qizil, qora rang uchligi haqida qiziqarli mulohazalarni bayon etgan. Olim fikricha, o’lim, behushlik, tush yoki qorong’ulikni ifodalovchi qora rang, odatda, inson ongidagi “hushsizlik” bilan bog’liq. Shu sababli qora rang anglatgan ma’nolardan qo’rqish xalq orasida uni salbiy tushunchada ifodalashga asos yaratgan. Oq hamda qizil rang hayot timsoli hioblanadi. Ular marosimda birlashganda, oq hayotda mardlik va o’simliklardan olinadigan oziq-ovqatni bildiruvchi, qizil esa uning aksi – nazokat va go’shtli ovqatlarni ifodalaydi.

Nikoh to'yining ilk bosqichi bo'lgan sovchilik udumida oq rang alohida o'rin tutadi. Sovchilikka borilganda qiz tomon rozi bo'lsa, oqlik berish odati mavjud. Shundan so'ng kuyiv tomon kelingga oq rangli nikoh ko'ylagi va katta oq harir ro'mlol jo'natgan. Nikoh to'yida kelin kuyov oq rangdagi sarpolar kiyishadi. Kelin uchun to'y olidadan jo'natiladigan sarpolar ustiga oq surpga o'rab oyna qo'yilgan. Bu oyna o'raglan oq surpli tugun to'y kuni kelin kuyov go'shangaga kirganda oyna ko'rsatish muddatidagina ochilgan. Kuyov uchun tikilgan to'n kiydirilganda uning egniga kuyovning bo'yi barobar oq ip o'tkazilish odati ham bor. Ipning hajmi kuyovning bo'yidan kam bo'lmasligiga alohida e'tibor berilgan. Bu irim bo'lajak olianing baxtli hayot yo'li uzun bo'lishi istagini ifoda etgan. Nikoh kuni kuyov xonadoniga kuzatilayotgan qiz otasining oyog'iga bosh qo'yib, undan oq "fotiha" rozilik oladi. Nikohdan so'ng, kuyiv xonadoniga keltirilgan kelinchak, oq un, oq mato – poyandoz, oq sut bilan kutib olinadi. Qudalarning yuziga ham un surtib ko'rishish odatiga respublikamizning barcha viloyatlarida bugungi kungacha amal qilib kelinmoqda. Ba'zi joylarda kelin-kuyovga oq rangdagi kiygizdan o'tov tikiladi. Shundan bo'lsa kerak nikoh marosimi bilan bog'liq yor-yor, kelin salom namunalarida "oq o'tov" obraziga alohida urg'u beriladi.

Oq rangning ramziy ma'nosini to'ydn so'ng xonadon surpasiga oldiga o'tirkizib un va yog'ga qo'lining tekkizilishi odatida ham ko'rish mumkin. Kuyov chaqirdi marosimida kuyov ham ostonada oq payandoz solib kutib olinadi [2. 100-b]. Muchal to'yida o'n ikki yoshdan o'n uch yoshga qadam qo'ygan o'g'il-qizlarga oq liboslar kiydiraladi. Bu udumning tarixiy ildizlari zardushtiylik bilan bog'liq. Sunnat qilinayotgan bolaga ham oq ko'ylak ishton tiktirib kiydiraladi. Ushbu jarayonda bolaning onasi jimjilog'ini kosadagi unga solib odati ham bor. Bu irimlar zamirida oq rang poklik, pokizalik timsoli.

Qadimiy mifologik dunyoqarashga ko'ra oq rang "...xudolar rangi, ko'zga ko'rinmas qudratli kuchlar rangi" [6. 104-b] sifatida ilohiy deb qaralganligining ramzini-musulmon olamidagi haj ziyoratini ado etish maqsadida mahsus oq kiyimda "Ka'ba-Xudoning uyi" ga boruvchilar ham isbot etadi.

Xalq orasida “qora osh”, “qora ovqat”, “qora sho’rva” birikmalari ham ishlatiladi. Odatda motam marosimi ovqati “qora osh” deb yuritiladi. “Qora ovqat”, “qora sho’rva” esa xalq satirik qo’shiqlarida qashshoqlikni anglatuvchi ramziy ma’noda qo’llanilganligini kuzatamiz. Yana bir narsani shu yerda ta’kidlab o’tish kerakki, “ qora qozon” degan tushuncha ham mavjud. Bu ham bizning ba’zi viloyatlarda nishonlanadigan urf-odatlarimiz sanalar ekan. Buning ma’nosi to’y o’tganidan so’ng sahna ortida xizmat ko’rsatgan barcha qarindosh- urug’larni mehmon qilish kerak bo’lar ekan. Qanday qiziq va antiqa urf-odatlarimiz bor to’g’rimi?!

Xalqimiz udumi bo’yicha motam marosimida marhumlar oq surpdan tayyorlangan kafanga o’rab dafn qilinadi. Marhum agar yosh bo’lsa, mayit solingan tobut ustiga qizil baxmaldan, o’rta yoshli bo’lsa ko’k yoki to’q yashil matodan, keksa bo’lsa – oq so’zana yopiladi. Bunda qizil rang – yoshlik, guldek yashnaganlik davrini, oq rang – soch-soqol oqarish kabi keksalik alomatini ifoda etadi. Sariq rang go’yo marhumning qayta tirilishini cheklaydi. Natijada uning orqasida qolganlarning rangi sarg’ayib qoladi. Xalqimiz udumi bo’yicha motam marosimida marhumlar oq surpdan tayyorlangan kafanga o’rab dafn qilinadi. Marhum agar yosh bo’lsa, mayit solingan tobut ustiga qizil baxmaldan, o’rta yoshli bo’lsa ko’k yoki to’q yashil matodan, keksa bo’lsa – oq so’zana yopiladi. Bunda qizil rang – yoshlik, guldek yashnaganlik davrini, oq rang – soch-soqol oqarish kabi keksalik alomatini ifoda etadi. Sariq rang go’yo marhumning qayta tirilishini cheklaydi. Natijada uning orqasida qolganlarning rangi sarg’ayib qoladi.

Shunday qilib, rang simbolikasi milliy madaniyatimizni eng qadimgi davrda shakllanib kelishida ham o’z o’rniga ega ekanligini inkor etolmaymiz va eng qizig’i shu ranglar ortida bizning qiziq bir an’ana hamda unitilmas tariximiz yotganligi bejiz emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ГаниходжаеваюМ. Прилагательные света узбекского языка в Сравнительно-историческом аспекте: Автореф.Дис...Канд.фил.наук. – Ташкент, 1986.
2. Л.Миронова. Цветоведение.–Минск: Высшая школа, 1984.С.60.
3. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.,1987.
4. Матчанова.С. Русско-узбекские параллели цветаобозначающих прилагательных: Дис...Канд.фил.наук. – Ташкент, 1987
5. Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.:НЛ.в.1.М.,1960.
6. Ashirov A. o'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. -Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. -b.101.
7. V.Gumboldtning til va shaxs haqidagi fikrlari to'g'risida qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.-Toshkent: Akademnashr, 2012. - B.23-40.
8. Hamdomova.I. O'zbek tilida sifatlarning ma'no turlari va ularning o'zbek tili izohli lug'atida berilishi. – B.38.
9. Mamadaliyeva.M. O'zbek tilida nominativ birliklarining konnotativ aspekti.
10. Sodiqova.M. O'zbek tilida rang-tus ifodolovchi so'zlar.

ID-020-30-T012

Shohsanam Abduraimova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

IMPLIKATSIYA HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR TAHLILI: TALQIN VA MUNOSABAT

Annotatsiya. Maqolada presuppozitsiya, implikasiya, implikatura, eksplikatura kabi terminlarning lingvistik tabiati haqida so'z yuritilgan. Ularning matndagi pragmatik roli va ahamiyati masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *presuppozitsiya, implikasiya, implikatura, pragmatik*

Annotation. The article deals with the analysis of the linguistic nature of the terms presupposition, implication, implicature, explicature while differentiating these notions. The different role of the meanings denoted by these terms as means of the pragmatic coherence of the text is described.

Keywords: *presupposition, implication, implicature, explicature, pragmatic.*

Til ijtimoiy hodisa, u doim inson hayoti, uning aqliy faoliyati bilan uzviy bog'langan. Nutq jarayonida insonlar o'zaro axborot uzatadilar va qabul qiladilar. Ammo bu jarayonda muloqot ishtirokchilari faqat axborot almashinib qolmay, nutq sohibining qolgan ishtirokchilarga ta'sir o'tkazishi, ishora qilishi, biror voqelikka ishontirishi, ta'kidlashi, o'z munosabatini aks ettirishi, biror narsaga undashi kabi maqsadlari ham amalga oshadi. Bunday holatlarda lisoniy birliklariga axborot berishdan tashqari yana bir necha vazifa yuklanadi, ularga pragmatik tus beriladi.

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'tgan asrning 70-80-yillarida shakllangan. "Pragmatika tushunchasi "ish", "faoliyat",

ma'nolarini bildiradi, shuningdek, uning lug'aviy ma'nosi "amaliy ish" mazmuni bilan ham reallashadi. Bundan ko'rinadiki, pragmatika bevosita til belgilarining nutqdagi funksional qo'llanishidan iboratdir, uning mazmuni esa odamlar o'rtasidagi aloqa-aralashuv jarayoniga xos ifodalash va anglash printsiplari asosida namoyon bo'lishidir" [6.89-bet]

Til birliklarining pragmatik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tilshunosligida yigirmanchi asrning 80-yillaridan boshlangan. Tilshunos olim N.Mahmudovning presuppozitsiya va gap munosabatiga doir, A.Nurmonovning ko'makchili qurilmalar presuppozitsiyasiga doir, D.Lutfullayevaning "o'rniga" ko'makchili qurilmalar presuppozitsiyasi haqidagi ilmiy maqolalari e'lon qilindi. Keyinchalik esa o'zbek tilshunosligida til birliklarining pragmatik xususiyatlari haqida qator tadqiqotlar yuzaga keldi. U.Rahimovning yuklamalar presuppozitsiyasiga doir, Z.Burxonovning o'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasiga doir nomzodlik dissertatsiyalari, A.Pardayevning yordamchi so'z turkumlarining, xususan, bog'lovchilarning so'z turkumlarining lisoniy tizimdagi o'rni va lingvopragmatik tadqiqiga doir doktorlik dissertatsiyalari, M.Qurbonovning bolalar nutqining pragmalingvistik xususiyatlariga doir ishlari shular jumlasidandir.

Lingvistik belgining umumsemiologik tabiati, til sathlariaro munosabat, nutqiy akt nazariyasi, matnning pragmasemantik tadqiqi kabi masalalarga oydinlik kiritar ekan, M.Hakimov pragmatikaning ob'ekti haqida ma'lumot berib, "konkret jumalardan anglashilgan bir qator qo'shimcha ma'nolar nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy bog'liqdir. Nutqiy vaziyat, kontekst bilan uzviy bog'liq bo'lgan ana shunday ma'nolar va bu ma'nolarni ifodalovchi vositalar lingvistik pragmatikaning o'rganish ob'ekti sanalishini" ta'kidlaydi [6.26-bet].

Presuppozitsiya, uning aks etishi, presuppozitsiyaga ishora qiluvchi birliklar turlichadir. "Presuppozitsiya pragmatik hodisa sifatida til birligining nafaqat kontekst, nutqiy vaziyat, balki til egalarining nutq ob'ekti haqidagi umumiy bilimlari, til ko'nikmasi kabi tashqi omillarni ham qamrab oladi.

Presuppozitsiya qayd etilgan tashqi omillar bilan bog‘liq holda yuzaga chiqsada, mohiyatan moddiy qobig‘iga ega bo‘lmagan, kontekst orqali implitsit tarzda reallashuvchi axborot hisoblanadi”[5.15-bet]

Presuppozitsiya til birligining “ichki imkoniyati”ni namoyish etadigan hodisadir. Presuppozitsiya hisobiga til birligining bevosita kuzatishda berilmagan semantik xususiyati yuzaga chiqadi. Presuppozitsiya ixsham shakl orqali ko‘p ma‘lumot berishga xizmat qiladi. Shu tariqa gaplarda semantik-sintaktik assimetriya paydo bo‘ladi. Presuppozitsiyada nutq ishtirokchilari voqelik haqidagi qo‘shimcha ma‘lumot yashirin ifodasini anglab yetishlari zarur. Bu ma‘lumot ba‘zan gapda aks etgan propozitsiyaga zid xarakterda bo‘lsa, ba‘zan mazkur propozitsiyani semantik jihatdan to‘ldiradi.

M.Hakimov presuppozitsiya gap orqali bayon qilingan asosiy propozitsiyaning aks mazmunidan iborat, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, presuppozitsiyaning asosiy belgisi matn orqali bayon qilingan propozitsiyaga – hukmga zid tarzda mazmuniy munosabatning anglanishidir[6.125-bet] Biroq gapda voqelangan presuppozitsiya har doim ham ochiq ifodalangan propozitsiyaga semantik jihatdan zid bo‘lavermaydi. Masalan, “*Yana yoningizga bosh egib keldim*” gapida ifodalangan «*Oldin ham bosh egib kelgan edim*» presuppozitsiyasi gapning propozitiv strukturasi semantik jihatdan to‘ldiradi, voqelikning avval ham sodir bo‘lganligini tinglovchiga eslatgan. Pragmatika sohasida qator tadqiqotlar olib borgan Sh.Safarov presuppozitsiya va impilitsitlik haqida quyidagicha fikr bildiradi. “Matnning va umuman turli ko‘rinishdagi nutqiy tuzilmalarning mazmunini belgilovchi hodisalardan yana biri *presuppozitsiyadir*. Presuppozitsiya maxsus adabiyotlarda inferentsiyaning xususiy ko‘rinishlaridan biri sifatida qaraladi va bunda ifodalanyotgan fikr – hukmning haqiqiy yoki o‘rinli ekanligi e‘tiborga olinadi. Buning uchun esa muloqot ishtirokchilari voqelik, kechayotgan yoki xabar qilinayotgan hodisa haqida biror bir umumiy ma‘lumotga ega bo‘lishlari kerak. R.Stolneyker ta‘biricha, “presuppozitsiya talab qilinayotgan lisoniy faoliyat ijrosidan oldin implitsit nazarda tutilgan propozitsiyadir” [4.123-bet]

Tildagi implitsitlik muammosi, uning nutq ishtirokchilari orasidagi munosabatni oydinlashtirishdagi ahamiyati, badiiy va publisistik matnlardagi o'rnini tadqiq qilish hozirgi zamon pragmalingsvistikasi, kognitiv tilshunosligi bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar uchun eng murakkab va qiziqarli masalalardan biridir. Axborotni implitsit ifodalagan, muallif tomonidan verbal ifodalanmagan, kitobxon yoki tinglovchining o'zi anglab yetishni ko'zda tutadigan bunday yashirin ma'nolar badiiy asarning ekspressiv-emotsionaligini ta'minlashda, pragmatik baho berishda, tinglovchiga ta'sir ko'rsatishda, ijodkorning badiiy-publisistik mahoratini belgilashda muhim vosita sanaladi. Har qanday matnda, xoh u badiiy, xoh u publisistik, xoh media matn bo'lsin implitsit ifodalangan fikr, uning ifodalanish turlari va vositalari nafaqat tilshunoslarni, balki juda ko'p boshqa soha vakillarini ham qiziqtirib kelmoqda. Bu borada ilgari surilgan g'oyalar, qarashlar, yo'nalishlar ko'p bo'lishiga qaramasdan implitsit axborotning mohiyati, yuzaga kelishi, nutq ishtirokchilari tomonidan anglanishi kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

O'zbek tilida yuklamalarning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilgan U.Rahimov presuppozitsiya va implikatsiyaga quyidagicha munosabat bildiradi: "I.Ballertning fikricha, presuppozitsiya implikatsiyaning xususiy munosabatidan kelib chiqadigan va tekst ichidagi gaplarning bog'lanishini hosil qiluvchi zarur hodisa hisoblanadi. Chunki har qanday gapda birdan ortiq implikatsiya mavjud bo'lishi mumkin. Bu implikatsiyalar xususiy va nutqiy hisoblanadi. Xuddi shu implikatsiyalar asosida tekst ichidagi gaplar o'zaro bog'lanib, ma'lum mazmunga ega bo'ladi: M.: *Ahmadning to'ng'ich o'g'li Karim Andijondan Toshkentga o'qishga ketdi* tipidagi gaplardan turli implikatsiyalarni tushunish mumkin [3. 4-bet].

"Implikatsiya deyilganida, kitobxon yoki suhbatdosh muloqot jarayonida duch keladigan, muallif tomonidan matn hosil qilishda qo'llanilgan verballashmagan shakllardagi, kitobxon yoki suhbatdoshning o'zi anglab olishga mo'ljallangan noverbal (nazarda tutilgan, yashirin) axborotlar tushuniladi. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotlarda «*implitsitlik*», *implikatsiya*»,

«implikativ» «tagma'no»(podtekst) kabi tushunchalarning aralash ishlatilib kelinayotganligini, ko'pincha ular turli tipdagi presuppozitsiyalar, semantik murakkab shakllar, turli shakllarda nazarda tutilgan, verbal ifodalanmagan axborot turlari bilan aralash ishlatilib kelinayotganligini ta'kidlash joiz" [2.74-75-bet]. Sh.Safarov implikatura va presuppozitsiya o'rtasidagi farqni quyidagicha tushuntiradi: " Implikatura doimiy bo'lmagan, matnda tez o'zgarib turadigan, hatto yo'qolishi mumkin bo'lgan ma'no, mazmun elementidir. Presuppozitsiya esa, aksincha, matnda yo'qolmaydigan, doimiylik xususiyatiga ega bo'lgan mazmuniy hodisadir. Bu ikki hodisaning yana bir farqi shundaki, presuppozitsiya ko'pincha lisoniy shakl bilan bog'liqdir, implikatura butunlay ma'no doirasiga kiradi va lisoniy shaklning o'zgarishi unga qariyb ta'sir o'tkazmaydi" [4.133-bet]

Presuppozitsiya ham, implikatsiya ham yashirin ma'no ifodalovchi hodisalar bo'lsa-da, ifodalanishi, qabul qilinishi, anglanishiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. "Shunday qilib, implikatsiya tushunchasi ifodalanmagan ma'no (axborot), ifodalanmagan fikrdan vujudga keladigan xulosa, ikki yoki undan ortiq lisoniy birliklarning nutq jarayonidagi mantiqiy-ma'noviy bog'likligini ifodalaydi" [1.78-bet]

Implisitlik presuppozitsiyadan farqli ravishda unga ishora qiluvchi lisoniy vositalar ishtirok etmaydi. Bu jihatdan implikatsiya tagma'noga o'xshab ketadi. M.Hakimov presuppozitsiya va tagmano'ni bir-biridan farqlash kerakligini aytib o'tgan.

Umuman, presuppozitsiya axborotni yashirin ifodalashiga ko'ra implisitlikni hosil qilsa-da, tilshunoslar ta'kidlaganidek aynan bir hodisa emas. Nutqda yashirin ifodalangan presuppozitsiyani til egalari unga ishora qilayotgan til birliklari, ko'p hollarda ko'makchilar, yuklamalar, morfologik vositalar yordamida anglab olishlari mumkin. Implisitlik esa anglanmay qolishi mumkin, bu jihatdan u tagma'noga yaqin turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирбобоева Д. Импликация тушунчасининг когнитив-прагматик аспектда талқин қилиниши. // *www.journal.fledu.uz*. – Б. 77-82
2. Кўчибоев А. Матн прагматикаси. Самарқанд 2015. 123 б)
3. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. номз. ... дисс.– Самарқанд, 1994.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент. 2008. – 318 б.
5. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари. Фил.фан.док.(DSc) дисс. – Тошкент. 2018.
6. Ҳақимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ...дисс. –Тошкент, 2001.

ID-020-30-T013

Charos Quchqorova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

IBORALAR SO'Z TURKUMLARI TIZIMIDA

Annotatsiya. Mazkur maqola iboralarni so'z turkumlarga ajratishga bag'ishlanadi va bu orqali iboralarning morfologiya bo'limidagi o'rnini aniqlash nazarda tutilgan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan taklif va tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: *ibora, so'z turkumlari, so'z birikmasi, fe'l iboralar, sifat iboralar, ravish iboralar.*

Annotation. This article is devoted to distinguish between phrases and parts of speech and by this way it is referred to the importance of phrases in morphology. Additionally, a number of suggestions and recommendations are presented on this matter by the author.

Key words: *phrase, parts of speech, word phrase, verbal phrase, adjective phrase, adverbial phrase.*

Ibora – birdan ortiq so'zlarning ko'chma ma'no ostida birlashishidan tashkil topgan lug'aviy birlik. Iboralar tarkibidagi so'zlarni ajratib bo'lmaydi, chunki ular tasodifiy ketma-ketlikda birlashmagan, ular uyushib, birgalikda ko'chma ma'no hosil qilgan. Iboralar sintaksis bo'limida bitta gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Demak, ularning morfologiyada ham so'z turkumi tarkibiga kirish huquqi mavjud, chunki tilshunoslikning bir bo'limida ma'lum bir vazifaga ega bo'lgan birlik keyingi bo'limlarda ham o'z mavqeyiga ega bo'lishi zarur. Aks holda, tilning sistemaviylik xususiyatiga putur yetadi.

Iboralarning ma'nosi qaysi so'zga teng kelishiga qarab so'z turkumlarga ajratish maqsadga muvofiq, ammo iboralarning ma'nosi bir so'zda namoyon bo'lavermaydi. Misol uchun: aravani quruq olib qochdi - uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtandi. Iboralar uchun so'z turkumlarini belgilayotganimizda uning qisqacha nutqiy izohidagi asosiy vazifa yuklatilgan so'zga e'tibor qaratamiz: aravani quruq olib qochdi - nima qildi? - maqtandi - fe'l so'z turkumi. Ayrim iboralarni so'z turkumlariga ajratish qiyinchilik keltirib chiqarmaydi. Masalan, quyida fe'l so'z turkumiga kiruvchi iboralarni berib o'tamiz: aqli yetdi - idrok etdi, bir paqir bo'ldi - barbod bo'ldi, beliga tepdi - xalaqit berdi, dili og'ridi - ranjidi, dili tortdi - yoqtirdi, fahmi yetdi - bildi, gapidan qaytdi - voz kechdi, g'azabga keldi - achchiqlandi, hushi boshidan uchdi - esankiradi, ikki ko'zi to'rt bo'ldi - intizor bo'ldi, jigar bag'ri xun bo'ldi- ziq bo'ldi, laqqa tushdi - aldandi, yuragidan sidirib tashladi - unutdi, boshi ikkita bo'ldi -uylandi, bosh egdi - bo'ysundi, damini kesdi - gapirtirmadi, gapiga kirdi - tingladi, holdan ketkazdi - toliqtirdi, izza tortdi - uyaldi, dunyoga keldi - tug'ildi, dunyodan ko'z yumdi, ko'ngli joyiga tushdi - tinchlandi...

Sifat so'z turkumiga kiruvchi iboralar: alifni kaltak deyolmaydi - savodsiz, ammamning buzog'i - landavur, bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday- beqiyos go'zal, beti shuvut -uyatli, dil tortar - yoqimli, fe'li keng - tanti, fe'li tor - ziqna, ilonning yog'ini yalagan- mug'ombir, istarasi sovuq - yoqimsiz, ko'ngli keng - saxovatli, parvoyi falak - beparvo, pixini yorgan - quv, qo'li ochiq - saxiy, turgan gap - aniq, uchpul - qadrsi, yer tagida ilon qimirlasa biladi - sergak, ko'ngli yumshoq-rahmdil, oralaridan qil ham o'tmaydi - inoq, ona suti og'zida - tajribasiz, osmon-u yercha - juda katta, ochiq ko'ngil - samimiy, tog'ni talqon qiladigan - zabardast...

Ravish so'z turkumiga kiruvchi iboralar: ellik og'iz - juda ko'p, bir og'iz - juda oz, bir-ikki og'iz - ozgina, bir - ikki shingil - ozgina, bir shingil - oz, bir chimdim - qittak, eldan burun - barvaqt, "hash - pash" deguncha - juda qisqa muddatda, to'rt og'iz - oz-moz, jon holatda - shiddat bilan, ikki so'zning birida-

qayta-qayta, ko‘z ostidan - yashiriqcha, oshib – toshib yotibdi - juda ko‘p, zo‘r berib - astoydil. Iboralarning har birini qaysi turkumga mansubligini aniqlash muammolarga va yechimsiz savollarga boy bo‘lishi mumkin, chunki ibora hozir ifodalayotgan ma’nosigacha uzoq yo‘lni bosib o‘tgan, ko‘plab grammatik hamda leksik o‘zgarishlarga uchragan va bugungi kunda yangi ma’no qirralarini namoyon eta boshlagan. “Azob chekdi” iborasini fe‘l so‘z turkumiga kiritamiz, lekin yuqoridagi iborani qiynaldi fe‘liga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirmaymiz. “Azob chekdi” iborasi behad qiynaldi, ya’ni qiynalish darajasining ancha balandligini ifodalaydi. Ushbu holat iboralarning ma’nosi faqatgina bir so‘zga emas, balki so‘z birikmasiga ham teng kelishini isbotlaydi. Shunday holatlarda so‘z birikmasidagi hokim so‘zga qarab so‘z turkumini aniqlaymiz: azob chekdi - behad qiynaldi (behad - tobe so‘z, qiynaldi - hokim so‘z) - fe‘l so‘z turkumi. Tilimizda so‘z birikmasiga teng keluvchi iboralar ko‘plab topiladi: abjag‘i chiqdi – qattiq jarohatlandi (qattiq - tobe so‘z, jarohatlandi-hokim so‘z) - fe‘l; burnini yerga ishqadi – qattiq jazoladi (qattiq - tobe so‘z, jazoladi - hokim so‘z) - fe‘l; peshona teri - halol mehnat (halol - tobe so‘z, mehnat - hokim so‘z) - ot; ko‘kka sovurdi - behuda sarfladi (behuda-tobe so‘z, sarfladi - hokim so‘z) - fe‘l; yerga kirib ketdi - qattiq izza bo‘ldi (qattiq - tobe so‘z, izza bo‘ldi - hokim so‘z) - fe‘l; tili qisiq - gapirmaslikka majbur (gapirmaslikka - tobe so‘z, majbur - hokim so‘z) - sifat; og‘iz ko‘pirtirdi - maqtanib gapirdi (maqtanib - tobe so‘z, gapirdi - hokim so‘z) - fe‘l.

Iboralarni so‘z turkumlariga ajratishda ularning tarkibiy qismi, ya’ni grammatik tuzilishiga nazar solamiz, iboralarning salmoqli qismi ot va fe‘l frazeologik birliklaridan tashkil topgan. Quyidagi iboralarning tuzulishida fe‘l frazeologik birliklari faol qatnashgan va ular fe‘l so‘z turkumiga kiradi: oyoq tiradi – o‘jarlik qildi, yodidan ko‘tarildi – unutdi, yon bosdi – yoqladi, umr ko‘rdi – yashadi, qoni qaynadi – achchiqlandi, o‘zini yo‘qotib qo‘ydi – gangib qoldi, ko‘ziga cho‘p soldi aldadi, ko‘ngli og‘ridi– ranjidi. Quyidagi iboralar tarkibida fe‘l va ot frazeologik birliklari teng huquqli bo‘lishiga qaramay ular sifat so‘z turkumiga kiradi: alifni tayoq deyolmaydi – landavur, burni osmonga

ko'tarilgan – gerdaygan, chumchuq “chir” etsa, yuragi “pir” etadi – qo'rqoq, Daqyanusdan qolgan – qadimgi, diltortar – yoqimli. Shu kabi misollar iboralarning tarkibiy qismi, ya'ni grammatik tuzilishi ularni so'z turkumlarga ajratishda muhim rol o'ynamasligini anglatadi.

Har qanday so'zning, shu jumladan, iboralarning ham grammatik xususiyatlarini o'rganish hamda aniqlash o'zbek tilshunosligidagi dolzarb muammolardan biri – o'zbek tilining kompyuterlashtirilgan modulini yaratishda muhim vazifa bajaradi. Til bir sistema ekan, undagi har bir element o'z o'rniga ega bo'lishi kerak. Iboralarning morfologiya bo'limida o'z o'rnini topishi tilimizning strukturaviy tuzilishini mustahkamlaydi. Tilimizdagi birliklarni yuqori darajada ilmiylik bilan tadqiq etsak, ularning ichki va tashqi shakllarini hamda ma'nolarini aniqlasak, iboralarni so'z turkumlarga ajratishni muvafaqqiyatli bajara olsak, tilshunosligimizdagi ma'lum bir kamchiliklarni bartaraf eta olamiz. Iboralar shu paytga qadar leksikologiya bo'limida o'rganilayotgan bo'lsa, turkumlarga ajratilgandan so'ng morfologiya bo'limida ham o'rganiladi, bu orqali o'quvchilar iboralar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi, ularda iboralarni munosib nutqiy sharoitda qo'llay bilish malakasi rivojlanadi. Zero, iboralar inson nutqini o'stiruvchi vositalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: “Talqin”, 2005.
2. Mengliyev B, Xudoyberdiyeva M, Boymatova O. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. - Toshkent: “O'qituvchi”, 1978.

ID-020-30-T014

Fazilat Tursuntosheva

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

TO'RA SULAYMON SHE'RLARIDA SO'Z MA'NOLARINING KO'CHISHI

Annotatsiya. To'ra Sulaymon ijodida so'zlarning ma'no ko'chish usullari; metonimiya, metafora, sinekdoxa va vazifadoshliklardan foydalanib chiroyli dalilashni, so'z ma'nolarning o'ziga xosligi haqida umumiy ma'lumot beriladi. Sherlarida qo'llangan so'zlarning tahlili bayon qilinadi. To'ra Sulaymon o'zbek adabiyotiga dilbar she'rlari, publisistik maqolalari bilan birga, "Qorasoch", To'lgonoy", "Yovqochdi", "Mangulik" turkum asarlari bilan munosib hissa qo'shgan. O'z she'rlarida tilimizning bebaho boyligidan, uning serqirra faoliyatlaridan unumli foydalangan.

Kalit so'zlar: *metafora, vazifadoshlik, metanomiya, sunbula, qora qosh, xalqchil, Yolg'iz, tog'lar obrazi, Go'rog'li sulton –bir yon, Mashrab.*

Annotatsion. In this article, ways of translating the meaning of words in the works of Tora Suleiman; beautiful metaphors using metonymy, metaphor, synecdoche, and functionality, and general information about the specificity of word meanings are given. An analysis of the words used in the poems is exposed. Tora Suleiman made a worthy contribution to Uzbek literature with his beautiful poems and journalistic articles, as well as a series of works "Karasoch", "Tolgonoy", "Yovqochdi", "Mangulik". In his poems, he efficiently used the richness of our language and its useful activities.

Keywords: *metaphor, functionality, metonymy, black brow, patriotic, alone, scene of mountains, Gorogli Sultan - one side, Mashrab.*

She'riyat – xalq mulki. She'riyat osmonida minglab ko'zga ko'ringan, xalq

qalbidan joy olgan shoirlar bisyor. Shunday shoirlardan biri To'ra Sulaymondur. To'ra Sulaymon o'zbek adabiyotiga dilbar she'rlari, publisistik maqolalari bilan birga, "Qorasoch", "To'lgonoy", "Yovqochdi", "Mangulik" turkum asarlari bilan munosib hissa qo'shgan. O'zshe'rlarida tilimizning bebaho boyligidan, uning serqirra faoliyatlaridan unumli foydalangan. Buni biz shoirning birgina she'rlarida so'z ko'chish usulini tahlil qilish orqali ko'rib o'tamiz. O'zbek tilida so'z ko'chish metofora, metonimiya vazifasifadoshlik, sinekdoxa kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. O'zbek adabiy tilidagi eng ko'p qo'llaniladigan usul bu- metafora va metonimiyadir. Shoir she'rlarini tahlil qilganimizda ham bunga amin bo'lamiz.

Suvlar ham tinidi sunbula kelib

Tinib – tiniqmadi bu ko'nghim hayhot

Na bahor, na yozdan, na to'kin kuzda

Hecham qoniqmadi bu ko'nghim, hayhot

Ushbu she'rda metafraning go'zal namunalarini uchratish mumkin. Sunbula bu insonga xos, tashqi tarafdin shunday "Sunbula kelib" deganda insonga xos harakat o'xshashligi mavjud. Rasmlarda ko'ngilning qoniqmasligi, insonni ajablantiradi. Mana shu yerda ham shoir metofora usulidan unumli foydalangan. "Qismat" deb atalgan she'rdan keltirilgan ushbu parchani o'qiganda qishloq surati – hech kimning hayoliga kelmaydi.

To'ra Sulaymon she'rlarida o'xshatish san'ati yuksak cho'qqiga chiqqan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jonsiz tabiat va uning unsurlardan unumli foydalana oladigan shoirningquydagi "Yolg'iz" she'rini olaylik:

Senam yolg'iz, men ham yolg'iz men qayda yo sen qayda

O'rtamizda qildim, tog'lar ko'rishar bu kun qayda

Men ham yolg'iz, sen ham yolg'iz, men yerda- yu sen ko'kda

Yetti iqlim yuki bordek mushdekkina yurakda.

Yolg'izlik faqat yaratganga xos. Inson uchun bu musibatdir. Misralar orqali Ollohga ishora bor. Insonga xos ko'rishish tog'lar obraziga ko'chirilgan. Mushdekkina yurakka yetti iqlim yuki borligi ham metofora. Negaki, yuk inson

gardanida bo'ladi. Jumladan, farzandlik yuki, yurt, vatani oldidagi yuki ka'bi ma'sulyati.

To'ra Sulaymonning deyarli har bir she'rida metaforani uchratamiz. Bu ham bir shoirning uslubi.

*Tog'larga suyandim tayanch bo'lsin deb,
Tayanch bo'lolmadi ulkan tog'lar ham.*

*Bog'larda tunadim nomli bo'lay deb,
Bolini etadi o'sha bog'lar ham.*

To'ra Sulaymon tog', bog' tabiatini dildan sevgan shoir. Bog'larni kim sevmaydi? Yam-yashil, jannatning ifori, so'lim manzaralar, yengil shabadalar, ahyon – ahyonda ko'zga tashlanadigan tog'gullari, mehnat zalvorini yelkasiga olgan odamlar bu go'zal hayot manzarasidir. Shoir To'ra Sulaymon mana shundan ilhomlanib, "Nido" nomli she'r bitganlar. She'r shunchaki yozilmaydi. Unda shoir his- tuyg'ulari, dardlari, quvonchi, shodlik damlari ham aks etadi. Lirik qahramon fikri o'ylari qorishib ketadi. To'ra Sulaymon tayanch bo'lsin deb tog'larga suyanadi. Aslida, yaqinlariga, do'stlariga suyangan. Tog'lar obrazida foydalanib metaforani yuzaga keltirgan. Bog'lar ham bolini qizg'ongan. U ishongan insonlaridan bol ta'bi, mehr, oqibat, sadoqat kutgan. O'xshatish yakuni metofora bilan bezatgan. To'ra Sulaymon so'zga ayricha bir erkinlik bilan yondashib har qanday asov so'zni ham yuvosh torttira oladi. So'zni ruhga bo'ysundira oladi. O'zi so'zning emas, ruhning studiyasida yuradi. Oddiygina so'zlardan To'ra Sulaymonga xos tasvir uslubini vujudga keltia oladi", deb yozilgan "Sensiz yolg'iz g'arib bo'ldi" kitobda.

To'ra Sulaymon ijodida oy obrazi ham ajoyib yaratilgan.

Dunyoda qalqib turgan dilga o'xshar deb,

Donishmandlar qaddi dilga o'xshar deb,

Ko'rguliklar hali mo'lga o'xshar deb,

Osmon o'rtasida to'lg'onadir oy.

Dunyo sehrli ertakka o'xshaydi. G'aroyib sarguzashtlar kutilmaganda ro'y beradi. To'ra Sulaymon dunyoni qalqib turgan soyga qiyoslagan. Daryo yoki dengiz bag'ridagi soy tinch turmaydi. Dengiz suvi uni to'lg'ontiradi Shu kabi dunyo ham sokin emas. Donishmandlar qaddi dilga o'xshatilyapti ta'bi bukchayganroq ular ko'p ko'rguliklarni ko'rib shu holga tushmagan. Osmon bag'rida turgan oy hammasiga guvoh. Bu manzarani ko'rib erta-yu kech afg'on chekadi. Biz buni ko'rmaymiz. To'lg'o'zgargandan oyning yuzlariga dog'lar tushgan. Bunday dardga pastdagi insonlar befarq.

Bu she'rni tahlil ya'ni ilmiy jihatdan qaraganda oy to'lg'onmaydi. Metaforaning yorqin namunasidir. To'ra Sulaymon she'riyati o'sha haqidagi bitikdir, janobi To'ra Sulaymon alamzada go'zallarga ana endi o'zingiz javob beravering degandi. "Go'ro'gli sulton bir yon "degan kitobda shoir. To'ra Sulaymon mahubasini yanayam ulug'lay boshladi. Mana quyidagi jumladan ko'rish mumkin.

Bir kokili Sir bo'lsa, ul biri Zarafshon bu!

Sir deb Sirdaryoni daryosi, Zarafshon deganda Zarafshon daryosi nazarda tutilgan. Aynan daryo, o'lka so'zlari tushib qolgan. Ixchamlikka erishgan va metonimiya so'z ko'chishi vujudga kelgan. To'ra Sulaymon she'rlarida metanimiyaning mohiyati katta ixchamlikka erishish. Shoirlar yorning sochini to'rga o'xshatilgandilar, zanjiriga o'xshatgandirlar, bir zamondosh shoir, hatto sharsharaga ne bo'пти, sharshara ne bo'пти! To'ra Sulaymon mahubini shunchalar yuksaklarga ko'tardiki, ulug'laganda ham ortiqcha kuchlanidhlar sezilmaydi". Metanimiyada ikki predmet o'rtasida doimiy aloqaning mavjudligi sababli biri aytilganda, ikkinchisini beradi" deyilgan.[6.28-bet.] Misol uchun quyidagi she'rni keltirish mumkin :

Yig'lab o'tar bo'lsam Mashrabday zor- zor

Qayg'ularim qaddi dollarga tushgay

Mashrab ishq shaydosi, Mashrabday deganda shoir tushib qolgan. Mashrab deb yozishda uni mashhur shoirligi tushuniladi. Ko'z oldimizda

g'azallari keladi. Mana shu yerda metonimiya hosil qilingan. "Orzularim" she'rida ham mavjud:

Tabiatan tilagim:

Tutganim oltin bo'lsa.

Aytganlarim yurakka

Ko'zga qo'shay yaqin bo'lsa.

Tutganim deganda tutgan narsani tushunamiz. Aytganlarim deganda aytgan so'zlarimni nazarda tutgan. Qisqartirish yo'li orqali metonimiya usuldan foydalanilgan.

Munosib bo'lolsam amolingizga

Yangi mehri To'raqullara tushgay

To'ra Sulaymon ijodining bahosi aniq, u katta shoir edi. To'raqul deganda To'raqul degan kishi nazarda tutilyapti.

She'r - ko'ngil mulki. Olamni shoirona idrok etilmaydigan boshqalarga noma'lum jihatlarini shoirlar ko'ra oladi. Shoirlik qismat;

Qosh qorasi – qorasi

Xasta dil sadporasi.

Xol bo'lguncha bo'larsiz

Bu jahon ovvorasi.

Qosh qorasi deganda go'zal ma'shuqa nazarda tutilgan, qoshi orqali qizga ishora. Qism orqali butun tushunilgan. Sinekdoxa mavjud.

Dunyo faqat ezgulikka yo'g'rilmagan fisq – fasod, boshiga ish tushsa, deganda dunyo tashvishlarini tushunamiz. Sinekdoxadan foydalanilgan. Shuni aytish lozimki, qo'shnimni deganda butun bir oila yoxud bir shaxs ko'z oldimizdan o'tadi. Uning harakati, fazilatlarini ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Bu sinekdoxaning o'ziga xos xususiyatidir.

To'ra Sulaymon o'zbek she'riyatining katta, qudratli safida borgan yengilmas lochinidir. To'ra Sulaymon shoirtabiat xalqimizning o'z so'zi – obrazli tili bilan so'zlaydi. To'ra Sulaymon ijodida xalqchilik bor.

Umuman olganda, Shoirning ijodi xalqchil, uning har qanday yurakni junbushga keltiradigan, erita oladigan, o'ylashga, mushohada yuritishga majbur qiladigan, go'zallikni tushunishga, borliqni chin ma'noda qabul qilishga o'rgatadigan, insonlarni ma'naviy shakllanishida yordam beradigan she'rlari anchagina. Asl shoirlar, asl ijodkorlarning ikkinchi umri bo'ladi, deyishadi. Ikkinchi umr- bu ular vafot etganlaridan keyin ham xalq va odamlar yuragida, ularning xotirida davom etadigan umrlaridir. "She'ri xalq qo'shig'iga aylangan shoirning umri uzun bo'ladi. Uning umri o'zbekman degan millat dunyoda yashagani qadar yetadi. Aslida esa, ana shu xalq qo'shig'iga aylangan she'rlar tufayli o'zbekning umri ham dunyo turguncha turadi"[5.26-bet]Darhaqiqat,asl shoirlar o'lmaydi. Ular xalq yuragida mangu yashaydilar. To'ra Sulaymon ham betakror she'riyati, go'zal ijodi bilan xalqimizning yuragida mangu qolajakdir. Umrboqiy asarlar yaratib kelgan buyuk shoirimizning xotira chirog'ini aslo o'chirmagaymiz.

Xulosa qilib aytganda, To'ra Sulaymon ijodiga nazar tashlar ekanmiz, she'rlarida til lisoniy hodisalarining barcha ko'rinishlarini uchratamiz.Biz ushbu maqolada faqatgina so'z ma'nolarining ko'chish usullariga to'xtalib o'tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Sapoyev, Sh.Avezmetov "O'zbek tilidagi arabcha va forsha so'zlar lug'ati" -T., "O'qituvchi" nashriyoti.1996.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. - T., 2006-2008.
3. To'ra Sulaymon.Sensiz yolg'iz, g'arib bo'ldim -T.: 2013.
4. Sayfullayeva va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent. 2009.
5. Ravshanbek Mahmudov. To'ra Sulaymon. Toshkent,2008. 26-bet.
6. I. Risqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent,2006.28-bet.

ID-020-30-T015

Gulira'no Isaqulova
O'zbek tili fakulteti 1-kurs talabasi

USMON NOSIR SHE'RIYATIDA MA'NODOSH SO'ZLARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya. Maqola shoir Usmon Nosir she'riyatida ma'nodosh so'zlarning qo'llanishi, shoir ijodida ma'nodosh so'zlar va ularning badiiy ta'sirchanlikni oshirishdagi qirralarni o'rganish barobarida she'riyati tilidagi uslubiy o'ziga xosliklar, birdan ortiq ma'nodosh so'zlarni ketma-ket qo'llash orqali tasvir tiniqligini ta'minlaganligi, u faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarning qo'llanishi, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etilishiga doir kuzatish va tahlillarni aks ettirgan.

Kalit so'zlar: *ma'nodosh so'zlar, badiiy tasvir, uslubiy xoslik, badiiy ta'sirchanlik, personaj ruhiy holati, milliy ruh.*

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganish munozarali va dolzarb masalalardan biridir. Keyingi paytlarda badiiy til uslubiyati, lingvopoetika, lingvostilistika, badiiy, ilmiy va rasmiy uslublarni tadqiq qilish bo'yicha bir qator salmoqli tadqiqotlar olib borildi. Bu ishlarda lisoniy vositalarning ma'noviy, uslubiy, lingvopoetik xususiyatlari yuzasidan fikrlar yuritilgan.

Bunday tadqiqotni amalga oshirish ijodkorning badiiy til vositalaridan qay darajada foydalana olganligini belgilash, til birliklarining badiiy va estetik ta'sir imkoniyatlari haqida ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Ushbu kichik tadqiqotimizda Usmon Nosir she'riyatida qo'llanishda bo'lgan til birliklaridan biri, ma'nodosh so'zlar va ularning badiiy

ta'sirchanlikni oshirishdagi qirralarini o'rganish barobarida adib she'riyati tilidagi uslubiy o'ziga xosliklarni belgilashga harakat qilindi.

She'rda ma'nodosh so'zlarning qo'llanilishi ma'noni kuchaytirish bilan birga mazmuni o'quvchilarga yetkazib berishga qulay imkoniyat yaratadi. Usmon Nosir asarlari tilida ham ma'nodosh so'zlar salmoqli o'rinni egallaydi. Iste'dodli shoirning ma'nodosh so'zlardan foydalanish mahoratini tadqiq qilishda ikki muhim jihatni e'tiborga olish lozim bo'ladi. Ulardan biri shoirning ikki va undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan ma'no-mazmun uchun eng maqbulini tanlash bo'lsa, ikkinchisi, ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zlarni badiiy tasvir maqsadiga hamohang holda qo'llashdir. [1.77]

O'zbek tilida sog'lik, salomatlik, sihatlik tarzidagi ma'nodosh so'zlar qatoridagi sihatlik so'zida xalq tiliga yaqinlik mavjud, ma'nosi kuchliroq. Shoir sihatlik so'zini tegishli mazmun ifodasi uchun sog'lik, salomatlik so'zlarini emas, balki sihatlik so'zini tanlash orqali tasvirda milliy ruhni birinchi planga olib chiqishga erishgan:

Yaxshi ona,

O'qish yaxshi,

Sihatligim yaxshi. (Oq yuvib, oq tarab)

Usmon Nosir ijodida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zlarni aynan bir o'rinda aniq maqsadga bo'ysundirgan holda qo'llash hollari ko'p uchraydi. Shoirning badiiy til mahorati uning leksik ma'nodoshlikdan tasvir tiniqligi, badiiy barkamollik, nazarda tutilayotgan asosiy g'oyaga urg'u berish qo'llanganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir "Yoshlik" she'rida jo'shqinlik, orzularga to'la bolalikning beg'ubor his-tuyg'ularini alohida ta'kidlash orqali ko'zlagan maqsadiga erishgan:

Yoshligimning tarozusi beposongi,

Bir pallasi bahor toshi bilan og'ir.

Sevinchim ko'p, **shodligim** zo'r, tilim biyron,

Qaysi umr shunday yoshlik ko'rdi axir?! (Yoshlik)

Usmon Nosir she'riyatida frazeologik ma'nodoshlikning betakror namunalarini ham ko'rishimiz mumkin. Uning "Qon" she'rida tabiat manzaralari yorqin ranglarda aks etadi:

Quyosh botib

Kech kirgan,

Yurar gazlab

silab betlarini

shamol... (Qon)

"Shu kunlarning talabi" she'rida ketma-ket qo'llangan ma'nodosh so'zlar orqali shoirning ruhiy holatini, tasvirlanayotgan voqelikka munosabatini anglash mumkin:

Sen yaxshilab

bajarib qo'y,

Mo'ljalga yetir.

Yangicha rahbarlik kerak

Yangicha ishga. (Shu kunlarning talabi)

Quyidagi misralarda dushman, yov so'zlari ketma-ket qo'llangan. Dushman so'zida uslubiy neytrallik bo'lsa, yov so'zida esa badiiy nutqqa xoslanganlik semalari mavjud. Ushbu so'zlarning ayni matnda ketma-ket kelishi ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan:

Hali **dushman**

Ichdan kuyib,

Bir ilon kabi

Bizning qurilishga,

Zahar sochmoq bo'lib har gali

Ming to'lg'onadir!..

Sinfiy **yovning** xurujiga

Zarba beraylik. (Shu kunlarning talabi)

She'ring keyingi bandi bo'lgan ushbu parchada kuch va quvvat ma'nodosh so'zlari biror ishni amalga oshirishga qaratilgan, biror maqsad uchun foydalanadigan narsa ma'nolarini ta'kidlash uchun qo'llanilgan:

Safarbar bo'lsin

Buyuk ish planiga

Kuch

Quvvat,

Ong!.. (Shu kunlarning talabi)

Keyingi misralarda qator kelgan ma'nodosh so'zlardan oldin *har bir* so'zlarini qo'llash orqali tasvirlanayotgan tushunchalarni alohida-alohida ta'kidlanish barobarida ma'no kuchaytirishga bo'ysundirilgan:

Har bir **zarra,**

Har bir **mayda,**

Kichik narsani

Avaylashga o'rgataylik. (Shu kunlarning talabi)

She'ring keyingi bandlarida ham shoir birdan ortiq ma'nodosh so'zlarni ketma-ket qo'llash orqali tasvir tiniqligini ta'minlagan. *Ong* va *shuur* so'zlari odam ruhiy holatining oliy shakli, kishi fikrlash qobiliyati ma'nolarida qo'llaniladi. Ong so'zi ulubiy betaraf bo'lsa, shuur so'zida badiiylik kuchliroq. [2.58] Bu ma'nodosh so'zlarning misralarda qator kelishi esa badiiy barkamollikni yuqori pog'onaga ko'tarish maqsadida qo'llangan:

Yangi **ong-u,**

Keng **shuur**

Topib,

Temir otning tizginini

Qo'liga oldi. (Shu kunlarning talabi)

Shoir bundan keyingi bandlarda ham ma'nodosh so'zlarni turli badiiy maqsadlarga bo'ysundirgan. *Bardam*, *tetik* so'zlari kuch-quvvatini yo'qotmagan ma'nolarida keksalarga yoki kasallarga nisbatan qo'llanadi.

Ayniqsa, bardam soʻzi tilda faol ishlatiladi. Bu soʻzlarning misralarda qator kelishi esa maʼno kuchaytirish vazifasini oʻtagan:

Kolxozida traktorist,

Bardam va **tetik**

Jamoaga koʻngilli-

Usta mexanik. (Shu kunlarning talabi)

Puxta, pishiq, mustahkam, mahkam, chidamli maʼnodoshlik qatoriga mansub puxta, pishiq soʻzlari “Bodom gullagan kechasi” sheʼrida ketma-ket qoʻllangan. Puxta, pishiq narsalarning buzilish, yirtilish, uzilishga chidamlilik darajasi yuqori degan maʼnoda keng qoʻllanadi. Bu soʻzlarga shoir yangicha ruh bagʻishlab ishni sifatli bajarmoq maʼnolarini singdirgan:

Har bir ishni **puxta** qilib,

Pishiq bajarib.

Tez, ildam, jadal, shitob, shaxt, zud

Shoir sheʼrning keyingi misralarida **tez, ildam, jadal, shitob, shaxt, zud** maʼnodoshlik qatoriga mansub jadal, tez soʻzlarini qator keltirish voqelikka diqqatni jalb qilish maqsadini koʻzlagan. Tilimizda faol qoʻllanishda boʻlgan tez soʻzi keng tushunchaga ega. Jadal soʻzi tilimizda kam ishlatilsa-da, tez va ildam soʻzlariga nisbatan kuchli darajada:

Haydov planini **jadal**,

Tez bitirgali. (Bodom gullagan kechasi)

Shoirning “Iqomxon” sheʼrida ham maʼnodosh soʻzlarni ketma-ket qoʻllash orqali badiiylikka erishilgan:

Shartimiz ellik paysa,

Orvanomus qimayna, (Iqomxon)

Shu mehnatning **dovrugʻi**,

Mehnat, obroʻ tugʻdirar.

Iqomxonning **shuhrati**

Mehnat bilan tugʻilgan. (Iqomxon)

Afsonada **maqtalgan**
Afsonada **dovrug' olgan.**
Shoh qizlaridan yiroq
Bizning Iqomxon biroq.

Bu yerda yuksaldi
Nola, fig'on, zor
Bu yerda tug'ildi
Dard bilan **ozor.** (So'zla, tarix-chol)

Bunda davron surdi
Ugay bir davron
Zulmdan, vahshatdan,
Dahshatdan qochib. (So'zla, tarix-chol)

Satrlar sof samimiyat bilan sug'orilgan. So'z san'atkori – Usmon Nosirning mahorati yana shundaki, u faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko'ra ma'nodosh bo'lmagan so'zlarni ham shunday qo'llaydiki, bu so'zlar ham matnda xuddi ma'nodosh so'zlar kabi idrok etiladi. Quyidagi misralarda kirli, alamli, dog'li so'zlari ayni matnda bir ma'nodoshlik qatorini yuzaga keltirgan:

Eskilikka qarshi bir dunyo,
Ko'zdan yiroq iflos mozi u-
Kirli,
Alamli,
Dog'li xo'lyo... (Quyosh bilan suhbat)

Bor bo'yicha ovozini
Qo'yib, qo'yib **kuylaydir:**
Qo'shiq aytib paxtalarni

Etak-etak teradir... (Terim zarbdori)

Xo'p saralab teradir,

Xas-u cho'pdan tozalab. (Terim zarbdori)

Xullas, shoirning badiiy til mahorati uning leksik ma'nodoshlikdan foydalanishida ham kuzatiladi. Ma'nodoshlar tasvir tiniqligi, badiiy barkamollik, nazarda tutilayotgan asosiy g'oyaga urg'u berishlikni ta'minlash maqsadida qo'llaganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Usmon Nosirning mahorati yana shundaki, u faqat tilda mavjud bo'lgan, tayyor ma'nodosh so'zlardangina foydalanib qolmaganligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'qituvchi", 1974.
2. Mahmudov N. Qarindosh tillarning lug'at boyligini o'rganishda shakl va ma'no munosabatlari // "Til va adabiyot ta'limi" jurnali, 1997, 2-son, 29-35 b.
3. Shamsiddinov H. So'zlarning funksional-semantik sinonimlari. Kontekst va tagmatn // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1998, 3-son, 24-28 b.

ID-020-30-T016

Kamoliddin Sadullayev

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi

TOHIR MALIKNING “TALVASA” ASARIDAGI INDIVIDUAL FRAZEMALARNING QO'LLANISHI

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi Tohir Malikning “Talvasa” asaridagi individual frazemalarning qo'lla nishi, adibning matnda ibora tarkibini o'zgartirish orqali unga zamon ruhini singdiribgina qolmay, balki personajlarning xarakter-xususiyatini ochib berishda, asar badiiyligini oshirishda va ma'no kuchaytirishda o'z mahoratini namoyish etganligi, asardagi frazeologik birliklarning ayrimlari tilde tayyor holdagi birliklar bo'lsa, ayrimlari so'z san'atkorining estetik maqsadi, xohish-irodasi, til vositasidan foydalanishdagi novatorligi bilan aloqador bo'lgan individual xarakterdagi frazeologizmlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *frazema, individual frazema, ibora tarkibi, personaj, ma'no kuchaytirish, personaj ruhiy holati.*

O'zbek adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsat gani jodkorlardan biri Tohir Malik o'zining turli janr va mavzudagi asarlari bilan kitobxonlarning sevimli adibiga aylandi. Iste'dodli adib o'z asarlarida barcha til birliklaridan mahorat bilan foydalanadi. Ayniqsa, uning asarlari tilida frazeologik birliklarning qo'llanish ko'lami ancha keng. Bu birliklar asarni badiiyligini oshirish barobarida unga xalqona tus beradi. Adib asarlarida ustalik bilan ishlatilgan frazeologik birliklar ham turli badiiy maqsadlarga bo'ysundirilgan.

Tohir Malikning “Talvasa” asaridagi personajlar ruhiyati, his-tuyg’ularini ifodalashda “nomidan ot hurkadi”, “ko‘z yummoq”, “ko‘zini shira bosmoq”, “osmondan kelmoq”, “talmovsirab qolmoq”, “ustasi farang” kabi an’anaviy frazeologizmlar qo‘llangan.

Asardagi frazeologik birliklarning ayrimlari tilde tayyor holdagi birliklar bo‘lsa, ayrimlari so‘z san’atkorining estetik maqsadi, xohish-irodasi, til vositasidan foydalanishdagi novatorligi bilan aloqador bo‘lgan individual xarakterdagi frazeologizmlardir.

Frazeologik birliklarning tarkibini o‘zgartirish muayyan shart-sharoit, matn talabi bilan bo‘ladi. Uning matn tarkibidagi munosabatini kengaytiradi. Davr ruhini berish personajlar nutqini individuallashtirish uchun muhim vosita. Komponentlar o‘zgarishi yordamida ironiya, kinoyani kuchaytirish kabi qo‘shimcha ottenkalar yuzaga chiqadi [4. 55-bet]. Ibora komponentining almashuvi ko‘proq fe‘l frazemalarda yuzberadi. Bu holatni Tohir Malikning “Talvasa” asarida ham ba’zi o‘rinlarda uchratishimiz mumkin. Adib matnda ibora tarkibini o‘zgartirish orqali unga zamon ruhini singdiribgina qolmay, balki personajlarning xarakter-xususiyatini ochib berishda, asar badiiyligini oshirishda va ma’no kuchaytirishda o‘z mahoratini namoyish etgan.

Adabiytilda “do‘sting kimligini ayt, sening kimligingni aytaman” frazemasini mavjud. “Talvasa” asarida shu iboraning modelidan foydalanib “*Sen mashinangni ko‘rsat, men otang kimligini aytaman*” iborasi hosil qilingan. Bu ibora esa kishilarning hayot darajasi qay holatda ekanligini yoritib berish maqsadiga bo‘ysundirilgan.

Tilimizda “sukut saqlamoq” frazemasini hech kimdan churq etgan tovush, sado chiqmay, jimlik hukm surgan holat; so‘zsizlik ma’nolarida faol qo‘llanadi [3. 88-bet]. Asar tilida ushbu frazemani “sukut bag‘rida qolmoq” tarzida qo‘llanganligini guvohi bo‘lamiz: “Zal bir necha nafaslik sukut bag‘rida qoldi.” Iboraning bu tarzda qo‘llanishi asar badiiy barkamolligini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

O'zbek tili lug'at boyligida "sabr kosasi to'lmoq" frazemasi ortiq chidash yoki kutishga toqati qolmaslik, toqati toq bo'lmoq ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi [3. 99-bet]. "Talvasa" asarida bu birlik "g'azab kosasi to'lmoq" shaklida qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. *Bu gap ustozining g'azab kosasini to'ldirib, g'ayratga keldi. (20-bet)* Asar tilida iboraning bu tarzda qo'llanishi personajlarning ruhiyholatini ochib berishga qaratilgan.

Xalqimizda qiyoslash ma'nosini o'zida mujassam etgan "tirnog'iga ham arzimaslik" frazemasi nutqda faol qo'llanishda bo'lib, kishilarni bir-biriga nisbat berishida qo'llaniladi [1. 77-bet]. Bu ibora "Talvasa" asarida o'ziga xos tarzda qo'llanilgan. Bunda ma'lum sotsial guruh vakili nutqini individuallashtirish maqsadi ko'zlangan: *Hozir toj kiyayotgan yuzta o'g'il bola bitta shu Kardinalning oyog'iga paytava bo'lolmaydi.*

Quyidaq o'llangan "bag'rida quyosh charaqlamoq" frazemasi kimningdir hayot, yashash manbayi, asosi hisoblanadigan, shunday deb qaraladigan narsa ma'nolarida qo'llangan. Bu o'rinda mahorat bilan qo'llangan frazema voqelikni tiniq tasvirlash barobarida, personaj ruhiy holatini ko'z o'ngimizda aniq namoyon qilishimizda ko'maklashadi.

Baxtiga Asror aka yana maktabga qatnadi-yu, qizning tund bag'rida yana quyosh charaqladi.

Tilimizda kishilarning fe'l-atvoridagi tundlik, yoqimsiz qiyofasiga nisbatan e'tiroz, norozilik, unga nisbatan yomonlik qilmaganlikni qayd etuvchi ma'nolarini anglatuvchi "arpangni xom o'rdimi?" frazemasi keng qo'llanishdadir. Asarda mazkur frazemaning ma'nosiga teng keluvchi "ammangni sigiri chala tug'ib qo'ydimi?" frazemasi hosil qilingan. Bu bilan asar voqeligiga xalqona tus berish bilan birga badiiylik ham yuqori pog'onaga ko'tarilgan.

Ha nima bo'ldi, ammingning sigiri chala tug'ib qo'ydimi? – dedi jerkib.

Nutqimizda xafalik yoki xursandlik holatimizni aks ettiruvchi frazemalar talaygina. Ularning o'z o'rnida mahorat bilan qo'llanishi ruhiy holatimizni yorqin namoyish etadi. Ruhiyatimizdagi xafalikni ifodalovchi "dili xufton

bo'lmoq, *“yurak bag'ri xun”*, *“ta'bi xira”* kabi birqancha iboralar qo'llanishda. *“Talvasa”* asarida bu *“ongini xira parda tortmoq”* shaklida uchraydi: *A'zoyi badanining qaqshab og'rishi uning ongiga xira parda tortdi.*

Tilimizda buloq so'zi badiiy adabiyotda ko'chma ma'noda boy manba ma'nolari daqo'llaniladi. Masalan, ijod bulog'i, mehr bulog'i kabi. Mazkur asarda buloq vositasida o'ziga xos tarzdagi frazema hosil qilingan. *Bu gaplarning barchasi mish-mish bulog'idan suv ichgan bo'lsa-da, atrofda gilarning qiziqish tashnaligini qondirishga kifoya qilardi.* Voqelikka badiiy tus berish, ma'no kuchaytirishda bu frazema uslubiy vosita vazifasini o'tagan.

Ko'rib o'tganimizdek, frazemalarning bunday ko'rinishi iste'dodli adibning *“Talvasa”* asarida turli uslubiy maqsadlarda qo'llangan. Bu birliklar bir o'rinda zamon ruhini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, bir o'rinda personajlar nutqini individuallashtirishga va yana bir o'rinda esa ma'noni kuchaytirib, badiiylikni oshirishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatov A. Antonimiya asosida frazeologik shakllanish masalalari// *“Tilva adabiyot ta'limi”* jurnali, 1998, 6-son.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: *“Qomuslar bosh tahririyati”*, 1992.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: *“O'qituvchi”*, 1978.
4. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiy tasoslari. – Samarqand, 1999.

ID-020-30-T017

Mohidil Abdullayeva

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 4-kurs talabasi

BOLALAR NUTQIDAGI NEOLOGIZMLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek bolalar nutqida uchraydigan neologizmlar haqida so'z boradi. Uning o'ziga xos xususiyatlari, grammatik qoidalar bilan muvofiq jihatlari, shevaga xos tomonlari ham misollar orqali tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida bolalar nutqidagi neologizmlarning nazariy asoslari ilmiy izohlanib, amaliy umumlashma sifatida tadqiqot ishtirokchilarining nutqlari keltiriladi. Bolalar nutqiga xos neologizmlarda ham turli grammatik shakllar mavjudligi borasida isbotlar keltiriladi. Xususan, bolalar nutqidagi neologizmlar guruhlarga ajratiladi. Turli turkumlarga xos xususiyatlar neologizmlarda ham aks etishi borasida misollar keltiriladi. Sifatlarda orttirma darajaning neologizmlarda uchrovchi sifat turkumiga oid so'zlarda ham uchrashiga oid dalillar mavjud. Maqola nazariy asoslar va amaliy umumlashmaga ega.

Kalit so'zlar: *neologizm, ot, sifat, fe'l, orttirma daraja.*

Annotation. This article is about neologisms, which created and used by uzbek children. In this research we can give a lot of information about neologisms, which are in the speech of kids, for example, their peculiarities, their connection with some grammer rules in uzbek language, their dialectical aspect. In the following paragraphs clear argument will be presented for all above characteristics. During the article all feedbacks will be illuminated obviously with some theories. Neologisms, which created and used by uzbek children, is projected to divide into groups. Especially, it is about characteristics of the adjective's group. Neologisms, which are in the speech of uzbek kids, have superlative degree as adjective has. The article has theory and practical summary.

Key words: *neologism, noun, adjective, verb, superlative degree.*

Bola nutqidagi o'ziga xosliklardan biri ularning nutqiy jarayonda neologizmlarning qo'llanishidir. Neologizm o'zi nima, degan savolga turli adabiyotlar turlicha javob beradi: "Konsalting, audit, summit so'zlari tilimizga yangi kirib kelayotgan so'zlardir. Ular yangi paydo bo'lgan so'zlar, ya'ni neologizmlar deb ataladi" [2,118]. Bolalar nutqida kechadigan neologizm hodisasi, ko'pincha, tovush va harakatga taqlidlar natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon o'zlashgan neologizmlardan farqli ravishda yaratuvchanlik tamoyiliga asoslanadi. Bu so'zlar katta yoshlilar uchun ham yangilik bo'la oladi. Ana shu jihatni inobatga olgan holda nutqimizda "Bola tili" degan tushuncha mavjud.

Ushbu mavzu yuzasidan o'zbek psixolingvistikasida bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, M.Qurbonova o'zining "O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi" nomli monografiyasining "Bolalar nutqiga oid individual neologizmlarning yuzaga kelish sabablari" bo'limi, N.Sayidrahimova "Maktabgacha yoshdagi o'zbek bolalar nutqining lingvistik xususiyatlari" nomzodlik dissertatsiyasida izlanish olib borganlar.

Bola nutqida uchraydigan neologizmlarning yaratilishi u yashayotgan ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular bilan ijtimoiy munosabatga kirishish jarayonida hosil bo'ladi. M.Qurbonova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda ta'kidlanishicha, neologizm mahsuldor bo'lmagan qolip asosida hosil qilingan va muayyan nutqiy vaziyatda qo'llangan so'zlardir [3,74].

Tadqiqot ishtirokchilari

1-jadval. Tajriba ishtirokchilari haqida ma'lumot.

№	FISH	Yoshi	Jinsi	Ota-onasi
1.	RY	4 yosh-u 1 oylik	O'g'il	Otasi harbiy, onasi bog'cha tarbiyachisi
2.	AS	3 yosh-u 1 oylik	O'g'il	Otasi tadbirkor, onasi bank xodimi
3.	AS	5 yosh-u 4 oylik	O'g'il	Otasi rassom, onasi uy bekasi
4.	MA	2 yosh-u 7 oylik	Qiz	Otasi usta, onasi uy bekasi
5.	IN	1 yosh-u 5 oylik	Qiz	Otasi harbiy, onasi uy bekasi

Tadqiqot jarayoni tavsifi

Tadqiqot davomida yarim standartlashgan intervyu, kuzatish metodlaridan foydalanildi. Bolalarga nutq vaziyatidan kelib chiqib, quyidagi savollar berildi? Suhbat hovlida yoki onada kechdi. O'sha jarayonda kuzatish mumkin bo'lgan narsalarning nomi so'raldi. Masalan, hayvonlardan qo'yni ko'rsatib bu nima deb savol berildi.

Bu nima? Uyingizda qanday hayvonlar bor? Qanaqa o'yinchoqlaring bor?

2-jadval. Tajriba ishtirokchilari spontan nutqiga oid ko'rsatkichlar.

	Ishtirokchi nomi	Gapning o'rtacha uzunligi	Nutq tezligi
1	RY (4 yosh)	7.5	24 so'z/min
2	AS (5 yosh)	6	17-22 so'z/ min
3	AS (2 yosh)	4.2	18-20 so'z/min
4	MA(2 yosh)	3.6	9 so'z/min
5	NI (1 yosh)	1	5 so'z/min

Bolalar nutqidagi gapning o'rtacha uzunligi va katta yoshli sog'lom odamning nutqidagi gap uzunligi muayyan tafovutlarga ega:

3-jadval. Afaziyaga chalingan shaxslar va sog'lom ishtirokchilarning nutqidagi gapning o'rtacha uzunligi [1.30-bet]

Ishtirokchi nomi	Gapning o'rtacha uzunligi	Nutq tezligi
NK	7.7994 morf/gap (kv)	30 so'z/min (kub)
MO	5.322 morf/gap	27 so'z/min
Sog'lom ishtirokchilar	10.93-20.27 morf/gap	63-108 so'z/min

4-jadval. Katta yoshli odamlar va bolalarning nutqidagi gapning o'rtacha uzunligi qiyosi.

Ishtirokchi nomi	Gapning o'rtacha uzunligi	
RY	7.5 morf/gap	Bola
Sog'lom ishtirokchilar [2.30]	10.93-20.27morf/gap	Katta yoshli

Yuqoridagi jadvaldan ham ko‘rinib turibdiki, bola o‘z nutqida ko‘p sodda gaplarda foydalangani uchun ham ham uning gaplarining o‘rtacha uzunligi kattalarnikidan kamroq. Yana shunisi ham borki, bola nutqida, asosan, tub so‘zlar qo‘llanadi. Masalan, bola “choy bering” demoqchi bo‘lsa, “choy ber” tarzida ifodalaydi va shu tarzda morfemalar sonining qisqarishi gapning o‘rtacha uzunligiga ta‘sir etadi.

Bolalar nutqida uchraydigan yangi so‘zlarning ko‘pchiligi biz nutqimizda qo‘llaydigan undov va taqlid so‘zlarga mos keladi. Demak, bolalar nutqidagi neologizmlar, asosan, taqlid qilish natijasida yuzaga keladi. Ahamiyatli jihati shundaki, tilning paydo bo‘lishiga oid farazlar orasida tovushga taqlid (Bunga ko‘ra, ibtidoiy odamlarning turli tovushlarga, hayvon va qushlar ovozig, tabiat hodisalariga taqlid qilish jarayonida so‘z yasalgan [4.8-bet]) va undovlar farazi mavjud. Bola harakatlarga nisbatan ham, so‘zlarga, tovushlarga nisbatan ham taqlidchi bo‘ladi. Taqlid asta-sekin yaratuvchanlik bilan uyg‘unlashib boradi. “Natijada bolalar nutqiga xos innovatsiyalar yuzaga keladi” [3.74].

Bilamizki, taqlid so‘zlar 2 turga bo‘linadi:

Ovozga taqlid;

Holatga taqlid.

Abdullayeva Muqaddasxon o‘z nutqida chiroq yonganida, “lip-lip yondi” yoki archa chiroqlariga nisbatan ham “chiroyli lip-liplar” deb ishlatadi. Bilamizki, bu holatga, chiroqning yonish holatiga taqlid asosida yuzaga keladi. Yoki “bibib” mashina so‘zining qo‘llanilishi zamirida ham ovozga taqlid – mashinalarning signal tovushiga taqlid qilish yotadi. Bola ayrim so‘zlarni hozirgi o‘zbek tilidagi ayni iste‘moldagi varianti bilan teng qo‘llashi ham mumkin. Masalan, 4 yoshli Yosinbek nutqida mashina va “didit” so‘zlarini baravar qo‘llaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bola nutqi tildagi barqarorlik, doimiylik, odatiylik, maromlilik hamda shaxsiy ijodiylik o‘rtasidagi ziddiyatning o‘ziga xos ifodasi sifatida [3.75-bet] namoyon bo‘ladi.

5-jadval. Tajriba ishtirokchilar nutqida qoʻllangan taqlid soʻzlarga mos keluvchi neologizmlar.

No	Tovushga taqlid asosida		No	Holatga taqlid asosida	
1	Bibib (didit)	Mashina	1	Lip-lip	Chiroq
2	Vov-vov (Bopo)	Kuchuk, it	2		
3	Pipi (mimi)	Mushuk	3		
4	Taktak	Oyoq kiyim	4		
5	Nanay	Qoʻshiq, toʻy	5		
6	Baba	Qoʻy, hayvon	6		
7	Ququ	Tovuq, xoʻroz	7		
8	Chip-chip	Joʻja	8		
9	Moʻmoʻ	Sigir, mol	9		
10	Babachaq	Qoʻzichoq	10		
11	Chiq-chiq	Soat	11		

Yuqorida keltirilgan kuchuk vodiy shevasida vov-vov tarzida aytiladigan boʻlsa, Xorazmda “bopo” deyiladi. “Taktak” tarzida oyoq kiyimlarga nisbatan qoʻllanilishda ham taqlid maʼnosi bor. Eʼtibor berilganda oyoq kiyim bilan yurilsa, koʻp holatlarda “tak-tak” degan tovush chiqadi. Mana shu tovush bolalar uchun yangi soʻz hosil qilishga asos boʻlgan. Eʼtiborimizni tortgan yana bir narsa shu boʻldiki, bolalar “baba” deb qoʻylarni, “babachaq” deb esa qoʻzichoqlarni aytishadi. Demak, grammatikada mavjud boʻlgan -choq qoʻshimchasi ularning nutqida -chaq (“o” ga yaqin) tarzida shakllangan boʻladi. Yana “baba” soʻzi umumiy maʼnoda hayvon soʻzini ham ifodalaydi. Hali bola nomini bilmaydigan barcha hayvonlarni (echki, eshak) ham “baba” deb ataydi. Mushukning ovozigga (miyov)ga taqlidan bolalar uni “mimi” deyishadi. “Pipi” tarzida aytilishining asosiy sababi esa bizni ikkinchi misolga yetaklaydi. Yaʼni undov soʻzlar. Odatda, mushukni chaqirish uchun pi-pi-pi undov soʻzlaridan foydalaniladi. Va mana shu soʻzlar mushukka qarata aytilgani ham, albatta

vaziyat bilan bog'liqlikda, bolalarni bu hayvon turini “pipi” deb chaqirishga undaydi. Lekin bunda bolalar mushukni chaqiryaptimi yoki mushukni nomini aytyaptimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Va mana shu jarayonni aniqlash uchun Muqaddasxonga savol berilganda, bu nima deb mushuk ko'rsatilganda u “pipi” deb javob berdi. Nomi keltirilgan “chip-chip” so'zi ham xuddi shunday xarakterga ega. Chunki jo'jalarni chaqirishda biz “chip-chip” undov so'zidan foydalanamiz. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'zlar va umum ma'noda til paydo bo'lishiga oid farazlar orasida undovlar farazi ham mavjud. Undovlar farazi ikkinchi farazdir. Bu qadimiy faraz bo'lib uning asosida odamlar hayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o'rganib, ular orqali o'zlarining ichki kechinmalarini, qayg'u-alamlarini ifodalashgan. [4. 8-bet] Undov so'zlar ham ikki guruhga bo'linadi:

His-hayajon undovlari.

Buyruq-xitob undovlari.

6-jadval. Tajriba ishtirokchilar nutqida qo'llangan undov so'zlarga mos keluvchi neologizmlar.

His-hayajon undovlari			Buyruq-xitob undovlari		
No			No		
1	Ohoh	Shokolad, qand, barcha shirinliklarga nisbatan	1	Xo'sho'sh	Mol, sigir
2			2	Chip-chip	Jo'ja
3			3	Tutu	Tovuq
4				Pipi	Mushuk

Chip-chip va pipi so'zlarining izohi yuqorida keltirildi. “Ohoh” so'ziga qaraydigan bo'lsak, “oh” undov so'zi rohatlanish ma'nosini bildiradi. Ko'pchilik insonlar mazali ovqatlardan keyin “oh, maza” so'zini ishlatishi ham hech kimga sir emas. Shundan ko'rinib turibdiki, bolalar barcha mazali narsalarga nisbatan “ohoh” so'zini ishlatishadi. Chorva mollarni haydash-chaqirishda qo'llanadigan undovlardan “xo'sh” va “tutu” undov so'zlari bolalar neologizmi uchun asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida sifat turkumiga mansub bolalar nutqida uchraydigan quyidagi neologizmlar aniqlandi:

7-jadval. Tajriba ishtirokchilar nutqida qoʻllangan sifat soʻz turkumiga oid neologizmlar.

N ^o	Bolalar tilida	Izohi
1	Po (popa)	Issiq
2	Huchcha	Uzoq, baland
3	Opoq	Yaxshi
4	Oposh	Yaxshi (kasal boʻlib tuzalgandan keyin)
5	Qixx (qixa)	Iflos, kir

8-jadval. Tajriba ishtirokchilar nutqida qoʻllangan ot soʻz turkumiga oid neologizmlar.

N ^o	Bolalar tilida	Izohi
1	Jiqqa	Ukol (vodiyda)
2	Pixx	Ukol (Toshkent va Xorazmda)
3	Qaqqa (qaqa)	Qand
4	Taktaka	Zina
5	Nanna	Non
6	Hohoy (loloq)	Koʻylak
7	Qaymoq	Lalla
8	Boʻji	Ajina
9	Babu	Qoʻrqinchli narsalarga nisbatan
10	Immo	Suv (Xorazmda)

9-jadval. Tajriba ishtirokchilar nutqida qoʻllangan feʼl soʻz turkumiga oid neologizmlar.

Nº	Bolalar tilida	Izohi
1	Atata	Urmoq, kaltaklamoq
2	Achom	Quchoqlash
3	Totoy	Tik turish

10-jadval. Tajriba ishtirokchilar nutqida qo‘llangan neologizmlar.

Nº	Berilgan savol	Bolaning javobi	Ismi, sharifi, yoshi	Ota-onasining kasbi
1	Uyingizda qanday hayvonlar bor?	Uyimizda chip-chiplar... quqular, bobolar bor	RY (4 yosh)	Otasi harbiy, onasi bog‘cha tarbiyachisi
2	Yana nimalar bor? Xo‘sho‘sh, babachaq bormi?	...bor	RY (4 yosh)	Otasi harbiy, onasi bog‘cha tarbiyachisi
3	Nechta babachaq bor?	Mashincha (qo‘lini ko‘rsatadi) 2 ta babachaqni qassob kelib so‘ydi	RY (4 yosh)	Otasi harbiy, onasi bog‘cha tarbiyachisi
4	Choy qanaqa ekan?	Poooo, pooo	MA (2 yosh)	Ota-onasi vaqtincha ishsiz
5	Sizga qaqa bersam nima deysiz? Mana qaqa beraman	...Bo‘yuz huchcha bo‘lsin	SA (3 yosh)	Otasi tadbirkor, onasi bank xodimi
6	Sizga nima qilishdi? Qo‘lizga nima qilishdi?	Meni tomoqim og‘ridi, O‘zbekimda morojna yedim. Duxtiy jiqqa qildi. Yaqibbek keldi.	RY (4 yosh)	Otasi harbiy, onasi bog‘cha tarbiyachisi
8	Nima yeysiz? Menga nima berasiz yeyishga?	Bermayman, ketasiz... Nanna, qaqa bermang, apa... Menga planshetizni tashlab ketasizmi?..	AS (5 yosh)	Ota-onasi vaqtincha ishsiz
	Qaqa bering, lala berasizmi?			
9	Yosinbek, parkda nima bo‘libdi?	Bog‘da... bo‘ji tishtavoldi qorovildi	RY (4 yosh)	Otasi harbiy, onasi bog‘cha tarbiyachisi
10	Qanaqa diditlar bor?	Haligi nima... minadiganlar bor, soati bor diditlar bor	RY (4 yosh)	Otasi harbiy, onasi bog‘cha tarbiyachisi

Sifat turkumiga mansub soʻzlar orasida keltirilgan “po” “issiq” maʼnosini ifodalovchi soʻz bolalar nutqida qoʻllanganda bir narsa eʼtiborimizni tortdi. Agar bolalar juda issiq demoqchi boʻlishsa, “po” soʻzining boʻgʻinini kuchaytirish orqali “poooo” tarzida qoʻllashadi va bu grammatikada uchraydigan sifatning orttirma darajasini hosil qilishdagi qoidaning aynan oʻzi boʻladi. Katta soʻzining orttirma nisbatini hosil qilish uchun kaaatta (birinchi boʻgʻinni choʻziq talaffuz qilish orqali) tarzida aytishning oʻzi ham kifoya. Yuqoridagi “babachaq” va “pooo” soʻzlarini inobatga oladigan boʻlsak, bolalar tilida ham ayrim grammatik xususiyatlar mavjud boʻladi. Bundan tashqari, bolalar neologizmining yuzaga kelish sabablari bilan tilning vujudga kelish sabablaridagi oʻxshashliklar ham shundan dalolat beradiki, bola nutqi haqiqatan ham nutqning ibtidosidir.

Feʼl turkumiga mansub neologizmlar orasida “totoy” soʻzi hali bir yoshga toʻlmagan yoki yurishni bilmaydigan bolalar uchun kattalar tomonidan qoʻllanadigan soʻz boʻlib, u buyruq maylida “tik tur, bitta-bitta qadam bos” maʼnolarida ishlatiladi. Bolalar neologizmni asosida vujudga kelgan odatlarimiz ham mavjud boʻlib, bola yurishni boshlagan vaqtda mahalladagi uch-toʻrt bolani yigʻib, qand sochish – “qaqasochaloq” marosimi oʻtkaziladi. (Andijon viloyati Buloqboshi tumani Shirmonbuloq qishlogʻida hali ham mavjud.) Yana shuni alohida taʼkidlash kerakki, “rus tilshunosligida amalga oshirilgan baʼzi tadqiqotlarda eʼtirof etilishicha, bolalar nutqidagi hech bir yangi soʻz original boʻlmaydi” [3]. Mazkur fikrni rad etmagan holda yuqorida biz neologizm deb hisoblagan soʻzlarning aksariyati tilimizda taqlid va undov soʻzlar sifatida qoʻllanishini aytadigan boʻlsak, boshqa tomondan bu soʻzlar oʻzining lugʻaviy maʼnosini yoʻqotib boshqa maʼno kasb etayotganligi bu farazni rad etadi. Bu hodisani balki transpozitsiya atamasi bilan ham izohlash mumkindir. Lekin tilimizda hech qanday vazifada qoʻllanmaydigan “xoxoy”, “nanna” va shu qator soʻzlarning mavjudligi yana fikrimizni tarqatib yuboradi. Yana bir eʼtiborli tomoni bolalar nutqidagi neologizmlarning yosh xususiyati boʻlib, bu koʻrsatkich asosan 1-4 yoshlar oraligʻida deb baholansa boʻladi.

Yuqoridagi til paydo bo'lishiga oid farazlar misolida ham bolalar tilini tilning chin ma'nodagi ibtidosi deb atashimiz mumkin.

Xulosa. Fan-texnika taraqqiyoti bolalar nutqidagi neologizmlarga ham ta'sir ko'rsatmay qolmagan. Tadqiqot mobaynida bolalarga mashinani ko'rsatib, bu nima deb savol berilganda, "Cobalt" deb javob berganlari ham topildi. Bolalar nutqida uchraydigan neologizmlar noyob va kamyob hisoblanadi. O'zbek tili uchun sheva xususiyatlari qanchalik kerakli bo'lsa, bolalar nutqidagi neologizmlar ham etimologiya, psixolingvistika fanlari uchun shunchalik muhimdir. Bundan tashqari ularda yana ahamiyatli neologizmlar bola o'zi tomonidan yaratilishi ham, ota-onalar ta'siri ostida ham yaratilishi mumkin. (taktak, achom) Bolalar neologizmlari aniqlanganda ularning vaziyat, sheva va ijtimoiy muhit bilan bog'liq hodisalari inobatga olinishi kerak.

Neologizmlar til strukturasi inson ongi tomonidan o'zlashtirilishi jarayoni tilning paydo bo'lish jarayoni bilan muayyan o'xshashlikka ega. Bu jarayonda til strukturasi ko'zga tashlangan bir qancha qonuniyatlarni ham ko'rishimiz mumkin:

Babachaq (baba – asos, -chaq qo'shimcha) – qo'zichoq;

Poooo – iiiisssiq.

Bola qaysidir tushunchani nomlar ekan, ongning o'xshatish funksiyasini qo'llaydi. Uning chiqargan ovozi, tashqi ko'rinishi bola uchun ahamiyatli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I., O'zbek tilidagi agrammatik spontan nutqda otlarning ifodalanishi.
2. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh., Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2010.
3. Qurbonova M., O'zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi, – Toshkent: 2014.
4. Yo'ldoshev I., Sharipova O', Tilshunoslik asoslari, – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017.

ID-020-30-T018

O'g'iloy Nomozova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs magistranti

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA QO‘LLANGAN DEYKTIK BIRLIKLARNIG O‘RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada antroposentrik paradigmaning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan pragmalolingvistikaning deysis nazariyasi va uning xususiyatlari hamda buyuk shoir Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” dostonining til xususiyatlari aynan pragmalolingvistika jihatidan tahlilga tortilgan bo‘lib, bunda asarda qo‘llangan deyktik belgilar (ishora birliklari) ning turlari, ularning badiiy matn qismlarini bog‘lashdagi ahamiyati atroflicha tahlil etilgan, dostondan ba‘zi misralar misol sifatida keltirilgan va ularda qo‘llangan ishora birliklarining turi, vazifasi, matn mazmunini ochishdagi o‘rni xususida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *pragmalolingvistika, deysis, deyktik belgilar, kontekst, olmoshlar, nutq vaziyati.*

Annotation. This article analyzes the deixis theory of pragmalinguistics, one of the new directions of the anthropocentric paradigm, and its features, as well as the linguistic features of the great poet Yusuf Khos Hajib’s epic “Kutadgu bilig” from pragmalinguistics point, their importance in linking parts of the literary text are analyzed in detail, some verses from the epic are given as examples and the type, function of the sign units used in them, their role in revealing the content of the text are discussed.

Key words: *pragmalinguistics, deixis theory, deixis signs, context, pronouns, situation of speech.*

Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlar adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lib, turkiy tilda ijod etgan buyuk shoir hisoblanadi. Aytish joizki, shoir

qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” dostoni turkiy yozma badiiy adabiyotning ilk yirik namunasi bo‘lib, Yusuf Xos Hojibdan bizgacha yetib kelgan yagona adabiy meros sanaladi. Mazkur asar yillar o‘tsa hamki o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Boisi ushbu asar, bir tomondan, yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan bo‘lsa, boshqa tomondan esa “Qutadg‘u bilig” didaktik ruhdagi, ta‘lim-tarbiya, odob-axloq mavzusiga bag‘ishlangan badiiy asardir. Yusuf Xos Hojib asarda shaxs tarbiyasi, uning jamiyatdagi o‘rni, komillik shartlari, umrni bekorga o‘tkazmaslik, turli ijtimoiy tabaqaga mansub kasb-kor egalarining ma‘naviy-axloqiy mezonlari, davlatchilik, qat‘iyat tamoyillarini qalamga olgan. Shuning uchun bu asar hozirgi kunda ham, yuqorida aytilganidek, badiiyligi va boy ma‘naviy, tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmagani holda, bugungi hayotimizda, ayniqsa, davlat arboblari uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qiladi.

“Qutadg‘u bilig” dostoni bugungi kunda nafaqat adabiyotchilar tomonidan, balki tilshunos olimlar tomonidan ham atroflicha o‘rganilmoqda. Mazkur maqolada ham asar tili tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlilga tortiladi. Maqolada “Qutadg‘u bilig” dostonining til xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, ularni hozirgi zamon tilshunosligining yangi yo‘nalishlaridan biri hisoblangan pragmalingvistika nuqtayi nazaridan ko‘rib o‘tamiz.

Ma‘lumki, zamonaviy tishunoslikning til birliklarini inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi yo‘nalishlardan biri pragmalingvistikadir. Bu yo‘nalishda til birliklarini tahlil qilish jarayonida ularni nutq vaziyati, so‘zlovchi va tinglovchilarning obyektiv borliq to‘g‘risidagi umumiy bilimlari singari tashqi omillarga e‘tibor qaratiladi. Pragmalingvistikada til birligining nutq vaziyati, kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi masalalaridan biri deysis nazariyasidir.

Pragmalingvistikada til birliklari orqali kommunikativ muloqot ishtirokchilari, muayyan voqelik, u amalga oshirilgan vaqt, o‘rin kabilarga ishora qilish deysis hodisasi sifatida, tilning ishora birliklari esa deysitik birliklar tarzida talqin etiladi. “Deysis” so‘zi yunoncha “ko‘rsatish”, “ishora” degan ma‘nolarni anglatadi. Tilshunoslikda esa “voqelikka ishora” demakdir.

Deyktik vositalarning asosiy vazifasi nutqiy faoliyatda lisoniy shaklni voqelik bilan bog'lash hamda unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirishdir. "Deyksis belgilarning mohiyati shundan iboratki, ular mazmunni – voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko'ra ularni mazmunan kuchsiz, bo'sh so'zlar sifatida qarash mumkin" [1, 18]

Deyktik birliklarning muhim xususiyatlaridan biri uning ishoraviyligi bo'lsa, asosiy vazifasi esa so'z takrori orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uslubiy g'alizlikdan xalos etish, matn qismlarini bog'lashdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, *"kontekst qurshovining kuchi, ayniqsa, deyksis hodisasi talqinida namoyon bo'ladi"*. [2,167] Deyktik birliklar sifatida olmoshlar guruhini (asosan, ko'rsatish, kishilik, so'roq hamda belgilash olmoshlari), shuningdek, payt ravishlari, son so'z turkumiga oid so'zlarni kuzatish mumkin. Masalan, *Mahkam zinapoyaga qarab chopdi va uning silliq yog'och qanotidan ushlab, eshkak eshayotganday siltana-siltana uchinchi qavatga yugurib chiqdi (P. Qodirov "Uch ildiz")*. Ushbu gapda ikkita deyktik belgi qo'llangan bo'lib, bular *uning* hamda *qanotidan* so'zlaridir. *Uning* deyktik birligi yuqoridagi bog'langan qo'shma gapning birinchi qismidagi *zinapoyaga* so'ziga ishora qilgan, *qanotidan* deyktik birligi esa zinapoyaning yoniga o'rnatilgan to'siq, panjaraga ishora qilgan. Ko'rib turganimizdek, deyktik belgilar vazifasiga ko'ra har doim ishoraviylik xususiyatiga ega bo'lgan deyktik birliklar hamda vaqtinchalik ishora xususiyatiga ega bo'lgan deyktik birliklarga bo'linadi. Buni aniqlash uchun esa nutq vaziyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatish olmoshlari har doim ishoraviylik xususiyatiga ega. Yuqoridagi misolimizda keltirilgan *qanot* so'zini vaqtinchalik (nutq vaziyatida) ishora xususiyatini namoyon etadigan deyktik belgi deyish mumkin.

Deyktik belgilar tasnifi masalasi uzoq muhokama qilib kelinmoqda. *"Ko'pchilik tilshunoslar an'anaga binoan yuzasida shaxs, narsa (predmet) makon va zamon deyksislarini farqlab kelmoqda"* [2,171]

Yusuf Xos Hojib ham o'zining "Qutadg'u bilig" ("Baxtga eltuvchi bilim") dostonida bir qancha deyktik birliklardan o'ta mohirona tarzda foydalangan.

Quyida asarda (professor Boqijon To‘xliyevning o‘zbek tilidagi bayoni asosida) qo‘llangan rang-barang deyktik belgilarni ko‘rib o‘tamiz va tahlil qilamiz.

Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘,

Shu ikkov ulug‘lar kishini to‘liq.

Yuqoridagi misralarda deyktik belgi ishtirok etgan bo‘lib, u ikkinchi misradagi *ikkov* so‘zi orqali ifodalangan. Ma‘lumki, bu so‘z son so‘z turkumiga mansub bo‘lib, keltirilgan baytda birinchi misradagi *bilim* va *uquv* so‘zlariga ishora qilgan va narsa deyxsisini yuzaga keltirgan. Bu kabi deyktik belgilarning qo‘llanilishi takrorlar orqali yuzaga keladigan g‘alizlikning oldini olishga va ta‘sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Til arslon misoli yotar qafasda,

Bexabar boshini u yer nafasda.

Dostonning “Tilngni avayla – omondir boshing” deb nomlangan bobida keltirilgan mazkur baytda ikkinchi misradagi *u* olmoshi birinchi misradagi *til* so‘ziga ishora qilgan. Natijada narsa deyxsisini yuzaga kelgan.

Quyida keltiriladigan baytda deyktiklik xususiyatiga ega bo‘lgan ko‘rsatish olmoshi birgina so‘zga emas, balki bir nechta gapga ishora qilganini kuzatish mumkin:

Tilidan tutilgan ne deyar, eshit,

Amal qil bu so‘zga, o‘zingga ish et.

Balo keltiradi boshga bu tilim,

Boshimni u kesmay, qilayin tilim.

So‘zingni tiyib yur, boshing yormasin,

Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin.

Ko‘rib turganimizdek, birinchi baytning ikkinchi misrasidagi bu deyktik belgisi orqali ikkinchi va uchinchi baytlardagi butun gaplarga ishora qilgan. Demak, deyktik belgilar faqatgina o‘zidan oldingi birlikarga emas, o‘zidan keyingi birliklarga ham ishora qiladi. Bu o‘rinda yuqoridagi baytlar

fikrimizning dalili desak, xato bo'lmaydi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur baytlar ham badiiy-estetik jihatdan, ham tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan kitobxon e'tiborini jalb qiladi.

Kishi ko'ngli go'yo tubi yo'q dengiz,

Bilim bor tubida, u inju tengsiz.

Mazkur baytning ikkinchi misrasidagi *u* ko'rsatish olmoshi o'zidan oldingi *bilim* so'ziga ishora qilgan. Ya'ni kishining ko'ngli tubsiz dengiz kabi bo'lsa, bilim o'sha ko'ngil tubida misoli inju kabidir. Deyktik belgi vositasida bilim injuga qiyoslangan.

Ikki xil nom qolar tilda begumon,

Biri yaxshilig-u birisi - yomon.

Ushbu baytda son so'z turkumidagi so'zlar o'zidan keyin kelgan *yaxshilik* va *yomon* so'zlariga ishora qiladi. Bu ishora birliklari (deyktik begilar) baytning badiiyligini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Kimga yetsa xorlik, qilurman himmat,

Mening huzurimdan topgay adolat.

Shakar ichgandek shod bo'lar ul kishi,

Sevinchga to'ladi, tarqar tashvishi.

Keltirilgan yuqoridagi misoldagi ikkinchi baytda *ul kishi* deyktik belgisi qo'llangan bo'lib, u birinchi baytning birinchi misrasidagi xor bo'lgan kishiga ishora qilgan. Natijada, shaxs deyksisi yuzaga kelgan. Ya'ni mazkur jumlar dostonidagi Kuntug'di tilidan aytilgan va uning aytishicha, kimga xorlik yetsa, u Kuntug'dining huzuridan adolat topadi, tashvishi tarqab, xuddi shakar ichgandek shodon bo'ladi.

Yuqorida deyksis hodisasini yuzaga keltiruvchi, deyktik belgi vazifasini bajaruvchi birliklar sifatida olmoshlar, sonlar, ayrim payt va o'rin ravishlari ta'kidlangan edi. Kuzatuvlarimiz va lingvistik tahlilimiz mobaynida sifat turkumiga kiruvchi so'zlar ham nutq vaziyatida deyktiklik xususiyatiga ega

ekanligining guvohi bo'ldik. Fikrlarimiz dalili o'laroq quyida ana shunday birlik qo'llangan baytni keltiramiz:

*Agar bo'lsa ezgu yomonga ulfat,
Yomondan ko'ra ko'p keltirar kulfat.*

Bu baytda birinchi misradagi *ezgu* va *yomon* sifatlari otlashgan hamda ular ana shunday xislatlarga ega bo'lgan shaxsga ishora qilgan, shaxs deyxsisini yuzaga keltirgan. Ya'ni *ezgu* kishi *yomon* odamga ulfat bo'lsa, u *yomon* odamdan ko'ra ko'proq kulfat keltiradi. Bu kabi betakror baytlar asarda ko'plab uchraydi va ular muallifning badiiy mahoratini o'zida yaqqol namoyon etadi:

*Ezgu ezgulikdan chekmagay fig'on,
Yomon o'z fe'lidan bo'lar pushaymon.
Yomonlik qilganning ulushi - o'kinch,
Yomonga yaxshi bo'l, mayli, har qachon.*

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, baytlarda keltirilgan deyktik vositalar garchi ishora qilingan mazmuni to'g'ridan to'g'ri ifodalagan bo'lsa-da, ular mazmunini tushunishni qiyinlashtirmaydi, aksincha, o'quvchini fikrlashga, muayyan xulosalar chiqarishga undaydi. Keltirilgan misollardan xulosa qilib aytish mumkinki, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida qo'llangan deyktik birliklar faqatgina ishoraga xoslanib qolmay, balki shoirning yashirin maqsadini namoyon qilishda ham muhim ahamiyat kasb etgan hamda asarning jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov N. Ergash gaplarning tabiati va tasnifi masalasi // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1991. №3, B. 18.
2. СафаровШ. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – Б.167.
3. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билик. – Тошкент, 1971.

ID-020-30-T019

Rafiqjon Zaripov

Tayanch doktorant

MUSTAQILLIK ARAFASIDA O'ZBEKISTONDAGI LISONIY VAZIYAT

Annotatsiya. Mustaqillik arafasida O'zbekistondagi lisoniy vaziyat, mamlakatimizda tilga bo'lgan e'tibor masalalari izlanishning asosini tashkil qiladi. O'zbek tiliga bo'lgan munosabatning istiqlolda n avvalgi davrdagi hamda mustaqillik yillaridagi holati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Til, lison, til siyosati, lisoniy vaziyat, millat, milliy til, adabiy til, mustaqillik, polivalentlik, me'yoriylik, umummajburiylik, uslubiylik, etnos.*

Annotation. The linguistic situation in Uzbekistan on the event of independence, the issues of attention to the language in our country are the basis of research. The situation with the Uzbek language in the pre-independence period and in the years of independence is analyzed.

Keywords: *language, lison, language policy, linguistic situation, nation, national language, literary language, independence, polyvalence, normality, universality, methodology, ethnos.*

Ma'lumki, har bir millatning milliy o'z-o'zini anglashida etnosni saqlab qolishga intilish ham bor. Milliy o'zlik va uni anglash unsuridan bexabar millatlar XX asrning birinchi yarmida etnik fojiga uchradi. Ammo bu fojia sun'iy faktorlar asosida keltirib chiqarildi. «Sotsialistik», «baynalminal» davlatning milliy siyosati shunday ediki, har bir respublikada yashagan

mahalliy millat va elatlar uchun rus tilini o'rganish majburiy edi. Lekin rus va rus tilida so'zlashuvchi aholida milliy tillarni o'rganish uchun obyektiv, subyektiv ehtiyoj yo'q edi. «Tillar tengligi» faqat nazariy prinsip sifatida qolib ketib, amalda esa rus tili ishlatilgan edi. Milliy tillar taraqqiyoti imkoniyatlarini cheklash «ruslashtirish» siyosatining bir tomoni bo'lgan.

Til bo'yicha siyosat «barcha tillar kelajakda bir tilga aylanib ketishi lozim» degan g'ayriilmiy, notabiiy, mantiqsiz fikrga asoslangan edi. Shuning uchun ba'zi kam sonli xalqlarning milliy tillari, milliy madaniyatlari umuman rivojlanmagan. B.R. Karimov va Q. Mira'zamov yozganidek: «Rossiya imperiyasida rus tili davlat tili deb e'lon qilingan va rus bo'lmagan tillarga nisbatan shoministik ... siyosat olib borilgan... Turg'unlik mafkurasi va psixologiyasi hukmronlik qilgan davrda qo'yilgan shominizm ruhidagi nazariy hamda amaliy xatoliklar sababli, milliy tillarning qo'llanish ko'lami va rivojlanishi nuqtayi nazaridan tengligi va teng huquqliligi ta'minlanmadi»[6, 3].

Bunday siyosat ittifoqdosh respublikalar tillarining milliy tillariga ikkinchi darajali til sifatida qarashni shakllantirdi. Aytish mumkinki, milliytilning qay darajada boyligi yoki o'sha tilda qancha aholi so'zlashishi, qo'llanish doirasi masalalari deyarli hech kimni qiziqtirmas qanday yo'l bilan bo'lsa ham goh yashirin-goh oshkora ittifoq hududida yagana til hukmronligini o'rnatishga harakatlar olib borilgan.

Bu harakatlar natijasida rus tili asosiy ish yuritiladigan tilga aylangan edi. Deyarli 150 yil qaramlik davrida o'zbek tili ham ko'p aziyat chekdi. Mustamlakachi ma'murlar har qanday yo'l bilan bo'lsa ham milliy taraqqiyotni bo'g'ishga intildilar. «Biz 50 yil tub joy aholisini taraqqiyotdan jilovladik, maktablar va rus hayotidan chetda tutdik», deb bejiz keltirmagan edi, Turkiston general-gubernatori A.N. Kuropatkin [8, 42]. «O'lkani ruslashtirish rejasini amalga oshirishda rus tili va maktablar katta ahamiyat kasb etishi lozim», degan edi general Rozenberg [8, 39].

Mustamlakachilikning uzoq davri davomida barcha ishlar yuqoridagilarning rejasidek ketdi desak mubolag'a bo'lmaydi. lekin vaqti-vaqti

bilan milliy ozodlik harakatlari bo'lib turgan bo'lsada, bu intilishlar osonlik bilan bartaraf etildi. Asosan mahalliy aholi vakillari yordami bilan bu ishlar nihoyasiga yetmay yakunlanar edi. Ammo keyinchalik bunday harakatlar avj ola boshladi. Turkiston o'lkasida boshlangan milliy ozodlik harakati, bu kurashda xalqning barcha qatlamining yakdil bo'lib maydonga chiqqani chorizmni yangicha siyosat yuritishga majbur qildi.

Rus millatiga mansub barcha ko'chirib keltirilgan mutaxassislariga tub millat tilini o'rganish majburiyati yuklandi. «Turkiston o'lkasida yashovchi rus jamoasining bolalari mahalliy tilni va yozuvni bilishlari shart. Rus-tuzem maktablarida o'qigan rus bolalarining o'qituvchilar rahbarligida mahalliy bolalar bilan birga o'qitilishi ularning tili va yozuvini o'rganishlarini yengillashtiradi va bu nihoyatda foydalidir» [9, 173]. Turkistoigeneral-gubernatorining buyrug'ida barcha chinovniklar va xizmatchilar o'zbek tili va yozuvini o'rganishning bir yillik kursini tugallashlari majburiydir, deb ta'kidlab o'tiladi.

Ittifoqda davlat siyosati va unga mos ravishda til siyosatining botiniy maqsadi xalqlarning tilini yaqinlashtirish niqobi ostida ruslashtirish bo'lganidan milliy adabiy tillarni me'yoriylashtirishda olimlar hukmron xalqtilining xususiyatini asos qilib olishga majbur bo'ldi. Ushbu talabga rioya qilmagan olimlar tahqirlandi, qattiq jazolandi.

Aslida esa, bu ittifoqdagi millatlar tilini suniy ravishda buzishga olib kelardi. Shuningdek mustamlaka mamlakatlar aholisini rus tilida so'zlashishga bo'lgan chaqiriq edi. Umuman olganda, milliy xususiyatlarni hurmat qilish prinsiplariga to'g'ri kelmaydigan holat edi.

Adabiy til ma'lum bir hududda istiqomat qiluvchi millatlarning davlat sifatida shakllangach, o'sha yerda yashovchi xalqlarning eng ko'p aholisi so'zlashuvchi millat tilining rasmiy davlat tiliga aylantirilishi natijasida vujudga keladi. shuningdek, asos qilib olingan til turli me'yor, qonun-qoidalarga mos tushishi va birdek tushunarli bo'lishi bilan birga hech qaysi bir tilning ta'siri ostida bo'lmasligi lozim. Unga majburan boshqa bir tilning qoydalari

singdirilmasligi darkor. Ammo ittifoq tillari bunday erkin qoidalar asosida emas, ma'lum talablar asosida shakllantirilishi majburiy edi.

Mashxur olim A.V. Isachenkoning fikricha adabiy til xalq millat bo'lib shakllangandan keyingina hosil bo'ladi. Bunday tilning farqlovchi belgisi to'rtta:

Polivalentlik,
Me'yoriylik,
Umummajburiylik,
Uslubiylik [4, 149]

Polivalentlik deganda ijtimoiy hayotning barcha sohasida adabiy til ishlatilishi nazarda tutilsa, umummajburiylik deganda jamiyatning barcha a'zosi tomonidan adabiy til qo'llanishining majburiyligi, adabiy til me'yorlariga hammaning barobar rioya qilishi tushuniladi.

Sho'ro talqinchisi M. M. Guxman va uning izdoshlari adabiy tilning xususiyatini belgilashda boshqacha yo'l tutadi. Bu olimlar masalaga ijtimoiy-tarixiy hamda tipologik nuqtai nazardan yondashib adabiy tilning millat bo'lib shakllanmagan xalqlarga ham xosligini ko'rsatadi. Natijada adabiy tilning ikki bosqich va ikki xil ko'rinishi borligi e'tirof etiladi:

Xalq, adabiytili,
Millatning adabiy tili (milliy adabiy til).

M. M. Guxmanning ko'rsatishicha adabiy tilning birinchi ko'rinishiga xos belgi uchta:

ishlov berilganlik,
tanlanganlik,
qoidaviylik [3, 506]

Tipologik tahlilga asoslanib M. M. Guxman adabiy tilning boshqa farqlovchi belgilari (polivalentlik va uslubiylik) ham barcha adabiy tilde yoki bir tilning o'zida birdaniga emas, asta-sekin shakllanaboradi deb yozadi.

Bir so'z bilan aytganda, barcha sohalarda rus tilining roli oshirilib boshqa millatlar tillari ikkinchi darajali tilga aylanib qolganligi hech kimga sir

emas. Boshqacha aytganda faylasuf jamiyatga non o'rniga tosh berdi (V. Moroz). Tilshunos ham ularga jo'r bo'lib ona tili darsligida rus tilini faqat ziyolilar emas, ishchi va kolxozchilar ham sevib o'rganmoqda. Rus tili o'zbek tilining o'rnini egallab, uning ish ko'rish doirasini kamaytirayotgani yo'q, balki ikkinchi ona tilif unksiyasini bajarayotir [1, 14] deb yozdi.

Aslida esa ahvol tamoman boshqacha edi. Yil sayin o'zbek tilining qo'llanish doirasi, ya'ni ijtimoiy vazifasi torayib bordi. Keyinchalik butun SSR miqyosida barcha ish rus tilida olib borila boshladi, rus tili o'z-o'zidan davlat tili bo'lib qoldi.

Rus tilining tashviqoti bog'chadan boshlandi. Ahvol shudarajaga borib yetdiki, rus tilini bilmagan qishloqi o'zbek dehqoni pochtdan nafaqasini ham ololmaydigan bo'ldi [10, 61].

Barcha majlis rus tilida o'tkazilar, hujjatlar ham shu tilde to'lg'azilar edi. Majlisda bor-yo'g'I ikki nafa rrusiyzabon kishi qatnashyapti, kelinglar o'zbek tilida gaplashaylik degan kishi millatchilikda ayblanardi. Hujjatlarni faqat rus tilida rasmiylashtirish esa shovinzmga kirmas edi [11, 24]. Fan-texnika, davlat idoralari, tibbiyot, hisob-kitob, statistika, sport, harbiy sohada to'liq rus tili hukmron bo'lib o'zbek tilidan deyarli foydalanilmas edi.

O'zbek tilining nufuzi pasayib, nafaqat davlat ishlarida, ish yuritishda, balk io'zaro muloqotda ham kam qo'llana boshladi. 80-yillardan boshlab ommaviy nashrlarda ushbu muammoga takror-takror murojaat qilindi, uning yechimini toppish yo'llari axtarildi. Nafaqat ilmiy muassasalar, boshqaruv apparatlarida, texnikaviy, qurilish, sud lov va ma'muriy sohalarida, hatto ishlab chiqarish sohalarida ham rus tili ish yuritish va muloqot tiliga aylangan edi.

80-yillarning oxiriga kelib milliy harakatlar kuchaydi. O'zbekistonda ham o'zbek tilining nufuzini oshirishga qaratilgan harakatlar oshib bordi. Oddiy xalq vakillaridan tortib, ziyoli olimlargacha buning uchun kurashdilar. Ommaviy axborot vositalari, gazeta, jurnallar orqali turli chiqishlar qilish bilan birga ko'plab namoyishlar o'tkazildi buning oqibatida 1989-yil 21-oktyabrda ona

tilimizning qonuniy hujjati yaraatilishiga erishildi. Bu orqali o'zbek tilining rasmiy tilga aylangani va qonuniy himoyasiga ega bolgani ko'rsatib qo'yildi.

Til mustaqil davlatning milliy tili bo'lgach, o'zining an'anaviy funksiyalaridan tashqari qator(muloqot, voqelikni inikos ettirish, o'zlikni ifodalash va hokazo), muhim funksiyaga ham ega bo'ladi – u milliy davlatchilik belgilaridan biri sifatida yuzaga chiqadi. Tabiiyki, u shunchaki muloqot vositasi emas, balki qonun tomonidan muhofaza qilinuvchi davlat ramzlaridan biri sifatida qabul qilinadi. Agar millat o'z milliy davlatchiligiga ega bo'lsa, bu holatda u konstitutsion huquqiy darajada, qonuniy yo'l bilan o'zining ijtimoiy-madaniy qadriyati sifatida milliy tilni har tomonlama rivojlantirish uchun g'amxo'rlik qiladi. O'zbekiston ham o'z mustaqilligiga erishgach barcha sohalarida bo'lgani singari til masalasi rivojiga kata e'tibor qaratdi.

Istiqloлга erishganimizdan keyingi o'n yillikda mamlakatimizning mustaqillikka erishuvi arafasidagi, mustaqillikning dastlabki davr tahliliga oid bir qator maqolalar[2], kitoblar[5] dunyo yuzini ko'rdi, ularda jamiyatimiz hayotining yaxshilanishi, turli sohalaridagi o'sish e'tirof etildi.

Davlat tili – davlatning asosiy aholisi tomonidan davlat ichida umumiy qo'llaniluvchi tildir. U siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotning barcha sohalarida keng qo'llaniladi. Til vositasida davlat o'z fikrini ifodalaydi, faoliyatini olib boradi va xalq bilan muloqotda bo'ladi. Davlat tili – milliy davlat suvereniteti belgisi. U davlat irodasini ko'rsatuvchi, harakatlarni amalga oshishi uchun xizmat qiluvchi, davlatchilikning funksiyalovchi elementidir[7, 34]. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'zbek tili ham manashunday jihatlarni o'zida kasb etdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishish arafasida 1989 yil 21 oktyabr sanasida "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligi o'zbek tilining dunyoda mustaqil tilga aylanishiga imkon berdi. Keyingi bosqichlarda amalga oshirilgan ishlarning poydevorini qo'yib o'zbek tilini kelgusida rivojlantirish uchun zamin yaratdi. Shuningdek, respublikamizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyamizning o'zbek tilida yaratilishi uning nufuzini yanada

yuksaltirdi. O'zbek tili o'tgan yillar davomida mamlakatimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o'zaro bog'laydigan mehr-oqibat tiliga aylandi. Keyinchalik esa mamlakatimizda yozuv masalalari isloxoti o'tkazilib, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish haqida qonun qabul qilinib o'zbek tilining yozma ko'rinishi yangi alifboda belgilandi. Shu tariqa tilimizning ilk qonuniy himoyasi yaratildi. Bugungi kunda o'zbek tili davlat tili sifatida siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda faol qo'llanmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda. Oraliq davr mobaynida til masalalariga e'tibor nazarimizda susaygan holga kelib qoldan edi. Ammo so'nggi yillarda tilimizga bo'lgan e'tibor jonlandi. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining faoliyati yo'lga qo'yilganligi bu ishlarning amaliy misolidir. Qayd etish joizki, ushbu universitetda o'zbek tilining har tomonlama rivojlanish bosqichlari taraqqiyot yo'llari tadqiq etilmoqda. Shu o'rinda o'zbek tilining jahon miqyosidagi nufuzi va kengayishi hamda tadqiqi masalalariga to'xtalib o'tsak. O'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universitetlari va 100 dan ziyod maktablarida o'rganilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda. Dunyo bo'yicha o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni ellik millionga yaqinlashgani ham tilimizning qamrovi tobora kengayib borayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda o'zbek tili istiqloлга erishishimizdan avvalgi yillarda qanchalik soyada qolib, nufuzi tushib, hurmatsizlikka uchrab, qo'llanish doirasi pasayib ketgan bo'lsa, mustaqillik arafasida va istiqloл yillarida qilingan amaliy harakatlar natijasida yorug'likka chiqdi hamda o'zining asl qiyofasini eganladi. Barcha sohalarda teng qo'llana boshladi. Qayd etish lozimki, o'zbek tilining bunday maqomga erishishida xalqimiz jonbozlik ko'rsatgani etirofga loyiqdir. So'nggi yillarda esa, o'zbek tilini

takomillashtirishga qaratilgan ishlar yanada jonlanayotganligi tilimizning tobora nufuzi oshib borishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 1980. 14 б.
2. Аҳмедов – Б. А. Темурнинг давлатни идора қилиш сиёсати // Мулоқот, 1994, №5-6; М. Маҳмудов. Маънавият-бепоён олам // Гулистон, 1996, №3.
3. Гухман М.М. Литературный язык // Общее языкознание. Формы существования, функции и история языка. М., 1970. 506 С.
4. Исаченко А.В. К вопросу о периодизации истории русского языка // Вопросы теории и истории языка (сборник в честь проф. Б.А.Ларина). Ленинград, 1963. 149 С.
5. Истиқлол йўли: тўплам. – Т.: Ўзбекистон, 1995.
6. Каримов – Б. Р, Мираъзамов К. Миллат равнақи ва тил муаммолари. – Т.: 1993. – Б. 3.
7. Каримова Л.А. Актуальные вопросы определения статуса языка и его функционирования // ОНУ, 1996. – С. 34
8. Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини. Т.: Нур, 1992.-42 б.
- Туркистон генерал-губернаторининг 1905 йилги буйруғи. ЦГИА ЎзССР ф.48, д145, 173 б.
9. Ш.Холмирзаев «Тафаккур», 1999, 2-сон, 61. Б.
10. Ў.Ҳошимов. «Тафаккур», 1997, 2-сон, 24. Б.

ID-020-30-T020

Vazira Nuriddinova

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

MARHABO KARIMOVA SHE'RLARIDA KO'CHIMLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko'chim va uning turlari haqida atroflicha ma'lumot berilgan hamda o'zbek shoirasi – Marhabo Karimova she'rlari orqali ma'no ko'chish turlari yangi ko'lamda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *ko'chim (trop), metafora, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, kinoya, grotesk, kichraytirish (litota).*

Annotation. This paper contains detail information about word's meaning transfer and its types. In addition, through poems of Markhabo Karimova – Uzbek poetess types of meaning transfer is illustrated in a new scale.

Keywords. *Meaning transfer (trope), metaphor, metonymy, synecdoche, exaggeration (hyperbola), sarcasm, grotesque, understatement (litotes).*

Ko'chimlar deyilganda “adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi” [Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T., 2007] nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda “troplar” atamasi ostida o'rganilgan. “Badiiy matnning lisoniy

tahlili” qo’llanmasida ko’chimlar quyidagicha tasnif qilingan: “ So’z ma’nosining miqdoriy ko’chishiga asoslangan troplar: a) giperbola; b) meyozis. 2. So’z ma’nosining sifatiy ko’chishiga asoslangan troplar: a) metafora; b) metonimiya; d) ironiya”. Qolgan tasviriy vositalar mazkur ko’chimlarning ko’rinishi sifatida beriladi: “simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa - metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet - metonimiyaning; antifraza, sarkazm - ironiyaning; litota - meyozisning ko’rinishlaridir” [Yo’ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – T., 2010].

Ko’chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri – metaforadir. Metafora- narsa-buyum, voqea va hodisalar o’rtasidagi o’zaro o’xshashlikka asoslangan ma’no ko’chishi bo’lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda “istiora” deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog’liq hodisa hisoblanadi. Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo’yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma’lum bir so’zning ma’no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning oyog’i - stolning oyog’i, odamning ko’zi - uzukning ko’zi, ko’ylakning etagi - tog’ning etagi* kabi. Marhabo Karimovanning qo’shiq bo’lib barchamizning dillarimizdan joy egallagan “Onamni ko’rgani boraman” she’ridagi ushbu parchada ham lingvistik metaforani ko’rishimiz mumkin:

“Hammadan go’zalsiz” deb atay,

So’ligan ruhini yashnatay,

Kuldirib-kuldirib yayratay,

Onamni ko’rgani boraman (Saylanma T.,2015, 180-b).

Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya’ni borliqni subyektiv munosabatini qo’shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo’yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo’ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda

qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiyl muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Marhabo Karimova ijodida xususiyl metaforalarni juda ko'plab uchratishimiz mumkin. Quyida ba'zilarini keltirib o'tamiz:

Ko'ngling kimni xushlasa, o'sha bilan suhbat qil,

Tikonlarga qarama, gulga qarab rohat qil,

Asabingni qiynama, yuragingga shafqat qil,

O'g'ling yeb, o'rga ketar, qizing yeb, qirga ("Kattalarga nasihat" she'ridan).

Bir begona qush kelib unda

Axlatimgiz "titadi" kunda,

Bilmaslikka olasiz shunda

Hali ayol bo'lmabsiz, poshsho. ("Hali ayol bo'lmabsiz, poshsho" she'ridan)

Ayrim manbalarda metaforalarning mazmuniy jihatdan uch turi mavjudligi aytiladi: odatiy, jonlantirish va sinestetik metaforalar. Yuqorida ko'rib o'tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. "Badiiy san'atlar" kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: "Jonlantirish – istioraning bir ko'rinishi. Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan xislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir". "O'zbek tili stilistikasi"da ham "kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi" [Shomaqsudov A., Rasulov I., va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T., "O'qituvchi", 1983]ga jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan:

1. Tashxis - shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi. Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Bunda narsa - buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi. Shoiraning "Zamonaviy ertak" she'rida jonlantirishning go'zal namunalari ko'rishimiz mumkin:

Qo'ynidan bir xumchani

Olib shivirladi chol:

Bizga ko'k choy damlab kel,

Hoy jin, qani, chiqa qol.

2. Intoq - nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi. Intoq san'atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba'zi qusurlar, kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida allegoriya deb ataladigan ko'chim ham "gapirtirish" usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik jonlantirishda hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O'quvchi esa asosiy e'tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya'ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori. Shoira ijodida intoq jonlantirish orqali deyarli barcha narsa-buyumlar "tilga kiradi":

Kampirlarin qo'lida kuylaydi urchug'iyam,

Bolamga deb don cho'qir kaptar, chug'urchug'iyam,

*O'g'il ko'rsa, to'y qilar hattoki chumchug'iyam,
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa,
Dunyo hayron bo'lsa ham o'zbeklarda shunaqa ("Vatan haqida so'z").*

Sinestetik metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa-tushunchaga o'xshatiladi, yaqinlashtiriladi va shu asosda ko'chma ma'no yuzaga keladi. Masalan: *shirin tabassum, shirin gap, shirin uy; yengil tabassum, yengil nigoh, yengil qadam, og'ir tush, og'ir gap, og'ir masala* kabi. Bu misollarda keltirilgan *shirin, yengil, og'ir* sifatlarida sinestetik metafora sodir bo'lgan. Maza-ta'm ma'nosini bildiruvchi "shirin" va o'lchovni ifodalovchi "yengil" so'zlari "yoqimli" ma'nosida, "og'ir" so'zi esa "yoqimsiz" ma'nosida kelgan. Marhabo Karimova she'rlarida ham sinestetik metaforalar ko'plab uchraydi:

*Yigit bormi sizday mard,
Yuragi toza, begard,
Ikki dunyo ko'rmang dard,
Qizim – yomon, siz – yaxshi ("Kuyovimga iltijo" she'ridan).*

Ko'chimning yana bir turi metonimiya hisoblanadi. Metonimiya deb voqea-hodisa, narsa-buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat "metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi" [Mamajonov A. *Tekst lingvistikasi*. – T., 1989]. Metonimiyaning turli ko'rinishlari mavjud va bu haqda tilshunoslikka oid adabiyotlardan atroflicha ma'lumot olish mumkin. Ijodkorning yuqorida ko'rib o'tganimiz – "Kuyovimga iltijo" she'ridagi ushbu parchada ham metonimiya qo'llangan:

*Biz – temir, siz – tillosiz,
Biz – omi, siz – mullosiz,
Biz – nodon, siz – donosiz,*

Qizim yomon, siz – yaxshi.

Butun-bo‘lak munosabatiga asoslanuvchi ma‘no ko‘chishiga sinekdoxa deb aytiladi. Adabiyotlarda “ko‘plik o‘rnida birlik yoxud birlik o‘rnida ko‘plik shakllarini qo‘llash yoki bilan ham sinekdoxalar yaratish mumkin” [Shomaqsudov A., Rasulov I., va boshq. O‘zbek tili stilistikasi. – T., O‘qituvchi, 1983] ligi aytilgan. *Daraxtlar sarg‘aydi, olma gulladi, qo‘limni kesib oldim* birikmalarida butunning nomi bilan bo‘lak; *har ishga burnini suqmoq, tirnoqqa zor, jamoaning qo‘li baland keldi* kabi birikmalarda qismning nomi bilan butun ifodalanyapti. Badiiy nutqda sinekdoxadan ixchamlilik va ifodalilikni ta‘minlash maqsadida foydalaniladi. Shoira ijodidan:

Qo‘ling ishda va lekin Robbanoda bo‘lsin dil,

G‘iybat, hasrat gapni qo‘y, subhanolloh aytsin til,

Bu dunyoning nonin yeb, u dunyoning ishin qil,

O‘g‘ling yeb o‘rga ketar, qizing yeb qirga (“Kattalarga nasihat” she‘ridan)

Qadimdan adabiyotimizda ta‘sirchan ifodalar yaratishda keng qo‘llanilib kelgan ko‘chimning bir turi borki, bu ham kinoyadir. Kinoya deb “til birligini uning haqiqiy ma‘nosiga qarama-qarshi ma‘noda, kesatq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko‘chim” [Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989]ga aytiladi. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa “ironiya” atamasi ostida umumlashtiriladi. Uning antifraza (masxara, u yoki bu ijobiy xususiyatni kulgi, kalaka yo‘li bilan inkor qilish) hamda sarkazm (zaharxanda ta‘na, istehzoli piching, shama) deb ataluvchi ko‘rinishlari farqlanadi. O‘zbek xotin-qizlariga xos so‘zga chechanlik, gapni topib gapirish, “so‘z bilan nishonga tekkizish” xususiyatlari Marhabo Karimova she‘riyatida ham yaqqol ko‘rinib turadi. Demakki, shoira ijodida kinoyaning barcha turlari keng qo‘llanilgan:

Sog‘ligida – sizniki,

O‘g‘liniki, qizniki,

Kasal bo‘lsa – bizniki,

Qizim – yomon, siz – yaxshi (“Kuyovimga iltijo” she‘ridan).

Narsalarni, voqea va hodisalarni, his-tuyg'ularni, belgi-xususiyatlarni o'ta bo'rttirib tasvirlashga mubolag'a (yoki giperbola) deyiladi. Mubolag'a ham tasvirning ta'sirchan chiqishiga, obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi. "Mubolag'aning so'z ma'nosining ko'chishiga asoslanishi uning troplar guruhiga mansubligini ko'rsatsa ham, u tropning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Chunki tropning boshqa ko'rinishlarida ko'chma ma'no ma'lum bir belgi asosida o'xshatish, taqqoslash, voqea-hodisa yoki predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra bo'lsa, mubolag'a esa to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab etadi" [Shomaqsudov A., Rasulov I., va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T., O'qituvchi, 1983]. Mubolag'aga asoslangan ko'chim badiiy matnga nutq predmetiga nisbatan tinglovchi yoki kitobxon e'tiborini tortish va nutqning emotsional-ekspresivligini ta'minlash maqsadi bilan olib kiriladi. Mubolag'ada ifodalanayotgan axborot, tabiiyki, hayot haqiqatiga mos kelmaydi. Lekin me'yor buzilsa kutilgan effektga erishilmasligi ham mumkin. Aslida "mubolag'ali nutqning asosiy maqsadi axborot berish emas, balki tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir qilishdir" [Shomaqsudov A., Rasulov I., va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T., O'qituvchi, 1983] .

Mubolag'a yo'li bilan komik effekt yaratishning yana bir usuli grotesk deb ataladi. "Grotesk fransuzcha so'z bo'lib, *kulgili, g'ayritabiiy* degan ma'nolarni bildiradi. Grotesk satirada haqiqiy holni fantaziya bilan qo'shib vahimali hamda kulgili tarzda bo'rttirib tasvirlashdir. Grotesk haqiqatni inkor etmaydi, balki haqiqatni haqiqatsimon g'ayritabiiy shakllarda yanada ta'sirliroq ifodalash san'atidir" [Boymirzayeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. – T., 2009]. Tadqiq etayotgan ijodkorimiz she'rlarida ham grotesk keng miqyosda qo'llangan:

Ishi tushsa, yoningga chopar,

Hindistonda bo'lsang ham topar,

Boshqa payt kutmagin, ey modar,

O'g'il bolang – birovning xasmi. ("O'g'il bolang – birovning xasmi" she'ridan)

Kichraytirish (litota) deganda mubolagʻaning aksi tushuniladi. “Lekin mohiyat eʻtibori bilan ular qarama-qarshi hodisalar emas, har ikkisi ham voqelikni haddan tashqari kuchaytirib tasvirlashga xizmat qiladi, faqat ulaming ifodalanish usulida farq bor: giperbolada voqelik toʻgʻridan - toʻgʻri, bevosita boʻrttirib koʻrsatilsa, litotada biror voqelikni kichraytirish vositasida beriladi” [Boymirzayeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. – T., 2009]. Shoiraning sheʻrlarida litota ham uchraydi, albatta:

*Kampirlarin qoʻlida kuylaydi urchugʻiyam,
Bolamga deb don choʻqir, kaptar, chugʻurchugʻiyam,
Oʻgʻil koʻrsa, toʻy qilar hattoki chumchugʻiyam,
Bilolmadim Farangu Afriqoda qanaqa,
Dunyo hayron boʻlsa ham oʻzbeklarda shunaqa (“Vatan haqida soʻz”
sheʻridan)*

Marhabo Karimova oʻzining oʻynoqi usuldagi xalqona sheʻrlari bilan kitobxonlar mehrini qozongan. Oʻziga xos ifoda, kutilmagan xulosa, ohorli soʻz qoʻllashlar shoira sheʻrlarining badiiyligini taʼminlashga, taʼsirchanligini oshirishga, kitobxon xotirasida oson saqlanishiga sababchi boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Boymirzayeva S. Matn mazmunida temperollik semantikasi. – T., 2009
2. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – T., 1989
3. Marhabo. Saylanma. – T.: “Oʻzbekiston”, 2015
4. Shomaqsudov A., Rasulov I., va boshq. Oʻzbek tili stilistikasi. – T., Oʻqituvchi, 1983
5. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T., 2007
6. Yoʻldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – T., 2010

ID-020-30-T021

Zarina Fayziyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

BA'ZI O'ZBEK TAOM NOMLARINING ETIMOLOGIYASI

Annotation. In this article discusses the origin of the food names in Uzbek ancient times. The following is a summary of the true meaning of the names of different languages.

Keywords: *Common names of meals, kholva, samsa, mastava, semantic method.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi oziq-ovqat nomlarining kelib chiqish tarixi, qadimda qanday nomlanganligi haqida so'z yuritiladi. Turli tillardan o'zlashgan taom nomlarining tub ma'nolarini quyidagi maqola orqali bilib olishingiz mumkin.

Kalitso'zlar: *umumturkiy taom nomlari, qayish, atala, holva, somsa, xo'rda, mastava, semantik usul.*

Oziq-ovqat nomlari – til leksikasini boyituvchi manbalardan biridir. Bu nomlarni etimologik va tarixiy nuqtayi nazardan tahlil qilish shundan dalolat beradiki, uning tarkibida sof o'zbekcha atamalar bilan bir qatorda, arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham anchagina. Bular xalqimizning boshqa xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari natijasidir.

O'zbek tilshunosligida tarmoq atamalari birmuncha o'rganilgan sohalardan biri hisoblanadi. Taom nomlari ham ba'zi ishlarning o'rganilish obyekti bo'lgan. Shunday ekan, o'zbek shevalaridagi kundalik iste'mol uchun tayyorlanadigan, to'y, bayram va boshqa xalq marosimlar uchun maxsus tayyorlanadigan, mavsumiy, ya'ni yilning ma'lum fasllaridagina tayyorlanadigan, tayyorlash usuli unutilayotgan yoki masallig' noyob, ba'zi-

ba'zidagina tayyorlanadigan betob bo'lganda yoki ishtahasi qirqilganda shifo bo'ladigan taom nomlarini, shuningdek, shirinlik, qandolat va ichimlik nomlarini tadqiq etish o'zbek tili lug'at tarkibining unutilayozgan til elementlarini, o'zbek shevalari bisotidagi lug'at boyliklarini, shuningdek, til tarixidagi noaniq leksik-gramatik hodisalarni o'rganish uchun imkon yaratadi.

O'zbek tilshunosligida pazandachilik leksikasi tadqiqotchi N.Ikromova tomonidan o'rganilgan. U asosan Toshkent shevasidagi taom nomlarini tadqiq etgann. O'zbek tili eng ko'p shevaga ega til bo'lganligi uchun milliy taomlar nomlari uchun boy ma'lumot bera oladi va ularni o'rganish lozim.

Ma'lumki, o'zbek xalqi eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan o'sib chiqqan, uning tili ham shu urug' va qabilalar tili negizida rivoj topgan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi, qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlari bilan qo'shnichilik munosabatlari ham o'zbek tili taraqqiyotiga jiddiy ta'sir o'tkazgan. Bunda, ayniqsa, turkiy-arab, o'zbek-arab, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq, o'zbek-qirg'iz va o'zbek-turkman bilingvizmi kabi omillarning roli katta bo'lgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, o'zbek tilidagi taom nomlarini quyidagi qatlamlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Umumturkiy taom nomlari: go'ja, shavla, atala, qayish, to'g'rama, qovurdoq, dimlama kabi;
2. Fors-tojik tilidan o'zlashgan taom nomlari: non, xo'rda, somsa, palov, sho'rva, mastava, barak kabi;
3. Arab tilidan o'zlashgan taom nomlari: patir, holva, murabbo kabi;
4. Uyg'ur tili orqali xitoy tilidan o'zlashgan taom nomlari: manti, lag'mon, mampar kabi;
5. Rus tili va rus tili orqali g'arb tillaridan o'zlashgan taom nomalar: pechenye (ruscha), kotlet (fransuzcha), tort (italyancha), keks (inglizcha), vafli (nemischa), povidlo (polyakcha), va shu kabi [1: 14].

Qayd qilish kerakki, ayrim taom nomlari o‘zbek tilining fonetik va grammatik qonun-qoidalariga moslashib, o‘zbek tilining o‘z leksemalari kabi taassurot qoldiradi.

O‘zbek tilidagi ayrim taom nomlarining kelib chiqishi ildizlarini bilish uchun quyidagi etnologik kuzatishlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Atala – unni yog‘da qovurib, keyin suv bilan qaynatib tayyorlanadigan yengil hazm suyuq ovqat [5: 90]. Bu leksema ma‘no taraqqiyoti natijasida “suyuq narsani cho‘mich bilan to‘lg‘amoq” ma‘nosini anglatuvchi *atala* – fe‘lidan o‘sib chiqqan [3: 34]. Ushbu leksema orqali tilimizda bir necha iboralar qo‘llaniladi.

Atala maxsum – bo‘shashgan, lallaygan, lanj odam haqida yoki hadeb yiqilaveradigan yoki bo‘shashgan odamga hazil tariqasida aytiladigan ibora.

Atalaga bismillo – juda oson yengil bitadigan ish haqida gapirilganda ushbu ibora qo‘llaniladi.

Qayish – so‘zining asl ma‘nosi “teridan tayyorlanib belga taqiladigan, tasma shaklidagi belbog‘” ma‘nosini anglatadi [5: 215]. Taom nomlarida ham qayish nomi uchraydi. Bu taom xamiri yupqa yoyilib, tasmalardek kesilib va qaynagan suvga solinib tayyorlanadigan ovqat. Ushbu leksema semantik usulda yasalgan bo‘lib, so‘zning shakli o‘zgarmay, faqat ma‘nosi ko‘chgan va shu ma‘noni anglatgan. Bu taom Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlarining ayrim hududlarida uchraydi.

Holva – bu arabcha leksema bo‘lib, *halvai* shakliga ega [9: 193]. O‘zbek tiliga ikki shaklda qabul qilingan: holva, halvo. Ushbu leksema “shirin, yoqimli bo‘ldi” ma‘nosini anglatuvchi halva fe‘lidan [9:192] hosil qilingan bo‘lib, o‘zbek tilida “un, shakar, yog‘dan, ba‘zan kunjut, mag‘iz qo‘shib tayyorlanadigan shirinlik” ma‘nosini anglatadi. Xalq og‘zaki ijodi sanalmish maqollarda ham quyidagacha ishlatiladi: “Sabr qilsang, g‘o‘radan halvo bitar”, “ Holva degan

og'iz chuchimas". "Suvdan holva yasamoq" iborasi esa bo'lmaydigan ishga urinmoq ma'nosida qo'llaniladi.

Yuqoridagi leksemani Alisher Navoiy asarlarida *halvo*, *halova* shakllarida ham uchratishimiz mumkin:

Xom ko'ngulkim dudog'ingni tilab afg'on qilur,

Bordurur ul tifdekkim yig'lag'ay halvo uchun ("Xazoyin ul maoniy")
[6:340]

Halovani ta'rif etay rang-rang,

Pishurmakka shakkar ezib tang-tang. ("Saddi Iskandariy") [6: 278]

Mastava – bu leksema “qattiq” ma’nosini anglatuvchi tojikcha *most* oti bilan [8: 233] “suv” ma’nosini anglatadigan *ob* otidan [8: 279] tuzilgan birlikka -a qo’shimchasini qo’shish orqali hosil qilingan bo’lib, o’zbek tiliga ayrim fonetik o’zgarishlar asosida qabul qilingan hamda “qatiq solib ichiladigan guruchli ovqat” ma’nosini anglatadi.

Xo’rda – bu ot “yeb-ich” ma’nosini anglatadigan tojikcha xo’rdan fe’lining o’tgan zamon shakliga -a qo’shimchasini qo’shish orqali yasalgan bo’lib, “guruchdan tayyorlangan suyuq ovqat” ma’nosini bildirib keladi [5: 397].

Somsa – bu ot fors tilida “tish” ma’nosini anglatadigan [senn] oti bilan, “o’pich” ma’nosini anglatadigan [buse] otidan tuzilgan [sombuse] oti bo’lib, ba’zi fonetik o’zgarishlar asosida tojik tili lug’atiga “*sambo’sa*, *sanbusa*” shaklida kiritilgan [8: 339]. O’zbek tiliga tojikcha *sambo’sa* shakli *s* tovushidan keying *a* tovushini *o* tovushiga almashtirib, *bo’* tovushlarini tashlab, *somsa* shaklida olingan; aslida bu “tisho’par” ma’nosini anglatgan bo’lib, o’zbek tilida “xamirli kichik doira shaklida yoyib, go’sht yoki qovoq, piyoz to’g’ramali solib, tugib, tandirda pishiriladigan taom” ma’nosini anglatadi [5: 68]. Ammo “sambo’sa”

shakli Buxoro viloyatining G'ijduvon, Vobkent kabi ayrim hududlarida qo'llaniladi

Taom nomlarining paydo bo'lishi, taraqqiyoti, qo'llanilish doirasi va iste'molda bo'lish davri tarixan o'zgaruvchan. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi bilan tarmoq leksilari ham o'zgarib boradi. Ayrimlari butunlay iste'moldan chiqadi, ba'zilari tarixiy so'zlarga aylanadi, ayrimlari esa ma'lum fonetik va ma'no o'zgarishi bilan qo'llanishda davom etishi mumkin. Ayrim yangi taom nomlari esa o'zbek tili leksikasidan o'rin olmoqda. Masalan: *lavash, donar, gamburger* kabilar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudoyorova M.T. O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. – T., 2008
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (turkiy so'zlar). – T.: Universitet, 2000.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (arab so'zlari va ularning hosilalari). – T.: Universitet, 2003.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (fors tojik so'zlar). – T.: Universitet, 2003
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. I – II tomlar. –M., 1981.
6. Alisher Navoiyning mukammal asarlar to'plami. 16-jild. –T., 2000
7. Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati. –T., 1972.
8. Таджикско-русский словарь. Госиздат ин. и нац. словарей. - М., 1954
9. Баранов Х.К. арабско-русский словарь. – М., 1976.

ID-020-30-T022

Elyor Alimardanov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

O'ZBEK VA TURKMAN TILLARIDAGI UNDOSSH FONEMALAR VA ULARNING TAVSIFI

Annotatsiya. Turkiy fonetika uzoq davrlardan olimlarning diqqat markazida bo'lib, ilk bora turkiy tillarni qiyosiy jihatdan o'rgangan olim Mahmud Koshg'ariydan boshlab, hozirgacha katta qiziqishlarga sabab bo'layotgan sohalardan biridir. So'nggi yillarda turkiy tillarni an'anaviy umumplanda o'rganish bilan birga, ma'lum bir tillarning o'ziga xosliklarini qiyosiy tomondan o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar ko'paymoqda. Turkiy undoshlarning o'zbek va turkman tillaridagi xususiyatlari, o'ziga xosliklari ham shunday mavzulardan biridir. Ushbu maqolada turkiy tillarning qarluq va o'g'uz guruhlariga mansub o'zbek va turkman tillari, shuningdek, o'zbek tilining o'g'uz lahjasi tarkibidagi xorazm shevasidagi undosh fonemalar va ularning qiyosi aks etgan.

Kalit so'zlar: *turkiy til, o'zbek tili, turkman tili, fonetika, undoshlar.*

Annotation. Turkic phonetics has long been in the spotlight of scholars, from Mahmud Kashgari, a scholar who first studied the Turkic languages comparatively, to the present day. In recent years, in addition to the traditional study of Turkic languages in general, there has been an increase in research on the comparative study of the specifics of certain languages. The peculiarities of Turkic consonants in Uzbek and Turkmen languages are one of them. This article describes the Uzbek and Turkmen languages belonging to the Qarluq and Oghuz groups of Turkic languages, as well as the consonant phonemes of the Khorezm dialect in the Oghuz dialect of the Uzbek language and their comparison.

Keywords: *Turkic language, uzbek language, turkmen language, fonetic, consonants.*

Turkologiyada turkiy tillar fonetikasi keng tadqiq etilgan mavzulardan biridir. Davrlashtirish asosida qadimgi, eski va hozirgi turkiy tillardagi undosh

fonemalarning miqdori va sifati, o'ziga xosliklari turkiy fonetikaning asosiy tadqiq obyekti hisoblanadi. Xususan, B.A.Serebrinnikov va N. Z. Gadjiyevalarning "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" [16], N.A.Baskakovning "Turkiy tillarning tarixiy-tipologik fonologiyasi" [4], A.M.Sherbakning "Turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi" [17] kabi tadqiqotlarida yuqoridagi obyektlar o'rin olgan. Aytish kerakki, turkiy tillarning qarluq va o'g'uz guruhlariga mansub o'zbek va turkman tillarining fonetikasi, xususan, undoshlar tizimining ikki tildagi miqdori, qo'llanish o'rinlari, o'ziga xosliklari asosiy planda o'rganilmagan va yuqoridagi adabiyotlarda umumiy tarzda ma'lumotlar berib o'tilgan. Shu jihatlarni inobatga olgan holda, tadqiqotimizda o'zbek va turkman tillarida undosh fonemalarning xususiyatlari, o'ziga xosliklari haqida kuzatishlarimizni keltiramiz. Bunda ikki tildagi undoshlarning muvofiqligini aks ettirish maqsadida xorazm shevasi undoshlar tizimi ham tadqiq etiladi.

Undoshlar o'pkadan chiqayotgan havoning nutq a'zolariga tegishi natijasida hosil bo'ladigan tovushlardir. Turkiy tillarda unlilarda bo'lgani kabi undosh tovushlar ham bir-biridan son va sifat jihatidan turli darajada farq qiladi. Masalan, turk tilida 21 ta [21, 35-bet], ozarbayjon tilida 23 ta bo'lsa [20, 177-bet], ularning miqdori o'zbek tilida 24 ta [18, 55-bet], turkman tilida 21 ta [19, 68-bet], xorazm shevasida esa 22 tani [2, 132-133-bet] tashkil etadi:

T / r	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
1	b	b	b
2	d	d	d
3	f	-	f
4	g	g	g
5	h	h	h
6	j	j	j
7	k	k	k
8	l	l	l
9	m	m	m
10	n	n	n
11	p	p	p
12	q	q	-

13	r	r	r
14	s	s	s
15	t	t	t
16	v	v	w
17	x	x	-
18	y	y	y
19	z	z	z
20	g'	ğ	-
21	sh	š	š
22	ch	č	č
23	ng	ŋ	ŋ
24	dj		dj

Ko'rinadiki, o'zbek va turkman tillarida mavjud bo'lgan, sirg'aluvchi dj va lab-tish tovushi f undoshi xorazm shevasida yo'q, so'z tarkibidagi f undoshi p ga, dj esa j ga aylanadi. O'zbek adabiy tilidagi chuqur til orqa q, g', x tovushlari xorazm shevasida bo'lsa-da, ammo talaffuz jihatidan aynan emas. Xorazm shevasidagi bu undoshlar til o'rta k, g, bo'g'iz tovushi h ni talaffuz qilgandan orqaroqda va qattiq tarzda tallafuz qilinadi. Turkman adabiy tili normalariga ko'pchilik olimlar tomonidan kiritilishi rad etilgan bu tip undoshlarning talaffuzi xorazm shevasidagi kabi bir xildir.

Umuman olganda, unilarning miqdorini belgilashda bo'lgani kabi, undoshlarning tarkibini tuzishda ham ikki adabiy til vakillarida ham har xilliklar mavjud. Xususan, o'zbek adabiy tili undoshlar sostavida 24 ta fonema bor deyilsa-da, ammo ushbu miqdor yuzasidan turlicha fikrlar bor. Jumladan, S.Otamirzayeva [12, 8-bet], Y.D.Polivanovlar [13] 22 ta, A.K.Borovkov [5], I.A.Kissenlar [7, 21-bet] 23 ta desa, A.N.Kononov [8], V.V.Reshetov [15, 212-bet], A.Abduazizovlar [1, 54-66-betlar] 25 ta, shuningdek, o'zbek adabiy tilida olim M.M.Mirtojiyev tomonidan 27 undosh borligi qayd etilgan [11, 102-103-betlar]. H.Jamolxonov o'zbek tilidagi undoshlarning miqdorini belgilash borasida o'zining „O'zbek tilining nazariy fonetikasi“ qo'llanmasida yuqoridagi olimlarning qarashlarini batafsil yoritib, ulardan kelib chiqib o'z fikrlarini bayon etadi [6, 117-139-betlar]. Ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili undoshlar sostavidagi asosiy munozara o'zlashgan f, dj, ts fonemalarining o'zbek tilidagi

fonema maqomining bor-yo'qligi yuzasidan bo'lib, Mirtojiyev esa ng' (vang'illamoq, do'ngillamoq, to'ng' so'zlaridagi chuqur til orqa sonant) va dz (chetdan o'zlashgan familiyalarda qo'llanadigan affrikat) tovushlarini ham alohida fonema sifatida kiritadi.

Turkman tilida ham undoshlar sostavi bahsli bo'lib, ko'pchilik olimlar tomonidan 21 ta undosh qabul qilingan bo'lsa ham, munozaralar hanuz davom etmoqda. A.P.Potseluyevskiyning fikricha 25 ta [14], G.Qulmonov [9, 18-bet] va X.Mashakovlarning [10, 3031-betlar] fikricha, 22 ta, Boqiyev 23 ta [3, 15-bet] desa, A.Annanurov, P.Azimov, J.Amansariyev, G.Sariyev, T.Tojimurodov, M.Xudoyquliyev, B.Xo'jayevlar esa 21 ta undosh fonema tarafdorlaridir. Turkman tilidagi undoshlar sostavi yuzasidan bahslar asosan, qattiq va yumshoq talaffuz qiluvchi o'g'uz turkum tillariga xos bo'lgan g va k juftliklari, shuningdek, x va h fonemalarini alohida fonema yoki fonemaning varianti sifatida hisoblash masalasi bilan bog'liqdir.

Aytish joizki, ikki tilda ham undosh fonemalar miqdori xususida tugal fikr yo'q. Bu esa mazkur ishda ba'zi qiyinchiliklarni tug'diradi. Shu sababli ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan, kitob-darsliklarda qayd etilgan o'zbek tilida 24 ta, turkman tilida 21 ta va ba'zi o'rinlarda qattiq g, k, bo'g'iz tovushi h undoshlarni qo'shgan holda qiyos etamiz.

Undosh fonemalar akustik-artikulatsion jihatdan, asosan, quyidagi 3 tasnif asosida guruhlarga bo'linadi:

hosil bo'lish o'rniga ko'ra;

hosil bo'lish usuliga ko'ra;

ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.

Hosil bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq a'zolarining qay birida yuzaga kelishi yoki boshqa a'zolarga nisbatan ko'proq faolligi jihatdan, til, lab bo'g'iz undoshlariga bo'linadi:

Hosil bo'lish o'rni	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Til	d, g, j, k, l, n, q, r, s, t, x, y, z, g', sh, ch, ng, dj	d, g, j, k, l, n, q, r, s, t, x, y, z, g', š, č, ŋ	d, g, j, k, l, n, r, s, t, x, y, z, š, č, ŋ, dj
Lab	b, p, m, v, f	b, p, m, v	b, p, m, v, f
Bo'g'iz	h	h	h

Til tovushlari o'z o'rnida uchga bo'linadi:

til oldi

til o'rta

til orqa

Tilning qayerida	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Til oldi	d, t, l, n, s, z, sh, j, r, ch, dj	d, t, l, n, s, z, sh, j, r, ch,	d, t, l, n, s, z, š, j, r, č, dj
Til o'rta	y	k, g, y, ŋ	y
Til orqa	g, k, ng; q, g', x	g, k, ŋ; g, k, x	g, k, ŋ; g, k, x

Til undoshlari tilning qaysi qismi faolligiga ko'ra til oldi, o'rta, orqa guruhlariga bo'linib, bular yana o'z ichida bo'linishlarni hosil qiladi. Til oldi tovushlari turkman tilida 3 ga [20, 31-32-betlar] bo'linadi:

til oldi-tish ora (dil ujoy - diŝ ara): s, z;

til oldi-tepa tish (dil ujoy - diŝ dŷybi): d, t, n;

til oldi-old tanglay (dil ujoy-alyinky kentlewŷk): č, j, š, z, r, l.

Til orqa undoshlari ham turkman tilida 3 guruhga bo'linadi:

til orqa-tomoq tovushi: x

til orqa-quyi tanglay: k, g, ŋ, h

til orqa-o'rta tanglay: k, g, ŋ

O'zbek adabiy tili va xorazm shevasida til orqa tovushlari ikkiga bo'linadi:

sayoz til orqa: g, k, ng

chuqur til orqa: q, g', x.

Lekin xorazm shevasidagi chuqur orqa til tovushlari turkman tilidagi til orqa-quyi tanglay undoshlari kabi talaffuz qilinadi. Shuni aytish kerakki, xorazm shevalarida til o'rta undoshlari maksimal darajada ingichkalashadi va o'rniga ko'ra til o'rtasida hosil bo'ladi.

Talaffuzda lab ishtirok etgan tovushlarga lab tovushlari deyiladi va lab tovushlari o'z ichida ikkiga bo'linadi: lab-lab, lab-tish.

Labning ishtiroki	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Lab-lab	b, p, m	b, p, m, w	b, p, m, w
Lab-tish	v, f	v	v, f

Bo'g'iz tovushi: h

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra undoshlar shovqinli va ovozdorlarga (sonorlarga) bo'linadi:

Ovoz va shovqinning ishtiroki	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Sonorlar	m, n, ng, l, r, y	m, n, ng, l, r, y	m, n, ŋ, l, r, y
Shovqinlilar	b, d, f, g, j, k, p, q, s, t, x, z, g', v, sh, ch, ng, dj	b, d, g, j, k, p, q, s, t, x, z, g', v, sh, ch, ng	b, d, f, g, j, k, p, s, t, x, z, v, ŝ, ç, ŋ, ž

Shovqinlilar o'z o'rnida tarkibda ovoz va shovqinning miqdoriga ko'ra, jarangli va jarangsizlarga bo'linadi:

Ovoz va shovqinning miqdori	O'zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Jaranglilar	b, v, d, z, j, g, g', dj	b, v, d, z, j, g, ğ	b, v, d, z, j, g, ž
Jarangsizlar	p, f, t, s, ch, k, q, sh, h, x	p, t, s, č, k, q, š, h, x	f, h, k, p, t, s, ş, ç

Turkiy tillarda talaffuzda qulaylikka intilish sababli jarangli tovushlar jarangsizlarga yoxud jarangsizlar jaranglilarga almashadi. Shu jihatdan, ba'zi jaranglilar o'z jarangsiz juftlariga ega. O'zbek tilida: p-b, f-v, t-d, s-z, ch-j, k-g, q-g' tovushlari o'zaro juft bo'lsalar, h, x, sh, dj jarangsizlarining jarangli juftlari

yo‘q. Sonorlar m, n, ng, l, r, y tovushlari jarangli hisoblanib, ularning jarangsiz juftlari yo‘q.

Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra, sirg‘aluvchi, portlovchi, qorishiq tovushlarga bo‘linadi:

Hosil bo‘lish usuli	O‘zbek tili	Xorazm shevasi	Turkman tili
Portlovchi	b, d, g, j, k, m, n, p, q, t, ng	b, d, g, j, k, m, n, p, q, t, ŋ	b, d, g, j, k, m, n, p, t, ŋ
Sirg‘aluvchi	f, h, l, r, s, v, x, y, z, sh, g‘	h, l, r, s, v, x, y, z, š, ģ	f, h, l, r, s, w, y, z, ş
Qorishiq	ch, dj	č	ç, ž

Turkiy tillarda undosh tovushlar miqdori, xususiyatlari jihatidan bir-biridan u qadar katta farq etilmaydi. Bu holatni o‘zbek va turkman tillarida ham kuzatishimiz mumkin. Xulosa o‘rnida ikki til undoshlar tizimining umumiy va farqli tomonlarini quyidagicha keltirish mumkin:

1. O‘zbek va turkman tillari undoshlar tizimida jiddiy murakkabliklar bo‘lmasa-da, bu ikki tilning o‘ziga xos xususiyatlari undoshlarda aks etgan.

2. Aksariyat undosh fonemalar artikulyatsiyasi o‘zbek va turkman tillarida aynanlikka ega, ayni zamonda turkman tilida undoshlarda ayrim artikulyatsion o‘ziga xosliklar bor. Bular k, g, z, s va boshqa undoshlarda ko‘rinadi.

3. Turkman tili turkiy tilda faol qo‘llangan ð (dz) undoshini eslatadigan lab va tish tovushini saqlab qolganligi bilan o‘zbek tilidan farqlanadi.

4. Fonetik jarayonlar umumiy qonuniyati saqlanib qoladi, lekin ular qaysi so‘zlarda ishtirok etishi jihatidan o‘zaro farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг хоразм шевалари. – Тошкент, 1961.

3. Багыев Х. Түркмен дилинде комбинатор сес үйтгемелери. – Ашгабат: ТДУ, 1985
4. Баскаков Н.А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. М. Наука. 1988.
5. Боровков А.К. Краткий очерк грамматики узбекского языка // Узбекско-русский словарь.-М.: Гос. Изд. иностранных и национальных словарей, 1961.
6. Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2009.
7. Киссен И.А. Курс сопоставительной грамматики русского и узбекского языков.Изд-е третье. – Ташкент: Ўқитувчи, 1979.
8. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка.- М.- Л., 1960.
9. Кулманов Г. Фонетика. Сравнительная грамматика русского и туркменского языков. - Ашхабад, 1964.
10. Машаков Х. Түркмен дилиниң чекимсиз сеслериңиң фонема составы. – Ашгабат, 1975.
11. Миртожиев М.М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2004.
12. Отамирзаева С., Юсупова М. Ўзбек тили. Тошкент, 2004.
13. Поливанов Е.Д. Звуковой состав ташкентского диалекта // Наука и просвещение. – Ташкент, 1922. №1.
14. Поцелуевский А.П. Фонетика туркменского языка. - Ашхабад, 1936.
15. Решетов В.В. Узбекский язык. – Ташкент: Учпедгиз, 1959.
16. Серебренников Б.А., Гаджиева Н.З. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. – М., 1986.
17. Щербак А. М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Л., 1970.
18. Nyúazow S. Türkmen dili. - Aşgabat, 2009.
19. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
20. Täçmyradow T. Häzirki zaman türkmen dili. Fonetika. – Aşgabat: Ylym, 2002.
21. Yavuz Kartallıođlu Y., Hüseyin Y. Azerbaycan türkçesi.// Türk lehçeleri grameri. – Ankara, 2007.
22. Yavuz Kartallıođlu Y., Hüseyin Y. Türkiye türkçesi.// Türk lehçeleri grameri. – Ankara, 2007.

ID-020-30-T023

Jo'shqin Tursunov

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs magistranti

Shahlo Qurbonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATLARIDA SINONIMLAR TAVSIFI VA TALQINI

Annotatsiya. O'zbek tilining izohli lug'atlarida sinonim va u bilan bog'liq hodisalarni atovchi terminlar har xil talqinga ega, mazkur izohlarning turlicha keltirilishi lug'at mualliflarining tadqiq ob'ektiga nisbatan o'ziga xos yondashuvini talab qiladi.

O'TILlarida *sinonimlarga* "tovush tarkibi, talaffuz jihatdan boshqa-boshqa, ammo ma'nosi bir, o'xshash yoki juda yaqin so'zlardan har biri" deya ta'rif beriladi. Shu o'rinda lug'atda *sinonim, sinonimlik, sinonimika, sinonimiya* tushunchalariga qisqa izohlar berilgan.

Kalit so'zlar: *sinonim, sinonimlik, sinonimika, sinonimiya, ma'nodosh, leksik sinonimiya, frazeologik sinonimiya, affiksial sinonimiya, sintaktik sinonimiya.*

Annotation. In the explanatory dictionaries of the Uzbek language, a synonym and related cases have different interpretative terms; these descriptions require a different presentation from the authors and a peculiar method in relation to the criticizing object. In the explanatory dictionaries of the Uzbek language, synonyms are given such descriptions of "sound composition, different in pronunciation, but identical in meaning or very close". And also in the dictionary brief descriptions of the synonym are given, synonymous, synonymy, synonymy.

Keywords: *synonym, synonymous, lexical synonymy, phraseological synonymy, affix synonymy, syntactic synonymy.*

O'zbek tilining izohli lug'atlarida sinonim va u bilan bog'liq hodisalarni atovchi terminlar har xil talqinga ega bo'lib, mazkur izohlarning turlicha keltirilishi lug'at mualliflarining tadqiq ob'ektiga o'ziga xos yondashuvini belgilaydi.

1981 yilda chop etilgan O'TILda *sinonim*ga "tovush sostavi, talaffuz jihatidan boshqa-boshqa, ammo ma'nosi bir, o'xshash yoki juda yaqin so'zlardan har biri" deya ta'rif beriladi. Shu o'rinda lug'atda *sinonim*, *sinonimlik*, *sinonimika*, *sinonimiya* tushunchalariga qisqa izoh berib o'tilgan.

Shuningdek, O'TILning 2006 yildagi nashrida ham sinonimlarga shakli har xil, ma'nosi bir xil yoki bir oz farqli bo'lgan til birliklari qatoridagi har bir til birligi deya tavsif beriladi. A.Madvaliev tahriri ostida nashr etilgan mazkur lug'atda *sinonim*, *sinonimlik*, *sinonimika*, *sinonimiya* tushunchalari ma'nodosh tushunchasiga nisbat berib sharhlangan. Lug'atdagi *ma'nodosh* tushunchasiga berilgan izohda ham shunga mos sharh beriladi, ammo bu o'rinda ma'nodoshlik bilan sinonimiya o'rtasidagi aloqadorlik borasida hech narsa aytilmagan.

O'TILning har ikki nashrida berilgan so'z sinonimik, polisemantik qurshovga ega bo'lgani holda, shu qurshovga aloqador har bir izoh arab raqamlari (**1, 2, 3, 4** va h.) bilan, shakldoshlik holatida esa rim raqamlari (I,II,III,IV va h.) bilan belgilanib izohlangan. Shuningdek, tegishli so'zning ma'nodoshi mavjud bo'lgani holda uning asl ma'nosiga teng keluvchi sinonimlarning namunalari ham [] belgisi ichida yoxud uningsiz, ochiq matnda, ammo leksik-semantik tasnifsiz, shu tasnifga ishora beruvchi shartli belgilersiz keltirilgan. Holbuki, aksar so'z va so'z birikmalariga (masalan, **ATALMOQ 1 atamoq** fl. mjh. n. **2: deb ataladi ayn. deyiladi q. demoq**) morfologik tasnif yuzasidan ishora berib o'tilgan.

H.Homidiy, Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimovalar tomonidan tuzilgan "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da sinonimlarga ma'nodosh so'zlar, mohiyati bilan bir xil bo'lgan yoki bir-biriga yaqin turgan, biroq shakli bilan boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar, deya munosabat bildiriladi. Lug'at mualliflari

eski o'zbek tilida bunday so'zlarning arabcha *mutashobih* deb atalganini qayd etib, sinonim so'zlarni qo'llash narsa va hodisa holatini aniqroq ko'rsatishda ahamiyatli ekanini ta'kidlaydilar.

1979 yilda nashrdan chiqqan "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati" da ham sinonimlarga izoh berib o'tilgan. Biroq mazkur izoh o'zigacha chop etilgan "Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da keltirilgan ta'rifdan hech bir jihati bilan farq qilmaydi.

Mazkur nashrlardan farqli, "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" da *sinonimik qator, sinonimiya, sinonim konstruksiyalar, sinonimlar* singari terminlar tushuntirib o'tilgan. Xususan, lug'at muallifi A.Hojiev sinonimiya hodisasini *til birliklarining (so'zlar, iboralar va b.) bir xil denotativ ma'noga ega bo'lishi* sifatida izohlaydi hamda sinonimiyaning: *leksik sinonimiya, frazeologik sinonimiya, affiksial sinonimiya, sintaktik sinonimiya* singari turlarini ajaratadi. Sinonimlar izohida esa akademik olimning: "denotativ ma'nosi bir xil, konnotativ ma'nosi (qo'shimcha ma'no ottenkasi, stilistik bo'yog'i) va boshqa xususiyatlari farqli so'zlar" degan fikrlari keltirilgan.

Qayd etish kerakki, sinonimlar sharhi, ularning tabiatiga doir tushunchalar sinonimlar izohiga bag'ishlangan alohida lug'atlardagina ifoda topmasdan, o'rta va oliy ta'lim uchun mo'ljallangan ilmiy-o'quv adabiyotlarda ham beriladi. Masalan, Sh.Rahmatullaevning "O'zbek tili izohli frazeologik lug'ati", J.Lapasovning "Badiiy matn va lisoniy tahlil" nomli

o'quv qo'llanmasi, Sh.Bobojonov, I.Islomovlarning "O'zbek tilining so'zlar darajalanish o'quv lug'ati" va b. shular qatoridandir.

Xususan, sinonimiyani iboralar misolida chuqur tahlil qilib bergan atoqli olim Sh.Rahmatullaev mazkur hodisani til birliklari orasida semantik mikrosistemalardan biri sifatida ta'riflaydi hamda ularning iboralar orasida ham talay ekanligini qo'shib o'tadi. Olimning fikricha, ikki iborani sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zagidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga egadir.

Frazeologik sinonimlarni belilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz, bir shingil, bir chimdim* sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi; bir bosh uzumning qismi; chimdib olingan miqdor. Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Bunda iboralarning so'z-komponentlariga diqqat qilinadi. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarning sinonim ekaniga shubha yo'q: "butun tafsiloti bilan", "maydachuydasigacha" ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha, miridan sirigacha, qilidan quyrug'igacha* iboralari o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q.

Mazkur lug'at o'zida iboralararo sinonimiya hodisasini ibora variantlaridan ajratish, uni iboralararo polisemiya bilan farqlashga qaratilgan tamoyillarni jamlagani bilan qimmatlidir. Jumladan, ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik ibora qatnashsa, iboradan emas, balki konkret frazeologik ma'nodan kelib chiqish zarur. Chunki har bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin.

Atoqli olimning ushbu qarashlarini O'TILda berilgan quyidagi ikki misol ham tasdiqlaydi. Ya'ni yuqorida e'tiborga olingan har ikki nashrda tegishli so'zning ma'nodoshi (mavjud bo'lishiga ko'ra) keltirilib, quyiroqda mazkur so'zlar yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan ma'no qurshovi keltiriladi. Masalan, **ahd** [a.-va'da berish, so'z berish] **1** O'ziga yoki o'zgaga qat'iy berilgan so'z, ishontirish so'zi; qaror. **Ahd qilmoq** Jazm qilmoq. *Sizni juda ko'p esladim, juda ko'p o'yladim, keyin shu xatni yozishga ahd qildim.* O.Yoqubov, Tilla uzuk. **2** Shartnoma, kelishuv, bitim. *Birinchi sentabr, butun xalqimiz Tinchlikning ahdiga qo'yadi qo'lin.* G'.G'ulom. Yoki **a'zo** [a. – uzvlar, qismlar] **1** Odam yoki hayvon organizmining muayyan bir vazifani bajaruvchi qismi *Sezgi a'zolari, ichki a'zolar;* **2** Kishining butun vujudi; badan, tana **3** Biror guruh, hudud va sh.k.da yashovchi, unga mansub shaxs *Oila a'zosi, mahalla a'zosi* **4** Biror guruh, kengash, jamoa, jamiyat va sh.k.ga rasmiy qabul qilingan, saylangan, unda

faoliyat ko'rsatuvchi shaxs, jamiyat, mamlakat va sh.k.lar. *Partiya a'zosi, kengash a'zosi*. Keltirilgan 1-misolning semantik xususiyati 2-misolning semantik xususiyatidan farq qiladi. 1-misolda so'zlardagi sinonimik aloqadorlik, 2-misolda polisemiyaga oid holat yaqqol ko'rinib turibdi. Birinchi holatda *Sizni juda ko'p esladim, juda ko'p o'yladim, keyin shu xatni yozishga ahd qildim* jumlasidagi *ahd qilmoqni* o'rni bilan *qaror qilmoq, jazm qilmoq* qurilmalari bilan; *Birinchi sentabr, butun xalqimiz Tinchlikning ahdiga qo'yadi qo'lin* misolidagi *ahdiga* so'zini *shartnoma(si)ga, bitim(i)ga, kelishuv(i)ga* so'zshakllari bilan bermalol almashtirish mumkin. Biroq ikkinchi holatda leksik almashtirishning imkoni mavjud emas: *partiya a'zosi (qismi emas), oila a'zosi (uzvi emas), ichki a'zolar (ichki qismlar emas)*.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Рус тили, 1981.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
4. Ножиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент, 1985.

ID-020-30-T024

Marhabo Nazarova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

NAVOIY ASARLARIDA DON MAHSULOTLARIDAN TAYYORLANADIGAN TAOM NOMLARI

Annotatsiya. Alisher Navoiyning turkiy (eski o'zbek) tilida yaratilgan asarlari ulkan ma'naviy meros bo'lishi bilan birga milliy tilimiz leksikasining asosi sifatida ham qimmatlidir. Ushbu maqolada Navoiy asarlarida qo'llangan ayrim taom nomlari, xususan, don mahsulotlaridan tayyorlangan yegulik nomlarining lingvistik, xususan, tarixiy-etimologik, genealogik, leksik-semantik jihatdan tadqiq qilingan. Unda o'zbek tili tarixi bo'yicha ma'lum tarmoq leksikasiga oid natijalar qayd etilgan. Shuningdek, o'rni bilan turkiy tillarda uchraydigan bunday taom nomlarining tarixiy shakllari va hozirgi zamondagi holatlari qiyoslangan.

Kalitso'zlar: *Alisher Navoiy asarlar, turkiy so'zlar, taom nomlari, so'k, qovurmoch, talqon.*

Annotation. Alisher Navoi's works which were written in Turkic languages are great spiritual heritage, as well as, they are valuable through basis of national language lexics. In this article, the specific food names, particularly, the foods which were made from grains are analyzed through historical-etymological, geneological, lexical-semantic aspects in Navoi's works. There are also noted that the results are given specific field lexics to Uzbek language history. Besides, in some cases, the food names are compared their historical forms and the names in nowadays.

Keywords: *Alisher Navoi's works, Turkic words, food names, sok, toasted flour.*

Zamonaviy globallashuv sharoitida, ilmiy-texnik taraqqiyot jadal kechayotgan, yuksak axborot texnologiyalari hayotning barcha sohalariga tezlik bilan kirib borayotgan hozirgi davrda adabiy tilning xalq tiliga,

dialektlarga ta'siri katta bo'ladi. Allaqachon, turli sohalarga oid yangi tushunchalarni, narsa-predmetlarni anglatuvchi so'z-atamalar hozirgi o'zbek tilidan mustahkam o'rin olmoqda. Bu ma'lum ma'noda xalq tilida mavjud bo'lgan ba'zi til birliklarining unutilib ketishiga, ularning asta-sekin yo'qola borishiga sabab bo'lmoqda. Shunday leksik qatlamlardan biri, shubhasiz, o'zbek tilidagi taom nomlaridir. Tilshunoslikning leksik tizimida taom nomlari alohida o'rintutadi. So'nggi 20-30 yilda tilimizga o'zlashgan ko'psonli leksemalar bu tarmoq lug'at boyligini ham oshirdi. Bunga bugungi kunda faol qo'llanayotgan *lavash, gamburger, chizburger, pissa, hotdog, langet, omulet* kabi o'zlashmalarni misol keltirish mumkin. Ayni paytda asrlar davomida tilimiz tarixida qo'llanib kelgan, endilikda adabiy tild oirasida yo'qolishga, unutilishga yuz tutgan, ayrimlari xalq shevalaridagina qo'llanib kelayotgan taom nomlari bilan bog'liqlek semalarni ham lingvistik, ham etnografik tomondan tadqiq etish ko'p jihatdan ilmiy ahamiyatga ega.

Taom iste'mol qilish inson hayotining asosiy shart-sharoitlaridan hisoblanadi va u xalq iqtisodiy farovonligining muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, muayyanj amiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumibilan chambarchas bog'liq. Taom tayyorlash usuli hamma xalqlarda juda qadim zamonlardan kelib chiqqan bo'lib, uning keyingi rivojlanishi, bir tomondan, mamlakatning iqtisodiy va iqlim sharoitlari bilan, ikkinchi tomondan esa, jamiyat tarixi va xalqning madaniy taraqqiyoti bilan belgilanadi. Xuddi ana shu jihatiga ko'ra, etnolingvistik qadriyat sifatida taom nomlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada lisherNavoiy asarlaridagi ayrim taom nomlari, xususan, don mahsulotlaridan tayyorlangan yemaklar lug'aviy-ma'noviy, tarixiy-etimologik jihatdan tadqiq qilindi, bu taom nomlarining hozirgi o'zbek tili va boshqa turkiy tillaridagi ana shunday nomlarga qiyosan o'rganildi.

O'zbek tilshunosligida taom nomlari bir qadar o'rganilgan. Bunga u yoki bu darajada aloqador nomzodlik dissertasiyalari himoya qilingan, monografiya va maqolalar chope tilgan. O'zbek tilshunosligida pazandachilik leksikasini

N. Ikromova o'rgangan. U asosan Toshkent shahri shevasidagi taom nomlarini o'z tadqiqotiga kiritgan[10].

Tadqiqotchi olim M. Xudayarovanning "O'zbek tilidagi taom nomlarining ingvistik tahlili (Qoraqalpog'iston hududi materiallari asosida) nomzodlik dissertatsiyasida Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi taom nomlarining leksik xususiyatlari o'rganilgan [15].

O'zbek xalq shevalari o'rganilgan ishlarida ham ayrim taom nomlari haqida ma'lumotlar berilgan [20].

Professor H. Dadaboyevning o'tgan yili chop etilgan "Devonu lug'atit turkning til xususiyatlari" nomli monografiyasida eski turkiy tilning fonetik, leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan [8. 66-75-betlar]. Lekin bu kabi ishlarda eski o'zbek tilida, xususan Navoiyasarlaridagi taom nomlari maxsus tadqiq etilmagan. Vaholanki, Navoiy asarlari tilida hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydigan yoki ma'no jihatdan farqlanadigan juda ko'p taom nomlari uchraydi. Ularningl eksik-semantik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili tarixi, leksikologiyasi va leksikografiyasi uchun ham muhim deb hisoblaymiz.

Tadqiqotimiz natijalariga ko'ra Navoiy asarlari tilida ellikdan ortiq taomnomlariu chraydi. Ularning qariyb 70 foizini o'z qatlamga oid birliklar tashkil qiladi. Ular orasida o'nga yaqin don mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari qayd etilgan. Bu taomlarga guruch, bug'doy, jo'xori, tariq va moshlardan tayyorlanadigan taom nomlarini kiritish mumkin. Bug'doydan tayyorlanadigan taom nomlariga: *bug'ro*, *qovurmoch*, tariqdan tayyorlanadigan taom nomi: *səkboch* kabilarni ko'rsatish mumkin.

Bug'ro. Bu taom turi hozirgi o'zbek tilida ishlatilmaydi. U tarixiy so'zga aylangan. Navoiy davrida ko'pchilik uchun tayyorlanadigan taom bo'lganligi anglashiladi: "Bir kun Gavharshodbegim madrasasi tolibi ilmlari bir bog'da suhbat tutub, **bug'ro** pishiradur ermishlar". "Alisher Navoiyasarlari tilining izohli lug'ati" (ANATIL)da keltirilgan bu misolda manba "Xamsat ulmutaxayyirun" ekanligi ko'rsatilgan va **bug'ro** so'zi "taom turi" deb izohlangan, xolos [1. 576-bet]. "Navoiy asarlari lug'ati"(NAL)da esa "bug'ro – bug'doyni

oqlab pishiriladigan va katta yig'inda tortiladigan ovqat" deb izohlangan [12. 139-bet]. Taxmin qilamizki, bu taom turi hozirgi **yorma** bo'lsa kerak. Yorma oqlab tuyilgan bug'doy yormasidan tayyorlanib, kattayi g'inlarda, masalan, askar yigit armiyadan qaytganda, elga tortiladigan taom hisoblanadi. Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari aholisi orasida hozirda ham iste'mol qilib kelinadi.

Jijig'lig'osh. Bu taom turi haqida Navoiy bobomiz yozadilar: "...qishning to'rt oyida kim, qavs va jadi va dalv va hut bo'lg'ay, har kuni o'tmak yuz adadkim, yigirmi botmon uch tangalik et bilan murattabkilg' aylar va agar ett opilmasa *jijig'lig'osh* pishurib, bergaylar" [6. 17-bet]. ANATILbu taom turi "jijig'lig'osh – jijig'lig' - go'ja osh, taom nomi" deb izohlangan[1. 540-b.]. Lekin NALda "**jijig' - dumbayog'**" [12. 225-b.] deb izohlanganki, buni to'g'ri deb o'ylaymiz. Chunki *jijig'* eksemasining *go'ja* leksemasi bilan aloqadorligini hech bir izohli lug'atda uchratmadik.

So'kboch. Bu taom nomini "Nasoyim ul-muhabbat" asarida uchratdik: "Sahl Abdulloh ... dedi: Senga mehmonman. Ul dedi: Ne buyurursen? Dedi: **so'kboch** pishur. Sahl so'kboch pishurtti va qozon bila oning o'llig'a qo'ydilar" [7. 167-bet].

ANATILda **so'kboch - so'kosh** debi zohlangan [3. 140-bet]. So'kbochning o'zagi **so'k** ekani ma'lum. O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL)da **so'k** so'ziga shunday izoh berilgan:

SO'K Tozalangan, oqlangan tariq. *Xomso'k. Qovurilgan so'k. So'koshi. Ovqatga so'k solmoq. So'k tolqon. Dasturxonda yana o'sha qurt, suzma, so'k paydo bo'ldi, saldan keyin eshikdan bir guruh qizlar ko'rindi. O. Yoqubov, Er boshiga ish tushsa. Palossiz, zax sementda yotasan, Har kuni yeydigan bir cho'mich yovg'on so'koshi yoki sulibo'tqadan ham mahrum bo'lib, ikki yuz gramm non va suvga kuning qoladi. "Yoshlik". [19. 612-bet]. Demak, **so'kboch** so'kdan, ya'ni tozalangan, oqlangan tariqdan tayyorlangan **so'koshidir**.*

O'zbek tilida bu taom turi bilan bog'liq matallar ham mavjud: **“So'koshiga surnay”, “So'koshga ham surnaymi”** *kest*. Arzimagan ishga ortiqcha dabdaba, darang-durung qilingan hollarda ishlatiladi.

Alisher Navoiy asarlarida qayd etilgan *so'kbochni* ayni shaklda hozirgi o'zbek tilida uchramatdik. Umuman, qadimgi turkiytilarda, shuningdek, hozirgi ayrim turkiy tillar lug'at tarkibida *so'kbochning* dastlabki *so'kshakli* uchraydi.

E.V.Sevortyaning “Turkiy tillar etimologik lug'ati” (“Этимологический словарь тюркских языков”)da qayd etilishicha, SOK – turkman tili dialektlarida, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, no'g'ay, o'zbek tili dialektlarida, uyg'ur tilida, shuningdek, chig'atoy (eski o'zbek) tilida uchrashini qayd etgan. Bu so'z qirg'iz, no'g'ay va boshqird dialektlaridan tashqari barcha manbalarda:

1. [oqlangan, tozalangan] *tariq, bug'doy* -[очищенноеотшелуху] *просо, пшено*; turkmandialektlarida, qirg'iz, qoraqalpoq, no'g'ay, boshqird dialektlarida – *qovrilgan bug'doy; smetana va sutqo'shilgan qovril ganbug'doy* (boshqird dialektida).

2. *oqlanmagan guruch*.

3. turkman dialektida – *ovqat turi* deb izohlangan [13. 342-bet].

Yuqorida qayd etganimizdek, *so'k* so'zi hozirgi o'zbek tilida *oqlangan, tozalangan tariq; ovqat turi* ma'nolariga ega. Alisher Navoiy davrida esa so'kdan tayyorlangan ovqat turi **so'kbosh** debatalganining guvohi bo'ldik.

Qovurmoch. qovurmoch – qovurmoch, qovrilgan don, bug'doy [4. 59-bet]. “Layli va Majnun” dostonida bu so'zga murojaat qilingan:

Xirman yerida tazarvu durroj,

Yer tobasidin terib qovurmoch [5. 189-bet].

“Devonu lug'otit turk (DLT)da ham “qo'g'irmoch (qovrilgan bug'doy)” leksemasi qayd etilgan [8. 78-bet]. *Qo'g'irmoch* “qozonda qovurilgan bug'doy” hozirgi o'zbek tilida qo'llanishda davom etmoqda.

Muhammad Yusuf Chingiyning “Kelurnoma” asarida ham “qavurmach” – “qovrilgan bug'doy” deb izohlangan [11. 71-bet].

Talqon. “Qovurilgan don, quritilgan non va shu kabilardan tuyib tayyorlangan yemish” sememasining hozirgi o‘zbek tilida talqon so‘zi bilan ifodalanishi ma’lum [19. 109-bet]. Bu so‘z “*yanchmoq*” ma’nosini anglatgan *tal*-fe’liga *-qava -n* affikslarini qo‘shishdan hosil bo‘lgan. Bu so‘z “DLT”da qayd qilingan [8. 74-bet]. Navoiy ijodida ham “talqon” so‘ziga murojaat qilingan:

Tutub juld u olur yormoqqa qalqon,

Degilkim aylamishlar tog‘ni talqon. (“Farhod va Shirin”)

“Muhokamatul-lug‘atayn”da bu so‘z qayd etilgan: “Yana tutmoch va umoch va kumoch va **tolg‘onni** ham turkcha ayturlar” [6. 17-bet]. Ko‘rinadiki, leksemaning *tolg‘on/tolqon* shakllari mavjud.

Bu so‘zning ANATILdagi izohi shunday: *tolg‘on/tolqon* – talqon[3. 242-bet].

Talqon – qadimiy turkiy so‘z, shuning uchun ham u “Древнетюркский словарь” (DTS) kabi mo‘tabar lug‘atlardan o‘rin olgan. DTSda shunday izohlanadi: TALQAN – qovrulgan un (*поджаренная мука, толокно*). Izohi uchun “Devonu lug‘atit turk”dan misol keltirilgan: “*ol takqanqa yaq qatturdi*” – *U unga yog‘ aralashtirdirdi*. DTSda “Turfondan turk matnlari” kabi qadimiy manbalarda ham *talqon* so‘zi shu ma’noda uchrashi qayd etilgan[9. 529-bet].

E.Teneshev, G.Bлагоvalarning “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. Leksika” asarida *talqon* so‘zi tuva tilida *dalyan*, mof.da *dalhan* shaklida qo‘llanib, *un* ma’nosiga ega ekanligi qaydetilgan [13. 472-b.].

Eski uyg‘ur turkchasida bu so‘z **talqan – un** deb izohlangan[15. 222-bet].

Hozirgi zamon uyg‘ur tilida esa **talqan** – 1) qazan daqorolup tygməndə tartilg‘an qonaq uni yaki qazanda qorulg‘an bug‘da yuni. 2) syp: ugalg‘an, un halitigə kəltirylygən: talqandora, talqan qilmaq. [19. 352-bet]. Ko‘rinadiki, talqon turkiy tillarga oid lug‘at manbalarda “qovrilgan un”, “un” semalariga ega. Uni “qovurilgan bug‘doy donini tuyib, un qilib tayyorlangan yemish” deb talqin qilsak, bizningcha, to‘g‘riroq bo‘ladi.

Uloba va **urkamoch**. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da bizga notanish yana ikkita taom nomi uchraydi: “Va yana ba’zi yemaklardin qaymog‘ va qatlama va

bulamog' va qurut va **uloba** va mantu va quymog' va **urkamoch**ni ham turkcha ayturlar" [6. 17-bet]. ANATILda **uloba** – "ovqatlarning bir turi" [3. 285-bet], **urkamoch** – "taom turlaridan biri" [3. 297-bet] deb izohlansa, NALda **uloba** – "issiq ovqatning bir turi" deb ko'rsatilgan [12. 624-bet]. Bu izohlar bizga ushbu taom nomlari haqida yetarli va aniq ma'lumot bermaydi, ularning qanday ovqat ekanligi, qaysi mahsulotlardan tayyorlanishini anglatmaydi.

Alisher Navoiy asarlarida gi taom nomlarining leksik-semantikguruhleri o'zichida xilma-xilturlarga va kichik guruhlarga bo'linib, ular o'sha taom nomlarining qanday mahsulotdan tayyorlanishi va biror marosimga mo'ljallanishi kabi xususiyatlaridan kelib chiqqan. Navoiy asarlari tilida qayd etilgan ayrim taom nomlari hozirgi o'zbek tilida deyarli bir xil yoki biroz fonetik o'zgarishga uchragan shaklda qo'llanmoqda (*qovurmoch*– *qo'g'irmoch*; *tolg'on/tolqon* - talqon). Uchramaydigan qismi ham mavjud (*bug'ro*, *jijig'liqosh*, *uloba* va *urkamoch*).

O'rganilayotgan manba tilidagi taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida, ularning fonetik, variantlilik hodisalari, shuningdek, ayrim ma'no farqlari aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. I жилд. –Т.: Фан, 1983.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. II жилд. –Т.: Фан, 1983.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III жилд. –Т.: Фан, 1984.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IVжилд. – Т.: Фан, 1985.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдли. 9-жилд. -Т.: Фан, 1992.
6. АлишерНавоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 16-жилд. –Т.: Фан, 2000..
7. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 17-жилд. –Т.: Фан, 2000.
8. Дадабоев Х. "Девону луғатит турк"нинг тил хусусиятлари. –Т.: ТДШИ, 2017.
9. Древнетюркский словарь. Ленинград: Наука, 1969.

10. Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика. Дис. канд. фил. наук. -Т. 1983. 168 с.
11. Муҳаммад Юсуф Чингий. Келурнома. -Т.: Фан, 1982.
12. Навоий асарлари луғати. -Т.: Ғ.Ғуломномидаги “Адабиётвасанъатнашриёти”, 1972. -784 б.
13. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы «Л», «М», «Н», «П», «С». Москва: Восточная литература РАН, 2003.
14. Тенешев Э., Благова Г. и др. 2001. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика. Москва: Наука.
15. Худаярова М. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили. Филол.ф.н. дис... автореферати. -Т.: 2008.
16. Эски уйгур тўркқаси сўзлўгў. Истанбул, 1968.
17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006.
18. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилд. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2006.
19. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2007.
20. Ўзбек халқ шевалари луғати / Масъул муҳаррир: Ш.Шоабдурахмонов. -Т.: Фан, 1971.
21. Ҳазирқи заман уйғур тилиниң изаҳлиқ луғити (*қисқартилмиси*): 1 том (А-Д).- Алматы: Дәуір-Кітап, 2014.

ID-020-30-T025

Umriniso Po'latova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

QARINDOSH URUG'CHILIK NOMLARI TARIXIDAN

Annotatsiya. Maqolada qadimgi turkiy va eski turkiy tili davrida qo'llanilgan qarindosh-urug'chilikni ifodalovchi leksemalar O'rxun-Enasoy toshbitiglari va M.Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarlari misolida tahlil qilingan, ba'zi bir so'zlarning etimologiyasiga oid qarashlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *til tarixi, qarindosh-urug'chilikni ifodalovchi leksemalar, aba, achi, qangsiq, paldir, charmaq, qadash, egat, so'z ma'nolari, tushuncha.*

Azal-azaldan millatimizda oila muqaddas sanalib, xalqimiz oilaviy munosabatlarni, qavm-qarindoshchilikni yuksak darajada qadrlashgan. Hozirgi kunda tilimizda qavm-qarindoshlik tushunchasi bilan bog'liq bir qancha leksemalar mavjud, ular necha asrlar avval tilda paydo bo'lib, shakllangan. Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan boshlab, birinchi ehtiyoj oila a'zolarining bir birlarini nomlash ehtiyoji paydo bo'lgan. Natijada, tilda qavm-qarindoshlik bilan bog'liq leksik qatlam yuzaga kelgan. Shu jihatdan mazkur leksik qatlam tilning eng qadimgi va dastlabki so'z qatlamlari sanaladi. Turkiy tillarning dastlabki manbasi hisoblanmish O'rxun-enasoy toshbitiglari hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarlarini ko'zdan kechirganimizda [1; 2] qarindosh urug'chilik nomlarining quyidagi ko'rinishlarini uchratamiz:

Hozirgi nomlanishi	Toshbitiglarda	“Devoni lug‘atit turk”da
ota	qang, achi	ata, aba (tubut), dada (o‘g‘uz), xata (xo‘tanliklar tilida)
ona	o‘g	ana, apa (qarluq, turkman), aba (o‘g‘uzcha), uma, xana (xo‘tanliklar tilida)
bobo	apa	
amaki	achi	
og‘il(lar)	o‘g‘il, o‘g‘lan	o‘g‘il
o‘g‘il bola		uri
kenja o‘g‘il		ashtal og‘ul
emikdosh		emukdash
bola-chaqalar		char-charmaq
ini	ini	ini
aka, og‘a	achi, opa	ichi
birodarzoda	ati	
bobomiz-ajdodimiz	achumiz-apamiz	
og‘a-inim	иним-ачим	
amaki	achi	tag‘ay
erning katta ukasi		ichi
chol		avichg‘a
qarindosh	o‘g‘ush	o‘g‘ush, qap
uzoq qarindosh		yaq-yuq qadash
birodarlik, yaqinlik		qadashliq
qayin, qaynag‘a, qayin ota, qayin ona		qadin, qayin, qazin
yanga		egat, egatlik qarabash (nikoh kechasi kelin va kuyovga xizmat qiluvchi shaxs)

kelin	kalingu	kelin, egatlik
singil	singil	singil
opa, egachi		echa, acha, aka
singildek yaqin, egachim		ekach
keksa xotin		achi (barsag'an)
xola		ko'ku, ko'kuy
jiyan	yigun, ati	chiqan (xolaning o'g'li)
boja, xotin singlisining eri		namija (chigil)
qiz qarindoshning eri		yezna
kuyov		kuzagu
kuyov va kuyovlarning qarindoshlari		qadin-qadnag'un, qazin, qaznag'un
beka	yutuz	
xotin	qatun	urag'ut, kishi, evluk, ish (esh), qazuz (juvon)
xotinning singlisi		baldiz
xotinning og'il ukasi		yurj, yurch
xotinning yaqinlari, aka-ukalari, ota-onalari		tungur
tug'ishgan emas, qondosh emas yani o'gay		o'gay, baldir, qangsiq
o'gay ota		o'gay ata
o'gay o'g'il		baldir og'ul

o'gay qiz		baldir qiz
o'gay ota		qangsiq ata
o'gay o'gil		qangsiq o'g'ul
otasi bir, onalari boshqa bolalar, otadosh		qangdash
asrandi bola		yuvg'a
otaginam		ataqi
onaginam		anaqi
otajon		atach
ona qiz		anach
o'g'ilcham		ulich

Eski turkiy tili davrida qavm-qarindoshlik atamalarining ishlatilishi qadimgi turkiy tili davridan bir muncha farq qiladi. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari lug'at bo'lganligi uchun, qavm-qarindoshlik atamalarining katta qismini (bir necha turkiy qabilalar misolida) qamrab olgan.

Yuqoridagi lug'atdan ko'rinib turibdiki, birgina *apa (aba)* leksemasi ham erkak (ota, bobo, og'a, aka), ham ayol jinsi (ona) uchun qo'llanilgan. Yoki bu davrda eng ko'p qo'llanilgan *achi* ham, asosan, erkak qarindoshlar (*ota, amaki, aka, og'a, uka, qaynog'a*) hamda ayol qarindoshlar (*opa, egachi, keksa xotin*)ni nomlash uchun qo'llanilgan (chol ma'nosini ifodalovchi *avichg'a* so'zining o'zagi ham *achi* so'zi bilan bog'liq). *Ota* leksemasi *qang, achi, ata, aba (tubut), dada (o'g'uz), xata (xo'tanliklar tilida)* kabi bir qancha muqobiliga ega bo'lgan.

Erning aka-ukasi bilan xotinning aka-ukasining nomlanishi farqlangan yani erning kichik ukasiga *ini*, yoshi katta ukasi *ichi*, kichik qiz singlisiga *singil*, katta qiz singlisiga *aka* deyiladi. Xotinning kichik qiz singlisiga *baldiz*, katta singlisiga *aka* deyilgan. Bugungi kunda yoshi katta erkak jinsiga nisbatan ishlatiladigan aka so'zi yoshi katta ayol jinsiga nisbatan qo'llanilib, bugungi kunda shevalarimizda uchraydigan *egachi* so'zining tarkibini *ega* aslida *aka*, -

ch erkalash-kichraytirish shakli, *-i* egalik shakli bo'lib, *aka* so'ziga kichraytirish va erkalash shaklining qo'shilishi natijasida *k* tovushi *g* ga o'zgargan (buni Olim Sh. Rahmatullayev ham qayd etib o'tgan) [3]. Kelin va yanga leksemalarining eski turkiy shakli bo'lmish *egat*, *egatlik* so'zlarining asosi ham *aka* hisoblanadi.

Toshbitiglarda uchraydigan *o'g* (*ona*) leksemasi Mahmud Koshg'ariy lug'atida boshqa ma'nolarni ifodalashi, bu so'zning XI asrlarga kelib iste'moldan chiqqanligini ko'rsatadi. Biroq lug'atda *o'gay*, *o'gsiz* so'zlari tarkibida *o'g* so'zi saqlangan bo'lib, *o'gay* (aslida tarkibidagi so'z va qo'shimchanning ma'nosiga ko'ra *boshqa ona* degani) Koshg'ariy davrida oiladagi begona, qondosh bo'lmagan qarindosh-urug'chilik munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. *O'gsiz esa onasiz, yetim* ma'nolarini bildiradi va shu so'zlar muqobili sifatida bugungi kunda iste'molda. Bu davrda *o'gaylik* ma'nosini ifodalovchi *qangsiq* va *baldir* (*paldir*) so'zlari ham borki, *o'gay* leksemasining o'zagi *ona* tushunchasini ifodalovchi so'z bilan bog'liq bo'lsa, *qangsiq* sozining o'zagi *qang* yani qadimgi turkiy tilda *ota* ma'nosini ifodalovchi so'z hisoblanadi. Masalan, *qangsiq ata* (*o'gay ota*), *qangsiq o'g'ul* (*o'gay o'gil*) kabi. Otadosh ma'nosini beruvchi *qangdash* so'zi *qangsiq* bilan o'zakdosh hisoblanadi.

Shunday qilib, qarindosh – urug'chilik nomlarining aksariat qismi tilimizning juda qadimiy so'zlar bo'lib, ularning o'zgarishi asrlarni talab qiladi. O'zbek tilida qavm-qarindoshlik atamalarining boy va qiziqarli tarixi mavjud bo'lib, uni chuqur ilmiy tadqiq qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
2. Кошғарий М. Девони луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи Муталлибов С. –Тошкент: ЎзФА, 1960.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент: Университет, 2012.

ADABIYOTSHUNOSLIK

(zamonaviy adabiy jarayon)

ID-020-30-A001

Aida Kamolova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi

ISAJON SULTON HIKOYALARINING USLUBI VA ULARNING BADIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Isajon Sulton hikoyalaridagi qahramonlar tasviri, ularning ichki va ruhiy holati hamda taqdiri badiiy jihatdan tahlil qilingan. Hikoyalardagi yozuvchi tomonidan ilgari surilgan fikrlar, kechinmalarga munosabat bildiriladi. Hikoyalarning asosiy mohiyati, tagzaminidagi insonni komillikka yetaklovchi tuyg'ular, umrning bebaqoligi va turli insoniy hislarto'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *o'zbekadabiyoti, hikoyalar, uslub, badiiy timsol, mohiyat.*

Annotation. This article artistically analyzes the image of the heroes in the stories of Isajon Sultan, their inner and mental state and destiny. The ideas put forward by the writer in the stories are expressed in relation to the experiences. . The stories are about the essence, the feelings that lead a person to perfection, the worthlessness of life and various human feelings.

Keywords: *uzbek literature, stories, style, art, essence.*

Bugungi kunda zamonaviy o'zbek nasri tobora jadallashib, chuqur ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, nasrimizning yetuk vakillari butun insoniyat taqdiriga daxldor bo'lgan, odamzot boshidan kechiradigan, kechirishi mumkin bo'lgan barcha muammolarni, turli xildagi mavzularni deyarli qalamga olganlar va bu an'ana hozir ham davom etib kelmoqda. Yozuvchilarimiz bugungi kun kishisi sifatida o'z asari qahramoniga yuksak

badiiy talablar qo'ymoqda,zeroki, zamon ham shuni talab qilyapti va badiiy adabiyotimiz ham shunga monand o'quvchini sehrlab qo'yadigan, kitobga oshno qiladigan va, bir so'z bilan aytganda, kitobxonning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladigan hamda uning hissiyotlarini junbushga keltirib, o'ylantiradigan asarlar bilan boyib bormoqda.

Bugun adabiyotimiz vakillari zarur gapni, dolzarb muammoni odamning taqdiriga bog'lab, ta'sirli yo'sinda ifodalash kerakligiga katta e'tibor bermoqda. Aytish mumkinki, hozirgi davr kitobxoni ham badiiy saviyali asarlarni o'qishi, yozuvchining asar orqali aytmoqchi bo'lgan fikr- mulohazalari va badiiy maqsadini tushunishi uchun ma'lum bir ma'noda adabiyotga oshno, har qanday ma'no nozikliklarini anglay oladigan, tafakkur ko'lami keng bo'lishi kerak. Ana o'shandagina yozilgan asarning qadr-qimmatini yuqori bo'ladi va yozuvchi o'z xayollarini, orzu-istak va maqsadlarini o'quvchiga "yuqtira oladi".

Ma'lumki, adabiyotimizda har bir yozuvchining o'z uslubi, o'z yo'nalishi bor. G'azal mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy bobomiz "Xamsa"ni yozishda ham o'z fikrlarini bildirib o'tganlar: "Shunday asar yozginki, o'ziga xos bo'lsin, o'qigan odamlarga yangi, boshqa asarlarga o'xshamasligi sezilib tursin. Aks holda asari o'zgarar yozgandek bo'lsa, bunday takrorlash senga loyiq emas. Yaxshisi, bunday asar yozmagan ma'qul.".[1, 34-b]

Adabiyotshunos olim Hamidulla Boltaboyevdan: "Uslub asarning eng ahamiyatli tomoni hisoblanadi. Uslubning adabiyotdagi o'rni juda katta va juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma'lumotlarning eski, boshqa yozuvchilar tomonidan aytilgan bo'lishi mumkindir, ularning bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o'quta olg'an kuch uslubdir", - dab aytadi Abdurauf Fitrat va uslubning ishlanishi va shakllanishini mumtoz adabiyotimizda mavjud bo'lgan "Layli va Majnun" dostoni misolida asoslaydi: "buni fors shoirlari necha da'f'alar yozg'anlar. Hammasida hikoya birdir, voqea bir turlidir. Biroq forscha-turkcha bilgan kishi Nizomiyni, ondan keyin Jomiyni o'qiydir. Xisravga kelgach, Navoiyni albatta ularga tarji' qiladi. Fuzuliyni ko'rgach, Navoiyning "Layli va Majnun"ini tokchaga qo'yib, Fuzuliyni o'qishga

majbur bo'ladi. Shunday xulosa qilishga asos tug'iladiki, badiiy asar uslubi asarni tashkil etadigan barcha unsurlar tizimi emas, balki yozuvchining o'ziga xos "prinsip"idir" [2, 176-b]. Xuddi shunday Isajon Sulton asarlarida ham o'ziga xos mualliflik uslubi yaqqol sezilib turadi va boshqa ijod namoyondalarining asarlaridan adib asarlari ancha farq qiladi.

Taniqli o'zbek yozuvchisi, qator hikoya va romanlar muallifi, o'zining o'rni va uslubiga ega bo'lgan adib Isajon Sulton zamonaviy o'zbek adabiyotining mana shunday yetuk vakillaridan biri. Uning asarlari go'zal samimiyat asosiga quriladi, ularda ortiqcha dabdaba ham, bo'rtma mubolag'ali tasvirlar ham yo'q, shunchaki oddiy so'zlar vositasida mohirona yondashuv va nozikliklar sezilib turadi. Yozuvchining aksariyat asarlari mazmunan falsafiy, mohiyatanesa oddiy insoniy muammolar, hayotiy voqealar hisoblansa-da, uning asarlaridan ko'plab hayotiysaboq chiqarish va hayotni o'rganish mumkin. "Xazinabon yoxud Hazrati Xizr izidan", "Og'riq tog'i", "Qismat", "Farishta", "Todd", "Do'st" kabi hikoyalarida insonning umri mobaynida amalga oshiradigan ishlari, o'z taqdiri yo'lidan borib, ko'ngliga tukkan orzu-umidlarini amalga oshirishi uchun insonga eng zarur narsalar haqida fikr yuritiladi. Dunyodagi engezgu kuch – yaxshilik va insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat, samimiylik, otalik va farzandlik burchi, do'stlar o'rtasidagi munosabatlar, sadoqat va vafodorlik kabi tuyg'ular qalamga olinadi. Yoinki, yozuvchi qalamiga mansub har bir hikoyada inson ma'naviyati qirralarini tekshirishga, inson ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarini tadqiq etishga urinish holatlarini ham ko'rishimiz mumkin. Isajon Sulton hikoyalarining qahramonlari, asosan, oddiy odamlar bo'lib, ular har doim o'z taqdir yo'lini izlab topishga urinadigan, hayot sinovlariga to'qnash kelsa-da, o'zini, o'zligini unutmaydigan, maqsadi sari olg'a intilib, oxirigacha izlanishdan to'xtamaydigan insonlardir. Har qanaqasiga bo'lmasin, ma'naviy kamolotga yetish, komillikka erishish, o'zini to'la ma'noda ideal qilishga intilish va har bir voqeadan to'g'ri xulosa chiqarishga urinadigan insonlar tasvirlanadi. Yozuvchining ko'plab hikoyalaridagi voqealar aynan ijodkorning o'z tilidan

bayon qilinadi. Chunki yozuvchi borliqdako'rganinigina sayqallab, oq qog'ozga ko'chiradi. Balkim, ijodkorning umri mobaynida yuz bergan voqealar uni qandaydir asar yoki hikoyada aks ettirishga turtki bo'lgandir...

Isajon Sulton hikoyalarini o'qir ekanman, bulardagi bir jihat e'tiborimni o'ziga jalb qildi. Ko'plab hikoyalari, " Xazinabon yoxud Hazrati Xizr izidan " hikoyasida yozuvchi bevosita o'zi ishtirok etgan va boshidan kechirgan voqealarni so'zlaydi.[3, 125-b] Bu hikoyada asosiy ramziy timsol- yo'l hisoblanadi. Bilamizki, inson komillikka erishish uchun bir necha bosqichlardan mashaqqat chekib, o'tishi kerak bo'ladi.Yozuvchi ham komillikning sirlariga yetishish maqsadida yurtining har yer- har yerini kezib, o'tib ketgan aziz avliyolarning dahmalarini, muqaddas qadamjolarini, buyuk zotlar yotgan ziyoratgohlarni birma- bir izlab chiqadi. Umri mobaynida nafsining va dunyoning jilva-yu nozlanishlariga sira havaslanmagan, dillaridagi g'oyat kuchli iymon sabab barchaning e'zoziga musharrafbo'lgan zotlarning qabriga boradi, chunki hikoya qahramoni azizlikka erishishning sirlarini anglab yetmoq maqsadida bo'ladi.

"Albatta, u sirni bilganim bilan o'sha maqomga ko'tarila olishim uchun bilimim va qat'iyatim yetmasligini sezib turibman. Shu boisdan yuragimda g'alati bir armon bo'y cho'zadi, taassuf bilan hoy-u havas ichra o'tkazgan umrim esimga keladi..."

Isajon Sultonning "**Xazinabon yoxud Hazrati Xizr izidan**" hikoyasida yozuvchi yurtining har burchak, so'qmoqlaridan o'z yo'lini topish ilinjida darbadar kezadi.[3, 234-b] Ana shunda u o'zini orzu, havas, ba'zidapushaymonlik va armon kabi tuyg'ular girdobida yurgandek his qiladi. U safar davomida odamlarning qilayotgan ishlarini kuzatadi va muqaddas ziyoratgohga kelib-ketuvchilarning nazriga tilanib turganlarni ko'rib, g'ashi keladi, qo'polroq qilib aytganda, ulardan nafratlangandek bo'ladi. Nega ?! Nima uchun?! Hozirgi davrda insoniyat koinotni kashf etib, yuksakliklarni egallab, ko'zga ko'rinmaydigan atom zarralarini o'rganib, turli xil texnikalarni ixtiro qilib, olamni boshqarayotgan bir paytda ularning sadaqa so'rabturishi, hech

shubhasiz, yozuvchining“ Ey odamzot, yemishning eng yaxshisi ipak qurtiga berilgan ekan.Biroq hayoti davomida ipak qurti maqomidan chiqa olmasligi uning qismati bo'lishiga qaramasdan qurt jonidan kechib, ipak bo'ldi, shu ipak qurtichalik ham himmating yo'qmi?!” demoqchi ekanligini anglash mumkin. Shu o'rinda yozuvchi butun insoniyatga qarata dunyoga keldingmi, demak, o'zing uchun harakat qil, o'zingdan qandaydir iz qoldir, umringni shamol uchirib yuborgan daraxtning bargidek xaslar orasida o'tkazma, deydi. Zero, pir-u avliyolar ham ushbu maqomga o'zlarining mehnati va mashaqqati ila erishgan. To'g'ri, ular balki o'z zamonida turli xil mo'jizalar ko'rsatib, dunyoning sirlaridan voqif bo'lgandir, ammo hozirchiulardan nima foyda topish mumkin? Ular bir paytlar osmondayarqiroq charaqlagan va pastga sho'ng'ib, yerda esa kichkina, sovuq,temirga aylanib qolgan yulduz parchasi emasmi?! Ularning qabriga borib, dardlaringni aytsang, ularning ruhidan madad so'rasang, ular seni eshitadimi?! Yo'q, sen yaxshisi hamma tilagingni buyuk va rahmdil Ollohdan so'ra, u hech qachon seni yolg'izlatib qo'ymaydi, u hamma duolarni ijobat qilguvchidir. Olloh taolo har bir bandasining qismatini bitguvchidir.

Men bu hikoyani o'qib chiqish mobaynida bu asarni jahon adabiyotining eng sara asarlaridan biri bo'lganPauloKoelyoning “ Alkimyogar” asariga o'xshatdim. Qaysi jihatiki, asar qahramoni Santyago hamxuddi bizning qahramonimizdek o'z taqdirini izlab yo'lga chiqadi, manziliga yaqinlashgani sari komillikka erisha boshlaydi, lekin oxirida tushunib yetadiki, uning baxti o'sha o'zi tug'ilib o'sgan jonajon diyorida qolib ketgan ekan. Xuddi shuningdek, yozuvchi tiriklikning,hayot va mamotning sirlarini ko'p izlaydi, bir bora bo'lsahamki, shu sirdan boxabar bo'lishni xohlaydi, ammonenikibilsa va qilsa, u behuda bo'libchiqaveradi. Oxirida esa shunday xulosa chiqaradi: balki xazinabon xuddi sham kabi yog'dulana- yog'dulana so'ng so'nib qolgandir. Sham yog'du taratgani holda o'zini sarf qilib boradi.Xazinabon ichida saqlagan mana shu sirlari tufayli yog'dulanadi. Uning sirlari bitmas- tugunmas . Hamma narsa Ollohdan va dunyoning sirlarga to'laligi ham ravshandir. Biz anglagan va

anglab yetmagan yana boshqa sirlar ham talaygina, bularning hammasini idrok qilish uchun inson umri kamlik qiladi.

Haqiqatan, inson umri mobaynida qancha qiyinchilik, sinovlarga dosh berib, bu omonat dunyo zinapoyalaridan bir-bir odimlab keladi. Inson hayoti bir tog' qadar emasmi?! Avval quyoshga qarab ildam talpinadi, ko'kka bo'ycho'zib, o'z salobati bilan ko'zlarni qamashtiradi. Bag'rida gul-chechaklarni ulg'aytiradi va oxirida esa bir kun nurab, yemirilib, cho'kib qoladi. E'tibor berganingiz gap yozuvchining "Og'riq tog'i" hikoyasi to'g'risida edi. Inson zoti shunday: xuddi tog' kabidir. Yaqinlari, oilasi, yor- u birodarlari uning mustahkam tayanchi, suyanchig'i hisoblanadi. Yaxshi damlarda hamisha yonida bo'lgan, o'z mehrini bir-biridan ayamay, viqor bilan barvasta turishiga sabab mana shular emasmi aslida?! Ha, bu ko'ngil har bir yaqinidan ayrilgani sari tilka-pora bo'lib, unda bitmas yoriqlar paydo bo'laverarkan. Og'riq tog'i deyilishiga sabab tog' ham bag'ridan o'z toshlarini, cho'ng xarsanglarini uloqtirib, o'zi ham qulab boradi. Buni tog' bag'riga chiqqan odam biladiki, yiqilib tushib, oyog'ini tirnab olsa, qanchalik og'riq beradi, xuddi shunday ko'ngil ham har bir taqdirning zarbidan larzaga keladi. Bu asarda tog' timsoli – inson umri, uning oilasi, yaqinlari, do'st- u birodarlari, ishining sabr-toqati, qanoat va bardosh, tug'ilish hamda o'lim orasigacha mavjud bo'lgan baland-pastliklarga bir o'xshatma ekan. Shuning uchun yaqinlarimizni tirikligida avaylaylik, qadriga yetaylik, zero, kimga qanday qismat bitigi yozilgani faqat Yaratganga ayon.

Isajon Sulton hikoyalarini o'qir ekanman, ularning deyarli hammasidagi bir jihat mening e'tiborimni o'ziga jalb qildi: yozuvchi hikoyalarida umrning o'tkinchiligi, hayotning hech kimga vafo qilmasligi, bebaqoligi, vaqtning shiddat bilan o'tishi, tiriklik va o'lim kabi syujetlarko'proq aks etgandek, nazarimda. Va shu bilan birga hikoyalarda kuz- xazon fasli, yerga to'kilgan bargi xazonlar, qurib qolgan daraxt, shamol, tuproq, olov kabi tabiat bilan bog'liq detallar, dahmalar, qabrlar, otasini o'ldirgan o'g'il singari tasvirlar ham mana shu mazmuni ochishda qo'llaniladi. Masalan, ijodkorning " Qismat daraxti"

hikoyasida qahramon qandaydir “qopqalari tilladan, tutqichlari billurdan bo‘lgan... samoviy bir bog” gato‘satdan xayolan kirib qoladi va har safar kirganida uni bog‘ darvozasi yonida turgan darbon kutib oladi. Bog‘ga kirganida shoxlari bulutlar orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan bahaybat bir daraxtni ko‘radi. Har safar daraxtning oltin yaprog‘i uning oyoqlari ostiga kelib tushadi va unda yaqinlarining ismi bitilgan bo‘ladi. Shunday qilib, u yillar davomida otasidan, do‘stidan va yaqinlaridan ayriladi. So‘nggi marotaba bog‘ga kirganida o‘zi tengi qartaygan, sochlariga oq oralagan darbonni ko‘radi va endi kimning ismi bitilgan ekan, deb o‘ylaganda darbon hassasiga tayangan ko‘yi “Endi kira qolgin, yetar...” deb darvoza eshiklarini ochadi...

Inson bolasi qachon tug‘ilishi- yu qachon o‘lishini oldindan bilmaydi. Uning qismati mohir qalamkash tomonidan u yaratilmasdan oldin bitilgan bo‘ladi. Isajon Sultonning “Qismat” hikoyasi insonni o‘ylar girdobida qoldiradi, fikr yuritishga undaydi [3, 278-b] . Hikoya qahramoni yoshligida otasini urib yuborganda otasining ko‘ziga qamish kirib ko‘r bo‘lib o‘ladi. Otasi “qamishdek qurigin iloyo” deb qarg‘ab olamdan o‘tadi . O‘g‘li padarkush bo‘ladi. O‘g‘lining butun umri qamishzor orasida o‘tadi: u qamishlarni jon-jahdi bilan o‘radi, lekin yana hamma yerni qamish bosib ketaveradi, u qamishzorning oxiriga yetolmay o‘lib ketadi. U juda yomon ota edi: mast holatda kelib, xotinini urardi, farzandlarini erkalatmas, ularga nisbatan mehirsiz edi...

Xudoyim uning ruhini yana o‘sha qamishzor orasidagi zovurga baliq ko‘rinishida yubordi. Oxirida uning farzandi baliqni tutib, olovda qovurdi, baliq olovda lov-lov yondi...O‘gil otasining qilmishlarini eslab, o‘zini undan nafratlanib ketgandek his qildi . U bu dunyodan hech kimga yaxshilik qilmasdan o‘tdi. Uning bir qilgan yaxshiligi, menimcha,baliq holida qaytib, xotining ko‘zlari ravshanlashishiga sabab bo‘lganidir.Xudoyim, balkim, uni hech bo‘lmaganda bir marotaba yaxshilik qilishi uchun yuborgandir...

Bu hikoya juda ta‘sirli . Hech bir yomonlik jazosiz qolmaydi, degan gapga bir isbot. Ota qarg‘ishi misoli o‘qdir, u oxiratda emas, shu dunyoning o‘zidanishonga borib tegadi.(S. Ahmad “Sarob”hikoyasi).O‘zbek xalqi uchun

azaldan ota ehtiromga sazovor bo'lgan, muhtaram zot hisoblanadi . Farzand otaga qo'l ko'tarish tugul uning ko'ziga tik boqolmaydi. Biz “ Mirzo Ulug'bek” tragediyasi, S.Ahmad “Sarob” hikoyasi, Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Alisher Navoiyning “ Farhod va Shirin” dostonida otasini o'ldirib qismati qayg'uli yakun topgan farzand obrazlarini ko'rganmiz. Otasini xor qilgan odam hech qachon halovat topmaydi. Dardini birovga aytolmay azobda qoladi. Keraksiz, e'tiborga arzimaydigan odamga aylanib qoladi. Bu yerda qamish timsoli orqali qahramon qismati ochib berilmoqda. Chunki qamish, odatda, botqioliklarda o'sadi. Botqiolik esa xunukjoy. U Ollohning qahriga uchrab, gunohga botdi. Otaning qarg'ishi urdi: oxir- oqibatda u keraksiz bo'lib qoldi, qamishdek olovda quridi.

Ta'kidlab o'tish joizki, adibning yuqoridagi “Qismat” hikoyasi 2011-yil AQSHning Chikago shahrida o'tkazilgan xalqaro adabiy konkursda g'olib deb topilgan. Mana shuning o'ziyoq yozuvchining naqadar badiiy mahoratga ega ekanligi hamda uning asarlari chegara va makon tanlamasligidan dalolat beradi.

Yozuvchining “Boqiy darbadar” kitobidan olingan “Todd” hikoyasi, aksincha, yuqoridagi hikoyaning umuman teskarisi. [4, 78-b] Bu hikoyada o'zini o'ylamay bor kuchini, qobiliyatini mehnatga sarf qilgan, tinim bilmay ishlagan, urush zamonlarida qancha qiyinchiliklarga uchrashiga qaramasdan yelib – yugurib umr kechirayotgan, orom neligini bilmay farzandi uchun qattiq mehnat qilib ishlagan ota timsoli aks ettiriladi. Hikoya qahramoni Mamasiddiq ota xuddi boshqa hikoyalar qahramonlaridek oddiy odamlardan biri bo'lib, u o'zining bor hissiyot, tuyg'ularini hayot degan poygada boy beradi. Farzandlari uchun mashaqqat kechib, mehnat qildi, o'zini unutdi. Bir so'z bilan aytganda, ota butun umri davomida kechani kecha, kunduzni kunduz demay, yugurib yashaydi, o'ziga qaramaydi, bolam, deydi, ro'zg'orim deydi. Lekin shunday bo'lsa hamki, uning ichki dunyosidagi ulkan iztiroblari, ruhiy holati bilan kimdir qiziqib ko'rdimi?! Aslida uning shunday yashashiga nima majbur qildi?! Yana o'sha insoniyatni dahshatga solgan Ikkinchi jahon urushiga

qaytamiz. Urush lagerlarida VilgelmTodd ismli nemis ofitseri bo'lgan. U mahbuslarni har doim yugurishga majbur qilgan. Yiqilganlarni ayamay otib tashlagan. Har safar marraga yetib kelganlarga qarata shunday der ekan: "Senlar meni yomon ko'rasanlar, bilaman. Ammo, hayot mendan ko'ra beshafqatroq, senlarning bu yugurishingdan ko'ramilyon marta murakkabroq. U senga marra qaydaligini aytmaydi, qay tarafga qarab chopishni, qancha chaqirim yugurishing kerakligini ko'rsatmaydi, dam bermaydi. Barini o'zing topasan, o'zing hal qilasan... Bugun senlar marraga yiqilmay yetib kelib, kechgacha yashash huquqiniqo'lga kiritdinglar, xolos. Keyingi hayotingni esa, kechqurungi yugurish hal qiladi..." Mamasiddiq otaning hayoti shamolda uchib ketgan somon parchasi kabi o'tib ketdi. Engqizig'i, Todd degan so'zning ma'nosi "o'lim" ekan. Har qancha yugurmaylik baribir marrada bizni o'lim kutib turadi. Shuning uchun inson o'z mayllariga e'tiborliroq bo'lishi, o'zini ham o'ylab turishi kerak.Hikoyadagi"Der Toddimmergewinnt" kalimasining ma'nosi "O'lim haqdir" demakdir. Hikoya so'ngida adib mana bunday achchiq xulosaga keladi: " Bildimki, hech bir falsafa hayot hikmatini izohlab bera olmas ekan. Chunki hayot hamisha haq va rang-barang, tovlanuvchi, falsafa esa, uning faqatgina soyasi, boshqa hech narsa emas ekan".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Isajon Sulton hikoyalari ko'proq insonning ruhiy holatini aks ettirishga yo'naltirilgan. Insonning ichki kechinmalari, o'ylari talqini yozuvchi hikoyalarida yaqqol o'z ifodasini topadi. O'zlikni anglash va o'z mayllariga bee'tibor bo'lmaslikka undaydi. Hayot hodisalaridan o'rnak olib, to'g'ri xulosa chiqarishni o'rgatadi. Ularni o'qigan odamning ruhiyati taskin olgandek bo'ladi va har bir narsaning mohiyatini anglashga harakat qiladi.Umuman olganda, odamning eng kichigi ham, eng yomoni ham, eng yaxshisi ham baribir odamdir. Yozuvchi mana shu kichik insonning katta va chigal ichki dunyosidagi chegarasiz, xilma-xil ruhiy sezimlarini tasvirlab berishga harakat qiladi. Ma'lumki, inson xayolotida izchillik, muntazamlilik, bir xillik bo'lmaydi. Ko'p hollarda, inson xayolini boshqarolmaydi, balki xayol insonni uzoq-uzoq manzillarga eltadi. Yozuvchi o'z

xayollari og‘ushida o‘zi bilan o‘zi suhbat qurgandek bo‘ladi. Sirdan olib qaraganda, Isajon Sul-ton asarlarida o‘ychil inson tafakkuri va hissiyoti manzaralari namoyon bo‘ladi.

Xullas, hozirgi davrda adabiyotimiz turli tamoyillar asosida rivojlanmoqda. Bugungi kunda yaratilayotgan turli janrlardagi asarlarda inson ruhiyatini, uning ichki ma’naviy dunyosini tasvirlash adabiyotimizning eng ta’sirchan usullaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. “Фарҳод ва Ширин”. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Т.; 1989. – 592 б.
2. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, Т.: 2006. - 430 б.
3. Исажон Султон. Асарлар. 1-жилд. Ҳикоялар. Т.; Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Т.: 2017. – 392 б.
4. Исажон Султон. “Боқий дарбадар”. Роман. Т.; “O‘zbekiston”, 2011. – 280 б.
5. Шарафиддинов О. “Ижодни англаш бахти”. ШАРҚ НМАК. Т.: 2004. 640 б.
6. Пауло Коэло. Ал-кимёгар. “Янги аср авлоди”, Т. 2013. – 184 б.
7. www.wikipedia.uz ensiklopediyasi..

ID-020-30-A002

Aziza Hazratqulova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

ZAMONAVIY ADABIYOT NAMUNALARINING KITOBXON ONGIDAGI AMALIY TAHLILI: “ALKIMYOGAR” VA “BOQIY DARBADAR”. RAMZLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy adabiyotning yorqin namunalari bo'lmish “Alkimyogar” va “Boqiy darbadar” asarlarining amaliy tahlili aks etadi. Bu romanlardagi o'xshashlik va ramzlar talqini, kitobxon tomonidan anglanishi kerak bo'lgan mazmuni maqolaning asosini tashkil etadi.

Maqola, asosan, yuqoridagi asarlarning tarbiyaviy mazmuniga urg'u berilgan tarzda yozilgan. Asarlardagi bir necha ramz va timsollar ostidagi asosiy ma'no asarlar voqealariga asoslanib ochib berilgan. Shuningdek, maqolada ikki asardagi bir necha o'xshashliklar amaliy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *“Alkimyogar”, “Boqiy darbadar”, ramzlar tahlili, inson hayotining mazmuni, o'zlikni anglash, e'tiqod.*

Annotation. The scientific analysis of the books – “Alkimyogar [“Chemist”]” and “Boqiy darbadar [“Eternal wanderer”]” that beautiful examples of modern literature is reflected in the article. The base of article is the resemblance of the works and interpretation of symbols and the content that is good for readers. In the main, the article is accented to the well-bred importance of these books. The main meanings of some symbols and images is interpreted how are based on the story of the works. Also, some likenesses that are in the books are analyse in respect of efficient and art.

Keywords: *“Alkimyogar [“Chemist”]”, “Boqiy darbadar [“Eternal wanderer”]”, the interpretation of symbols, the purport of human's life, to understand oneself, faith.*

“Adabiyot yashasa, millat yashaydi”.

Cho'lpon

“Tasodifni yetaklarkan sababiyat”.

Usmon Nosir

Siz-u bizni o'rab turgan bu olam sir-u sinoatga boy. Insoniyat o'z sivilizatsiyasi mobaynida millionlab savollarga javob topdi, ammo odamzot har bilmaganini bir g'isht ko'rinishida oyog'i ostida to'plasa, u yulduzlarga qadar yetib bora oladi. Koinotning bizga bergani bilim bo'lsa, uning ko'rsatmaganini topishda bizga ilm yordamga keladi. Ilmning insonga o'rgatiladigan shakli fan hisoblanadi. Ba'zi olimlarning fikricha, adabiyot fan emas, u muammolarni yecha olmaydi, ilm degulik boyligi yo'q, u ong mahsuli emas. To'g'ri, adabiyot inson hislarining umumlashmasi, u yurak amri ila vujudga keladi, ammo adabiyot bo'lmas ekan, inson yaratishga harakat qilmaydi, fikrlashdan to'xtaydi, ongi qotib qoladi. Negaki bizning ongimiz ko'rganiga ishonadi, ammo yurakning tasodif shunchaki emasligiga, barchasi hali muqaddima ekanligiga, olam ruhining borligiga inonchi bisyor. Falsafa qalbda paydo bo'ladi, aql esa uni anglaydi, xolos. Zero, ruh aqldan ko'ra qalbgga moyilroq.

Hozirgi zamonaviy adabiyotda she'riyat qisqalikni yoqlasa, dramaturgiya reallikni afzal ko'radi, nasrda esa falsafiylik jo'sh uradi.

O'tgan asrning 20-30-yillarida G'arbda modern adabiyot shakllanib ulgurgan edi. Bu borada o'zbek adabiyotida mustaqillik tom ma'noda burilish yasadi. Qadimda didaktik ko'rinishda bo'lgan Sharq adabiyoti o'zida bu jihatni qisman saqlab qolgan. Ammo falsafiy asar bilan didaktik mohiyat orasida farq bor: didaktik adabiyotda pand-nasihat orqali buyurish, da'vat qilish, maslahat berish ustun; falsafaga asoslangan bitikda yozuvchi kitobxonni ma'lum yo'ldan yetaklaydi, ammo uning uchun qaror qabul qilmaydi, ya'ni voqelikdagi mohiyat bo'yicha xulosa qilish o'quvchiga qoldiriladi, tabiiyki, o'nlab savollar qurshovida qolgan kitobxon o'z ongini fikrlashga majbur qiladi. Xotima bir bo'lgani bilan xulosalar turlichadir va ushbu xususiyatga ega asarlarning umri boqiy bo'lishi shubhasiz.

Jahon adabiyoti ixlosmandlariga Paulo Koeloning “Alkimyogar” asari yaxshi tanish. Ushbu asar yaratilganidan beri millionlab qalblarni zabt etib kelmoqda. Asardagi bosh g’oya insoniyat mavjudligining mohiyatini anglash hisoblanadi. Va asarda bir qadar bu so‘roqqa javob ham topilgan. Ammo bu javobning asosi olamdagi goh ayon, goh pinhon ramz va timsollardadir. O‘zbek adabiyotida ham aynan shunday xususiyatlarni o‘zida jamlagan deya olmaymiz-u, har holda “Alkimyogar ” bilan ruhiyatdosh bir qator asarlar yaratilgan. Ulardan biri Isajon Sulton qalamiga mansub “Boqiy darbadar” romanidir. Avvalo, qo‘yilgan asar nomlariga e‘tibor qarataylik: nima uchun aynan “Alkimyogar”-u, “Boqiy darbadar”?!

Agar biz “Alkimyogar” so‘zining lug‘aviy ma‘nosiga e‘tibor qaratsak, bu so‘z kimyo, ya‘ni oddiy metallni oltinga aylantiradigan fan bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma‘nosini beradi. Agar biz ushbu mohiyatni xususiylikdan umumiylikka olib o‘tsak, alkimyogar aslida oddiy voqelikdan baxt topa oladigan har qanday shaxs ekanligini ko‘ramiz, ya‘ni bunday inson har doim Allohga tavoze-yu shukronadadir. Endi shu yo‘l bilan yana olg‘a siljiymiz: Alkimyogar baxtdan so‘ng halovat izlayotgan inson!

Muqaddas dinimizga ko‘ra halovat har qanday insonga ham berilmaydi, u faqat Allohga suyumli insonga hadya qilinadi. Komil inson halovatga erishgandan so‘ng haqiqatni izlashga majbur, zero, abadiy halovat haqiqatni talab qiladi. Go‘yoki Sharqda mashhur “Shariat-Tariqat-Ma‘rifat- Haqiqat” jamligiga mos keladi. Keling, isbotini asar qahramoni Santyago misolida ko‘rib chiqaylik.

Santyago cho‘ponlik qilardi, u o‘zi yashayotgan jamiyat qoidalariga monand hayot kechirardi. U oddiy voqelikda yashardi; shariatga o‘xshashligi shuki, bizningcha, shariatda anglash yo‘q – bo‘ysunish bor. Qahramon o‘zining asl mazmunini anglamay, olomonga singib yashardi. Keyin u muhabbatga duch keldi – hali mustahkam qad rostlamagan, mo‘rt, agar muhabbat deyish mumkin bo‘lsa, shunday tuyg‘u qalbida uyg‘ondi. Oddiy inson ham tariqatga muhabbatning ilk uchqunlari sabab oshno bo‘ladi. Santyago baxt tomon

odimlay boshladi va bu yo'lda o'z taqdir kalitini qo'lga kiritdi. Xuddi tariqatdagi oshiq Alloh jamolini anglab, ma'rifatga intilmog'i kabi u endi halovatni axtarishi kerak edi, Santyago o'z halovatini Fotimada topdi, ammo Fotimaning yonida abadiy qolmoq uchun xazinani – haqiqatni izlab topmoq shart. Aslida, dindagi haqiqat o'zni anglay bilishdir.

SHARIAT	TARIQAT	MA'RIFAT	HAQIQAT
ODDIY VOQELIK	BAXT	HALOVAT	XAZINA

Xulosa, ikki tomonda ham bir xil mazmunga ega. To'g'ri, "Alkimyogar" asari islom falsafasi asosida yaratilmagan, ammo islomdagi qarashlarning in'ikosi tarzida namoyon bo'ladi, buning boisi inson qaysi e'tiqodga ega bo'lmasin, u o'z komilligini bir osmon ostida, bir qarash da'vogarligida, ezgulikka intilibgina topadi va shunisi aniqki, insonlar tomonidan e'tirof etilgan hech qaysi din bir-biridan uzoq hamda turli asosga ega emas. Barining nazdida bir narsa - o'zlikni anglash zohir.

Alkimyogar butun olamning ma'nosi o'zi ekanligini anglay bilgan inson!

"Boqiy darbadar" da-chi?! Boqiy darbadar ham umumlashma syujet. Muallifning musulmon ekanligi bevosita e'tirof etilgan holda asardagi har bir detall diniy mazmun kasb etishini eslatib o'tish darkor. Bu olam foniy, ammo uning yakunini Bir-u bordan o'zga bilmaydi, Allohdan boshqasi qiyomat vaqtini idrok eta olmaydi. Shu sabab biz o'lchovini bilmaydigan vaqtni boqiy deb olishimiz mumkin, darbadar esa kezib yuruvchi, lomakon deganidir. Makoni tayin bo'lgan inson hayotining ma'nosi bor, zero, u kim uchundir kerak bo'la oladi. Ammo betayin va taqdir yo'lini topolmaganlarning bari boqiy darbadarlik qismatiga duchordir. Va ularning ko'pchiligi o'z taqdir yo'lini izlab ham ko'rishmaydi. Yana shunday xulosa ham bor: bu olamda la'natlanganlar narigi olamda ham sayyorlikka mahkum, ular har yerdan quviladi:

"Turgin va ravona bo'lg'in! ("Boqiy darbadar" dan)"

“Boqiy darbadar” - inson hayoti savollardan iborat ekanligi va u butun umr savollarga javoblar izlab o‘tishidan dalolat:

“Men kimman?

Ismim nima?!”

Har ikkala asarda ham timsol hamda ramzlar tili qo‘llanilgan va bu xususiyat ushbu asarlarni bog‘lab turadigan asosiy unsurlardandir. Keling, asarlardagi ba‘zi bir jumlar haqida fikr yuritaylik.

“Alkimyogar” da umrboqiylar haqida so‘z ketarkan, quyidagi jummalarni keltirish o‘rinlidir: *“Umrboqiylarda orzu-havas bo‘lmasligi kerak, chunki ularning bu foni dunyoda o‘z yo‘llari yo‘q!”* Keyingi qayd etiladigan “Boqiy darbadar” dan olingan jumlar yuqoridagi fikrning mantiqiy davomi sifatida yangraydi:

“Qanchalar uzoq umr berilsa-da, bu olamdagi hamma narsa kun kelib sovurilib, yo‘q bo‘lib ketishining tirik guvohi bo‘lishim mening hikmatimdir”.

Alloh olamdagi har narsani qonuniyat asosida yaratgan, u bandalariga ravo ko‘radigan har bir voqelik hikmatdir, aslida, bu qonuniyatning ziddida neki tursa, unda bir fojia bor:

“Sen barhayotsan, ammo yoningdan o‘tayotganlarni na tuta olasan, na halovatga yeta olasan. Sening fojiang olamda ne razillik bo‘lsa, barchasi tatib ko‘rmoq va ularga shohid bo‘lmoqdir”.

Yana bir o‘xshashlik bor:

“Sahro, bu – inson uchun bir sinov: bir lahza chalg‘isang, tamom – halok bo‘lasan...” (“Alkimyogar” dan).

“Shamol va quyun shundan so‘ng Osiyo cho‘llaridagi millionlab tonna qumni ichidagi jonzotlari va nabototi bilan qo‘shib samoga ko‘tarib ketdi, butun samoni qum buluti enladi...” (“Boqiy darbadar” dan).

Ushbu mantiqiy ketma-kertlikda ham adabiyotda mashhur sahro motivi mavjud. Mumtoz o‘zbek badiiy adabiyotida cho‘l motivi sinov syujeti bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Bundan kelib chiqadiki, cho‘l tom ma‘noda foni dunyo, u imtihon maskani bo‘lishday vazifani ortmoqlagan. Xulosa shuki, sabot

sinaladigan bu yolg'on dunyoda maqsaddan chalg'imaslik, haqiqatdan adashmaslik shart.

“Boqiy darbadar” asari o'quvchisini Professor Ziyoning o'g'lidan kelgan xat o'ylantirib qo'yadi. Bu maktubdagi quyidagi jumlar izohtalabdir: “... tevaragimiz ramzlarga to'ladir... ular aql qulog'iga baland ovoz bilan xitob qilib turibdi...”. “Alkimyogar” da esa shunday qat'iy hukm bor: “ *Yodingda saqla: alomatlar gapiradi* ”. Bir-birini taqazo etadigan fikrlar, shunday emasmi?! Ammo bu yerda asosiy urg'u alomatlar tilini o'rganish, ularning ovozlari ilg'ay olish, kerakli ko'rsatmani idrok qila olishdir.

Yuqoridagi o'xshashliklarni yana ko'plab davom ettirish mumkin. Biroq endi asarlardagi ramzlarga to'xtalsak. “Alkimyogar” da ma'lum ma'no tashiydigan ramzlar juda muhim. Jumladan:

Qo'ylar - nega aynan Santyagoning kasbi duradgor emas, tikuvchi emas, cho'pon?! Chunki qo'ylar o'z tirikligi mazmuni bilmaydigan odamlar singari zohiran faqat qornini o'ylaydi, qo'ylarning botinida esa qo'rqishga arzigulik loqaydlik kabi beparvolik zohir. Santyagoning cho'pon bo'lishida badiiy missiya bor. Biz asar boshidanoq uning o'zgachaligini his qilamiz.

Tashlandiq cherkov - bo'm-bo'sh qalbni ifodalaydi. Santyagoning o'z taqdir yo'lini topishi orqali u boyib boradi va nihoyat, xazina shu qalbning ichidadir, zero, qalb Tangri maskan qilgan dargoh: “*Xazina qayerda bo'lsa, qalbing ham o'sha yerda*”.

Maliksiddiq va tumori - sodiqlarning ulug'i ma'nosini bildiradi, qimmatbaho tumor esa qalbni ifodalaydi. Maliksiddiq, aslida, insonning o'ziga bo'lgan ishonchidir.

Chinnivorlar sotuvchisi - chinni ulkan mehnat mahsuli, u qahramonni mehnatga o'rgatdi. Chin, ya'ni Xitoy ham mukammallik timsoli hisoblanadi. Demak, bundan kelib chiqadiki, bu obraz inson botinidagi pinhoniyl jasorat va irodani ifodalaydi.

Quduq yonidagi uchrashuv - insonning azaliga sayohat, ya'ni quduqda, albatta, suv bo'ladi. Suv insonning tug'ilmasdan avvalgi holatiga ishora va u

tanimizni poklaydi. Bu yerda esa quduq yonidagi uchrashuv qahramonning ruhiy olamini poklaydi hamda unga maqsadini eslatadi, ya'niki, yo'lga chiqishdan avvalgi niyatini yodiga soladi.

Asarda bunday talqinlar anchagina. Endi esa "Boqiy darbadar" ga murojaat qilaylik.

13-kun - bo'linmas va boshqalar bilan munosabatga kirishmaydigan son, yolg'iz va omadsiz inson tasviri. Zamon va shaxs uyg'unligiga ishora qiluvchi bu raqam la'natlangan insonning hayotiga yana bir baxtsizlik bo'lib keladi.

Karvon - naslni davom ettiradigan qarindoshlar va qismatdoshlar tizimi. Karvon bu hayot qaytar dunyo ekanligiga, zamon charxpalak ko'rinishiga egaligiga ishora. Shuningdek, ajdodlar ortmoqlagan qarg'ish avlodlar qismatiga aylanib qolganligini ko'rsatadi. Unda yana shunday mohiyat bor: Alloh o'z bandalarini bir-biriga suyanchiq qilib yaratgan.

"Dreamliner" - "Orzu kemasi". Orzu-havas yo'lida mohiyatni unutgan, ammo asli toza yuzlab Professor Ziyolar borliqning isyoni o'laroq halok bo'lishadi.

Professor Ziyo - bu qahramonning aqli ma'rifatning nuridir, u ilmga xizmat qiladi, ammo o'z nafs va kibri yo'lida ilmdan foydalanayotganlar kam emas. Professorning aybi yakunini o'ylamay ilmga xizmat qilganligidir.

"Firavn" - nafs boshiga yetgan Misr shohi kitobxonlarga sir emas. U Allohni tan olmagan, Musoning qasdidagi uning ortidan quvlagan. Taqdir takrorlanadi, deganlari rost. Zero, bu hodisa yana bir bor Firavnning barbod bo'lishi bilan yakunlanadi.

"Vahshiy" - "Firavn" yaratgan mahluq.

Bo'ron - Tangri g'azabiga ishora, zero 18 ming olamni yaratgan zot borliqqa mutlaq hokimdir.

Anjir - xalq qarashlarida jannatga ishora, avliyoning nasibasi ushbu meva ekanligi uning jannatiyligidan dalolat beradi.

Sher - kuch-qudrat timsoli, ulug'vorlik ko'rinishi, uning avliyoni qo'riqlashida pinhoni ilohiylik mavjud.

Luvr – madaniyatli, ammo asl mohiyatdan yuz o‘g‘irgan jamiyat, ularning qismati achinarli, chunki yashab turib tirik bo‘lish ularga nasib etmagan.

Albatta, fikr yuritayotgan asarlarimiz diniy adabiyotlar qatoriga kirmaydi, ammo ilohiy kuchlarga ishonish ikki asarda ham mavjud. “Alkimyogar” da nasroniylik haqida ifodalar mavjud bo‘lsa, “Boqiy darbadar” da islomiy e‘tiqodlar tasvirlangan. Masalan, “Alkimyogar” epigrafi “Injil, Luka, 10:38-42” dan olingan yoxud folbinning uyiga kelgan Santyago o‘z qo‘rquvini xonada muqaddas Isoning yuragi surati borligi sabab unutadi. Bunday misollar talaygina, albatta.

“Boqiy darbadar” da aynan Qur‘on oyatlariga murojaat qilinmasa-da, insoniylik mohiyati e‘tiqod orqali ochib beriladi. Asarda ishtirok etadigan avliyo, lo‘li chol, Xizr, muqaddas kishi shundan dalolat beradi.

Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan asarlar, albatta, yozuvchining e‘tiqodi, voqealarning sodir bo‘lish makoni, tanlangan syujet, qahramonlar romantizmi kabi qoliplari bilan bir-biriga mos tushmaydi. Ammo maqsad bir – “Inson nechun yaralgan?” so‘rog‘iga javob topmoq.

“Alkimyogar” asari kichik syujetli hikoyalardan iborat ravishda tuzilgan, bu hol asarning bir tekisda o‘qilishiga zamin hozirlagan. Ushbu vaziyatni keyigi asarda ham uchratamiz, ammo undagi zamon va makon tushunchasi bir izga tushirilmagani bois o‘quvchida savollar uyg‘otishi tabiiy. Aslida, bu holat hayotning bir tekisda va faqat oq ranglardan iborat emasligiga ishoradir.

“Alkimyogar” asarida keltirilgan quyidagi jumlar har birimizni o‘ylashga undaydi:

“Xatolari shundaki, ular faqat oltin izlashgan, ular yo‘lda yashiringan xazinani izlashgan, yo‘lni esa aylanib o‘tishgan”. Asarda aytilgan o‘sha yo‘l asosi “Boqiy darbadar” dan o‘rin olgan yakundagi jumlar emasmi?!

“Men kimman?”

Otim nima?!”

O‘zbekistonning Milliy ta‘lim dasturidan bir necha fanlar qatori adabiyot fani ham mustaqil dars sifatida o‘rin olgan. Aniq fanlar bilan shug‘ullanadigan

insonlar uchun ushbu vaziyat, albatta, bir necha savollarga sabab bo'radi. Ushbu fikrlar muallifning shaxsiy qarashlari emas, negaki bir necha yillik o'z tengdoshlari yoxud jamiyatda muayyan ahamiyatga ega shaxslar bilan bo'lgan suhbatda bir qancha bahsli munozaralarga asosiy vaj sifatida e'tirof etilgan ushbu masala jamiyatning ba'zi a'zolari tomonidan yaxshi qarshilanmaydi. Albatta, ijtimoiy fanlar bilan professional tarzda shug'ullanadigan ziyolilar yuqoridagi qatorga kirishmaydi.

Umuman olganda, jamiyatga foyda keltirmaydigan, unga xoh moddiy, xoh ma'naviy jihatdan yordam berolmaydigan har qanday asar, yaratiq yoki maqolani yozishdan naf yo'q, deb o'ylayman.

Ushbu maqolani yozishdan avval "Alkimyogar" va "Boqiy darbadar" asarlarini aniq va tabiiy fanlar bo'yicha oliy ta'limda tahsil olayotgan bir necha tengdoshlarimga mutolaa etishni maslahat berdim. Aytish mumkinki, adabiyot bilan faqat maktab darsliklari orqali tanish bo'lgan bu talabalarning ushbu soha bo'yicha fikrlari aytarli yaxshi emas edi. Ammo asarlarni to'liq o'qib tugatishgach, ularning badiiyat bo'yicha fikrlash saviyalari sezilarli darajada oshganining guvohi bo'ldim. Keling, ularning xulosalari bilan tanishsak:

1. "Alkimyogar" asari insonni hayot haqida teran fikrlashga undaydi, shu sabab o'tayotgan har soniya haqida chuqurroq o'ylab ko'rish kerakligini yodda saqlab qolasiz.

2. "Boqiy darbadar" ni tushunish biroz mushkul, ammo unda falsafiylik juda kuchli. Bu asarning asosiy maqsadi - kitobxon uchun bir xulosa yoxud ibrat vazifasini o'tay olish.

3. Ikki asarning ham mazmuni bir-biriga juda o'xshash: siz uchun hadya qilinayotgan har narsa hikmat ekanligini anglab qolasiz, har qanday baxtsizlik ortidan baxt kelishi siz uchun sir bo'lmay qoladi. O'zingizni hurmat qila olasiz, anglay boshlaysiz. Hayotga endi qadam qo'yayotgan o'smirlar uchun har qanday noreallikdan va umidsizlikdan xoli o'qishli asarlar ekanligi shubhasizdir.

Darhaqiqat, yuqorida nomi qayd etilgan asarlar hayotimizning tamal toshlarini qo'yishda andoza vazifasini, albatta, o'tay oladi. Badiiy asarni mutolaa etish uchun ketgan qimmatli vaqtingiz o'rniga bir olam zavq-u, qalbda o'xshashi topilmas ibrat hosil qilish shu asarning umrboqiyiligini belgilaydi. Shu sabab ham olam olam bo'lib yuribdiki, unga adabiyot hamrohdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Alkimyogar" Paulo Koelo // 2008.
2. "Boqiy darbadar" Isajon Sulton // "Sharq yulduzi", 2010
3. https://t.me/audiokitoblar_uz/1011
4. www.ziyo.com

ID-020-30-A003

Dilbar Fayziyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

SINESTEZIYA

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinesteziya va uning turlari, ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi, badiiy adabiyot va tilshunoslikda tutgan o'рни, tabiiy fanlarda aniq aks etishi va inson ongining o'zaro bog'liqligi, hamda sinestitlar bilan o'tkazilgan tajribalarning qisqacha bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar: *sinesteziya, loyihaviy va assosiativ sinesteziya, metafor, sinestetik timsol, psixolingvistika, badiiy sintez.*

Annotation. In this article synthesis and its type, it is connecting with social subject place of it in linguistics and belles-lettres, uniqueness of it is own in subject crossroads, literature and personal consciousness' connecting, and also set forth of experience which was on with synthesis are available.

Keywords: *synthesis, synthesis of design and association, metaphor, symbol of synthesis, psycholinguistic, literary synthesis.*

Inson ongi tashqi omillar ta'sirini asosan beshtasezgi a'zosi yordamida sezadi. Bular: hid bilish, ta'm bilish, ko'rish, eshitish va teri orqali sezish. Barcha sezgi a'zolarimiz bizga tashqi muhitning turli xil ta'sirlarini seza olish, ularni ongimizda analiz sintez qilish imkonini beradi. Ba'zi bir insonlarda shunday holat ham kuzatilishi mumkinki, bir vaqtning o'zida bir nechta sezgi a'zolari birgalikda ishlaydi va ongda ma'lum bir holat kuzatiladi. Ushbu holat fanda o'z nomiga ega bo'lib, u sinesteziya deb nomlanadi. Sinesteziya o'zi nima? U qanday sodir bo'ladi? Uning ijtimoiy fanlar bilan qanday aloqasi bor? Bu kabi savollarga javob topish maqsadida XVII asr oxiriga, Angliya tarixiga nazar tashlaymiz.

1690-yilda Oksford universitetining professori, falsafashunos olim Jon Lokk bir ko'zi o'z insonning karnay ovozi eshitganda ongida to'q qizil rangni tasavvurga keltirganligi haqida so'zlab beradi. Ammo Lokk bu voqea orqali sinesteziyaga oid misolni tasvirlaganmi yoki metafora usulidan foydalanganmi shu masala xususida olimlar o'rtasida ixtilof paydo bo'lgan. Bu ixtilofga faqatgina XIX asr olimlari hamda psixolingvistlari tomonidan aniqlik kiritilgan. 1812-yilda nemis psixologi Georg Sachs o'tkazgan tajribalari natijasida inson turli xil holat va vaziyatlarda ongda ma'lum bir musiqa ovozi hattoki, iste'mol qilgan taomining ta'mini ham ranglarga qiyoslab tasavvur qilish holati kuzatilganligini aytib o'tadi. Sinesteziya yuzasidan juda ko'p va qiziqarli tajribalar ro'tkazilgan. Masalan, ingliz olimlarining aniqlashlaricha, bitta oilaning barcha a'zolarida sinesteziya holati kuzatilgan. Qizig'i shundaki, ular skripka ohangini eshitganlarida har kim har xil rangni kuzatgan. Ota ko'k rangni, o'g'il pushti rangni, ona esa binafsha rangni. Yoki yana bir holatni misol qilishimiz mumkin: pishirilgan jo'ja go'shtini yeganda bir ayolda ta'mni och yashil rangga qiyoslash holati kuzatilgan.

Sinesteziya sohasiga qiziqish, asosan, XIX asrdan boshlangan. Dastlab u faqatgina psixofiziologik holat deb qaralgan. Ammo keyinchalik, sinesteziyaning tilshunoslik va badiiy adabiyot bilan uzviy ravishda bog'langanligi yaqqol oydinlashdi. Ko'plab olimlar bu sohaga qiziqish bildirganlarva o'z asarlarida, ilmiy izlanishlarida sinesteziyaga nisbatan ta'rif berib o'tganlar. Masalan, rus olimi Ye .Klyonev sinesteziyanimetaforaga bog'lab o'rgangan. U shuningdek, sinesteziya birlashmalar orasida oraliq hodisa, ya'ni, bir vaqtning o'zida bir necha a'zolarining o'zaro bog'liqligi asosida yuzaga keluvchi jarayonligi to'g'risidagi fikrlarni ilgari surgan .Sinesteziyani fanlar chorrahasidagi holat deb qarasaq, yanglishmaymiz. Sababi, sinesteziya nafaqat psixologiya va fiziologiya balki, estetika, adabiy tanqid hamda tilshunoslikning psixolingvistika tarmog'iga ham aloqador hodisadir. Uzoq o'tmishda Aflotun: "Tovushlar obyektlar singari shakli, hajmi, dinamikasi va rangi kabi xususiyatlari bilan bir- biridan farq qiladi", - deya ta'kidlagan edi. Biroz

boshqacharoq jihatdanaynan shu fikrni rus olimi Lomonosov ko'rib chiqqan . “ Rus tilida A harfining tez-tez takrorlanib turishi ulug'vorlik, balandlik, ulkan cho'qqi tasvirlarigaE,И,Ю harflari muloyimlik mehr - shafqat qayg'u kabi tuyg'ularni O, Y,Л harflari esa qo'rqinch, dahshat kabi holatlarni ifodalashini ta'kidlaydi “... Bundan tashqari, xuddi shunga o'xshash holatni ingliz tilshunos olimlarining izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin .Ya'ni ular rus tilshunoslaridan farqli ravishdahaflarga jins vakillarini qiyoslaganliklarini ham aytib o'tishgan.Masalan, ular T harfini erkak, A harfini ayol va M harfini jinsi yo'q deb atashganlar.

Amerikatilshunos olimi Benjamin Uarf sinesteziya yoki bir nechta sezgi a'zolari yordamida idrok qilish ranglar yoki yorug'likni tovushlar orqali idrok etish bu lug'aviy metafora bilan uzviy bog'liq ekanligini aytib o'tadi. Aslini olganda ham badiiy adabiyotlarda qo'llaniluvchimetamorik misollar va obrazlarni uchratishimiz mumkin. Asosan, rus adabiyotida o'z asarlarida sinestetik timsol va obrazlarni ko'plab keltirgan ijodkorlarning asarlarini o'qiganmiz. Misol qilib, S.Yesenin, Blok, A.Axmatova, Maykovskiy, K.Balmont kabilar ijodini olishimiz mumkin.

S. Yesenin “Kuz” she'rida “Otlar tuyog'ining moviy rangi eshitildi”, Mayakovskiy o'z asarida “Men baxmal ovozimdan qora shim tikaman”, A.Axmatova “Qo'shiq tinglash” she'rida “Ayolning ovozi shamol kabi esadi” misralarini keltirib o'tadi...

Ammo ijodkorlarning bu usuldan foydalanishlarini rus olimi Nabakov tanqid ostiga olgan. U shoir va yozuvchilarning buusuldan foydalanishlari bilan o'quvchini hech narsaga qiziqтира olmasliklarini ta'kidlab o'tadi . Fikrimcha, aynan, sinesteziya, ya'ni metaforik o'xshatishlar o'quvchiga yozuvchining dunyoqarashi, uning ijodining o'ziga xos xususiyatlarini anglatib turadi. Chunki har qanday ijodkor o'xshatishlar qila oladi. Ammo badiiy jihatdan mukammal o'xshatishlarkamdan kam ijodkorlar asarida uchraydi.

Ural universitetining professor o'qituvchisi Belotserkovskaya o'zining sinesteziyaga bag'ishlangan maqolalaridan birida u adabiyotda sinesteziyaga

qiziqish 1871-yilda fransuz shoiri A.Rimbaudning “Ohanglar” nomli asaridan boshlangan deb hisoblaydi. U o‘z maqolasida Rimbaud rang va tovush o‘rtasidagi naqshlarni payqaganligi haqida yozadi. Ammo Belotserkovskaya uchun muammoli bo‘lgan joyi shunda ediki, fransuz va rus tilidagi tovushlar bir- biridan farq qiladi, bundan tashqari turli tillardagi tarjimalar doim ham bir- biriga mutanosib bo‘lavermaydi. Shu kabi muammolar borligi sababli Y.Belotserkovskaya o‘z maqolasida A.Kublitskaya Piottuxning tarjimasidan foydalanib, A harfi-qora, E harfi - oq, B-qizil, Y-yashil, J harfi esa ko‘k ranglarni ifodalashini keltirib o‘tgan . Qo‘shimcha sifatida o‘z asarlarida ko‘proqsinestetik obrazlardan foydalangan ijodkor K. Balmont haqida ham ma‘lumot keltirib o‘tgan. Olimlar inesteziyaning, asosan, ikki xil turini keltiradilar. Bular: loyihaviy sinesteziya va assosiativ sinesteziyadir. Loyihaviy (proyektsion) sinesteziya turida insonlar ruhiyati ko‘tarilganda ranglarni ma‘lum bir shakllarga qiyoslaydilar. Masalan, olimlar bu holatni ko‘proq bog‘cha va maktab yoshidagi bolalarda kuzatilganligini ta‘kidlab turib, ular turli xil geometrik shakllarni ranglarga qiyoslay olishlarini ma‘lum qilishgan. Assosiativ sinesteziya – bu kuchli qo‘zg‘atuvchining ta‘sirida paydo bo‘luvchi holat hisoblanadi. Ya‘ni tashqi muhitning qaysi bir omili ta‘sirida insonda sinesteziya qo‘zg‘aladi. Oddiy bir misol, biron bir joyda limonni ko‘rsangiz beixtiyoruning ta‘mi iste‘mol qilgandagi holatingiz ko‘z oldingizga keladi va xohlaysizmi, yo‘qmi etingiz junjikib ketishi mumkin, yoki ba‘zi bir insonlarning hafta kunlarini xuddi kundalik jadvaldagi kunlarga qiyosan ko‘rishlari va ishlarini ham aynan o‘sha xayollaridagi qolipga moslab rejalashtirishlari ham aynan assosiativ sinesteziyaga misol bo‘la oladi. O‘zbek tilshunosligida sinesteziya bo‘yicha ma‘lumotlar hali ko‘pemas . Tilshunos olim M.Mirtojievning “O‘zbek tili semasiologiyasi“ asarida ushbu sohaga ta‘rif berib o‘tadi. Adabiyotshunos S.Quronov “Sinesteziya hissiy a‘zolarining bir vaqtda faoliyat olib borishi, olingan hisning qorishib ketishi demakdir“ degan edi. Ya‘ni ko‘z vositasida olingan informatsiya ta‘sirida nerv sistemasida boshqa bir sezgi a‘zosini harakatlantirib yuborishi mumkin .Amerikalik olim M.Seans o‘z ilmiy

faoliyatida ba'zi odamlarning eshitish qobilyati ko'z bilan kuzatilayotgan harakatda muayyan tovushlarni eshitish imkoniyatini bera olishini asoslabberadi. Ya'ni, sinestetlar rangning hidini tovushlarning ta'mini seza oladilar. Olimlar yana shu narsani ta'kidlashadiki, bir hisning assotsiativ holda boshqa bir hisni uyg'otishga rang, so'z, hid, tovush va ta'm vosita bo'lib sinestet kishilar sanab o'tilganlarning qay birida sezgirroq bo'lsalar, ular tabiatdagi aynan shu holatni his qilib yurishadi. Umumanolganda, sinesteziya ozmi – ko'pmi har birimizda mavjud . Ko'pchiligimiz to'q sariq rangdaissiqni, to'q va ko'k rangda esa sovuqni his qilamiz.

Ba'zan so'z ham insonda shunday holatni uyg'otishi mumkin. Aytish mumkinki, sinesteziya hodisasi badiiy obraz yaralishidagi murakkabliklar bilan ham uzviy bog'liq. Shu sababdanham hozirgi zamon san'atshunosligida badiiy sintez masalasini ham o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ya'ni ijodkor asaryaratar ekan o'z qobilyatiga monand sinkretik obrazlarni dunyoga keltiradi.

Qo'g'irchoq mushtining soyasi
Xalal bermasmikin
Tundan ajralib chiqyapkan tongga
Sadafi ham tushib qolibdi
Mana yaltiroq shabnam
Tipratikan jimlik shaklida edi
Ustiga olma qulamasidan avval
Mana ignalik shovqin
Yana ko'p narsani aytish mumkin
Xullasi kalom (B.Ro'zimuhammad)

She'rni o'qib sirtidan qaraganda bir- biriga bog'liq bo'lmagan metaforalar ketma-ketliginiko'ramiz. Ammo she'rni tushunishda ham uning yozilish tamoyillaridan kelib chiqsak "tartibsizlik"dagi muayyan assotsiativ bog'liqlik ko'rina boshlaydi. Yani, bir holat ikkinchisini eslatib turish holati ko'zga tashlanadi

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek tilshunosligida ham sinesteziya mavzusiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ba'zilar sinesteziyani metafora bilan bitta narsadeb notog'ri xulosa chiqarmasliklari uchun ham ushbu sohaga yetarlicha e'tibor qaratmoq joiz. Yevropada sinesteziyani insonlardagi noyob qobiliyat deb ham e'tirof etishgan. Sinesteziya haqida dastlabki tushunchalarni insonlar ongida shakllantirish uchun ham albatta u haqida yetarlichama'lumotga ega bo'lishimiz lozim. Ushbu holatdagi insonlarda badiiy tasavvur ancha kuchlibo'ladi, ehtimol, aynan shu tufayli ular orasidan yozuvchi va shoirlarni ko'proq uchratarmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Судныймозг". Sayt : <https://books.google.co.uz/books>.
2. "Синестизия как объект ледования". A.Khavoyashkova Sayt:<https://academy.edu>.
3. S. Quronov . "Ifoda va ifodaviylik". "Yoshlik " jurnali . 2013-yil 2-son.
4. D.Yu., Katorginova O., Yu.Romashina. Синестизия как стилистическое средство в русском в английском художественном диску" maqolasi.

ID-020-30-A004

Sabina Habibullayeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

“PUANKARE” YOXUD O‘ZLIKNI ANGLASH IZTIROBLARI

Annotatsiya. Abduqayum Yo'ldoshning “Puankare” hikoyasi orqali, har bir inson hayoti davomida erishmoqchi bo'lgan narsasiga ortga qaytmasdan sidqidildan harakat qilishi, sabr ila Olloh berganiga shukr qilib yashashi kerakligini bilib olish mumkin. Bu maqolada bir so'z ustida mushohada qilinadi. Haqiqiy “Puankare” nima ekanligini bilgan insongina uni yechishga, o'zligini anglashga qodir. Bugun puankare yechilgan bo'lsa, uning o'rniga taxi buzilmagan yangilari saf-saf bo'lib turibdi. Ana shu savolga javob izlashning iztiroblari jarayonida qog'ozga tushdi “PUANKARE”.

Kalit so'zlar: *Puankare gipotezasi, portfel va qo'lyozma detali, vaqt, badiiy obraz badiiy detall, badiiy peyzaj.*

Annotatsion. Through “Puankare” story which is written by Abduqayum Yo'ldosh each person may know to achive something to try which reality heart, it should be living to tell interj thanks for GOD to giving things. In this article it observed on one word. Human who knows real “Puankare” is what, resolve this, is capable of realizing themselves.

Keywords: *Puankarehypothesis, time, portfolio and manuscript detail, student, artistic image, artistic detail, artistic landscape.*

Hozirgi adabiy jarayonda hozirjavob o'qiladigan janrlardan biri bu hikoya janridir. Hikoya inson hayotida yuz bergan ixcham voqeani lo'nda ifodalashga mo'ljallangan. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo'li, bir emas, bir necha odamlarning taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi muhim hisoblanadi. Hikoya

janrining roman va qissadan farqi ham ana shundadir. Mana shunday ixchamlikka asoslangan, hozirjavoblik bilan o'qiladigan hikoyalardan biri bu Abduqayum Yo'ldoshning "Puankare" hikoyasidir [Toshkent: Akademnashr, 2014]. Bu hikoya ijtimoiy hayotning puchmoqlarini ko'rsatdi. Birgina teorema orqali inson hayoti badiiy talqin etilgan. Uni yechish qiyin, ammo hayot ham turli sinovlardan iborat-ku. Munaqqid Shuhrat Rizayevning fikrlari yuqoridagi fikrlarimizga asos bo'lishi mumkin."Bu hikoyada teorema yechishga asos bo'lgan bir jumboq .Jumboqlar esa hayotimizning bir bo'lagidir .Nihoyatda jiddiy ayotiy kuzatish, ruhiy holat, falsafiy umumlashmalarning teranligi bilan o'quvchilarni larzaga sola oladigan sof an'anaviy realistik ifoda yo'sinida qurilgan asar" [Shuhrat Rizayevning adabiy nutqidan].

"Bu dunyoda har kimning o'z PUANKARESI bor. Har kim umri davomida uning gipotenuzasini yechishga urinadi. Garchand bu oson emas. Bani bashar dunyoga kelib, tiriklikning sirli, sehrli ilohiy tamaddun jarayoni boshlanibdiki, hayot atalmish ulug' muallim Koinot sarvari bo'lmish har bir odam oldiga bir-biridan murakkab ayni paytda kulguli darajada o'ta jo'n sinoatlar gipotezasini qalashtirib tashlaydi: istaganingni tanlab ol-u, qisqagina davom etadigan umring davomida, o'z hayoting, kechajak kunlaring mohiyat-mazmuni bilan uni isbotla, Inson bo'lib yasha, Inson bo'lib qol. Shu ma'noda men hayotning o'zini mutafakkir PUANKARE deb bilaman" [Abduqayum Yo'ldosh "Puankare" hikoyasi .-Toshkent: Akademnashr, 2014].

Shu o'rinda yozuvchidan bir savol so'rashgan :

- Puankareni o'qib, xavas qilibmi, yozuvchi degani avval matematikani o'rganishi kerakmikan?

- Yo'q, yo'q mening nazarimda yozuvchi degani avval hayotni o'rganishi lozim. Zero, hayot matematikadan million-million barobarmurakkab va chigal. Hikoyada esa matematika aytilmoqchi bo'lgan fikrga, hayot haqiqati qo'shilgan ko'ngil dardlariga vosita, xolos. Ya'ni qahramon matematik o'rniga san'atkor, shifokor, dehqon, yozuvchi ... ham bo'lishi mumkin edi va bu bilan mohiyat o'zgarib qolmasdi – deb javob qaytaradi yozuvchi.

Ba'zida hikoyalarda personaj hayotida nima bo'lganligi, qanday ro'y berganligi ayrim detallar orqali ishora qilinishi mumkin. Bu hikoyada ham yozuvchi asar kompozitsiyasi qurilishiga mos keluvchi detallardan foydalangan. PORTFEL va QO'LYOZMA detali asosida hikoya strukturasi boshidan oxirigacha davom etadi. Hikoyaning barcha o'rinlarida bu detallar muallif konsepsiyasi, qahramon ichki olamini ochish uchun xizmat qilgan. Hattoki, ba'zi o'rinlarda bosh obraz ruhiy holatini ham ifodalab kelgan:

“Bir asrning uchdan birini o'tab- o'tamay yuzimga o'xshab, bujmayib, qarimsiq bo'lib qoldi; bir xil joylarining terisi ko'chgan, kal boshimni eslatadi. Mol ham egasiga o'xsharkan-da. Bu ham kamdek, bo'sh qopga o'xshab sira tik turmaydi, ichiga u- bu solsam sal qaddini g'oz tutgandek bo'ladi, ammo bu aldamchi taassurot; sal o'tmay yana qiyshayib-miyshayib qoladi “... Bundan ko'rinib turibdiki, u hali gipotenuzani yechishga kirishgani yo'q, bu yerda portfel uning maqsadlarini ifodalab kelgan [axir doim o'zi bilan olib yuradi-ku]. Hikoyada QO'LYOZMA detali ham bor . Asarda bu detall qahramonning o'y-xayollari, orzu – umidlarini amalga oshiruvchi vositadir. Faqat gipotenuzani yechish mobaynida shu qo'lyozmalariga tayanadi, ammo vaqtlar o'tib gipotenuzani yechishdagi urinishlari amalga oshmagandan so'ng bu qo'lyozmalar faqat portfel ichida turadi. Shogird topilganda esa u qo'lyozmalar yana portfel ichidan chiqadi, uning orzusi ifodachisi vazifasini bajaradi:

“Tuni bilan qo'lyozmalarimni titib chiqdim. Men yana ho'v o'shal davrdagi g'alaba uchun tuya boshlagan tadqiqotchiga aylanib bormoqda edim” Ko'rib turganimizdek, qo'lyozma detali zamon o'zgarsa-da baribir o'z vazifasini bajarmoqda. Hikoyada ilk jumla va so'nggi jumlalar badiiy xronotop orqali tutashadi :

- Xudoyim, meni o'tiz yil orqaga qaytar ... qaytar, Xudoyim.

Ko'p takrorlangan bu jumla inson hayoti o'tib borgani sayin qilgan ishlarini sarhisob qiladi. Orqaga qaytib qolishni istaydi . Zerokim, vaqt – oliy hakam. U barcha narsaga ta'sirini o'tkazmay qolmaydi . Asarda:

“VAQT, VAQT, VAQT ... U bunchalar tez o‘tadi? Qayoqqa bunchalar shoshadi? Bu qattol shiddat inson umrini tushga, ro‘yoga aylantirib qo‘ymaydimi ? Uxlading –u uyg‘onding . Qisqagina davom etgan tushingda esa butun umringni ko‘rding . Bunchalar shavqatsizsan vaqt?“...

Bu o‘rinda ritrospektiv usulda qahramon holatini ifodalab kelgan. Hikoyada bu holat shogird va rafiqa personajlari orqali asoslangan. Oiladagi iyyimoiy, ma‘naviy muhit to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi uning asl maqsadidan chalg‘ishiga sababchi bo‘lgandir . Yana bir holat orqali buni bilishimiz mumkin. Bu – shogird. Yozuvchi bu personajni hikoyaga shunchaki olib kirmagan . Go‘yoki shogirdining harakatlari bosh obraz o‘tgan vaqtining takroridek namoyon bo‘ladi .

Hikoyada PEYZAJ tasviridan yozuvchi mohirona foydalangan . Ayniqsa, asar boshida qo‘llagan peyzaj tasviri orqali butun boshli asar kompozitsiyasi va uning mohiyatini ochib bergan:

“Kambag‘alning boyligi yonida bo‘lgani ma‘qul. Mashina turtib ketsa, qog‘ozlarimning bari sochilib ketishi mumkin“... Kelajakda uning maqsadlari ham shunday sochilib ketishi mumkin degan g‘oya ilgari surilgan. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, asarning tub mohiyatini tashkil etuvchi qo‘lyozma asar boshida sochilib ketadi. Balki, mana shu voqea bilan inson bir narsani maqsad qildimi, unga erishish uchun sidqidildan harakat qilmog‘i lozimligi, har qanday vaziyatda ham bu yo‘ldan qaytmasligini ta‘kidlab o‘tgandir yozuvchi.

“Baayni yoz osmonidan do‘l yoqqandek rafiqam bir xonali “vatan”dan voz kechib qoldi“. [Abduqayum Yo‘ldosh. “Puankare” hikoyasi. –Toshkent: Akademnashr, 2014]. Bu o‘rinda muvozanatning buzilishini ko‘rishimiz mumkin. Yozda do‘l yog‘masligi barchaga ayon. Yog‘sa-da noodatij holat .Bu yerda yozda do‘lning yog‘ishi bilan ayolning so‘zlari parallel tarzda kelmoqda, ya‘ni peyzaj tasviri ayol so‘zlari bilan o‘xshatilyapti. Hikoya strukturasi gamos holda qahramonning o‘sha vaziyatdagi ichki holatini ochib bera olgan. “Yozuvchilar peyzaj yordamida xarakterlarni harakatda, doimiy o‘zgarishda

ko'rsatadilar" [Xudoyberdiyev E. "Adabiyotshunoslikka kirish". - Toshkent 2007].

"Ne makon, ne zamonda umrguzaronlik qilayotganimni anglab-anqlamay,atrofga nolon boqaman ; million tonnalik ulkan tosh ustimda, men esa torgina yoriqqa tikilib olgan odamdek nafasim qaytadi, gursillab urayotgan yurak ko'krak qafasimni yorib chiqib ketgudek kattalashaveradi, mana, mana, hozir, oniy soniyadan so'ng havo to'lg'azilayotgan shardek pakillab yoriladi"... Gipotenuzani yechishga o'ziga ishonch sezgan qahramonning asar so'ngiga kelib bu ishonchning so'nishi konflikt tarzda qo'yilmoqda.

Bu tipdagi hikoyalarning semantik strukturtor xususiyatlari:

"Hikoya detall va uning atrofidagi ashyolar asosida quriladi. Muallifning badiiy g'oyasiga tabiat tasviri fon vazifasini bajaradi. Ko'tarilgan mavzuning ilmiy jihatdan yondashib, aslida qanday g'oya ilgari surilganligini anglash, yozuvchi niyatining yorqin namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Hikoya qilish strukturasi hikoyachilarning almashinuvi, nuqtayi nazarlar o'zgarishi ham asar kompozitsiyasining alohida tipi sifatida ahamiyat kasb etadi"... [Komiljon Hamroyev "Shukur Xolmirzayev hikoyalarida kompozitsiya". - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2012.] Aynan bu poetik komponentlar hikoyada yetakchilik qiluvchi omillardir "Puankare" hikoyasida bu yaqqol sezilib turadi. Hikoyaning kam so'zlab, ko'p ma'no anglatishiga erishilganligiga sabab, voqealarni qahramon tilidan bayon qilinganligidir . Aynan shu bayon uslubi o'quvchiga qahramon ichki dunyosiga kirib, uning xarakterini, ruhiyati va ma'naviy olamini o'rganishga, hikoyaning yechimini berishga kelganda esa aniq maqsadni aks ettirishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, bu dunyoni har kim o'z dunyoqarashi bilan o'lchaydi . O'z nuqtayi nazari, o'z mezonlari, o'zining yaxshi-yomon, achchiq-shirin hayotiy tajribasi, chiqargan ko'lamli-ko'lamsiz xulosa-saboqlaridan kelib chiqib baholaydi. Bugun biz ham Abduqayum Yo'ldoshning "Puankare" hikoyasini o'zimizning dunyoqarashimiz, fikr-mulohazalarimiz orqali tahlil qildik va anglab yetdikki, inson hayoti shu gipotenuza kabi jumboqlardan

iboratdir. Vaqtlar o'tgani sayin, albatta, bu jumboqlarning javobi topiladi. Buning uchun faqat biz to'xtab qolmasdan harakat qilishimiz lozim, xolos. Zerokim, ortga yo'l yo'q. Faqat oldinga tomon shahdam odimlaylik!

Bularning hammasi, hammasi anglashga urinish edi, xolos. Iztiroblar esa endi boshlanadi. Zero, yuzaga eng asosiy savol qalqib chiqdi: "Men-chi?.. O'zim-chi?.. " Bu savolga javob topishing, uni o'zing o'zinga tik qarab ayta olishing esa og'ir, juda og'ir. Lekin, hayotimiz davomida o'z "Puankare"imizni topishimiz lozim-ku !

SHOSHILING ...

MEN HAM BUGUNDAN BOSHLADIM !!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqayum Yo'ldosh "Puankare" hikoyasi. -Toshkent, Akademnashr, 2014.
2. Komiljon Hamroyev "Shukur Xolmirzayev hikoyalarida kompozitsiya. - Toshkent, "Muharrir", 2012.
3. Quronov D. va boshqalar "Adabiyotshunoslik lug'ati". - Toshkent, Akademnashr,2010.
4. Xudoyberdiyev E. "Adabiyotshunoslikka kirish". - Toshkent, 2007.

ID-020-30-A005

Quvonchbek Mamiraliyev

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA VATAN OBRAZI TALQINLARI

Annonatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Oripovning she'rlarida Vatan obrazi talqinlari, ijtimoiy-siyosiy muhitning she'riyatga bo'lgan ta'siri tahlil etilgan. Shu bilan birga, Abdulla Oripov she'riyatida Vatan obrazi qanday yoritilgani haqida ham fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *ichki "men", ijtimoiy-siyosiy she'riyat, Vatan obrazi, lirik qahramon, milliy kolorit, tarixiy yondashuv, ijtimoiy she'riyat.*

Annotation. In this article, Abdulla Oripov's poems analyze the image of the motherland and the impact of the socio-political environment on poetry. At the same time, in the poetry of Abdulla Oripov, the image of the motherland is reflected.

Keywords: *internal "I", socio-political poetry, image of motherland, lyric hero, national colorit, historical approach, social poetry.*

O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov ijodida O'zbekiston obrazi alohida o'rin tutadi. Shoirning ilk ijodidayoq jannatmakon yurtimiz O'zbekistonga bo'lgan yuksak muhabbat, vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, asrlar qa'ridan kelayotgan muqaddas qadriyatlarimizni ko'z qorachig'idek asrash ruhi o'ziga xos she'riy misralarda jo bo'ladi. Bugunga kelib xrestomatik she'rlarga aylangan, oltmishinchi yillarning birinchi yarmidan boshlab qoralana boshlangan "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", "O'zbekistonda kuz" she'rlari va "O'zbekiston" qasidasidan boshlangan bu ruh

yillar osha tobora tiniqlashib, o'tkirlashib, yangi joziba kasb etib, yaxlit katta bir turkumga aylandi.

Shoirning ushbu mavzudagi she'rlarini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin. Biri mustaqillikkacha yozilgan she'rlar, ikkinchisi istiqloq bergan ne'matdan kuch, bahra olib yozilgan she'rlar. Shoirning oltmishinchi, yetmishinchi, saksoninchi yillarda yozilgan ushbu mavzudagi qay she'rini olmaylik, ularda O'zbekiston degan yurtga otashin bir muhabbat, uni ozod va ulug' mamlakat sifatida ko'rish orzusi ufuq turganligini ko'ramiz. Bu ruh qandaydir boshqa bir munosabat bilan yozilgandek bo'lib tuyuladigan "Minorai Kalon tepasidagi laylak", "Sovg'a", "Armaniston" kabi she'rlarga ham xosdir. "Sovg'a" she'rida bosqinchilar zulmi ostida Buxoroni "beklar, amirlar, bulbullar" ko'zda yosh bilan tashlab ketganligi, faqat laylak bu shaharni tashlab ketmaganligi haqida so'z boradi. Ajabkim, bu qushning "oyoqlari g'o'zaga o'xshar, qanotlari esa paxtadek oppoq". G'o'za, paxta deyilganda o'sha yillarda-O'zbekiston, o'zbek xalqi tushunilardi. Ya'ni zulm iskanjasi, totalitar tuzum zug'umlari qanchalik qattiq bo'lmasin, bu diyorda xalq mangu qolajagi, O'zbekiston yana o'z tug'i, o'z bayrog'iga ega bo'lgan mustaqil mamlakatga aylanishi orzusi poetiklashtiriladi.

Sobiq ittifoq davrida O'zbekistonning zabun, tushkun ahvoli, o'zgalar uning qonini so'rganligi "Sovg'a" she'rida ayniqsa kuchli ifodalab berilgan. O'sha mafkuraviy tazyiqlar davrida bunday fikrlarni yozishgina emas, o'ylashning o'zi ham jasoratdan boshqa yana qandaydir katta bir narsani talab qilganligi ayon bir holdir. O'zini jallodning kundasiga ro'para qilish bilan barobar "shakkoklik"ka undagan bu kun O'zbekistonni chinakam sevgan, unga jonini ham qurbon qilishga tayyor turgan shoirning qalb hayqirig'i, o'tli nidosi edi. Vatan tushunchasi Abdulla Oripov she'rlarida serma'no va rang-barang. Keng miqyosda qaraganda, shoir va uning lirik qahramoniga «shu buyuk sayyora – yagona Vatan» bo'lib ko'rinadi («Genetika»). Biroq ona-Vatan deganda u faqat O'zbekistonni tushunadi. Bu mavzu shoir ijodining eng nurli va porloq sahifalarini tashkil etadi.

Tarixni yaratuvchi xalqdir. Lekin baʼzan uning bagʻrida kechishi mumkin boʻlgan ayrim norasoliklar, noahilliklar ham borki, ular gohida shoir qalbida achchiq nido uygʻotadi. Mashrabni dordan, Qodiriyning tuhmatlardan asrab qololmaganlarga qarshi shoir oʻziga xos “ta’na” qiladi, faryod chekadi: [Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. III том. – Тошкент: Фан, 1978 йил, Б. 446.].

Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?

Nechun tomoshaga bundayin oʻchsan?

Qarshingda hasratli oʻyga tolaman,

Qachon xalq boʻlasan, ey, sen olomon?

Shoirning ushbu “Qachon xalq boʻlasan, ey, sen olomon?”, Choʻlponning “Xalq dengizdir, xalq toʻlqindir, xalq kuchdir”, Muhammad Yusufning “Alpomishga alla aytgan momolarim, **Ruhini shod etay desang — xalq boʻl, elim, Moziyni yod etay desang, Xalq boʻl elim**” kabi misralarida a jib oʻxshashlikni koʻroʻramiz. Hamma misralarda Xalqni birlikka chorlash turadi.

Abdulla Oripov lirikasida Oʻzbekiston - xalq - tabiat obrazlari uygʻunlikda ochiq bir kitobdek koʻz oʻngingda namoyon boʻladi. Abdulla Oripov shoir ona yurtining yoniq sheʼrlarini ehtiros bilan, mehr bilan oʻqitayotgandek tuyuladi. Darhaqiqat, Abdulla Oripov sheʼrlarining asosiy mavzui – ona yurt, Oʻzbekiston, Vatandir. Aslida Vatan, xalq, ona yurt, tabiat – bular bir zaminda yuzaga kelgan tushunchalar. Yolgʻiz Vatanni sevib xalqni, tabiatni sevmay boʻlmaydi. Ona yurtga, soʻlim va dilbar goʻshalarga muhabbatdan ulkan va salobatli Vatan tushunchasi oʻsib chiqadi.

Ey aziz yurt, hurriyat-davron muborakdir senga,

Oʻzbekiston – begʻubor osmon muborakdir senga.

Necha yuz yil sen kurashding mustaqillik oni deb,

Sen ani topding, ulugʻ imkon muborakdir senga...

“Abdulla Oripovning ijtimoiy sheʼriyati bir vaqtning oʻzida koʻngil lirikasidek qabul qilinadi” [Hamdamov U. Yangi oʻzbek sheʼriyati. –T.:Adib, 2012]. Abdulla Oripov lirikasida koʻpincha xalqimiz tarixiga murojaat etish, milliy xarakter asoslarini anglab etishga intilish, bolalik xotiralarini koʻz

o'ngida jonlantirish, tiklash, ona yurt manzaralariga estetik munosabatda bo'lish orqali Vatan obrazini bunyod etadi. «Xalq», «Vatan», «Turkiston bolalariga», «O'zbek qomusi», «Fidoysi» kabi she'rlarida Vatan mavzusining yangi qirralarini falsafiy umumlashmalarda ochib berdi. Yurtning koriga yaragan ezgu fazilatli insonlar obrazini yaratdi. Bu she'rning mazmun-mundarijasini Vatan va xalq sha'niga madhiya aytish, mavjud reallikni shunchaki ta'kidlash tashkil etmaydi. She'rlaridagi milliy ruh qalbingizga ko'chganini sezmay ham qolasiz. "Maydanak" she'ridagi mana bu misralar buning isbotidir:

Endi jiddiy turib bu yonga qara,
Falakda ko'rinar ikkita oq qand.
Biri "O'zbekiston" degan sayyora,
Birovining esa nomi – "Samarqand".

She'rning poetik xulosasida ham milliy ifoda, milliy ruh, milliy talqin mujassam. "Agar mag'iz bo'lsang, olam bir danak" tashbehi ana shu milliylikka yorqin bir dalildir. Vatan haqida gap borar ekan, Abdulla Orpov shoirning burchini faqat madhiyabozlikdan, yurtni faqat ulug'lushu ko'klarga ko'tarishdan iborat, deb tushunmaydi. To'g'ri, u Vatan dardlarini go'zalligini, iqbolini kuylaydi, biroq uning sermashaqqat tarixi va taqdirini haqqoniy gavdalantirish maqsadida ko'proq Vatan dardlarini kuylaydi, bir fidoysi farzand kabi uning dardlariga malham bo'lgisi keladi. Bu Vatan tarixda ko'pdan-ko'p buyuk farzandlarga, ulug' kashfiyotlarga, insonparvar g'oyalarga doya bo'lganini dunyoga ko'z-ko'z qiladi, hozir ham uning o'shal tarixga munosib bo'lishini istab, o'zini tug'yonlar bag'riga uradi.

Abdulla Oripovning Vatan timsolini yaratishga bag'ishlangan she'rlaridagi poetik obrazlar, ayniqsa, falsafiy, xalqchil va ohorli bo'lib, bu yo'nalishdagi she'rlar ichida «Men nechun sevaman O'zbekistonni» hamda «O'zbekiston» she'rlari alohida ajralib turadi.

Kech kuz edi, men seni ko'rdim,
Derazamdan boqardi birov.

U sen eding, o, dehqon yurtim,

Turar eding yalangto'sh yayov.

-Tashqarida izillar yomg'ir,

Kir, bobojon, yayragil bir oz.

Deding:-Paxtam qoldi-ku, axir,

Yig'ishtiray kelmasdan ayoz.

Ketding, umri mahzanim manim,

O'zbekiston, Vatanim manim [Oripov A. Tanlangan asarlar. Olti jildlik, 4-jild, – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2001].

Shoir, ayniqsa, "O'zbekiston" qasidasida ayni Vatan, yurt, xalq dardini mohirona tasvirlab bergan. Bu she'r 1968-yilda yozilgan. O'sha kezlari "SSSR – bizning yagona Vatanimiz" degan soxta shior ko'plab insonlar ongiga singdirilgan edi. Abdulla Oripov ana shunday bir sharoitda "O'zbekiton –Vatanim manim" deb chiqdi. Shoir Vatanni obrazini tarixiy shaxslar orqali tasvirlash yo'lidan bordi. Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk bobolarimizni madh etar ekan, shunday buyuk ajdodlari bor, "Amudaryodan sakrab o'tgan Jaloliddinlari", "Temur tig'i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher"lari bor yurtdan faxr hissini tuyadi va ona xalqim o'zing baridan buyuksan deydi:

Bobolardan so'zladim, ammo

Bir zot borkim, baridan suyuk:

Buyuklarga baxsh etgan daho,

Ona xalqim, o'zingsan buyuk.

Bu buyuk shaxsiyatlarning yaratuvchisi "baridan buyuk", "baridan suyuk" xalqdir. Shoir keyingi bandlarda mana shu buyuk va suyuk ona xalqining timsolini yaratadi. bunday buyuk farzandlarni jahonga yetkazib bergan, ularning shon-sharafini asrlardan asrlarga olib o'tgan mana shu xalqdir. Shu tariqa Vatan va millat tushunchasi bir-biriga o'tib, bir-birini to'ldirib boraveradi. darhaqiqat, o'zbek degani bu o'zbekis tondir, O'zbekiston deganda esa o'zbek ko'z oldimizga keladi. bu she'r yana bir mashhur shoirimiz

Erkin Vohidovning “O‘zbekim” qasidasi bilan deyarli bir vaqtda yozildi va ikkala asar xalqimizning o‘zligini anglashida sezilarli rol o‘ynadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Oripov A. Tanlangan asarlar. Olti jildlik, 4-jild, – T.: Adabiyot va san‘at, 2001.
2. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she‘riyati. –T.: Fan, 2007.
3. Xamdamov U. Yangi ўzbek шеърияти. –Т.:Адиб, 2012.
4. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. III том. – Тошкент: Фан, 1978 йил, Б. 446.

ID-020-30-A006

Sitora Abduqodirova

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 3-kurs talabasi

ZULFIYAXONIM IJODIDA SOG'INCH TIMSOLI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining vafo va sadoqat kuychisi Zulfiyaxonimning ijodi avtobiografik metod orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Zulfiya, Hamid Olimjon, she'r, lirik qahramon, sadoqat, sog'inch*

Annotation. In this article the works of Zulfiya, who was one of the famous poetess and representative of loyalty in uzbek literature, was analysed by autobiographical method.

Keywords: *Zulfiya, Hamid Olimjon, poem, lyric hero, loyalty, missing*

Bahor! Atrofdagi go'zalliklarga boshqacha nigoh bilan boqiladigan fasl!
Bahor kirib kelar ekan har bir o'zbek qalbida "O'rik gullaganda" she'rining timsollari jo'sh urishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu she'rning muallifi Hamid Olimjonni eslar ekanmiz, Zulfiyaxonimni eslamasdan iloj yo'q. U Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i, o'zbek she'riyatining darg'alaridan biri, vafo va sadoqat kuychisi, o'zbek she'riyati jahon sahnalariga olib chiqqan ilk shoiralardan biri hisoblanadi.

Uning hayoti va ijodi bir-biri bilan shunday chambarchas moslashib ketganki, hayotining har jabhasi she'riyatida aks etgan. Uning she'rlarini o'qir ekansiz uning quvonchi, kulgusi, sog'inchi, sadoqati, qayg'u, g'am va anduhlari sizga ham ko'chib o'tadi. Ya'ni she'riyatning ichki ruhiyati o'quvchiga yuqadi. Uning hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, qizlik yillari Qizlar bilim yurtida o'qiyotgan paytidan boshlab ijod qila boshlaydi. Ilk she'rini paxta dalasidagi ishchilarga bag'ishlab yozadi, bundan esa uni ana o'sha yoshlik yillarida

mehnatni qadrlaydigan va insonlarga e'tiborli bo'lganligini bilishimiz mumkin. Qaysidir shoir aytganidek: "Shoirlik haqiqiy xalq dardini kuylashdan boshlanadi."

Zulfiya ijodining ilk yillarida bo'yoqdorlik, rangbaranglik va tabiat tasvirlari yetakchi o'rin tutgan. Hamid Olimjon bilan endi uchrashgan ya'ni umrining bahor faslida esa otashin sevgi va muhabbat alangan she'rlari uning o'quvchilarini ham jo'sh urdirib yuboradi. Shundan so'ng esa u biroz jiddiy ishlarga ham qo'l uradi. Ya'ni she'riyatda ruhiyat tasvirini beruvchi ajoyib na'munalarni yaratadi. Shu kungacha hech bir o'zbek shoirasi hissiyot va ruhiyat chizgilarini bunchalik aniq qilib chizib bera olmagan.

Ammo, uning hayotida chuqur bir burulish ro'y berdi. O'sha mudhish hodisa, Hamid Olimjondan judolik uni yetti pora g'amga botirdi, baxt quyoshini so'ndirdi. Umr yo'ldoshi bilan birga o'z muhabbatini ham, quvnoqlig-u, erkaliklarini ham ko'mib keldi. Ammo yoriga hech ham bevafoqlik qilmadi. Butun umr u uchun yashadi. Bu hodisa uning ijodiga juda qattiq ta'sir qildi. Endi uning she'riyatini faqat g'am, anduh, sog'inchi va sadoqat egallab oldi. Uning o'quvchilari shu voqealardan boshlab Zulfiya ijodida qora ranglar bilan bezatilganiga guvoh bo'la boshladilar. U o'zining "Sen qaydasan yuragim" she'rini quyidagi misralar bilan boshlaydi:

Qalb bo'lganda yiroqda
Iroda ekan ojiz.
Do'stlar ham ko'p atrofda,
Lekin men yakka yolg'iz...

Ushbu misralarda garchi shoira tirik, yashayotgan, yuragi urib turga bo'lsada, uning qalbi yiroqda ya'ni Hamid Olimjon bilan ketgan. Ana o'shanday vaziyatlarda insonning irodasi ojiz bo'lishini eslatib o'tmoqda. Keying misrada esa uni garchi hamma o'rab tursada, u bu muhitga begona ekanligi va o'zini yolg'iz his qilishini aytib o'tyapti. Yuqorida keltirilgan misralarda shoiraning sog'inchi qog'ozga o'ralgan holda retseptorga yetkazib berilgan bo'lsa, "Qalb

bo'lganda yiroqda" she'rida esa shoira o'z sog'inchini ochiqdan-ochiq bayon qiladi.

Sog'inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul.

Ushbu misralarning tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, avtobiografik metodga tayanishimizga to'g'ri keladi. Ya'ni Zulfiyaning hayotida endi Hamid Olimjon yo'q. Oilaning bor tashvishlari va og'irliklari, bolalar tarbiyasi va boshqalar birgina Zulfiyaning o'z gardaniga yuklangan. Endi u yolg'iz ona sifatida ham ayolning, ham erkakning ishini qilishi kerak. Shunda u gul ko'tarib uning qabriga borishni kanda qilmasligini ushbu she'rda aytib o'tadi. Vaholanki, gul ko'tarib kimnidir ko'rgani boorish bu odatda erkak kishining vazifasi hisoblandi. Uning she'riyatida shoira hissiyotlari isyon ko'taradi. "Sen qaydasan yuragim" she'rining nihoyasida biz ushbu isyonga guvoh bo'lamiz:

Ishqqa maskan yuragim,
Topib ber deb qistaydi.
Nima qilay, berahm-
Ruhim seni istaydi.

Ushbu misralarda u qo'l-oyog'i bog'langan, boshqa iloji qolmagan, sog'inchning eng chuqur botqog'iga botgan, ammo qo'lidan hech narsa kelmaydigan, ilojsiz bir ma'suma ayol qiyofasini gavdalantirgan. Uning "Qayda o'z sevinchim" she'rida esa ana o'sha isyonning yuksak cho'qqiga yetganini ko'rishimiz mumkin:

O'qilmagan maktub,
Taqilmagan ziynat
Nodarkorlar ichra yotar kesakday,
Uzoqroq,
Xilvatroq kunjakka irgit

Naq jarroh pichog'i-kayfing kesarday!

Shunday ham nobutun ko'ngling qo'ysin tinch!

Shoira ushbu she'rida hamma narsani inkor qiladi, unga endi na maktublar, na taqinchoqlar kerak, bunga o'shxash ahamiyatsiz buyumlar nodarkorlar ichra yotardi. Agar ko'zga ko'rinib qolsa ham ularni uzoqroq xilvatroq kunjaklarga otib yuboring. Jarroh pichog'idek alam uchquni uning ko'ksini kesmoqchi. Shu ham insofdanmi? Axir bu ko'ngil shundog'am nobutun-ku! Xuddi shu she'rning nihoyasi esa quyidagicha:

Sevinch!

Qayda o'sha qaytmovchi sevinch?

Qo'lga tutolmagum bebaho bisot!

Shoiraning alamli dardi bu- uning sevinchi qaytib kelmayotganligidir. Endi u lirik qahramon uchun tutqich bermas, bebaho bisotdir. Izlash, qidirish va uning ortidan yugurishning foydasi yo'q. U o'zining "Sog'inib" she'rini quyidagi misralar bilan boshlaydi:

Shu kunlarda bahorga zorman,

Navjuvonlik o'ti tanda yo'q.

Kuz singari zafarruxsorman,

Mevalar ham shoxlardan uzuq.

"Zulfiyaning hijron lirikasida unga hamisha tabiat hamdard"[Qozoqboy Yo'ldosh, Ayriliqning umidbaxsh tasviri. -T.: Yoshlik, 2-son, 2015]. Ushbu she'rni tahlil qiladigan bo'lsak, shoira bahorni sog'ingan, nafaqat shoira balki butun tabiat bahorga ilhaq. Biz ushbu she'rda lirik qahramon va tabiatning bir-biriga hamdard bo'layotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xuddi shu she'rning boshqa misralarida esa:

Shu kunlarda bahorga zorman,

O'z bahorim kabi bemisol.

Bahor qaytmas, yonuvchi qorman,

Yo no'noq qo'l butagan nihol.

shoiraning o'z hayotidan noliyotganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, u judayam bahorni sog'ingan, bahor kelganda ham o'z bahori singari bemisol bo'lib kelishini xohlaydi. Ammo bahor qaytmas, lirik qahramon esa o'z sovuq qishida alamdan yonayotgan qor singari bo'lib yashashga majbur. Chunonchi, u o'zini xuddi no'noq qo'l butagan niholga o'xshatib, yaratgandan bunday taqdir uchun ham nolib qo'ymoqda.

Zulfiyaning "Sensiz" she'ri shoiraning hayotidagi fojeaning bevosita aksi hisoblanadi. Ushbu she'r garchi Hamid Olimjonning vafotidan ancha vaqt o'tgandan so'ng yozilgan bo'lib, uning qalb yaralari endi unga azob berishga emas balki taskin berishga harakat qiladi. She'r "Mana bir umrni yashadim sensiz, Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib..." deya boshlanar ekan, dastlabki ikki misradayoq qalb yarasi hech qachon bitmasligini bilib olishimiz mumkin. Zukko o'quvchilar bu yerda shoira nima demoqchi bo'layotganiga tushunib olishadi. "Agar shunday bo'lmaganda nima bo'lardi? Qanday go'zal hayot kechirgan bo'lardik?" savollari yotibdi bu yerda. Shoira aqlan uning endi yoqligiga ishonsada, ich- ichidan uning tirik bo'lib chiqishiga, qandaydir mo'jiza ro'y berishiga ishonadi. Endi u butun bor taqdiriga ko'nadi, mayli boshqaningda yori bo'lsada, uning qaytishini xohlaydi. "Bilardim, qaydadir olasan nafas." Menga o'sha tirikligingning o'zi kifoya deydi. "Bilaman, rashk meni etardi halok, Afzal ko'rganingni qarg'ab o'tardim" deydi shoira o'z ayollik his-tuyg'ularini yashirmagan holda. Shu bois ham shoira "Tirik ekan nega tashlab ketmading" tirikligingda tashlab ketganingda, ayriliqni yengish osonroq bo'larmidi deb aytadi.

"Zulfiyaning mashhur "Bahor keldi seni so'roqlab" asarida uning hijron mavzusidagi barcha boshqa she'rlaridagi kabi kuchli dard, chegarasizhijron aks etgan. Ulkan insoniy alam, o'kinchning she'rga yo'g'rilgan samimiy ifodasi she'rxonning ko'nglini titratadi. Chunki titragan ko'ngilning manzarasi o'qirman ruhiyati va hissiyotini ham titratishi tayin. She'rda ifoda etilgan shoira, bahor, yel timsollarining bari sog'inch dardiga mubtalo. Ularning uchalasi ham o'rik gullariga maftun bo'lib, bahor yellarini "baxtim bormi deya"

so'roqqa tutgan, shoiranida, bahornida, yelnida yaxshi ko'rgan jingala sochli xayolchan yigit Hamid Olimjonni birday sog'inishgan. Bu dard uch qayg'ukashni bir-biriga yaqinlashtiradi, ularni bir-birini suyashga, bir-birini tuyishga undaydi."

Bu she'ning quyidagi misralarini tahlil qilar ekanmiz, shoiraning butun dard va g'amlariga guvoh bo'lamiz:

Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonxol?

Yuqoridagi misralar yel tomonidan emas, balki shoiraning o'ziga o'zi bergan savoliga ko'proq o'xshab ketadi. U o'zidan qidirmoqda, o'zidan so'ramoqda, chunki bu savollarning javobini faqatgina o'zidan topishi mumkin. Keying misralarda esa u yoriladi, va javob berishga tili bormay, nima bo'lganligini ko'rsatib beradi:

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, keldim qoshingga.
U ham g'aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.
Va hammasiga guvoh bo'lgan yel ham bunday ayriliqqa chiday olmaydi.

Keyingi misralarda esa:

Bahorga burkangan sen sevgan elda,
Ovozing yangraydi jo'shqin, zabardast.
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham

“Zulfiya she’rlarining aksariyatida kuchli obraz, porloq fikr ko‘pincha so‘nggi badda beriladi”[Qozoqboy Yo‘ldosh, Ayriliqning umidbaxsh tasviri. – T.: Yoshlik, 2-son, 2015]. Ushbu she’rning nihoyasi shoira ham hayoti, ham ijodining xulosasiga o‘xshaydi. Shoira tushunib yetdiki, u tirik ekan, uning yori ham, muhabbati ham u bilan hamnafas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zulfiyaxonim o‘z ijodi bilan o‘zbek ayollarining vafo, sadoqat tuyg‘ularining yaqqol ifodasini yoritib bera olgan ijodkor bo‘lib, uning ijodi shu kungacha o‘z jozibasini yo‘qotgani yo‘q va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zulfiya, Bahor keldi seni so‘roqlab.-T.: Kamolot kutubxonasi, 2018
2. Qozoqboy Yo‘ldosh, Ayriliqning umidbaxsh tasviri. –T.: Yoshlik, 2-son, 2015
3. Ziyouz.net
4. Usmon Azim kutubxonasi.net

ID-020-30-A007

Dilnavoz Shamsiyeva

O'zbek tili fakulteti 1-kurs talabasi

XURSHID DO'STMUHAMMAD IJODIDA MILLIY QADRIYATLAR TASVIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammad ijodida milliy qadriyatlar tasviri tahlil qilingan. Qahramon yaratishda yozuvchi mahorati yoritilgan.

Kalit so'zlar: *qissa, tasvir, manzara, ruhiyat, tahlil, dialog.*

Annotation. This article analyzes the image of national values in the work of Khurshid Dostmuhammad. The writer's skill in creating the protagonist is emphasized.

Key words: *history, image, landscape, psyche, analysis, dialogue.*

***Muhim ahamiyatga ega bo'lgan nimadir yaratilgan bo'lsa,
albatta kuchli tartib asosida tashkil etilgandir.***

(Andrew Hendrikson)

Kuchli tartib, milliylikka sadoqat va insoniy fazilatlar yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning ijodida yaqqol tasviralanadi, desam mubolag'a bolmaydi. Uning asarlari yaratilishi zamirida aynan bir muhim sabab yotadi va u bu sabab mohiyatini asar tarkibida badiiy tarzda ko'rsata olgan.

Xurshid Do'stmuhammad mustaqillik davrining izlanuvchan adabiyotshunosi hamda ziyarak yozuvchisi hisoblanadi. Uning ijodi o'zbek adabiyotida muhim o'ringa ega. Adabiyot olamida yetuk marralarni egallagan adib tarjimonlik faoliyati bilan ham shug'illangan. Uning asarlarida hayotiylik jozibasi aks etgan bo'lib, ularda qo'llangan so'zlar esa mazmunni yanada

yuksaltirgan. Zero, so‘z qudrati cheksizdir. Shunday so‘zlar borki, kishilarning qalbida o‘chmas iz qoldiradi. Bazilari esa bizni xafa qiladi. Shunday qudratga ega bo‘lgan so‘zlar borki, ular insonlarni kurashga intilishga undaydi. Men aynan Xurshid Do‘stmuhammadni mana shunday gavharlarni adabiyot matolariga qaday bilgan adib deb hisoblayman. U yozgan hikoyalar ham tahsinga sazavordir. Uning hikoyalarida g‘oyaviylik, keng qamrovlilik, hayotiylik ifodalaridan foydalanilgan bo‘lib, bunga aynan “Beozor qushning qarg‘ishi” hikoyasini misol qilishimiz mumkin.

Hozirda qilayotgan har bir harakatimizning ular yaxshimi yomonmi o‘zimizga ikki hissa bo‘lib qaytajagini tasvirlab bergan. Zero, hammasi tushinib yetilganda, afsus va nadomatlar o‘rinsiz holda bo‘ladi.

Hikoyada milliylik, insoniylik, do‘stlik kabi bir qator qadriyatlar ilgari surilgan. Asarning milliylik g‘oyalari aynan qaldirg‘ochning bahor faslida kelib odamzod makonidan qo‘nim topishida namoyon bo‘lgan.

“Umid akam: “Iya, anovini qaranglar!”, deb jimlikni buzdi. Hammamiz akam ko‘rsatgan tomonga- shiftga qaradik, devorga yaqin to‘sin biqiniga qapishib qaldirg‘och qo‘nib turgan ekan! Ukam o‘zini tutolmadi.

- Ur-ee, qaldirg‘och! Deb ravonni boshiga ko‘tardi. Irg‘ib o‘rnidan turdi.

- O‘chir! –dedilar onam tahdidli tovushda, lekin ovozlarni balandlatmay”. [3. 284-bet].

Aynan mana shu jummalarni o‘zida adib qay darajada hikoyasida milliylik ruhidan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu mittigina jonzodning uyda hokim bo‘lgan sukunatni quvib solishi, bola uni ko‘rganda cheksiz baxtdanmi, hayajondanmi o‘zini tutolmay shovqin solgani va bunga qalbi mehr-shafqatga to‘la onaning bolani tartibga chaqirishi ham aslida qaldirg‘ochning azaldan-azal muqaddasligi, uni e‘zozlash esa xalq ongiga o‘chmas milliy urf-odat singari o‘rnashganini ko‘rish mumkin.

“- Qadriya!....

- Gapiraver!....

- Timga qaldirgoch kelganmikan?...

- Qaldirg'och shovqin- suronli joyni xushlamaydi.

-Yana qanday joylarni xushlamaydi?

- Bilasanmi, Fozil qaldirg'och bexosiyat xonadonlarga uya qurmaydi". [2. 285-bet].

Hikoyaning Qadriya va Fozilbek o'rtasida bo'lib o'tgan suhbatida sof do'stlikni ko'rish mumkin. Qadriyaning bor tuyg'ulari, uning o'zbek ayollariga xos iffati ham shu yo'sinda ko'rsatib berilgan.

Asarda Qadriyaning otasining afsusli, onasining esa alamli holatlari chin insoniylik ruhidan darak beradi.

"Mani uraqoling, adasi, roziman. O'ldiring. Faqat qaldirg'ochni iniga tega ko'rmang! Kasofati uradi, Baraka top....

- E, irim-siriming bilan qo'shmozor bo'la! "Yomon boladi, kasofati uradi"dan boshqa narsaga yetmaydi aqling!.." [2. 286-bet].

Ushbu jumalarda onaning cheksiz istiroblari o'z aksini topgan. Undagi insoniylik, mehr- shafqat tuyg'ulari otaga ta'sir qilmay qolmaydi, albatta. Afsuski, u vaqt tuzatib bo'lmas xatolikka qo'l urilib bo'lingandi. Ona bu holatdan shunchalik ta'silanadiki, uni adib yo'rgakdagi bolajoni yotgan uyga o't ketgan onaga o'xshatadi. Mana shu beozor onaning qo'llaridagi uyani esa payola sinig'iga qiyos etadi.

Yozuvchining mahoratini aynan shu jihatlarda ilg'ab olish mushkul emas. Onaning iztiroblari shu qadar kuchli ediki, u bir lahza hushidan ketish darajasiga boradi. Yozuvchi bu jarayonda to'laqonli otani ham ayb otiga o'tirg'izib qo'ymaydi.

"Shunda, dadamning tok zangini siqimlab tutgan qo'llariga ko'zimm tushdi. Zangini azbaroyi qattiq siqimlardiki, zangining qurigan po'sti uvalanib, uqalanib yerga to'kildi...va birdan dadamga qattiq achinib, ichim achishdi". [2. 289-bet]

Ushbu tasvir orqali adib chin insoniylik bilan birga shu vaqtdagi zamon, sharoitni ham keltirib o'tgan, desak xato bo'lmaydi. Qadriyanig hikoya jarayonida "Dadam bilan onam juda totuv yashashardi, faqat uyimizda biron

yig'inmi, to'ymi, umuman sarf- xarajat ko'paysa, bir ko'ngilxiralik chiqmay qolmasdi", degan so'zlaridan ham bilish qiyin emas. Ham jismoniy, ham ma'naviy tomondan kamchiliklar tufayli siqilgan inson, ko'pincha, o'zi nima qilayotganini anglashi birmuncha qiyin kechadi. Hammasi ravshanlashganda esa kech bo'ladi. Bu hikoyada ham adib qahramonlar holatini shunday tasvirlagan. Otaning ko'z o'ngi qilgan xato ishidan keyin tiniqlashadi, ammo buning oqibati farzandga tuhfa qilinishga ulgurgandi.

“Uch oy o'tar-o'tmas Zulfiya opam oilasi buzilib, uyimizga qaytib keldi”.
[2. 292-bet]

Xurshid Do'stmuhammadning bu kabi talqindagi asarlarini uning ijodida ko'plab uchratish mumkin. Shuning uchun ham yozuvchi el ardog'idagi ijodkordir.

Asarlarda mavjud milliy qadriyatlarimizga xos an`ana va e`zozda bo'lgan urf-odatlarini singdirishda yozuvchi hayotiy voqealarni asos qilaib oladi. Inson tafakkurida ayni shu haqiqatlarni shakllantirish baddiy adabiyot zimmasida ekan, mahoratli yozuvchilar asarlari doimo o'qiladi va yosh avlodga o'rgatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamova M. Istiqlol davri o'zbek qissalarining taraqqiyot tendensiyalari. f.f.n., dss.. – T. 2005. – b.
2. Do'stmuhammad X. Beozor qushning qarg'ishi. –T.:Sharq, 2006. – 512 b.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Fan, 2007. – 228.

ID-020-30-A008

Bunyodbek Niyozmetov

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

SAID AHMADNING “UFQ” TRILOGIYASIDA DAVR VA SHAXS TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakili Said Ahmad ijodiga mansub “Ufq” trilogiyasi tahlilga tortiladi. Maqolada “Ufq” trilogiyasiga berilgan e'tirof va asar yozilish uslubiga oid bir nechta fikrlar aytib o'tiladi. Ushbu maqolada, asosan, “Ufq” trilogiyasidagi davr va shaxs talqini tadqiq etiladi. Shuningdek, maqolada o'zbek otasi psixologiyasiga qisman to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *Said Ahmad, “Ufq” trilogiyasi, fojia, ota obrazi, sadoqat, g'urur*

Annotation. In this article analyzes the trilogy “Ufq” by Said Ahmad a great representative of Uzbek literature. Acknowledgement of the trilogy “Ufq” and several opinions about the writing style of the work are given in the article. In the article mainly analyzes period and human commentary in the “Ufq” trilogy. Also there are some parts of uzbek father in the article.

Keywords: *Said Ahmad, “Ufq” trilogy, tragedy, image of father, loyalty, pride*

XX asr o'zbek adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan Said Ahmad o'zbek xalqining nekbin tuyg'ularini, sodda donishmandligi-yu, bag'rikeng mehnatkashligini o'z asarlariga muhrlagan adib hisoblanadi. Said Ahmad merosining bezagi bo'lmish “Ufq” trilogiyasida Vatan urushining olovli yillarida o'zbek xalqining front orqasida ko'rsatgan metin irodasi, mehnat qahramonliklari personajlar misolida atroflicha hikoya qilingan. Ko'pchilik

munaqqidlar Said Ahmadning ushbu romanini yengil hikoya tarzida o'qiladigan asar sifatida baholab, bu yozuvchining yutug'i ekanligini e'tirof etishgan. Asarni mutolaa qilish jarayonida bunga o'zim ham guvoh bo'ldim, trilogiya salmoqli hajmga ega bo'lishiga qaramasdan bir ritmda o'qib tugatiladi. Atoqli adib Abdulla Qahhor o'zining "Ilhom va mahorat samarasi" deb nomlangan taqrizida ushbu asar haqida shunday ta'riflaydi: "Bu kitobni kitobxon boshdan oyoq shavq bilan hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost..." Haqiqatan, ushbu asarga berilgan eng yuksak baho shu bo'lsa kerak. Mutolaa davomida asardagi voqeliklarni men ham o'z "men"imdan o'tkazgandek bo'ldim, voqealar rivojida mehr va qahr tutashib yotganligini his etdim. Trilogiyada kechirim hissi qandaydir ramziylikka egadir, go'yo, darhaqiqat, gunohkorlik va kechirim bir-biriga chambarchas bog'lanib yotadigan tushunchalardir. Bu kechirim hissi otaning farzandga, farzandning otaga, onaning esa har qanday holatda ham jigarini suyishi va u qilgan nomaqbulchiliklariga ko'z yuma olishi kabi o'rinlarda ta'sirli gavdalantirilgan. Ushbu trilogiyada ota timsoliga alohida to'xtalib o'tilgan va bu orqali o'zbek otasi psixologiyasini qisman ko'rsatib bergan desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan: Ikromjon, Ummatali, Rayimberdi tog'a, Inoyat oqsoqol, Melivoy aka, Yunusali ota kabi ota personajlari orqali turli xil xarakterga ega bo'lgan ota timsolini ko'rish mumkin. Bu personajlar orasidagi Inoyat oqsoqol qolganlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu obrazni kuzatar ekansiz, unga qanday ta'rif berishga ham xayol surasiz va nahot ota o'z farzandiga shuni ravo ko'rish mumkin, akasining ayolini(Dildorni) ukasiga(Nizomjonga) mahram qilish niyati ila Dildorning sepini o'zlashtirishga urinishi naqadar jirkanchlik bo'lsa, Nizomjonning bunga qarshi chiqishi oqibatida uni oq qilish nihoyat darajada vahshiylikdir... Farzandini oq qildim deyish shunchalar yengil til uchida aytilsa... Bu obraz juda xasis, pul turganda farzandni ham besh pulga sotadigan xudbin sudxo'r kimsa, odamlar uni Inoyat oqsoqol emas, Jinoyat

oqsoqol deb to'g'ri ta'rif berishgan deb g'uboringiz biroz eriydi. Said Ahmad bu obrazi orqali o'zining satirik xarakter yaratish kuchini namoyon etganligini ko'rishimiz mumkin. Inoyat oqsoqolning bu qilmishlarini yozuvchining o'zi ham "ko'tarolmay" asarda unga og'ir qismat yozg'iradi. Qarigan chog'ida qamoqqa olinishi, farzandlari undan yuz o'girishi, aniqrog'i uning o'zi shunga majbur qilganligi hamda vafot etayotganda tavbasiga tayanmay, tili kalimaga kelmay to'rt soat nimadir deyishga chog'langani, lekin aytolmagani, jon berishi ham qiyin kechgani, yashab yashayolmay, o'lib o'lolmay jon holatida yotgani, janoza paytida uni qabrga qo'yishib ustiga tuproq tortayotganda kimdir marhum qanday odam edi, - deb so'raganda olomon bir nafas jim bo'lib qolgani, qabr sukunati ham bir bo'lgani, bu sukunat ham bir bo'lgani, oxiri kimdir past tovush bilan aytar-aytmas yaxshi odam edi, deb aytgani uning qismatidan darak beradi. Inoyat oqsoqol obrazini Balzakning "Gobsek" asaridagi Gobsekga mengzasak o'rinli, chunki Gobsek ham sudxo'r shaxs bo'lib oxirida to'plagan mol dunyosidan ham, oilasidan ham ayriladi.

Trilogiyadagi yolg'iz o'g'lining erkaliklari-yu, beparvoliklariga ko'z yumgan, asrab-avaylagan Ikromjon ota obrazi ham Said Ahmadning chinakam metin irodadek yaratgan xarakterli qahramonidir. Bu obrazni Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi Po'latjon otaga ham qisman bo'lsa-da, qiyoslash mumkin. To'g'ri, bu ikkala obrazning xarakter xususiyatlarini yozuvchilar turli uslubda zuhur etgan, ammo syujet qismati jihatidan mengzasa bo'ladi. "Ota" romani qahramoni Po'latjon ham yolg'iz farzandini, qizi Sevinchni Yaratgandan tilab-tilab, hayotning bir nechta qiyinchiliklarini yengib o'tib, otalik baxtiga muyassar bo'ladi. Ikkala asarda ham ota obrazlari orqali yolg'iz farzandlarini o'z qo'llari ila o'ldirish maqsadida qurol o'qtalib o'ldirishga urinish hollatlari uchraydi. Po'latjon yolg'iz qizini o'ldiradi g'ururi farzandidan ustun keladi, Ikromjonning esa otgan o'qi tegmaganidan xayriyat, tegmabdi deb qo'yadi. Ikkala tip ham o'z ayolini ardoqlaydi, sevadi, ishonadi, lekin Po'latjonning g'ururi, ori bu tuyg'ulardan-da kuchlilik qiladi. Qaysidir ma'noda Ikromjonning metin irodasini yozuvchining o'ziga ham mengzash mumkindek

go'yo. Chunki Said Ahmad ham hayot yo'lida iztirobli, fojiali holatlarni boshdan o'tkazgan, ularni metin irodasi ila yengib o'tgan. Bu fojiali kunlarni vafodor ayoli Saida Zununova bilan birga yengib o'tgan. Shunday ekan, Ikromjon ham vafodor ayoli Jannat xola bilan bu qiyinchiliklarni yengib o'tmadimi? Bir-biriga suyanchiq bo'lib, bir-biri uchun yashamadilarmi, ayniqsa, ikki o'rtada joni halak Jannat xola o'zini qurbon qilmadimi? Said Ahmad ham, Ikromjon ham o'zidan oldin vafot etgan ayollari uchun yashadi, ularning ruhi uchun irodasini egishmadi. Shu o'rinda bevosita asarni nomlanishini kuzatar ekanmiz:

-Ufq...

- Ketish...

Bu ketish – shunday ketish-ki, ortga yo'lni topolmaslik uchun bir ilinj...

Bu ketish – sog'inilish uchun bosilgan eng katta qadam...

Bu ketish – unutilish...

Bu ketish – hammasiga tupurish...

Bu ketish – hissizlikka cho'kmoqlik dardi...

Bu ketish – og'riqsizlik og'rig'i...

Bu ketish – oxiriga yetmay qolgan so'zlar faryodi, ohi...

Bu ketish – hammasiga qo'l silkish...

Bu ketish – Ufqqa qarab yo'l olish...

- Ketish...

- Ufq...

...men dardga chalinmayman. Men o'lmayman. Tirik bo'lsam yurib, yiqilsam emaklab, yotib qolsam surilib ho' o'sha ufqqa boraman. Ufqqa bormay o'lishim mumkin emas... o'lish oson, o'lib ketish oson. Yashash qiyin. O'lish nomardning ham qo'lidan keladi. Mard yashaydi...

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Said Ahmad "Ufq" trilogiyasi. – T.:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976
2. Ulug'bek Hamdam "Ota" romani.
2. www.ziyouz.com kutubxonasi

ID-020-30-A009

Ozoda Bozorboyeva

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi

Donogul Xo'janiyozova

Toshkent shahar Sergeli tumani 300-DIUM o'qituvchisi

“BOG'I ERAM” BEHADLIKLARI (ISAJON SULTON HIKOYASI MISOLIDA)

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'dodli yozuvchi Isajon Sultonning “Bog'i Eram” hikoyasi uning boshqa asarlari tahlili bilan muqoyasa qilingan holda tahlilga tortilgan. Tahlilda yozuvchining asarlaridagi ramzlar, qahramonlarning portreti va tabiat tasviri bilan uyg'unlashgan holatlarga o'qirman sifatida munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: *portret, pyezaj, mini-roman, vijdon, bolalik.*

Biz avval qalam ostiga olgan botish adabiyotining yorqin vakili Paulo Koeloning “Alkimyogar” romanida turli timsollar tahlili haqida so'z yuritgan edik. Jumladan, sahro, xazina va o'zlik tushunchalarining sharhlari ila roman mohiyatini kengroq anglagan edik. Endigi tadqiqotimiz chiqish adabiyotining namoyondalaridan Isajon Sultonning bir qator asarlariga bag'ishlanadi.

Adibning ko'plab hikoyalarini o'qir ekanman, bir narsaning guvohi bo'ldim. Insonni vijdoni bilan yolg'iz qolib, o'zini o'zi taftish qilishga, gunohlardan qaytarishga, eng muhimi, odamzot dunyoga kelishining asl sababini anglashga undovchi fikrlar Isajon Sultonning mittigina hikoyalarida jamlangan. Mumtoz adabiyotimizda balog'a usuli mavjud. Uning xususiyati shuki, yozilmishda kam so'z qo'llab, ko'p ma'no chiqarishdir. Isajon Sulton asarlaridan “Bog'i Eram” yoki “Qismat” hikoyalarini o'qir ekanmiz, shunga

amin bo‘lamiz: asar hajman kichik, lekin mazmunan va undagi pyezaj tasvirlaridan u yirik asarlar bilan tenglasha oladi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, o‘zbek adabiyotshunosligida janrni belgilashda asosiy tamoyil hajm emas! Fikrimning dalili sifatida adabiyotshunosligimizda shakliy yangilik bo‘lgan Ulug‘bek Hamdamning olti sahifadan iborat “Na‘matak” mini-romanini keltirib o‘tsam o‘rinli bo‘ladi, nazarimda.

Bizning e‘tiborimiz markazida turgan yozg‘uchimizning asarlariga kelsak, “Bog‘i Eram” asarining yozilish uslubi ham g‘aroyib. Ya‘ni uning o‘zi hikoya bo‘lsa ham o‘z ichiga yana uchta hikoyani jamlagan. Tarkibidagi birinchi hikoya “Qismat daraxti” deb nom olgan. Isajon Sultonning yana bir ajralib turuvchi o‘ziga xos jihati shundaki, u har bir asarining kirish qismini mohirona tabiat chizgilari ila boshlaydi va o‘qirman beixtiyor o‘zini ana shu manzara bag‘rida ko‘radi. Yana aytish joiz, asar tarkibidagi har bir hikoya beg‘ubor bolalik xotiralarini bekam-u ko‘st ko‘rsatadi.

Dastlabki hikoyada 7-8 yasharlik bola onasi yopib bergan kulchani ariqqa oqizayotgan paytda “ko‘chaning boshida, loysuvoq uyining oldida doim quyoshda isinib o‘tiradigan Xolmuhammad buva” uning yonidan o‘tayotib, unga termulib qoladi. Birozdan so‘ng cholning ko‘zlaridan yosh oqa boshlaydi. Negaki chol bu bolakayda o‘zining quvnoq bolaligini ko‘radi. Shirin xotiralar, ariqdagisuv kabi oqib o‘tgan umr... Bola esa hayron bo‘lib cholning yoniga bormoqchi bo‘ladi-yu, qo‘qqisdan ta‘rifiga til ojiz bo‘lgan bog‘da ko‘radi o‘zini. Ichkarida xuddi o‘ziga oxshash bir bolakay unga qarab kulganicha uni ichkariga imlaydi. Bu bog‘dagi qushlar sho‘x –shodon sayrar va suvlar sho‘x oqar, bari narsa zaminiy ko‘ringan esa-da, aslida samoviy ruhda edi. Bog‘da shoxlari bulutlar orasida ko‘zga ko‘rinmay ketgan, har zamonda barglari asta yer bag‘riga kirayogan yam-yashil daraxt bo‘lib, to‘kilayotgan bir barg nogahon bolakayning oyoq ostiga kelib qo‘nadi. Bola shunda bargda yozuv borligini sezadi va qo‘liga olib o‘qib ko‘rsa unda hozirgina ko‘rgani— Xolmuhammad buvaning ismi yozilgan bo‘ladi... Shu kuni oqshomda Xolmuhammad buva olamdan o‘tadi. Bundan ko‘rinadiki, bolakay ko‘rgan daraxt- asl qismat

daraxtidir. Kurtak tugib unib chiqqan burglar- dunyoga kelgan insonlar. Vaqti tugab yangi kurtaklarga o'rin berib, to'kilayotgan barglar umri oxirlab qolgan insonning qismati go'yo.

Bola umri davomida bu bog'ga to'rt marotaba duch keladi. Va har bir samoviy uchrashuv ko'rsatgan go'zalligi evaziga uning hayotidan bir insonni tanlab olaveradi. Ikkinchi marta bog'ni ko'rganida ilk marotaba uni kutib olgan bolakay ham endi ulg'aygan, qop-qora soqol –mo'ylovli darbon yigit bo'lgan edi, xuddi uning o'zi kabi. U bu galgi safarga qanchalik og'ir bo'lmasin o'z padari buzrukvorini kuzatadi...

Keying safar ham bu bog' uning eng yaqin do'stini bag'riga chorlaydi. Ammo na ilojki, bu ulug' qismat daraxti buyuk Bog'bon qo'li ila undirilgan. Hikoya ichidagi bu hikoya ila adib go'yo bir haqiqatni qayta eslatayotgandek. "... Biror yaproq uzilib tushsa ham bilur..." (An'om surasi, 59-oyat)

So'nggi da'fadagi uchrashuvda chek uning oziga chiqadi. Bog' ichkarisidagi bolakay ham endi qarib, soch-soqoli oppoq bir mo'ysafid bo'lgan edi. Bolaligida qay ajoyibotlar bilan ko'ringan bog' hamon o'sha sinoatlarini yo'qotmagani holda endi uning abadiy makoniga aylangan edi...

U umri davomida to'rt marotaba bu sirli bog'ga kirib, nega aynan sanab o'tilgan kishilarnigina ko'ra oldi?! Ehtimol, ularning tiriklik chog'larida ado etgan ezgu amallari hosilasi bo'lib esgan shamol ularning borajak manzillari sifatida shu bog'ni belgilagandir!Yoki uning hayotida eng qadrli va unga ibrat bo'la olgan insonlarning jannatliy ekanligi marhamat qilingan bo'lsa ajab emas!

Insoniyat qismati daraxtdagi bargga qiyos etilishi ko'pchilik adabiyot ixlosmandlariga ma'lum. G'azaliyot sultoni mir Alisher Navoiy bobomiz "Qilg'il" g'azalida keltirib o'tganlaridek:

Xazon sipohig'a, ey bog'bon emas mone' Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Bog'bon o'z bog'ini hatto uning tomiga ignadan tikan qilib o'rab chiqsa ham, tabiat qonuni bo'lmish "xazon lashkari"dan, ya'ni fano vaqti yaqinlashgach, tashrif buyuruvchi o'limdan asray olmasligi ta'kidlanadi ushbu

shohbaytda. Yuqoridagi hikoyada ham yozuvchi ma'lum o'xshatishdan go'zal ifoda yasay olganiga yana bir bora amin bo'lamiz. Asar tarkibidagi ikkinchi hikoya birinchisidan xotima jihati bilan ozroq farq qiladi, nazarimda. Bunda pokiza bolalik onlaridagi hayajon va umrining nihoyasida nadomat qurshovida qolgan kishining qismati haqida so'z boradi. Isajon Sultonning kitobxonni asariga ipsiz bog'laydigan yana bir jihati shuki, u tabiatning manzara tasviri bilan asar qahramonining taqdir yo'llarini parallel olib boradi. Ushbu hikoyada ham buning guvohi bo'lamiz. Hikoyaning bosh qahramoni Abduqodir va avliyo ota hayotlari davomida ikki marotaba uchrashadilar. Xudo yarlaqagan avliyo ota boriga shukr va ibodat qilib tog' bag'ridagi bir kulbada umr kechiradi. Bolaligida Abduqodirning bobosi uni avliyo otaning huzuriga olib borib, nabirasining haqqiga duo qilishini so'raydi. Shunda avliyo ota hali yaxshi-yu yomoni, oq-u qorani farqiga bormagan bolajonni yoniga chaqiradi va qo'llarini uning boshiga qo'yib, ko'zlarini yumishni buyuradi. Bolakay ko'zlarini yumib ko'rsaki, birinchi hikoyada ham nomi keltirilgan bog'da ko'radi o'zini. Ne bog'ki go'zalligi va farovonligiga ta'rif yo'q. Uning har yer-har yerida nurga burkangan odamlar, bir tarafda esa havoda hilpirab uchib yurgan parilar ko'rinardi. Bola ko'zlarini ochganda esa avliyo otaning nurli chehrasini ko'radi. Shunda avliyo ota bola ko'rgan go'zal saltanat jannatning Bog'i Erami ekanini aytadi. Ana shu paytdagi tabiat chizgilariga e'tibor bersak. "Avliyota tog'ining cho'qqilari tomondan sovuq shabada esayotgandi. U odamning etini junjiktirsa-da, biroq qaydadir muzlagan toshlarni yorib chiqqan boychechak iforini olib kelib dimoqqa tutar, kishining ko'ngliga toza hislarni solar edi ". Insonga umid baxsh etuvchi ushbu tasvirlar bilan bolakayning nurli kelajagiga ishora etilmoqda. Hali gardaniga gunoh yukini olmagan bu bolaga dargohi jannatning ko'rsatilishi bejiz emas. Lekin kishi hayoti davomida qilgan amallari ila borar yo'lini belgilab boraveradi. Bola ulg'ayadi... Vaqt o'tib ajal darvozasini taqillatib turgan chog'da bolalik paytda ko'rgan o'sha samovoti oliyni qayta ko'rish ilinjida avliyo ota huzuriga yo'l oladi. Pokiza bolalikda ko'rganlari endi ham unga nasib qilarmikin?! Tarozu pallasini hali ham shu bog'ga eltuvchi

poklik bosib turibdimikin?! Avliyo ota og'ir tin oladi va qo'llarini uning boshiga qo'ygancha, ko'zlarini yumishni buyuradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, bolalikdagigo'zallikdan asar ham yo'q! Uning o'rnini endi qahraton qish qoplagan. Qish, izg'irinda yolg'izgina qabr bor edi xolos! Shu o'rindagi bog' tasvirida yozg'uchi ziddiy bir ibora qo'llaganining guvohi bo'lamiz:

“... jahannamiy sovuq chor tarafni yax kabi qotirgan edi...” deyiladi asarda. Aslida, jahannam deyilganda misli ko'rilmagan darajadagi issiqlik nazarda tutiladi. Lekin bu o'rinda sovuqni ifodalash uchun jahannam so'zining berilishi biroz o'yg'a toldiradi, albatta. Fikri ojizimcha, jahannam nihoyatda og'ir azob beruvchi makon bo'lgani uchun ham qattiq azobli sovuqni ifodalash uchun ushbu ibora qo'llangan. Yolg'iz qabr-chi? Balki bu uning o'ziga ishoradir! Zeroki, insonnig qilgan oshkor va yashirin ishlari ham yolg'iz Yaratganga ayonligi holda uning borajak yo'li ko'rsatilgandir?! Balki, umri davomida shu qadar sovuq ishlar qilgandirki, shuning uchun ham mana shu “maqom” bilan “siylanayotgandir”?! Ijodkor bu o'rinda ham tabiat chizgilarini qahramon taqdiriga juda chiroyli bog'laydi: “... kech kuz shamoligina kulba eshigiga guvillab o'zini urib o'ynar, bu ikki kishini uzoq-uzoqlarga olib ketmoqchiday epkin urar, biroq endi u boychechak iforini taratmas edi...” endigi tasvirda hikoya boshidagi jonbaxsh tuyg'ularning mutloq aksini ko'ramiz. Ushbu hikoyaning kirish va xotima qismidagi o'zaro zid ko'rinishlarda yana bir narsaga ishora bordek go'yo. Insonilohiy poklik bilan dunyoga keladi. Ammo qay tarzda dunyoni tark etishi uning faqat va faqat o'ziga bog'liq.

Asar tarkibidagi uchinchi hikoya nomi esa asar nomi bilan bir xil va to'laqonli mohiyat ham aynan shu qismda ochib berilgan. Bu hikoyada navmidlikning yana bir xotiralaridan parcha keltiriladi. Qabriston tasviri ila boshlangan bu hikoyada bolakayning kechinmalari juda ta'sirli ifodalangan. Aslida bu bir bog' bo'lib, uning orqa tarafi qabristonga tutashib ketgan edi. Bu qabristonning biz biladiganlaridan farqi shunda ediki, unda har bir qabrning o'z daraxti boredi. Mozorga kiraverishdagi qabrlarning daraxtlari hali nihol bo'lib, ichkarilab borgan sari daraxtlar qalinlashib boraverardi. Go'yo har bir

daraxt o'z egasining umrini so'zlayotgandek. Daraxtlarning turi ham har xil edi. Shu o'rinda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Xoja Maoz qabristoni yodimga tushadi. Kumushning qabri tepasida ham chinor tasviri berilgan edi. Demak bu ikki asarnig mazmunan o'xshash jihatlari ham bor ekan! "O'tkan kunlar"dagi qabr va chinor obrazlari Otabek uchun Kumushning nomi va yodi barhayot ekanligini anglatga, hikoyadagi qabr va daraxtlar insonning o'zidan keyin qoldiradigan yaxshi-yu yomon ishlari namunasi! Kimning daraxti qanday bo'lishi esa uning hayotlik chog'larida qilgan amallariga bog'liq, albatta!

Ushbu hikoyadan anglashiladiki inson, avvalo, bu foniy dunyo bir imtihon ekanini anglashi uchun unga turli sinovlar yuboriladi. U xoh xursanchilik korinishida bo'lsin, xoh qayg'u. Ammo odamzotga berilgan tortiqlarning eng totlisi bu –bolalik! Bolalikdagi sho'xlik, o'yinqaroqlik, osmon qadar orzular... bularning zavqi bo'lakcha. Bolalikda qorboboga ishonadi, qanot qoqib ucha oladi kishi, lekin fursat o'tgach bu soflik, bu beg'uborlik tashlab ketiladi. Shuning uchun ham yozuvchimiz barcha hikoyaning kirish qismini bolalik xotiralarini bola tilidan bayon etgan, menimcha. Muallif bolalikni Iskandar devoir ila o'ralgan mitti dunyoga qiyos etadi. Chunki Iskandar Zulqarnayn bir shahar aholisini noma'lum yovlardan himoya qilish uchun mustahkam devor qurdiradi. Hozirgacha ushbu devor saqlanib qolgan deyiladi faktlarda. Bola dunyosini bu devor bilan o'ralgan deyilishiga sabab ham uning turli g'arazliklardan, nopokliklardan holi ekanligidir! Ijodkorning asl maqsadi va tilagi esa ana shu murg'aklikdagi soflikni umrining so'ngigacha asrab qola olish. Yuzlab hikoyalari orqali qalblarni zabt etgan Isajon Sultonning ushbu hikoyasi ham boshqalari singari insonning o'zini taftish qilishga bir turtki bo'lishiga aminman!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isajon Sulton hikoyalar to'plami.
2. Qozoqboy Yo'ldoshev. Roman va bugungi o'zbek romanchiligi maqolasi.
3. Nazar Eshonqulov. Ijod falsafasi.

ID-020-30-A010

Shahzod Jo'rayev

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi

CHINGIZ AYTMATOV VA GLOBAL MUAMMOLAR TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur adib Chingiz Aytmatov asarlaridagi global muammolarning badiiy talqini qalamga olingan. Adibning bir nechta asaridagi muammolar umumjahon adabiy jarayoni miqyosida o'rganilgan. Yer yuzida vujudga kelgan global muammolar oldida adabiyotning javobgarlarigi tahlil qilingan. Insoniyat tarixidan to bugunigacha vujudga kelgan muammolar mushohada qilinib, ularga yechim izlangan. Yuritilgan mulohaza va fikrlar olim va taniqli yozuvchilar to'xtalgan xulosalar bilan asoslab berilgan. Ta'kidlab o'tilgan muammolar ichida moddiy va ma'naviy xavflar borasidagi qarashlar umumlashtirilib, ularga atroflicha yechim izlangan. O'quvchi va kitobxonlar uchun adabiyotni niqob qilib kirib kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Chingiz Aytmatov, asarlari, global muammolar, badiiy talqin, insoniyat tarixi, qadryatlar.*

Annotation. In this article, the artistic interpretation of the global problems in the works of the famous writer Chingiz Aytmatov is drawn in pencil. The problems in several works of writer were studied on the scale of the Universal literary process. The article compares ideologically common characters. The responsibility of literature in the face of global problems arising on Earth is analyzed. Problems that have arisen from the history of mankind to the present day have been observed and solutions have been sought. The opinions expressed are based on the conclusions of scholars and well-known writers. Among the problems mentioned, the views on material and moral risks are generalized and a comprehensive solution is sought. The dangers for the reader through the mask of literature are describe.

Keywords: *Ginghis Aytmatov, works, global problems, artistic interpretation, history of humanity, traditions.*

Yillar o'tgan sari zamon va davr takomillashib boradi. Insoniyatning cheksiz qiziqishlari uni beqiyos imkoniyatlar sari yetaklaydi. "Har zamonga, bir zamon", – degan naqlni odatda keksalar tilidan eshitamiz. Katta hayot tajribasi berayotgan ushbu xulosada jon bor. Zero, davr o'zgargani, takomillashgani sari insoniyatning qudrati oshib bora yotgan bo'lsa-da, uni tashvishga sola yotgan jiddiy muammolar ham yo'q emas. Insoniyat katta rivojlanish davri, texnika asriga XVIII asrda qadam qo'ygandan buyon uni o'ylantiruvchi muammolar ham u bilan barobar odimlamoqda. Tabiat insoniyatning to'la hukmronligiga bir qarashda sokin bo'yunsunayotgandek ko'rinsa ham, zimdan uning ko'rsatayotgan qarshiligi turli tabiiy ofatlar sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Nafaqat tabiat, balki insoniyatning o'zi ham o'zi uchun yetarlicha tashvish orttirayotganiga, yer yuzining insonparvarlik ruhida to'la-to'kis birlasha olmayotganiga birgina XX asrning o'zi guvoh. Bashariyat boshida yetilgan global muammolar yetarlicha va ular botinan kuch to'playotgandek go'yo. Biz global muammo deganda nimani tushunamiz? Keling, bu atamaga dastlab aniq fan tilida yondashsak :

Global muammolar – umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari. Jumladan jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun osoyishtalikni ta'minlash, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish, rivojlana yotgan davlatlarda aholining tez sur'atlarda ko'payib borishini tartibga solish, atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi kurashish, insoniyatga kerakli resurslar – oziq ovqat, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo'l qo'ymaslik kabilar kiradi.

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy hol, albatta. Xo'sh, global muammolar va adabiyot o'rtasida qanday bog'liqlik bo'lishi mumkin? Adabiyotda ham global muammolarning o'rni bormi? Shu savollarga javob izlasak.

Adabiyot azaldan insoniyatning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulariga ta'sir qilish barobarida faol jamoatchilik bilan yelkadosh bo'lib, insoniyat uchun xavf qo'ng'iroqchisi vazifasida ham yetakchi bo'lgan. Jamiyat negizini tashkil etuvchi ziyolilar qatlami ichida adiblar ham mavjud va ular o'z asarlari orqali har qanday fojeani oldindan aniq ko'rishlari, uni badiiy vositalar orqali kitobxonga yanada teranroq fikr bilan yetkazishlari mumkin. Masalan, jahon adabiyotining yirik vakili Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" romanini olaylik[3]. Bir qarashda manqurtlik, o'z an'ana va urf-odatlaridan voz kechgan bir qator obrazlar tasviri fonida katta muammolar yastanib yotibdi. Asar bosh qahramonlari bo'lmish Edigeyning bolaligi Orol dengizi bo'ylarida kechgan. Umrining katta qismi esa Sario'zak sahrosida o'tadi. Uning yelkadosh do'sti Kazangap vafotidan bir necha oy muqaddam do'sti bilan Orolni ko'rishga borishadi: «Borishmagani ma'qul ekan, borarga borishdi-yu xafa bo'lib qaytib kelishdi. Dengiz suvi tortilib, tobora kamayib ketibdi. Dengiz yoqalab, sog' tuproqli taqir yo'l bo'ylab o'n chaqirimcha yo'l yurishganidan so'ng arang suvga yaqinlashib borishdi. O'shanda Kazangap: "Orol dunyo turguncha turar edi, endi mana shu dengiz ham quriyapdi, odam umrini aytmasa ham bo'ladi", – degan edi"[3, 56]. Orol fojeasining salmog'ini bilish uchun faktlarga quloq solishning o'zi yetarli. Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik siyosati davrida sug'orish ishlarining me'yoridan oshishi, cho'l-u biyobonlarni ham hosildor yerga aylantirishni ko'zlab qilingan amallar natijasida Orol dengizining 40 000 km² maydoni butunlay qurib qoldi. Yuqorida asar qahramoni ta'biri bilan aytilganda dunyo turguncha turadigan dengizning umriga insoniyatning o'zi zomin bo'ldi. Adib Chingiz Aytmatov bu hodisani ancha ilgariroq payqagan va durdona asarida o'z o'rnidan bebahra qolgan Orol uchun joy bergandek. Muxtor Shoxonov bilan hammualliflikda yozilgan "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori" asaridagi esdaliklarida adib Qizil O'rdada Orol fojeasi muhokamasiga bag'ishlangan anjumanda so'zga chiqqanini xotirlaydi. Haqgo'y ijodkor hech kimdan tortinmaydi va «betga aytilgan achchiq haqiqatni ko'pchilik hukmdorlar yoqtirishmaydi" deya ilova qiladi so'zi boshida. [9, 125]

“Asrga tatigulik kun” asariga yana qaytamiz. Asar voqealari rivojidan tushunish mumkin-ki, Edigey bir umr o‘zi tug‘ilib o‘sgan Orol bo‘ylariga qaytishni bir umr orzu qildi. Odam o‘z Vatanidan ortiq yana nimaga bundan ziyod talpinishi mumkin. Muallif Chingiz Aytmatov bu asarni o‘tgan asrning 79-80-yillarida yozganini hisobga olsak, Markziy Osiyo davlatlari bu paytda dengizning qurishiga unchalik katta e‘tibor qaratishmayotgandi. Aytmatov xavfni ancha ilgariroq payqagan. Edigey asarda Orolga o‘z taqdirini bog‘lagan butun bir xalqning umumlashma obrazi. Edigey barobarida Oroidan ayrilgan, uning sershovqin qirg‘oqlarini sog‘ingan millionlab insonlar taqdiri birlashgan. “Orol dunyodagi eng yosh cho‘l” degan xulosaga kelingan bir paytda, Edigey ham butun umrini sahroda o‘tkazgani yodimizga tushadi. Shundan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, endi Oroidan ayrilgan, uni vaqtida qadrlamagan xalq usiz yashashga mahkum. Vaholanki, bu Orolbo‘yi xalqlari uchun juda qimmatga tushmoqda. Sahrodan chang bo‘lib ko‘tarilgan tuzlar natijasida insonlar sog‘ligiga benihoya katta xavf tug‘ilgan. Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamolning «Asr bilan vidolashuv» she‘ridagi quyidagi misralarni keltirish o‘rinli bo‘ladi:

“Bardosh berolmadi, quridi butkul
Peshonangga bitgan bitta dengizing,
Orol qulligimiz qurboni bo‘ldi,
Olam bu shikvaning hayroni bo‘ldi...” [2, 98]

Chingiz Aytmatov o‘z asarida Orol fojeasi bilan bog‘liq yana bir ko‘rgulikka nazar tashlagan. Shu masalani ko‘rib chiqsak. Edigey Bo‘ron va Kazangap kimsasiz cho‘lda, insonlardan ancha yiroqda yashashardi. Lekin bu ikki obraz ota-bobolar urf-odatiga nihoyatda sadoqatli insonlar timsoli. Ammo Bo‘ronlida yashovchi qolgan aholining o‘z urf-odatlaridan naqadar yiroq ekanligini a‘zaga kelgach ota vasiyatini amalga oshirishdan bo‘yin tovlagan Sobitjon, bundan tashqari marhum ruhiga bag‘ishlab tilovat qilish ham qo‘lidan kelmaydigan ovuldoshlar sifatlaridan payqash qiyin emas. Kazangapning dafn marosimi bilan bir sur‘atda tasvirlangan Nevada va Sario‘zakdagi

kosmodromlar mavzusini olaylik. Tog'ri, ular adibning ijod mahsuli sifatida dunyoga kelgan va moddiy hayotda mavjud emas. Biroq samoviy sayohat va yerdagi ikkovlon taqdirida allanechuk o'xshashliklar borday. Eslang, To'qaytosh deb atalgan sayyoriga Yerdagi markazdan beso'roq jo'nagan ikki kosmanavt o'zga sayyordan aloqaga chiqqanlarida umumbashariy ezgu g'oyani ko'zlashgan edi. Sayyorani saqlab qolish, insoniyatni ro'y berishi mumkin bo'lgan xatarlardan saqlash! Ammo Yerliklar bu murojaatni rad etishdi. Fazogirlar bilan aloqa uzildi va ular To'qaytoshda qolib ketishdi, maqsadlar, insonparvar amallarga bo'lgan xohish ham ular bilan birga o'zga sayyorada qolib ketdi. Aslida To'qaytosh ham Yer kabi rivojlangan, ammo sayyora ichidan nurab borayotgan edi. Vaholanki o'zga sayyora timsolida adib bo'lajak Yerni ko'radi va undagi fojeani taxmin qiladi. Endi o'ylab ko'ring, o'zining necha yillar davomida saqlanib kelgan urf-odatlariga, an'analariga begona bo'lgan Sobitjon va boshqa ovuldoshlari ham ezgulikni rad etgan Yerliklar timsoli emasmi?! Edigey va Kazangap ota-bobolar izini tutgan, insoniylikni mash'al qilgan so'nggi avlod, To'qaytosh kabi Yerliklardan ancha olisdagi Sario'zakda qolib ketishdi. G'ayrizaminiy hayot mavjudligini yashirishga tirishgan amaldorlar, xuddi marhumning so'nggi vasiyatiga binoan o'tkazilayotgan marosim uchun ham yo'lni ochib bermagan Tansiqboyev kabilar, insoniyatning faqat o'z manfaatlarini o'ylab yashovchi qismi. O'lsa dafn amallarini kim to'kis bajarishidan g'am yeyayotgan Edigey timsolida qadryatlarini unutib, ko'r-ko'rona kimgadir ergashayotgan, Jamol Kamol ta'biri bilan aytsak "qul" bo'layotganlarni o'ylasak, tarix va o'tmishga dahldorlik hissi naqadar muhimligini tushunib yetamiz. Axir asrlar davomida to'plangan urf-odatlarining unutilishi, unga loqaydlik bilan qaralishi ham global muammo emasmi?! Biz odatda, global muammo sifatida moddiyatni tushunib o'rganganmiz. Lekin ma'naviy yo'qotish oqibatida keladigan fojealarning ko'lami ham global muammoning boshqa tarmoqdagi turlari bilan teng ravishda zarar yetkazadi. Asardagi manqurt – Jo'lomon haqidagi afsonani eslang. Uning o'z volidasining qotiliga aylanishiga nima sabab bo'lgan edi?

O'zligidan ayrilishi! Adib bu o'zinda o'z xotirasini, tarixini, o'tmishini unutgan odam o'z onasinining qotili darajasidagi johilga aylanadi demoqchi.

Bu voqealarning barcha-barchasining boisi loqaydlik, nazarimda. Qoya tomon ildamlayotgan kemadagi yo'lovchining boshqaruvi o'z qo'lida bo'lmas ekan, yakundan halokatdan qochib qutilmoqlikning iloji yo'q. Taniqli jahon adibi Yulian Semyonov o'zining "Bahorning o'n yetti lahzasi" asarida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: «Xoinlik daxshatdir, ammo xoinlik ham qotillik ham qanday sodir bo'la yotganini befarq kuzatib turish undan ham battar dahshatlidir.» [10. 89] Ushbu asar syujeti XX asrda insoniyat boshiga katta kulfatlar yog'dirgan fashizm bilan bog'liq. Ikkita jahon urushi bilan ham tiyilmagan bu ofat, bugungi kunda gohida terrorizm, gohida yana qandaydir yovuz kuch sifatida namoyon bo'lishiga guvohmiz. Adib nigohida hukumat a'zolarining ma'naviy jihatdan naqadar qashshoqligi kitobxonni larzaga soladi. "Asrga tatigulik kun" romanidagi Sobitjonning radioaloqa bilan boshqariladigan odamlar haqida qilgan bashorati aslida ancha oldin amalga oshib bo'lgan edi. Ammo buning uchun insonga radioaloqaning hojati bo'lmagan. Ma'naviy jihatdan tobelikning o'zi ham kifoya qilgan bunga. Ko'r-ko'rona to'qilgan shior-u aqidaga ishongan fashistlar dunyo xalqlari boshiga ulkan talofotlarni yetaklab keldi. Bundan kelib chiqib aytish mumkin-ki, ma'naviyat tubanlikka yuz tutsa, bu ham benihoya katta global muammoga aylanishi turgan gap. Chingiz Aytmatov ta'kidlaganidek: "Boshimizga yog'ilishi mumkin bo'lgan misli ko'rilmagan halokat – bu faqat atom, issiqlik quvvati kabi insonni (balki, jamiki tiriklikni) Yer yuzidan jismonan yo'qotib yuradigan xatargina emas, ayni chog'da insoniyatning ichidagi insoniylikni tag-tomiri bilan mahv etib yuborishga qodir bo'lgan daxshatli halokat ham ro'y berishi mumkin. Bu degani – inson asil inson bo'lolmadi demakdir".[9. 66]

Soljenetsin o'zining "GULAG – arxipelagi" asarida ta'kidlashicha, 1953-yilga kelib sobiq tuzum ixiyoridagi 12 million mahbus sanoat rivojlanishiga jalb etilgan[8, 134]. Bu aholining soni jihatidan o'rtacha Yevropa davlati aholi soniga to'g'ri kelardi. U mamlakatni xom ashyoning hamma zarur turlari bilan

ta'minlab turardi. Ta'minlab turganda ham tekin ta'minlardi. Millionlab begunoh qamalgan insonlar taqdiri mana shunday qismatga mahkum bo'lganiga aql bovar qilmaydi. Ongli mavjudotdan, uning mehnatiga haq to'lamay foydalanishning bundan yaxshi usulini topib ko'ringchi! Tarixiy asarlardan ma'lumki, mana shunday qora mehnat orqasidan orttirilgan boylik ham ezgu maqsadlar yo'lida sarf etilmagan, albatta.

Igor Bunichning sotsializmning 74 yillik chirkin hayoti to'la yoritilgan «Partiyaning oltinlari» asaridagi quyidagi parcha e'tiborni tortadi: «Urush vaqtida olamshumul operatsiyalarni o'tkazib mazaxo'rak bo'lib qolgan Amerika generallari og'zidan ko'pik sachratib, hukumatlariga SSSRning "jilovini tortib qo'yish" zarurligini isbot qila boshladilar. Hozircha atom quroli faqat Amerikada bor, shunday ekan, uni darhol SSSRga qarshi qo'llamoq kerak. Atom quroli tevaragida josuslik mojarosi qorong'u, atom sirlarini izlagan sovet josuslarining hammasi amerikaliklarga oshkor bo'lgan ekan, ularning ishi nima bilan tugashini kutib, anchagacha hech kimga tegmaganlar. Faqat sobiq ittifoq o'zida atom bombasi bor ekani haqida rasmiy axborot e'lon qilinganidan keyingina kutilmaganda hammalarini qamoqqa olishdi" [5, 166]. E'tibor bering dunyo hukmronligiga intilgan ikki davlat qaysi masalada bir-biri bilan "kim o'zarga musobaqasi"ni o'ynashmoqda. Atom qanday talofatlar keltirishiga Yaponiya xalqi orqali butun jahon amin bo'ldi. Xirosima va Nagasakida uyishtirilgan mash-mashalar Amerikalik demokratlarning o'z quollarini sinash benefisiga aylanib ketdi. Oqibatda millionlab insonlar jabrlanishdi, bu hududlarda hozirga qadar ekologik muammolar aql bovar qilmas darajada. Endi o'ylab ko'ring, hozir bu davlatlar qo'lida inson sivilizatsiyasini bir necha marta tugatishga qodir bo'lgan yadro qurollari mavjud. Yangi kelib chiquvchi ixtiloflar salomog'i naqadar katta ekanligini tasavvur qilishning o'zi dahshatli. Inson o'zining ildiziga bolta uruvchi dahshatli qurollarga ega bo'lish uchun kurasha yotgani naqadar ayanchli holat. Bu masala o'tgan asrning oxirida yumshaganiga qaramasdan, bugungi kunga kelib yana hadiksirashga majbur eta yotgani bor gap. "Partiyaning oltinlari" asarida: "Ko'pchilik Stalin urushdan

keyin ashaddiy urushqoq bo'lib qolgan deb o'ylaydi. Kunlarning birida Garriman unga «Ovrupadagi eng qudratli davlat Vatikandir» degan ekan, Stalin istehzo bilan jilmayib undan so'rabdi: «Vatikanning qancha tank diviziyasi bor?» Shundan bir taassurot tug'iladiki, butun dunyoga hukmdor bo'lish dardiga yo'liqqan Stalin chindan ham mamlakatlarning quvvati va ta'sirini faqat tanklar-u boshqa qurollar miqdori bilan hisoblardi" [5, 167]. Hukmdor, davlat rahbari lavozimidagi bunday insonning Chingiz Aytmatov asarlarida hikoya qilingan manqurtlardan iborat iborat kuchga egalik qilishi haqida o'ylab ko'ring. Adib ayan shundan xavfsiragani tabiiy. Holbuki, sobiq ittifoq olib borgan siyosat insonlarni faqat o'z xotirasidan ayirmadi xolos. Manqurtga berilishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday azob, sovet fuqarosining boshiga tushishi muqarrar edi: majburiy mehnat qilish, erkin fikrlay olmaslik, o'z urf-dat va an'analarini unutish va ilohiy qudratni aynan hokimiyat tepasidagi hukmdori timsolida tasavvur qilish! Sobiq ittifoq ixtiyorida dunyoning 15 ta respublikasi bo'lgani, yer yuzida unga xayrixoh boshqa davlatlar ham mavjud bo'lganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu soha ham XX asrda vahimaga solgan global muammo bilan yuzma-yuz qiladi bizni. "Asrga tatigulik kun" romanidagi ziyoli inson Abutolib taqdiri bilan bog'liq quyidagi lavhaga e'tibor qarataylik. U bilan bog'liq tergov jarayonida: "Esingda bo'lmasa, mana! – chag'irko'z qog'ozlar orasidan daftar varag'ini izlab topdi-da, – mana dastlabki so'zlar, – dedi. Varaqda bola qo'li bilan yozilgan «bizning uy» degan so'z bor edi. – Ko'ryapsanmi, bolaning yozgan birinchi so'zini? Nima uchun «bizning g'alaba deb yozdirmagan? Hozir bolalarning birinchi navbatda aytadigani qaysi so'z bo'lishi kerak, qani ayt-chi? "Bizning g'alaba" degan so'z bo'lishi kerak. Shunday emasmi?" [3, 232] Bir qarashda kulgili holat! Vatan uchun jang qilib, yurtiga qaytganda halovat topolmaydigan Abutolib kabi ziyoli insonga taqalayotgan bu aylblov, xuddi gard topib bo'lmas joydan kir axtarishdek telbanamo vasvasaga o'xshaydi. Boshqachasiga ayblab bo'lmas edi uni. Lekin ishni shundoq tashlab qo'yolmagan «manqurt" tergovchi baribir maqsadiga erishadi. Uning ham xuddi manqurt kabi xojasining ko'rsatmalariga sadoqati kuchli. Taassufki,

sadoqat tuyg'usi qanchalik yuksak maqomda ko'rilmasin, uning ham baqamti turlari yetarlicha. Ozod Sharofiddinov: "Sadoqat deganlari juda yaxshi fazilat, ammo u ko'r-ko'rona, aql o'txonalarida toblanmagan bo'lsa, fazilat deb atash qiyin. Bunday fazilat faqat kulfat keltirishi mumkin", – degan edi[6,3]. Asardagi hatti-harakatlari bilan Jo'lomoni eslatib yuboradigan Tansiqboyev obrazi olaroq umumittifoqning boshida turgan hokimiyat xastaligini namoyon etmoqda, o'zining avlodlariga ma'rifat ilingan ziyoli Abutolib Quttiboyev esa mamlakatdagi ziyoli qatlam ifodasi sifatida maydonga kelgan, uning halokati ro'yi-rost tasvirlangan.

«Yevropa barcha iblislarning onasidir» deb yozgan edi K.Yung. Manqurtlikning turfa xil ko'rinishlaridan Yevropa ham xoli emas. Uzoq Afrika changalzorlari to'g'risidagi bir voqea "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori" asarida yoritilgan[9.76]. Unda Afrikalik qabilalardan biriga mansub yigit kunlardan bir kuni vafot etgan akasini tirik holda uchratib qoladi. Uning oldiga borganida, akasining ko'zlari ma'nosiz ekanini, ukasini eslolmayotgini payqaydi. Dorilbaqoga rihlat qilgan akaning qabriga borib tekshirib ko'rishganida qabr bo'sh ekanligiga guvoh bo'ladi. Olimlar va davlat tomonidan belgilangan maxsus komissiya a'zolarining olib borgan izlanishlari natijasida ma'lum bo'ladiki, Afrika qabilalari orasida ham tirik insonni manqurtga aylantirish va uning tekin ishchi kuchidan foydalanishga qaratilgan g'arazli odatlar shakllangan. Samara berishi aniq bo'lgan tajriba o'tkazish uchun oldindan jismonan baquvvat yigitlar tanlab olinadi. Qabila a'zolari bu yerliklarga yaxshi tanish bo'lgan suv havzalaridan ikki tishli zaharli baliqlarni ovlashib, uning yelkasidagi qanotini kesib olishadi. Uni ovqatga qo'shib pishiradilar, so'ng tanlab qo'yilgan nomzodga yedirishadi. Bu ovqat nafas yo'llarini falaj qilib, bevaqt o'limga sababchi bo'ladi. Qabila a'zolari marhumni qabrdan kavlab olishib, o'rmondagi ovloq chakalakzorga eltadilar, faqat ma'lum doiradagi odamlarga ayon bo'lgan giyohlardan tayyorlangan dori-darmonlardan foydalanadilar. Qisqasi, ertasi kuni marhumga jon kiradi. Marhum xuddi oldingiday soppa-sog', baquvvat holatida tiriladi, lekin o'z

ismini ham, nasl-nasabini ham butunlay unutadi. Chingiz Aytmatov mana shunday hodisalarni ko'z oldiga keltirar ekan: «Zamindan mahrum qilish mumkin, boylikdan mahrum qilish mumkin, hayotdan ham mahrum qilish mumkin. Lekin, inson xotirasiga tajovuz qilish mumkin degan gapni kim o'ylab topdi?! O'-o', Xudoyim, bir-u borim o'zingsan, netib odamlar ko'ngliga bunday baloni solding? Axir, olamda bundan boshqa yovuzlik ham tiqilib yotibdi-ku?!», – degan edi[9,65]. Texnika rivojlangan sari har qanday masalaning zamonaviy yechimi topilmoqda. Binobarin, bunday taraqqiyotni faqat ezgulikka xizmat qiladi deyilsa, yanglishilgan bo'ladi. Sababi sobiq ittifoqning negizi bo'lgan maxfiy xizmat ixiyorida odamlarni zombiga aylantirib qo'yadigan maxsus apparat va uzoqdan boshqariladigan qurilma borligi to'g'risida gap-so'zlar bor. Keyinchalik bir nechta taniqli nashrlarda ruhiyatga ta'sir o'tkazadigan qurol ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lgan va inson aql-idrokini boshqarishga mo'ljallangan tadqiqotlar o'tkazadigan maxsus-maxfiy markaz Moskvaning o'zida borligi dalil-isbotlar bilan fosh etilgan. Yozuvchi o'z asarida manqurt obraziga alohida e'tibor bergani endi ajablantirmaydi bizni. Boisi inson ongiga qaratilgan hujum ochiqchasiga katta davrada allaqachon boshlangan va uning qo'rqinchli oqibatlari ham endi ko'pchilikka ma'lum. Shu o'rinda «Asrga tatigulik kun» romanidagi To'qaytosh sayyorasidan Yerni ajratib turuvchi katta farqni eslang! Ha, To'qaytoshliklar o'zaro muhobasalarga butunlay chek qo'yishgan va o'z zaminlari haqida qayg'urmoqdalar. Bugungi vaziyatga naqadar o'xshash holat, shunday emasmi?! Bugun ikkita katta urushni boshidan o'tkazib, bir-biri bilan jang qilishdan charchagan Yer shari endi golbal muammolarga qarshi kurashmoqda. To'g'ri, hali urushlarga to'la chek qo'yildi deyishga erta, lekin ayni paytdagi vaziyat inson va uning manfaatlari uchun foydali tomonga og'a yotgani rost. Butun dunyo xalqlari Yer sharini asrab qolish maqsadida birlashishmoqda. Ota-bobolardan qolib kelgan qadryatlar nihoyat e'zoz topmoqda. Lekin, hozirgi vaziyatda farovon hayot eyforiyasida yashash kechirilmas xato bo'ladi. G'arbdan kirib kela yotgan ommaviy madaniyat hali ham asrlik umrga ega qadryatlarga ko'lanka solayapdi. Yoshlar

ongida, dunyo qarashida ibo-hayo, andisha o'z o'rnini G'arbning ochiq-sochiq nag'malariga bo'shatib bera yotganiga ba'zida o'zimiz guvoh bo'lamiz. Turli xil kinofilmlar, internet tarmoqlaridan bemaqsad foydalanish yosh avlodni boshi berk ko'chaga olib kirib qo'ya yotganidan cho'chigan Chingiz Aytmatov "Cho'qqida qolgan ovchining ohi-zori" asarida: "Bunday axloqsizlik uchun kim javob beradi? Javob berish ham, javobgarni topish ham juda mushkul. Chunki, biz mamlakatni demokratik taraqqiyot yo'lidan boshqarib bormoqchimiz. Mayli, shunday bo'lsin. Biroq, bizning jamiyatimizda birtalay demokratik erkinliklar noto'g'ri talqin qilinyapdi. Bemaza qovunning urug'idek urchib ketgan adabiyotlar yosh avlodni shubhali an'analarga o'rgatayotgan bo'lsa, biz bunga qachongacha befarq qarab o'tiramiz?"[9, 207] Darhaqiqat, adabiyotning go'yaviy jihatlariga ham alohida e'tibor berish darkor. Tanganing ikki tomoni bor, guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, adabiyotning ezgu xislatlari pardasiga o'zining jaholatini pana qilib, uning targ'ibot qurolidan g'arazli g'oyalarini tashuvchi vosita sifatida foydalanadigan adabiyot vakillarini ham tarix yaxshi taniydi. Ulardan biri Markiz de Sad, 1740-1814-yillarda yashagan fransuz yozuvchisi. O'zining ruhiyatidagi zo'ravonlik, yostiqdoshiga yetkazilgan jismoniy azobdan huzur qiluvchi haddan tashqari shavqatsizliknio'z asarlaridagi qahramonlarga ham ko'chirib o'tkazgan. Sad yozuvchi bo'lish bilan bir qatorda siyosat arbobi ham edi. U vatani Fransiyada bo'lib o'tgan inqilob davrida: «Inqilobiy tuzum sharoitida insoniyatga qarshi qilingan biron-bir jinoyat qoralanmasligi lozim. Chunk, bunday sharoitda jinoyat odatiy taomilga aylanib qoladi», – degan hayqiriq bilan tarix sahnasiga chiqadi[9, 67]. O'zi yaratgan « Jyustin » romanida shavqatsizlikning bir necha xil jirkanch ko'rinishlarini ochiq-oydin huzur-halovat bilan, maroqli yoritib beradi. Har qanday yomonlik jazoga mahkum. Sadni 1778-yil 7-sentabr kuni italyanlar yirtqich hayvon sifatida temir qafasga qamab, Vensenga eltib tashlaydilar. Italiyada uning kasali yana xuruj qiladi va u vatani Fransiyaga qaytib keladi. O'ziga bir umrlik tavqi la'nat orttirib olgan Sad o'limi oldidan shunday so'zlarni takrorlagan edi: "Xatto mozorimdan nom-nishon qolmaydi.

Ishonchim komilki, men to'g'rimdagi har qanday esdalik ham odamlar xotirasidan o'chib ketadi". Ammo Sad yanglishgandi. "Xalq uchun qilingan yaxshilik ham, yomonlik ham hech qachon odam bilan birga go'rga kirib ketmaydi. Tiriklar hammasini xotirada saqlaydilar", – deganida Chingiz Aytmatov haq bo'lib chiqdi[9, 113]. XIX asrda yorug' dunyo bilan xayrlashgan fransuzning asarlariga simpatiya bilan yurgan, ularning bosmadan ko'proq chiqishini talab qila yotgan to'dalarni hali ham uchratish mumkin. Bu ommaviy ongsizlik va sadizm yuzaga keltirgan yaxshilikning oqibati. Ayni shu paytda adabiyot uchun, unga befarq qaramaydigan har qanday xalq uchun adabiyotshunoslar va rostg'oy munaqqidlar lozim deb o'ylayman. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev aytganlaridek: "Adabiyotshunos va tanqidchining vazifasi ham badiiy sanitar sifatida iste'dodsiz bitiklarni fosh etib, ularni yozmaydigan qilishdan ko'ra, yaxshi asarlarning fazilatlari nimadan iboratligini ko'rsatib, o'quvchilarda ularga mehr uyg'otish orqali yaxshi asarni estetik jozibasi yo'q bitiklardan farqlaydigan holatga keltirishdan iboratdir"[1, 2]. Yuqorida keltirilgan fikrlarga amal qilinsagina adabiyotni o'z tajribaxonasiga aylantirib olgan jirkanch g'oyalar karvoniga zarba berishimiz, o'zbek kitobxoniga asl badiiyatni yetkazgan holda johillikka chiqish eshiklarini ko'rsatib qo'yishimiz mumkin.

Qadimgi rimda eramizdan avvalgi III asrdan boshlab keng ko'lamda o'tkazilishi boshlangan gladitorlar jangi ham sadizmning bir ko'rinishi bo'lgan. Tomoshaga yig'ilganlarning o'lim so'rab uvvos solishlari, shavqatsiz kurashlar, maydondagi ikki jangchidan faqat bittasi tirik qoladigan bahslar! Es-hushini yo'qotgan Kaligula, dengizda ham jang tashkil etgan Klavdiy, o'z tug'ilgan kuniga bag'ishlab 265 mavzeda jang uyishtirgan imperator Vitelliy tarixiy shaxslar fonidan yaxshilik targ'ibotchilari safiga ko'chib o'tishdi. Qonxo'rlikka bo'lgan fanatizm juda tez ommalashgan. Buning natijasida ko'plab begunohlar qurbonlar berilgan. 404-yili Rimda so'nggi gladiatorlar jangi bo'lib o'tgan. Tomoshabinlar safida o'tirgan Kichik Osiyolik rohib Telemax quturgan hayvon qiyofasidagi insonlarning olishuvini bamaylixotir kuzatolmaydi. U jangga chek

qo'yish maqsadida maydonga otiladi, lekin ko'zi qonga to'lgan jangchilar rohibni chopib tashlashadi. Jang qurbonlikdan so'ng tugari edi. Qurbon esa bor! Bu holdan qattiq ta'sirlangan imperator Gonoriya gladiatorlar jangini qat'iyani ma'n etib qo'yadi. Bu insoniyatning o'z o'tmishi davomida yo'l qo'ygan katta xatolaridan. Ammo Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganlaridek: "O'tmishni qoralashdan foyda yo'q. Chunki o'tmish – o'tmish-da. U allaqachon tarixga aylangan. Uning biror kemtigini butlab qo'yish mumkin bo'lmaganidek, biror beso'naqay joyini pardozlab, tekislab ham bo'lmaydi. Undan faqat saboq olish mumkin.[6, 3]"

Nafsilambirini aytganda, bugun insoniyat boshiga manqurtlik, terrorism, behayolik va qadryatlardan yiroqlashib qolishdek mudhish xavflar tushish ehtimoli mavjudligi hisobga olinsa, bizga telemaxlar kerak degan fikrga kelamiz. Bu masalada loqaydlik va xotirjamlikka berilish ofat bilan bo'lgan jangda mag'lubiyatni tan olishdek gap. Adabiyot xavf qo'ng'irog'ini allaqachon chaldi. Adiblar, xususan Chingiz Aytmatovning yuqorida nomi keltirilgan asarlarining katta qismi ayni shu masalalarga qaratilgan. So'z boshida aytilgan taqdir kemasining shturvali bugun kimlarningdir boshqaruviga muhtoj emas. Barchasi o'z qo'limizda. Adabiyot boshlagan nurli yo'ldan yurilsa, qarshimizda turgan qoyalardan eson-omon o'tmoqqa hamisha imkon bor!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qozoqboy Yo'ldoshev-»Mohiyatni anglash yo'li"; «Sharq yulduzi" jurnali; 2017
2. To'xliyevB., Karimov B., Usmonova K.- Adabiyot 11-sinf darslik-majmua; «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"; Davlat ilmiy nashryoti; Toshkent, 2018.
3. Chingiz Aytmatov -»Asrga tatigulik kun"; Yoshlar nashryoti uyi; 2018-yil;
4. Жамол Камол - «Эшиқдаги ойтулдим". Т. Маънавият. 1998.
5. Игор Бунич.»Партиянинг олтинлари". Маънавият. 1998.
6. Озод Шарафиддинов-»Эътиқодимни нега ўзгартирдим".Тафаккур журнали.10-сон.1997.
7. Озод Шарафиддинов-»Маънавий камолот йўлларида".Маънавият-Тошкент 2004.
- 8.Солженицын А.»Архипелаг Гулаг". В трех томах. Изд-во «Советский писатель», 1990.
9. Чингиз Айтматов ва Мухтор Шохонов-»Чўққида қолган овчининг оҳи-зори"- Шарқ нашрети матбаа уйи.2018
10. Юлиан Семёнов - «Баҳорнинг ўн етти лаҳзаси". Янги аср авлоди. 2017.

ID-020-30-A011

Odila Otaboyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

QARIYANI YASHARTIRGAN TUYG'U (SHUKUR XOLMIRZAYEV)

Anotatsiya. Shukur Xolmirzayev asarlarida insonning ruhiy kechinmalari, ongli o'ylari asosiy o'rinda turadi. Yozuvchining "Qariya" hikoyasi buning yorqin dalilidir. Maqolada, asardagi inson, uning insonlikka hiyonat qilmasligi, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmaslik, harakat, berilgan hayotni mazmunli yashashga bo'lgan intilish g'oyasi ko'rsatilgan. Shuningdek, hikoyadan parchalar keltirilib, butun bir insonyatga daxldor bo'lgan g'oyalar yoritilgan. Quyida asardagi ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi yana bir karra aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *konflikt, puchmoqlar, psixologiya, xarakter, personaj, ong.*

Anotation. People's spiritual experiences, feelings and conscious thoughts stay in main position in Shukur Xolmirzayev's compositions. Author's story called "Elderly" is striking example of this. In this thesis the person in the composition, his loyalty to humanity, not losing his believe to himself and the idea of his aspiration for living meaningfully in given life are represented. Also the victory of good deed against bad deed in the composition is reflcted in this article. Excerpts from the story are also quoted and ideas written that apply to all people

Key words: *conflict, space, psychology, character, hero, consciousness.*

Hozirgi adabiy jarayonda ijtimoiy hayot voqeligini badiiy tahlil qilish dolzarb sanaladi. Bu borada hikoya yetakchi janrlardan biri hisoblanadi. Hikoya inson hayotidagi u yoki bu yorqin hodisani, ijtimoiy yoxud psixologik

konfliktida xarakter bilan uzviy bog'liq holda rivoyaviy usulda tasvirlovchi epik asardir [6].

Hikoyalarda hayotning bir parchasi olinib, unda butun bir isoniyatga daxldor bo'lgan turli g'oyalar sigdiriladi. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi. Unda bir lavha orqali hayotning turli ko'rinishlari, personajlarning butun umr yo'li, rang-barang xarakterlarining shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning o'zgarib turishi aks etadi. Hikoyani bevosita chumoliga mengzasak bo'ladi. Chunki u kichkina bo'lsa ham o'ziga o'g'ir yuk oladi. Uning zimmasidagi vazifasi ham o'zidan ortiq.

Hikoya hamma xalqlar adabiyotidagi eng rivoj topgan janrdir. XX asr o'zbek adabiyotida A. Qodiriy, G'. G'ulom, A. Qahhor, Sh. Xolmirzayev va boshqa yozuvchilar hikoyaning eng yaxshi namunalarini yaratdilar [5].

Aksaryat hikoyalarda maishiy turmush muammolari tasvirlansa-da, ushbu janrda insonning ma'naviy qiyofasi, millatning o'ziga xos xususiyatlari, umumbashariy mavzularning badiiy talqini asosiy planda turadi. Bunday mavzular asarning umrboqiyiligini ta'minlaydi. Eng ajoyib adabiy asarlarda xalq ongi bayon etiladi. ShukurXolmirzayev "Hikoya haqida" maqolasida [7] A. P. Chexov hikoyalarining 90% da xarakter ko'rsatilishini va shu bilan avtor maqsadiga erishgandek bo'lishini aytadi. A. P. Chexovning "Qayliq" hikoyasi haqida shunday deydi: "Qayliqda"-chi bunda ham xarakter bor, lekin, lekin... u o'zgaradi, u o'zi o'rgangan Chexovning barcha qahramonlari yashab, ko'nikib kelayotgan hayotdan chiqmoqchi bo'ladi, bunga qisman erishadi ham. Bu hikoya menga ta'sir etdi. Demak, chin hikoyada mana shunday obrazning takomili ham bo'lgani tuzuk ekan deydi"

Biz Sh. Xolmirzayev hikoyalarida inson ruhi, ongi, psixologiyasiga daxldor bo'lgan mavzularni ko'p uchratamiz. Yozuvchining "Qariya" hikoyasida inson ruhiyatidagi evrilish haqqoniy, ijtimoiy hayotdan ko'chirilganligiga guvoh bo'lamiz. Tomchida quyosh aks etganidek, asarda inson hayotining konkret manzaralari, individual belgilari orqali hayotdan olingan umumlashmalar ifodalangan. Qo'ziboy cholda umumxalq vakillariga xos

bo'lgan xalqona hislatlar ham, uning shaxsiy hislatlarini belgilaydigan konkret belgilar ham mavjud. Masalan: sodda, mehnatsevar, samimiy, halol, toatibodatli, haqgo'y. Alohida e'tibor berilganda esa ezgulikka yo'g'rilgan sof qalb va ruhiyatning keskin burilishi Qo'ziboy chol asl xarakterini belgilaydi.

Qo'ziboy chol qovun-tarvuz po'choqlarini yig'ib yuradi, oyoqosti bo'lgan uzum, pomidor, karam po'choqlarini supuradi. Mol bozoriga borib tezak to'playdi. Shu ishlari evaziga bozorkomdan 60 so'm maosh oladi, xizmatchilar ro'yxatiga "ishchi" deb yozib qo'yilgan. Bundan ko'rinadiki, Qo'ziboy chol insonlarga yaxshiliklar qila oldi va ezgu mukofotga ham loyiq ko'rildi. Umuman olganda bu ham kurrayi zaminimizning bir qonuniyatidir. Ya'ni inson, inson bo'lib tug'ildimi, inson bo'lib yashamog'i kerak. Qariya ro'yxatga "ishchi" deb yozildi. Ammo insonlar qalbiga-chi? Vaholangki u ham loqayd, befarq inson bo'lsa bo'lar edi. Lekin Qo'ziboy chol insonlar ko'ngliga "insonparvar qariya" deya muhrlandi.

Asardagi har bir obrazda muayyan bir fikr ifodalangan bo'lishi lozim. Bug'oya ham o'tkir va ta'sirchan bo'ishi shart. G'oyasiz odam-jonsiz tanadir [3]. Qo'ziboy va Qobil qassob janjalini uzoqdan ko'rib turgan va cholga yordam bergan Mirg'ozi qassob, qariyadan xabar olib turgan qo'shni Jamol, o'zi cho'loq, olti bolaning otasi bo'la turib, halol rizq terib, tinmay mehnat qilayotgan Shoyimardon Quدرات obrazlari umuman o'zbek xalqiga xos bo'lgan umuminsoniy hislatlarni ko'rsatishga yordam beradi. Birovning haqqini tab tortmay yeydigan Qobil qassob obrazi esa hayotning asl qonuniyati bo'lgan ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlikni ochishga xizmat qilgan.

Adabiy asarda narsa, voqea va shaxslarni bir nuqtaga yig'adigan kuch bor. Bu g'oya yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan fikrdir [3]. Hikoyada inson, uning insonlikka xiyonat qilmasligi, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotmaslik, harakat, berilgan hayotni mazmunli yashashga bo'lgan intilish g'oyasi ilgari surilgan.

O'z mohiyatidan chekinmagan har qanday ilm, shubhasiz, Ollohga olib boradi. Mohiyatga munosib ilm muayyan tuzum, jamiyat, millatga emas, umuminsoniyatga xizmat qiladi [4]. Umuman olganda Sh. Xolmirzayevning

“Qariya” hikoyasi asl mohiyatdan uzilmagan, umuminsoniyatga xizmat qiluvchi asardir. Qo‘ziboy cholning choyxonachiga: “Inim, o‘lim degani to‘y emas, to‘y bamaslahat bo‘ladi, o‘lim bo‘lsa tuyqusdan keladi. Buning farqi katta!” degani va hikoyaning yana bir o‘rnidagi “yog‘och sandiq ustidagi eski joynamozini olib, tilovat qilgani” “betob bo‘lib choyxonaga borganida “Olloyim sevgan quliga kasal berar ekan, inim. O‘limni unutmasin, meni eslab tursin deb” degan so‘zlari asl mohiyatning yorqin dalilidir.

Hikoya “Qo‘ziboy cholning kasbi betayin” deya boshlanadi. Badiiy asarlarda ilk jumla asar mohiyatini ochishda beqiyos ro‘l o‘ynaydi. Falsafa fanlari doktori K. Hamrayev o‘z maqolalarining birida “Ilk jumla ijod jarayonidagi psixologik holatlar, badiiy asar ritmi va asar badiiy g‘oyasi bilan poetik aloqaga kirishib, hikoya kompozitsiyasi tarkibida karvon qo‘ng‘irog‘i kabi yo‘lboshlovchi vazifasini bajaradi” deb yozganlar [4]. Haqiqatdan ham qariyaning aniq bir kasbi yo‘q. U jarchi, sovuq kunlarda tog‘liklarga cho‘g‘ qilib beradi, po‘choqlarni terib yuradi, tezak ham supuradi, vaqtida qo‘y ham boqqan, pochtachilik qilgan, hatto eshonga yetti yilga muridlikka ham tushgan. Qariya o‘z ishidan og‘rinmaydi, or qilmaydi, minnat neligin bilmaydi. “Yigit kishiga qirq hunar ham oz” deganlaridek faqat ezgulik deya harakat qiladi. Yaratguvchi zot ham unga shunga yarasha rizq ham beradi. Qo‘ziboyning asl ma‘nosi ham suyuqli, erkatoiy, mol-u davlatli bo‘lsin degan ma‘noni anglatadi. Haqiqatdan ham, qariya barcha uchun suyuqli bo‘la oldi. Asl mol-u davlar ham aslida qariyaning o‘zida . Ko‘rinib turibdiki, asar boshlanmasi hikoya uchun belbog‘ vazifasini bajargan . Qo‘ziboy cholning kasbi betayin ekanligi asar boshidan oxirigacha saqlanib qolgan.

Yozuvchi Qo‘ziboy cholning ichki dunyosini turli usullar orqali ochib berolgan. “Berganini olib, haqiga mo‘l-ko‘l duo qiladigan, choyxonaga kirsam umrida ko‘rmagan odami bilan ham nihoyatda quyuq so‘rashadigan, o‘n tiyinga beshtalab sotayotgan ravochni, o‘n tiyinga o‘ntalab sotganini bilmay qoladigan, o‘limligini tayyorlab tayinli bir kishiga berib qo‘yishni o‘z burchi deb biladigan”.

Qobil qassob ta'biricha "xudojo'y, urush-janjaldan yiroq yuradigan" bir insoniy qariya.

Yozuvchilar ko'pincha kishilar xarakteri va taqdirini ta'sirchan ko'rsatishda tabiat manzaralaridan foydalanadilar. "Bu yil kuz barvaqt tushdi. Bargi pastdan to'kilgan daraxtlar uchi qontalash. Chug'urchuqlar serob. Mezonlar ko'p. Chumchuqlar ham sertashvish. Hikoyada aynan kuz tasvirining berilishi hikoya matni avvalida keltirilgan: "Rayon shaharga aylanayotgani uchun aholi ko'payib, yer tag'in torlik qilib, tomorqalarda mol saqlab bo'lmaydigan darajaga yetyapti . Rayon ko'chalarida odam siyrak, hamma paxta terimida, Qo'ziboy chol ham bir hafta terimda bo'lib keldi"qismida ochiladi. Sababi xalqimiz uchun majoziy "kuz" ertaroq tashrif buyurdi. Bargi pastdan to'kilgan daraxtlar- o'zbek xalqi. Bargning pastdan to'kilishi yaxshilarning hayotdan dastlab ko'z yumishi. Erta to'kilgan burglar bu bizning ma'rifatparvar yozuvchi, jaded ajdodlarimizdir. Daraxt uchining qontalashligi hali ham ulug'larning avlodlari mavjudligi, balki Qo'ziboy cholning aynan o'zidir. Chumchuqlar-SSR amaldorlari. Chug'urchuqlar-tinib-tinchimaydigan o'zbek xalqidir. Mezonlar-befarq, loqayd insonlardirBu dunyoda har bir voqea asossiz hayotimizda yuz bermaydi. Bular ma'lum darajada insonni inson sifatida shakllantirishga va boshqa shu kabi sabablarga xizmat qiladi. Insoniy qariya Qo'ziboy chol yaxshilik qilishda millat(xoh koreys, xoh tojik), yosh, kasb tanlamadi. U o'zining oily maqsadi yo'lida tinib-tinchimadi!

Yo'ldan chiqsan chiq, eldan chiqma"-deydi. dono xalqimiz. Qariya yo'ldan ham, eldan ham chiqmadi.

Har bir davr adabyotida o'sha zamonning ijtimoiy muammolari qisman bo'lsa-da aks etadi. "Shuni es-es biladiki, bolaligida qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga bekinib jon saqlab qolgan". Bu o'rinda yozuvchi xalqning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan ham kitobxonni tanishtiradi.

Yozuvchilar personajlar nutqi orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini, ruhiy dunyolarini, yashash tarzlarini, xarakterlarining mantig'ini ochib beradi. "Qo'ziboy chol tiz cho'kib, rosa tilovat qildi. O'lganlarga jannatdan joy tiladi,

tiriklarga insof-adolat. So‘ng pichirlab: “E, rasuli barhaq! Iymonimni ber”, -dedi. -Birovga yomonlik qilmadim, birovning haqini yemadim...Tog‘lik og‘aynilarimni ham aldamadim. Ko‘pning duosini oldim. Ha farzand ko‘rmadim. Senga bir yomonligim o‘tgandir-da...O‘zingga shukur . Qobil boyga ham umr ber, bola-chaqasining boshida omon yursin! Meni ko‘msin! E, Qo‘ziboyning hech kimi yo‘q ekan demasin birov!..”

Shu o‘rinda qariyaning butun bir ichki dunyosi, hayot yo‘li, ko‘rgan-kechirganlari, umuman ruhiy olami boricha namayon bo‘lgan. Ajabmaski, yozuvchi Sh. Xolmirzayev o z da‘vat va chaqirig‘ini ham asarning aynan shu o‘rniga yuklagan bo‘lsa. Chunki, o‘lganlarga jannatdan joy, tiriklarga insof-adolat tilash, rasuli barhaqdan iymonini so‘rash va o‘zini-o‘zi taftish qilish umuminsoniylikning o‘zidir.

Xalqimizda bir naql bor:“Asl odam hech o‘lmas”. Haqiqatdan ham inson quyidagi savollarga javob bera olsa, u hech qachon “o‘lmaydi” Men kimman? Aslim qanday? Qanday keldim? Qanday yashayabman va qanday ketmoqchiman? Men qaysi yo‘lni to‘g‘ri deb bildim Aslida qaysi yo‘lni tanlashim kerak edi? Asar bosh qahramoni Qo‘zivoy chol shu savollarga javob topa oldi. U hayotga ezgulik ulashish maqsadida kelganligini, qilgan amallari uni umrboqiy qilishini tushunib yetdi.

Barcha belgilar, tafsilotlar, chizgilar, juda katta qunt bilan tanlanib, jamlangandagina hodisalar va xarakterlarning mohiyatini ochishga, turmush manzaralarini ko‘rsatishga xizmat qiladi [3].

Hikoyaning eng kulminatsion nuqtasi bu asar so‘ngidir. U jim-jit uyda, palos ustida cho‘zilib yotib, shu fikrga keldi,, Bu ahvolda men qandoq qilib o‘laman?Asti mumkin emas, sirayam...Men yana mehnat qilishim kerak. Halol rizq topishim kerak. O‘limlik qilishim kerak. U qo‘shni chiqargan ovqatni zo‘rlab yedi. Yarim kechada turib, go‘sh t qovurdi bu bilan u o‘ziga jismonan quvvat oldi. Sahar uyg‘onib, soyga tushdi. Yuvindi. Tetiklandi. Qo‘ziboy chol avvalgidek bo‘lib ketdi. Soy uning butun dard-u izzatlarini oqizib, o‘zi bilan olib ketdi. Hikoyada inson hamma narsa, voqea-hodisadan to‘g‘ri xulosa

chiqarishi yorqin aks ettirilgan. Asar qahramoni Qo‘ziboy chol ham vaqtida to‘g‘ri xulosa chiqara oldi. Muhimi u turfa hayot puchmoqlariga “Labbay” deya qarshi tura oldi. Ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishini yana bir karra isbotladi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shukur Xolmirzayev. Qariya. Toshkent-2016.
2. K. Hamrayev. “Ilk jumla poetikasi”. T: “Sharq yulduzi”. 2020. 135. -B.
3. E. Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent: Iqtisod-Moliya.
4. U. Jo‘raqulov. Suv Olloh zikrini eshitsa. 2007. 11. 06.
5. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston. 2002.
6. Y. Solijonov. Hikoya.
7. Sh. Xolmirzayev. Hikoya haqida. Toshkent: Sharq yulduzi. 1971. 1-son.

ID-020-30-A012

Nilufar Murodova

O'zbek filologiyasi 1-kurs talabasi

NORMUROD NORQOBILOV ASARLARIDA TABIAT TASVIRI

Annotatsiya. Bu maqola Normurod Norqobilov hikoyalari haqida. Unda ijodkorning “Kapalak”, “Chol va ilonlar” hikoyalari aridagi peyzaj tasviri tahlil qilingan. Tabiat tasviri obrazlar ruhiyatini ochishi, ularning fe'l-atvorini ko'rsatishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: *peyzaj, badiiy obraz, personaj, badiiy tasvir, syujet, ruhiyat tasviri, badiiy parallelizm.*

Annotation. This article about Normurod Norqobilov's stories. Author's analyzed peyzaj portrayal in “Butterfly”, “Old man and snakes”. It has been found that the image of nature reveals the psyche of the images, showing their character.

Keywords: *artistic image, landscape, the image of the soul, character, plot.*

Tabiat borliqning bir qismi sifatida inson hayoti bilan chambarchas bog'liq. Inson va tabiat o'rtasida bir rishta borki, kimdir bu rishtani his qilib yashaydi, kimdir unga yuz buradi. Badiiy adabiyotimizda inson shaxsini, ruhiyatini, ochib berishda tabiat tasviri bilan hamohanglikda mengzash odat tusiga kirgan. Aynan, Normurod Norqobilov asarlarida tabiat tasviriga juda ko'p marotaba murojaat qilishini ko'rishimiz mumkin. Balki, bu bilan yozuvchi yuqorida aytib o'tganimizdek tabiat borliqning bir qismi ekanligini bizga bot-bot eslatmoqchi va uqtirmoqchidir.

Lirik shoirimiz Hamid Olimjon o‘z maqolalaridan birida ona tabiatni his etish va uni ishonarli tasvirlash uchun ijodkor uch xil qiyofada namoyon bo‘lishini orzu qilib shunday deydi: “Men Xorazmliklarning Amudaryoga bo‘lgan qarashini, o‘chini, ginasini so‘z bilan aytib beradigan shoirni, kuylab beradigan ashulachini, chizib beradigan rassomni ko‘rishni istar edim”, - deydi. Shu bilan birga bu fikr zamirida insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini ifodalash masalasi yotibdi. Xo‘sh, odam bolasi o‘z ne‘matlarini mo‘l-ko‘l hadya etayotgan tabiatga mehr-muhabbat bilan qaraydimi, mehr-muhabbat ruhida yashaydimi? Bu nafaqat adabiyotimizning balki, bu butun bir davrning azaliy muammosi bo‘lib kelgan va ijod ahli u yoki bu darajada munosabat bildirgan. Men ulug‘ shoirimizning orzusi davrimizning iste‘dodli yozuvchisi Normurod Norqobilov ijodida amalga oshganligini alohida ta‘kidlab o‘tmoqchiman. Yozuvchi o‘z ijodida yurtimizning ko‘rkam tabiatini sehrli so‘zlar orqali ifodalab beradigan mahoratli yozuvchi, nabobat va hayvonot olamini jo‘shqinlik bilan baland pardalarda kuylay oladigan hofiz, quyuq va bo‘rtma ranglarda tasvirleydigan rassom qiyofasida namoyon bo‘lmoqda.

Yozuvchining juda ko‘p asarlari bunga guvohlik beradi. Jumladan, “Chol va ilonlar”, “Judolik quvonchi”, “Kapalak”, “Keksa tut” kabi bir qancha hikoyalarida ijodkor kitobxonni tabiat qo‘yniga beixtiyor chorlaydi. Aslida-ku, tabiat tasviridan o‘z asarlarida foydalanmagan ijodkor bo‘lmasa kerak. Xo‘sh, Normurod Norqobilovning bunda mahorati va farqi nimadalarida ekan? Normurod Norqobilov tabiatni shunchaki tasvirlamaydi, balki uni jonli va tabiiy ko‘rsatish orqali obrazlar ruhiyatini ochib berishni odat qilgan.

Asarlarida obrazlar ruhiyatini tabiat hodisasi bilan bog‘laydi. Yozuvchi, asosan, tabiat tasvirini bola yoki chol obrazlari orqali ko‘rsatgan asarlari salmoqlichani tashkil etadi. “Kapalak” hikoyasida bola ruhiyatini tabiat mo‘jizasi bilan bog‘lasa, “Chol va ilonlar” hikoyasida esa, chol obrazi bilan bog‘laganining guvohi bo‘lamiz. Yozuvchi ijodida, asosan, bola va chol motivlaridan foydalanishining sababi ham ular tabiiylik va samimiyligni, beg‘ubor qalb pokligini saqlab qolganligida bo‘lsa ajab emas. “Chol va ilonlar”

hikoyasidagi Rahmon chol juda tabiatnavis, ko'ngli toza muallim edi. Chol hovlisidagi u bilan birga yashayotgan ilonlardan bir zum ham cho'chimaydi. Unga ziyon yetkazishni hayoliga ham keltirmaydi. Ular bilan yaxshigina "qo'shnichilik" munosabatini mustahkam bog'laydi. Har kuni ular uchun gulzor pushtasiga un sepushni ham kanda qilmaydigan kekxa nuroniy.

Yangi qo'shnilarning hovlisida yashashidan avvaliga biroz hayiqsada, keyinchalik buni tabiiy holday qabul qiladi. Rahmon chol g'ayritabiiy bu qo'shnichilikka boshida sira ko'nika olmaganidek, erta bir kun kelib ularga qattiq bog'lanib qolishini va hatto yuragida sog'inchga o'xshash ajabtovur tuyg'ularni tuya boshlashi mumkinligini o'shanda xayolining yetti ko'chasiga ham keltirmagandi.

Ko'p vaqt o'tmasdan bu g'aroyib qo'shnilarga juda bog'lanib qoldi. Har galgidek, ularning hovliga chiqishi-yu, birin-ketin o'rmalab o'z inlariga, aniqrog'i, Rahmon cholning pastak hammomining ostiga kirib ketishini ilhaq kutadigan bo'ldi. Bu uchrashuvga qadar Rahmol chol tevarak-atrofga biroz bee'tibor, o'z yumushidan, oila tashvishidan boshqasini o'ylamaydigan inson edi. Ana shunday sertashvish kunlarning birida ilonlarga duch keldi-yu, cholning ko'zi yaraq etib ochildi. Uning ta'biri bilan aytganda, bu "bir parcha tuproq" o'zidan bo'lak o'zga jonivorlarga ham tegishli ekanligini angladi. Ilonlar sabab cholning tevarak-atrofga bo'lgan e'tibori ortib boraverdi. U daraxt shoxlaridagi chumolilar karvonini, gulzorda uchib yurgan nafis kapalaklarni, samolarda parvoz qilayotgan chumchuqlar chug'urini, tomdagi mushuklar o'yinini ilg'aydigan bo'ldi. Aniqrog'i, tabiatning ajib bir mo'jizasini o'z ko'zi bilan ko'rish baxtiga muyassar bo'ldi. Shu bilan chol ularga mehri oshib, ular bilan gaplashishni ancha o'rganib olganini o'zi ham sezmay qoldi.

U ilonlar bilan qadrdonlashib qolganidan beri mudom bir savol uni o'ylantiradi. "Jonivorlar bilan murosa qilish mumkin holda nechun odamzod bilan til topishib bo'lmaydi -a?" Tabiat o'z qudratini ko'rsatdi. Inson insonni tushunmayotgan bir paytda jonivorlar insonlarning yaqin do'sti ekanligini ko'rsatmoqda. Bu orqali yozuvchi nafaqat tabiat mo'jizasini, balki hikoya

qahramonining bir tugal hayotiy xulosaga kelishi kerakligi vazifasini yuklamoqda.

Normurod Norqobilovning yana bir hikoyasida ham mana shunday xulosaga kelishimiz mumkin. “Kapalak” hikoyasidagi Nusrat juda beozor, beg‘ubor, bolalik gashtini qishloqda bobosi va buvisi bilan birga o‘tkazayotgan bola edi. U tug‘ulganda ota-onasi hali talaba bo‘lganligi uchun ham u qishloqda o‘sgan. Yoshi ham maktab yoshiga yetib qolgani bois, uni otasi shaharga olib ketish taraddudiga tushgan. Nusrat qizg‘aldoqlar-u kapalaklarni, g‘umaylarni-yu otquloqlarni, shishadek tiniq osmondagi to‘rg‘ayni hayrat bilan kuzatishdan hecham charchamasdi. Hatto, yo‘ldagi chumolilar karvonini soatlab tomosha qilishdan, ularga qirqoyoqni tutib berishni ham esdan chiqarmasdi. Nusrat faqatgina shu qirqoyoqni biroz yoqtirmasdi. Albatta, buning ham o‘z sababi bor. Bir necha yil oldin qirqoyoq amakisining qulog‘iga kirib ketib, rosa jonini azoblaganini bobosidan eshitgandi. Shu-shu qirqoyoqni ko‘rdi deguncha uni tutib chumolilar to‘dasi ixtiyoriga topshirardi. Va bu qilgan ishini amakisi va bobosiga aytib, bolalarcha maqtanardi. Bobosi bo‘lsa, nevarasining bu quvnoq xatti- harakatlarini zimdan kuzatib, gaplarini eshitib ko‘ngli ko‘tarilardi. Nusrat shaharga ketishini eshitgandan ko‘chaga uloqchadek o‘ynoqlab otildi. Qadrdon jo‘ralariga xabar berishni o‘yladi. Bu xabardan tomdagi lolaqizg‘aldoq ham, jajji qo‘zichoq ham bu sayohatidan bexabar qolmadi. Bundan ko‘rinadiki, bola tabiatdagi har bir narsani o‘z jo‘ralari qatori ularni ham do‘st deb biladi. Ulardan sirini yashirmaydi, balki g‘amxo‘rlik qiladi.

Qizg‘aldoq atrofidagi maysalarni tarab, uni yovvoyi o‘t-o‘lanlardan asraydi. Bola tabiat tilini yaxshi tushunadi. Qizg‘aldoq bilan sirlashadi, shamol bo‘lganda esa g‘umaylar qo‘shiq aytib, otquloqlar chapak chalishini bola tafakkurida idrok etadi.

Bir kuni u bobosidan arilar nima deyapti deb so‘raganida bobosi “Bekor turmay ishlash kerak-ishlash kerak”, -deyapti degandi. Bolakay ajablangan: “Shundan boshqa aytar so‘zi yo‘qmi ularning?” Bobo degan: “ Bo‘lak gap aytishga ularning fursati yo‘q”, - degan edi. Ana shundan beri Nusrat

asalarilarning mehnatkashligi-yu, bir daqiqani ham behuda sarflamay ishlashini ko'rib, ularga mehr qo'yib, har bir fursatning qadriga yetishni ham ulardan o'rgangan. Menimcha, odamzod ham juda ko'p narsalarni tabiatdan, tabiat ta'siridan, jonivorlardan o'rgangan bo'lsa ajab emas. Negaki, hali mo'jizaga boy tabiatimizning hali biz bilmagan, kashf etilmagan sirlarga boy. Nusrat esa hali bola bo'lishiga qaramay, bu mo'jizani bola ko'zi bilan ko'rishga ulgurgan ziyrak bola.

Hatto, u kattalar o'ylab ko'rmagan ba'zi bir narsalarni ham u ko'zdan qochirmaydi. Masalan, dadasi bilan shaharga ketayotganda yo'lda shunday savol bergandi. "Ota, to'rg'ay nega osmonda bunaqa qilib turadi-a?", - deya so'ragandi. Ota esa tepaga qaradi va yelkalarini qisdi. To'rg'ay nechun bu tarzda muallaq turishini hech o'ylab ko'rmagan ekanligini, anglab yetmasdan bolakay ikkinchi savolni ham berishga ulgurdi. "Nega chumchuqlar bunaqa turmaydi, a, ota. Shaharda chumchuqlar bormi. Musicha bilan to'rg'aychi?", - deya otani ketma-ket savollar oqimiga ko'mib tashladi. Ota bo'lsa, bu savollarga javob bera olmasligini bilib, "bilmadim" so'zi bilan kifoyalandi, xolos. O'zidan-o'zi hayratlandi. Shuncha yil shaharda yashab bu ikki qushning borligini ham, yo'qligini tuzukroq bilmas ekan. Shunchalikda atrofga, tabiatga e'tiborsizligini o'zi bilsada, buni o'g'liga sezdirmasligini ma'qul ko'rdi.

Biroq ko'p vaqt o'tmay bolakay kapalaklar bilan ovundi. Lov-lov yonib turgan lolaqizg'aldoqlar ustida uchib yurgan kapalaklar sari o'zini otdi. Bunday chiroyli kapalakni umrida ko'rmagan Nusrat kapalakning qanotlaridan avaylabgina ushladi. "Hozir seni qo'yib yuboraman", - dedi va dadasiga ko'rsatish uchun uning yoniga yugurdi. Bu onda bola juda beg'obor, quvnoq va baxtiyor edi. Ota bo'lsa, avvaliga o'g'lining ust-boshiga razm soldi. Ko'kargan shimiga, oqargan ko'ylagini ko'rib g'azablendi. O'g'lining xursandchiliga cherik bo'lish o'rniga, qo'lidagi kapalakka chang soldi va kaftida g'ijimlab yerga tashladi. Bunga ham qanoat qilmay, kapalakni oyog'i bilan ezib, tuproqqa qorishtirib tashladi. Bola shu on ro'parasida o'z otasini emas, yovuz bir insonni ko'rganday bo'ldi. Nusratning rangi oqarib, ko'zlariga yosh qalqidi va qishloq

sari yelday uchib ketdi. Bolaning yoshligi, bolaligi kapalak umri singari qisqa bo'ldi. Kapalak o'limi bilan Nusratning yoshligi ham tugadi va u shu paytda ulg'ayganday edi. Bunda birinchi ko'rgan sahnasi ham otasining "yovuz ishi" bo'ldi. Hikoyada qahramon va tabiat ya'ni bola va kapalak parallelizm usulida tasvirlangan. Go'yoki, Nusratning bolaligi tugagan emas, balki marvarid shodasi kabi har tarafga sochilib ketganday, nazarimda. Otasining o'ylamay qilgan birgina harakati bolani otadan ayirdi va ularning o'rtasiga ko'rinmas devor soldi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Normurod Norqobilovhikoyadagi persanajlar nutqi, xatti-harakati orqali ularning xarakterini, dunyoqarashini, umuman, ruhiy olamini ochib bera olgan va peyzaj tasvirida usta ekanligini ham ko'rsata olgan. Yozuvchi hikoyalarida tabiat tasviridan bir qancha maqsadlarda o'rinli foydalangan:

- obrazlar fe'l-atvorini ko'rsatish uchun;
 - ruhiy olamini yoritish uchun;
 - personajlar ichki dunyosini ramziy tabiat orqali ifodalash uchun;
 - obrazlarning hayotiy xulosaga kelishlari uchun;
- Va boshqa turli xil maqsadlar uchun foydalangan.

Yozuvchi hikoyada nafaqat, qishloq hayotini, ota va o'gil munosabatini, balki jonivorlarni, tabiatni, butun borliqni asrashga, ularga g'amxorlik qilishga da'vat etgan. Biz ona tabiatimizning sehrli olamiga mahliyo bo'lmasak, asrab-avaylamasak, betakror tabiatimizni kuzatmasak, uning kuzatiluvchisiga aylanib qolishimizni ham unutmashimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish.
2. Kutubxona-Civil. uz
3. <https://saviya.uz>
4. Xurshid Davron. uz kutubxonasi

ID-020-30-A013

Javlon Yaxshiboyev

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

**USMON AZIMNING “SAYLANMA” VA “KUZ”
TO‘PLAMLARIDA MUHABBAT MAVZUSI TALQINI**

Annotatsiya. Maqola Usmon Azim she'riyatining muhabbat mavzusi talqiniga bag'ishlangan bo'lib, unda shoirning “Saylama” va “Kuz” nomli kitobiga kiritilgan she'rlardan foydalanildi. Maqolada Usmon Azimning muhabbat mavzusida yozilgan she'rlari tahlil qilinib, ulardagi badiiy tasvir va obrazlarga ham to'xtalib o'tildi. Shuningdek, Usmon Azimning ijodkorlik mahorati qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: *Usmon Azim, she'r, muhabbat mavzusi talqini, badiiy tasvir, tashbeh.*

Annotation. The article is dedicated to love analyze poems of Usmon Azim. The article is dedicated to love analyze of Usmon Azim's poem and the poems which are included to the books named Saylama and Kuz are used in this article! Usmon Azim's love poems are analyzed and their literal image is discussed in this article. As well as, creative skills of Usmon Azim are comparatively analyzed.

Keywords: *Usmon Azim, poem, love topic's interpretation, literal image, metaphore(tashbex)*

O'zbek mumtoz she'riyati namunalari poetik topilmalari, tashbehlari, musiqiyliги bilan tovlanib turadi. “XX asrning 20-yillarida mumtoz aruzdan zamonaviy barmoqqa o'tilganda, ana shu ranginlik “feodal davr lirikasi”ning belgisi sifatida sho'ro davri she'riyatiga yo'naltirilmadi”.[5. 57-bet.] Oradan yillar o'tib, “sof lirika”ga qarshi kurash alangalari so'ngach, dastlab erkin Vohidov va Abdulla Oripov, so'ngra Rauf Parfi, Shavkat Rahmon va Usmon Azimlar avlodi o'zbek she'riyatidagi fikr va tuyg'u ifodasining nafislashishiga yordam beruvchi tasvir usuli va vositalariga keng murojaat etdi. Jumladan,

Usmon Azimning shu boradagi izlanishlari natijasida o'zbek she'riyatida badiiy mahorat behad darajada oshdi. Shoir tuyg'uning ong orti harakatlarini ham tasvirlash mahoratini mukammal egalladi. Bu borada, aniqsa, shoir ijodida alohida o'rin egallagan ishq mavzusi e'tiborga molik.

Usmon Azimning "Saylanma" va "Kuz" majmualaridan o'rin olgan she'rlaridagi ishq lirik qahramonning real ishq bo'lib, hayotdagi mahubaning vasliga yetish mashaqqatlari hajridir. Usmon Azim ijodidagi muhabbat hayotga muhabbat va inson sevgisi bo'lib, u orzular va samimiy hissiyot bilan ifoda etiladi. Shuni alohida qayd etish joizki, zamonaviy she'riyatda nafis ohang va tuyg'ular taassuroti boshqacha shaklda namoyon bo'lmoqda. Shoir she'rlarini o'quvchining estetik didi, saviyasi, orzu-istagi va dil izhorini hisobga olgan holda, shabadadek mayin, shabnam kabi tarhi toza, guldek nazokatga boy shaklda oro berib taqdim etadilar. O'quvchi she'r o'qiganida xayolot bilan chulg'angan orzu-armonlarga g'arq bo'ladi va nafosat dunyosiga sho'ng'iydi. U she'rdagi so'zlar haroratidan, go'zalligidan, balki so'z emas, dilkash ohangidan masrurlik his etadi.

Usmon Azimning "Kuz" kitobi yirik she'riy to'plam bo'lib, unda shoirning to'rt yuzga yaqin (381 ta) sara she'rlari jam bo'lgan. She'rlar "Sevgi", "Bog'lardan kelgan she'rlar", "Tog' va dasht qo'shig'i", "Xotira parchalari", "Bahslarning davomi", "Sukunatlar va qichqiriqlar", "Tugamagan kitob" deb nomlanuvchi yetti daftarga taqsimlangan. To'plamning har bir daftari qaysidir jihatlari bilan umumiylikka va yana qaysidir jihatlari bilan xususiylikka ega. Ta'kidlash kerakki, to'plamdagi she'rlar Usmon Azim ijodining o'ziga xos o'suvchanligini ko'rsatuvchi yangicha turkumlanishga egaligi bilan e'tiborni tortadi. Sahifalardagi she'rlarni o'qib, o'zingizni sevgining rango-rang bog'iga kirgandek his etasiz. She'rlarning deyarli har birida muhabbat bilan bog'liq inson kechinmalari, oshiq ruhiy dunyosidagi talotumlar, hissiy evrilishlar aks etgan. Masalan, "Ertaksevar jonim" she'rining lirik qahramoni sevgining ibtidosidan so'z ochadi. Uning ta'kidicha, sevgining ibtidosi – bu ikki qaro ko'zning ilk to'qnashuvi. Oshiq va ma'shuqa hayotlari davomida ba'zi

narsalarni unutishi mumkin, lekin ular bir narsani – nigohlarning ilk to‘qnashuvini hech qachon unutishmaydi. Zotan, bu – ibtido! Buni oshiq o‘z mahbusasiga ming kecha ertak qilib, ming bir marta aytib berishga tayyor:

Ammo takror aytaman –

Ko‘zlarning ilk uchrashuvidan boshqa

Muhabbatning ertagi yo‘qdir. [3. 100-bet]

Sevgi haqida bitilgan ko‘plab mashhur she‘rlar, dostonlar ma‘lum. Ularning ba‘zilarida shoirning bu masala bobidagi o‘z qarashini, o‘zligini namoyon etuvchi unsurlar ham bor. Shu nuqtayi nazardan shoirning sevgi mavzusidagi she‘rlarini o‘qib, ularda ijodkor shaxsini ko‘rsatuvchi, unga ishoralar qiluvchi lirik “men”ning ruhiyati, ahvolotiga duch kelishingiz mumkin. Shoir kuylagan ishq oddiy, Navoiy ta‘biri bilan aytganda, “avom ishq” emas. U bundan bir necha pog‘ona balandroq va mohiyatan chuqurroq sevgi. Kim uchundir sevgi mavzusidagi she‘rlar yorning ma‘shuqa hajridagi oniy kechinmalari, o‘y-xayollari ifodasi bo‘lishi mumkin, ammo shoirning ayni mavzudagi she‘rlari haqida bunday jo‘n gaplarni aytib bo‘lmaydi. Chunki bu lirik qahramon she‘rlarida, satrlarida yo‘qotgan so‘zini topgan, yuragiga bir ozod to‘zim tushgan, eng muhimi, o‘zligini topgan insondir:

Oy qiz, mendan zarra xatar kutma,

Tanimga ruh tushdi — o‘zim tushdi.

Kul erdim — yuragim seni topdi —

Ko‘ksimga bir ozod tuzum tushdi. [3. 89-bet]

Demak, bu oddiy ishq emas. Bu – insonga o‘zini tanituvchi ishq, insonning tanasiga ruhiy madad olib kiruvchi, yo‘qotgan so‘zini anglatib, adashgan yo‘lini raso qiluvchi, tozartuvchi, poklovchi ishq. Shunga monand shoir she‘rlarini ko‘lamdor tuyg‘ularning ifodasi deb qarash to‘g‘riroq, albatta. Insonni ba‘zi umidbaxsh tuyg‘ular yashashga undaydi. Masalan, sog‘inch. Zero, sog‘inmasdan, nimanidir kutmasdan ahli insonning yashamog‘i mushkul. “Birinchii daftar’dagi she‘rlar ushbu fikrlarni yana bir bora tasdiqlaydi. Lirik

“men”ning tasviridagi sog‘inch “cho‘ng bir qayg‘udan do‘ppi kiygan, xijrondan egniga chakmon olib, umiddan beliga belbog‘ bog‘lagan” sog‘inchdir.

Bormisan, yo‘qmisan – nima farqi bor?

Muhimi, yuragim og‘riqda notinch,

She‘rimda uzoq bir ishqning sharhi bor,

Ammo yuragimda xijron zahmi bor...

Agar o‘lar bo‘lsam, sevgim, baxtli bor –

O, faqat yashashga haqlidir sog‘inch.[3. 115-bet]

She‘rlarda lirik qahramon “Sog‘inch nima?” degan savolga “Sog‘inch dilni o‘rtovchi sas” deb lo‘nda javob beradi. Usmon Azimning lirik qahramoni shu qadar sog‘inchda, “baxt orasida bo‘lmasa-da, armon ichida kelsa va yo chin bo‘lmasa-da, yolg‘on ichida kelsa”, deya mahbubiga intizor. Axir oshiqning dildori o‘zi uchun mangu baxtli hayot ramzi:

Qo‘lingda hech narsa yo‘q edi sening –

Ammo topmoq istab yo‘qday ko‘nglimni,

Bezovta bahorga ko‘mib o‘ngimni –

(Qo‘lingda hech narsa yo‘q edi sening)

Xuddi guldastaday tutding qo‘lingni. [5. 112-bet]

Hatto orzusi ham “ertakning chuntagida” bo‘lgan yor seviklisiga nima ham bera olardi? Ammo sevgan inson uchun o‘z yorining hech narsasi bo‘lmasa-da, doimo ko‘nglini topib yashashga intilishi, hayotini bahorga ko‘mib yashashi va xuddi guldastadek qo‘lini tutishi ulug‘ bir ne‘matdir. Shoir shu tariqa baytdan baytga, she‘rdan she‘rga tuyg‘uning oliy xilqati tomon harakatlanib boradi va lirik qahramon sog‘inchni kuylashda “sog‘inchni sog‘ingan sohir samandar” yanglig‘ namoyon bo‘la boshlaydi. Chunonchi, “Dunyoni to‘zitdi...” deb boshlanuvchi she‘rda sevgining go‘zal hodisasi qalamga olinadi. Unga muvofiq, sof sevgining asosiy shartlaridan biri vafodir. Agar ikki mushtoq qalb hamdam bo‘lsa, ularning bir-biriga bo‘lgan vafosini “qanday yaxshi” degan o‘lchovda baholash mumkin. Ammo ikki yakdilning, oshiq va ma‘shuqning birga bo‘lmagan holatdagi vafosini-chi?! Endi bunday

vafoni “qanday yaxshi” qabilidagi o’lchamlar bilan o’lchab bo’lmaydi, zero u bunga sig’maydi ham. Bu kabi yuksak darajadagi olijanoblikni ulug’vor o’lchamlar, xususan, “chin ishq”, “haqiqiy sevgi” kabi mezonlar bilan o’lchagan ma’qulroq, nazarimizda. She’rning lirik qahramoni chin oshiq deb atasa arzigulik insondir.

“Birinchi daftar”dagi she’rlarning ba’zilari cho’ng qayg’u bilan, shoirning o’zi aytganidek, “nahorda kuylangan maqom yanglig’” kuy sochadi. Masalan, “Osmon cho’g elaydi”, “Nima bo’lsa bo’ldi”, “Tunmi?”, “Ayriliq” she’rlarida armonlar, iztiroblar dunyosida adashib, sarson kezib yurgan inson holatini his qilsak,

Jonim manim,

Qalbim manim,

Ko’zim manim,

O’zga vujud aro topgan o’zim manim,

Yuzsiz qolgan bu dunyoda yuzim manim.

Ko’zim manim,

Ko’zimdagi so’zim manim... [3. 40-bet]

singari qator she’rlarida qayg’uli mazmunning jarangdor ohangini ko’ngildan o’tkazamiz. Bunday she’rlarda lirik qahramon “Kajraftorning kaj qismatga xayri” ekanligiga tan beraturib, o’zining zamonga, taqdirga bo’lgan munosabatini ifodalaydi. “Jonim manim” she’ri mutolaasidan so’ng visol sharobidan benasib ikki oshiqning, ayniqsa, yigitning qismat bilan bog’liq o’li nolasi ko’kka olovlanganligi seziladi. Inson yuragi shoirona tasvir tufayli ilohiy qudratga aylangan, dunyo timsoli va uning vujudi bo’lgan yurak haqiqatan shunday kuchga ega, ammo uni shoirona tasavvurot ila tasvirga tushirish san’atdir. Shoirning boshqa bir she’rida go’zal libosga o’ranib xiromon borayotgan hurliqo mahbuba keyingi satrlar og’ushida kelinchakdek bezangan shakl-shamoyilda tasvirga tushiriladi:

Sening liboslaring qanday chiroyli,

Ufurar bo’yingda qanday atirlar?

Borasan – go'yoki bir go'zal oyni

Avaylab chulg'amish harir abrlar. [4. 200-bet]

“Chiroyli libos”, “atrlar ifori”, “go'zal oy”, “harir abrlar” iboralar bo'lib, she'rga nafosat, sokinlik, xushbo'ylik va chiroy baxsh etgan. Ammo zebo libosga o'ranib borayotgan oydek mahbubaning yo'li tuganmasdir, lirik qahramon butun umri davomida uni kutadi va yo'lga intizor bo'ladi, lekin mahbuba yetib kelmaydi: maqsadi yorga azob berish, uni intiq qilish va unga toqat, sabr-bardosh tilashdir. Oxir-oqibat mahbuba yo'lidan qaytadi, uyga kiradi va farog'at topadi. Tongda u derazani ochsa, atrof oppoq qor. U yo'lga chiqmaydi. Oshiqona va shoirona taxayyulga o'rab aytilgan bir tuyg'u va orzu bo'lsa kerak, albatta. Maqsad shirin so'zlar, nozik adolar va yoqimli hikoyatlar bilan shoirona ilhomdan bashorat berish va uni o'quvchi xayolotiga joylashtirish, uning zavqini keltirish va nafosat dunyosiga olib kirishdir. She'riyatdagi bunday tashbehlar shoirona hunar bo'lib, u adabiy taxayyul deb ataladi. Usmon Azim esa bu san'atning donishmand vakili sifatida sahnaga chiqqan va uning yangragan mayin taronasi bu ohangda jilva etgan:

Umrin tugayapti – yo'qdir daraging,

Sensiz vujudimda qancha toqat bor?

Tongda derazani ochding, qarading –

Tashqarida qordir, tashqarida qor. [4. 200-bet]

Shoirona nafis tasvir va cheksiz taxayyul Usmon Azim she'rlarining mohiyatini tashkil etadi. Zotan, she'r taxayyulsiz bo'lmaydi, unda badiiy xayolot asosiy o'rinda turadi. Usmon Azim she'riyatida esa bu hunar butun jozibasi bilan namoyon bo'ladi. Tasvir va taxayyul, o'z navbatida, obrazli so'zlarni vujudga keltiradi.

Ikki qoshing – ikkita qanot,

Ikki ko'zing – ikki umidqush...

Dunyo kabi ko'nglim yorishsin,

Qon ichida kulgu yarat... kul.

Lablarimda manim ochilsin

Shafaq rangli g'uncha – qizil gul. [4. 333-bet]

Mazkur shafaq rangli misralar haqiqatan ko'ngillarni yoritadigan dilkusho kuchga ega. Mahbuba kulgusi va tabassumi – oshiq uchun jonbaxsh ozuqa va tiriltiruvchi kuch. Shu bois, shoir orzu-umid va qizil gul nashidasi tarafdori, ularni mehr bilan tasvirlaydi. Bu esa Usmon Azimning she'riy dunyosi va u she'rlar dunyoning ranginkamoni, nafosat-u issiqligi. Shuning uchun ham uning she'rlari adabiy-badiiy va ilmiy-uslubiy tahlilga loyiq. Taniqli munaqqid Umarali Normatov Hamidulla Boltaboev bilan adabiyot nazariyasi masalalari haqida qilgan bir bahsida "Usmon Azim juda monand holda, tong nasimi va shabnam kabi nazokatli hamda nurli adolar libosida ayta oladi" [6. 77-bet.], degandi.

Usmon Azim muhabbat haqida ko'p va xo'p yozgan. Agar uning avvalgi she'rlarida lirik qahramonning sevgi tuyg'ulari ifodasida ravshanlik va hatto porloqlik ustuvorlik qilgan bo'lsa, so'nggi she'rlarida porlab yongan mushaklarining kullari tasvirga tortilgandek tuyuladi. Ammo bu so'ngan sevgi kullari emas. Lirik qahramon sevgisi (binobarin, shoir sevgisi) olovlangan bo'lsa olovlanganki, aslo so'nmagan. Faqat shoir endi sevgi haqida minbar oldida turgan olomonga emas, balki eng yaqin kishisining, sirdoshining qulog'iga shivirlab aytadi. Usmon Azimning muhabbat lirikasi so'nggi yillarda shunday qiyofani olgan: u so'zga xasis, lirik qahramon qalbini o'rtovchi iztirob yolqinini bir-ikki obraz, bir-ikki chizma bilan ifodalaydi, xolos. U shunday usul bilan so'zning she'riy matndagi vaznini, salmog'ini oshiradi va ayni paytda she'rxonni she'rni chuqur his etishga, har bir so'z va har bir poetik obrazning mag'zini chaqishga da'vat qilgandek bo'ladi. "Qalandar ishqi" deb nomlangan buyuk g'azalida Cho'lpon yorga butun borlig'i bilan berilgan lirik qahramonning armonli ruhiy holatini tasvirlab, bunday yozgan edi.

*Muhabbatning saroyi keng ekan yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.*

Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,

Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku.

Ajib dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do'stlar,

Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku...

Agar Cho'lponning lirik qahramoni yorga muhabbati tufayli u dunyodan mahrum bo'lgan bo'lsa, Usmon Azimning lirik qahramoni shunday yolqin sevgisi tufayli u dunyodan ham, bu dunyodan ham ayrilgan. Shoir bir she'rida yozadi:

Men seni deb azoblarga urdim bosh,

Men seni deb xatolarga qayrildim.

Men seni deb gunoh bo'ldim, bag'ri tosh,

Men seni deb bu dunyomdan ayrildim.

"Tangrim" dedim – bir bandacha bo'lmading,

"Tangrim" dedim – tubanlarga qayrilding.

Yuz o'girdim – xayolimda so'nmading,

Men seni deb u dunyomdan ayrildim. [4. 209-bet]

Shoirning talqin etishicha, lirik qahramon har ikki dunyodan mahrum bo'lganiga va gunohlarga botganiga qaramay, bir narsaga erishganki, bu narsa ikki olamga teng bebaho boylikdir. Shoir shu fikrni lirik qahramonning g'ussador kayfiyatidan kelib chiqqan holda quyidagicha ifodalaydi:

Oh, lahzada yo'qlar etding, bor etding,

Boringa ham, yo'g'imga ham sen yorsan.

Meni qanday gunohlarga yor etding,

Ikki dunyom yo'qdir, faqat sen borsan. [4. 200-bet]

Aytish mumkinki, Usmon Azim shu she'rda ustoz shoir bilan mubohasaga kirishib, u topgan poetik obrazni go'zal bir shaklda davom ettirgan va unga yangi falsafiy ma'no bag'ishlashga, lirik qahramonning yorga bo'lgan muhabbatini yanada ulug'lashga erishgan. Shoir shu she'r orqali chin sevgi inson ruhini pok va bokira tuyg'ular bilan boyituvchi, uni ilohiy yuksaklik sari yetaklovchi omil degan yuksak g'oyani olg'a suradi. Dard – har qanday

badiiy ijodning qoni. Inson tanasida qon aylanmas ekan, u yashamaydi. Badiiy asar tarkibida ham qon yanglig' dard bo'lmasa, bunday asar jondan, jonlilikdan mahrum. Demak, haqiqiy badiiy asar dardsiz bo'lmaydi. Ammo uning namoyon bo'lishi har xil. Ayni chog'da, qayd etish joizki, dard namoyon bo'lishidan qat'iy nazar, xususiy holatga taalluqli bo'lishi yoki ijtimoiy voqelik bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Albatta, ularda ijodkorning dardi turli voqea-hodisalar, turfa obrazlar misolida turlicha namoyon bo'ladi. Ammo barcha asarlar negizidagi dard, tasvirdagi zamon-u makonidan qat'iy nazar, bugungi ijtimoiy voqelikka munosabat bo'lib, aynan shu davr jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan hodisa o'laroq jaranglaydi, mohiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. –T.: Fan, 1978 –1979.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. –T.: O'zbekiston, 2002.
3. Usmon Azim. Kuz: she'rlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2001 y.
4. Usmon Azim. Saylanma: Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni. 1995 y.
5. Yo'ldoshev Q. Yirik tuyg'ular kuychisi// Til va adabiyot ta'limi 2010. № 8.
6. Tafakkur jurnali. 2009-yil, №1.

ID-020-30-A014

Muxlisa Voxidova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

O'TKIR HOSHIMOV IJODIDA ONA OBRAZI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan O'zbekiston Xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov ijodi haqida fikr yuritiladi. Xususan uning prozada Ona obrazini yaratish mahorati tadqiq etiladi. Bu mavzuning jahon va milliy adabiyotdagi ahamiyati qiyoslanadi. Yozuvchining qissa va romanlaridagi Ona obrazi atroflicha o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *o'zbek milliy adabiyoti, proza, O'tkir Hoshimov, qissa, roman, Ona obrazi.*

Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo'tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor. Lekin, ayni vaqtda, har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o'z fe'l-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi, hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. Bir so'z bilan aytganda, ona butun bir xalq, butun bir millatning o'ziga xosligi, shakllanishi, namoyon bo'lishida alohida o'rin tutuvchi siymolardan biridir.

O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilar juda ko'p. Lekin, O'tkir Hoshimov uni eng yuqori pog'onaga olib chiqqanlardandir. Adib asarlarida Ona obrazi shu qadar mustahkam va muhim o'rin tutadiki, ularsiz hatto yozuvchining yaxlit ijodini tasavvur qilish qiyin.

“Asl badiiy asar odamning ruhiyati, tabiat va ma'naviyatda ma'lum yangilanish, evrilish sodir qiladi”, - deydi Q. Yo'ldoshev. [11, b.17] O'tkir Hoshimov asarlari ham aynan shunday tarzda insonga ta'sir qiladi, uni fikrlashga undaydi. Ayniqsa uning Ona obrazi ta'riflangan asarlarida buning

yaqqol dalilini ko'rishiz mumkin. Adib mahoratining ko'pdan-ko'p qirralari ko'pincha bevosita mana shu obrazning yaratilishi va yoritilishidagi muvaffaqiyat bilan tutashib ketadi. "Dunyoning ishlari"da Onaning quyma obrazini yaratishga muvaffaq bo'lgan muallif endi boshqacha onani tasavvuriga sig'dirolmasligi aniq. U adib O'tkir Hoshimovning onasi, o'zbekning onasi edi. Ona obrazini yaratishda bosqichma-bosqich bosib o'tilgan "Dunyoning ishlari" qissasi, "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi, "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlaridagi qator onalar obrazi va ularning milliy xarakterini yaratishdagi lirik ifoda va epik ko'lam uyg'unligining yetakchi uslubiy yo'nalish tariqasida shakllanganini ko'ramiz.

O'tkir Hoshimov ijodida "Dunyoning ishlari" qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi kulminatsion nuqtasi bo'ldi, deyish mumkin. Yozuvchi ijodiga xos lirik taronaham uningmana shu qissasida eng baland pardalarda jarangladi. Fikrimizcha, bu asar Ona haqidagi, Ona qalbining cheksiz sahovati haqidagi o'ziga xos qasidadir. Zero, mazkur qissa o'zbek kitobxonlari va adabiyotshunoslarigina emas, xorij kitobshinavandalari qalbini ham zabt etdi. Ustoz adib Said Ahmad "Ijod va jasorat" maqolasida qissa haqida shunday e'tirof etdi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarmiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi". [7, b.2] Muallifning o'zi esa bu haqida shunday deydi - "Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun aziz odam - Onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan Onamga bog'langan". [1, b.3] Yuqoridagi gapning isbotini Chingiz Aytmatov aytgan quyidagi purma'no so'zlarda ko'rishimiz mumkin: "Badiiy asar odamning odam haqidagi hikoyasidir". [11, b25]

Demak, bu qissa yaratilish uslubi jihatidan Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Oybekning “Bolalik” avtobiografik xarakterdagi asarlariga o‘xshab ketadi.

Zeroki, dunyoda eng bebaho, ammo hamisha tekinga tarqatiladigan xazina bor. Bu ham bo‘lsa, Ona mehri...Bu shunday narsaki, uni hech narsa bilan to‘sib, yashirib, pinhona tutib bo‘lmaydi. U qanday bo‘lsa, shundayligicha bizga ko‘rinadi, namoyon bo‘ladi. Bu inkor etib bo‘lmas haqiqatdir.[4, b.19]”Dunyoning ishlari” qissasidagi bosh qahramon Ona obrazi ham ana shunday mehri daryo onalardan biridir.Uadibning onasi Poshsho xola obraziga hayotiy asos bo‘lib, uning atrofiga chamasi 20 ga yaqin onalar obrazi bilan chambarchas bog‘lanadi. Lekin barcha voqealar va onalar siymosi Poshsho xola obrazi bilan bir nuqtada kesishadi. Qissadagi hikoyalar davomida muallif qahramon tarzida o‘zini o‘zi koyiydi.Ona qadriga yetmaganlikda, uning mehribonliklarini tushunmaganlikda, farzandlik burchni yaxshi ado etolmaganlikda ayblaydi, afsuslanadi.Zeroki, onalarimiz biz uchun chekkan zahmatlarining evaziga qanchalik ko‘p yaxshilik qilib, ulaning duolariniolsak ham oz. Xususan, Al-Buxoriy hadislarida keltirilganidek: ”Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Bir kishi Rasululloh sollollohu alayhi vasallamdan “Kimga yaxshilik qilaman?”, - deb so‘radi. U zot: “Onangga”, - dedilar. U kishi: ” So‘ngra kimga?”, - dedi. U zot: ”Onangga”, - dedilar. U kishi: “So‘ngra kimga?”, - dedi. U zot: ”Onangga”, - dedilar. U kishi: ” So‘ngra kimga?”, - dedi. U zot so‘ngra: ” otangga”, - dedilar.”[10, b.12].

Adib ijodida Ona obraziga berilgan dastlabki chizgilar 1966-yilda yaratilgan “Odamlar nima derkin?” qissasidan boshlandi. Ushbu asarda xarakter evolyutsiyasi ikkinchi planga tushib qolsa-da, ijodiy tajribadan o‘tayotgan ikki Ona qiyofasi voqealar tizimiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Garchand, dunyoga keltirgan Ona va o‘gay Ona orasida konflikt kelib chiqmasa-da, muallif voqealarni ona-bola munosabatlariga bog‘liq holda rivojlantiradi. Ona obrazi yaratilishidagi navbatdagi bosqich 1972-yilda yozilgan “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasiga borib taqaladi. Aslida bu hikoyani inson ruhiyatining lirik

in'ikosi sifatida baholash mumkin. Oradan 10 yil o'tib adibning dunyodagi barcha onalarga bag'ishlangan, ijodining kulminatsion nuqtasi deb hisoblangan asari "Dunyoning ishlari" yoziladi. Bu asardagi Ona obrazi oldingilarga qaraganda ancha mukammalligi, saktaliklardan holiligi bilan ajralib turadi. Undan ko'p o'tmay yozilgan "Ikki eshik orasi" romani (1986) bu zanjirning uzviy davomi bo'ladi deyish mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, "Dunyoning ishlari" bir qarashda avtobiografik asar, yozuvchining o'z bolalik yillari, yoshlik, yigitlik davri xotiralari, onasi, qarindosh-urug'lari, tanish odamlar hayotidan xabar beradi. Unda xilma-xil voqealar hikoya qilinadi, biroq asar markazida Ona obrazi turadi. Asardagi ona farzandi, uning oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor ming-minglab onalarimizning timsoliga aylandi. Bir so'z bilan aytganda, "Dunyoning ishlari"da o'zbekning mushtipar, mushfiq va jafokash Onasiga tirik haykal qo'yildi. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"da aytilganidek: "Ayol go'dak isini birinchi farzandi tug'ilganidayoq his etadi. Erkak esa go'dak isi nimaligini nabirali bo'lganidan keyin angelaydi!"[4, b.10] Shunday ekan, kitobxon qavmi ushbu asar mutolasiga kirishdi deguncha o'z bolaligi, go'daklik xotirasiga muhrlangan volidasini eslaydi. Bu eslash har qanday bag'ri tosh odamning ham ko'nglini halimlashtiradi, uni ezgu tuyg'ular girdobiga tortadi. "Tushda kechgan umrlar"dagi Qurbonoy xola ko'p jihatdan qissadagi Oyi obrazini mantiqan davom ettiradi. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"da shunday satrlar bor: " Hatto bulbul ham bola ochganidan keyin sayrashni bas qilib, polaponlariga yemish tashiydi". [4, b.51] Bu misralarda ta'riflangan ayol Qurbonoy xolaning aynan o'zidir. U oddiygina farrosh bo'lsa-da, o'z oilasini halol mehnat bilan topgan mablag' hisobiga tebratar, ba'zan esa mashaqqatli hayot qurboniga aylanganligini o'zi ham sezar, asar boshidan qismatning achchiq zarbasiga uchragan, ota-onasidan erta yetim qolgan asar qahramonidir. Taqdirning zarbalari, farzandi, nabirasi oldida o'zini, hayotini qurbon qilgan, ismi jismiga monand o'zbek ayolidir.

“Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi Umri onaning mushfiqligi, hokisorligi ham bu ikki asardagi onadagi fazilatlarda deyarli farq qilmaydi. Asar davomida kuzatiladigan tushkun kayfiyat ustuvorligi alamzada o‘g‘ilning qarori yordamida fojiviy nuqtaga ko‘tariladi. Shu o‘rinda Umri xola va Shoikrom xatti-harakatlaridagi o‘xshashlik kitobxonni ajablantirmaydi. Ona o‘g‘rilik qilish katta gunoh ekanini o‘ylab ko‘rmaganidek, farzand ham birovning joniga qasd qilish salbiy illat ekanini tushunishni istamaydi. Bu yerda asosiy aybdor – urush va uning salbiy asoratlaridir. Shu o‘rinda fransuz mutafakkiri D.Didroning “Xarakter tipik sharoit bilan belgilanadi”[6, b.206], - deganida naqadar haq ekanligi oydinlashadi. Ya’ni urush tufayli ona ham o‘g‘il ham shundan boshqa ishni qilishlari mumkin emasdek ko‘rinadi, go‘yo Badiiy asarni tahlil qilish amaliyoti uchun asardagi makon va zamonning qanchalik oz yoki ko‘p to‘ldirilganligi muhimdir. Negaki, bu ko‘rsatkich asarning uslubiy yo‘nalishini qandayligidan dalolat beradi.[11, b. 207]

Adabiyotshunos B.Sarimsoqov: “Shartlilik badiiylikning mezoni sifatida asardagi bosh g‘oyani to‘laqonli ifodalashga xizmat qiladi. Haqiqiy badiiy asar ko‘p g‘oyali bo‘ladi. Asardagi barcha g‘oyalar, barcha unsurlar ana shu bosh g‘oya atrofida markazlashib, uni yorqin va to‘laqonli ifodalanishiga xizmat qiladilar” – deydi.[8, b.164-167] “Ikki eshik orasi” asaridagi Qora amma obrazi bilan g‘amboda Ona haykali, Qora amma bilan noma’lum soldat monumental haykalining kiritilishi ham asardagi bosh g‘oyaga juda mos keladi. Binobarin: “Haykallardan uzoqlarga ma’yus termilib o‘tirgan Ona paydo bo‘ldi. U katta-katta, sertomir qo‘llarini tizzasiga qo‘yib, boshini quyi solib o‘tirar, ko‘zlarida cheksiz mung... umid bor edi. Negadir vujudim seskanib ketdi. Axir bu... ammam-ku. Qora ammamning o‘zi-ku! No‘g‘ayqo‘rg‘onga, uyiga borganda xuddi shu alpozda o‘tirganini ko‘rganman”. [3, b.573] Mazkur parcha ikkinchi kurs talabasi Muzaffar tilidan hikoya etiladi. Motamsaro Ona haykali aslida, ramziy ma’noda o‘zbek Onalarining timsoli. Asar qahramoni Muzaffar g‘amboda Ona haykali bilan Qora amma o‘rtasidagi o‘xshashliklarni juda nozik hissiyot bilan ilg‘aydi. Boshini quyi solib, sertomir qo‘llarini tizzasiga qo‘yib,

ko'zlariga mung bilan uzoqlarga tikilib o'tirgan Ona haykali aslida Qora amma taqdiriga ramziy ishora beradi. . Qora amma o'g'li Kimsanni urush tugaganiga yigirma yildan oshib ketsa ham kutaveradi. Zero, farzandi dog'ida kutaverib ado bo'lgan onaning ruhiy holatini shu bir kichik parchada ham kuzatishimiz mumkin: “- Bola-m! – Qulog'imning tagida yangragan faryoddan seskanim ketdim. – Onasining go'riga tushgan bola-a-am! – Ammam dadamning qo'lidan yulqinib chiqdi-yu, kalovlanib, yigit haykaliga talpindi. Yugurib borib haykalni quchoqladi. – Onasini dog'da qoldirib ketgan Kimsani-i-im! Jon bolam. Jonim bolam! – U haykalning kaskali boshidan quchoqlab o'pa boshladi. Ro'moli sirg'alib tushib, haykalning avtomatiga ilinib qoldi. Oppoq sochlari to'zg'ib ketdi”. [3, b.576]

“Dunyoning ishlari” boshdan-oyoq nihoyatda yorqin, ajib bir milliy bo'yoqlar bilan jilolangan. Ayni paytda asar teran bir umuminsoniy tuyg'ular bilan yo'g'rilgan mulohazalar bor: “Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam o'z sevgilisiga aytgan dil rozini dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chetida turib bir odam aytgan qo'shiqni dunyoning narigichekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Ehtimol, dunyoning bu chekkasida turib bir odam aytgan oqilona fikrni dunyoning narigi chekkasidagi boshqa bir odam tushunmas. Biroq dunyoning bu chekkasida turib Ona aytgan allaga dunyoning narigi chekkasidagi go'dak bemalol orom oladi”. [1, b.24] Aynan shunga o'xshash oqilonasatrlarni O'tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asarida ham uchratishimiz mumkin. Unda aytilishicha: “Amerika bilan O'zbekiston orasi o'n besh ming chaqirim. Avstraliya bilan Kanada orasiyigirma ming chaqirim. Ammo amerikalik senatorning xotini o'z farzandini o'zbekistonlik dehqonning xotinidan kamroq yaxshi ko'rmaydi. Avstraliyalik aborigen ayol o'z farzandini kanadalik millioner ayoldan ko'proq yaxshi ko'rmaydi”. [4, b.44] Ya'ni, ona mehriга masofaning, joyning, makonning aloqasi bo'lmaganidek, Ota-onaga bolaning ham yaxshi-yomoni bo'lmaydi.

Ona allasining sirli-sehrli kuchini muallif avvalo Alloh so‘zi – Qur’oni Karim oyatlari tilovati sadosi bilan qiyos qiladi. Qabristondagi hujra tomonidan tilovat sadosi eshitiladi, xuddi shu payt hovli tomondan ona allasi yangraydi: “Rabbano – o – o, rabbano – o – o ...” “Allayo, alla...” Hikoyachi ajib bir holatga tushadi “Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla... Ajab, ular bir-biriga halaqit bermas, bir-birini rad etmas”. [1, b.44] Orada qandaydir sirli mushtaraklik mavjud. Yozuvchi dunyoning ikki chekkasida o‘zi guvoh bo‘lgan ikki hodisani – safar chog‘i qirg‘iz o‘tovidagi qirg‘iz ayol aytgan alla va olis Kislovodskda sibirlik juvondan alla eshitgan chog‘dagi g‘aroyib holati – yurakdagi shirin orziqish tuyg‘ularini to‘kib soladi. Qirg‘iz va rus ayollarining o‘z ona tillarida aytgan dil rozlari muallif qalbini onasidan eshitgan alla kabi tug‘yonga soladi, allalaydi. Shu tariqa yozuvchi voqea-hodisalarni shunchaki hikoya qilib bermaydi, hodisa bilan bog‘liq tuyg‘ularning ajib sehrini, nafosatini kitobxon qalbiga olib kirishga muvaffaq bo‘ladi. Qissaning deyarli barcha boblari ayni shu ruhda bitilganligining isboti sifatida adabiyotshunos A. Rasulov shunday deb yozadi: “Dunyoning ishlari” poetikasining alohida sinchkovlik bilan o‘rganish zarur. Asarda yozuvchi mahorati, topqirligi, qissa janri tabiatiga kiritgan yangiligi, eng kichik personaj mohiyatini ham bir turtki, bir imo, harakat bilan ochib yuborganligi aniq ko‘rinadi”. [8, b.323]

Ona avvalo yaratuvchanligi bilan ulug‘lanadi, sharaflanadi. Zero, adibning o‘zi “Ayol” nomli publisistik maqolasida Onaning yaratuvchanlik qobiliyatini kurrai zaminga qiyoslab yozgan fikrlari bilan buni dalillaydi: “Ona mehrini to‘sadigan qudrat dunyoda yo‘q. Ehtimol, ona yurt, ona tili, ona vatan, ona yer degan iboralar mana shundan kelib chiqqandir. Shuning uchun ham men yer kurrasini ayolga o‘xshataman”. [5, b.2]

Qayta hikoyalash mumkin bo‘lgan joyda san‘at bo‘lmaydi. Sana‘atning san‘atligi, ilohiyligi, takrorlanmasligi ham, aynan, uni aytib berish mumkin emasligidadir. Kim bo‘lsa ham boshqa birov tomonidan aytib berishga urinish badiiy asarni yo‘qqa chiqazish demakdir. [11, b.170] O‘tkir Hoshimov asarlari shakl va mazmun jihatdan yuqoridagi gaplarning isboti o‘laroq rang-barang va

takrorlanmas. Adib asarlarida, ayniqsa, Ona obrazi badiiy talqinining o'ziga xosligi va badiiy teranligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. www. Pandia.ru. С. Небельский. Образ матери в художественной литературе. Yana: vob.petuxic.ru.net. Образ современной матери.
2. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.-T.: O'qituvchi, 2007.
3. O'tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. – T.: O'qituvchi, 2018.
4. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – T.: O'qituvchi, 2018.
5. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq, 2011.
6. O'tkir Hoshimov. “Ayol” // – T.: Mustaqillik matbuoti, 1999.
7. Дидрод. Избр.произв.-М.: -Л.: ГИХЛ, 1951.
8. SaidAhmad. Ijodvajasorat. – T.: Mustaqillik matbuoti, 2000.
9. B. Nazarov, A.Rasulov va boshqalar. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – T.: Cho'lpon, 2012.
10. Imom al-Buxoriy. Al-Jomi' as-Sahih. – T.: 1991.
11. Imom al-Buxoriy. Oltin silsila – Sahih-ul Buxoriy. – T.: Hilol nashriyoti, 2016.
12. Q. Yo'ldoshev, M. Yo'ldosheva. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016.
13. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'qituvchi, 1986.
14. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. – T.: Adabiyot va san'at, 2006.
15. XX asr o'zbek adabiyoti masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. – T.: Fan, 2012.
16. U. Normamatov. Yetuklik. – T.: G'afur G'ulom, 1982.
17. S. Ahmedov va boshqalar. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. –T.: Ma'naviyat, 2007.

ID-020-30-A015

Yulduz Ziyayeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

“LOLAZOR” ROMANIDAGI YAXSHIBOYEV NUTQIDA KINOYANING IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi Murod Muhammad Do'stning “Lolazor” romani asosida so'z boradi. Maqolani “Lolazor” romanidagi Yaxshiboyev nutqida kinoyaning ifodalanishi” deb nomladik. Asardagi kichik kuzatishlarimiz natijasida Yaxshiboyev nutqida kinoyaning ifodalanishi, piching, kesatiq, qochirimlarga to'xtaldik. Yaxshiboyev obrazini talqin qilishda kinoyaning o'ziga xos qirralarini tahlil qildik.

Kalit so'zlar: *qahramon nutqida kinoyaning ifodalanishi, kinoyaviy talqin, piching, kesatiq, kinoyada qarama-qarshi ma'no.*

Annotation. This article is based on the novel “Lolazor” by the writer Murad Mukhammad Dost. We called the article “The expression of irony in the speech of Yakhshibaev in the novel “Lolazor”. As a result of our small observations in the work, in Yakhshibaev's speech we focused on the expression of irony, pitching, cuts, omissions. In interpreting the image of Yakhshibaev, we analyzed the peculiarities of the film.

Keywords: *the expression of irony in the speech of the protagonist, satirical interpretation, pitching, cutting, the opposite meaning in irony.*

Yaxshiboyev obrazi “Lolazor” romanida o'ziga xos yo'sinda ifodalangan. Asarda qahramonni mushohadalarga boy, har bir kuni, har bir qilgan ishi, do'stlari, oilasi, yaqinlari haqida o'ylari ichida ko'ramiz. Yozuvchi, aytish joizki, Yaxshiboyevning nutqida juda ko'p o'rinlarda kinoya, qochirimlar, pichinglarni ishlatgan. Qahramonning dunyoqarashi, fikrlashi, asarda aks etgan voqeliklar aynan ana shunday til birliklari orqali yanada aniqroq namoyon bo'ladi.

Yaxshiboyevning kinoya bilan gapirishi qahramon ichki olamining bevosita voqelikka munosabatini ham ko'rsatib beradi. Yaxshiboyevning atrofidagi yaqinlari, do'stlari, hamkasblari, shogirdlariga bo'lgan munosabati ana shunday kinoya-yu qochirimlar, kesatiq-u pichinglarga boy. Asar voqeligini baholashda nafaqat butun asar ichidagi qahramonlarning nutqidagi o'ziga xosliklar, balki markaziy obrazlardan biri hisoblangan Yaxshiboyevning nutqidagi ajib tasvir bizni qiziqishimizni yanada orttiradi. "Murod Muhammad Do'stning "Lolazor" romani ham ko'p ovozli romanga misol bo'la oladi. Undagi Oshno, Nazar Yaxshiboyev kabi qahramonlarni fe'l-atvoriturfa tovlanishlarda akslangan. Ayniqsa, Nazar Yaxshiboyevning obrazida ko'p ohanglilik yaqqol ko'zga tashlanadi: u o'z nuqtayi nazari (iroda yo'nalishiga) ega bo'lganidan tashqari, o'zini-o'zi (ikki, uch...ko'pga bo'linib) tahlil ham eta oladi, o'zgalar (qarama-qarshi tugunlar) bilan ishonchli bahslash ham biladi... "U bir ongning in'ikosi bo'lib emas, xususan boshqa ong ta'sirida paydo bo'lgan va bir necha ongning o'zaro aloqasi asosiga qurilgan" (M.Baxtin) ligi bilan xarakterlidir". [1. 55-bet]

Yaxshiboyev obrazini talqin qilishda, albatta, qahramonning o'z-o'zini tahlil qilishida, o'zgalar bilan bahs-munozaraga kirishishida kinoya, kesatiq, achchiq va kulgili shama-yu ishoralarning o'rni beqiyosligini inobatga olishimiz zarur. Aytish joizki, nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda kinoya muhim o'rin tutadi. Buni "Lolazor" asari misolida yaqqol ko'rish mumkin. Avvalo, kinoya tushunchasiga to'xtalsak. Kinoya so'z yoki iboraning o'z ma'nosiga butunlay qarama-qarshi bo'lgan ko'chma ma'noda ishlatilishidir. Undaso'zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatiqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv-kulgi aralash munosabatini yuzaga chiqqanini ko'ramiz. So'z yoki iboraning to'g'ri ma'nosiga zid, ya'ni inkor, emotsional-ekspressiv bo'yoqli ma'no ifodalashi ayni kinoyaga xosdir. Kinoyaning lug'atlarda izohlanishiga e'tibor beramiz. "Til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshima'noda, kesatiq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chim" [2. 49-bet] deya ta'rif berilgan kinoyaga. "O'zbek

tilining izohli lug'ati"da esa "Kinoya [a] Masxaralash, kulish uchun aytilgan pardali gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq" [3. 386-bet] deyilgan.

Kuzatganimizdek, lug'atda kinoya leksemasining mohiyati gapning qo'llanish maqsadi asosida tavsiflangan, ma'noni yoritish uchun kinoyaning sinonimlari qochirim, istehzo, piching, kesatiqqa ham murojaat qilingan. Kinoya o'zagi asosida yaratilgan kinoyali, kinoyaomiz so'zlari izohi ham ayni shu lug'atda berilgan. Og'zaki nutqda ko'pincha "Kinoyali gapirdi", "Kinoyaomiz qarab qo'ydi" jumllariga duch kelamiz. Aytish joizki, o'zbek tilining bunday ohang tovlanishlaridan muallif Yaxshiboyev obrazida yaxshigina foydalangan. Uning nafaqat nutqida, balki xatti-harakatlarida kinoyali, kinoyaomiz holatlarni kuzatamiz. Tilning bu birligidan foydalanish Yaxshiboyevning qalamkash yozuvchi ekanligi bilan ham bog'liq. Negaki, yozuvchilar so'zni qaysi o'rinda, qanday o'ynatishni yaxshi biladi. 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa kinoyaga ta'rif boyitilgan. "Kinoya [a – belgi; shama, ishora; piching; kesatiq] 1. Masaxaralash, kulish uchun asl ma'nosidan boshqa, majoziy ma'noda aytilgan so'z, gap; qochirim, istehzo, piching, kesatiq ifodasi. 2 ad. Uslubiy vosita: badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatiq, qochiriq vositasida yashirin kulishdan iborat" [4. 370-bet]

Ushbu izohdan kinoyaning mohiyati ma'lum darajada oydinroq yoritilganini, uning turli sath birliklari, deylik, so'z, gap bilan ifodalanishi haqidagi hukmni, sathlar bo'yicha sochilgan keng qamrovli hodisa ekanligiga ishorani anglaymiz. Badiiy adabiyotda ham kinoya atorflicha ma'no-mazmunga, qo'llanish doirasiga ega. "Ironiya (gr. yeironeia – bilib bilmaganga olish so'zidan) – kinoya, qochiriq, kesatish, piching. Badiiy asardagi inkor etish usullaridan biri bo'lib, biror shaxs yoki narsa ustidan kesatish, qochiriq vositasida yashirin kulinadi. Shuning uchun ham kinoyaning muhim belgisi so'z yoki gapning hamma vaqt ikki ma'noli bo'lishida, haqiqiy ma'no aytilgan so'z yoki gapning teskari ma'nosi orqali anglashilishida namoyon bo'ladi. Kinoya o'zining ta'sir darajasiga qarab fosh etuvchi yoki shunchaki qochiriqdan iborat

bo'ldi. Kinoya usuli, asosan, hajviy, kulgili tasvirda keng qo'llaniladi" [5. 141-bet]

Shunday qilib, kinoya o'zida so'zlovchining salbiy, hissiy munosabatini aks ettirgan, shakliy va mazmuniy nomuvofiqlikdagi, kulgi, istehzoga asoslangan, turli sathga birliklariga xos nutqiy ma'nodir. Yaxshiboyev juda ko'p o'rinlarda kinoya bilan so'zlaydi. Uning kinoyalari mag'zini chaqish asar mazmuniy kalitini ochishga yordam beradi. "Lolazor" romanida Yaxshiboyev nutqida keltirilgan kinoyalar oddiy qahramonlar tilida qo'llanuvchi kinoyalardan keskin farq qilib, obrazlilik, chuqur ma'nolilik, o'tkir qochirimlar, o'xshatishlar, frazeologik birliklar tipida berilgan. Yaxshiboyev aytolmagan gaplarini, yozolmagan so'zlarini kinoyalari qatiga singdirib yuborgan. Ularning ba'zilariga to'xtalib o'tsak.

Asar muqaddimasi "Osmon mezonlardan yiltirar edi" so'zlari bilan boshlanadi. Bu gapni Yaxshiboyev qayt-qayta takrorlaydi, atrofida gilarining munosabatini bilmoqchi bo'ldi. Topgan tashbehi ostida uning hayoti, qanday yashash zarurligi aks etgan. U o'tgan umrini sarhisob qilish asnosida mezonlardan yiltiragan osmon yonida "xushomadgo'y laychalar" qolganini kinoya bilan xotirlaydi. U asar so'ngida umrini boshqacharoq yashab o'tishi mumkinligini anglaydi. Afsus qiladi, nadomat qiladi. Keksayib qolgan Yaxshiboyev xotini Muhsina xonimga baho berishda kinoyali sifatlarni ko'p o'rinda ishlatgan. Kasalxonada yotganida vazadagi gul haqida o'ylarkan, "Muhsina xonim tarafidan – didli, savodli Muhsina xonim tarafidan qo'yilganki, oq nilufar deb ataladi". [6. 12-bet] "Didli, savodli" izohida yengilgina kinoya bor. Sababki, Yaxshiboyev gulni ko'rganda dimog'ida botqoq hidini tuyganday bo'laveradi. Bir o'rinda Muhsina xonimga "Qarg'alar ko'ngilda bo'lsa-chi? Ko'ngilda qag'illab tursa-chi?" [6. 29-bet] deydi. Albatta, Muhsina xonim kinoyaning mag'zini chaqolmaydi. Yaxshiboyev, aslida, Muhsinaning diydiosidan charchagan, uni Yosumanga qiyoslaydi. Yaxshiboyevning Muhsinaga ishlatgan kinoyalari unga munosabatini aks ettiradi. Yaxshiboyev kasalxonada badantarbiyachi ayolga "Bu deyman, xonim, ayni

maskanda...bekorchiyotib kuch yig'ayotgan chollarning ichida ishlashingiz qiyindir-ov?" [6. 143-bet] tarzidagi kinoyasi esa Yaxshiboyevning xarakteri xos xususiyatni, ya'ni ayollarga munosabatini oshkor qilib qo'ygan. Hazilomuz kulgi ohangidagi kinoyalar ham talaygina. Kasalxonadagi farrosh xotin Marfaning yetmish yoshini mazax qilib, "Eh-he, hali qiz bola ekansan-ku!" [215-bet] deganda Yaxshiboyevning hazilni to'g'ri kelgan odamga qilib ketaverishi, hazillarida kinoyalar ko'rinib qolishini kuzatamiz.

Muyassar xonim bilan muloqotda kechmishini eslatish uchun achchiq kinoya qo'llaydi. "Ilojimiz qancha, – dedi Yaxshiboyev takabburona iljayib. – Siz, xonim, mulozamatga shunchalar o'rganib qolgansizki, endi eng quyuq salomga ham alik olavermaysiz. Haddan oshganimning boisi shuki, betamizlik bahonasida zora esingizda qolsam..." [6. 513-bet] Kinoya ohangida mulozamat, xushomadga o'rganib qolgan Muyassar xonimni iltimosiga ko'ndirish maqsadida Yaxshiboyev kinoya bilan so'zlashda davom etadi. "Eshagingiz loydan o'tganiga, eh-he, necha zamonlar bo'ldi!" [6. 513-bet] Yaxshiboyevning kinoyasiga qarab Muyassar xonim uni tamagirlikda ayblaydi. Kinoya subyektiv munosabat ko'rinishlaridan biri bo'lib, so'zlovchining salbiy munosabatini bildiruvchi uslubiy vositadir.

Oshno obrazi ham diqqatga sazovor. Negaki Yaxshiboyevning butun hayot yo'li, ijod yo'li bevosita Oshnoga bog'liq. Oshno bilan muloqotda ham kinoyalar qo'llangan. "Och qolsak, yana "ov" ga chiqaman!" – dedi qat'iy qilib. [6. 113-bet] Yaxshiboyev do'sti Oshnoga qaroqchilik qilishga chiqib xarom luqma topishiga ishora qilyapti. Bu yerda kesatiq shundan iboratki, Yaxshiboyev Oshno aytganday halol yo'l bilan topib keltirilgan yegulikka qoniqmaganidan dalolat. Yaxshiboyev va Oshnoning yoshlikdagi sarguzashtlarida ular halol va yaxshi yashash haqida ancha tortishgan. Oshno Bulduriq qishlog'iga do'sti ikkalasi muallimlikka mo'ljal qilinayotganini aytganda "Qadaming boshqacha-ku, – dedi Yaxshiboyev hasadini yashirolmay. – Endi u yoqlarga qaytib borarmiding!" [6. 136-bet] tarzida shahardagi hayotini kinoyaomuz yodga solib qo'ygandek bo'ladi. Ya'ni sen osmonlarda yuribsan, pastga tushib qishloqqa

qaytib ketasanmi degan ma'noda. Yillaro'tib ikki do'st xotiralarni albatta eslaydi. Kasalxonada yotgan keksa Yaxshiboyevdan hol-ahvol so'ragan Oshno unga xotira yozishni tavsiya qiladi. "Xotira yozgali cho'chiyman. Umrimizda ko'p voqealarga guvoh bo'ldik, hammasini ham yozib bo'larmikan?.." [6.149-bet] tarzida o'zining o'tgan umrida bo'lgan voqealarga ham qo'shtirnoq ichida kinoyaomuz munosabat bildiradi. Shu birgina jumlada o'zining hayotida tilga olib bo'lmaydigan voqeliklar borligi anglashiladi. Oshno katta lavozimlarda ishlab yurganida unga qarata "Sizdek ulug' odam rashk qilsa yarashmas ekan, dedim, rashkingiz – men uchun sharaf, oqsoqol, lekin butun bir xalqning do'sti bo'lgan odam birgina bechora Bog'iyni chetlatib qo'ysa qanday bo'larkan?.." [6.173-bet] deyishida bitta gap bilan do'stining nozik joyidan ushlaydi. Yaxshiboyevning istehzo, yengil kulgi sezilib turgan so'zlariga javoban Oshno "balosiz, gapniyam olasiz" deb tan beradi.

Kinoya "...nutqning ma'lum bir maqsadni yo'naltirishga xizmat qiluvchi, salbiy subyektiv munosabat (modallik) ifodalovchi uslubiy vosita hisoblanib, nutqning ta'sirchanligini oshirishga katta yordam beradi". [7.14-bet]

Yaxshiboyev nutqida keskin kinoyaning o'tkir namunalari ham benihoya ko'p keltirilgan, har bir jumla xuddi muayyan kinoya ifodasi uchun yaratilganday. Uni kasalxonaga ko'rgani kelgan yosh-yalang shogirdlari ketayotgan chog'da qaysidir nashriyotda ilig'liq turgan "Bu dargohdan hech kim norozi bo'lib ketmasin!" shiori eslab, o'rniga xayolida "Xush kelibsiz, qalang'i-qasang'ilar" shiorini mos topishi faqat Yaxshiboyevda uchraydigan takrorlanmas kinoyaviy ishora deyish mumkin. Haqiqatan, qahramonning nafaqat nutqida, balki xatti-harakatlarida, atrofidagi har bir voqelikka baho berishida, o'ylarida kinoyaomuz holat aks etib turadi. Bu esa xarakterni chuqurroq, ko'lamliroq, aniqroq ochilishiga va serbo'yoqli hayotiy chiqishiga asos bo'lgan. Bunday kinoyaviy ma'noning voqelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham alohida ahamiyatga ega.

Asardagi qahramonlardan biri Suyarqul muovinlikka nomzod so'raganda Ostonovni tavsiya etadi. "Dunyoda kushandasini bilmagan banda

bormikan o'zi?" [6. 155-bet] tarzidagi istehzoda Ostonov Suyarqulning kushandasi ekanligiga ishora bor. Ana shu o'rinda Yaxshiboyev kasalxonada uni bezor qilgan odam Ostonovdan shu usulda qutilishidan rohatlanishi unga xos salbiy jihatni ko'rsatadi. Yana bir qahramon Bog'iyning yupqaroq bir jurnalchaga bosh muharrir qilib tayinlanishiga hissa qo'shgan Yaxshiboyev uni "bosh muharrir" bo'lgani bilan tabriklaydi. Bog'iy kal bosh ekanligini mazax qilish maqsadida o'ylab topilgan bu tayinlov Yaxshiboyevning qitmirligiga, kinoya-yu kesatiqlari atrofidagi odamlar bilan o'zaro munosabati izohlashiga guvoh bo'lamiz. Umuman, Yaxshiboyev kinoya ishlatishiga nutqiy vaziyat yaratiladi. Jumladan, Yaxshiboyev kasalxonda ekanida uni tinimsiz so'rattirib turgan Zohid undan yordam so'rab kelganda qarigan chog'ida ajdahoning og'ziga ro'para qilayotgan Zohidga zavqlanib, yoyilib kulib, "Bitta sassiq chol kam bo'lsa kam-da, a?" [6. 499-bet] deydi. Bu kesatish ortida og'ir vaziyatda Yaxshiboyevdan foydalanib, Zohidning o'zi suvdan quruq chiqmoqchiligiga ishora bor.

"Kamsitish, masxaralashni yarim yashirin ravishda ifodalovchi gap-so'z, xatti-harakat. Kesatish so'zida masxaralash ottenkasi kinoya so'ziga nisbatan kuchliroq. Kinoya so'zi kesatiq so'ziga nisbatan kitobiy bo'lib, termin sifatida ham qo'llanadi. Istehzo kitobiy". [8. 123-bet] Kinochi yigit Abrorga Xarajat, kasalxondagi xonadoshlariga Daroz va Xumkalla laqabini qo'yishi, Muhsina xonimni Yosuman kampirga qiyoslashi, yosh qalamkashlardan ba'zilariga Mahmadata va Taqirbosh deb laqab ulashishi, asli ismi Turg'un bo'lgan Taqirboshga "Do'ltachol" laqabini ham qo'shib berishi, Rahmatovga nisbatan "Shirin bola" laqabini qo'llashi, Ko'klamovning familiyasini "ko'klam, ko'k, ko'kat, ko'kalamzor" so'zlarini aralshtirib so'z o'yini qilishi, ichida bobosini "lalmikor yer" ekan deb kulgiga yo'yishi ayni Yaxshiboyevni yaxshi tanib olishimizga, xarakteridagi qusurlarni ko'rishimizga yo'ldir. Kinoya qo'llanganda gap semantikasida xarakter bilan bog'liq psixologik bo'yoq ifodalanadi. Aytish joizki, Yaxshiboyevning nutqida bu so'zlar nedirki achchiq kesatiq emas, yengil kulgini, yumorni, go'yoki atrofdagilarini aslida qanaqa

ekanligini ko'rsatayotgandek. Yoinki Yaxshiboyebga xos bachkanalikdek tuyuladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, asar voqeligi, sujeti, kompozitsion qurilishi, qahramonlar taqdiri, asarda polifonik obrazlar talqinini ifodalashda kinoya juda qo'l kelgan. Yaxshiboyev misolida oladigan bo'lsak, uning atrofidagi odamlarga laqab to'qishida ham kinoya ishlatishi, ko'p ovoqli qahramon sifatida butun hayoti, yoshligi, ijodiy faoliyati haqidagi o'ylari, o'z-o'ziga ham kinoya bilan baho berishi, ichki olami va tashqi dunyoni ayni qarama-qarshilikda ko'rishi kabi o'rinlarni kinoyalarning uslubiy vazifasi, badiiy tasvir vositasi sifatida muhim o'rin tutishi bilan izohlashimiz mumkin.

Foydalanilgan dabitotlar ro'yxati:

1. Hotam Umirov. Adabiyotshunoslik nazariyasi.:T. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 55-bet.
2. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.:O'zME, 2002. 49-bet.
3. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 2 tom, 2-tom, 386-bet.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, 2-jild. 370-bet.
5. Hotamov.N, Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlari. - 141-bet.
6. M.M.Do'st. Lolazor.
- 7.Mamajonov A, Ibragimova E. Kinoya - subyektiv munosabat ifodalash usullaridan biri\\ O'zbek tili va adabiyoti jurnali. -T., 2000. N.4 14-bet.
- 8.Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati: Universitetlarning va pedagogika institutlarining studentlari uchun qo'llanma. - Toshkent: O'qituvchi, 1974. 123-bet.

ID-020-30-A016

Go'zalxon Ortiqaliyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

“ZULMAT OSTONASIDAGI MUHABBAT” ROMANI: SEVGI VA DO'STLIK TO'QNASHUVI TALQINI

Annotatsiya. O'zining ko'plab ashaddiy muhlislariga ega, 250milliondan ortiq nusxada sotilgan va 37 ta tillarga tarjima qilingan, keyinchalik shu asar asosida beshta mashhur kino sur'atga olingan “Zulmat ostonasidagi muhabbat” romani bugungi kunda o'zbek kitobxonlarini ham befarq qoldirmayapti. Ushbu asarda oddiy inson bolasi bo'lmish yosh qiz, qo'nso'rar vampir va qonso'rlar dushmani-bo'ritus yigitlarning o'zaro do'stlik va sevgi munosabatlari qalamga olinadi. Men ushbu maqolada “Zulmat ostonasidagi muhabbat”dagi ana shu jihatlarni yoritish va asoslashga harakat qildim.

Kalit so'zlar: *zamonaviy ingliz adabiyoti, vampirlar, bo'rituslar, do'stlik, sevgi, umrboqiy hayot, tabiat qonunlari.*

Annotation. The book “Love in Twilight Saga” which has a lot of fans, has sold more than 250 million copies, has translated into 37 languages, and five popular films based on this work, hasn't left Uzbek readers indifferent. In this play depicts the friendship and love between a young girl who is an ordinary human child, a bloodthirsty vampire, and a vampire enemy, the wolf-like. In this article, I have tried to justify the coverage of these aspects in “Love in Twilight”.

Key words: *modern English literature, vampires, wolf-likes, friendship, love, life, the laws of nature.*

*“Men doim ikkisining ham qo'l berib
ko'rishishlarini juda istardim,
xuddi do'stlardek, xuddi Edvard va Jeykobdek,
hech qanaqa qo'nso'rak va bo'ritusdek emas”
“Zulmat ostonasidagi muhabbat”dan*

Adabiyot yaralibdiki, muhabbat o'zgarmas va eskirmas, har bir asarning diqqat markazida mangu turuvchi muqaddas, mo'jizakor mavzu hisoblanadi. Insonni insonga g'amxo'rlik qilishga majburlovchi ham, insonni insonga kerakligini anglatuvchi ham va eng asosiysi, Yaratganimiz tomonidan o'z yaratmaqlariga in'om etgan eng buyuk tuyg'ular ham bu muhabbatdir. Biz bu tuyg'ularning chegara bilmasligi, yosh va millat ajratmasligi haqida ko'plab hayotiy va hayoliy voqealar guvohi bo'lganmiz. Buni qarangki, muhabbat va do'stlik hatto insonlarning turi va yashash tarzini ham inobatga olmas ekan.

Amerikalik mashhur yozuvchi, zamonaviy ingliz adabiyotiga sezilarli hissa qo'shgan Stefani Mayerning "Zulmat ostonasidagi muhabbat" romanida ham muhabbatning ana shu qudrati sabab dil torlari bir-biriga beixtiyor bo'g'lanib qolgan. Bunday dil sohiblarining biri vampir yigit Eduard Kallen bo'lsa, biri yoshgina kollej o'quvchisi Bella Svon edi. Shuningdek, Bellaning qadrdon do'sti hisoblangan Jeykop vampirlarning azaliy dushmani bo'lmish bo'rituslar avlodiga mansub bo'lib, u vampirlardanda xavfliroq sanalardi. Bellaning oldida sevgi va do'stlik yo'lining birini tanlashi yoki ularni murosaga keltirish vazifasi turar edi. Qay yo'lni tanlasada, uning hayoti xavf ostida turardi. Xo'sh, Bella Svon qay yo'lni tanlaydi?

Vampirlar deganda, tabiiyki, hamma qo'rqinchli va odamlar qoni bilan oziqlanuvchi daxshatli vampirlarni tushunsa kerak. Ammo bizning Kallenlar oilasi bundan mustasno. Ular o'zlarini "vegetarianlar" deb atashardi. Odamlarga zarar yetkazishmas, aksincha kasalxonada ishlab o'zlarining g'ayriodatiy qobiliyatlari orqali odamlarga shifo ulashardi. Ular hayvonlar qoni bilan o'z ehtiyojlarini qondirib, asli kimliklarini atrofdagilardan sir tutishgan. Eduard Kallenning hayotiga Bellaning kirib kelishi sir pardalari yuqoriga ko'tardi.

Eduard asli inson bo'lmasada insonni sevdi. U sevgan insoni uchun har narsaga tayyor bo'lgan holda, hattoki sevgilisining o'z dushmani bilan do'stligiga toqat qila olardi. Eduardning fikr o'qish qobiliyati Bellaga ta'sir

qilmasdi. (Sevgining oldida har qanday qobiliyat tiz cho'kar ekan-da). Shunday bo'lsa ham Eduard uchun eng muhimi Bellaning salomatligi edi. Buni haqiqiy vaxshiy vampir Jeymsning Bellani vampirga aylantirish uchun tishlaganida Eduard o'z tabiiy ehtiyojlariga qarshi turib Bellaning tanasidagi zaharni so'rib chiqaradi! Eduard Bellaning vampirga aylanishga bo'lgan qaroriga doimiy qarshi chiqadi. Negaki Kallenlarning hech biri o'z xohishi bilan mangu vampirlik hayotini tanlashmagan bo'lib, agar oddiy inson bo'lib yashashning iloji bo'lganida har qanday narsadan voz kechib insonlikni tanlashgan bo'lardi.

Shu o'rinda bo'rituslar hayotiga ham to'xtalsak. Bo'rituslar vampirlarga qarshi yaratilgan bo'lib, ular azaliy dushman edilar. Dastlab oddiy hindu bola bo'lib Bella bilan do'stlashgan Jeykop keyinchalik bo'rituslar zoti mansubligi angelaydi va o'z hayot tarzini o'zgartiradi. U ham Bella uchun hamma narsaga tayyor, hayotini Bellasiz tasavvur eta olmas darajada unga bog'langan. Bellaning vampirni yaxshi ko'rib qolishi, qolaversa Bellaning o'zi ham vampirga aylanishi haqidagi xohishini eshitib juda qarshi chiqadi. Ammo undan vos kecha olmasligini bilib bu holatga ko'nikishga majbur bo'ladi.

Bella Svon obrazi o'zida jasurlik, qat'iyatlilikni mujassamlashtirgan, bir tomondan oilasining xavfsizligi, bir tomondan sevgilisi, yana bir tomondan esa do'stining chorlovlari o'rtasidan to'g'ri yo'l axtargan bosh obraz hisoblanib, dunyoda odamlar qatorida pinhona yashovchi har ikki dunyo vakillarining sirlaridan xabardor yagona oddiy insondir. Onasing yangi turmushi sabab o'z otasining oldiga qaytgan Bellani o'z kursdoshi bir ko'rishdayoq o'ziga rom etgandi. "Falokatlarni ohangrabodek o'ziga tortuvchi Bella"ning hayotini bir necha marotaba saqlab qolgan Eduard bugun uning hayotida borligi bir quvonch va baxt edi. Do'sti Jeykopning bu masalalarda qarshiligini bilsada, u do'stidan ham, sevgisidan ham voz kechish niyatida bo'lmagan. Aksincha u eng to'g'ri yo'lni-sevgiga do'stlikni aralashtirmaslikni tanlaydi. Muhabbat atalmish oliy ne'mat ikki dunyo vakilini birlashtiradi.

Asar davomida vampirlar hayotiga oid qizqarli lavhalar, bo'rituslarning animistik hikoyalardan juda mohirona foydalanilgan. Jang syujeti ham juda

ishonarli va ta'sirli tasvirlangan bo'lib, beixtiyor kitobxonning qahramonlar orasiga hayolan tushib qolishiga, ular bilan birga yashab, birga hissiyot almashishiga imkoniyat yaratilgan. Asarning kompazitsion tuzilishi ham e'tiborga molik. Asar 5 fasldan iborat bo'lib, har bir fasl bosh qahramon Bella tomonidan alohida hikoyalar tarzida so'zlab beriladi.

Bu asarning yaralish tarixi ham qiziqarli: asar muallifi Stefani Mayer 29 yoshida ko'rgan tushida yashil o'tloqda ikki yosh juftlik; yosh vampir yigit sevgi to'la ko'zlari bilan qizni izlayotganligini ko'radi. Erta tongda uyg'onib Mayer muhabbat haqida roman yozishga kirishadi va tez fursatlarda katta hajmli asar dunyo yuzini ko'radi. Hattoki, muallifning turmush o'rtog'i uni asarning bosh qahramonini sevib qolganligida ayblaydi.

Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi: bu asardagi vampirlar yoki bo'rituslar to'qima obrazmi yoki ular hayotdan olinganmi?

Amerikaning Luiziana shtati universitetida doktorlik dissertatsiyasiga nomzod bo'lgan Broun hayoti mobaynida haqiqiy vampirlarni, hattoki besh ming kishilik "Atlanta Vampir Ittifoqi"ni qidirib topgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli hududlarda yashovchi vampirlar atrofdagi boshqa odamlardan biror belgisi bilan ajralib turishmas, yangicha hayot tarziga ko'ra ular qon bilan oziqlanishmas ekanlar. Olimlarning fikriga ko'ra, vampirlarning hech qanday aybi yo'q: ular ham tabiatning yaratig'idir. Faqatgina turli xil kinolardagi notog'ri talqinlar tufayli insonlarda ularga nisbatan xavfli degan qarash paydo bo'lgan ekan. Bo'rituslarning esa hayotda mavjudligi haqida aniq dalillar hali fanda isbotlanmagan. Ilm ahli bo'rituslarni ma'lum bir hindu qabilalarining totemistik qarashlari deb hisoblashadi.

Bu romanning o'zbek kitobxoniga ijobiy ta'sirida kitob tarjimonning mahorati yuksak qadrlanadi. Bugungi kunda o'zining ijod namunalari bilan o'z muhlislarining ko'nglini xush qilib kelayotgan serqirra ijodkor Dilfuza Sobirova har qancha maqtovlarga arzirli bo'lgan ishga qo'l urgan: "Zulmat ostonasidagi muhabbat" romaniga o'z mehrini qo'shib tarjima qilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asarda bugungi asrimiz hayoti: zamonaviy shaharlar, qulay avtotransportlar, so'nggi urfdagi kiyimlar-u muhtasham imoratlar tasvirlangan. Ammo bir narsaga zamonaviylik soya sola olmagan. Bu-MUHABBAT. Unga hech kim qarshi chiqa olmadi, hech kim voz kecha olmadi. Kitobxonning olish mumkin bo'lgan bo'lgan sabog'i-muhabbat uchun kurash va kurashda do'stlarning ham qadrini ham unutmaslik; Yaratganning har bir yaratig'iga mehr ko'zi ila boqish; har qanday insonni boriligicha ardoqlash. O'tkinchi umr suronida saroblarga aldanmay bir-birimizni qadrlaylik, azizlar!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stefani Mayer "Zulmat ostonasidagi muhabbat" 2005.
2. www.kitobxon.uz sayti
3. <https://akt.uz> sayti

ID-020-30-A017

Mohira Abdurahmonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs magistranti

AHMAD A'ZAMNING "RO'YO YOXUD G'ULISTONGA SAFAR" ROMANIDA RAMZ POETIKASI

Annotat siya. Ushbu maqola Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" romanidagi ramzlarga bag'ishlangan bo'lib, asardagi tush motivi asosida yaratilgan ramziy obrazlarning badiiy xususiyatlarini yoritish maqsad qilingan. Tadqiqotda romandagi ramzlarning badiiy xususiyatlari haqida mulohazalar yuritilgan. Asardagi parchalar misolida unda uchraydigan ramzlarning ma'no qatlamlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *ramz, ro'yo, g'ul(zanjir), G'uliston, ruhiy tutqunlik, qalb qulfligi, nafs*

Annotation. This article is dedicated to the symbols in Ahmad Azam's novel "Dream or Journey to the Land of Chains" and aims to shed light on the artistic features of the symbolic images created based on the dream motif in the work. The study discusses the artistic features of the symbols in the novel. The meanings of the symbols are given in the example of the passages in the work.

Keywords: *symbol, dream, chain, country of Chains, mental captivity, the lock of the heart, self*

San'atkor o'zining asari bilan biz bilgan olamdan boshqa yana bir dunyo – tasavvurdagi ikkinchi olamni bunyod etadi. Bu olamda o'z ideallari, orzu-umidlari, kechirgan voqea-hodisalari, armonlari yoki xayolidagi istaklarini aks ettiradi. Rus adabiyotshunos olimi Aleksandr Genis aytganidek: "San'atkor o'zining asari bilan, Yaratganning dunyosidagi shakl-u shamoyil va nusxasiga o'xshatib ikkinchi tabiatni yaratadi" [4]. Bu jarayonda yozuvchi ma'lum bir

badiiy g'oyani ko'zda tutar ekan, uni turli shakldagi tasvirlash usullari orqali kitobxonga ulashadi. Bugungi kunda zamonaviy o'zbek romanlarida mualliflar o'z fikr-mushohadalarini ramzlar vositasida badiiylashtirishga harakat qilishi uchraydi. Jumladan, Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" nomli romanida yozuvchi o'zi aytmoqchi bo'lgan bir qancha falsafiy, ijtimoiy, hatto, siyosiy fikrlarini ham ramzlar vositasida ifodalaydi. Ushbu roman Toshkentdan yo'lga chiqqan qahramonning Jizzax yo'lidan ixtiyorsiz ravishda burilib borib qolgan mamlakat tasviri va o'zining tashrifi bilan yuz bergan voqealarga qurilgan. U borib qolgan mamlakatning nomi G'uliston bo'lib, "g'ul" – "zanjir" so'zidan olingan. Bu mamlakatda barcha fuqarolarning zanjir taqib yurishi qahramonimizni hayratga soladi. Odamlarining ismi yo'q, erkaklar g'uliy, ayollari g'uliya deb atalaveradi. Farzandlari dastlab zanjirsiz tug'iladilar, so'ng yura boshlagach, ular ham zanjirband etiladi. Ajablanarli joyi shundaki, hech bir kishi zanjirband etilganligidan norizo emas, ozor chekmaydi, aksincha, ular zanjirga shu qadar ko'nikib ketganki, o'z hayotlarini zanjirsiz tasavvur ham qila olmaydilar. G'uliyalar hikoyachi qahramon G'ulistonga nima maqsadda kelib qolganligini aniqlash uchun uning mashinasidan topib olingan kitobni olib o'qib ko'rishadi va zanjirsiz yashash mumkinligi haqida tasavvur paydo bo'lib, e'tiqodlariga putur yetadi. Asarda g'uliyalar o'zlarining doimiy ko'nikkan zanjirbandlik hayotini yoki boshqa yurtidan borib qolgan kishidek (hikoya qahramonidek) zanjirsiz yashashni tanlash-tanlamasligi ochiq qoldirilgan. Hikoyachi G'ulistondan yana o'zining avvalgi ketayotgan tomoniga – Jizzaxga ketish yo'lga tushib olishi bilan ro'yo yakunlanadi. U yana o'ngidagi voqealarda ishtirok eta boshlaydi.

Ahmad A'zam romanda tush va o'ngda – ro'yo va real hayotda kechayotgan voqealarni tasvirlar ekan, asar kompozitsiyasidagi tush motivi ramziy ahamiyatga ega voqea-hodisalarni yoritishga xizmat qilgan. Bundan murod yozuvchi o'zining fikr va falsafasi, tanqidiy mushohadalari yoki shaxs va jamiyat munosabatlarining ko'z ilg'amas qirralariga kitobxonning nazar tashlashi uchun imkoniyat yaratishdir. "Ro'yo"da ham muallif o'z tasavvuridagi

olamni tush motivi asosida badiiylashtiradi. Vargas Losa “Yosh romannavisga xat” esesida yozuvchilarning tasavvurdagi olamni yaratishdan maqsadlari haqida shunday deydi: “Kimki o‘zi yashab turgan voqelikdan o‘zgacha bir olam yaratishga berilib ketgan bo‘lsa, demak, u atrofini o‘rab turgan real dunyoni qabul qila olmayapti... Bu odamlarning real hayotda erisha olmagan talab-ehhtiyojlarini, xohish-istaklarini qondirish yo‘lini tasavvurida paydo qilishdir”[4]. Ahmad A‘zamning roman kompozitsiyasini tush motivi bilan bog‘liq ramziy obrazlarga qurishi yozuvchining ichki olamida yashiringan atrof-olam, insoniyat, butun jamiyat, ruhan ozodlik haqidagi tanqidiy mulohazalariga borib taqaladi. Demak, ramziy obrazlardan foydalanishda tush motivining olinishidan maqsad o‘zi yashab turgan dunyoni G‘ulistonga aylantirish istagi emas, aksincha, qayerdadir, qachondir mavjud bo‘lgan zanjirbandlikka(balki tarixiy tuzumdagi ijtimoiy holat, balki qalbning zanjirbandligi, balki inson ruhiyatining majozan kishanbandligiga) qarshi ichki bir isyondir, mana shu kishanbandlikdan ozod bo‘lish istagining ro‘yoviy qondirilishidir. Roman shu sababli ham “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” deb nomlanadi.

Mahorat bilan bitilgan asarlarda chiqish yo‘llari bir nechta bo‘lgan ma‘no labirintlari mavjud bo‘ladi. Undan to‘g‘ri yo‘lni topib chiqib keta olish kitobxonning o‘ziga havola etiladi. “Manzil”ga eltadigandek tuyuladigan yo‘llar ham ko‘p. Ularda adashmaslik, chalg‘imaslik o‘quvchidan o‘ziga yarasha estetik tafakkurni, badiiy didni talab qiladi. Ahmad A‘zam ham ushbu asari bilan o‘zining badiiy g‘oyasini amalga oshirishga xizmat qiluvchi ramziy labirintlarni taqdim etadiki, bu ramzlarning mohiyatini birma-bir o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir:

Hikoyachi qahramon borib qolgan G‘uliston mamlakati ramziy olingan joy nomidir. Muallif erksizlikni tasvirlash uchun “zanjir”, “kishan” so‘zlarining tarixiy varianti bo‘lgan “g‘ul” so‘zidan foydalanishi ushbu voqealarning o‘tmishda bo‘lib o‘tganligiga ishora qiladi. Ammo kompozitsion jihatdan ro‘yoviy mamlakatga beixtiyor borib qolish shu qadar jonli tasvirlanadiki, asar

syujeti kitobxonda zanjirga bandi insonlar yashaydigan hudud hozirda ham bordek tasavvur uyg'otadi. Bu esa erksizlikning nafaqat real tarixiy voqeligidan, balki bugungi kun nuqtayi nazaridan olinganda, ba'zi insonlardagi qalbning kishanbandligidan, qulflanganligidan dalolat beradi. Muallif nega yaratilgani-yu, nega yashayotganligini anglamaydigan, yuragi qulf insonlarni ongida bir joyga to'plab, tasavvuriy bir mamalakat yaratadi va unga "G'uliston" deya nom beradi. Shuning uchun ham bu mamalakatni hikoyachidan boshqa hech kim ko'rmaganligi ta'kidlanadi: "Shu bugungi kungacha G'ulistonga bitta men borib qaytganman...Alaxusus, g'uliylarni bu dunyoyimizga oshkor etish bitta mening chekimga tushib turibdi..."[1,7].

"Lekin men ko'rgan G'uliston shunday mamlakat ediki, uning o'zi xayol, u yerda yozuvchi odamning og'zini ochib tomosha qilishdan boshqa hech ish qo'lidan kelmaydi"[1,8], degan jumlagga e'tibor qaratsak, romanda tasvirlangan G'ulistondagi hayot inson erkinligi, ruhining do'zaxiy makoni, hatto u xayol bo'lsa ham, hatto u tush bo'lsa ham, na uni, na u yerdagi odamlarni o'zgartirib bo'lmaydi. Yozuvchining, ya'ni bu dunyoni qabul qilolmayotgan, g'ayriinsoniy ekanligini ko'rib turgan, "hayotning asli" nima ekanligini ularga uqtirolmayotgan, fikrlayotgan insonning "tomosha qilishdan boshqa hech ish qo'lidan kelmas"ligi orqali muallif inson tiynatidagi ahvolga ham ishora qiladi. Demak, G'uliston mamlakati ramzida quyidagi ma'no qatlamlari mavjud: G'uliston – ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, tarixiy tuzum vaqtida o'zini qiynagan erksizlik muammosini hech kim bilan ochiq so'zlasha olmagan odamlarning yashash hududi, yakka inson unga qarshi chiqishi mahol; G'uliston – insonning botinidagi, ruhidagi qullikni, nafsni yengishga ojiz insonlarning muallif tasavvurida yaratilgan xayoliy mamlakati; G'uliston – yolg'on havaslar zanjiriga bandi bo'lgan, dunyoga va bandasiga hukmron bo'laman degan, nafsdan qutula olmagan, qutulishni-da istamagan qalbdir.

Zanjir ramzi. Ushbu asar syujetini harakatlantiruvchi, qahramonlar psixologiyasini ochib beruvchi, roviyning fikr va mulohazalari oqimini yo'naltirib boruvchi asosiy ramz bu – zanjir. Hikoyachining ro'yosida kechgan

barcha voqealar zanjir bilan bogʻlanadi. Shuning uchun gʻul, yaʼni zanjirni romanning yadroviy ramzi deb atash mumkin. Chunki qolgan barcha ramzlar – Gʻuliston, gʻuliya qiz, gʻuliylik, olma yetishtirish, halqali naqshlar, zanjirli haykal, tozalash sabogʻi kabilarning barchasi shu gʻul (zanjir) ramzidan oʻsib chiqqan. Qahramon qayerga bormasin, gʻul bilan bogʻliq narsalarga duch kelishi bu mamlakatda zanjirga tobelikdan dalolat beradi: “Yoʻlning oʻrtasidagi bahaybat toʻsiq – bahaybat zanjir shaklida, to ufqqacha tortilgan”[1,43], “Chiroyli zanjirgulchin darvoza yonboshga surildi. Ikki tomoni olmazor keng xiyobonga kirdik.”[1,48], “Bir oʻymakor, yaʼni zanjir naqshi kesib solingan eshikni ochdilarki, sizni charchatmaslik uchun qayerda zanjir rasmi yo shaklini koʻrsam hammasini aytavermay, bari bir sanogʻiga yetolmayman, xullas, Gʻulistonning nomiga yarasha hamma yoqda gʻul asari bor”[1,49], “Odamlarning nafaqat har bir qadami, hatto nigohlari ham zanjir manfaati uchun xufiyalar va eng zamonaviy koʻruv-eshituv uskunalari bilan nazorat qilinadi. Bu qullik saltanatini boshqarib turuvchi koʻrinmaydi, ammo unga va zanjirga Xudoga topinganday topinadilar”[1]. Bu kabi lavhalardan biz mamlakat hayoti qatʼiy tartib-intizomga qurilganlini anglaymiz. Majozan olganda, nafsga mukkasidan ketgan insonning qalbi nafs zanjiri bilan shu qadar bandi etilganki, ularning har bir harakati faqat nafsning manfaati uchun tartiblashtirilgan, zanjir (nafs)dan bir lahza, hatto xayolda ham voz kechishni oʻylash jinoyat deb qaraladi: “Yoʻq, – dedi qiz, – zanjirsiz qolishdan zanjirning oʻzi asrasin! Men hatto tushimda ham...voy, uzr, hech kimga aytmang, iltimos qilaman! “Nima, tushingizni ham tekshiradilarmi?”, deb soʻradim. Tushda zanjirsiz yurish ham gʻuliyning asli ichida gʻuliylikka sodiq emasligiga dalolat deb qaraladi. Men unaqa tush koʻrmayman. Misol uchun deb, ogʻzimdan chiqib ketdi. Siz eshitmadingiz, men aytmadim, oʻtinib soʻrayman, dedi qiz.”[1,93] Ushbu tafsilot Gʻulistondagi zanjirga boʻlgan munosabatni yanada ochib berish uchun romanga kiritilganligi shubhasiz. Demak, zanjir ramzidagi maʼno qatlamlarini quyidagicha izohlash mumkin: zanjir – maʼlum bir tuzumning tobelikka koʻnikishni insonlar qon-qoniga singdirish uchun qilgan usul

vositasi; zanjir – insondagi ruhiy erkinlikka erishish istagini kishanlab turuvchi mayl; zanjir – nafs timsoliki, u qalbdagi barcha ezguliklarga intilish xohishini kishanlab turadi;

Asarda G‘uliston fuqarolari olma mevasini yetishtirishlari, ayniqsa, ular olmani juda ko‘p yeyishlari haqidagi parchalar bu mevadagi temir moddasi bilan to‘yingan organizmdan zanjirli farzand tug‘ilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ramziy ahamiyatga ega. Chunki g‘uliyalar tadqiqotida izlanishlarning bosh yo‘nalishi – inson tanasiga temir moddasini singdirish bo‘lib, buning yo‘li g‘uliy tanasida olma yeyish orqali ferrum (temir moddasi) miqdorini oshirish. Bundan maqsad ko‘p temir moddasi to‘plagan ota-onadan bo‘ladigan homiladayoq temir moddasi nozik zanjirga aylanib, tug‘ilajak farzand zanjir bilan tug‘ilishiga erishish! Bu ilmiy izlanish hali natija bermagan bo‘lsa-da, g‘uliyalar qachondir chaqaloq tanasida zanjir bilan dunyoga kelishiga qattiq ishonishadi: “Hali biron g‘uliy bolasini bo‘ynida zanjiri bilan birga tug‘dirishga erishmagan ekanlar-u, lekin, ana-mana, baribir dunyoga keladi deb, butun G‘uliston intiq”[1,223]. Zanjirli farzand – ijtimoiy jihatdan olib qaralganda, tagi puch mafkuraning ramzi. Inchunun, organizmda temir moddasi ko‘p bo‘lsa ham, u inson tanasida hech qachon zanjirga aylanmasligi oddiygina ilmiy haqiqat va butun jamiyatning bunga ko‘r-ko‘rona ishonishi esa amalga oshmas utopik g‘oyalarga ishonishiga, hatto, e‘tiqod qilishiga ishoradek, nazarimda. Majoziy jihatdan qaralganda, zanjirli farzand – mutaassiblik ramzi. Qalban ko‘r insongina yolg‘onga qurilgan nafsiy istaklarning bardavom amalga oshishiga, mana shu botin bilan oliy maqomda turishiga ishonadi va bu holat G‘ulistondagi zanjirli farzand tug‘ilishini kutgan g‘uliyalarning ahvoli bilan aynan bir xil.

Muxtasar qilib aytganda, “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romani yozuvchining fikr-mulohazalarini ramzlar vositasida aks ettiradi va uning asl mohiyatida qalbni G‘ulistonga aylantirmaslikka, uni nafs zanjiriga bandi etmaslikka da‘vat etish yotadi, G‘uliston mamlakati va g‘uliyalar hayoti ramzi

orqali ruhiy erkinlikdan mahrum yuraklarga ko'zgu tutgandek bo'ladi hamda undan qutulish uchun intilishga ishora qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zamov A. Ro'yo yoxud G'ulistonga safar //Roman. – Toshkent, 2011. 308 bet.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002, 465-bet.
3. Jahon adiblari adabiyot haqida/Ozod Sharafiddinov tarjimalari. – T.: Ma'naviyat, 2010.
4. Saidova B. Romanlarda tush ramzlar// Maqola. "O'zbek tili va adabiyoti jurnali", 2016, 5-son.
5. Saidova B. Uslubiy va g'oyaviy hamohanglik //Maqola.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T., 2010.

ID-020-30-A018

Orifjon Olimjonov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

SHUKUR XOLMIRZAYEV – O'ZBEK HIKOYACHILIGINING SOHIR OVOZI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek hikoyachiligida munosib o'rin egallagan va uni tadrijiy yuksaltirgan adib Shukur Xolmirzayevning "Hayot abadiy", "Og'ir tosh ko'chsa", "Bodom qishda gulladi" hikoyalar to'plamlarida chop etilgan "Kulgan bilan kuldirgan", "Oy yorug'ida", "Ora yo'l", "Olam tortishish qonuni", "Yovvoyi gul", "Bahor o'tdi" hikoyalari misolida yozuvchining badiiy mahorati aks ettirilgan. Qolaversa, Shukur Xolmirzayevning hikoyalari aks etgan jamiyatning ma'naviy-axloqiy muammolari, ona tabiatga nisbatan muhabbat tuyg'ularining bugungi kun uchun ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Yozuvchining o'zbek hikoyachiligi maktabida o'z uslubiga ega bo'lgani, bu tanqidchilar tomonidan e'tirof etilgani bir necha misollar bilan ifodalangan.

Kalit so'zlar: *milliy kolorit, kredo, peyzaj, portret, ma'naviyat.*

Annotation. In this article, the author Shukur Kholmirzaev, who has a worthy place in Uzbek storytelling and gradually raised it, published a series of short stories "Life is eternal", "If a heavy stone moves", "Almond blossomed in winter", "Laughing with laughter", "In the light of the moon", "Intermediate way", "Law of gravity", "Wild flower", "Spring has passed" examples of the writer's artistic skill are reflected.

In addition, the stories of Shukur Kholmirzaev reflect on the spiritual and moral problems of society, the importance of love for mother nature for today. The fact that the author has his own style and direction in the school of Uzbek storytelling is recognized by several examples, which is recognized by critics.

Keywords: *national color, credo, landscape, portrait, spirituality.*

“Men adabiyotni qismatim deb allaqachon aytib qo‘yganman. Buni o‘zim bilaman. Ollah biladi” deya o‘zbek adabiyot maydoniga dadil kirib kelgan Shukur Xolmirzayevning ijodi o‘rganilsa arziydigan mavzudir. U talabalik yillaridan iste‘dodini tirishqoqlik bilan parvarish etdi. O‘nlab hikoyalar, "Oq otli", "To‘lqinlar" deya atalgan bir emas, ikki qissasi aynan shu davrda yaratildi. Tanqidchilik ushbu asarlarni xayrixohlik bilan kutib oldi. Abdulla Qahhorning yosh yozuvchi haqidagi iliq fikrlari, Matyoqub Qo‘shjonovning matbuotdagi umidbaxsh mulohazalari kitobxonlar e‘tirofini mustahkamladi. Yigirma besh yoshga kirgan yozuvchi "O‘n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasi bilan adabiy jarayondan o‘z o‘rnini olishga chog‘langanligini ko‘rsatdi. Qissa yoshlar, ayniqsa, talabalar ichida keng bahslarga sabab bo‘ldi. Tanqidchilar u haqida mulohaza qildilar. Bu qissadan so‘ng Shukur Xolmirzayev uzoq yillar hikoya janrida ijod qildi. Uning "Olis yulduzlar ostida ", "Hayot abadiy", "Og‘ir tosh ko‘chsa", "Bodom qishda gulladi " singari to‘plamlarga kirgan hikoyalari o‘zbek hikoyachiligini yangi bosqichga ko‘tardi. Yozuvchi qahramonlarni faqat yaxshi yoki yomonga ajratish tamoyilidan voz kechdi. Ziddiyatli, ruhiy olami ko‘pqatlamli, kezi kelganda, tuzumga nisbatan keskin tanqidiy munosabatda bo‘la oluvchi, milliy tabiati yorqin, mushohadasi o‘tkir qahramonlar yaratdi.

Shukur Xolmirzayevning 70-80 yillari yozgan hikoyalari qahramonlari dunyoqarashlaridagi o‘zgarishlarning yangi jihatlari bilan ajralib turadi. Bu qahramonlarning aksari (masalan, "Ot egasi " dagi Inod, "Og‘ir tosh ko‘chsa"dagi Eson) hayotiy jarayonlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha emas, qayta tahlildan o‘tkazib, mustaqil baholay oladigan; milliy, ma‘naviy, madaniy qadriyatlarga yangicha nazar tashlovchi, ilg‘or tafakkur tufayli jamiyatning ayrim noma‘qulchiliklariga manfiy munosabat bildirguvchi kishilardir. Jamiyat, vaziyat yoxud sharoit unga ma‘qul deb tiqishtirayotgan tartibot yoki yashash me‘yorini rad etish, yoki hech bo‘lmaganda, o‘ziga, vujudidagi ikkinchi "men"ning noroziligini ma‘lum qilish yozuvchi qahramonlarining yetakchi belgilaridandir. Cho‘lpon va Abdulla Qahhorning ayrim asarlarini hisobga olmaganida, o‘zbek hikoyachiligida uzoq vaqt tashviqiylik hukm surganini, 60-

yillarning o'rtalaridan esa sekin -sekin uning o'rnini badiiy tahlil egallay boshlaganini tadqiqotlardan bilishimiz mumkin.

Bu jarayonda Shukur Xolmirzayev personajlari o'zbek hikoyachiligida qahramonning, ayniqsa, o'z-o'zidan qoniqmaslik va o'zini chuqurroq anglashga intilish ruhini mustahkamladi. Shu ma'noda adib o'z qahramonlarining ijtimoiy turmushdagi harakatlarini emas, balki ularning aql-zakovatini tasvirlashni asosiy maqsad qilib qo'ydi. Adib tushunchasiga ko'ra, aql-zakovat qahramonning mehvaridir. Shu sababdan yozuvchini qahramon bajarayotgan ishlar, asarga asos qilib olingan voqea natijasidan ko'ra, shu voqea va natijaga munosabatdagi qahramon zakiyligining ochilish jarayonlari ko'proq qiziqtiradi. Bunday hollarda Shukur Xolmirzayevning ayrim hikoyalari va undagi badiiy qahramonlar xarakteri nainki kitobxon yoki tanqidchi qalbida, hatto ba'zan asar muallifining o'zida ham aniq qaror topmagan bahsli munosabat uyg'otgandek tasavvur qoldiradi. Xususan, " Qadimda bo'lgan ekan " hikoyasi haqida shu fikrni aytish mumkin. Haydovchi yigit O'sar qalbidagi cheksiz ikkilanishlar - o'z qalbini taftish etish, ichki dunyodagi beqarorlik, qadim-u hozir, o'zi-yu xotiniga qarashlarining ayqash - uyqash bo'lib ketishi natijasida momosini olis joylarga eltib qoldirishi va keyin vujudidan o'tgan ruhiy azoblar jarayoni ana shunday - qahramonning o'z-o'zini anglamoq yo'lidagi urinishlaridir.

60-yillardan o'zbek hikoyachiligida katta o'zgarishlar sodir bo'lgani, ma'naviyat muammolariga e'tibor kuchaygani, hikoyada lirik ruh chuqurlashganini O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev kabi ijodkorlarning asarlaridan sezish qiyin emas. Hikoyachilikda Abdulla Qodiriy va Abdulla Qahhorlarning an'analarini yangi bosqichga ko'tarishda Shukur Xolmirzayevning beqiyos o'rne bor. U Qodiriyning tabiatni jonlantirib tasvirlash an'analarini rivojlantirdi. Abdulla Qahhordan esa so'z tejash, detallarga katta ma'nolar yuklash qahramon ruhiyatida kechayotgan ziddiyat, to'qnashuvlarni sodda va hayotiy qilib ixcham tasvirlash, dialoglardan jonli manzara yaratish sirlarini o'rgandi. Shukur Xolmirzayevning o'zi bu haqida

"Yoshlik " jurnalining "Yozuvchi - tanqidchi suhbat " ruknida adabiyotshunos olim Umarali Normatov bilan e'lon qilingan (1987-yil, jurnalning 3 - soni) "Ustoz ibрати" sarlavhasi ostidagi suhbatda ham bayon etgan. Suhbatda Shukur Xolmirzayev o'zining "To'lqinlar " qissasi Abdulla Qahhorning nazariga tushgani, lekin asarning nomini o'ylab ko'rish kerakligi haqidagi fikrlari yozilgan maktubni olganini va "so'z zargari"(Shukur Xolmirzayev ta'rifi)ning ushbu e'tirozni inobatga olgan holda qissani "Yosh gvardiya" nashriyoti qayta chop etganda (yozuvchi asarlarini qayta chop etilishini xohlamagan) "Bukri tol" nomi bilan e'lon qilgani haqidagi xotiralarni yozadi.

Har bir yozuvchining o'ziga xos ijodiy maslagi bo'ladi. Shukur Xolmirzayevda bu maslak - tabiat. Uning qahramonlari o'zini, o'z qalbini chuqurroq anglashi uchun tabiat bamisoli Ilohiy kuch vazifasini o'taydi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining mehvari inson va tabiat atalmish ikki cheksiz dunyo uyg'unligiga tayanadi. Buni shu "Hayot abadiy " to'plamidagi tabiatga yovuzlarcha munosabatda bo'layotgan g'addor kimsa qiyofasi aks ettirilgan "Jarga uchgan odam" ; ne-ne azob-uqubatlarga qolib, eshakda qorlarga botib, tog'dagi och kakliklarga don olib boruvchi fidoyi maktab o'qituvchisi Ehson bilan uning butkul teskarisi, mehmonlarga damlanajak oshga ana shu kakliklar go'shtidan bosish payida yurgan sovxoz direktori - Eshquvvatovning basharasi ochib tashlangan "Kulgan bilan kuldigan" ; tabiatdan bebahra yashash, uni his etmaslik, unga hamnafas bo'lolmaslik, insonning tuyg'ularini o'tmaslashtiribgina qolmay, ayni vaqtda, notavon qilib qo'yishi mumkinligi falsafasi ifodalangan "Oy yorug'ida" hikoyasida ko'rishimiz mumkin.

"Hayot abadiy " to'plamida "Ora yo'l " singari Kafka uslubidagi monolog - hikoyalar ham borki, ular bir qaraganda, yo'l ocherki yoki Vatan haqidagi ommabop tarixiy esse taassurotini qoldiradi, aslida, unday emas. " Ora yo'l " hikoyasi chuqur milliylik ruhi bilan sug'orilgan, Vatan tarixi manzaralari badiiy yo'sinda ochib berilgan, tarix bilan bugunni bog'lab turgan millatparvar lirik qahramon dunyosi aks ettirilgan va o'zbek hikoyachiligining janr imkoniyatlarini kengaytirgan asardir.

Bu hikoyadan biz Eski Termiz vayronalari, shu atrofdagi kushonlar davrida qurilgan ikki ming yillik tarixga ega butparastlar ibodatxonasi, budda haykali qoldiqlari, bu o'lkaga qadimgi yunon san'atining ta'siri, Surxon - Qadimiy Baqtriya haqida mushohadalar yurituvchi, o'tmishni qalbiga jo aylab, bizga zamondosh bo'lib yashayotgan, tarixi bilan haqli ravishda g'ururlanuvchi qahramonning ruhiy dunyosiga oshno bo'lamiz. Xolmirzayevning hikoyalarida, umuman, Surxon vohasining betakror manzaralari, tabiati, bu tog'lar yurtining tog'lar qadar ko'ksi va g'ururi baland, tanti, ba'zan dag'al, lekin bag'rikeng kishilari bilan uchrashamiz.

Xolmirzayev hikoyalarining aksar qismi ma'naviy - axloqiy muammolarga bag'ishlangan. "Olam tortishish qonuni " hikoyasi ham shu yo'nalishda. Hikoyada deyarli butun umr o'zini o'zi aldab kelgan, yashashning ma'nosini kazo-kazo do'stlar, tanishlar orttirish-u, buni o'zgalarga ko'z-ko'z etishdan iborat deb bilgan Husan aka qiyofasi tasvirlanadi. Uning fe'li shu darajaga borib yetganki, hatto jigargo'shasini so'nggi yo'lga kuzatyotganda ham bu fe'lidan voz kechmaydi. Shu o'rinda biz yozuvchining foje kulgi yoki kulgili fojia yasash ustasi ekaniga guvoh bo'lamiz.

80-yillarning o'rtalarida "Bodom qishda gulladi" to'plamini e'lon qilgan va to'plamni shartli ravishda Tog', Dasht, Qishloq, Shahar hikoyalari deb to'rt faslga bo'lgan. Yozuvchi qahramonlari ham, asosan, shu to'rt manzilda yashaydilar. Biroq bular manzillar, xolos . Asarda uning o'z yuki bo'lsa-da, gap faqat manzilda emas. Asosiy gap shu manzillarda harakat qilayotganlarning dardi, tashvishi, orzu-armoni bilan bog'liq bo'lgan o'zbekning - millatning muammolarida. To'plam 1966-yilda yozilgan "Yovvoyi gul" hikoyasidan tortib, undan salkam 20 yil keyin yozilgan "Bodom qishda gulladi " hikoyasigacha yaratilgan asarlarni qamrab oladi. "Yovvoyi gul"da shaharda gazetada oddiy muharrir (korrektor) bo'lib ishlayotgan, umrining to'rt yilini shaharda o'tkazib, katta yozuvchi bo'lish ishtiyoqida yongan Vosit ismli qahramonga duch kelamiz. Qahramon o'z qobiliyatidan bexabar, orzu esa chegarasiz. Adib o'tkinchi havaslar bilan emas, orzuga munosablik bilangina hayotda haqiqiy o'rinni

topish mumkin degan xulosa chiqaradi. Tog'dan keltirilgan oddiygina yovvoyi gul Vositning ko'zlarini ochadi, o'zini anglashga yordam beradi. 1975-yilda yaratilgan "Bahor o'tdi" hikoyasida endi qahramon sajiyasidagi o'ziga xosliklarni izlash kuchaya boshladi. Ko'ngil berib turmush qurishganiga qaramay, Akobir va Mastura o'rtasidagi o'zaro nomunosiblik keyinroq anglashiladi. Yigitdagi insonparvarlik, qadr-qimmat, chidam, qanoat, hurmat - e'tibor singari fazilatlar, afsuski, munosib javobini topmadi. Masturadagi hayotga yengil qarash kundan kun oila totuvligiga darz tushiradi. Yozuvchining badiiy mantig'iga ko'ra, bu oilani saqlab qolish mumkin emas. Ammo nima qilish kerak? Adib qahramonlarni tirik ajratib yuborishni ham istamaydi chog'i, hikoya yakunida Akobir baxtsiz hodisa tufayli vafot etadi.

"Ot egasi" hikoyasi (1971-yil) bilan yozuvchi shaxs taqdiri orqali chuqur ijtimoiy muammoni badiiy gavdalantirishga o'tadi. Qismat asar qahramoni - qishloq o'qituvchisi Inod boshiga juda og'ir kulfat solgan. Ikki farzandi va ayoli yong'inda halok bo'lgan. Endi uning bor boyligi -ikki xonali maktab va joni-jahoni - qorabayir oti. Hukumat ot saqlashni ta'qiqlagan yillari Inodning qorabayiriga ham ko'z olaytira boshladilar. Qorabayir Inodning shunchaki oti emas, suyanib qolgan tog'i edi. U otni o'ldirishdan ko'ra, o'z qo'li bilan otib o'ldirishni afzal ko'radi. Hikoyada yozuvchi butun aybni hukumatning qarorini o'z manfaati yo'lida buzib, Inodning qorabayirini qo'lga kiritmoqchi bo'lgan militsioner Egamberdi obraziga yuklaydi . Aslida, adib uning misolida tuzum siyosatini, bu siyosatni amalga oshiruvchilar qiyofasini keskin fosh etgan edi. "Hayot abadiy ", "Og'ir tosh ko'chsa", "Bodom qishda gulladi " to'plamlaridagi hikoyalar muammolari, mavzulari, qahramonlari jihatidan rang - barang va xilma-xil. Biroq bu hikoyalardagi g'oyalar, muammo va badiiy xususiyatlarda mushtaraklik ham mavjud. Bu umumiylik inson ma'naviyati bilan aloqador ijtimoiy va axloqiy masalalarning uzviyligida ko'rinadi. 80-yillar oxiriga kelib Shukur Xolmirzayevning hikoyalarida zamon ruhi yanada teranlashdi. Bu xususiyatni uning " Yashil Niva ", "Ustoz ", "Xumor " (ushbu hikoyalar " Yoshlik " jurnalining 1987-yilgi yillik mukofotini olgan), "O'zbek xarakteri", "Yig'i"

hikoyalarida kuzatish mumkin. "Yig'i" asarini janr tabiatiga ko'ra, novella deb atash ham mumkin. Unda sho'ro askarlarining Afg'oniston hududida olib borgan janglaridan kichik bir lavha aks ettiriladi. Bir qaraganda, asar uzunlik, kompozitsion jihatdan nomukammaldek. Ammo asar nihoyasiga borib, bu qurilishni muallif atayin tanlaganini, u novella ruhidagi shiddatdan kelib chiqqani ma'lum bo'ladi. Asarda o'smir afg'on yigiti sho'ro askarlariga asir tushadi va yig'laganicha nega bizning yurtga keldinglar, tinch yashayotgandik deb ularga ta'na qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu gaplari uchun afg'on yigiti yaxshigina kaltaklanadi, biroq yozuvchi, eng asosiysi, dilidagi niyatini qahramonning tili orqali aytib olishga ulguradi, zamon va tarixiy haqiqat ruhini asarga jo etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayevning aksar hikoyalarida shaxs xarakteri va insonning ma'naviy bisoti umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar va ona tabiat bilan uzviy birlikda, mustahkam bog'lanishda ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi - Toshkent : Akademiya nashri. 2018
2. Shukur Xolmirzayev. Saylanma. I kitob - Toshkent : Sharq nashriyoti. 2004
3. Shukur Xolmirzayev Umarali Normatov. Ustoz ibrati // Yoshlik 1987 N 3. B. 42-46.

ID-020-30-A019

Chaman Jonuzoqova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

XX ASR O'ZBEK VA G'ARB ADABIYOTIDA SO'ZNING POETIK VAZIFASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'zning poetik vazifasi va poetik vazifaning XX asr davomida tashqi ta'sirlar hamda adabiyotdagi oqimlar natijasida o'zgarib borishi tahlil qilinadi. Buning uchun XX asr o'zbek va g'arb adabiyoti misol sifatida olinib, badiiy vazifaga qo'yilayotgan talablarga nisbatan asosiy o'zgarishlar va ularning sabablariga e'tibor qaratiladi.

Har bir davrning o'ziga xos uslubi, g'oyalari, siyosiy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy o'zgarishlari bo'lib, so'zning poetik vazifasi ham shularga mos ravishda o'zgarib boradi. Ijodkorning kuchli badiiy vositalar va obrazlarni qo'llay olishi, badiiy asarning zamon va makon sinovidan o'tishida asosiy omil bo'lib qolishi mumkin.

Kalit so'zlar: *Poetik vazifa, poetik vosita, badiiy obraz, badiiy asar, oqim.*

Annotation. The article analyzes poetic function of word and its changes during the XX century because of external reasons and literary trends. Taking East and West literature of the XX century as an example to accomplish the task, the main changes of demands of poetic means and its reasons.

Each period has special methods, ideas, political-historical, social-financial, spiritual features and poetic function of word changes accordingly. The ability of an author to use strong literary means and characters can play a main role for the durability of a literary work.

Keywords: *Poetic function, poetic means, literary character, literary work, trend.*

So'z bajaradigan vazifalar ham insonning madaniy ongi bilan birga oshib bormoqda. Bunday vazifalar ichidan asoslilarini saralab, ilmiy va amaliy tahlil

qilish adabiyot sohasida izlanuvchilar uchun muhim. Ulardan biri soʻzning poetik vazifasi boʻlib, bu vazifa soʻzdagi ifoda vositalari tizimi bilan xarakterlanadi. Adabiyot nazariyasi sifatida poetika badiiylik darajasi oʻrtasidagi ichki bogʻlanish va oʻzaro munosabat qonuniyatlarini tadqiq etuvchi alohida nazariya ham sanaladi.

Poetik vazifauch xil yoʻnalishda namoyon boʻlib, umumiy, tavsifiy yoki tarixiy poetik xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin. Umumiy poetik xususiyat har qanday asarning badiiy vositalari va qurilish qonuniyatlarini janrga, adabiy tur va jinslarga karab muallif niyatining mujassamlanish usullarini ifoda qiladi. Tavsifiy poetik xususiyat ayrim olingan bir muallif asarlarining yoki davrlar va yoʻnalishlarning oʻziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Tarixiy poetik xususiyat esa, badiiy vositalar taraqqiyotini obrazli ifodalar, shakllar, qofiyalar orqali va kategoriyalarni badiiy qilib berilgan zamon, makon, ritm vositasida yetkazib berishdir. Musulmon Sharqi adabiyotida soʻzning poetik vazifasi asosiy uch ilmning yuzaga chiqishi orqali baholanadi. Bular: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi badiʼa. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balogʻa", Atoullah Husayniyning "Ba-doi' ussanoyi'" asarlari ayan shu ilmlarni oʻrgangan.

Badiiylikning muayyan qonun-qoidalari ayrim adabiy yoʻnalish, oqim va maktablarda, alohida xalqlarda, tasavvuf sheʼriyati poetikasi, xalq dostonchiligi poetikasi, maʼrifatparvarlik adabiyoti poetikasi, Sharq adabiyoti poetikasi, oʻzbek adabiyoti poetikasi kabi yoʻnalshlarda va buyuk qalam sohiblari ijodida sayqal topgan.

Aristotelning "Poetika" asari badiiy asar va uning tiliga oid nazariy masalalarni yoritishda dastlabki manbalardan hisoblanadi. Farobiy ham ushbu asar taʼsirida "Shoirlar sanʼati qonunlari haqida risola"sini yozgan. Fransuz olimi va shoiri N. Bualonning "Poetik sanʼat" asarida ham soʻzning badiiylik xususiyatlariga xos boʻlgan belgilar va poetik vazifalar tadqiq etiladi. Oʻzbek adabiyoti tarixida soʻzning poetik vazifasi boʻyicha dastlabki kuzatishlar Yusuf

Xos Xojibning "Qutadg'u bilig", M. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarlaridan uchraydi.

So'zning poetik vazifani bajarishi va bu jarayonni nazariy tadqiq etishda asosiy obyekt sifatida badiiy asar olinadi. Adabiyotning turli rivojlanish davrlarida poetik vazifa ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, davrlar bir-biridan yuqorida tanishib chiqqanimiz, umumiylik, tavsifiylik yoki tarixiylik xususiyatlarining darajasi va so'zning lug'aviy shakllanish sifatlariga ko'ra farq qilib boradi. Bu jarayonni ko'rib chiqish uchun XX asrdagi o'zbek va g'arb adabiyotini tahlil qilish yaqqol na'munalarni bera oladi.

XX asr o'zbek adabiyotida poetik vositalarning asosiy vazifasi millat, yurt ozodligi uchun, uning ma'rifatli bo'lishi uchun jonini ham tikishga tayyor qahramon obrazini yaratish va uning ta'sirchanlik xususiyatini oshirish edi. Cho'lpon va Fitrat she'rlarida bu holatni kuzatish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, badiiylikka jangovarlik, mardlik, yengilmaslik va daxldorlik kabi g'oyalarni shunday singdirish kerak ediki, badiiy asarning har bir o'quvchisi adabiyotdan jamiyatga bog'lanish ko'prigi sifatida foydalana olishi lozim edi.

Urushdan keyin va to 60-yillarning o'rtalariga qadar adabiyotdagi poetik vazifa ancha oqsab qoldi. Chunki har bir davr badiiy asarga muayyan g'oyaviy, badiiy, estetik va ma'naviy yuk bera olsagina kuchli poetik vositalar paydo bo'ladi. Badiiylikni ifoda qilishda obraz yaratish juda muhim masala. Obraz muallif va tashqi dunyo o'rtasidagi o'ziga xos aloqa vositasidir. U bir vaqtning o'zida so'zdagi poetik ta'sirchanlikni yanada oshiradi.

60-yillarning o'rtalarida yangilangan poetik tafakkurning mevasi bo'lgan yangi poetik vositalar so'zning poetik vazifasini yana bir karra kuchaytirdi. Bu paytda adabiy maydonga kirib kelgan badiiy obraz o'zligini tan olishdan cho'chimaydigan qahramon edi. 70- va 80 – yillarga kelib esa adabiyotda yana bir badiiy o'sish paydo bo'ldi. Unda adolatparvarlik va vatanparvarlik 60-yillardan ham kuchliroq berila boshlandi. 90-yillarga kelib, adabiyot zimmasidagi ayrim ijtimoiy buyurtmalardan xolos bo'lib, azaliy tamoyillarga

yuz burildi. Bu jarayon so'zga yuklangan badiiylik vazifasini ham birmuncha qoliplardan chiqarib, insonning ichki olamiga qaratdi.

G'arb adabiyotida XX asrning yangi oqimlari, yangi g'oya va mavzulari, yangicha tafakkur va yondashishlar dastlab adabiyot va san'atda, keyinchalik esa ilm-fan va ijtimoiy hayotda o'z aksini topdi. Natijada adabiyot va san'at ahllari o'z davri ruhini ifoda etuvchi vositaga aylandi. Kishilar aqli va ruhiyatida chuqur va keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Bu o'zgarishlar avvalo G'arb she'riyatida ["Men ham ravnaq topaman, men ham Amerikaman", Langston Hujes, "Men ham" Poetry foundation] o'z aksini topdi.

Tomas Mann qalamiga mansub "Doktor Faustus", Maksim Gorkiyning "Klim Samginning hayoti", Romen Rollanning "Jan-Kristof" singari romanlar yaxlit holdagi ma'naviy dunyoqarashlar majmuini mujassamlantirgan bo'lsalar-da, ma'naviy va ruhiy hayotdagi voqea-hodisalarni chetda qoldirmasdan, real tasvirlab berdilar.

Albatta, XX asrda yashab o'tgan barcha yozuvchilar ijodini batafsil tahlil qilishga nafaqat imkoniyat, balki bunga ehtiyoj ham sezilmaydi. XX asr adabiy jarayonini yangilashda ko'proq hissa qo'shgan, unga yangicha ruh bag'ishlaganlar bular modern yozuvchilardir. Vaholanki, badiiy adabiyotga haqiqiy yangilik olib kiruvchilar uchun nima so'zlashdan ko'ra, qanday qilib so'zlash ancha muhimroqdir. Aynan mana shu holatda poetik vazifaning ahamiyati maydonga keladi.

Ular ijodida voqelikni tasvirlash, haqiqiy hayotni aks ettirishning modernistik uslubi bevosita badiiy matn orqali namoyon etildi; bunda umummadaniy yoki sub'ektiv holatlar miqlar vositasida badiiy mazmun negizini tashkil qildi.

XX asrning ziddiyatli va shafqatsiz dunyosida shaxsning yolg'izligi, o'z insoniy qiyofasini yo'qotishlik mavzusi 30-yillar G'arb adabiyotida peshqadam mavzuga aylandi. Ayniqsa, G'arb adiblarining birinchi jahon urushi va uning ishtirokchilari taqdirini tasvirlovchi asarlarida ushbu mavzu o'ta ta'sirchan yangradi, kitobxon yodida qolarli yorqin obrazlarda tasvirlandi.

Hatto jahon adabiyotshunosligi maydonida ham tarixiy-poetik jarayon uchun tom ma'noda yangilik bergan, o'zidan o'lmas kashfiyotlar qoldira olgan olimlar soni unchalik ko'p emas. Aslida qadimdan bugunga qadar yashashda davom etayotgan yuzlab mutafakkirlar silsilasida o'ziga munosib o'rin topmoq, "shunday ulug'larning kakhashonida" (A.Oripov ta'biri) chin olim, kashfiyotchi-adabiyotshunos maqomini olishning o'zi bo'lmaydi. XX asr dunyo adabiyotshunosligida shunday yuksak maqomga munosib olimlardan biri Mixail Baxtindir. Zotan, zamonaviy dunyo adabiyotshunosligi, ayniqsa, adabiyot nazariyasida biror bir jiddiy tadqiqot yo'qki, uning kashfiyotlaridan ulgi olmagan bo'lsin. Bu borada XX asr oxiri, XXI asr boshlari rus adabiyotshunosligi, olimning qonuniy merosxo'ri o'laroq, oldingi safda turadi [Uzoq Jo'raqulov, "Jahon adabiyoti" jurnali, 2013-7].

XX asr adabiyotida modernistlarning shakl bobidagi izlanishlarini aks ettiruvchi ko'plab oqimlarni ko'rsatish mumkin. Har bir oqimda so'zga qo'yilgan poetik vazifa yuqori bo'lgan holda bir-biridab farq qiladi.

Ekzistensializm- XX asrdagi ana shu nomdagi falsafa asosida vujudga kelgan modernistik oqim. Ushbu falsafa markazida inson hayotining ma'nosi, shaxs erki va mas'uliyati muammolari turadi. Adabiy oqim sifatida ekzistensializm borliq va insonning g'aroyib sirli-sehrlijihatlarixususida bahs yuritadi. Ushbu adabiyot namunalarida insonning jamiyatga begonaligi, yolg'izligi, mahkumligi muammosi ko'tariladi.

Ekspressionizm- Birinchi jahon urushi va inqilobiy to'ntarishlar davrida san'at va adabiyotda vujudga kelgan oqim. Ushbu oqim vakillari hissiyotga, tuyg'uga alohida e'tibor beradilar, qahramonning tasavvurlari, taassurotlari ifodasi yetakchilik qiladi, hissiyotga, kechinmaga urg'u beriladi. Ekspressionizm ko'proq she'riyat va dramada namoyon bo'lgan.

Impressionizm - XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Fransiyada vujudga kelib, tasviriy san'at, adabiyot, musiqada o'zini namoyish qilgan oqim. Impressionistlar insonning biron hodisa ta'sirida tug'ilgan taassuroti, hissiyoti,

hayajoni, ruhiy holati san'atning diqqat markazida turishi kerak deb hisoblaganlar.

Demak, har qanday davr adabiyotini olib qarasak, aniq bo'ladiki, har bir davrning o'ziga xos uslubi, ifoda yo'sini, ohangi, g'oyalari o'ziga xos siyosiy-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy o'zgarishlari yotadi va so'zning poetik vazifasi ham shularga mos ravishda o'zgarib boradi. Ijodkorning kuchli badiiy vositalar va obrazlarni qo'llay olishi, badiiy asarning zamon va makon sinovidan o'tishida asosiy omil bo'lib qolishi mumkin. Shu bilan birga faqat yuksak adabiyotgina badiiy asarga ulkan g'oya va dunyoqarash bilan birga shakllangan poetik vazifani ham yuklay oladi. Bu talablarga javob bera olgan asar o'z davridan keyingi davrlarda ham meros sifatida yashab qolishga qodir bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. 1-jild. Toshkent, 1978
2. O'zbek adabiyoti -Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1997
3. Yashar Qosim. Yangi o'zbek lirikasida ramzlar. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 5/1998
4. Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Lotin Amerikasi "sehrli realizmi", 2018

ID-020-30-A020

Gulzoda Safarova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

MUNOZARA JANRINING BADIY ADABIYOTDAGI VAZIFASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada munozara janrining tarixi, xorij va o'zbek adabiyotida qo'llanish doirasi haqida ma'lumot berilgan. Munozara janrnida yozilgan numanalar tahlilga tortilgan. Janrning o'zbek adabiyotidagi badiiy vazifasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *janr, munozara, o'zbek adabiyoti, badiiy vazifa.*

Annotation. This article provides information on the history of the debate genre, its scope in foreign and Uzbek literature. Samples written in the discussion genre are analyzed. The artistic function of the genre in Uzbek literature is considered.

Keywords: *genre, discussion, Uzbek literature, artistic task.*

O'zbek adabiyotida turkiy xalqlar og'zaki ijodining ko'plab janrlari kabi munozara janrining kelib chiqishi, badiiy adabiyotdagi vazifasi masalalari uzoq tarixga borib taqaladi. Munozara arabcha «tortishuv», «fikr olishuv» ma'nolarini bildiradi. Adabiy termin sifatida esa fors-tojik va o'zbek klassik she'riyatida keng tarqalgan janr, fikrlar kurashi shaklida yozilgan badiiy asardir. Janrning badiiy adabiyotdagi vazifasi o'ziga xos. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat ziddiyatga kirishadi. Obrazlar ko'pincha ramziy mohiyat kasb etib, munozara qiladilar.

Munozara dunyo xalqlarining aksariyatida azaldan mavjud bo'lib, ma'lum bir xalqning inonch-e'tiqodlari zaminida shakllangan. Munozaraning so'z orqali ifodalash (verbal) xususiyati ana shu inonch-e'tiqodlar, qolaversa, marosimlar, udumlar zaminida shakllangan. Evropa xalqlari tarixida "O'limni

haydash” va “Yozni chaqirish” marosimi haqida mashhur ingliz etnografi J.Frezer tomonidan ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan. Bu ma‘lumotlar XVI-XVIII asrlarga tegishli. “O‘limni haydash” marosimi yozni, bahorni, umuman, hayotni qaytarishga da‘vat qiladi. “chaqirish” marosimi ham, xuddi “O‘limni haydash” marosimi singari, sahna ko‘rinishlaridan iborat. Umuman, bu marosimlarning maqsadi – har doim yoz, ya‘ni sog‘lom hayot doimo insoniyatga hamroh bo‘lish istagini uyg‘otishdan iboratdir.

J.Frezer “O‘limni haydash” va “Yozni chaqirish” marosimidan so‘ng, Yoz va Qish o‘rtasidagi kurash sahnasini yoritadi. U ayrim g‘arb mamlakatlarida, xususan, Shvetsiyada Yoz va Qish o‘rtasidagi kurashga bag‘ishlangan xalq o‘yinlarini keltiradi. Bu o‘yinda albatta Yoz g‘olib keladi.

O‘zbek adabiyotida bu janrning ildizlarini turkiy xalqlar miflarida ko‘ramiz. Turkiy qavmlarning paydo bo‘lishiga oid mifda aytilishicha, Yoz qizi bilan Qish qizi o‘rtasida, kim qudratli degan bahs bo‘lib, ikkovi bellashadi. Musobaqada Yoz qizi g‘alaba qiladi.

Munozara janrining asosiy belgilaridan biri – bahsga kirishgan tomonlardan biri g‘olib, biri esa albatta mag‘lub bo‘ladi. Yuqoridagi mifda boshlangan munozaraning ana shu xususiyati Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida Yoz va Qish o‘rtasidagi munozarada aniq ko‘rinadi.

Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu-lug‘otit turk» asarida yoz va qish munozarasi berilgan. Bu munozara to‘rtlik shaklida yaratilgan bo‘lib, a-a-a-b, b-b-b-v tipida qofiyalangan. *Turing chechak jarildi. Barchin jazim kerildi. Uchmoq jeru ko ‘ruldi Tumlug ‘ jana kelgusuz.* Mazmuni: Bahomi ta‘riflab aytadi: har turli chechaklar ochildi, xuddi (sernaqsh) ipak gilamlar yozilganday. Jannat yeri ko‘rildi. Sovuq hech qaytib kelmas darajada havo isidi. Mazkur to‘rtlik «Devon»ning turli o‘rinlarida uchraydi. Agar ular bir joyga jamlansa, yoz bilan qishning munozarasi tiklanadi. Bu munozarada yoz bilan qishning o‘ziga xos xususiyatlari juda chiroyli, obrazli misralarda tasvir etilgan. Munozara janri «Devon»ning quyidagi o‘rinlarida ham keltirilgan: *Qish yay bila toqushdi, Qing*

‘ir kozin baqishdi. Tutashqali yaqishdi Utg ‘alimat ograshur. Mazmuni: qish bilan yoz urushdi, bir-birlariga yomon ko‘z bilan boqishdi, turli tutishishga yaqinlashdi. Ular bir-birini yengishga intilishar edi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida munozara XV asrning birinchi yarmida maxsus janr sifatida shakllandi. Albatta, o‘zbek mumtoz adabiyotida bu janrning shakllanishiga, bir tomondan, turkiy adabiyotdagi ayrim asarlar tarkibida, mif va udumlar ko‘rinishida etib kelgan munozara, ikkinchi tomondan, fors-tojik adabiyotidagi munozara ta‘sir ko‘rsatdi.

Yozma adabiyotda munozara avvalo “Qutadg`u bilig”, “Hibbat ul-haqoyiq” asarlari tarkibida kelgan. Quyida Yusuf Xos Xojibning «Qutadg`u - bilig» asarida uchrovchi munozara janriga xos parchalardan misol keltiramiz.

Uqushlig‘, vafolig‘ kishi tuzini,

Yulug‘lar kishiga qamug‘ o‘zini.

Arig‘siz, jafoliq qilinchi o‘tin,

Qali aydi ersa qiyar so‘zini.

Mazmuni:

Zehnli, vafoli, kishi afzuni,

Qiladi kishiga fido o‘zini.

Ymiqsiz, jafoli, qilig‘i tuban,

Tonar, hech tan olmas degan so‘zini.

Shu o‘rinda Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asaridagi munozara janriga xos bo‘lgan parchalardan ham keltirib o‘tamiz.

Tabi‘atta yigi ot aybsuzi,

Axiliq erur bil bivcul ko ‘rk so ‘zi.

Eliklarda qutlug‘ berigli elik,

Olib bermagan el elik qutsizi.

Mazmuni: Dunyoda yaxshi va nuqsonsiz nom sahiylikdir, baxil esa xunuk ot ekanini bil, qo‘llar ichida in‘om beruvchisi baxtli qo‘ldir, o‘zi olib boshqalariga bermagan qo‘l, qo‘llaming qutsizidir.

Munozara janri keyinchalik mustaqil adabiy asar shakliga ko'tarilgan. Buning misoli sifatida Yusuf Amiriy, Yaqiniy va Ahmadiylar munozalararini ko'rsatish mumkin. Ma'lumki, Yusuf Amiriyning "Chog'ir va bang" munozarasida o'sha davrda avj olib ketgan mayxo'rlik, bang iste'mol qilish illatlarini badiiy ijodga olib kirgan. Yaqiniy esa "O'q va Yoy" munozarasida o'qni to'g'rilik, yoyni egrilik simvoli darajasiga ko'taradi va qirg'in urushlarni, jabr-zulmni qoralaydi. Ahmadiyning "Sozlar" munozarasida amal talashish va fisqu fasod hamda bo'xton tarqatishlar, noittifoqlik fosh qilinib tashlansa, Nishotiy munozaralarida o'z davrining butun bir axloqiy masalalari ko'tarilib chiqiladi va mehnatkash xalq manfaatlari nuqtai nazaridan talqin qilinadi.

Yaqiniyning "O'q va Yoy" munozarasi nasrda yozilgan. Bunda chol qiyofasidagi Yoy bilan yigit qiyofasidagi O'q o'rtasidagi munozara tasvir etilgan. Munozara katta hajmli boshqa shakldagi, ya'ni janrdagi asarlar tarkibiga ham kirgan. Masalan Nishotiyning "Husn va Dil" dostonida sozlar va gullar munozarasi bor. Munozara janri elementlarini "Xisrav va Shirin" (Qutb) «Yusuf va Zulayho» (Durbek) "Lisonut-tayr" (Navoiy) kabi asarlarda ko'ramiz. Bundan tashqari Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida ham munozara janrining go'zal namunasi keltiriladi. U Xusrav va Farhod o'rtasidagi munozara bo'lib, badiiy asar tarkibida ilk bor Nizomiy dostonida o'z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, munozara butun o'zbek yozma adabiyoti taraqqiyotining barcha davrlarida mustaqil adabiy janr sifatida taraqqiy etib keldi. Alisher Navoiy davrida va undan so'ngi davrlarda munozara janrining taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o'tkazganini kuzatish mumkin: Gulxaniyning "Zarbulmasal" idagi munozaralar shundan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 2 жилд (XIV — XV аср бошлари) Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи: Насимхон Раҳмон. Тошкент: ФАН, 2007.
2. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. XVI–XIX аср I ярми. – Тошкент: "Фан", 2006. – 240 б.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Нашрга тайёрловчилар: Абдурахмонов Г., Муталлибов С. Тошкент: Фан, 1967. — 545 б.

ID-020-30-A021

Dildora Ibragimova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

DRAMATURGIYADA OBRAZ VA TALQIN ("TANHO QAYIQ" DRAMASI MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqola drama janri xususida. Bu janrga oid muallif qarashlari va mulohazalari aks ettirilgan. Erkin A'zamovning "Tanho qayiq" dramasi obekt sifatida olingan. Ushbu dramada obraz va talqin haqida so'z boradi. Dramada ishtirok etgan qahramonlar xarakteriva his-tuyg'ulari tahlilqilinadi. Bosh qahramon Orol bobo obraziga tavsif beriladi. Dramaga xos xususiyatlar bilan bog'liq tushunchalar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *drama, obraz, monolog, dialog, xarakter.*

Annotation. The article is about the genre of drama. The author's views and comments on the genre of drama are reflected. ErkinAzamov's drama "Lonely Boat" is taken as an object. This image is about the image and interpretation.The character and feelings of the protagonists in the drama are analyzed. The image of the protagonist Aral Bobo is described. Concepts related to the characteristics of the drama are revealed.

Keywords: *drama, image, monologue, dialogue, character.*

Adabiyot inson ijtimoiy va intim hayotining eng yaxshi va go'zal tasvir etuvchisidir. Dramaturgiya, xususan, drama jamiyat va shaxs munosabatlariga eng jadal javob qaytaruvchi janr. Nasrning asosida voqea, lirik asarlarning asosini his-tuyg'u tashkil qiladi. Drama esa har ikkisini ham o'zida mujassam etishi kerakki, o'quvchi bir vaqtning o'zida ham his etsin, ham fikrlasin, ham voqealarga guvoh bo'lsin. Drama ana shunday jonli bo'lishi lozim. Zero, bu ko'proq ta'sirlantira oladigan, yorqin tasavvuruyg'otaolad, ta'sirvatasavvurdoirasi keng bo'lgan janrdir.

Drama adabiyotning boshqa turlaridan syujetliligi, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi, personajlar munosabatlarining o'zaro so'zlashuvga asoslanganligi, bayonning yo'qligi bilan ajralib turadi. Ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qahramonlarning hatti-harakatlarida, avvalo, dialog va monologlarda ifodalanadi.

O'zbekdramaturgiyasitarixida mustaqillik davrialohida bosqich sanaladi. Bu davr o'zbek dramalarida o'zbekona tumushningeng muhim qirralariga, milliy qadriyatlar vaurf-odatlar talqiiga aloha dadiqqat qaratiladi. Mustaqil mamlakatlarning harbirongli odami o'zligini o'zo'tmishini, dunyoilm-fani madaniyati, adabiyoti va san'atiga beqiyoshissa qo'shgan ajdodlariningukanmu tafakkir shxslr bo'lganini juda terananglashilozim. Insonga milliyo'zliknianglatishda dramatic asarlar so'zsan'atining boshqajanrlariga qaraganda kuchliroqta'si ro'tkazadi. Sahnadagi qahramonlarning so'zlaridan ta'sirlanadi. Harqanday badiiyasarda insonlarning ma'naviy kamoloti yokitubanlashuvining obrazli tasviri muhimsanaladi. Jumladan, mustaqillik davri o'zbek dramalaridaham zamon kishilariyokitarixiy shaxslarning odilligi, haqgo'yiligi, xolisligi, olimligi, sadoqati, mardligihamishashu insoniy fazilatlariningzidi bo'lgan axloqiy-ma'naviy tushunchalar bilanyonma-yon muhokama qilinadi. Tabiiyki, bunday murakkabva ziddiyatli hayotgirdobiga tushgan qahramonlar orasidanhar doimyuksakinsoniy kamolot darajasiga ko'tarilgan chin ma'nodagi yuragibutun shaxslar g'olib bo'lishadi.

O'zbekdramaturgiyasiasoschilariningboshida Behbudiy, Hamza, A.Qodiriy turadilar. Behbudiyning "Padarkush", A. Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Hamzaning "Zaharli hayot" asarlari o'zbek adabiyotining ilk namunalaridir. A. Avloniy, Fitrat, Cho'lpon, U. Nosir, G'. G'ulom, A. Qahhor, H. G'ulom, Shayxzoda, Sh. Boshbekov, O. Yoqubov, A.Suyun, Ibrohim Rahim, Izzat Sulton, O'lmas Umarbekov, Omon Matjon, Omon Muxtor, Qo'chqor Norqobil, Said Ahmad, Shuhrat Rizayev, Uchqun Nazarov, E. A'zam, U.Azimlar ijodida dramatik asarlar mavjud.

Bugungi kunda dramaturgiya sohasi adabiyotning dolzarb va biroz muhokamali mavzusi bo'lsa-da, bu janrda ham yaxshi asarlar yaratilmoqda. Erkin

a'zamovning "Tanho qayiq" deb nomlangan dramasini misol qilib keltirish mumkin. Davrimizning og'riqli muammolaridan biri bo'lmish Orol mavzusi asar markaziga olingan. Hajman kichik, ikki qismli, jami to'qqizta obraz qatnashgan ushbu sahna asarida nafaqat davrimiz ekologik muammosi, balki katta bir ma'naviyatga dahldor masalalar qalamga olingan. Bir vaqtlar qayiq va kemalarga bag'rini bergan orolning qurib bitishi, butun hayoti va borlig'ini orol bilan bog'lagan qayiqsoz usta Orol boboning iztirob va armonlari, cholning butun umrlik armonini lahzalik bo'lsa-da, ushalishini xohlab tadbir o'ylab topgan shogirdlari-yu, qalbi pok keksa qayiqsozni telbaga chiqargan, insoniylikdan ancha yiroqlab ketgan farzandlarining tuban qilmishlari aks ettirilgan ushbu dramada yana boshqa bir ramziy ma'no borki, Bosh qahramon Orol bobo umrining oxirgi daqiqalarigacha orolga suv qachondir qaytishiga, qachondir dengiz yana to'lib kelishiga va u yasagan qayiqlar butun orol bo'ylab yana suzib yurishiga ishonib yashaydi. Qayiqlar yasashdan, bu ishni ovulning uch-to'rtta bo'z bolalari bo'lmish shogirdlariga o'rgatishdan charchamaydi. Boshqalar, hatto farzandlari ham telbaga chiqargan bu sodda va halol, tanti va beg'ubor chol, uning intiq orzusi bo'lmish orol obrazi bugungi kunda yo'qolib borayotgan va odamlar orasida ancha tanqisga aylanayotgan insoniylik fazilatlari, odamgarchilik sifatleri ramzi hamdir. Cholning orzularini xomhayol, hatti- harakatlarini telbanamo vasvasa deb baholagan farzandalari va atrofidagi tashqaridan tuppa-tuzuk odam bo'lsa-da, ichi bo'm-bo'sh va zanglagan tog'ora kabi kimsalar, masalan, shogirdlaridan Ametning otasi O'tagan maxsum (Orol bobo tili bilan aytganda, har yili hajga borib yana gunoh qilaveradigan) xarakteri va bosh qahramon o'rtasidagi konflikt, bu orqali esa jamiyatdagi nuqsonlar qahramonlar o'rtasidagi dialoglar orqali ochib berilgan.

Butun umrini orol bilan bog'lagan, uning qachonlardir yana to'lib va mavjlanib oqishiga umid qilgan keksa qayiqsoz Orol bobo hayotining so'ngi damlaridagi og'riqli kunlari, armonli o'ylari o'quvchini ham ta'sirlantiradi, og'ir xayollarga toldiradi. Ayniqsa, mana shu mas'um va nuroniy, sodda va tanti cholning qalbidagi kechinmalari-yu, orzu-armonlari bilan bog'liq xayollarini

telbalikka yoʻygan, uni ruhiy xastaga chiqargan, aslida, oʻzida ulkan maʼnaviy nuqson boʻlgan, oʻz otalariga farzandlik burchi uchun emas, faqat oʻz obroʻsini saqlab qolish uchungina, xoʻjakoʻrsin uchun gʻamxoʻrlik qilmoqchi boʻlgan bolalari: Gulxadicha va Qalimbet obrazlari bilan ham jamiyatdagi baʼzi kishilarga koʻzgu tutgan yozuvchi.

Asrdagi orol boboning shogirdlari-mahalladagi oʻspirin bolalar: Genjamurod, Amet, Jumaboy orol cholni –oʻz ustozlarini samimiy yaxshi koʻrishadi. Uning dardlarini tushunishadi. Cholni bir marta boʻlsa-da orzusini ushaltirishga harakat qilishadi. Hiyla oʻylab topishadi. Qizi olib ketgan ruhiy xastaliklar shifoxonasidan qochib kelgan chol ertasi kuni sahar paytida orolning “toʻlib oqqani”ni koʻradi va bu quvonchni yuragi koʻtarolmaydi. Oʻlimi oldidan shogirdlariga vasiyat qilib“ Bu dunyodan sizlarning baringizdan rozi boʻlib ketyapman, qaroqlarim, yigʻlamanglar... sizlar bor ekansiz bobongiz oʻlmaydi, sizlar bor ekansiz Orol oʻlmaydi, orolimiz tirik... To abad bor boʻlgay, omin..”deya duo qiladi.

Asarda Orol va Orol bobo hamda uning nabira shogirdlari boʻlmish begʻubor oʻsmirlar ramziy maʼno ham tashimoqda, bizningcha. Orol bu insonlar orasida yoʻqolib borayotgan ezgulik, azaliy insoniy qadriyatlar timsoli. Orol bobo unga intilib yashagan, kelajak avloddan uni kutgan inson obrazidir.

“Tanho qayiq” dramasida muallif deyarli birorta obrazga tavsif bermaydi. Qahramonlar xarakteri va feʼl-atvori ularning oʻzaro dialoglari hamda monologlar orqali ochib boriladi. Ayniqsa orol bobo farzandlarining otasi ziyoratiga kelishi va buning sabablari ularning insoniy qiyofasini oʻquvchi yoxud tomoshabin koʻz oldida yaqqol namoyish etadi. Buni bir nechta misollarda koʻrish mumkin. Otasini odamlarning gap-soʻzlari va mansabiga dogʻ tushmasligi uchun shaharga olib ketgani kelganda ota-bola oʻrtasidagi suhbatda qahramonimizning yuragidagi dard-u hasratlari toʻkiladi:

“... Orol bobo (hasratomuz).Choʻl-u yobon deysan...Onan mana shu yerda yotibdi, bobo-momolaring shu yerda... Ularni tashlab men qayoqqa boraman,

o'g'lim, o'ylab gapiryapsanmi? Onangni mozorini ziyorat qilmagan kunim dunyo ko'zimga qorong'u... Bu yoqda qayiqlarim. Orol...

Qalimbet. Eskia shula! Orol, orol! O'zingiz bilasizku, ota, u endi hech qachon o'zaniga qaytmaydi, to'lmaydi... qayiqlaringiz ham birovga keraksiz...

Orol bobo (shasht bilan bosh ko'tarib, jo'shib) Nima?! Qaytmaydi, to'lmaydi... Siz qayoqdan bilibsiz, Xudomisiz?! Ha, to'lmaydi. To'ldirolmaysan uni. Hech biring! Oliming-uulamong ham boshqang ham! Baring foydani ko'zlaysan! Orol g'irrom emas, senlar g'irrom, ha! Xudo senlarga insof bergan kuni u o'z-o'zida suvga to'lad! Xudoyim to'ldiradi uni, bilib qo'y! (og'ir xo'rsinib) O'sha kunni ko'rib o'lsam, armonim qolmasdi...

Mana shu dialogda qahramonimiz beozor va bag'rikeng Orol boboning hasrat va armoni, insoniylikni unutilganlarga bo'lgan isyonli tuyg'ulari aks etadi.

Aslida dramatik asarda muallif mahorati shunda namoyon bo'ladiki, dialoglar va voqealar shunday izchil va mantiq ipida tizilgan bo'lishi kerakki, asarning asl mohiyati va mazmuni qahramonning nutqida va kechinmalarida ko'rinishi kerak.

Biz ko'rib chiqayotganimiz "Tanho qayiq" dramasida ham muallifning falsafiy qarashlari, ayrim hayotiy mavzulrdagi o'y-fikrlari kezi kelgan o'rinlarda qahramonlar tilidan aytib o'tiladi. Orol bobo o'g'li Qalimbetga bir o'rinda shunday deydi:

"... Qulog'inga quyib olgin, bola: chinakam g'ayrat bila, toza ko'ngil bilan qilingan ish hech qachon orqaga ketmaydi-duosi 'zi bilan bo'ladi uning!

Ishlatilgan biror rivoyat yoxud hikoyat bo'ladimi, badiiy asarning mazmuniy to'qligiga ta'sir etadi. Tasvirning ifodalilik ko'lamini oshiradi. Ushbu asarda ham qayiqsoz chol tilidan nabira shogirdlariga aytilgan bir rivoyat keltiriladi.

Orol bobo (rivoyatga kirishib) Pirning qirq muridi bo'lgan ekan. Sizlarga o'xshagan shogirdi. Qirq yil ichida kamaya-kamaya, oxiri shulardan bittaginasini qolibdi. Ameting misoli birin-sirin tashlagan ketganda. Pir o'sha qolgan murididan so'rabdi:

“Bularing nega bunday qildi ekan?” Murid chaynala-chaynala aytibdi:” Ular sizning ta’limingiz bilan Mangu kitobni o’qiydigan maqomga yetdi. U kitobda esa...” “Gapir-gapir”, deb qistabdi pir. “ U kitob sizni do’zaxiy deb yozgan ekan, ustoz...” “Bilaman, -debdi pir- Haqrost, shunday yozilgan. Ammo men jannatdan ham ulug’rog’ini ko’zlaganman-da... Ularku Jannat ilinjida ketibdi, xo’sh, sen nega qolding?” “Chunki bu kitobni o’qoshni sizdan o’rganganman-da pirim”, debdi murid. Qarang qanday oqibatli ekan-a, shogirdi!...

Chol va uning shogirdlari o’rtasidagi dialogda keltirilgan ushbu qisqagina rivoyat ham asar mazmunini qaysidir ma’noda yoritishda xizmat qilgan.

Umuman olganda, drama mavzusi va mazmuni o’quvchini o’yga soladi, mushohadaga chorlaydi, shuningdek, ma’naviy ozuqaberadi. Mavzuva g’oya, shakl va mazmun uy’unligi yozuvchi mahoratini namoyon etadi. Aslida bu asrning o’zi nafaqat quib bitgan dengiz, balki quruqlashib borayotgan qalblar, sayozlashib borayotgan ma’naviyat, yo’qolib borayotgan vijdon va toptalayotgan odamiylik haqidadir desak ham bo’ladi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. T., Fan, 1978.
2. Jalilov B. O’zbek dramaturgiyasi poetikasi masalalari. T., Fan, 1984.
3. Mualliflar jamoasi. XX asr o’zbek adabiyoti tarixi. T., O’qituvchi, 1995.
4. To’xliyev B, Karimov B, Usmonova K. Adabiyot 11-sinf. T., “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018.

ID-020-30-A022

Mohiya Jumaboyeva

O'zbek tili fakulteti 2-kurs talabasi

SATIRA VA YUMOR – BADIY TARBIYA VOSITASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarida satira va yumor uslubida yozilgan asarlar va ularning inson tarbiyasida tutgan o'rni, shuningdek kitobxonlarning badiiy estetikasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *satira, yumor, komediya, badiiy tarbiya, estetika, shaxsiy sifatlar, odob-axloq, saviya.*

Satira va yumor badiiy adabiyotning o'ziga xos uslubi bo'lib uhazil-mutoyiba va istehzo asosiga quriladi. Satira va yumor asarlarning aksariyat qismida ishlatilib, ularsiz adabiyotni tasavvur qilish mushkul. Dastlab u lirik janr bo'lib uning asosiy mazmuni muayyan voqelar yoki shaxslarni masxara qilish bo'lgan.

Qadim-qadimdan yer yuzida badiiy adabiyot, so'z san'ati paydo bo'libdiki, unda insonlarning, xalqning orzu-havaslarini, armon-u qayg'ulari va albatta turli- tuman boshdan o'tkazgan holatlari aks etadi. Badiiy adabiyot turli davrda, turli makonda insonlarning turmush tarzini, ularning ahloqiy va ma'naviy hayotini kuylaydi. Shuning bilan birga insonlar fe'lida mavjud bo'lgan yaxshilik va yomonlik, egrilik va to'g'rilik, haqiqat va yolg'on singari tushunchalarni ham. Aynan satira va yumor xalqning og'ir ahvoli, ayanchli taqdiri shuningdek, insonlarning juz'iy qusurlarini kulgu va hazil asnosida ochib berishga mo'ljallangan badiiy adabiyot turi hisoblanadi. Satira va yumor dastlab Qadimgi Yunoniston va Rim adabiyoti namunalarida ya'ni Tatsit va Lukan asarlarida uchraydi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida arab folklorining

qimmatli namunasi “Ming bir kecha”, hind eposi “Panchatantra” va “Kalila va Dimna”, turkiy xalqlarning yumoristik qahramoni Nasriddin Afandi obrazlarida xalqning turmush tarzi hazil tazrida tasvirlangan. Sharq adabiyotida uygʻonish davri adabiyoti vakillari Alisher Navoiy, Turdi Farogʻiy, Maxmur, Gulxaniy, Hoziq, Muqumiy, Zavqiy, Hamza kabi zabardast adiblarimizning asarlarisatira va yumorga boy asarlar sirasiga kiradi..

Jahonadabiyotida satira va yumor janrida ijod qiluvchi va oʻz asarlarida yengil hazil ostida asl haqiqatlarni ifoda etuvchi adiblar talaygina. Ezop, Sofokl, Lessing, Antuan de Sent-Ekzyuperi, Hans Kristian Andersen, Uilyam Shekspir, Dante Aligeri, Voratsiy, Fablio, Jan Lafonten, Jan Batist Molyer (fransuz komediyasi asoschisi), Belinskiy, Per Kornel, Migel de Servantes, Turgenov, Bayron, Kantemir, Sumarokov, Krillov, Gogollarning yozgan aksariyat asarlari komedik uslubda yozilgan asarlar hisoblanadi.

Asosiy gʻarb adabiyoti yozuvchi va shoirlarining satirik yaʼni oʻtkir kinoya va istehzo uslubida yozgan asralarida yuqori aristokratlar, boylar sinfi masxara qilingan va shuning bilan birga oddiy mehnatkash xalq, dehqonlar sinfining qashshoqlashishiga sabab boʻlgan ijtimoiy illatlar, oʻrab olgan muhitning yaramasligi tilga olinadi. Davr va zamonga qarab ayrim yozuvchilar asarlarida esa oʻsha davr burjuaziyasining adolatsizligi, ayrim qirollar va ular atrofida toʻplangan tekinxoʻr amaldorlar, qirol saroyining yovuzlik va yomonlik maskani ekanligi va hattoki, din peshvolari boʻlmish rohiblarning ham koʻr-koʻrona xudojoʻylik yoʻlida qilayotgan ishlari kulgu asosida qattiq tanqidga olinadi va kishiga bilinar-bilinmas holda ochiqdan-ochiq yoki biron-bir hayvon siymosida tasvirlanadi.

Oʻzbek adabiyotida ham bunday maʼsuliyatli vazifani mahorat bilanado etayotgan, oʻz asarlarida komedik ruhni sharq adabiyotiga xos boʻlgan badiiy tarbiya vositasi sifatida qoʻllayotgan adiblarimiz bisyor. Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Gʻofur Gʻulom, Soʻfizoda, Gʻozi Yunus, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Xudoyberdi Toʻxtaboyev, Anvar Obidjon va boshqa adiblar bugungi kungacha oʻz asarlarida satira va yumorni baland choʻqqisiga olib

chiqmoqdalar. Misol uchun o'tgan asrda yozilgan G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini olaylik. Bir qarashda asar kulguli va qiziqarli voqea-hodisalarga boydek. Aslida ham shunday. Lekin asarning boshqa bir tomonidan qaralsa, kitobxon asar qahramoni Qoravoyga achinadi. Boisi, zamon oG'irligi, insonlarning o'z jonini saqlab qolish uchun urinishlari, qanday qilib bo'lmasin kun kechirish kerakligini inobatga olsak, biz bolani emas, zamoni ayblaymiz. Asar qahramonini turli xildagi xalq orasida oliy shaxs sifatida tanilgan "Saxovatpesha" insonlarga uchrashi, din ulamolarining aslida makkor va badnafs kimsa ekanliklari va yoshgina yetim bolaning ularni qanday chuv tushirib ketishi asarning syujeti hisoblanib, yozuvchi asar orqali ayrim kimsalarning nopokligini, ularning jirkanch odatlarini qattiq tanqid qiladi va buni asar qahramoni bo'lgan yosh bolaning boshdan kechiradigan ajabtovur voqealari asnosida yoritib beradi.

Adabiyotshunos olim Erkin Xudoyberdiyevning oliy o'quv yurti talabalari uchun yaratgan "**Adabiyotshunoslikka kirish**" darsligida satira va yumor haqida shunday fikrlar keltiriladi: "**Satira va yumor boshqa-boshqa janrlar hisoblanadi. Lekin ular bir-biridan naf oladi. Ammo satira yo'qotishni, yumor esa tuzatishni nazarda tutadi. Satirada kishilarning axloqiy-estetik qarashlariga muvofiq kelmaydigan, yuksak mukammallik haqidagi tasavvurlariga, muddaolariga mos bo'lmagan, tuban narsa-hodisalar kulgili tarzda fosh etiladi.**

Satira o'z ichida ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga tor ma'nodagi satira kiradi. Bunday satirik asarlarda hayotdagi marazlar ayovsiz tarzda fosh etiladi. Hajviy turdagi asarlarning ikkinchi guruhini yumor tashkil etadi. Yumorda hayotdagi juz'iy kamchiliklar yengil kulgi ostiga olinadi. Nima bo'lganda ham bu ikki janr kishilarni tarbiyalash vositasidir."

Jahon adabiyoti durdonalaridan biri rus adabiyotining taniqli vakili Gogolning "Revizor" asari ham o'tkir satirik uslubda yozilgan asar hisoblanadi. Ushbu asarda insonlarning mansabparastligi, o'z nafsi yo'lida hech

narsadan qaytmasligi, qilgan gunoh ishlaridan bo'yin tovlashi va ochiqdan-ochiq qilingan yaramas ishlardan uyalmasliklari, shuningdek vijdotsizlik, oiladagi tartibsizlik va parokandalik ohir oqibat insonlarni qattiq pushaymon bo'lib aldanishlariga sabab bo'lishi yozuvchi tomonidan zo'r mahorat bilan tasvirlangan. Aynan bu asar chinakam satirik uslubda yozilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, bu yovuz illatlarning ustidan shunchaki kulib bo'lmaydi. Asarda tasvirlangan qahramonlar va ularning yaramas illatlarini jamiyatdan butkul yo'qotilishi zarurligi asarning asosiy maqsadidir.

Yuqorida aytib o'tilgan satira va yumor haqidagi fikrlarni inobatga olsak, biz misol qilib keltirgan "Shum bola" va "Revizor" asarlari chinakam jamiyatda yo'qotilishi kerak bo'lgan illatlar haqida bo'lib, o'tkir satirik asarlar hisoblanadi. O'z-o'zidan savol tug'iladi; badiiy adabiyotdagikomediya ruhda yozilgan hamma asarlar ham satirik ya'ni yo'qotilishi kerak bo'lgan illatlar haqidami? Yo'q bunday emas. Ayrim asarlar mavjudki, ularda jamiyat emas oramizdagi ayrim insonlargagina xos bo'lgan juz'iy kamchiliklarni aks ettirilgan. Masalan taniqli shoir, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov she'riyatidagi "Donishqishloq latifalari" turkumini va uning bosh qahramoni Matmusa obrazini tahlil qilaylik. Shoirning ushbu turkum she'rlarida oddiygina sodda va jaydari qishloq xalqi vashu qishloqda yashovchi Matmusaning boshidan o'tkazadigan kulguli va antiqa voqealari tasvirlangan. Bu she'rlarda jamiyat emas, insonlar emas, yakka bir shaxsing fe'lida, odob-ahloqida mavjud bo'lganba'zi kamchiliklarning atrofimizdagi ayrim kimsalarda mavjudligi ta'kidlanadi. Shoirning "Matmusaning tandir sotgani" she'ri ham komedik va yumoristik ruhda yozilgan. Asar qahramoni Matmusa shaharga tandir sotib olgani boradi va qaytar chog'ida ko'p qiziq voqealarni boshidan o'tkazadi. Shoir ushbu she'rning so'ngini quyidagi jummlalar bilan yakunlaydi.

Ayo do'stlar adashgan

Bir mo'mindan kulmaylik.

Matmusadek o'zimiz

Tandir kiygan bo'lmaylik.

Bu misralar orqali shoir kishilarning ustidak kulmaslik, balki biz kulayotgan odam aslida aqlli va yoki aksincha haqiqatdan ham nodondir. Balki, o'zimiz ham shu nodonlar safidadirmiz degan xulosa bilan yakunlamoqchi. O'zbek adabiyotshunosi, badiiy tanqidchi olim **Qozoqboy Yo'ldoshevo**'zining **"Mohiyatni anglash yo'li"** maqolasida quyidagi fikrlar orqali bu masalani shunday izohlaydi: **"Ba'zan o'quvchi muayyan asarda adib mutlaqo ko'zda tutmagan, hayoliga keltirmagan, xatto uning qarashlariga zid bo'lgan xulosani chiqarishi mumkin. Chunki, hayotiy vaziyatning o'zgarishi, ijtimoiy voqelik va tafakkurdagi yangilanishlar, ko'z qarashdagi siljishlar, ba'zan ijodkorning oddiy izhori dili ifodasidan kutilmagan chuqur ijtimoiy ma'noni keltirib chiqarishga olib kelishi mumkin"**. "Donishqishloq latifalar" turkumida aslida Matmusa obrazi orqali ba'zi o'rinda kekkaygan, ba'zi o'rinda o'zini aqlli sanovchi, ba'zi o'rinda esa o'zini hammadan iqtidorli hisoblovchi, insonlar diqqat e'tiborida bo'lishga intiluvchi kichik kamchiliklarga ega bo'lgan kishilarning siymosi gavdalantirilgan.

Yuqorida tilgan olingan barcha yozuvchi va shoirlar kishilarning, jamiyatning qusrlarini komedik ruhda o'z asarlarida bayon etgan bo'lib ularning negizida bir narsa – xalq manfaati yotadi. Bu borada adabiyotshunos olim **To'xta Boboyev** o'zining **"Adabiyotshunoslik asoslari"** kitobida **"Adabiyot xalqning hayoti, kasb-kori, ijtimoiy ongini aks ettirish yo'li bilan uning milliy xarakterini ifodalaydi. Adabiyot va san'atning xalqchilligi, xalq hayotining eng muhim tomonlarini aks ettirish, mehnatkashlarni porloq orzu-umidlarini va ideallarini ifodalash kabi muhim tamoyillar bilan belgilanadi"**, singari fikrlari orqali umuminsoniylik, xalqchillik tushunchalarini ilgari suradi. Demak, adabiyot avvalo xalqning bosh maqsadini, uning hayoti, turmush tarzini kuylaydi. Biz tahlil qilgan satirik asarlarda ham xohu g'arb adabiyoti, xoh sharq adabiyoti bo'lsin barchasida avvalo, xalqning, jamiyatning holati satira va yumor bilan izohlanadi.

Bugungi kunda adabiyot olamida realistik yoʻnalishida ijod qilib kelayotgan adiblar koʻp. Bizning fikrimizcha, realistik yoʻnalish satirani biroz chetga chiqarib qoʻyayotgandek. Boisi, realistik yoʻnalish asarni shundayligicha yaʼni kishilar tarbiyasida qanday kamchiliklar boʻlsa togʻridan-toʻgʻri kitobxonlarga taqdim qilmoqda va xulosani bir qarashda anglab yetadigan qilib qoʻymoqda desak, yangilishmaymiz. Sababi satirik uslubda yozilgan asarda ham kulgu, ham dard mavjuddir. Kitobxon esa asarni oʻqish mobaynida soʻz ostidagi soʻzni yani tag maʼnoni anglab yetadi. Qachonki, uning fikrlashi sogʻlom boʻlsa. Bu fikrlar bilan biz realist yozuvchilarimiz yozgan asarlarni tanqid qilishdan yiroqmiz. Ulaning asarlarida ham iztehzoz, kinoya, satira va yumor yetarli darajada mavjud. Ammo, boshdan-oyoq satira emas. Realistik uslubda yozilgan asarni oʻqib aksariyat kitobxon asar mazmunini anglab yetadi. Ammo satira bilan bunday deb boʻlmaydi.

Maqolaning bosh mezoni boʻlgan satira va yumor kishilarning tarbiyasida juda ahamiyatlidir. Oʻquvchi kitobxonning dunyoqarashi, fikrlashi sogʻlom boʻlsa satirik uslubda yozilgan asarni toʻgʻri baholay oladi. Fikrimiz isboti oʻlaro yozuvchi Abdulla Qahhor **“Satira oʻtiga uchragan kishi, – vijdoni boʻlsa, odamlarning yuziga qarolmaydi, vijdoni boʻlmasa, ogʻzidan koʻpik sochib, yozuvchining ketidan bolta koʻtarib yuguradi”**, deb yozadi. Darhaqiqat, “satira” deganda koʻz oʻngimizga kulgu va boy hazillarga yoʻgʻrilgan asar keladi. Lekin satiraning oʻti juda kuchli tarbiyalovchi hamdir. U insonlarni poklikka, iymonli va insofli boʻlishga chorlovchi, odob va ahloq singari sifatlarni oʻzida mujassamlashtiruvchi badiiy tarbiya vositasidir.

“Kishida badiiy asarni toʻgʻri anglash va taʼsirlanish fazilati adabiy asar oʻqish bilan oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmaydi. Badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayorgarlikka ega boʻlishi kerak”, deya taʼkidlaydi taniqli olim **Qozoqboy Yoʻldoshev** oʻzining **“Mohiyatni anglash yoʻli”** maqolasida. Oʻquvchi kitobxonning bilim darajasi, dunyo qarashi, didi, estetikasi, hayotiy tajribasi yetarli darajada boʻlsa u satira va yumor bilan yozilgan asrlarni tushunadi,

ta'sirlanadi va muayyan xulosa chiqaradi. Bir so'z bilan aytganda satiraning mag'zini chaqa oladi. Albatta, bunda yozuvchi va shiorlarningtasviriy mahorati ham ahamiyatlidir. Aytmoqchimizki, satirik asarlarning badiiy tahlili sog'lom bo'lsagina asar muallifi nima demoqchiligini anglab yetiladi va bu jarayon ikki tomon; muallif uchun ham, kitobxon uchun ham manfaatlidir. Kitobxonning badiiy estetikasiga qarab satirik asar tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, satira va yumor asosida yozilgan asarlarni mutoalaa qilish, undan estetik zavq va shuning bilan birga ta'limiy va tarbiyaviy xulosalarni olish kitobxonning saviyasiga bog'liqdir. Satira va yumor esa, badiiy adabiyotdagi oddiy bir usul bo'libgina qolmasdan, balki, bir-biridan ajralmas va bir-biridan naf oluvchi badiiy tarbiya vositasi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U.Hamdammov, A.Qosimov. Jahon adabiyoti (O'quv qo'llanma). – T.: “Barkamol Fayz Media” 2017
2. Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2003
3. To'xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari (O'quv qo'llanma). – T.: “O'ZBEKISTON” 2002
4. Qozoqboy Yo'ldoshev. Mohiyatni anglash yo'li (Ilmiy maqola). – Toshkent, “Sharq yulduzi” jurnali, 2017
5. Qosimov A, Xo'jayev S. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVIII asrgacha. – FarG'ona, 2016
6. Erkin Vohidov. Tanlangan asarlar. – T.: “SHARQ” 2016
7. Луков Ве А. История Литературы (Зарубежная Литература от истоков до наших дней). – Москва, 2008
8. Обломовский Д. Франсузкой классицизм. – М.: 1968

ID-020-30-A023

Nilufar Kenjayeva

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

SAID AHMAD IJODIDA INSON TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabda o'tiladigan Said Ahmadning "Ufq" romani obrazlarining xarakteri xususiyatlari bo'yicha mulohazalar keltirilgan va romanni o'rganish bo'yicha qo'shimcha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *adabiyot, o'zbek adabiyoti, Said Ahmad, "Ufq" romani,*

Annotation. This article provides comments on the characters in Said Ahmad's novel "Ufq", which was held at school, and provides additional recommendations for the study of the novel.

Keywords: *uzbek litriche, Said Ahmad, "Ufq"*

Said Ahmad nasrining mundarijasi rang-barang, qahramonlari xilma-xil va o'ziga xos. Yozuvchining xalqimizga manzur bo'lgan hajviy hikoyalari va romanlarining asosiy markazida mehnat mavzusi, o'zi yashagan asr kishilari obrazi turadi. "Ufq" romaninio'qishasnosidabungayanabir bora aminbo'lamiz. 1964-yili "Ufq" yaratildi. "Ufq" asarining yaratilishi bu yozuvchi ijodining ikkinchi yutug'ining bosqichi bo'ldi. Asarda zamona mehnatkashlari – insonlar obraziga mufassal to'xtalgan va har bir obraz, har xil obrazlarning mukammaligi erishgan. Asar o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, litva tillaridan tashqari rustilida uch marta nashr etildi. Asar telepostanovkasi Moskva televideniyasi orqali ikki kun namoyish etilgan. Hamza teatrida ham ushbu asar sahnalashtirildi. Shunigdek, Abdulla Qahhorning 1965 -yildagi "Ilhom va mahorat samarasi" maqolasida: " Said Ahmad bundan ko'p yillar muqaddam

qo'liga adabiyot tanburini olib chertganda, qo'li kelishganligini ko'rib, yaxshi sozonda bo'lib, yaxshi-yaxshi mashqlar chalishini orzu qilgan edik. Shu orzu ushalib kelayotibdi. "Ufq" uning ilhom va mahorat bilan chalgan mashqidir " - deya baholagan. Roman trilogiya " Qirqbesh kun", Hijron kunlarida ", "Ufq bo'sag'asida" kabi uch qismdan iborat. Roman sujeti orqali Said Ahmad o'z zamonasining ayni paytdagi muommolarini, jamiyatdagi mavjud holatni ifodalagan. Yozuvchi romanining dolzarbligi va o'lmas shuhrati ham aynan shu davr insonlarining psixologiyasini yorqin yoritib bera olganligidadir. Har xil inson xarakterlari insonlarning ehtiyoji, kasb taqozosi, orzulari, maqsadlari natijasida birlashadi va ayni davr mavzusi, jamiyatning dolzarb muommosi sababli buning insonlarga tasir etish oqbatlari tasvirlanadi. Ushbu romanning ilkki tobi "Katta Farg'ona" kanali qurilishi paytlarini qamrab olgan. Yerlar sho'r bo'lganligi bois xalq oldiniga yerga sholi ekishlari, paxta yetishtirib va bu orqali frontda yurgan o'z vatandoshlariga yordam berishni maqsad qilib olgan xalq hayoti aks etadi. Asarda urushda yurgan yurtdoshlari uchun va ularning ortida qolgan bolalar, ayollar va oilalarini boqish uchun xalq birlashganligi va buning tasirida yuzaga kelgan muhit ochib berilgan. Front ortidagi bir oyog'i oqsoq bo'lib urushdan qolgan, ammo har daqiqa urushdagi insonlar haqidagi o'ylar va oilasi , sevgan yori uchun tinimsiz harakat qiluvchi, akasining oriyati, oilashani, yigitlik g'ururi baland tutuvchi o'zbek o'g'lonlarining yuzi bo'lgan Nizomjon, asli bir oiladan bo'lsada ukasidan tubdan farq qiluvchi , qatiyatli, ammo "men" ligi baland urush qatnashchisi A'zamjon, zamona zayli va ayni o'smirlik paytida to'lishgan, orzularga berilgan Dildor kabi obrazlar, shuningdek zamonaning vaqtinchalik ahvolidan kelib chiqib fikrlaydigan va hech qachon bir javob iikki bo'lmasligini xohlaydigan A'zamjon va Nizomjonlarning, "men" ligi yuqori bo'lgan otasi Inoyat oqsoqol obrazlari mukammal yoritib berilgan:"Romanda Ikromjon kabi oriyatli , qatiyatli va g'ururli xalq qahramonlari va o'z navbatida farzandiga sevgisi yuksak ota obrazi" berilgan .Ushbu obrazni biz bugungi kundagi zamonaviy

adabiyotimizdan Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi Po‘latjon obrazi bilan taqqoslab o‘tamiz.

Po‘latjon ham o‘zining g‘uruliligi va el ichida obro‘ topganligi bilan Ikromjon xarakteriga bir qancha o‘xshab ketadi. Ammo Po‘latjonning qaxri qattiqroq bo‘lganligi bois o‘z qizini halok qiladi. Ikoromjonda esa qanchalik oriyatli bo‘lmasin baribir otalik mehriustunlik qiladi, o‘q uzganda ham tegamaganidan xursand bo‘ladi.

” Yaxshiyamki, o‘qtegmadi...”Balki bu farzandini yoshligidan bitta bo‘lganligi uchun va uzoq kutganligi uchun ko‘proq vaqtini va bor mehrini berganligi sabablidir. Asar talqinidagi obrazlarning har xil turdagi xarakterlari ularni bir mavzu ostida birlashtiradi. Bu mavzu “urush” mavzusi edi .

Obrzalardagi mukammalilik psixologik holatning yorqin ochib berilganligi sababli biz bu asar qahramonlarini milliy ruhiyatimizning namunalari sifatida ko‘rsata olamiz. Shu o‘rinda Ikromjon otani buning yaqqol timsoli sifatida ko‘rsata olamiz, ya‘ni butun “O‘zbeklarning otasi” –deya ta‘rif beramiz va bugungi kungacha ham bu obrzaning o‘z o‘rnini hech qaysi asar qahramoni egallay olgani yo‘q.

Shuningdek, asarda uchraydigan Dildor obrazini O‘tkir Hoshimovning “Ikk ieszik orasi” asaridagi Shomurodning xotini Ra‘noga qiyoslasak ham bo‘ladi. Ra‘noning Shomurodga qilgan xiyonatini Dildorning Nizomjonga qilgan xiyonati bilan bir xil holat qilib bog‘lasa bo‘ladi. Bu ikki asar ham urush yillarida yozilgan bo‘lib , har ikkisida ham o‘xshash obrazlar mavjud. Masalan: Dildor va Ra‘noning ayni xalq boshiga kelgan qiyinchiliklarda ham ayni damda o‘zini o‘ylash xarakteri bor ayollarning borligini ko ‘rsatib berishi nafaqat o‘sha davrning “ayrim” ayollarini to‘liqi fodalash bilan birgalika bugungi kunda ham qiyinchiliklar yuzaga kelgan vaqtda ,shu zamonda ham bazi ayollarning xarakterida uchraydigan xususiyatlarini to‘liq namoyon etgan.

Asarda Zebi kabi yosh va go‘zal, jasoratli qizlar ham berilgan, ularning g‘ayratliligi va qatiyatligini o‘zbek qizlariga namuna qilibko‘rsata olamiz. Uning soddaligi , dilgirli sababli Tursunboyga ko‘ngil qo‘yishi , Tursunboyning

urushdan qochishi va bunda Zebining bunday insonga ko'ngil qo'yganligi uchun o'zini kechira olmay yurishi ham uning sofdillik xarakterini ko'rsatib beraoladi.

Asosiy mavzu urush nomi ostida birlashgan xalqning dushmani, xalq xiyonatkorlari timsolida Tursunboy kabi obrazning berilishi asarning kulmanitsion nuqtasi sifatida tasvirlanadi. Oilada yolg'iz farzand, ota – onasining erkasi bo'lib voyaga yetgan Tursunboyning burchga nisbatan loqaydsizligi oqibat o'zi va onasini xarob qiladi.

Shuningdek, Inoyat oqsol va Nodira tasviri orqali nafsiga qul bo'lgan kishilar timsoli tasvirlanadi. Ular birgalikda kelini Dildorning boyliglariga erishish maqsadida urushga ketgan, hali o'lmagan farzandining ayolini ikkinchi o'g'li Nizomjonga bermoqchi bo'lishadi, ammo buni qabul qilishni xohlamagan Nizomjonni otasi "Oq" qiladi va Nizomjon uydan ketadi. Asar yakunida Nizomjon Dildorga maktub bitadi, unda bo'lib o'tgan voqealar, hayoti haqida va uydagilarini so'rab xotiraydi. Asar nihoyasida Nizomjonning Ikromjonga chin o'g'il bo'lishi va Ikromjon xohlagandek hayot muhitining yaratilishi bilan yakun topadi.

Xulosa shuki, inson kim, yashashdan maqsadi, sur'at va siyrat mutanosibligi, insoni burchga sadoqat va xiyonat, ota va farzand, er-xotin, ayol iffati, ota mardligi kabi mavzularda gavdalantirilgan insonlar uning ijodini yanda yuqori pog'onlarga ko'tarib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Said Ahmad. Ufq. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at: 1976.
2. Bahodir Karim. "Ruhiyat alifbosi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi: 2016.
3. O'tkir Hoshimov. Ikk ieszik orasi. Yangi asr avlodi: 2016
4. Ulug'bek Hamdam. Ota. Yangi asr avlodi. 2019.
5. Умаров Б. Психология. Ворис – нашриёт. Т. 2012. 230 б.
6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamolfayz media: 2018
7. Ziyoz.uz

ID-020-30-A024

Dilnavoz Najmiddinova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

VILYAM SHEKSPIRNING “HAMLET” TRAGEDIYASIDA QAHRAMONLAR PSIXIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Vilyam Shekspirning “Hamlet” tragediyasidagi qahramonlar psixikasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, psixika, Vilyam Shekspir, “Hamlet” tragediyasi

Psixologiya fani juda qiziqarli fandır. Chunki u bevosita shaxs bilan bog'liq. O'z-o'zini bilish inson uchun maroqlidir.

“Psixologiya voqelikning alohida bir sohasi bo'lgan psixik yoki ruhiy hayot sohasini o'rganadi. Har kimga ma'lum hodisalar: sezgilarimiz, idrok, tasavvurlarimiz, fikr, his, intilishlarimiz va shunga o'xshashlar psixika hodisalari jumlasidandir. Shaxsning psixik yoki individual xususiyatlari deb ataladigan xususiyatlar: odamning temperamenti, xarakteri, qobiliyati, ehtiyoji, mayli, havaslari ham psixika sohasiga kiradi”. [2.6-bet]

Inson va psixologiyani bir-biridan ayro tushunib bo'lmaydi. Ular o'zaro chambarchas bog'langan tushunchalardir. Tasavvur qiling, savdo do'konidan farzandingizga o'yinchoq sotib oldingiz. Uning faqat bir, oshib ketsa ikki-uch xil xususiyati bo'ladi. Agar u qo'g'irchoq bo'lsa, qo'shiq aytishi, ko'zini ochib-yumishi, ot o'yinchoq bo'lsa, sakrash, yugurishi mumkin. Bundan ortiq ishlarni bajara olmaydi. Uning vazifasi heklangan. Chunki uni odam yaratgan. Yaratgan Parvardigorning qudratini qarangki, birgina insonda million xil xususiyatni yaratib qo'yibdi. Inson bir paytning o'zida ham yig'lashi, ham kulishi, ham

xo'mrayishi, ham xursand bo'lishi, ham hayajonlanishi, ham afsuslanishi mumkin. Ha, bunday qudrat oldida biz ojizmiz.

Endi, inson psixikasidagi o'zgarishlarni badiiy asar misolida ko'rib chiqamiz. Bu asar buyuk ingliz dramaturgi Vilyam Shekspirning "Hamlet" tragediyasidir. Asar bosh qahramoni bo'lgan Hamlet turli ziddiyatlar qurshovida tasvirlanadi. Uning xarakterida agressiya, jizzakilik, qiziquvchanlik, muhabbat jo'sh uradi. Hamlet 17-18 yosh oralig'idagi o'spirin. Psixologiya kitoblariga qaraydigan bo'lsak, bu yoshdagi o'spirinlar xarakterida psixologik o'zgarishlar yuz beradi, qiziqishlar, intilishlar, ziddiyatlarortadi, yangi hislar, sezgilar paydo bo'ladi, do'st tanlash bilan bog'liq muammolar yuzaga kela boshlaydi. Psixologiya darsliklariga nazar tashlasak quyidagi fikrlarni ko'rishimiz mumkin: "Bu davr kuch-g'ayrat, shijoat, qahramonlik ko'rsatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat hodisalariga romantic munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi". [3.172-bet] "... bu ontogenez bosqichida eng rivojlangan his bu do'stlik bo'lib hisoblanadi". [3.187-bet] Ushbu psixik o'zgarishlarni Hamletda ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, uning do'sti Goratsioning "men sizning sodiq bandangizman" deb aytgan gapiga Hamlet: "nechun banda bo'lasiz, axir bizlar do'stmiz-ku" deb javob beradi. U do'stini juda hurmat qiladi, uning har bir aytgan gapini haqiqat deb qabul qiladi, Goratsio o'zini tanbal deb ataganda ham bunga qattiq qarshilik qilib, e'tiroz bildiradi, uni mehnatkash inson ekanligini e'tirof etadi. Yoki bo'lmasa, muhabbat borasida ham aqldan ozib, bosh vazirning qizi Ofeliyani sevib qoladi. Bunga qarshi bo'lishlariga qaramay u sevgisidan voz kechmaydi. Hamlet xarakterida bundan tashqari agressivlikni, hayotdan to'yishlikni ham ko'rish mumkin. Bunga asosiy sabab otasining amakisi tomonidan o'ldirilishi va onasining amakisiga turmushga chiqishi sabab bo'ladi:

"...Shu qanchalik razolat !Qahrim shundan-da!

U otamni o'ldirib, onamni buzdi.

To'siq bo'ldi men bilan xalq o'rtasida.

Endi hayotimni ham nobud qilmoqchi...”![1.224-bet]

Bu yoshdagi o‘smirlarga bunday holatlar juda yomon ta‘sir qiladi .Ular o‘z jonlariga qasd qilishlari ham mumkin. Bunday istakning mavjudligiga Hamletning nutqidan ham anglash mumkin:

“Koshki shu go‘sh t to‘rvasi mahv bo‘lsa tamom.

Yo erisa, chirisa, yoki bug‘ bo‘lsa!

Koshki edi, demasa xalloqi-olam

O‘z-o‘zini o‘ldirmoq fe‘lini gunoh” . [1.25-bet]

Asarning boshqa o‘rinlarida ham shu va shunga o‘xshash vaziyatlarni uchratish mumkin. “Hamlet” ana shunday ziddiyatlarga boy asar bo‘lishiga qaramay, barcha kitobxonlar qalbidan joy olibul gurgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vilyam Shekspir “Hamlet” tragediya. Tanlangan asarlar. Besh jildlik. Uchinchi jild. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. T.: 1983.
2. P. I. Ivanov, M. E. Zufarova “Umumiy psixologiya”. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. T.: 2014.
3. E. G‘oziyev “Ontogenez psixologiyasi” nazariy-eksperimental tahlil. T.: 2010.
4. www.ziyonet.uz

ID-020-30-A025

Dilobar Mirzahakimova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

ILK BOSHLANMALARNING BADIY ASAR POETIKASIDAGI AHAMIYATI

(Isajon Sultonning “Genetik” romani misolida)

Annotatsiya. Maqolada badiiy asarning bir qismi bo'lmish ilk boshlanma, ilk jumlaning asarni ochishdagi badiiy, ilmiy xususiyatlari, ilk boshlanma tanlay olish yozuvchidan qanchalik kata mahorat talab qilishi to'g'risidagi fikr-mulohazalar, izlanishlar tahlil qilindi. Chunonchi, ilk boshlanma badiiy asar poetikasining ajralmas bo'lagi sifatida muhokama etildi.

Yozuvchi Isajon Sultonning “Genetik” romanidagi ilk boshlanmalar orqali yangi xulosalar chiqarildi. Ushbu romanda berilgan ikki boshlanma qanchalik bugungi kun, bugungi yoshlar uchun naqadar dolzarb ekanligi ochib berildi. Shuningdek, ilk boshlanma va xotimaning o'zaro uyg'unlashuvi asarni his qilishda muhim rol o'ynashi haqidagi mulohazalar ham yoritildi. “Genetik” romani aynan shunday xususiyatga ega asarlar tipiga kiritilishi asardan keltirilgan parchalar orqali isbot qilishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: *Ilk boshlanma, yozuvchi mahorati, ijodkorlar uslubi, “Genetik” romani, boshlanma va xotima uyg'unligi.*

Annotation. The article analyzes the first beginning, which is a part of the work of art, the artistic and scientific features of the first sentence in the opening of the work, ideas and research on how much skill it takes from the writer to choose the first beginning. Thus, the first beginning was discussed as an integral part of the poetics of the work of art.

New conclusions have been drawn from the first beginning in the novel “Genetics” by the writer Isajon Sultan. The two beginnings in this novel are how relevant they are to today's youth. There was also comments that the harmonization of the beginning and the end played an important role in the feel of the work. An attempt has been made to prove that the novel “Genetics” is included in the category of works of this nature by means of excerpts from the work.

Keywords: *First beginning, writings kills, creative style, the novel "Genetics", a combination of beginning and end.*

Bir asar orqali (xoh u hikoya, xoh u roman bo'lsin) o'quvchi qalbiga kirib borish, so'z orqali ta'sir qilish ulkan mahoratni va iste'dodni talab qiladi. Ayniqsa, nasriy asarlarda bu vazifani bajarish bir oz mushkul bo'ladi. Asarda yozuvchining ovozi, o'qirmaniga aytmoqchi bo'lgan qalb so'zlari sezilarli ifoda etilmasa, bu asarning umri qisqa bo'ladi.

Kitobni ochganda har birimiz asar muqaddimasiga diqqat qilamiz. O'qilajak asar berk sandiq bo'lsa, ilk boshlanma uning kalitidir. Yozuvchi o'z o'quvchisiga shu sandiqqa mos tushadigan kalitni topib berishi lozim. Aks holda ochilgan kitob darhol yopilishi tayin. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, ustoz Komiljon Hamrayev ham ilk boshlanma butun asarning taqdirini hal qilishi va buda yozuvchining mahorati naqadar muhim o'rin tutishi borasida quyidagicha fikr bildiradi: "...Bo'ladigan bola boshidan ma'lum", deganlaridek, badiiy asarning birinchi jumlasini o'qib to oxirgi jumlagacha qadar bosh ko'tarmasdan mutolaa qiladiganlar, ilk jumlaning o'qib-o'qimasidan hafsalasi pir bo'ladiganlarning topilishi, shubhasiz, yozuvchining badiiy mahorati bilan bog'liq". [2. 133-bet]

Shu sababli ham butun asarning yuki ilk boshlanmaning yelkasida bo'ladi. İlk boshlanma yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi tanishuv vositasidir. Yozuvchi tanishish uchun turli usullardan foydalanishga harakat qiladi. Shu orqali jodkorning o'z uslubi shakllana boshlaydi. Qaysidir yozuvchi turli maqol, aforizmlar bilan asarni boshlasa, ba'zilar tabiat tasvirlari bilan, shuningdek, qandaydir tarixiy, ilmiy, zamonaviy manbalar, voqealar orqali jod mahsulini yoritishga urinadi. O'zbek adabiyotining bir qator namoyondalari ham bu borada o'ziga xos uslub yarata olgan. Masalan, Abdulla Qahhor hikoyalarining ilk boshlanmalariga nazar solsak, uning asarlaridagi ilk jumlar sizga xuddi "tomdan tarasha tushganday" vaziyatlar bilan boshlanib, o'quvchini beixtiyor "qitiqlab" voqea ichiga olib kirib ketadi. Abdulla

Qodiriyning romanlarini kuzatsak, unda yozuvchi asar boshida o'qirman bilan "kichik suhbat" uyushtirib olib, asar so'nggida yana yozuvchining o'zi suhbatdoshi bilan fikrini xotimalaydi.

Zamonaviy o'zbek nasrida o'ziga xos uslub yarata olgan Isajon Sulton ijodidagi ilk boshlanmalar yozuvchi va o'quvchi o'rtasida ko'prik vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Bu fikrni uning "Genetik" romani orqali sharhlashga harakat qilamiz.

Roman muqaddimasida Qadimgi Irq bitigidan parcha keltiriladi: "Tong ota boshladi. so'ng uning izidan yer yuzi yorishdi.

So'ng quyosh chiqdi, hamma yoq yorug' bo'ldi.

Eryigit emaklab bordi, Tangriga yo'liqdi..." [1. 3-bet]

Yozuvch inega aynan Qadimgi Irq bitiktoshidagi yozuv bilan asarni boshladi? Bu savolga javobni asar sarlavhasi va mazmuni bilan bog'lab tahlil qilsak maqsadimizga erishamiz. Asar mohiyatini chuqurroq anglanimiz sari Qadimgi Irq bitigidan bo'lak hech bir jumla boshlanma bo'lolmasligiga ishonch hosil qilamiz.

"Genetik" romanini bir daraxt deb olsak, uning ildizi boshlanmasidir. Asar mazmunidan kelib chiqsak, bizning tarixiy ildizlarimiz, shajaramiz Qadimgi Irq , Kultegin, To'nyuquq kabi bitiktoshlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bitik tahliliga e'tibor qilsak, tong otishi tasviri bu bizning kunchiqar, ya'ni Sharq xalqlariga tegishli ekanligimizni anglatadi. Tag ma'nosida esa kunning chiqishi-nurning, yorug'likning belgisi. Bu go'yoki turkiy xalqlar paydo bo'lishi va shakllanishi ishorasidek. Hamma yoqning yorug' bo'lgani, bizning ajdodlarimiz ulug'vor, beqiyos kuch-qudrat egasi ekanligidan dalolatdir.

Tangriga yo'liqish -komillik, yetukli kalomati. Balki bizning yurtimizga Tangrining nazari tushgan deyishimizning boisi shundandir. Bitik yozuvdan keyin kichik hikoya keltiriladi: "Aytadilarki, bir odam daryo yoqalab kelayotib, kattakon yombi topiboldi. Qo'ynidan yong'og'ini olib, chaqmoqchi bo'lib uringan edi, yombi birnecha bo'lakka bo'linib ketdi. "Yaltiroq bo'lgani bilan

hech nimaga yaramas ekan-ku”, deya afsuslanib, uni otib yubordi-da, qirg‘oqda qalashib yotgan oddiy toshlardan biri bilan yong‘og‘ini chaqib yedi hamda murod-maqсадiga yetib, o‘z yo‘liga ravona bo‘ldi”[1. 3-bet].

Bu hikoya asar boshlanmasida va xotimasida kelishi ahamiyatli. Sababi voqea aynan hozirgi avlod uchun tegishlidir. Yoshlarimizda:”Yong‘oq chaqish uchun sindirilgan yombi bilan bizning oramizda qanday bog‘liqlik bor”, -degan savol tug‘ilishi tabiiy. Ushbu hikoya bilan yozuvchi hozirgi avlod uchun juda dolzarb masalani o‘rtaga tashlagan.

Yombi – bu oddiygina tosh emas, balki necha ming yillardan buyon tomirlarimizda ajdoddan avlodga o‘tib kelayotgan noyob iste‘dod, chaqrib turgan yolqin, bebaho merosdir. Voqeadada bebaho iste‘dodni yong‘oq chaqishdek arzimas mayda ishlarga sarflamaslik kerakligi haqida so‘z bormoqda. Har birimizda qaysidir ajdodimizdan meros qolgan uchqun-iste‘dod bor. O‘sha uchqunni olovga aylantirish o‘rniga oyog‘imiz ostidagi begona toshlarga almashtirmasligimiz ajdodlar oldidagi avlodlik burchimizdir.

Yombining vaqtga oid ma‘no qatlamlarini ochadigan bo‘lsak, har bir fursat yombi toshi kabi bebaho. Fursatni bu dunyoning havoyi havaslari bilan o‘tkazib, tomirda yashirin oqayotgan iste‘dodni insoniyat uchun xayrli ishlarga sarflamaslik, nazarimizda, qo‘ynimizni puch yong‘oqlarga to‘ldirish bilan barobardir.

Shuning dek, ijodkor asarni ilk boshlanma va xotima bilan uyg‘unlashtira olgan va asarni ajoyib kompozitsiyaga aylantirgan. Muqaddimada kelgan keltirilgan yombi haqidagi rivoyatga javoban yoki yozuvchi nazarida “xulosa bo‘lsin uchun” yana shu mavzuga to‘xtaladi.”...shu qimmatbaho tosh o‘zi paydo bo‘lgan mahalda ro‘y bergan voqea-hodisalarning xotirasida saqlashini ham bilardi. Shuning uchun avaylab qo‘yniga soldi hamda o‘zini voyaga yetkazgan aziz manzillarga ravona bo‘ldi”[1. 140].

Ilk boshlanmada qahramon yombini yong‘oq chaqishga ishlatgan bo‘lsa, asar xotimasidagi qahramon tafakkur qildi, anglab yetdiki, qo‘lidagi yombi oddiy tosh emasdi. Shu sababli uni qo‘yniga avaylab solib qo‘ydi. Chunonchi,

yozuvchi bu xotima orqali xalqimizga xos asriy an'analarni ham ifoda eta olgan. Ya'nikim, o'zbek xalqi har bir ishning oxiri xayrli bo'lganini yoqlaydi va har doim "oxiri baxayr bo'lsin", -deya duo qiladi.

Ushbu asardagi kabi ilk boshlanmalar nur bilan boshlansa, u o'quvchi qalbini yoritish qudratiga ega bo'ladi. Fikrimizga xulosa qiladigan bo'lsak, taomning mazasi tuzi bilan totli bo'lsa, asar ham sermazmun ilk qadami o'quvchisiga azizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isajon Sulton. "Genetik". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018
2. K. Hamrayev. "Hikoyada ilk jumla poetikasi". -Toshkent: Sharq yulduzi, 2019.

ID-020-30-A026

Nazokat Qahhorova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

URUSHDAN UZOQDAGI UNSIZ TAQDIRLAR

Annotatsiya. Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasi orqali «urush» insonlar hayotida katta foj ealarga sabab bo'luvchi, hatto oddiy insonni ham, «urush odami»ga aylantirib qo'yishini bilib olishimiz mumkin. Asarda qahramonlarning holatlari chuqur psixologizm orqali ochib beriladi. Bu esa yozuvchining takrorlanmas mahorati orqali har bir obrazning ichki kechinmalarini yanada kengroq anglashimiz ga zamin yaratadi. Asardagi aynan mana shu jihatlar uning saviyasini oshirgan. Shu sababli biz shu asarda «iztirobli urush»ning o'chmas izlari ko'zga tashlanganligiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: *Uslub, psixologik tahlil, ruhiy olam, ramziylik, ekzistensializm.*

Annotation. Through «People of war» story which is written by Nazar Eshonqul. «War» is causing great tragedies in people's lives, we can learn that even an ordinary person can be turned into «a man of war». In the play the states of the protagonists are revealed through a deep psychologism. Which allows us to better understand the inner experiences of each image through the unique skill of the writer. It was these aspects of the work that reased its level. Therefore, it is in this play that we the immortal traces of a «painful war».

Keywords: *Still, psychological analysis, spiritual world, symbolism, existentialism.*

Bugungi kunda adabiyot, adabiy olam, adabiy muhit anchagina rivojlanmoqda. Bunga o'z hissasini qo'shayotgan shoir, yozuvchilarimiz talaygina. Ular orasida taniqli adib, Nazar Eshonqul ham bor. Bu ijodkorning mahorati qahramonlaridami yo, ularning tabiatidami yoxud adibning tasvir usullarida? Adibning o'zi: «Menga voqea emas, uning mohiyati qiziq»,- deb yozadi. Demak, hikoya, roman yo qissa bo'lsin undagi ma'no va uning ta'sir etish ehtimoli kuchli ekanligini anglaymiz. Bunday mahorat- katta iste'dod....

Fikrimiz dalili sifatida «Urush odamlari» qissasini tahlil qilsak. Qissa hikoya bilan roman orasidagi janr bo'lganligi bois, goho ulardagi ba'zi xususiyatlarni ijodiy qabul qiladi, tasvir va ifodada qisman sintezlashadi, yangilanib boradi. Darhaqiqat, ayrim hikoyalarda qissaga xos epic bayon va estetik mohiyatning aks etishi badiiy ijodda favqulodda hodisa emas. Binobarin, qissada qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinib, uning markazida qahramon turishi bu asarda yorqin ko'rinadi.

Ushbu qissada Nazar Eshonqul uslubiga xos muhim bir xususiyat aks etgan. Bu adib asarlarida an'anaviy realistik va noan'anaviy zamonaviy tasvir tamoyillarining o'zaro uyg'unligidir, ya'ni muallif «Urush odamlari» qissasida realiz bilan «Tun panjaralari», «Qorakitob» asarlaridagi modernizmni badiiy diffuziyalash yo'li bilan bir asarga jamlagan.

Asardagi Normatpolvon, uning xarakteri dinamikasining ilk bosqichi roviyning u haqidagi tavsifida tipik an'anaviylikka yo'g'rilgan. «Normat – bosiq, har qanday vaziyatda o'zini tuta oladigan, lekin fe'li kelsa otasini ham ayamaydigan odam» [2]-edi. Bu tasvirda qahramon saviyasining zohiriy jihatlari, oddiy odamlarga xos tipologik xislatlari yoritiladi. «Bosiq», «o'zini tuta bilishi» undagi ijobiylikni ta'kidlaydi. Ammo xarakte rrivojida ikkinchi bosqichdagi xarakatlari [Mirzaqul va Anzirat voqeasi] real hayotdagi turmushda salbiylikka zamin yaratilishi mantiqan anglashiladi.

Ma'lumki inson siyratining butligi vujud (jon qafasi), aql (insoniylik), ruh (abadiylik) yaxlitligida shakllanadi. Bularning bittasiga putur yetsa, inson o'zligidagi tabiiy muvozanat buziladi. Anzirat- ana shuholatga giriftor shaxs. Aqlining dars ketishi bilan yuzaga kelgan bo'shliq uni arosat-absurt yo'llarga boshlaydi. To'g'ri, urush, farzandlari uchun bu yo'lga kirdi deymiz-u, ammo u xato qildi. Bu ishini oqlab bo'lmaydi. Muallif Anzirat obrazi orqali irodasi sust, e'tiqodi beqaror shaxsning ma'nisizlik maskani- hayol olami girdobidagi ayanchli holati va qiyofasiz «qiyofa»ni chuqur psixologik rakursda realistik tasvir orqali ko'rsatishga erishaolgan. Bir tomondan Normatpolvon qilgan ishini qoralaysiz. «Anzirat, axir uning farzandi uchun o'zini nobud qildi»,-

dersiz. Bu ikki jihat shu o'rinda parallel qo'yiladi. Lekin, xulosa kitobxonning o'zida- yu, men uchun Anzirat xatosi kechirilmaydi va oxirida Normatpolvon tomonidan uning o'ldirilishi, bosh obrazning mohiyatini ochib beraolgandek nazarimda.

Asarda: «Endi bu tinchligimni hechnarsaga almashmayman, xotinimni hech ham o'ksitmayman, odamlarningk o'nglini olaman. Mana shu tog'lar hurmati [2]«,-degan fikrlar bu Normatpolvondек urush odaming orzulari edi. Lekin uning orzulari unga hayotga tik va haqqoniy qarashga xalaqit berdi. Anziratning xiyonatini kechiraolmadi. O'rtadagi ishonch poymol bo'ldi.

Asarda Biydi momo obrazi. Yozuvchi mahorati aynan shu obraz orqali ochiladi. Bu ayol kuda mard, farzandlarini halol liqma bilan o'stirib, nomusli va oriyatli qilib tarbiyalagan edi. Ammo «urush oyog'ing ostida ko'chib turgan tosh, ko'tarsang ham ko'tarmasang ham o'lasan». Ikkita o'g'ildan ajralgandan keyin ham hayot oqimiga qarshi suzmadi, ammo uning birgina xatosi bor. Normat polvonning farzandlarini o'ylamasdan unga o'zining kichkina kelinini olib bermoqchi bo'ldi.

U «Yetti nomus- bir o'lim» maqolida mahkam turadigan kampir edi. Normatni oilasida yiroqlashtirdi. Bu xato tufayli ikki juft qorako'zning norasidaga aylanishini o'ylamadi va oxirida ham xiyonatni baribir kechirolmay Anziratni ham uni bu yo'lga boshlagan Mirzaqulni ham o'zi bilan olib ketdi.

Farzand – Xolmat.

«...Men katta bo'lsam miltiq sotib olaman.»

«Miltiqni nima qilasan?...»

«Otamni otaman!!!²»

Onasi qiynalib kasallanib yotganida yonida bo'lgan bu bolaga otasining qilgan ishi psixologik jihatdan yomon ta'sir qilganligini ko'ramiz. Ayniqsa, Anziratning o'limidan keying nafrat farzandni otasiga miltiq o'qtalishiga sababchi bo'lmoqda.

Yozuvchining mahorati o'z qahramonlarini tabiatdagi bor unsurlar bilan bezashida ko'rinadi. Bu o'rinda peyzajning go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin.

«Kampirlarning so'lib, tirishib qolgan yuzlaridagi sho'x va quvnoq boquvchi ko'zlari xuddi so'ligan otquloq bargga tushgan ikki tomchi shudringdek yaltiraydi.» [2] Juda mahorat bilan tanlagan peyzaj uslubi.

Yozuvchi Qo'ng'iro't elide bahor kelishi va unda lolaqizg'aldoqlarning ochilishi, suvlarning oqishi, maysalar, o't-o'lanlarni beqiyos darajada jonlantirib chiroyli peyzaj uslubini mahorat bilan ko'po'rinlarda qo'llagan.

Bu asarda «Urush» va «Urush odamlari»ning qandayligini ko'rdik. Urush motivi asarni boshidan oxirigacha o'zining imtihosidan ibtidosigacha odamlar hayotiga katta qismatlarni solganligini guvohi bo'ldik.

«Urush.. yer yuzidagi hamma ezgu narsani quritadi, sizlarni yer yuzidan supurib tashlaydi. Sizlar, hammalaring johil va adashgan urush odamlariga aylanib qolasizlar. Bilinglarki, odamzodning otasi bitta: onasi bitta-hamma bir - biriga jigar. Kimki urushga qarshi bo'lsa: ular sizning jigarlaringiz. Ularni qo'llanglar.» [2]

Asarda urush, undagi odamlarning qanaqa bo'lishi, insonlarni qay ahvolga solishi yuqoridagi fikrlarda namoyon.

«Urushdan barchamiz omon chiqqan edik, endi qarasam tinch zamonlarda dinozavrdek qirilib ketibmiz. Urush urushmidi biz uchun yo Tinchlik urushmidi.» [3]

Bu ikki asarda keltirilgan urush tasviriga e'tibor bersak, urush- haqiqiy jangg ohlik, katta qiyinchilik. Bu fikrlarni bugun bilan solishtirsak, ba'zida tinchlik urushmidi deb yuboramiz. Nimaga deysizmi? Chunki shukr qilmaymiz. Biz ham xuddi Urush odamlariga o'xshab qolganmiz. Hattoki mehr-muhabbat, hurmatni ham bir-birimizdan qizg'onamiz. Shu emasmi tinch zamondagi urush!

«Odam qimmatbaho narsasini yo'qotsa achinadi. Tuhmatga qolsa boshini tog'-u toshga uradi. Qadri yerga urilsa isyon ko'taradi. Yaqin

kishilardan ayrilsa dod soladi. Lekin, urush bo'lsa-chi? Hech nimaga, hech kimga «hatto o'z qadringga ham achinmaysan»

Bu asarda ham urushning ayanchli qismati aks ettirilgan. Endi o'ylab ko'raylik, urush, Urush odamlari, «qoraxat» bularning barchasi haqiqiy hayotning haqiqati. Ha bularning barchasi sodir bo'lgan, ro'y bergan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Nazar Eshonqulning «Urush odamlari» qissasi bugungi O'zbekiston deb atalmish, jannatmakon diyorga, bergan non-u tuziga, tabiatiga, yer-suvigas hukronalik keltirishimiz uchun yozilgan chaqiriq dostonidir. Bu qissadan haqiqatlarni anglash mumkin. Barchasi ro'yi rost keltirilgan. Bugun bizdan kutiladigan birdan bir maslak bu tinch zamonda yashab, urush odamlarga aylanib qolmaslik. Shuning uchun barchamiz urushdan uzoqda bo'lsakda, uning tilsiz tomoshabinlari bo'lib qolishdan o'zimizni asraylik!!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Google.com
2. Nazar Eshonqul «Urush odamlari» qissasi. «Sharq» NMAK, 2008
3. Ulug'bek Hamdam»Ota»romani. Yangi asr avlodi nashriyoti, 2019
4. O'tkir Hoshimov « Ikki eshik orasi»romani. «Sharq» NMAK, 2012.

ID-020-30-A027

Nozima Sulaymonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

ABSURDIZM ALBERT KAMYU TALQINIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Albert Kamyuning “absurd” haqidagi qarashlari, “Sizif haqida afsona” esse si tahlilga tortilgan. Va shu asar misolida “absurd” va “isyon” tushunchalari, odamning olam va hayotda tutgan o'z o'rnini anglashi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *modernizm, ekzistensializm, yolg'izlik, absurdobraz, ma'nisizlik, mavjudlik.*

Annotation. This article analyzes Albert Camus's views on the “absurd” and the essay “The Legend of Sisyphus”. And in this work, the concepts of “absurdity” and “rebellion” are discussed, as well as the understanding of man's place in the world and in life.

Keywords: *modernism, existentialism, ugliness, absurd image, meaninglessness, existence.*

Fransuz yozuvchisi va faylasufi Albert Kamyu (1913–1960) o'tgan asrning 50-yillarida jahon intelligensiyasi tafakkuri va dunyoqarashiga kata ta'sir ko'rsatgan ijodkorlardan sanaladi. Zamondoshlar iunga “G'arb vijdoni” degan sharafl i nom bergandilar. Albert Kamyu 1913-yilning 7-noyabrida Jazoir da yashovchi fransuz oilasida dunyoga keldi. Yosh Albert shu yerdagi boshlang'ich maktabda savodini chiqardi. A'lo o'qigani uchun u maktab ma'muriyati yo'llanmasi bilan litseyga o'qishga qabul qilindi. Biroq, sil kasaliga chalinib, bir muddat kasalxonada yotib davolandi. Baxtga qarshi bukasallik umrining oxiriga qadar undan arimadi, adibning ruhiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, hayoti va ijodida salbiy holatlar tug'dirdi. 1932–1937 yillar Kamyu Jazoir universitetining falsafa fakultetida tehsil oldi. Bu yillarda u Andre Jid, F. M. Dostoevskiy, F. Nitshe asarlarini kata qiziqish bilan mutolaa qiladi. 1936-yil Kamyu “Neoplatonizm va xristianlik ta'limoti” mavzusida magistrlik

dissertatsiyasini himoya qiladi. Dissertatsiya mazmunida Platon falsafasining Avrelie Avgustin teologik falsafasi va diniy ta'limotiga ta'siri xususida fikr yuritilgan edi. Shundan so'ng, u S. Kerkegor, L. Shestov, M. Xaydegger va K. Yaspersning ekzistensializm falsafasini qunt bilan o'rganishga kirishadi. Ayni paytda davrining mashhur yozuvchisi Andre Malro prozasining tub mohiyatini ifodalovchi "hayotning absurdligi" g'oyasini o'rganish bilan mashg'ul bo'lib, o'zi ham shu mavzuga yaqin "Baxtli o'lim" nomli ilk qissasini yozadi.

1942 yili adibning "absurd haqida essesi" – "Sizif haqida afsona" asari nashr etildi. Bu asarida Kamyu o'lim haqidagi fikr-mulohazalarini, ya'ni o'z-o'zidan begonalashib ketish, voqelikni bilib bo'lmaslik, yashash ma'nosini anglashning mumkin emasligi, erkinlikning yagona manbai sifatida absurdni ko'rsatish xususidagi mushohadalarini bir joyga to'plarkan, absurd dunyoning bosh qahramoni rolga afsonaviy Sizifni tanlaydi. Sizifning ter to'kib bajarayotgan ishi bema'ni, bemaqsad, ma'budlar amri bilan u xarsangtoshni cho'qqiga ko'tarib chiqqanida tosh yana pastga qarab qulaydi va hammasini yangidan boshlashini u yaxshi biladi. Yana shuni biladiki – u cho'qqiga chiqqudek bo'lsa ma'budlardan ham yuqorilaydi, taqdir ustidan g'alaba qiladi, demak, toshni ko'tarish uning azaliy ishi va maqsadiga aylanadi. Shuni bilishning o'zi kifoya, buni anglash erkinlikni kafolatlaydi. San'at asari ham absurd dunyoga mansubdir, biroq ijod jarayoni kaos qoplagan dunyoda es-hush, eng muhimi tafakkurni saqlab qolishga, aqlni yo'qotmaslikka imkon beradi. Shu asnoda Kamyu ijodida romantic ruhdagi optimizmning yana bir manbai – san'at paydo bo'ladi. U tomonidan yuksak qadrlangan, munosib baholangan fransuz romani taqdirni yengish, taqdir zarbalariga bardosh beruvchi qudratli kuch sifatida namoyon bo'ladi. Muallif romanning badiiy makoni va zamonida taqdirni "shakl"ga soladi, uni "san'at qoida" lari asosida quradi. Bu xususiyat shak-shubhaga o'rin qoldirmaydi, shuning uchun ham u badiiy adabiyotda azaldan mavjuddir. Kamyuning o'zi ham klassik an'analarga sodiq qolish, ularga rioya qilishdek yuksak xislatlarni saqlashga harakat qilgan. Qahr-g'azabga to'lgan ma'budlar Sizifni bema'ni va maqsadsiz ishni bajarishga

mahkum etdilar. Bu bilan ularda bema'ni, foydasiz va umidsiz mehnatdan dahshatliroq, shafqatsizroq jazo yo'q, degan tushuncha paydo bo'ldi. Kamyu esa ushbu afsonaning qahramonini absurd odam deb hisoblarkan: "U o'zining olijanob va qabih his-tuyg'ularida ham, azob-uqubatida ham o'zgarmaydi, absurdligicha qoladi", deb yozadi. Sizif yerdagi hayoti, jilovlanmagan ehtirolari, xudolarga bo'ysunmagani va dunyoni chindan sevgani uchun jazoga mahkum etilgan. Qahramonning qisqa vaqt to'xtab, tin olish payti, ya'ni poyoni yo'q azob-uqubatlardan bir daqiqa bo'lsa-da, kutilgan holati qiziqarlidir. Aynan shu dam Sizif hushiga keladi, unga his-tuyg'ulari yana qaytadi. Yoki tosh qaytadan pastga yumalayotganda, mehnatdan bir zum forig' bo'lgan Sizif bema'ni mehnatidan qutilganini his etib, o'zini erkin va ozod sezadi, hatto baxtli odamdek quvonadi ham. Afsonaning fojaviyligi Sizifning ongli ravishda bema'ni ishni bajarayotganida, abadul-abad toshni ko'tarishga mahkum etilganligini anglashida asoslangan, desak to'g'riroq bo'ladi. Kamyu zamonaviy odam hayotini ushbu afsona bilan taqqoslarkan, hayot fojiali va ko'p jihatdan bema'ni deb hisoblaydi. Odamlarning xatti-harakati, yashash uchun kurash olib borishlari charxpalak aylanishiga o'xshaydi, bir zaylda kechadi va hech qanday foyda keltirmaydi. Qahramonning aqli rasoligi, es-hushi joyidaligi, ongi aniq-ravshanligi taqdir ustidan g'alaba qozonadi va azob-uqubatlarni xursandchilikka, shod-xurramlikka aylantiradi. Bu baxt Sizif chin qalbdan sevgan go'zal dunyo va shirin hayot haqidagi xotirada mujassam bo'larkan, uning yuragi "cho'qqiga chiqish uchun kurash" bilan to'lib-toshgan. Kamyu fikricha, Sizifni baxtli odamdek tasavvur qilish lozim. Shubhasiz, Kamyu qadim yunon mifologiyasidan olingan mashhur afsonaga yangi hayot bag'ishlaydi. Sizifning ishi zamonaviy insonlar mehnati bilan bir xil ekanligi xususidagi fikrni radetib bo'lmaydi. Ko'p odamlar yangilik yaratmaydilar, kashfiyot va ixtiro qilmaydilar, faqat bir zayldagi xarakatlardan iborat yumushini kundan kunga bajaraveradilar. Sizifning baxti shundaki, u bir qarashda bema'ni va befoyda bo'lib ko'ringan ishida o'zicha ma'noni ko'radi. Albert Kamyu asarlari va falsafasi xususida aniq bir tasavvur hosil qilish oson

emas, chunki uning adabiy va falsafiy asarlarida bayon etilgan qarashlarni har xil alpozda, turlicha talqin qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ayni paytda ushbu falsafaning o‘ziga xos xususiyati, yo‘nalishi va muammolar majmui tarixchi va faylasuflarga uni ekzistensializmning bir ko‘rinishi sifatida baholashga zamin yaratdi. Haqiqatdan ham, Kamyu dunyoqarashi va ijodida G‘arb falsafasi asrlar osha bosib o‘tgan yo‘lning o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ldi. Kamyu dunyo, umuman ob‘ektiv voqelikning realligidan shubhalanmagan, uning tadrijiy rivojlanishi, to‘xtovsiz harakatlanishi muhimligini anglab yetgan. Uning fikricha, dunyo aql-idrokka asoslanib qurilmagan, u xaotik. Dunyo insonga nisbatan shafqatsiz. Adovat ruhi bilan sug‘orilgan dunyo insonga doimo tahdid solib turadi. Bu adovatli, shafqatsiz, tajovuzkor dunyo ming asrlar oshib bizgacha yetib keldi. Bu dunyo haqida biz bilganimizni ishonarli deb bo‘lmaydi; to‘plagan bilimimiz yetarlicha asosga ega emas, tajribada isbotlanmagan. Dunyo har doim ko‘z o‘ngimizdan g‘oyib bo‘ladi, tutqich bermaydi, o‘zgarib turadi. Hayot, ob‘ektiv borliq xususidagi tasavvurida Kamyu “borliq o‘zini faqat shakllanishida namoyon qilishi mumkin, shakllanish esa mavjudliksiz, real tarzda borliqsiz hech narsa, yo‘q narsa”, degan aqidaga asoslanadi. Yozuvchi fikricha, borliq ongda aksetadi, lekin “inson aql-idroki, orzu-umidlar olamida harakatlanmaguncha o‘zining to‘liq ifodasini topmaydi. Agarda u uyg‘onsa, hamma narsa o‘zaro uyg‘unlashib ketib, yaxlit holga keladi, muayyan tartibga tushadi. Agarda tashqaridan biron bir tahdid kelsa, xavf-xatar tug‘ilsa, ushbudunyoparchalanib, xuddioynakabisinib, minglabbo‘laklarga bo‘linib ketishim mumkin. Undan keyin insonning dunyoni bilish qobiliyati, aqli-zakovati uchun behisob yaltirab turuvchi siniq oyna parchalari qoladi. Uni terib olish esa inson aqliga bog‘liq”. Kamyu shu tariqa dunyoni o‘zgartirishning yagona manbai deb bilishni ko‘rsatadi, ayni paytda, bilimdan o‘ylamasdan, bema‘no foydalanmaslikka undaydi. Kamyu ilm-fan dunyo va inson xususidagi bilimlarimizni chuqurlashtiradi va kengaytiradi deguvchi purma‘no fikrga qo‘shiladi, lekin bu bilimlar hali yetarlicha mukammal emasligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, ilm-fan bugungi kungacha

ham eng muhim, eng dolzarb, ya'ni hayot ma'nosi, dunyo mavjudligining maqsadi, butun borliq, ya'ni o'simlik va hayvonot, umuman tirik organizmning yashash ma'nosi haqidagi savolgajavob berolmaydi. Odamlar bu dunyoga, bu tarixga tasodifan tushib qolishgan. Ular o'limga mahkum etilgan va hayot ko'z o'ngimizda go'yo absurd dunyodagi bema'ni harakat, yashash uchun kurashdek namoyon bo'ladi. Ushbu adovatli, tajovuzkor, sovuq va issiq, zulmat va yorug', mashriq va mag'rib, shams va qamar, hayot va o'limdan iborat dunyoda Inson nima qilmog'I lozim? Kamyu bizni bu savolga kechiktirmay javob topishga chorlaydi. Avvalambor, inson "hayot nima, u yashab o'tishga arziydimi, umuman yashash, hayot kechirishda ma'no bormi, yo'qmi?", deguvchi murakkab bir savolga javob berishi lozim. Falsafaning ushbu bama'ni savoliga javob topish – o'ta murakkab falsafiy muammoni yechish demakdir. Kamyu fikricha, "qolgan barcha narsa... ikkinchi darajalidir. Yashashga intilish, to'laqonli hayot kechirish uchun tirishish, insonning dunyoga bo'lgan mehr-muhabbati bilan o'lchanadi, "ushbu muhabbatda dunyodagi jamiki azob-uqubat, jabr-ujafu, qiynoq va sitamlardan kuchliroq narsa mujassam"dir". Dunyoviy muhabbat insonga hayotni sevish va hayot o'rtasidagi tafovutni, kelishmovchilikni yengib o'tishga imkon beradi. Garchi ushbu tafovut ustunlik qilgudek bo'lsa, dunyoda absurd hukmronlik qiladi. Insonga Benazir aql-uzakovat, zehn, tafakkur, eng muhimi, ong va til berilganki, u dunyoni muayyan tartibga solishi, ezgulik va yovuzlik xususidagi tushuncha va tasavvuriga mos ravishda uni o'zgartirishi lozim. Albert Kamyu yashash bu – absurdni chuqur va keng tadqiq qilish, unga qarshi isyon ko'tarish, deb hisoblaydi. Aqlimni ishga solib, o'limga itoatkorona bo'ysunish qoidasini yashash qoidasiga aylantiraman va o'z jonimga qasd qilishni rad etaman". Yozuvchi fikricha, inson tanlash huquqiga ega: yo o'z davriga moslashib yashash yo uni o'jarona rad etgan holda qarshi kurashish, lekin davr bilan bitim tuzishi ham mumkin. Keyingisida "o'z davrida yashab abadiyatga ishonish" tamoyili ustun turadi. Qiziq holat, abadiyatga ishonish Kamyuga unchalik ham xush kelmaydi. Uning fikricha, dunyodagi absurddan, ya'ni dunyo bema'niligidan azaliy va abadiy

qadriyatlarga e'tiqod qilish, kundalik hayot illyuziyasiga sho'ng'ib ketish yoxud birorta g'oyaga ergashib yashirinish, boshqacha aytganda, absurd bosimini tafakkur yordamida pasaytirish mumkin.

Kamyu esselari va asarlarida xuddi Kafka kabi hayotning, dunyoning absurd va ma'nosiz ekanligini ta'kidlaydi, ana shu ma'nosizlik va absurdni tahlil qilishga kirishadi. Adib uchun hayotning ma'nosizligi, dunyoning absurdligi bor haqiqat. Har qanday odam bu haqiqatni tan olishi, anglashi kerak. Bu falsafaning birinchi masalasidir. Uni hal qilmay turib, deydi adib, falsafaning boshqa masalalarini hal qilib bo'lmaydi. Dunyo boshidanoq absurd bo'lgan va absurdligicha davom etayapti. Absurd sharoitida insonning mavjudligi tan olinmaydi, u mavjud deb hisoblanmaydi. Qismatning eng katta adolatsizligi ham ana shunda. Hayot azaldan shunday qurilgan va bundan keyin ham shunday davom etadi. Sizif tepalikka toshni dumalatib chiqishga mahkum etilgan. Bu yerda u mavjud emas, aksincha uning peshonasiga bitilgan taqdir bitigi mavjud, xolos. Tosh yana pastga dumalab tushaveradi. Sizif yana toshni tepaga dumalatib chiqaveradi. Uning toshni dumalatib chiqishida hech qanday ma'no yo'q. Ma'budlar uning qismatiga ana shu azaliy taqdirni abadiyat qadar bitib qo'yishgan. Bu dumalatishdan ma'no izlashning o'zi ma'nosizlikdir.

Ammo Kamyuning fikricha, absurdni ana shu xulosa bilan to'xtatib qo'yilsa, bu absurd falsafasining, dunyoni anglashning notugalligini, absurdga va taqdirga qul bo'lganlikni bildiradi. Absurdga bo'ysunish, unga bosh egish – insonning eng katta fojiasidir. Absurdni yengish uchun unga isyon qilish, ya'ni uning mohiyatini anglash, inson o'zining kimligini anglashi kerak bo'ladi. Kamyu Sizif tepalikka tosh dumalatib chiqishi taqdiri ekanini bilgach va uni anglagach, absurdning eng muhim bosqichi boshlanadi, Sizifning tepalikka tosh dumalatib chiqishga mahkumligini anglashi esa uning absurddagi birinchi isyonidir, bu holat o'zining mavjud ekanini isbotlashga hozirlanishdir deydi. Bu isyon odamning olam va hayotda tutgan o'z o'rnini anglashidir. Ana shu anglashdan so'nggina endi toshni dumalatib chiqishdan zavq olish, uni ijodiy shavqqa va hayotiy quvvatga to'ldirish, ya'ni qismat ma'nosizligini ma'noga,

mavjudsizlikni mavjudlikka aylantirish davri boshlanadi. Sizif o'zining mahkumligini o'zgartirmaydi, uning uchun boshqa yo'l yo'q, ammo unda taqdirining peshonasiga bitilganiga qasdma-qasd o'z hayol va tasavvurlari, orzu-umidlari, zavq-shavqlari, mavjudligini bildirishga urinishlari bilan to'ldirish imkoniyati bor. Sizif toshni tepaga dumalatib chiqar ekan, endi unda shu dumalatishdan o'zini, menini anglash va bu dumalatishni o'zining foydasiga hal qilish, Kamyu tili bilan aytganda, mahkumlikni ijodga aylantirish, ya'ni toshni tepalikka o'zi xohlaganday, o'zining mavjudligini bildirib, o'zi tanlagan usul va uslubda dumalatib chiqish imkoni bor.

Yashash uchun kurash – bu o'zi uchun yaratilgan hayotni va dunyoni aqli, tafakkuri bilan tartibga solish, o'zining mavjudligini isbotlash degani, mavjudligini isbotlash esa azaliy hayot tartiblariga isyonni anglatadi. «Men mavjudligimni isbotlash uchun isyon qilaman!» – deydi Kamyu. Chunki bu harakat bilan inson qarshisidagi abadiy ma'nisizlikni o'ziga bo'ysundirishga kirishadi, boshqacha aytganda, unga ma'no va mavjudlik bag'ishlashga o'tadi. Absurdni anglab, uni o'zgartirish, unga o'zgacha tartiblar berish uchun qilingan har bir harakat isyondir, isyon esa ijoddir deydi adib. Bu erda adib isyon ma'nosini keskin ajratib tahlil qilishga kirishadi. Adib nazarida shu paytgacha odam odamga, eziluvchi ezuvchiga qarshi qilgan isyoni, bu haqiqiy isyon emas, absurd isyon odamga qarshi qaratilmaydi, bu isyonda odam o'ldirishga dav'at qilinmaydi. Shu sababli insoniyat boshidan kechirgan isyonlar, bugun inqilob deb atalayotgan harakatlarning absurd isyoniga aloqasi yo'q, bular shunchaki qo'zg'olon yoki to'ntarishlardir. Haqiqiy isyon insonning o'z mohiyatini o'zgartirish sari, o'zgartirish yo'lida qilgan botiniy isyonidir. Shu isyon haqiqiy inqilobdir. Isyon deb atashayotganlarining qolgan jami xunrezlikdan boshqa narsa emas. Inson o'z mohiyatini o'zgartirishga, o'z «meni»ni izlab topishga, «men»ini isbotlashga, uni kamol toptirishga kirishar ekan, o'z hayotiga va taqdiriga ma'no kirita boshlagan bo'ladi, bu esa mavjudligini isbotlashga urinish hamda absurd mohiyatiga isyondir.

Kamyu esselarida yashash bu absurdni tadqiq va tahlil qilish, unga qarshi kurashish deganidir deya adabiy va falsafiy kredosini qat'iylashtiradi. «Men absurdni uchta holatga – erkimga, isyonimga va zavqinga aylantiraman», – deydi Kamyu. Absurdning bosimini odam o'z tafakkuri, harakati va ishonchi bilan yengishi mumkin. O'zining absurd hayotidan ustun kelib, absurdni yengganlarni adib «g'oliblar» (muzaffarlar) deb ataydi. O'z absurdidan ustun kelganlar va uni yengganlar – g'oliblar Kamyu uchun inson degan nomga har tomonlama munosibdir. «G'oliblar» shunisi bilan tahsinga sazovorki, ular hayotlarining ma'nosizlikka mahkum ekanini bilishadi va buni yashirib o'tirishmaydi, ammo shu ma'nosizlikni erkinlik va ijodiy shavq manbaiga aylantira oladi. Bunday odamlar absurd hayotdan baland ko'tarilolgan alohida shaxslardir. «O'zining isyonga bo'lgan botiniy ehtiyojini qondirish uchun u talab qilayotgan birdan-bir narsa – barcha zaruriy narsalar bilan birga pirovardida go'zallikka va tenglikka olib boradigan turmush asoslarini bunyod qilishdir. Har qanday tarixni inkor qilish mumkin, biroq, baribir, o'sha inkor qilingan joyda o'zimiz yashashimizga to'g'ri keladi», – deydi Kamyu. Adib bu xil qarashlari bilan Sharq tasavvuf falsafasiga juda yaqin keladi va xulosalaridan talay umumiyliklar kelib chiqadi. Kamyuning o'z taqdiri va qismatidan g'olib kelgan odam tushunchasi tasavvufdagi komil inson tushunchasiga ancha yaqin. To'g'ri, tasavvufdagi komillik ilohiy e'tiqod bilan bog'liq. Kamyu esa absurdni insonning mohiyati bilan bog'laydi, ammo xulosada bu ikki qarash bir-biriga uyg'un keladi.

Kamyuning nazarida absurdni yengishning, inson mavjudligini isbotlashning eng maqbul yo'li ijoddir. Faqat ijodgina absurdning – ma'nosizlikning qiyofasini va mohiyatini o'zgartiradi, unga ma'no bag'ishlay oladi. Ijodda odam mavjud absurd dunyoga qasdma-qasd tarzda o'zining dunyosini yaratadi, unga o'zi istaganday qonunlar kiritadi, bu dunyodagi tartiblarni o'zi bitadi, tanlash imkoniga ega bo'ladi, hayotiga go'zallik va nafosat bag'ishlay oladi. Shu sababli ham absurd ijod isyonlar ichidagi eng katta va mukammal isyondir. Ijod qilish bu dunyoni o'zi istaganday ko'rish va uni o'zi

istaganday bekami-ko‘st yaratishga, o‘zining mavjudligini isbotlashga urinishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Албер Камю. “Миф о Сизифе”. 1942 г.
2. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 -yil, 1-son.
3. Nazar Eshonqul. “Mendan “Men” gacha”. Akademnashr, 2014-yil.
4. U. Jo‘raqulov. “Mif va ijodiy jarayon” maqola. Hududsiz jilva. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2006.
5. “Sharq yulduzi” jurnali, 2016-yil, 1-son.

ID-020-30-A028

Parizoda Ro'ziboyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

ISAJON SULTON HIKOYALARI BADIYATI

Annotatsiya. Bugun o'zbek adabiyotida hikoyachilik ancha yuksak darajada taraqqiy etmoqda. O'zbek yozuvchularining hikoyalari, romanlari chet el ommaviy axborot vositalarida ham chop etilyapti, ularning ijod namunalari xalqaro mukofotlarga loyiq topilmoqda. Bu esa, o'zbek nasrining yanada ravnaq topayotganidan darak beradi. Bugun o'zining hikoyalari, romasnlari, o'z qarashlari va o'zining takrorlanmas uslubiga ega bo'lgan ijodkor Isajon Sulton ham ana shunday e'tirof etib kelinayotgan yozuvchilardan hisoblanadi. Biz Isajon Sulton hikoyalari mutoala qilar ekanmiz ijodroning falsafiy yondashuviga, voqealarning izchilligiga, kutilmagan kulliminatsiyaga, o'ziga xos samimiyatga va hikoyalarning ixcham, xalqona tilda bayon etilganiga guvoh bo'lamiz.

Kalit so'zlar: *falsafaviylik, izchillik, kutilmagan kulliminatsiya, ixchamlilik, harakterli yondashuv, samimiylik, an'anaviylik.*

Annotation. Today, storytelling in uzbek literature is developing at a very high level. Stories and novels of Uzbek writers are also published in foreign media and their works are considered worthy of international awards. This indicates the further development of Uzbek prose.

Today, Isajon Sultan is one of the most recognized writers, who has his own stories, novels, his own views and his own unique style. As we read Isajon Sultan's stories, we see the philosophical approach, of the creator, we witness a sequence of events, an unexpected culmination, a peculiar sincerity and a concise, vernacular narrative of the stories.

Keywords: *philosophical, consistency, unexpected culmination, brevity, characteristic approach, sincerity, tradition.*

Ijodkor ko'ngil kishisi. U og'irdan-da og'ir kiprigini ko'ngil siyohiga botirib asarlar yozadi. Ijodkor cho'g' bilan, olov bilan yozadi. Qog'oz yonmasa, unga qo'shilib qalb yonmasa, vujud yonmasa u yozganlarini g'ijimlaydi-da bir chetga uloqtiradi. Aslida har bir uloqtirilgan sahifalarda yangi bir qalb nolasi, yonish uchun asos bo'ladi. Inson zoti borki, so'z shaydosi, adabiyotga tashna. Shunday tashnalik kezlarida yaxshi she'rmi, hikoyami, biror badiiy asarnimi o'qishga o'zimizda ehtiyoj sezamiz. O'ylanamiz kimga, qaysi ijodkorga murojat qilsam ekan deb. Avvallari Isajon Sulton desa bir nima deyishga o'ylanardim. Qarashlarim boshqacha edi. Balki asarlari, hikoyalari bilan to'liq tanishib chiqmaganim boisdir. Bugun men mana shu adabiyotga tashnalik kunlarimda taniqli va iste'doli, qalami o'tkir ijodkor Isajon Sultonning hikoyalari murojat qildim. Quyida bu ijodkorning hikoyalari haqida anglaganlarimni siz bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Men anglagan ijodkor nafaqat yaxshi yozuvchi, balki mohir tarjimon ham ekan!

Bugun Isajon Sultonning "Qismat", "Ayriliq", "Bog'i Eram", "Farishta", "Qo'riqchi", "Oydinbuloq", "Ozor", "Qo'riqchi", "Shamolli kecha" va bir qancha hikoyalari o'z o'quvchilarini topib ulgurgan, hatto xalqaro mukofotlarga ham sazovor bo'lgan. 2011-yil adibning "Qismat" hikoyasi AQSHning Chikago shahrida o'tkazilgan xalqaro adabiy konkursda g'olib deb topilishi bu nafaqat adibning, balki o'zbek adabiyotining yana bir yutug'i desak yanglishmagan bo'lamiz. Dastlab adibning aynan shu "Qismat" hikoyasi haqida fikrlarimni bayon etsam.

Xalqimizda "Otang o'tirgan uyning tomiga chiqma", "Ona qarg'ishi do'q, ota qarg'ishi o'q", - degan bir qancha maqollar bor. S hu o'rinda:

"Ota qarg'ishidir olmos,
Gar tegsa yiqitmay qolmas,
Olloh ham panohga olmas,

Otasini yig'latganni", - degan qo'shiq yodimga tushdi. Nega bu misollarni keltiryapti, dersiz. Sababi shuki, bu hikoya qahramonlarini bir shaxs-ota

birlashtirib turadi. Voqealar rivoji ham aynan otaga borib taqaladi. Ota hamisha aziz, soʻzi-soʻz, gapi gap. U oila boshligʻi. Asarda otaning bosh qahramonligi balki shuning uchundir. Ammo bu hikoyada otaning feʼl-atvoridagi qusurlar, otaning ayoliga, farzandlarini nisbatan qilgan adolatsizligi, mehrsizligi, zugʻumi haqida soʻz yuritiladi. Hikoyada tabiat tasviri, oʻxshatishlar oʻz oʻrnida qoʻllangan. Asosiysi tasvirda yolgʻon yoʻq. Oddiy bir qishloqdagi oʻzbekning hovlisi. Bunda oʻzbek характери ham ochib berilgan. Nonning muqadasligi, uning ushogʻi, ham nonligi, onalarimiz uni erkalab ogʻzimizga solishlari roʻyi-rost.

Ijodkorning oʻziga xos uslubi bor. Hikoyalarida diologlar kamdan kam holatda uchraydi. Adib har bir qahramonini, har bir detalni gapirtirishga urinadi. Har biri oʻz tilidan gapiradi. Yana hammani birlashtirib turadigan narsa bu –baliq. Kichik oʻgʻil ham, katta oʻgʻil ham, oʻrtancha oʻgʻil ham baliqni oʻzlarining siri deb biladi. Oʻzlaricha u bilan suhbatlashadi. Onaning koʻziga oʻsha baliq davoligi ayon boʻladi. Ota –baliq boʻlib tirilgani haqida bilishadi. Uni onaga qovurib berishadi. Ayanchlisi katta oʻgʻil otasini kuyishidan rohatlanadi. Bor dardini toʻkib soladi. Onasiga bergan azoblari, kaltaklaganlari, Ogʻliga ketmon otganda yelkasining oʻpirilganligi, bola boʻlib erkalanolmaganligi, otam bor deb kerilolmaganligi bir umr qoʻrqib yashaganligi, bir gal ukasini tomga otib yuborgani, olib kelganini “Ma, pishirib ye, zaharingga ” deb otganlari hamma –hammasini eslaydi. Otasining jizzillab yonayotganidan , azoblar, qiynoqlar tugaganidan quvonadi. Otaning характери bir qarashda Said Ahmadning “Ufq boʻsagʻasida” nomli asari qahramoni Inoyat oqsaqolni eslatadi. Uning farzanga nisbatan mehrsizligi, qahr-gʻazabi,ziqnaligi,oʻzini deb yashashi har ikki qahramonning oʻxshashliklaridir ehtimol. Isajon Sulon hikoyalarida animizm yaqqol sezilib turadi. Bunday holatlar deyarli Har bir hikoyadi uchraydi. Masalan:

“Farishta” hikoyasida –Farishta, “Oydinbuloq”da-Parizod, “Ozor”da –it egasi, “ Shamolli kecha” da-jin, jodugar... “Qismat” hikoyasida kichik oʻgʻil baliqni pishirganida achinadi, yigʻlaydi. Sababi, u baliqning katta boʻlishi,

haqiqiy tilla baliqqa aylanishini kutib, unga tilaklarini aytmoqchi edi. Shu o'ringda o'ylayman: Bola tilla baliqdan nimani so'raga bo'lardi? Menimcha har bir bola pok qalbi, beg'ubor ko'ngli bilan otasini qaytishini, qaytganda ham mehribon, uni, onasini, akalarini urmaydigan, erkalatadigan otasini qaytib kelishi, onasini ko'zlari tuzalishi va baxtli hayot kechirishini so'ragan bo'lardi. Ammo ota jazosini oldi. Chunki otasi ichib kelganda do'pposlagan, otasi esa yiqilgan, yiqilganda bo'yraning cho'pi kirib ketgan, otasi uni "qamishday qurigin, iloyo" deb qarg'agandi. Oxir shunday ham bo'ldi. Ota iymoni uchun kurashdi, og'il esa halovati uchun. "Otangga ne qilsang bolangdan tortasan" deb bejiz aytishmagan. Xulosa qilib aytganda ota hamisha quyosh, hamisha nur taratishi, mehr ulashishi kerak. U o'zida ulug'vorlikni, oqko'ngillikni nomoyon eta olishi, ayoli, farzandlari suyana oladigan bo'lishi kerak!

Yana shunisi ahamiyatliki, Isajon Sulton hikoyalari xalqchilligi bilan, xalqona ohanglar uyg'unligibilan, hikoyalari orqali millatning, xalqning turmushi, o'ru-o'ylarini, ko'ngil kechinmalarini ishonarli ifodalashi bilan boshqalardan farq qiladi.

"Ayriliq" hikoyasida ham e'tiborimni tortgan jihatlar ko'p bo'ldi.

"- Ochig'i, chor tarixini yaxshi bilmayman-deb tan oladi Osobist-o'zim bir kambag'al oila farzandiman.

- Bilish kerak, - deydi Katta- bilib ol, Osobist" mana shu birgina "bilish kerak" degani tarixsiz kelajak yo'q ekanligini anglatish, har bir millat vakili boy bo'ladimi, kambag'al bo'ladimi tarixni bilish uning yelkasidagi mas'uliyatni anglatmayaptimi?!

Yana shunisi ham ahamiyatliki chegara ham, ayriliq ham, cheklovlar ham, zug'um ham xalqqa xos urf-odat, an'ana, mehr-muhabbat, oqibat, ona yer, ona tuproq tushunchasini yo'q qila olmasligi, iymoniga, vijdoniga sodiq, xudosiga ishongan har qanday millat har qachon, har qanday kurashda o'zib chiqishini ko'rishimiz mumkin.

"Ayriliq, ayriliq, omon ayriliq

Har bir darddan o'lar yomon ayriliq".

Baxshining bu qo'shig'i odatda to'ylarda aytilardi. Ammo u buni azada, oqsoqolning azasida kuyladi. Sabab nima? Nima uchun shunday?

O'ylaymanki, baxshi bu qo'shig'i bilan xalqni uyg'otishga urinyapti. Agar o'zlikdan, millatdan, milliy g'ururdan ayrilsak, bu o'limdan og'ir, ey turk eli, uyg'oning, o'zlikni, erkni yovga bermang deyotgandek nazarimda. Ijodkor baxshining bu qo'shig'i keyinchalik butun turkiy xalqlar qo'shig'iga aylanib ketdi, deydi. Sababi har birining dardi bir edi, ularning jon tomiri, ildizi, suv ichgan irmoqlari bir edi. Bu xalqlar bir biridan suv ichar edi.

Adib har bir predmetni jonlantirishga, huddi odamlardek so'zlatishga qodir. Odatda kuchuk vovullaydi. Ammo bu "Ozor" hikoyasida kuchuk odamlardek so'zlaydi. To'g'ri ining so'zlarini, gaplarini o'sha voqeada ishtirok etayotgan kishilar tushunmas, ammo o'quvchilar anglab yetadi. Kuchuk-sadoqat timsoli. Bu keng yoritilgan mavzu. Bir qarashda u Erkin Vohidovning "Vafo" she'rini yodga soladi:

*"Otasidan ayrilsa agar,
Buncha kuymas odam bolasi.
Yolg'on edi kechagi yig'ilar,
Rost edi shu itning nolasi"*

Ammo bu hikoya voqea qamrovining kengligi, qahramonlar harakteri bilan ajralib turadi. Bu hikoyada peyzaj ham jonli tasvirlangan. Hikoyada kuchukni quturgan deb gumon qilishadi. Balki kuchuk egasiga nisbatan odamlarning mehrsizligi, sadoqatsizligi, saxtaligidan quturgandir.

"Otang seni o'n yeti yil boqqan edi. Lekin otangdan yuz chandonini qilib qo'ygan xo'jangga qaramading", - bu kuchuk tilidan uy bekasiga aytilgan gaplar edi. Ota bilan erning boqishini tenglab bo'larmikan? Xalqimizda: "ota uyidagi qattiq non podsho dasturxonidagi obi nondan afzal", - degan gap bor. Balki ijodkor bu fikri bilan ayolning qay darajada e'tiborsizligi, mehrsizligi, vafosizligini anglatmoqchi bo'lgandir. Shuning uchun qo'llagandir bu jumlan.

Sadoqat shunday narsaki u murdani tiriltirishga qodir, - deyish mumkin. Yor-birodarlar kuchukni otishmoqchi bo'lganda, egasi kuchuk ko'ziga

ko'rinadi va uni o'z yoniga chorlaydi. Isajon Sulton hikoyalarida shaxsiy an'anaviylik bor. Bunda ham har bir qahramon o'z nomidan so'zlaydi. Bu hikoyalarining br-biriga o'xshash va boshqa ijodkorlardan farqli jihatidir. Bu hikoyada yana inson harakteridagi qusurlar, o'lgandan keyin e'zozlash, yasamalik, soxtalik ham alohida takidlangan.

Sadoqatni his etish uchun sadoqatli bo'lish kerak emasmi? Insonning sadoqatli bo'lmagani bu kuchukning aybi emas. Ular kuchukni o'tib o'ldirish barobarida sadoqatni otdi, mayidning dunyosi bilan tiriklik bog'lanib turgan ipni uzdi. Ular sadoqatni o'ldirdi. Qabrga qalblaridek tosh o'rnatdi...

Adibning har bior asari xalqchil, dardchil. Ularning tag zamirida chuqur falsafa bor . Uni anglab yetish uchun yaxshi ustoz yoki kuchli bilim kerak bo'ladi. Asosiysi adibning takrorlanmas o'z uslubi, o'z "men"i bor.

"Shamolli kecha" hikoyasiga to'xtaladigan bo'lsak, u qishloq hayotini, bolalikni, bolaning ko'ngil kechinmalari, bola psixologiyasini yaqqol nomoyon etgan hikoya, deyish mumkin. "*Sandallar ustida qurutlar, turshaklar, vassalarga behi, olma, anor, uzum boshlari osilgan...*".

"*Ota dalada. Bola mol-holga qarab, o'tinlarni maydaladi. Qizaloq katta qozonga suv isitib tandirdagi kuldan qo'shibkir yuvdi.*" Bunday tasvir faqatgina qishloqda bo'ladi. Shuningdek, bolalikdagi o'yinlar, bala harakteridagi dev, pari, jinlarga, afsonalarga ishonuvchanlik, maqtanchoqlik, bolalarcha g'urur ham e'tibordan chetta qolmaydi.

Qo'rqinch tasviri...Bu beixtiyor Abdulla Qahhorning "Daxshat" hikoyasini eslatadi. Insonda sevinch, shodlik har-xil bo'lishi mumkin, ammo qo'rquv bir xil bo'ladi. Qo'rquvdagi dil kechinmalari o'xshash bo'ladi. Asardagi bu holat o'quvchiga ham ko'chadi. Bir lahxa bo'lsada voqea ichiga kiradi. Aka - singil bilan shalolli ko'chada yuguradi. Aka singlisining chaqiriqlariga e'tabor bermaganda o'quvchi ham akani birgalikda chaqiradi. Buvilar, onalar nutqida o'xshashlik uchraydi. Balki bu onaning, ayol zotining qalb kechinmalari o'xshashligidan dalolar, desak yanglishmaymiz menimcha. Hikoya "Moboda topgan taqdirda ham ... qay ahvolda toparkin. .

Topa olarmikin?”, - deya yakunlanadi. Hikoyaning so‘roq bilan tugashi – bu har bir o‘quvchini mustaqil fikr yuritishga, xayol dunyosiga chalg‘ishga majbur etadi. Ijodkor asari davomida o‘quvchini ham baxsga chorlaydi. O‘zi ham tinchimaydi, o‘quvchini ham tinchitmaydi. Mana asl ijodkor qanday bo‘lishi kerak?!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Isajon Sulton. "Romanlar, hikoyalar". – Toshkent, G'afur G'ulom nashriyoti, 2017.
2. Isajon Sulton. Qismat. Hikoya | Xurshid Davron kutubxonasi - <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/isajon-sulton-qismat-hikoya.html>
3. Ziyozistagan qalblar uchun - Isajon Sulton. Farishta (hikoya) - http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=6638

ID-020-30-A029

Hulkar Murtozayeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

“PARANJI SIRLARIDAN BIR LAVHA YOKI YALLACHILAR ISHI” ASARIDA OILA TUSHUNCHASINING TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yjrik namoyondasi Hamza Hakimzoda Noyoziyning "Paranji sirlaridan bir lavha yohud yallachilar ishi" dramasi oila mavzusining ochib berilishi, oila a'zolariga xos bo'lgan xarakter xususiyatlari haqida gap boradi. Shuningdek, adibning boshqa asarlaridagi oilaga oid ayrim jihatlar ham izohlanadi.

Kalit so'z: *oila, ota, ona, bobo, buvi, o'gil, qiz, qo'shnilar, qarindoshlik, urf-odat.*

Annotation. This article famous writer and poet of Uzbek literature in the twentieth century, Hamza Hakimzada Niyaziy's drome of "Paranji sirlaridan bir lavha yohud yallachilar ishi" be revealed in the theme of family, and family members will talk about the features of the specific character. Also, some aspects related to other works of the writer in the family are also explained.

Keyword: *family, father, mother, grandfather, grandmother, son, daughter, neighbors, kinship, tradition.*

Sharq xalqi azal-azaldan oila tushunchasiga o'zgacha mas'uliyat bilan qaragan. Xususan, o'zbeklar ham. Chunki oila jamiyatning kichik bo'g'ini va asosiy negizi hamdir. Oila tushunchasining badiiy asarlardagi talqini turlichadir. Qaysidir asarda o'ziga to'q oilaning yashash tarzi tasvirlansa, yana qaysidir asar kambag'al oila ahvoli hikoya qilinadi. Oiladagi obrazlar harakteri bir-biridan tubdan farq qilishi mumkin, ammo, mohiyatan barchasi birgina tushuncha uchun xizmat qiladi. Bu ham bo'lsa "oila sha'ni" oilaning har bir bo'lagi u xoh boy bo'lsin, xoh kambag'al mana shu sha'n uchun javobgar ekanligi badiiy asarlarning o'ta chuqur burchagiga yashirilgan kichik o'lchamli,

katta ahamiyatli ma'nodir. Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga mansub "Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi" asarida ham bunday ma'no yaxshigina yashirilgan. Yozuvchi uni topishni bevosita o'quvchiga qoldiradi. Quyidagi maqolamiz orqali oila tushunchasining asardagi talqinini tahlil qilishga harakat qilamiz. Buning uchun esa oilaning har bir bo'lagiga, ota, ona, farzand va boshqa qarindoshlarga alohida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

"Ona" obrazi badiiy asarlardagi asosiy obrazlardan biri bo'lib, odatda farzandi uchun jonini berishga-da tayyor bo'lgan, uning uchun kuyinuvchi mehribon qiyofada gavdalanadi. Niyoziy ham "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi" asarida ona obrazi ustida alohida ishlaydi. To'laxonning onasi Hojar qirq bir yoshli (*shu o'rinda To'laxonning otasining Yoshi ellik beshda ekanligi, er-xotin o'rtasidagi yosh farqi naq o'n to'rt yosh ekanligini hisobga olgan holda o'sha paytlari qizlarni turmushga berishda bunday farqlanish ahamiyatga ega bo'lmaganini sezish mumkin, o'rta bo'y, oq po'st, qora ko'z, sodda tabiat bir xotin. Hojar To'laxonni "kenja qizim, falon qizim, o'ksimasin" deb katta qiladi-yu turmushga berish pallasi yaqinlashganida qizing sevgan yori kambag'algina yigit ekanligini bilib bunga qarshi chiqadi. Ayollarning mol-davlatga uchishi ko'p uchraydigan holat. Shuning uchun ona xon qizidek to'kin hayotda o'sgan qizini "suprasi chaksa un, tandiri bir bog' o'tin ko'rmagan gadoyvachcha"ga tegishiga qarshilik qiladi. Qizining o'jarligi esa shu masalaga kelganda butun oilaga yoqmay qoladi. shuning uchun "qizni bersang yosh bergin, o'zboshimcha qilmasdan" deya qizi kichikligidanoq erga berib yubormaganiga o'zini koyiy boshlaydi. Ba'zan ayollar oilada erkaklarga qaraganda kalta fikrlab ko'p tashvishlarning sababchisiga aylanib qoladi. masalan, To'laxonning ota Umurzoq qizining bir kuni qochib ketishi mumkin ekanligi haqida aytganida Hojar o'zicha "nima? Og'zingizni yoping! Molxonaga sim bilan tortib qo'yaman, ostonadan o'ligi chiqadi. Javobini berib yuboravering" deydi. Natijada Umurzoqning ko'ngliga kelgan gumoni baribir amalga oshadi. Hojar bu qarorga kaltafahmlik emas, balki o'z tajribasidan o'tkazgani uchun kelgandir. Chunki asarda aytilishicha u ham yoshligida*

“o’ldim-kuydim” degan, “besh-o’n yil yig’lab oxiri ko’rmagandek” bo’lib ketgan. Bu ham bir kunini ko’rar. Ishqilib qora boshi omon bo’lsin” . Mana shu joyda haqiqiy onalik hissi tasodifan bo’y ko’rsatib qoladi. ya’ni haligina “o’ldiraman” dan boshqasiga o’tmayotgan ona suhbat so’ngida qiziga achinayotganini, ishqilib uzoq yashashini xohlashini bildirib qo’yadi.

Xalqimiz qadimdan o’z or-nomusini har narsadan ustun deb bilgan. Asarda aytilgan “Murodiga yetmagan erning qaro yerga kirgani ma’qul”, “or-u nomus o’limdan qattiq” naqlari “Maysaraning ishi” da “Er kishining bosh ekkani-o’lganidir”, “sher yigitni odam o’ldirmas-nomus o’ldirar”, “sharmandalik ming o’limdan ham yomon” kabi shakllarda uchraydi. E’tibor berilsa barcha maqolni birgina tushuncha bog’lab turibdi nomus va o’lim! Ya’ni xalqimiz , ayniqsa erkaklar uchun nomus o’lim bilan barobar tushuncha emas, balki, undan-da dahshatlidir. Oilada erkaklarning nomusini ayollar, tog’rirog’i qiz farzand o’z yelkalarida ko’tarib yurishi ham o’zbek xalqining qon-qoniga singgan tushuncha. Shu boisdan ham oilada qizning taqdiri erkaklar, oila boshi sanalmish ota va aka yoki ukalar tomonidan hal etiladi. To’laxon va xolasi Hayidjonning suhbatida Hayidjon qizga yoki o’zingning biron muddaong bormi, men senga begona emasman, xolang bo’lgandan keyin buving o’rnidaman, menga aytmasang kimga aytasan, jon qizimdeganidan keyin To’laxon hasrat bilan mening aytganim bo’larmidi, deyishida ham jon bor. Xola o’zi buviga qiyoslash orqali buvining oilada qizlar uchun asosiy yupanch bo’lishi, ularni qo’llab-quvvatlovchi ekanligiga ishora qilingan. Chunki buvi bu oila boshi otaning onasi. Shuning uchun o’g’il sifatida onasining aytganini qiladi. Buvilar esa “danagidan mag’zi shirin” deb nabiralarini avaylaydi, ularning xohishini amalga oshirishga urinadilar. Lekin ming afsuski To’laxonning buvisi yo’q. unaga “buving o’rnidaman” deya da’vo qilayotgan xola ham uning xohshiga quloq tutish niyatida emas. Ularning suhbatidan ;

To’laxon: O’tga, suvga solasizmi, ixtiyor sizlarda. Nima bo’lsam, Xudodan ko’rdim. (yig’lab)

Hayidjon: Xudodan umiding bormi, axir?

To'laxon: Umidsiz kim?

Hayidjon: Xudoning buyrug'iga bo'yin egasanmi?

To'laxon: Bo'lmasam-chi!

Hayidjon: Bo'pti-da, Xudoyimning roziligi ota, onangning roziligi-da!

[7].

Asarning boshqa bir joyida xuddi shu maqol "Er rozi-Xudo rozi" shaklida uchraydi. Qizlarni turmushga berish borasida bunday aqidaning o'rni katta. "Paranji sirlari" da To'laxonni sevgan yoridan ayirib, boshqa kishiga turmushga berish ota-ona, qarindosh urug'ning muammosiga aylanadi. Agar bordi-yu qiz o'z xohishiga ko'ra ish qilib, ota-onasining izmidan chiqsa, oila uchun, ayniqsa, ota uchun nomus-o'lganidir. "ota-onasining yurt-el ichida boshini egib jinnimi bu" deya aytgan To'laxonning xolasi Hayidjon ham aynan shuni nazarda tutgan. Quyidagi asar parchasi ham fikrimizni tasdiqlaydi:

"qaysi bir to'y, majlisga borsa, o'ynashga tekkan, deb yuziga shaqillatib ta'na qilishadi. Otasi bechora, qancha vaqt el-xalqdan nomus qilganidan allaqanday shaharlarga badarg'a bo'lib, yaqinda keldi."

Yoki Hamzaning "Zaharli hsyot yohud ish qurbonlari" asarida kelgan quyidagi parchada ham qizning otasi oldidagi hayosi ko'rsatilgan:

"Sora: (yig'lab kosani yerga qo'yib)' Maryamxon, endi xolang Mahmudxonni aytib kelsinmi?"

Maryamxon: (yolvorib) Jon, koshki, rahm qilsangiz...

Sora: (Zaynabga qarab) Bo'lmasa tezroq aytib keling, otasi kelib qolmasin" [7].

Qizi o'lim yoqasida turibdi. Shunday bo'lsada to o'limiga qadar otadan qo'rqadi. Bu ona tomonidan yoritib berilgan.

Darhaqiqat, sharq mamlakatlari, shuningdek o'zbek xalqi uchun ham g'arb mamlakatlaridan farqli o'laroq boshqalarning gapi har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xalqimiz "odamlar nima deydi?" deb ko'plab nojo'ya harakatlardan o'zlarini tiyishadi yoki boshqalar ko'zi uchun o'z xohishlariga tamomila teskari harakatlarni qilishi mumkin. "Paranji sirlari yohud yallachilar

ishi”da tasvirlangan xotinbozlik va faxsh ishlar qanchalik chuqur ildiz otgan bo’lmasin, odamlar nigohidan yashiriladi. Boshqalarning bu ishlardan xabar topishi esa yuqorida aytilgani kabi- o’limdir! Ota qizining bunday yo’lga kirishidan ko’ra o’lishini ming marta ma’qul deb biladi:

“Mana bu xatni olishganda keyin noiloj, nomus kuch, fohisha bo’lganligigizni bildirishdan o’limni ortiqroq ko’rib, sekin kechasi otangiz bilan akangiz Rustambeknikiga kelishib, oyog’iga yiqilib, zor, tavbalar qilishganki, bu gapni shuhrat toptirmaylik. Har ne bo’ldi- Xudoning irodasi. O’ldiga yoki yo’q bo’ldiga chiqarib qo’ya qolaylik, deyishgan”

Shu o’rinda asarda “aka” obraziga e’tibor qarating. To’laxonning akasi uzun bo’ylik, hipcha tan, qora mo’yiq, cho’qqi soqol tajang bir yigit Yusufjon ham davrining ko’plab zodagon yigitlari qatori faxsh ishlar bilan shug’illanadi, bir nechta oilalarning qizlarini yo’ldan urib qon yig’latadi. Lekin singlisining “nomussizlik”ini ko’tara olmaydi.

“Hay, To’la, hushyor bo’l! Men, bilasan-ku, yigit-yalangning ichida gapimni bermay yurgan mushkulman. Agar sendan bir narsa bo’lar ekan, shubhasiz, bilginki, xotin taloqdan qasam ichganman. Nimta-nimta qilaman, nimta, ha!... ”

Hamza Hakimzoda Niyoziy asarida akaning bunday gaplarini badiiylashtirmagan, o’zidan qo’shmagan. Hayotda qanday bo’lsa shundayligicha asariga olib kirgan. Akalarning bu tahlitdagi gaplari hayotda ham ko’p bora aytilganki, singillar uchun asosiy qo’rquv manbai aka bo’lib kelgan. Chunki ota ham ona ham farzandini erkalaydi, suyadi. Lekin odatda bunday erkalashlarni akalar qilishmaydi. Ular singillarini begonalardan himoya qilishi, ularni nazorat qilib turishi mumkin. Hojarning qiziga qarata “akangga aytib ikki dunyongni bir qilib qo’yaman” deyishi, Xolisxon nomi bilan begona yurtlarga jon saqlab yurgan To’laxonning uni yo’qlab kelgan Tojiboyga “Rustambek omonmi, akam unga kulfat yetkazmadimi” deya havotirlanishi esa akaning nomus ustida har narsa qila olishini ifodalaydi. Asarvoqealari davomida To’laxonning yolg’on xatini o’qigan akaning Rustambekni o’ldirish

uchun borishga, singlisini olib qochmaganiga undan ishonchli sabab eshitganidan keyin esa bosh egib chiqib ketishga, keyinchalik xalqqa ovoza bo'lib ketmasligi uchun Rustambekning oyog'iga bosh urishga ham, xalq ko'zi uchun "bir-ikki marta biro y, yarim oy yo'q bo'lib, mazmunan axtarib kelishiga, daryo-paryoga tashlagandir deyishiga ham nomus undagan.

Asarda shuningdek, "opa" oprazi ham ko'rinish berib qoladi. To'laxon Umurzoq va Hojarlarning kenja qizi, uning to'rt opasi bor. Lekin ha deganda ular ko'rinish beravermaydi. Chunki ular uyli-joyli bo'lib ketishgan, shuning uchun "chiqqan qiz chig'iriqdan tashqari" deganlaridek endi bu oilaning ishlariga hadeb aralashavermaydi. Asarning bir joyida To'laxonning bir opasi Qumri ota uyiga mehmon bo'lib kelganligi qistirilib o'tiladi. Lekin vaqt o'tishi bilan opalar ham singillarining og'irini yengil qilish uchun qo'llaridan kelgan barcha ishni qilishadi. Buni Hojarga opa bo'lmish Hayidjon misolida ko'rish mumkin.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ushbu asari orqali o'z davrida qizlarning boshiga tushgan ulkan balolarni tasvirlashga uringan. Dramada "farzand" obrazining xususiyatlari juda mohirlik bilan ochib berilgan. Dastavval farzand deyilganda "qizni erkalatsang-yag'rinnga tepadi, o'g'ilni erkalatsang burningga" ,"o'g'il, qiz degan ota, onaning qul-cho'risi" naqlari orqali anglashilgan fikr o'quvchi ongida hukmronlik qiladi. Buni esa Kumushxonning sevgan yori bilan qochib ketgani, Hojarning ota-ona rayini ko'p bora qaytarishga uringani, uning ham uyidan qochib ketgani isbotlaydi. Biroq, yuqorida "qattiqqo'l" onaning tasodifan o'z farzandiga bo'lgan mehrini ko'rsatib qo'ygani kabi asar so'ngrog'ida To'laxonning "Mayli suyganimni ko'rmasam ham ota-onamni ko'rsam bo'ldi." degan qarorga kelishi o'zbek farzandi uchun ota-ona eng azizi ekanligini ko'rsatadi. To'laxon boshiga tushgan bunday ulkan kulfatlarga ota-onasi ham sababchi ekanligini bilsa-da ulardan ko'nglini uzolmagan. Ularni yaxshi ko'rishni baribir davom ettiravergan.

“Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi” asarida bir nechta xalq urf-odatlari, irim-sirimlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Uy ko‘rar”, “beshik to‘y” marosimlari. “Ha, Rustambek har ishda ehtiyotkor-u (o‘molchani olib, har yonini qarab tanib), bir kampir dajjolga qolganda aldanib, meni shuncha musibatlarga qo‘ydi. Mendan sizga yodgor, buni siz uchidan tutib (tugib bo‘lsa kerak?) turing, qolganiga biz qarzdor” deganida esa “ro‘molchanning uchini tugib qo‘yish” irimi tasvirlangan. Bu irim qo‘rqqan, havotirlangan mahalda qilinib tinchlik bo‘lishi uchun amalga oshiriladi. Shuningdek, Hojarning eriga qarata “ish qilingki, men ham, siz ham yurtning osh-nonini yeb, siz to‘nini kiygansiz, men chit-u ro‘molini olganman” deganida esa xalq orasida to‘y-tomoshada odamlarga ulashiladigan sovg‘alar nazarda tutilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy asarlarning asl ma‘nosi har doim ham to‘g‘ridan to‘g‘ri, ochiqdan ochiq namoyon bo‘lavermaydi. Ular ba‘zida o‘ta kichik elementlar orqali ifodalanishi mumkin. Bunda esa o‘quvchining ziyrakligi katta ahamiyatga ega. “Paranji sirlaridan bir lavha yohud yallachilar ishi” dramasi bir qarashda bir o‘zbek qizining boshiga tushgan kulfatlar haqidagina bo‘lib tuyilishi mumkin. Ammo asar o‘zbek oilalaridagi holat, xalq turmushi, odamlarning bir-birlari bo‘lgan munosabatlari, e‘tiqodi, urf-odatlari kabi yana ko‘plab qirralarni ochib bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hamza zamondoshlari xotirasida, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. T., 1979;
2. Hamza Hakimzoda ijodi problemlari, T., 1988.
3. Qayumov L., Hamza, T., 1973;
4. Qayumov L., Saylanma, 1—2-j.lar, T., 1983;
5. Rahmonov M., Hamza va o‘zbekteatri, T, 1959;
6. Sultonov Yu., Hamza, T., 1973;
7. To‘la asarlar to‘plami [5 j.li], 3-tom. “Fan” nashriyoti. T., 1988— 89;
8. Xamza arxivi katalogi [2 j.li], T, 1990-91.

ID-020-30-A030

Gulhayo Uralova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

MAKTUB – BOTINIY EHTIYOJ MAHSULI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va jahon adabiyoti namoyondalari ijodining shu paytgacha kam tadqiq etilgan qirrasini-maktublari o'rganilgan va ularning uslubiyati, adabiyotda tutgan o'rnini ko'rsatishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *Yozuvchi maktubi, epistolary adabiyot, esse, she'riy uslub, "Uchburchak maktubchilik"*

Annotation. The article examines the hithert-little –studied aspects of the works of Uzbek and world literature and focuses on their methodology and place in the literature.

Keywords: *Autho'rs letter, epistolary literature, essay, poetic style, epic composition, triangular correspondence.*

Maktubot azaldan o'zbek adabiyotida mavjud bo'lgan. Maktub janri adabiyot, ijodkor kechinmalarini, uning ijodiy olamini anglashga xizmat qiladigan muhim manbadir. Yozuvchining muayyan shaxslarga yozgan maktublari ijtimoiy, tarixiy va adabiy qimmatga ega bo'lib, u odatda shaklning pishiqligi, ifodaning lo'ndaligi bilan ajralib turadi. "Birovga xat yozish botiniy, ruhiy ehtiyojdan tug'iladi, dedik. Bu judayam o'ziga xos dil izhoridir, deb yozadi G'aybullas-salom. Maktubnavislik o'zi bir san'at. Insho, munshaot ham bir ijod. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning bir-birlariga va boshqa aziz insonlariga yozgan maktublari nihoyatda nozik va zarif, nuqtadonlik va mehribonlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan. Biz bu singari insonlardan ular yozib qoldirgan benihoya go'zal badiiy asarlari uchungina emas, balki bir-birlariga yozgan xatlari, bularni jamlab borganlari va maxsus majmua holiga keltirib, biz

avlodlariga tuhfa etib qoldirganlari uchun toabad minnatdor bo'lishimiz darkor.”{104-bet}

Darhaqiqat, yuksak didli badiiy ijod egalari o'z fikrlarini maktublar orqali bildirishgan. Zero, ijod sirlari, iqrar va inkor, tasdiq va raddiya, muhabbat va nafrat, yovuzlik va ezgulik, bularning barchasi, aksariyat hollarda shu xatlarning qatiga bitilgan. Epistolyar adabiyot (yunoncha-xat, maktub, noma)-xat, noma shaklida yaratilgan asarlardir. Epistolyar adabiyotga atoqli arboblarning madaniy-tarixiy ahamiyatga ega yozishmalari ham kiradi. O'zbek adabiyoti tarixida Maktub janrining shakllanishi va rivojlanishi Alisher Navoiy ijodi bilan bog'liq. Navoiy "Munshaot" asari muqaddimasida forscha maktublar shakllangan yuksak uslubga ega ekanini, turkiy adabiyotda bu uslubda hali hech ish qilinmaganini va o'zi Maktub janriga birinchi bo'lib qo'l urganini qayd qilgan. Navoiyning ushbu asaridagi maktublarining aksariyati sulton Husayn Boyqaro va uning farzandlari bo'lmish shahzodalarga yozilgan. "Munshaot" da maktublar "ruq'aot" va "maktubot" deb ham yuritilgan. Maktub adabiy janr sifatida yunon va rim adabiyotida (Sitseron, Goratsiyning she'riy maktublari) shuningdek, sharq adabiyotida juda keng tarqalgan. XVIII asrda maktub shaklida romanlar yozish Yevropada odat tusiga kirgan. XIX asrda esa Epistolyar adabiyot tarixiy hikoya, oilaviy xronika tarzida rivoj topdi. Bunga I.S. Turgenevning "Faust", Dostoyevskiyning "Faqir kishilar" asarlarini misol qilib olish mumkin. Dunyoga mashhur nemis yozuvchisi I.V. Gytotening "Yosh Verterning iztiroblari" asari boshdan oyoq maktub janri asosiga qurilgan. Shuningdek, avstriyalik adib Stefan Sveygning "Bir ayolning maktubi" qissasi va Frans Kafkaning "Otamga xat" essesi ma'lum badiiy maqsad, shakl imkoniyatlariga muvofiq aynan maktub asosiga qutilgan. Frans Kafkaning "Otamga xat" essesi "murojaatnoma-nafratnoma" ruhida yozilgan, uslub jihatdan muallif maktub janri orqali murojaat qilishda ruhiy iztiroblarini chinqalbdan zo'r kuch bilan izhor qiladi. Qat'iyatli ota oldidagi aybdorlik hissi Kafkani butun hayoti davomida ta'qib qilganligini, bundan azoblangan ijodkor "Otamga xat" essesini yozadi. (Maktub otasining qo'lga yetib bormagan) Uning

otasi bilan bo'lgan murakkab munosabatlari Kafka hayoti va ijodining yashirin qirralarini aynan mazkur maktub shaklida yozilgan esse ochib bergan. Tanqidchilar bu esseni avtobiografik tadqiqotga urinish deb baholaydilar. Yozuvchi epic asarlar kompozitsiyasini maktub asosiga qursa, ba'zida esa asar takibida qahramonlarning bir-biriga yozishma maktublarini asarga ilova qiladi. Yana bir maktub shakli qisman qo'llanilgan asar, mashhur tanqidchi Belinskiy "Rus hayotining ensiklopediyasi" deya atagan roman A.S. Pushkin qalamiga mansub "Yevgeniy Onegin" romanidir. Roman uslubi she'riy shaklda ekanligi bilan ham an'anaviy uslubdan ancha farq qiladi. She'riy uslub esa muallif his-tuyg'ulari va fikrlarini ancha kuchaytirishga xizmat qilgan. Tatyanning Oneginiga yozgan maktubida Tatyanning ruhiy holatini, kata hissiy tanglik hamda samimiy tuyg'ularni his etamiz:

Kimsan axir, panohimmisan?

Va yo bir shum berahmmisan?

Yozgil shubha-gumonlarimni.

Yoki bular bari beqaror

Murg'ak qalbim yolg'onlarimi!

Yo boshqa gap peshonada bor...{80-81-betlar}

Muallif qahramonning maktub yozishini axloqsizlikka emas, aksincha tuyg'ularning tozalikka asoslanganligini kitobxonga tushuntiradi. Oneginning Tatyana maktubida esa Oneginning qalb qiyofasi bor bo'yi bilan ochib berilgan:

Xo'b termulmoq sizning jussaga

Dildan tuymoq-ne kamolot bu.

Qarshingizda qotmoq g'ussada

Bo'zarmoq va so'nmoq –rohat bu...

Maktublarni o'qir ekanmiz, shoirning yuksak ideallari, metin shaxsiyatini ko'rishimiz mumkin. Shoirning o'zi tan olishicha asar aqlning sovuq kuzatuv va yurak hasrati mahsulidir. Rus adabiyotshunosi Lidiya Ginzburg "Boris Pasternak xatlari" deb nomlangan essesda maktub janrining ahamiyati

haqida aytib o'tgan. Rus adabiyotshunosligida 3 ovozli maktub roman "Uchburchak maktubchilik" deb nom olgan yozishmalarda Mariya Rilke, Marina Svetayeva, Boris Pasternakning o'ziga xos badiiy-estetik olami, dunyoqarashi, badiiy tafakkuri yorqin anglashiladi. Ular adabiyot, hayot, jamiyat, insoniyat, xususan, she'riyat haqida o'zlarining aniq xulosalari va falsafiy fikriga ega. Yozuvchi maktublarini sinchkovlik bilan o'rganish ijodkorning poetik olamini kashf etish imkoniyatini sezish mumkin. Lidiya Ginzburg Boris Pasternakning Marina Svetayeva bilan 1926-yillardagi yozishma xatlarini 3 tomonlama maktub-roman, haqiqiy adabiyot darajasiga ko'tarilgan san'at asari deb baholaydi. Yevropaning taniqli shoirlari Mariya Rilke, Boris Pasternak, Marina Svetayevalarning "Uchburchak maktub romani" bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan. "Adiblarning maktublar ulaning shaxsiyati va ijodi, ular yashagan zamon, muhit, ular bilan muloqotda bo'lgan odamlar haqida ma'lumot beruvchi muhim manbadir." {64-bet} Shu jihatdan olib qaralganda, o'zbek adabiyotida qisqa hikoya yozish otasi" hisoblangan Abdulla Qahhor ijodida ham uning ulkan adabiy olamini ko'rsatuvchi maktublar uchraydi. Abdulla Qahhorning yosh iste'dodli ijodkorlarga yozilgan hajman qisqa bo'lsa-da, ular ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan maktublar majud. Uning Shukur Xolmirzayevga yozgan maktubi qisqaligi va fikrning tugalligi bilan ajralib turadi:

"Hurmatli Sh. Xolmirzayev!

"Sharq yulduzi" da bosilgan "To'lqinlar" povestingizni o'qidim. Povest yaxshi taassurot qoldirdi. Ma'murjonni boshida tabassum bilan tasvir etasiz. Butun asar davomida qisqalikka intilasiz. Yozuvchilikda ko'zingiz ochilib kelayotganligi ko'rinib turibdi. Nazarimda povestning nomi to'g'ri emas. Keyingi ishlaringiz baroridan kelsin! Salom bilan Abdulla Qahhor."

Bu maktubning yosh yozuvchi ijodida qanchalik kata o'rin tutganligini keyinchalik uning o'zi ham e'tirof etgan. Abdulla Qahhor maktublarining ahamiyati shundaki, u eng avvalo yangi iste'dodlarning adabiyotga kirib kelishidan quvonadi. Shu bilan birga munaqqid sifatida ular ijodidagi

nuqsonlarni ham ko'rsatadi, amaliy maslahatlar beradi. Adibning "O'rtoq K.K" deb boshlanadigan maktubi yuqorida keltirilgan maktubdan tubdan farq qiladi. Unda yozuvchining iste'dodsiz ijodkorlar va saviyasi bo'sh asarlarga nisbatan murosasizligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Xat 3 qismdan iborat. Maktubning 1-qismida hikoyasi tahririyatdan qaytgan ijodkorga bor haqiqat oydin ochib beriladi. "Bu hikoyangiz sizda talent borligini ko'rsatmaydi, yozuvchilikka havas uyg'onganligini ko'rsatadi, xolos. Havas hamada ham bo'lishi mumkin, lekin havasning o'zi kishini hech qayoqqa eltmaydi. Men masalan tanbur chertib hammani qoyil qilgim keladi, lekin nachora dard bor-u, darmon yo'q." {3-4-bet} Maktub nihoyasida, avvalo yozishdan maqsad nima ekanligiga e'tibor qaratish lozimligi uqtiriladi va "Boshqa ish qiling. Boshqa ishda muvaffaqiyat tilayman.", degan so'zlar bilan tugallanadi. Abdulla Qahhordek so'z san'atkorining iste'dodli yoshlar ijodiga xayrixohlik tuyg'usi bilan yo'g'rilgan maktublariga ehtiyoj ayniqsa, bugungi kunda ko'proq sezilayotganligi sir emas. Shu bois yozuvchilar maktublarini o'rganish hamisha muhim bo'lib qolaveradi. Maktub janri nafaqat o'zbek adabiyotining, balki jahon memuar adabiyotining ham gultoji bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'aybulla as-Salom, Saydi Umr. Tolibnoma. T: Sharq, 1997.104-bet;
2. Suyima G'aniyeva. Nasr va badiiyat. Kitobda: Navoiy va ijod saboqlari. T: Fan, 1981. 64-bet.
3. A. S. Pushkin "Yevgeniy Onegin" romani. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashri, 1988.80-81-bet.
4. Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. T: 1968.3-4-bet.

ID-020-30-A031

Sohiba Karimova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA BEMOR OBRAZI TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif o'zbek adabiyotida bemor obrazi haqidagi mulohazalarini bayon qilgan. Adabiyot va tibbiyotning mushtarakligi bunda muhim jihati hisoblanadi. O'zbek hikoyalaridagi bemor obraziga doir bir qancha jihatlar aytib o'tilgan. Muallif maqola mavzusini Abdulla Qahhor hikoyalari misolida ochib bergan. Shuningdek, shaxsiy fikrlarni dallilashda adabiyotlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, badiiy detal, bemor obraz, muammo, voqea

Annotation. In this article author reveals her opinions about illness hero in uzbek literature. Considered several elements which are related to commons of medical and literature . Investigated some points about illness hero of uzbek stories.. Author analyzed article's theme help with Abdulla Kahhor's stories. Moreover author used necessary literary sources for supporting her own view.

Key words: story, artistic element, illness hero, problem, event,

Bugungi kunda yaxshi va yomon so'zning kuch-qudratini anglamagan birorta odam bo'lmasa kerak. Nafaqat qalb, balki tanadagi kasallikdan forig' bo'lish yo'lida ham yaxshi so'zlar doim o'zining samarali natijasini beradi. Shu sabab har bir aytayotgan gapimizga e'tiborli bo'lishimiz lozim.

O'zbek nasrida adabiyot va tibbiyotning o'zaro aloqasini o'rganishda tibbiyotga oid har qanday mitti detal va detal obrazlar e'tiborga molik sanaladi. "Detal obrazlar (tafsilotlar, narsa-buyumlar, portret, peyzaj)dan badiiy reallikning ikkinchi qatlami – ichki tashqi yoki tashqi harakatdan tarkib topuvchi voqea-hodisalar obrazi o'sib chiqadi. Shu harakat ortida turib uni

yurgizayotgan “xarakter va sharoit” uchinchi qatlamni tashkil qiladi va oldingilarni birlashtirgan holda “dunyo va taqdir” obrazini yuzaga keltiradi. Ya'ni badiiy reallik g'ishtchalarini – butunni tashkil qiluvchi unsurlardan tashkil topadi, bu unsurlar o'zaro predmetlilik darajasi, tasvir ko'lami jihatdan farqlanadi”[1. Қуронов Д. ва бошқалар. Т.: 2010: 48-bet].

Tibbiy xususiyatni o'zida jamlagan detal obrazlarga biz dori-darmon, kasallik nomlari, shifobaxsh o'simliklar kabilarni misol qilib olish mumkin. O'zbek adabiyotida tibbiyotga oid detal obrazlar qatnashgan bir qancha asarlar mavjud.

Masalan, o'tkir qalam egasi biri Abdulla Qahhorning “Bemor”, “Ming bir jon” kabi hikoyalarida dardli muhit tasvirlanadi. “Ming bir jon” – chin ma'nodagi inson matonati, sabr-bardoshi, iroda kuchining nimalarga qodir ekanligi aks etgan hikoya. “Kasalxonaga yaqinda tushgan Mirrahimov, jikkakkina kishi, o'ziga juda ham katta ko'k xalatga burkanib, yengchadan boshini chiqarib turgan sichqondek derazadan ko'chaga qarab o'tirgan edi, birdan tutaqib ketdi: shunday havo bo'lsa-yu, oyoq-qo'li butun odam ko'chaga chiqolmay, derazadan mo'ralab o'tirsa!..

Mirrahimov jussasi kichkina bo'lgani bilan tovushi juda yo'g'on va buning ustiga sekin gapirolmas edi. Hamshira yugurib kirdi, Mirrahimovning sog'lig'ini, kayfini so'radi, keyin dardni bardosh yengadi, bu xususda Mastura Aliyevadan ibrat olish kerak, degan mazmunda shama qildi”[2. A.Қаҳҳор.Т.: 1987: 316-bet]. Hikoyada voqeaga kirib olish va muammoni yoritish uchun Mirrahimovning tutaqishidan foydalanilgan.

“Mastura Aliyeva sakkiz oydan beri palatasidan chiqmay yotgan og'ir xasta, uni kasalxonada hamma bilar, ko'p kishi kirib ko'rgan edi”. Abdulla Qahhor bemor ayol Masturani shunday tasvirlaydi: “Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap-sariq teri-yu suyakdan iborat bo'lgan murda yotar edi...” Bu jumlaning o'qib kishining eti junjikadi. Ammo mana shu “murda” hali tirik, tirik bo'lganda ham o'zini o'zi xafa qilmaydigan darajada. Masturani ko'rib qo'rqib ketgan Hoji akani hamshira bir bahona bilan olib ketadi, buni ko'rgan

bemor esa qonsiz labidagi tabassum bilan eriga shunday deydi: “Daftaringizga yozib qo‘ying: uch mardi maydon meni ko‘rgani kirgan edi, bittasi arang qochdi-yu, ikkitasi qochgani ham bo‘lmay, o‘tirib qoldi”. Masturaning shu ahvolidan ham hangoma qilishidan mehmonlar hayratda qolishadi. Mastura o‘n yillik dardni yelkasida ko‘tarib yurgan bo‘lsa-da, aslo hayotdan umidini uzmagani inson timsoli. Ushbu obraz orqali Abdulla Qahhor insoniyatga, sabr, shukronalik, umidni yo‘qotmaslik haqida ibrat namunasini ko‘rsatadi.

Hikoyadagi tobut voqeasi ham juda achinarli bir holatni aks ettiradi. Mastura tobutni buzib pechkaga qalanishini eslab: “Menga shu ham ta'sir qilgani yo‘q. Bunaqa narsalar o‘lim kutib yotgan kasalga yomon ta'sir qilishi mumkin, men hech qachon o‘lim kutgan emasman, kutmayman ham!” deydi. Bu holatni inson tanasi uning ruhiyatiga bo‘ysunishini yaqqol ifodasi deyish mumkin.

Oradan uch yil o‘tib, Mirrahimov Mastura va Akramjonni uchratib qoladi, ammo ayolni tanimaydi. “Sabrning tagi sariq oltin”, deganlariday mo‘jiza yuz beradi – Mastura sog‘ayib, tanib bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketgan edi.

Abdulla Qahhor qisqa tasvirlarni jahon adabiyoti, xususan, A.Chexovdan o‘rgandi. Shuning uchun ham u A.Chexovni o‘ziga ustoz sanadi. Bir o‘rinda adib “Ustozning muborak ko‘zoynaklarini taqib xalqimizning o‘tmishiga qaradim” deb yozadi. Shu “qarash” natijasi sifatida “O‘g‘ri”, “Anor”, “Tomoshabog‘”, “Bemor” kabi hikoyalari maydonga keladi.

Adibning “Bemor” hikoyasida voqea boshqacharoq. Bir xotin og‘ir dardga chalilib, uzoq yotib qoladi. Erining uni doktorga qaratgani qurbi yetmay, arzon haq oladigan mulla, tabib, qo‘shnidan najot kutadi, pirovardida qo‘shni kampirning “Begunoh go‘dakning saharlari qilgan duosi ijobat bo‘ladi”, degan maslahati bilan ish tutishga majbur bo‘ladi. U har kuni saharda to‘rt yashar qizchasini uyg‘otib duo o‘rgatardi. Bemor ayol og‘irlashib bir kuni sahar payti olamdan o‘tadi. Eri qizchasini o‘lik yonidan olib boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg‘onadi, lekin ko‘zini ochmasdan odatdagicha duo qiladi: “Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...” deydi”. [3.

A.Қаҳҳор.Т.:1989:199-бет.] Abdulla Qahhorning kiritgan nutqidan “Bemor” hikoyasining maydonga kelish tarixi, hayotiy voqelikning qay yo’sinda badiiy shaklga kirganini anglash mumkin. Ayni damda doktor va tibbiy yordamsiz bir muhitdagi odamlar hayotida yuz bergan bir hodisaning tasviri ko’z oldimizda namoyon bo’ladi. Bu hikoya e’tibor berib, akademik M.Qo’shjonov o’sha o’tmish muhitida o’z xotinini davolata olmayotgan Sotiboldining ilojisiz holati haqida yozadi: “Sotiboldi ham najot istab “kishilar”ga murojaat qildi. Lekin pul ketdi, kasal tuzalmadi. Sotiboldining o’z xo’jayiniga arz qilib borganini eslatadi: Abdug’ani boy Sotiboldining “so’zini eshitib ko’p afsuslanadi, qo’lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so’radi, devonai Bahovaddinga hech narsa ko’tardingmi? Rasula'zamga-chi?” [4. M.Қўшжонов.Т.:1988: 30-бет.]. To’g’ri, xalq orasidagi ulug’ avliyolarga bo’lgan ixlos bu hikoyada juda ham to’g’ri ifodasini topgan emas.

Badiiy adabiyotdagi bemor obrazlarga bir-bir to’xtalib o’tarkanmiz yozuvchilarning ulardan o’zlarining badiiy g’oyalarini ifodalash uchun foydalanganini ko’ramiz. Shuni aytish mumkinki, bemor obrazlar nasriy asarlarda ko’pincha ibrat ko’rsatish maqsadida ham qo’llaniladi. Asarlarda ba’zan bemorning sabri ibrat bo’lsa, ba’zan undagi mehribonlik, mehr-muruvvat ibrat bo’ladi: adib bemorning tanasi kasal bo’lsa ham hali qalbi sog’lom, ruhi tetik ekaniga urg’u beradi.

Badiiy obrazning bemor va shifokor tarzda tanlanishi adabiyot bilan tibbiyotning o’zaro aloqasiga juda aniq misol bo’ladi. Xulosa qilib aytganda, adiblar tibbiyotga aloqador bo’lgan o’z qahramonlari tabiatini tasvirlashda shifokor yoki bemorlikka tegishli so’zlar, so’z birikmalaridan unumli foydalanadi. Tibbiy obrazlar orqali ko’zlangan maqsadga, ya’ni hikoyadan olinadigan ibratni yanada kuchaytirishga erishiladi. Adabiyotning boshqa fanlar bilan aloqadorligi har doim kitobxonlar uchun qiziqarli hodisa bo’lib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Қуроноф Д, Мамажоноф З, Шаралиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010, 48-bet
2. А.Қаҳҳор. Асарлар 2-жилд // Минг бир жон. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987 йил, 316-bet
3. А.Қаҳҳор. Ҳақ сўзнинг кучи. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989,199-bet.
4. М.Қўшжоноф. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. – Тошкент, 1988, 30-бет.

ID-020-30-A032

Nafisa Karimova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs magistranti

ADABIYOTSHUNOSLIGIMIZDA IJOD LABORATORIYASI MASALASI

Annotatsiya. Maqolada muallif o'zbek adabiyotshunosligida ijod laboratoriyasining o'rganilish doirasi xususida o'z qarashlarni bayon etgan. Laboratoriyaga xos unsurlarga qisqacha to'xtalib o'tgan. Yozuvchi kayfiyatining badiiy asarga ko'chib o'tishi va iste'dod masalalarini tahlil etgan. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov misolida maqola mavzusi yoritildi. Maqolada fikrni dalillash uchun zaruriy adabiyotlardan foydalanildi.

Kalit so'zlar: *psixologiya, ijodkor kayfiyati, iste'dod, ijodiy maqsad, tasvir vositalari, obraz*

Annotation. In this article author reveals her opinions about creative laboratory's scale of study in uzbek literature. Considered several elements which are related to creative laboratory. Investigated some points about talent and transmission of writer's mood to literary work. Author analyzed article's theme help with Alisher Navai, Abdulla Kadiri and Abdulla Aripov's literary works. Moreover author used necessary literary sources for supporting her own view.

Keywords: *psychology, creator's mood, talent, creative purpose, descriptive method, figure*

Asarning yuzaga kelishi barchaga birday qiziq. Asarning yuqori saviyada yozilishi, qay darajada umrboqiyliqi yozuvchining mahoratiga bog'liq. Asarning sujeti, voqealar rivoji, kitobxon ko'ngliga yetib boruvchi jummalarning hosil bo'lishi, ijodkorona uslubning shakllanishi ijodkordan katta mehnat va tayyorgarlik talab etadi. Asarga kiritiladigan har bir detal, obraz va personajlarga vazifa yuklanishi, sarlavha va epigrafning qo'yilishi, asar qancha

hajmni tashkil etishi kabilarning barchasi ijod laboratoriyasida doirasida o'rganiladi. Asarning mukammal holat kasb etishi ham aslida fikriy muammodir. Bu muammo ham amaliy, ham nazariy bilim, hayotiy donolik, yuksak darajadagi fikr mantig'i va aqliy mehnat evaziga o'z yechimini topadi. Ijod psixologiyasi ustida mulohaza yuritishda, nazariy qarashlar tahlili doirasida to'xtalsak: Abdurauf Fitrat "Adabiyot qoidalari"da ijod qilish jarayonini Navoiyga ergashib **ta'lif** deb ataydi: "Ta'lif yo tasnif atag'an adabiy yumush bilan maydong'a chiqqan narsaga "asar" deyiladi. Bir asarni yozg'anda zehnimizning yumushi(xizmati) turli turlarga kiradi: Yozuvchi –adib boshda shul to'g'rida yozilaturg'on bir narsani topadir. So'ngra shu narsa to'g'risidog'i o'ylar, tuyg'ularni oxtarib, topib yig'adir. "Zehniy yumush" ning shu bo'limiga "ijod" (bor etish –yarotish) deyiladi". Fitrat aytgan ana o'sha "zehniy yumush"ning xizmati biz nazarda tutayotgan ijod laboratoriyasining boshlang'ich bo'g'inini tashkil etadi.

Ijod laboratoriyasi deganda, dastlab uning tarkibi bilan tanishib chiqishimiz maqsadga muvofiq. Iste'dod va unga xos tushunchalar, g'oya, ilhom, mavzu tanlash, asarning yozilishiga sababchi bo'lgan omillar, reja, qo'lyozma ustida ishlash, so'z tanlash, ijodkorning ta'sirlanishi, yozuvchi faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar, yozuvchining hayoti davomida boshidan kechirgan va muayyan bir taassurot qoldirgan hodisalarning yozilayotgan asarga qay darajada aloqadorligi, kundaliklari, qayd daftarchasining jumla tuzishda nechog'li rol o'ynashi, tush va ijod, ijodkor xarakteri kabilar ijod laboratoriyasiga xos unsurlardir. O'zbek adabiyotshunosligida ijod laboratoriyasining ma'lum bir jihatlari tadqiq etilgani ilm ahliga yaxshi ma'lum. Jumladan, Abdug'afur Rasulovning o'zining "Ilmi g'aribani qo'msab..." kitobida muhim bir fikrni bayon qilib shunday yozadi: "Yozuvchi holati bilan ijodi orasida uzviy bog'liqlik bor... Har qanday asarda yozuvchi ruhi, holi, qalbi aks etadi. Asarlar sinchiklab o'rganilsa, ular yozuvchi holati, ruhiyati haqida ko'p narsalar so'zlab beradi"[1.Расулов А. 1998.–В: 27]. Ijod jarayonida shoir va yozuvchilar ko'p hollarda

o'z ko'nglidan o'tgan tuyg'ularni, o'z boshidan kechirgan voqea-hodisalarni qog'ozga tushiradi. Xuddi shu ma'noda, Abdug'afur Rasulov yuqoridagi fikrlarining davomini eslatadigan mulohazalarni "Tanqid, talqin, baholash" kitobida ham bayon etadi: "Badiiy asar – xoh u lirik, xoh nasr, xoh drama bo'lsin – yozuvchining ijodi mahsuli. Farzand ota-onaga o'xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar talqin, tahlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi" [2.Расулов А. 2006. –В.75]. Olim asarda ijodkor ruhi va kayfiyati ko'chib o'tishiga urg'u bergan. Ruh va kayfiyat asar yozishga tayyorgarlik jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorning eng muhim jihati tug'ma iste'dod egasi bo'lishlikdir. Kishi tabiatidagi badiiy ijod bilan shug'ullanishga layoqat bo'lsa, unda o'sha layoqatni rivojlantirish kerak. Adabiyotshunoslik tarixida ham iste'dod masalasiga alohida e'tibor berilganini, xususan, hazrat Alisher Navoiy hayoti va faoliyati misolida ko'rish mumkin. Alisher Navoiyning iste'dodiga Lutfiy o'z vaqtida juda yuksak baho beradi. Navoiy Lutfiyning xizmatiga borganida, Lutfiy undan eng yaxshi g'azallaridan biri o'qib berishini so'raydi. Navoiy quyidagi baytni o'qiydi:

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lgach quyosh...

Mavlono Lutfiy ushbu baytni eshitgach, shunday deydi: "Volloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n –o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirar edim va bu ishning yuzaga chiqishini zo'r muvaffaqiyat hisoblar edim"[3. To'plam. 1985. B: 87]. Qaysi bir ma'noda, Lutfiy o'sha paytda ximatiga kelgan yosh iste'dod egasini rag'batlantirgan. Iste'dod egasi birinchi navbatda, o'z darajasini aynan o'zi baholashni ham biladi. Alisher Navoiy o'zigacha bo'lgan xamsanavislar an'analarini yangilashi uchun o'zida qanday iqtidor, iste'dod borligini tasavvur qilgan albatta.

Emas oson bu maydon ichra turmoq,

Nizomiy ranjasig'a ranja urmoq...

*Kerak sher ollida ham sheri jangi,
Agar sher o'lmasa, bori palangi.*

Asarning hajmi qancha keng bo'lsa, ijodkor mehnati ham shuncha bo'ladi. Navoiy 5 qismdan iborat asarni yozishga kirishishdan avval, reja tuzishda Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy bilan bellashmoq uchun ulkan kuch-qudrat kerakligini anglab yetgan. Turkiy tildagi sara so'zlardan foydalanib asar bunyod etish asar rejasining bir qismi edi. Nazariy jihatdan olib qarajak, ikkinchi dostonning bosh qahramonini Xusrav emas, Farhod deb tanlanishi **ijodiy maqsad** taqozo etgan va an'ananing ziddi natijasida yuzaga kelgan g'oya edi. Ijod laboratoriyasidagi unsurlar shu kabi o'rinlarda mantiqiy bog'liqlikni ko'rsatadi.

Bugungi adabiy hayotda, gazeta va jurnallarda she'riy mashqlar, nasriy asarlar bosilib turibdi. Biroq ularning mualliflari, aniqsa, yosh qalam egalarning qaysi birlari fitratida iste'doddan nishona borligini aniqlash va ular chindan ham iste'dod egalari bo'lsa, ularga rag'bat berish, qo'llab quvvatlash kerak bo'ladi. Abdulla Oripov yozadi:

*Olti oykim she'r yozmayman yuragim zada,
Olti oykim do'stlarim ham pana panada,
Iste'dodim so'nganidan qilar karomat.*

Abdulla Oripov iste'dod egasi. U o'zining iste'dodi darajasini ham yaxshi bilgandir [4. I. Sulton, 2005, B: 99]. Ijod ahliga iste'dod degan noyob ne'mat Yaratguvi tomonidan in'om qilinadi.

Ijodkor ruhiy-psixologik nuqtai nazardan tekshirilganda, asosan o'z dunyosiga sho'ng'ishi, badiiy obrazlari mohiyatiga o'z qarashlarini, estetik idealarni joylashtirish holatlari kuzatiladi. Iste'dodli adib Abdulla Qodiriy shu hodisani quyidagicha e'tirof qiladi: "Yozuvchining, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o'qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida asosan o'z tabiatini, ruhini tasvirlaydi" [5. Умроров Х. 2011, B:23]. Haqiqatan ham, birinchi o'zbek

romani muallifining qator asarlarida adibning ma'naviy dunyosiga yaqin bo'lgan obrazlarni kuzatish qiyin emas. Zero, katta ijodkorlarning ruhi, kayfiyati, dunyoqarashiga xos jihatlarning barchasi ular yaratgan obrazlar xarakterida akslanadi.

Badiiy asardan yozuvchi tabiatiga xos xususiyatlarni anglash, his etish ijodkor yashagan muhitni, ijtimoiy-ma'naviy dunyosini tushunish orqali yuzaga keladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning shaxsiyatini, e'tiqodiy qarashlarini anglash bilan asarlarini parallel qo'yib qaralganda, ijod psixologiyasi nuqtai nazaridan juda ko'p masallar oydinlashadi. Chunki adibning Yusufbek hoji, Otabek, Anvar, Kumush, Ra'noga o'xshash qahramonlarida ma'naviy dunyosida in'iko etgan tushunchalar, qaysidir ma'noda, Abdulla Qodiriy adabiy-estetik dunyosiga tegishli, albatta.

O'zbek adabiyotshunosligida ijod laboratoriyasining o'rganilishi badiiy asarni yuzaga kelish sabablarini o'rganish, ijodiy maqsad va ijodkor mahoratini belgilashda o'z ahamiyatiga ega. Qolaversa, ijodkor shaxsiyatiga yaqinlashish, ijodxonalar sirlaridan boxabar bo'lish nafaqat, tadqiqotchi uchun balki, yosh qalamkashlar va kitobxonlar davrasi uchun ham qiziq jarayon sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб. -Т. Маънавият. 1998.-В.:27.
2. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. -Т. Фан. 2006. -В.:75
3. Навоий замондошлари хотирасида. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. В: 87
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Т: "O'qituvchi" NMIU, 2005. В.:99
5. Умуров Ҳ. Ўзбек романида психологизм принциплари, шакллари ва воситалари // Ўзбек адабий танқиди. XX аср адабиётшунослиги. Антология. Turon-Iqbol. -Т. 2011. В: .23

ID-020-30-A033

Anvarjon Jabborov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDAGI YAQIN O'TMISHDA YASHAB O'TGAN TARIXIY SHAXS OBRAZLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xurshid Davron she'rlaridagi yaqin o'tmishda yashab o'tgan tarixiy shaxslar, jumladan, Cho'lpon, Bobon botir, Usmon Nosir, Mirtemir va jahon adabiyoti vakili Lorka kabilar haqida yozilgan she'rlari talqini va tahlili o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *Xurshid Davron, tarixiy shaxs, Bobon botir, Cho'lpon, Lorka, Usmon Nosir*

Annotation. This article reflects the interpretation and analysis of Khurshid Davron's poems about historical figures who lived in the recent past, including Cholpon, Bobon Batyr, Usmon Nasir, Mirtemir, and Lorka, a representative of world literature.

Keywords: *Khurshid Davron, historical figure, Bobon botir, Cholpon, Lorka, Usmon Nasir*

Xurshid Davron ijodida tarixiy shaxs obrazlari va haqiqat masalasi yirik ko'lamni egallaydi. Masalan, "Qodiriyini olib ketganlari haqida she'r", "Abdulhamid Cho'lpon", "Usmon Nosir xoki ustida" [1], "Lorka o'limi", "Mirtemir xotirasiga", "Botir Namoz o'limi", "Mahmud Qoshg'ariy", "Alisher Navoiy", "Bobur", "Boborahim Mashrab" [2] va boshqa shu kabi bir qancha she'rlari shular qatoriga kiradi.

Shoir ijodidagi tarixiylik motivlariga to'xtalishda uzoq hamda yaqin o'tmishdagi voqea-hodisa va shaxslarga murojaat shakllariga bo'lish mumkin. Yaqin o'tmishdagi tarixiy shaxslar bilan Xurshid Davron she'rlarida aks etgan tarixiy shaxs obrazlarining nechog'lik bir-biriga va haqiqatga mos kelishini she'rlarini tahlil qilish jarayonida ham ko'rishimiz mumkin. Shoirning "Abdulhamid Cho'lpon" nomli she'ri shunday boshlanadi:

Sovuq, zax, tor xona. Bu qamoqxona.

Bu yerga quyoshning nurlari yetmas.

*Bu yerda abadiy azobda siyna,
Bu yerdan zulumot sharpasi ketmas.*

Bu misralarda muallif o'zi aytmochi bo'lgan fikrlarga zamin hozirlamoqda. Agarda so'zlar ma'nosiga chuqurroq nazar tashlasak, she'r yozilmayotganini, balki chizilayotganinin ko'ramiz. Xonaning belgilari va bu aslida qanday xona ekanligi, unda hukm surayotgan tartib haqida asta-sekin chizgilar ketadi. Keyingi qatorlarda shoir ta'riflanayotgan tarixiy shaxsning xarakterini ochib berishga kirishadi.

*Bu yerga yetmagay qushlar yallasi,
Ko'klam adirlarga sachratgan bo'yoq,
Ko'kda erkin suzgan bulut galasi
Bu yerdan ko'rinmas, bu yerdan yiroq.
Faqat so'zlar kelar, xudoday tanho,
Faqat so'zlar kelar payg'ambarday pok.
U bilar: Shu so'zlar haqqi yashar u,
Shu so'zlar bir kuni etishar halok.*

Bunda shaxs xarakterining ochib berilishi kontrast usulda amalga oshiriladi, ya'ni "qushlar yallasi", "erkin suzgan bulut galasi", "ko'klamgi adirlar", barchasining "bu yerdan ko'rinmas"ligi, tasvirlanayotgan shaxsning aslida shularni sevishiga ishora qiladi. Demak badiiy qahramon erkinlikni xush ko'radi. So'nggi baytda esa ta'riflanayotgan tarixiy shaxsning nima sababdan bu ahvoldaligi, uning "gunohi" nimaligi chizib beriladi. Uning aytajak so'zlari, bajarajak amallari "payg'ambarday pok"ligi va mana shu amallar va so'zlardan qaytmasa, umri yakun topishi haqida bilsa-da adolat tomonidan siljimasligi bu shaxsga nisbatan ixlosni yanada kuchaytiradi. O'quvchi esa bu shaxsning tarixda huddi ana shunday yo'l tutgani haqida bilib olishi hamda badiiyatga bu faktlar qay darajada mohirlik bilan olib kirilganiga guvoh bo'lishi mumkin.

Xurshid Davronning tarixiy shaxslar tilidan aytiladigan she'rlari kishida jo'shqinlik, vatanparvarlik tuyg'ularini jumbushga keltiradi. Muallif bunda aynan faktlarning barchasini keltirmasada, ba'zi bir signal ma'lumotlar orqali uni anglab olinishiga yordam beradi. Masalan Xurshid Davronning "Bobon botirning o'limi oldidan aytganlari. 1869- yil" deb nomlangan she'ri badiiy estetik tomondan kishida emotsionallik, zavqlilik uyg'otadi. She'r shunday misralar bilan boshlanadi:

*Demak hali kun kun emas,
Quyosh esa quyoshmas.
Ko'zlarimiz qurib bitdi,
Ko'zdan oqqan ko'zyoshmas.
Demak hali xalq ham xalqmas,*

*Erk uchun shaylanmasa.
Demak hali sut ham haqmas,
Gar qonga aylanmasa.*

She'ning qimmatini shundaki, u sof tarixiy faktga asoslanadi. Tarixga nazar tashlasak, "1868-yilda Rusiya general-gubernatori K. fon Kaufman Samarqand shahrini bosib olishga kirishdi. Cho'ponota va Zirabuloq tepaligidagi janglardan so'ng Buxoro amirligi mustamlakaga aylanadi" [3]. Biroq she'rda aks etayotgan qahramonning katta sahnaga chiqishi keyinroq yuz beradi. "Rossiya imperiyasining harbiy yurishlariga qarshi Samarqandda Kitob hokimi Bobobek va Shahrisabz hokimi Jo'rabek boshchiligida ozodlik kurashi olib borildi. Bu ikki xalq harakati rahbarlari o'z qo'shinlari bilan 1868-yil 2-iyunda samarqandlik qo'zg'olonchilar bilan birga Rossiya imperiyasi qo'shinlari garnizoni joylashgan shahar qal'asiga hujum qilishdi" [3]. Bizning fikrimizcha, Samarqandning solih farzandi Xurshid Davron aytmoqchi, yoritmoqchi bo'lgan Bobon botir – bu aynan Samarqandning Kitob shahri hokimi Bobobek. Muallifning bu ozodlik harakati tashabbuskorining ismini Bobon botir nomi bilan talqin qilishiga esa o'ziga xos sabablar bor deb o'ylaymiz.

E'tibor berilsa, she'ning har bir bayti "Demak" deya boshlanadi. Bu bilan ozodlik tarafdorining so'nggi nafasini olayotgan onda aytayotgan so'zlari ekanini anglash mumkin. Bularga yondosh ravishda ijodkor o'sha davr muhiti hamda sharoitiga nisbatan o'z fikrlarini va cheksiz naftarini ham badiiy ravishda qo'shib misralarga joylaydi. Bu esa she'ning keskirliги, ijtimoiy ruhi va ozodlik ufurib turgan nafasini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari she'rda

*Demak hali musavvir ko'r,
Olim soqov, shoir kar.
Bobo qo'rqqoq, ota sotqin,
Ona zolim, aka g'ar.
Demak hali so'z – fohisha,
Imon yo'qdir, dil vayron.
Ko'z – yog'dusi o'chgan shisha,
Aldoqlardan el hayron.*

kabi o'ta oshkora va shafqatsiz tanqidiy so'zlar ham o'rin olgan.

She'rda aks etayotgan qahramon – Bobon botirning o'y-xayollari, orzu-intilishlari, fikrati faqatgina el-yurtning ahvoriga achinish, mustabid tuzum tomonidan xalqqa o'tkazilayotgan jabr-zulmni daf qilish, unda barham berish yo'lida kechadi.

*Demak hali to'lqinlari
Guvlab yotgan soylarmas.*

*Qurib bitar bu o'lkada
Har bir giyoh, har bir xas.*

misralarida tasvirlanayotgan “to'liqlari guvlab yotgan soy”, “giyoh” kabi detallar yurtning bosqinchilar bostirib kelgungacha bo'lgan vaqtda xalqning holatini va agar shu ko'yi davom etsa, keyingi, kelajakdagi ahvoli qay holga kelishi haqida ma'lumot beradi.

She'rda bundan tashqari yurt ertasidan qayg'uruvchi vatanparvar shaxs ruhiyatidagi sodir bo'layotgan voqealar birma-bir tasvirlab beriladi. Dengizlar qurishi, xalqning xor-zor bo'lishi, tuprog'i oltinga teng yurtda odamlar gadodek yashashga mahkum bo'lishlari bashoratomuz tasvir bilan she'r qahramoni tilidan aytiladi. Bunday ko'rguliklarga tushmaslik uchun esa xalq ko'tarilmog'i, dushmangga qarshi isyon qilmog'i lozimligi da'vat shaklida uqtiriladi.

*Demak hali...
Demak hali...
Demak hali kech emas,
Qonimizni to'ksak, yashnar
Quriyotgan har bir xas.
Demak hali jangler bordir,
Xudo shohid, so'zim haq:
Dengiz, bog'lar ko'tarilmas,
Ko'tarilmas ekan xalq...*

Milliy uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili, jadid ma'rifatparlari orasida eng qalbi qaynoq hamda yosh porlagan iste'dod sohibi Usmon Nosir hayoti va faoliyati ham Xurshid Davron nazaridan chetda qolmadi. “Usmon Nosir” [4, 158-bet] nomli she'ri bu ma'rifatparvar shoirga bag'ishlanga salmoqli she'rlar sirasiga kiradi. Ijodkorning badiiy tafakkuri she'rda o'z aksini topadi.

*Yuzga kiraman deb aytgan edi u,
Biroq yigitlikda ketdi dunyodan.
Go'yo chanqoq yulduz paydo bo'ldi-yu,
Fikrday yilt etib kechdi samodan.
Oddiy yigit edi, o'zbekdan chiqqan,
Jangari, to'pori, dermishlar, lekin
Nima qilsin edi, u kurash yoqqan
Olovlardan uzib olgan yuragin.*

O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov o'z xotirotlarida Usmon Nosir haqida fikr bildirib, «Usmon Nosir deganda biz kimni tushunamiz? U shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydirguvchi olovdir. Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasi

oqib ulgurmagan shabnamdir, u hali qahqahaga aylanmay, lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir. Uning she'rlari ko'z kabi tirik, jonli, tutqich bermas hayot poralaridir. Biz Usmon Nosirni qadrlaymiz. Chunki u she'riyatning tabarruk, muqaddas dargohida anvoyi bir chamandir, sira xazon bo'lmaydigan mo'jiza bog' yaratib ketdi» [5] deya aytib o'tadi. Bu fikrlar Xurshid Davronning she'rida ham tasdiq topadi. Ya'ni Usmon Nosirning yuragi olovday yoniq ekani, *“oddiy, o'zbekdan chiqqan, jangari yigit”* bo'lgani ta'riflanadi. Doimo olov qalbi bilan yashagani ta'kidlanadi.

*Tunlari she'r uzra egilar ekan,
Kekirdakka tig'dek qadalarkan jon,
O'zi qo'rqib ketar edi o'zidan –
Anglardi: har lahza yashashga imkon.
...Tunlari she'r uzra egilar ekan,
Ko'ksin to'ldirarkan yoniq bir ovoz,
Qog'ozga tutardi qalbin qo'rqmasdan,
Poroxday lov etib yonardi qog'oz.*

misralarida ana shu olovlikdan ba'zida o'zi-da qo'rqib ketishi, shu olov bir kuni uning o'zini ham mahv etishini bilganligi anglashinib turadi.

Shu o'rinda bir jihatga ahamiyat berish kerak, shoir aynan tunlari she'r yozish uchun kirishayotgani ajablanarli emasmi? Balki bu siyosiy tuzumning tazyiqlariga ishoradir, balki turmushning qiyinchiligidan faqatgina tunlari ortishiga ishoradir. Nima bo'lganda ham bularning barchasi shoirning kechinmalari va hayotiga tortilgan chizgilar sifatida talqin qilinishi mumkin. So'nggi baytda

*So'nggi dam changalin cho'zarkan qo'rqmay,
Zulmatga burgancha umr yo'lini,
Kuydirib yubordi shoir yuragi
Ajalning burishgan, sovuq qo'lini.*

deya she'r yakunlanadi. E'tibor qaratsak, she'r, asosan, olov va issiqlik elementlariga qurilgan. Bu esa bir tomondan isyonkorlik, ikkinchi tomondan sobiq Sho'rolar hukumatining sovuq va izg'irin kunlariga zidlik unga qarshi chiqqanlikni anglatadi. Usmon Nosirning o'zi ham

*“Olovdek lovillab dil yonur,
Baxtliman janlgarga yarasam!”*

deya xitob qiladi. Bu esa ham Xurshid Davronning qahramon ruhiy olamini nechog'lik yaxshi anglay bilganini, ham she'rlarida bu haqiqatni qay darajadi aks ettira olganligidan dalolat beradi.

Yaqin o'tmishda yashab o'tgan shaxslar hayoti, xarakter va kechinmalarini yoritib berishda Xurshid Davron, asosan, shu shaxslarning

jamiyatdagi o'rnini uning o'ziga xos sifatlariga e'tibor beradi. XIX asrning atoqli shoiri, mehribon hamda shogirdparvar ustoz Mirtemir Tursunov xotirasiga bag'ishlab yozgan *“Mirtemir xotirasiga”* [2, 14-bet] **she'rida ham nihoyat darajada nozik tuyg'u, ulkan badiiy kechinma va shoir Mirtemir tabiatiga xos xarakterlar ochib berilgan.**

*Shahar uzra yog'ilardi qor,
Tuyar edik muz nafasini.
Uzoqlarda kezardi bahor,
Biz yo'qotib qo'yganda seni.
Yig'ilishdik. Jiddiy va mahzun –
Ulg'ayganin sezdim do'stlarni.
Kuy oqardi g'am kabi uzun,
Qo'zg'atganicha dilda hislarni.
Dafndan so'ng qaytdik bukchayib,
Ezar edi ko'rinmas tobut.
Qor suvida yuzlarni chayib
Shivirladik: yurak, yodda tut!*

O'zbekiston xalq shoiri, Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti, Berdaq nomidagi Qoraqalpog'iston Davlat mukofoti laureati, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni sohibi Mirtemir Tursunov 1910-yil 30 mayda Turkiston shahrining Iqon qishlog'ida tug'ilgan. Adib Mirtemir o'zining «SHu'lalar qo'ynida» nomli ilk she'rlar to'plami orqali milliy o'zbek she'riyatini uchun yangi janr — sochma (nasriy she'r) janrini olib kirgan bo'lsa, «Surat» nomli lirik qissasi bilan 60—70-yillarda o'zbek she'riyatida doston janriga e'tiborning kuchayishi va lirik doston janrining kamol topishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mana shunday xizmatlari va shogirdlariga bo'lgan cheksiz hurmati va dilgirliги uchun ularning ehtiromiga sazovor bo'lgan Mirtemir vafotiga atab yozilgan she'rning yuqoridagi baytlari voqealar rivoji sifatida namoyon qilinadi. Bu voqea qish, sovuq va qahraton paytda sodir bo'lgani haqida ma'lumot beriladi. Shoir o'limi shogirdlarni nechog'lik iztirobga solgani, otasiz qolgan boladek tezda ulg'ayib qolishgani, hayotning azob-uqubatlarini tatib ko'rishgani yuqoridagi baytlarda tasvirlansa, keyingi baytlarda esa aytilmoqchi asosiy fikr yuzaga chiqadi. Oldingilari o'quvchini she'rdagi kuyunish va motam ruhiga solish vazifasini bajarib beradi.

*Shunda kimdir, kim u, esda yo'q,
Dedi g'amgin egganicha bosh:
“Tobutini ko'targan chog'im
Qabog'ida ko'rdim tomchi yosh.*

*Oh, do'stlarim, yuragim sezdi –
U kuzatar edi bizlarni.
Qaboqda yosh, u yig'lar edi,
Qiynab qo'ydim deya sizlarni".*

She'rninng so'nggi, ya'ni "Qaboqda yosh, u yig'lar edi, Qiynab qo'ydim deya sizlarni" misralariga nazar tashlasak, hatto sizlar tobutimni ko'tarib, aziyat chekdingiz, sizlarni qiynab qo'ydim deya muloyimlik qilishi Ustoz Mirtemirning qanchalar odamoxunligi, shogirdlariga qay darajada mehribonligi, uning hilm tabiati haqida bilib olishga imkon beradi. Tarixiy shaxs xarakterini ochib berishda tarixiy reallikdan unumli foydalaniladi. Filologiya fanlari doktori, professor Y.Solijonovning ta'kidlashicha, she'rda keltirilgan fikrlar haqiqatan ham rost va chindir. Mirtemir Tursunov hayotda ham o'z yaqinlari hamda shogirdlariga nisbatan samimiy ekani, ularga qo'lidan kelganча yordam berishi bor gap.

Aytish mumkinki, yozuvchi har qancha mahoratli bo'lmasin, boshqa millatdan chiqqan mashhur shaxslar haqida mukammal badiiy asar yoza olishi mushkul. Chunki, har bir millatgagina xos bo'lgan nozik tushunchalarni, aqida va qarashlarni faqat o'sha millatning vakiligina anglay oladi, yurakdan his etadi. Biroq mahoratli shoir Xurshid Davron bunday vazifaga ham qo'l urdi va buni katta mahorat bilan amalga oshirdi. Uning "Lorka o'limi", "V.G.Yan xotirasiga", "Vareshchagin" va boshqa ko'plab she'rlari shular jumlasidandir. Bularning ichida shoirning "Lorka o'limi" [2, 51-bet] she'ri diqqatga sazovordir. Chunki qalamga olingan shaxs ispan ozodlik harakati faollaridan biri Federiko Garsiya Lorka haqida yozilgan. Ushbu she'r ham o'zgachalik hamda she'rning boshlanish pallasidan Xurshid Davronga xos ravishda chiroyli va jumboqli satrlar bilan boshlanadi.

*Uni tongga tirab otdilar...
U yiqildi,
So'ng yana turdi
Va yoshgina,
Bukri bir askar
Qo'ndoq bilan boshiga urdi.
U jon berdi...
Askarlar esa
SHosha- pisha ortga qaytdilar,
SHarob ichib mungli qo'shiqni
Tun sukutin buzib aytdilar.*

E'tiborli jihati shundaki, ilk misraning o'ziyoq o'quvchi ongida urush davrini jonlantiradi. Uning vaxshati va zug'umini bor bo'yicha ochib berishga

uruniyadi. Ijodkorning mahorati esa “*tongga tirab*” jumlasida namoyon bo’ladi. Balki boshqa shoir bo’lganda “*Uni sahar payti otdilar*” yoki “*Uni quyosh chiqqach otdilar*” deyishi ham mumkin edi. Biroq Xurshid Davron o’z an’anasiga sodiq qoldi va jumlagi birozgina sirlilik bo’yg’idan qo’shadi. Bu bilan muallif tarixiy faktni badiiy to’qima yordamida real borliqdan badiiy olamga olib kiradi.

To’g’ri, badiiy to’qima ijodkor xayolida paydo bo’ladi, lekin unda haqiqatda yo’q narsalar yozilmaydi, balki mavjudlikka sentimental ruh kirgizib aks ettirishni nazarda tutamiz. Tasvirlanayotgan bosh g’oya, shaxs, hodisalarni harakatga kelishiga, voqealar rivojini izchilligi hamda mantiqiylikiga ta’sir o’tkazish uchun xizmat qilishi ham bor gap.

Misralardagi “*yoshgina, bukri bir askar*” satri ham balki to’qimalardan holi (bukri) emasdir?! Ammo muallif *yoshgina* hamda *bukri* so’zlariga sirlilik yashirgan. Yosh bo’lishiga qaramay urush, jang uni ham jismoniy ham ma’naviy bukri qilib qo’ygani, shu sababli ham u chalajon holdagi o’z vatandoshini qo’ndoq bilan urmoqda. Keying urg’uni *munqli qo’shiq* jumlasida oladi. Bu esa yosh askarlarning naqadar xorigani va jang ularning tinka- madorini quritgani yoritiladi.

*Bu qo’shiqda bulutni yorgan
Hilol cho’qqi uzra porlardi,
Bu qo’shiq qor ostida yotgan
Chechaklarni bo’zlab chorlardi.*

Keyingi misralarda qo’shiq nima haqidaligi ham sirlilik asnosida bayon qilinadi. She’rning yozilgan sanasini (1986- yil) e’tiborga olsak, davr siyosati, “ozodlik” haqidagi qarashlar hamda fikrlarning “tomog’idan olinishi” bunga sabab bo’lishi mumkin. Baytdagi “*bulutni yorgan hilol porlash*”i, “*qor ostida yotgan chechaklarni bo’zlab chorlash*”i misralarida jabr-zulm va adolatsizliklarga qarshi chiqish vaqti yetganiga da’vat yashiringan. Biroq fojia bu qo’shiqning qo’shiq bo’lib qolib ketanida ekani tasvirini ham sezish mumkin she’rdan.

Nihoyat, kuliminatsiya, ya’ni she’rning portlovchi va asosiy g’oya tashuvchi qismi so’nggi baytda beriladi.

*Qo’shiq kuylab,
Tuyib alamni,
Yosh askarlar sarmast edilar,
Shu qo’shiqni yozgan odamni
Otganlarin bilmas edilar...*

Xalqining ozodligi yo'lida kurashayotgan, uning ahvolidan kuyungan, o'zi ham ana shu xalq orasidan chiqqan yosh askarlar alamlaridan kuyib aytayotgan o'sha qo'shiqni yozgan insonni o'z qo'llari bilan otib tashlashgan edi. Bu esa xalq, millat fojiasiki, o'z ildiziga bolta urmoq bilan teng. Xurshid Davron mana shu kechinmani o'zidan o'tkaza oldi va buning maxsulini yuqoridagi fikrlarda tahlil qilib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хуршид Даврон, Шаҳардаги олма дарахти, Toshkent. 1979- yil.
2. Хуршид Даврон, Баҳордан бир кун олдин. Тошкент.: “Шарқ” 1997 йил
3. Тиллабоев С, Замонов А., Ўзбекистон тарихи, 9-синф учун дарслик/ - Т.: «Шарқ», 2010- йил
4. Хуршид Даврон, Болаликнинг овози. Тошкент: “Ғофур Ғулом” 1986-й.
5. Abdula Oripov, “O'zbekiston adabiyotiva san'ati” gazetasi, 1983-yil, 18-mart. Toshkent

Хуршид Даврон, Баҳордан бир кун олдин. Тошкент.: “Шарқ” 1997 йил

ID-020-30-A034

Davronbek Oripov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

DUNYO KEZAYOTGAN “ORZIGUL”

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli baxshi, O'zbekiston xalq shoiri Islom shoir Nazar o'g'li epik repertuarining bezagi hisoblangan “Orzigul” dostoni, uning dunyo xalqlari og'zaki ijodida mavjud bo'lgan variantlari, turdosh syujetlari, dunyo folklorida Orzigul epik qahramonining aks ettirish yo'llari haqida qisqacha to'xtalinadi hamda izohlanadi.

Kalit so'zlar: *folklor, baxshi, syujet, sayyor syujet, motiv, ertak, doston, qissa, millat, mentalitet, folklorshunos, qahramon, adolat, variant, genetik ildiz, konflikt.*

Annotation. This article briefly discusses and explains the epic “Orzigul”, which is the decoration of the epic repertoire of the famous bakhshi Islom Nazar, its variants in the oral tradition of the peoples of the world, related plots, ways of reflecting the epic hero Orzigul in world folklore.

Keywords: *folklore, bakhshi, plot, scattered plot, motive, fairy tale, epic poem, short story, nationality, mentality, folklorist, hero, justice, variant, genetic root, conflict.*

Epik san'at turlari ichida xalq og'zaki ijodi o'zining serqirraligi, jozibasi hamda nisbatan qadimiyligi bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi. Unda syujet, motiv, obraz, klishe, epitet singari janriy unsurlar bardavom ekani, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

Yaxshi ma'lumki, xalq og'zaki poetik ijodida sayyor syujetlar nazariyasi mavjud bo'lib, unga 1859-yili nemis faylasufi T.Benfey asos solgan. A.Pipin, V.Stasov kabi olimlar esa sayyor syujetlar dunyo xalqlari folkloridagi syujet, uslub, motiv hamda obrazlardagi o'xshash jihatlarni og'zaki va yozma yo'l,

yoxud ko'plab manbalardan tarqagani, bir xalq boshqa xalqdan o'zlashtirib olgan, degan qarashni ilgari surishgan.

Ularning fikricha, Yevropa, Osiyo mamlakatlari xalqlarining ertak, doston, matallarida uzoq o'tmishga ega hind xalqining folklori aks etgan. Nazarimizda, yuqorida nomi zikr qilingan olimlar folklor asarlarining boshqa xalqlar ichida tarqalishi, sayqal berilishi, yanada mukammallashtirishini biroz e'tibordan chetda qoldirishgan.

Shu ma'noda bir xalqda mavjud syujetning boshqa bir xalqda borligi, uning aynan ko'chirib olinganini anglatmaydi. E'tibor qilinsa, sayyor syujetlar qaysi xalq og'zaki ijodiga singgan bo'lsa, o'sha millat mentaliteti, ruhiyati, tipologiyasi va shu kabi unsurlar bilan boyigan. Fikrimiz dalili sifatida, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, yurtimiz hududida keng tarqalgan "Orzigul" dostoni syujetining qardosh xalqlar folklorini boyitgan sayyor syujetlari bilan qiyoslashga harakat qilamiz.

1938 yil atoqli folklorshunos Mansur Afzalov tomonidan O'zbekiston xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lidan yozib olingan "Orzigul" dostoni xalqona ohanglarga boyligi, yuksak insoniy fazilatlar, o'zbek qizlariga xos ibohayo, or-nomus kuylangani bilan boshqa dostonlardan ajralib turadi.

Zolim otasining yozuz niyatiga qarshi chiqib, qizlik nomusi uchun kurashgan, sevgan yori Suvonxonning yonida turib, dushmanga qarshi ot solgan, eng og'ir pallada ham zurriyodidan voz kechmagan, adolat uchun oxirigacha kurashgan Orzigulning ko'rsatgan qahramonliklari har qancha tahsinga sazovor.

Ustoz folklorshunoslar V.Jirmunskiy va H.Zarifovlarning fikriga ko'ra, ushbu dostonning epik syujeti O'rta Osiyo xalqlari orasida "xalq kitobi" yoki "Malikai Dilorom" sifatida keng ommalashgan. Uning tarixiy tub ildizlari qadimgi davrdagi nikoh hamda oilaviy marosimlarga borib taqaladi. [1. 147-bet].

Qayd etilganidek, xalq og'zaki ijodidagi epik motivlarning genetik ildizi, tag-tomiri olis o'tmishda ro'y bergan voqea-hodisalar, an'ana hamda urf-

odatlarga borib taqaladi. Fikrimizning isboti o'laroq, xalq og'zaki ijodi bilimdoni B.Sarimsoqov ham xalq eposi syujetining ravnaq topishida real voqelik talqini va badiiy shartlilik muhim o'rin tutishini ta'kidlagan edi. [2.27-bet].

Folklorshunos olim M.Jo'raevning fikricha, "Orzigul", "Dilorom" dostonlari, "Malikai Dilorom" qissasi Mag'rib hamda Mashriq xalqlari orasida keng urfga kirgan "sayyor syujetlar"dir. [3.18-bet].

Dunyo xalqlari ertakchilik an'analarida mavjud bo'lgan "Bardoshli Yelena", "Tuhmatga uchragan qiz", "Qo'lsiz qiz" kabi ertaklar yuqorida nomi zikr etilgan dostonlarga asos bo'lgani ta'kidlanadi.

Bunday tipdagi ertaklar o'z qiziga uylanmoqchi bo'lgan qabih ota hamda uning or-nomusi uchun kurashgan farzandi o'rtasidagi konflikt asosiga qurilgan yangi syujetni yuzaga keltirgan. Natijada, yurtimiz, umumuan Markaziy Osiyo mintaqasida "Orzigul", "Dilorom" dostonlari, "Malikai Dilorom" qissasi hamda ko'plab ertaklarning vujudga kelishiga sababchi bo'lgan.

Ayniqsa, mintaqamizda "Malikai Dilorom" ertagi anchayin mashhur bo'lgan. Uni rus sharqshunosi N.Ostroumov 1907 yili nashr ettirgani, unga bo'lgan qiziqishning naqadar katta bo'lganidan darak beradi. Quvonarlisi, hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida ushbu ertakning 8 xil varianti mavjud. Ushbu namunalar ichida "Birovga qilgan topadi" [4.1-3-bet]., "Zolim podsho" [5.1-12-bet]., "Malikai Ho'bon" [6.15-26-bet]. kabi ertaklar Islom shoir tomonidan sevib kuylangan "Orzigul" dostoniga hamda "Malikai Dilorom" qissasiga anchayin yaqin turadi.

Jumladan, "Malikai Ho'bon" ertagida zolim podshohning o'z qiziga oshiq bo'lishi, qizini bog' ichida ko'rib qolib, unga oshiq bo'lishi, Islom shoir variantini yodga solsa, qizining rad jaboviga qahri kelib, uni tandirda kuydirishni buyurishi, o'z qizi ekanligini bilgach ham, ahdidan qaytmasligi Dilorom epik qahramoni taqdirini eslatadi.

“Orzigul” dostonining ta’bir joiz bo’lsa, egizagi hisoblanadigan “Malikai Dilorom” qissasi ham dunyo kezgan epik asarlar sirasiga kiradi. Uning qo’lyozma hamda toshbosma nusxalari mintaqamiz xalqlari uchun juda tanish bo’lgan. Chunonchi, ushbu asar 1906-1916 yillar oralig’ida Toshkent hamda Buxoro shaharlarida yetti marta chop etilgan. [7.257-bet].

Shuningdek, bu qissa 1946 yilda “Melike Dilaram” nomi ostida turkman tilida, 1970 yili esa “O’n ikki muqom” to’plamida “Dilorom” qissasidan parchalar uyg’ur tilida chop etilganini qayd etish joiz.

Shu o’rinda yana bir gap. Shu tipdagi doston, qissa hamda ertaklarda dunyoning turli mamlakatu shaharlari, jumladan, Bag’dod, Kan’on, Ko’hi Qof (Kavkaz), Chin-Mochin (Xitoy), Mozori Sharif kabi nomlarning ko’p uchrashi, ushbu syujetning chindan-da, sayyor syujet ekanidan dalolatdir.

Darvoqe, atoqli baxshilarimiz Zohir Qo’chqor o’g’lidan yozib olingan “Tilla qiz”, Umir shoir Safarov kuylagan “Moyguliston”, Chori baxshi Umirov repertuaridagi “Mohiguliston”, Rahmatulla Yusuf o’g’lidan tarixga muhrlangan “Qorakokil” dostonlari o’zining syujeti, motivlari, mavzu yo’nalishi, obrazlar tizimi bilan “Orzigul” dostoni epik syujetiga hamohangdir.

Bundan tashqari, ushbu epik syujetni yodga soluvchi yana epik asarlar ham mavjudki, ularni izchil o’rganish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, jahon xalqlari og’zaki ijodida tadqiq etilmagan o’xshash asarlar bilan qiyosiy o’rganish lozim. Ushbu mavzuni bitta maqolada to’laqonli ochib berish, tahlil etish, qiyin masala albatta. Shu bois, ezgu rishtalar tarannumini kuylagan, bashariyatni halollikka, poklikka hamda adolat tamoyillari uchun kurashga chorlagan bunday epik asarlar sizni biz, umuman, jahon afkor-ommasi uchun suv va havodek zarur. Zero, tub ildizlari, kelib chiqishi, urf-odatlari va ajdodlarini bilgan, anglab yetgan millat, davlat o’z oldiga qo’ygan ezgu maqsadidan hech qachon chalg’imaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жирмунский В.М, Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. М.: ОГИЗ, 1947. — С.147.
2. Саримсоқов Б. “Орзигул” достони юзасидан бир неча қайдлар//Ислом шоир ва унинг халқ поэзиясида тутган ўрни. — Тошкент: Фан, 1978. — Б.27-36.
3. Ислом шоир Назар ўғли. Орзигул. Эзгуликнинг ойдин қўшиғи. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 12 жилд. “Гафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи”. Т.: 2018. Б 18.
4. ЗЎФА. Инв. №1974. С.Умаров Бухоро вилояти Тегузар қишлоғилик Муҳтарама Раҳимовадан ёзиб олган.
5. ЗЎФА. Инв. №1682/6.п/п.17.Д.4. — Б.1-12. З.Қўшоқова Наманганлик Хумайро Раҳматулла қизидан ёзиб олган.
6. ЗЎФА. Инв. №1682/12.п/п.23.Д.2. — Б.15-26. Т.Ғозибоев Наманганлик Муйбахон Мирзаевадан ёзиб олган.
7. Маҳмудова Р. Халқ китоблари ва айрим қиссалар//Адабий мерос. — Тошкент, 1971. — Т.2.-Б.257.

ID-020-30-A035

Nurjahon Qayumberdiyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

“O'TKAN KUNLAR”DAGI SHE'RLAR BADIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada romanchiligimiz asoschisi Abdulla Qodiriyning mustaqil she'rlari va nasriy asarlarida keltirilgan she'rlar xakida fikr yuritiladi. "Utkan kunlar" romanidagi she'rlar talqini keltirilgan. Asardagi misralar muallifning goyaviy-badiiy maqsadi bilan uyg'unligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ruhiyat, mustaqil she'r, ijodiy kamolot, she'riyat muhri, shoirlik yorlig'i.

Annotation: In this article discusses the poems founder of Uzbek novelism Abdulla Qodiri. Reflects his independent poems and poems in prose works. Interpretation of the poems in the novel "Days gone by" is given. The verses quoted in the play illuminated by the author's ideological purpose.

Keywords: psyche, independent poem, creative maturity, the seal of poetry, poetry label.

Nosirlik va shoirlik Abdulla Qodiriy ijodida bir-birini to'ldirgan. Ikkinchi yo'nalishdagi ijodi haqida kam gapiriladi. Bunga sabab she'rlarining romanlari soyasida qolganligidir, balki.

Romanlaridagi g'oyalarning quyilish o'zanini izlasak, shubhasiz, she'rlariga duch kelamiz. Nazmidan boshlangan bu jilg'alar nasrida daryoga aylangan bo'lsa, ajabmas. Birinchi she'ri "Ahvolimiz"da na adab, na fandan boxabar, g'aflatda yotgan xalq ahvoli haqida gap ketsa, "Millatimga bir qaror" she'rida taraqqiyotdan uzoqlikning yagona sababi ilmsizlik degan xulosani beradi. To'ng'ich romani "O'tkan kunlar"da bu mavzularning kengaygan tasvirini, sabab-oqibatlarini ko'ramiz.

Adabiyotshunos Sobir Mirvaliev Qodiriy she'rlarini xarakteriga ko'ra ikki toifaga ajratadi: mustaqil she'rlari va nasriy asarlari ichida keltirilgan she'rlar. S. Mirvaliev mustaqil she'rlaridan ko'ra nasriy asarda qo'llanilganlarining son jihatidan ham, sifat jihatidan ham ustunligini ta'kidlaydi [9]. Bu kaftday ravshan, albatta. Chunki romanlarida qo'llanilgan she'rlar adib ijodining kamolotga erishgan pallasida yozilgan.

“O'tkan kunlar” romanida besh o'rinda she'r keltiriladi (yaxlit she'r bo'lmasa-da, qofiya va shaklga solingan misralar). Qodiriyga zamondosh, suhbatdosh bo'lgan shoir G'ayratiyning yozishicha [10], Kumushning qabrtoshiga adib birinchi Fuzuliydan ikki bayt yozadi. Asarni tugatganidan so'ng “Mushtum”dagi hamkasblari o'qib chiqib, hamma she'rlar o'ziniki bo'lgani ma'qulligini aytgan. Keyin o'zi to'rtlik yozgan. Shu ma'lumotga tayansak, romanda keltirilgan barcha she'rlar muallifning o'ziga tegishli.

Birinchi she'r “Qizlar majlisi”da Gulsin va Xonimbibi tomonidan aytilgan. Lekin Kumush ruhiyatiga ko'zgu tutadi. Uni shunday holatda kuzatamiz: ustidagi sarpolarini muborak qiluvchilarga eshitar-eshitilmas “qutlug” deb qo'yadi, xuddiki armon kiyimini qutlug' qilayotganday. Ko'ngliga chiroq yoqsa yorishmaydigan siniq bir holatda, jism daraxtidan qushday uchib ketgan ruhi yetib bo'lmas manzillarga intilayotgan bir paytda:

*O'rtoqlarim, qo'lga olsam torimni,
Beixtiyor yodlaydirman yorimni [7.30-bet].*

ijrosi o'ylariga til bitib bergandek “bir seskanadi”. Baytdan baytga sirli o'y fosh bo'lib boradi:

*Bir ko'rinib yag'mo qilgan ko'nglimni
Qaytib yana ko'ralmadim norimni! [7.31-bet].*

Endi dardlar ko'zlariga oqib kela boshlaydi. O'tkinchi bo'lgan xayoldan ilinj axtaradi:

*Agar ko'rsam edi yana yorimni
Bag'ishlardim hama yo'q-u borimni. [7.31-bet].*

Hali umidi sobit. Yana ko'rganida balki hozirgidek ko'zyoshlariga suzib o'tirmagan bo'lar edi. Shu lahzada yana bir o'y chaqnaydi:

*Bilurmikin, bilmasmikin u zolim,
Kunlar-tunlar tortqan oh-u zorimni.[7.31-bet].*

Basharti o'zi "hama yo'q-u bori"ni bag'ishlaganda ham "u zolim" ohu zorlarini bilarmidi, yo'qmi... Umid cho'g'lari sekin-sekin kulga aylanmoqda. Ishongisi kelmay endi o'rtoqlariga najot murojaati:

*Chindan ayting, o'rtoqlarim, menga siz
Qayta boshdan ko'ramanmi yorimni?![7.31-bet].*

Hammasi xayoligini o'rtoqlari ham tasdiqladi go'yo, endi taskin qolmadi:

*Ketdi toqat, ketdi sabrim... ketdilar...
Sindirarman urib yerga torimni! [7.32-bet].*

Kitobxon ilk tanishgandagi Kumushning betobligidan to shu kungacha hech kim bilmagan dardi, yig'lashlarining siri shu yerda ochiladi. Nimadir bo'lgani, o'z-o'zidan bunchalik yig'lamagani anglashiladi. Lekin hali "sirli ariq bo'yi" noma'lum. Muallif she'r orqali Kumush ruhiyatidagi "kutilmagan baxt" gacha bo'lgan silsilalar bilan tanishtiradi.

Keyingi qo'shiq Otabek bilan tabiat safariga chiqqan hamrohi Ali tomonidan kuylanadi. Marg'ilondan qaytgan "xayrihoh qotil" Otabekning borishini ham bilmay, kelguvchini kutib kunlari qorong'ulikka cho'kayotgan holati aks etadi:

*Ko'zlarim yo'l ustida, kelmadi yor,
Ushbu keng dunyo ko'zimga bo'ldi tor.
Qay qaroqchi oldi yorimning yo'lin,
Mundagi baxtsiz yigit yo'l uzra zor[7.164-bet].*

Sodda tuzilishidan aytish mumkinki, ijrochining o'sha paytdagi tabiat chiroyidan jo'shgan ilhomi natijasi. Bu Otabekka o'z kechinmalarini aytib berayotgan edi. Entikkan ko'yi takrorlab qo'yadi: "ko'zlarim yo'l ustida kelmadi yor, qay qaroqchi oldi yorimning yo'lin..." Uning shubhasi endi faqat yo'l

to'sajak "qaroqchilar"da edi. Diydor yo'llarida qaroqchi-buzg'unchilardan boshqa to'siq qolmaganday tuyulardi unga.

Keyingi keltirilgan qofiyali misralar Otabekning shu qora kunlariga xotima bo'lgan Kumushbibining maktubdagi so'zlari:

*Erta-indin ko'zimga yo'l ko'rinur,
Yo'l bosishliq ko'ngilga bir umr ko'rinur [7.172-bet].*

Maktub so'ngida keltirilgan bu misralardan muallifning ikkita maqsadi ayon bo'ladi: birinchisi Kumushning maktub bayonida aytib o'tilmagan kelish vaqti bo'lsa, ikkinchisi erta-indingi yo'l ham ko'ziga bir umrdek uzun ko'rinayotgani. Ikkilik maktub mazmunini to'ldirishga xizmat qilgan.

Qo'qonliklar qirg'inidan so'ng Toshkand qo'rg'onidan shunday qo'shiq eshitiladi:

*Zamoning zamon bo'lsin – yor,
Azizbeking omon bo'lsin – yor,
Dardiga darmon topmay – do'st,
Normating yonib o'lsin – yor[7.45-bet].*

Bu paytda qardosh bo'lgan ikki yurt o'zaro hasad va nizo havosidan nafas olmoqda edilar. Birisining azasini boshqasi to'y qilib qarshilaganligi kuylanyapti. Birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralar oxirida "yor" so'zlari takrorlanib, xursandchilik ohangini bergan. Uchinchi misradagi "do'st"i bo'lgan Normatga o'lim tilashi ijro bilan berilmoqda. Bu qardosh Toshkand va Qo'qon o'rtasida o'sha paytdagi qirpichoqlikning she'rdagi bir lavhasi.

Oxirgi she'r Kumush qabrtoshidagi bitiklar:

*Ayo charx, etding ortuq jabr bunyod,
Ko'zim yoshlig', tilimda qoldi faryod.
Hayotim lolazoridin ayurding,
Yoqib jonim, kulim kokka sovurding[7.210-bet].*

Misralar Kumushning so'nggi so'zlaridek tuyuladi. Hayoti lolazor tavsifi bilan berilgan. Lolazorning umri qisqa, u endi ochilib ko'z quvnatganida to'kilishga mahkum bo'lgan latif manzara. Kumushga qiyoslanishining ramzi

shunda. Yana bir tomoni bu misralar Otabekning tilidan aytilganda ham o'rinli. Kumushning o'limidan keyin Otabek ko'nglidan nima o'tganligi so'zda bayon qilinmay, holatini qabr yonida "ko'z yoshisi bilan tuproqni loy qila ber"ganidan his qilamiz. Ayanchli ishqqa bag'ishlangan marsiya bu!

Akademik Naim Karimov shunday yozadi: "Bu toshbitikda faqat musibat alamida qovrilgan insonning faryodigina yemas, ulkan va haqiqiy she'riyatning muhri ham tovlanib turibdi. Abdulla Qodiriy shu satrlarning o'zi bilanoq buyuk shoir yorlig'ini olishi mumkin" [11]. A.Qodiriy adabiyotimizda ham adiblik, ham shoirlik ham publitsistlik, tarjimonlik yorlig'lari bo'lgan faxrli adibimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулла Қодирий замондошлари хотирасида (нашрга тайёрловчи Х. Қодирий). Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
2. Алиев А.Маънавият, қадрият ва бадиият (Ватан фидойилари). Т:"Академия" 2000.
3. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур (илмий монография). Т: "Академнашр" 2014.
- 4.Каримов Н. XX аср адабиёт манзаралари. 1-китоб. Т: "Ўзбекистон" 2008.
5. Мирзаев И. Абдулла Қодирий ижодий эволюцияси. Т: "Фан" 1977.
6. Қодирий А.Тўла асарлар тўплами.1-жилд. Т:, Фан, 1995.
7. Қодирий А. Ўткан кунлар. Т:, Наврўз, 2019.
8. ҚодирийХ. Отамдан хотира. Т:, Янги аср авлоди, 2005.
9. Mirvaliev S. Abdulla Qodiriy. Fan, Toshkent, 2004.
10. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. To'plam . Yangi asr avlodi, 2005.
11. Naim Karimov. Adabiyot manzaralari. O'zbekiston, Toshkent, 2004.

ID-020-30-A036

Akmal Ikromov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

OYBEK ASARLARINING YANGICHA TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yetuk namoyondasi, shoir, nosir, tarjimon, munaqqid, akademik Oybek asarlarining sotsiologik talqinlari haqida qisqacha fikr bildirildi. Jumladan, Oybek asarlarida tarixiy davr, xalq ruhi, badiiy voqelik, hayotiy realizmning uyg'unlik jihatlari hamda obraz yaratish mahorati, so'z kuchi haqida qisqacha to'xtalib o'tildi.

Kalit so'z: *tarixiy davr, xalq ruhi, badiiy voqelik, hayotiy reallik, sotsiologik talqin, badiiy obraz, biografik metod, badiiy so'z mahorati.*

Annotation: This article provides a brief overview of the sociological interpretations of the works of Uzbek literature by Oybek, the poet, publisher, translator, critic and academician. In particular, in the works of Oybek, he briefly touched on the historical period, folk spirit, artistic realities, harmonious aspects of life realism and the power of word formation.

Keywords: *historical period, folk spirit, artistic reality, life reality, sociological interpretation, artistic image, biographical method, artistic skills.*

Asrlar davomida adabiyot insoniyat bilan birga yashadi. Uning orzu-umidlari, his-tuyg'ulari, qiyinchiliklar, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar – hammasi unda aks etdi, odamlar dardiga malham bo'ldi, ularni ezgulik sari yetakladi.

Adabiy hodisalarning o'ziga xos tabiati Aflotun, Arastu, Gegel zamonlaridayoq qayta-qayta ta'kidlangan bo'lsa-da, o'tgan asr boshlarida o'sha azaliy haqiqatni tasdiqlash anchagina fikriy ziddiyatlar, mafkuraviy-siyosiy

bo'hronlar bilan kechdi. Oybek o'z ijodiy yo'lidagi ana shu o'nqir-cho'nqirlarni nazarda tutib: "Mening birinchi she'rlarimda qarama-qarshiliklar, izlanishlar hali ko'p edi. Zamonaning eng muhim voqealariga javoban yaratilgan she'rlar bilan bir qatorda - mungli nido bilan sug'orilgan, mavhum, tushkunlik ruhida yozilgan she'rlar ham bor edi" [1, 416-b] – deb yozgan edi. Shoirning "Kuz va qiz", "Qish kechalari", "Xotiradan izlar", "Farg'ona oqshomi", "Ayriliq va darvesh", "Sharq uchun", "O'zbek eli" kabi she'rlari "tushkunlik ruhida yozilgan" asarlardandir. Ularda mungli nido alomatlarining uchrashi o'sha davr hayotida mavjud bo'lgan haqsizlik va ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilikning o'ziga xos ifodasidir.

Oybek yoshligidanoq haqiqatni yozish, xalq ruhiyatini haqqoniy aks ettirish yo'lidan borgan. Oybek o'z taqdirini xalq taqdiri bilan mahkam bog'laydi, tinmay izlanadi, hayotni sinchiklab o'rganadi. Biroq uning zamonasozlik ruhida yozilgan asarlari ham yo'q emas. 1928 yilda:

"Og'aynilar! Davrimizni qalbgga solganman.

Cho'llardagi sarob izni anglab olganman.

Kurashadi ikki to'liqin qarab turaymi?" [1, 136-b], – deb xitob qilishi ("Tovushim") shoirning sho'rolar pozitsiyasini ma'qullaganidan dalolatdir.

Adabiy hodisalarni anglash mashaqqati bir-birini taqozo etuvchi tushunchalardir. Binobarin, san'at asari ham fikrga, ham tuyg'uga ta'sir qilish qudratiga ega. Biroq Oybek fikricha, badiiy adabiyot ijtimoiy g'oyalar, hayotiy muammolarni ifoda etish orqali xalqni jipslashtirish, davrga xizmat qilish ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi. Bu talab, umuman, o'sha davr adabiyoti uchun xarakterli bo'lib, badiiy adabiyotni hayotni dinamik o'sishda ko'rsatish, g'oyaviy pishiq, konkret va moddiy xarakterdagi obrazlar yaratish sari yo'naltirdi.

Adibning nasriy asarlarida badiiy voqelik, hayotiy realizmning uyg'unlik jihatlari hamda obraz yaratish mahorati, so'z kuchi haqida atoqli munaqqid Ozod Sharafiddinov : "Muallifning mahorati shundaki, u Yo'lchi obrazini tasvirlashda romantik chizgilar va ranglarni bemalol ishlatishdan

cho‘chimaydi, lekin ayni chog‘da hech bir nuqtada realizm qonunlaridan biron marta ham chekinmaydi. Natijada mardlik, tantilik, ma‘naviy yuksaklik, jasorat, teran aql-idrok, oliyanoblik kabi sifatlar g‘oyatda hayotiy tarzda tasvirlanadi. Umuman, tabiiy shaklda namoyon bo‘ladigan hayotiylik muallif uslubining yetakchi fazilatini tashkil qiladi. Natijada Yo‘lchi shunchaki bir shaxs sifatida emas, butun o‘zbek xalqining timsoli sifatida gavdalanadi” [3] – deya asosli fikr bildirgan.

Anglashiladiki, biografik metod nuqtai nazaridan olib qaraganda Oybekning hayoti she‘rlarida mujassam, jumladan, “Yotma, o‘g‘lon, uyg‘on, ko‘z och, uxlama”, “Abadiy yashamoq, kulmoq istayman”, “Kurashadi ikki to‘lqin, qarab turaymi?”, “Assalom, Navoiy!”, “Gulxanga otdilar do‘stlar kitobim”, “To‘yib yozajakman bir kun sog‘aysam”, “Ko‘nglimda haqiqat bir oz so‘nmadi...”, “Koinot ertaga bitmaydi...” Ushbu satrlarida uning tarjimai holi singib ketgan. Yuqoridagi jumlar adib Oybek hayot yo‘li va badiiy ijodining ko‘zgdagi aksi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, “Biografik metod badiiy asarni muallifning hayot yo‘li kontekstida o‘rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o‘rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko‘ra, biografik metod asarga muallif tomonidan yuklangan mazmunni anglashda yetakchi ahamiyat kasb etadi” [5, 462-b]. Oybekning lirikada ob‘ekt va sub‘ekt muallif shaxsida uyg‘unlashishi, uning tasvir prinsipini his-tuyg‘u va kechinma belgilashi, adabiy tur sifatidagi emotsional to‘yinganligi haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘z qimmatini to‘la saqlab kelmoqda. Oybek badiiy adabiyotda Yanis Risos ta‘biri bilan aytganda: “Asl shoir yolg‘iz kurashchi bo‘lib tuyulsa-da, aslida u ommaviy kurash ishtirokchisidir”. Shubhasiz, Oybek asarlari sotsiologik tahlil metodi bilan tahlil qilinganda badiiy asar voqeligi bilan real voqelik munosabatlari, uning tarixan haqqoniylik darajasi, hayot haqiqati bilan badiiy haqiqatga bo‘lgan munosabati aks etadi. Va bu yondashuv adib asarlarining g‘oyaviy-mafkuraviy tomonlarini, qahramonlarning xarakter

xususiyatlari, asardagi konfliktlar tabiati, obrazlar tizimi kabi unsurlarning tub ijtimoiy ildizlarini ochib beradi.

Ma'lumki, falsafaning eng muhim kategoriyalaridan biri bo'lgan dunyoqarash olam va odam haqidagi bir butun qarashlar va g'oyalar tizimini yaratadi. Insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rni, mohiyati, hayotiy yo'nalishi va o'zligini anglashini dunyoqarashdan tashqarida anglash mushkul. Biroq ijtimoiy dunyoqarash insonning sog'lom aql-tafakkuri rivojiga mos kelmog'i lozim. Afsuski, ijtimoiy reallik haqidagi tushunchalarga dunyo manzarasini sinfiylik asosida izohlash singdirilgan sho'ro davrida adabiy hodisani real hayotga keskin bog'lashga intilish kuzatildi. Bu hol dunyoqarash muammosiga sinfiy yondashuv bilan bog'liq tarzda kechdi. Zero, adibning "Adabiyotimizning haqqoniyligi qahramon xalq yaratayotgan mazmundor, baxtiyor hayotni kuylashligidadir" [1, 76-b] Demak, voqelikning ijtimoiy-tarixiy izohlari to'g'ri o'zanga tushadi. Oybekning asarlari xoh u lirik, xoh epik bo'lsin yozilgan davr rasmiy mafkurasi mehnat va mehnat kishisini ulug'lashni maqsad qilgani holda, uning o'z-o'zini anglashi, milliy g'ururi va milliy ongi qay tarzda shakllanishini oldindan belgilab bergan edi. Adabiyot hayotni jonli va umumlashgan obrazlarda tasvirlasa, badiiy teran, fikr hisga to'yingan bo'lsagina, kitobxon fikr va tuyg'ulariga ta'sir qilishi, uning ma'naviy-ruhiy olami hamda badiiy didini yuksaltirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 1-том. –Т.1975.
2. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 18-том. –Т.1975.
3. Шарафиддинов О. Миллатни уйғотган адиб \ \ Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси – Т.: 2004.
4. Қаяумов А. Академик Ойбек. – Т.:Тошкент ислом университети, 2005.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari – Т.: Akademnashr, 2019.

ID-020-30-A037

Xurshida Rahmonova

Mustaqil tadqiqotchi

XURSHID DO'STMUHAMMADNING "VASIY" HIKOYASIDA BADIY-PSIXOLOGIK TASVIR VOSITALARI

Annotatsiya. Ma'lumki, san'at va adabiyotda hayot obrazlar vositasida aks ettiriladi. San'at asari, ulardagi badiiy obrazlar inson his-tuyg'ularini tarbiyalaydi, uning aql-idrokini takomillashtiradi. Ushbu maqolada iste'dodli adib Xurshid Do'stmuhammadning "Vasiy" hikoyasidagi obrazlar tabiati tahlil qilingan. Obrazlar tabiatini vujudga keltiruvchi milliy xarakter, badiiy-psixologik vositalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *badiiy obraz, milliy xarakter, reallik va xayolot, hayotiy va psixologik to'qnashuv, ruhiy xasta ayol, qahramon ruhiyati, ichki hayajon, yuzdagi ifoda, sukunat, badiiy-psixologik tasvir.*

Annotation. It is well known that in art and literature, life is reflected through images. A work of art, the artistic images in which nurture human emotions, improve his intellect. This article analyzes the nature of the characters in the story "Vasiy" by the talented writer Khurshid Dostmuhammad. The national character, artistic and psychological means that create the nature of the images are studied.

Keywords: *artistic image, national character, reality and fantasy, life and psychological conflict, mentally ill woman, heroic psyche, inner excitement, facial expression, silence, artistic-psychological image*

Voqelikni obrazli tarzda aks ettirish adabiyot va san'atning asosiy belgilaridan biridir. Ijodkor hayotni kuzatadi, kuzatgan voqealarini tafakkur olamidan o'tkazadi, qalbida his qiladi, ularni qayta ishlab, yana jonli hayot

shaklida yaratadi. “San’atda voqelik ijodkorning estetik qarashlari, prinsiplari va ideali orqali ijodiy idrokidan o’tganligi, binobarin, o’zgartirilganligi sababli unga nisbatan “badiiy” aniqlovchisini qo’shib ishlatamiz. Bevosita mana shu xususiyati tufayli san’at asari, ulardagi badiiy obrazlar inson his-tuyg’ularini tarbiyalaydi, uning aql-idrokini takomillashtiradi. Demak, san’atdagi obraz va obrazlilikning asosini ijodkorning voqelikni hissiy-aqliy idrok etishi, qayta ijodiy gavdalantirishi tashkil etadi”[4, 5-bet]. Badiiy adabiyotda obraz yaratuvchi asosiy va yagona vosita so’zdir. Lekin badiiy adabiyotdagi so’z oddiy so’z emas, balki insondagi muayyanhis-tuyg’uni, holat va harakatni, o’y va kechinmani o’zgalar qalbiga, shuuriga ta’sir etadigan darajada ifodalaydigan so’zdir. Iste’dodli adib Xurshid Do’stmuhammad o’z asarlarida badiiy obraz yaratar ekan, ularning ma’naviy saviyasiga, milliy ruhning ifodalanishiga alohida e’tibor qaratadi. Uning aksariyat asarlarida o’zbek xalqiga xos fazilatu kamchiliklar borligiga guvoh bo’lamiz. Adib ijodi haqida adabiyotshunos Shuhrat Rizaev shunday deydi: “Xurshid Do’stmuhammad yangilikka ehtiyojmand poetikaning keng miqyosli iqlimida faqat o’z uslubiga tegishli turli adabiy tajribalar o’tkazar ekan, reallik va xayolotni, murakkab hayotiy va psixologik to’qnashuvlarni asosan hissiy shaklda ifodalashga ko’proq qiziqadi, badiiy tasavvur, ong va ong osti jarayonlari bilan muttasil o’zaro hamkorlikda ishlaydi, tasavvurida paydo bo’lgan holatni makon va zamonda to’xtatib qo’yib, uni har tomondan chuqur o’rganish va ifodalash uchun muntazam intiladi, natijada botiniy va zohiriy mantiqning jozibaviy ko’lamini belgilash, moddiy va ruhoni dunyo chigalliklari va o’zligini tushunish harakati yagona shuuriy prizmada yig’iladi”[6, 163-bet]. O’zbek adabiyotimiz va jahon adabiyoti sirlaridan voqif bo’lgan Xurshid Do’stmuhammad zamondosh obrazini yaratishda ham, tarixiy shaxs obrazini yaratishda ham umumbashariy va milliy qadriyatlar talabidan kelib chiqadi. Bir zum u yaratgan obrazlar tasviriga qaraymiz. “Qazo bo’lgan namoz” hikoyasida Mirkomilboy, “Yolg’iz” qissasida Abdulla Qodiriy xarakterida ham milliy, ham umumbashariy qadriyatlarni o’zida mujassam etgan tarixiy shaxs obrazini, “Vasiy ” hikoyasidagi yigit

xarakterida esa sof milliy ruh bilan yo'g'rilgan obrazni uchratamiz. Yigitdagi mardlik, opasiga mas'ullik, tug'ishgan birodarini har qanday injiqliklariga sabr-bardosh bilan g'amxo'rlik qilish hissi faqat o'zbek farzandlariga xos ekanligini ko'rsatib bergan. Madaniylik va milliylik ma'lum muhitda tanlangan obrazlar qiyofasida, ularning ichki olami tasvirida ko'zga tashlanadi.

Adibning "Vasiy" deb nomlangan hikoyasi uning boshqa hikoyalaridan bir muncha farqlanadi. Hikoya qahramoni hayotdagi aksariyat odamlar singari sog'lom emas, ya'ni u ruhiy xasta ayol. Ruhiyati xasta odam siz-u biz ko'rib turgan olamdan tashqari boshqa olamlarda ham yashaydi, ularning dunyosini his qiladi. Shu nuqtayi nazardan, bu ayolning kechinmalarini ifodalash ancha murakkab jarayondir. Ammo adibga bu narsa qiyinchilik tug'dirmagan. Ushbu hikoyadagi ruhiy xasta ayol obrazi keyinchalik Xurshid Do'stmuhammadning "Kuza..." qissasidagi Umidning opasi obrazida kengaygan shaklda tasvirlanadi. Ya'ni obraz ko'chadi. Har ikkala holatda ham ruhiy xasta opaga qarash, unga g'amxo'rlik qilish mas'uliyati ukaning zimmasiga yuklangan. Uka obrazida milliy ruh, milliy xarakterning bir ko'rinishi tasvirlanganiga guvoh bo'lamiz. "Vasiy" hikoyasida real hayotda ro'y beradigan, ammo inson aqli, ilmi o'jizlik qiladigan hodisalar va shu hodisalarni o'z boshidan o'tkazayotgan insonlar ruhiyati, tahlika, qo'rquv og'ushida yashashi, o'sha oraliqda vahima bosib yolg'izlik jabrini tortishi badiiy-psixologik vositalar yordamida yanayam yorqinroq tasvirlangan. "Nogahon yo'lak tomondan nimadir "shapp" etdi. Juvonning yo'rgakni siypalayotgan qo'llari asabiy qaltiraydi. To'satdan hushini yo'qotgan odamday rangi quv o'chdi, labini qimtib bir pas tin oldi" [1, 327-bet]. Yuqoridagi tasvirda yozuvchi yuzda aks etgan qo'rquvni, vahimani "rangi quv uchish" hamda "qo'llarning qaltirashi" bilan tasvirlaydi. Qahramon ruhiyatini bunday nozik tasvirlar bilan berish o'zbek hikoyanavis adibi Abdulla Qahhor asarlarida ham uchraydi. Yuzda aks etgan olamni yozuvchi "yuzning oqarishi", "yuzning qizarib ketishi" vositasi bilan ifodalaydi. "Kampirning rangi oqargan, ko'z atrofi qizargan, chakka tomiri chiqqan edi" ("Asror bobo" hikoyasi).

“Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko‘rib xotini qo‘rqib ketdi –bu qadar oqargan” (“Anor” hikoyasi)

Abdulla Qahhor “Asrorbobo” hikoyasida farzand dog‘ining og‘ir qayg‘ularini boshidan kechirayotgan Asrorqulning dardlarini uzundan uzoq gapirmasdan, yuzdagi bir-ikkita ifodalar bilan tasvirlab qo‘yaqoladi. “Lekin xo‘p ozibdi, qorayib ketibdi” (“Asrorbobo hikoyasi”). Lekin Xurshid Do‘stmuhammadda “qorayib ketish” iborasi yo‘q. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi psixologik tasvir haqida adabiyotshunos A. Alimuhamedov shunday deydi: “Personajlarning yuzi bamisoli ularning ichki hayajonlarini akslantiruvchi bir “ko‘zgu” rolini ado qiladi... Abdulla Qahhor hikoyalarida kuchli hayajon yolg‘iz yuzga urgan bo‘yoqlar yordami bilangina emas, balki ko‘p mahal jamiki a‘zolarning ishtiroki, ya‘ni “titrash”, “qaltirash” vositasi bilan ham tasvir qilinadi”[7, 55-57-b]. Xurshid Do‘stmuhammad ham personajlar ruhiyatidagi xavotirni, xijolatlikni, qayg‘uni yuzdagi ifoda bilan birgalikda oyoq-qo‘llari orqali ham ifodalaydi. Ruhiiy xasta opa o‘zining telba-teskari harakatlari bilan yigitni, ya‘ni ukasini ancha qo‘rqitib qo‘ygan. Ukasini ko‘rgan mahali, ba‘zida aqli joyiga qaytganida xijolat tortib, o‘zini aybdor sanardi. Mana shunday vaziyatdagi ayol ruhiyatini muallif uning yuzidagi va qo‘l-oyoqlari harakati orqali ifodalaydi. “Juvon oynani uzoq tozalaydigandek bir maromda harakat qilayotganida yigitni ko‘rdi. Rangi quv o‘chdi, oyoq-qo‘li bo‘shashib, narvonga holsiz suyandi, oyna artayotgan lattasi cho‘zilib osilib qoldi. Keyin o‘zi imillab tusha boshladi”[1, 329-bet]

Adib ushbu hikoyasida kuchli hayajon, qahramon ichidagi xavotirni, qo‘rquvni ifodalashda jamiki a‘zolarning ishtiroki, ya‘ni “titrash”, “qaltirash” vositasi orqali ham tasvirlangan. “Yigit dag‘-dag‘ qaltiragan qo‘llari bilan narvonni tutgan chog‘ida juvon muvozanatini tikladi” [1, 328-bet]. Shu hikoyadan yana bir misol “...poygakda turgan yigit uy ichiga otilib kirishdan o‘zini ba‘zo‘r tiydi. Holsizlanib, eshik kesakisiga suyanadi. Uning oyoq-qo‘lidan majol ketgan, asabiy qaltirar, lekin ko‘zlari hamon sergak, hushyor ham mehrli boqar edi”[1, 330-bet].

“Sukunat eng og‘ir ruhiy holatning ifodasidir” [7, 54-b]. Adib Xurshid Do‘stmuhammad ham “Vasiy” hikoyasida yigit qalbidagi xavotir, qayg‘uni ifodalashda sukunat, indamaslikvositasidan foydalanadi. “... nimjon, maykachan, sochlari to‘zg‘igan rangpar yigit miq etmay unga mo‘ltayib turaverdi” [1, 329-bet]. Hikoya ruhiyatidagi maxzun kayfiyatni, xavotirni kitobxonga singdirishda yozuvchi voqelik jarayonini ham sukunatli tasvirlaydi. “Shu alfozda juvon hovli etagiga bordi. Oshxonaning orqa tomoniga burilib ko‘zdan yo‘qoldi. U talay fursat ko‘rinmadi, sharpasi ham sezilmadi. Hovliga xavotirli sukunat cho‘kdi”[1, 327-bet]. Tasvirdagi bunday holat ruhiyatdagi qo‘rquvni, tushkun kayfiyatni quyuqlashtirishga xizmat qilgan.

Tong ezgulik, yorug‘lik timsolidir. Tunda bo‘lgan noxushliklar, dilxiraliklar tong saharda asta-sekin chekina boshlaydi. Adib ham hikoya qahramoni ruhiy xasta ayolni sahar payti aqli-hushi o‘ziga qaytgan holda tasvirlaydi. “Juvon g‘ira-shira tong ota boshlaganida uyg‘ondi,... qaychilab tashlangan dasturxonga angraydi, chuqur so‘lg‘in uf tortdi”. [1, 332-bet]

Inson ruhiyati sirli bir olam. Eng sara asarlardagina uning ma‘lum bir qirrasi, belgilari aks ettiriladi. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida ham qahramonlarning ruhiy olami, iztiroblari, qayg‘ulari, qalb og‘riqlari, shodlik va quvonchlari o‘z ifodasini topgan. U o‘z qahramonlarning ma‘naviy- ruhiy olamini ziddiyatlar kurashi jarayonida ishonarli, ta‘sirchan holda ifodalay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. XX asr ўzbek ҳикояси антологияси. “Васий” ҳикояси – Т, 2016.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
3. Раҳимжонов Нўъмон. Бадиият – бош мезон. – Т.: Академнашр, 2016.
4. Саримсоқов Баҳодир. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Т.:2004.
5. Тимофеев Л.И. Теория литературы. – М.: Педагогика, 1979.
6. Шуҳрат Ризаев. Яхши “ёмон” одам ёхуд янгиланган реализм. “Шарқ юлдузи” журнали, 3-сон 2011-йил.
7. Ўзбек адабий танқиди.- Т.: Турон-иқбол, 2011.
8. Қуронон Дилмурод. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2004.
9. Қуронон Д. Назарий қайдлар. – Т.: Академнашр, 2018.

ADABIYOTSHUNOSLIK

(adabiyot tarixi va folklor)

ID-020-30-A038

Aziza Almardonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

ALISHER NAVOIY BIOGRAFIYASIGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy hayotiga doir tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Ularda Navoiyning shaxsiy faoliyati, xulq-atvori, mashg'ulotlarining yoritilishiga e'tibor qaratilgan. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasidagi maqolalar tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olingan.

Kalit so'zlar: *shoir, biografiya, kuy, shatranj, badiiy ijod, komil inson.*

Annotation. This article analyzes research on the life of Alisher Navoi. They focus on Navoi's personal activities, behavior, and activities. Articles in the newspaper "Uzbekistan adabiyoti va sanati" were selected as the object of research.

Key words: *poet, biography, melody, chess, art, perfect man.*

Alisher Navoiy ijodi qariyb olti asrdirki insoniyatga badiiy so'zning qudratini namoyon etib kelmoqda. Daho ijodkor qalamidan to'kilgan satrlardagi teran ma'nolarni o'qib, bu tafakkur durdonalarini yaratgan ijodkor qanday shaxs bo'lgan ekan, degan savol kitobxonlarni muttasil qiziqtiradi. Zero, shoir hayotini o'rganish uning ongida shakllangan yuksak hayotiy bilim, tajriba, o'qish-o'rganishning mahsuli ekanligini ko'ramizki, bu o'z navbatida barchaga ibrat maktabi bo'la oladi. Navoiy shaxsiyati adabiyotshunoslar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Bugungi kunda yangi manbalar asosida e'lon qilinayotgan maqolalar adibning boshqa sohalarda ham barakali ijod qilganini ko'rsatadi. Maqolada ana shunday yangiliklarni yoritishga e'tibor qaratildi.

Alisher Navoiy haqida shu kungacha ko'plab monografiya, ilmiy ishlar va maqolalar e'lon qilingan. Jumladan, navoiyshunos olim N.Mallayevning "Asrlar e'tirofi va ta'zimi" kitobida Navoiy hayoti va ijodining o'rganilishi haqida qariyb 70-80 yillik tadqiqotlar asosida so'z boradi. Bu davr Alisher Navoiy ijodini o'rganishga qaratilgan dastlabki faoliyat edi. Fundamental tadqiqotlar bajarildi, biroq mafkura nuqtai nazaridan shoir ijodining ayrim qirralaridan ko'z yumishga to'g'ri kelgan. Keyingi yillarda Navoiy yangicha nigoh bilan o'rganildi. Sababi shoir yaratgan asarlar yangicha talqin qilindi. Ana shunday tadqiqotlardan biri navoiyshunos Shuhrat Sirojiddinovning "Alisher Navoiy manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili" monografiyasidir. Olimning ta'kidlashicha: "haligacha ulug' adib bibliografiyasi to'liq o'rganilmagan. Bu jihat Alisher Navoiy haqidagi manbalarni to'plab, ularni qiyosiy-tipologik tahlil etish o'zbek navoiyshunosligining dolzarb masalasi ekanligini ko'rsatadi. Zotan, Islom Karimov aytganidek: Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz" [6, 25]. Bu fikrlar Navoiy ijodini yangidan tadqiq etish naqadar dolzarb ekanligini belgilaydi.

Bugungi kunda Hazrat Navoiy siymosini abadiylashtirish borasida ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, har yili 9-fevralda ulug' bobomiz tavalludi munosabati bilan ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazilib kelinmoqda. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida ham Navoiy haqidagi yangi ma'lumotlar muntazam ravishda e'lon qilinib kelinadi. Fikrimizni ana shunday davriy matbuot sahifalaridan o'rin olgan maqolalar asosida davom ettiramiz.

Barchamiz Navoiyni Hirotlik deb bilamiz. Ammo Sh.Sirojiddinov o'zining "Amir Temur va Alisher Navoiy ajdodlari" maqolasida Navoiyni Sova shahrida tug'ilganligini ta'kidlaydi. Maqolada keltirilishicha, Navoiyning oilasi Amir Temur xonadoniga yaqin kishilardan bo'lgan. Boysunqur Mirzoning vafotidan so'ng, ular Kobulga ko'chib o'tishadi. Navoiyshunos Sh. Sirojiddinov fikrlarini

quyidagi tarixiy faktlar asosida isbotlaydi: *“Boyqaro mirzoning o‘g‘illari Muhammad va G‘iyosiddin Mansur va ularning yaqinlaridan bo‘lgan G‘iyosiddin Kichkina oilasi Kobulga ko‘chib o‘tishadi. Navoiy tog‘asi Mir Alini Kobuliy (ya‘ni kobullik) taxallusi bilan yodga olganini hisobga olsak, ishonch bilan taxmin etish mumkinki, Alisherning otasi G‘iyosiddin aynan Kobulda uylangan...844/1440-yili Boyqaro xonadonining yagona tayanchi – Mulkat Oqo vafotidan keyin Boyqaro va Navoiylarning oilalari Iroqi Ajamdagi Sova shahriga (hozirgi Eronning g‘arbiy qismi) ko‘chib o‘tganlar. Tarixchi Xondamir bobosi Mirxond tomonidan tugatilmay qolgan yetti tomli “Ravzat us-safo” tarixiy asarini yakunlar ekan, shaharlar ta‘rifi qismida Sova shahrining fazilati aynan shu yerda Alisher Navoiyning tug‘ilganligi bilan belgilanishini alohida ta‘kidlagan”* [7, 3]. Bu asoslangan faktlar Navoiyning Sova shahrida tug‘ilib, keyinchalik Hirotda yashaganligini isbotlaydi. Lekin bu haqda hech bir manbada va Navoiy asarlarida ham uchratmaymiz. Biroq Mirxondning asaridagi fikrlari taxminlarning haqiqatga yaqinligini ko‘rsatadi. O‘sha paytlarda barcha hududlar Movarounnahr tarkibida bo‘lganligi bois, Alisher Navoiyni bizning ajdodimiz deya bemalol ayta olamiz.

Mir Alisher Navoiy butun umri davomida hayotning turli sinovlariga dosh bera olgan matonatli insondir. Uning hayoti bilan yaqindan tanishar ekanmiz, yigitlik chog‘ida Samarqandga surgun qilinganiga guvoh bo‘lamiz. Bu haqda B.Valixo‘jayev quyidagilarni keltiradi: *“...Alisher Navoiy 24-25 yasharligida – Xurosonda shoir sifatida tanilgan vaqtda Samarqandga kelgan. Albatta, bu vaqtgacha unga Mirzo Ulug‘bek nomi ham, Samarqand shuhrati ham ma‘lum edi...U Samarqandga Xuroson hokimi Abu Said Mirzo tomonidan surgun qilingan edi...”* [1, 22]. Navoiy surgunda bo‘lishiga qaramay, ijod qilishda davom etadi. Butun ijodi davomida yaratgan eng yaxshi asarlari shoir e‘tirof etganidek, *“Samarqandi firdavsmonand”* shaharda yaratiladi. Valixo‘jayevning maqolasida qayd etilishicha, keyinchalik samarqandlik olimlar va xattotlar shoir asarlarini xalqimizga yetkazish borasida ko‘plab xayrli ishlarni amalga oshiradilar. Jumladan, XIX asr kotiblari Mullo Muqimxon, Mir Abulhay, Said

Abdusalom maxdumlar Navoiyning “Xamsa” va “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotini mahorat bilan ko‘chirib, shoir ijodining muxlislariga taqdim etgan edilar. Buning boisi, Navoiy 3-4 yil Samarqandda yashagan bo‘lsa-da, keyinchalik ham azim shahardan aloqasini uzmagandir.

Navoiyshunoslarning o‘rganishlaricha, Hazrat Navoiy har sohadan xabardor bo‘lgan. Uning musiqada yaxshi ekanligi, bir necha shogirdlariga ham bu ilmdan saboq bergani ma‘lum. Ammo u biror kuy yaratgani haqida manbalarda qayd etilmaydi. Adabiyotshunos Ismoil Bekjonning “Navoiy yaratgan kuy” maqolasida bu haqda so‘z boradi. U qaysi manbalarda qayd etilgan haqida shunday deyiladi: “... *“Tazkirat ush-shuaro” asari muallifi Mutribiy Hindistonda bo‘lganligida Jahongir podshoh undan O‘rta Osiyoda yaratilgan yangi kuylardan birini chalib berishini so‘raydi. Mutribiy podshoh istagini bajo keltirib, ana shunday kuylardan biri nechasini ijro etgani xususida yozadi va ulardan biriga ta‘rif berishda esa Alisher Navoiy bastalagan bir naqsh (kuy)ni tilga olib o‘tishiga to‘g‘ri kelgan. Aniqrog‘i, bu ma‘lumotlarda aytilishicha, aynan, Mutribiy chalib va ashula qilib aytgan mazkur kuylardan biri Alisher Navoiy yaratgan bir musiqa asari uslubida bastalangan bo‘lib, Navoiy yaratgan kuy nomi ana shu tariqa “Nusxayi zeboyi Jahongir”da qayd etib ketilgan*” [2, 3]. Keltirilgan bu fikrlar haqiqatdan ham Alisher Navoiy musiqada yaxshi kuylar bastalaganligini isbotlaydi. Maqolada Navoiy shogirdlariga ham bu sohadan yaxshi saboq berganligi aytiladi. Xondamir o‘zining “Xulosat ul-axbor” asarida Amir Alisher Navoiy tarbiyasi tufayli kamol topgan sozandalar nomli bob yozgan. O‘sha bobda Alisher Navoiy musiqa ilmida juda katta mahoratga egaligini aytadi. Agar Muallimi soniy, ya‘ni Abu Nasr Forobiy hayot bo‘lganida unga shogirdlik sirg‘asini taqqan bo‘lar edi. Tarixdan ma‘lumki, Forobiy barcha sohalar qatori musiqada ham benazir bo‘lgan. Xondamir, aynan, shu jihatlarni e‘tiborga olib, Navoiyni unga tenglashtirgan bo‘lishi mumkin.

Navoiy yaratgan kuy nomi ham maqolada keltirilgan bo‘lib, bu kuy Husayn Boyqaro va Navoiy o‘rtasidagi do‘stona munosabatga bag‘ishlangan

naqshdir. Kuyning nomi “Husayniy” ohangida “turk zarb” usulida bitilgan. Aynan shu kuy ulug’ bobomiz vafotidan 125 yil keyin ham o’sha nom bilan xalq orasida ijro etilib kelingan. Bu fikrlar Navoiyning qanchalar daho ijodkor bo’lganligini yana bir bor isbotlaydi. Tarixda ko’plab shoirlarni uchratganmiz, ammo o’z she’riga kuy bastalaganlari kamdan-kam hollarda kuzatiladi.

Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Farhod obrazini komil inson sifatida tasvirlaydi. O’zini esa komillik bosqichiga yetmagan deb hisoblaydi. Bu fikrlarini g’azallarida uchratamiz:

*Tesha birla qazdi tog’ Farhod-u, men tirnoq ila,
Ey, ko’ngul mehnat chekarda dema oni men kibi.*

Yuqoridagi baytni bir o’qiganimizda, Navoiy o’zini Farhodga tenglashtirmasligini, undan ustunroq ekanligini ta’kidlagandek tuyuladi. Ammo baytning botiniy ma’nosida esa, Farhod mashaqqatlar bilan bo’lsa-da, komillik darajasiga yetdi. Men esa ojizligim sabab, hali bu bosqichga kelmadim deydi. Bizning fikrimizcha, Navoiy komillikning eng yuqori bosqichiga chiqqan. Chunki har sohada mukammal insonni komil deyish mumkin. Alisher Navoiy ham har qanday sohada samarali ijod qilgan. Navoiy haqidagi yangi bir ma’lumotda uning shatranj ustasi ekanligini bilamiz. Bu haqda Nosir Muhammad quyidagilarni qayd etadi: “Alisher Navoiy serqirra iste’dod sohibi shatranj (shaxmat)ni ham mahorat bilan o’ynagan, bu qadimiy o’yinning nazariy jihatlaridan yaxshi xabardor bo’lgan. Zamondoshlarining xotiralari, shoirning turli mavzudagi asarlarida keltirilgan shatranjga oid misollar, shatranj muhralari bilan bog’liq timsollar ana shundan dalolat beradi” [4, 4].

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida va g’azallarida ham shatranj haqida ma’lumotlar uchraydi. She’rlarida esa shatranj muhralari bilan bog’liq misollarni keltirib, hayotga bog’liq holda tasvirlaydi. Barchaga ma’lumki, tasviriy ifodada, matematika va shaxmat – “aql gimnastikasi” deya e’tirof etiladi. Matematikani yaxshi tushungan kishi shaxmatni bemalol o’ynay oladi. Demak, Hazrat Navoiy ham aql gimnastikasining har ikkala tarmog’ini ham yaxshi bilgan. Shu bois, g’azal va qit’alarida ham bu o’yinni jonlantiradi.

Ayniqsa, “Lison ut-tayr” dostonida shatranjning falsafiy mohiyatini ochadigan bir hikoyat keltiradi:

*Ikki shatranj o'ynog'uchi ustod,
Arsai shatranjg'a aylab kushod,
Ikki jonibdin bo'lub oromgir,
Tuttilar o'rtada shatranji kabir.
Har tarafdin bir shah o'ldi oshkor,
Barcha oyinu sipohi shohvor...*

Hikoyat davomida Navoiy shatranjni haqiqiy jangga qiyoslaydi. Unda aytilishicha, ikki shoh jang qiladi va shatranj doskasiga barcha lashkarini tashlaydi. Xuddi urushdagi kabi lashkar qismlari (“burong’or”, “juvong’or”, “g’ul” va “hirovlul”) ham keltiriladi. Ya’ni bir so’z bilan aytganda, shoir shatranjni jonlantiradi. Uning fikricha, shatranj hayotning timsoliy ko’rinishidir. Bu yerdagi jang-u jadallar, o’zaro dushmanlik, tabaqalanish ham Xoliqning bir amri bilan barham topadi. Bu dunyodan o’tgandan keyin shoh ham, oddiy odam ham barobar. Shu sabab Alisher Navoiy barchani ezgulikka va qo’lidan kelgancha xayrli ishlar qilishga undaydi. Shoir bo’sh vaqtlarida shatranjni shunchaki hordiq chiqarish uchun o’ynamagan. Balki u shu o’yin orqali falsafiy fikrlashga va yangi yaratmoqchi bo’lgan asarlarining rejasini tuzishga uringan bo’lishi mumkin.

Navoiy kabi daho ijodkorlar har doim ham dunyoga kelavermaydi. Shuning uchun ham turli zamonlarda ularning ashaddiy muxlislari bo’ladi. Ana shunday muxlislaridan biri haqida Ismoil Bekjon o’zining “Navoiyning pokistonlik gurji muxlisi” maqolasida yozadi. U Navoiy davrida emas, balki undan keyin yashab o’tgan gurji shoiri – Mirzo Qilichbek Gurji (1853-1929)dir. Bu ijodkorning bolaligi Gurjistonda o’tgan bo’lib, keyinchalik Sindning Haydarobod shahrida yashagan. Xo’sh, u Navoiyga qanday muxlislik qilgan? Mirzo Qilichbek Navoiyning asarlariga tatabbular bog’lagan va ayrim o’zbekcha g’azallarini baytma-bayt forschaga tarjima qilgan. Maqolada aytilishicha, Mirzo Qilichbek “Gurjinoma” asariga Navoiyning g’azalini kiritadi va Ismoil Bekjon bu

haqda shunday deydi: *“Alisher Navoiyning “Gurjinoma”ga kiritilgan gʻazali va uning forscha baytma-bayt tarjimasi “Xayoli zulfitu” (Zulfing xayoli) sarlavhasi ostida berilib, tagiga “Tarjumai gʻazali Navoiy” (az turkiy ba forsiy) deb yozilgan... Mazkur gʻazalning maqta’si tarjimasida Mirzo Qilichbek negadir – boshqacha yo’l tutgan – gʻazalning oʻzbekcha matni oxirgi baytida Navoiy taxallusi odatga ko’ra aniq berilgan esa-da, forscha tarjimada uning o’rniga tarjimon o’z taxallusini qo’ygan:*

*Xursandlig’, Navoiyg’adur, bu umid ila
Kim, vasli toshg’ori xud emas ehtimoldin.*

Mirzo Qilichbek tarjimasi:

Shod ast bas Qilich hamidun bar in umid,

Gohe visoli dust barun nest zi ehtimol”. [4, 3] Forscha tarjimada Mirzo Qilichbek Navoiyga yaqinligini va fikrlari bir xil ekanligini aytmoqchi bo’lgandir. Yoki o’zining nomini keltirib, Navoiyga o’xshashni xohlagandir. Nima bo’lganda ham, Mirzo Qilichbek Alisher Navoiyning turkiy tildagi ijod namunalarini pokistonlik gurji muxlislariga yetkazib bera olgan. Ular bahramand bo’lgan asarlarni, keyingi avlodlari ham o’qiganligiga hech shubha yo’q. Navoiyning hamma yurtda ana shunday muxlislari bo’lsa, shoir ijodi hech qachon o’lmaydi.

Xullas, Hazrat Navoiy bizning ulug’ dahomiz deya, quruq faxrlanib yurmasdan, uning ma’naviy meroslarini xalqimizga va butun dunyoga yetkazishimiz kerak. Ana shunda ulug’ ajdodimiz ruhi va nurli siyмосi qalbimizda abadiy muhrlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Валихўжаев Б. Навоий Самарқандда. –Т.: Ёшлик, 1988.
2. Бекжон И. Навоийнинг покстонлик гуржи мухлиси. –Т.: Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2018.
3. Бекжон И. Навоий яратган куй. –Т.: Ма’рифат, 2014.
4. Муҳаммад Н. Навоий ва шатранж. –Т.: Ёшлик, 2016.
5. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий манбаларининг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. –Т.: Академнашр, 2011.
6. Сирожиддинов Ш. Амир Темур ва Алишер Навоий аждодлари. –Т.: / Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2019.

ID-020-30-A039

Bo'ritosh Nurbadalova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

BOBUR G'AZALLARIDA QOFIYA TIZIMI

Annotatsiya. Mazkur maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur devonidagi murdaf, muqayyod, mujarrad va muassas qofiya hamda tuzilishiga ko'ra: g'azallarning qofiya tizimi va vazn xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada qofiyaning o'zak tarkibiga ko'ra farqlanuvchi turlari: mutlaq va muqayyad qofiya turlari umumiy va badiiy jihatdan raqamlar kesimida tahlil qilingan va ushbu qofiya turlarining har biriga devondagi g'azallardan baytlar misol qilib ketirilgan. Baytlardagi qaysi so'z qofiyaning yuzaga keltirilganligi alohida ta'kidlab o'tilgan va ushbu so'zlardagi tovushlarning joylashuv o'rni va albatta, vazn talabiga ko'ra mazkur turga mansubligi tushuntirib o'tilgan. Shuningdek, radifli va radifsiz g'azallarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Bobur, qofiya, mutlaq, muqayyad, murdaf, mujarrad, muassas.*

Annotation. This article provides information about the rhyming system and weight characteristics of the ghazals of king and poet Zahiriddin Muhammad Bobur. The article deals with different types of rhyme according to their core composition: murdaf, muqayyad, mujarrad and muassas rhyme; and according to their structure: mutlaq and muqayyad types have been scientifically artistically analyzed in terms of numbers, and each of these rhyme types has been exemplified by bytes from the verses in the divan. It is emphasized which word in the bytes forms the rhyme, and the location of the sound in these words depends of course on the weight requirement and belonging to this species according to the weight requirement is explained. As well as, with repeated words (radif) and without repeated words ghazals are also mentioned.

Keywords: *Bobur, rhyme, mutlaq, muqayyad, murdaf, mujarrad, muassas.*

O'zbek adabiyotida durdona asarlari bilan nom qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda 332-yil hukmronlik qilgan boburuiylar sulolasining asoschisi, buyuk podshoh bo'lish bilan birga iste'dodli shoir, yirik adabiyotshunos va tarixchi olim ham bo'lgan. Boburning lirik merosi va ilmiy asarlari yillar davomida o'zbek va jahon olimlari tomonidan o'rganilib, tadqiq qilib kelinmoqda. Bobur ijodi bilan xorijiy olimlardan U.Erskin, S.M.Edwards, A.Bereviy, R.M.Kalkedot, Ch.Stori, E.Xolden, L.King, F.J.Talbot, D.Ross, J.Elfiniston, I.Mano, Z.Mansuriy, R.Sharma, A.Samoylovich, I.Stebleva; o'zbek olimlaridan esa B.Qosimov, P.Shamsiyev, V.Rahmonov, H.Boltaboyev, I.Adizovalar shug'ullangan.

Boburning lirik merosi rang-barang. She'rlarining umumiy hajmi 400 dan ortiq. Bobur ijodida g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, fard, muammo, masnaviy kabi janrlar yetakchi o'rin tutadi. Shoir lirikasining ko'p qirralari turli olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa-da, she'rlaridagi qofiya masalasi maxsus o'rganilmagan edi. Biz ushbu maqolamizda Boburning qofiyadan foydalanish mahoratini g'azallari misolida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, qofiya deganda misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z va so'z qo'shilmalarining o'zaro ohangdosh bo'lib kelishi tushuniladi. Qofiya shoirning mahoratini ko'rsatuvchi, she'rning yoqimli ohagini, o'qishlilikini belgilab beruvchi unsur hisoblanadi.

Qofiya tuzilishiga ko'ra mutlaq qofiya va muqayyad qofiya kabi turlarga bo'linadi. Agar mumtoz qofiya raviy bilan tugasa, muqayyad, raviydan so'ng tovushlar davom etsa, mutlaq turiga mansub bo'ladi.

Bobur g'azallarining 60% ga yaqin qismini mutlaq qofiya, 40% ini esa muqayyad qofiya tashkil qiladi. Mutlaq qofiyaning go'zal namunasi sifatida uning "Chun falak qo'ymas meni...", "Hajr o'lturdi meni...", "Yo qoshing yanglig...", "Ne xush bo'lg'ayki...", "Ne vafo umrimda..." deb boshlanuvchi va "Arzimas", "Topilmas", "Dey" radifli g'azallarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Masalan:

Ne xush bo'lg'ayki, bir kun uyquliq baxtimni uyg'otsam,

*Kechalari tori mo'yidek beliga chirmashib **yotsam**.*

Ushbu baytda “uyg’otsam”, “yotsam” so‘zlari qofiyani yuzaga keltirgan. Bunda raviy “t” undoshi hisoblanadi. Qofiya raviy bilan tugamaganligi uchun ham ushbu baytdagi qofiyalarni mutlaq qofiyaga mansub deb qaraymiz.

Muqayyad qofiyaning namunasi sifatida esa “Yana ko‘z uyida ma‘vo qilibsen...”, “G‘urbatda ul oy...” deb boshlanuvchi va “Berur”, “Mushkildir”, “Topilmas” kabi radifli g‘azallarini keltirib o‘tishimiz mumkin.

*Agarchi sensizin sabr aylamak ,ey **yor** ,mushkildir,*

*Sening birla chiqishmoqlik dag‘i **bisyor** mushkildur.*

Bu baytda esa “yor” va “bisyor” so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelgan. Baytda “r” tovushi raviy hisoblanadi. Qofiya raviy undoshi bilan tugaganligi uchun muqayyad turiga mansub.

Qofiyaning o‘zak tarkibiga ko‘ra esa 4 turi farqlanadi. Bular quyidagilardir:

Murdaf qofiya - Bobur g‘azallarining eng ko‘p qismini tashkil etib, *ridfli qofiya* ham deb ataladi. Bunday qofiya turida raviydan oldin cho‘ziq unililardan biri – *ridfi asliy* ba‘zan esa *ridfi zoyid* keladi. Boburning 119 g‘azalidan 59 tasi shu turdagi qofiya hisoblanadi.

*Sochining savdosi tushti boshima **boshdin** yana,*

*Tiyra bo‘ldi ro‘zgorim ul qaro **qoshtin** yana.*

Bu baytda “bosh”, “qosh” so‘zlari o‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelgan, “sh” undoshi raviy, “o” esa ridfi asliydir.

Qofiyaning yana bir turi - mujarrad qofiya Bobur g‘azallarida yetakchiligi bilan ahamiyatli. Bunday qofiya turida raviy harfi cho‘ziq unlidan iborat bo‘lishi yoki undosh bilan yakunlanib undan oldin *tavjih* – qisqa unli kelishi asosiy talab hisoblanadi.

*Ul parining tig‘idan qo‘rqutma meni,ey **raqib***

*Ishqida boshimg‘a mening har ne kelsa yo **nasib**.*

Ushbu baytda “raqib”, “nasib” so‘zlari qofiyani yuzaga keltirgan. Raviy “b” undoshi bilan yakunlanib undan oldin qisqa “I” unlisi kelgan.

Yoki:

Ko'ngulga bo'ldi ajoyib balo qaro soching,

Shikasta ko'ngluma er mish qaro balo soching.

Bu baytda esa "o" cho'ziq unlisi raviy bo'lib kelgan.

Muqayyad qofiyanining ikkinchi nomi sifatida *qaydli* qofiyani ko'rsatishimiz mumkin. Muqayyad qofiya forsiy va turkiy tilda u qadar ko'p qo'llanilmagan. Bunga sabab qilib til imkoniyatlari va ohangdor, oynoqilikni yuzaga keltirmasligini ko'rsatishimiz mumkin. O'zak tarkibiga ko'ra qisqa unli dan so'ng qator undosh keladi. Bobur g'azallarida ham eng kam qo'llangan qofiya turi bo'lib, 119 g'azalidan 1ta 110-g'azali shu turga mansub.

Qo'y, ey oqil, nasihat so'zlarinkim dilpisand ermas,

Mening devona ko'nglumga nasihat sudmand ermas.

Ushbu g'azal aruz tizimining hazaji musammani solim vaznida yaratilgan bo'lib, raviy "d" undoshi hisoblanadi, "a" unlisidan so'ng qator undosh "n" va "d" tovushlari kelgan va mazkur tur aynan shu vazni talab qilgan.

Muassas qofiya ta'sisli qofiya ham deb ataladi. Bunday qofiya turida cho'ziq "o" unlisi bilan raviy o'rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Muassas qofiya ham Bobur ijodida eng kam qo'llangan tur bo'lib hisoblanadi. Uning birgina 53-g'azali muassasdir.

*Ne fikrekim, sening fikring emas ul fikr erur **botil**,*

*Ne umrekim, o'tar sensiz, erur ul umr **behosil**.*

Baytda "botil", "behosil" so'zlari qofiyadosh bo'lib kelgan. "L" undoshi raviy va raviy bilan cho'ziq "o" unlisi o'rtasida bir undosh "t" va bir unli "I" qatnashgan.

Ushbu g'azal ham hazaji musammani solim vaznida bo'lib, qofiya talabi bilan qo'llanilgan.

Bobur g'azallarining deyarli teng yarmi miqdorini radifli g'azallar tashkil etadi. Ma'lumki, *radif* misra oxirida qofiyadan so'ng takrorlanib keluvchi so'z yoki so'z birikmalaridir. Radif g'azalning musiqiyiligini ta'minlab beradi.

*Kimki bo'lg'ay sen kibi olamda dildori **oning***

*Har qayon azm aylasa bo'lg'ay xudo yori **oning**.*

Ushbu baytda “oning” so'zi misra oxirida takrorlanib radifni yuzaga keltirgan. Ba'zan bir nechta so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin.

Masalan:

*Shohi **Sulton Uvays ban Mahmud**.*

*Mohi **Sulton Uvays ban Mahmud**.*

Ushbu baytda “Sulton Uvays ban Mahmud” birikmasi radif bo'lib kelgan.

Quyidagi jadvalda Bobur g'azallarida keltirilgan qofiya turlari hamda radifli va radifsiz g'azallar miqdorini raqamlar kesimida ko'rib chiqishimiz mumkin:

Qofiya turi	Miqdori
Murdaf	59
Mujarrad	58
Muqayyad	1
Muassas	1
Radifli	60
Radifsiz	59

Xulosa qilib aytganda, Bobur she'rshunos olim sifatidagi qarashlarini amaliyotda, ijodda ham yetarlicha ko'rsatib bera olgan buyuk so'z san'atkoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobur Zahiriddin. Devon. – T.: Sharq, 1996.
2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – T.: Tamaddun, 2018.
3. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T: Ta'lim-mediya, 2019.
4. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998.
5. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.

ID-020-30-A040

Zebiniso Davronova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONI LUG'ATI-T-TURK" ASARIDAGI XALQ MAQOLLARI

Annotatsiya. maqola "Devoni lug'ati-t-turk" asaridan o'rin olgan qadimiy turkiy qabilalarning xalq maqollari haqidadir. Ushbu maqollarning ba'zilari yoki unga o'xshash bo'lgan maqollardan bugungi kunda mamlakatimizning turli hududlaridagi insonlar foydalanmoqda. Ushbu maqollar bizga qadimdagi Turkiy qabilalarning tarixi va madaniyati haqida muhim ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari, asarda turli dorivor o'simliklar va ularning foydalari haqida ham muhim ma'lumotlar mavjud".

Kalit so'zlar: *Mahmud Qoshg'ariyning, Devoni lug'ati-t-turk, maqollar, Turkiy qabilalar, tibbiyot*

Annotation: This article is about national proverbs of ancient Turkic tribes in the book which is called "Diwān Luḡat at-turk" (Compendium of the Turkic Dialects). Nowadays, some proverbs of them or similar to that proverbs are using by people in different places of our country. This proverbs give us important information about history and culture of different Turkic tribes in the past. Furthermore, this proverbs are real treasure for medicine. There is vital information about different herbs and their benefits.

Key words: *Mahmud Qashgariy, Diwān Luḡat at-turk, proverbs, Turkic tribes, medicine.*

Maqol xalqlarning uzoq davrlar mobaynida o'z tajribalaridan o'tgan, ming karra sinalgan donolik qomusi bo'lib, u kishilarni ezgulikka, oliyjanoblikka hamda tinch-totuv yashashga chorlashi bilan hamma vaqt

xizmat qilib kelgan. Maqol xalq hayoti, orzu-intilishlari va dunyoqarashlari ko'p asrlik tajribalarda sinovdan o'tkazib aks ettirilishi tufayli kundalik turmushda katta tarbiyaviy rol o'ynaydi. Maqol xalq og'zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlardan biri bo'lib, u xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Maqollar o'zlarining ijtimoiy-g'oyaviy funksiyalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba'zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarining dunyoqarashini ifodalaydi. Shu boisdan ham maqolarning mavzuiy ko'lami juda ham keng bo'lib, bu ko'lamni juz'iy hayotiy voqelik doirasi bilan chegaralab bo'lmaydi; ijtimoiy borliqning barcha sohalari maqollarda o'z aksini topgan bo'ladi" [1.91-bet]. Asarning ham ilmiy, ham badiiy qimmatining asosi – maqollarning o'rni beqiyosdir. Asarda xalq turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar ham asar badiiyati oshirgan. Ana shu maqollarga murojaat etsak, ularning tarixi, madaniyati, qadriyatlarini ana shu maqollardan aksini topa olamiz. Mahmud Qoshg'ariy " Devoni lug'ati-t-turk" asarida o'zi yozadi: "Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hikmatli so'zlar, sajlar, maqollar,... deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim"[2.488-bet]. Maqollarning qadr-qiymati, ularning ahamiyati, har bir inson hayoti uchun naqadar ahamiyatli ekanligini tarixdan e'tirof etib kelganlar. Mutafakkir Arastu hikmatlarni yuksak baholagan: " ... barcha kishilarning quvvati ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir". O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida maqolning lug'aviy ma'nosi quyidagicha sharhlanadi: " Maqol – xalq og'zaki ijodi janri. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan"[3.340-bet]. Maqollar haqida rus tilshunosi esa shunday deydi: "Maqollar ulardan anglashiladigan tushunchalarga qarab joylashtirilsa, xalq ruhiyatining chinakam ocherki vujudga keladi"[4.148-bet]. Hazrat Alisher Navoiy o'z baytida shunday yozadi: "Kimniki bilay desang, maqolin angla, Aslin desang, anglayin fiolin angla" [5.3-bet]. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zlarining " Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarlarida aytadilarki: "

...maqol-matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasi"[6.21-bet]. Shunday ekan, Mahmud Qoshg'ariy "Devon"i biz uchun faqatgina tilshunoslik manbaasi emas balki, turkiy xalqlarning asliyatini namoyish etuvchi ko'zgudir. Asardagi maqollarda biz ana shu asliyatni topa olishimiz mumkin. "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman" deb aytgan edi. L.N. Tolstoy. Devonda keltirilgan maqollardan namunalar bilan tanishib, turkiy xalqlar siymosini ko'rishimiz mumkin: **Ermgägükä eşik art bolur**. Ma'nosi: "Yalqovga eshik ostonasi ham tog' tepasidek ko'rinadi". Bugungi kunda xalqimiz iste'molidagi "Qo'rqqanga qo'sh ko'rininar" maqoli yuqoridagi maqolga mazmunan o'xshashdir. **Egir bolsa, er ölmäs**. Ma'nosi: "Iyir bo'lsa kishi o'lmaydi". Egir (iyir) – qorin og'rig'ini davolash uchun qo'llaniladigan o'simlik.kishining yonida ana shu dori bo'lsa, o'limdan saqlanadi. Chunki qorin og'rig'iga duchor bo'lgan odam uni yesa tuzaladi. Bu maqol har ishga oldindan hozirlanish kerak, degan ma'noda qo'llanadi. Ushbu maqol orqali biz tibbiyot ilmiga oid qimmatli ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. "Egir" nomli o'simlik qorin og'rida foydalanilganligi haqidagi ma'lumot qadrlidir. **Ağilda oğlaq tuğsa, ariqda, oti ünär**. Ma'nosi: "Og'ilda buzoq tug'ilsa, ariqda o'ti unadi". Bu maqol ovqat yoki rizq uchun ortiqcha urinish va qayg'urish kerak emasligini anglatish uchun aytiladi. **Tilkü öz inikä ürsa, uδuz bolur**. Ma'nosi: "Tulki o'ziniga qarab ulisa (irillasa, hursa), qo'tir bo'ladi". Bu maqol o'z elini, urug'ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytilgan. **Sartniñ azuqi ariğ bolsa, yol üzä yer**. Ma'nosi: "Savdogarning moli toza, beshubha bo'lsa, yo'l ustida yeydi". Bu maqol aytgan so'zining ustidan chiqa olmagan, quruq maqtanchoqlarga nisbatan aytiladi. **Anuq otru tutsa, yoqqa sanmas**. Ma'nosi: "Mehmonga bor ovqat taqdim qilingach, ko'rmadim demaydi". Bu maqol uy egasi bor narsasini mehmonga taqdim qilishi kerakligi zarurligiga ishorat qilib aytiladi. Ushbu maqol turkiy xalqlar qoniga singib ketgan deyish mumkin, chunki har bir mehmonni ochiq yuz bilan kutib oladi, "Mehmon kelsa eshikdan rizqi kelar teshikdan" maqoliga amal qilishadi. **Atan yüki as bolsa, açqa az könür**. Ma'nosi: "Atan (axta qilingan

tuya) ning yuki oziq-ovqat bo'lsa ham, och kishiga oz ko'rinadi". "Yeb to'ymagan, yalab to'ymaydi", "Olganga yuzta ham oz " kabi maqollarimiz bugungi kundagi ko'zi och kishilarga nisbatan qo'llaniladi. **Yurt kiçik bolsa, aņut bedüg ür.** Ma'nosi: "Idishning teshigi kichik bo'lsa, katta voronka qo'y". Bu maqol kichik ishni katta qilib ko'rsatadigan kishiga nisbatan qo'llaniladi. Kichik mehnatini katta qilib maqtanuvchi kishilarga xalqimiz "Pashshaday ishini fildek qilib ko'rsatadi" deydi. **Qaz qopsa, ördäk kölig igänör.** Ma'nosi: "G'oz (suvdan) ko'tarilsa, ko'lni o'rdak egallaydi. Bu maqol xalq orasidan ulug' kishi ketgandan keyin, uning o'rnoga tuban bir kishining ko'tarilganiga ishora qilib aytiladi. "Otning o'limi itning bayrami" kabi ma'nodosh maqol ugun xalq iste'molida ishlatilmoqda. **İtqa uwat etsä, uldaņ yemäs.** Ma'nosi: "Itga uyat kelsa, oriyat qilsa, pocha tashlasang ham yemaydi". Bu maqol uyatchang bo'lishga undab, kishini nomuvofiq ishlardan qaytishga da'vat qilib aytiladi. **Aņduz bolsa, at ölmäs.** Ma'nosi: "Rosan o'ti yoningda bo'lsa, ot yo'lda qorin og'rig'idan o'lmaydi. Ot og'rib qolgan taqdirda, u bilan davolash mumkin. Bu maqol safarga chiquvchilarni puxta xozirlashga undab aytiladi. Ushbu maqol orqali esa ot og'rig'iga davo bo'luvchi "Rasan" o'simligi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. **Oğlaq yiliksiz, oğlan biligsiz.** Ma'nosi: "Echki bolasida ilik yo'q, yosh bolada aql yo'q. **Ermägükä bulit / bulut yük bolur.** Ma'nosi: "Yalqovga bulut soyasi ham yuk bo'ladi". **Alp erig yawritma, iqilaç arqasın yağritma.** Ma'nosi: "Botirlarni ranjitma va holsizlantirma, uchqur ot orqasini yag'ir qilma". Bu so'zlar bilan beklarga nasihat qilinadi. **Ikki qoçņar başı bir esäçtä pişmas.** Ma'nosi: "Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi". Bu maqol bir shaharda ikki bek, ikki boshliq bir-biri bilan chiqisha olmasligi, birining u yerni tark etib chiqib ketishi kerakligiga ishora qilib aytiladi. Ushbu maqol asl holida bugungi kungacha yetib kelib, hozirda xalq orasida faol qo'llaniladi. **Öküs sewinç balsa, qatiğ oxsunur.** Ma'nosi: "Ko'p sevingan kishi biror ishda undan ko'ra qattiqroq qayg'uradi". Bu maqol haddidan oshib hovliqishni tashlashga undab aytiladi. Ushbu maqolga o'xshash "Ko'p kulgan bir yig'lar" shaklida qo'llaniladi. **Birin-birin miņ bolur köl bolur.** Ma'nosi: "

Birlar to'planib, ming bo'ladi, tomchilar to'lib ko'l bo'ladi". Bu maqol oz bo'lsa ham bir narsani olaverishga undab aytilgan. ***Erkä muñ tegir, tağ sejiñä yel tegir.*** Ma'nosi: " Yel tog' burniga (cho'qqisiga) tekkandek, qiyinchilik kishining boshiga tushadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarini o'rganish davomida uning naqadar buyuk yodgorlik ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Asarning ham ilmiy, ham badiiy qimmatining asosi – maqollarning o'rni beqiyosdir. Xalqimiz ham qadim-qadimdan maqollarning o'rnini beqiyos hisoblashgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devon"i biz uchun otabobolarimizdan qolgan ibratli so'zlar, pand-nasihatlar xazinasini hisoblanadi. Mahmud Qoshg'ariy "Devon"ida xalq maqollaridan namunalar keltirib o'tar ekan, har bir maqolni sharhlaydi. Ana shu maqol qachon, qanday vaziyatda, qanday insonlarga nisbatan aytilganligini, qaysi qabila orasida ishlatishi haqidagi muhim ma'lumotlarni qayd etib o'tadi. Keltirilgan maqollar biz uchun faqatgina ibratli so'zlar emas, balki ulkan haqiqatlar, muhim ma'lumotlar manbasi ham hisoblanadi. Chunki maqollar necha asrlar davomida bugungi kungacha yetib kelish davomida tarix haqiqatlarini, tibbiyotga oid qimmatli ma'lumotlarni ham birga olib keldi Davrlar o'tishi bilan ular turli o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bilamizki, maqollarni ko'proq folklorshunoslar, etnograflar, madaniyatshunoslar o'rganib kelishgan. Keyingi davrlar davomida esa, maqollarning lisoniy tabiatini ham tadqiq qilib o'rganish boshlandi. Shunday ekan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devon"idan o'rin olgan maqollar folklorshunoslik, madaniyatshunoslik va etnografiya, tilshunoslik va tibbiyot uchun asosiy manba bo'la oladi. XX asr ulkan yozuvchilardan biri bo'lmish M.Sholoxov shunday yozadi: " Maqol qanotlanib asrlardan asrlarga, avloddan avlodga ko'chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko'rinmaydi"[7.3-bet].

Foydanailgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
2. Devonu lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni) / M.Qoshg'ariy. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
3. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.
4. Даль.В.И.О русских пословицах.Современник.1847.
5. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, Hikmatnoma. O'zSE.T.-1990.
6. I.A.Karimov.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T.: Ma'naviyat, 2008.
7. Шолохов М. Сокровишница народной мудрости // Пословицы русского народа. Сборник В.Даляю – Москва,1957.

ID-020-30-A041

Dilafruz Jumag'ulova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs magistranti

MAQOLLAR – XALQ MA'NAVIYATINING KO'ZGUSI

Annotatsiya. Maqollar xalqning uzoq asrlik tajriba, bilim, ko'nikmalarining quyma shakldagi badiiy ko'rinishlaridir. Xalq orasida har bir holat, voqelikka mos keluvchi maqollar mavjud. Maqollar nafaqat turmushda, balki xalqning epik asarlarida, ijrochi va qahramonlar tilida ko'plab uchraydi. "Alpomish" dostonining Umir baxshi Safarov, Abdunazar baxshi Payonov variantlarida keluvchi maqol namunalari nafaqat qahramonlar xarakteri va ularning fikr-mulohazalarining mukammal ifoda topishiga xizmat qiladi, ayni vaqtda xalq orasida maqollarning betakror, ba'zan o'ta qadimiy namunalari ham kelishiga misol bo'ladi. Maqolada Qashqadaryo hududidan biz tomonimizdan yozib olingan maqollar va "Alpomish" dostonida kelgan maqol namunalari o'rganildi, o'rni-o'rni bilan ular qiyosan tadqiq etildi. Maqollarni g'oyaviy-badiiy jihatdan tahlil etishga harakat etildi.

Kalit so'zlar: *o'zbek folklori, maqol, janr, baxshi, variant, shakl, mazmun.*

Annotation. Proverbs are a vivid expression of a nation's centuries-old experience, knowledge, and skills. There are proverbs among the people that correspond to the reality of each situation. Proverbs are found not only in their life, but also in folk epics, in the language of performers and heroes. The examples of proverbs in the versions of the epic "Alpomish" Umir Bakhshi Safarov, Abdunazar Bakhshi Payonov not only serve to perfectly express the character of the heroes and their thoughts, but also serve as an example of the emergence of unique, sometimes very ancient examples of proverbs among the people. The article examines the proverbs written by us in the Kashkadarya region and the examples of proverbs from the epic "Alpomish", which are compared in place. An attempt was made to analyze the proverbs from an ideological and artistic point of view.

Keywords: *Uzbek folklore, proverb, genre, baxshi, variant, form, content.*

Xalqimiz ogʻzaki ijod namunalari avloddan-avlodga meros boʻlib oʻtar ekan bu jarayonda ijrochilarning oʻrni oʻta muhimdir. Ayniqsa, bobo-momolarimiz yosh avlodga alla, ertak, topishmoq, maqol, qoʻshiqlar aytib beradilar. Biz esa shu muhitda ulgʻayib voyaga yetamiz. Bu holat folklorning tabiiy yashash sharotidagi ijro holati boʻladi.

Kundalik hayotimiz davomida insonlar koʻproq maqollardan foydalanishadi. Buning sababi maqollarning oʻrni va tildagi vazifasi bilan izohlanadi. Til koʻrki boʻlgan maqollar badiiy jihatdan mukammalligi, quyma shakli va ommaviyligi bilan alohida ajralib turadi. “Maqollarda soʻz qimmatini alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollarda soʻzlarni boshqasi bilan almashtirish, biror soʻz qoʻshish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon boʻladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar ogʻzaki ijodida bor boʻlib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga koʻra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi” [1. 64-bet]. Xalqimiz orasida shunday insonlar borki, ular nutqida deyarli har doim maqollardan foydalanishadi. Biz qaysi mavzuda gapirmaylik, ularning barchasiga koʻplab maqollar keltirish mumkin. Quyida bir qancha maqollarni koʻrib chiqamiz:

Oysiz ot maqtama,

Yilsiz kelin maqtama

Ushbu maqolda otni oy oʻtmasdan turib maqtamaslik kerakligi aytilgan. Boshida yuvosh koʻringani bilan vaqt oʻtishi bilan asov boʻlib chiqishi koʻzda tutilmoqda. Kelinni ham yil oʻtmasdan turib maqtash kerak emasligi aytilyapti. Odatda kelin yangi oilaga tushib koʻp narsalarga koʻnikishi kerak boʻladi. Bu esa albatta vaqt talab qiladi. Ular bu vaqt oraligʻida oʻzgarib qolishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Bor joylarda bol arzon,

Yoʻq joylarda suv qimmat.

Barcha narsasi bor, oʻziga toʻq yurtida hamma narsa toʻkin-sochin,

arzonchilik bo'lsa, yo'q joylarda esa hatto suvni topish amri mahol degan ma'no anglashilmoqda. Ko'pgina davlatlarda bu bilan bog'liq muammolar talaygina.

Uyda umoch qilolmagan,

Begona joyda ugra qilarmish.

Bu yerda "umoch" so'zi xamirdan qilinadigan ovqat. U qo'lni suvga va unga botirib uvalanib tayyorlanadi va bu bir muncha oson. "Ugra" esa xamir qilinib yoyiladi va ingichka qilib kesiladi. Ayrim insonlar borki, uyida qilmagan ishni boshqa joyda qilib, o'zini ko'z-ko'z qilishni yaxshi ko'rishadi. Oilasiga, farzandlariga bermagan mehrni atrofdagilarga ko'rsatishga harakat qilishadi. Kishi avvalo o'z oilasiga e'tibor qaratmog'i lozim. Ushbu maqol esa shu mazmunni ifodalaydi.

Atlas-u kimxob kiydim, ustimda yo'q,

Asal-u sharbat yedim, og'zimda yo'q.

Inson yoshligida turli xil kiyimlar kiyadi, xohlagan narsasini tanovul qiladi. Qariganda esa har qanday kiyim ham yarashavermaydi. Turli xil taomlarni iste'mol qilish ham sog'liqqa to'g'ri kelmaydi. Shuning uchun har bir narsaning o'z vaqti bo'ladi deb bejizga aytishmaydi, dono xalqimiz. Ushbu maqoldan shu kabi ma'nolarni tushunishimiz mumkin.

Ko'ruvdim o'rdangni,

Tagi teshik to'rvangni.

Ayrim insonlar borki kamtarlikdan yiroqda bo'lishadi. O'zgalar oldida o'zlarini ko'z-ko'z qilish uchun hattoki yolg'on gaplardan ham toymaydilar. Aslida esa ularning kim ekanligini ko'pchilik yaxshi bilishadi. Maqoldan ham shu ma'no anglashiladi.

Ko'rmagan yerga borsam,

Maqtana-maqtana o'lsam.

Maqoldan ko'rinib turibdiki, maqtanchoqlik haqida gap ketyapti. Ayrim insonlar davralarda maqtanishni yaxshi ko'rishadi. Maqtanchoqlik eng yomon illatlardan biridir. Bunday odam ko'pincha o'z afzalliklarini o'ylaydi. Maqtanchoq odam barchaga kulgi bo'lib, shuhratparastlikning quliga aylanib

qoladi. Kishi bu paytda misqollab yiqqan obro'siga putur yetkazadi. O'zgalari oldida qadrsizlanib qoladi. Aqli noqis insongina maqtanishdan tiyilmaydi. Zaruratsiz bo'lar bo'lmas gaplarni gapiraveradi. Biz aslida qanday bo'lsak shunday ko'rinishimiz, boshqacha bo'lishga harakat qilmasligimiz lozim.. Xalqimiz shu mazmundan kelib chiqib ham ushbu maqoldan foydalanadi.

Qo'ya-qo'ya qo'y ortar,

Toya-toya toy ortar.

Maqolda ko'p narsalarni bekorchi ishlarga sarflamasdan yig'ib, tejab sarflash haqida gap boryapti. Oila boshlig'i ishlab topayotgan mablag'ni tejab ishlatish, ayniqsa ayollarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu *"Toma-toma ko'l bo'lur"* maqoliga ham to'g'ri keladi.

Xomsan pisharsan,

Bu damlardan tusharsan.

Maqolda aytilyaptiki, inson bu dunyodagi mansabiga, mol-davlatiga ishonib, o'zini, o'zligini unutib qo'ymasligi kerak. Chunki hayot har doim ham bir tekis ketavermaydi. Kishi egallab turgan mavqeyiga ishonib boshqalarni mensimasligi, diliga ozor berishi, ulardan o'zini baland tutishi bu – kibr va nafsga berilishdir. Maqolda ham hali bu damlar o'tkinchi, hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin degan ma'no anglashiladi.

Odam-odamdan nesi kam,

Yetti qavat to'ni kam.

Inson zoti yaralibdiki, ularning barchasi bir xil hayot kechiradi. Tug'iladi, hayotiy ehtiyojlari uchun harakat qiladi va yakunida vafot etadi. Lekin ayrim kishilar borki insonlarni ma'lum tabaqalarga ajratadi. Bu mutlaqo noto'g'ri. Alloh barchamizni bir xil, teng qilib yaratgan. Insonlarning boy yoki kambag'alligiga, kiyib yurgan kiyimlariga emas, balki qalb go'zalligiga, qilayotgan amallariga qarab baho beraylik. Barchaga birdek yaxshi muomala qilaylik. Zero, "Yaxshi so'z jon ozig'i", deb bejizga aytishmagan. Ushbu maqolda shu kabi ma'nolar ifodalangan.

Charchab minsa, cho'loq eshak ot bo'lar,

Och qolib yesa, zog'oralar qand bo'lar.

Maqolda aytmoqchi bo'lgan mazmun juda yaxshi ifodalangan. Charchab turganingizda cho'loq eshak ham ko'zingizga ot bo'lib ko'rinishi, och qolib yeganingizda esa hattoki zog'ora non ham qand kabi bo'lishi aytilyapti. *“Ochga qozon ochtirma, yalang'ochga ko'ylak bichtirma”* maqoli ham biroz shunga o'xshab ketadi.

Ildim-jildim ikki yer,

Ensasi qotgan neni yer.

Maqoldagi mazmunni ifodalaydigan bo'lsak, har narsani eplab o'z vaqtida qiladigan, harakatchan kishi doim yaxshi yashaydi, yegani oldida bo'ladi. Ya'ni yig'ib terib harakat qilsa hayoti doim yaxshi bo'ladi deyilyapti. Ensasi qotgan, mehnat qilishni o'ziga ep ko'rmaydigan inson esa hamma narsadan quruq qoladi. Kishi halol mehnat qilib harakat qilsa u qanday ish bo'lmasin ayb hisoblanmaydi. Peshona teri bilan halol topilgan rizq ham barakali bo'ladi.

Bu kabi maqollar xalq tajribasi, ota-bobolarimizning hayot saboqlari natijasida har jihatdan mukammal qilib yaratilganki, ulardan nafaqat so'zlashuv jarayonida, balki ertaklarda, afsona-yu rivoyatlarda asar mazmunini yanada kengroq ochib berish maqsadida ijrochi tomonidan keng foydalaniladi. Bu holat ayniqsa dostonchiligimizda yaqqol aks etgan. Xususan, *“Alpomish”* dostonining deyarli barcha variantlarida maqollar keltirilgan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Umir baxshi Safarov, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Abdunazar Poyonov va boshqa ko'plab baxshilar kuylagan variantlarda maqollarga duch kelamiz. Xususan, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li variantida Surxayil mastonning tanlab olgan qirquin qizlari Alpomishni aldab Boysarining urug'idan ekanligini, yo'lga qarab sarson bo'lganini aytib turganda Alpomish *“Ot aylanib qozig'ini topar”* maqolini aytadi va Qalmoqlardan o'ch olishini aytib Maston kampirning yolg'on gaplariga ishonadi. Bu maqoldan xalqimiz orasida keng foydalanib kelinadi. Alpomish bu yerga bekorga kelmagani, o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishi uning

qat'iyati, mard va jasurligida namoyon bo'ladi.

Umir baxshi Safarov variantida Alpomish Qalmoqdan kelganidan keyin, Boybo'ringning cho'lda tuya boqib yurganini ko'rib, unga o'zini tanitmoqchi bo'ladi. Lekin otasi sarbonlarga borib aytsa, qaytib kelgani hamma joyga yoyilib ketishini o'ylab aytmaydi va quyidagi maqolni keltiradi: *"O'ttiz tishdan chiqqan so'z o'ttiz urug'ga yoyilib ketadi"*. Alpomish kelibdi degan gap yoyilib ketmasin, hamma hovliqib qolmasin, nima bo'lsa ham, o'zimni tanitmay ketayin, vaqtli Oybarinning to'yining ustiga yetayin, otam ham uch kungacha yaxshi-yomon bir qiyinchilikni o'tkazadi-da, bir ko'rishib ketayin, yo'lda yo'lovchiday bo'lib, - dedi" [2.254-bet]. Baxshi shu joyda maqoldan juda o'rinli foydalangan. Alpomishning aql-zakovatini, uzoqni ko'ra bilishini yana bir bor namoyon qilgan.

"Alpomish" dostonining Abdunazar baxshi Poyonov variantida ham maqollardan keng foydalanilgan. Boysaridan yordam so'rab maktub kelgandan keyin Alpomish Qalmoq yurtiga ketmoqchi bo'ladi. Otasi Boybo'ri esa bunga qarshilik qilib Boysarining oldiga yubormasligini aytadi. Otasining so'zini eshitib Alpomish:

- Ey qiblagohim otajon, Boysari akam ham bir so'z bilan achchiq ustida ketgan edi. Eskidan qolgan gap bor: *"Urisha tur-da, ushlasha tur"*, deydi, nima bo'lganda ham sizning bag'ringiz, ichkuyaringiz. Qalmoqlar ko'p taaddi o'tkazibdi. G'ayri yurtda musofirlik dardi qiynab, oldingi qilmishiga afsus qilib, xabar yuboribdi. Ruxsat bersangiz, holidan bir xabar olib kelsam [1.19-bet] – deb otasiga aytadi. Bu yerda Abdunazar baxshi *"Urisha tur-da, ushlasha tur"* maqolini juda o'rinli qo'llagan. Inson yaqinlaridan gina qilmaydi. Aksincha, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatib, yordam berishga harakat qiladi. Alpomish ham otasiga shu mazmunda gapiryapti. Har ne bo'lganda ham uning ukasi, ichkuyari ekanligini aytyapti. Dostondan nafaqat ma'naviy zavq, balki yuksak tarbiya ham olish mumkin.

Yana bir o'rinda ham xalqimiz ichida juda mashhur maqoldan foydalanilgan. Alpomish Qalmoq yurtiga Barchinni olib kelish uchun

ketayotganda yo'lda tamaddi qilish uchun Qayqubod va Shodiyor degan ikkita cho'pondan joy so'raydi. Alqissa, cho'ponlar yugurib, xezlab, shirin so'zlab:

- Tushing, - deb girdikapalak bo'lib, mehmonni tushirib, vaqtini xushlab, otini ushlab, kapaga boshlab, ko'rishib-so'rashib, cho'ponlar Alpomishga qarashib, qaddi-qomatidan, kuch-qudratidan, chaqnab turgan olov ko'zidan yuragi holsirab, o'pkasi tushib, "bu bir qonxo'r jangchiga o'xshaydi", deyishib:

- Bunga bir jonliq mol so'ymasak bo'lmas, "*Mehmon otangdan ulug'*", - deydi, - deb bir qo'yni so'yib, pishirib, oldiga qo'yib, topgan-tutganini dasturxonga to'kib, siylayverdi, Alpomish qo'yning go'shtini yutib, suyagini purkab yuboraverdi [2.127-bet].

Bu yerda ham maqol juda o'rinli qo'llanilgan. Bizning xalqimiz qadim-qadimdan mehmondo'st bo'lgan. O'zi yemasa ham mehmonning oldiga borini to'kib sochgan. Shuning uchun ham mehmonga nisbatan ushbu maqol qo'llanib kelinadi. Dostonda baxshi juda ko'plab o'rinlarda yuqoridagi kabi xalqimiz orasida mashhur bo'lgan maqollardan foydalangan va bu dostonning badiiyatini yanada oshirgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maqollar turmush tajribalari asosida tug'iladi va chuqur ma'no ifodalaydi. Maqollar hayotimizga shunchalik singib ketganki, baxshi doston aytayotganda beixtiyor maqollardan foydalanadi. Bu esa dostonlarimizning mazmunan ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan maqollar ma'no jihatdan barchamizga tushunarli bo'lib, turli xil mavzuda aytilgan. E'tibor beradigan bo'lsak, maqollardagi badiiyat ularning yaratilishi ustida xalqimizning qanchalik ijodkor bo'lganligi, saviyasi qay darajada yuqori ekanligidan darak beradi. Mukammal bo'lmagan san'at asari vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketaveradi. Xalqimiz yaratgan maqollar esa shunchalik mukammalki, hajman kichkina bo'lsa ham o'zida olam-olam ma'no ifodalab, oradan asrlar o'tsa-da o'z ahamiyatini yo'qotmay, bugungi kunda xam beqiyos qimmatini va tarbiyaviy jihatlari bilan ota-bobolarimiz tajribasidan bizga saboq berib, shu bilan birga, xalqimiz ma'naviy

dunyoqarashini kengaytirib, fikrlash darajasiga ijobiy ta'sir qilgan holda nutqiy go'zalligini oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alpomish. Doston /Aytuvchi Umir baxshi Safarov va Mardonaqul Avliyoqul o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar T. Mirzaev, J. Eshonqulov, R. Choriev. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 254.
2. Alpomish. Doston / Aytuvchi Abdunazar Poyonov. Nashrga tayyorlovchilar J. Eshonqulov va R. Choriev. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Madaev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.: "MUMTOZ SO'Z", 2010. – B. 64.
4. Aytuvchilar:
5. Ilyasova Oynisa. 78 yosh. Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, O'tamayli qishlog'i
Yozib oluvchi: Jumag'ulova Dilafuz.
6. Qulunova Jumaxol. 82 yosh. Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, O'tamayli qishlog'i.
Yozib oluvchi: Jumag'ulova Dilafuz.

ID-020-30-A042

Dilbar Usmanova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

ALLADA LIRIK QAHRAMON XARAKTERINING AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining bir turi bo'lmish allada lirik qahramon xarakterining namoyon bo'lishi tadqiq qilinadi va o'ziga xos jihatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *alla, lirik qahramon, xarakter, musiqa, beshik, ruhiyat, predmet, to'lin oy, ilhom, qamar, qizil gul, belbog', qo'zichoq, bo'taloq, magik himoya.*

Annotation. this article examines the manifestation of the character of the lyrical hero in the song alla, a type of folkoral creation, and shows it's peculiarities.

Keywords: *mother song, lyrical hero, character, song, cradle, psyche, subject, full moon, inspiration, moon, moon flower, belt*

Xalq orasida folklorning keng tarqalgan janrlaridan biri alladir. Alla bola shaxsiyatida ota-onaga, Vatanga, millatga muhabbat tuyg'usini singdiruvchi xalq og'zaki ijodini janri sifatida vujudga kelgan. Darhaqiqat, oilada go'dakning alla ruhida ulg'ayishi bolaning yuksak ma'naviyatli, axloqli shaxs bo'lib shakllanishida omil bo'ladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, bolaga alladagi tabiiy musiqa, ohang, qalbdan chiqqan so'zlar ona mehri va tafti bilan singadi. Bu jarayon, asosan, bolaning beshikdalik chog'ida amalga oshadi. Buyuk faylasuf Abu Ali Ibn Sino bu haqida "...Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan

musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi", – deb alla va beshikning norasida kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tgan.

Alla janrida lirik qahramon yetakchi o'rin egallaydi. Lirik qahramon voqelik, inson kechinmalarini (tuyg'ulari, hislari, o'ylari) ifoda etadi. Allaga jon bag'ishlovchi lirik qahramon – ona hisoblanadi. Lirik qahramon – o'ziga xos shaxsning o'ziga xos xususiyati, uning ichki qiyofasi, uning dunyoqarashi, axloqiy e'tiqodi, fikrlari, mehr-muhabbati, e'tiqodi, xatti-harakatlardan iborat.

Ruhiy faoliyat ikkiga ajraladi: inson, bir tarafdin, o'zidan tashqaridagi olamni o'rganishga, ikkinchi tarafdin o'zidagi "olam"ni anglashga intila boradi. Onaning ruhiyati amaliy faoliyat jarayonida faoliyat yo'naltirilgan narsa o'zgarishga uchraydi. Ha, albatta, bu fikrga yondashgan holda onaning dard-anduh yoki quvonchi bilan sug'orilgan qo'shiq ham mitti go'dak ongiga ta'sir etmay qolmaydi. Badiiy adabiyotda ruhiy faoliyat turlaridan biri deb atashga imkon beradigan narsa shuki, ijodkor o'zining "faoliyat" yo'naltirilgan predmetni (keng ma'noda borliqni) o'z ongida o'zgartiradi va badiiy obrazda aks ettiradi. Lirik qahramon xarakteri turli xil vositalar orqali yoritib beriladi. Bolaga onaning turli vaziyatda turli kayfiyatdagi munosabati, ichki kechinmalari alla sifatida aytiladi. Bu kechinmalarda shukronalik, quvonch, qiyinchilik, ayriliq tuyg'ulari yetakchilik qiladi. Mana shu munosabatlar nuqtai nazaridan qahramon xarakteri yoritib beriladi. Xususan,

*Alla bolam, alla,
Jonim bolam, alla,
Ikki ko'zim, alla,
Shirin so'zim, alla.*

*Alla bolam, baxti bor,
Har narsaning vaqti bor,
Jonim bolam, alla,
Shirin bolam, alla,
Ikki ko'zim, alla.*

Allada onaning samimiy muhabbati, unda yaxshi tarbiya ko'rgan jamoat o'rtasida, to'y-tomoshalarda ota-onaning obro'yi, uning shuhrati sifati ta'riflanadi. Yuqoridagi allada ijrochining o'yi, hayoli, ezgu niyati, porloq kelajak uchun intilishi o'z ifodasini topgan.

Qizil gul novdasidan, alla,

Qamar qilay belingga, alla,

Sochlarim tolasidan, alla,

Bog'ich qilay to'ngingga, alla.

Bunda gul hosildorlik kulti bilan bog'liq bo'lganligi uchun tassavurda uning novdasidan qamar qilish mumkin. Qamar ham magik himoya kuchiga ega. Shuningdek, xalq lirikasida gul, odatda xotin-qizlarni, belbog' obrazi erkaklarni anglatadi. Shu sababli, bu alla o'g'il bolaga aytilganligi, ona qalb nidolari yuqori darajadali, kamol topishi, ulg'ayib oila qurishi, uylanishi orzu qilinmoqda. Bu allada shukronalik munosabati ko'zga tashlangan. O'g'il farzandning dunyoga kelishi onaga uning kelajak haqidagi hissiyotlarini qamrab oladi. O'g'il farzand ota-ona obro'si, shuhrati bo'lib tarannum etilgan.

Qo'li arslon bilakligim, alla,

Botir qoplon bilakligim, alla,

Yaxshi-yomon kunimdan, alla,

Menga juda kerakligim, alla

Allalarda onalarning orzu va armonlari bilan birgalikda ularning turli tarixiy voqealar, ijtimoiy hayotga munosabati ham bayon etiladi. Onalar hech kimga aytolmagan yurak dardlarini, chaqalog'iga, bolasiga alla orqali aytgan va bundan ma'lum darajada yengil tortgan. Bu qo'shiqda onaning qiyinchilik paytidagi kayfiyati aks etgan. Uning og'ir kunlarida polvondek o'g'ilni suyanchig'i sifatida ko'rishi, ayriliq natijasida azoblanayotgan ona timsoli gavdalanadi. Alla o'z davrining lirik kayfiyatidagi ruhiy ko'zgu dir. Onaning yoqimli ohanglari ichida davr muhiti, hayot kishilar o'rtasidagi munosabatlar, qarama-qarshiliklar oddiy so'zlarning go'zal va badiiy, ruhiy qudrati vositasida o'z ifodasini topgan.

*Allayo, alla,
Go'zal qizim, alla,
Oppoq qizim, alla,
Asal qizim, alla,
Oqcha qizim, alla
Zog'cha qizim, alla*

Bu alla erkalama xarakteriga ega. Satr boshida kelgan anafora tarzida “qizim, alla” murojaatnomasi esa monoton mayin ohangni ta'minlovchi murakkab radif bo'lib, butun alla davomida ohang va kuyning yaxlitligini ta'minlagan. Epitet (sifatlash) – qofiyadosh so'zlarda onaning qizalog'iga bo'lgan chuqur mehri xilma-xil qiyoslash va o'xshatishlarda tovlanib turadi. Shu qiyoslash va o'xshatishlarni yuzaga keltirgan narsa va hodisalarning aksariyati uxlatilayotgan qizaloq –alla lirik qahramon xakteri –xususiyatini ochishga intilgan.

Ona har qanday kayfiyatda bo'lmasin, farzandlariga hamisha mehribonlik qiladi. Bu haqida onaning holatini Vetuxov shunday izohlaydi: “O'z mulohazalariga kuchli g'arq bo'lib ketish oqibatida ona chaqalog'ining kelajak taqdirini va hayotining barcha davrlarini o'ylab boshlaydi. Fikr bola atrofida aylanadi-yu, biroq qo'shiqqa ozmi-ko'pmi miqdorda onalik hislari va istaklarini singdirayotganini sezmay qoladi. Natijada onaning o'y-mulohazalari ikki yo'nalishga bo'linadi: ham bolani, ham o'zini o'ylay boshlaydi. Shunday vaziyatda ona o'y-mulohazalarida parishonlik va takror yuzaga keladi. O'zbek allalarida shunday ichki mantiq borki, u qaysidir bir ishorada harakat, ohang va mazmun birligini ta'minlab turadi. Qahramonning xakteri ham ayni payt vujudidan yaralgan joniga – farzandiga bo'lgan samimiy, iliq muhabbatidir.

Alla o'z davrining lirik kayfiyatdagi ruhiy ko'zgudir. Insonni borliqqa bo'lgan munosabatlari, o'y-hayollari, orzulari – jamiki tuyg'ularning tartibli tizilishi natijasida lirik kechinma hosilasi o'laroq alla vujudga keladi. Lirik kechinmalarning yetakchi obraz va poetik peyzajlar, ohang, ritm va boshqalar yordamida ifoda etilishi shular jumlasidandir.

Bulbul sayrar chamanda alla-yo, alla
Shu bag'ri keng vatanda alla-yo, alla
Uni aslo cho'chitmang, alla-yo, alla
Sayrasin shu chamanda, alla-yo, alla

Bulbul uchar qo'limdan, alla-yo, alla
Har kim qo'rqar o'limdan, alla-yo, alla
Shu bulbulim sayrasa, alla-yo, alla
O'lim qochar yo'limdan, alla-yo, alla

Allada ekspozitsiya-bulbulning yozda sayrashi va maftunkorligining har qanday minnatdorlikka sazovorligi bo'lsa, tugun-bulbul obrazidagi o'g'ilning kelajakdagi taqdiri, kim bo'lishi. Kulminatsiya esa shu bulbul- o'g'il taqdirining o'limga ro'para kelmasligi niyatidan tug'ilgan tuyg'ular qarama-qarshi ko'rinadi. Nihoyat, shu o'g'il – bulbulning xushxon sayrab qolishi – o'limni qochirishdan iborat taskin tugunning optimistik yechimi hisoblanadi.

Chaqaloq dunyoga kelishi bilan dastlab, ota-onani taniydi. So'ng oila a'zolari, jonivorlari bilan oshno bo'ladi. Tabiat insonga xizmat qiladi. Inson uni ehtiyot qilishi, parvarishlari, o'stirishi, ko'paytirishi lozim. Shu ma'noda inson ruhiyatiga o'z kuyi, qo'shig'i bilan quvonch bag'ishlaydigan qush-bulbulni ham ehtiyoj qilishi zarurligi bir qator allarning asosini tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan allada onaning farzand kelajagiga ishonchi, orzu-umidga, shirin o'ylarga yo'g'rilgan ezgu tilaklari, mehr-muhabbati mujassam. Ho'sh, ona xarakterining allada namoyon bo'lishi uning ruhiyati, kayfiyati, ezgu niyatlarida aks etarkan.

Demak, allalarda lirik qahramon – ijrochi hisoblanadi. Ularda qahramonning turli vaziyatdagi holati, ruhiyati, bolaga murojaati doirasida yoritiladi. Asrlar davomida sayqallangan ohang lirik qahramon holati va murojaatini bolaga yanada ta'sirli qilib yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent, 2008.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent, 2006.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2004.
4. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent, 2010.
5. <http://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ona.html>
6. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent. 2010.

ID-020-30-A043

Dildorabegim Najmiddinova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

“SHOHNOMADA ” KASB-HUNAR TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqoladagi asosiy g'oya qadimgi hunarmandchiligimiz tarixini adabiyot bilan bog'lagan holda o'rganish. Qadimgi Ajam shohlarini nafaqat shoh timsolida, balki xalqparvar va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlanishiga sababchi bo'lgan shaxs sifatida ko'rish.

Kalit so'zlar: *“Shohnoma”, kasb-hunar, O'rtaOsiyoxalqlari, milliy hunarmandchilik, ilmiy faoliyat, yevropa ilmiylik faoliyati, hunarmandchilik rivojlanishi, zamonaviy hunarmandchilik*

Annotation: The main idea of this article is to study the history of ancient crafts with literature. To view the ancient Kings of Persia not only as a king, but as a person who promotes nationalistic and universal values.

Keywords: *“Shohnoma”, professional, Central Asia peoples, national crafts, scientific activities, European scientific activity, crafts development, modern crafts.*

Abulqosim Firdavsiy Vatan uchun fidoyi yuzlab bahodirlar obrazini yaratgan Benazir san'atkordir. Uning yaratgan yetuk asari adabiyot uchun qo'yilgan haykal desak adashmaymiz. X – XI asrlarda O'rta Osiyo xalqlarining madaniyati, ilm-fani, badiiy adabiyoti yuksak darajaga ko'tarildi. Forsiy guruh shevalarida gapiradigan qabilalar birgalashib, xalq sifatida shakllandi: ularning yagona tili – dariy tili vujudga keldi; turkiy lahjalarda gapiruvchi elatlar ham birlashib, xalq sifatida shakllandi, eski turkiy (o'zbek) adabiy tili ilm-fan, badiiy ijod vositasiga aylandi

Firdavsiy xuddi mana shu davrda yetishib, olamshumul obro' va shuhratga ega bo'ldi. Xalq orasida o'tmish ajdodlar tarixiga, qadimgi afsonalar, rivoyat va dostonlarni qayta to'plashga qiziqish kuchayadi. Ana shu bobolar merosiga qiziqish natijasi o'laroq qadimgi voqeanomalar, afsonalar to'planib "Shohnomai mansur" nomi bilan alohida kitob holiga keltiriladi. "Shohnoma" oliy darajada tartibga solingan asar. Kompozitsiyasi juda ham puxta. Firdavsiy o'zining bu ulkan asarida juda ko'p falsafiy g'oyalar, social muammolarni ilgari suradi, ko'p xarakterlar yaratadi, peyzajlar chizadi.

Shoirning "Shohnoma" si hajmi, mavzusi, obrazlari, g'oyaviy motivlari va badiiy qimmatini jihatidan dunyodagi eng katta asardir. U yuzdan ortiq dostonlardan tashkil topgan bo'lib, ularda mingda ziyod bir-biriga o'xshamagan obraz va personajlar tasvirlangan. Bu asar mavzu va g'oyaviy jihatdan ham eng zo'r asar hisoblanadi. Doston nafaqat vatanparvarlik, tinch-totuvlik va baynalmilallik haqida so'zlaydi, balki asarda tarixiylik jihatdan qadriyatlar, kasb-hunarlarining kelib chiqishi ham aytib o'tilgan. Podshohlarning zulmi, ularning adolati-yu xalqqa ko'rsatgan adovatidan tashqari, kasblarning ildizi, ularning paydo bo'lishi uchun xizmat qilgan podshohlar haqida ham aytib o'tilgan.

"Shohnoma" dan kitobxon nafaqat millatparvarlik yoki vatanga muhabbatni o'rganadi, balki o'zining ajdodlari qay tarzda kasb-hunarga asos solganini ham bilib oladi. Bilmagan sir-u asrorlari ulkan doston orqali namoyon bo'ladi. Dostonni o'qigan inson uning dunyo mo'jizalarini jamlagan deb o'ylaydi. Haqiqatdan ham, kitob to'laqonli ajoyibot dunyosiga o'xshaydi.[3] Asar ilmiy, badiiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiylik jihatdan juda muhim sanaladi. Chunki Firdavsiy qo'llagan har bir detall yoki so'zhar bir sohada o'zining qiymatiga ega. Masalan, asarning ilmiylik jihati uning tarjimasidir, negaki matn tarjimasi bilan shug'ullangan har qaysi olim uning yuksakligini ommaga to'laqonli namoyon eta oldi. Hattoki o'zbek olimlari ham uning tarjimasini bilan shug'ullanib, uni ilm ahliga namoyish etishdi. Bulardan misol qilib, Jumaniyoz abborov, Sadridin Ayniy, Hamid G'ulom, Hamidjon Hamidiy, Shoislom

Shomuhamedov kabi olimlarimizning sa'y-harakatlari bilan yaratilgan asarlarni ilmiylik darajasi yuqori desak adashmaymiz. Hamidjon Hamidiy o'zbek adabiyotida o'zining "'Shohnoma" ning shuhrati" deb ataladigan asarini yaratadi. Olim bunda "Shohnoma" ning turli xalqlar va mamlakatlarning tadqiqotchi olimlari va adiblarining nazdida ulkan bir cho'qqiday tovlanib, yuksakka bo'y cho'zib turishini isbotlaydi. Shoislom Shomuhamedov tarjimon sifatida "Shohnomaning " 3 jildli tarjimasini va nashri yaratadi. Adabiyotshunos va sharqshunos olim Sadridin Ayniy asar ustida ko'p izlanishlar olib borib, o'zining "Firdavsiy va uning "Shohnoma" si haqida" deb atalgan asarini bitdi.

Nafaqat o'zbek, balki rus va Yevropa olimlari, shoir va adiblari ham Firdavsiy ijodiga qiziqish bilan qaraganlar, uning "Shohnoma"sini so'z san'atining yuksak cho'qqisi sifatida yuqori baholaganlar. Chunonchi, 1815-1818 yillarda "ВестникЕвропы" jurnalida "Shohnoma"dan ba'zi parchalar, "Bijon va Manija" tarjimasini e'lon qilinadi. Bu parchalar "Shohnoma"ning rus tiliga birinchi marta tarjimasini edi. Mashhur shoir va tarjimon В.Жуковский 1847 yili "Shohnoma" ning Фр.Рюккерт tomonidan nemis tiliga qilingan tarjimasidan "Rustam va Suxrob" dostonini erkin tarjima qiladi. Жуковский tarjimasida originalning vazni va ohangdorligiga e'tibor berilmagan, qahramonlarning nomlari o'zgartirilgan. Ammo shunqamay Firdavsiy syujetini rus kitobxoniga mo'ljallab qayta yaratilgan ana shu asar orqaligina rus xalqi Firdavsiy dahosi bilan kengroq tanishishga muvassar bo'ldi, undagi qahramonlik, bahodirlik, vatanparvarlik, gumanistik motivlar kitobxonni maftun etdi.[2.79-bet].

Ukrain xalqini Firdavsiy asari bilan ilk marotaba sharqshunos А.Кримский tanishtirdi. 1905- yil В.С.Соколов"Shohnoma" dan 500 baytni, ya'ni boshlanishidan to "Rustam va Suxrob" dostonigacha originaldan she'r bilan rus tiliga tarjima qiladi.[2.80-bet]. Demak, "Shohnoma" o'zining yuksak g'oyalari, badiiy qudrati bilan hamma davrlarda barcha xalqlarning ilg'or ziyolilariyu olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilgan . Asarni har tomonlama o'rganish esa, uning barcha qirralarini ochib beradi. Negaki, "Shohnoma" da

oddiy xalqdan tortib to o'ziga to'q xalqlarning turmushi, ahvoli, yashash tarzi namoyon etilar ekan, ularga har tomonlama obyektiv baho berish mumkin. Firdavsiy yaratgan bebaho asarni san'at va madaniyat bilan bog'lab o'rganmoqchi bo'ldim va bu yo'nalishni hunarmandchilik mavzusini yoritishga harakat qildim .

Nomi tilga olingan shohlarning madaniyat sohasiga qo'shgan yangiligiga e'tibor bersak:

	Kasb tipi	Nomi	Asoschisi	Natija
1	Temirchilik	Temirchilik	Xushang Hukmronligi 40 yil	Qaro toshdan temir ajraldi, arra, bolta va tesha yasattirdi
2	Dehqonchilik	Dehqonchilik	Xushang Hukmronligi 40 yil	har kim o'z nonini topadi, xalqni ko'chmanchilik qiynamaydigan bo'ldi.
3	Liboschilik	Liboschilik	Xushang Hukmronligi 40 yil	jonivorlar po'stidan kiyim qiladigan bo'lishdi
4	Ip yigirish	Ip yigirish	Taxumars	qo'y junini urchuqqa solib yigirish boshlandi
5	To'qimachilik	To'qimachilik	Taxumars	Jundan mato va gilam yaratila boshlandi
6	Qushchilik	Qushchilik	Taxumars	Qushlarga saboq berish va ularni avaylash boshlandi
7	Harbiy soha	Harbiy soha	Jamshid Hukmronligi 700 yil	zirih, qalqon, qalpoq yassatirdi

8	Sarbozlik	Sarbozlik	Jamshid Hukmronligi 700 yil	sazrbozlik kundan kun rivojlana boshlandi
9	Sovutchilik	Sovutchilik	Jamshid Hukmronligi 700 yil	otlarga sovut yasala boshlandi
10	Bichuvchilik	Bichuvchilik	Jamshid Hukmronligi 700 yil	razm-bazm libosi yaratildi
11	To'quvchilik	To'quvchilik	Jamshid	arqon o'rish va matolar to'qish boshlandi
12	Tabiblik	Tabiblik	Jamshid	kasalga, har illatga davo topildi
13	Kemasozlik	Kemasozlik	Jamshid	kishvardan kishvarga suzlila boshlandi

Temirchilik deganda qadimda va hozirda qo'li gul yoki sehrgar insonlar tushunilgan. Bu sohada asosan temirchi temirni bolg'alab turli buyumlar(ketmon, o'roq, tesha) yasaydi. Avvalgi davrlarda faqat mehnat qurollari yoki turli xil aslahalar yasalgan bo'lsa, endilikda og'ir mashinasozlikdan boshlab shtampalsh yoki presslash kabi turlari vujudga kelgan. Temirchilikni yaratilishi nafaqat ajam shohlari, balki hozirgi dunyo uchun asosiy faoliyat sanaladi.

Qadimgi zamonda hayvonlar terisidan faqatgina kiyim-kechak yaratilgan bo'lsa hozirgi kunda kelib tikuvchilikni o'zi bir necha tarmoqlarga bo'lingan. Masalan, to'qimachilik, tikuvchilik, ko'nchilik, mo'ynado'zlik va poyabzal sanoatlari kabi turlarning jamlanmasi yengil sanoatga kiradi.

Bularning har biri alohida vazifaga ega. Fanda ip yigirish vatani Hindiston deb olingan bo'lishiga qaramasdan, yigirish Taxumars tomonidan yaratilgan. Yigirish esa tolali o'simlik va junlardan ip hosil qilish. Oldingi zamonlarda yigirish qo'lda qilingan bo'lsa, endilikda yigirish mashinalari, yigirish kombaynlari hosil bo'lgan. Hattoki ipni tozalash, pishitish, uzunligi yoki yog'onligi bo'yicha xillash, pardozlash, o'rash kabi jarayonlari ham mavjud. Bundan shu ko'rinadiki, yigirish texnologiyasi hozirgi kunda eng rivojlangan hunarmandchilik turi.

Sarbozlik hozirgi kundagi ma'nodoshi askar bo'lib, bu soha avvalgi davrlarda shohlarning asosiy bir qo'li sifatida bo'lgan. Bu shaxslarsiz shoh hech qanday jang-u jadallarni olib borolmagan.ular mamlakatning tayanchi vazifasini o'tagan. Bizning mamlakatimizda askarning o'zi oddiy askar, serjant va starshinalarga bo'linadi va ularning harbiy vazifani o'tash muddati bor. Shohlar davrida esa sarbozlik bir umrlik bo'lgan va bugungi davrdek vatanga xizmat qilish ular uchun sharaf hisoblangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, "Shohnoma" dostonida shohlar va shahzodalarning davlat boshqaruvi, olib borgan odilona siyosatlari, mamlakat tinchligini mustahkamlash, podshohlarning ijtimoiy turmushning osonlashtirish uchun o'sha davrda qo'llagan ixtirolari hozirgi kunga qadar qo'llanilib kelishi haqida to'xtalib o'tdim. Mazkur maqolamda Ajam shohlari tomonidan yaratilgan kashfiyotlar haqida qisman ma'lumot berib, ularni hozirgi davr bilan bog'lashga harakat qildim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Firdavsiy. Shohnoma. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1984.
2. Hamidjon Homidiy. Shohnomaning shuhrati. – T.: O'zbekiston, 1991
3. Hamidjon Homidiy. Firdavsiy va o'zbek adabiyoti. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2012.
4. Hamidjon Homidiy. Ko'hna sharq darg'alari.T.: Sharq, 2004
5. Рубинчик. Персидский-русский словарь. –Москва. Русский язык. 1983.
6. Mo'in."فرحنگ ذبني فرسی" – Eron.1988.

ID-020-30-A044

Dilnoza Suyunova

Oʻzbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

FITRAT VA YANGI OʻZBEK ADABIYOTI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Fitrat yashab ijod etgan davr uning adabiyotni rivojlanshiga oid qarashlari, fikr va mulohazalari tahlil qilinadi. Maqolada Fitrat bilan zamondosh olimlarning uning ijodiga, olib borgan tadqiqotiga munosabati ham aks etgan. Shuningdek, olimning XX asr boshlaridagi oʻzbek adabiyotini davrlashtirish masalalariga oid qarashlari aks etgan “Oʻzbek adabiyoti namunalari” kitobiga atroflicha yondashilgan.. Mustaqillik yillarida oʻzbek adabiyotida Fitrat ijodini oʻrganish bilan shugʻullangan olimlar, ularning Fitratning tadqiqotlariga munosabatlari ham tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar:“Chigʻatoy gurungi”, adabiyot, tadqiqot, turkiy xalqlar, ijodkor, davrlashtirish,

Annotation. In this article, we can see Fitrat's views, opinions and reflections on the development of literature during his lifetime. In the scientific work, Fitrat's views on this issue are presented and analyzed. The article reflects the attitude of contemporary scholars of Fitrat to his work and research. There is also a comprehensive approach to the book "Samples of Uzbek literature", which reflects the views of the scientist on the chronology of Uzbek literature in the early twentieth century. It has also been analyzed scholars who have studied Fitrat's work in Uzbek literature during the years of independence and their attitudes to Fitrat's research.

Key words:“Chigʻatoy gurungi”, literature, research, Turkic peoples, creative, periodization.

Fitrat ijod etgan XX asr boshlaridagi davr muhiti boshqa davrlardan muayyan xususiyatlari bilan farq qilgan. Bu farqlardavrning murakkabligi,

siyosiy-ijtimoiy tuzimdagi muommolar o'sha davrda xilma-xil fikrlarning mujassam bo'lganida ko'rishimiz mumkin. Davrning umumiy ruhini va ilmiy-adabiy estetikasini ham ana shunday xilma-xil va o'zaro zid qarashlar tashkil etganligini anglashimiz mumkin.

20-yillarning boshlarida Fitrat tomonidan tuzilgan "Chig'atoy gurunigi" davrning eng yirik ilmiy yangiliklaridan biri bo'lgan. Uning "faol a'zolari: Qayum Ramazonov, Shorasul Zunnun, Elbek, Shokirjon Rashimiy, G'ulom Zafariy, Mirmullo Shermushammedov, G'ozi Yunus, Chulpon, Botu, Sanjar Siddiqov, Mannon Ramziy, Uyg'ur kabilar bo'lgan". "Chig'atoy gurunigi"da asosan til va imlo masalalariga e'tibor qaratilgan bo'lsa ham, mumtoz merosimizni sistemali tadqiq etish, ularni to'plab nashr ettirish ishlari bilan ham shug'ullandi.[1.97-bet]

Adabiy usul va vazn masallarini o'rgangan. Barmoq vaznining turkiy adabiyot tarixida tutgan o'rni va kelajakdagi imkoniyatlari xususidagi nazariy ma'lumotlar keltirilgan salmog'li tadqiqotlar yozilgan.

O'sha davrda "Chig'atoy gurunigi" a'zolaridan tashqari ham ko'plab ijodkorlar adabiyotshunoslik masalalari bilan shug'ullanganlar. Bular, Abdurahmon Sa'diy, Vadud Mahmud, Otajon Hoshim, Miyonbuzruk Solihov, Laziz Azizzoda, Hoji Muyin, Olim Sharafiddinov kabilarning faoliyatlar yuritishganlar. Davr ilmiy ilmiy-adabiy muhitini tashkil etgan olimlar adabiyotshunoslikning turli xil muammolarini hal qilishga qaratilgan maqolalari, asarlarida yondashuvlarida farq bor bo'lgan.

Fitrat yashagan davr ilmiy-adabiy muhitini faqat ijtimoiy shart-sharoit emas, balki negizida ichki "men" bo'lgan individual qarashlar ham tashkil etgan, deyish mumkin. XX asr boshlari ilmiy-adabiy muhitining eng yirik vakillaridan biri Fitrat ediki, bu jihat uning ijodini psixologik va estetik aspektlarda chuqurroq o'rganishni taqazo etadi.[2.13-bet]

Fitrat ijodi bilan chuqur tadqiqotlar olib borgan olimimizning bu fikrlaridan ko'rinib turibdiki, Fitrat ijodini o'rganish jarayonida uning ijod namunlari hisoblangan tadqiqot namunlarini sinchiklab o'rganish kerakligini,

o'sha davr adabiyotshunosligi rivojida katta ahamiyat kasb etgan asarlaridagi yozuvchi kechinmalarini, davr muhitining ijod mahsuliga ta'sirlarini ham chuqurroq ahamiyat qilib o'rganish lozimligini anglaymiz.

XX asr 20-yillar ilmiy-adabiy muhitining eng yirik vakillaridan biri Fitrat bo'lganligi uchun ham uning adabiy jarayondagi faoliyatini o'rganish adabiyot rivojidagi ta'sirini bilish ahamiyatlidir.

Fitrat o'z davrining eng yetuk ko'zga ko'ringan shaxslaridan bo'lgan. Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy kabi maslakdoshlarining u haqida yotgan fikrlari ham isbotlaydi. Bundan tashqari nafaqat Turkiston, balki G'arb mamlakatlarida ham e'borida bo'lgan. Bu haqida prof. B.qosimov shunday yozgan: "Uning aqlu zakovatini Kavkaz va Volga bo'yidagi hamkasblarigina emas, Moskva, Leningraddagi sharqshunoslar ham yuksak qadrlaganlar. 1924 yilda u Moskvada Sharq tillari institutida dars bergan, professor bilgan. Afg'oniston, Eron, Turkiya ilmiy-adabiy doiralarida sham uning mavqemartabasi baland edi". [3.69-bet]

Fitrat aruz vaznini turkiy adabiyotga muvofiqlashtirishga, barmoq vaznini o'zbek adabiyotining yetakchi vazni darajasiga ko'tarishga, adabiy tilni forscha-arabcha so'zlardan tozalashga haraqqat qilgan. 20-yillar boshida uning tomonidan "Chig'atoy gurungi" tashkilotining tuzilishiga ham shu ta'sir natijasi bo'lgan.

1924 yildan keyin Fitrat siyosat maydonidan chetlashgan, ilmiy ishlarining asosida siyosiy bir maqsad, ya'ni millat manfaati yotganini ko'rishimiz mumkin. Olimning qatag'on qilinishidan oldin (1936) nashr etilgan "Aruz shaqida" asarida ham millatparvarlik pozitsiyasi saqlanib qolgan, bu Fitrat ichki "men"ida ayni xususiyatlarning yetakchi o'rin tutganidan dalolat beradi.

Fitrat an'anaviy Sharq, turk, tatar, rus va Ovropro adabiyotshunosligidan bilim va tajribalarini ham o'rgangan. Ularni esa olimning barcha tadqiqotlarida foydalangan desak adashmaymiz.

Fitrat badiiy adabiyotning mohiyati to'g'risida aytadi; ijodkor-shaxs so'zlarni shunday tuzsinki, u har bir kishiga estetik zavq bera olsun ("qonini qaynatsin, singirlarini o'ynatsin"), shu bilan birga ongini yuksaltirsin ("miyasini titratsin, sezgisini qo'zg'atsin"). Tom ma'nodagi adabiyotning mohiyati shudir. Ijodkor ham shundagina iz nomiga munosib bo'la oladi.

Olimning o'sha davr ijodkorlarining oldiga qo'ygan, ijod mahsulining qiymatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadigan talablarida juda ham falsafiy ham teran fikrlariga binoan yozilgan asargina haqiqiy ma'nodagi ta'sir eta oladigan asar bo'lishiga shubha yo'q. Adabiy jarayonda ijod qilyotgan har bir ijodkor teran anglab, adabiyotshunoslikdagi manu shu mohiyatni anglagan holda ijodiy faoliyat yuritsa albatta o'quvchi qalbini zabt eta oladi.

Fitratning she'riyat haqida bildirgan fikrlari ham ancha mohiyati chuqur fikrlardir, she'r bo'lishi uchun shaklning o'zigina kifoya qilmaydi. Ya'ni u shaklga tushsa-yu, muxlisiga estetik ta'sir o'tkaza olmasa, u she'r emas, nazm parchasidir". "Adabiyot qoidolari" kitobining shu o'rnida So'fi Olloyorning "Yozildi turki til birla maktub...", deb boshlanuvchi olti misrasi bilan Cho'lponning "Kleopatra" nomli bir asarini qiyoslab So'fi Olloyor she'ri "she'r emas bir nazm parchasidir" degan xulosaga kelgan.

Mustaqillik yillarida Fitrat ijodini o'rganish bilan shug'ullangan F.f.d.prof., Uzoq Jo'raqulov, Fitratning bu fikriga qo'shimcha qilib; Fitrat she'rning istilohiy mohiyati va janr xusiyatini aniqlashga asosiy e'tiborini qaratgan."Adabiyot qoidolari" kitobidagi ushbu bo'limning "She'r" deb nomalanishidan ham buni anglash mumkinki, Fitratning So'fi Olloyordan olingan misralarini "she'r emas, bir nazm parchasi" deya baholashi uning shoir ijodiga noholis munosabatini bildirmaydi. Balki uning zukko she'rshunos ekanidan dalolat beradi. 20-yillarda hatto, bugungi kunda ham sharq qanday qofiyali she'rlarni she'r deyish rasmga kirgani ma'lum. Voqean, olimning yuqoridagi fikrlari aynan shunday noaniqliklarga nuqta qo'yish uchun aytilgan edi.

Ushbu masalaga Fitrat boshqa asarlarida ham to'xtalgan. Fitratning nuqtai nazaricha, adabiyotni halokatga olib bo'radigan, o'ldiradigan narsa "taqliddir". Bu insonlarning har bir ishda o'zlaridan yuqoriroqlarga bemaqsad "ergashuvchilardan kelib chiqadi". Taqlid yana "son sanoqsiz shoirlar yetishtirgan davrningda hech bir yangilik ko'rsatmasligi" ga olib keladi. Cho'lpon ham butun mumtoz adabiyotni "bir xil" deb nomlaganda mana shu tanqidchilikni ko'zda tutgan.[2.25-bet]

Fitrat ijodini o'rganish jarayonida uning adabiyotning har bir yo'nalishi bo'yicha yuksak darajadagi ilm egasi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki Fitrat ijodini o'rgangan, har bir tadqiqotchi uning naqadar tengsiz adabiyotshunos ekanligini anglashi tabiiydir.

XX asr boshlarida barcha turkiy xalqlar o'z adabiyotlarini o'rganish, uning tarixiy ildizlarini topish va uning oqibatida milliy adabiyotni shakllantirishga harakat qilishgan. Bu jarayon Volga bo'yi tatarlarida juda jadal kechgan va natijada 3 jildlik "Tatar adabiyoti tarixi" yaratilgan. O'sha davrda ayni jarayon O'zbekistonda ham kun tartibiga chiqqan va o'zbek milliy adabiyotini davrlashtirish muammosini birinchilardan bo'lib hal qilishni Abdurauf Fitrat boshlab bergan. Uning 1920-yilning o'rtalarida yaratilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" va "Eski turk adabiyoti namunalari" majmualari o'zbek adabiyotini davrlashtirish borasidagi ilk qadamlar sifatida baholangan.

Fitrat o'zbek adabiyotini davrlashtirishga ham alohida e'tibor, Temuriylar davri chig'atoy adabiyoti va XVI asr o'zbek adabiyotini ikki qarama-qarshi qutb sifatida baholaydi. Temuriylar davridagi o'zbek adabiyotining yuksak darajasiga shubha yo'q.

Fitrat XVI asrdan keyingi o'zbek adabiyotini alohida bosqich sifatida qarab, bu davrdagi adabiyotning ortga ketishiga asosiy sabab sifatida tarixiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni asos qilib oladi.[5.11-bet] Nasimxon Rahmonovning, bunday xulosaga kelishi fitratning quyidagi fikrlaridan kelib chiqqanligidan dalolat beradi.

U bu davr adabiyotini tahlil qilib, tanazzulning sabablarini quyidagicha tushuntirib beradi: “O’rta Osiyo savdo sarmoyasi tushgan, O’rta Osiyoda iqtisodiy hayot yemirila boshlagan edi. Adabiyotning, umuman san’atning shul izdan yurib, kun sayin tusha borishi tabiiy edi.[6.56-bet]

Fitratning qarashicha biz ham aytishimiz mumkinki, olim adabiyotning yemirilishida asosiy omil iqtisodiy tanazzul ekanligi, undan keyin esa ichki urushlar, kelishmovchiliklar hokimiyat uchun kurush , iqtisodiy jarayonni izdan chiqishiga olib keladi, natijada esa oddiy hayotni izdan chiqishiga, tartibsizlikka olib keladi.

Fitratning qarashicha, iqtisodiy tanazzul adabiyot tanazzulining birinchi omilidir. Ikkinchidan, Fitratning fikricha o’zaro ichki urushlar va hokimiyat uchun kurash madaniy hayotning izdan chiqishiga olib keldi. XVI asr oxiriga kelib “mamlakatda adabiyotning, umuman, nafis san’atning taraqqiysiga, o’siviga maydon qolmadi. Bir ko’p san’atkorlar, shoirlar, olimlar Xindistonda Bobur Mirzo tomonidan qurilgan mo’g’ul hukumatning poytaxtiga hijrat qila boshladilar. O’rta Osiyoda qolgan shoirlar esa, saroydan himoya ko’ra olmag’ach, omma orasidan o’quchilar ta’min etishga kirishdilar. Shuning uchun saroyning muhtasham takallufli, bezakli uslubini tashlab, omma uslubiga yaqinlashuvga tirishdilar. Bu davr o’zbek adabiyotining san’atga tuban tushgan davri bo’lib, 19-asrning boshlarig’acha davom qildi. [3.58-bet]

Adabiyotning, umuman, san’atning shul izdan yurub, kun sayin tusha borishi tabiiy edi. Fitratning qarashicha, iqtisodiy tanazzul adabiyot tanazzulining birinchi omilidir. Ikkinchidan, Fitratning fikricha o’zaro ichki urushlar va hokimiyat uchun kurash madaniy hayotning izdan chiqishiga olib keldi. XVI asr oxiriga kelib “mamlakatda adabiyotning, umuman, nafis san’atning taraqqiysiga, o’sivuga maydon qolmadi. Bir ko’p san’atkorlar, shoirlar, olimlar Xindistonda Bobur Mirzo tomonidan qurilgan mo’g’ul hukumatning poytaxtiga hijrat qila boshladilar. O’rta Osiyoda qolgan shoirlar esa, saroydan himoya ko’ra olmag’ach, omma orasidan o’quchilar ta’min etishga kirishdilar. Shuning uchun saroyning muhtasham takallufli, bezakli

uslubini tashlab, omma uslubiga yaqinlashuvga tirishdilar. Bu davr o'zbek adabiyotining san'atga tuban tushgan davri bo'lib, 19-asrning boshlarig'acha davom qildi. Fitrat XVI asrdan keyingi o'zbek adabiyotining eng ko'zga ko'rinarlik xususiyati sifatida adabiyotga o'g'uz turkchasining ta'sirini ko'rsatadi.

Adabiyotimiz tarixini davrlashtirish masalasi bugungi kungacha to'la hal bo'lgan masala emas. Adabiyotni davrlashtirishga dastlabki urinishlar 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan. Birinchi bo'lib bu masalani Abdurauf Fitrat boshlab bergan. Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" asarida o'z yechimini topgan. Undan keyinroq, Olim Sharafiddinov, Miyon Buzruk kabi olimlar hal qilishga uringan.

Fitrat tasavvuf adabiyotidamizda ham salmoqli tadqiqotlarni olib borgan. XX asrning boshlarida olim adabiyot tarixchisi sifatida "Yassaviy davri"deb qaralgan X-XII asrlar adabiyoti bilan ham jiddiy shug'ullangan, somoniylar, qoraxoniylar, va g'aznaviylar kabi ilk turk islom davlatlarida e'tibor topgan Mahmud Qoshg'ariy, Adib Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib haqida o'zbek adabiyotshunoslari ichida birinchilardan bo'lib maqolalar yozgan. Bu maqolalarida ilk turk dostonchilarining asarlarini tahlil etgan, ularda tasavvufiy holatlarni ham aks etganini ko'rishimiz mumkin.[4.45-bet]

Bundan tashqari o'zbek adabiyotshunosligi tarixida ilk adabiyotshunoslikka oid majmua sanalgan "O'zbek adabiyoti namunalari"ni yaratgan. Bu asarida o'zbek adabiyotini tarixidan boshlab o'raginib o'zbek adabiyotini davrlashtirgan ilk olimdir.

Xullas, Fitrat adabiy-nazariy qarashlari iz davridagi eng ilg'or qarash shisoblanadi. U oldinga surgan fikrlarning jahon adabiyotshunosligida mavjud fikrlar bilan mos kelishi, ya'ni umumestetik talablarga javob berishi bunga dalildir. Fitratdan keyin yozilgan ishlarga ham uning ko'pgina fikrlari asos qilib olinganki, buni aksariyat fitratshunoslar e'tirof etadilar.

Mustaqillik yillarida ham bir qator tadqiqotchilarimiz o'zbek adabiyotini davrlashtirishgan. Ularning davrlashtirishida Fitratning davrlashtirishga oid qarashlarining qilingan qo'shimchalarni ko'rishimiz mumkin.

Nasimxon Rahmonov, Natan Mallaev, Vohid Abdullaev, G'ulom Karimov, Vohid Zohidov, Bahodir Sarimsoqov, A.Samoylovich, Hamidulla Boltaboev kabilar yaratgan ilmiy tadqiqotlarida o'rtaga tashlandi. Nomi zikr etilgan adabiyotshunoslarning ishlarida ma'lum tamoyillarga asoslangan holda o'zbek adabiyotini qadimdan hozirga qadar tadrijiy rivojini davrlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda ko'p asrli o'zbek adabiyotining to'la yaxlit va sistemalashgan manzarasini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. Maslakdoshlar.-T.:Sharq, 1994.
2. Uzoq Jo'raqulov. Fitratning tadqiqotchilik mahorati.T.: 2003.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar.2-jild. (Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev). T.: Ma'naviyat, 2000.
4. Hamidulla Boltaboyev. Abdurauf Fitrat-Adabiyotshunos. T.:Yozuvchi nashriyoti, 1996.
5. Rahmonov N.A. O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. T.: Mutoz so'z, 2016.
6. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar.2-jild. Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev.- T.: Ma'naviyat, 2000.

ID-020-30-A045

Dilzoda Yusupova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

MAVSUM MAROSIM FOLKLORINING TARIXIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mavsum marosimning tarixiy asoslari haqida, xususan bugungi kunda yo'qolib borayotgan, faqatgina keksalar xotirasida saqlanib qolgan mavsum marosimlari haqida so'z boradi. Ushbu mavsum marosimlar, jumladan "Boychechak", "Sustxotin", "Choymomo" kabi marosimlarning tarixiy ildizlariga nazar solish, ushbu qadryatlarning bugungi kunda o'rganilishida, ularni kelajak avlodga yetkazishda va sohaning rivojlanishi va ravnaqida juda katta rol o'ynaydi. . Bundan tashqari folklorshunos olimlar B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulovlarning o'zbek mavsum marosimi haqidagi qarashlariga ham to'xtalib o'tamiz. O'ylaymizki ushbu maqoladagi ma'lumotlar folklorshunoslik sohasida faoliyat olibborayotgan soha vakillari uchun zarur manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalitso'zlar: *Mavsum, marosim, "Boychechak", "Choymomo", "Sustxotin".*

Annotation. This article deals with the background of uzbek seasonable traditions. Especially, it considers the traditions which are disappearing nowadays and remained only in the memory of our ancestors. Learning these traditions such as and others play a great role in development of this sphere and to make our future generation be aware of their past Besides this article gives the viewpoints of scholars in folklore As we consider all information in this article can be beneficial for readers.

Key words: *Seasonable tradition, "Boychechak", "Choymomo", "Sustxotin".*

O'zbek xalqi mavsumiy marosimlarga boy xalqlardan biri hisoblanadi. Bu boylik va rang-baranglik esa o'zbek xalqining yilning to'rt faslidagi yashash tarzi, mehnat turlari bilan aloqadordir. Har bir marosim esa o'ziga xos

aytimlarga, qo‘shiq afsunlarga ega bo‘lganligi sababli folklorshunoslikda marosim va unda ishtirok etuvchi so‘z komponenti birgalikda mavsum marosimlari folklori atamasi bilan yuritiladi. [1.34-bet] Har bir sohaning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgani kabi o‘zbek marosim folklori tarkibiga kiruvchi mavsum marosim folklorining ham aynan o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlari mavzud. Biz ularni mavsum marosim folklorining tarixiy ildizlariga, yaratilish va o‘tkazilish jarayonlariga va qolaversa mavsum marosimlarida ijro etiladigan folklor namunalarining mazmuniga qarab bilib olishimiz mumkin. Mavsum marosim folklorining tarixiga nazar tashlar ekanmiz, o‘zbek tilshunosligi va xalq og‘zaki ijodi namunalarining eng qadimgi namunalarini bizning davrimizgacha etib kelishiga sababchi bo‘lgan buyuk asarga, ya‘ni M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asariga murojaat qilamiz. Asarda xalq og‘zaki ijodidagi-ertaklar, afsonalar, maqollar, hikmatli so‘zlar bilan bir qatorda mehnat qo‘shiqlari, qahramonlik qo‘shiqlari, marosim qo‘shiqlari, mavsum qo‘shiqlari haqida ham ma‘lumot berib o‘tiladi. Devonda berilgan og‘zaki ijod namunalarining ko‘pchiligi mavsum qo‘shiqlari va tabiat tasviri lirikasi janrlariga mansub qo‘shiqlar sirasiga kiradi. Bu qo‘shiqlarda qadim zamondagi kishilarning tabiat xodisalari haqidagi tushunchasi va bu hodisalarga munosabatini ifodalaydi.Ularning tabiat xodisalarini yaxshi va yomon ruhlar bilan bog‘lash kabi qarashlari yil fasllari haqidagi tushunchalarida ham yaqqol ko‘rinadi.

Tarixiy manbalarda, jumladan Mahmud Koshg‘ariy, Beruniy, Umar Hayyom, Alisher Navoiy kabi allomalarimizning asarlarida va boshqa manbalarda Navro‘z bayrami, u bilan bog‘liq urf-odatlar haqida ko‘plab ma‘lumotlar keltirilgan. Abu Rayxon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” deb nomlangan asarida ham bu bayramga katta o‘rin ajratadi. Uning kelib chiqishi, tarixi haqida fikr yuritadi. Alisher Navoiy bu bayram haqida gapirar ekan , “Har tuning qadr o‘lubon, har kuning o‘lsun Navro‘z” deydi. Navro‘z shunchaki, bir bayram emas.U millatning tarixi, falsafasi, badiiyati va san‘ati, madaniyati, mifologik, diniy va dunyoviy

dunyoqarashini, ilmiy tafakkur tarzini o'zida mujassam etgan qomusiy bir ayyomdir. Navro'z kun bilan tun teng kelgan kundir. Qadimda yil taqvimini, ya'ni fasllar almashinuvi, uning qutblarini bilish kishilar faoliyatida muhim ahamiyati kasb etgan. Ajdodlarimiz quyosh, oy, yulduz kabi osmon yoriqichlari harakatini kuzatib ular haqida mukammal bilimga ega bo'lgandir. Bu ularning kundalik, hajalik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va diniy hayotida muhim rol o'ynagan. Aslida Navro'z haqidagi mavsumiy marosimlar va qo'shiqlar mohiyatida ana shu jarayonlar haqidagi tasavvurlar o'z aksini topgandir. [2.109-110-betlar]

Folklorshunos J.Eshonqulovning "Xalqning o'ziday qadim va ulug' ayyom" nomli maqolasida ushbu marosimni quyidagicha tariflaydi. "Qadimda "Boychechak" marosimi har bitta qishloq, yoki shaharlarda mahallalar ikkiga bo'lingan. Bir tomon ko'klamni, ikkinchi taraf esa qishni ifodalagan. Ularning orasidan yigitlar yoki qizlar ajratilgan. Ko'klam tomon o'zlarini ko'klam kabi gullar bilan bezatgan. Qiz tomon esa po'stinlarini teskari kiyib, huddi bo'ri shaklida kiyingan, yuzlariga niqoblar taqishgan. Ko'klam tomon xonadonma-xonadon boychechak qo'shig'ini aytib, uylardan qishni quvib chiqishgan. Go'yoki bu shahar, qishloq yoki mahalladan boychechak qish-bo'rini haydab quvgan. Bu jarayon osonlikcha kechmagan. Xonadon, mahalla, qishloq, shahardagi har bir qadam yerda qish bilan yoz o'rtasida murosasiz kurash ketgan. Qish chekinmaslik uchun qarshilik ko'rsatgan. Yoz tomon esa xonadon egalari yordamida baribir ustun kelgan. Xonadon sohiblari, qishni quvlab chiqargani uchun boychechaklarni taqdirlab tortiqlar berishgan. Ayni paytda bu tortiq kelasi yil uchun urug'day qabul qilingan. Tortiq qiymatiga ko'ra, bu yilgi ko'klamdan shunchalik kuzgi daromad kutilgan. Marosim yakunidagi ommaviy shodiyonada, ya'ni qishning ko'klamdan yengilib, mag'lub etilgani raqs, qo'shiqlar vositasida ko'rsatilgan. Bu qo'shiqlar endilikda marosim tizimidan butkul uzulgan holda, lirik qo'shiq sifatida aytiladi". [2.120-121-betlar]

Huddi shunday holatni, ya'ni qish va yoz o'rtasidagi tortishuvni yuqorida

keltirilgan M.Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ham uchratgan edik.

Bundan shuni anglash mumkinki, "Boychechak" marosimi qadimiyligi bilan ham qadrlidir. Balki, shunga o'xshash marosimlar bo'lib, boshqa nomlar bilan nomlangan bo'lishi ham mumkin. Lekin o'sha mavsumiy qarashlarni o'zida ifodalagan, insonlarning ilk tabiat hodisalari bilan aloqadorlik jarayonlarini o'zida namoyon qila olgan, qolaversa bahoriy, ya'ni ko'klam nashidalarini o'zida aks ettirgan mavsumiy marosimlar bizning nazarimizda bugungi kunda yo'qolib ketish arafasida turgan "Boychechak" marosimining ko'rinishlaridan biridir.

Xorazmda sumalak sayli bilan aloqador bo'lgan "Ashshadarozi" o'yini va unda aytiluvchi laparning tub asoslarini qish va yoz munozarasi sifatida baholash o'rinli. Ushbu laparni marosimdan butkul ajralib sof san'at namunasiga aylangan versiyasi sifatida Farg'ona vodiysida keng yoyilgan "Sochingniuzundaydilar" laparinikeltirishmumkin. Ushbulaparmatnida "qish"ning so'rog'I va "ko'klam"ning javoblari asl mohiyatga yaqin turibdi. Laparda yigit qizning sochi, qoshi, ko'zi, yuzi, beli, qanday ekanligini so'raydi. Qiz esa ko'klamdagi tabiat tasviri orqali o'zini ta'rif etadi. Bizning nazarimizda, "Kichkinajon-kichkina" qo'shig'I ushbu aytishuv, bahsning so'nggi nuqtasi bo'lgan. Ya'ni qo'shiqni kuylab, o'rtadagi raqqosni ma'lum obrazlarga taqlidan kichrayib borishi barobarida tariq timsoliga kelishi, buni raqsda ko'rsatishi ko'klamning qishni yengib urug' (tariq) holatiga keltirishini ifoda qilgan. [6.1-bet]

Bahoriy marosimlar haqida gap ketganda hozirgi kunda saqlanib qolgan, har bahor faslida odatiy o'tkazilayotgan marosimlarga bir oz to'xtalishni joiz topdik. Jumladan, Farg'ona viloyatining ayrim tumanlarida asosan Bag'dod tumanining ko'plab qishloqlarida: Karimbobo, Cheksaroy, Chekxitoy, Chektuvodoq, Matqulobod, Paxtaqishloq, Bordon kabi qishloqlarda ayni "Navro'z" adafalarida "Darveshona" deb nomlangan marosim o'tkaziladi. Ushbu marosimning o'tkazilish tartibi qu'yidagicha: marosim avvalida qishloq

faollaridan biri, (avvallari jarchilar bo'lgan) har bir xonadonga uyma-uy kirib, qishloq oqsoqollari tomonidan belgilangan pulni yig'ib chiqadi . Pul miqdori yarim kg go'sht narhi atrofida bo'ladi.Hammadan pul yig'ilgandan so'ng, bu pulga mol,qo'y olinadi. So'ngra "Darveshona" marosim o'tkaziladigan kun Ko'chaboshilar tomonidan e'lon qilinadi. Marosim kuni hamma erkaklar,(hech bo'lmaganda bir xonadondan bir kishi) qishloq markaziga yig'ilib, hamma birgalikda avvalo Qabristonda obodonlashtirish ishlarini qilishadi, so'ngra qishloqdagi ariqlarni kovlab, ifloslangan joylarni hamma-hammasini tozalashadi, daraxtlarga shakl beriladi.Tushlik vaqtida hamma yana Qabristonning ziyorat qiladigan joyiga yig'ilib, qurbonlik qilingan mol va qo'y go'shtidan qilingan taomdan bahramand bo'ladilar. Shu erda tushlikdan so'ng qishloq imomi so'zga chiqib, marosimga qatnashganlarni, homiylik qilganlarni duo qiladi. Alohida niyati borlar, masalan farzand talab bo'lsa, og'ir mushkuli bo'lsa oldindan imomga aytib qo'yiladi imom ularni nomma-nom aytib duo qilganda, xaloyiq "omin, omin, omin" deb duoni ijobatini yaratgandan so'rashadi. Ayniqsa ushbu marosimsa qishloq aholisi bu yilgi dehqonchiliklar mo'l bo'lishini, qurg'oqchilik balosidan Allohning o'zi asrashini alohida so'rashib duolar qilishadi. Yana Qabristonni qishloq aholisi muqaddas ziyorat joylardan deb bilganliklari uchun ham kim nima niyatda bo'lsa Yaratgandan so'rashadi. Ushbu marosimda etnografik jihatlar ko'proq sezilsada, bizning nazarimizda bu marosimlar negizida xalq og'zaki ijodi yotganday. Chunki "Darveshona" beb nomlanishining o'zi ham bir folklor emasmi. Bundan shuni bilish mumkinki avvallari darveshlar ko'chama-ko'cha yurib, turli xil qo'shiqlar kuylagan, xalq yaratgan namunalarni kimlargadir aytib berib ularning ommalashuviga sababchi bo'lganlar.Yana shuni ham ta'kidlashlash joizki, qadimgi davrlardan ma'lumki darveshlar ko'chama-ko'cha yurganlarida folklor janrlarini aytish bilan birgalikda xolisona xalqning yumushlarini ham bajarishganlar, mehnatlari evaziga bir burda non bo'ladimi, bir kosa sut bo'ladimi shu bilan kifoyalanishgan, hech kimdan qilgan mehnatlari evaziga haq so'rashmagan, eng asosiysi xalqning duosini olishgan. Biz yuqorida aytib

o'tgan marosimning "Darveshona" deb atalishi ham bejizga emasdek. Huddi darveshlardek xolisona mehnat qilish, xalqning duosini olish maqsadida ham shunday nomlangan bo'lishi juda ham haqiqatga yaqinroqdir.

Yomg'ir chaqirish marosimining yuksak namunasi bo'lgan "Sust xotin" marosimi asosan bahor oylarida o'tkazilgan. Qadimda bahor oylari yomg'ir yog'may, yil qurg'oqchilik kelsa, "Sut xotin", "Suv xotin", "Sust xotin" kabi nomlar bilan ataluvchi yomg'ir chaqirish marosimi o'tkazilgan. Bu marosim "Boychechak"ning aksi-qurg'oqchilik paytida yomg'ir chaqirishga qaratilgan bo'lsa-da, uning qator jihatlari: bahor faslida o'tkazilishi, uyma-uy yurib, hadya yig'ish, qo'g'irchoqning suvga tashlanishi va marosim tantana bilan yakun topishi boychechak marosimiga yaqin turadi. [2.119-bet]

Qurg'oqchilik munosabati bilan yomg'ir chaqirish marosimida aytiladigan "Sus xotin", "Talabi baron", "Yomg'ir talab" qo'shiqlari turli irimlar qadimdan qolgan turli animistik tushunchalar bilan bog'langan. Bunga ko'ra ikkita tayoqni bir-biriga ko'nlang bog'lab, ayollar, ayollar kiyimi kiydiriladi, boshiga ro'mol o'raladi. Osmondan yog'in tilaydigan bu "Sus xotin" tasvirini qo'g'irchoqni ayollar yuqoriga ko'tarib uyma-uy yurishadi, hammalari birgalashib qo'shiq aytishadi. Xonadon egalari "Sus xotin" qo'shig'ini aytib kelgan kishilarga chelaklarda suv olib sepishadi, non, don kabi turli narsalar berib ularni "rozi" qilishgan. Qurg'oqchilik, suv tanqis bo'lgan davrlarda dala-dashtlarda yashagan dehqonlar tabiatga iltijo qilib, mo'l hosil bo'lishini orzu qilgan. Bu narsa qo'shiqlarda o'z aksini topgan.

Sus xotin –sulton xotin,

Ko'lankasi matdon xotin.

Suv xotin-suvsiz xotin,

Ko'ylaklari bo'z xotin.

Havoni yog'dirgan, suv xotin

Bug'doyni bo'ldirgin, suv xotin,

Elni to'ydirgin, suv xotin,

Suv xotin-sulton xotin

Bunday qo'shiqlar xalq orasida "Suv xotin", "Suz xotin", "Sus xotin", "Chayla qazaq" nomlari bilan yuritiladi." "Sus xotin" marosimi O'rta Osiyo xalqlarining ham zardushtizm-otashparastlik diniga xos hosildorlik ma'budasi Noxit (Anaxita)ga sig'inishi bo'lib, ibtidoiy odatlardan biri hisoblanadi.[4.20-bet]

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Musiqiy ta'lim" kafedrasida mudiri, san'atshunoslik fanlari nomzodi Q.Panjiyevning "O'zbek marosim qo'shiqlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati" deb nomlangan maqolasida "Sust xotin" marosimini biroz boshqacharoq variantini keltirib o'tadi. Lekin marosimning mazmuni yomg'ir chaqirishga qaratilgan. Marosim qadimda ikki bosqichda amalga oshirilgan. Jumladan, o'n-o'n besh kishi kadi (ichi bo'sh qovoq)ga suv to'ldirib, uni uzun g'arov bilan bog'lagan. Kadi ko'targan kishilar suv o'tmaydigan mato bilan yopinib, har bir xonadonga borib "Sust xotin" qo'shig'ini aytishgan. Qo'shiqni eshitgan xonadon sohiblari bir chelak suv sepib, bisotidagi bor narsalardan ularga sovg'a salom ulashgan. Ayrimlar qo'y, echki bergan. Marosimning ikkinchi qismi suvi qurib qolgan soylarda davom ettirilgan. Yig'ilgan xayriyalardan jonli qurbonlik qilinib, katta bazm uyushtirilgan. Dasturxon atrofiga taklif qilingan aholi turli taomlar bilan siylangan. Soy bo'yida bir guruh erkak va ayollar oq toshlarni bir-biriga urib ishqagan, undan chiqqan tovushi yomg'ir oldi momoqaldiroq chaqmog'i ramzi deb bilingan. Shundan so'ng "Sust xotin" qo'shig'ini kuylab raqsga tushirilgan. 1980-yillarda "Boysun" folklor etnografik ansanbli xalqimizning qadimiy qo'shiqlarini yig'ib, qayta tikladi. "Sust xotin" marosim qo'shig'i ham aholi o'rtasida so'rab surishtirib qayta tiklangan "sahnaviy" ko'rinishda ijro etildi. Qo'shiqning she'riy va musiqaviy ritmik ohangida bahor faslida yomg'ir ko'p yog'ishi, hamma joy yashil gilamga burkanishi, qo'y-qo'zilarning yaylovlarda to'yib yurishi, sut-qatiq mo'l bo'lishini o'quvchi-yoshlar tafakkuriga sindirib, milliy ruhda tarbiyalab borishimiz lozim.[6.46-49-betlar]

Farg'ona viloyati Bag'dod tumanining ayrim qishloqlarida, asosan Karimbobo qishlog'ida yomg'ir bilan bog'liq yana bir ajoyib marosim haqida

eshitib qoldim. Bu marosim yomg'ir chaqirish emas, aksincha yomg'irni to'xtatish bilan bog'liq ekan. Bu kichik marosimda oilada yakka tug'ilgan qiz bo'lishi shart ekan. Chunki marosim faqat uning ishtirokida o'tkaziladi. Bu qiz yomg'ir yog'ib turgan mahalda, asosan kechki payt uy hovlisining o'rtasiga chiqib, kun chiqar tomonga qarab, boshini pastga egib, oyog'ini orasidan qiblaga qarab, "irim-chirimi shu ekan, mana ko'rding, endi to'xtagin" deb yomg'irga murojaat qilar ekan. (Qishloq ahli kunlab yog'gan yomg'ir shundan so'ng albatta to'xtashini ta'kidlab o'tishdi.) Bunday marosimlarning ko'plari haqida fikr yuritish mumkin, ularning o'zi yana alohida bir mavzu bo'ladi. Kelgusida ana shunday marosim folklorlarining balki yoqolib ketayotgan, balki allaqachon tanazzulga yuz tutayotganlarini, hech bo'lmaganda qog'ozga yozib olib qolishni niyat qildik.

Yana shunday fikrlar borki tinimsiz esgan shamol insonlarning ko'p narsalariga ziyon etkazadi. Ayniqsa Qo'qon atroflarida, umuman vodiya juda ko'p shamol esab turadi. Oddiy xalq vakillari shamollarni esishini kuzataverib, qaysi kuni kelsa, qachon tinishigacha bashorat qiladigan bo'lib ketishganidan shunday naqlar yaratishgan:

Juma kelsa, shanba tinar, Shanba kelsa qachon tinar

(Bag'dod tumani Karimbobo qishlog'i vakillaridan yozib olingan) Qishloq aholisi asosan chorvachilik, dehqonchlik, bog'dorchlik bilan shug'ullanganligi uchun bevaqt kelgan shamolni etkazadigan ziyon-zahmatini o'ylab, havotirga tushganidan shunday naqlarni o'ylab topishgan bo'lishlari mumkin.

Ma'lumki, uzoq vaqt davomida esgan kuchli shamol natijasida ko'tarilgan chang to'zon odamlarning tinka-madorini quritgan. Bungan tashqari yoz kunlari bavaqt esgan shamol mevali daraxtlarning hosilini to'kib bog'bonlarga ham katta zarar etkazgan. Shu bois xalqimiz orasida kuchli shamolni to'xtatish bilan bog'liq marosim folklori zahirida shamolga muayyan xatti-harakat va so'z magiyasivositasida ta'sir o'tkazish mumkin, degan mifologik tasavvur o'z aksini topgan. Xususan o'zbek folklorida shamol

homiysi-egasi sifatida tasavvur qilingan mifologik obraz-Choymomoga bag'ishlangan qo'shiqlar ko'p uchraydi. "Choymomo" marosimining o'tkazilish tartibi, unda ijro etiladigan qo'shiqlar va shunday paytda amal qilingan rasm-rusumlar to'g'risidagi ilk ma'lumot folklorshunos olim A. Divayev tomonidan XIX asrning oxirida yozib olingan. U Chimkent viloyatida yashovchi o'zbeklarning donli ekinlar pishib etilgan paytda esadigan kuchli shamolni to'xtatish maqsadida o'tkaziladigan marosimini tavsiflagan va marosim qo'shig'i matning rus tiliga o'girilgan tarjimasini nashr ettirgan. Darhaqiqat shamol to'xtatish marosimining Choymomo kultiga aloqador lokal ko'rinishlari janubiy Qozog'iston hududida istiqomat qiluvchi o'zbeklar hududida istiqomat qiluvchi o'zbeklar folklorida saqlanib qolgan bo'lib, bu marosimning asosan, ikki xil tipi mavjud. Mazkur marosimning "nisbatan qadimiy tipi" deb tavsiflangan ilk ko'rinishi Choymomo marosimining ayollar tomonidan o'tkazilishi hamda ijro etiladigan qo'shiq matnida epiklik va emotsionallik aks etib turishi bilan xarakterlansa marosimning "transformatsiyaga uchragan ko'rinishi"da rituallar faqat erkaklar tomonidan bagariladi va "Chuy-chuy momo" qo'shig'ining matni shakliy o'zgarishga uchraganligi bilan farqlanib turadi. Chimkent viloyatining Sayram tumanidagi Qoramurt qishlog'ida bu marosim uch kun davomida o'tkazilgan ya'ni chorshanba kuni boshlanib, juma kuni xudoyi oshi pishirib tarqatish bilan nihoyalangan. [3. 38-40-betlar] "Choymomo" marosimi besh yoki yettita bo'ysga yetgan qizlar tomonidan o'tkazilgan. Ayrimlarning ta'kidlashicha to'rt ayol tomonidan o'tkazilgan. Shuning uchun ham "Chormomo" deb nomlangan. Qizlar boshlariga palak yoki so'zana yopib olgancha yuzlarini berkitib, keksa ayollar boshchiligida qishloq ko'chalarini aylanib chiqadilar. Ular chorshanba, payshanba va juma kunlari uyma-uy yurib, un va bug'doy yig'adilar. Eng orqada yuradigan qiz kelisop ko'tarib oladi uning etagiga bog'lagan supurgi esa yerda sudralibboraveradi. Ular marosim chog'ida quyidagi qo'shiqni aytadilar:

Choymomo o'tibdi,

O'g'li yetim qolibdi.

*Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin bu shamol.
Uga-uga beringlar,
Ugilib qolsin bu shamol.*

Professor M. Jo'rayevning ta'kidlashicha ushbu marosim o'tkazilishining yana bir ko'rinishi bor. Unda boshiga chodir yopinib olgan kampir boshchilik qiladi. U orqasiga qaramasdan qishloq ko'chalarini aylanib yuradi. Kampirning orqasidan boshlari yopilgan yetti nafar yetim qiz ergashib, "Changmomo" qo'shig'ini aytadi. Qizlar "shamol keliday tuyilsin, soldek bosilsin, shamolning izi supirilsin" uchun kelisopga bog'lab qo'yilgan supirgini sudrab yuradilar.

B.Sarimsoqov "Choymomo" marosimining bir nechta ko'rinishlari borligini, ularda turli detallar, obrazlar kelishini bir-biriga taqqoslab izohlab o'tadi. Masalan, ushbu marosimda yetti qiz, uch yoki to'rt kampir obrazlarining qatnashishini, supurgi, keli sop, o'qlov singari detallar haqida fikr yuritadi. Shundan ham bilish mumkinki, "Choymomo" marosimi qadimiy marosimlardan biridir. Uning qadimiyligini B.Sarimsoqov quyidagicha ta'riflaydi.

Birinchidan, marosimning ayollar tomonidan uyushtilishi va bevosita kampirlar tomonidan o'tkazilishi darhaqiqat, mana shu faktning o'ziyoq "Choy momo" marosimi matrialhat davrining mahsulidir. Chunki shamol va uning homiysi ayol kishi deb tasavvur qilib, undan shamol to'ztatishni iltijo qilish hamda marosimning ayollar tomonidan bajarilishi bevosita jamiyat miqyosida ayol jinsining iqtisodiy-siyosiy jihatdan yuksak mavqega ega ekanligini anglatadi.

Ikkinchidan, marosimda besh bo'y qizning boshiga qizil sholcha yopinib olib yurish detali ham o'zining genetik ildizi jihatidan juda qadimiydir. Dahshatli shamolni to'xtatish uchun qurbonlikka mahkum qilingan shaxslardan iboratdir. Besh raqami qadimda muqaddas sanalgan, ya'ni ibtidoiy kishilarning dastlabki hisoblari qo'l va barmoqlarning tugalligi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Mana shuning uchun dastlab hafta kunlari besh kundan

iborat deb qaralgan. Hozirga qadar saqlangan “besh kunlik dunyo” iborasining yaratilishi ham o’sha qadimiy tasavvurlarga borib taqaladi. Qadimda turkiy xalqlarda dahshatli ofatlar tugashi uchun besh narsani qurbon qilish odat tusiga kirgan. Binobarin, shamol to’xtatish vaqtida ham beshta bo’y yetgan qizni sholcha yopinib olib yurish va butun marosim davrida ularning yuzini ochtirmaslik juda uzoq o’tmishdagi shamol xudosi yo’lida qurbon qilishga mahkum etilgan shaxslarning ramziy ifodasidan iborat bo’lishi mumkin.

Uchinchidan, marosimda olib yurilgan uch asosiy detal ham diqqatga sazovordir. Bulardan ikkitasi- o’qlog’i bilan keli sopi risq- nasiba bo’lib, ularni ramzi bo’lib, ularni minib yoki birga olib yurish hammavaqt rizq-nasibalari uzulmasligi va tugal bo’lishini istash ma’nosini anglatadi. Chunki ularni yog’och ot qilib minib olish rizq-nasibaga egalikni anglatadi. Supurgi esa hammavaqt ziyon-zahmatni supuruvchi, magik qudratga ega narsa deb tasavvur etiladi. Binobarin uni tik qo’yish, ustidan hatlab o’tish yoki biror yeriga tegib ketish kishiga katta baxtsizlik keltiradi deb qaralgan. Demak “Choy momo” marosimida supurgi detalining ishtirok etishi shamol xudosining qahrini keltiruvchi ziyon-zahmatlarni quvish va ularni supurib tashlash bilan bog’liqdir.

To’rtinchidan, marosimning nisbatan qadimiyligini tasdiqlovchi faktlardan yana biri uning qadimgi ritual kulgi qoldiqlari bilan aloqadorligi hisoblanadi. Marosimni boshqarib borayotgan qari ayollarning yuzlariga qarakuya surtib olishlari, ritual kulguga borib taqaladi. Marosim ishtirokchilari yuzlariga qarakuya surtishib, keli sopi yoki o’qlog’ini ot qilib minib yurishadi. Bunday xatti-harakat esa shamol homiysini kuldirish uchun qilinadigan ritual harakatdan boshqa narsa emas. [1.71-77-betlar] B.Sarimsoqovning ta’kidlashicha yuqorida keltirilgan “Choy momo” marosimining qadimiy varianti o’zbeklardagi shamol to’xtatish marosimining nisbatan arxaik qatlami hisoblanadi. Bundan tashqari ushbu marosimning trans- formatsiyaga uchragan tipi ham mavjud, ya’ni bu turi asosan Turkiston tumanida (Qozog’iston respublikasiga qarashli) keng tarqalgan bo’lib, buning yuqorida

keltirilgan tipdan farqlanib turuvchi asosiy xususiyati marosimning ayollar tomonidan emas, balki boshiga kulox kiyib olgan yoki salla o‘rab, yuziga qorakuya surtib olgan ikki erkak kishi tomonidan o‘tkazilishida ko‘zga tashlanadi.

Xullas, “Yomg‘ir chaqirish”, “Shamol chaqirish”, “Shamol to‘xtatish” kabi mavsumiy qo‘shiqlarning xalqimiz orasida hozirgi paytgacha yashab kelayotgan dehqonchilik kasbining o‘zbeklarda ham qadimiyligini, ham xalqimizning ajdodlar yaratgan qadriyatlariga cheksiz hurmat bilan qarashini isbotlaydi. Ajdodlar merosiga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish esa xalqimiz kelajagiga umid bilan qarashimiz uchun ishonch hosil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B.Sarimsoqov .O‘zbek marosim folklori.-Toshkent: 1986.
2. J.Eshonqulov . Mif va badiiy tafakkur.-Toshkent:2019.
3. Jo‘rayev M. “Choymomo” marosim qo‘shiqlari. (ilmiy maqola) //“Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2-son, 23-bet.
4. M.Murodova. Folklor va etnografiya (o‘quv qo‘llanma) .-Toshkent: 2006.
5. Panjajev Q. O‘zbek marosim qo‘shiqlari va ularning tarbiyaviy ahamiti. (ilmiy maqola) .- Toshkent: Zamonaviy ta’lim,2016. №6.
6. Ziyonet.uz . “Navro‘z bayrami an‘analari. Oilaviy marosimlar tadriji” nomli ma’ruza matnidan olindi. (Internet material).

ID-020-30-A046

Fanuza Adilova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

KOMIL XORAZMIY G'AZALLARIDA ISHQ TALQINI

Annotatsiya. Maqolada Xiva adabiy muhitining yetuk namoyondasi Komil Xorazmiyning ijodiy merosi, asosan, g'azallari xususida so'z yuritiladi. Shoir ijodining kattagina qismini tashkil etadigan g'azallaridan ayrimlarining badiyatiga to'xtalib o'tdik. Komil Xorazmiyning ma'rifatparvarlik, ishqiy va ijtimoiy ruhdagi g'azallarini kengroq o'rganishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: *G'azal, radif, tashbeh, ma'rifatparvar, Ilohiy ishq.*

Annotation. This article focuses on the creative legacy of the prominent Khiva literary critic Komil Khorezmi, especially the ghazals. We have touched on some of the ghazals that make up the bulk of the poet's work. We tried to explore the moral, romantic and social ghosts of Komil Khorezmi in greater detail.

Key words: *Ghazal, radif, metaphor, educated, divine love.*

Haqiqiy insoniy muhabbatni kuylash, hayot va insonni ulug'lash Komil Xorazmiy g'azallarining asosiy xususiyatlaridan biridir. Shoir insonni muhabbatsiz tasavvur eta olmaydi. U sadaf yonida "durri g'alton" bo'lmasa, uning qimmatini bo'lmaganidek, muhabbatsiz insonning ham qimmatini bo'lmaydi deb, bu fikrni o'z ishqiy lirikasiga asos qilib oladi:

Ko'ngul vayron bo'lur bir lahza ayrilsa xayolingdin,
Xarob o'lg'ay base, har mulkkim, gar bo'lsa sultonsiz.
Zamiring aylagil ishq muhabbat ma'dani, Komil,
Ne qadru e'tibor o'lg'ay sadafga durri g'altonsiz.

Komil muhabbatni inson qalbidagi eng qimmatli ma'dan deb ta'riflaydi. U samimiy muhabbat orqali insonparvarlik g'oyalarini, do'stlik, vafodorlik, sadoqat kabi insoniy fazilatlarni targ'ib qiladi. Shoir g'azallarida oshiqning qalb to'liqlari juda sodda, hayajonli tasvirlanadi. Traditsion ma'shuqa obrazi esa, Komil g'azallarida yuksak badiiy hayotiylik qozonadi.

G'azal aksariyat ishq haqida yoziladi. Ishq esa ikki mazmunni: "Ishqi ilohiy", "Ishqi majoziy"ni anglatadi. Birinchisi Alloh ishq, ikkinchisi yerdagi go'zalga oshiqlik edi. Har ikkisining ifoda vositalari, obraz timsollarida o'xshashlik bor. Qolaversa, tasavvuf ta'limoti bo'yicha, borliq, inson yoki go'zal yor ham Haq jamolining jilvasi. Demak, unga muhabbat Allohga bo'lgan ishq darajasiga yetishi kerak.

Shoirlar o'z salohiyatlarini ko'proq mana shu doirada namoyish etar edilar. Komil g'azallarida ham bu mavzu keng o'rin egallaydi.

"Ayn"u "shin"u "qof"inga to bo'ldi ko'nglum muhtalo

"Dol"u "ro"u "dol"u hajringdin dame erman judo, -deb boshlanadi shoirning bir g'azali. Ya'ni "ayn", "shin", "qof" - "ishq"inga ko'nglum muhtalo bo'lganidan buyon "dol", "ro", "dol" - "dard"u hijroningdin bir nafas (dame) ham holi emasmen, demoqda shoir. She'r boshdan oxirigacha shu tarzda harflar o'yini bilan davom etadi. Bunday usulni sharq she'r ilmida kitobat san'ati deganlar. Mana yana bir bayt:

Yuzung mus'hafi sharhi o'lg'ay necha -

Kitobu kitobu kitobu kitob.

Mus'haf Qur'onidir. Shoir yor yuzini muqaddas Qur'on sahifasiga tashbeh etyapti. U sharh etilgudek bo'lsa, necha-necha kitob bo'ladi demoqchi. Mazmunda Ilohiy ishq jilva qilyapti. Muayyan so'zning muayyan o'rindagi takrori ham san'at. Bunday usulni mukarrar san'ati deyдилar. U kerakli fikrni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shoir yor ta'rifida an'ana izidan borib, chiroyli tashbehlar, manzaralar yaratdi:

Jonbaxsh la'ling ustida ul holi hindularmudur,

Yo chashmai hayvon uza zog'i siyahmo'larmudur.

La'l - qizil qimmatbaho tosh, yoqut. Uni shoirlar yorning labiga qiyos qilganlar. Bu la'l oshiqqa jon bag'ishlaydi.

Labning jon baxsh etishi va xolning qoraligini hinduga o'xshatish an'anaviydir. Lekin Komil go'zalning xoli, ko'zi, sochi, kipriklarini har baytda ikki xil o'xshatish orqali tasvirlab, o'zining lirik tasvirdagi mahoratini bundayaqqol namoyish etadi. Go'zal ma'shuqaning labini "chashmai hayvon" – ya'ni hayot chashmasiga o'xshatsa, lab ustidagi xolni hayot chashmasidan suv ichgani kelgan qora zag'chalarga qiyoslaydi. Uning jamolini ko'rkam boqqa o'xshatsa, ko'zlarini bog'dagi kishilarga o'xshatadi. Yana yuzini Xo'tan gulzoriga o'xshatsa, ko'zini bu gulzorda sayr etgan ohularga o'xshatadi.

Ma'shuqaning ishqida iztirob chekayotgan oshiqning ko'nglini Komil yorning sochiga o'xshatgan. Chunki go'zal boshidagi soch goh boshda jam qilinsa, ya'ni chambarak qilinsa, gohida yoyiq holda bo'ladi:

Ko'nglum gahi jam bo'lsa, gah bo'lsa parishon, ne ajab,

Gah boshda jam bo'lsa, gahi yuzda parishon kokiling.

Mana shunday jonli va ehtirosli tasvirlar Komil she'rlarining badiiy yuksakligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Komil Xorazmiy o'zbek klassik adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shoirdir. Shoir g'azallarida ko'zga tashlanadigan fikrning emotsionnaligi, tasvirning yorqin bo'yoqlarga boyligi kabi xususiyatlar an'anaviy traditsiyalarning yorqin davomi sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. (Mualliflar: Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, Shuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov). - T.: Ma'naviyat. 2004.
2. Mo'minov V. O'zbek demokratik adabiyotida lirika. -T.: 1979.
3. Qosimov B. Dolimov U. Ma'rifat darg'alari. -T.: 1990.
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish. , -T.: Ma'naviyat, 2002.
5. K.Xorazmiy. Devon. -T.: 1975 .
6. Yunusov M. Komil Xorazmiy -T.: 1960.

ID-020-30-A047

Farog'at Nasimova

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

NAVOIY LIRIKASIDA MAY MAVZUSI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy lirikasidagi yetakchi timsollar tahlilga tortilgan. May timsolining Navoiy ijodidagi o'rni va vazifasi g'azallari misolida tahlilga tortilgan. Ularning anglatgan ma'nosi tahlillar orqali ochib berilgan.

Kalitso'zlar: *lirika, g'azal, tarje'band, may, timsol.*

Annotation. In this article, the leading symbols in Alisher Navoi's poem are analysed. The role and function of the image of May in Navoi's work is analyzed in the example of ghazals. Their meaning is revealed through analysis.

Keywords: *lyrics, ghazal, tarjeband, may, emblem.*

Sharq she'riyati tuyg'ularning yorqinligi, tasvirning xilma-xilligi va mavzu ko'lamining kengligi bilan ajralib turadi. Mumtoz she'riyatda ma'lum bir mavzu yuzaga kelishi, avvalo, xalqning ijtimoiy-maishiy turmush tarzi, ma'naviy dunyosi va diniy e'tiqodiga bog'liq bo'lgan. Shunday ekan, biz fikr yuritmoqchi bo'lgan may obrazining ham tarixiy ildizi turk xalqining an'ana va urf-odatlariga borib taqaladi. Oddiy uzumdan tayyorlanib, do'stlar davrasiga ko'tarinki kayfiyat olib kiruvchi ichimlik keyinchalik tasavvufiy timsolga ko'chadi va she'riyatdagi yetakchi obrazga aylanadi. Bu kabi timsollardan o'z ijodida mohirona foydalanish shoirlarning yuksak iste'dodini namoyon qiladi. Jumladan, o'z g'azallarida sharobni vahtad mayi, ishq sharobi, ilohiy fayz va quvonch timsoliga ko'targan shoirlardan biri Hazrat Navoiydir. Turkiy xalqlarning sevimli shoiri, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyni ma'rifat osmonining quyoshiga qiyos etish mumkin. Saxiy quyosh o'zining beminnat

nurlari bilan zaminni yoritgani, o't-o'lan undirib, nozik nihollarni ulkan daraxtga aylanishiga ko'maklashgani singari Hazrat Navoiyning irfon nurlaridan bahramand bo'lgan kishining ham qalbi yorishib, fikri teranlashadi, ruhiyatidagi ojizlik kuch-qudratga aylana boradi. Buning sababi esa buyuk shoirning ijodi muqaddas Qur'oni Karim bilan to'yinganidir. Shuning uchun ham, "Alisher Navoiy she'rlari turkiy, forsiy va arabiy so'zlarning ko'pligi bilan emas, diniy-tasavvufiy timsol-tushunchalarga boyligi bilan o'ziga xos murakkablik kasb etadi. Islom ta'limoti va tasavvuf asoslaridan bexabar o'quvchining ularni tushunishi qiyin"[1, 232-bet]. Masalan, Navoiy asarlarida qo'llanilgan "may", "boda", "chog'ir", " sharob", "qadah", "mayfurish", "soqiy", "mug'bacha" kabi obrazlarga e'tibor beraylik. Biz bilamizki, Islom dinida mast qiluvchi ichimliklar man qilingan. Shu bois Navoiyning ba'zi asarlarida undan tiyilishga chorlov ham uchraydi:

May ichib toatni favt etmangki, ul o't tobidin,

Necha boqsam, bahra holo dog'i xirmondur manga

Ushbu baytda shoir may ichib toat-ibodatingizni kuydirmang, o'sha o'tning haroratidan qancha izlasam ham halovat yo'q menga deya o'zga kishilarni o'z yo'llaridan og'ishmaslikka undaydi. Shunday bo'lishiga qaramay, shoir targ'ib etgan asosiy mayxo'rlik va mastlik ramziy ma'nodadir. Tasavvuf ta'limotida may-ilohiy ishq va irfon, qadah esa ko'ngil ramzidir. Shunday ekan, Navoiy qo'lidagi may to'ldirilgan qadah ilohiy ishq quyilgan qalbidan darak beradi". Mayxona-shavq-u zavq va ilohiy ma'rifat to'lib-toshgan komil inson-orifning botiniy dunyosi va Ruhi mutlaq manbaidir" [2, 132-bet], soqiy esa piri murshid:

Soqiyo, may tutki, hajr anduhidin men telbani

Forig' etkan sog'ar-u paymona bo'ldi oqibat

Yuqoridagi baytda ham shoir soqiyga, ya'ni piriga murojat qilib, may bergin, men telbani ayriliq azobidan oxir-oqibat may solingan sog'arlar forig' etdi deydi. Qalb pokligiga va illohiy ishqqa intilishni Hazrat Navoiyning barcha janrdagi asarlarida ko'rish mumkin. Masalan:

*Zohid senu hur, manga janona kerak,
Jannat sanga bo'lsin, manga mayxona kerak.
Mayxona aro soqiyu paymona kerak,
Paymona necha bo'lsa, to'la yona kerak.*

“G'aroyib us-sig'ar” devoniga kiritilgan bu ruboiyda ham Navoiy insoniyatga va'da qilingan buyuk ne'mat-jannatdan voz kechib Allohning ishq bilan qolishni afzal ko'rmoqda. Bundan tashqari, zohid va so'fiy o'rtasidagi tafovutni ham ko'rsatib bermoqda. Bu yerda janona deganda butun borliqni yaratgan buyuk zot nazarda tutilsa, mayxona deganda esa ilohiy ishq ulashadigan joy, so'fiylar yig'iladigan xonaqoh tushunilgan. Soqiy deb so'fiylar Muhammad alayhissalomni, pir yoki komil insonni aytadilar. Soqiy davraga may ulashgani singari ular ham oshiqning qalbigahaqiqiy muhabbatni soladilar. Paymona- yaratganga oshiq bo'lgan orif kishining ko'ngli, qadah, jom, sog'ar singari ma'nodosh leksimlar oshiqning ishqdan limmo-lim to'lgan qalbini ifodalashga xizmat qiladi.

So'fiylarning murodi-diydor, shuning uchun ham jannatda bo'ladimi yoki do'zaxdami Haqning jamolidan bahramandlik bo'lsa bas. Shu sababli shoir: “ey zohid, senga hur kerak bo'lsa, menga janon kerak. Jannat senga bo'laversin, menga ilohiy ishq quyib beriladigan joy kerak. Bu joyda Olloh va uning ko'yida devona ko'ngil bo'lsa yetarli: qalbgah ilohiy ishq qancha quyilsa, shuncha kam”,- deydi.

*Kunduz ko'rsang o'zingni mahzun, qadah ich,
Andoqki, quyosh ravshanu mavzun, qadah ich,
Ul damki quyosh botti shafaqqun, qadah ich,
Jomingni qilib nechukki gardun, qadah ich.*

Ushbu misralarda ham shoir kunduz kuni mahzun bo'lsang ham, quyoshing ravshan va nursiz bo'lsa ham Allohni esla, uni zikr et va muhabbatini his qil, o'sa quyosh botib ketsa shafaqrang may ich, jomingni gardun qilib, ya'ni dunyoga aylantirib ich, shundagina zulm ko'rgan yoki istirob chekayotgan qalbing halovat topadi deydi.

*Gul vaqti muyassar o'lsa gulfom qadah,
Andin so'ng tutsa bir gulandom qadah,
Man aylasa barcha ahli islom qadah,
Kofirmen agar qilmasam oshom qadah.*

Gul vaqti deya bahor ayyomi nazarda tutilgan, bunda Hazrat Navoiy gul mavsumida menga gulning rangidan qadah, ya'ni ko'ngil Tangri tomonidan muyassar qilinsa, so'ngra bir gulandom deya soqiyga-piri murshidga ishora qilib, uni may tutishini istaydi va keyingi satrlarda barcha islom ahli mayni man etganini, biroq shoir o'sha qadahni ichsa emas, ichmasa kofirga aylanishini aytadi, chunki bu qadahda qalbni tazalab, Allohga yaqinlashtiruvchi may bor.

*Xarobat aro kirdim oshuftahol
May istarga ilgimda sing'an safol,*

deb yakunlanuvchi tarjibandida ham may obrazi ilohiy tushuncha tashigan. Ushbu misralarda shoir soqiyga qarata subhi alastda-ruhlar Parvardigorga imon keltiradigan kun, azal tongida may keltir, uning shodligidan ko'ngillar mast bo'lsin deydi. "Xarobat so'zining lug'aviy ma'nosi vayrona, sharobxon bo'lsa-da, ammo tasavvuf ahli istilohida inson jismini xarob bo'lishi- qanoat, faqr yo'lga kirib, hayvoniy nafslar, keraksiz, yomon xulq-odatlardan qutilib, o'zini xokisorlik, kamtarinlik rutbasiga solishdir" [2, 153-bet]. Shunday ekan, oshiq xarobat aro kirganida may ichish uchun o'z qo'lida singan safolni, ya'ni siniq ko'ngil borligini aytadi. "Bu istiloh vositasida shoir ilohiy ishqdan bexabar va boxabar kishilarni o'zaro zid qo'yib tasvirleydi".

Darhaqiqat, Navoiy ijodini tasavvufdan ayro holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, shoir ijodiy merosining katta qismini tashkil qiluvchi g'azallarida fikrimizning yorqin dalilini ko'rishimiz mumkin. Quyidagi g'azal ham ana shunday rindona g'azallar sirasiga kiradi:

*Subh erur soqiyu men maxmurmen, sen mayparast,
Tut quyoshdek jomni, moni nedur bo'lmoqqa mast.*

Bu baytda oshiq tong soqiydir, men yashirinman, sen esa mayparastsan, tut, ko'tar quyosh kabi jomni, mast bo'lmoq uchun hech qanday to'siq yo'q

deydi. Bu yerda shoir jomni quyoshga o'xshatib, tashbih san'atini qo'llashi bejiz emas. Chunki jomning ko'rinishi ham quyoshniki singari doira shaklda, qolaversa, jom ko'ngil ramzi ekan, xuddi quyosh kabi barcha kuyish-yonishlar jomning ichida sodir bo'lishiga ishora qilingan.

Tiyra shomi hajr aro, vah, asru ko'p chektur xumor,

Mast o'lali bu nafaskim, vasl subhi berdi dast

Ushbu baytda ham lirik qahramon ayriliqning qaro tuni aro, vah, juda ko'p xumor chektir, ammo bu dam ishqdan mast bo'lish uchun vasl tongi qo'l berdi deydi.

Kun biyik chiqquncha huyu nolani past etmali,

Ko'p biyik chiqqay bugunkim bo'lg'abiz biz yerga past.

Quyosh baland chiqquncha nolani pasaytirmaylik, bugun juda baland chiqadi, biz yer kabi past bo'lamiz deydi vasl tongidan ishora olgan oshiq.

Anjuman ahlin yuzin gulgun qilalimay bila,

Mehrdin tortquncha anjum gullari bir-bir shikast.

Anjuman, ya'ni yig'ilish ahlining yuzini may bilan gulgun qilaylik, ilohiy ishqdan bahramand qilaylik, to quyoshdan osmon gullari- yulduzchalar bir-bir shikastlangunicha, ya'ni tong otguncha deydi lirik qahramon.

Charx motam yetkurur, biz dag'i oncha yig'lali,

Kim ko'han g'amxonasi ul seldin qilsun nishast.

Dunyo motam yetkizadi, biz yana shuncha yig'laylik, o'sha eski g'amxonasi bizning ko'z yoshimiz selidan shodlansin deydi o'zini dunyoviy g'avg'olardan ustun va yiroq sezadiga oshiq.

Gar shafokatqa maloyik kelsa, nomahram debon,

Mehr shaklidan falak yo'lin qilali xorbast.

Ushbu baytda shoir undan oldingi baytni mazmunan balog'atga yetkazib, agar malaklar shafqat uchun kelsalar, ularni nomahram deya falakning yo'lini quyosh shaklidagi tikanli to'siqlar bilan band qilinglar deydi kajvakdor dunyodan g'am chekib.

Tong emas bo'lsa Navoiy mast to shomi abad,

Kim azal subhida bo'lmish qismati jomi alast.

Va nihoyat so'nggi baytda Navoiy abadul-abad shom chog'i mast bo'sa ajab emas, chunki azal tongida ham uning qismatiga mast-alastlik yozilgan deydi lirik qahramon o'z taqdiri so'zlar ekan. Chindan ham, Hazrat Navoiy singari fano vodiysini kechib o'tgan, qalbini ilohiy ishq bilan ravshanlantirgan inson uchun fursatning farqi yo'q, u hamisha tuganmas ishq mayidan sarmast.

Berding manga dayr aro iqomat, ey mug',

Tuttgart qadahi mayi malomat, ey mug'.

Bu ishni xud aylading karomat ey mug',

Yo rabki, hamisha bo'l salomat, ey mug'.

Ushbu ruboiyda shoir piriga murojat qilib: "menga bu g'avg'oli dunyoda istiqomat qilishni buyurding, so'ngra eski dayrning malomatlari bilan to'ldirilgan qadahni qo'linga tutqazding va bu ishingning o'zini karomatga aylantirding, ya'ni men u dunyo va bu dunyoning mohiyatini tushunib yettim, ilohim, hamisha salomat bo'lgin", deya minnatdorchilik bildiradi. Rindona she'rlarni Alisher Navoiy ijodida katta hajmga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ularning barchasida ilohiy muhabbatga tashnalik va intilish turli badiiy vositalar yordamida tasvirlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Hazrat Alisher Navoiy so'fiy shoir va din arbobidir. U may, boda va chog'ir obrazlarini asosan tasavvufiy istiloh sifatida ishlatgan va unga davat etgan. Shuning uchun ham, Navoiy asarlarida ilohiy quvvat va o'qirmanni o'ziga ohangrabodek tortuvchi qudrat mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Иброҳим Ҳаққул. Ишқ ва ҳайрат олами. – Т.: Ўзбекистон, 2016.
2. Н.Комилов. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr- O'zbekiston, 2009.
3. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. – Т.: Tamaddun, 2011.

ID-020-30-A048

Go'zal Qodirova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

“SADOI FARG‘ONA” GAZETASIDA ADABIYOT MATERIALLARINING YORITILISHI

Annotatsiya. Maqolada 1914-1915-yillarda Turkiston o'lkasida, xususan Farg'ona vodiysida tadbirkor Obidjon Mahmudov ta'sis etgan "Sadoi Farg'ona" gazetasi va unda adabiyot materiallarining yoritilishi haqida so'z boradi. Ushbu gazeta ko'plab yosh ijodkorlarning asarlarini xalqqa tanitishga xizmat qilgan. "Sadoi Farg'ona" gazetasi jadid ma'rifatparvarlarining qarashlarini, ijod mahsullarini xalqqa yetkazishda muhim vosita hisoblangan. Shuning uchun ushbu gazeta bugungi kunda ham ko'plab tadqiqotchilar e'tiborini tortmoqda. Ayniqsa, nomlari ko'pchilikka tanish bo'lmagan ijodkorlarimizning ijod mahsullarini aynan shu gazeta sahifalaridan topishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: *"Sadoi Farg'ona", janrlar, jadid adabiyoti, adabiyot materiallari, manzuma, fel'eton.*

Annotation. The given article provides information about the newspaper "SadoiFargona, founded by the entrepreneur O.Mahmudov in 1914-1915 in the Turkestan region, in particular in the Fergana Valley, as well as literary materials were covered. This newspaper served to popularize the works of many young artists. There is no doubt that the information provided by the author of the article is of interest to researchers. The newspaper "SadoiFargona" is an important means in bringing to people the views and creative work of the educators of the Jadid. That is why, today, this newspaper has attracted the attention of many researchers. Especially, on the pages of newspapers we can find the works of our artists, whose names are not well-known.

Key words: *"Sadoi Fargona", genres, Jadid literature, literary materials, manzuma, fel'eton.*

"G'azetaning nashridan maqsadimiz, albatta, tijorat emas, balki xalqimizg'a qo'limizdan kelgan qadar xizmat etmakdir... Dardimiz bir, kasalimiz ham bir. Davo

va darmonimiz ham birdir. Bas, ondog' bo'lsa, ey himmatlik birodarlar! Chiqinglar maydong'a, yozayluk, o'quyluk. Chunki dardlarimizning davoi shifosi yolg'iz o'qumoq va yozmoqdur. Takror deymanki, birodarlar! Yozayluk! O'quyluk!" – bu so'zlarni "Sadoi Farg'ona" gazetasining ta'sischisi Obidjon Mahmudov gazetaning ilk sonida vatandoshlariga qarata aytgan edi.[1. 1-bet]

Milliy adabiy merosni ilk manbalar asosida har tomonlama chuqur o'rganish, undan jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida foydalanish bugun matnshunoslik uchun har qachongidan ham dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Matnlarni tanqidiy o'rganish, ularni tiklash, izohlash va sharhlash, tabdil va tahrir qilish – matnshunoslikning muhim masalalaridandir.

"Sadoi Farg'ona" – o'zbek madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan gazetalardan biridir. Gazeta idorasi iste'dodli va yosh qalamkashlar ijodiga hamisha katta e'tibor bilan qaragan, balki shu narsa tufaylidir gazeta barcha yoshdagi adiblarning sevimli minbari sifatida shuhrat qozongan. Nafaqat Farg'ona, balki umuman Turkiston xalqi ham aynan shu nashr orqali turkistonlik taniqli adiblarning ijod namunalari bilan tanishib borgan. Ularning ilmu ma'rifatga chorlovchi she'r, hikoya, maqola va fel'etonlari gazetaning xalq orasida katta shuhrat qozonishiga sabab bo'lgan.

"Sadoi Farg'ona" gazetasida "Matbuot", "Yangi asarlar" rukni ostida Istambul, Qozon, Astraxan va boshqa joylarda chop etilgan davriy matbuotga va turli asar va darsliklarga taqrizlar berilgan hamda gazeta mushtariylariga tanishtirib borilgan. Gazeta sahifalarida adabiyotshunoslikning turli janrlariga mansub ijod namunalari muntazam yoritib borilgan.

"Sadoi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 10-aprel(26 jumodil avval 1332)dagi 2-sonida idoradan "Ochiq maktub" (Ulamoi karam hazratlarina) e'lon qilingan va maqola so'ngida ushbu misralar keltirilgan. Bu abyot orqali ularning maqsad va maslaklari bayon qilingan:

Jahong'a muntashar o'lsun hoyi Farg'ona,
Zamon qulog'i eshitsun nidoi Farg'ona...
Shikasta xotir-u majruh o'lan ko'ngullarg'a,

Eshitgan ahli desunlar davoi Farg'ona...
Bilig' sa'y ila ilmu hunar taraddud etib,
Qilurda ma'rifat hosil rizoi Farg'ona...
Jahon quloqig'a zavq ila yetsun ovoza,
Xo'qand gazetasi nomi "Sadoi Farg'ona".[2. 3-bet]

"Sadoi Farg'ona" Farg'ona o'lkasidagi ilk milliy nashr bo'lganligi bois ijodkorlarimiz, millatdoshlarimiz dilida cheksiz quvonch jo'sh urdi. Shu bois gazeta idorasiga ko'p sonli tabriklar, minnatdorchilik maktublari kela boshladi. Shoiralarimiz esa istak va tilaklarini she'rlarida aks ettirgan. Gazetaning dastlabki sonlarida Ibrat va boshqa ijodkorlarning tabrik mazmunidagi she'rlarini uchratamiz. Jumladan, Hamza "Umid", Is'hoqxon To'ra Ibrat "Tabrik Namangondin", Tavallo Toshkandiy "Abyot", Said Ahmad Vasliy esa "Shukrona va tabrik" nomdagi she'rlari bilan ushbu nashrning 1-sonini samimiy qutlab, uning Farg'ona ahlini ma'rifat chashmalaridan bahramand etishiga katta umid bildirgan. Cho'lpon gazetaning ilk soni chiqqan kunni "milliy bayram" deya izohlaydi.

Tavallo "Sadoi Farg'ona" va "Sadoi Turkiston" kabi gazetalarning maydonga kelishini ko'pdan orziqib kutganligini bayon etadi:

Orifi budur, jami yorona,
Xoh oshno va xoh begona.
Yurur erdim yo'liga ko'zni tikib,
Chiqdi ikki "Sado" bu maydona.
Shoir she'rning davomida shunday yozadi:
O'tururdim xayol ko'chasida,
Po'chtadin berdilar ikki dona.
Biri nomi "Sadoi Turkiston",
Biri budur: "Sadoi Farg'ona"

Tavallo bu ikki gazetani go'yoki oyu quyoshga qiyos qilib, "shakar guftor", "hazor doston"ga o'xshatadi:

Bu ikini birisi chun xurshid,

Biri o'xshab chu mohi tabona.

Yo biri to'tiyu shakar guftor,

Biri o'xshar hazor dostona.

Shoir g'aflatda yurgan kishilarga qarata, bu ikki gazetalarni o'qib, g'aflat botqog'ini tark etishlariga umid qiladi. Gazetaning ilk soni haftaning juma kuni chiqqaniga ham e'tibor qaratib, Turonga "obi rahmat" yog'ilganligini bayon etadi:

G'aflat jahl ketsalar shoyad,

Solsalar ko'zni ahli Farg'ona.

Qildi serob juma kun hammani:

"Obi rahmat yog'ib bu Turona".

Tavalloning quyidagi satrlarini o'qib, butun Turon ahli bu ikki gazetaga katta qiziqish bilan qaraganligini ko'ramiz. Kishilarning to'planishib, gazetani qo'lma-qo'l qilib o'qishganini tasvirlab ularni parvonaga qiyos qiladi:

Deb o'qub shod o'lub hamma ahboba,

Yugurib rastalarda har yona.

To'flashib o'rtag'a g'azetni qo'yub,

Aylanurdi misoli parvona.

Men bularni ko'rub sevingandin,

Hamd aytdim janob Subhon(g'a).

Tavallo bu gazetga darhol obuna bo'lganligini, gazeta tahririyatiga salomnoma ham yozganligini ta'kidlab, she'rning davomida shunday satrlarni bitadi:

Xatni yozdim blanka orqasiga,

Ham salom ko'ndurub muhibona.

Adresim: To'lagan Xo'jamiyrov,

Ko'p Tavallo qilib bu e'lona.[5. 1-bet]

"Sadoi Farg'ona"ning nashr etilishi faqatgina vodiy ahlini emas, butun turkistonliklarning quvonchiga sabab bo'ldi. Shulardan biri – Said Ahmad Vasliy forsiy tilda bitilgan "Shukrona va tabrik" degan she'ri orqali yangi gazetani muborakbod qildi:

Ey Xudo, deh baqoi Farg'ona,
Ravnaqi kun atoyi Farg'ona.
Baske, Farg'ona ma'dane ilmast,
Dile man muhtaloi Farg'ona.[3. 2-bet]

Tarjimasi:

Ey Xudo, boqiylik ber Farg'onaga,
Har kuniga kamolot ber Farg'onaga.
Farg'onadir ilm-fan ma'dani,
Mening dilim muhtalo Farg'onaga.

“Sadoi Farg'ona” gazetasining nashr etila boshlashiga bag'ishlangan bu she'rlarning har birida gazetaning ilm va ma'rifat ravnaqi, halqning ma'naviy kamoloti yo'lida samarali ishlar qilajagiga ishonch tuyg'usi balqib turadi. Yuqorida keltirilgan she'rning tili, o'sha davr nuqtai nazaridan qaraganimizda, g'oyat sodda, ravon va tushunarli. Shuning uchun ham bu she'rlarni o'sha yillarda kitobxonlar katta qiziqish, ishtiyoq va tashnalik bilan o'qishgan.

“Sadoi Farg'ona” sahifalarida yoshlarni ilmu-ma'rifatga chorlovchi adabiyot materiallari ham talaygina. Masalan shoir Tavallo “Yoshlardan bir iltijo” she'rida shunday yozadi:

Yoshlar bu kun bilingiz, himmat, g'ayrat qilingiz,
Maktab sori yuringiz, o'tmasun oy yilingiz.
Ko'chada yurib bekor-ki, bedona, kaklik boqarki,
Chiqishib samovarga, o'tmasun oy yilingiz

Yuqoridagi satrlardan ko'rinib turibdi-ki, ijodkorning ifoda uslubi sodda, xalqona tilda yozilgan. Gazeta auditoriyasi asosan, oddiy ishchilardan iborat xalq ekanligi inobatga olinib, ijodkorlar ana shunday sodda uslublardan foydalanib, xalqona tilda yozgan bo'lsa ajabmas. She'rda yoshlarga murojaat, da'vat ruhi aks etgan, ya'ni yoshlardan bu kun vaqtni samovarlarda yurib, bekorchi yumushlar bilan zoye ketkazmasliklarini so'raydi. Yoshlarni maktab sari chorlab, ilm olishga undaydi.

Tavallo yoshlarga nasihat qila turib, Yevropadagi holat bilan taqoslab shunday yozadi:

Sizlarni Yovrupoda yurgazmayur piyoda,
Ko'krak ochiq yoqada, o'tmasun oy yilingiz...

Tavallo xalqqa, ayniqsa yoshlarga kelajakka intilib yashash, bu uchun ko'p harakat qilish lozimligini uqtiradi. Umrni arzimagan yumushlar bilan bekor o'tkazib yubormaslikka ishora qilib:

Qorovulchilik hunarmi, hech narsa yil unarmi,
Qulog'inga so'z kirarmi, o'tmasun oy yilingiz..., deya nasihat qiladi.
Ko'zlarni endi yoshlang, pivo, aroqni tashlang,
Yoshlarni yo'lga boshlang, o'tmasun oy yilingiz.
Olamda sizmu tanho, ko'z bormu yoki a'mo,
Budur sizga "Tavallo", o'tmasun oy yilingiz.[6. 3-bet]

Yuqoridagi satrlardan ijodkorning mudroq qalblar uyg'oning, yomon illatlarni tark etib, boshqalarga ham o'rnak bo'ling, sizlarni boshqalardan ortiq yeringiz yo'q, deya nola chekayotganligini anglash qiyin emas.

Sayyoh Darvesh imzosi bilan berilgan "Maqolai manzuma"da ham ilm-ma'rifatni targ'ib etish, usuli jadid maktablarini ochish haqida so'z boradi. Xalqni taraqqiyotga chorlab, kamchiligu nuqsonlarni ayovsiz fosh etadi:

Qachon biz uyg'onurmiz vo darig'o xobi g'aflatdin,
Qachon bosh qutarurmiz bu jaholat, bu muzlatdin.
Makotabu madorisda ilmning vor faqat ismi,
Asarda qolmag'on bunlarda fandin, ilmu hikmatdin.
O'qur tolib madorisda yigirma yoki o'ttuz yil,
Chiqarmas bir natija yo vujud bir buncha mehnatdin.[4. 1-bet]

Yuqoridagi satrlarda muallif eskicha usul (hijo usuli) maktablarining samara bermasligidan, aksincha, ilmu toliblarning yigirma-o'ttiz yillab umri befoyda ketayotganidan afsuslanadi. Muallifning ham boshqa jadidlar qatori yangi maktab tarafdori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Gazetaning jami 123 ta soni chiqqan (1914 yil 3 aprel-1915 yil 6 iyun). Ushbu gazeta 4 sahifadan iborat bo'lib, yuqorida ta'kidlaganimizdek Obidjon Mahmudovning Qo'qon shahridagi bosmaxonasida Ashurali Zohiriy muharrirligida haftada 3 marotaba chop etilgan. Gazetada asosan quyidagi ruknlarni ko'ramiz: "Idora xabarlar", "Idoraga maktub", "Idoradan javoblar", "E'lonlar", "Xo'qand xabarlar", "Telegraf xabarlar", "Turkiston va Farg'ona xabarlar", "Doxili xabarlar", "Abyot", "Xoriji xabarlar"...

Xullas, Ibrat, Hamza, Tavallo va Vasliy kabi shoirlar "Sadoi Farg'ona"ning vodiy aholisi ijtimoiy ongi va madaniy saviyasining oshishi, ilm-ma'rifatga munosabatining keskin o'zgarishida katta ahamiyatga ega ekanligini sezdilar va o'z asarlari bilan shu jarayonda faol ishtirok etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov O. Maqsad va maslak. //Sadoi Farg'ona, 1914- yil 3-aprel. № 1.
2. Mahmudov O. Ochiq maktub. //Sadoi Farg'ona, 1914-yil 10-aprel. №2.
3. Said Ahmad Vasliy. Shukrona va tabrik. //Sadoi Farg'ona, 1914 -yil 18- aprel. № 5.
4. Sayyoh Darvesh. Maqolai manzuma. // Sadoi Farg'ona, 1914- yil 13- iyun. № 29.
5. Tavallo. Abyot. //“Sadoi Farg'ona”, 1914- yil 1-aprel. № 4.
6. Tavallo. Yoshlardan bir iltijo. //“Sadoi Farg'ona”, 1914 -yil. № 93.

ID-020-30-A049

Gulandom Abdumurodova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

TOG 'AY MUROD ASARLARIDA XALQ MAROSIMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Tog'ay Murodning asarlaridagi o'zbek marosimlarining o'rni va ahamiyati to'g'risida mulohaza qilinadi. Shu maqsadda asarlaridagi marosimlar tahlil etilib, ularning xalq hayotidagi ahamiyatiga e'tibot qaratilgan. Shu jumlada, marosimlardagi turli xalq o'yinlari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *to'y, marosim, kurash, "Oshiq", Navro'z, "Kelin salom", bayram, urf-odat.*

Annotation. This article discusses the role and significance of Uzbek ceremonies in his works. To this end, the rituals in his works are analyzed and their importance in the life of the people is emphasized. In addition, various ceremonial folk games were also analyzed

Keywords: *wedding, ceremony, wrestling, "Nut", "Lover", Navruz, "Bride's greetings", holiday, tradition*

Zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakillaridan bir Tog'ay Murod adabiyot olamiga yoniq yulduz bo'lib kirdi. Jonli hayotga yaqinligi va uni badiiy idrok etish salohiyati bilan kitobxonlar qalbidan joy oldi. Adabiyot tarixiga nazar solsak, xalq og'zaki ijodi sarchashmalaridan oziqlanmagan, ijodiy madad olmagan birorta badiiy so'z ustasi bo'lmasa kerak. Biroq bu oziqlanish, madad olish turli ijodkorda turlicha shakl va darajada bo'ladi. Masalan, ayrim yozuvchilar ijodida juda yaqin ko'rinib turadi. Bu xususiyat xalq qo'shiqlari, o'yinlari, maqol-u matallardan foydalanganidan emas, balki unda oddiy xalqqa xos fikrlash, qahramonlar harakterini yaratish, uning uslubida mujassamlashgan bo'ladi. Shu jumladan, Tog'ay Murod asarlarini xalq og'zaki ijodining zamonaviy bir ko'inishi deyishimiz mumkin. Sababi har bir asarida xalq og'zaki ijodining namunalarini uchratamiz. Avvalo, marosim so'ziga

to'xtalsak, bu so'z arab tilidagi "marsum" so'zidan olingan bo'lib, 1)chizilgan; 2)rasm qilingan; 3)odat bo'lgan ma'nolarni anglatadi. Har bir inson umri davomida turli maqsadlarda uyushtirilgan va xalq orasida odat tusiga aylangan marosimlarda ishtirok etadi. Inson tug'ilishi, uylanishi, turmushga chiqishi bor ekan marosimlar ham bo'laveradi.

Yozuvchining "Yulduzlar mangu yonadi" asari boshlanishi to'y tasviri bilan boshlanadi.

-Odamlar-u odamlar, tog'da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar
Zulfiqor polvonnikiga sunnat to'yiga he-e-e-ey!

O'zbek to'ylari rang-barang bo'lib ular bir biridan o'tkazilish tarzi, ishtirokchilari, tarkibi, vazifalari hamda ijro etiluvchi aytim va qo'shiqlari jihatidan keskin farq qiladi. Yurtimizning janubiy viloyatlarida to'y marosimlari bir necha jihatlari bilan boshqalaridan ajralib turadi. Yozuvchining "Oydinda yurgan odamlar" asarida buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Asarda o'zbek qadriyatlariga xos sovchi yuborish udumi tasvirlanadi. Non sindirish, fotiha to'y, to'qqiz toboq, qiz ko'rar kabi marosimlar to'y oldidan bo'lib o'tadi. Nikoh kunida o'tkaziladigan bir necha ajoyib urf-odatlarimiz keltirilgan. Kelin va kuyov yelkasidan igna bilan ip o'tkazish, bu ularning birikib yurishi, ajralib ketmasligi uchun bo'lsa, kuyov boshi uzra bir hovuch bug'doy sochilishi, bola-chaqasi shu bug'doy donalarida ko'p bo'lishini tilaydi.

It g'irillatar, kampir o'ldi, soch siypatar, qo'l ushlatar kabi udumlarimiz tarixi "Alpomish" dostoniga taqaladi. Nikoh marosimidan so'ng o'tkaziladigan udumlarimizdan biri "Kelin salom"dir. Kelin salom kuyovning ota-onasiga hurmat va yangi oila a'zolari bilan tanishish maqsadida o'tkaziladi. Bunda kayvoni momo tomonidan baland ovozda aytim aytiladi:

Soydan ho'kiz suvlatgan,

Do'mbirasin kuylatgan,

O'g'illarin uylatgan-

Qaynotamga salom!

Asarda diniy qadriyatlarimizdan bo'lgan "Laylat ul-Qadr" kechasi haqida ham aytib o'tilgan. "Laylat ul-Qadr" Oллоh taolo Muhammad Rasulullohimiz uchun yaratmish kecha bo'ladi. Bu kecha mo'min musulmonlar nimaniki tilasalar, tilaklari bajo bo'ladi. Orzu-umidlari ushaladi. Bu orqali yozuvchi diniy qadriyatlarimizga ham befarq emasligini ko'rsatmoqchi. Qissadagi yana bir milliy bayramlarimizdan biri bo'lgan "Navro'z" ayyomi ham tasvirlangan. Bu bayram yetti ming yil muqaddam paydo bo'lganligi autiladi. Bu kunda barcha qir-adirlarga chiqib, sayllar uyushtiradi. Saylda yosh-u qari, ayol-u erkak yangi yilni xursandchilik bilan kutub oladi. Shunisi diqqatga sazovarki, yangi yilning boshlanishi haftaning qaysi kuniga to'g'ri kelishi, yilning qanday o'tishini belgilab bergan. Masalan, payshanbada kelsa, dardmandlik ko'p bo'ladi, oy bilan kun-da tutiladi.

Navro'z qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muxtasham qadriyatlarimizdan biri, baynalminal bayramdir. Uning tarkibiga, qadimgi otabobolarimizning mifologik tassavurlaridan tortib bugungi zamondoshlarimizning qarashlarigacha bo'lgan ma'naviyat olami singib ketgan bo'lib, u insoniyat madaniy taraqqiyotining qar bir yutuqidan doimo kuch va quvvat olib turadi.

Inson tug'ilishida marosim, o'sib ulg'ayishida marosim va so'nggi yo'lga ketishida ham marosim bilan yodlanadi. Xalqimiz motam marosimlariga ham alohida e'tibor berishadi. Odatda motam marosimlarida "Kir yuvdi", "Yettisi", "Qirqi", "Yili" kabi yig'inlar o'tkaziladi. Asarda motam marosimini oxirida uchratamiz. Oymomo vafot etishi barchani qayg'uga soladi. Yosh-yalanglar momomlab-momomlab, onamlab-onamlab yig'lashida ko'ramiz.

Xovlimizning tolini

Tobut bo'lsin, deganmidik?

Voy enam-ovv, enam-ovv!..

Shunisi diqqatga loyiqki, ushbu asarning yuqori darajada muvaffaqiyatli chiqishida xalq og'zaki ijodining o'rni katta.

Adibning "Yulduzla mangu yonadi" qissasi ham to 'y tasviri bilan boshlanadi.

" - Odamlar-u odamlar, tog 'da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar!
Bugun hamma Zulfiqor polvonnikiga sunnat to 'yiga, he-e-e-ey! Chu, jonivor!"

Xalqimizning o 'ziga xos udumlarini yaxshi bilgan adib to 'yga odamlarni aytish tasvirini nihoyatda chiroyli ko 'rsatib beradi. Avval jarchi barchani aytib chiqadi, undan keyin to 'y bekasi uyma – uy kezib xonadon bekalarini to 'yga chaqirdi. Zulfiqor polvon ham ot minib el – yurtni o 'z nomidan yana bir bor aytib chiqadi. Birinchi qism oxirida yozuvchi bu holatga izoh berishni ham yodidan chiqarmaydi:

"El – yurt ko 'ngli nozik-da.

To 'y bekasi aytgani boshqa, to 'y xo 'jasi aytgan boshqa"

Asarda 10dan ortiq xalq o'yinlari bolalar, ayollar, kattalar tomonidan o'ynalganligi aytiladi. "Yashinmashoq", "Oqsuyuk", "Oshiq", "Yong 'oq", "Shumshak", "Chillak", "Zuvillartar" kabilar. Surxon vohasida hech bir to 'y kurashsiz o 'tmaydi. Kutash o 'yinining haqiqiy vatani O 'zbekistondir. Bundan besh ming yil oldin paydo bo 'lgan. Shuncha yillar davomida xalqimizning ornomusi, yigitlarning kuch-qudrati ramzi bo 'lib kelmoqda. Kurashda xalqimizning ruhiyatiga, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo 'lgan mardlik, jasurlik, halollik, insonparvarlik fazilatlari mujassamlashgan. O'zbek o'g'lonlarining mard va jasurligi, do'stiga, Vataniga sodiqligi, halolligi kabi xislatlarini yozuvchi mana shu kurash tasviri orqali ochib beradi. Davraga chiqqan polvon haqqoniy o 'ynashi kerak. G 'irromlarni xalq tan olmaydi.

Tog'ay Murod hech bir ijodkorga xos bo 'lmagan uslubda qalam tebratadi. Yozuvchi ustozlariga ham taqlid qilmaydi. Dunyoni, uning voqea hodisalarini, kishilar orasidagi munosabatlarini, ularni yuzaga keltiruvchi fikr-o 'ylar, orzu niyatlar, ularning samarasi bo 'lmish his-tuyg 'ularni o 'ziga xos ko 'z bilan, aniqrog 'i xalq ijodkorlariga xos tarzda ko 'radi va ta' riflaydi. Xalq marosimlari shakl va mazmundan qat 'i nazar bugungi kunni o 'tmish bilan bog 'lab turuvchi ma 'naviy zanjir hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar I jild. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent.-2008.
2. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar II jild. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent.-2011.
3. Men qaytib kelaman. Zamondoshlari xotirasida
4. O. Madayev, T. Sobitova. Xalq og'zaki poetik ijodi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent.-2010.
5. K. Imomov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, O. Safarov. O 'zbek xalq og 'zaki poetik ijodi. "O'qituvchi", Toshkent 1990.
6. B. Sarimsoqov. O 'zbek xalq marosimlari. Toshkent. O 'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 1986-yil.

ID-020-30-A050

Gulfiza Olimova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs magistranti

SO'ZNING MAGIK QUDRATIGA ASOSLANUVCHI MAROSIM FOLKLORI: "QORA QOZONNING TAGIDAN O'TKAZISH" MAROSIMI

Annotatsiya. Marosimlar barcha dunyo xalqlari hayotida muhim o'rin tutadi. Chunki inson hayoti to'raligicha marosimlar bilan uzviy bog'langan. Shu sababdan ham ular folklorshunoslikda alohida tadqiq ob'ekti sifatida o'rganiladi. Lekin shu kungacha bu mavzuning hali o'rganilmagan jihatlari talaygina. Ushbu maqolada oilaviy-maishiy marosimlar tizimida turuvchi "Qora qozon" marosimi xususida folklorshunosligimizda ilk bor fikr yuritiladi. Marosim folklorida so'zning magik qudratiga asoslanuvchi turli janrlar mavjud. Ularning ma'lum qismi bu paytgacha o'rganilmagan, Hatto tadqiqotchilar nazariga ham tushmagan. Biz "Qora qozon" – Qora qozon tagidan o'tkazish marosimining o'tish tartibi, joyi, vaqti, kimlar ishtirokida, qay holatda bajarilish va aytimlarini atroflicha yoritdik.

Kalit so'zlar: *Qora qozon (Qora qozon tagidan o'tkazish), marosim folklori, mavsumiy marosim folklori, oilaviy-maishiy marosim folklori, momolar kulti, shamanlik, homiy ruhlar, animizm.*

Annotation. Rituals play an important role in the lives of all peoples of the world. Because human life is inextricably linked with rituals. For this reason, they are studied as a separate object of study in folklore. But to date, there are many aspects of this topic that have not yet been explored. This article is the first in our folklore to consider the "Black Cauldron" ceremony, which is part of the system of family and domestic ceremonies. There are various genres in ceremonial folklore based on the magical power of the word. Some of them have not been studied so far, have not even come to the attention of researchers. We have covered in detail the order, place, time, in whose presence and in what conditions the "Black Cauldron" – the ceremony of passing under the Black Cauldron will take place.

Keywords: *Black Cauldron (passing under the black cauldron), ceremonial folklore, seasonal ceremonial folklore, family ritual folklore, grandmothers cult, shamanism, patron spirits, animism.*

Barcha xalqlar folklorida bo'lgani singari xalqimiz ham azal-azaldan o'zining turli marosimlar-u, urf-odatlariga boyligi bilan ajralib turadi. Ular

ma'lum ma'noda shu millatning, elning e'tiqodini, turli qarashlarini o'zida aks ettiradi. Shu bilan birga, har xil irim-sirimlar ham xalq hayotining ajralmas bir qismiga aylangan. Millat ijtimoiy hayotida keng ahamiyat kasb etgan bu marosimlar xalq og'zaki ijodimizda ham muhim o'rin tutadi. Bu folklorshunosligimizda alohida tadqiqotni talab etuvchi mavzu hisoblanadi hamda marosim folklori tizimida o'rganiladi.

Bu mavzu yuzasidan taniqli folklorshunos olim Bahodir Sarimsoqov jahon folklorshunosligidagi marosim folklorining o'rganilishidagi tajribalar asosida ilmiy izlanishlar olib borgan. U o'zining "O'zbek marosim folklori" monografiyasida marosim folklorining janrlar tarkibi, ulardagi rasm-rusumlar, qadimgi urf-odatlar, ulardan anglashiladigan ramziy ma'nolar, marosimlarda so'z va harakatning o'rni haqidagi masalalarni tadqiq etgan. Bu kitobda dastlab o'zbek marosim folklorining tasnifi haqida so'z yuritilgan bo'lib, olim ularni quyidagicha turkumlarga ajratgan: "Demak, o'zbek marosim folklori o'zining hayotiy yo'nalganligi, maqsadi jihatidan dastlab ikkita katta turkumga – mavsumiy marosimlar folklori hamda oilaviy-maishiy marosimlar folkloriga bo'linadi" [1.30-b]. Bu asosiy tasnifdir. Ammo bu turkumlar o'z ichida yana bir qancha guruhlariga bo'lingani ham aytib o'tiladi. Masalan, mavsumiy marosim folklori tarkibiga ko'ra yana ikki guruh:

a) faqat mavsum bilan bog'liq marosim folklori janrlari

b) mavsumiy mehnat tarzi bilan bog'liq marosim folklori janrlariga ajratilgan bo'lsa, oilaviy-maishiy marosim folklori o'z ichida to'rtta:

a) so'zning magik qudratiga asoslanuvchi marosimlar folklori

b) bolaning beshikdagi davri marosimlar folklori

d) to'y marosimlar folklori

ye) motam marosimlar folklori kabi kichik guruhlariga bo'lingan.

Bu guruhlarning har biri inson hayotining ma'lum bir davrida unga hamrohlik qiladi. Ya'ni inson yorug' olam yuzini ko'rganidan boshlab toki bu hayotni tark etgunga qadar mana shu marosimlarning, urf-odatlarining ichida tug'iladi, ulg'ayadi, vafot etadi. Demak, bundan ko'rinadiki, bu marosimlar har bir inson

hayotining ajralmas bo'lagiga aylanib qolgan. Lekin shunday bo'lsa-da bu marosimlarning hammasi to'laligicha o'rganilmagan. Ayniqsa, turli irim-sirimlar bilan bog'liq marosim folklori yurtimizning har bir hududida o'zgacha ko'rinishda namoyon bo'lganligi sababliularning har birini ham qiyoslab, ham alohida tarzda o'rganish talab etiladi. Shu sababdan biz quyida oilaviy-maishiy marosimlar folklorining birinchi guruhi, ya'ni so'zning magik qudratiga asoslanuvchi marosim folklorining Surxandaryo viloyati Qiziriq tumanidagi "Istara" mahallasi hududida o'tuvchi "Qora qozon" (Qora qozon tagidan o'tkazish) marosimi haqida fikr yuritimiz.

So'zning magik qudratiga asoslanuvchi marosim ijrochilari animizmga, ya'ni atrofda ma'lum bir ruhlarning, sehrlil kuchlarning borligiga, ularning qudratiga ishonuvchi vakillar hisoblanadi. Ular so'zning, xatti-harakatning kishi dardiga davo bo'lishiga ishonishadi va shunga astoydil intilishadi.

Tadqiqotlarda aytilishiga ko'ra so'zning magik qudratiga asoslanuvchi marosim folklori ham bir necha guruhga bo'linadi. Hozir biz tadqiq qilmoqchi bo'lgan marosim istalgan shaxs ijrosida emas, balki so'zga usta, nutqi ravon, aynan homiy ruhlar tomonidan tanlangan iqtidorli qushnochlar ishtirokida o'tkaziladi. Bu marosim Surxondaryo hududida "Qora qozonning tagidan o'tkazish" deb nomlanadi. Biz uni qisqa ko'rinishda "Qora qozon" deb qo'llayapmiz. Ushbu jarayon haqida marosim folklorida hech bir manba qayd qilinmaganligini, shu sababdan bu to'g'risida to'plagan ma'lumotlarimizga asoslanib fikr yuritayotganimizni aytib o'tish joizdir.

Marosimni o'tkazuvchi shaxsning tanlanishi haqida gapiradigan bo'lsak, bu holatularning o'zlarining xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda g'ayriixtiyoriy tarzda yuz beradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, agar bu tanlangan shaxs majburiyatni o'z yelkasiga olmasa, ya'ni xalq tilida aytganda o'sha kasbni bajarib, turli marosimlar-u, irim-sirimlarni o'tkazishdan bo'yin tovlasa, o'sha ruhlarning g'azabigaduchor bo'lishiga, yo o'zi, yoki biror yaqin insoniga ruhlar tomonidan aziyat yetkazilishiga, biror kasallikka uchrashiga ishoniladi. Shu sababdan o'zining homiy ruhlar tomonidan tanlanganini sezgan

shaxs darhol bu vazifani qabul qilib, soʻzning magik qudratiga asoslanuvchi marosimlarni oʻtkazuvchi sifatida taniladi. Ayni shu holatning oʻziyoq bu marosimning shaman shaxsiyati bilan aloqador oʻtkazilishiga guvohlik beradi.

Qora qozon (Qora qozonning tagidan oʻtkazish) marosimi odatda yangi tugʻilgan chaqaloq uchun chilla davrida uch marta, keyinchalik esa goʻdakning toq oylarni toʻldirish vaqtida, masalan, uch, besh, yetti oyliklarida toki bir yoshga toʻlgunga qadar bola koʻp yigʻlab bezovta boʻlaversa bir martadan qushnoch kampir tomonidan oʻtkaziladi. Ushbu marosimni oʻtkazishda paxta, kul, tuproq, yogʻ, paxtani yoqish uchun maxsus tosh, uch dona choʻp, qora ip, qora qozon, roʻmol (biror mato boʻlishi ham mumkin), suv kerak boʻladi. Dastlab qirq bitta paxta ipga oʻxshatib eshib olinadi va yogʻga botirib toshning ustiga qoʻyiladi. Paxtaning qirq bitta boʻlishiga sabab chiltonlarni ifodalaydi yoki chaqaloqning dardi qirqilib ketsin degan maʼnoni anglatadi. Soʻngra uzunligi taxminan bir metr, barmoqday qalinlikda boʻlgan uchta choʻpning boshi birlashtirilib qora rangli ip bilan bogʻlanadi. Choʻplarning boshiga bogʻlangan qora ip “Qora momolarga” atalganligini ifodalaydi. Chunki Oʻrta Osiyo xalqlarishoman marosimlarida momolar kulti alohida ahamiyatga ega. Ular ayollarga hamroh boʻlishgan. Momolarning haqiga maʼlum bir vaqt mobaynida qushnoch kampirga is-chiroq, yaʼni yogʻ, paxta, un berilib zarur amallari bajarilmasa, ular ayollarga biror joyini ogʻritib zarar yetkazadi, deb oʻylashgan. Bunday qarash hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. Masalan, ayol farzand kutayotgan davrda toki goʻdak dunyoga kelguncha xomiladorlikning har toq oylarida uning onasi yoki qaynonasi yuqorida aytganimizdek is-chiroqni qushnoch kampirga berib momolarning haqiga duo qildiradi. Bundan kelib chiqadiki, ushbu marosimda ham momolar haqidagi qarashlar muhim oʻrin egallaydi. Tuproq, suv, paxtani yoqqanda hosil boʻladigan olov esa toʻrt unsur tarkibini ifodalaydi. Bundan tashqari olov, uni tavof qilish hamda olovning qoldigʻi boʻlgan kul olov topinchi vazardushtiylik dinining hozirgi kungacha hayotimizdagi taʼsirini koʻrsatadi. Marosimni oʻtkazishda aynan qora qozonning tanlanishining ham maʼlum sababi bor. Bu jarayonni amalga

oshirayotgan ijrochi – homiy ruhlar tomonidan tanlangan shaxsning fikricha, turli ins-u jinslar qora rangdan qochishadi. Ya’ni o’sha go’dakka zarar yetkazishmoqchi bo’lsa qora qozonning tagidan ona va bolani o’tkazib olishayotganda ular bolani tark etib, unga ozor bermaydi.

Maxsus tayyorgarlikdan so’ng qushnoch kampir marosimni boshlaydi. Shu asnoda go’dakning yuziga yo’li oq bo’lsin, yuzi yorug’ bo’lsin degan maqsadda oq ro’mol yoki mato, agar bolaning rangi chilla ichida sarg’aysa sariqligi ketsin deb sariq mato, topilmasa sariq rang aralashgan ro’mol yoki mato yopib qo’yiladi. Shundan so’ng qushnoch kampir qora qozonni ushlab turadi, chaqaloq va uning onasi qozonning tagidan yetti marta aylanib o’tishadi. Bizning fikrimizcha, ular yetti raqamini xosiyatli deb ishonishgani uchun ham qozonni aylanib o’tish jarayonini shu miqdor bilan bog’liq deb hisoblashadi. Ushbu holat yakunlangach go’dak va uning onasi uchlari birlashtirilib, qora ip bilan bog’langan, avvaldan tayyorlab qo’yilgan uchta cho’plarning orasidan ham aylantirib o’tkaziladi. Bu jarayon ham yetti marta bajariladi. Ona va bola har safar cho’pning orasidan aylanib o’tayotganda qushnoch kampir yonida bo’lgan yana bir ayol qarsak chalib: **“Ochildi-ochildi, ochilib ketsin”**, deb aytib turadi va bu ham yetti marta takrorlanadi. Aynan shu jummalarning takrorlanishiga sabab rangi sarg’aygan yoki bezovta bo’layotgan bolaning xomushligi arib, chehrasi ochilib, darddan forig’ bo’lsin degan ma’no kelib chiqadi. Ona va bola cho’plarning tagidan oxirgi marta o’tganidan so’ng orqasiga qaramasdan to’g’ri ketishadi. Shundan so’ng go’dakning yuziga yopilgan ro’mol olinib qushnoch kampir tomonidan quyidagicha: **“Ox (oq) momom, qora momom, sori (sariq) momom, kulsun, momom, olbasti (albasti) momom, qora boshimdi (boshimni) enkaytmangizlar (egmangizlar), qizil yuzimdi (yuzimni) so’litmangizlar, jurgamman (yurganman) jo’llaringizga (yo’llaringizga), kirgamman (kirganman) dinnaringizga (dinlaringizga), yot (yod) qildim, shod qing (qiling), mushkullarimdi (mushkullarimni) oson qing (qiling)”**, deb go’dakdan dardning arishini, mushkullarini yengillatishini so’rab duo qilinadi. Shundan

so'ng avvaldan bir barmoq uzunligida ipga o'xshatib eshilib, yog'ga botirib tayyorlab qo'yilgan qirq bir bo'lak paxta maxsus toshning ustiga qo'yib yoqiladi va olov tavof qilinadi. Paxta yoqiladigan maxsus tosh har bir qushnochda bo'lishi kerak. U doimiy bir idishda turadi va har safar qushnoch kampir chiroq yoqqanda (ipga o'xshatib eshilib, yog'ga botirib yoqiladigan paxta chiroq deyiladi) aynan o'sha toshning ustiga qo'yib yoqishadi. Olovning tavof qilinishi esa islomdan avval mavjud bo'lgan otashparastlik dinining ko'rinishi hisoblanadi. Olov o'chgunga qadar uch marta tavof qilinadi. Paxta to'liq yonib bo'lgach, qushnoch kampir ko'rsatkich barmog'ini biroz namlab uning kuliga botirib olib go'dakning kindigi, yuragi atrofiga, oyog'i tagiga surkaydi. Bu bolani ins-u jinlar tark etsin, qayta yaqin kelmasin degan ma'noda qilinadi. Qushnoch kampirning fikricha, surtilgan kul qoldig'i bolani har xil sirli kuchlardan himoya qiladi. Shundan so'ng qushnoch kampir yana yuqoridagi kabi: ***“Ox (oq) momom, qora momom, sori (sariq) momom, kulsun, momom, olbasti (albasti) momom, qora boshimdi (boshimni) enkaytmangizlar (egmangizlar), qizil yuzimdi (yuzimni) so'litmangizlar, jurgamman (yurganman) jo'llaringizga (yo'llaringizga), kirgamman (kirganman) dinnaringizga (dinlaringizga), yot (yod) qildim, shod qing (qiling), mushkullarimdi (mushkullarimni) oson qing (qiling)”***, deb bolaga shifo tilab duo qiladi. Keyin esa kul va hovlining uch burchagidan olib kelingan tuproq aralashtirilib kaftning to'rt barmog'i botirilib ona hamda bola ko'ksiga, qorniga, oyog'ining tag qismiga sekin urib haplab (bosh barmoqdan tashqari to'rt barmoq jipslangan holda kaftning ichki tomonini tananing ko'krak, kindik hamda oyoqning tag qismiga tekkizilish jarayoni. Bunda kaft har safar tanaga tekkizilayotganda uning ichki qismi, ya'ni barmoqlar jipslashgan tomoni aralashtirilgan kul va tuproqqa botiriladi) olinadi. Bu jarayon ham tanadagi ins-u jinlarni qochirish maqsadida qilinadi. Chunki O'rta Osiyo xalqlarida kul, tuproq kabilar yomon ruhlarni quvuvchi vosita sifatida qadimdan keng qo'llanganligi manbalarda keltirib o'tilgan [1.155-b]. So'ngra ona va bolaning qo'l-oyoqlariga sekingina shapatilab urib chiqiladi hamda kul bilan tuproq

aralashtirilib onaning ko'ksiga nomigagina surtiladi. Qushnoch kampirning ta'kidlashicha, bu irim onaga "Kulsun momolar" (Bu so'zga ikki xilda izoh berish mumkin: 1) olovning qoldig'i bo'lgan kulga hukmronlik qilishni ifodalovchi kuchlar; 2) Kulmoq so'ziga nisbat berilib, darddan forig' bo'lsin, xursandchilikda kulib ketsin, degan ma'nodagi qarashlar) tegishmasin, ziyon yetkazmasin degan maqsadda qilinadi. Ushbu jarayon yakunlangach, agar bola ona suti bilan oziqlansa, uni ovqatlantirishdan oldin, ona biroz sutini sog'ib tashlaydi. Chunki qushnoch kampir tomonidan ona haplab olinganda uning tanasidagi yomon ruhlar, sehrlilik kuchlar shu orqali chiqarib yuboriladi, degan qarashga ishoniladi. Marosim yakunida esa qushnoch kampir bir piyola suvni olib, unga qarab "Ixlos" surasini aytib dam soladi hamda bu suvni shu yerda o'tirganlarga sachratib sepib chiqadi. Qolgan suv esa mevali daraxtning tagiga to'kiladi. Suv yorug'lik, tiniqlik, poklik ramzi bo'lgani, shuningdek, oqar suv dardlarni, g'am-tashvishlarni oqizib ketishiga ishonilgani uchun undan foydalanishadi. Bu amallarning barchasi to'la-to'kis ado etilgach, qushnoch kampirga marosimni o'tkazuvchi uy egasi tomonidan nazr (qushnoch kampirning qilgan xizmati uchun atab ko'ngildan chiqarib beriladigan biror narsa-buyum, pul va shunga o'xshash narsalar) beriladi hamda xuddi yuqoridagi kabi: ***"Ox (oq) momom, qora momom, sori (sariq) momom, kulsun, momom, olbasti (albasti) momom, qora boshimdi (boshimni) enkaytmangizlar (egmangizlar), qizil yuzimdi (yuzimni) so'litmangizlar, jurgamman (yurganman) jo'llaringizga (yo'llaringizga), kirgamman (kirganman) dinnaringizga (dinlaringizga), yot (yod) qildim, shod qing (qiling), mushkullarimdi (mushkullarimni) oson qing (qiling)"***, deb go'dakka sog'lik-salomatlik tilab, duo o'qilib marosim yakunlanadi. Bu marosim odatda tushga yaqin yoki tushdan biroz keyinroqqa toki shom vaqti kirgunga qadar o'tkaziladi. Chunki o'tkazuvchilarning fikricha, shomdan keyin atrofda turli ins-u jinlar kezib boshlaydi. Shu sababdan kunduzi o'tkazishni maqsadga muvofiq bo'ladi hamda qilingan amallar emiga tushadi, ya'ni darddan forig' bo'lishga yordam beradi, deb hisoblashadi. Marosim nihoyasiga

yetganidan keyin toki ertangi kunga qadar chaqaloqning onasi yog'li ovqatdan parhez qiladi.Chunki ins-jinslar yog'li, yog' yuqi bo'lgan narsalarga keladi,degan qarash bo'lgani uchun ham yog'li ovqat yeyilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баҳодир Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. Тошкент: Фан , 1986..
2. Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
3. Т. Mirzayev, Sh. Turdimov, M. Jo'rayev, J. Eshonqulov, A. Tilavov. O'zbek folklori. Тошкент: Tafakkur-bo'stoni, 2020.

ID-020-30-A051

Gulshoda Yodgorova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Jahongir To'xtasinov

Uchqo'rg'on tuman BAM monitoring mutaxassisi

MA'RIFAT DURDONASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysi xalq dostonchiligida muhim o'rin tutgan Qayqi dostonchilik maktabi, uning dostonchilaridan Usmon Mamatqul o'g'li hayoti, uning ijodida "Bo'tako'z" dostonining tutgan o'rni, badiiyati haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Xalq dostonchiligi. Qayqi dostonchilik maktabi vakillari, Usmon Mamatqul o'g'li, "Bo'tako'z" dostonining Qayqi varianti.*

Annotation. This article discusses the school of Kayki epic poetry, which played an important role in the folk poetry of the Fergana Valley, the life of one of its poets Usmon Mamatkul oglu, the role of the poet "Botakoz" in his work, his art.

Key words: *Folk epic, what representatives of the Kayki school of epic, which Kayki version of the epic "Botakoz" by Usmon Mamatkul oglu.*

Xalq og'zaki ijodi xalqimizning azaliy orzu-umidlarini, ezguliklarini, urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan noyob durdona hisoblanadi. Asrlar silsilasida bizgacha sayqallanib, qadrlanib kelayotgan tafakkur marvaridlarida xalqimizning bunyodkorlik, yaratuvchanlik g'oyalari bilan dunyo tamaddunida munosib o'ringa ega.

O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy o'g'zaki asarlari tarix kitoblari, Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur as-Saolibiy asarlari, "Avesto", "Behistun" kabi yozma yodgorliklar, ilmiy manbalar orqali yetib kelgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'at at-turk" asarida qadimgi xalq qo'shiqlari, ertak,

lirik she'r va maqol namunalari keltirilgan. Vaqtlar o'tishi bilan shoirlar e'tiborida bo'lgan "To'maris", "Shiroq" afsonalari, "Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra", "Yusuf va Zulayho", "Go'ro'g'li", "Alpomish", "Bulbul va gul", "Husn va dil" kabi bir qancha dostonlar xalq kitoblari nomini olib xalqimiz ma'naviyati xazinasida yashab kelmoqda. Bu asarlarni baxshi, irchi, jirchi, oqin, halfa, sannovchi, kampir, oxun, shoir, yuzboshi, qissaxon deb nom olgan xalq baxshilari omma orasida sevib kuylab kelganlar. Olimlarimiz O'zbekistonda Qo'rg'on, Bulung'ur, Narpay, Sherobod, Nurota dostonchilik maktablarini aniqlagani holda Farg'ona dostonchilik maktablari haqida gap aytishi ma'lum vaqtga qadar mushkul bo'ldi. Hatto vodiya faqat qo'shiq janri, maqol, matal, topishmoq, ertak, askiya, xalq qiziqchiligi taraqqiy etgan, degan bir yoqlama qarashlar ham ilgari surilgan.

1930-yilda Xodi Zarifning vodiya folklor ekspeditsiyasi natijasi o'laroq bu qarashlar asossiz ekanligi isbotlandi. Xodi Zarifdan so'ng olim Malik Murodov Farg'ona xalq dostonchiligi, xalq baxshilari, dostonlar kuylanishi, badiiyati, dostonchilar mahorati kabi qator masalalarni zukkolik bilan fanga birinchi bo'lib olib kirdi. Vodiya dostonchilarini aniqlash, ulardan dostonlar yozib olish va targ'ib qilishda folklorshunos olimlarimiz Tojiboy G'oziboyev, Hoshimjon Razzoqovlar ulkan ishlarni amalga oshirdilar. Tojiboy G'oziboyev dostonshilardan 30 dan ortiq dostonlarni yozib oladi. Shu o'rinda olimlardan O'rinboy Holmatov, Robiddin Is'hoqov, Odiljon Nosirov, Mahmudjon Ma'murov, tojikistonlik olim V. Nurjonov, qo'qonlik olim B. Ibrohimovlarning xalq dostonchiligini o'rganishdagi xizmatlari ham tahsinga loyiqdir.

O'z davrida F. Abdullayev, T. Haydarovlar namanganlik Haydar sannovchi Boychayevdan "Alpomish", "Zamonbek", "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Avazxon" dostonlarini yozib oladi. 1950-1960-yillardan boshlab M. Murodov, A. Tursunov, U. Sarimsoqov, O. Holmirzayevlar tomonidan Husan baxshi Rajabboy o'g'li, Razzoq Qozoqboy o'g'li, Alim shoir Niyoz o'g'li kabi 40dan ortiq dostonchilardan 100ga yaqin doston variantlari yozib olingan. Shu yillar ichida uchqo'rg'onlik [Namangan viloyati] Usmon Mamatqul o'g'lidan "Shoxdorxon",

“Bo’tako’z”, “Yulduz bilan Qunduz” dostonlari ham yozib olindi. Shoir Rafiq Mo’min xalq qo’shiqlari, ertak va dostonlarini yig’ish borasida uchqo’rg’onlik Yormat baxshi og’zidan “Yozi bilan Zebo” [“Zevak”] dostonini yozib oladi. Doston keyinchalik ikki marta 1965-, 1978- yillarda nashr etilgan.

Bu materiallar o’z navbatida Farg’ona dostonchilik maktablari yetarli darajada rivojlanganini aks ettiradi. Olib borilgan ilmiy ekspeditsiyalar natijasida Namangan viloyati hududida Sayram, Peshqo’rg’on, G’ovazon, Qayqi, Ariqbo’yi, Ko’lbuqon dostonchilik maktablari aniqlangan.

Qayqi dostonchilik maktabi haqida birinchi ma’lumot fanga Malik Murodov, Tojiboy G’oziboyev, Otamirza Holmirzayevlar tomonidan kiritilgan. Olimlarning aniqlashicha, bu dostonchilik maktabi XIX asrning ikkinchi yarmida shakllangan. Bu maktabda Husan Rajab o’g’li, Usmon Mamatqul o’g’li, Yormat baxshi, Alimqul Niyoz o’g’li, Dehqonboy baxshi, Oxyo’l [O’g’il] baxshi, “Alpomish baxshi” [Xudoyberdi baxshi Ortiq o’g’li], Abdumo’min baxshi, Ibrohim baxshi, Yusuf baxshi, Anor baxshi kabi 18 nafar dostonchi o’tgan. Bu dostonchilik maktabini 1930-yillardan boshlab Xodi Zaripov, Mansur Afzalov, Sobirjon Ibrohimovlar ilmiy jihatdan o’rgana boshlagan hamda ko’plab dostonlar, xalq termalarini yozib olganlar.

Qayqi dostonchilik maktabining yirik vakili Usmon Mamatqul o’g’li ham Farg’ona dostonchiligida muhim o’rin tutadi. Bu baxshi o’z davrida olimlar nazariga tushib, undan “Shoxdorxon”, “Bo’tako’z”, “Yulduz bilan Qunduz” dostonlari to’lig’icha; “Go’ro’g’li”, “Avazxon”, “Rayhon arab”, “Yunus pari”, “Misqol pari”, “Nurali”, “Hasanxon” dostonlaridan parchalar yozib olingan. Usmon baxshi 1875- yilda Andijon viloyati, Uchqo’rg’on tumani [tuman hozirda Namangan viloyati hududida]dagi Xo’jaobod [Hozirgi Yashiq qishlog’ining Atlas mahallasi] qishlog’ida kambag’al dehqon oilasida tug’ilgan. “Oldimizda baxshi yashagan tuman va qishloq bo’ylab yurishga, uni tanigan, u bilan muloqotda bo’lganlar bilan suhbatlashishga to’g’ri keldi, - deb yozadi folklorshunos Otashmirza Holmirzayev. – Ayniqsa, Husan Rajab o’g’li, Dehqon shoir Qoraboy o’g’li , Abdumo’min baxshi, Alpomish baxshi, Alim shoir Niyoz

o'g'li va bir necha dostonchilar ijodini o'rganish barobarida Usmon baxshi ijodiyotini ham to'ldirishga muvaffaq bo'ldik".

Darhaqiqat 1975-yilda Farg'ona davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi Iqbol Nazarov boshchiligidagi talaba to'plovchilar, 1977-yilda Toshkent davlat universitetining Muhammadnosir Saidov boshchiligidagi talabalar bilan xalq og'zaki ijodi va dialekt materiallarini o'rganish davrida hamda filologiya fanlari doktori Malik Murodov bilan birgalikda Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi xodimlari tomonidan o'tkazilgan izlanishlar davrida baxshi ijodiga oid ma'lumotlar jamlangan. Usmon baxshining otasi Mamatqul baxshi asli andijonlik bo'lib, Xudoyorxon qipchoqlariga mansub o'zbek urug'laridan edi. Baxshi doston aytishni Rajab baxshidan o'rganadi. [Rajab baxshi Husan baxshi Rajab o'g'lining otasi bo'lib, 82 yoshida Makkaga Haj ziyoratiga ketib, qaytib kelmagan]. Rajab baxshi esa doston aytishni bobosi Mulla Rahmatdan o'rgangan edi. Mamatqul baxshi katta gapxonalarda, to'y-ma'rakalarda doston aytib yuradi. Xalq uning dostonlarini zo'r qiziqish bilan tinglaydi, biroq birgina dostonchilik bilan tirikchilik o'tkazib bo'lmas edi. Shu sabab Mamatqul baxshi ish izlab Uchqo'rg'onga keladi. Dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Shu yerda muqim qolib ketadi. Bu orada Usmon tug'iladi. Mamatqul baxshi bu yerda ham doston aytishni kanda qilmaydi. Cho'ponlik bilan shug'ullanuvchi Ko'lbuqon dostonchilari bilan uchrashadi. Ko'lbuqonlik Cho't baxshi bilan doston aytishadi.

Ana shunday katta baxshilar qarovida kamolotga erishgan Usmon baxshi 18 yoshidan dehqonchilikdan tashqari doston aytish bilan ham nom chiqaradi. Ko'lbuqonlik dostonchi Cho't baxshi 27 ta doston bilgan bo'lsa, Usmon Mamatqul o'g'li 10 ta dostonni bilardi. Uning repertuari ayniqsa, 1920-yillardan keyin yanada sayqal topgan. Bu jamlanmadan xalq dostonlari bilan bir qatorda zamonaviy xalq termalari ham o'rin olgan. 1930-1940-yillar davomida toshkentlik olimlar Xodi Zaripov, Mansur Afzalov, Buyuk Karimov, Zubayda Husainovalar uning ijodi va repertuarini yozib olishga bel bog'lganini ko'rgan baxshi yanada yaxshiroq kuylashga, dostonlarni yanada sayqallashga

e'tibor beradi. Biroq undan yuqorida tilga olganimiz "Shoxdorxon", "Bo'tako'z", "Yulduz bilan Qunduz" dostonlarigina to'liq yozib olingan. Mahalliy kishilar tomonidan yozib olingan namunalar esa u yoki bu dostondan aytilgan parchalar edi. Setor bilan qo'shiq qilib aytilgan juda ko'p termalari esa yozib olinmagan. Usmon baxshi Ikkinchi jahon urushi boshlanganidan qattiq iztirobga tushadi, ikki o'g'lini jang maydoniga kuzatadi. 1941-yil avgust oyi oxirida og'ir xastalikdan vafot etadi.

Folklorshunos olimlar Malik Murodov, Muhammadnosir Saidov Ergash shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Haydar Boycha o'g'li, Husan Rajab o'g'li, Usmon Mamatqul o'g'li, Alim shoir, Razzoq baxshi, Yorlaqab baxshi, Abduaziz baxshi va boshqa yuzga yaqin dostonchi hamda ular tomonidan aytilgan dostonlar tili, aytilish uslubi, so'z boyligi, badiiy qimmati, bu dostonlarning umumo'zbek dostonchiligida tutgan o'rni haqida o'z fikrlarini bildirib o'tganlar. Hatto, Leningrad [hozirgi Sankt-Peterburg], Moskva sharqshunoslari, institut olimlari tomonidan ham ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu borada folklorshunos Tamara Borovkovaning xizmati juda katta bo'lib, u Farg'ona vodiysi xalq repertuari, doston tili, dialekt matnlari, etnografik o'zgarishlar haqida maqolalar e'lon qiladi. Yuqorida zikr etilgan olimlar tomonidan amalga oshirilgan xalq og'zaki ijodi materiallari natijasida Usmon baxshi Mamatqul o'g'li repertuaridan 1940-yilda yozib olingan "Bo'tako'z" dostoni va bu dostonning badiiy qimmati, tili, qofiyalanishi, timsollari, nazm va nasrdagi sifatlari o'ziga yarasha mavqega ega ekanligini kuzatamiz.

"Bo'takoz" dostoning kompozitsion tuzilishi umumo'zbek dostonlarida ma'lum bo'lgan nazm va nasriy matnlardan iborat. Asar mazmunida Go'ro'g'lining o'g'illari Avazxon, Hasanxon va turkman biylari o'rtasidagi mojaro, sevgi-muhabbat, mardlik va Vatanga bo'lgan sadoqat masalalari yotadi. Dostonning bosh qahramoni Avazxon turkman biyi Oqchishvoyning qizi Bo'tako'zni olib qochadi. Bu turkman biylariga yoqmaydi va Avazni o'ldirishni talab qilib Go'ro'g'liga arzga kelishadi. Qanchalik og'ir bo'lmasin Go'ro'g'li bu shartga ko'nadi. Bizningcha, qadrdon qo'shnichilik, do'st-u birodarlik hurmati

Go'ro'g'li turkman biylariga qarshi so'z ayta olmaydi. Sevimli farzandi Avazning o'limiga roziday bo'ladi. Ammo bu rozilik zamirida boshqa fikrlar ham tug'yon uradi.

Ishbilarmonlik, tadbirkorlik bilan ish yuritishi sabab Go'ro'g'li va Avaz g'alaba qozonadi. Zero, Go'ro'g'lining farzandlari Hasan va Avazlarda odillik bor edi.

Doston konflikti ham Avaz va Hasanni gunohsiz ko'rsatadi. Katta to'y ulog'iga taklif etilgan Go'ro'g'li uloqqa o'zi bormay Avaz, Hasan va soqchilarini yuboradi. Go'ro'lining ishidan ranjigan Oqchishvoy boshliq turkman biylari yigitlarni uloqqa qo'ymaydi. Bundan xabar topgan Hasanxon uloqni olib qochadi. Hasanxon ortidan borgan turkman yigitlari quruq qo'l bilan qaytadi. Uloq maydonidagi bu holni ko'rgan Oqchishvoyning qizi Bo'tako'z jahllanib:

Rustamcha bordir qaddi-qomating,
Er yigitsan, xotinch q yo'q uyating.
Biring qolmay, biring o'lgin qirilib,
Hasanxoncha bo'lmasa oriyating...

deya erkak libosini kiyib, Hasanning ortidan quvib borib uloqni tortib oladi. Bundan ko'rinadiki, Bo'tako'z - mardlik va jasoratga to'la qahramon ayol. U dushman bilan bellashuvda ham erkaklardan qolishmaydi. Biroq Avazxondagi husn-jamol qaynoq qalb Bo'tako'zni o'ziga rom etadi va u Avaz bilan qochishga jazm etadi.

Dostonda Avazxon, Hasanxon, Go'ro'g'li, Soqi kabi ijobiy timsollarga qarshi salbiy timsollar - Oqchishvoy va turkman biylari beriladi. Bu obrazlar kurashi ijobiy kuchlar g'alabasi bilan yakun topadi. Usmon baxshi dostonining boshqa dostonchi maktablarining dostonlaridan farqi Soqi, Chaqqonlarni ham Hasan va Avaz singari talqin etilishidir. Bu holat Ergash Jumanbulbul, Po'lkan shoir variantlarida kuzatilmaydi. Shuningdek, Farg'ona dostonchiligida boshqa dostonlardagi kabi mubolag'a san'ati qanchalik kuchli bo'lmasin, hayotga yaqinlik kuzatiladi. Darvoqe, dostonning nasriy va nazmiy qismida berilgan

jumlalarda musiqiylik yorqin namoyon bo'ldi. Ayniqsa, she'riy misralar kezi kelganda xalq qo'shiqlarini eslatadi.

Qayqi xalq dostonchilarida badiiylikni ko'rsatuvchi o'xshatish ham asosiy o'rin tutadi. Bu doston va dostonchi hamda tinglovchi o'rtasidagi bog'liqlikni oshiradi. Tinglovchida unga qiziqish uyg'otadi. Obrazlarning kuch, iroda va qudratini yanada oshiradi. Ko'pinch dostonlarda kuylab kelinadigan Razzoq baxshi, Usmon baxshi, Alim shoir, Mahmud Dug'umbayev va boshqa dostonchilar ijodi, dostonlariga nazar tashlasak, o'xshatish naqadar kuchli bo'lganini ko'ramiz. Bu asarlarda asosan yor go'zalligini oyga, qoshlarini pilikka, yuzlaridagi xolini ikki yulduzga mengzash; yor yulduzday, qoyadagi kiyikday, qarchig'ayday uchadi, burgut misol quchadi, selday oqib, toshadi, ajdahoday bo'kiradi, qo'tos kabi o'kiradi, go'zal qadam tashlaydi kabi misralar uyqashib keladi. Yoki, jo'jabirday jonim bor, muhrlangan joyim bor, toshday qotib do'lday otib boradi misralaridagi o'xshatishlar ham zo'r mahorat bilan ishlatilgan.

Iskandarda yo'q Go'ro'g'li davlati

Ko'karar bo'lsang azroilday haybati.

Bu misralarda Go'ro'g'lining mol-u dunyosi Iskandarda ham yo'qligi, uning haybati Azroil haybatiga o'xshatilgan.

Yoki:

O'yla bolam mening jon-u dilimsan,

Bulbul bo'lsang qo'nar toza gulimsan.

kabi misralarda bola jon-u dilga, bulbulga, toza gulga o'xshatiladi. Majoziy ma'noda kelgan otlar o'xshatish vazifasini bajaradi.

Usmon Mamatqul dostonlarida birgina o'xshatish emas, metonimiya, kinoya, mubolag'a kabi til badiiyati vositalari keng ko'lamda ishlatilgandir. Bas, shunday ekan, metonimiya, kinoya, mubolag'a xususida ham toxtalishga to'g'ri keladi. Metonimiya-ko'chim, insondagi ichki holatni tashqi ko'rinishda ifodalaydi. Demak, bu holat barcha dostonlarda bo'lishi lozim. Koppina

dostonchilar kabi Usmon shoir ham Uchqo‘rg‘on shevasining qipchoq lahjasida ijod qiladi. Shunga qaramay baxshi tinglovchilar e‘tiborini qozona olgan.

O‘ttizima j[y]urtda bo‘ldim tajdar,
G‘azbima dushman bo‘lmas barobar.
Baylanglar ul zindoni j[y]igit[l]ar,
Qaydan keldi pichoqli bu enag‘ar?!

Bu kabi misralarni kuzatish borasida baxshining j-lovchi qipchoq lahjasida doston aytishini ko‘ramiz. Biroq dostonchi ijodida sof o‘zbek adabiy tilida aytilgan doston nazmlari qiyoslab o‘rganishga asos bo‘ladi. Demak “Bo‘tako‘z” dostonida ham o‘rganishga loyiq bo‘lgan til va badiiyat namunalari mavjudki, buni hech kim rad eta olmaydi.

Ona yurt, Vatan, oila, farzandga bo‘lgan muhabbat qadimiy an‘anadir. “Bo‘tako‘z” dostonida ham tinch-totuv yashash, yaxshi qo‘shnichilik, sof sevgi, Vatanga muhabbat qarashlari tarannum etilgandir. Bu kabi qarashlar xalq diliga, tiliga juda yaqin bo‘lgan hamda adabiy til me‘yorlariga mos so‘zlar bilan yaratilgan. Umuman olganda olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan bu doston Farg‘ona vodiysi, xususan, Qayqi dostonchiligida muhim o‘rin egallaydi. Unda yaratilgan barcha badiiy obrazlar o‘zining mukammalligi, ibrat bo‘larli darajada tasvirlanganligi bilan qimmatlidir. Shuningdek, dostonda o‘zbek adabiy til me‘yorlari, badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan. Yana baxshi xalq fantaziyasi asosida orzu va umid yo‘lida katta ishlarga qo‘l urgan, botir – qahramon, tinglovchi – xalq uchun qadrdon timsollar yarata olganidir. Qo‘rg‘on, Nurota, Bulung‘ur dostonchilari dostonlari kabi yuksak mahorat bilan yaratilgan Qayqi dostonchilik maktabi dostonlari umuminsoniyat uchun bebaho xazinadir. Ularni o‘rganish, mukammal tadbiq etish esa biz – yoshlarning galdagi vazifamizdir.

Foydalanilga adabiyotlar ro'yxati:

1. Jabbor A. "Uchqo'rg'on tumani" ma'lumotnoma. Uchqo'rg'on, 1995.
2. Murodov M, Xolmirzayev O. Namangan xalq dostonchilari. /Namangan haqiqati, 1976-yil, 12-fevral.
3. Namangan xalq og'zaki badiiy ijodi namunalari. (To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar G'oziboyev T. Sobirov A.) Namangan: 1993.
4. Usmon Mamatqul o'g'li. Bo'tako'z. (Yozib oluvchi Ibrohimov S. Nashrga tayyorlovchi Ashurov T.) Toshkent: Fan, 1968.
5. Sobirov A. Namangan xalq og'zaki ijodi. Namangan: 1994.
6. Xolmirzayev O. Ko'lbuqon" dostonchilik maktabi. Namangan: 2015.
7. Xalilbekov A. Namangan adabiy gulshani. Namangan: 2007.

ID-020-30-A052

Gulzoda Omonova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi

BAXSHILI EL – YAXSHILI EL

Annotatsiya. Maqolada o'zbek xalq dostonchilik maktablari, ularning uzviy davomchisi bo'lgan folklor fidoyilari – baxshilar haqida, baxshi atamasining kelib chiqishi, turli olimlar tomonidan berilgan ta'riflari, O'zbekiston hududidagi baxshichilik san'ati, uning viloyatlar kesimida turli nomlanishi va doston kuylash mahoratining sirlari va yo'llari turfa xilligi haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu istiloh mazmun-mohiyati, bugungi kundagi ahamiyati yuzasidan qisqacha to'xtalinadi hamda izohlanadi.

Kalit so'z: Folklor, baxshi, syujet, doston, folklorshunos, baxshichiik maktablari.

Annotation. This article deals with the Uzbek schools of folk poetry, their followers - bakhshi, the origin of the term bakhshi, the definitions given by various scholars, the art of bakhshi in Uzbekistan, its different names in the regions and the secrets and ways of epic singing. The article briefly discusses and explains the meaning and significance of this term today.

Keywords: *Folklore, bakhshi, plot, epic, folklorist, bakhshi schools.*

Baxshining shirali ovozigga mos holda do'mbirasidan taralayotgan kuy har qanday insonni qalbini junbushga keltiradi, xayollarini uzoq o'tmishga boshlab ketadi. "Alpomish", "Kuntug'mish", "Orzigul", "Rustam", "Xoldorxon", "Yusuf va Zulayho"... O'zbek an'analari, madaniyati, urf-odati va marosimlarini go'zal dostonlar kuylab asrlar osha avlodlarga yetkazib kelayotgan baxshilarimiz tafakkurining naqadar boy ekanligi, baxshichilik san'ati ulkan mas'uliyatli kasb hisoblanishi barchaga ham birdek ma'lumemas.

Bilamizki, folklor eng qadimiy so'z san'atining boshlang'ich namunasi bo'lib, unda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning zamonlaridagi

turish-turmushi, dunyoqarashi va e'tiqodi, kurash va mag'lubiyatlari ifoda etilgan. Folklorning nafis va shu bilan bir qatorda eng kata hajmli namunasi bo'lmish dostonlar baxshilarning tinimsiz mehnati, takrorlanmas amaliyoti, o'tkir zehni, yoqimli ovozi, improvizatsiyaga ega qobiliyati, kuchli xotirasi natijasida bir-biridan go'zal, sara termalar va dostonlar butun salobati, voqealar rivojining xilma-xilligi bilan hanuz tinglovchilarni bahramand etib kelmoqda.

Doston tarix emas, ammo tarix dostondan sirtida bo'lmas. Doston tinglagan kishi "bu voqealar qachon o'tgan ekan", deb o'ylashi tabiiy. "O'tganni baxshi-shoir qanday aytgan?". Ayniqsa yozma dalilga tayanib qolgan bugunning odamiga biror-bir fikrni hujjatsiz ishontirish qiyin. Aslida har qanday hujjat – m yozuv – xotira. Xotiraning esa turi ko'p. Yozma xotira qabatida og'zakisi ham baqamti yuradi. [1.71-bet].

Baxshi — atamasi sanskrit tiliga oid bo'lib, "ustoz" degan ma'noni anglatadi. Shomoniylar diniga e'tiqod qiluvchi turklar tilida "to'y-tantalarni boshqaruvchi kishi" ma'nosida ishlatilgan. YE. Polivanovning ta'rificha baxshi so'zi asli xitoy tilidan olingan bo'lib, "pak-si" – "ustoz", "yozuvchi", "kotib" ma'nolarini anglatadi. Professor E.R.Tenishev "baxse" so'zi uyg'ur tilining sharqiy lahjasida "baxshi", "tabib", "shomon", shuningdek bu tilning dolan lahjasida "afsungar", "folbin", uyg'ur yodnomalarida esa "ustoz", "shogird" ma'nolarini ifodalaganini yozadi. [2.57-bet]. V.V.Bartoldning yozishicha Turkiston hukmdorlarining fors tilini bilmagan kotiblari ham baxshi deb atalgan. [3.45-bet]. Alisher Navoiy esa o'zining «Munshaot» asarida «Bir sabohdin tush vaqtig'acha va peshindin oqshomgacha ancha ish qilurlarkim, necha devon, necha navisanda baxshi va necha parvonachi qila olmagaylar», deb yozib qoldirganki, bu yerda baxshi kotib, mirzo ma'nolarida ham qo'llangan. [4.230-bet].

Baxshi bo'lish uchun, avvalo, yuksak xotira sohibi bo'lish, musiqa ilmidan bohabar bo'lish, xonandalik qobiliyatiga ega bo'lish, biror musiqa asbobini chala bilish, yuksak nutq madaniyatini egallash kabi qator shartlarning

uddasidan chiqish lozim bo'ladi. [5.9-bet]Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bir "go'zal" so'zining 37 ma'nodoshini sanab o'tgan Navoiy yashab ijod etgan O'zbekistondek "sinonim"larga boy zaminning Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida baxshi atamasi o'rnida "yuzboshi", "sozanda", Farg'onada "sinovchi", Tojikistonlik o'zbeklar orasida esa "soqi" atamalari qo'llaniladi.

Baxshi — ularga berilgan unvondir. Bu unvonga yetishmoq uchun ham anchagina yo'llarni bosib o'tish kerak. Avvalo, "Bola — boshidan ma'lum" degandek, ko'pgina baxshilar o'z tarjimayi hollarida baxshichilikka qiziqish bolalik chog'laridan boshlanganligi, bobolari yoki qishloq baxshilaridan terma va dostonlarni yod olganliklari, dutor, do'mbira, qo'buz kabi musiqa asboblarni chalishga ishtiyoqmand bo'lganliklarini ta'kidlab o'tgan. Yillar davomida shogird tushib, to'y-tantanalarda, sayllarda, uzoq qish kechalarida ustoz baxshilaridan ta'lim olgan.

Ustoz baxshi shogirdini baxshi deya xalqqa tanitish uchun biron sayl yoki to'y-marosimda shogirdi nomini ta'kidlab, "Kuntug'mish" dostonini kuylashni buyurgan. Shogird xatosiz, musiqa jo'rligida yanglishmay, mayin ovozda kuylab tomoshabinlarga manzur bo'lsa, unga oq fotixa berib, baxshi deya tanitgan. Doston kuylash jarayonida baxshining kayfiyati ham muhim ahamiyatga ega. Chunki o'ta a'lo yoinki o'ta yomon kayfiyatda kuylangan doston baxshi tomonidan o'zgarishga uchrab (ya'ni yangi obrazlar qo'shilishi natijasida) dostonning yangi variantini yaratishi mumkin. Hech bir doston o'zgarishga uchramay kuylanmaydi. Ya'ni har bir baxshi o'zidan yangi obraz va voqealarni qo'shib, dostonni boyitib boradi. Shunisi ajablanarliki, doston yakuniga yetmay turib, baxshilar o'z ijrosini tugatmaydi. Professor Hodi Zarifovning ta'kidlashicha, bulung'urlik Amin baxshi "Alpomish" dostonini uch oy davomida tinglovchilarni sira zeriktirmay kuylagan ekan.

Asrlaroshabaxshichilikmaktablariyuzagakeldi. HozirgikundaBulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, Nurota, JanubiyTojikiston, Xorazm hamda Qoraqalpoq dostonchilik maktablari mavjud. Ushbu baxshichilik maktablari asoschilari va baxshilari tomonidan ko'pgina sara terma va

dostonlar, xalqimizning urf-odat va marosimlarga yogʻrilgan madaniyati kuylangan va folklorshunoslar tomonidan yozib olingan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqandda uchta — Bulungʻur, Qoʻrgʻon hamda Narpay baxshichilik maktablari mavjud edi. Bu maktablarda asosan epik sanʼat rivojlangan boʻlib, ulardan davrining buyuk ijodkorlari – FozilYoʻldosh, Ergash Jumanbulbul oʻgʻli, Islom shoir Nazar oʻgʻli yetishib chiqqanlar. Bulungʻur maktabi vakillari asosan «Alpomish» kabi qahramonlik eposlarini kuylashgan boʻlsa, Qoʻrgʻon maktabida asosiy eʼtibor romantik dostonlarga qaratilgan. Bu maktab baxshilari ijro etgan dostonlarda arab va fors-tojik adabiyotlaridagi obrazlar, oʻzbek xalq kitoblaridagi syujetlar ham uchraydi. Bundan anglashiladiki, qoʻrgʻonlik baxshilar maktab va madrasa taʼlimidanxabardorligi va ijro etgan terma yoki dostonlari yozma adabiyot taʼsiriga uchragandir. Tabiiyki, dostonlarning mazmun-mohiyati taʼsirida doston kuylash usullari ham turlicha boʻlgan. Jumladan, bulungʻurlik baxshilar asarni oʻta anʼanaviy va arxaik bir tarzda kuylashgan boʻlsa, qoʻrgʻonlik ijodkorlar kuylash usullarida badiiy rang-baranglik va poetik jimjimadorlik yetakchi oʻrin tutgan.

Shoʻx, quvnoq, koʻtarinki ruhda kuylangan dostonlari bilan boshqa baxshichilik maktablaridan farqlanib turuvchi Shahrisabz dostonchilik maktabi kuylarining yoqimlilik bilan folklorshunoslar eʼtiboriga tushgan. Rajab shoirning shogirdi boʻlmish Abdulla Nurali oʻgʻli ijodi va repertuari bu maktabning oʻlmas merosi hisoblanadi. 10 dan ortiq dostonlarni oʻziga xos tarzda kuylagan boʻlsa-da, afsuski ular qoʻlyozmalarda saqlanib qolmagan.

Qamaylik dostonchilar orasida Abdukarim Juyruq, MullaHolnazar, Hidir shoir kabi mashhur kuychilar boʻlgan. Biroq ular ijro etgandostonlardannamunalar toʻliq yozib olinmaganligi sababli ularning mahoratlariga taʼrif bermoqqa ojizmiz. Mulla Xolnazar yozdirib qoldirgan“Nuralining yoshligi” dostonining bir oʻzi Qamaylik baxshilarga xos badiiy mahoratni koʻrsatishdan koʻra diniy, kitobiy dostonlarga xos xususiyatlarni aks ettiradi.Yana shu oʻrinda qoʻshimcha qilish mumkinki,

qissaxon bo'lgan Bozor Omonov va Sa'dulla Tohirovlardan yozib olinib, nashr etilgan "Nuralining yoshligi" dostonininghar ikki varianti Qamay maktabining so'nggi badixago'y baxshisi Xazratqul Xudoyberdiyevdan yozib olib chop etilgan "Og'a Yunusning olib qochilishi" dostonidan badiiylikda ustundir.

Sherobod dostonchilik maktabi epos an'alariga rioya qilishda boshqa dostonchilik maktablaridan farq qiladi. Bundan tashqari dostonlarni kuylashda ma'lum ma'noda kitobiylikka intilish kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining bir necha tumanlari, Tojikiston va Turkmanistonning janubiy hududlaridan yetishib chiqqan baxshilarni o'z bag'rida birlashtirgan Sherobod dostonchilik maktabi Qosimko'r, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Eshqobil baxshi, Ahmad baxshi, Qodir Rahim o'g'li kabi o'nlab baxshilarni yetishtirdi. "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Zayidqul", "Ollanazar olchinbek", "Sherali", "Oychinor", "Kelinoy" kabi dostonlar O'zbekistonning boshqa joylarida yashab ijod etgan baxshilar repertuarida uchramasligi bilan e'tiborni tortadi. Hozirgi kunda ushbu dostonchilik maktabi an'analari Xushboq Mardonaqulov, Shoberdi Boltayev, Boborahim Mamatmurodov, Qora va Chori Umirovlar, Qahhor Qodir o'g'li, Abdunazar Poyonov kabi bir qancha baxshilar tomonidan davom ettirilmoqda.

"Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarni 64 doston qilib kuylagan baxshilarni o'z bag'rida ulg'aytirgan Nurota baxshichilik maktabi ko'hna Navoiy ma'daniyatini o'zida mujassam etadi. Qurbon baxshi, Ashur baxshi, Isirgap baxshi, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Qurbon Navruzov, Tursun She-rov, Ma'mur Ermatov, Fayzi Najmiddinov kabi o'nlab ijodkorlar shu maktabga mansub bo'lib, Nurota, Navoiy, Tomdi, Konimex, Navbahor, G'ijduvon, Shofirkon tumanlari aholisiga xizmat qilganlar. Bu maktabning so'nggi talantli vakillari Saidmurod Panoh o'g'li va Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan "Alpomish", "Odilxon", "Kuntug'mish" ("Xolbeka"), "Go'ro'g'lining Qrimga borishi", "Avazxon", "Malikayi ayyor" ("Gulshanbog'") kabi dostonlar yozib olingan va nashr etilgan. Bu baxshilar repertuarida boshqa hududlarda

tarqalmagan "Sormonxon", "Ahmadxon", "Cho'pon qiz", "Maston kampir" kabi dostonlar ham bo'lgan. Ammo afsuski ular o'z vaqtida yozib olinmagan.

Xorazm dostonchilik maktabi haqida alohida to'xtalib o'tmoq lozim. Chunki bu maktab baxshilari tomonidan kuylangan dostonlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, O'zbekistonning boshqa hududlaridagi o'zbek xalqi orasida tarqalgan dostonlardan mazmuni, uslubi, kompozitsiyasi, syujetlarning turfa xilligi, obraz yaratish prinsiplari bilan farqlanadi. Xorazm dostonchilik maktabi repertuaridagi dostonlar og'zaki va yozma adabiyotning uzviy bog'liqligining yorqin namunasi. 3-5 kishidan iborat ansambllar tomonidan ijro etiluvchi dostonlar tinglovchilarni qiziqitirmay qolmaydi.

Baxshi dostonni dutor, tor yordamida kuylasa, ijro davomida g'ijjakchi va bulamonchi unga jo'r bo'ladi. Xorazm baxshilari repertuaridagi dostonlarda qahramonlarning ichki kechinmalarini nazm orqali, sarguzashtlarini nasr orqali bayon etish tartiblashgan. Shunisi hayratlanarliki, baxshilar tinglovchilar yig'ilganidan so'ng, dostonni shundaylikcha boshlab yubormaydi. Avval, "Peshrav", "Muxammasi ushshoq" kabi biron kuy chalib, so'ng didaktik xarakterdagi qo'shiq kuylanadi. Axamiyatli jihati shundaki, Xorazm dostonchilik maktabi baxshilari dostonlarni ichki bo'g'iz tovushda emas, ochiq ovozda kuylaydilar. Bola baxshi, Suvay baxshi, Jumanazar baxshi, Ahmad baxshi, Matnazar Jabbor o'g'li, Ollabergan baxshilar Xorazm baxshichilik maktabining yirik namoyondalaridir.

Yil sayin jannatmakon diyorumizda adabiyot, xalq ijodiyoti, folklorshunoslik shu bilan bir qatorda baxshichilikka ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa barcha ijod sohasi vakillarini yanada izlanishga, yanada ko'p va xo'b ijod qilishga undaydi. 2019-yilda yurtimizda o'tkazilgan "Xalqaro baxshichilik festivali" so'zimizning dalilidir. Festivalda yigirmata mamlakatdan tashrif buyurgan ijodkorlar orasida birinchilikni qo'lga kiritgan ikki moxir baxshilardan biri Abdunazar Poyonov O'zbekiston vakili ekanligi dillarda faxr tuyg'usini uyg'otadi. Har qanday ishda yoshga emas, tajriba, ilm va qobiliyatga ahamiyat qaratuvchi O'zbekistonimizda baxshilar orasida jonbozlik ko'rsatgan

eng yosh baxshi Surxondaryolik G'olibjon Oribovning mahorati tahsinga sazovordir.

Har zamonning o'z baxshisi bo'lgan. Qadimda faqatgina shoh saroyida bo'lib, hurkmdorning ko'nglini ovlash uchun doston kuylagan "baxshilar" ham, yoinki xalq orasida bo'lib xalq dardini tarannum etgan asl baxshilar ham bo'lgan. Bugungi kun baxshilari yurt o'g'lonlarini "Alpomish" kabi mardlikka, suluv qizlarni "Orzigul" kabi adolat yo'lida kurashuvchanlikka yetaklovchi chin ma'nodagi baxshilardir. Ularning hayot yo'llari va tinimsiz mehnatlari nafaqat baxshi bo'lish ishtiyoqidagi jajji qalblar, yosh o'quvchilar, folklorshunoslar balki har bir o'zbek farzandi uchun ibratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ш.Турдимов. Этнос ва эпос. Тошкент: "Ўзбекистон", 2012-йил.
2. Alisher Navoiy. Munshaot. Toshkent: Ma'naviyat, 2001-yil.
3. O.Madayev, T.Sobitova Xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: Sharq, 2010-yil.
4. S.Ro'zimboyev, H.Ro'zmetov Folklor atamalari qisqacha lug'ati. Urganch: 2007-yil.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti.www.ziyouz.comkutubxonasi.
6. SH.Turdimov Etnos va epos "O'zbekiston" nashriyoti Toshkent 2012-yil.
7. Бартольд, В. Тюрки. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии. Алматы. 1993.
8. И.Юлдашев Этимологический анализ слова бахши в фольклористике тюркских народов. В статье публикуются результаты доклада, представленного на конференции LCH 2019.

ID-020-30-A053

Gulzoda Soatova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

“TO'NYUQUQ” YODNOMASIDAGI TONUQUQ ISMINING O'QILISHI VA MA'NOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada VI-VIII asr voqealarini o'zida aks ettirgan Urhun-enasoy obidalaridan biri “To'nnyuquq bitiktoshi” va solnomaning bosh qahramoni Tonuquq haqidagi fikrlar aks etadi. Tonuquqning ismi olimlar tomonidan turlicha o'qilib, (Tu:i:yo'qo'q, To'n:yuquq, Toyn:uquq, To'n:yo'q:o'q, Ton:uquq) turlicha talqin qilingan (To'ng'ich javhar, birinchi maslahatchi, eng aqlli kabi ma'nolarni anglatgan). Bunga sabab qadimgi turkiy yozma yodgorliklardagi noaniq runalardan biri - olimlar orasida To'nyuquq deb o'qib kelinayotgan kishi ismidagi ʃ belgisi bilan belgilangan runadir. Ushbu belgi orqali bu antroponim To'nyuquq yodgorligida 12 marta qayd etilgan. Maqolada shu masalada V.Tomsen, B.B.Bartold, S.Klyashtorniy, O'.Bekjan, A.U.Elove, E.Umarov, N.Raxmonov, Q.Sodiqov kabi turkologlarning fikrlari keltiriladi. To'nyuquq ismining o'qilishi borasida o'z fikrlarimizni ham bildirdik. Tonuquq shaxsidagi yetuklik, donolik, vatanparvarlik kabi xislatlarning yoritilishi bilan maqola xulosalandi.

Kalit so'zlar: *To'nyuquq, Tonuquq, Yuan-chjen, to'ng'ich javhar, maslahatchi, qitan*

Annotation. This article reflects on the events of the VI-VIII centuries, one of the monuments of Urhun-Enasay "Tonnyukuk inscription" and the protagonist of the chronicle Tonuquq. The name of Tonuquq is read differently by scholars (Tu:i:yo'qo'q, To'n:yuquq, Toyn:uquq, To'n:yo'q:o'q, Ton:uquq) and was explained as (To'ng'ich javhar, the first adviser, the most clever) who had perfect knowledge of all the secrets of commander, also acted as a wise adviser to the three kings. This is due to the fact that one of the obscure runes in the ancient Turkic written monuments is a rune marked with the symbol ʃ in the name of the person who is read by scholars as Tonyukuk. This anthroponym is mentioned 12 times in the monument of Tonyukuk by this symbol. In this article Turkologists like V.Tomsen, B.B.Bartold, S.Klyashtorniy, O'.Bekjan, A.U.Elove, E.Umarov, N.Raxmonov, Q.Sodiqov also expressed their views on the reading of the name Tonyukuk as well as us. The article is concluded with a description of such qualities as maturity, wisdom, patriotism in the personality of the TONYUQUQ.

Keywords: *Tonyuquq, Tonuquq, Yuan-zhen, first ore, consultant, kitan.*

Qadimgi turkey yodgorliklarning ichida “To’nyuquq” bitiktoshi alohida o’rin tutadi. “To’nyuquq (Tonuquq)” – shaxs nomi. U ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqoninig maslahatchisi va sarkardasi bo’lgan. To’nyuquq bitigini o’zi tirikligida yozdirgan. 712-116-yillar orasida toshga o’yib yozilgan. Bitikda uning oti bilga Tonuquq deb qayd etilgan. Otiga qo’shilayotgan bilga so’zi uning unvoni bo’lib, “bilimdon, alloma” degan ma’noni bildiradi. U ulug’ donishmand, xoqon maslahatchisi bo’lgani uchun shunday unvonga erishgan. Bitikning yozilgan sanasi aniq emas. Ba’zi olimlar u 712-716-yillarda yozilgan deb taxmin qilsalar, ba’zilari 720-yilda, ayrimlari 725-726-yillarda yozilgan deb hisoblashadi. U.Sertkaya matnda kechgan voqealarni tahlil qilar ekan, bitik, taxminan, 732-734-yillar orasida yozilgan, degan xulosaga keldi. Uning ko’zqarashicha, Tonuquq bu kezlarda 85 yoshlarda bo’lgan [1. 102-103-betlar].

“To’nyuquq” bitiktoshi sarkarda Tonuquq haqida boradi. Butun sarkardalik sirlarini mukammal bilish bilan bir qatorda uch podshoning dono maslahatchisi lavozimini ham bajargan Tonuquqning ismi olimlar tomonidan turlicha o’qib, turlicha talqin qilingan. Bunga sabab qadimgi turkey yozma yodgorliklardagi noaniq runalardan biri - olimlar orasida **To’nyuquq** deb o’qib kelinayotgan kishi ismidagi 𐰇 belgisi bilan belgilangan runadir. Ushbu belgi orqali bu ism 𐰇𐰏𐰚𐰚𐰚 - “To’nyuquq” yodgorligida 12 marta qayd etilgan (To’n. 1, 5, 6, 15, 17, 34, 37, 47, 58, 59, 61) [2. 56-bet]. O’n birida ism ishlatilgan va o’n ikkinchi (To’n. 31) esa “Tardush shadi”, dono Tonuquqqa, menga shaklida ishlatilgan. Shuningdek, bu nom ikki marta “Kuli-Chor” yodgorligida va bir marta “Bilga xoqon” yodgorligida runik yozuvga ma’lum bo’lgan harflar bilan 𐰇𐰏𐰚𐰚𐰚 shaklida (8, 15, 29) ko’rsatilgan. Shu munosabat bilan S.YE.Malov 𐰇 runasini **n** tovushining yana bir ko’rinishi deb, barcha 𐰇 belgilarni tovushning maxsus ohangi sifatida belgilagan [5. 17-bet]. Olimlardan N. Orkun bu runani **i** va G. Aydarov [2. 20-bet] **ni** bo’lib o’qiladi deb o’qishga qaror qildi. H.Orkunning so’zlariga ko’ra, bu belgini V. Tomsen **i** deb o’qigani keltiriladi.

Ushbu belgi bilan yozilgan Tonuquq ismidan tashqari, O'rxun-Yenisey yodgorliklarida sakkiz so'z mavjud. Yenisey yodgorligida oltita so'z ishlatiladi, ulardan ikkitasi fe'l. Bu so'zlarni taqqoslab, ularning ma'nosini o'rganib, **yn** (kirilda **ЙН**) birikma holda o'qiladi degan xulosaga keldik deydi qozoq professori O.D.Bekjan. Shunda To'nyuquq so'zining birinchi bo'lagi **to'n** emas **to'yn** so'zi bo'lib chiqdi. S.Ye.Malov bu so'zning ma'nosini (духовное лицо) [2. 431-bet] deb ko'rsatgan. Akademik B.B.Bartold to'yin so'zini M. Koshg'ariy buddizmda uyg'urlarning diniy rahbari sifatida talqin qilganini aytadi [4. 69-bet] va bu so'z mo'g'ullarga no'm (diniy kitob) so'zi bilan birga uyg'urlardan o'tgani XIII asrda Juvayniy tomonidan aytilgan. Juvayni bu so'zni xitoycha so'z deb hisoblagan, deydi akademik V.V.Bartold.

To'nyuquq so'zining keyingi **uquq**, **yuquq** bo'lagi bugungi aqlli, o'qimishli, farosatli so'zlari bilan ma'nodosh bo'la oladi. "Bilga xoqon" yodgorligida To'nyuquq bo'lib yozilgan. Bunda ikkinchi qismi **yuquq** bo'ladi. Ikkinchi qismdagi yo'q/yuquq so'zi "buyuk, yuqori" degan ma'nolarni bildiradi. Shunda bu so'zning "**baland bo'yli, yuqori martabali, eng aqlli, dono maslahatchi**" degan ma'nolari kelib chiqadi. Ikkinchidan, Yo'llug'tegin matnini yozayotganda metateza hodisasi ro'y bergan. Toyn so'zidagi y tovushi n dan keyinga o'tgan. Ya'ni **n** bilan **y** tovushlari joy almashgan. Shunda To'nyuquq so'zi To'nyuquq ko'rinishini olgan va shunday o'qila boshlangan [2. 223-bet].

"Bilga xoqon" yodgorligidagi To'nyuquq so'ziga turk olimi Ali Ulvi Elove tomonidan shunday ta'rif berilgan, bu ikki qisimli so'z, uning birinchi qismi turk tilida "**birinchi, to'ng'ich**" degan ma'noni anglatadi. M. Koshgariyning asaridan "to'n og'ul - to'ng'ich o'g'il" va "to'n qiz - to'ng'ich qiz" misollarini keltiradi. Hozirgi oltoy tilida "tun pala - to'ng'ich bola" degan ma'nolarni anglatishini aytadi. Ismning ikkinchi **yuquq** qismi - fe'ldan yasalgan sifat degan fikrni aytadi. Demak, Elovening fikri bo'yicha To'nyuquq so'zining ma'nosi "birinchi maslahatchi, "to'ng'ich maslahatgo'y". S.G.Klyashtorniy: "Elovening tadqiqi bo'yicha To'nyuquq ismi faqat "To'nyuquq" yodgorligidagina yozilgan bo'lsa, dalili isbotsiz bo'lar edi. Biroq To'nyuquq

atamasi “Bilga xoqon” bilan “Kuli-chur” yodgorligida **ny** bo‘lib, alohida harflar bilan yozilgani Elovening tadqiqiga qarshilikni kamaytiradi”,- deydi.

Yuan-chjen atamasidagi **Yuan** so‘zi ham “**to‘ng‘ich, birinchi tug‘ilgan**” degan ma‘nolarni anglatga, **chjen** so‘zi “qimmat, asl zot, xazina” degan ma‘nolarni bildirib, Elovening fikriga qo‘shimcha dalil bo‘ladi. S.E.Malov To‘nyuquq so‘zning yuquq qismini “**qimmatbaho, asl**” deb tarjima qilgan. Demak, To‘nyuquq bilan Yuan-chjen ismlari bir ma‘noni “**To‘ng‘ich javhar**” ma‘nosini anglatishini ko‘rishimiz mumkin [3. 80-bet].

Ergash Umarov o‘zining “O‘rxun yozuvi” kitobida To‘nyuquq so‘zining o‘qilishi va ma‘nosi bo‘yicha quyidagicha fikr bildiradi. O‘rxun yodgorliklarida shoxsimon runa 𐰉 bilan yozilgan olti so‘z va ikki qo‘shimcha bor. Olimlar bu runani turlicha o‘qiydilar. Ayrimlar **n** [5. 17-bet], boshqalar **y**, yoki **ny** [3. 18-bet], **yn** shaklida tushunadilar. Shu sababli olti so‘z va ikki qo‘shimcha adabiyotlarda turlicha yozilib kelinmoqda. Bu runani to‘g‘ri o‘qish nafaqat O‘rxun alifbosini, balki so‘zlar ma‘nosini to‘g‘ri tushunishga ham yordam beradi. Shuni hisobga olib, bu runa qanday tovushni anglatishini aniqlashga harakat qilamiz. Buning birdan bir yo‘li shoxsimon 𐰉 runali so‘zlarni “Devonu lug‘otit turk”dagi shu so‘zlar bilan qiyoslashdir. **Tu:i:yo‘qo‘q** yodgorligi va devonda kichraytirish – so‘z qo‘shimchasi mavjud. Bu affiks-so‘z runa bilan 𐰉𐰺𐰽, 𐰉𐰺𐰽𐰾 (Tu 9 tarkibida), devonda esa arab yozuvida yozilgan. Mahmud Qoshg‘ariy bu affiksni quyidagicha yozadi: **qi:ya** kichraytirish qo‘shimchasi: **o‘g‘ilqi:ya-o‘g‘ilcham, qizqi:ya-qizcham** [4. 184-bet]. **Qi:ya** so‘z affiksi hozirgi o‘zbek tilida eshikni **qiya** (oz) ochmoq tarkibida saqlanib qolgan. Ammo uning **n** li shakli **qi:na** do‘ndiqqina ko‘proq ishlatiladi.

Arab yozuvidagi so‘z – qo‘shimcha runa bilan yozilgan affiksga qiyoslash shoxsimon runa 𐰉 **i:y** tovushini anglatishini ko‘rsatadi.

Yana bir misol. ikkala yodgorlikda kambag‘al ma‘nosidagi so‘z uchraydi. Urxunda bu so‘z shoxsimon runa bilan 𐰉𐰺𐰽𐰾, “Devon”da arab yozuvi bilan yozilgan [4. 257-bet]. M.Qoshg‘ariy bu so‘zni quyidagicha yozgan: **jig‘a:i:y** – kambag‘al. Lug‘atshunos bu so‘zni **i:y** diftong ishlatilganini ko‘rsatish uchun

yoy ostiga **i** ni ifodalovchi kasra belgisini qo'ygan. Bu misol ham run yozuvidagi shoxsimon **Კ** belgisi **i:y** tovushini anglatishini ko'rsatadi. Agar bu ma'lumotga asoslansak, yodgorlikdagi sarkarda ismi **ᲙᲗᲗᲗᲗ** (**Tu:i:yo'qo'q**) shaklida yoziladi. Bu ismni To'nyuquq shaklida yozish va o'qish mumkin emas.

Tu:i:yo'qo'q ismi turkiy tildagi **to'ymoq** fe'li bilan bog'liq. Bu fe'l qadimgi turkiy tilda **anglamoq, tushunmoq** ma'nolarini anglatadi. Undan yasalgan **tuyug'siz** so'zi shevalarda ongsiz, aqlsiz ma'nolarida ishlatiladi. Bu ma'lumotlar bizga sarkarda ismi ikki qism **Tu:i:yo'q** (aqli) + **o'q** ta'kidlash qo'shimchasi)dan iborat ekanligini ko'rsatadi. Afsus, shu vaqtgacha bu so'z To'nyuquq shaklida noto'g'ri yozilib, ma'nosi turlicha izohlab kelindi. Fransuz olimi L.Jiro bu ism **to'ni yuquq**, ya'ni kiyimi yo'qlik ma'nosini anglatadi, deb hisoblaydi. B.M.Nadelyayev **tuyuq-o'q-tuyoq o'q** so'zlaridan iborat, deb ko'rsatadi.

Agar shoxsimon runa **Კ** **i:y** fonemsini anglatsa, toshbitikdagi **ᲙᲗᲗ** so'zi **qui:y** (hozir qo'y), xitoy kalimasi - **ᲙᲗᲗᲗ** **qi:tai:y** shaklda talaffuz qilinganligi ma'lum bo'ladi.

Professor Nasimxon Rahmonov qahramonimiz ismini **To'n:yuquq** tarzida talqin qiladi. "Turk xoqonligi" risolasida To'nyuquq shaxsiga alohida to'xtalib: "To'nyuquq turk zadagonlarining Tabg'ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan o'g'illaridan biri edi. To'nyuquqning xitoycha nomi Yuanchjen ham xitoyparastlik sabab qo'yilgan edi. Yuanchjen "**To'nyuquq**" so'zining aynan tarjimasi bo'lib, "**To'ng'ich javhar**" degan ma'noni bildiradi" degan tarixiy voqealar keltirilgan.

"Bitiglar olamida" nomli kitobida esa Kultegin, Bilga xoqon hamda To'nyuquq bitiktoshlarini solishtirib, o'ziga xos jihatlarini aytib o'tadi. "Kultegin bitiktoshi"da qahramonlarning harakteristikasi Bilga xoqon tomonidan berilsa, To'nyuquqda uning dushmanlari Tabg'achlar, to'qqiz o'g'uzlar tomonidan beriladi. Chunonchi, o'g'uzlar tomonidan yuborilgan kuzatuvchi quyidagicha ma'lumotni keltiradi: "Turk xalqi yurgan emish. Xoqoni bahodir ekan, maslahatchisi alloma ekan" fikrlari shu asarda keltirilgan.

Turkolog olim Qosimjon Sodiqov “Ko‘k turk bitiklari: matn va uning tarixiy talqini” asarida To‘nyuquq ismining o‘qilishi, ma‘nosi va shaxsiga shunday munosabat bildiradi: “Bilga To‘nyuquq – ikkinchi turk xoqonligining barpo etilishi va saltanatning mustahkamlanishiga munosib ulushini qo‘shgan davlat arbobi, shu bilan birga tarixnavis, o‘z davri adabiyotining yirik namoyondalaridan edi. U uch xoqon – Qutlug‘ (Eltarish 682-692-yillar), Bo‘gu (Qapag‘an 692-716 yillar) hamda Bilga xoqon (716-734-yillar)ning maslahatchisi va sarkardasi o‘tgan. To‘nyuquq Bilga xoqonning qaynotasi ham edi.

Turkiy bitiklarda uning ismi **n** yoki **ny** bilan ikki xil yozilgan. TONUQUQ (To‘n.1) hamda To‘nyuquq (Xb.14). Avvalgi shaklidagi **n** talaffuzda **ny** shaklida bo‘lgan deyish mumkin. Xitoycha manbalarda ham To‘nyuquq haqida ma‘lumotlar uchraydi. Mazkur manbalarda uning oti Yuan-chjen. U To‘nyuquq ismining xitoycha tarjimasidir”.

Darhaqiqat, turkiy bitiklarda bu ism **n (TONUQUQ)** va **ny (TO‘NYUQUQ)** bilan ikki xil yozilgan. “To‘nyuquq” yodnomasi qahramoni To‘nyuquq emas, **TONUQUQ (Ton:uquq)** tarzida $\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow$ yozilgan, ammo bu ism “Bilga xoqon” va “Kuli-chur” bitiktoshida **(TO‘NYUQUQ)** $\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow$ tarzida yozilgani uchun TONUQUQ so‘zi ham aytilishida shunday shaklga kelib qolgan. Aslida “To‘nyuquq” yodnomasi emas, “TONUQUQ” yodnomasi bo‘lishi kerak. **(Ton:uquq)** $\downarrow\downarrow\downarrow\downarrow$ so‘zidagi **ɳ n** va ba‘zi hollarda **y** ga almashadi. Bu lahjalarda bo‘lgan farqlardir. Bu haqida Devonda shunday deyiladi: “So‘z o‘rtasida yoki oxirida kelgan **y** ni arg‘ular **n** ga almashtiradilar. Masalan, turklar **qoy** (qo‘y) desalar, ular **qon** deydilar. Turklar kambag‘alni **jig‘ay** desalar, ular **jig‘an** deydilar. Turklar **qayunan** desalar, ular **qanu** deydilar [4. 25-bet].

“To‘nyuquq” bitiktoshi TONUQUQ ismidagi **ɳ** runasining o‘qilishiga kelsak, bu runa **n** ga to‘g‘ri keladi, yuqorida ta‘kidlaganimizdek lahjalardagi o‘zgarishga uchrab **y** tarzida ham o‘qiladi. Aynan shu sabab bu so‘zning o‘qilishi olimlar tomonidan bahs-munozaraga sabab bo‘lgan. Yodnomada bu runa bilan yozilgan qitan, azqina, yandimiz, jig‘an, qon so‘zlari ham berilgan. Ammo bu

so'zlar ma'nosi o'zgarmagan holda qitay, azqiya, yaydimiz, jig'ay, qoy singari ko'rinishida ham uchraydi. So'zlarning o'qilishi va ma'nolariga e'tibor qaratamiz.

Qitan so'zi "Kultegin" yodnomasida to'rt marta, "To'nyuquq" yodnomasida yetti marta va "Bilga xoqon" yodnomasida ikki marta qo'llanilgan. "Bilga Tonuquq bo'yla bag'a tarqan bilan Eltarish xoqon topishib, janubda Tabg'achni, sharqda **Qitanni**, shimolda o'g'uzni ko'plab ol'dirdi. Bilimdoni, chabisi men o'zim edim. Cho'g'ay qo'zini, Qoraqumni egallab turar edik" deyiladi (To'n.6.7). Ba'zi olimlar bu so'zni **qitay** tarzida o'qiydi va xitoy degan ma'noni anglashadi. Matnda Xitoy ma'nosini anglatuvchi Tabg'ach so'zi turibdi. Bu yerda bir davlatning nomini ikki xil yo'sinda ko'rsatilishi mumkin emas. Qitay o'qilgan holda ham Xitoy davlatini tushunish to'g'ri emas.

Ulug' Chuvash olimi N.Ya.Bichurinning "Iakinf" asarida bu xalqning ismi **qidan** deb aytiladi. Keyinchalik **kidan** atamasi ham qo'llanila boshlaydi.

Kidanlarning kelib chiqishiga oid turli fikrlar bor. Syue Szyuychjen tomonidan 974-yil yaratilgan "Besh sulolaning eski tarixi" kitobida **kidanlar turkiylarning bir bo'g'ini deyilsa**, Ouyan Syu tomonidan 1061-yil yozilgan "Tan sulolasining yangi tarixi" asarida kidanlar mo'g'ullarga tegishli deyiladi. Demak, **kidanlar –mo'g'ullar**.

916-yilda shimoliy Xitoyda "Kidan xonligi" xitoy manbalarida "Buyuk Lyao", ya'ni "Temir xonlik" deb nomlangan kuchli davlatni tuzadilar va chjurchjenlar tomonidan tugatilgan. (906-1125).

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida shunday deyilgan. "Kidan, qitay-turkiy urug'lardan biri. Ularning ajdodlari qadimgi kidanlar bo'lgan. XI asrga kelib, ularning shimoliy Xitoydagi davlati tugatilgach, bir qismi O'rta Osiyoga ko'chib o'tgan. Manbalarda ularni qaraxitoy deb atashadi".

Yodgorlikda qo'llanilgan keyingi so'z **azqina**. Ba'zi olimlar azqiya deb o'qishadi. Bu so'z bugungi kunda ham **ozgina** ma'nosida qo'llaniladi". Ozigina turk xalqi yurgan emish, xoqoni alp ekan, kengashchisi dono ekan deyiladi (To'n.9.10) da.

Yana shu runa bilan 𐰉𐰺 so'zi yozilgan. Bugungi kunda **qo'y** ma'nosini anglatadi. Bu so'z qipchoq, qirg'iz tillarida qo'y bo'lib aytilsa, turkman, turk tillarida qon bo'lib aytiladi.

Yana bir misol. Ikkala yodgorlikda kambag'al ma'nosidagi so'z uchraydi. Urxunda bu so'z shoxsimon runa bilan 𐰉𐰺𐰠, "Devon" da arab yozuvi bilan yozilgan. M. Qoshg'ariy bu so'zni quyidagicha yozgan: **jig'a:y - kambag'al** [4. 257-bet].

"To'nyuquq" yodnomasidagi TONUQUQNING ismi qanday o'qilib, qanday ma'noni anglatishidan qat'iy nazar, u biz uchun haqiqiy vatanparvar shaxs timsolidir. TONUQUQ turk xalqi fojiasi, alam-qayg'ularini ko'rar ekan, otabobolari asos solgan Turk xoqonligini tiklash bilangina erkinlikka erishish mumkin deb o'ylaydi va yetti yuz sonli askar bilan ko'p sonli dushmanga qarshi kurashadi. Xalqni nihoyatda og'ir vaziyatdan olib chiqadi. TONUQUQ mard, dovyurak sarkarda va dono maslahatchi, kerak bo'lganda xalqni birlashtira oladigan jasoratli boshliq sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq o'tmishda yashab o'tgan ajdodlarimizning yurtparvarligi, ozodlik uchun mardonavor kurashi, haqiqatparastligi hamda xalq farovonligi uchun jonini berishi bugungi davrda ham ardoqlanadigan fazilatlardir. Ayniqsa, TONUQUQ obrazi sofdilligi, jasurligi, xalqi uchun jonini berishi, tashabbuskorligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sodiqov Q. O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. 2-jild. 1-kitob. "Fan" nashriyoti. – Toshkent. 2014.
2. Bekjan O'. Turki kul bizik jazba yeskertkishteri tilinin semiotika-senantikalig negizderi. – Almati. 2015.
3. Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent. 1982.
4. Qoshg'ariy M. Devoni lug'at-at- turk. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. – Toshkent. 1963.
5. Malov S.Y. Pamyatniki drevnityurkskoy pismennosti. – M., - L. 1951.
6. Raxmonov N. Bitiklar olamida. Fan. – Toshkent. 1990.
7. Raxmonov N. Toshga bitilgan kitoblar. O'zbekiston. – Toshkent. 1983.
8. Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. – Toshkent. 2008.
9. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent. 2000.
10. Raxmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2017.
11. Koshg'ariy M. Devonu lug'ati-t-turk. Q.Sodiqov tabdili. – Toshkent. 2017.

ID-020-30-A054

Husan Maqsudov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

NAVOIYNING NASRIY ASARLARIDA FANO VA BAQOGA MUNOSABAT

Annotatsiya. Mumtoz adabiyot tarixidan ma'lumki, tasavvuf g'oyalari badiiy adabiyotga kirib kelgach tasavvufdagi fikr-g'oyalar badiiy tafakkurda yanada rivoj topdi, irfoniy va falsafiy ruh kasb eta boshladi. Alisher Navoiy turkiy adabiyot tarixida badiiy ijodni tasavvufiy g'oyalar bilan hamohang tarzda ifodalab, ko'lamdor asarlar yozgan ijodkor sifatida qadrlanadi.

Ushbu maqolada ulug' shoir Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi fano va baqo haqidagi qarashlari aks etgan. Shuningdek, mazkur maqolada Navoiy o'zigacha bo'lgan ijodkorlar, so'fiy kishilar hayoti va ijodiga munosabati, ularning o'z ijodi hamda hayotiga ko'rsatgan ta'siri haqida so'z boradi. Ulug' shoirning biografik va falsafiy-tasavvufiy asarlari, xususan, "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr" asarlaridagi so'fiyona qarashlari, ularga o'z munosabatlarini xususida ham maqolada mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: *fano va baqo, tasavvuf, biografik asar, so'fiy, "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr".*

Annotation. Important from the history of classical literature, the ideas of mysticism, which entered mystical literature, found their way into artistic thought, and began to gain mystical and philosophical racism. In the history of Turkish literature, Alisher Navoi drew attention to the author of scientific works, equating artistic creation with mystical ideas. This article reflects the views of the great poet Alisher Navoi on the fanaticism of his prose works and his happy life.

The article also discusses Navoi's attitude to the life and work of unique artists, Sufis, and their impact on their work and life. The Sufi views of the great poet's biographical and philosophical works, in particular, "Khamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr", and his attitude to them are discussed in the article.

Keywords: *fana and baka, classical literature, mysticism, biographical, Sufi, "Khamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Hayrat ul-abror", "Lison ut-tayr".*

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning ijodini tasavvufdan ayro holda o'rganib bo'lmasligi bugungi xosu omga birdek ravshan. Xossatan, tasavvufning asosiy tushunchalaridan bo'lgan fano va baqo xususida fikr yuritilar ekan, avvalo, mazkur tushunchalarning Sharq xalqlari falsafiy-axloqiy, adabiy-estetik tafakkurida tutgan o'rnini belgilab olish muhimdir. Shu boisdan, fano va baqo haqidagi tasavvuf ta'limoti namoyandalari qarashlarini, qolaversa, Navoiy mutolaa qilgan, ilhomlangan va ijodiy ta'sirlangan manbalarni o'rganish hamda o'sha kitoblardan kelib chiqib Navoiyning fano va baqo borasidagi qarashlariga yondashmoq to'g'ri, desak xato bo'lmaydi.

Navoiy bir qator nasriy, ilmiy-tarixiy, biografik va epik asarlarida o'zi mutolaa qilgan kitoblarni sanab o'tadi. Ulug' mutafakkir shoir qayd etgan e'tiroflar, ayniqsa, uning ustози va maslakdoshi Abdurahmon Jomiy vafoti munosabati bilan yozilgan «Xamsat ul-mutahayyirin» va Sharqda o'tgan shayxlar va so'fiy zotlar haqida ma'lumot beruvchi «Nasoyim ul-muhabbat» singari asarlaridan o'rin olgan. Navoiy «Xamsat ul-mutahayyirin»da Abdurahmon Jomiy rahbarligi ostida «Lavoeh», «Sharhi ruboiyot», «Lavome'», «Nafohat ul-uns», «Ashi'a ul-lamaot», «Shavohid un-nubuvvat», Xoja Ubaydulloh Ahrorning «Risoi volidiya», Xoja Muhammad Porsoning «Qudsiya», Xoja Abdulloh Ansoriyning «Ilohiynoma»si kabi falsafiy-tasavvufiy asarlarini mutolaa qilganini aytib o'tadi [1. 72–73-betlar].

«Nasoyim ul-muhabbat»da esa jami 100 dan ortiq kitob nomlari zikr etilgan bo'lib, ular orasida Hujriviyning «Kashf ul-mahjub», Qushayriyning «Risoiyi Qushayriy», Sulamiyning «Tabaqot us-sufiya», Abdulloh Ansoriyning «Manozil us-soirin», Muhammad bin Munavvarning «Asror ut-tavhid», Abu Is'hoq Dehlaviyning «Asror ul-avliyo» asarlarini alohida sanab o'tish mumkin [2. 14–19-betlar].

Shu o'rinda bir masalaga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz. Navoiyning fano va baqoga qiziqishi shunchaki tasodif bo'lmagan. U hatto forsiy she'rlari uchun maxsus Foni taxallusini qo'llagan. Xo'sh, Navoiy mazkur so'fiyona tushunchalarning mohiyatini qachon va qanday qilib teran anglay olgan, his

qilgan? Nazarimizda, bu avvalo, muhit bilan bog'liq. Navoiy ta'lim-tarbiya olgan va kamol topgan muhitda komillikka erishish yo'lidagi muhim bosqichlardan bo'lgan fano va baqo tushunchalariga alohida e'tibor bilan qaralgan va mazkur tushunchalar ma'rifatning, axloqni tarbiyalashning asoslaridan biri sifatida ko'rilgan. Navoiyning biografik xaraktergan ega, shuningdek, falsafiy-axloqiy asarlardagi fikrlar buni to'la tasdiqlaydi. Biz shu o'rinda ushbu asarlardagi fano va baqoga doir qarashlarini Navoiy yashagan muhit bilan nechog'li bog'liqligini asoslash maqsadida ularni ko'zdan kechiramiz.

Navoiyning so'fiyona qarashlarining shakllanishida ustoz-hammaslamlari orasida Abdurahmon Jomiy va Sayyid Hasan Ardasherlarning o'рни alohida, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Buni zikr qilingan mutasavvif shoirlarga bag'ishlagan kitoblarda Navoiyning o'zi ham alohida ta'kidlaydi. Jomiy – ulug' olim, tasavvuf nazariyotchilaridan va bu ta'limot asoslarini she'ru dostonlarida kuylagan, targ'ib etgan shaxs. Navoiy piri Abdurahmon Jomiyning fazilatlarini ta'riflaganda «koshifi sirri Iloh» («ilohiyot sirlarini kashshofi»), «murshidi ahli tavhid» («vahdat tarafdorlarining rahnamosi»), «piri solikon» («tariqat ahlining piri»), «hodii rohi fano» («fano yo'lining rahnamosi») kabi sifatlarni keltiradi [1. 103-bet]. Ya'ni Jomiy oddiy so'fiy emas, u pir, rahnamo, odamlarni ma'rifat sari boshlovchi, ma'rifat chashmasidan bahramand bo'lib, shu chashma ko'zini ochgan orif. Shu ta'riflardan anglash mumkinki, «Hodii rohi fano» bo'lmish Jomiy Navoiyning so'fiyona hayoti va ijodida alohida o'rin tutadi.

Sayyid Hasan Ardasher-chi? Sayyid Hasan bu darajaga ko'tarilgan emas, u oddiy darvesh. Lekin xulqu xislati, karam-saxovati bilan u ham buyuk, uning kamtarinligi, xokisorligi Jomiyga monand. Shu bois Navoiy ularni baravar ulug'laydi. Chunonchi, marsiyada o'qiymiz:

Bahri urfon duri – Sayyid Hasan, ulki aflok,

Yetti durji aro bir ko'rmadi andoq duri pok [3.115-bet].

Yoki «Nasoyim ul-muhabbat»da yozadi: «Bu haqir faqr tarixida va fano jodasida alardek tamom kishi oz ko'rubmen»[4. 106]. Navoiy Sayyid

Hasanga nisbatan ham «murshidi ahror» («hur – ozodlar piri»), «koshifi asrori Iloh» («Iloh sirlarining kashf etuvchisi») sifatlarini qoʻllagan [3. 113-bet]. Navoiyni faqru fano sulukiga ilk targʻib qilganlardan biri ham Sayyid Hasan Ardasher boʻlgan ekan. Navoiy bu haqda yozadi: «Va bu faqirni faqr tariqiga dalolat va irshod qilurlar erdi va nazm ayturgʻa targʻib koʻrguzurlar erdi»[3. 114-bet].

Navoiy tarjimai holiga aloqador ushbu hayotiy fakt oʻta ahamiyatlidir. Bundan shu maʼlum boʻladiki, ulugʻ shoir yoshligidayoq oʻziga rahnamo deb bilgan shaxslar tomonidan faqru fano tariqiga (yoʻliga), umuman, soʻfiyona hayotga daʼvat etilgan. Demak, fano martabasi Navoiy uchun faqat anʼanaviy (kitobiy) gʻoya emas, balki hayotiy maslak boʻlgan («Nasoyim ul-muhabbat»ni varaqlash oʻsha davrning maʼnaviy muhitida ushbu maslak sezilarli oʻrin tutganligidan dalolat beradi).

Muhim falsafiy, ijtimoiy-maʼrifiy, axloqiy-taʼlimiy va adabiy-estetik qarashlariga oid fikrlari, dolzarb gʻoyalar aks etgan «Hayrat ul-abror» dostoni ham Navoiy ijodiy maslagi aks etgan asarlardan biridir. Dostonda borliq, inson, dunyo, tiriklik, taqdir va tadbir, jamiyat va shaxs, zamon hamda axloq kabi koʻplab masalalar falsafiy, ijtimoiy-siyosiy aspektlarda talqin etilgan. Bularning bari shoirning Alloh, olam va odam haqidagi qarashlarini oʻzida umumlashtiradi.

Dostonning 3–6-boblari munojotlarni oʻz ichiga olgan boʻlib, ushbu bobda Navoiyning diniy-soʻfiyona qarashlari oʻz ifodasini topgan. Dunyoning paydo boʻlishi, ilohiy qudrat, fano va baqo, inson, mohiyat va hodisa kabi koʻplab masalalar haqidagi masalalar xususidagi Navoiyning mulohaza-qarashlari munojotlarda oʻzining ochiq ifodasini topgan. Chunonchi, Allohning azaliy va abadiyligi, mutlaq baqoligi, uning zotiga ibtido va intiho begona ekanligini quyidagicha ifodalaydi:

Ne boʻlib avvalda bidoyat sanga,

Ne kelib oxirda nihoya sanga.

Avval oʻzung, oxiru mobayn oʻzung,

Borchag'a xoliq, borchag'a ayn o'zung [5. 25-bet].

Dostonning kirish boblarini tashkil etgan hamd va na'tlarda borliqni tasavvufona tushunishning mukammal tavsifi badiiy ifoda etilgan. Me'roj kechasi ta'rifiga bag'ishlangan beshinchi na'tda so'fiy uchun asosiy sifat hisoblangan faqru fano xususida gap boradi. Ya'ni so'fiy maqsadga erishish uchun o'zligidan kechishi lozim bo'lganidek, hazrati Rasululloh ham Allohning diydoriga musharraf bo'lish uchun fanoning asosiy qoidasini amalga oshirgan edilar:

*Olti jihat qaydidin ixroj o'lub,
To'rt guhar tarki anga toj o'lub...
O'zligidin naqshu namudor yo'q,
Naqshu namudoridin osor yo'q.
Cho'n o'zini aylab o'zidin xalos,
Pardai izzatda qilib o'zni xos.
Anda yetib gum bo'lubon o'trusi,
Har necha ko'z solsa, baqo ko'zgusi.
Chun bo'lub ul ko'zguda surat namo,
Ko'zgidin tashqari qolg'on fano* [5. 38-bet].

Dostonning «Uchinchi hayrat»i o'z mazmuni va olg'a surilgan g'oyalari bilan avvalgi ikki hayratdan ajralib turadi. Mazkur hayratda ko'ngulning «badan mulki shahristonig'a nuzul (qo'nim topishi) va ul kishvar ahlining ham... qodiri mutlaq yodi bila erkanin bilib... vujudi kul bo'lib, fano eliga bilkul sovurilmoq bilan ikkinchi fano maqomin hosil etib, andin so'ng haqdin baqoyi komiliy etib, xojaning ul mulkda xilofat taxtig'a qaror tutqoni» haqida so'z yuritiladi.

Navoiyning aynan fano va baqo masalasidagi qarashlari o'zining qaysi tasavvuf tariqatiga bo'lgan munosabat-moyilligini sezish ham mumkin. Mazkur fikrlar Bahouddin Naqshband haqidagi fikrlarning kirish bobida keltirilganligi va shoirning bu tariqatga munosabati hamda daxldorligida ham ko'rish mumkin. Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy hayoti va adabiyoti rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan naqshbandiylikning Navoiy ijodidagi o'rni juda ham muhim.

Jumladan, shir o'z qit'alaridan birida ushbu tariqatning xilvat dar anjuman, safar dar vatan, nazar dar qadam, hush dar dam tushunchalari mohiyatini tushuntirsa, «Xamsa» dostonlarida naqshbandiylikka uyg'un fikrlar tez-tez uchraydi [5. 232].

Demak, Navoiy mazkur tariqatning bir vakili sifatida uning talablarini asarlari mazmuniga singdirgan Navoiy bu tariqatga xos bo'lgan masalalarga «Hayrat ul-abror»ning mazkur bobida aytilgidek, maxsus ta'rif beradi. Jumladan:

*Turfa bukim naqshga ko'z solmayin,
Jonida juz naqshi baqo qolmayin* [5. 235].

Baqo – Haq yo'lidagi solikning holu maqomi tasvirlangan bobning Xoja Ahror Vali bilan bog'liq misralarda Naqshband xalafiga oid ma'lumotlar badiiy ifodalanadi, o'sha davrda bu tariqatga elning – shohu gadoning munosabati, mazkur tariqatning bardavomligi oydinlashib boradi. Navoiy o'z fikrlarini «*Himmatidin bizni ham etsun Xudoy / Faqr yo'lida g'ani, imong'a boy*», deb tugatarkan, shu yo'lga ma'nan va ruhan moyilligini izhor qiladi.

Darhaqiqat, «Hayrat ul-abror»da boshqa tariqat g'oyalari naqshbandiylik singari yuksak ehtirosu oshkoralik bilan vasf etilmaydi. Jumladan, Alisher Navoiy tariqat piri Xoja Bahouddin Naqshbandni bag'ishlovning dastlabki 15 baytida vasf etar ekan, «naqsh» va shu asosdan hosil bo'lgan so'zni har baytda 2 martadan (5-baytda 3 marta) qo'llab, o'zining yuksak san'atkorligini namoyon etadi:

*Xojaki, **naqqoshi** sipehri baland,
Bo'lg'ali har safhasig'a **naqshband**.
Ayladi avroq **munaqqash** base,
Naqsh raqam ayladi dilkash base.
Lek aning **naqshi** kibi dilnavoz,
Chekmadi to xomasidur **naqshsoz**.
Sobit aning ko'ngli aro **naqshi jud**,
Mahv o'lub ul safhada **naqshi vujud**.*

*Naqshig'a teng tutmay o'zin naqshi
Chin, Olam o'lub ilgida **naqshi nigin**.
Bo'yla nigin **naqshiga** farmonbari,
Muncha ajab **naqshi** ila devu pari.
Sa'y ila bu gunbadi bisyor **naqsh**,
Har nechakim aylabon izhor **naqsh**.
Naqshining ollida namudor uza,
Naqsh bo'lub safhayi devor uza.
Muncha ajab **naqsh** bila arjumand,
Kimsa emas g'ayri shahi **naqsh** band.
Jong'a chekib ranju ano **naqshini**,
Sizmoq uchun anda **fano naqshini**.
Joni chu ul **naqsh makoni** bo'lub,
Naqshidin o'zga bori **foniy** bo'lub.
Turfa bukim **naqshga** ko'z solmayin,
Jonida juz **naqshi baqo** qolmayin.
Ko'ngli chekib maskan aro **naqshi sayr**,
Sayrda yo'q ko'ngli aro **naqshi g'ayr**.
Sayr anga bu toqi **munaqqash** uza,
Naqshi kafi lavhai zarkash uza.
Chun izining **naqshiga** surtib jabin,
Ravshan etib ko'z falaki **naqshbin** [5. 234-bet].*

Navoiy Xoja Bahouddin yuksak osmon naqqoshi bo'lish uchun har sahifaga naqsh band etti, deb fikr mavzusi ulug' orif Bahouddin Naqshbandga qaratilganini o'quvchiga ma'lum qiladi, uning buyuk tariqatga asos solganini baland rutbali naqqoshga qiyoslab badiiylashtira boradi. Bu naqqosh juda ko'p naqsh bilan bezatilgan varaqlarni hosil qilgani, ularni jozibali naqshlar bilan bag'oyat bezagani-yu, ammo chinakam naqqosh qalami ham unig naqshi kabi dilnavoz – ko'ngilni oluvchi, yoqimli naqshni chiza olmagan keyingi satrlarda bayon etiladi.

Madhiyaning to'rtinchi baytida ulug' shoir o'zining orzusidagi fano maqomiga erishgan orif shaxsni Xoja Bahouddin Naqshband siymosida ko'rganini badiiy ifodalaydi. Baytda tasvirlanishicha, Xojaning ko'ngli ichra naqshi jud – saxiylik naqshi sobit bo'lgani bois ul safhadan, ya'ni ko'ngildan mavjudlikning surati tamomila mahv bo'lgan. Faqrlikni ixtiyor etib, luqmai halolga tayangan, molu johga ehtiyoj sezmaydigan orif ko'ngli ana shunday fano maqomiga aylanadi. Uning oldida, madhiyaning 5–9- baytlarida badiiy tasvirlangani kabi, mavjudlikning turli jozibali ko'rinishlari hech qanday qiymat kasb etmaydi.

Navoiy umrining so'nggi yillarida turkiy tilda “Lison ut-tayr” dostonini yozadi. Mazkur asar falsafiy-tasavvufiy mavzuda yaratilgan bo'lib, ulug' fors-tojik adibi Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga javoban yozilgan. «Mantiq ut-tayr» ham, «Lison ut-tayr» ham mazmun-mohiyatiga ko'ra tasavvufiy asarlardir. Ularning bosh g'oyasi tasavvuf yo'liga kirgan kishining, ya'ni solikning haqiqatga yetish yo'llarini obrazli tasvirlab berish, bu yo'lda duch kelinadigan ruhiy-ma'naviy qiyinchiliklardan ularni ogoh etish va ularga bu qiyinchiliklarni yengib o'tish vositalarini ko'rsatib berishdan iboratdir. Bunda qushlar soliklarning majoziy obrazlari, ularga bu qiyinchiliklarni yengib o'tish vositalarini ko'rsatib berishdan iboratdir. Bunda qushlar soliklarning majoziy obrazlari, ularga xos xarakter-xususiyatlar esa insonlarga xos nuqson va kamchiliklardir. Ularning tabiati yo'lning boshida, asosan, nuqsonli bo'ladi. Tariqat yo'lini o'tash davomida esa ular birin-ketin bu nuqsonlardan qutula boradilar va shu yo'l bilan asl maqsadga yaqinlashadilar. Ushbu nuqsonlar qatorida nafs izmida bo'lish, mol-dunyoga, yengil-yelpi va jozibali hayotga muhabbat, bir so'z bilan aytgandi, o'tkinchi narsalarga havas kabilarni sanab o'tish mumkin.

Ma'lumki, tasavvuf ta'limotida solik asl maqsadga, ya'ni Hakka yetib borishi ko'zda tutiladi. Haqqa yetib borish esa rahbar-rahnamo va yoki piri murshid orqali bo'ladi. Binobarin, «Lison ut-tayr»da Semurg' Haq, Hudhud esa pir-murshidning simbolik obrazlaridir [6. 155-bet]. Shu boisdan ham asarda

tasavvufda shakllangan to'g'ri yo'l haqidagi qarashlarning barchasi mana shu markaziy obrazlar hisoblanagan Semurg' va Hudhud orqali ifoda etiladi.

Navoiy «Lison ut-tayr»da tariqatning **Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Hayrat, Tavhid, Faqru fano** singari yetti vodiysi ta'rifini keltiradi. Yettinchi vodiya bo'lmish faqru fano vodiysida o'zlikdan voz kechib, Simurg' bilan birlashish, abadiylikka qaytish mohiyati mujassam. Navoiy bunga shunday ta'rif beradi:

*Mundin o'tsa o'trug'a kelmas yano,
Yo'l aro juz vodiya faqru fano.
Yo'q bu vodiya ichra juz xomushluq,
Gungu kar bo'lmog'lig'u behushluq..
Har nekim qilsang gumon topg'on vujud,
Budi yo'q, bu nav' erur bori namud.
G'ayri haqkim, qodiri barhaqdur ul,
Borcha foniy, boqiyi mutlaqdur ul [7. 279-bet].*

Ushbu vodiya sharhida Navoiy bir emas, to'rt hikoyat keltiradi. Ular orasida "Parvonalar va sham" hikoyati alohida ahamiyatga ega. Hikoyatga ko'ra, bir kecha parvonalar jam bo'lib, shamga yetishmoqni maqsad qilishadi. Qanotlarini o'tda yoqishga hozirlab, o'z hollarini izhor qilmoqchi bo'lganlarida parvonalardan biri qanotlarini qoqib, shamda yona boshlabdi va sham haqidagi so'zlarni boshqa parvonalariga ayon qilibdi. Parvona har qancha ravshan so'zlamasin, eshituvchilar uni anglay olmabdilar. Shunda boshqa parvonalar ham bu holni anglamoq uchun urinib ko'ribdilar va o'z qanotlarini kuydiribdilar. So'nggi parvona qo'rqmasdan o'zini shu'laga urib, pok bo'libdi va o'zi ham shu'laga aylanibdi. U o'z maqsadi ichra nobud bo'libdi va fanoda ayni muddaoga erishibdi. Hikoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, kuymay turib, sham bilan birlikka erishib bo'lmaydi. Solik fano bo'lmay turib, abadiylikka, Haq visoliga erisholmaydi. Shu ma'noda inson ham o'zidagi mana shu zarrani kashf etmog'i, buning uchun esa juda uzun va mashaqqatli yo'lni bosib o'tmog'i kerak.

Bu yuqorida keltirilganidek, yetti vodiidir. So'nggi vodiya faqru fano vodiysi, ya'ni yo'qlikka aylanib, Allohga qo'shilmoqdir.

Bundan tashqari, ulug' shoir dostonida fano va baqoni tushuntirish uchun dengiz va uning to'lqinlari motiviga murojaat qiladi. Olamdagi yangilanishlar va yo'q bo'lib ketishlar dengizning mavjlariga o'xshaydi. Olamdagi mavjudlik o'z mohiyatiga ko'ra to'lqinning umri va ko'rinishi kabi qisqa va rang-barang. To'lqin – olam, ya'ni fano timsoli, dengiz – Haq taolo, ya'ni baqoning timsoli. Olamning borlig'i – aslida mavhum va baqosiz bo'lib, Haqning o'zidan o'zga barcha mavjudot foniidir. Shu sababdan, boqiylikka yetishmoq uchun foniya mutlaq bo'lmoq kerak. «Lison ut-tayr» dostoni hamda forsiy asarlariga Navoiy o'ziga aynan «Foniya» taxallusini tanlagani ham ushbu tushuncha shoirning asosiy maslagiga uyg'un ekanligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. МАТ. 20 томли. Т.15. – Тошкент: Фан, 1999.
2. Рамазонов Н. «Насойим ул-муҳаббат» ва унинг манбалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2001. – №1.
3. Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. МАТ. 20 томли. Т.15. – Тошкент: Фан, 1999.
4. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 томли. Т.17. -Тошкент: Фан, 1999.
5. Алишер Навоий. МАТ. 20 жилдлик, 7-жилд. Хамса: Ҳайрат ул-аброр. Т: «Фан», 1991.
6. Рамазонов Н. Навоий ижодида фақр талқини ва фақир образи. Монграфия. – Тошкент: Фан, 2015.
7. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. МАТ. 20 томли. Т.12. –Тошкент: Фан, 1999.

ID-020-30-A055

Jo'shqin Imomov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

NAVOIY IJODINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning so'zga nisbatan qanchalik mas'uliyat bilan yondashgani xususida so'z yuritiladi. She'rning martabasi baland ekanini shoir alohida ta'kidlab o'tgani aytiladi. Shuningdek, maqolada Navoiy va ijodining bugungi kunda o'rganilishi va o'qitilishi haqida ham fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Tadqiqot, pir, tariqat, adabiy ta'sir, adabiy meros.*

Annotation. The article discusses Alisher Navoi's responsible approach to the word. It is said that the poet emphasized the high status of the poem. The article also discusses Navoi and the study and teaching of Navoi studies today.

Keywords: *Research, religion, sect, literary influence, literary inheritance.*

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an'analari zaminida maydonga keldi va o'z navbatida keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali ta'sir ko'rsata oldi. Ma'lumki, Navoiy nafaqat o'zbek tilida, balki forsiy tilda ham salmoqli meros qoldirgan. Uning forsiy merosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylandi hamda mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi. Shoir asarlari bugungi kunda qay darajada e'tirof etilayotgan bo'lsa, o'z davrida ham shu qadar mashhur bo'lgan. Alisher Navoiy "Xamsat ul-mutahayyirin" da yozishicha "Tuhfat ul-afkor" sulton Husayn Boyqaro tomonidan ijobiy baholangan: "Podshoh chun o'qib tahsin qildilar". Shoirning o'zi ta'kidlaganidek "saltanat tariqatining nafyi voqe" bo'lgan[1. 273-bet.].

"Tuhfat ul-afkor"ning birinchi bayti shoir zamondoshlari tarafidan namunali shohbayt sifatida e'tirof qilingan. Atoullloh Husayniy "Badoyi us-s-

sanoyi” asarida *matbu’* she’r xususida to’xtalib shunday yozadi: “Matbu’ deb andoq she’rg’a ayturlarkim, ul sog’lom tab’larg’a maqbul vazng’a, tuzuk qofiyag’a asoslangan bo’lur, alfozi yoqimlig’u iste’molda mashhur bo’lur, aning ma’nosi maqbul bo’lur, kishilarning ko’nglig’a tekkan bo’lmag’ay; sanoyi’din nimaiki anda ishlatilgan bo’lsa, yetuk tarzda bo’lg’ay va aning tufaylidin anglamig’ayu husn-i adosig’a qusur yetgan bo’lmag’ay”. Ma’lum bo’lmoqdaki, shoir qasidasi nafaqat o’tkir ijtimoiy muammolarni (“saltanat tariqatining nafyi voqe bo’lgan”) dadil ko’tarishi bilan, balki badiiy ifodasi bilan ham zamondoshlarining e’tirofiga sazovor bo’lgan[2. 64-bet].

Alisher Navoiy faqat o’zbek emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo’lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosning soni va hajmigagina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko’ra ham tengsiz adibdir. Navoiyning kichik zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur buni juda muxtasar tarzda ifodalab bergan: “Alisherbek naziri yo’q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar, hech kim oncha ko’p va xo’b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi “Xamsa” javobida, yana biri “Mantiq ut-tayr” vaznida “Lison ut-tayr” otliq. To’rt g’azaliyot devoni tartib qilibtur: “G’aroyib us-sig’ar”, “Navodir ush-shabob”, “Badoyi ul-vasat”, “Favoyid ul-kibar” otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana “Mezon ul-avzon” otliq aruz bitibtur... Forsiy nazmda “Foniy” taxallus qilibtur. Yana musiqiyda yaxshi nimalar bog’labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari bordur”[3. 225-bet].

Alisher Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga alohida urg’u qaratadi. O’zbek tilidagi ifoda imkoniyatlarining boyligini namoyish qiladi. Har bir so’zdagi ma’no nozikliklarini juda ishonchli tarzda, mantiqiy dalillar bilan ko’rsatib beradi. U arab, fors, hindiy tillari qatorida turkiy tilining ham eng qadimiy tillardan biri ekanligini alohida ta’kidlaydi. Fikrlarini qiyoslash usulidan foydalangan holda bayon etadi. Buning uchun u fors-tojik tilini jalb etadi. Biroq biror o’rinda ham u xolislikdan chekinmaydi. Adib turkiy tildagi yuzta fe’lni keltirib, ularning ma’nosini anglatadigan so’zlarning fors tilida mavjud emasligini ko’rsatadi. Yoki

soʻz maʼnolari orasidagi tafovutlarga alohida urgʻu beradi. Adabiyotshunosligimizda adabiy aloqa va taʼsir xususida soʻz ketganda koʻproq mushtarak nuqtalarga urgʻu qaratilib, muayyan badiiy asarni namuna sifatida taqdim etish ustunlik qiladi. Vaholanki, har ikki oʻxshash hodisa chogʻishtirilganda faqat yuzadagi umumiy holatlar bilan kifoyalanmay, mohiyatni koʻrsatuvchi xususiy jihatlar ham eʼtiborga olinishi shart. Gap badiiy asardek individual ijod mahsuli haqida ketganda yuqoridagi holatlar inobatga olinishi lozim.

Maʼlumki, Sharq adabiyoti tarixining koʻp asrlik taraqqiyoti davomida adabiy anʼana muhim oʻrin egallaydi. Shoirlar salafari ijodiy merosiga murojaat qilar ekanlar avvalo, oʻz estetik qarashlariga mos, koʻngillariga yaqin, dunyoqarashlariga nisbatan uygʻun kelgan asarlarni maqbul koʻrganlar. Yana bir tomoni, oʻrta asrlar estetikasi meʼyoriy xarakterda boʻlib, mavzular koʻlami hamda janrlar tabiati avvaldan belgilangan qoidalar asosida voqe boʻlgan va bu holat oʻsha davr kishilarining mental dunyoqarashi bilan izohlanadi. Biroq bu Sharq adabiyoti namunalari orginallikdan xoli, adabiy anʼanalar doirasida qolib ketgan degan mulohazaga sabab boʻlmasligi kerak. Chunki, har bir shoir koʻhna mavzuga murojaat qilar ekan uni maʼlum darajada boʻlsa ham zamonasi bilan bogʻlashga harakat qiladi. Bundan tashqari, shoir mavzuni estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urunadi hamda muayyan bir gʻoyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy oʻzi va salafari – Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz, Iroqiy va boshqalar yaratgan mustaqil badiiy tafakkur tarzini *“mazoz tariqi”* deb nomladi va unda Haqsrori *“majoz suvratinda”* aks etishini taʼkidlagan. Bu borliqni oʻziga xos idrok etish tarzi Naqshbandiyaning: *“Dil ba yoru dast ba kor”* qoidasiga muvofiq boʻlib unda ibrat, ilm, irfon va amal bir nuqtada birlashar hamda yangi dunyoga koʻz ochardi. Tavhid taʼlimoti va eʼtiqodini idrok etishning eng yuqori bosqichi boʻlgan bu dunyoqarashtizimi *“Xamsa”* va *“Lison ut-tayr”* asarlarida, shoir lirikasida badiiy inʼikosini topgan. Navoiy oʻz ijodi bilan oʻzbek adabiyotining soʻnggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va Xurosonning butun maʼnaviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta taʼsir koʻrsatdi. Uning asarlari,

she'riyati qayta-qayta ko'chirilib xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o'tadi, madrasalarda keng o'rganildi.

Navoiyning turkiycha "Xamsa" sining yaratilishi XV asrda Xuroson eli uchun favqulotda shodumonlik va saodat sifatida qabul qilindi. Davrning ikki qutbi – ma'naviyat piri Jomiy va buyuk sulton Husayn Boyqaroning hayrati va yuksak e'tirofi ushbu haqiqatga dalildir. Alisher Navoiy G'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, Sharqda "*nizomi millati va din*" (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulug'lanadi[4. 28-bet].

Istiqlol davrida ulug' shoirimiz shaxsiga, merosiga e'tirofning nechog'li baland ekaniga barchamiz guvohmiz. Ayniqsa, mustaqillik yillarida navoiyshunoslikda erishilgan yutuqlar, bu sohaning istiqloq davrida yangi bosqichga ko'tarilgani ulug' shoir ijodining har bir muxlisi uchun qadrli, albatta. Ulug' bobokalonimiz shaxsi, ijodiga ko'rsatilayotgan tengsiz hurmat, e'tirof hammamizning ko'nglimizni faxr-iftixor tuyg'ulari bilan to'ldiradi. Shu bilan birga, hozirgi paytda hazrat Alisher Navoiy ijodiyotini tadqiq, talqin va targ'ib qilishda olimlar, tadqiqotchilar oldida qanday muhim dolzarb turibdi degan masala ham ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Ijodiyoti bamisli ummondek cheksiz bu muhtaram zotning shaxsini, har bir asarini, ijtimoiy-siyosiy faoliyatini o'rganish, hozircha nazardan chetda qolib kelayotgan jihatlarga e'tibor qaratish navoiyshunoslar oldida turgan g'oyat muhim vazifalardandir. Bugungi davr, mustaqillik sharofati bilan erishilgan ilmiy, ijodiy erkinlik navoiyshunoslik oldiga ham yangi talablarni, vazifalarni qo'yimoqda. Ana shu vazifalardan kelib chiqsak, navoiyshunos kadrlar tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Yosh tadqiqotchilar mumtoz adabiyot asarlari qo'lyozmalarini bemalol o'qiy olishi kerak. Bu ishlarni jonlantirish uchun hozir yaxshi harakatlar qilinyapti. Chunonchi, navoiyshunoslik va mumtoz adabiyotimizning turli mavzulari bo'yicha oliy o'quv yurtlarida maxsus kurslar o'qitilyapti, ularning amaliy, nazariy masalalari yuzasidan saboqlar berilyapti.

Alisher Navoiy – ulug' alloma. Uning dunyoqarashi asosini faqat so'fiyona g'oyalar emas, balki dunyoviylik ham tashkil etadi. U – buyuk tarbiyachi, murabbiy. Uning g'oyalari inson va jamiyat tarbiyasiga qaratilgan. U donishmand

faylasuf hamdir. Soʻz navoiyshunoslik haqida ketadimi yoki mumtoz adabiyotning boshqa jabhalari xususidami, bundan qatʼi nazar, masalaning mohiyati matnni anglash, matnni idrok etish, matn talqini va tahlili masalalariga borib taqalaveradi. Navoiyshunoslik erishgan yutuqlarni eʼtirof etgan holda, taʼkidlash kerakki, bu borada hali yechimini kutayotgan ilmiy muammolar ham oz emas. Jumladan, ulugʻ shoir ijodining choʻqqisi boʻlgan “Xamsa”ning yangicha talqinlari yaratilishi zarur. Bizningcha, “Xamsa”ning kaliti bu – “Hayrat ul-abror”. Keyingi toʻrt doston mohiyatini tadqiq etish uchun “Hayrat ul-abror” toʻlaqonli ilmiy inkishof etilishi, boshqa dostonlar tadqiqida ham undan foydalanilishi zarur. Faqat bugina emas. Maʼlumki, bizda kalom ilmi haddi aʼlosida rivojlangan. Bu boradagi moturidiya maktabi qarashlari badiiy adabiyotda, jumladan, hazrat Navoiy ijodida ham oʻziga xos tarzda aks etgan. Fiqh ilmi yuksak darajada taraqqiy topgan. Fiqhiy masalalar badiiy talqin etilgan mumtoz asarlar ham talaygina. Binobarin, Alisher Navoiy ijodida kalom va fiqh talqini masalasi bir qancha tadqiqotlarga mavzu boʻla oladi.

Bugun biz Navoiy asarlarining yigirma jildlik nashriga egamiz. Bu nashrning yutuqlariyu kamchiliklari haqida yetarli darajada yozildi. Ularga qoʻshilgan holda, qayd etish joizki, ulugʻ mutafakkir asarlarining ellik, ehtimolki oltmish jildlik nashrlariga ehtiyoj bor. Bu nashrlar mukammal ilmiy izohlar, sharhlar bilan taʼminlangan boʻlishi zarur. Ularda Alisher Navoiy asarlarining bir-biridan farqli, zarur boʻlsa, hatto bir-birini inkor etadigan turlicha talqinlari berilsin. Uning zamonaviy oʻzbek tilidagi tabdili ilova qilinsin. Vaholanki, bunday tajriba bizda boʻlgan. Akademik Gʻafur Gʻulomning tabdili bilan nashr etilgan Navoiy asarlari buning isboti. Bu nashrlar kamida uch xil – shaxs ismlari, geografik nomlar va etnik atamalar koʻrsatkichlari bilan taʼminlanishi lozim. Ana shunda bir (ehtimol bir necha) jildda, muayyan asar talqiniga oid barcha yutuqlar jamlanadi. Uni mutolaa qilgan oʻquvchida bularni takrorlamagan yana oʻzgacha qarashlar ham tugʻilishi mumkin boʻladi. Bu esa, shubhasiz, navoiyshunoslikning rivojiga xizmat qiladi. Navoiy ijodini oʻrganish, targʻib-tashviq etish, eng avvalo koʻngil va muhabbat, isteʼdod va mushohada malakasi. Hayotdan uzilgan, voqealikka

nihoyatda keng nigoh bilan qarolmagan kishi Navoiy asarlarining qadr-qimmatini juda arzonlashtirib yuboradi. Navoiyni o'qiganda, uning har bir kalimasi, obrazi, har bir misrasida hammaga ham nasib bo'lmaydigan anglash hayajoni, nafosat zavqi ifodalanganini, albatta hisobga olmoq lozim. Toki she'r tili – tafakkur tili, go'zal ma'naviyat tili ekanligi bilinsin. Ma'no, mantiq, mushohada madaniyatini tinimsiz ravishda Navoiydan o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Atoulloh Husayniy. *Badoyi us-s-sanoyi*". T., 1981.
2. Mirzoyev A. "Foniy va Hofiz". // Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. T., 1968.
3. Sirojiddinov Sh. *Alisher Navoiy: manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. – T.: Akademnashr, 2011.
4. Is'hoqov Yo. "Xamsa" poetikasiga doir. // O'zbek tili va adabiyoti. 1985. 2-son.

ID-020-30-A056

Maftuna Ahmadjonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

“DEVONU LUG‘ATIT-TURK” ASARINING OZARBAYJONDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya. Ozarbayjonda Mahmud Qoshg‘ariy hayoti va uning “Devonu lug‘atit turk” asari XX asrning 20-yillaridan o‘rganila boshlangan.

“Devonu lug‘atit turk” asari 30-yillarda S.X.Xo‘jaev tomonidan, 2006 yilda R.Askar tomonidan ozarbayjon tiliga tarjima qilingan. Maqolada shu masalalar yoritilgan.

Asardagi dialektologiya, frazeologiyaga oid dalillar hamda adabiy manbalar ozarbayjon tili va adabiyotiga qiyoslangan holda o‘rganilgan. “Devonu lug‘atit turk” asari Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Folklor instituti Ilmiy kengashi qarori bilan nashr etilgan.

Kalit so‘zlar: *“Devonu lug‘atit – turk”, tadqiqot, maqola, Ozarbayjon qoshg‘ariyshunosligi,*

Annotation. The life of Mahmud Kashgari and his work “Devonu lug‘atit turk” have been studied in Azerbaijan since the 1920s.

Devonu lug‘atit turk was translated into Azerbaijani by S.Kh. Khojaev in the 1930s and by R.Askar in 2006.

The article addresses the following issues. The dialectology, phraseological evidence and literary sources of the work are studied in comparison with the Azerbaijani language and literature. “Devonu lug‘atit turk” was published by the decision of the Scientific Council of the Folklore Institute of the Azerbaijan National Academy of Sciences.

Key words: *“Devonu dictionary - Turkish”, research, article, Azerbaijan Kashgar studies.*

Bugungi kunda Mahmud Qoshg'ariy hayoti va "Devonu lug'atit turk"ning xorijlik olimlar tomonidan o'rganilishi, "Devonu lug'atit turk"ning turli tarjimalari qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlarga katta ehtiyoj bor. Shu ma'noda "Devonu lug'atit turk" bo'yicha Ozarbayjonda amalga oshirilgan ishlarni o'rganish ham muhim ahamiyatga ega,

"Devon"ning Ozarbayjonda o'rganilishi jiddiy ishlar amalga oshirilmadi, deb yozadi R.Askar[3. 2-bet]. Uningcha buning dastlabki sababi, "Devon"ning ozarbayjon filologiyasiga kech tortilganidir."Devon"ning ozarbayjon tilidagi nashri turklardan taxminan 60 yil, o'zbeklardan 40 yil, uyg'urlardan 20 yil, qozoqlardan 10 yil keyin chop etilishidir. Xolbuki, "Devon"ning ozarbayjon tilida nashr qilinmagan ilk tarjimasi o'tgan asrning 30-yillarida amalga oshirilgan edi"[3. 2-bet].

Shunga qaramasdan, "Devon"ning Ozarbayjonda o'rganilishi bo'yicha talay tadqiqotlar amalga oshirildi. 1924-yilda taniqli ozarbayjon adabiyotshunosi Hanafi Zeynalli "Devon" va Mahmud Qoshg'ariy haqida o'z mulohazalarini bildirgan edi[2. 10-bet]. 1926 yil Bokuda o'tkazilgan 1-Butunittifoq turkologiya qurultoyida professor B.Cho'ponzoda "Devon"dagi materiallar asosida turkiy tillarning yaqin qarindoshligi haqida ma'ruza qilgan edi.

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarini ozarbayjon tiliga tarjima qilish bo'yicha XX asrning 30-yillari o'rtalarida asli o'zbek millatiga mansub X. S. Xo'jaev rahbarligida hay'at tuziladi. Tarjima 1935-yilda boshlanib, 1937-yilda tugatilgan. Shu yili S. E. Malov va A. N. Kononovlar tomonidan tahrir qilingan degan xabar qayd etilgan [7. 1-bet]. Ushbu tarjima qo'lyozmasi hozirda Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutida saqlanmoqda[9. 3-bet].

60-yillarda mazkur tarjimani takomillashtirish ustida A. Demirchizoda, A. Jafar va J. Efendievlar ish olib borishadi. Tarjima yakunlanib nashrga topshirilgan [7. 1-bet].

Keyingi ma'lumotlarga ko'ra, tarjimani X. S. Xo'jayevning o'zi amalga oshirgan va tarjima matnini mashhur sharqshunos I. Krachkovskiy hamda taniqli turkolog S. Malovlarga tahrir ettirmoqchi bo'lgan. Bu haqda X. S. Xo'jaev Qabarda – Bolqor viloyati qo'mitasiga – Kumikovga 1937 yili 1 iyulda shunday deb yozgan (xat tarixiy hujjat bo'lganligi uchun asl holiday keltiramiz):

“Письмо Ваше от 4/III37 г. получил и с большим удовлетворением прочел его. Извиняясь за поздний ответ, сообщаю для Вашего сведения следующее:

Единственный экземпляр труда Махмуда Кашгарского найден в Стамбуле и там размножен.

1. Я приступил к переводу и переработке этого труда с 1-го сентября 1935 года и закончил его в апреле месяце с.г.

2. В настоящее время я занят подготовкой к печати этого труда и к 1-му июля с.г.надеюс препроводить редакторам в Ленинград академику Крачковскому и профессору Малову.

3. В. АзФАНе имеется только один экземпляр этого труда и поэтому не могу послать такового. Для ознакомления же Вас с характером и содержанием этого труда посылаю Вам свою статью по этому вопросу.

4. Проездом в Ленинград (25 июня) я с удовольствием могу сделать остановку в Нальчике и сделать подробное сообщение, если Вас будет желание и интерес поподробнее ознакомиться с содержанием этой книги в связи с отношением этой книги к кумыкскому и карачаево-балкарскому языкам. Заранее прошу известить меня об этом.

Заканчивая свое письмо, выражаю свою готовность быть всячески полезным Вам в этом деле.

Ходжаев Х.С.»

“Men sizning to'rtinchi / III 37 sonli xatingizni oldim va uni mamnuniyat bilan o'qidim. Kechikkan javob uchun uzr so'rab, men sizning ma'lumotingiz uchun quyidagilarni xabardor qilaman: Qoshg'arlik Mahmudning yagona nusxasi Istanbulda topilgan va u yerda targ'ib qilingan.

1. Men ushbu asarni tarjima qilish va qayta ishlashni 1935 yil 1 sentyabrda boshladim va shu yilning aprel oyida yakunladim.

2. Hozir men ushbu asarni chop etishga tayyorgarlik ko'rmogdaman va shu yilning 1 iyuliga qadar, Nadyus Leningraddagi akademik Krachkovskiy va professor Malovdagi muharrirlarga yo'llash uchun tayyorgarlik ko'rmogdaman..

3. Hozir AzFANeda bu asarning bittagina nusxasi bor, shuning uchun uni yubora olmayman. Sizni ushbu ishning mazmuni bilan tanishtirish uchun sizga ushbu masala bo'yicha maqolamni yuboraman.

4. Leningradga ketayotganimda (25 iyun), men Nalchikda to'xtab, bu kitobning Kumuk va Karachay-Bolgariya tillari bilan o'zaro munosabati bilan batafsilroq tanishish istagi va qiziqishi bo'lsa, batafsil xabar yuboraman. Iltimos, menga oldindan xabar bering.

Maktubimni yakunlayman va bu borada sizga yordam berishga tayyorman.

Xo'jayev.X.S

E'tiborli jihati shundaki, hozirgacha X. S. Xo'jayev tarjimasi, tarjima qo'lyozmasining taqdiri bilan bog'liq turli fikrlar bildirilgan. Ozarbayjonlik olim A.Quliyev yozadi: "Bir ma'lumotga ko'ra, 1939 yilda "Devon" to'liq tarjima qilingan va shu yili S. Malov hamda A. Kononov tomonidan tahrir qilingan. Hatto nashrga ham berilgan.Lekin 60-yillarda tarjima ustida yangidan takomillashtirish ishlari [A. Temirchizoda, A. Ja'far, J. Afandiev] olib borilgan [1. 4-bet].

O'shandan beri "Devon"ning tarjimasi har zamonda bir nufuzli "komissiyalar" tomonidan tekshirilgan, "takomillashtirishlar" asnosida tarjimonlar ro'yxati xiyla familiyalar ilova qilina-qilina uzayib borgan... X. Saidning nomi ro'yxatda hamon saqlanib qolganiga hayronsan kishi..."[8. 11-b].

“Qatag‘on qilingan turkologiya” kitobining mualliflaricha esa X. S. Xo‘jaev tarjimasi Ozarbayjon NKVDsi tomonidan yo‘qotilgan va “Devon” ozarbayjon tiliga boshqatdan tarjima qilingan: uning tarjimonlari ham, tahrirchilari ham o‘zgargan.

“Qashqar Mahmudining lug‘ati tarjimasi to‘g‘risida gapirish hali hamon davom etmoqda. Xo‘jayevning barcha ishlari Ozarbayjonning NKVD-da yo‘q qilingan. Lug‘at tergov paytida "aksil-inqilobiy" deb e‘lon qilindi, ammo 1939-yilda Azfan tarjimasini qaytadan boshlashga qaror qildi. Aynan o‘sha paytda A.N. Kononov eslatib o‘tadigan komissiya tuzildi. Akrem Jafar F.D. Ashninga 1933-yil 25-dekabrda yozgan maktubida guvohlik berganidek, jamoani Boku tarixidagi eng qadimgi sharqshunos olim, professor P.K. Juzey boshqargan; Tarjimonlar orasida Said Nizomiy, Ismixanov, A. Demirchi-zade, A. Aliaskerzade, Jalol Afandiev va M.R. Eskerli tahrirda ishtirok etishdi. Bu Xo‘jaev emas, balki ushbu tarjima A.N. Kononov tomonidan S.E. Malov bilan birga tahrirlangan. 1941-yilda yangi tarjima tugallandi, ammo Akrem Jafar yozganidek, "Ushbu kitobni bosib chiqarish nomaqbul deb topildi". 1946-1947-yillarda tarjima yana nashrga tayyorlanmoqda, lekin hattoki u nashr etilmadi. Va nihoyat, 1958-yilda, xuddi shu maktubda aytilganidek, "Devon" ning tarjimasini nashr etish masalasi yana ko‘tarildi va zamonaviy ozarbayjon adabiy tilining normalari, uning yangi imlo, terminologiyasi va boshqalarni hisobga olgan holda yangi nashrga topshirildi. Demirchi-zade, Akrem Jafar, J. Efendiev. Yangi nashr Devon qo‘lyozmasining nusxasi asosida nashr etilgan. Yangi versiya tayyorlandi, ammo lug‘atning ozarbayjoncha tarjimasi juda omadsiz keldi: Akrem Jafar yozganidek, "Nega u nashr etilmadi, men bu haqda butun roman yozishim kerak"[5.30-bet]. Albatta, bu masalalarni oydinlashtirish alohida tadqiqotni talab etadi.

“Devonu lu‘gatit-turk” asarining 60-yillardan keyingi davrda o‘rganilishi.

Ramiz Askar “Devon”ni ozarbayjon tiliga qayta tarjima qilishni 1986-yilda boshlab, 2005-yil 11-sentyabrda tugatgan va 2006-yilda Bokuda to‘rt jild

holida (1-jild 512 bet, 2-jild 400 bet, 3-jild 400 bet, 4-jild 752 bet) 1000 nusxada chop ettirdi. 1-3-jildlarda “Devon”ning matni, 4-jildda esa asarning indeksi berilgan[4. 3-9 bet].

Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Folklor instituti Ilmiy kengashi qarori bilan nashr etilgan.

Ilmiy muharrir Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi, Turk tili qurumining a'zosi, filologiya fanlari doktori, professor Tevfik Xo'jaev taqrizchi, Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasining muxbir a'zosi, filologiya fanlari doktori, professor Nizomiy Gafarov, maslahatchilar professr Huseyin Ismoilov, professor Muhammadali Qipchoq, professor Azizxon Tangriberdi. “Ozan” nashriyoti. 5-6 betlarda Turkiya respublikasining 9-Prezidenti Sulaymon Demirelning “SUNUŞ” nomli maqolasi, 7-betda professor Tevfik Xo'jaevning “Redaktordan”, 8-52-betlarda “Mahmud Qoshg'ariy va uning “Devonu lug'atit-turk” asari (ozarbayjoncha nashrga so'zboshi)” nomli Ramiz Askarning maqolasi joy olgan. 78-betda Qoshg'ariyning xaritasi nusxasi, 79-betda xaritaning lotin alifbosidagi nusxasi. 80-betda xaritada keltirilgan 107 ta joy nomining jadvali, 81-betda 1941 yilda Anqarada chop etilgan faksimelesi, 82-betda 1990 yildagi yozma nusxaning faksimelesi, 83-betda yozma nusxaning faksimelesining 99-beti nusxasi joy olgan.

2 jild 5-6-betda Turkiya respublikasining 9-Prezidenti Sulaymon Demirelning “SUNUŞ” nomli maqolasi, 7-8-betlarda Ramiz Askarning “II jildga so'zboshi”, 32-343-betlarda “Devon matni, 344-396-betlarda “Devonu lug'atit-turk”ning tilining ba'zi xususiyatlari. Qisqa grammatik ocherk” maqolasi keltirilgan.

3 jild 5-6-betda Turkiya respublikasining 9-Prezidenti Sulaymon Demirelning “SUNUŞ” nomli maqolasi, 7-8- betlarda Ramiz Askarning “III jildga so'zboshi” 10-385-betlarda “Devon matni, 387-392-betlarda bibliografiya keltirilgan.

Ramiz Askarning qayd etishicha, ozarbayjoncha tarjimada Besim Atalay, S. Mutallibov, forsha, uyg'urcha, xitoycha tarjimalar, asarning qo'lyozmasi va

bosma nusxasidagi soʻzlar qiyoslab chiqilgan, imlo, soʻz maʼnosi va tarjimalardagi farqlar izohlangan.

1-jildda muqaddima, har bir jildda soʻz boshi, izohlar berilgan.2-jildning oxirida “Devon”ning qisqacha grammatikasi, 3-jildda esa asarning manbasi haqida maʼlumot keltirilgan.

Tarjima Xoʻjaev tahriridan chiqqan.

2006-yilda “Devon”ning rus tilidagi uchinchi toʻla tarjimasini Ramiz Askar amalga oshirgan [1. 2-bet]. 4-jild holdagi ushbu tarjima Kamol Abdulloh tahriridan chiqqan.

Mahmud Qoshgʻariy hayoti va ijodiy faoliyatini oʻrganish borasida Ozarbayjonda ham anchagina ishlar amalga oshirildi. P. K. Juze 1926-1928-yillarda eʼlon qilgan katta hajmli ikkita maqolasida lugʻatshunos tarjimai holiga aniqlik kiritishga intildi. “Devon”ning fandagi tutgan oʻrniga yuksak baho berdi: “Mahmudning Devonida oʻsha vaqtda qoraxoniylar davlati tarkibiga kirgan shimoli-sharqiy qabilalar deyarli hammasi toʻplangan... Dadil aytish mumkinki, yaqindagina (XIX asr oxirlarida) Rossiyada va Sharqda oʻrganilgan turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasining asosiy qonunlari XI asrdayoq Mahmud tomonidan aniqlangan va oʻrganilgan edi. Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chuqurki, hatto, bunday asar XIX asrda yozilganda ham, unga shon-shuhrat keltirardi. Mahmud Qoshgʻariyning “Devon”i singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas.Uning asari goʻyo “Turkiy qomus”dir” [1. 5-bet]. Keyinchalik Ozarbayjonda “Devon”dagi frazeologik birliklar, oʻtgan zamon shaklining ifodalanishi, Mahmud Qoshgʻariy qiyosiy metodining ahamiyati va boshqa mavzudagi tadqiqotlar yaratildi, dissertatsiyalar himoya qilindi.

Ayniqsa Ramiz Askarning “Devon”i ozarbayjon va rus tiliga qilgan tarjimalari hamda asar boʻyicha amalga oshirgan tadqiqotlari mutaxassislar tomonidan yuqori baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asker Ramız. Divanü Lügat-it-Türk İstatistikleri // 2. Uluslararası Türkiyat Araştırmaları Bilgi Şöleni Bildirileri. Kaşgarlı Mahmud ve Dönemi. 28-30 Mayıs 2008, – Ankara: 2009.
2. Hənəfi Zeynalli. Seçilmiş əsərləri. Bakı. Yazıçı. 1983.
3. J.Xudoyberdiyev “Ozarbayjon koshg’ariyshunosligi va «Devonu lug’atit turk»ning tarjimalari tarixi haqida” maqolasi
4. Kaşğari Mahmud. Divanü lüğat-it-türk. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan Ramiz Əskər. – Bakı: Ozan, 2006, I cild, s. 512; II cild, s. 400; III cild, s. 400; IV cild (indeks)
5. Ашнин Ф.Д., Алпатов В.М., Насилов Д.М. Репрессированная тюркология. – Москва: Восточная литература, 2002.
6. Жузе П.К. Thesaurus Linguarum Turcicum // Известия Восточного факультета Азербайджанского Государственного университета. т. I, - Баку: 1926
7. Кононов А.Н. Изучение «Дивану лугат ит-турк» Махмуд Кашгарского в СССР // Советская тюркология, – Баку: 1973, № 1, с.
8. Қулиева. Иккихалқфарзанди // Гулистон, 1988, № 11,
9. Тагирзаде А. Халид Саид Ходжаев // СТ, 1988, № 3, с.

ID-020-30-A057

Maftuna Saparova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi

AHLI QABUL VA AHLI RAD ZIKRIDA

Annotatsiya. Maqolada Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatlar, shu mavzuga oid Alisher Navoiy qalamiga mansub bōlgan asarlar, ularning vazn tizimi va syujetlari o'rganilgan. Timsollarga yuklatilgan botiniy ma' nolarni ochishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: *Ritmik variatsiya, xafif, ramal, syujetlar, shoh timsoli, Muqbil timsoli, Mudbir timsoli, basmala bobi.*

Annotation. In the article, the stories about Muqbil and Mudbir are studied on the example of works by Alisher Navoi, their weight system and plots. Attempts have been made to reveal the inner meanings imposed on the emblems.

Key words: *Rhythmic variation, khafif, ramal, plots, symbols of king, Muqbil symbol, Mudbir symbol, basmala chapter.*

Barchamizga ma'lumki, sharq adabiyotida yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik, hidoyat va razolat mavzularida ko'plab asarlar yozilgan. Bu bo'yicha qator o'gitlar berilgan, pandnomalar bitilgan. Hidoyat nurlari xalqqa chin va to'la yetib borishi uchun ko'plab adiblar majoz usulidan foydalanib turli syujetga asoslangan asarlar yozib qoldirishgan. Shunday asarlardan biri "Muqbil va Mudbir" hikoyasidir.

Alisher Navoiy ijodida "Muqbil va Mudbir" haqidagi hikoyatlar "Sab'ai sayyor", "Lison ut-tayr" va "Mahbub ul-qulub" asarlarida uchraydi. Ularni xronologik jihatdan ko'rib o'tadigan bo'lsak, dastlab "Sab'ai sayyor" dostonida yozilganining guvohi bo'lamiz.

Xamsanavislar orasida salmoqli o'rin egallaydigan, Bahromshoh yo'nalishida yozilgan asarlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazkur mavzuda

Alisher Navoiydan oldin Nizomiy Ganjaviy (“Haft paykar”), Xusrav Dehlaviy (“Hasht behisht”) va Ashraf Marog’iy (“Haft avrang”)lar qalam tebratganining guvohi bo’lamiz. Ushbu asarlarning barchasida 7 hikoyat roviylar tomonidan bayon qilingan bo’lib, ulardagi fasonalarning hech qaysisi bir-birini takrorlamaydi [1. 485-bet]. Ular bir yo’nalishdagi turfa rang asarlar hisoblanadi. Biz yoritmoqchi bo’lgan “Muqbil va Mudbir” hikoyati ham shu kabi boshqa asarlarda keltirilmaydi.

“Sab’ai sayyor”dan so’ng Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyat yirik irfoniy doston bo’lmish “Lison ut-tayr”da uchraydi. Bunda jamiki qushlarga boshchilik qilayotgan Hudhud ushbu hikoyatni o’z chiroyi bilan maqtanib yo’lni davom ettirolmalik uzrini aytgan Tazarvga o’z nasihatidan so’ng bayon qiladi. Garchi asarda hikoyat “Muqbil va Mudbir” deb nomlanmagan bo’lsada, uning mazmuni bilan tanishgan kitobxon shu xulosaga kelishi aniq.

Bundan keyin adibning umri oxirida kelajak avlod uchun pand-o’git bo’lib dunyoga kelgan, biz yoshlar uchun dasturulamal bo’lmish “Mahbub ul-qulub” asarida ushbu hikoyat haqida so’z boradi. Pandnomaning ikkinchi qismi bo’lmish “Hamida af’ol va zamima xisol zikrida” (“Yaxshi fe’llar va yomon xislatlar to’g’risida”) bo’limining “Tavoze’ va odob zikrida” deb nomlanuvchi oltinchi bobida fikrlarga misol tariqasida Muqbil va Mudbir haqida hikoyat keltiriladi [3. 79-bet].

Asarlarning yozilishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, “Sab’ai sayyor” hamda “Lison ut-tayr” dostonlari aruz vaznida she’riy yo’sinda yozilgani, “Mahbub ul-qulub”ning esa nasriy keltirilgan fikrlarni asoslash uchun nazmiyda baytlar bilan boyitilganining guvohi bo’lamiz.

“Sab’ai sayyor” dostonining bosh vazni *xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf* bo’lib *ruknlari va taqti’i: foilotun mafoilun failun – V – – / V – V – – / V V –* hisoblanadi. Bu haqda filologiya fanlari doktori Dilnavoz Yusupova o’z izlanishlarida quyidagi fikrlarni keltirib o’tganlar: “Jumladan, “Sab’ai sayyor” dostonida qo’llanilgan xafifi maxbun vazni 8 ta ritmik variatsiyadan iborat bo’lib, bu ritmik variatsiyalar doston tarkibidagi 7 ta hikoyat mazmunini

ifodalashga xizmat qilgan. Ularning doston voqealari bayonida o‘zaro almashinib qo‘llanilishi tasodifiy bo‘lmay, dostondagi voqealar, qahramonlarning ruhiy holati, bir hikoyatdan boshqasiga o‘tish paytlari, syujet chiziqlarining o‘zgarishiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Xususan, Bahromning “hijron o‘tining dudi qaro qilg‘on kun”dagi holati tasvirlangan birinchi hikoyatda xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’ (rukunlari va taqti’i: – V – – V – V – – –) ritmik variatsiyaning yetakchilik qilishi kuzatilsa, 7-hikoyat so‘nggida Bahromning Diloromning daragini eshitgan paytidagi ruhiy holati bayoni nisbatan yengilroq ohang kasb etuvchi xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf (rukunlari va taqti’i: – V – – V – V – V V –) ritmik variatsiyasi yordamida amalga oshirilgan. Shuningdek, Bahromning “Xamsa” qahramonlari orasida eng ko‘p qarama-qarshiliklarga ega murakkab shaxs sifatidagi qiyofasini ochib berishda ham ritmik variatsiyalar muhim o‘rin egallaydi.” 8 ta ritmik variatsiyalarni quyida ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

1. Xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf → foilotun mafoilun failun – V – – / V – V – / V V – .

2. Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur → foilotun mafoilun failon – V – – / V – V – / V V ~ .

3. Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’ → foilotun mafoilun fa’lun – V – – / V – V – / – – .

4. Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag’ → foilotun mafoilun fa’lon – V – – / V – V – / – ~ .

5. Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf → failotun mafoilun failun V V – – / V – V – / V V – .

6. Xafifi musaddasi maxbuni maqsur → failotun mafoilun failon V V – – / V – V – / V V ~ .

7. Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’ → failotun mafoilun fa’lun V V – – / V – V – / – – .

8. Xafifi musaddasi maxbuni maqti’i musabbag’ → failotun mafoilun fa’lon V V – – / V – V – / – ~ [6. 68-bet].

Asarning XXXI bobi bo'lmish "Muqbil va Mudbir" hikoyatida ushbu ritmik variatsiyalarning rang-barangligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, hikoyatning aksariyat qismi xafif bahrining maxbuni maqtu' va maqtu'i musabbag'ida yozilganini kuzatamiz. Yengil ritmni hosil qiluvchi maxbuni mahzuf va maqsur vaznida esa, "Vodiyi hamim" tasviri, chashma va kema epizodi bilan bog'liq baytlar, qahramonlarning ruhiy holatlariga oid o'rinlari yozilgan.

"Tutubon kunje o'z fig'oni bila,

V V - - / V - V / V V -

Qolibon bahr ichinda joni bila.

V V - - / V - V / V V -

Mudbir ul o'lgan elni sug'a solib,

6. *V - - / V - V / V V -*

Kemau moli ixtiyorin olib.

V V - - / V - V / V V -

Kema amvolini qilib o'zining,

V V - - / V - V / V V -

Kemani balki ham bilib o'zining."

V V - - / V - V / V V - [4. 282-bet]

Yuqoridagi parchadan ikki hamrohning bahr ichra qayiqda suzib borishayotganda kemaga duch kelishgani va Muqbilning o'z holi bilan behudligi-yu Mudbirning kemani o'zlashtirayotgan holatini bilishimiz mumkin.

Yirik irfoniy doston bo'lmish "Lison ut-tayr"ning LIII bobi Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatga bag'ishlanib o'n yetti baytdan iborat. Hikoyat ramal bahrining *ramali musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan bo'lib, *ruknlari va taqti'i: foilotun foilotun foilun - V - - / - V - - / - V -* hisoblanadi.

"Har biriga zot edi oti kibi,

7. $V - - / - V - - / - V -$

Ul sifatkim ot edi zoti kibi.”

8. $V - - / - V - - / - V -$ [2. 75-bet]

Ba’zi o’rinlarda esa, *ramali musaddasi maqsur (ruknlari va taqti’i: foilotun foilotun foilon - V - - / - V - - / - V ~)* vaznida bitilgan baytlarni kuzatishimiz mumkin.

“Buncha so’zga bu laimi xudpisand,

$- V - - / - V - - / - V ~$

Onga xanjar birla yetkurmish gazand.

$- V - - / - V - - / - V ~$

Shoh eshitgach bo’ldi adl amriga xos,

$- V - - / - V - - / - V ~$

Qildi Mudbirg’a ravon hukmi qasos.”

$- V - - / - V - - / - V ~$ [2. 76-bet]

“Mahbub ul-qulub” haqida fikr yuritadigan bo’lsak, asarda ushbu hikoyat nasrda bayon etilganining guvohi bo’lamiz. Hikoyat so’nggida xulosa sifatida bir bayt keltirilgan:

“Mutakabbir kezibon shahrda xoru mardud,

$V V - - / V V - - / V V - - / - ~$

Mutavozi’ni g’aniy ayladi durri maqsud.”

$V V - - / V V - - / V V - - / - ~$ [3. 80-bet]

Bayt ramal bahrining *ramali musammani maxbuni maqtu’i musabbag’ (afoili va taqti’i: failotun failotun failotun fa’lon V V - - / V V - - / V V - - / - ~)* vaznida yozilganini kuzatishimiz mumkin.

Asarlarning syujetiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, ularning turlicha ekanligini anglaymiz. Jumladan, “Sab’ai sayyor” dostonida Boxtardan Xovarga

ketayotgan ikki musofir bo'lib, ulardan biri haq yo'lidagi Muqbil va ko'p narsani rad etuvchi, shukr qilishdan mosivo Mudbir bo'ladi. Ular yo'lda ko'p sinovlarga duch kelishadi. Bu sinovlar har narsadan noliydigan Mudbir so'zlaridan kuchlansa, zikr va tasbih o'giruvchi Muqbil munojotidan tinchlanardi. Nasihatiga parvo qilmagan Mudbirdan qiyinchilik barham topgach ayrilishni istaganida u tavba qilar edi. Safar davomida har ikkisi uchun ham sinov qo'yiladi. Bepoyon bahrdagi kichik orolda yuz bergan hodisalar Muqbilga qattiq ta'sir qiladi va bundan behud bo'lib qoladi. Shu holda ular tirik jondan holi sandal ortilgan kemaga duch kelishadi. Safar yakunida bergan va'dasini unutgan Mudbir o'z axloqi tufayli yorilib vafot etadi. Muqbil esa, o'zining to'g'riso'zligi, go'zal xulqi bilan shohga manzur bo'ladi va murodiga yetadi.

Irfoniy asar bo'lmish "Lison ut-tayr"da esa Muqbil va Mudbirlarning yana bir qirrasini ko'rishimiz mumkin. Bu asarda ham ikki bosh obrazning yo'ldagi tasviri bilan boshlanadi. Hikoyatda Muqbil siyratni ko'ruvchi, ogoh va taqvodorlar haqida so'zlovchi bo'lsa, mudbir esa butni vasf etib, faqat tashqi ko'rinishga qarab baho beruvchi bo'ladi. Go'zal shaharga yetishgach bir-biridan bahra topolmagan hamrohlarning yo'llari ayrilib, biri nafs o'limi uchun ruhiy komillik sari, biri unga qul bo'lib, boshlagan yo'li sari ravona bo'lishadi. Ruhiy komillik yo'lidagi solik shoh suhbatini bilan rag'batlangan bo'lsa, nafs itiga qullik yo'lidagisi ishiga mos jazolanadi.

Dasturulamal bo'lmish "Mahbub ul-qulub" asarida bosh qahramonlarning boshqa qirralarini kuzatamiz. Yuqoridagi ikki asar kabi ular ham safardagi hamrohlar bo'lib, Muqbil odob va kamtarligi bilan ulug'vor, Mudbir esa, johilligi bilan kekkaygan edi. Aytib o'tilgan asarlardan farqli ravishda bu yerda mamlakat hirojiga teng keladigan gavhar izlovchilarga yo'liqish sahnasi sinov vazifasini o'taydi. Mudbir takabburligi va johilligidan o'sha gavharni bilish sharafidan mosivo bo'ladi. Muqbil esa, kamtarligi bilan o'sha gavharni qayta kashf etishga musharraf bo'ladi va shohni xushhol etib haddan ziyoda ehson bilan mukofotlanadi.

Guvohi bo'lganimizdek, hikoyatlardagi sinov nuqtalari qahramonlarning xususiyatlarini to'laroq ochib beruvchi hodisa bo'lgan. Jumladan, "Sab'ai sayyor"da oroldagi chashma Mudbirning va'da berganidek to'g'ri yo'lga kirish-kirmasligi va Muqbilning ko'rgan hodisalaridan haq yo'lidan ozish-ozmasligi har ikkala qahramon uchun sinov vazifasini o'tagan. Aql va sabr bilan Muqbil o'z niyatiga yetganidek, so'zlab, vaziyat o'zgarishi bilan so'zidan qaytuvchi Mudbir ham haqiqat qonunlari bilan jazolanadi.

"Lison ut-tayr"da farxunda shahar sinov vazifasini o'tab, bir-biridan bahra topolmagan hamrohlar bu yerda qalblarida neki bo'lsa, yuzaga chiqarishadi va shunga mos ajrga ega bo'lishadi.

"Mahbub ul-qulub"da esa shohning yo'qolgan gavharini axtarib yurilish hodisasi sinov vazifasini o'tagan. Takabburligi va qalb ko'zgusining qat-qat gardi sabab kibr bilan o'tib ketgan Mudbir asl mohiyatni anglay olmaydi va go'laxlik "martabasi bilan sharaflanadi". Ogohlik, kamtarlik va odob sohibi bo'lgan Muqbil esa shoh gavharini topadi va saxovatga, shoh rahmatiga ega bo'ladi.

Savol tug'iladi: nega aynan Muqbil va Mudbir hikoyatlarida ular shoh bilan uchrashishadi? Bu yerdagi shoh qanday ramzni anglatishi mumkin?

Fikri ojizimizcha, buni Olamlar Shohiga ishorat deb anglashimiz mumkin. "Hayrat ul-abror"ning birinchi, "basmala" bobini zikr etganimizda, qabul qiluvchilar va rad etuvchilar yodimizga tushadi. Darhaqiqat, "Muqbil"ning lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, "qabul qiluvchilar" mazmuniga va "Mudbir"ning "rad etuvchilar"ga yaqin turishini anglaymiz. Bu bobda necha yuz ming qabul qiluvchilar va rad etuvchilar hikmati bitilgan.

Umuman olganda, bu yerda "Muqbil" va "Mudbir" nomlari ramziylik kasb etib, aslida ahli qabul va ahli rad olami bahridan tomchilarini ushbu uch hikoyatda ko'rishimiz mumkin.

Hikoyatlarning safar tasviriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, aslida, bizlar shu olamga safar qilib, turli mashaqqatlarga, sinov nuqtalariga duch

kelishimizning aksini his etamiz. Safarimizdagi sinovlar og‘ir bo‘lishi mumkin, gohida bundan behud va faqir, bechora holiga tushishimiz mumkin.

Fikrlarimizni xulosalaydigan bolsak, Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatlar Alisher Navoiyning “ “Sabai sayyor”, “Lison ut-tayr”” hamda “Mahbub ul-qulub” asarlarida keltirilgan.

“Sab‘ai sayyor”da ritmik variatsiyalar bilan xafif bahrida, “Lison ut-tayr”da vazn imkoniyati bilan ramal bahrida, “Mahbub ul-qulub”da hikoyat nasrda yozilgani holda xulosalovchi baytning ramal bahrida yozilganining guvohi bo‘lamiz. Hikoyatlar syujetiga e‘tibor qaratganimizda ularning turfa xilligini, bir-biriga o‘xshamasligi va qahramonlarning turli qirralarini yanada ochuvchi vosita bo‘lib gavdalanganini bilishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh. Sirojiddinov, D. Yusupova. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018.
2. Алишер Навоий. “Лисон ут-тайр”. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1996.
3. Алишер Навоий. “Махбуб ул-қулуб”. (Масъул муҳаррир Ш. Сирожиддинов). – Тошкент: Сано-стандарт, 2018.
4. Алишер Навоий. Сабъаи сайёр (насрий баёни билан). Таҳрир ҳайъати: А. Қаюмов ва бошқалар. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги НМБ, 1991.
5. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1991.
6. Юсупова Д. Р. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги. Тошкент. –Филол.фан.ном. дисс. авто., 2008.

ID-020-30-A058

Mahbuba Salomova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Iroda Akbarova

Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

“ALPOMISH” DOSTONIDA YORTIBOY OBRAZINING POETIK YUKI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nafaqat o'zbek xalqining, balki butun turkiy xalqlarning ma'naviy merosi hisoblangan “Alpomish” dostonidagi Yortiboy epizodik obrazining xarakter-xususiyatlari hamda uning poetik yuki masalasi tahlil qilinadi. Dostonning ulug' baxshi Fozil Yo'ldosh tomonidan maromiga yetkazib kuylangan versiyasida Yortiboy obrazi butun voqealar o'zanini tubdan o'zgartirib yuborgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Quyida uning Boysari beyga bergan maslahatlarining poetik yuki masalasi yuzasidan ayrim fikr-mulohazalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: *“Alpomish” dostoni, Alpomish, Boysariboy, Yortiboy, Qayqubod, Ultontoz, Qaldirg'och, zakot, epizodik obraz, poetik yuk, etnos.*

Annotation. This article analyzes the characteristics of the episodic image of Yortiboy in the epic “Alpomish”, which is spiritual heritage not only of the Uzbek people, but also of all Turkic peoples, and the question of its poetic burden. In the version of the poem sung by Fozil Yuldash, the image of Yortiboy is described as a person who radically changed the course of events. Below are some comments on the poetic burden of his advice to Boysari Boy.

Keywords: *“Alpomish” dostoni, Alpomish, Boysariboy, Yortiboy, Qayqubod, Ultontoz, Qaldirg'och epic, episodic image, poetic burden, ethnos, zakat.*

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarda xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun shakl

jihtdan goh kengayib, goh torayib ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda dostonlar gultoji "Alpomish" xalqimiz yaratgan epik she'riyat namunalaridan biri, balki birinchisidir.

"Alpomish" dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug' birligini kuylovchi ulkan eposdir.

"Alpomish" dostonida xalqimizning qahramonlik haqidagi ideallari, mardlik tuyg'usi yorqin tasvirlangan. Dostondagi voqealar qahramonlik, jasurlikni, ulug'lash, mardlik tuyg'ulari vatanparvarlik g'oyasi bilan uzviy bog'langandir.

Dostondagi har bir obraz etnosning ma'lum ijtimoiy tabaqa yoki biror guruhining ramzi sifatida qad rostlab, ularning intilishlari, fikr o'ylari, taqdirini ham ifodalaydi.

Biz bilamizki, doston bosh qahramonlari Alpomish va Barchinoydir. Qolgan obrazlar bosh qahramonlar atrofida sodir bo'layotgan voqealarda ishtirok etadi va bular epizodik obrazlar hisoblanadi. Xo'sh, unda epizodik obraz nima? Epizodik obraz asarning makrostrukturasida yanada kamroq ishtirok etadigan shaxslar epizodik obrazlar hisoblanadi. Epizodik obrazlar asosiy qahramon tabiatidagi muhim xususiyatlarni ishonarli yoritishga xizmat qiladilar. Alpomish dostonidagi obrazlar Suqsuroy, Qaldirg'och, Tovka Oyim, Yortiboy, Qayqubod, Ultontoz va boshqalar. Endi bu obrazlarning ba'zilariga to'xtalib o'tsak: Qayqubod - oqko'ngil, sodda, shu bilan birga qo'lidan har ish keladigan, o'ta topqir shaxs. Asarda Qayqubodning o'g'irlikka boorish epizodi xarakterlidir. Bunda umrida hech mahal o'g'irlik qilmagan sofdil Qayqubodga samimiyat, uning holiga achinish tuyg'ulari ifodalanadi:

Ko'zida to'ktirib selob nurini,
Ukasini yiqay Joltong pirini,
Oh urganda xasta ko'nglin ushladi,
G'animga duch bo'lmay sirim foshladi.

Asardagi yana bir epizodik obraz Ultontoz. Ultontoz - xalq manfaati uchun qayg'urmaydigan, qo'ng'iroq urug'iga g'amxo'rlik qilmaydigan zolim shaxs. U har qanday yaramas va iflos ishlarni qilishga tayyor "pastkash inson" sifatida gavdalangan.

Dostonda Barchin obrazini to'ldirib keluvchi epizodik obraz Qaldirg'och. Qaldirg'och Boybo'ri yashirib qo'ygan xatni topib, akasiga ma'lum qilish epizod bilan dostonga kirib keladi. Qaldirg'ochning ichki olami uning yangasi Barchin, jiyani Yodgor va akasi Alpomishga mehribonchiligi dostonning ikkinchi qismida yanada yorqinroq ko'rsatilgan

Dostonda yana Toychaxon, Surxayil kampir, Bodom bikach, Ko'kaldosh va qolgan to'qson qalmoq obrazi yaratilganki, bularning har biri asar syujeti va kompazitsiyasida muayyan estetik maqsadni ochishda kata o'rin tutadi. Bu obrazlar voqealarning rivojlanishi bilan birga o'sib boradi va har bir obraz o'ziga xos xususiyatni gavdalantiradi.

Hakimbekning aql va farosati tufayli yuz bergan zakot masalasidan so'ng aka - ukalar o'rtasiga sovuqchilik tushadi. Ne maqsadda so'ralgan zakotga tushunmagan uka akadan ranjidi. Boysari o'z eliga maslahat soldi:

Oh urganda ko'zdan oqar selob yosh,
Maslahat ber o'n mingli uyli qarindosh.
Barchinoyim bo'y yetgandir qalamqosh,
Zolim bilan hargiz bo'lmanglar yo'ldosh.
Qo'ng'iroq elidan molga zakot kelibti,
Maslahat ber, o'n mingli uyli qarindosh.

"Shu turgan xaloyiqlardan xech bir sado chiqmadi. Shu majlisda bir Yortiboy degan oqsoqol bor edi. Majlisi kun bo'lsa to'rdan joy tegmay, bo'sag'aning oldida kovushga joy bermay kovush bilan aralashib, it yiqilish bo'lib, poyga betda yotar edi. To'rda o'tirgan kattaman deb yurganlarning hech biridan gap, sazo chiqmagandan keyin poyga betdan Yortiboy o'rnidan turib, maslahat shulda" - deb:

"Maslahat bermaymiz Boysariboyga,

Osilmaymiz Boybo‘rining dorida,
Biring aka, biring uka, Boysari,
Maslahatni, shoxim, o‘zing bilasan ...”

Yortiboy tomonidan aytilgan bu so‘zlar Qo‘ng‘irot elining katta – kichigiga ma‘qul tushgandan so‘ng, Boysari ketishga qaror qildi. Ana shunda Yortiboy Qo‘ng‘irot elining, ya‘ni xalqning tili bo‘ldi.

“Ushbu damning damligini dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema,
Sen ketar bo‘lsang, Qalmoq yurtiga,
Bul elatni qolar deb ham g‘am yema ...”

Shu “maslahat” dan so‘ng Qo‘ng‘irot eli Boysari boshchiligida Kashalga keldi. Vaholanki, Kashalga kelgandan so‘ng ham Qo‘ng‘irot eli begona yurt bilan singishib ketolmadi. Ularning bu xalq bilan singishib ketish muammosi Barchin bilan xal bo‘lardi. Barchinni so‘rab kelgan qalmoqlarga ne deb javob berishni bilmagan Boysari, yana Qo‘ng‘irot eliga maslahat soldi. Yana Boysarining maslahatchisi Yortiboy bo‘ldi.

“Bul alplarni kuyov qilib olamiz,
Muna elda toza erkin bo‘lamiz,
Bolalarni tog‘a jiyan qilamiz,
Chin bermasang ikki boshdan o‘lamiz ...”

Ketishga birgina zakotni bahona qilib, ko‘chib xato qilganini tan ololmagan Boysari Toychixon tomonidan taqdim etilgan tuhfalarni qabul qilib og‘zi bog‘liq holda qoldi. Boysarining og‘zini bog‘lagan tuhfa bu Yortiboyning maslahatlari edi.

Asardagi har bir obraz ma‘lum bir vazifani bajaradi. Yortiboy obrazi asar strukturasi yuqorisida turuvchi obraz. Yortiboy asl voqealarni boshlanmasidir. Yortiboy obrazi ham epizodik obrazi bo‘lishiga qaramasdan doston voqealarini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Doston voqealarini tubdan o‘zgartirib yuboradigan darajada bo‘lgan inson o‘zi qanday shaxs edi? Shomirza Turdimov “ Etnos va epos “ asarida: “Yortiboy yarimta shaxs ham

emas. Yorti – 0,25 yarimning yarmi “ – degan fikrni keltirib o‘tgan. U “ Maslahat bermaymiz Boysariga, osilmaymiz Boybo‘rining doriga ...” deb o‘zining tor qarashlaridagi sarqit fikrlarni “maslahat” deb berdi. Xususan, Yortiboy keltirgan har ikkala maslahatida xam Boysarining ikkilanishlariga barham beradigan gaplarni aytdi. Shundan bilishimiz mumkinki, uning gaplari o‘zining karakterini ochib beradi. Ya’ni, o‘z manfaatlarini o‘ylyadigan, o‘z manfaati yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan obrazdir. E’tibor bersak, birinchi nutqida paytdan foydalanib o‘zini yaxshi ko‘rsatishga urinadi. Keyinchalik ham o‘zining erkin bo‘lishi uchun ovulidagi qizni begonalar qo‘liga berishgacha tayyor bo‘lgan tuban kimsa qiyofasida shakllangan. Yortiboy uchun or – nomus, millat va vatan, kelajak nasl taqdiri tushunchalari begona. Uning joni tinch, qorni to‘q, oyog‘i uzangida bo‘lsa kifoya. Yortiboyning Barchinni alplarga berib, evaziga “Muna elda toza erkin bo‘lamiz “ deyishi o‘zining qanchalik tuban kimsa ekanligini ko‘rsatib bergan. O‘n ming uyli qo‘ngirot elining ajralishiga, begona yurtda biyning qizining talash bo‘lishiga, Alpomishning yetti yil zindonda yotishiga ham mana shu Yortiboy sababchi. Yortiboyni xalq ichidagi “Ichki dushman” ya’ni ko‘zga ko‘rinmas dushman desa to‘g‘ri bo‘lar. Alpomish mana shu dushman qarshisida ojiz qoldi. Mana shu dushman sabab Qo‘ng‘irot taxti egasiz qolib, Ultontoz taxtga chiqdi. Asar voqealarinining o‘zanini o‘zgartirib yuborgan shaxs.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Alpomish dostoni badiiy jihatdan eng mukammal asarlardan biri. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li asrdagi voqealarni bayon qilishga shoshilmaydi. Har bir lavha ishtirokchisining tashqi qiyofasi va ichki dunyosini, voqea hodisalarni izchil tasvirlaydi. Qahramonning xatti - harakatlarini dalillashga alohida urg‘u beradi. Xuddi shunday o‘rinni Yortiboy timsolida ko‘rib o‘tdik. Uning dostonidagi o‘rni bir qarashda oddiy tuyulganday go‘yo, biroq nega Boysarining gapiga hech kim javob qaytarmaganda poyga betda it yiqilish bo‘lgan shu obraz javob bergani barchamizni o‘ylantiradigan hodisa. Yortiboy obrazi orqali bu o‘rinda

cho'rtkesarlik va hozirjavoblikni ko'rishimiz mumkin. Yortiboy epizodik obraz bo'lishiga qaramay, asar tizginini ushlab turgan qahramondir.

Yortiboy xalq tomonidan yaratilgan to'qima obrazdir. Har bir badiiy asardagi shaxs shunchaki yaratilmaydi. Ularning prototipi bo'lgan insonlar xalq ichida yashaydiki, mana shunday obrazlar yaratiladi. Uni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad qadimdan to bugungi kunga qadar odamlar orasida yashayotgan "Yortiboilar" borligi hamda ular o'zining "dono" maslahatlari bilan insonlar hayotiga ta'sir ko'rsatib kelayotganligidir. Badiiy asar yaratilar ekan, u insonlarga estetik zavq berish va hayotdagi voqealardan to'g'ri xulosa chiqarishga undashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirzayev T. "Alpomish" dostoni. Toshkent: Fan, 1999.
2. Turdimov Sh. Etnos va epos. Toshkent: O'zbekiston, 2012.

ID-020-30-A059

Maxliyo Xurramova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi

NASAF VA NASAFLIK ALLOMALAR

Annotatsiya. Turon zamini o'z bag'rida ko'plab buyuklarni yetishtirib, Sharq tamadduni tarixiga yuksak hissa qo'shgan. Buyuk mutafakkir allomalar, ilm va fanning ustalari barcha sohada bilim va iqtodolarini namoyon qilgan. Natijada tabobat, fiqh, falsafa, tasavvuf, algoritm, mantiq singari fanlar rivojlanib, dunyo taraqqiyotiga asos bo'lgan. Maqolada ko'hna Qarshi – Nasaf shahrida tug'ilib, diniy va dunyoviy ilmlar rivoji, ma'naviyat va madaniyat yuksalishi uchun butun umrini sarflagan, fidoyi allomalarning hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy, Lutfulloh Nasafiy Fozil Kaydoniy, Aziziddin Nasafiy va Abul Muin Nasafiy tomonidan yaratilgan asarlar, ular zamiridagi islomiy-tasavvufiy g'oyalar, barkamol inson va uning tafakkuri xususidagi fikrlarning bugungi kun uchun ahamiyatlik jihati yuzasidan munosabat bildirilgan. Dalillar hayot haqiqati bilan bog'lanib, xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: *alloma, fiqh, g'oya, zohir, botin, avliyo, asos, din, e'tiqod.*

Annotation. Turan brought up many great people in his homeland and made a great contribution to the history of Eastern civilization. The great thinkers, masters of science and science have demonstrated their knowledge and talents in all fields. As a result, sciences such as medicine, jurisprudence, philosophy, mysticism, algorithms, and logic developed and became the basis for the development of the world. The article provides information about the life and work of dedicated scholars who were born in the ancient city of Karshi - Nasaf and devoted their lives to the development of religious and secular sciences, spirituality and culture. The works created by Nasafi, Abu Hafs Nasafi, Lutfullah Nasafi, Fazil Qaydani, Aziziddin Nasafi and Abul Muin Nasafi, the Islamic-mystical ideas underlying them, and the ideas about the perfect man and his thinking are important for today. The evidence is based on real-life situations and conclusions are drawn.

Key words: *scientists, law, ideas, the inner world, the outer world, saint, on the basis of religion.*

Qadimda Qarshi shahrini Nasaf deb nomlaganlar. Ayni paytda Naxshab nomi bilan ham atalgan. Nasafda asrlar madaniyati, ma'naviyati rivojlanishiga, diniy va dunyoviy ilmlar taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan allomalar yashab ijod etganlar. Bular qatorida o'zlariga Nasafiy nisbasini olganlari ko'pchilikni tashkil etgan. Bulardan Nasafiy, Abu Hafs Nasafiy, Lutfulloh Nasafiy Fozil Kaydoniy, Aziziddin Nasafiy va Abul Muin Nasafiylarni bugungi kunda barchamiz bilamiz. Ularning bitmishlari va hayot yo'llari ibratga va hikmatga to'la. "Hazrat Bahouddin Naqshband" asari muallifi Nasafiy haqida ma'lumotlar kam. Hayoti haqida deyarli ma'lumotlar keltirilmagan. Yaratgan asarida ham o'zi haqida hech qanday axborotni uchratmaysiz. Nasafiy deya faqat taxallusi qo'llangan. Asarda Navoiy ta'kidlab yozganidek, "Yana so'rdilarki: "Sizning tariqingiz binosi ne ishgadur?" Xoja Bahouddin dedilarki: "Anjumanda xilvat zohir yuzidan xalq bila va botin tarafidin haq subhonahu taolo bila "ekanligini yoritilgan [1.5]. Bu bilan muallif bizga nimani uqtirmoqchi bo'lyapti, nimani olg'a suryapti? Zohirda ya'ni kundalik hayotda, muomalada xalq bilan bo'lish, botinda esa haq bilan, ya'ni Alloh bilan bo'ishni targ'ib etyapti. Xalq bilan deyilganda aynan nima nazarda tutilyapti? Bugun zamon shiddat bilan rivojlanib, insoniy fazilatlar ham globallashib bormoqdaki, insonlar bir-birlariga e'tibor bermayaptilar, bir-birlariga qiziqmayaptilar. Jo'n qilib aytganda birovning birov bilan ishi yo'q. Kimdadir muammoni payqasak, "Menga nima?" deb ketaveradigan holga kelib qolganmiz. Barchamiz o'z tashvishlarimizga o'zimiz qorishib yuraveramiz. "Menga ham hech kim yordam bermagandi, men ham hech kimga yordam bermayman" kun shiori bo'lib qolgan. Maqolani yozish jarayonida bir masala diqqatimni tortdi. "Nasaf va nasaflik allomalar nega o'rganilayapti, ulardan biz nima o'rgana olamiz?" Shu sababli maqolamda nasaflik olimlarning qachon qanday asar yozganliklariga unchalik urg'u bermaslikka, asarlarida bugungi kun kishisi uchun nima demoqchi ekanliklariga fikrimni qaratishga harakat qildim. Har bir shaharda

yoki viloyatda mashhur allomalar, avliyolar, kechmishlari va demishlari ibratga to'la zotlar dunyoga kelganlar. Biz ularning mana shu zaminda dunyoga kelganliklari, asarlari bilan faxrlanish bilan birga yaratgan asarlarida nima demoqchi ekanliklariga ham e'tiborimizni qaratishimiz lozim. Ularning yaratgan asarlarining o'zi bilan maqtanaversak, bu bizga kamlik qiladi. Bu holat go'yo to'tining hech narsani tushunmay so'zlashiga teng bo'lib qoladi. Nasafiy do'stlar davrasida bo'l, qalbing Allohda bo'lsin, Allohning yaratgan bandalariga ham yordam qo'lini cho'z demoqchi, menimcha. Naqshbandiylik tariqatining asosiy aqidalari xilvatninishlikda o'tirish emas, balki xilvat va halovatni do'stlar davrasida topish, haqiqatni izlab notanish yurtlarda sarson-sargardonlikda yurmasdan o'z vatani, yurtining shahr-u qishloqlarini ziyorat qilish, zohirda odatdagi ishlardan ayrilmay, u bilan hamnafas bo'lish, botinda ya'ni dilda haq taolo bilan yashash kerakligi uqtirilgan.

Asarda insonning ilm-ma'rifatga intilishi, yaxshilardan saboq olishi kerakligi uqtirilgan. Jomiyning "Bahoriston" asarining 1-ravzasidagi 1-rivoyat keltirilgan: " Mahshar kuni haq subhonahu taolo o'zining faqir va sodiq bandalarining biridan so'rabdi: "Sen falon mahallada yashagan falonchi olimni tanirmiding? Faqir javob beribdi: -Ha, tanirdim, ey parvardigorim. -Haq subhonahu va taolo amr qilibdi: O'shal olimni taniganing haqqi yog'dirurman"[1.5-]. Rasuli akram Muhammad alayhissalom hadisi shariflaridan birida: "Ulamolar mening vorislarim, merosxo'rlarimdir" [1.6-] degan ekanlar. Birinchi voqeada bir ulamoni, olimni taniganligi uchun Alloh taolo bir faqirning gunohidan o'tdilar. Endi doimiy hamrohimiz aql bilan o'ylab mushohada etaylik... Alloh taolo bilim olish bilan band bo'lgan, o'zining kalomini zikr etgan bandalarini qanday yorlaqaydi, gunohlarini mag'firat aylaydi? Demak, bekordan bekorga Nasaf va nasaflik olimlar ijodi targ'ib etilmayapti, anjuman tashkil qilinmayapti. Hadisda esa har bir ilm olgan mo'min-musulmon Allohning vorisi, izdoshi ekanligi ta'kidlanmoqda. Anglashiladiki, haq yo'lida ilm izlab, ilm olib uni o'zgalarga ham yetkazgan inson payg'ambarimizning vorisidir.

Nasafiyning risolasida Naqshbandiyning quyidagi ikki bayti keltirilgan:
Eranlar mozorin joy qilmas oqil,
Xalos bo'lay desang, eranday ish qil [1.6].

Tokay izlagaysan panoh mardlardan,
Mardlar ishin qilib qutul dardlardan[1.9].

Menimcha, Naqshbandiy haqiqiy inson, mard kishi o'tganlarni ziyorat qilish bilan birga, ularga mos, ularning nomlariga xos avlod sifatida er kishiga xos ish ko'rsatmog'i zarurligini ta'kidlagan. Naqshbandiy kibr-u havoni qattiq qoralagan kishi bo'lganligi muallif tomonidan ta'kidlangan. Eranday ish qilgan kishi gerdayib, kibr-u havoga berilmasligi lozim ekan. 2-baytda esa qo'lidan ish kelmaydigan inson bo'lmasdan, mard bo'lib, dardlardan, qiyinchilklardan qutulishni uqtirgan. Boshqalar soyasida yashashni, mehnat qilmaslikni qoralagan. Asarda yozilishicha, Naqshbandiy "o'zlarining ayblarini sira yashirmay, ochiq aytadilar, bu ham yetmaganday boshqalarning ham ayblari, gunohlarini o'z zimmalariga oladilar"[1.6] deya uqtiriladi. Ba'zan o'z ayblarimizni hech qachon ko'rmaymiz, ularni aytgan, ko'rsatgan insonni esa juda yomon ko'ramiz. Nega shunday, haqiqatning yuki bizga og'irlik qilib qoladi? Chunki biz o'z ayblarini ham yashirmaydigan, o'zgalar aybini ham o'z zimmasiga oladigan buyuklarning kitoblarni kam mutolaa qilamiz.

Men asarni mutolaa qilish jarayonida bir haqiqatni angladim. Ibodatni o'n ulush deb oladigan bo'lsak, shu ulushning to'qqiz qismi halol kasb talabiga amal qilish ekan. Qay birimiz bu ibodatga amal qilyapmiz?... Bu savolning hukmini albatta vijdon chiqaradi. Men universitet talabasiman. Ushbu masala yuzasidan tengdoshlarimga, bilimdoshlarimga murojaat qilmoqchiman. Ey tengdosh, bugun bo'lajak kasbining mutaxassisi sifatida ibodatimizni o'z o'rnida qilayapmizmi? Ota-onamizning ter to'kib topib to'lagan kontraktlariga munosib bo'lyapmizmi? Ertaga shu ezguliklarga, mehribonliklarga munosib javob qaytara olamizmi? Kim ko'ribdi ota-onasining haqqini to'la-to'kis ado eta olganni? Loaqal bir kecha boshimizda alla aytgan onamizning bir soatlik

allalarini, bedorliklarini qaytara olmaymizku!? Otamizning bir kunlik halol tuz haqlarinichi qaytara olamizmi? Mana asarda nima deyilyapti, nima targ'ib etilyapti. Bir o'ylab ko'r ey, bilimdosh...

G'ijduvoni kashf etgan sakkizta muqaddas manzil(kalimoti qudsiya)ga Bahouddin Naqshband yana uchta manzil, daraja qo'shganligi ta'kidlanadi:

1.Vuqufi zamoniyy-vaqt manzili. Bu manzilda solik o'z umrini qanday o'tkazayotganligini nazorat qiladi. Agar savob ishlar bilan o'tkazsa, Xudoyi taologa shukrona aytadi, aksincha, gunohlar qilsa, tavba-tazarru qiladi.

2.Vuqufi adadiy-hisob-kitob manzili: xayolan zikr, duo, niyatlarni nazorat qilish.

3.Vuqufi qalbiy-solik o'z qalbida Alloh zikri qanchalik teran naqshlanib qolganligini nazorat qiladi [1.9-b].

Alloh taolo oldida savob ishlar uchun shukrona aytyapmizmi, gunohlarimiz uchun-chi tavba-tazarru qilyapmizmi?... Mana nima uchun Nasafiy singari allomalar ijodi o'rganilayotganliginining sababi va javobi...

Nasafiy taxallusi bilan ijod etgan "Qandiya yoxud kitob ul qand fi tarixi Samarqand" asari muallifi Abu Hafs Nasafiydir. Asarda Samarqand tarixiga doir muhim manbalar mavjud. Samarqand shahri va uning tuprog'ida osuda yotgan avliyolar haqida, qadamjolar haqida, Yusuf Hamadoniy, Moturudiy, G'ijduvoni, tarixiy shaxs Qusam ibn Abbas(Shohizinda)haqida ham to'liq ma'lumotlar bor. Tarixdan ma'lumki,Nasaf Qarshining qadimgi nomidir. Undan boshqa Nasaf nomi boshqa viloyatlarda uchramaydi. Abu Hafs Nasafiyning asarida yashab ijod etgan manzili haqida to'liq ma'lumotlarni uchratmaysiz. Lekin "Manzumat un-Nasafiyya" asariga uning zamondoshi Alovuddin Abdulmujohid Muhammad Samarqandiy (vafoti 1157) tafsir yozganligi aytiladi. Taxallusidan ko'rinadiki, samarqandlik alloma. Shu o'rinda , savol tug'iladi. Nega Nasafiy aynan Samarqand bilan bog'liq asar bitgan? Samarqandda ham Nasaf degan joy nomi bo'lgan yoki ijodkor Nasafda tug'ilib Samarqandda ijod etgan. Albatta, bu bizning taxminimiz. Bu muammoni aniqlash nasafiyshunoslarning oldidagi o'rganilishi zarur bo'lgan muammo.

Abu Hafs Nasafiy 1068-1142-yillarda Movarounnahrda qoraxoniylar davrida yashagan. Yirik muarrix, tilshunos va mudarris bo'lgan. Uning musulmon qonunshunosligiga doir "Manzumat un-Nasafiyya fil xilofiyyot" ("Kelishmovchiliklar haqida nazmiy asari), "Risolayi Najmiyya" va boshqa asarlari mavjud bo'lib, ularning bitik nusxalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti Bitik kitoblar Xazinasida saqlanadi.

XIII asr oxiri 14-asrning birinchi yarmida Movarounnahrda yashab ijod etgan nasaflik faqihlardan biri, bizgacha yagona "Fihi Kaydoniy" asari yetib kelgan alloma Lutfulloh Nasafiy Fozil Kaydoniydir. Ilmiy adabiyotlarda yetarli ma'lumotlar uchramasa-da, "Sharq qo'lyozmalari" to'plamining 4-jildida yozilishicha, Nasafiyning ushbu asari ibodat masalariga bag'ishlangan bo'lib, O'rta Osiyoda va umuman Sharqda, "Matlab ul-musolliy" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Yashagan davri yurtimiz uchun nihoyatda murakkab va nisbatan kam o'rganilgan davrga to'g'ri kelgan. Chunki davlat boshqaruvi allaqachon mo'gullar qo'liga o'tib, ilm-fan madaniyat inqilobi inqirozga yuz tutgandi. Shu sababli ham Nasafiy yashagan davrning ijtimoiy-madaniy hayoti haqidagi ma'lumotlar kam uchraydi. Allomaning tug'ilgan yili aniq emas, vafotlari 1349-yil. Kaydon degan joy Nasaf shahri qishloqlaridan bo'lishi mumkin. Kaydoniy va Nasafiy nisbasi shu sababli beriladi. Izlanishlar davomida Lutfulloh ibn Umar an-Nasafiy ya'ni ibn Umar deb kelgan nusxasi borligi ham aniqlangan. Anglashiladiki, otasining ismi Umar bo'lgan. Asar 14-asrning birinchi yarmida yozilgan. Unda islom fiqhining asoslari bo'lmish namozga doir masalalar keng va tushunarli berilgan. Risola qalamga olingandan boshlab to 19-asrning 2-yarmigacha madrasalarda fiqh fanidan boshlang'ich darslik sifatida o'qitib kelingan. Asarning arab, fors, turk tillariga tarjima qilinganligi ham nihoyatda mukammal bo'lganligini isbotlaydi.

Asar islom an'analariga muvofiq Alloh taolaga hamd va uning suyuqli Rasuliga salovatlar, as'hobi kirom va ulamon solihinlarga maqtovlar bilan

boshlangan. Namozga oid shar'iy hukm haqida, amallar haqida to'xtalganda ularni "buyurilgan" va "buyurilmagan" amallarga ajratilgan. Lutfulloh Nasafiy yozadi: "Bilginki, banda Alloh taologa itoat qilib savob topish yoki unga osiylik qilib azoblanish orasida sinaladi. Sinov biror bir ishni qilish va qilmaslik e'tibori bilan mashru' va g'ayri mashru' amallarga bog'liqdir"[3.25]. Anglashiladiki, Allohning yaratgan bandasi biror amalni qilish va qilmaslik doirasida sinaladi. Inson doimo sinovda bo'ladi. Unga qiyinchilik, mashaqqat, mehnat yuborilib sinovdan o'tkaziladi. Aslida bugun bosayotgan har bir qadamimiz sinov emasmikan? Har bir harakatimiz, so'zimiz imtihondan, oliy imtihondan o'tmayaptimikan? Aynan "Fiqhi Kaydoniy" asari o'sha davr uchun ham, o'zidan keyingi davr uchun ham, bugungi kun uchun ham o'z hissasini qo'sha oldi, qo'sha olgan va qo'sha olmoqda, bundan keyin ham qo'sha oladi. O'rta Osiyoda birinchi marta Muhammad Rahimxon Feruz tomonidan ishga tushirilgan milliy matbaada ham "Fiqhi Kaydoniy"ning birinchi marta nashr etilganligi asarga berilgan yuksak bahodir. Alloma yozadi: "Farzning hukmi shuki, uni qilgan kishi savob topadi, uzrsiz qilmasa, azoblanadi. Ammo uzr sababli qilolmay qolsa, gunohkor bo'lmaydi" [3.16]. Demak, biror farzni uzrli tarzda qilolmay qolsa, kishi azoblanadi.

Nasafiy taxallusi bilan ijod etgan yana bir alloma Aziziddin Nasafiydir. Nasafda tug'ilgan bu zot dastlabki savodni shu yerda chiqarib, keyingi tahsilni Buxoroyi sharifda o'rgangan. Uning ustozlari Sa'diddin Hamaviy Najmiddin Kubroning peshqadam xalifalaridan bo'lgan. Alloma 13-asr boshlarida tug'ilgan, ammo tug'ilgan yili aniq emas. 1273-yil Buxoroni tark etgan, Eronga borib, Bahrobod, Sifahon, Sheroz, Abrko'h shaharlarida yashagan va 14-asr boshlarida Abrko'hda vafot etgan. Asarlari turk, nemis, ingliz, fransuz tillariga tarjima qilingan. N. Komilov alloma haqida quyidagilarni keltiradi: "Aziziddin Nasafiyni inson tadqiqotchisi deyish mumkin, chunki uning barcha risolalarida inson hilqati, iste'dodi va nuqsonlari, insonni kamol toptirish masalalari o'rganiladi. Uning fikricha, inson koinotning kichraytirilgani, insonda barcha ilohiy va moddiy olamlarning xislati jamuljam. Inson shuni anglashi va o'z ruhi

javharini anglashi lozim”[4.5]. Bu satrlardan barchamiz uchun tushunarli bo’lgan: inson o’zini anglagandagina, poklagandagina inson degan nomga munosib va loyiq bo’ladi, degan ma’no anglashiladi. Bugungi kunda Aziziddin Nasafiyning bizga ma’lum asari “Zubdat ul-haqoyiq”dir.

Men Qarshi tumaniga qarashli Qovchin qishlog’ida tavallud topganman. Aynan ana shu qishloqda Abu Muin an-Nasafiy ziyoratgohi joylashgan. Nasafda tug’ilgan alloma Moturudiy ta’limotini davom ettirib, yozgan asarlarida aynan shu ta’limot mohiyatini, dinning mazmunini, bilimning ta’rifini haqqoniy tarzda ochib bergan. 1046-1114-yillarda yashab o’tgan bu zot yigirmaga yaqin asarlar muallifidir. Umar ibn Muhammad Nasafiy “Al Qand fi zikri Samarqand” asarida Abu Muin Nasafiy haqida quyidagi fikrlarni keltiradi “Sharq-u g’arbning olim-ulamolari Abu Muin Nasafiy ilmining dengizidan bahra topib, u taratgan ziyo nurlarini ko’zlariga to’tiyo qilib surtganlar”[7.6]. Xo’sh, Abu Muin Nasafiy taratgan ziyo nimadan iborat edi? Birinchidan, muallif moturudiya ta’limotining mohiyatini ochib bergan. Ikkinchidan, islom dinining g’arazli raqiblariga, uni noto’g’ri talqin etuvchilarga nisbatan o’z asarlarida javob bergan. Muallifning mashhur asarlaridan biri “Tabsiart-ul adilla fi usulid din”(“Din asoslari bo’yicha dalillar bayoni”)dir. Asarda Alloh taoloning sifatlarini tasdiqlash, ilm sifati borasida, olamning yaratuvchisi bor ekani haqida mulohaza yuritiladi. Alloma “Alloh taoloning sifatlarini tasdiqlash” bobida “Olamlarni yaratgan Zotning barcha nuqsonlardan pok holda Qadim ekanligi sobit ekan, U Zotning Hay(Tirik), Qodir(barcha narsaga qodir), Same’ (Eshituvchi), Basir(Ko’ruvchi) va Olim(barcha narsani Biluvchi)ligi ham sobit bo’ladi”[5.4]deya fikr bildiradilar. Zero, bizni yaratgan Alloh har narsani Ko’ruvchi, Eshituvchi, Qodir va Biluvchi zotdir.

Bugun dunyo ahli globallashuv jarayonida mobil qurilmalardan, kompyuter, telefonlardan foydalanib insoniy tuyg’ularda, fazilatlarda, munosabatlarda xato va kamchiliklarga, ko’ngil og’ritishlarga yo’l qo’ymoqda. Inson o’zi yaratgan telefonga o’zi mahliyo bo’lib, ko’p vaqtini shu buyumga sarflamoqda. Vafosiz yor deya ta’riflangan bu matohlarni o’zimizdan-da aziz,

yaqinlarimizdan-da yaqin ko'rishimiz kishini o'yga toldiradi. Nasafda ijod etgan Abu Hafs Nasafiy, Lutfulloh Nasafiy, Aziziddin Nasafiylar bugun insoniyat yo'l qo'yayotgan kamchilklarning, qusurlarning oldini olish yo'llarini, Allohni tanish, uni doim zikr etishni asarlariga jo etganlar."Fiqhi Kaydoniy" asari madrasalarda ko'p o'qitilgani bois talablar orasida quyidagi forsiy bayt keng tarqalgan ekan:

To naxoni "Fiqhi Kaydoniy"

Lazzati ilmi namidon"

Ma'nosi:

Toki "Fiqhi Kaydoniy"ni o'qimas ekansan,

Ilmning lazzatini bila olmasan [3.98].

Biz ham buyuklar asarlarini o'qib, o'rganib, yosh avlodni ham shu asarlardan bahramand etaylikki, nasaflik allomalarni faqat nasafliklar yoki shu soha izlanuvchilari emas, butun O'zbekiston ahli, butun dunyo bilsin. Aziziddin Nasafiy "Zubdat ul-haqoyiq" asarida yozgandi:

Bir savat shirmoy non turar boshingda,

Tilaysan eshikdan burda non nechun?

Kishilar eshigin taqillatguncha,

Qoqsang-chi, ey nodon, dilning eshigin?! [4.87-b].

Ota-ona bugun kitob mutolaa qilsagina ertaga farzand ham kitobni o'ziga do'st biladi. Buning aksi bo'lsa, farzand o'zga do'stlar eshigini taqillatishga majbur bo'ladi. Farzandlarimizning kelajakda komil inson, din-u diyonatli bo'lishlarini istasak, bugun o'zimiz kitob o'qiylik. Abu Muin Nasafiy, Aziziddin Nasafiy, Lutfulloh Nasafiylar asarlarini o'qish, o'rganish, mushohada etish uchun ularning asarlari nashrlarini ko'paytirish, konferensiya, anjumanlarni yanada dolzarblashtirish zarur.

Men Nasafdek buyuklar yetishib chiqqan makonlda tavallud topganimdan, mana shu go'shada yashayotganimdan faxrlanaman. Imom Muin Nasafiyga hazratlariga munosib avlod bo'lish mening oliy burchim sanaladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Hafs Nasafiy. Qandiya yoxud kitob ul-qand fi tarixi Samarqand. – Samarqand: Minjoh, 2005.
2. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. – Toshkent: Kamalak, 1996.
3. Aziziddin Nasafiy. Bahouddin Naqshband. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Imom Muin Nasafiy. Tabsiratul adilla fi usulid din. – Toshkent: Movarounnahr, 2018.
5. Nasafiy Fozil Kaydoniy. Fiqhi Kaydoniy. –Toshkent: Toshkent islom unstituti, 2009.

ID-020-30-A060

Mirzohid Umarov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

GO'RO'G'LI TURKUM DOSTONLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Turkiy xalqlar og'zaki poetik ijodida Go'ro'g'li turkum dostonlarining o'rni va ahamiyati muhim bo'lib, aksariyat turkiy xalqlar, xususan, o'zbek, turk, turkman, ozarbayjon, qozoq, qoraqalpoq, tatar, shuningdek, turkiy bo'lmagan tojik, grujin, Kavkazorti xalqlari folklorshunosligida sevib mutolaa qiladigan dostonlar tarkibiga kiradi. Go'ro'g'li turkum dostonlarining bu qadar ko'p xalqlar adabiyotida mavjudligi, uning tom ma'noda ko'lamini oshirib, ilmiy jihatdan qiyosiy tadqiq etish, o'rganish dolzarbligini, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, shu jumladan, turkiy folklorshunoslik jihatidan muhim qilib qo'yadi. Ushbu maqolada o'zbek va turkman xalq og'zaki ijodidagi Go'ro'g'li turkum dostonlarining, asosan, tematik va syujet asosidagi o'zaro mushtarak, o'xshash, shu bilan birgalikda, farqli, tafavutli tomonlari xususida qiyosiy jihatdan ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: *folklor, xalq og'zaki ijodi, o'zbek, turkman, Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li.*

Annotation. The role and significance of the Gorogly series of epics in the oral poetic work of the Turkic peoples is significant, and most Turkic peoples, in particular, Uzbek, Turkish, Turkmen, Azerbaijani, Kazakh, Karakalpak, Tatar, as well as It is one of the epics loved by non-Turkic Tajiks, Georgians and Caucasians in folklore. The existence of the Gorogly series of epics in the literature of so many peoples, increasing its real scale, is important in terms of scientific comparative research, the relevance of the study, literature, folklore, including Turkish folklore. makes This article provides a comparative overview of the common, similar, but at the same time, different, different aspects of the Gorogly series of Uzbek and Turkmen folklore, mainly thematic and plot-based. data are given.

Keywords: *folklore, public folklore, Uzbek, Turkmen, Gorogly, Korogly.*

Go'ro'g'li dostonlari xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo'lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo'lib, Yaqin va O'rta Sharqda juda keng tarqalgan. Bu turkum o'zbek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, tatarlarda Go'ro'g'li; turkmanlarda Go'ro'g'li, Ko'ro'g'li, Qaro'g'li, ozarbayjon, gruzin, turk va boshqalarda Go'ro'g'li nomi bilan shuhrat qozongan. Go'ro'g'li, asosan, turkiy xalqlarning sayyor dostoni hisoblanadi. Mutaxassislar dostonni ikkita katta – O'rta Osiyo va Kavkazorti guruhiga bo'lib tasnif qilishadi. O'zbek, qozoq, qoraqalpoq versiyalari O'rta Osiyo guruhini tashkil etsa, turk, ozarbayjon, qrim-tatar, arman variantlari Kavkazorti guruhiga kiradi. "Aslida o'zbek elida tarqalgan "Go'ro'g'li" dostonlarining soni yuzdan oshadi" [2. 112-bet].

O'rta Osiyoda islom dini kirib kelishidan burungi davrlarda maydonga kelgan. Ba'zilari bundan uch-to'rt asr ilgari yaratilgan va zamonamizga qadar juda ko'p xalq shoirlari tomonidan har qaysisining o'z zamoni talablariga ko'ra qayta-qayta ishlanib, ko'p variantlarda bizgacha yetib kelgan. "Go'ro'g'li" dostonlari turkumi xalq bahodirining ajoyib-g'aroyib holda tug'ilishi va qahramonona yoshligini tasvirlovchi "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Go'ro'g'lining bolaligi" dostonlari bilan boshlanadi. Ularning Po'lkan variantida tasvirlanishicha, Go'ro'g'lining bobosi To'liboy sinchi Mari yurtining begi Qovishtixonning o'g'li bo'lib, yoshligida Yovmit podshosi Odilxonga asir tushadi. To'liboy sinchi xizmatlaridan ko'ngli to'lgan Odilxon qizi Bibi Oyshani unga nikohlab beradi. Bularan bo'lg'usi qahramonning otasi Ravshan tug'iladi. Taka-Yovmit yurtining doimiy dushmani Shohdorxonning navbatdagi bosqinchiliklaridan birida Ravshan, shuningdek, Taka-Turkman begi Jig'alixonning farzandlari Gajdumbek va Bibi Hilollar Zangar yurtiga asir tushib ketadi. Zangarda Ravshan bilan Bibi Hilol tasodifan uchrashib qolib, bir-birlarini sevib qoladilar va turmush quradilar. Bu orada Ravshanning sinchiligi xabari Shohdorxonga yetib keladi. Shohdorxon uni saroyga chaqirib, otlarini ko'rsatadi. Ravshan bular ichida tulpor yo'qligini aytib, holvachining otini maqtaydi. Achchiqlangan xon Ravshanning ko'zlarini o'yib oladi. Ravshan ko'r

ko'zining xuniga holvachining otini tilab olib, shu ot yordamida qaynakasi Gajdumbek bilan Yovmitga qochadi. Zangarda qolgan Bibi Hilol qornidagi olti oylik gumonasi bilan vafot etadi. Go'rda o'lik onadan bo'lajak qahramon tug'iladi. Cho'pon Rustam uyuridagi bir baytal uni emizadi va keyinchalik Rustam yordamida shu baytalda Yovmitga qochib keladi.

Ko'rinadiki, epos an'anasiga ko'ra, Go'ro'g'lining kelib chiqishi yuqori tabaqa bilan bog'lansa-da, u, avvalo, kambag'al bir otboqar sinchining o'g'li; cho'pon Rustam tarbiyasida voyaga yetadi, xalq qahramonlariga xos g'ayritabiiy yo'sinda tug'iladi va bahodirlik kamolotiga erishadi. Bu bilan, bir tomondan, Go'ro'g'lining yoshligidanoq xonlarga, saroy aristokratiyasiga qarshi tarbiyalanganligi ko'rsatilsa, ikkinchidan, uning epik Chambil yurtining qonuniy hukmdori ekanligi har jihatdan asoslanadi. "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Go'ro'g'lining bolaligi" dostonlari ko'p planli asarlar bo'lib, ularda G'iro't biografiyasiga oid ajoyib ma'lumotlar ham bor. Bu ma'lumotlarga ko'ra, qahramonni emizgan baytal bilan Xuroson ko'lidan chiqib kelgan ayg'irdan ("suv oti"dan) urg'ochi qulun tug'iladi. Bu qulun uch yashar bo'lgach, Go'ro'g'li Rayhon arabning dong'i chiqqan tulporidan nasl olishga harakat qiladi. Natijada uchinchi ot — G'irko'k tug'iladi. G'irko'k yetti kunlik bo'lganda, onasi o'ladi. Go'ro'g'li unga turli xil hayvonlarning sutini berib tarbiya qiladi. Go'ro'g'li bilan G'iro't orasida juda ko'p o'xshashliklar bor: dostonda har ikkalasi ham uchinchi naslgacha tilga olinadi (To'liboy — Ravshan — Go'ro'g'li; qahramonni emizgan baytal — "suv ot" — G'irko'k); ikkalasi ham yetim; ikkalasi shirxo'ra va hokazo. Bu bilan qahramon va uning jangovar oti o'rtasida eposga xos ajoyib bir aloqa yuzaga keltiriladiki, bu butun turkum bo'ylab izchil davom etadi. Dastlabki dostonda yosh qahramonning chiltonlar bilan uchrashuvi, kelajak yo'lining oldindan belgilanishi, epik Chambil yurtining bunyod etilishi, Yovmit eliga xon qilib ko'tarilishi kabi voqealar juda qiziqarli tasvirlanadi. Shohdorxon va Ravshan, Ravshan va Urayxon, Rayhon va Go'ro'g'li to'qnashuvlarida butun turkumga xos bo'lgan ijobiy va salbiy sifatlar namoyon bo'ladi. Turkumning ushbu dastlabki dostonlaridayoq o'zbek "Go'ro'g'li" sig

xos bo'lgan cheksiz fantaziya, ko'z ilg'amas geografik va etnografik kengliklar to'la namoyon bo'ladi. Bu hol, ayniqsa, "Yunus pari", "Misqol pari", "Gulnor pari" dostonlarida yanada yorqin ko'rinadi. Bu asarlar Go'ro'g'lining uylanishi va shu bilan bog'liq qahramonliklariga bag'ishlangan. Epik an'anaga ko'ra, Go'ro'g'lining ikki xotini — Yunus pari va Misqol parilar (Po'lkan varianti bo'yicha uchinchi — Gulnor) bor. Ular Ko'hi Qofda Eram bog'ida yashaydi, ularni juda katta g'ayritabiiy kuchlar — devlar qo'riqlaydi. Parilar Go'ro'g'liga ilgaridan "belgilangan" bo'lsa-da, ularni qo'lga kiritish uchun yuksak jismoniy kuch bilan bir qatorda aql, farosat, usta tadbirkorlik ham kerak edi. Go'ro'g'li buni qoyil qilib bajaradi. Dostonlarda parilar podsholigi, undagi saroy va oilaviy hayot inson turmushining ideal ko'rinishi sifatida keng, hayotiy lavhalarda juda real tasvirlanadi. Baxshi inson turmushi bilan bog'liq hayotiy, tarixiy va etnografik tafsilotlarni muhabbat bilan bayon etadi. Kitobxon va tinglovchi shunday bir bepoyon fantastik olamga olib kiriladiki, aqlbovar qilmas bu yuksak olamda inson turmushi, tafakkuri, kurashlari, hasrati va xursandchiligi namoyon bo'ladi. Real hayot bilan mustahkam bog'liqlik bunday chiroyli fantaziyalar namunalarini "Go'ro'g'li" dostonlaridan istagancha topsa bo'ladi ("Balogardon", "Malikayi Ayyor", "Mashriqo" va boshqa dostonlarni eslash kifoya). Turkumda Go'ro'g'li va Chambil yurtining doimiy tashqi dushmanlari sifatida Rayhon arab, Bektosh arab, Xunxorshoh va boshqalar tilga olinadi. Shirvon xoni Rayhon arabning Go'ro'g'lining yangasi (Ahmad Sardorning xotini) Xoljuvonni olib qochib ketishi va, o'z navbatida, yosh Go'ro'g'lining Rayhon arabning qizi Zaydinoyni tog'asiga keltirib berishi ("Zaydinoy" dostoni) ular o'rtasidagi qator dushmanlik harakatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday dushmanlik harakatlari ko'pchilik asarlarda epizodik tarzda tilga olinsa, ayrim dostonlarda ("Rayhon arab", "Chambil qamali", "Bektosh arab", "Xoldorxon" va boshqalar) bu narsa ikki taraf o'rtasidagi haqiqiy jang tarzida kengaytiriladi. Lekin bosqinchilik urushini har gal arab yoki xunxor hukmdorlar boshlaydi va har gal ular Go'ro'g'lidan yengiladi."... turkumlanish xususiyatlari, syujet sostavi va dostonlarning soni

jihatidan ham obrazlar talqini tomonidan ham ular boshqa-boshqa hodisadir” [1. 6-7-betlar].

“Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari ko‘pgina xalqlar orasida juda keng tarqalgan bo‘lib, ayrim xalqlarda baxshilar tomonidan hozir ham kuylanib kelinmoqda. Bu dostonlar o‘zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, turk, qozoq, qoraqalpoq, arman, gruzin, kurd xalqlari epik ijodiyotida o‘ziga xos turkumlarni tashkil etadi. “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari har bir xalq eposida shu xalq orzu-istaklari asosida yaratilgan qahramonni aks ettiradi. Shu jihatdan ularda o‘zaro o‘xshashlik va farqli tomonlari yuzaga keladi.

O‘zbek va turkman versiyalarida dostondagi sirli voqealarda bir xillikni ko‘rishimiz mumkin. Bo‘lajak qahramonning yoshlik chog‘idagi g‘ayritabiiy “telbaliklari”. Bu holat dostonning o‘zbek versiyasidagi bir qator o‘rinlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Dastlab Xunxor yurtida yosh Go‘ro‘g‘li “Shuytib har kuni ko‘chalarda bolalarning oshiqlarini yutib, zo‘rlik qilib olib, urush qilib, yoqama-yoq bo‘lgan bolalarning qulog‘ini ushlab yulib oldi, bir xilini ushlab bosib olib pichoq bilan tilib oldi, belgi qildi. Shunda haligilar “yaxshi bo‘ldi, o‘ldirmadi” deyishib quvonib qoldi. Yosh bolalar G‘o‘ro‘g‘lidan qo‘rqib, ko‘chaga tirq etib chiqolmay qoldi. Buni otalari eshitib, amaldor-hokimlari o‘z ortalarida gap qildi”. Ahvol shu darajaga yetadiki, Go‘ro‘g‘li Shohdorxonning Badkir polvonini o‘ldirib, bu yerdan ota yurtiga ketishga majbur bo‘ladi. Lekin Xoljuvonnini Rayxon arab olib ketgach, Go‘ro‘g‘lining “dali”lillari haddan oshadi. U Bolli ko‘lga borib, “Tong qorong‘usi boy cho‘ponlarning nonini tortib olib yeydirgon bo‘ladi. Cho‘ponlar, podachilar non-oshlarini dalaga chiqarib yeyolmaydi. Go‘ro‘g‘li shu tariqa kun o‘tkarib yura berdi” deb hikoya qilinadi. Dostonda bu xatti-harakat Go‘ro‘g‘lining yangasini o‘g‘irlatib qo‘yganligi alami, deb izohlagan. Araz shu darajaga yetib bordiki, Go‘ro‘g‘li Ahmad sardor yuborgan odamlarni ham urib, o‘ldirib, bir xillarining qo‘llarini sindirib jo‘natadi. Dostonning turkman versiyasida ham ayni holni uchratamiz va har ikkala versiyada ham Ko‘ro‘g‘li/Go‘ro‘g‘lining yoshligidagi telba xatti-harakatinng asl sabablari bizga qorong‘u bo‘lib qolaveradi. Chunki xalqning

himoyachisi bo'lishi kerak bo'lgan qahramonning o'zgarar qatori o'z xalqi, yaqin qarindoshlariga nisbatan bu dalilliklari bir arashda epik ideal haqidagi tasavvurlar qolipiga sig'maydi. Nega shunday? Biz duch kelgan eng asosiy dastlabki savol mana shu.

Go'ro'g'li dostonning o'zbek, turkman, ozarbayjon versiyalaridagi "alpning qayta yaralishi" voqelari o'zaro qiyoslansa, ular bir-birini to'ldiradi va eposdagi alpning qayta yaralishi" motivini qayta tiklashga imkon beradi:

a) "alpning qayta yaralishi" amalga oshuvchi joy:

- o'zbek versiyasida : tog', chiltonlar g'ori;
- turkman versiyasida : cho'l, ulkan chinor tagi;
- ozarbayjon versiyasida: tog' ustidagi sirli buloq.

b) "alpning qayta yaralish" tafsilotlari:

- turkman versiyasida: Go'ro'g'linig ko'ksi yorilib, barcha a'zolari nur bilan yuviladi;

- ozarbayjon versiyasida: Mag'rib va Mashriqdan chiqqan yulduzlar qo'shib, ularning nuri Qo'shabuloqqa tushgach, suvning ko'pirib toshishi va karomatli-ilohiy ichimlikka aylanishi hamda qayta yaralishning shu suv vositasida amalga oshirilishi;

- o'zbek versiyasida: chiltonlar davrasida ilohiy ichimlikni ichib, koinot sirlaridan voqif bo'lishi, sohibqironga aylanishi;

c) "alpning qayta yaralishi" da ishtirok tuvchi shifobaxsh "ilohiy suv"

Ozarbayjon versiyasidagi yulduzlar nuridan ko'pirib, ilohiy quvvat oluvchi buloq suvi motivi o'zbek va turkman versiyalarida sharob-u antaxur bilan almashirilgan. Lekin mohiyat bir xil.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari xalq hayoti, turmush-tarzini, orzu-umidlari va ideallarini, axloqiy-estetik va ijtimoiy qarashlarini keng planda tasvirlovchi epopeyadir. "Go'ro'g'li" turkumi dostonlari xalq hayoti va turmushini, uning orzu-umidlari va yuksak maqsadlarini, ma'naviy-estetik olamini keng miqyosda badiiy aks ettiruvchi asar sifatida bebaho meros sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat:

1. Mirzayev T., Husainova Z. Go'ro'g'li o'zbek xalq dostonlari. -T.:Sharq, 2006.
2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuarlari. -T.:Fan.
3. Turdimov Sh. "Go'ro'g'li" dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. -T.:Fan, 2011.
4. O'zbek xalq poetikasi ijodi. -T.:O'qituvchi,1980.

ID-020-30-A061

Mohichehra Muhammadiyeva

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 4-kurs talabasi

“ZARBULMASAL”DA QUSH OBRAZLARI TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyotida ko'p uchraydigan ramziy qush obrazlari o'rganilgan. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida tasvirlangan qushlar obrazi tahlil qilingan. Asarning adabiyotda tutgan o'rni va o'ziga xosliklari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *Adabiyot, ramz, feodal, psixologiya, qushlar, majoz, asar, ijod.*

Annotation. In this article, mystical and symbolic bird characters which were often noticated in were studied. Birds, which eas sumbolic character in the “Zarbulmasal” of Gulxaniy was analysed. The role of the play in literature and it's features were explained in this article.

Key words: *literature, symbol, bird, myf, feodal psychology, trope.*

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Muhammad Sharif Gulxaniyning hayotiga nazar soladigan bo'lsak, uning ijodida turli xil janrlarni uchratishimiz mumkin. Gulxaniy XIII asrning so'ngi choragi va XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon adabiy muhitiga o'zining munosib hissasini qo'shgan. Amir Umarxon hukmronligi vaqtida Gulxaniy saroyda ijod qilgan. Gulxaniy haqidagi ayrim ma'lumotlar Fazliy Namoangoniyning “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida uchraydi.[1.38bet] Shuningdek, ushbu tazkirada Gulxaniy asarlariga bir necha o'rin ajratilgan. Uning har bir asari adabiyotimiz tarixida muhim o'rin tutadi. Xususan, “Zarbulmasal” asari zarbulmasal janrining yorqin namunasi hisoblanadi. Zarbulmasal – maqol, matal va ramzli hikoya asosida yaratilgan ta'limiy hikoyalar. Zarbulmasalda majoziy ma'no, kinoya, ramz yetakchi vosita sifatida qo'llaniladi. “Kalila va Dimna”, “Marzbonnoma”, “Sindbodnoma”, “Qobusnoma”, Sa'diy Sheroziyning “Guliston”i, Muhammad Ali

Habaliyning “Jome uttamsil” asari zarbulmasalga misol bo‘la oladi. Gulxaniy va Rojiyning “Zarbulmasal” asarlari zarbulmasalning mukammal namunalari hisoblanadi. Xususan, Gulxaniy ushbu asari orqali XVIII – XIX asrlardagi jamiyatdagi yaramas urf- odatlarni fosh qilgan. Asarda 400 ga yaqin xalq maqollari, Gulxaniyning o‘zi yaratgan maqolsimon hikmatli so‘zlar, sajlar, masal va rivoyatlar to‘plangan. Ushbu asar o‘zining ijtimoiy qimmati bilan alohida ajralib turadi. Umarxon davridagi fisq-fujurlar, munofiqliklar, xon va uni o‘rab olgan arkoni davlat tayanchlari tomonidan xalq boshiga keltirilgan qora kunlar Gulxaniydek hassos shoirning saroy ahliga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirib yubordi. Chunki, u mehnatkash xalqning og‘ir hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar xalqni talash hisobiga bo‘lishini payqadi. Natijada Gulxaniyning saroy ahliga nisbatan nafrat hissi ortib bordi. Ammo bularning barchasini ochiq shaklda ifoda etishning iloji yo‘qligi sababli “Zarbulmasal” majoziy asarini yozishga kirishdi. U asarda majoziy Yapaloqqush, Boyog‘li, Ko‘rqush, Ko‘lankir sulton, Hudhud, Sho‘ranul, Malik shohim, Kordon obrazlari orqali saroy amaldorlarining xulq-atvor va xususiyatlarini ochib bergan. Asar voqeasi “Farg‘ona iqlimida” joylashgan “eski bir shahristonda” ro‘y beradi. Gulxaniy qushlarning murakkab munosabatlari orqali o‘z davri ijtimoiy hayotining tanqidiy manzarasini yaratgan. U asarda Boyog‘li va Yapaloqqushlarning quda bo‘lish voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to‘y bahonasi bilan butun mamlakatni xonavayron qiladi. Bahs va tortishuvlardan so‘ng qiz tarafga beriladigan qalin miqdori ming chordevor deb belgilanadi.

– Ko‘rki burunduq kishining qo‘lida,

Bu kishining ko‘zlaro o‘z yo‘lida,

Menda agar zarra kabi ixtiyor

Bo‘lsa edi, bo‘lmas edim zeri bor [2. 26-bet].

Aynan ushbu o‘rinda yozuvchi oddiy xalqning ayanchli ahvolini ularning o‘z erklari o‘zlarining qo‘lida emasligini aytib o‘tgan. Saroy ahli-a‘yonlari esa faqat o‘z manfaatlarini o‘ylaganligi, ular uchun xalqning ahvoli qiziq emasligi

juda ta'sirli ochib berilgan. Ushbu jarayonda esa yuqorida ta'kidlangan qushlar faol ishtirok etishadi. Xususan, Boyog'li obraziga to'xtaladigan bo'lsak, u Islomdan oldin johiliya davrida "Boyog'li bexosiyat qush, u qo'ngan joy xarobaga aylanadi" degan botil tushuncha mavjud bo'lgan. Islom dinida esa har bir jonzotlarning muqaddas ekanligi ta'kidlanadi. "Yerda sudralib yuradigan har bir jonivor, osmonda qanot qoqayotgan har bir qush xuddi sizlar kabi (Bizning qo'l ostimizdagi) jamoalardandir" (An'om, 38). Gulxaniy Boyog'li obrazi orqali xalqni ahvolini og'irlashtirgan, tekinxo'rlikka moyil bo'lgan feodallarni tasvirlagan. Mol dunyo ko'zini ko'r qilgan Boyog'li hatto o'z qizini pulga almashtiradi. Aynan ushbu xolatni Gulxaniy yashagan davrda juda ko'p kuzatish mumkin edi. Yosh qizlarni majburlab, o'zlaridan ancha katta amaldorlarga turmushga berish, ularning guldek taqdirini xazon qilish odat tusiga aylangan edi. Shuningdek, jamiyatning taraqqiy etishi, xalq manfaati xonni va hatto saroy amaldorlarini ham umuman qiziqitirmagan. Bu holatlarning barchasi Gulxaniyga juda qattiq ta'sir qiladi va majoziy qush obrazlari orqali ushbu jarayonni tasvirlaydi. Yapaloqqushning qizi Gunashbonu asarda quyidagicha ta'riflanadi:

*Orazidin shamsu qamardur xijil,
So'zlaridin shahdu shakar munfail,
Hosili umri erdi ul boyni,
Oti Gunashbonu o'shal oyni[2. 30-bet].*

Yapaloqqush obrazi orqali esa pastkash, ayyor, rahmsiz inson obrazlari ochib berilgan. U Ko'rqushni sovchi qilib Boyog'li xonadoniga jo'natadi. Ko'rqush og'lini otini so'raganda "O'g'limning muborak oti Kulonkir sultondir" deb javob beradi. Shunda Ko'rqush quyidagicha javob beradi: "Kulonkir ot qo'yimoq sening haddingmu? Bu ot – Humo, Uqob, Qarchig'ay, Bahrin, Lochin, Itolgu qushlarning salotinidurlar, alarga munosib ot turur"[2. 31-bet]. Ko'rinib turibdiki, Yapaloqqush og'lini ismini qo'yishda ham nafs amriga beriladi. Kulonkir sulton ham o'z o'rnida xasis, farosatsiz obraz sifatida tasvirlangan. Negaki, Ko'rqush uning oldiga borganida qolgan oshdan suzadi.

Karam na erdi baxillik so'zin deding, e shoh

Oz oshni berguncha mundin ziyod o'tu olov [2. 45-bet].

Qo'yg'an oshini o'zi yeb qo'yadi. Asarda Yapaloqqushning do'sti qarg'a obrazi ham kiritilgan bo'lib, u "o'z ishiga pishiq, og'ri mishiqlik, harif ayyor, solor davlatmandlar asnofida mumsiki beor, har murda ustida tayyor, beshini mustahiqqa berib, o'n beshini qo'ynig'a urg'an" deb tasvirlanadi. Shuningdek, "Devonu lug'atit turk" asarida ham qarg'a obrazi hayot tirikchiliklariga dosh bera olmaydigan, yengil-yelpi hayot kechirgan, ochko'z, birovning haqiga ko'z olaytiradigan odamlarning obrazi sifatida tasvirlangan.

Qarg'a qali bilsa, sunin ol buz soqar,

Avchi yashib tuzoq taba menga baqar.

Och ham tashna bo'lgan qarg'a muzni buzar

Parvo qilmay tuzoq sari tumshuq cho'zar[2. 34-bet].

Jumladan, "Qutadg'u bilig"da xalqning xursandchiligi qushlar obrazi misolida umumlashtiradi. Jumladan, asarda turli xil nomdagi va turli xil ko'rinishdagi qushlar – g'oz, o'rdak, oqqush, qilquyruq, turna, kaklik, bulbul, qoraqarg'a kabilar insonlarning xuq-atvorini ochib berish uchun qo'llaniladi. Ya'ni Bug'roxonning shoh bo'lib kelishini qushlar o'zida yo'q quvonch bilan kutib olishadi. Lekin bunday xursandchilik qoraqarg'aga negadir yoqmaydi. U "tumshug'ini ko'pirtirib qag'illaydi", "uning ovozi yoqimsizroq", "dod solib yig'layotgan qizning ovozi" ga o'xshaydi.

Ular qush unin tuzdi undar eshin,

Siliq qiz oqir-teg konul bermishin

Unin utti kaklik kuldr qatg'ura

Qizil ag'zi qan-teg qashi qap-qara.

Qara chumg'uq utti suta tumshuqi

Uni og'bag'u qiz uni-teg taqi[3. 75-bet].

Asarda Qoraqarg'a Bug'roxonning shoh bo'lishini, uning adolat bilan siyosat yuritishini xohlamaydigan, ya'ni yangi adolatli bekning dushmanlari sifatida tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, asarda qushlar obrazi orqali XI-XIX asrlarda badiiy adabiyotda jamiyatdagi nochorliklar, feodal psixologiya, ijtimoiy qatlam doirasidagi munosabatlar tasvirlanadi. Qush obrazlari muayyan bir toifa kishilarining yashirin aloqa vositasi bo'lib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida ma'lumot bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Badiiy adabiyot va tasavvuf timsollari. – Toshkent: 2010.
2. Gulxaniy. “Zarbulmasal” va g'azallar. – Toshkent: 1960.
3. Mahmud Qoshg'ariy. “Devonu lug'atit turk”. – Toshkent: 1984.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик, 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2006.

ID-020-30-A062

Mohiniso Shomurodova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

“G'AROYIB US-SIG'AR” DEVONINING TUZILISHI VA DEVONDAN O'RIN OLGAN MUMTOZ SHE'RIY JANRLAR TASNIFI

Annotatsiya. Besh asr davomida Navoiy lirikasi o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga chuqur kirib borib, mustahkam o'rin egalladi. Navoiyning hech bir asari xalqimiz orasida uning lirik devonlari kabi ko'p ko'chirilib, keng tarqalgan va chuqur tomir yoygan emas. Alisher Navoiyning mislsiz lirik merosi ko'p bor o'rganilgan, tahlil etilgan. Mutafakkir allomaning yozganlari shu qadar mazmundor va salmoqliki, har bir tadqiqotchi Navoiy merosining yangi qirralarini kashf etaveradi. Ushbu maqolada ham Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi “G'aroyib us-sig'ar” devonining tuzilishi, janrlar tarkibi haqida fikr yuritildi, she'riy janrlar misollar bilan keltirildi hamda bu boradagi shoirning mulohazalarini yana bir marotaba alohida tasnif qilishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: *devon, janr, g'azal, ruboiy, qit'a, muxammas, musaddas*

Annotation. For five centuries, Navoi's lyrics have penetrated deeply into the spiritual life of the Uzbek people. No other work of Navoi has been copied as widely and deeply rooted among our people as his lyrical collections. Alisher Navoi's unique lyrical heritage has been studied and analyzed many times. The writings of the great thinker are so meaningful and weighty that every researcher discovers new aspects of Navoi's legacy. This article also discusses the structure and genre structure of the "Gharoyib us-sig'ar" divan, which is part of Alisher Navoi's "Khazayn ul-maoniy" complex, gives examples of poetic genres and once again reflects the poet's comments in this regard and a strong attempt was made to classify them separately.

Key words : *devon, genre, ghazal, rubai, qita, muxammas, musaddas.*

Alisher Navoiy – jahon miqyosidagi shaxs, yuksak ijodi bilan she’riyat mulkining sultoni maqomiga ko’tarila olgan bebaho iste’dod egasi, inson qalbining shodlig-u quvonchi, g’am-g’ussalari, hayot va ezgulik falsafasini haddi a’losiga yetkazib tarannum etgan buyuk so’z san’atkoridirki, bu yanglig’, ham ijod, ham fazilatda benazir zotlar dunyo madaniyati tarixida kamdan kam uchraydi. O’z umri davomida ko’rgan ko’plab yaxshilik va yomonliklar, zamondoshlaridan tortgan adovatlar faoliyatining ko’pi temuriylar saltanatida tinchlik, farovonlik barqaror bo’lishi, madaniyat gullab yashnashiga sarflanganiga qaramasdan, bu fidoyi zot har jihatdan hayratlanarli ulkan ijodiy meros qoldirgan. Bu buyuk taraqqiyparvar inson o’zi yashagan davrdanoq “Xitodan Xuroson” gacha bo’lgan hududda istiqomat qilayotgan she’rsevar ellar, xususan, „turk ulusi” qalbiga purma’no nazmiy yaratmalari, nasrda ijod etilgan badiiy, ilohiy-irfoniy, tarixiy-ma’naviy va ilmiy asarlari bilan ma’rifat shu’lalarini olib kirdi. Alisher Navoiy yirik so’z san’atkori sifatida turkiy badiiy ijodni ham ma’nolar va ham shakliy jilolar nuqtai nazaridan jahoniy mavqega ko’tardi. Alisher Navoiyning merosi yuksak bir tog’ga o’xshaydi [1. 5-bet]. Ulug’ shoirning o’z ijodidan faxrlangan holda bildirgan quyidagi fikrlari asrlar davomida o’z isbotini topib kelmoqda: “Umidim uldur va xayoling’a andoq kelurkim, so’zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a’lo darajadan o’zga yerni beganmagay”[2. 508-bet]. Alisher Navoiyning ummondek teran, kamalakdek rang-barang asarlarida, uning nodir shaxsiyati timsolida “Hayotning ma’nosi nima, komil inson qanday bo’lishi kerak?” degan azaliy savolga keng miqyosdagi falsafiy javob o’zining mujassam ifodasini topgan. Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida uning shaxsi, ijodkorligi, ijtimoiy-irfoniy faoliyati haqida ma’lumat beriladi” [3.43-bet]. Bu jihatdan, ayniqsa, Alisher Navoiy she’riyati-o’zbek mumtoz adabiyoti xazinasiga qo’shilgan qiyossiz noyob durdonadir. Ulug’ shoir she’riy merosida o’ziga qadar yaratilgan Sharq mumtoz adabiyoti an’analarini davom ettiribgina qolmay, yangi badiiy timsollarga murojaat etish orqali mutafakkirona

qarashlarini ifodalash bilan ularning mavzular ko'lamini boyitdi, inson ruhiyatining murakkab qirralarini san'atkorona tasvirlashga erishdi.

Binobarin, Alisher Navoiy qalami hadya etgan barcha asarlar bugungi kunda o'tmishdan bir sado, ulkan va tabarruk tarbiya maktabi hisoblanadi. Alisher Navoiy ilk devoni "Badoye ul-bidoya"ga yozgan "Debocha"sidayoq adabiyot tarbiya vositasi ekanligiga urg'u berar ekan, har qanday badiiy asar ma'rifiy fikrlar va pand-nasihatdan ayro bo'lmasligini qayd etib, jumladan, shunday yozadi: "Devon topilg'aykim, anda ma'rifatomuz bir g'azal topilmag'ay va g'azal bo'lg'aykim, anda ma'vizatangiz bir bayt bo'lmag'ay. Mundoq devon bitilsa, xud asru behuda zahmat va zoye mashaqqat tortilg'on bo'lgay" [4.21-bet].

Ulug' allomaning turkiy tildagi majmuasi bo'lmish "Xazoyin ul-maoniy" mumtoz adabiyotimiz xazinasidagi jozibali she'riyatning eng yuksak cho'qqisi sanaladi. Shoir uni to'rt devon shaklida tuzadi. Shoir o'zbek tilida yozgan deyarli barcha she'rlarini to'rt devonga ajratadi va ularning har birini inson umrining muayyan fasliga mos keladigan bir nom bilan ataydi. Undan o'rin olgan g'azallarda tarannum etilgan ezgu g'oyalar, yuksak insoniy tuyg'ular, ilohiy-irfoniy mavzular ma'naviyatimiz, dunyoqarashimiz va kundalik hayotimizda beqiyos ahamiyatga ega.

Olim H.Sulaymonovning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, Navoiy "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotini tuzish ustida bir necha yil tinimsiz mehnat qilgan va 1498- yildagina uni hozirgi holatda to'liq yakunlagan [5.43-bet]. Navoiy kulliyot devonlarini o'zaro mustahkam bog'liq holda va qat'iy mutanosiblikda tuzadiki, ularga keyinchalik birorta g'azal kiritish yoki devonlar tarkibidan birorta g'azalni tushirib qoldirish va hattoki ichki o'rinni almashtirish ham mumkin bo'lmagan.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining ichki tuzilishi jihatidan nihoyatda mustahkam tarzda tartib berilganligini shundan tasavvur qilish mumkinki, Alisher Navoiy undagi to'rt devonning har biriga teng miqdorda 650 tadan g'azal joylashtirganligidagina emas, balki shu bilan birga, shu g'azallarning

qofiyalanish tartibiga ko'ra ham har bir devonda o'zaro teng va qat'iy mutanosib bo'lishiga e'tibor qaratilgan.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti turkiy she'riyatning gultoji bo'lib, jami 16 lirik janrni o'z ichiga oladi. Bu she'riy janrlar har bir devonga muayyan tartib bilan joylashtirilgan va bu janrlarga oid she'rlarning umumiy soni 3132 taga teng. Ushbu kulliyot debocha, 2600 ta g'azal, 210 ta qit'a, 133 ta ruboiy, 86 ta fard, 52 ta muammo, 10 ta lug'z, 13 ta tuyuq, 10 ta muxammas, 5 ta musaddas, 4 ta tarjiband, 4 ta mustazod, 1 tadan musamman, tarkibband, masnaviy, qasida va soqiynomadan iborat. Har bir devonga 650 tadan g'azal kiritilgan [6.48-bet].

“Xazoyin ul-maoniy” lirik kulliyotining tarkibiga kirgan birinchi devon “G'aroyib us-sig'ar”dir. Shoir bu devonining nomlanishi haqida shunday yozadi: “...avvalg'i devonnikim, tufuliyat bahori g'unchasining ajib gullari va sig'ar gulzorining bog'chasining g'arib chechaklari bila orasta bo'lub erdi, “G'aroyib us-sig'ar” deyildi. Shoirning o'zi ta'kidlaganidek, bu devonga “Bolalik ajoyibotlari”deb nom berildi. “G'aroyib us-sig'ar”ga yetti-sakkizdan yigirma yoshgacha bo'lgan davr ichida yozgan she'rlari kiritilgan. Devonlarga she'rlar taqsimlanishining nisbiy ekanligi inobatga olinsa, devonga shoir hayotining keyingi davrlarida yaratilgan she'rlar ham kirganligi oydinlashadi.

Devonga “Xazoyin ul-maoniy”da ifoda etilgan lirik turning 16 janridan 8 janriga oid 840 ta she'r kiritilgan. Ular: 650 ta g'azal, 133 ta ruboiy, 50 ta qit'a, 3 ta muxammas, 1 ta musaddas, 1 ta masnaviy, 1 ta tarji'band, 1ta mustazoddan iboratdir [7.49-bet].

“G'aroyib us-sig'ar” dagi she'rlarning asosiy qismini g'azallar tashkil qiladi.

Navoiy ushbu devondagi g'azallarni alif harfining ofatlarining ibtidosi, be harfi balolarining bidoyati, pe harfi parivashlariniung parvozi, te harfi torojgarlarining tamoshosi, se harfi samin gavharlarining samarasi, jim harfi jamilalarining jilvasi, chim harfi chobuklarining chehragushoyligi, he harfi haromiylari husnoroyligi, xe harfi xo'blarining xiromi, dol harfi diloromlarining davroni, zol harfining zaviyu hayotlarining zufununligi, re harfi ra'nolarining

rustoxezi, ze harfi zebolarining ziynati, sin harfi siyminbarlarining savdosi, shin harfi sho'xlarining shamoyili, sod harfi sanamlarining siyti, zod harfi zamironbo'ylarining ziyosi, te harfi tannozlarining tarovati, ze harfi zariflarining zuhuri, ayn harfi iyorlarining alomati, g'ayn harfi g'izolarining g'avg'osi, fe harfi fitnalarining fusuni, qof harfi qiyomatlarining qironi, kof harfi kofirlarining kamoli, lom harfi lubatlarining latoyifi, mim harfi mahublarining malohati, nun harfi nozaninlarining nozi, vov harfining valohiyatafzolarining vaqoyiu, he harfi humoyunvashlarining halokangizlig'lari, lom alif lolaruxlarining lobasi, yo harfi yag'moyilarining yuz ko'inishlari nomlari ostida birlashtirdi.

Devondagi g'azallarning baytlar soni ham turlicha, ya'ni, 2 ta 5 baytli, 1 ta 6 baytli, 434 ta 7 baytli, 30 ta 8 baytli, 163 ta 9 baytli, 8 ta 10 baytli, 11 ta 11 baytli,

1 ta 13 baytli g'azallardan iborat.

G'azallar ichida 5 ta "Aro" radifli g'azal

Ey alifdek qomating mayli buzilg'an jon aro,

Ganji husnung javhari bu xotiri vayron aro [3.39-bet].

Kimki ko'rsamushki nob ul sunbuli serob aro,

Bir qaro tufrog'degaykim tushti mushki nob aro [3.41-bet].

Zavraq ichra ul quyosh sayr aylamas Jayhun aro,

Axtari sa'de hilol ichra kezar gardun aro [3.42-bet].

Ming zaxm urdi xanjari ishqing bu tan aro,

Bu tanni hajr tashladiyuz ming tikan aro [3.42-bet].

Ikki barmog' birla tuttum ta'lin ul ruxsor aro,

O'ylakim bulbul tutar gul yafrog'in minqor aro [3.43-bet].

Bundan tashqari, 4 ta "Manga" radifli g'azal

Vahki, ishqing zohir etsam vahm erur o'lmak manga,
Goh nihon tutsam dag'ijon xavfidur beshak manga [3.32-bet].

Garchi hajringdin erur yuz g'am-u ozor manga,
G'am emas vaslingga ummid agar bor manga [3.33-bet].

Ul malohat ganji hajrida buzug' maskan manga,
O'yladurkim, jondin ayru yuz yaralig' tan manga [3.34-bet].

Shahr biro y furqatidin bayt ul-ahzondur manga,
Bir guli ra'no g'amidin bog' zindondur manga [3.35-bet].

Xuddi shunday, devonda 3 ta “Ango” radifli g'azal mavjud. Ushbu devon tahlili davomida bu silsilani uzoq davom ettirish mumkin, albatta. Shoirning asosiy katta qism g'azallari yaxlit tuyg'u ohangiga qurilgan. Shuning uchun ularda fikriy izchillik bor. Shuni aytib o'tish kerakki, 7-8 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan davr, ya'ni umrning navbahori qismida shoir faqatgina shu yoshgacha bo'lgan she'rlarini emas, balki umrining boshqa fasllariga oid bo'lgan she'rlardan ham ushbu devoniga kiritadi. Bunday holat “Xazoyin ul-maoniy” majmuasining boshqa devonlarida ham uchraydi.

“G'aroyib us-sig'ar” devonida ruboiylar ham alohida o'rin tutadi. Ruboiy-arabcha “to'rtlik”-ikki baytdan iborat mustaqil she'r hisoblanadi.

Navoiygacha turkiy adabiyotda ruboiyning ilk namunalarini ko'proq to'rtliklar ko'rinishida (maxsus ruboiy vaznida emas) yaratilgan bo'lsa, shoir turkiy tildagi ana shu xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot hamda fors ruboiynavislari tajribalariga tayanib, mukammal ruboiylar yaratdi.

Shoir devon debochasining o'zidayoq 30 ta ruboiydan foydalangan. Devonga jami 133 ta ruboiy muayyan turkum holida kiritilgan. Tartiblangan ruboiylar mazmunida ham muayyan izchillik kuzatiladi. Dastlab hamd

ruboiylar, keyin munojat ruhidagi, undan keyin na't mazmunidagi ruboiylar keladi. "G'aroyib us-sig'ar" devonining 266 baytini ruboiy tashkil qiladi.

No'sh aylar emish qadahni jonona to'la,
Soqiy, manga tut jomi harifona to'la.
Quy, gar xud erur sipehr paymona to'la,
Har nechaki, xoli etsam, et yona to'la [3.725-bet].

Devonda qit'aning ham o'ziga xos o'rni bor. Devonda son jihatidan ruboiydan keyingi o'rinni qit'a egallaydi. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining 210 ta qit'asidan 50 tasi shu devonga kiritilgan. Qit'a-arabcha "parcha", "bo'lak", "qism"-2 baytdan bir necha baytgacha hajmda bo'lgan, faqat juft misralari qofiyalanadigan she'r shaklidir. Navoiyga qadar turkiy adabiyotda bu janrga oid namunalar juda kam uchraydi. Navoiyning qit'alari ushbu janr taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Shaho, el javhari jonin chiqarding, Javohir hirsidin bedod etib fosh.
Chu o'lgungdur ne osig' to'kmak oni Mazoring uzra andoqkim,ushoq tosh [3.717-bet].

Alisher Navoiy qit'alarining aksariyati axloq masalalari bilan bog'langan. Shoir qit'alarida didaktik g'oyalar ochiq-oydin emas, balki chuqur badiiy ehtiros bilan, haqqoniy obrazlar orqali ifoda etiladi. Bunday pand-nasihat ruhidagi baytlarni "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 10-qit'ada kuzatishimiz mumkin:

Kamol et kasbkim olam uyidin,
Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.
Jahondin notamon o'tmoq biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq [3.710-bet].

Shoirning devonidan o'rin olgan "Ul bobdakim, husn qushi ashk donasi bila sayd bo'lmasu jon rishtasi bila giriftori qayd" nomli 37-qit'asidagi lirik qahramon esa bir malomatiy qiyofasida ko'zga tashlanadi va fosiqlikning ildizini "o'zini yaxshi ko'rgazmoq" da deb biladi:

O'zni buki yaxshi ko'rguzurmen,

Billahki, menga kaliso hayf.

Lekin gar inju sochsa kishi dona o'rnig'a,

Tovusni qachon qilur o'rgamchi domi sayd [3.718-bet].

Alisher Navoiy boshqa janrlar bilan bir qatorda qit'a yozishga ham alohida e'tibor berib, ularda o'zining shoirlik mahoratini namoyish etgan. Bu qit'alarning ko'pi tarixiy voqea-hodisa va shaxslarga, shoir hasbi holi va ijodi bilan bog'liqligi jihatidan ham tarixiy hamda badiiy qimmatga egadirlar.

“G'aroyib us-sig'ar”dagi she'rlar Alisher Navoiyning janrlardan foydalanish imkoniyatining baland bo'lganligini namoyish qiladi. Jumladan, shoir lirik asarlarda juda kam qo'llaniladigan masnaviy shakliga ham murojaat qiladi. Masnaviy-arabcha “ikkilik” ma'nosini bildirib, har bandi ikki misradan tarkib topuvchi she'r tizimidir. Devondagi masnaviy “Xazoyin ul-maoniy”da yagona sanalgan. 148 baytdan iborat Hasan Ardasherga bitilgan maktubdir. Ushbu masnaviy an'anaviy kirish boblari-hamd, na't, maktub qaratilgan shaxs vasfi hamda hasbi hol vositasida shoirning ijtimoiy hayot voqealari tasviriga izchil va tadrijiy ravishda o'tishi bilan davom etadi.

Devonga “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining to'rtta tarjibandidan biri kiritilgan. Tarjiband janrning turkiy tildagi dastlabki mukammal namunasi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Har bandi 10 baytdan tashkil topgan:

Xarobat aro kirdim oshufta hol,

May istarga ilgimda sing'an safol.

bayti bilan yakunlanuvchi, falsafiy mazmundagi o'n bandlik she'rda shoir olam va odam, tiriklikning mazmun-mohiyati bilan aloqador fikr-mulohazalarini tarjiband talablari doirasida ifodalagan.

“G'aroyib us-sig'ar”ga 3 ta muxammas kiritilgan. Ana shu 3 muxammasning “Halqai zulfungda ko'nglum bo'lg'ali g'am mahrami...” deb boshlanuvchisi Lutfiyga taxmis hisoblanadi. Ma'lumki, g'azalga muxammas bog'lash Sharq mumtoz adabiyotida keng odat tusiga kirgan. Chunonchi, Navoiy ham o'zining mashur “Oqibat” radifli g'azaliga “G'aroyib us-sig'ar”

devonida “Ohkim, tarki muhabbat qildi jonon oqibat...” deb boshlangan muxammasini bog‘lagan:

Ohkim, tarki muhabbat qildi jonon oqibat,
Bo‘ldum ushbu g‘ussadin rasvoi davron oqibat,
Qolmadi maxfiy g‘amim el ichra pinhon oqibat,
Yoshurun dardimni zohir qildi afg‘on oqibat,
Asrag‘an sirrimni yoydi seli mujgon oqibat.

Mazkur muxammas to‘qqiz baytdan iborat bo‘lib, radifdagi “oqibat” so‘zi muxammasning faqat shakliy jihatdan yaxlitligini ta‘minlab qolmaydi. Chunki ana shu “oqibat” turli savollar va ularga javoblarni ham yuzaga keltiradi.

“G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kiritilgan janrlardan yana biri musaddasdir. Navoiyning quyidagi musaddasida olti misra o‘zaro qofiyalanib, keyingi bandlarning oxirgi bir misrasi ham ularga ohangdosh bo‘lib kelgan:

Subhidam maxmurluqtin tortibon dared sare,
Azmi dayr ettimki, ichgayman sabuhiy sog‘are,
Chiqti so‘gar to‘ldurub kofirvashe mahpaykare,
Naqdi din olib ichimga maydin ozare,
Vahki bdimin kishvarin tarosh qildi kofare,
Kufr eliga homi-yu din ahlig‘a yag‘mogare.

Qolaversa, „Xazoyin ul-maoniy“dagi to‘rtta mustazodning biri “G‘aroyib us-sig‘ar”dan o‘rin olgan. Devondagi Olloh hamdiga bag‘ishlangan mashhur orifona mustazod shunday boshlanadi:

Ey husnunga zarroti jahon ichar tajallo, mazhar sanga ashyo,
Sen lutf bila kav-n-u makon ichra muvalli, olam sanga mavlo [3.57-bet].

Dastlabki misralardan sezilib turibdiki, bu mustazodda Navoiyning irfoniy fikrlari ifodalangan. Xalq she‘riyati zamirida yuzaga kelgan bu janr haqida Navoiy “Mezon ul-avzon”asarida turkiy xalqlar she‘riyatiga xos she‘riy shakllardan ekanligini va maxsus vaznda bitilishi hamda o‘ziga xos tuzilishga ega ekanligi ta‘kidlangan. Bu devonga „Xazoyin ul-maoniy“dagi to‘rtta tarji‘bandning biri kiritilgan.

“Ketir soqiy, ul mayki subhi alast”

misrasi bilan boshlanuvchi ushbu tarji’band tasavvufiy-falsafiy mavzuda. Unda o’zligini va shu orqali Ollohni izlayotgan, dunyo tartibotini, undagi sir-u sinoatlarni anglashga intilayotgan solikning ruhiyati aks ettirilgan.

Xarobat aro kirdim oshuftahol,

May istarga ilgimda sing’an safol.

Shunday qilib, “G’aroyib us-sig’ar” devoni nafaqat Alisher Navoiyning devon tartiblashdagi mahoratini ko’rsatadigan manba, balki turkiy she’riyatda devon tuzishning go’zal namunasi ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ayni shunday jihatlari tufayli Navoiyning lirik merosini tubida mislsiz javohirlar, dur-u marvaridlar yashiringan ummonga qiyoslashimiz mumkin. Zero, Navoiy asarlari faxrimiz, g’ururimiz, tinimsiz o’rganishimiz kerak bo’lgan ma’naviyat xazinasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug’atayn”. “TAT”. 10 jildlik. 10-jild. Toshkent: G’afur G’ulom nashriyoti. 2013.
2. Alisher Navoiy. Badoye ul-bidoya. 20 tomlik. 1-tom. -Toshkent: Fan, 1987.
3. Alisher Navoiy. “TAT” 10 jildlik. 1-jild. -Toshkent: G’afur G’ulom . 2013.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. 1-jild. -Toshkent: Fan, 2016.
5. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. -Toshkent: “O’zbekiston”, 2015.
6. Ochilov E. Mahorat qirralari. -Toshkent: Sharq, 2006.
7. Yusupova D. O’zbek mumtoz va milliy uyg’onish adabiyoti. -Toshkent: Tamaddun, 2016.

ID-020-30-A063

Mohinur Eshonqulova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

QADIMIY INONCHNING BADIY TALQINI

Annotatsiya. Maqolada qadimiy inonchning bo'ri bilan bog'liq bo'lgan bugungi kunda ham mavjud namunalari sanab o'tiladi. Hamda ularning xalq og'zaki ijodida va badiiy asarlarda tutgan o'rni va qiymati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada ushbu inonchlarning nechog'liq haqiqatga yaqinligi yuzasidan muallif qarashlari ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar: *Qadimiy inonch, folklorda bo'ri obrazi, badiiy asarlarda bo'ri tasviri, skif-hayvonot uslubi, qadimiy inonchning bugungi kundagi ahamiyati.*

Annotation. This article lists the examples of ancient belief that are still associated today with the wolf symbol. It also discusses their place and value in folklore and art. The article also includes the author's views on how close these facts are to reality.

Key words: *Ancient belief, the image of a wolf in folklore, the image of a wolf in art, the Scythian-animal style, the modern significance of ancient belief*

Insoniyat paydo bo'lgandan beri mana necha davrlar o'tgan bo'lsa, shu vaqt davomida ko'p narsalar o'zgardi, rivojlandi, taraqqiy qildi. Biron narsaga erishdingizmi, tabiiyki, uning o'rniga boshqasini yo'qotasiz. Shu ma'noda xuddi shu davrlar oralig'ida yetarlicha yo'qotishlarni ham boshdan kechirdik. Barcha davrlarda ham insonni yashashga undaydigan bir kuch bo'lganki, shubhasiz, bu kuch ishonch, e'tiqoddir. Necha asrlar o'tgan bo'lsa ham, ishonch-e'tiqodni na o'ldirib bo'ldi, na yo'qotib bo'ldi.

Dastlabki e'tiqodning paydo bo'lishida bevosita tabiat kuchlari, insonni o'rab turgan olamdagi ajoyibotlar va o'sha davrdagi inson uchun g'ayritabiiy tuyilgan voqeliklar va buyumlar katta rol o'ynaydi. Bularning orasida

hayvonlarga e'tiqod tushunchasi ham alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon turli xalqlarda turlichadir. Masalan: hindlarda sigir muqaddas hisoblanib, unga ozor bergan jamiyatdan quvilgan. Qadimgi Misr davlatida hayvonlarga inonch kuchli bo'lganidan ular, hatto Xudo darajasiga ko'tarilgan. Ularning orasida mushuk ko'rinishidagi go'zallik xudosi-Bastet alohida ehtromga sazovor hisoblangan. Rim davlatida esa Ona Bo'riga Rim timsoli sifatida qarashgan. Zamonaviy texnologiyalar nechog'liq rivojlanmasin e'tiqod, inonch masalasiga bu zarracha ta'sir qilmaydi. Hozirgacha ularga muqaddaslik timsoli, homiy sifatida qarash mavjud. Chunonchi, deyarli barcha davlat gerblarida shu davlatda muqaddas hisoblangan qush yoki hayvon tasviri mavjud. Bu yerda, ayni paytda, o'ziga xos ramziylik ma'nosi ham mavjud.

Qadimgi turkiy xalqlarda esa bu holat ota-bobolarimizning ho'kiz, ot, ilon, bo'g'u, it va bo'rilarni muqaddas totem deb qarashlari bilan bog'liqdir. Ushbu totemlarning har biri o'zida ayri-ayri ilohiylikni qamrab olgan, har birining tag zamirida totem sifatida qarash uchun asos bor, albatta.

Aytish mumkinki, bularning orasida bo'rini muqaddaslik ruhiga yo'g'rilgan totem deb olish mumkin. Qadimgi totemistik xarakterdagi manbalarning ayrimlarida turklarning bo'riga sig'inganini, bo'rini o'zining ajdodi deb bilgani haqida ma'lumotlar berilgan. Bu afsonada hikoya qilinishicha, dushmanlar bilan tengsiz jangda halok bo'lgan turk urug'idan bitta o'g'il bola tirik qoladi, u bola ham qattiq yarador bo'lgan bo'ladi. Bir ona bo'ri uni g'orga olib borib tarbiyalaydi. Ana shu bola voyaga yetgach, undan o'nta o'g'il bola tug'iladi, bular o'nta turk urug'ining asoschilari bo'ladi. "Ona Bo'ri" nomli boshqa afsonada esa, qadimgi turklar go'yo dushman tomonidan qirilgan turk urug'i orasida tirik qolgan o'n yoshli o'g'il bola va Ona Bo'ridan tarqalgan. Qadimgi turk urug'idan bo'lgan Ashina qabilasining bayrog'ida ham bo'ri kallasining tasviri bo'lgan.

Abdurashid Abdurahmonovning "Turkiy adabiyotning qadimgi davri" nomli kitobida keltirilishicha, bo'ri totemi turkiy xalqlar og'zaki ijodida urug' boshi, balo-ofatlardan saqlovchi madadkor kuch sifatida ulug'langan.

Masalan, “O‘g‘uznoma”da bo‘ri asar syujetini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. U qabilaga g‘amxo‘r, madadkor, ularni himoya qiluvchi homiy sifatida ko‘ringan. Bunday tasvir o‘zlarini bo‘ridan kelib chiqqan deb hisoblovchi ashin urug‘i bilan bog‘lanadi. Hozirgacha xalqimiz o‘rtasida aytilib kelingan “Bo‘ri”, “Bo‘riqiz”, “Cho‘loqbo‘ri” kabi afsona va ertaklarda ham talqin etilgan bo‘ri totemik obrazi insonning xaloskori, uning himoyachisi sifatida tasvirlanadi. O‘z ajdodlarini hayvonlardan kelib chiqqan deb hisoblash yoki pahlavonlarini bolaligida kuchli hayvonlar tarbiyasigaolib, onalik qilishini tasvirlash skiflar mifologiyasiga xos bo‘lgan xususiyatlardan hisoblanadi. Bunday mifologik tushuncha qadimshunoslikda skif-hayvonot uslubi deb e‘tirof etilgan. Skiflar hayotiga tegishli qadimiy obidalarda ham hayvonlar tasviri kuzatilgan. Turkiy qabila va urug‘lar tarixiga nazar tashlanadigan bo‘lsa, tibetlar ota-bobolarimiz erkak maymundan va ayol o‘rmon ruhidan, mo‘g‘ullar kulrang bo‘ri va bug‘udan, tulislar bo‘ri va xun amaldorlarining qizidan, ashin urug‘i xun shahzodasi va urg‘ochi bo‘ridan kelib chiqqanmiz, deb aytganlar. Enasoy afsonalarida yosh bolalarga bug‘u onalik qilgan deb hisoblangan. Shuningdek, “Alpomish”da Boybo‘ri, “Qo‘rqut ota kitobi”da Boybo‘rak obrazlarining yaratilishi, “O‘g‘uznoma”da bo‘ri turkiy qavmlarni boshlovchi asosiy qahramon darajasiga ko‘tarilishi qadimiy e‘tiqodlar ifodasidir. Enasoy yodnomalaridagi Chuchuk Bo‘ri Sangun ismi ham totemlik belgisi bo‘lib, u qadimgi turkiy dostonlar bilan yodnomalar o‘rtasidagi yaqinlikni ko‘rsatadi. Keyinchalik totemik e‘tiqodlarga ishonchning susayishi tufayli ertaklarda (“Bo‘ri bilan tulki”, “Och bo‘ri”, “Bo‘ri bilan ot” va boshqalar) paydo bo‘lgan bo‘ri yovuzlik, qonxo‘rlik, zulm va zo‘rlik, bosqinchilik timsoliga aylandi. Jahon, xususan, o‘zbek badiiy ijodida bo‘ri goh salbiy, goh ijobiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi, ramziy ma‘no kasb etadi. M. Avezovning “Ko‘k yol”, Chingiz Aytmatovning “Qiyomat”, Po‘lkan shoirning “Yoldor bo‘ri” dostonlarida bo‘ri ijobiy ma‘noda tavsiflanadi. Bo‘ri timsoli xalq og‘zaki ijodining ertak janrida ko‘proq laqmalik, go‘llik ramzi hisoblanadi. Bu holatni “Susambil” xalq ertagi misolida ko‘rish mumkin.

Xalqimiz orasida bo‘rining terisi, tishlari xosiyatli hisoblanib, uning omad, boylik olib kelishiga ishoniladi. Isajon Sultonning “Bo‘ri” hikoyasida ushbu e‘tiqodning namunasini ko‘rish mumkin. Asarda inson o‘z nafs uchun, oldiga qo‘ygan maqsadi uchun xoh to‘g‘ri yo‘l bilan, xoh egri yo‘l bilan bo‘lsin erishmasdan qo‘ymasligi, bu yo‘lda hech narsadan toymasligi yoritib berilgan. Isajon Sultonning yozuvchilik uslubida bir o‘zgachalik borki, bu o‘z asar qahramonlariga ism qo‘ymasligi yoki asar syujetidan kelib chiqib g‘ayritabiiy, hech qayerda uchramaydigan ism bilan atashidir. Ushbu an‘anadan “Bo‘ri” hikoyasi ham mustasno emas. Bu uslub yozuvchining har bir asarining mantig‘ini chiqarishda katta ahamiyatga ega. Xo‘sh, hikoyada yozuvchi bu uslubni qo‘llashdan nima maqsad ko‘zlagan? Ba‘zan hayotda inson shunday vaxshiyliklar qiladiki, uni hayvondan na ism, na uning ongli ekanligi farqlab turadi. Kezi kelsa, hayvon undan mehrlil, sadoqatlidir. Balki, shu emasmikin asardan kelib chiqadigan mantiq. Hikoyaning so‘nggidan yana bir ma‘noni anglash mumkin: bir tirik jonivorning ayanchli o‘limi evaziga keladigan omad, boylik ongli inson farzandi uchun kerak emas!

Bo‘ri o‘z jufti bilan bir umr birga yashaydigan yagona hayvon hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan “Bo‘ri” hikoyasida shunday misralar mavjud: “Uni aqlli deydilar. Hayvonlar orasida shugina bir marta juft tanlab, umrining oxirigacha o‘sha jufti bilan hayot kechiradi. O‘z makonining chegaralarini erinmay belgilab chiqib, bironta jonzot kirishiga yo‘l qo‘ymaydi”. Shu manzara Said Ahmadning “Ufq” romanida ham keltirilgan. Asarda to‘qay yonayotganiga qaramay bo‘ri o‘z modasini kutib turadi. O‘ylashimcha, bu tasvir asarda noo‘rin kiritilmagan. Bu zimdan A‘zamjonning Dildordek xushro‘y, baodob ayolni tashlab ketishiga qaratilgan. Epizod orqali Said Ahmad: “Ey inson, qara, o‘rgan. Kezi kelsa, hayvon sendan vafodor, shu yovvoyi ongi yo‘q, hayvon sendan ko‘ra mehribon, sadoqatli” demoqchimasmikin. Ushbu jihatdan hozirgi inson bolalari o‘rnak olsak arziydi.

Bo‘ri o‘ta g‘ururli, qasoskor hayvon hisoblanadi. U o‘z to‘dasiga, ayniqsa, modasiga yetkazilgan zararining badalini olmasdan qo‘ymaydi. Shomirza

Turdimov o'zining "Mezon" nomli qissasida shunday hikmatli so'zni keltiradi: "Mezonni mezon buzadi". Bu misralardan shu anglashiladiki, mezonda, bir qolipda, ma'lum qoidalar asosida yashayotgan dunyoning buzilishiga boshqa mezonda yashayotgan dunyoning ta'siri bo'ladi. Agarda insoniyat dunyosi bu mezonni buzmasa edi, hayvonot dunyosi ham o'z qolipida yashayotgan bo'lardi. Normurod Norqobilovning "Ovul oralagan bo'ri" qissasida ham Cho'ngkalla o'z Oqyolini tutqunlikdan qutqarish maqsadida hech bir xavfdan hayiqmay harakat qiladi. Oqyolni qutqarish maqsadida insoniyatga zarar yetkazishdan ham toymaydi. Jonivorlar sherigining jonsiz jasadiga duch kelmaguncha judolikka ishonishmaydi. Harakatlari davomida Oqyolning nobud bo'lgani, terisi shilinib, tishlari qoqib olinganini ko'rib, Cho'ngkalla o'zida ajib bir holni his etadi. Endi bu yerda yashashdan ma'no qolmagandek, Oqyolsiz hech kimga aylangandek bo'lib qoladi. Cho'ngkalla uchun bu og'ir fojia edi, natijada u ham Oqyolning xayoli ila shu kecha jon beradi. Odatda, asarlarda hayvon obrazi ramziylikka ega bo'ladi. Zohiran xarakter, xususiyat, voqea-hodisalar shu hayvonlar misolida ko'rsatilsa-da, botinda esa bu orqali inson kamchiliklari ustidan qilingan achchiq haqiqat bo'ladi. Bu asarda ham Cho'ngkallaning Oqyolga bo'lgan muhabbati, sadoqati hozirgi zamon insonlarining bir-biriga bo'lgan munosabatidan ko'ra anchayin qiymati yuqori ekanligi shu ikki qahramon orqali atroflicha yoritib berilgan.

Shunday asarlar borki, ulardagi qahramon uchun tanlangan ism shu asarning qaymog'i hisoblanib, butun asarning mazmuni shu ism bilan bog'liq bo'ladi. Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasida bu Sotiboldining zimmasiga tushsa, Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida bu holat Bo'ri polvon bilan bog'liq hisoblanadi. Asarni o'qish davomida yozuvchi tomonidan bu nom bekorga tanlanmaganiga amin bo'lasiz. Uning har bir harakati, har bir gapi, har bir amalida bo'riga xos shijoat, qat'iylik, yuksak g'urur, or-nomusning kuchliligini ko'rish mumkin. Asar qahramoni uchun Surxondaryo hududi, polvon kasbi tanlanganligi bir taraf bo'lsa, Bo'ri ismi tanlanganligi bir taraf

bo'lib, tarozi pallasini tenglashtiradi. Bu usul qahramon xarakterini o'quvchiga yanada tushunarli bo'lishi yo'lida yaxshi samara beradi, nazarimda.

Xalqimiz orasida ba'zi qadimiy inonchlar borki, ularni eshitib, g'ayritabiiy ravishda bunga qiziqasiz. Buni Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasida keltirilgan bolaning tug'ilishi bilan bog'liq quyidagi parchada ko'rishimiz mumkin: "Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardi-yu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: "Bo'ri bolalayapti", degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon deb ism qo'ygandi. Oradan 51 yil o'tib, bu bolani men emas, bo'ri tuqqan ekan, degan xayolga bordi." Bu yerda e'tiborni tortadigan ikki jihat bor:

1. Bo'rixon tug'ilgan paytdagi ob-havoning qadimiy inonch, e'tiqod bilan bog'liq yoki bog'liq emasligi;

2. Saodat ayaning nega bunday xulosaga kelganligi.

Birinchisini olib qaraydigan bo'lsak, haqiqatan bu yerda e'tiqod masalasi bormi, yoki bo'ri chindan ham shunday ob-havo vaziyatida bolalaydimi? Fandan ma'lumki, bo'rilar yanvar oyida tullaydilar, tullash vaqti kelganda urg'ochi bo'ri uchun ayovsiz jang olib borishadi, yilda ikki marta bahor yoki kuz oylarida urchiydilar. Balki shu holat, ya'ni bo'rilarining boshqa hayvonlarga o'xshab tez-tez bolalamasligi tabiatda kamdan-kam sodir bo'ladigan hodisaga qiyosan olingandir. Agar shunday deydigan bo'lsak, yilda ikki marta urchish bu ko'plab hayvonlarda uchraydigan holatdir, garchi urg'ochi bo'ri uchun uzoq vaqt davomida jang olib borilsa-da. Balki, buning ildizi, haqiqatan ham qadimiy inonch bilan bog'liqdir. Fikrimizning isboti sifatida Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romanida yog'ib turgan laylakqorga nisbatan "Tulki qiziga to'y beryapti" iborasi ishlatilganligini keltirib o'tishimiz mumkin. Bu ikkala holat qadimiy turkiy xalqlarning azaldan qora rang, bo'ri, tulki, itga alohida e'tiqod nazari bilan qaraganligi sabab bo'lgan. Natijada, ular tabiatda ro'y berayotgan inson e'tiborini tortadigan g'ayriodatiy holatlarni ham o'zlari uchun ilohiyashtirib olganlar. Ikkinchisi, ya'ni nega Bo'rixonni bo'rining

bolasiga o'xshatdi. Bilamizki, bo'rilar tabiatan qonxo'r, yovvoyi hayvon hisoblanadi. Bo'ri bolalari ham ulg'ayguncha gala-gala bo'lib yashab, o'lja topish qiyin bo'la boshlagandan so'ng, 2 yoki 3 ta bo'lib ov qilishadi. Tabiiyki, bora-bora ular uchun ota-ona, sog'inch degan tuyg'ular yo'qolib, hayot mazmuni faqatgina qorin to'yg'izishdan iborat bo'lib qoladi. Bo'rixon ham ota-onasining bag'rida beg'am o'sdi, harbiy xizmatga borganda cherkov qo'ng'iroqchisining qiziga uylanib, shu yerlarda qolib ketadi. Agar uni Saodat ayaning o'tli-shudli nevarasi topib yo'qlamaganda, balki u hech ham kelmagan bo'lardi. Saodat ayaning bu yerda: "Men emas, bo'ri tuqqan" deyishida ham zimdan shu ma'no ko'zlangan. Ya'ni, aslida, o'sha kun tug'ilgan bo'ri bolalarining qatorida inson farzandi emas, bo'ri zurriyodi bo'lib Bo'rixon ham tug'ilgan edi.

Demak, ko'rinib turibdiki, qadimiy inonch namunalari badiiy asarlar tarkibida qo'llash orqali o'quvchining badiiy didi yana-da o'sadi. Asarni o'qish davomida keltirilgan e'tiborni tortuvchi unsurlar, g'ayritabiiy hodisalar insonni fikrlashga, o'ylashga undaydi. Buni chamandagi gullarning hididan mast bo'lib yurganingizda to'sindan ko'zga ko'ringan kapalakka o'xshatish mumkin. Xuddi shunday, badiiy asar mutolaasida voqealar rivoji, peyzaj tasviri, oshiqlar holati, ba'zan nafratlantiradigan nuqtalarni o'qiyotganingizda muallif berib ketayotgan notabiiy ma'lumotlar xotirangizda tez saqlanadi. Chunki inson psixologiyasi shundayki, u o'zi uchun g'ayrioddiy hisoblanganlarini boshqa ma'lumotlardan ko'ra tezroq xotiraga saqlaydi. Badiiy asarlarda uchraydigan qadimiy inonch bilan bog'liq rivoyatlar, ertaklar, afsonalarni shu noodatij ma'lumotlar qatoriga qo'shish o'rinli. Aytganimizdek, insonlar uchun noodatij narsalar doim qiziq bo'lgan, ular bilan bog'liq turli inonchlar yaratishgan. o'tgan vaqt davomida ishonilib kelingan inonchlar o'z-o'zidan e'tiqodga aylangan. Zamon tezkorligi sababli ularning ba'zilari unutiladi. Lekin shu esdan chiqarilganlar xoh badiiy asar, xoh ilmiy asar tarkibida o'z o'rnida qo'llanilsa, u o'qirmanni o'ziga jalb etishi muqarrar. Tabiiyki, bu holat o'z navbatida asar qiymatini yanada oshirish yo'lida o'z hissasini qo'shadi.

Xullas, Ota-bobolarimiz tomonidan ishonilgan barcha e'tiqodlar xoh ilmiy asosga ega bo'lishi, xoh bo'lmasligidan qat'i nazar, bu bizning boyligimizdir. Bu boylikni biz kelasi avlodga ham bekam-u ko'st qilib yetkazish yo'lida doimo izlanishda bo'lishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurashid Abdurahmonov. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. -Toshkent: Yangi asr avlodi. 2005.
2. Normurod Norqobilov. Ovul oralagan bo'ri.
3. Said Ahmad. Ufq. Roman. -Toshkent. Yangi asr avlodi. 2015
4. Said Ahmad. Qorako'z majnun.
5. Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. Sharq, 1994
6. Tog'ay Murod . Yulduzlar mangu yonadi. Sharq, 1994.
7. Ziyo. uz. com internet ma'lumoti.

ID-020-30-A064

Muhsinabonu Alimardonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

NAVOIYNING DEVONLARGA KIRMAGAN G'AZALLARI XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy hayotining so'nggi yillarida yozilgan, "Xazoyin ul maoniy" kulliyotiga kirmay qolgan g'azallar va ularning lirik xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti, g'azal, mavzu, yoshga doir g'azallar.

Annotation. This article was written in the last years of Alisher Navoi's life, there is information about the ghazals and their lyrical features, which are not included in the collection "Xazoyin ul maoniy".

Key words: "Xazoyin ul-maoniy" collection, ghazals, themes, ghazals about age.

Alisher Navoiy ulug' shoir sifatida o'zidan boy adabiy meros qoldirdi. Shoirning "Xazoyi ul-maoniy" kulliyotiga ilk ijod qila boshlagan davrdan to umrining oxirigacha, ya'ni XIV asrning 90-yillarigacha ijod etgan she'rlari o'rin olgan. Keyingi izlanishlar natijasida navoiyshunos olimlarimiz Navoiyning bu va boshqa devonlarga kirmay qolgan ba'zi g'azallari mavjud ekanligini aniqlashgan. Jumladan, olima F.Sulaymonova shunday ma'lumotlarni keltiradi: "Navoiy she'riyati tanqidiy matni va yigirma jildlik akademik nashrning "Xazoyin ul-maoniy" qismini nashrga tayyorlash eng qadimiy qo'lyozma hisoblangan Istanbulda, Turkiya sultonlarining saroy kutubxonasi bo'lmish To'pqqopi revanda saqlanayotgan 1496-1497-yillarda Hirotda Navoiy kutubxonasining xattotlaridan Muhammad Toqiy tomonidan ko'chirilgan

kulliyot va Fransiyaning Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan, 1525-1527-yillarda Hirotda, yana o'sha doiradagi xattot Ali Hijroniy tomonidan ko'chirilgan kulliyot ustida ish olib borar ekanmiz, bu qo'lyozmalarda "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilmay qolgan yoki keyin yozilgan 40 g'azal borligi aniqlandi". Shu va boshqa dunyoning turli kutubxonalarida saqlanayotgan Navoiy devonlarining qo'lyozma nusxalarida Chor Devonga kiritilmay qolgan 73 she'ri borligini olim alohida ta'kidlaydi. F.Sulaymonova bu she'rlarning kulliyotga kiritilmay qolganligini ularning "Xazoyin ul-maoniy"ga tartib berilgandan keyin yozilgan bo'lishi mumkinligi bilan izohlaydi.

Devonga kirmay qolgan she'rlarning asosiy qismini g'azal, shuningdek, ruboiy, qit'a, fard kabi janrlar o'z ichiga oladi. Mazkur g'azallarni mavzu jihatidan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Hamd g'azallar.
2. Oshiqona yoki ishqiy mavzudagi g'azallar.
3. Ijtimoiy mavzudagi g'azallar.
4. Orifona yoki tasavvufiy-falsafiy g'azallar.

Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotiga kirmay qolgan g'azallar tarkibida ham hamd g'azallar mavjud:

*Yo rab, ulus nihoni emastur nihon sanga,
Ne dey nihon g'amimni, erur chun ayon sanga.
Qaysi makon aro seni istayki, kavnda,
Sensiz emas makoniyu yo'qtur makon sanga.*

Ushbu misralarning nasriy bayoni quyidagicha: Yo rab, xalqning barcha sir-u sinoati senga nihon (yashirin) emasdir. O'z g'amlarimni sendan nechun yashiray, axir ularning barchasi senga ayon bo'lsa. Kavn (dunyo)da seni qaysi manzildan izlashni bilmayman. Sening makoning yo'q, lekin biror makon sensiz emasdir. Sen hamma yerda borsan, dunyodagi hech bir manzil sening nazaringdan chetda emas.

Lirik qahramon o'z yaratuvchisiga murojaat etarkan, uning qudrati-yu mo'jizalariga hayratlanib tahsin aytmoqda. Unga xalqning biror ishi pinhon

emas. U hamma narsadan voqif, undan hech narsani yashirishning imkoni yo'q. Zero, o'n sakkiz ming olamlar podshosiga bu qiyin ish emasdir. Yaralmishning bu ishlarni anglab yetishga aqli noqislik qiladi, ular faqat o'z aqlari darajasidagina bila oladilar. Buni quyidagi baytda ko'rishimiz mumkin:

*Tuzub majlis asosin, soqiyo, aqlimni zoyil qil,
Ki hayrat ojiz etmish charxning oliy asosinda.*

Ishqiy mavzudagi g'azallar ham shoir lirikasida muhim o'rin tutadi. Unda lirik qahramon o'z ma'shuqasiga dil izhorlari, vafo va sadoqat, yorning oshiqqa bergan ozorlari haqida fikr yuritadi:

*Zarra-zarra jismim o'rtandi g'amingdin, ey quyosh,
Vahki, sendin bo'lmadi, mehr-u vafo bir zarra fosh.
Har necha qilsam vafo, sendin vafodin yo'q asar,
Tosh ekin bag'ringmu yoxud bog'lading bag'ringga tosh.*

Yoki bo'lmasa yor go'zalligining ta'rifida ham Navoiy bu g'azallarda ham juda chiroyli o'xshatishlarni keltiradi:

*Aytur ermishsenki, oy bir kamtarin quldur manga,
Ko'rki, bore qilmish oyning tol'ei farxandasi.*

Ishqiy mavzudagi g'azallarda tazod, takrir, tashbeh kabi san'atlar muallif fikrini yanada ochiqroq ifodalashga xizmat qilgan.

Shuningdek, kulliyot tarkibiga kirmay qolgan g'azallar orasida Alisher Navoiyning tasavvufiy-falsafiy mavzudagi g'azallarini ham uchratishimiz mumkin. Bu g'azallarda tasavvuf adabiyotiga xos bo'lgan an'anaviy timsollar: soqiy, may, boda, zuhd, taqvo, jom kabilarni uchratish mumkin:

*Boda tut, soqiyki, ayyomi visol o'ldi yana,
Do'st berdi shodlig', g'am poymol o'ldi yana.
May mudom ich ul labi maygun sanam davridakim,
Zuhd ila taqvo harom-u may halol o'ldi yana.*

Tasavvuf haqida biroz bilimga ega bo'lgan o'quvchi bu g'azalda ilohiy ishq, oshiqning haq visolidan mastligi, uning visoli har qanday zuhd-u taqvodanda ustun turishi haqida fikr yuritilayotganligini anglaydi. Bu

g'azallarni yosh nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo'lsak, shoirning keksalik yillari vafotidan oldin yozilganligini ko'rsatadi. Shu sababdan ham aksariyat g'azallarda bu foniy dunyoning tashvishlaridan charchagan, bu dunyodan hech umidi qolmagan, uning o'tkinchiligini anglagan lirik qahramonning o'y-fikrlari, iztiroblari ko'rishimiz mumkin:

Qachonki topmasangiz dahr aro nishonimni,

Fano yo'lida tilang jismi notavonimni.

Qari quyosh bila eski oyni ham gardun

Chiqarmag'ay bir agar ko'rsa navjavonimni.

Darhaqiqat, bu dunyo o'tkinchi, unga kelgan har bir inson bir oz fursat mehmon bo'lib, yana kelgan joyiga qaytadi. Undan faqat notavon jism, bir uyumgina turoq qoladi. Bu dunyoga kelgan har kimsa o'z vazifasini o'tab bo'lgach (umrini yashab bo'lgach) boshqalarga o'rin bo'shatadi. Hatto falak ham qari quyosh va eskirgan oyni ham so'ndiradi. insonlar kelib-ketguvchi bu to'garak jahon boshqalar kabi shoirga ham vafo qilmadi. Keldimi, demak, ketish shart. Bu hayotning asosiy qonuniyatidir. Shoir keksaygan chog'ida shunday fikrlarni xayolidan o'tkazadi, o'zi uchun tegishli xulosa chiqaradi va o'zidan keyingilarga ibrat qoldiradi. Bu, asosan, shunday g'azallarning maqta' qismida uchratamiz: *Navoiy, ayla gul avroqi uzra holin sabt ki, bulbul-o'q o'qusin ushbu dostonimni. Yoki:*

Ey Navoiy, har nafaskim xush kechar, tut mug'tanam,

Hech kimga umrining ma'lum emas chun muhlati.

Shoir bu o'tkinchi dunyoning turli nayranglari haqida gapirib, ba'zida uning ishlaridan ozorlanadi. Ba'zida o'z do'st-yori g'animlariga qo'shilib unga, xalqqa jafo qilganidan aziyat chekadi.

Alisher Navoiyning g'azallardan tashqari devonga kirmay qolgan boshqa janrdagi she'rlarini ham mavzu jihatidan keng qamrovli deyishimiz mumkin. Xususan, qit'alarda ijtimoiy-siyosiy va pand-nasihat mavzusi yetakchilik qiladi. Ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi qit'alarda Navoiy jamiyat hayotidagi

adolatsizliklar, shohlar bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni ochib beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning "Xazoyin ulmaoniy" kulliyotiga kirmay qolgan she'rlari ham xuddi devonlardagi g'azallar singari badiiy jihatdan mukammal hisoblanadi hamda ularni ham lirik, badiiy, ilmiy jihatdan tadqiq etish kerakdir. Zero, Alisher Navoiyning devonga kirmay qolgan bu g'azallar har jihatdan avvalroq yozilgan ijod namunalaridan qolishmaydi. Ularni biz muallifning umri davomida anglab yetgan hayotiy xulosalarning mantiqiy xotimasi sifatida baholashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сулаймонова Ф. Айёми висол ўлди яна. Янги топилган г'азаллар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1995.

2. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. –Toshkent: Tamaddun, 2018.

ID-020-30-A065

Munavvar Obidova

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs talabasi

“BOBURNOMA”DA FALSAFIY G'OYALAR TASVIRI

Annotatsiya. Maqolada iste'dodli adib, tarixchi va olim Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ifoda etilgan ilm-fan targ'ibi, insoniy fazilatlar tarannumi, dunyo va hayotning sinov maydoni xususidagi fikrlari kuzatilgan. Natijada, adib falsafiy qarashlari va Bobur “men meni”dagi muvofiqlikning o'zaro mushtarak ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: *falsafa, nafs, vijdon, tasavvuf, ilohiy ishq, odamiylik.*

Annatation. In the article, the talented writer, historian and scholar Zahiriddin Muhammad Bobur shares his views on the propagation of science, the melody of human virtues, and the test of life in the world and life, as reflected in his work “Boburnoma”.

Keywords: *philosophy, passion, conscience, tasavvuf, godly love, humanitarian.*

Har bir xalqning o'z buyuk insonlari bo'ladi. Tarixda tub burulish yasay olgan, madaniyatni rivojlantirishda o'z hissasini qo'shgan yoinki, ilm-fan sohasida yuksak cho'qqilarni egallagan shaxslargina millat qalbida abadiy qoladi. Ana shunday siymolardan biri shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur, har sohada zukko, mehnatsevar, mukammal shoh, sodiq farzand va mehribon ota sifatida tarixda o'z izini qoldira olgan. Shu bois Bobur Mirzo hamon avlodlari qalbida yashab kelmoqda. Fikrimizning yorqin dalili sifatida shoirning buyuk ijod mahsuli bo'lgan “Boburnoma” asari mazmun-mohiyatiga falsafiy nuqtayi nazardan yondashib, tahlil qilishga harakat qilamiz. Bobur Mirzo o'z asarida Samarqandan to Hindistongacha bo'lgan yerlarning ta'rifi-yu tavsifini keltiradi. Asar fanning barcha jabhalari, tarixiy joy va shaxslar

xususida xabar beruvchi eng bebaho adabiy manba hisoblanadi. So‘zimning isbotini Mir Alisher Navoiyga bag‘ishlangan baytda ko‘rishimiz mumkin:

Dur bo‘lur bahr ichra pinhon nazmidin shoh madhida

Bahr yashurmishNavoiyhardurimaknunaro [1,13].

Ushbu baytda so‘z san‘atkorligidan mohirona foydalangan Bobur Mirzo o‘z asarida Navoiy bobomiz haqida mana shunday javohir so‘zlarni aytib o‘tadi. Bundan ko‘rinadiki, asar adabiyotshunoslikda ham qimmatli manba hisoblanadi. Topilmalarga boy ushbu asar yuzasidan ingliz sharqshunosining buyuk Zahiriddin Muhammad Bobur haqida aytgan fikrlari e‘tiborga molikdir.

Bu xotiralarda buyuk turkiy podshohining hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tug‘ulari har qanday mubolag‘a va pardalashlardan holidir. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazlidir. Shu jihatdan bu asar Osiyodagi yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir. Shoirning yuksak mahorati esa asarga go‘zal joziba bag‘ishlaydi. “Boburnoma”da Bobur Mirzoning keng qamrovli falsafiy va tasavvufiy bilim zaxirasi o‘z aksini topgan. Ona Vatanidan ayro sog‘inch alangasida yongan buyuk shoh tasavvuf yo‘lini tanladi.

Asarning “Zahiriddin Muhammad Bobur G‘oziy farmoni” xususidagi bo‘limida “Tangriga shukur va sano aytishning ko‘payishi Tangri ne‘matlarining ketma-ket kelib turishining sababidir” [1,303] — degan fikrlar ilgari surilgan. Bundan ko‘rinadiki, Bobur Mirzo qalbida, avvalo, Allohga bo‘lgan muhabbat va sadoqat, islomiy e‘tiqod birinchi o‘rinda turgan. Demak, qalbida iymoni bo‘lgan shaxsgina haqiqiy, adolatparvar inson bo‘lib yetishishi, xalqning og‘riqli dardlariga darmon bo‘lishi mumkin.

Bobur o‘z asarida har nega molik nafsini tiyishni, aks holda inson uning yo‘liga yurib, shayton bilan do‘st bo‘lib qolishi va odamiylik siyratini yo‘qotishi mumkinligi haqida aytib o‘tadi. “Nafsimni oqlayolmadim, chunki nafs yomonlikka amr etguvchidir” [1,307] — deya nafsni qoralagan yozuvchi iymoni sof inson bo‘lish, to‘g‘ri va halol yo‘lda yurish kabi g‘oyalarni ilgari suradi.

“Boburnoma”ning “Fathnoma” bo‘limida “Ey Robbim, nafslarimizga zulm qildik ixlosni tiliga keltirib, sening oldingda tavba qildim” [1,311] —degan fikrlarni aytib o‘tgan. Mirzo Bobur umrining oxiriga qadar qalbida ilohiy muhabbat bilan yashadi. “Boburnoma”da keltirilgan quyidagi bayt fikrimizga ham ohangdir:

*Din-u donishdahar kun afzun bo‘l,
Davlat-u baxtila Humoyun bo‘l [2,169].*

Ko‘rinadiki, ilm o‘rgangan va tasavvufiy bilimlarning cho‘qqisiga erishgan insongina haqiqiy ishq sohibi bo‘la oladi. “Boburnoma”dagi quyidagi misralarda ham falsafiy, tasavvufiy g‘oyalar mujassam etilgan:

*Qachonki sen o‘rgansang bilim,
Hamrohingdir doimo hilm [1,183].*

Darhaqiqat, ilmli insongina har qanday nafsdan, yomon illatlardan o‘zini tiya biladi. Bobur Mirzoning ushbu fikrlari esa har bir inson qalbiga yorug‘lik misol ziyo tarqata oladi.

“Boburnoma” dunyo xalqlari umuminsoniy qadriyatlarining ravnaqi va boyishiga xizmat qiladigan bebaho manba hisoblanadi. Bobur Mirzo aytganidek, “Inson o‘zini anglashi uchun, avvalo, qalbini yod unsurlardan va nafsiskanjasidandur-u javohirkabiasramog‘ikerak” [1, 109]. Buning uchun esa “Boburnoma” singari falsafiy-qomusiy asarlarni mutolaa qilib borish lozim. Ushbu beqiyos asar orqali har bir inson tasavvuf ilmining nuqtadoni bo‘lib yetishishi turgan gap. Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk ijod mahsuli hisoblanmish “Boburnoma” asari har bir soha uchun dasturulamal bo‘lib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gulbadanbegim, “Humoyunnoma”. — Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

ID-020-30-A066

Nurjahon Abdullayeva

O'zbek tili fakulteti 2-kurs talabasi

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA FANTASTIKA JANRI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan g'arb adabiyotiga xos bo'lgan fantastika janrining sharq mumtoz adabiyotidagi o'rnini, uning ahamiyati, mumtoz adabiyotimizning eng nodir namunalariidagi, xususan Alisher Navoiy asarlaridagi fantastika janri xususiyatlari, uning sharqqagina xos badiiy-falsafiy ifoda yo'sinlari, ularning ilmiy, ma'naviy - ma'rifiy qiymati haqida mulohazalar yuritiladi. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonidan fantastika janriga xos bo'lgan go'zal namunalari, lavhalar beriladi va Navoiy dahosining buyuk xayoloti timsoli bo'lgan, bugungi kun uchun esa reallikka aylangan kashfiyotlar, tilsimlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *fantastika janri; mumtoz adabiyot; mifologiya; badiiy fantaziya; fantastik tasvir; ilmiy fantastika; ijtimoiy ong evolutsiyasi; texnik kashfiyotlar;*

Annotation. In this article, the role of the genre of fiction in Eastern classical literature, its importance, the features of the genre of fiction in the rarest examples of our classical literature, in particular in the works of Alisher Navoi, its unique artistic and philosophical expression, their scientific, spiritual - enlightenment value. Alisher Navoi's epic "Khamasa" gives beautiful examples and plates typical of the genre of science fiction, and talks about the discoveries and talismans that symbolize the great imagination of Navoi's genius and have become a reality for today.

Keywords: *fantasy genre; classic literature, mythology, artistic imagination; fantastic image; science fiction; evolution of social consciousness; technical discoveries;*

Bilamizki, sharq mumtoz adabiyoti o'zining mukammalligi, jozibadorligi va insoniyatning ma'naviy – axloqiy, shuning bilan birga, estetik kamolotida

tutgan o'rnini jihatidan, butun dunyo adabiyotining eng nodir javohirlaridan biri hisoblanadi. Ushbu nodir, mumtoz javohirni o'rganish, uni tadqiq etish, uning shu'lasidan ong-u shuurimizni bahramand etish uchun esa, biz o'quvchilardan, avvalo, sabr, ishtiyoqmand – yoniq ruh hamda bilim va zakiylik talab etiladi. Mumtoz asarlarni tadqiq qilar ekanmiz, ularning go'zal badiiyati, yuksak axloqiy mezonlari, benazir falsafiy qarashlari bizni qanchalik o'ziga rom etsa, ulardagi cheksiz xayolot ummoni po'rtanalari o'laroq yaralgan, aql bovar qilmas g'aroyibotlar, mo'jizalarga boy turfa voqeliklar, sirli – sehrli tilsimlar, ajoyib afsona-yu rivoyatlar, bir so'z bilan aytganda, benihoya yuksak badiiy fantaziya kishi aqlini lol qoldirar darajada hayratlantiradi.

Shu o'rinda adabiyotshunoslikdagi *fantastik asar* terminiga aniqlik kiritib o'tsak. *Fantastik asar – faraz, xayol, tasavvur qilish orqali ilmning so'nggi yutuqlariga tayanilgan holda yaratilgan asarlar* bo'lib, Jahon adabiyotida fantastik asarlarning eng sara namunalari *Gerbert Uells, Jyul Vern, Aleksey Tolstoy, Aleksey Belyayev* kabi yozuvchilar tomonidan yaratilgan [2, 355].

Albatta, fantastik adabiyotning shakllanishida ilmiy -texnikaviy taraqqiyot, xususan, Jyul Vern asarlarining paydo bo'lishi muhim rol o'ynadi. Zero, Jyul Vern asarlarida hali hayotda, turmushda bo'lmagan, keyinchalik amalga oshgan ko'plab kashfiyotlar, ixtirolar tasvirlab berildi.

Zero, birgina uning «*Kapitan Nemo*» asarida suv osti kemasi, suv osti skafandrlarining tasvirlanishi keyinchalik texnik ixtirolarning yaratilishiga olib kelgan. Demak, badiiy fantastika hali inson qo'li, aqli yetmagan koinot deb atalmish buyuk ummonning, cheksiz galaktikalarining ehtimoldan uzoq yoki yaqin bo'lgan sir-sinoatlarini, asrorlarni tasvirlash qudratiga ega.

Bugungi kunda ilmiy-fantastik janr nafaqat rivojlangan Yevropa va Amerika adabiyotlari uchun xos bo'lmasdan, balki oldinlari bunday mustaqil janrga ega bo'lmagan o'zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz adabiyotlarida shakllanib rivojlanib bormoqda. Bu adabiyotlarda ilmiy fantastik janrning shakllanishi fan-texnika inqilobi asrining samarasi, shu bilan birga, jahon ilmiy fantastikasining ta'siri ostida ham rivojlanmoqda [3,6].

Ma'lumki, «*fantastika*» so'zi «*fantazion*»-yunoncha so'zdan olingan bo'lib, *fantaziya, xayolot, uydirma, bo'lmagan narsa, haqiqatdan uzoq, tafakkur va mushohadaning cheksizligi* singari ma'nolarni anglatadi. Fantaziya tufayli buyuk ixtirolar, kashfiyotlar qilinadi, badiiy adabiyotda esa buyuk asarlar yaratiladi. Demakki, so'z bemaqsad, bema'no orzu haqida emas, balki, hayotiy asosga ega bo'lgan orzu, xayolot haqida bormoqda. Bu esa o'z navbatida inson mehnati, insoniyatning butun yaratuvchanlik faoliyati bilan bog'liqdir.

Inson fantaziyasi uning tarixi singari qadimiydir. Biroq, fantaziya qilish qobiliyati inson bilan birga tug'iladi, deb qarash noto'g'ri. Chunki, tafakkur singari u turli sabablar: ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar, imkoniyatlar va ehtiyojlar, lekin eng asosiysi ijtimoiy-kommunikativ sabablar ta'siri ostida paydo bo'lgan. Jamiyatning ibtidoiy rivojlanish davrida inson fantaziyasi sodda va oddiy bo'lgan. U darajada boy ham bo'lmagan. Ijtimoiy ong evolyutsiyasi, bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning boshqasi bilan almashuvi inson dunyoqarashini o'zgartirdi, fikrlashini kengaytirdi va chuqurlashtirdi.

Natijada inson xayoloti murakkab va boy, «*konstruktiv*» bo'la boshlagan. Shu boisdan, qadimda samarasiz, ba'zan amalga oshmaydigan orzular bugun haqiqatga aylandi [3,4].

Fantastik asarlarning ilk ibtidoiy ildizlari esa o'z navbatida, eng qadimgi davrlarga – xalq og'zaki ijodiga, mifologiya, afsona va asotirlarga borib taqaladi. Xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanish, uning bemisl badiiy merosiga qayta – qayta murojaat qilish an'anasi yozma badiiy asarning ta'sirchan va xalqona bo'lishini ta'minlovchi omil sifatida sharq mumtoz adabiyoti vakillarining deyarli barcha asarlarida uchraydi.

Yaqin va O'rta Sharqda yaratilgan "*Ming bir kecha*" (*arab ertaklari*), "*Kalila va Dimna*" (*Hind masallari – "Panchatantra"*), "*Qobusnoma*", "*Javome ul – hikoyot va lavome ul - rivoyot*" (*hikoya va rivoyatlar kitobi*) shular jumlasidandir.

Birgina, "*Javome ul – hikoyot va lavome ul – rivoyot*" asarini oladigan bo'lsak, bu asar Muhammad Avfiy tomonidan hijriy 630 (milodiy 1232/33)

yilda Hindistonda yaratilgan bo'lib, muallif bu asarni yaratishda fors – tojik va arab tilidagi yuzga yaqin manbadan foydalangan, hind adabiyotidan bahramand bo'lgan. Manbalar orasida *Abu Rayhon Beruniyning “Al – osor al – boqiya ani –l – qurun al – holiya”*, *“Kitob ul – hind”* asarlarini, *“Dastur ul – vuzaro”*, *“Tarixi Turkiston”*, *“Havossi ashyo”*, *“Tarixi Tabariy”*, *“Qobusnoma”* asarlarini ko'rish mumkin [5,207] Yuzga yaqin manbalardan ijodiy foydalanish asosida yaratilgan *“Javome ul – hikoyot”* keyingi mualliflar uchun ajoyib –u g'aroyibotlarga to'la hikoya va rivoyatlarning boy manbasi sifatida xizmat qildi. Ayniqsa, asarning to'rtinchi qismida keltirilgan *“Dar bayoni ahvoli sodir va ajoyibi bihor va bilad va taboei hayvonot”* (“Sodir bo'lgan ahvol va dengiz va shaharlar ajoyibliklari va hayvonlar tabiati bayonida”) bobi xilma – xil mavzudagi ajoyib va g'aroyib hikoyalarni o'zida mujassamlashtirgani, yuksak badiiy fantaziyasi, obrazlarning sirli va mo'jizakorligi jihatidan yaqqol ajralib turadi [5,206].

O'zbek xalq og'zaki ijodidagi fantastik elementlarning ta'siri ostida o'zbek mumtoz adabiyotida ham fantastik tasvir, fantastik bo'yoqdorlik yuzaga kela boshladi.

O'zbek mumtoz adabiyotida fantastik tasvirni deyarli ko'pchilik ijodkorlar asarlarida uchratishimiz mumkin.

Jumladan, *Rabg'uziyning «Qissasi Rabg'uziy»*, *Xorazmiyning «Muhabbatnoma»*, *Navoiyning «Xamsa»*, *Majlisiyning «Qissayi Sayfulmuluk»* va h.k. Shu o'rinda, Navoiy ijodiyotiga bir nazar tashlashni lozim topdik.

Navoiy dostonlarida fantastik tasvirlar tasodif emas, chunki birinchidan, ular judayam ko'p, ikkinchidan, ular ma'lum ma'noda e'tiqod tasavvurlarini aks ettiruvchi fantastika emas, balki shoir g'oyalarini ifodalovchi badiiy uslub sifatida ko'zga tashlanadi.

Navoiy asarlaridagi fantastika elementlarini tahlili ularning turli-tumanligini ko'rsatadi va uni biz nisbatan uchta guruhga ajratishni ma'qul ko'rdik. Bu tasnifni esa filologiya fanlari doktori Ra'no Ibrohimova fikr-mulohazalariga tayangan holda bermoqdamiz:

1. Sof fantastik elementlar;
2. Ilmiy fantastik elementlar;
3. Noilmiy fantastik elementlar. [3, 12].

Ma'lumki, Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni qahramonlik mavzusidagi asardir. Biroq, uning asosiy motivi sevgi-muhabbatdir. Farhod va Shirin muhabbati, sevgisi Navoiyning dostonidagi ko'zlagan bosh maqsadi va g'oyasini ochishga qaratilgan asarning tamal toshidir. Shoir sevgi-muhabbat motivini yoritish uchun realistik, romantik va fantastik usullardan va obrazlardan foydalanadi. Doston tuzilishida biz uchta asosiy fantastik epizodlarni ko'ramiz:

1. Farhodning birinchi qahramonligi. Uning g'orga kirib ajdaho va devlar bilan olishuvi va g'orda Aflotun xazinasini topishi, Sulaymonning sehrli qilichi va qalqoniga ega bo'lishi.

2. Farhodning ikkinchi qahramonligi. Uning zulmat ruhi Ahriman bilan olishuvi va Sulaymonning sehrli uzugiga ega bo'lishi.

3. Farhodning uchinchi qahramonligi. Iskandar tilsimini yechishi, Suqrot oldiga toqqa chiqishi va u erda «*Oynai jahon*» tilsimini yechishi.

Dostonidagi bu tasvirlar, epizodlar tuzilishi va mazmun e'tibori bilan ertaklar motivini eslatadi. Biroq, ko'z o'ngimizda masnaviyda berilgan ko'p motivli ertak yoki ishqiy-romantik dostonlarga yaqin bo'lgan folklor janri g'oyasini istifoda etuvchi, real obrazlar, qahramonlar xatti-harakatini dalillaydigan ruhiy holatlar, qahramon ruhiy olamini ko'rsatuvchi epizodlar sifatida namoyon bo'ladi. Bunday holatlarni biz folklorda ko'rmaymiz. Shu jihati bilan ham badiiy epos folklordan farq qiladi.

Doston boshida Farhod qo'lga kiritgan Sulaymonning sehrli qilichi va qalqonini, uzugini asar syujetini rivojlanishining boshqa biror-bir o'rnida ishlatmaydi. Zero, bunga zaruriyat ham yo'q. Shoirning muddaosi ham bu emas. Chunki, Farhod har tomonlama, jismoniy va ma'naviy jihatdan kamolotga erishgan, deyarli barcha ilm-hunarlarini o'rganib, ularni amaliyotda qo'llay

oladigan, Navoiy orzu qilgan komil inson bo'lib yetishgandi. Demak, doston boshidagi fantastik epizodlarni berishdan gumanist shoir Navoiyning bosh maqsadi, Farhodni real hayotiy turmushdagi, xususan, uning taqdiridagi murakkabliklarni, sinovlarni yengishga qodir ekanligini, buning uchun Farhodda yetarlicha jismoniy kuch-quvvat, bilim borligini ko'rsatishdan iborat edi. Eng asosiysi, Navoiyning

Shirin tilidan aytilgan ta'bir bilan aytganda:

Har ishki qilmish odamiyzod,

Tafakkur birla bilmish odamiyzod.

Zero, inson aql-zakovati, bilimi oldida har qanday tilsim, sehr-jodu ojizdir.

«Sab'ayi sayyor» ishqiy sarguzasht dostonidir. U o'z kompozitsiyasi bilan «Xamsa»ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. Bu doston «hikoya ichida hikoya» usulida yaratilgan. Doston *Bahrom* va *Dilorom* haqidagi qoliplovchi hikoya va shu hikoyaning kompozitsion silsilasiga bog'langan yetti mustaqil hikoyadan iborat. Dostondagi yetti sayyoh tilidan aytilgan Navoiy hikoyatlari tamomila yangi hikoyalar bo'lib, ular xalq og'zaki ijodi asosida yaratilgan. Ular sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, himmat va saxovat, mardlik va qahramonlik, donishmandlik va ijodkorlik kabi xislatlarga bag'ishlangan. Ularda real hayot lavhalaridan tortib fantastic manzaralarga qadar, oddiy turmush voqealaridan tortib kishini esankiratuvchi hayotiy sarguzashtlar ham bor.

Xususan, dostonidagi ikkinchi rumlik sayyohning *Zayd Zahhob* haqidagi hikoyati shu turdagi hikoyalardan o'zining g'oyat qiziqarli ifoda yo'sini, yorqin va g'aroyib syujeti hamda aql bovar qilmas hislatlarga ega bo'lgan uddaburon *Zayd* obrazi bilan yaqqol ajralib turadi.

Mashhur rus olimi Ye. E. Bertels ham 1948- yilda yozgan "Navoiy" monografiyasida "Sab'ayi sayyor" dostonidagi ikkinchi hikoyani alohida qayd etib o'tib, Zayd har tarafga yurishi mumkin bo'lgan taxtning sakkiz zinasi o'z-o'zidan harakatga kelishini yozar ekan: "Navoiy qiziqishlarini – texnik

fantaziyani ifodalovchi bu g'aroyib tasvir bizning kunda amalga oshirilgan: Navoiy taxti o'zida avtomobilni va eskalatorni birlashtiradi"^[4], deydi . Haqiqatdan ham, Alisher Navoiy asarlarini mutolaa qilgan o'quvchi buyuk o'zbek dahosi xayolot olamining serqirra mo'jizalarga boy ekanidan hayratga tushadi.[4,2]

Dostondagi uchinchi hikoyada ham fantastika ustuvorlik qiladi. *Sa'd hikoyasi* syujeti va kompozitsiyasi bilan ham, obrazlari va g'oyaviy motivlari bilan ham boshqa hikoyatlardan farq qiladi.

Sa'd og'ir shartlarni, dahshatli to'siqlarni yengib, sinovdan o'tib, sevgilisining visoliga erishgan jasoratli botir yigitdir. U hayotning va inson tole'sining ashaddiy dushmani bo'lgan kuchlarni mahv etadi, tilsimlarni ochadi, donishmandning mushkul savollariga aql va farosat bilan javob beradi. Shu bilan birga, u *Shahrisabz shohining* begunoh kishilar qonini to'kishiga chek qo'yadi. Qahramonlik va jur'at dahshat va razolatni, tadbir va tafakkur hiyla va jaholatni yengadi.

Hikoyadagi *dev Qatron va jodugar Zol* yomonlikning majoziy obrazidir, *mo'ysafid (Palyakus hakim)* esa, fikr-qarashlaridagi ayrim elementlarga qaramay, aql va tafakkurning tajassumidir.

«Sab'ayi sayyor» dostonining yakunidagi Bahromning butun arkoni davlati bilan er qa'riga tortib ketilishi tasvirida fantastik ifoda yotsa ham, biroq unda hayotiy ma'no mohiyati bor. Zero, Navoiy aytmoqchiki, inson tabiatga ozor yetkazsa, tabiat undan o'ch oladi [3,14].

«Saddi Iskandariy» dostonini jahon adabiyotida birinchi ijtimoiy va ilmiy fantastik asar desak yanglishmaymiz. Bu dostonda fantastika yordamchi element sifatida ishtirok etsa ham, biroq asarning g'oyaviy mazmuni tuzilishida g'oyat katta rol o'ynaydi.

Navoiy Iskandar obrazini ideal shoh timsoli sifatida yaratar ekan, uning harbiy yurishlarini tasvirlashni bosh maqsad qilmaydi. Balki, Iskandarni olam yaratilishining sir asrorlarini bilishga intiluvchi, markazlashgan ideal davlat

tuzish yo'lida turli-tuman ijtimoiy va ilmiy muammolarni yechishga intiluvchi hukmron sifatida tasvirlaydi.

«Saddi Iskandariy» dostoni ilmiy-fantastik xarakterdagi epizodlar bilan to'lib-toshgan. Xususan, Iskandarning suv osti olamini bilishga, o'rganishga bo'lgan intilishi buning yorqin dalilidir. Suqrot boshchiligidagi suv osti olamiga sayohatda Iskandar daryolarning uzunligini o'lchashni hamda suv osti olami to'g'risida qaydlar yozib borishni buyuradi. Iskandar suv osti olamini ko'rish uchun oynadan yasalgan shar shaklidagi maxsus asbobni yasashga Suqrotni jalb etadi. U tayyor bo'lgandan keyin 100 kun suv osti olamini tomosha qiladi. Navoiy zamonasida bunday epizod tasvirini faqat xayolot olami tasviri bilan berish mumkin edi.

Shuningdek, dostonda Navoiy xayoloti bilan yaratilgan «*suzuvchi orol*» epizodi ham bor. Iskandar eng zo'r kema yasovchilarni yig'ib, 3 mingta kema yasashni va shu bilan «suzuvchi» shahar barpo qilishni buyuradi.

To'g'ri, bizning zamonamiz odamlarini bunday hodisa bilan hayratga solib bo'lmaydi. Biroq, Navoiyning asarlaridagi fantastik epizodlar, voqealar, uydirmalar o'zining real zaminiga ega edi.

«Saddi Iskandariy» keskin konflikt, kurash va to'qnashuvlar asosiga qurilgan dostonidir. Dostonning deyarli har bir bobini o'ziga xos konfliktga ega.

Biroq, dostonning deyarli barcha konfliktlarini jamlovchi umumiy konflikti ham bor. Bu adolat bilan zulm, yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurashdir. Qirvon o'lkasida ya'juj va ma'jujlarga qarshi kurash – konfliktning cho'qqisidir. Bu konflikt - turli o'lka farzandlarining Iskandar boshchiligidagi *sa'd* - devor qurishi bilan yechiladi, insoniyat zulmat va dahshat hamlasidan abadiy najot topadi [3, 17].

Navoiy «Saddi Iskandariy»da real hayot lavhalarini, tabiat manzaralarini qanchalik mohirlik bilan tasvirlasa, fantastik manzaralarni, afsonaviy mahluqlarni, g'aroyib voqealarni ham shunchalik san'atkorlik bilan chizadi. *Mag'rib va Qirvon* tasviri, u yerdagi voqealar, dengiz safari va ajoyibotlari shular jumlasidandir. «Saddi Iskandariy»da realistik tasvir bilan badiiy

fantaziya ko'pincha bir-biri bilan uzviy bog'lanib boradi, shoir romantik, fantastik tasvirdan realistik xulosa chiqaradi. Masalan, ya'juj va ma'jujlarga qarshi kurash romantik tasvir bilan berilgan, lekin shoir bundan realistik xulosa chiqarib, agar kishilar ahil-ittifoq bo'lsa, zulm va zulmat yo'llarini o'tib bo'lmas g'ov bilan to'sishi mumkin degan fikrga keladi. Yoki dengiz tasvirini olaylik. Bu tasvir qanchalik fantastik bo'lmasin, uning mohiyatida insonning aql-zakovati tabiat sirlarini kashf qilishga qodirdir, degan real maqsad va ishonch bor.

Fikrlarimiz yakuni o'laroq shuni aytib o'tish mumkinki, adabiyotimizda fantastika janri qanday shaklda namoyon bo'lmasin va shakllanmasin, u birinchi navbatda real haqiqatni anglash, olamning, borliqning paydo bo'lish sir-asrorlarini tushuntirishga intilish shakli sifatida yuzaga keldi. U o'zining butun tarixiy rivojlanish jarayonida hayotni badiiy, yorqin

aks ettirishning o'ziga xos usuli sifatida shakllandi va inson ong-u shuurining, estetik kamolotining yana ham sayqallanishida muhim rol o'ynadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Navoiy. Xamsa. Yangi asr avlodi, - T.:2018.
2. Safo Matchonov. Adabiyot. Umumiy qo'llanma, -T.:2012. – 355-b.
3. R.Ibrohimova. O'zbek adabiyotida fantastika janri, - T.:1987. - 14-17-b.
4. Omonulla Madayev. Navoiy dahosi va zamonamiz kashfiyotlari. Maqola, Jahon adabiyoti - T.:2014.2-son, 2-b.
5. Natan Mallayev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti, -T.:2016. – 208-b.
6. <https://www.ziyouz.com>

ID-020-30-A067

Quvonchoy Nurmetova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

SULTONIY HAYOTI VA IJODI MANBALARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Maqolada Xiva adabiy muhiti vakili Sultoniy hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, shoir ijodiy merosi jamlangan manbalar, shoir lirikasining janrlar ko'lami haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Sultoniy, shoir, devon, to'plam, bayoz, manba, matn, janr.*

Annotation. This article deals with Sultoniy's creativity his lyric works proceedings poetry's and scientific descriptions lithographic manuscripts of divon. It gives information about distinctions between lithographic and manual manuscripts.

Key words: *Sultoniy, poet, devon, proceedings, bayoz, source, text, genre.*

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xiva adabiy muhiti milliy adabiyotshunosligimiz tarixida ayniqsa, alohida o'rin tutadi. Negaki, bu davrda shoh va shoir Feruz boshchiligida ko'plab iste'dodli ijodkorlar kamol topdi, ular sermahsul ijod etib, milliy adabiy an'analarimizni davom ettirdi. Bugungi kunda Feruz davri adabiy muhiti vakillari ijodi adabiyotshunosligimizda atroflicha tadqiq etilmoqda. Biroq bu davrga oid turli tazkiralalar, bayozlar, she'riy to'plamlarni kuzatsak, ijodi tadqiq etilmagan, she'rlari joriy alifboda tabdil qilinmagan, hattoki ular faoliyatiga doir ma'lumotlar darslik yoki ilmiy adabiyotlarda ham uchramaydigan shoirlar anchagina ekani guvohi bo'lamiz. Hayoti va ijodi to'lig'icha o'rganilmagan, ijodiy merosi ilmiy tadqiqot olib borish uchun ob'ekt bo'la oladigan, XIX asr oxiri – XX asr boshi Xiva adabiy muhiti vakillaridan biri Said Nosir to'ra – Sultoniydir.

Sultoniyning hayot yo'li, ijodi haqida ma'lumot beruvch manbalarga Bobojon Tarroh Azizov – Xodimning “Xorazm navozandalari”, Laffasiyning “Tazkirai shuaro”, Tabibiyning “Majmuai shuaro payravi Feruzshohiy” tazkiralari kiradi. Jumladan, Laffasiyning “Tazkirai shuaro” tazkirasida shoir Sultoniy haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan:

“Shoirning ismi Sultoniy Said Nosir to'ra bo'lib, Said Abdullaxon Muhammad Rahimxon Feruzning nabirasi bo'lib u Muhammadyor to'raning birinchi o'g'lidir. Sultoniy tarixi bir ming uch yuz dag'i beshlanji yili onadan tavallud topib, ancha tarbiyali bo'lgan holda tez kamolga yetishib ilm tahsilini Xiva mudarrislaridin o'qib bir xili ma'lumotli bo'lib, she'r mashqiga havaskor bo'lib bobosi Feruzning ruxsati bilan o'ziga Sultoniy taxallus qilib ancha she'rlar yozdi. Feruzdagi ul asarlarni tamomiy Bayoniy Muhammad Yusufbekka farmon qilib “Haft shuaro” isminda bir necha devonlarni toshmatbaasida chop qildiradur. Shoir bundan tashqari Feruzga yana ancha g'azallar yozib turgan, shuningdek Sultoniy ismida bir devon ham yozgan...” [1.32-bet].

Shuningdek, Bobojon Tarroh Azizov – Xodimning “Xorazm navozandalari” asarida ham bir qancha ma'lumotlar mavjud va bu ma'lumotlar XIX asrning oxirida Muhammad Rahimxon ikkinchi buyrug'i orqali tuzilgan “Majmuat ush-shuaro”dagi Sultoniy bayonidan olingan:

“Sultoniy Said Nosir to'ra Xivaning tashqari qal'asida, Nurillabek hovlisida tug'ilgan. Demak, Sultoniy to'ra podshozoda oilasidan chiqqan. Sulton Muhammad Rahim ikkinchining buyrug'i orqali Yusuf Hoji Oxun, Siddiq Oxun, Bayoniy Yusufbeklar har hafta ikki marta ziyofat qilindi va shu asnod, kitob o'qish, she'r tartiblash nevarasi, ya'ni bo'lajak shoirga shu uch kishining yordami orqali o'rgatildi, qolaversa, Nosir to'ra forsiyda ham yaxshi bo'ldi va shu muhit tufayli shoirlikka qadam qo'ydi...” [1.35-bet].

Kuzatuvlarimizdan ayon bo'lishicha, hozirda Sultoniy devoni O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Bundan tashqari, Feruz adabiy davrasi ijodkorlari asarlaridan namunalari ko'chirilgan ayrim to'plamlarda ham Sultoniy she'rlari ko'chirilgan.

Ta'kidlaganimizdek, "Devoni Sultoniy" O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida №909 - raqami bilan saqlanmoqda. Devon matni "nastaliq" xatida ko'chirilgan.

Devoni Sultoniyda g'azal, muxammas, musaddas, qasida kabi janrlardagi lirik asarlar uchraydi. Ahamiyatli jihati shundaki, Sultoniy qalamiga mansub lirik asarlar haqida ilmiy jamoatchilik deyarli tasavvurga ega emas. Zero, shoir she'riyati tadqiqi, ularning go'zal badiiyat namunalari ekanini ko'rsatadi. Bu hol, ayniqsa, she'rlarning badiiy jihatdan va vazn munosabatiga ko'ra ham mukammalligida ko'rinadi.

Kuzatuvlarimiz natijasida O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi yana bir manbada Sa'diy she'rlaridan anchaginasi ko'chirilgani aniqlandi. Ushbu manba №8725- raqami bilan saqlanada.

№8725 - raqamli to'plam toshbosma manba hisoblanadi. Ushbu to'plamda Murodiy, Farrux, Sodiq, Bayoniy, Oqil kabi ijodkorlar asarlari qatorida Sultoniyning ham she'rlari ko'chirilgan. Ushbu manbadagi shoirning lirik asarlari janriga ko'ra tasnif etilsa, g'azal, muxammas kabi she'rlar borligi ayon bo'ladi.

Sultoniy she'rlari jamlangan yana bir manba Ahmad Tabibiyning "Majmuai si shuaro'i payravi Feruzshohiy" tazkirasidir. Zero, ushbu to'plamda Sa'diyning yuzta g'azali ko'chirilgan. Tazkiradagi she'rlarning badiiyat jihatidan yuksak darajadagi lirik asarlar ekanini ta'kidlash zarur.

Tabibiy tazkirasidagi ilk g'azal Feruzning "*Zihi bordur zuhuringg'a azal birla abad paydo, Tafakkur aylabon zoting, qila olmas xirad paydo*" matla'si bilan boshlanadi. Ushbu she'rga yozilgan ilk payrav g'azal (tazkiradagi ikkinchi g'azal – Q.N.) esa Sultoniy qalamiga mansub. [4].

Ma'lumki, Tabibiy tazkirasida shoirlarning payrav g'azallari oldidan ular haqida masnaviy ko'rinishidagi ma'lumotlar berib boriladi. Tazkiradagi Sultoniy haqidagi ilk masnaviy-ma'lumot:

Yetushgach bu ash'or Sultoniyg'a,

Ziyolig' yetib fikri ayvonig'a, – matla'si bilan boshlanuvchi uch baytli masnaviydir. Ilk payrav g'azal esa:

Bo'lub sun'ing nasimidin azal birla abad paydo,

Xiradg'a gunah zoting bilgali yo Rab, ne had paydo – matla'i

bilan boshlanadi. E'tiborlisi, Laffasiy tazkirasida ham Sultoniy haqida ma'lumot berilgandan so'ng, xuddu shu 3 baytli masnaviy va shu payrav g'azal keltirilgan. Demak, Ahmad Tabibiy tazkirani tuzishda Laffasiy tazkirasidan unumli foydalangan va Laffasiyning Sultoniy haqidagi ilk masnaviy-ma'lumot va g'azalni keltirishni joiz topgan.

Sultoniyning tazkiradagi ikkinchi g'azali Feruzning "manga" radifli g'azaliga payrav tarzida yozilgan bo'lib, ushbu g'azal:

Qilmasang tongla rasulingdin shafolatni nasib,

Doimo Sultoniydek, isyon farovondur manga, – maqta'si

bilan yakunlanadi.

Ko'rinadiki, XX asr boshlari Xiva adabiy muhitiga doir manbalarning barchasida Sultoniy haqidagi ma'lumotlarga duch kelamiz. E'tiborlisi, Sultoniy ushbu manbalarda "sohibi devon shoir" sifatida ko'rsatiladi. Bu esa shoir hayoti va ijodi xususida jiddiy ilmiy kuzatuvlar olib borishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, Sultoniy ijodi shu paytga qadar maxsus tadqiq etilmagan. Shoir hayoti va ijodini tadqiq etish, uning Xiva adabiy muhitidagi o'rnini baholash, shoir asarlarini adabiy manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilish, lirik asarlarini adabiyotshunoslik mezonlari asosida tahlil qilish yechimini kutayotgan ilmiy vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Laffasiy. Tazkirai shuaro (nashrga tayyorlovchi: P.Bobojonov). Xorazm-Urganch. 1992.
2. Xodim. Xorazm navozandalari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1994.
3. Xodim. Xorazm navozandalari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1994.
4. Ushbu ma'lumotlar Tabibiyning 1152-raqamli qo'lyozma tazkirasidan olindi.
5. Laffasiy. Tazkirai shuaro. Xorazm-Urganch. 1992.
6. Tabibiy. Tazkira. №1152.

ID-020-30-A068

Quvondiq Davronov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA RAMZLI OBRAZLILIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq qo'shiqlariga oid nazarish qarashlar keltirilgan. Bunda turli yillar davomida nashr etilgan xalq qo'shiqlarida qo'llanilgan ramzli obrazlilikka va uning mazmun-mohiyati bilan bog'liq jihatlarga baho berilgan.

Kalit so'zlar: *xalq qo'shiqlari, ramz, obrazlilik, folklor, magiya, poetik ramz, estetik qarash, istorizm, "Oq olma, qizil olma", "Keldi bahor", qo'shiq matni, lirika.*

Annotation. In the article are presented some theoretical views on the Uzbek folk songs. It appreciates the symbolic images used in folk songs which published in some years, and the features associated with its content.

Keywords: *Folk songs, symbol, image, folklore, magik, poetic symbol, aesthetic views, historicism, "White apple, red apple", Spring comes", text of song, lyrics.*

Sermazmun dunyoqarashga ega bo'lgan dono xalqimiz poetik ijodiga mansub qo'shiqlar sodda, jo'n hamda o'ynoqi ohangi bilan har birimizning qalbimizga nihoyatda yaqin. Binobarin, birgina qo'shiq janrida yaratilgan xalq qo'shiqlarini tinglaganimizda ruhiyatimizda ko'z ilg'amas evrilish yuz beradi. Bu esa xalq qo'shiqlarining asrlardan asrlarga sayqallanib kelayotgan ohangi, mazmundorligi qon-qonimizga singib borayotganidan dalolat. Biroq shuni ham alohida ta'kidlab o'tish joizki, xalq qo'shiqlarida aytmoqchi bo'lgan fikrlarni ishoralar, ramzlarga murojaat qilish orqali badiiylikni ta'minlanishiga intiladi. Ya'ni har bir ramziylik shunchaki tasodif tarzida emas, balki qo'shiqlar matnini muayyan badiiylik darajasiga olib chiqish, mazmunida aks ettirilayotgan

voqelikni to'la-to'kis tasvirlash, tinglovchi tasavvurida obrazlilik hosil qilish maqsadida qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. Ana shunday turli ramzlar, ishoralarga boy bo'lgan bir necha xalq qo'shiqlari misolida firklarimizni asoslaymiz. Xalq lirikasi tarkibidan o'rin egallagan "Keldi bahor" nomli qo'shiqni tahlilga tortamiz:

*Boqqa kirib olma eng,
Bog'ning olmasi yaxshi.
YOrga shirin so'zni deng,
YOrning va'dasi yaxshi.*

Qo'shiq tarkibida bog', olma singari poetik ramzlarga murojaat etilgan. Bir qancha xalq qo'shiqlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarida bog' – ko'ngil, olma esa sevgi ramzi sifatida qo'llanilishi izohlangan. [1.169-bet.] Aslida ham mantiqiy fikrlaganda, ana shunday yondashish to'g'ri. Chunki qo'shiq matnida yorni bog'ga kirib olma eyishga taklif etilishi voqeligini shunchaki keltirish badiiylik kasb eta olmaydi. Qo'shiq matnida ko'ngilga tashrif etib, sevgidan bahramand bo'lish, ko'ngilning sevgisi yaxshi ekanligi aytiladi. Yorga shirin so'zlar aytilishi, va'da berilishi yuqorida tilga olingan bog'ni yashnatishga ishora.

*Qizil olma gulidek
Qizil gulligim, yorim.
Og'zida novvot bormi,
SHirin so'zligim yorim.*

Yor bu bandeda qizil olma guliga qiyoslanadi. Tashbeh va istorizm tasviriy-vositasi orqali yorning qiyofasi aks ettiriladi. Bundan tashqari sifatlash san'ati namunasini ham uchratish mumkin. "Qo'shiqlardagi lirik qahramon yor tiliga nisbatan qo'llangan jonbaxsh, asal, bol, shakar, novvot sifatlashlari poetik jihatdan ko'chim bo'lsa, tarixiy asosiga ko'ra so'z magiyasining ta'siri tufaylidir." [1.103-bet]

*YOrim chiqdi uchakka,
O'tlar soldi yurakka.*

Qanday ko'ngli chopadi

Sevganidan bo'lakka [2. 252-bet]

Xulosa qismidagi uchak tushunchasi Xorazm hududi vakillari dialektiga daxldor bo'lib, uying yuqorisi – tomini ifodalaydi. Sh.Turdimov tadqiqotida lirik qo'shiqlarda tom oila va u bilan bog'liq tushunchalar ramzidir deyiladi. [3.184-bet] Qizil olma guliga o'xshagan qizning tomga chiqishi oila qurish istagiga ishora deb tushunilishi haqida ham aytilgan. Oila qurish arafasida – bosqichida bo'lgan yor kimni tanlashi noma'lum. Uning bu xatti-harakati oshiq yigit xayollarini turfa o'ylarga soladi. Ana shu tushunchalarga ishora qilish vositasida qo'shiq matnining asosiy g'oyaviy maqsadi oydinlashadi.

Olma ramziga murojaat etilgan quyidagi “Olma pishganda galing” qo'shig'ining mazmun-mohiyati ham yuqoridagi qo'shiq singari ifodalangan.

Olma pishganda galing,

Teyina tushganda galing.

Angsa sochim jamalak,

Belima tushganda galing. [2.230-bet]

Olmaning pishishi – sevgining ko'ngilga tashrif etishiga ishora. Pishgan olma va pishmagan olma qarama-qarshi qo'yilsa, pishmagan olma – balog'atga etmagan qiz ramzini ifodalaydi desak to'g'ri bo'ladi, bizningcha. Sevgi qiz qalbida paydo bo'lganda, albatta, balog'atga etganimda mening yonimga keling, deydi. Keyingi misralarda sochim belimga tushganda keling, deyiladi. “Chunki jamalak soch qo'shiqlarda jinsiy balog'at va intim mayllarni ifodalaydi”. [3.43-bet] Soch o'stirilishi, qolaversa, qizlar balog'atga etganda turli ko'rinishda soch o'rilishi an'ana tusiga aylangan. Shuningdek, filologiya fanlari doktori, professor A.Musaqulovning monografiyasida soch magiyasi quyidagicha ta'riflangan: ...xalq qo'shiqlarida soch faqat go'zallik ramzi bo'lmay, siyrat ma'noda balog'at, sevgi, oila, farzand va baxtli-to'kin turmush g'oyalarini ham ifodalaydi.

Boshqa bir qo'shiqning "Oq olma, qizil olma" deb boshlanuvchi bandida ham olma poetik ramz vositasida g'oyaviy estetik qarashni tasvirlashga xizmat qilgan.

*Oq olma, qizil olma,
O'zgaga nazar solma,
O'zgaga nazar solsang,
O'z bilganingdan qolma.*[2. 174-bet]

Yuqoridagi poetik ramzlarning tavsifidan anglashiladiki, badiiy adabiyotning og'zaki ko'rinishidagi sodda, jo'ngina tuyulgan tushunchalar mohiyatan keng ko'lamlı ko'rinishda. Ko'ngilda hayot kechiruvchi sevgiga murojaat etilib, o'zga sevganingdan boshqa kishiga nazar solmaslik, garchi nazar solsang ham o'z bilganingdan qolma deyilishining ham ma'lum sababi bor. Sevgi his etishda shunchaki yondoshmaslik, xato qilmaslik singari mazmun yuklanganligini ilg'ab olish mumkin.

"Bog'da uchratdim sani" qo'shig'ida ham ana shu ramzlar asosiy tushunchalar ifodalangan.

*Bog'da uchratdim sani,
Gulbog'da uchratdim sani.
Har zamonda bir qarab,
Ishqingga o'rgatding mani.*

Yuqoridagi bandeda bog' – ko'ngil sifatida poetik ramz yaralaishiga tagzamin.

Yoki quyidagi bandeda olma ramzi muayyan voqelikka ham ishora qilganligini ko'rish mumkin.

*Olmani ayirdilar,
Shoxlarin qayirdilar.
Yaxshi ko'rgan yorimdan
Nomardlar ayirdilar.* [2. 86-bet.]

Olmaning ayirilishi – voqelik. Ajralishga sabab bo‘luvchi hodisani ifodalagan. Ya‘ni sevishtgan qalblar bir-biridan judo bo‘lishiga sabab bo‘lgan voqea-hodisani aks ettirgan deb aytish mumkin.

Umuman olganda, xalq qo‘shiqlarida ramzlar, turli tushunchalar qadimdan muayyan maqsadni ifodalashda, obrazlilikni ta‘minlashda qo‘llanilgan. Bugungi kunda bu kabi qo‘shiqlarni mazmun-mohiyatini to‘liq anglash ramzlar ifodalayotgan tushunchalarga bog‘liq ekanligin ta‘lidlash joiz. Ramz nafaqat tushuncha anglatadi, balki, muayyan voqea-hodisalarga ishoralar qilish orqali qo‘shiqdagi sujet bilan bog‘liq tasavvarlarni ayonlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. Monografiya. Toshkent, 2010.
2. Shoda-shoda marvarid. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. – T.: Sharq, 2006.
3. Turdimov Sh. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida poerik ramz. Fil. fan. nom.diss-si. 1987.

ID-020-30-A069

Sadoqat Hakimjonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

IBRAT ILMIY FAOLIYATI VA MAHORATI

Annotatsiya. Maqolada Is'hoqxon Ibratning ilmiy merosi, lug'atchilikka qo'shgan xissasi haqida qisqacha ma'lumot beriladi va "Tarixi Farg'ona" asaridan Namangan tarixi haqida va boshqa tarixiy asarlar bilan ushbu asarning Namangan bobining qiyosiy solishtirmasi va tarixiy haqiqatlarning uyg'unligi yoritilgan. Bunda Boburning "Boburnoma" asarlaridan qiyoslash uchun foydalanildi.

Kalit so'zlar: *Namangan, til, lug'at, tarix, qal'a, haqiqat, xalq, savodxonlik, Bobur, qishloq, ma'rifat*

Annotation. This article gives a brief overview of the scientific heritage of Ishaq Khan, a representative of Jadidism, his contribution to the lexicography and from the work "History of Fergana" about the history of Namangan and other historical works of this work Namangan. The comparative comparison of the chapters and the harmony of historical facts are used to compare the works of Bobur "Boburnoma".

Key words: *Namangan, language, dictionary, histori, fortress, truth, people, literacy, Bobur, village, education.*

XX asr haqida gap ketganda, avvalo, ko'pchilik xalq ommasini savodxon qilish, yangilanayotgan zamonga munosib farzandlarni yetishtirish kabi masalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, boshqacha qilib aytganda, ma'rifat, ozodlik tushunchalarining ma'no-mazmuniga ega bo'lgan yuksak tushunchalarni targ'ib etgan marifatparvarlarimiz ko'z oldimizga keladi. Shunday ustodi komillardan biri Is'hoqxon Ibratdir. Dastavval, allomaning shaxsiyatiga nazar tashlasak, u nafaqat ma'rifatparvar shoir, balki tilshunos, tarixshunos, ilk matbaachi, kaligraf, naqqosh va yetuk pedagog ham bo'lgan.

Ibrat zamondoshlaridan Ibrohim Davron unga quyidagicha ta'rif berib o'tgan: "Is'hoqxon to'ra ulumi diniya va fanniya hamda adabiyada ustoz komillig'i bila butun Farg'ona va digar jihati Osiyoyi ustoda inkor o'linmas darajada bir mavqei mumtoza tushmushdir. Is'hoqxon to'ra fununi dunyaviyda, biloshubha, injener, arxitektor, texnik, mexanik va fizisiya ilminda, tilifonist va ximik desak yana ozdur. Chunki bu ilmlarni bilur. Is'hoqxon to'ra..oliy va fozil bir zoti oliy o'lib, fazoili insoniyaga molik...Ba'zi ixtirolari ham bordur" [1.58-bet]. Is'hoqxonning taxallusi ham uning shaxsiyatini ochishga ko'mak beradi. Taxallus-(arab.-qutulish, xalos bo'lish) – biror ijodkor (shoir, yozuvchi, olim va shu kabi) siyosiy arboblarning o'zi uchun tanlab olgan ikkinchi nomi. Masalan: omma o'rtasida o'z ijodini ta'kidlab ko'rsatish, o'z ism-familiyasidan qoniqmaslik, muayyan xavf-xatar, taxdiddan qochish, yashirinish va b. [2.89-bet]. Is'hoqxonning o'ziga "Ibrat " taxallusini olishining sababini Professor Ulug'bek Dolimov quyidagicha bayon etgan: "Is'hoqxonning o'ziga "Ibrat" taxallusini olishboisi shundaki, u ijodining dastlabki yillaridan boshlab ma'rifatparvar shoir, olim sifatida nom chiqardi va kishilarni zamon ilmidan, ma'daniyatidan, ta'lim-tarbiya sistemasidan o'rnak olishga chaqirdi. Shuning uchun ham o'ziga "Ibrat" taxallusini tanladi" [3.45].

Ibrat sermahsul ijodiy faoliyat olib borgan. Uning qimmatli asarlari bizgacha yetib kelgan jadidlarimizdan hisoblanadi. Is'hoqxon To'raning "Jome' us-xutut" asari dunyodagi qirqdan ortiq tillar va yozuvlar haqida ma'lumot beruvchi asardir. Bundan ko'rinadiki, demak, u juda ko'plab tillarni bilgan polilog ham edi. U olti tilni o'z ichiga olgan "Lug'ati sitta-al-sina" asari, ayniqsa, diqqatga sazovor. Ushbu asar o'zining ilmiy asarlari va maqolalarida zamondoshlariga rus tili va boshqa tillarni ham o'rganishga da'vat etganini ko'rsatishga uringanidan darak beradi. Ushbu asarning chop etilishi va ommaga taqdim etilishi uzoq yillar davomida kutildi va bunda N. Ostroumovning xizmati katta bo'ldi. Jadidlarning hayotida N. Ostroumovning o'rni katta ahamiyat kasb etganini alohida ta'kidlab o'tishni o'rinli deb o'ylayman. U nafaqat ijtimoiy, balki siyosiy masalalar yuzasidan ham

ma'rifatparvarlarga yelkadosh bo'lgan. Fitrat bilan yozishmalari, Cho'lpon bilan aloqalari fikrimning dalili bo'la oladi. Ibratshunos olim Ulug'bek Dolimov ham buni alohida ta'kidlab: " O'lkada o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida u xalq o'rtasida katta obro'ga ega bo'lgan Muqumiy, Furqat, Nodim, G'urbat, Kamiy kabi ma'rifatparvarlarning kirib, undagio'quv sistemasi, laboratoriyalari, o'qituvchilari bilan tanishuvlariga N. Ostroumovning imkoniyat yaratib berdi. Shuning uchun ham ular N. Ostroumovni ancha mamnuniyat bilan tilga oladilar",-deya qayd etib o'tadi. [4.34].

Lug'at mingdan ortiq so'zni o'z ichiga olib, 53 betdan iborat". [5.56] Asar ikki qismdan iborat bo'lib u quyidagilarni o'z ichiga olgan: birinchisi: fe'llarning noaniq shakli va kelasi zamon shakllari, ikkinchisi 37 bobdan iborat bo'lib, fe'lning boshqa shakllari, otlar, kishilik olmoshlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu asar o'zbek tilida va ko'p tillik lug'atlar tuzishdagi ilk qadam bo'lgan. Ibrat Sharq tarixchilarining ilmiy asarlarini ham o'rganib, unga o'zining tanqidiy fikrlarini ham bayon qiladi va o'zining " Tarixi Farg'ona" nomli asarini yozadi. Ushbu asar nafaqat Qo'qon xonligi, balki, O'rta Osiyo xonligining tarixini yoritganligi va ishonchli manbaligi bilan ham muhim. Ibrat bu asarning yozilishi tarixini quyidagicha ta'kidlagan: "Bu "Tarixi Farg'ona" ni yozmoqdin maqsad izhori hunar musannifqatorig'a kirmak yoki ta'mini tiriklik yo'lidan bo'lmay, balki bani basharni (ng) tiriklik qilishi, sanoat va ziroatlarini, madaniyat va badaviyatlarini xalqlarga ko'rsatmak, bizdan keyin keladurgonlar o'tkanlarning turmush va qilmush va bilmush ishlaridan ibrat olsun. O'z zamoni bilan o'tgan zamoni tarozu qilib,vaznini bilsun uchun ham ilmi tarix bir ilmi ta'rifdur" [6.76] Misol sifatida berish mumkinki, Ibrat ushbu asarining "Tarixi Namangon" qismida diqqatga sazovor ko'plab ma'lumotlarni berib o'tadi.Alloma ushbu asarida o'zi tug'ilib o'sgan joyi To'raqo'rg'on haqida ham alohida to'xtalib, Namanganning poytaxti bo'lganini, Rossiya davlatiga o'tganidan so'ng, u bir qishloq bo'lib qolganini qayd etadi. To'raqo'rg'on Dashti qipchoq xonlaridan Axmadxon ya'ni Shig'ayxonning Yusuf to'ra va Ya'qub to'ra degan o'g'illari bino qilib, Shig'ayxon ta'rafidan Qa'layixon deb atalsada,

ularning ismlariga To'raqo'rg'on deya atalganligini e'tirof etgan. Olim Namangan nomining atalish sababini izohlab : “..Buxoro xonlaridan Abdulloxon bu Farg'ona taraflariga kelib, har yerga goh sardobalar kavlab, saqqoyi mo'mininga, chohlarning tepasiga gumbazlar qilib, ko'b xalqg'a naflik ishlarni qilgan xon ekan..ul yerga tushub, darhol sardoba kavlatib, necha kunlar tutib, bir ta'rafi daryova bir ta'raf tog' havosi yaxshi uchun bu yerga bir shahar bino qilib, shahar qilmoq bo'lganda o'shal yerni daryo ta'rafi butun sho'r bo'lib yotgan tuz ekan. Binobaron, namak kon deb, ya'ni tuz kon deb atalgan ekan. Bu namak kon lafzini forsiyda gon qilib yozub, namakkonni namangon deb deb, bir nuni zoida ilan namangon bo'ldi, asli namakkondir”. [7.90] Bizga ma'lumki Namangan Farg'ona vodiysining qadimgi shaharlaridan. Zahiriddin Muhammad Bobur ham o'zining “Vaqoe” asarida Namanganga alohida to'xtalib o'tadi va Axsikent qal'asini quyidagicha ta'riflaydi: “Sayhun suyining shimoli tarafidag'i qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikent biturlar. Nechukkim, Asiriddin shoirni Asiriddin Axsikantiy derlar. Farg'onada Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qtur. Andijondin g'arb sori to'qquz yig'och yo'ldur. Umarshayx Mirzo muni poytaxt qilib edi, Sayhun daryosi qo'rg'onining ostidin oqar”. Boburnomada qayd etilishicha, Axsi asosiy shahar va uning yonida Namangan qishlog'i bo'lgan.

Demak, Namangan qishlog'i haqidagi dastlabki ma'lumot Boburning ushbu asarida qishloq sifatida eslatib o'tilgan. Yana bir shahar Koson haqida ham Boburnomada ma'lumot uchratamiz. “Yana bir Kosondur. Axsining shimolida tushubtur. Kichikroq qasabadur. Nechukkim Andijon suyi O'shdin kelur. Axsi suyi Kosondin kelur”. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Namangan shahri haqida shugina ma'lumot bor xolos. Ibratning ushbu asari orqali ko'plab ma'lumotlar o'zining isbotini topsada, biroq u asarida Namangan aholisining kelib chiqishi, shahar sifatida vujudga kelishi haqida batafsil to'xtalib o'tmaydi. Tarixchilarning xabar berishicha, “...582-yilda asir olingan forslar bu yerga kelib joylashtiriladi. 643-yili vaqf hujjatida ham shahar deyilgan. Shahar tuz koni yaqinida barpo bo'lganligi uchun nomi “namak kon” so'zlaridan deb

taxmin qilinadi.. .. Aysi (Axsikent) zilzilada vayron bo'lgach, uning aholisi yaqinroq joylashgan Namanganga ko'chib o'tadi.Tarix fanlari nomzodi Z.Sh.madrahimov ta'kidlashicha, " ...Namangan Farg'ona vodiysidagi qadimgi shaharlardan shahar ko'chmanchi chorvador va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi yashaydigan chegarada vujud kelgan"ini aytib aholining kundalik faoliyati haqida ham ma'lumotlar keltiradi va yana" 1819-1822- yillarda Yangiariq kanali qazilib, shaharning suv ta'minoti ancha yaxshilanadi. 1842-1845- yillarda shahar atrofi mustahkam devor bilan o'rab olindi. 1876-yil fevralda Qo'qon xonligi tugatilgach, Namangan uezdi shaharlaridan biri bo'lib qoldi",-deya aytib o'tadi va biz bu ma'lumotlarni Ibratning yuqoridagi asarida uchratmaymiz. Bunga sabab uning maqsadi asosiy ma'lumotlar bilangina cheklangani desak to'g'ri bo'ladi nazarimda. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, ushbu asarda nafaqat Namangan, balki boshqa shaharlar, podshohlar va shaharlarning paydo bo'lish tarixi haqida ma'lumotlar jamlangan. "Tarixi Farg'ona " asari O'rta Osiyo tarixini yorishida juda qimmatli manba bo'libgina qolmay, asosli va faktlarga boyligi bilan ham olimlar diqqatini o'ziga tortmoqda. Is'hoqxon Ibrat o'zining ilmiy faoliyati davomida kelajak avlod uchun ishonchli va muhim bo'lgan ulkan me'ros qoldira oldi. O'z davrining yirik muarrixsi sifatida asarlar yarata oldi. Uning ilmiy-tarixiy asarlari bugungi kun nuqtai nazaridan ham muhim manbadir. Shu sababli olim ijodi qizg'in o'rganish, ilmiy merosini yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilib aytib o'tishimiz mumkinki, serqirra ijodkorlardan biri bo'lgan Ibrat merosi ulkanligi va tarixiy asarlarining haqiqatga yaqinligi bilan ham ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B., Dolimov U., Ma'rifat darg'alari. Toshkent: O'qituvchi, 1990.
3. Begali Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh., va boshqalar. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. Darslik. Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
- 4.Бобур Захриддин Мухаммад. Toshkent: Юлдузча, 1989.

5. Istiqlol qahramonlari.Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
6. Is'hoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona, O'zSSR Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi,inv. № 11080]
7. Turkiston viloyatining gazet, 1908-yil, 56-son.
9. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi",-"Toshkent" 2000-yil.

ID-020-30-A070

Sevara Fayzullaeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

NAJMIDDIN KOMILOV – SHARH ILMI BILIMDONI

Annotatsiya. Maqolada navoiyshunos olim Najmiddin Komilovning ilmiy faoliyati yoritilgan. Olimning Alisher Navoiy ijodini o'rganishga qo'shgan hissasi ilmiy asarlari misolida tahlilga tortilgan. G'azal tahlili, sharhlaridagi o'ziga xoslik ko'rib chiqilgan, qasidalar tarjimai ham olim talqinida ommabop, tushunarli berilgani ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *G'azal, qasida, nasriy bayon, sharh, tarjima.*

Annotation. The article describes the scientific activity of Navoi scholar Najmiddin Kamilov. The scientist's contribution to the study of Alisher Navoi's work is analyzed on the example of his scientific works. The analysis of the ghazal, the originality of its commentary is considered, and the translation of the poems is also shown to be popular and understandable in the scholar's interpretation.

Keywords: *ghazal, qasida, prose statement, commentary, translation.*

Mumtoz adabiyotimiz namunalarini sharhlash qadimdan shakllanib kelgan. Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Bedil, Xo'ja Hofiz kabi shoirlar asarlari turli davrlarda sharhlangani ma'lum. Sharh asarning ma'no mazmunini soddaroq qilib tushuntirishga, asardagi ibora va istilohlar ma'nosini ochib berishga xizmat qilgan. Sharh birinchidan, mashhur asarlar g'oyalari ma'nosini soddaroq tarzda keng o'quvchilarga taqdim etishga ko'maklashsa, ikkinchidan, yangi-yangi asarlarning yaratilishi, o'lmas insoniy tuyg'ular, tafakkur va aqliy-ijodiy kashfiyotlarning yaratilishiga sabab bo'lgan [1.3-bet].

Hazrat Alisher Navoiy ijodini o'rganish shoirning hayotlik davridan boshlangan. Uning yaratgan asarlari asrlar davomida turli millat vakillari tomonidan turli tillarda izohlanib, sharhlanib kelinmoqda. XXI asrda ham

insoniyat Navoiy ijodiga shoirning insoniyat uchun yaratgan o'lmaz g'oyalariga ehtiyoj sezadi. Zero, bu g'oyalar xalq ommasini zavqlantirishga ko'maklashibgina qolmay, insonlarning ruhiyatida kamolot yo'lida, ta'lim tarbiyasida ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Navoiyshunos olimlarimiz shoir ijodini xalqqa yaqinlashtirish va asarlarining tushunilishini oson bo'lishi maqsadida nasriy bayonlar, sharhlar va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Shunday tadqiqotlar sirasida Najmiddin Komilovning hazrat Alisher Navoiy lirikasidan o'rin olgan g'azallar sharhi katta o'rinni egallaydi. Olim ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlari biri Navoiy g'azallarining sharhidir. U sharhlarni oddiy (izoh) va murakkab sharhlar sifatida 2 guruhga ajratadi. Oddiy sharhda she'riy asarning ma'nosi shunchaki izohlanadi. Murakkab sharhda esa bir she'r yoki bir bayt butun boshli risola va kitoblarda har tomonlama keng va chuqur tahlil etiladi.

Olim ta'kidlashicha: "badiiy asar, jumladan g'azalni sharhlashning o'z talablari bor. Sharh bu hamma vaqt asarning o'rnini bosa olmaydi. Sharh shu kabi tom ma'nodagi adabiy tanqid yoxud tadqiqot emas, garchi unda tadqiqotiy va interpretatsion xususiyatlar bo'lsa ham. Sharhning bosh maqsadi asarning (jumladan g'azalning) qiyin iboralari ko'p ma'noli murakkab o'rinlarini soddaroq qilib tushuntirishdir" [1. 3-bet].

Alisher Navoiy g'azallari tahliliga bag'ishlangan "Ma'nolar olamiga safar" nomli asari g'azalshunoslikda shoir g'azallari ma'nosini uning tasavvufiy istilohlari bilan birga anglatishga bag'ishlangan muhim tadqiqotdir. Asar shoir ijodi namunasi bo'lmish 50 ta g'azal sharhidan iborat. Kitobda g'azallarga berilgan sharhlarga qarab olimning uslubini quyidagicha tasniflab olish mumkin:

Birinchidan, g'azaldagi notanish so'zlar (qadimda qo'llanilib bugungi kunda iste'molda bo'lmagan) va tasavvufiy istilohlar ma'nosini lug'at shaklida izohlanadi. Ikkinchidan, g'azaldagi har bir baytning ma'nosi nasriy bayon shaklida taqdim etiladi. Uchinchidan, g'azalning umumiy mazmuni, mohiyati yoritib beriladi.

Najmiddin Komilov asarda oddiy inson mushohada qilishi qiyin bo'lgan misralar ma'nosini o'zining sharhlash prinsipi orqali sodda va oson tarzda tushuntiradi. Olim g'azallarni go'yoki musiqa deb aytadi. Chunki g'azaldagi har bir so'z nozik va nafis, undagi mazmun va ohang ham o'zaro mutanosibdir. Aruz vazni qoidalariga ko'ra g'azaldagi bitta tovush yoki qo'shimcha noto'g'ri talaffuz etilsa, vazniga tushmasa g'alizlik va dag'allik va ma'no o'zgarishi yuz beradi.

Zukko olim Navoiy g'azallarining mazmun-mohiyatini yoritish bilan birga uning kompozitsion tuzilishdagi o'ziga xoslikka ham e'tibor qaratadi. Jumladan, tadqiqotchilar g'azalni tuzilishiga ko'ra 4 turga ajratishadi: parokanda, yakpora, voqeaband va musalsal g'azallar. Olim bunday tuzilishning barchasi ham Navoiy uslubi talablariga to'g'ri kelmasligini isbotlab beradi. O'zaro bir-biriga bog'lanmagan mustaqil baytlar uchun qo'llanilgan parokanda istilohini qoralaydi. Olim parokandalik badiiy asarga xos tushuncha emas, u butunlay bog'lanmagan baytlar yig'indisini bildiradi. Navoiyda bunday she'r yo'q. Baytlar yuzaki qaraganda mazmunan bog'lanmagan, turli mavzuda bo'lib tuyulsada, botinan ular aloqador. Shuning uchun bunday g'azallar tahlilida bevosita bog'lanish(musalsal) va bivosita bog'lanish degan tushunchalardan foydalanishni ma'qul deb aytadi. "Ahd qildim ishq lafzin tilga mazkur etmayin" nomli g'azalni ham olim hasbi hol tarzida yozilgan oshiq kechinmalarini ifodalaydigan asar deb aytadi. G'azal quyidagicha boshlanadi:

Ahd qildim ishq lafzin tilga mazkur etmayin,

Til nekim, xomam tilidin dog'i mastur etmayin.

Najmiddin Komilov mazkur baytni quyidagicha izohlaydi: "Mazkur" – zikr etish, tilga olish, "xoma" – qalam, "mastur" – yozish raqam etish. Bu baytning qolaversa butun g'azalning o'zak- kalit so'zi ishqdir. So'fiylar talqiniga ko'ra, ishq- do'stlik tuyg'usining oliy darajaga ko'tarilishi: do'st orqali ma'rifatni shohni sevish. Do'st deganda ular yuksak zakovat, qalbida ezgulik nuri porlab turgan inson va Mutlaq ilohni anglaganlar. Ishq so'zi ranj, dard so'zlari bilan ma'nodosh bo'lib qolgan. Bu so'zning asl etimologik ma'nosi ham

shunga ishora etadi: u arabcha “ashaqa” (zarpechak) soʻzidan kelib chiqqan. Zarpechak bilamizki, oʻt-oʻlanlar daraxtlarga oʻranib olib, ularning shirasini soʻrib quritadigan giyoh. “Ishq ham avjga koʻtarilganda bamisoli zarpechakday odamni bedarmon qiladi, sezish qobilyatini susaytirib, eb-ichishdan mahrum etadi, ishqqa chalingan kishiga oʻzgalarning gap soʻzi malol keladi, u doʻstdan boshqaga qaramaydi” deb “Istilohoti urafo” lugʻatining muallifi Sayid Jaʼfar Sajjodiy. Navoiyning lirik qahramoni ishq soʻzini tilga olmaslikka, tilga olishgina emas uni hatto qogʻoz sahifasiga yozmaslikka ahd qildim deydi. Giriftorlik girdobi ichidagi hasrat bu, ammo u yolgʻon “ahd”. Aslida oshiq battar bu bahri azimga shoʻngʻimoqchi, zero oshiqning zanjiri ham, qanoti ham ishq, uni bud etadigan ham, nobud qiladigan ham qutulib boʻlmas shu Buyuk joziba” [3. 224-225-bet].

Olim ramali musammani mahzuf bahrida yozilgan sakkiz baytli ushbu gʻazalning besh bayti tavba tazarru mazmunida yozilgan, qolgan uch bayti gʻazalning umumiy maʼnosi bilan bevosita emas, balki bivosita bogʻlanganligi isbotini butun boshli gʻazalning sharhida isbotlab beradi.

Najmiddin Komilov gʻazallar mavzusiga koʻra asosan 2 turga boʻlib, ulardagi mohiyat yaqinligini quyidagicha izohlaydi: “Navoiy va ulugʻ shoir gʻazallarini ikki guruhga ajratib (orifona va oshiqona gʻazallar) oʻrganar ekanmiz, shunga amin boʻlamizki, oshiqona gʻazallar “sof dunyoviy” mazmundagi asarlar emas, shu kabi orifona gʻazallarni ham butkul dunyoviy gʻoyalardan holi deb boʻlmaydi. Orifona gʻazallarda ilohiy maʼrifatga erishish yoʻli bevosita talqin etilsa, oshiqona gʻazallarda bu maqsad dunyoviy kechinmalar, kasrat olamining rang-barangligi, bunga oshuftalik va ana shu oshuftalik zamiridagi ilohiy goʻzallikni kashf qilish, idrok etish buning ming-ming koʻrinishdagi yoʻllari qiynoqlari tasvirlanadi. Bunda “majoz” (surat, kasrat) va “haqiqat” (ilohiy nur) bir-biriga zid qoʻyilmaydi, biri qabul qilinib, ikkinchisi inkor qilinmaydi, balki majozdan Haqiqatga, suratdan Maʼnoga qarab borish kuzatiladi” [1. 5-bet].

To'ychi Hofiz Toshmuhammedov tomonidan "Ushshoq" kuyiga solib kuylangan "Qaro ko'zum" nomi bilan mashhur bo'lgan g'azalda buning yaqqol isbotini ko'rishimiz mumkin:

Qaro ko'zum, kelu mardumliq emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosig'a mardum kibi vatan qilg'il.

Shoir qaro ko'zum deb aynan kimni nazarda tutayapti, oshiqning o'z ma'shuqasiga bo'lgan dil izhori bo'lsa nega yorga qaro ko'zum deb murojaat qilyapti degan savollar albatta oddiy o'quvchi mushohadasida paydo bo'lishi aniq.

Olim g'azalni quyidagicha sharhlaydi: "Ushbu g'azalda oshiqning etuklik va kamolot timsoli – Komil insonga muhabbat ifodalanadi. Tasavvuf lug'atlarida ko'z – Komil inson timsoli deb sharhlanadi, chunki u faqat o'zgalarni ko'radi, o'zini esa ko'rmaydi. Agar yuz ilohiy zuhurot ramzi bo'lsa, ko'z shu ilohiy zuhurotni jamlagan manba – mazhari komillikning ramzi. Ko'zni sevish orqali ilohiy jamolni sevish ifodalanadi. Navoiy qahramoni ana shu insonni o'z ko'zining gavhariga aylantirmoqchi - qalb chirog'i etmoqchi bo'ladi. Shoir ishlatgan so'z o'yinlari ham shunga yo'naltirilgan: "mardum" – ko'z qorachig'i va insoniylik ma'nosida keladi, "fan" – odat, o'rganish va tadbir" [1.176-bet].

G'azalning matlasidayoq bu g'azal oshiqona mavzuda ekanligi anglashinib turibdi. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ishqning marotiblarini (martabalarini) 3 turga ajratadi: 1) avom ishq; 2) xoslar ishq(majoziy ishq); 3)siddiqlar ishq(haqiqiy ishq).

Ishq darajalari bir-biridan qanday xos jihatlari bilan farq qiladi. Yuqorida keltirilgan matlada ishqning qaysi darajasi nazarda tutilyapti degan savollar o'quvchida paydo bo'lishi mumkin. Bu kabi savollarga olim Navoiy ijodining mazmun mohiyati vahdat tushunchasini "moddiylik va ilohiylikning birligi" bilan izohlaydi. Vahdatni yuzaga keltiruvchi ilohiy tajalli, majoziy ishq va haqiqiy ishqdan paydo bo'ladi. O'z navbatida majoziy ishq va haqiqiy ishq bir-biridan uzilgan tushunchalar emas. Majoziy ishq tong yorug'i haqiqiy ishq

quyoshning o'zi. Majoziy ishq solik vujudini fano etuvchi, ilohiy vahdatga olib boruvchi kuch. Inson o'zlikdan qutulmay Ilohga etolmaydi deb ta'kidlaydi N.Komilov. "Qaro ko'zum" g'azalining sharhida olim majoziy muhabbat zamirida Iloh ishqni majudligini ko'rsatadi.

N.Komilov tarjimon sifatida Alisher Navoiyning fors tilida yozilgan "Sittayi zaruriya" (Olti zaruriy qasaida) tarkibidagi "Ruh ul-quds" (Muqaddas ruh), "Ayn ul-hayot" (Hayot chashmasi), "Tuhfat ul-afkor" (Fikrlar tuhfasini), "Qut ul-qulub" (Qalblar quvvati), "Minhoj un-najot" (Najot yo'li), "Nasim ul-xuld" (Jannat shabadasi) qasidalarining har birini alohida o'rganib, uning tasavvufiy mazmuni va badiiy qimmatini ko'rsatib berdi. Olim "Sittayi zaruriya" qasidalarini bir-birini davom ettiruvchi bir turkum asarlar deb ta'kidlagan.

Qasidalarining yozilish tarixiga ham to'xtalib, "Sittayi zaruriya" qasidalarini yozishga Navoiyni avval ustoz Jomiy, ul zot vafotidan keyin Sulton Husayn Boyqaro undaganlar. Buni shoir "Sittayi zaruriya" muqaddimasida qayd etgan [2, 196-bet]. Olim qasidalar uslubi haqida ma'lumot berib shunday deydi: "Sittayi zaruriya" qasidalarining har biri alohida xususiyat va uslubga ega, chunki, deylik birida qiyosiy tashbehlar, boshqasida tahliliylik, yana birida esa tasviriy va tahliliy usul etakchilik qiladi. Masalan, "Tuhfat ul-afkor" da tamsil keltirish, arab harflari bilan so'z o'yini qilish (kitobat san'ati) asosiy o'rin egallaydi. Har bir baytning birinchi misrasidagi fikr ikkinchi misrada tashbehiiy misol bilan isbot qilib boriladi:

Aqlu ganji neknomi, ishq har dam olame,

Xonadorey kori zan lashkar nasibi shavhar ast.

(Aql – yaxshi nom xazinasini saqlovchi bo'lsa, ishq har damda bir olamni oladi. Ha, uning egasi – xotin, lashkar esa er nasibasidir). Bunda aql – nomus xazinasini posboni xotin kishiga va ishq lashkarni boshqaruvchi erkak kishiga o'xshatilgan.

"Ruh ul-quds" samoviy va erdagi hodisalarni ketma-ket bayon etish, bu hodisalarning ilohiy qudrat natijasi ekanini tafakkuriy tahlil bilan ochib berish orqali yaratilgan bo'lsa, "Ayn ul-hayot" qasidasida ham tamsil, ham bayon, ham

ko'tarinki ruhdagi tasvirlar bor. "Minhoj un-najot" esa ehtiros zamirida tanbeh – nasihat ohangi bor til bilan yozilgan. Bu qasidada odamzotning nuqsonlarini ochib ko'rsatishga ko'p e'tibor qiladi [2, 200-201-bet].

N.Komilov "Sittayi zaruriya" tarkibidagi har bir qasidaning umumiy ma'nosi va shoirning maqsadi nima ekanligini aniq ko'rsatadi: 1-qasida tavhid – olam yagonaligi.Yagona abadiy va azaliy borliq,Yagona Parvardigorning qudrat va azimati, zarradan to koinotgacha jamiki olam ishlari o'zgarishlar,harakatlarni boshqarib, O'z qudratini namoyon etishi madh etilsa; 2-qasidada olam mehvari payg'ambarimiz Muhammad (SAV)ning muborak me'roji; 3-qasidada faqr va saltanat o'zaro qiyoslanadi; 4-qasidada dunyoning bebaqo va bevafoligi; 5-qasidada jannatdan quvilgan Odam Ato farzandining Komil insonga xos bo'lmagan qusurlari; 6-qasidada ana shu nuqsonlardan qutulishning yo'li tasavvuf va tariqat haqida so'z boradi. Olim qasidalar sharhiga bag'ishlab "Forsiyda ham suhan pardozi aylab", "Tatabbu – ijodiy musobaqa" nomli shoirning falsafiy merosiga oid umumlashtiruvchi maqolalar ham e'lon qilgan.

N.Komilovning olib borgan ilmiy izlanishlari Navoiy ijodini o'rganishda yangicha yondashuvni boshlab berdi. Chunki olim mumtoz adabiyotimiz namunalari tasavvuf bulog'idan sug'orilgani, tasavvuf istilohlari mazmun-mohiyatini bilmasdan turib asarni his qilib o'qib bo'lmashligini yana bir karra kitobxonga anglatdi va bu yo'lda o'zi tinimsiz mehnat qildi. O'ylaymanki, Navoiy g'azallari sharhi XXI texnika taraqqiyoti asrida o'quvchilarda mumtoz adabiyot namunalariga qiziqish, shoirning teran tafakkuri mahsullaridan ma'naviy ozuqa olishlariga sababchi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Т.: Тамаддун, 2012.
2. Комилов Н. Хизр чашмаси. – Т.: Маънавият, 2005.
3. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Т.: Ёзувчи, 1996.

ID-020-30-A071

Sevinch G'afforova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

MAQOLLARDA TABIAT HODISALARINING AKS ETTIRILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan maqollarda ajdodlarimizning tabiat hodisalari haqidagi yillar davomida tajriba asosida yuzaga kelgan qarashlarining hozirgi kun tabiiy fanlar yutuqlari bilan hamohang ekanligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Hut, Asad, Sunbula, paremiologlar, qo'noq.*

Annotation. this article discusses the strong relationship between the views of our ancestors that appeared over the course of their many years of experience about natural phenomena in proverbs as the examples of the public domain and today's achievements of natural sciences.

Key words: *Hut, Asad, Sunbula, paremiologists, guest.*

Maqollar olami turli soha mutaxassislari hisoblangan olimlar – paremiologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, folkloristlar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun “hosildor maydon” hisoblanadi [2.4-bet]. Unda vatanparvarlik, to'g'rilik va egrilik, mehnatsevarlik-u halollik, adolat, do'stlik-u dushmanlik, tinchlik, botirlik va qo'rqqoqlik, donolik va nodonlik, hurmat, izzat, odob va odobsizlik, ilm va ilmsizlik, kasb-hunar, tarbiya va odat, mehmondo'stlik, saxiylikvabaxillik, kamtarlikvamanmanlik, oila, rizq-nasiba, dehqonchilik, yil fasllari kabi qator hayot qirralari estetik va falsafiy qarashlarda aks etadi. Shuningdek, maqollarda xalqimizning o'zini o'rab turgan borliq va tabiat hodisalari haqidagi bilimi o'z ifodasini topadi. Biz quyida tahlilga tortgan maqollarda ajdodlarimizning tabiat hodisalari haqidagi yillar

davomida tajriba asosida yuzaga kelgan qarashlarning hozirgi kun tabiiy fanlar yutuqlari bilan hamohangek, xususan, qadimdan insonlar qurg'oqchilik o'z hukmini surgan davrda tabiat in'omi bo'lgan toshbaqalarni oyog'idan osib qo'yib ustidan suv quyishgan va ushbu amal ortidan yog'ingarchilik bo'lishiga ishonishgan. Ko'p hollarda bu e'tiqod o'z samarasini bergan. Quyida esa shu kabi xalq donishmandligi asosida yuzaga kelgan tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlar to'g'risidagi maqollar tahlili bilan tanishamiz:

Yozda yopinchi'ingni tashlama, qishda o'zing bilasan[4.248-bet]-maqolida qahraton qish o'tdi, endi yoz issiq kiyimlar kerak emas degan tushuncha noto'g'ri. Tabiatda har xil holat kuzatilishi mumkin, kutilmaganda havoni kayfiyati aynib afsus qilishing mumkin kabi ma'no yuzaga keladi. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma'lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi. Masalan, ushbu maqolni ta'rifiga nazar solaylik:

Yaxshi kelsa hutni ko'ring, Xurma-xurma sutni ko'ring[4.249]-HUT[1. 566-bet] oyi shamsiya yil hisobida o'n ikkinchi oyning arabcha nomi(22-fevral-21-mart), qish oxiri, qishki oziq-ovqat zahirasi tugagan, yerda hayvonlar uchun o't-hashak topilmaydigan bir davr. Agar hut davri uzoq cho'zilmasdan yerda o't-o'lanlar unib, borliq uyg'onsa shu yil jonliqlardan olinadigan hosil ham yaxshi bo'ladi, kabi mazmun maqolda mujassamlashgan.

Kun g'amini sahar ye, Yil g'amini bahor ye[4.248-bet] Xalqimizda:"erta turganga xudo beradi", - degan naql bor. Kunni yaxshi davom etishi erta saharda turib ishlarni rejalashtirib, saranjomlab boshlanishiga bog'liq. Shuningdek sahardagi toza havo insonga g'ayrat bag'ishlaydi. Yilning g'amini bahor-yoz fasllarida yerga ishlov berish orqali yeyish(tayyorlash) kerak.

Payti kelsa, daraxt gullar[4.248-bet]-ko'rinishidan soddadek tuyuladigan ushbu maqol qarida ikki xil ma'no mujassam. Birinchisi o'z ma'nosi hisoblanib bahor kelsa,ya'ni uyg'onish davri kelsa daraxtlar gullaydi. Ikkinchi

ma'nosi esa ko'chma ma'nosi hisoblanib, biror bir ishning natijasini ertaroq bilishga shoshilmaslik kerak, barchasi payti kelganda ayon bo'lishi ta'kidlanadi.

Yozgi harakat — kuzgi barakat[4.247-bet]- yoz mahali barchaga ma'lum bo'lganidek dehqonlar yerga o'z mehrlarini berib shudgor qilishadi, barcha meva-yu sabzavotlar, ekin-tekintlar yer bag'riga unib o'sish uchun joylanadi. Kuzda esa bu harakatlar o'z mevasini berishi ushbu maqolda mujassamlashgan.

Yozda jarohat ko'rsang, Qishda rohat ko'rasan[4.247-bet]-yoz bo'yi sabr-matonat va tinimsiz mehnat evaziga ekilgan ekin kuzda yetilib hosili yig'ib olinadi va qishga g'amlab qo'yiladi. Sababi qish davomida yer sathini ayoz sovuqligi egallab hosil unmaydi. Yozda to'kilgan ter evaziga qishda rohat qilish nazarda tutilgan.

Asadda oralab ye, Sunbulada – saralab[4.247-bet]- maqolida ASAD [1. 104-bet] oyi shamsiya yil hisobida beshinchi oyning arabcha nomi(22-iyul-21-avgust oralig'iga to'g'ri keladi). Bu oy hosil endi yetilayotgan palla bo'lib, mahsulotlarni oralab pishgan, rasta bo'lganlarini iste'mol qilish kerak. SUNBULA[1.S.587-bet] oyi shamsiya yil hisobida oltinchi oyning arabcha nomi(22-avgust-21-sentabr davriga to'g'ri keladi). Bu vaqtda ayni pishiqchilik davri hisoblanib, hosil mo'l-ko'l bo'ladi va ularni saralab-saralab iste'mol qilish mumkin- talqini yuzaga chiqadi.

Aqrabda jo'xorini sovuq urmasa, Oxiratda ham urmas[4.247-bet]- maqolini tahlil qiladigan bo'lsak, AQRAB [1. 127-bet] oyi shamsiya yil hisobi bo'yicha sakkizinchi oyning arabcha nomi(22-oktabr-21-noyabr). Ushbu oyda kelgan sovuq havo hosilni urib ketishi va hosil yig'ib olinmasdan yaroqsiz bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun xalqimiz tomonidan Aqrab oyidagi sovuqdan asralgan jo'xorini Oxiratda ham sovuq urmasligi haqida naql qilinadi.

Kuzning bir kuni qishning bir oyini boqar[4.248-bet] – ushbu maqolda yil fasllari oltini bo'lmish kuzning bir kuni haqida so'z borar ekan kuz fasli pishiqchilik va hosilga boy hisoblanadi, qishda esa g'amlangan zahiradan

foydalaniladi va tejamkorlik asqotadi. Kuzda iste'mol qilinadigan bir kunlik oziq qishda bir oyga yetarli bo'ladi.

Aziz momo olti kun,

Qaltirasa — qatti kun,

Sakransa — sakkiz kun,

To'qransa — to'qqiz kun,

O'qransa — o'n kun.[4.247-bet]

Ayamajuz olti kun, Olti oy qishdan qattiq kun[4.247]-AYAMAJUZ [1.A.125-bet] Navro'zdan oldin keladigan va qish intihosiga aloqador ayoqli hafta bo'lib, aslida «**to'qson**»ning ilovasi hisoblanadi. O'rta Osiyo xalqlarida qadimdan qish to'qson kun sanalib, shu muddat «to'qson» deb atalgan, so'ngra qirovli kunlarning cho'zilishi inobatga olinib, ehtiyot yuzasidan unga yana o'n kun qo'shib, yuz kunga to'lg'azganlar va uni «**sadi pok**» deb yuritganlar. Hozirgi hisobga ko'ra, «to'qson» **13 dekabr**dan **13 martgacha** bo'lgan muddatga to'g'ri keladi. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, to'qsonning oxirgi haftasi-hamisha sovuq zo'rayib, hatto yer muzlashgacha borib yetadi. Shu olti kun «**Ayamajuz, Ayyom yoki shisha kunlari**» deb atalgan. Abu Rayhon Beruniy bu kunlarga xalq e'tiqodi asoslarini «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida shunday ta'riflaydi: «Shu oy ichida «**kampir kunlari**» bo'lib, uning boshi yigirma oltinchi shubotdir. U ketma-ket yetti kun bo'ladi. yil kabisali bo'lsa, to'rt kuni Shubotdan, uch kuni ozor oyidan bo'ladi: yil kabisali bo'lmasa, uch kuni Shubotdan, to'rt kuni ozordan bo'ladi... Qadimgilar hikoyasicha, bu kunlar «kampir kunlari» deb atalishining sababi shuki, ... Od qavmi shu kunlarning qattiq sovuq shamoli, girdoblari va dahshatlari bilan halok bo'lgan. Ular jumlasidan bir kampir tirik qolib, halok bo'lganlarga marsiya aytib, yig'lagan. Shuning uchun bu kunlar «kampir kunlari» deb atalgan. U kecha-kunduzlaming qissalari mashhurdir. ... Ba'zilarining gumonicha, shu kunlarning «kampir kunlari» deb atalishiga sabab shuki, bir kampir havoning isiganini ko'rib, paxtali kiyimini yechib tashlagan va shu kunlaming sovug'ida o'lgan. Ba'zi arablar fikricha, «kampir kunlari»ning

bunday atalishiga sabab, bu kunlar qishning «kampiri», yani oxiridir»[5.294-bet]. Mana shulardan bexabar holda mazkur maqol «mag'zi»ni chaqish qiyin.

To'qson kirs, to'rg'ay odimicha kunuzayar[4.249-bet]- ushbu maqolda "to'qson" yuqorida ko'rib o'tganimiz qishning uch oyi bo'lib, qishda kun qisqaradi va tun uzayadi. Kunning qishga kelib uzayishi to'rg'ayning odimi(qadami)dek qisqa bo'lishi nazarda tutilmoqda.

Qishning qori — yozga dori[4.249-bet] – ushbu maqolda yoritilishi lozim bo'lgan ma'no shuki, qish davomida yog'gan qor va yomg'ir suvlari kurrayi zaminga yozgi ekinlar uchun dori bo'lib, shu yil hosil mo'l ko'l bo'ladi.

Qantar og'sa, qor turmas [4.249-bet]- maqolida Qantar [1. 241-bet] og'di: qishning yarmi o'tdi, ikkinchi yarmi boshlanib yer tagiga issiq kiradi, bu bahorninh yaqinligidan darak beradi va bu vaqtda yog'gan qor yerda qolmasdan erib ketadi. **Ertalabki tuman ochar, Kechki tuman sochar**[4.249-bet]-qadimdan beri xalqimiz tuman yer yuzini qay paytda qoplashi bilan shu yoki ertangi kun ob-havo qanday bo'lishini tahmin qilganlar, ya'ni tuman ertalab tushsa biroz vaqtdan keyin kun yorishib, havo isiydi, agar tuman kechki paytda tushsa oqshom va ertangi kunda yog'ingarchilik bo'lishi ehtimolda tutgan.

Er tug'ilsa – elning baxti, Yomg'ir yog'sa – yerning baxti[4.249-bet]- qo'ng'iroqdek yig'isi olamni tutadigan Alpomishdek o'g'lonlar, xalq erlari dunyo yuzini ko'rsa barcha shod-u hurr, yurtini qo'ruvchi, millati sha'ni deb yonib kuyuvchi yigitlar tug'ilsa olam quvonchga to'ladi, bugunning ertasi bor deb. Erlar el quvonchi bo'lganidek yerning quvonchi yomg'ir. Quyoshning qaynoq taftida toblangan yerga yomg'ir yog'sa ekinlar gurkirab unadi. Shu sababdan yomg'ir yerning baxti. **Toqqa yog'sa, cho'l obod, Cho'lga yog'sa, el obod**[4.249-bet] -quyidagi maqolda tabiat hodisasi bo'lmish yomg'irning toqqa yog'ganda keyinchalik suvlar erib cho'lga quyilishi mumkin va cho'l obod bo'ladi, agar cho'lga yog'sa unumdorligi oshib, hosil unadi va bundan el rohat ko'rishi aks etgan.

Tog' havosi — dard davosi[4.249-bet] xalq tabobatchiligida chuqur nafas olish ko'pgina kasalliklarga davo bo'lib kelgan. Ayniqsa, tog' havosi sof va toza bo'lib o'pkaning yaxshi ishlashini ta'minlaydi. Shu sababdan tog' havosi dardga davo bo'ladi. **O'lchab osgan etingga - Qo'noq kelsa, qattiq kun**[4.248-bet] – ushbu maqolni tahlil qilganimizda ikki xil ma'noga duch kelamiz, ya'ni o'z ma'nosida yetishmovchilik bo'lgan pallada har kim ertani tadorigini qilib har kunga o'lchab-o'lchab et[go'sht] olib qo'yadi va ayni shu damda uyga qo'noq[mehmon] kelsa oldiga yaxshi osh-ovqat tutiladi va bor-u yo'g'i tortiladi. Keyingi kunlar esa qattiq qiyinchiliklar ichida kechadi. Ko'chma ma'noda esa zarurat yuzasidan ozgina yerga ekin ekib, parvarishlab, hosil berishini kutayotgan bir pallada sovuq tushib yoki hasharotlar chang solsa, hosil nobud bo'ladi va qattiq kunga aylanadi.

Hikmatli so'zlar, maqollar – hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir[6.5-bet]. Maqollar shaklan ixcham bo'lsa-da, badiiyatiga ko'ra yuksak obrazlilikka ega. Ularda fikr sodda, tabiiy, ravon, silliq va tushunarli bo'lib, tasirchan ifodalanishi ehtiyoji turli narsalar, hayvonlar, o'simliklar va hodisalar obrazlaridan g'oyaviy-badiiy niyatni ifodalashda foydalanishni taqozo etgan. Natijada timsoliy obrazlar vositasida hayotdagi ijobiy yo salbiy voqealarga, insoniy munosabatlarga axloqiy baho berilib, hukmlar chiqarilgan.

Xalq og'zaki ijodi haqida ilmiy ish olib borgan dunyodagi hamma olimlar maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo'lgan munosabati aks etganini alohida ta'kidlaydilar[3.163-bet]. Barchamizga ma'lumki, xalq og'zaki ijodida tabiatni tarannum etuvchi minglab maqollarga duch kelishimiz mumkin. Zotan maqollar bir qarashda sodda, tushunarli tilda berilgandek tuyulsada, aslida, ular talqin qilib chiqilganda atrofimizni o'rab turgan borliq va tabiatning betakror hodisalarini aks ettirilganligi namoyon bo'ladi. Demak, maqollar ota-bobolaming asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalarini zamonlar osha yetkazishda ma'naviy ko'priklari bo'lib, avlodlarning bir-birlariga bog'lanishlarida beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E. Madvaliyev A. Mahkamov N. Mirzayev T. To'xtaliyev N. Umarov E. Xudoyberganova D. Hojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati (80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi).-Toshkent:"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti 2006-2008.
2. Bekmatova D. Do'stlik hamda qarindosh-urug'chilik mavzusi bilan bog'liq turkcha maqollar semantikasi.- Toshkent, 2012.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. -Toshkent: Sharq, 2010.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. -Toshkent: Sharq NMAK, 2005.
5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. -Toshkent: Musiqa, 2010.
6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. . -Toshkent: Hikmatnoma, 1990.

ID-020-30-A072

Shahnoza Isroilova

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs talabasi

SODIQIY HAYOTI VA IJODI MANBALARI HAQIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva adabiy muhiti vakili Sodiqiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, shoir ijodiy merosi jamlangan manbalar, shoir lirikasining janrlar ko'lami haqida ham fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Sodiqiy, shoir, devon, to'plam, bayoz, manba, matn, janr.*

Annotation. This article deals with Sadiqiy's creativity his lyric works proceedings poetry's and scientific descriptions lithographic manuscripts of divon. It gives information about distinctions between lithographic and manual manuscripts.

Keywords: *Sadiki, poet, devon, proceedings, bayoz, source, text, genre.*

Rahmonquli – Sodiqiy Xiva adabiy muhiti vakillaridan. Shoirni Laffasiy o'z tazkirasida: *“Sodiqiykim Rahmonquli to'raki, mashhuri omu xos bo'lganidek, ul To'ramurod to'raning o'g'li Said Muhammad xonning axtig'i bo'lib, Rahimquli yoshlig' zamonasida ilm tahsilin Xiva ulamo mudarrislaridin o'qib, bir xili ma'lumotli bo'latur”* [1. 34-bet]. – deya tanishtiradi. Bundan tashqari, Laffasiyning: *“Rahmonquli forsiy va ham arabiy, hind lug'atlig' asarlarini go'yoki o'z ona tili kabi o'qib, fasohatlisonlig' bila tarjima qilatur erdi...”* – ta'riflari shoir Sodiqiyning tarjimonlik borasida ham iqtidori bo'lgan degan xulosaga olib keladi.

Shoirning ismi Rahmonquli to'ra To'ramurod to'ra o'g'li bo'lib, u “Sodiq”, “Sodiqiy” taxalluslari bilan she'rlar yozgan. Sodiqning tavallud sanasi haqida aniq ma'lumot yo'q. Biroq Laffasiy shoirni 1942-yili vafot etganini qayd qilib o'tadi. Xodim esa shoir Sodiqni 60 yoshga yaqinlashganda, 1937-yili vafot

etganini aytadi [1. 50-bet]. Demak, ushbu ma'lumotlarni umumlashtirganda, shoir XIX asrning 80-yillarida tavallud topgani ayonlashadi.

Laffasiyning ma'lumot berishicha, Sodiq tarixni juda yaxshi bilgan, har xil gazeta va jurnallarni muntazam mutolaa qilib turgan. Feruz ko'rsatmasi bilan "Sodiq" taxallusini olgan va she'rlar yoza boshlagan. Ahamiyatlisi, Laffasiy shoir Sodiq nazmi haqida yuksak baho beradi. Jumladan, shoir sheriyati haqida Laffasiy quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: *"... Sodiqning har bir she'rlari nuqtaiy nazzoraga bir doxili ishqij majoziy bo'lsa-da, asli ma'niy jihatdan oning har bir nuqtasidan ilm g'avvoslari minglarcha ma'niy mafhum hosil qilib, daryoyi ummondin durri javohirlar-la'li durri noyob mavjud qilur erdilar"*.

Bundan tashqari, Sodiq serqirra ijodkor bo'lib, u "xushxatu xushxon" "xatti suls, xatti ko'fiy, xatti rayhoniyy, xatti shikasta"larni ona tilidek o'qib, ham yoza olgan. Ammo negadir, Laffasiy shoir Sodiqning devon tartib bergani haqida ma'lumot keltirmaydi.

Sultoniyyning hayot yo'li, ijodi haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri – Bobojon Tarroh Azizov – Xodimning "Xorazm navozandalari" tazkirasidir.

Bobojon Tarroh Azizov – Xodimning "Xorazm navozandalari" asarida Sodiq ijodi haqidagi quyidagi ma'lumotlar Laffasiy keltirgan ma'lumotlarga to'la mos keladi: *"... Rahmonquli to'ra eski maktabni bitkarib, madrasa ta'limotini to'liq bitkargan. Forsiy, arabiy ilmlariga yaxshi olim edi. O'zi shunday ilmlarga ega bo'lsa ham xalq bila aloqasi juda ham yaxshi edi. Men shunday ilmlarga olimman degan davosi yo'q edi. Ikkinchi bir odam bila so'zlashmoqchi bo'lsa, o'zini kamtar tutar edi. Shoirliqi ham birinchi o'rinni olg'on desa mumkin"*. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, Sodiq nafaqat ko'plab ilmlar sohibi, balki inson sifatida ham o'rnak olsa arziqli shaxslardan bo'lgan.

So'nggi olib borgan izlanishlarimizdan ayon bo'ldiki, Sodiq devon tartib bergan bo'lib, ushbu devon hozirda O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Bundan tashqari,

Feruz adabiy davrasi ijodkorlari asarlaridan namunalar ko'chirilgan ayrim to'plamlarda ham Sodiq she'rlari ko'chirilganini kuzatish mumkin.

Ta'kidlaganimizdek, "Devoni Sodiq" O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida №909 - raqami bilan saqlanmoqda. Ushbu 909-raqamli qo'lyozmada Sodiqdan tashqari, Sa'diy, Sultoniy, G'oziy va Asad kabi shoirlar lirik asarlari ham jamlangan qimmatli manba hisoblanadi. Devon matni "nastaliq" xatida ko'chirilgan.

Sodiq ijodini asosan g'azal, muxammas, musaddas, qasida kabi janrlardagi lirik asarlar tashkil etadi. Afsuski, Sodiq ijodiga mansub lirik asarlar haqida ilmiy jamoatchilik deyarli tasavvurga ega emas. Zero, shoir she'riyati tadqiqi, ularning go'zal badiiyat namunalari ekanini ko'rsatadi.

Kuzatuvlarimiz natijasida O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondidagi yana bir manbada Sodiq she'rlaridan anchaginasini ko'chirilgani aniqlandi. Ushbu manba №8725- raqami bilan saqlanada.

№8725 - raqamli to'plam toshbosma manba hisoblanadi. Ushbu to'plamda Murodiy, Farrux, Sultoniy, Bayoniy, Oqil kabi ijodkorlar lirik asarlari qatorida Sodiqning ham she'rlari ko'chirilgan. Ushbu manbadagi shoirning lirik asarlari janriga ko'ra tasnif etilsa, g'azal, muxammas kabi she'rlar borligi ayon bo'ladi.

Sodiq she'rlari jamlangan yana bir manba Ahmad Tabibiyning "Majmuai si shuaroi payravi Feruzshohiy" tazkirasidir. Zero, ushbu to'plamda Sodiqning yuzta g'azali ko'chirilgan. Tazkiradagi she'rlar shaklan va mazmunan yuksak darajadagi lirik asarlardir.

Ma'lumki, Tabibiy tazkirasidagi ilk g'azal Feruzning "*Topar kavnayn ichra maqsad ila komini Feruz, Inoyating bila bo'lsa onga gar masnad paydo*" maqta'si bilan yakunlanadi. Ushbu she'rga yozilgan ikkinchi payrav g'azal (tazkiradagi uchinchi g'azal) esa Sodiq qalamiga mansub.

Ma'lumki, Tabibiy tazkirasida shoirlarning payrav g'azallari oldidan ular haqida masnaviy ko'rinishidagi ma'lumotlar berib boriladi. Tazkiradagi Sodiq haqidagi ilk masnaviy-ma'lumot:

*Yetushganda Sodiqg'a ushbu g'azal,
O'qub komin etgach chuchuk chun asal,
Bu abyotni dedi ul nekinom,
Bo'lub berdi shohi oliymaqom, – tarzida keltirilgan.*

Tabibiy tazkirasidagi shoir Sodiqning ilk payrav g'azali:

Zihi xoliqqa bo'lmish san'ati birla jahon paydo,
Jahon ichra va xushu tayr birla insu jon paydo, – matla'si
bilan boshlanib

*Iloho, ayla Sodiq ko'nglini ishqingg'a band andoq,
Kim onda bo'lmasun g'ayring xayolidin nishon paydo*

maqta'si bilan yakunlanadi.

Laffasiy tazkirasida ham Sodiq haqida ma'lumot berilgandan so'ng, shu payrav g'azal keltirilgan.

Sodiqning tazkiradagi ikkinchi g'azali Feruzning "manga" radifli g'azaliga payrav tarzida yozilgan bo'lib, ushbu g'azal:

*Kecha-kunduz garchi ish jurm ila isyondur manga,
Rahmatingdin lekin ummid farovondur manga, – maqta'si*

bilan boshlanadi.

Umuman olganda, Sodiq nafaqat XX asr boshlari Xiva adabiy muhitining, balki o'zbek adabiyotining o'ziga xos ijodkori sanaladi. Sodiq ijodi haqidagi ma'lumotlarni jiddiy tadqiq etish, adabiyotshunosligimiz ko'lamini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, shoir Sodiq ijodi shu paytga qadar o'rganilmagan mavzu hisoblanadi. Shoir hayoti va ijodiga doir manbalarni o'rganish, asarlari haqida to'liq ma'lumotlar to'plash, Sodiq lirik asarlarini joriy alifboda tabdil qilish va ularni she'riyat mezonlari asosida tahlil va talqin qilish dolzarb ilmiy muammolardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

7. Laffasiy. Tazkirai shuaro (nashrga tayyorlovchi: P.Bobojonov). Xorazm-Urganch. 1992.
8. Xodim. Xorazm navozandalari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1994.
9. Xodim. Xorazm navozandalari. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1994.
10. Laffasiy. Tazkirai shuaro. Xorazm-Urganch. 1992.
11. Tabibiy. Tazkira. №1152.

ID-020-30-A073

Shohsanam Abumannapova

O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDA QOFIYA, RADIF VA VAZN MUNOSABATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qofiyaning mumtoz poetikadagi o'rne, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi qofiya, radif hamda vazn munosabatlari o'zaro tahlil qilingan. Shuningdek, dostonidagi qofiyaning yuzaga chiqaruvchi asosiy unsurlar yuzasidan ayrim mulohazalar keltirilgan. Qofiya turlarining faol va nofaol qo'llanilgan turlari alohida ta'kidlangan. Bildirilgan nazariy qarashlar dostonidagi baytlar asosida izohlangan. Ayrim boblarning statistik miqdori jadvallar asosida yoritilgan. Shuningdek, muallif XV asrgacha bo'lgan mumtoz adabiyotimizda uchrovchi qofiya ayblari yuzasidan ham ayrim fikr-mulohazalarini keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar: *qofiya, mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas, radif, vazn.*

Annotation. This article analyzes the role of rhyme in classical poetry, its features and the relationship between rhyme, radif and meter in the “Farkhad and Shirin” epic poem by Alisher Navai. There are also some comments on the main elements that make up the rhyme in the epic. Active and inactive rhyme types are highlighted. Expressed theoretical views are interpreted based on couplet in the epic poem. The statistical values of some chapters are illustrated on the basis of tables. The author also comments on the rhymed accusations that occur in our classic literature until the 15th century.

Keywords: *rhyme, mujarrad, murdaf, muqayyad, muassas, radif, meter.*

Jahon adabiyotiga nazar tashlaganimizda qofiyadan unumli foydalanish ijodkor salohiyatining muhim qirralaridan biri sifatida baholanishiga guvohi bo'lamiz. Turk she'riyatining ilk davri yuzasidan tadqiq olib borgan olimlarimizning ishlari orqali shuni ko'rishimiz mumkinki, ular she'riyatning qofiya tomonini vazn hamda badiiy san'atlaridan ham avvalroq tushunib

yetganlar. Shuningdek, mazkur unsur yuzasidan o'zlarining nazariy qarashlarini bayon qilganlar. Arab olimlari johiliya davridayoq she'rning qofiya jihatidan tahlil qilingan ayrim fikrlarini ham bildirib o'tganlar. Islomiy davrda esa Ibn Qutayba (828-889)ning "She'r va shuaro", Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r", Asmaiyning "Kitobi fuxulat ush-shuaro", Ibn Xaldunning "Muqaddima" asarlarida ham qofiya nazariyasiga doir fikrlar borligi mutaxassislar tomonidan tan olingan. Shuningdek, qadimgi yunon va hind she'r tizimini o'rgangan buyuk allomlalarimiz – Farobiy va Beruniylarning asarlarida ham qofiya yuzasidan bildirilgan fikrlar mavjud. Biz yuqorida ta'kidlagan Qudama ibn Ja'farning "Naqd ush-she'r" asarida ham besh jihat yuzasidan nazm tahlilini amalga oshirish kerakligi tushuntirilgan. Mana shu besh jihat: vazn, qofiya, lug'at tarkibi, syujet, (tartib) hamda tanqiddan iborat ekanligi keltirilgan. Ma'lumki, "Naqd ush-she'r" asari, asosan, tanqidga bag'ishlangan hamda yuqorida keltirilgan to'rt jihat esa boshqa olimlar tomonidan qilingan ishlarda atroflicha yoritilgan. Ammo Qudama ibn Ja'far ham nazmni farqlaydigan va barcha olimlar tomonidan qabul qilingan to'rt unurni farqlanishi haqida mulohazalar keltiradi. Ularga: tovush, syujet, vazn va qofiyani kiritadi. Uning qarashlariga ko'ra ham mazkur unsurlarning turli xil o'zgarishlar asosida birlashishidan nazm, ya'ni she'r hosil bo'ladi. Bilamizki, tovush, bevosita, vazn va qofiya bilan o'lchanadi. Qofiya o'z-o'zidan mazmun bilan mutlaqo bog'langan unsur hisoblanadi [1.360-bet].

Poetika ilmi XI asrdan ilmi adab, ya'ni adabiy ilmlar tizginida faoliyat yuritgan. Mahmud Zamahshariy ham "Aruzi Qistos" asarida adabiy ilmlar haqida o'zining qarashlarini keltiradi. Mazkur termin yuzasidan bildirilgan nazariy qarashlar *ilmi qofiya* deb ataluvchi maxsus fanda tadqiq etilgan.

Biz bu kabi ma'lumotlarni yanada ko'proq keltirishimiz mumkin. Negaki, qofiya ilmi ham yuqorida ta'kidlanganidek, maxsus fan sifatida shakllangan hamda uni o'rganish barcha ijodkor uchun muhim sanalgan. Shu o'rinda qofiya nazariyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mazkur termin o'z ichiga bir qancha ma'lumotlar va qoidalar tizimini qamrab oladi. Biz Alisher Navoiyning "Farhod

va Shirin” dostoni misolida ularning vazn, radif kabi poetik unsurlar bilan o‘zaro munosabati qay holda ekanligini tahlil qilmoqchimiz. Mazkur doston 54 bob, 5782 baytdan iborat bo‘lib, shundan muqaddima 11 bobni o‘z ichiga oladi. Biz bevosita ushbu dostonning muqaddimda qismidagi qofiya, vazn va radif munosabatlarini izohlashga harakat qilamiz. Bilamizki, “*Farhod va Shirin*” dostoni “...ishqiy sarguzasht dostonlar uchun mo‘ljallangan *hazaji musaddasi mahzuf* vazni (ruknlari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun fauvlun V- - - V- - - V- -) da yozilgan [9.115-bet]”. Mazkur vaznning ilk bor qo‘llanilishi Xorazmiy ijodiga borib taqaladi. U o‘zining o‘zbek adabiyotida ilk noma janriga oid “Muhabbatnoma” asari bilan mazkur vaznni qo‘llagan va aynan mana shu dostondan so‘ng turkiy adabiyotimizda ishqiy dostonlar mazkur vaznda yaratilishi odat tusiga aylangan. Hazaj bahrining ushbu sodda vazni yozuvchiga qofiyalarni yuzaga keltirishda qiyinchilik tug‘dirmaydi, balki sarguzashtlarni yorqin bo‘yoqlarda akslantirish uchun ham xizmat qilgan. Faqat bugina emas, dostondagi vaznning tuzilishiga e‘tibor qaratganimizda, ruknlarning joylashuvi ham ayni fikrimiz dalilidir. Yana bir bor doston yozilishiga asos bo‘lgan vaznga e‘tiborimizni qaratamiz:

V- - - V- - - V- -

chizmada keltirilgan vaznning cho‘ziq bo‘g‘inlar soni qisqa bo‘g‘inlarga nisbatan anchagina katta qismni tashkil etadi. Yana shu bilan birgalikda oxirgi (V- - *fauvlun*) mahzuf rukni qofiyalanuvchi so‘zlar qaydli qofiya turi orqali yuzaga kelganida, maqsur (V- ~ *mafoiyl*) shaklini oladi. Ayni vaziyatda bu kabi cho‘ziq unli va cho‘ziq hijolarning mavjudligi doston baytlarining musiqiylikka yaqin va o‘ziga xos ohangga ega bo‘lishiga zamin yaratadi.

Mazkur dostonning 1- va 2-hamd qismini jadval asosida ifodalaganimizda quyidagicha holatning guvohi bo‘lamiz:

1-, 2-bob: hamd

<i>T/r</i>	<i>Qofiya turlari</i>	<i>Qo‘llanishi</i>	<i>Foizi</i>	<i>Radif</i>
1	Mujarrad	36	50	10
2	Murdaf	27	37,5	6

3	Muqayyad	5	6,9	1
4	Muassas	4	5,5	-
	Jami	72 bayt		

Yuqoridagi jadvalga ko'ra mujarrad va murdaf qofiyalar dostonning hamd qismida katta hajmini egallaydi. Aynan mujarrad qofiya turi orqali shoir dostonga tanlangan vazni yuzaga chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Dostonda mahzuf va maqsur ruknlar almashinib kelishi tabiiy, ular hech qanday g'ayritabiiylik kasb etmaydi.

Dostondagi qofiya turlarini boshidan oxirigacha ko'zdan kechirganimizda ham mujarrad va murdaf qofiya turlari qo'llanilish o'rniga ko'ra katta hajmni egallashini kuzatamiz. Buning sababi sifatida aytishimiz kerakki, qofiyalanuvchi so'zlar o'z-o'zidan vazn bilan birgalikda uyg'unlik kasb etgan. Shoirning ruhiy holati, ifodalamoqchi bo'lgan mazmun-mohiyati bevosita ushbu qofiya turi orqali yuzaga kelgan.

Shuningdek, dostonda keltirilgan misralarda mujarrad qofiyaning qo'llanilishi baytlarning shakily go'zalligiga ham xizmat qilgan. Lekin biz baytlarning shakily go'zalligigina shoir mahoratidan deb ayta olmaymiz, negaki Navoiy ijodidagi qofiya nazmning ham shakily, ham ma'naviy tomoni bilan mutanosibdir. Doston va uning boblari mazmuni qofiyaga emas, balki qofiya ularga bo'ysunadi. Baytlarni qofiya emas, baytlar qofiyani vujudga keltiradi. Ular bir-biri bilan uyg'unlik kasb etadi.

Muqayyad va muassas qofiyalarning qo'llanilish o'rinlari murdaf va mujarrad qofiya turlariga nisbatan oz miqdorni tashkil etayotganiga qaramay, ularning ham dostonidagi boshqa bir xususiyatlarni ochishdagi o'rni o'ziga xosdir. Mujarrad va murdaf qofiya turlari birgalikda har bir boblarda katta hajmga ega, ammo qolgan ikki qofiya boblardagi ayrim o'rinlarda baytga ulug'vorlik, ma'lum ma'noda esa ta'kidlab ko'rsatiluvchi holatlarni ifodalashda foydalanilgan.

Mazkur qofiya turining qo'llanilish o'rniga e'tibor qaratsak, ularni ko'proq, *hamd*, *munojot* boblarida boshqalariga qaraganda ko'proq hajmda

ekanligini kuzatamiz. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, lirik qahramonning ichki tuyg'ulari, o'zining yaratguvchi oldidagi ojizliklari, unga aytar munajatlari aynan mana shu ohang, mana shu qofiya turlarini talab qilgan. Shoir iztiroblarini, qalb tug'yonlarini bevosita muassas qofiya turida ko'proq yoritib berish uchun foydalanilgan.

Shuningdek, qofiya tizimini o'rganish davomida dostondagi ayrim baytlar bizning ham e'tiborimizni tortdi. Quyida ulardan bir namuna keltirib o'tamiz:

Gul uzra sunbuli ochmoq ajabdur,

Quyoshqa soya chirmoshmoq ajabdur. (FSh)

Mazkur baytda 'ajabdur' *radif*, 'ochmoq – chirmoshmoq' so'zlari o'zaro qofiyalangan. Bu so'zlar bir qarashda o'zaro qofiyadosh ko'rinadi, lekin qo'shimchalarsiz o'qilganda quyidagi holat yuz beradi: 'och – chirmosh'.

Yuqorida keltirilgan qofiya ayblarining iyto turi ayni shu so'zlarning qofiyalanishini izohlaydi. Ya'ni iyto faqatgina mutlaq qofiyalarga (qofiya raviy bilan yakunlansa, muqayyad qofiya; raviydan keyin ham harf qatnashsa, mutlaq qofiya deb yuritiladi) tegishli bo'ladi. So'zning o'zak-negiziga ko'plik, shax-son, zamon va boshqa qo'shimchalarni qo'shish orqaligina qofiya yuzaga keltiriladi. Qo'shimchalar bir qarashda qofiyani shakllantirganday bo'ladi, ammo ularni o'zakdan ajratganimizda ulardagi nomuvofiqlik yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, XV asrdan boshlab, baytning vaznini, qofiyasini to'g'ri qo'llay bilish juda muhim sanalgan. Ushbu davr ijodkorlari asarlarini kuzatish davomida bunga guvoh bo'lamiz. Alisher Navoiy dostonlarini tadqiq qilish mobaynida duch kelgan bu kabi saktaliklarimizni esa bu hajman ancha katta va ma'lum bir syujet asosiga qurilgan asar bo'lganligi bois bo'lsa kerak deb taxmin qildik. Doston ma'lum bir voqelikni bayon qiladi. Uning tarkibida qahramonlar harakatlanadi, joylar o'zgaradi, narsa-buyum nomlarigacha izohlanadi. Ayni shu jihatdan bu kabi holatlar onda-sonda uchrab qolishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, ijodkor qo'llayotgan vazn, radif hamda qofiya turlari o'zaro bir butunlikka ega va ular ajralmas shaklni hosil qilgan. Muallif goh u qofiya turini qo'llagan holatda shodlik tuyg'ularini tarannum qilsa, goh mahzunlik kayfiyatini boshqa bir qofiya turiga ko'chirish orqali ifodlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, she'riy unsurlarning barchasi ijodkor asarga singdirmoqchi bo'lgan ma'no-mazmunni birgalikda tashkil qiladi va ularni to'g'ri va aniq qo'llay bilish ijodkordan ulkan mahorat talab qilishi ham shubhasiz. Bizning oldimizda ko'ndalang turgan vazifalardan biri esa bu kabi izlanishlarni yanada chuquqroq o'rganish va ijodkorning poetik mahoratini ifodalovchi ochilmagan qirralarini yana bir karra tahlilga tortishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Крачковский И. Ю. Арабская поэтика в IX в. / Избранные произведения. Т.2. – М.-Л.: 1956. – С. 360-372.
2. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992.
3. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол. фан. номз. дис. ... автореф. – Т., 1997.
4. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Мукамал асарлар тўплами. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1992. 8-жилд.
5. Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979.
6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. –Т.:Шарқ,1990.
7. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983.
8. Шарқ мумтоз поэтикаси: Манба ва талқинлар / Нашрга тайёрловчи, талқин ва шарҳлар муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006.
9. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. – Т.: “TAMADDUN”, 2018.
10. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Ta'lim-media, 2019.

ID-020-30-A074

Xurshid Serobov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA TABIAT UNSURLARINING POETIK TALQINI MUAMMOSI

Annotatsiya. Maqolada tabiat unsurlarining poetik vazifasi bo'yicha o'zbek adabiyotshunosligida ishlangan tadqiqotlarni yanada boyitish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni tahlil qilinadi, she'riyatda tabiat unsurlari qo'llanishining ahamiyati, tabiat vositalarining obrazlilik, simvolikasi, poetik vazifasi haqida fikr yuritiladi. Tabiat vositalari chegaralanmagan, shoir atrofini qurshab turgan, o'zi yashab, his qilayotgan tabiatning istalgan bo'lagini poetik detal yoki obrazga aylantirib, she'rga olib kira olishi mumkin. Tabiat unsurlarining poetik vazifasini anglash orqali shoirning falsafiy-ijtimoiy qarashlarini tushunish osonlashadi.

Kalit so'zlar: *Tabiat, poetika, she'riy san'atlar, peyzaj, poetik tafakkur, she'r, to'rt unsur, poeziya, lirik kechinma.*

Annotation. The article analyzes the tasks that need to be done to further enrich the research on the poetic function of the elements of nature in Uzbek literature, discusses the importance of the use of elements of nature in poetry, the imagery, symbolism, poetic function of natural means. The means of nature are unlimited, and the poet can bring into poetry any part of nature that surrounds him, that he lives and feels, by turning it into a poetic detail or image. By understanding the poetic function of the elements of nature, it is easier to understand the poet's philosophical and social views.

Key words: *Nature, poetics, poetic arts, landscape, poetic thinking, poetry, the four elements, poetry, lyrical experience.*

Zamonaviy o'zbek she'riyatining tamal toshi o'tgan asr boshlarida qo'yilgan edi. Shundan so'ng o'zbek she'riyati o'zining shakllanish bosqichini

bosib o'tdi. Adabiyotshunoslar tomonidan XX asr she'riyati davrlarga bo'lib o'rganiladi. Ma'lum bir davr she'riyatining mazmun-mundarijasidan tortib umumiy poetik tafakkur ko'lamiga qadar bir-biridan farq qiladi. She'rda qo'llaniladigan detallar, obraz, tashbeh va ramzlar ham tafovutlidir. Shu o'rinda poetik tafakkurda tabiat unsurlarining bevosita ishtiroki, she'rdagi poetik funksiyasining ildizini topishga ehtiyoj tuyamiz. Rossiyalik adabiyotshunos S.N. Shevchenkoning tabiat obrazlarining konseptual-mundarijaviy komponentlari bo'yicha tadqiqotida bu savolga javob izlaydi. Shevchenkoning tadqiqoti XIX asrda yashab ijod qilgan amerikalik shoir Uilyam Kullen Brayant ijodi misolida o'rganiladi, chunki Brayantning lirikasida tabiat va landshaft eskizlari muhim o'rin egallaydi. Brayantning e'tiborini ijtimoiy voqelik o'ziga jalb qiladi va u o'sha davr Amerikasidagi partiyalar, ularning a'zolarini asosiy obyektlar va bosh qahramonlar qilib oladi. U o'z she'riyatida ichki fikrlar va hissiyotlarini, g'oyasini yetkazishda tabiatni o'ziga xos vositachiga aylantiradi. Natijada o'rmonlar, dalalar, gullar o'ziga xos ramziy yoki allegorik obyektlar va obrazlarga aylanadi. Muallif nazdida "tabiat fikrlarni aytishda "eng yaxshi ko'makchi" bo'la oladi. Uning fikricha, odamning o'zi tabiatning bir qismi ekanini idrok etishi lozim. Brayant inson tabiat bilan yaqin o'zaro bog'liq holda, ajralmas bo'ladi, deb hisoblaydi".[1. c. 34]

Badiiy konsepsiya tarkibiy jihatdan ko'p qirrali bo'lib, unda turli xil tarkibiy qismlar mavjud. Ongda sodir bo'ladigan, atrofdagi voqelikni hissiy idrok etish belgilari; subyektiv baholash va falsafiy g'oyalarning o'zaro ta'siri; inson atrofida sodir bo'layotgan voqelikning mazmun-mohiyatini va o'zini anglash, shuningdek, koinotning umumiy tizimidagi inson roli va ahamiyatini metaforik anglash badiiy kontseptsiyaning mohiyatini tashkil etadi. Xilma-xil ruhiy shakllanish bosqichlarini o'z ichiga oladigan poetik konsepsiya san'atning bir turi sifatida yanada murakkablashadi, bu yerda voqelik bilan bilvosita bog'liqlik sodir bo'ladi, mantiq qonunlari buziladi. Shevchenko o'zi mavzu qilib tanlagan Brayant ijodiy olamining she'riy tasviridagi tabiat tushunchalarini ko'p qatlamli murakkab shakllanish ekanini qayd etadi. Tashqi

qatlarda tabiatni o'ylashdan ilhomlangan bir nechta rang-barang ruhiy tasvirlar mavjud. Ammo ochiq va sodda tasvirlash orqali mulohaza yuritish taktikasi Brayant uslubi uchun yetakchi omil emas. Uning uchun mavhum g'oyalar va ong ostida yuz bergan anglam bilan to'ldirilgan konsepsiyaning ichki qatlami alohida ahamiyatga ega. Tabiat tasvirlari shoir tafakkurining asl maqsadi emas; u ularni murakkab ramzlar sifatida, allegorik majoziy tilning birligi sifatida ishlatadi, uning yordamida chuqur, abstrakt kechinmalarini o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Agar she'riy konsepsiyaning tashqi qatlami hissiyotlar bilan ranglangan vizual va eshitish vositalariga asoslangan oddiy tasvirlar bilan to'ldirilgan bo'lsa, unda konsepsiyaning ichki qatlamlari mavhum g'oyalar, axloq, qadriyatlar, hayotiy pozitsiyalar va e'tiqodlarning namoyishiga olib keladigan mavhum fikrlash bilan bog'liq. [2. 36-bet] Bunday holda, tabiat shoirning nutqi va fikrlash faoliyatining maxsus kommunikativ vositasi (shakli, belgisi) vazifasini bajaradi.

Muallif badiiy olamidagi ruhiy shakllanish, shuningdek, uning g'oyalarini ramzlar va metaforalarga berkitadigan tabiat tasvirlari bizga shoir qarashlarini yaxlit bir tizimga solishga ko'mak beradi. Ijodkorning tabiatga qarashi, lirik asarlaridagi tabiat tasviri masalalarini o'rganish shoir mahoratining ayrim qirralarini yoritishga imkon beradi.

Tabiat vositalari chegaralanmagan, shoir atrofini qurshab turgan, o'zi yashab, his qilayotgan tabiatning istalgan bo'lagini poetik detal yoki obrazga aylantirib, she'rga olib kira olishi mumkin. Tabiat unsurlarining poetik vazifasini anglash orqali shoirning falsafiy-ijtimoiy qarashlarini tushunish osonlashadi. Lirik qahramon tashqi olam bilan aloqaga kirisharkan, jarayonni umumlashtiradi. V.G. Belinskiy, "Buyuk shoir o'zi haqida, o'z "men"i haqida gapirarkan, umum haqida – insoniyat haqida so'zlaydi, zotan, insoniyatga xos hamma narsa uning tabiatida mavjuddir. Shuning uchun ham har bir kishi uning hasratida o'z hasratini, uning qalbida o'z qalbini topib oladi, uning qiyofasida esa faqat shoirni emas, balki, insonni, o'z bashariy birodarini

ko'radi", deb yozadi. [3. 184-bet] Lirik kechinmada fikr va hissiyot qorishiq yashaydi. Tabiat esa tashqi olam, lirik kechinmaga bevosita aloqador bo'ladi.

She'riyat inson xarakterining ma'lum bir holatini chizadi, bu holatni so'zlovchining aniq bir kechinmasi orqali ifoda etadi. Aniq kechinma esa, individual xarakterga ega bo'lib, undan obyektivlik talab qilishning iloji yo'q. Chunki kechinma individual bo'lgan holida subyektiv hamdir. Tabiat unsurlari lirik qahramon kechinmasini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, ular badiiy tasvir vositalari bo'lib xizmat qiladi, she'riy san'atlar qo'llanilganda tabiat unsurlari asosiy shakllantiruvchi vazifasini bajaradi.

She'riy san'atlarning she'rda badiiylikning oshishi, lirik ifodaning chuqur emotsional tus olishiga xizmat qilishi hisobga olinsa, tabiat unsurlarining detal sifatida muhimlik darajasini kuzatashimiz mumkin. She'riy san'atlar soni ko'p. "Ilmi bade"ga asos solgan Muhammad binni Umar Roduyoniyning "Tarjimon ul-balog'a" risolasida 124 ta she'riy san'at sanab o'tilgan, XV asrda yashagan Atoulo Husayniy "Badoe' ul-sanoe'" asarida 147 ta she'riy san'atni izohlagan. Adabiyotshunos olim Vahob Rahmonov "She'r san'atlari" kitobida 30 dan ortiq badiiylik vositalarini tavsiflab beradi. [4. 247-bet] Tabiat unsurlari ushbu she'riy san'atlarning hosil qilinishida asosiy detal bo'la oladi. Ayniqsa, jonlantirish, majoz, ko'chim, sifatlash kabi badiiylik vositalarini tabiat unsurlarisiz tasavvur etish mushkul.

Shu o'rinda qayd qilish lozimki, Sharq poetik tafakkurida tabiatning to'rt asosiy unsuri: suv, havo, quyosh va tuproq yetakchi rol bajaradi. Mirzo Abduqodir Bedilning shu to'rt unsurga bag'ishlangan "Chor unsur" risolasi ham mavjud. Alisher Navoiy asarlari boshida keladigan hamd qismida tabiat unsurlariga tavsif beriladi. Bunda butun tabiatning yaratuvchisi sifatida Alloh taolo aytiladi. Borliqni shu to'rt unsur ushlab turadi, kun-tun almashishi, tiriklik, hayvonotu, nabototning mavjudligi ham shu to'rt unurning borligi bilan sifatlanadi.

Zamonaviy o'zbek she'riyati mumtoz she'riyatdan o'sib chiqqan va mumtoz an'analar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. She'riyat boshqa

adabiy turlarni ham o'ziga singdira olishi bilan xarakterli ekanini bilamiz. Mumtoz adabiyotda tartiblar muntazamligi mavjud. Zamonaviy she'riyat esa ma'lum ma'noda an'anaviy andozalarni buza oldi, bu esa yangi adabiy tajribalar, jahon adabiy tendensiyalari bilan tanishuv zamirida yuzaga keldi. Bu jarayonda she'riyatning pozitsiyasi ham o'zgardi, mavzular rang-baranglashdi, janrlar xilma-xillashdi. Mumtoz adabiyotda qo'llanilgan tabiat unsurlari boshqa simvollarni bera boshladi, ammo she'riy san'atlarning mumtoz adabiyotda qo'llanilgan tashbehtar tadrijining davomiyligi, ba'zi hollarda takrori kuzatildi.

“Poeziya hayot dramasi”, deydi N.G. Chernishevskiy.[5. 152-bet] Buning ma'nosi adabiyot hayotni undagi qarama-qarshi tendensiyalar kurashi orqali aks ettiradi deganidir. Hayot deganda biz borliqni tushunamiz. Shoirning nigohida anglangan olam – tabiat obraz va metaforalar vositasida badiiy yozuqqa aylanadi. Aristotel “Poetika” asarida shunday yozadi: “Inson boshqa jonli mavjudotlardan o'xshatish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ham farqlanadi, hatto dastlabki bilimlarni u o'xshatishdan oladi va bu jarayon samaralari barchaga huzur bag'ishlaydi”.

Tabiat unsurlari kishi ko'z o'ngida turgani uchun u bilan bog'liq obrazlar o'quvchi tasavvurida tiniq namoyon bo'ladi. Lirik qahramonning abstrakt va o'quvchiga qorong'u kechinmasi tabiatdagi biz qo'limiz bilan ushlab, ko'zimiz bilan ko'rgan predmetga chog'ishtirilsa yoki o'xshatilsa, o'sha ramz yoki metaforani ilg'ash oson kechadi. She'rdagi konkretlik miqdori oshadi. Modernistik she'rlarda shoir abstraktlikka ko'proq e'tibor qaratadi. Kutilmagan metaforalar, ramzlar o'quvchini mushohada etishga undaydi. Ularning kalitini topish murakkablik tug'diradi.

Puerto-rikolik shoira Izabel Freyrning quyidagi she'ri misolida fikrimizni asoslaymiz:

Fosh etadi sevgim
barmoqlarida
yashiringan ipak kapalaklarni

yulduz bo'lib sachrar
uning so'zlari
barmoqlari aro taralayotgan
yorug'lik singari yorishar oqshom
(tarjima bizdan – X.S.)

Ushbu she'rda sevgining barmoqlari, barmoqlarda yashiringan ipak kapalaklar, yashirilgan kapalaklarning fosh bo'lishi, yulduzga o'xshab sachrayotgan (porlayotgan) so'zlar, barmoqlardagi kapalaklardan taralayotgan yorug'lik oqshom kabi yorishayotgani tadrijida metaforani ko'ramiz. Sevgi mavhum tuyg'u, lekin tabiat unsurlari kapalak, yulduzlar va oqshom vositasida tasavvurimiz konkretlashadi. Endi bizning sezgimiz lirik qahramonni tuyishda tayanch vositalarga ega. Metaforani tashkil qilayotgan konkret predmetlar – tabiat unsurlari lirikqahramonning mavhum kayfiyatini oydinlashtira boradi.

sevgim kashf etgan dunyolar
bir dunyoki, unda
yaltiroq tosh yanglig' istaklar yashar
bir dunyoki, musiqa - dunyo
bir dunyoki, koshonalari
tongotarda xayolga tolar
ochiq turgan ko'zlari ila
Mening sevgim -
sukunatda nur parchalarin
unutayozgan telba gul erur.

She'rning davomida konkretlashuv takomillashadi va tongotar, yaltiroq tosh, koshona, ochiq turgan ko'zlar kabi detallar vositasida biz lirik qahramonning kechinmasini yaxshiroq ilg'aymiz, go'yoki o'z qalbida bir dunyo orzularga to'la oqshomni kuzatadi, tong otishi esa bu ajib kechinmani bo'lib qo'ygan kabi va yakunda lirik qahramonning sevgisini yorug'lik bilan o'sadigan gulning o'z ozig'ini unutgan telba gul qiyofasida ko'ramiz.

Tabiat unsurlari shoirning mavhum kechinmalarini konkretlashtirish bilan birga u aytmoqchi bo'lgan g'oyani anglatishda muhim signal (ishora) bo'lib xizmat qiladi. Poetik tafakkur sezgilar vositasida amalga oshadi. Abdurauf Fitrat she'r haqida fikrlarini bayon etarkan, "har birimizda jon va ongimizni tegramizdag'i narsalar va hodisalardan chorlandurub turg'uchi "besh sezgich" (havvosi xamsa) bordir. Jonimiz shul besh sezgich orqali dunyoning tegramizga erishkan narsa va hodisalarni bilib turar va har birisidan qayg'i, sevinch, qo'rquv, qizish, qaynash kabi sezgi va tuyg'ilar oladir", deydi. Fitratning yozishicha, "She'r yurakimizda hosil bo'lg'an ana shunday sezgilarni hunarlicha so'zlar bilan boshqalarning yuragiga o'tkarmakdir". [1. 7-bet]

Tabiat poetikasi shoir uchun chegaralanmagan kengliklarni ochadi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida tabiat unsurlarining poetik vazifasi turli shakl va hollarda namoyon bo'ladi. Matnazar Abdulhakim va Usmon Azim ijodi misolida ushbu muammoni o'rganish ayni zamon she'riyatidagi badiiy-g'oyaviy mushtarakliklarni aniqlashda ko'maklashadi, shuningdek, zamonaviy o'zbek she'riyatidagi tabiat unsurlarining ahamiyatlilik darajasi haqidagi tasavvurlarni umumlashtirish imkonini beradi.

Tabiatning asosiy to'rt unsuri shoirlarning poetik talqinida muhim nuqta sanaladi. Masalan, Matnazar Abdulhakimning quyidagi she'rini ko'raylik:

“Yaqinlarim yig‘lab bo‘lgandir,
Umri tugagandir motamning.
Shunchalik ham cho‘ziladimi
Uqubati o‘lgan odamning.
Marhummanmi — yo‘qmi harqalay,
Quchog‘ingga olding-ku biroq.
Shuncha qattiq sog‘inganmiding,
Xush ko‘rishdik, azizim tuproq”. [4. 87-bet]

Ortiqcha metaforalar, murakkab ramzlardan xoli bir she'r. Unda to'g'ridan-to'g'ri tuproqqa murojaat etiladi. Ammo "tuproq" tiriklik bilan vidolashuv ma'nosini o'zida aks ettiradi.

Usmon Azimning quyidagi she'rida ham "tuproq" obrazi fanodan baqo sari safar mazmunini beradi:

Dushmanim-a, toshlar otib
To'ymaydiansan—
Tuproq bo'lay desam, nega
Qo'ymaydiansan?...[5. 233-bet]

O'zbek zamonaviy she'riyatida to'rt unsur: tuproq, suv, havo va quyosh ko'p ishlatiladigan metaforik birliklar, badiiy detallar hisoblanadi. Mumtoz adabiyotda ushbu to'rt unurning tiriklikni mujassamlashtiruvchi xilqat ekani ko'rsatiladi, zamonaviy she'riyatda bu qarash davom etadi va yangi badiiy qirralari kashf etiladi.

To'rt unsur o'zida tabiatning barcha qismlarini mujassamlashtiradi. Tuproq o'zida yer, sahro, cho'l, bog', dala, dasht, tosh, tuproq, tog' va boshqa shunga aloqador tabiat unsurlarini birlashtirsa, suv dengiz, ummon, ko'l, daryo, o'zan, jilg'a, buloq, chashma kabi qismlarni yaxlitlaydi.

Suv emas, qo'llarga to'lmasmi Orol
Nogiron qoldirib yosh-qarimizni.
Qarmoq solib so'ngra baliq o'rniga
Tutib yemaymizmi qo'llarimizni?.

Ushbu she'rda Matnazar Abdulhakim "suv" detali orqali ijtimoiy muammoni o'rtaga tashlaydi. Shoirning ironiyasi kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan xavfni – falokatni urg'ulaydi.

Hovuzning suvlari quridi qachon?
Tollarni kim kesdi? Qayrag'och qani?
Qanday u yillarni saqlaysan omon,
Xotiram manim?

Usmon Azimning bu she'rida esa "suv" detali orqali lirik qahramonning o'tmishga qaytish holatini ko'ramiz. Lirik qahramon suvi qurigan hovuz, kesilgan tolu qayrag'ochga o'tib ketgan umrni yodga oladi. Bu kayfiyat o'quvchi qalbiga ko'chadi va she'rning ekspressivligi yuqumli bir g'amginlikni o'quvchiga yuqtiradi.

Har bir she'rning yuragi lirik qahramoni uning asos markazi hisoblanadi. Keyingi yillar lirik qahramoni zamona va zamondoshlariga tabiat manzaralari nigohi bilan boqa boshladi, she'riyatda inson va tabiat o'rtasida o'ziga xos aloqa-robita paydo bo'ldi. Bu aloqa lirik qahramon qiyofasini poetik mukammallashtirdi ham. Bu davrdagi lirik qahramon intellektual jihatdan yetuk, o'zida jamiyatning barcha voqeliklariga teran munosabatini jamlay olgan shaxs sifatida namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. –Тoshkent: Маънавият, 2006.
2. Адабиёт назарияси. 2-том, –Тoshkent: 1979.
3. Белинский В.Г. Танланган асарлар. –Тoshkent: 1955.
4. Матназар Абдулҳаким, Танланган асарлар, 2 том. –Тoshkent: 2017.
5. Усмон Азим, Танланган асарлар. I жилд. –Тoshkent: 2017.
6. Вестник МГЛУ. Гуманитарные науки. Вып. 9 (801)/2018.

ID-020-30-A075

Xusniddin Xaitov

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

TO'RA SULYMON SHE'RIYATINING FOLKLOR- DIALEKTOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada atoqli shoir To'ra Sulaymon she'riyatning fol'klor-dialektologik xususiyatlari xususida fikrlar bildirilgan. Bunda asosan shoirning turli yillarda nashr etilgan to'plamlari tarkibidagi she'rlarining fol'klor janrlariga xos xususiyatlari va dialektal so'zlarning qo'llanilishi bilan bog'liq jihatlariga baho berilgan.

Kalit so'zlar: *"Iltijo", "Sizni eslayman", "Gulshan", "dialektal so'zlar, ichki manba, sheva, adabiy til, doston, "Alpomish", "Go'rg'o'g'li", fol'klor-dialektologik xususiyat, erkalamalar, qarg'ishlar.*

Annotation. There is presented an overview of folklore and dialectological features of the poetry of the famous poet Tura Suleman in the article. It mainly evaluates the peculiarities of folklore genres in the poems which contained in various collections of the poet, as well as the use of dialectal words.

Key words: *"Iltijo", "Sizni eslayman", "Gulshan", dialectological words, internal issues, dialectics, literary language, dastan (poem) "Alpamish", "Gurugli", folk-dialectological features, favour, curses.*

XX asr o'zbek she'riyatini kuzatar ekanmiz, iste'dodli, o'z yo'nalishiga ega, xalqning qadim ohanglaridan oziqlanib, shoirlik darajasiga yetgan ko'plab ijodkorlar yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Bu asr she'riyatining aksariyat namoyandalari orasida folklor namunalariga monand o'ziga xos asarlar yaratish an'anaga aylanib bordi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, O'zbekiston xalq shoiri, o'z ijodi bilan o'zbek she'riyatiga xalqona ohanglarni

qaytarishga, tiklashga uringan iste'dodli shoirlardan biri To'ra Sulaymon ham mana shunday shoirlardan biridir.

Shoir XX asrning 60-yillarida har bir o'quvchi diliga yaqin, xalqona ohangda lirik she'r va dostonlar yaratib, o'zbek milliy she'riyatiga kirib keldi. Ayni shu vaqtlarda uning she'rlari nashr etila boshlagan. Shoir ijod olamiga kirib kelar ekan, badiiy mahorati oshib borishida xalq og'zaki ijodi ta'siri yuqori ekanligini ta'kidlaydi. Hatto borar manzili noma'lum bo'lgan bir paytda xalq badiiy tafakkuriga oid an'analardan yiroqlashib ketmaslikni istab "Ulkan yo'lga chiqdim, yo'limda..." she'rida shunday yozadi:

Manzil qayda, gap qayda hali,

Aro yo'lda qolgulik qilma.

Ota meros sozim turganda

O'zga sozni chalgulik qilma.

Termalarim, o'lanlarimsiz

Ismu jismim mangulik qilma. [1. 6-bet]

To'ra Sulaymon ushbu misralarida yaratgandan ota-bobolarimizdan meros qolgan xalqona ijod orqali o'z nomini mangulikka muxrlanishini so'raydi.

Shoir she'rlarida xalq og'zaki poetik ijodi an'alarini davom ettirar ekan, o'z orzu-istaklarini ifodalashga harakat qiladi:

Tabiatdan tilagim:

Tutganim oltin bo'lsa.

Aytganlarim yurakka

Ko'z-qoshday yaqin bo'lsa.

Oltin – qimmatbaho predmet. Shoir esa asarlarining xalq tili, diliga mos holda bebaho bo'lib yaralishini, xalq qalbiga monand bo'lishini orzulaydi.

O'zbek xalqining ko'p asrlik milliy turmush-tarzini, an'alarini, qadriyatlarini o'zida ifoda etgan asar – "Alpomish" dostonidir. "Dostonning badiiy jihatdan eng mukammal varianti Fozil Yo'ldosh o'g'lidan 1928-yilda Mahmud Zarifov tomonidan yozib olingan nusxasi hisoblanadi. [2. 7-bet]

She'ning keyingi bandida Fozil Yo'ldoshga, aniqrog'i, uning badiiy qahramoni Alpomishga ishora qilar ekan, qalbidan chiqadigan har bir misra, bir doston misol bo'lishi va kechalari bu she'rlardan xalq qalbi ma'naviy-ma'rifiy nurga to'lishini istaydi. "Do'mbira" she'rida ham ana shunday ifodani uchratamiz. **"Muqaddas tuzini oqla, do'mbiram, Fozillar uslubin saqla, do'mbiram"**. Bu satrlar ham baxshilar uslublarini saqlashga bo'lgan urinishlar ifodasidir, albatta.

Fozil baxshi soziday

Tunni shodon o'tkazsa.

Halima ovoziday

Yetti iqlimni kezsa.

Har holda she'ning yakuniy qismida ham Islom shoir nomini bejiz tilga olayotgani yo'q. Islom shoir Nazar o'g'li kuylagan "Orzugul", "Gulixiromon", "Zulfizar bilan Avazxon", "Erali va Sherali" o'zbek xalq dostonlarining tili xususiyatiga ishora. Shuning uchun ham shoir she'rlarining quymaligi jihatdan dostonlar matniga o'xshab ketadi hamda xalq dilida har doim qo'noq – mehmondir.

Islom shoir baytiday

Sho'x bo'lsa, quvnoq bo'lsa.

Qo'sh bulbul bayotiday

Har dilga qo'noq bo'lsa. [3. 13-bet]

Shoirning baxshiyona uslubda yaratilgan ko'plab she'rlarida xalq qo'shiqlari, termalari, olqishlari, qarg'ishlari hamda ovutmachoque'rkalamalariga xos jihatlari – ohanglar yaqqol sezilib turadi. Xususan, "Bolam-ov" she'rida xalq badiiy tafakkuriga xos xususiyatlar bo'rtib turganligini payqash qiyin emas:

Aylanayin bolam-ov,

Toqqa bitgan lolam-ov.

Bo'ta ko'zim, sochlari

Qunduzdan ham qoram-ov.

Birpas bo'ying ko'rmasam,

Menda bo'lmas orom-ov.

Shoir xalqimizning beg'ubor va samimiy poetik ruhiyatni so'z vositasida chizar ekan, *qora* so'ziga egalik qo'shimchasini qo'shish orqali *orom* so'ziga hamohanglikni ta'minlaydi. Ushbu she'rga farzandni suyish, erkalash mazmuni singdiriladi.

Talpinishing toyloqday,

Ko'zlaring shamchiroqday.

Tinchimaysan – sho'xliging

Olqor – temir tuyoqday.

Bo'ying ko'rsam, dilimda

Qo'shiq qaynar buloqday. [3. 16-bet]

Ushbu she'r umuman boshidan oxiriga qadar yengil o'qiladi, sodda va ravon uslubda yozilgan. Dunyoda farzand suyish quvonchidan ortiq narsa yo'q, she'rda farzand erkalayotgan lirik qahramonning kayfiyati ifodalanyotganligi bolani ardoqlash, e'zozlash haqida aytilayotgan fikrlar xalq og'zaki ijodidagi erkalamalar ohangini eslatib yuboradi. "Erkalamalar xalqning o'z farzandlariga beqiyos mehr tovlanishlarini aks ettiradi. Ularda xalqimizning bolaparvar siymosi nurlanib turadi". [4. 292-bet]

Mazmun va shakl jihatdan erkalamalarga yaqin bo'lgan "Bola bolajonimsan" she'rini ham misol tariqasida keltirish mumkin:

Bolajon, bag'rimizning butunligi sen bilan,

Davru davronimizning durkunligi sen bilan,

Kommuna faslining yaqinligi sen bilan,

Bola, bolajonimsan

Beg'ubor osmonimsan. [5. 6-bet]

"Ehtiroslar jo'shqinligi erkalamalarning janr tabiatni belgilovchi xususiyatdir". Yuqoridagi banddan ehtiroslar jo'shqinligini his etish mumkin. "So'z ruhning qanotidir" deb yozadi adabiyotshunos olim I.Haqqulov. Shoir she'rida xalq poetik ruhiyatni tasvirlar ekan, unga jo'shqinlik orqali jon baxsh

etishga erishadi. “Bolajon” she’ri ham farzandni erkalashga qaratilgan jihatlari bilan e’tiborlidir:

***Ko’ngilga yovuqsan ko’z bilan qoshday,
G’ubori yo’q tongda chiqqan quyoshday...
Go’zallikk noming go’yo uyqoshdan,
Jonu jahonimiz senga tutoshday,
Havasim keladi senga, bolajon.*** [6.15-bet]

Shuningdek, T.Sulaymoni “Qarg’ish” she’ri esa o’zbek xalq folklori tarkibida o’rganiluvchi qarg’ish janri xususiyatlarini eslatadi. “Qarg’ish o’zbek folklorining mustaqil janri hisoblanadi”. [7. 113-bet] Bu janrda yaratilgan ko’plab xalq ma’naviy merosi ham shoir she’riyatiga o’z ta’sirini o’tkazmay qolmagan. Jumladan, she’rda quyidagi satrlarni o’qiymiz:

***Sen qizni o’ksitgan xarob xor bo’lsin,
Bir umr sevgiga intiq zor bo’lsin.***

***Gulga o’xshatgandi u seni boshda,
Shaydoying bo’liboq bir bor qarashda.***

***Bunday beburdلarning yoz tugul, qishda
Qadami yetgan yer tikanzor bo’lsin!*** [8. 69-bet]

Xalq qarg’ishlari og’zaki ijodda she’riy ko’rinishda ham yaratilgan. “Qarg’ishlar nasr va nazm shaklida yaratilib, har biri o’ziga xos poetik xususiyatlarga egadir”. [9.296-bet] T.Sulaymonning “Qarg’ish” she’ri nazmda yaratilgan qarg’ish janriga mansub asar deb ayta olamiz. She’rning sarlavhasida ham yuqoridagi fikrlarga ishora qilingan.

T.Sulaymon ijodida o’zbek folkloriga xos xususiyatlar, xalqimizning badiiy tafakkurini aks ettiruvchi she’rlar, eng qadimgi an’analar bilan bog’lanib ketadigan tasavvurlarni uyg’otadigan ifodalar uchrashi bilan yanada e’tiborimizni tortadi va shoir ijodini o’rganishning ahamiyatni belgilab beradi. Qolaversa, “Sizni eslayman” to’plamida Ergash Jumanbulbul o’g’liga “Daryoi

azim” she’rini bag’ishlagani ham o‘zbek xalq folkloriga bo‘lgan munosabatni ifoda etadi:

***Siz daryoi azimsiz tinimsiz toshib oqqan,
Elga hayot baxsh etib dilga tutashib oqqan,
Ne xavfli, ne xatarli tog‘lardan oshib oqqan,
Birda Zarafshon, birda Sirday yarashib oqqan.***

Ayni vaqtda “daryoi azim” jumlasini aynan shoir T.Sulaymonga ham qo‘llash o‘rinli, nazarimizda. Shoirning ko‘ngil daryosidagi xalqona – donishmandona falsafiy qarashlari singdirilgan she’rlar bulog‘idan chanqog‘ini qondirga o‘quvchi yuqori ma’naviy quvvatga ega bo‘ladi. Bu esa yana bir bor T.Sulaymon ijodining o‘ziga xos ekanligini ko‘rsatadi.

“Badiiy asar ijodkor shaxsiyatining mevasi ekanligi sababli ijodkor qancha o‘ziga xos bo‘lsa, uning yozganlari ham shuncha betakror bo‘ladi. To‘ra Sulaymon tamomila o‘ziga xos shaxs edi va bu qaytarilmas shaxsiyat uning bitganlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shoir ijodining bosh belgisi uning to‘lig‘icha xalq og‘zaki ijodi namunalari ta’sirida ekanidadir. Uning o‘yi, tuyg‘ulari, hayratu hayajonlari hamda ularning ifodasi xalqona. Shoirning qayg‘usi, quvonchi, hatto yumorida ham xalqchillik yaqqol ko‘rinib turadi”. [11. 5-bet] Shuningdek, badiiy ijoddagi milliy qahramonlarmiz Alpomish, Go‘ro‘g‘lilarning shoir badiiy tafakkurida xalqchillikni aks etishiga turtki bo‘lgan. Fol’klor asarlari xususiyatiga ko‘ra og‘zaki ko‘rinigshda yaralar ekan, bevosita ularning tili dialektologik harakterga ega ega bo‘lishini yuzaga keltiradi. T.Sulaymon she’riyatining fol’klorga xos xususiyatlari haqida to‘xtalar ekanmiz, ayni paytda aksariyat ijod namunalari matnida dialektal so‘zlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu esa shoir she’riyatini dialektologik xususiyatga ega ekanligini ifodala ydi.

Xullas, xalq ma’naviy-marifiy qarashlarini yanada yuksaltirishda shoir ijodi muhim ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. T.Sulaymon she’riyatida fol’klor-dialektologik xususiyatlar yetakchilik qilar ekan, o‘quvchi

dunyoqarashida milliy o'zlikni kashf etish va idrok etishni ta'minlay oluvchi she'riyat degan xulosaga kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Т.Сулаймон. Истар кўнгил. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
2. Фозил Йўлдош ўғли. Алпомиш. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2010.
3. Т.Сулаймон. Илтижо. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1984.
4. К.Имомов, Т.Мирзаев, Б.Саримосоқов, О.Сафаров. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
5. Т.Сулаймон. Сизни эслайман. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1980.
6. Т.Сулаймон. Гул бир ён, чаман бир ён. – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1996.
7. 4. К.Имомов, Т.Мирзаев, Б.Саримосоқов, О.Сафаров. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
8. Т.Сулаймон. Сизни эслайман. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
9. Б.Тўйчибоев, Қ.Қашқирли. Зомин тил қомуси. – Тошкент: Академнашр, 2012.
10. Тўра Сулаймон. Гулшан. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
11. Қ.Йўлдошев. Иккинчи умр манзиллари. Тошкент. Мовароуннаҳр нашриёти, 2013.

ID-020-30-A076

Yorqinoy Ismonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs magistranti

BOLALAR FOLKLORI – EZGULIK TIMSOLI

Annotatsiya. Maqolada bolalar folklori xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi sifatida ekanligi, uning o'ziga xos jihatlari, shuningdek, bir qator turlari, xususan, alla, ertak, tez aytish, topishmoq, bolalar qo'shiqlarining bolalar folkloridagi umuman olganda, bolalar hayotidagi o'rni va bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Bolalar folklori, alla, ertak, tez aytish, topishmoq, xalq og'zaki ijodi.*

Annotatsion. the article says about the importance of the children's folklore, as well as a number of its types, in particular, alla, fairy tales, tongue-twisters, riddles and songs in children's life today.

Key words: *Children's folklore, alla, fairy-tale, tongue-twister, riddle, folklore.*

Ma'lumki, har bir xalq o'zining adabiy merosi, ya'ni xalq og'zaki ijodiga ega va u o'sha xalqning urf-odatlari, an'analari, qadriyatlari hamda adabiy muhiti nechog'lik go'zal, ma'naviyati yuksak ekanligini ko'rsatib beruvchi adabiy turlardan biri hisoblanadi. Masalan, doston, ertak, qo'shiq, maqol, matal, topishmoq, askiya, mif, bolalar folklori va hokazo.

Bu janrlarning har biri o'zining alohida o'rniga ega bo'lib, u xalq ma'naviyatini yuksaltirishda munosib ahamiyat kasb etadi. Ular orasida bevosita farzandlar ma'naviyatiga daxldori hisoblangan bir janr borki, u jismoniy tarbiyaga uyg'unligi bilan ham doimo e'tiborli bo'lib kelgan. Bu – bolalar folklori. Xo'sh, uning ma'naviy va jismoniy bo'linishlarini qay yo'nalishlar farqlab turadi. Masalan, allayu ertaklar bolalarning ma'naviy dunyosini boyitsa, bekinmashoq, chillak, varrak uchirish kabi o'yinlar ularning

jismonan chiniqishlariga sabab bo'lgan. Qolaversa, ular yosh avlodning xalq rasm-rusumlari va og'zaki ijodi og'ushida ulg'ayishlariga ham munosib hissa qo'shgan. Buni juda yaxshi tushungan ota-bobolarimiz esa ularni hatto zamon pedagogikasi talablari asosida asarlar shakliga keltirib nashr etishgan. Xususan, bolalar uchun yaratilgan bunday asarlarning tili sodda, mazmuni esa esda qolarli bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan. Shuningdek, mazkur kitoblar, albatta, tarbiyaga ahamiyat qaratgani holda, bolalarda xalqiga, vatani, qadriyati va ajdodlariga nisbatan hurmat ruhini shakllantirish uchun ham xizmat qilgan.

Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi. Bu bejizga emas, chunki bola tug'ilgan zahoti unga mehr bilan aytiladigan qo'shiq alla bo'lib, mo'jizakor hisoblangan ushbu nolalar chaqaloq ruhiga imon, vatani muhabbat, xalqiga hurmat, o'zi tug'ilgan oilaga izzat bo'lib quyilishi barobarida unga nisbatan cheksiz mehr tuyg'usini ham ifodalagan. Shu bois ham u uzoq o'tmishdan to bugunga qadar onalar tilidan tushmaydi.

Onasining erkasi,
Uxlab qolsin, alla-yo.
Bo'lsin inson sarasi,
Obro' olsin, alla-yo, alla.

Yuqorida keltirilgan alla parchasiga e'tibor qilsak, unda onaning farzandiga bo'lgan yuksak mehri, orzu-umidlarini va hatto chaqalog'ining kelajagini bashorat qilishigacha anglashimiz mumkin. Ona mehri, ona dardi, onaning orzu-umidlari jo bo'lgan shu ikki qator satr go'dak kamolotida qanchalik ahamiyatli ekanligini hamisha e'tiborga olmog'imiz darkor. Zero, bugungi kunda momolarimizdan meros bo'lib qolgan ilohiy qo'shiq hisoblanmish alla aytish an'anasi asta-sekin yo'qolib bormoqda. Bu esa afsuski, xalq og'zaki ijodining eng muhim turlaridan birini yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, internet manbaasi *arxiv.uzda* alla haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Ya'ni unda ta'kidlanishicha, "alla" so'zi L.Z.Budakovning

“Turk-tatar so‘zlarining qiyosiy lug‘atida” (1869) “alla” so‘zining chig‘atoycha ekanligini ta’kidlagan va u dastlab “allala” shaklida bo‘lib, boshning orqasi, ya’ni ensani anglatishi qayd etilgan. Chaqaloq esa beshikka, belanchakka faqat bosh orqasi – allasi bilan chalqanchasiga yotqiziladi va chaqaloq huddi shu holatda orom oladi. Aynan shu vazifasidan kelib chiqib, bola nutqida *allala* so‘zi *alla* shakliga o‘zgargan va uyquga chorlovchilik mohiyatini kasb etgan ekan. Shu tariqa “alla” so‘zi bolani allalab-ovutib, avaylab uxlatishni anglata borgan.

Bolalar folklorining yana bir janri bu ertaklardir. Zero ertaklar, mittivoylar dunyoqarashi va tasavvurini boyitishda nihoyatda zarur vosita hisoblanadi. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog‘lanishi, insonlarga axloqiy va ma’naviy yo‘ldosh bo‘lib kelishidadir. Kattalar folkloridan syujeti va tildagi soddaligi bilan ajralib turadigan bu janrning matnlari ham hajman qisqa bo‘ladi. Unda ishtirok etadigan qahramonlar – obrazlar esa ko‘pincha hayvonlardan tashkil topadi. Ular bolalarni ovutish, ayrim yovvoyi va uy hayvonlari, qushlar haqida ma’lumot berish, bolajonlarning nutqini o‘stirish, uxlashdan oldin tinch-sokin kayfiyatni hosil qilishga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir. Chunki bu orqali bolada ezgulikka intilish shakllanadi. Bundan tashqari, ular ko‘p jihatdan xalq pedagogikasi tamoyillari aks etgan badiiy so‘z namunasi ham hisoblanadi. Shuningdek, ertaklar bir qator maqsadlarni ham nazarda tutadi. O‘tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchilik kurashi o‘zining haqqoniy badiiy ifodasini topgan deb ayta olamiz. Ularda xalqning kelajakka bo‘lgan ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g‘alabasi, yorug‘likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g‘oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Xalq ertaklarida el-yurtni ko‘z qorachig‘iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug‘lanadi, ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi, kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma’qul illatlar tanqid ostiga olinadi, mardlik, epchilik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g‘oyalari ulug‘lanadi.

Yana bir ijod namunasi bu - bolalar qo'shiqlaridir. Ular ko'pincha mavsumiy xususiyatlarga ega bo'lib, odatda qo'l-oyoq harakatlari bilan ijro etiladi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning aqliy va jismoniy kamolotga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. "Boychechak", "Oftob chiqdi olamga", "Oq terakmi ko'k terak?", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Yomg'ir yog'aloq" kabi o'nlab qo'shiqlar ko'proq yil fasllariga, qush va hayvonlarga bag'ishlangan bo'lib, bahor kelishi, yomg'ir yog'ishi, quyoshning olamni isitishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. Shuningdek, qo'shiqlarda kuylanayotgan obrazga nisbatan munosabatlar o'z badiiy ifodasini topadi.

Tez aytishlar esa bolalar folklori tarkibiga nisbatan keyin qo'shilgan janr hisoblanadi va ular bolalarning ayrim tovushlarni talaffuz qilishdagi kamchiliklarini yo'qotishiga yordam beradi. Tez aytishni qayta-qayta mashq qildirish, berilgan matnni osongina diliga, tiliga jo qilibgina qolmay, tinimsiz takrorlash natijasida bolaning nutqi chiqadi, tili ravon bo'ladi. Tez aytish bolaning tilini ravon, burro qilishdan tashqari, aqliga - aql qo'shadi, ongini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, ota-onasiga, el-yurtiga, o'zini qurshab olgan olamga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi. Bu esa bolalar folklorining farzand tarbiyasida, bolajonlarning komil inson bo'lib ulg'ayishidagi yana bir ahamiyatli tomonidir.

Shuningdek, bolalar folkloridagi topishmoqlarning ham ijodkori xaqlidir. Topishmoq o'z ichiga borliqdagi hamma narsa va hodisalarni, ularning turli-tuman ko'rinishlarini qamrab oladi. Osmon, ko'k, quyosh, oy, yulduzlar, tabiat hodisalari, odam va uning a'zolari, hayvonot dunyosi, qushlar, hashoratlar, daraxt, har turli o'simliklar, meva, sabzovotlar, uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari, umuman, hamma narsalar haqida ko'plab topishmoqlar yaratilgan. Topishmoqlar kichkintoylarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga, ularni muayyan bir fikrni badiiy tusda ifodalashga va ziyraklikka, topqirlikka o'rgatadi.

Shunday qilib, bolalar folklori namunalari xalqimizning o‘z farzandi tarbiyasiga, binobarin, xalqi, yurti kelajagiga o‘ta mas‘uliyat bilan yondashganini va qanchalar e‘tibor bilan qaraganini ko‘rsatadi. Bu e‘tibor esa o‘z navbatida ajdodlar xotirasiga ham hurmat tuyg‘usining kuchayishiga sabab bo‘lgan. Bu an‘analar, ayniqsa, mustaqillik yillarida yanada keng ommalashdi. Binobarin, ular ma‘naviy merosimizning nodir durdonalari sifatida yana asrlar osha davom etaveradi. Bunga esa barchamiz birdek hissa qo‘shmog‘imiz kerak!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek bolalar folklori., *arxiv.uz* internet manbaasi.
2. Jahongirov F. O‘zbek bolalar folklori, -T., 1975.
3. Jumaboyev M., Bolalar adabiyoti, -T.: O‘qituvchi, 2011.
4. Jumaboyev M., O‘zbek bolalar adabiyoti, -T.: O‘qituvchi, 2002.
5. Masharipova Z., O‘zbek xalq og‘zaki ijodi,-T., 2008.
6. Safarov O., O‘zbek bolalar poetik folklori, -T., 1985.

TARRJIMASHUNOSLIK

ID-020-30-TAR001

Dilnoza Shonazarova

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 2-kurs talabasi

SYNTACTIC PROBLEMS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Annotatsiya. Ushbu maqola sinxron tarjima davomida tarjimonlar duch keladigan sintaktik muammolarni yoritib beradi. Maqolada ushbu muammoga ba'zi yechimlar o'zbek va ingliz tillari misolida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *so'zbirikmasi, gap strukturasi, gap uzunligi, xotira, ega, kesim, ravish, to'ldiruvchi.*

Annotation. This article defines the syntactic problems of simultaneous translation that interpreters are coming across and some solutions, offers are presented for solve this problem on the example of Uzbek and English languages.

Keywords: *sentence structure, word combination, length of the sentence, memory, subject, verb, adverb, complement.*

Simultaneous translation – is a kind of interpretation where the translation is performed simultaneously with the speech of the speaker. It is a complex process and requires careful preparation, both professional and technical. In addition, simultaneous interpreting requires tasks that are related to comprehension, semantic and syntactic decoding and they have to be carried out at the same time with lexical selection and language production tasks. This kind of interpretation is used in the forums, congresses, seminars, meetings of

the UN, important international conferences and hearings in the Parliament of the European Union.

Memory, talent, practice and experience are another area for consideration. Without having a good memory and talent, being a simultaneous interpreter is beyond remedy. Lambert said that, "Memory is one of the principal arguments for the complexity of simultaneous interpreting, and consequently the source of the perceived difficulty of the task, lies in the fact that it requires several different cognitive tasks to be carried out more or less concurrently" [2004]. Moreover, being a simultaneous interpreter requires having good nerves, strong attention, fluent speech and accent. Apart from that, every interpreter should be naturally talented and has a strong power of concentration, self-control as well as responsibility.

Turning to the issue of facilities, simultaneous interpretation requires special equipment. As they need to be provided with, a specially prepared room and only the headphones should hear their voice. It should have a good sound insulation. Nothing should distract the translator, as he should not hear any noise.

Simultaneous translation is a complicated process; hence, it has several problems that we may face with during the interpretation:

- ❖ Having different patterns of syntax;
- ❖ Lacking the vocabulary related to the culture and national customs;
- ❖ Coming across too many complex and technical words or the words that are not common;
- ❖ Problems with numbers, names, geographical names;
- ❖ Difficulty in translating idioms and jokes;

In this article, I am going to give some information about syntactic problems of simultaneous translation and its effects to the speed and quality of interpretation on the example of Uzbek and English languages.

Syntax is a proper order of words in a phrase or sentence. Syntax is one of the major components of grammar. It is impossible to build a sentence without syntax. According to Burgess, "It is syntax that gives the words the power to relate to each other in a sequence... to carry meaning of whatever kind as well as glow individually in just the right place". Uzbek and English languages are not bounded up with the same family. Thus, their sentence patterns are thoroughly distinctive as well. Following table shows fundamental differences of their syntax:

English	subject+verb+object
Uzbek	subject+object+verb

According to the table, in English language, sentence starts with a subject which can be used with adjective, after that comes verb and it can be followed by an object. For example, "Government (subject) adopted (verb) a resolution (object)". In some ordinary sentences object does not exist. For instance, "Government (subject) adopted (verb)". Not existence of the object can be seen in Uzbek language as well. The function and place of the subject is the same in both languages, subject can be followed by an adjective in Uzbek as well. Next to the subject, the object comes. In terms of verb, the verb of the sentence situated very end of the sentence. For instance, "Hukumat (subject) qaror (object) qabul qildi (verb) (Government adopted a resolution)". As we can see, there is a large discrepancy between the verbs. Unlikely to Uzbek, in English language, verb comes right after the subject. Notwithstanding the verb, the place of the subject and the functions of the complement, adjunctive and attributive are nearly uniform. Therefore, in order to interpret the sentence from Uzbek to English, we should wait for the verb, which comes at the end of the sentence and in reverse. While waiting for the verb, interpreter will face with some problems, like forgetting some important details of the sentence or not being able to manage the time. Thus, he will try to predict the available word and tell it beforehand and that word will be incorrect; in that case, he will

change the word and retell it. During the interpretation, several words will come to mind that connected to that sentence and choosing the right word or predict it correctly depends on the predictability of the interpreter. When interpreters listen to the recording, they automatically search for the appropriate variant of verb to the sentence. In Uzbek, according to syntactic structure, the verb comes at the end of the sentence. Consequently, to translate an Uzbek sentence into English one has to wait till the end of the sentence, and only then it is possible to translate. However, in simultaneous interpretation an interpreter cannot wait long. Therefore, anticipation and prediction abilities of translators become vital.

This can be exemplified in the process of interpreting from Uzbek into English: “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimchachora tadbirlar to‘g‘risidagi farmonini imzoladi (The President of the Republic of Uzbekistan signed the resolution on improving professional education system). After listening to the beginning of the sentence sounding “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (The President of the Republic of Uzbekistan)”, interpreter will automatically predict following kinds of verbs which are can be used with that word: tashrif buyurdi (visited), qabul qildi (accepted), imzoladi (signed), e‘lon qildi (declared) and etc. Then, after listening to the continuation, “professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga (on improving professional education system)” it will be more clear that that the verb is connected to some kind of resolution or decree and if it connects to this word the verb can be “imzoladi (signed)”. Now I will give the example to the sentence English into Uzbek which consists of only expanded subject and verb. However, this sentence is still a bit difficult to interpret due to expanded subject: “The issues of expanding cooperation among international and regional organizations has been discussed (Xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi).” In this sentence, when interpreter listens at the beginning of the sentence “The issues of expanding

(hamkorlikni kengaytirish masalalari)” he automatically analyse the words and predict several verbs like “considered (ko‘rib chiqildi)”, “reconsidered (qayta ko‘rib chiqildi)”, “discussed (muhokama qilindi)” or even the continuation of the sentence.

To conclude, being simultaneous interpreter is one of the challenging occupations and it requires more effort, talent and practising regularly. To solve syntactic problems of simultaneous interpretation, one should:

- ❖ Form the skill of predictability by practising a lot in both source and target language;
- ❖ Try to enhance the speed of his interpretation;
- ❖ Improve capacity of the memory;
- ❖ Enrich vocabulary by learning daily;

References:

1. AmirShojaei – Translation of Idioms and Fixed Expressions: Strategies and Difficulties – June 2012.
2. Kilian.G.Seeber– Simultaneous Interpretation-2015
3. www.thoughtco.com/syntax-grammar-1692182
4. <https://www.translationjournal.net/July-2018/cultural-problems-in-translation.html>
5. <https://lighthouseonline.com/blog-en/the-many-difficulties-of-simultaneous-interpreting>
7. <https://www.lexiconusa.com/Simultaneous.html?msclkid=a11fab189dd2152f3e54f684f96678b>

ID-020-30-TAR002

Dilsora Ashrapova,

Dilsora Paritdinova

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 2-kurs talabalari

**BADIIY TARJIMADA ADEKVATLIK MUAMMOLARI
(MARK TVENNING “TOM SOYERNING BOSHIDAN
KECHIRGANLARI” ASARI MISOLIDA)**

Annotatsiya. Mazkur maqolada Amerika yozuvchisi Mark Tvenning “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” romanining o‘zbekchaga o‘girilgan tarjimasidagi adekvatlik muammolari yoritilgan. Shuningdek, tarjimada adekvatlik muammolarini bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *“Tom Soyerning boshidan kechirganlari”, badiiy tarjima, Ilyos Muslim, muqobil leksema.*

Annotation. This article describes adequate problems from Uzbek language translation in the example “Adventures of Tom Sawyer” written by American writer Mark Twain. Moreover, there are some suggestions and advice about how to eliminate adequate problems in translation.

Keywords: *“Adventures of Tom Sawyer”, Ilyos Muslim, alternative word, literary translation.*

Kirish qism

Amerikalik yozuvchi Mark Tvenning “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” asari nafaqat G‘arbda, balki butun Sharqda ham million-million kitobxonlar tomonidan sevib o‘qiladi. Adib mazkur asarida yosh, o‘ta qiziqqon

va sho‘x, chigal to‘siqlardan ham qiynalmay o‘ta oladigan, og‘ir va murakkab vaziyatlarda ham o‘zini boshqara oladigan, uddaburon bola Tom Soyer haqida hikoya qiladi. Adib qahramonini tanlashda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelgan. Uning o‘zi bu haqda: “Tom Soyer hayotda mavjud timsoldir. Qahramonning boshidan kechirganlari “Tom Soyer” ismi kabi jaranglashiga olib keldi va shu sababdan ham men bu ismni tanladim” [1, 7-bet], - deb ta’kidlaydi.

Mazkur asar 2015-yil nashri bo‘yicha 20 000 tirajda Moskvada “Приключения Тома Сойера” nomi ostida ingliz tilidan K.Chukovskogo, N.Daruzes, M.Bekker, B.Gribanova va V.Galdyayeva tomonidan rus tiliga tarjima qilingan. Asar nafaqat rus tiliga, balki o‘zbek tiliga ham mahorat bilan tarjima qilingan. Ushbu asar “Tom Soyerning boshidan kechirganlari ”[3] nomi ostida tarjimon Ilyos Muslim tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

“Yangi asr avlodi” nashriyot-matbaa markazi tomonidan 2014-yil 5000 nusxada chop etilgan. Mutarjim Ilyos Muslim asarga yaxshi yondasha olgan. Ushbu tarjima asarida ko‘pgina o‘rinlarda tarjimon qator ijodiy yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, shu bilan bir qatorda so‘z qo‘llash mahorati bilan bog‘liq ba‘zi kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan. Ular original va tarjima matni qiyosida tarjimadagi ba‘zi nuqsonlarda ko‘zga tashlanadi. Ushbu maqolada ulardan ba‘zi qaydlarni keltirib o‘tamiz.” [3]

Asosiy qism

Mark Tven qalamiga mansub “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” romanining o‘zbek tiliga tarjimasida Ilyos Muslim originaldagi lug‘aviy birliklarga muqobil leksema tanlash prinsipiga amal qilgan holda sinonimlarni tanlashda mahorat bilan yondashgan. Bunday muqobillik, mushtaraklik va o‘ziga xoslikni berishda tarjimon beqiyos qiyinchiliklarni yengib, qator ijodiy yutuqlarga erishgan.

Ma’lumki, tarjimada original asar muallifining o‘ziga xos tili, uslubi va nihoyat, original asarning badiiyligi hisobga olinishi lozim. Bu o‘rinda

tarjimashunos olimlarimiz J.Sharipov, G. Salomov, M. Boboyev, K. Quramboyevlar ta'kidlaganidek "Badiiy asarlarning o'ziga xos badiiy xususiyati bo'lgan obrazlilikni, har bir tovush, nuqta, vergulning badiiy funksiyasini bilib va to'g'ri aks ettirishdan iborat [4]."

Ayni shu nuqtadan yondashsak, tarjimon Ilyos Muslim tarjima qilish jarayonida originaldagi ayrim leksik birliklarga muqobil leksema tanlashda, ya'ni shakl va mazmun dialektikasida juz'iy g'alizliklarga yo'l qo'ygan. Masalan, originaldagi "**fence**" so'zini tarjima qilayotganda "**xari**" so'zi qo'llangan. Ushbu so'z barcha kitobxonlar uchun tushunarli bo'lmaganligi sababli biz uni "**to'siq**", "**devor**", "**panjara**" so'zlari bilan almashtirishimiz mumkin.

Quyidagi mikrokontekstni qiyoslang:

Asliyatda:

He climbed **the fence**, threaded his stealthy way through the plants, till he stood under that window. [1, 46-bet]

Tarjimada:

U **xarilardan** oshib o'tib, chakalakzor orqali yurib sekin-asta naq deraza tagiga borib to'xtadi. [2, 28-bet]

Tarjimon Ilyos Muslim asardagi maqollarni o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri so'zma-so'z tarjima qilgan. Mikrokontekstni kuzating:

Asliyatda:

- "Can't learn an old dog new tricks." [1, 28-bet]

Tarjimada:

- "Qari itni yangi qiliqlarga o'rgatib bo'lmaydi." [2, 5-bet]

Bu o'rinda tarjimon bu maqolning boshqa muqobil variantini qo'llaganda, asar ancha ta'sirchan va badiiy bo'yoqdor bo'lar edi. Misol o'rnida, "**It qarisa, yotgan yeridan huradi**" kabi maqolni keltirganida, kitobxonga kontekstdan kelib chiqib tushunishi oson bo'lar edi.

Shu bilan bir qatorda quyidagi jumlada ham ba'zi noaniqliklarni uchratishimiz mumkin.

Asliyatda:

-“He’s full of the *Old Scratch*, but *laws-a-me!*” [1, 28-bet]

Tarjimada:

-“Uning miyasi har xil *yomon o’ylar* bilan band ekanligini bilganim bilan nima qila olar edim.” [2, 5-bet]

Ushbu gapda “*Old Scratch*” atamasi o’rnida tarjima qilingan “*yomon o’ylar*” birikmasida g’alizlikni ko’rishimiz mumkin. Aslida “*Old Scratch*” atamasi *evfemizm* bo’lib, “*shayton*” ma’nosini bildiradi.

Bundan tashqari “*Laws-a-me*” birikmasi “**bilganim bilan nima qila olar edim**” tarzida tarjima qilingan. Aslini olganda, “*Laws-a-me*” birikmasi “*Lord save me*” jumlasining ekvivalenti sanaladi.

Buni kitobxonga yanada tushunarli bo’lishi uchun ushbu jumlaning “*omon bo’lgur*”, “*xudo asragur*” kabi jumalar bilan almashtirishimiz mumkin.

Ushbu maqolga e’tiboringizni qarating:

Asliyatda:

“Old fools is the biggest fools there is.” [1, 28-bet]

Tarjimada:

“Qari odam barcha ahmoqlardan ham ahmoqroq ekan.” [2. 4-5-betlar]

Nafaqat o’zbek xalqida, balki boshqa xalqlarda katta yoshli insonlar, keksalarga nisbatan “**ahmoq**” so’zini qo’llash hurmatsizlik sanaladi.

Shuning uchun biz ushbu maqolning muqobil variantini keltirdik:

“Ahmoq qarimas, qarisa ham ahmoqligi arimas.”

Tarjimashunos olim professor Karimboy Quramboyev ilmiy-nazariy jihatdan haqqoniy ta’kidlaganidek, “ Tarjimon har ikki tilni, tarjimaga obyekt bo’lgan asar tilini va o’z ona tilining leksik, fonetik, morfologik xususiyatlarini yaxshi bilishi zarur.” Shu o’rinda quyidagi misolni keltirish mumkin.

Asliyatda:

The balmy summer air, the restful quiet, odor of the flowers, and the drowsing murmur of the bees had had their effect, and she was nodding over

her knitting for she had no company but the cat, and it was asleep in her lap. (1. p40-41)

Tarjimada:

Barakali yoz havosi uyda hukm surgan jimjitlik, gullarning xushbo'y hidlari, asalarilarning allalovchi g'o'ng'irlashlari Polli xolaga o'z ta'sirini o'tkazar edi. [2, 21-bet]

Biz "barakali yoz havosi" birikmasi o'rnida " rohatbaxsh, yoqimli yoki muattar yoz havosi " deb qo'llashimiz mumkin. Chunki "balmy" so'zi " yoqimli, xushbo'y, muattar " ma'nolarini anglatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mutarjim Ilyos Muslim o'z mahoratini ushbu tarjima asar orqali isbotlay olgan. Ba'zi bir juz'iy xatolarni hisobga olmasak, tarjima go'zal va badiiy vositalarga to'la holda tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda joylarda ma'lum bir eskirgan so'zlardan ham foydalanilgan va shu sababli ham asar o'ziga xos tarzda tarjima qilingan. Ilyos Muslim ushbu tarjima varianti orqali ingliz yozuvchisi Mark Tven ijodiga, badiiy professional mahoratiga muhabbati sezilib turadi. Shuning uchun ham tarjimon Ilyos Muslim ijodi yondashuvi va o'ziga xos tahlili, samimiyati bilan o'z o'rniga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "The adventures of Tom Sawyer ". Foreign languages publishing house, Moscow 1956.
2. Mark Tven "Tom Soyerning boshdan kechirganlari" tarjimasi. Muallif Ilyos Muslim.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. Moskva. "Rus tili" nashriyoti, 1981y.
4. J. Sharipov. Tarjimada sinonimlar, maqol, matal va frazeologik iboralar tarjimasi. 218-229-b. G'. Salomov. Tarjimada so'z tanlash problemi. 163-256-b. G'. Salomov, M. Boboyev. Yaqin tillarga tarjima qilganda. Jurnal " Sharq yulduzi", 1-son, 1973.
5. Randolph Quirk "The Longman Dictionary of Contemporary English" 1755.

ID-020-30-TAR003

Dinora To'g'onova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi

DIFFERENT VIEWS OF METAPHOR IN DIFFERENT CULTURES

Anotatsiya. Ushbu maqola turli madaniyatlarda metaforaning turli qarashlarining roli va chet tilini o'qitish jarayonida o'qitish usullarini ko'rib chiqadi. Maqolada boshqa madaniy hayot bilan bog'liq rol tarjimasi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Metafora, tarjima, til, tarjimon, metafora ko'chish turlari*

Annatation. This article considers the role of different views of metaphor in different cultures and teaching methods in the process teaching foreign language. In the article is reviewed the role translation which is related to other cultural life.

Keywords: *Metaphor, translate, language, translator, animal metaphor, food metaphor, colour metaphor.*

For most of us, a day without metaphors is like a day without sunshine. Everybody uses from diverse metaphors each day in order to make the speech attractive. There are many types of metaphors. Animal metaphor, colour metaphor, food metaphors can be good examples, which are used widely. The translation of animal metaphor is problematic. The ability of the translator is very much influence to the result of metaphorical translation. He is not only have to empower himself with both source and target languages, but also he better has a deep cultural understanding especially about metaphor. "I think of the translator as a ghost who belongs to two worlds, two languages, two cultures, but belongs fully to neither- a figure whose very existence

demonstrates that this world and that world are not separate, but coexist in the same place and at the same time” – said Michael Emmerich. [1- 220]

“My brother is the black sheep of my family”.

We can use this comparison to describe an association of a black sheep with that person. A black sheep is an unusual animal, which typically stays away from the herd and the person being described shares similar characteristics.

“He was happy as a pig in slop”

The source domain here is “pig in slop” and target domain is “very happy person” while in Arabic the target domain is “very ungrateful person”. This different conceptual mapping is due to the fact that pigs are of the lowest status animals in the culture where Arabic is spoken. Pigs get a bad rap in Arabic. They are associated with smelliness, untidiness and greed. They are used as an insult for those who eat too much and men who behave like chauvinists. Arabic and English are very similar and differences are based on cultural, environmental and other factors. “There were not any pig there”. In Germany, it means that nobody was there. In Uzbek, we can say this metaphor in other way. For example: “There were not any dog”. It means that nobody was there. There are not difference. But It distinguish only animals. The interpretation of metaphors is strongly culturally conditioned. This is especially the case with translated metaphor. “My English is under all pig” To say in German is to suggest that it is really bad. To say it in English proves its own point. This differences belong to countries’ national animals. For example:

National animals:

1. United States – eagle
2. United Kingdom - lion, bulldog
3. United Arab Emirates – oryx
4. Nepal – cow
5. Indian – elephant, dolphin, peacock
6. France – rooster

7. Azerbaijan – horse
8. Algeria – fox
9. Russian – bear
10. Uzbekistan – Humo
11. Rome – eagle
12. Turkmenistan- horse [2. 67-96]

Many countries have own national animals and they found their national animals' statue. And it means there are many memory about this animals. For example The Russian Bear is a widespread symbol for Russian, used in cartoons, articles and dramatic plays since as early as the 16th century, and relating alike to the Russian Empire, the Soviet Union and the present day Russian Federation. [3.44]

Metaphors of colours:

It is interesting that there is meaning of colour. For example the colour red metaphorical meanings. The colour red is commonly used to mean anger.

In the year 2.000, many Democrats were seeing red when the Supreme Court voted to uphold George W. Bush's election with although Al Gorge had won the popular vote. [4. 125]

Pens with red ink were formerly used to write dawn the amount of money that was lost in a business. When a business or government in losing more money than it is earning, we say that it is in red ink.

The colour blue means sad and depressing. I feel blue. It means I am sad.

Many years ago in Spain, the term translated as blue blood meant someone who was very rich or from a high social class.

In popular terms, to be yellow means to be afraid, as in a soldier who is afraid to fight in a war. In politics, a leader may be called yellow if he or she is afraid to use military force against an enemy. If people show their true colour, this means that they are showing what they really think or believe. [5. 60]

The author of Harry Potter Rowling is master of comparing one thing to another. These comparisons often have hidden meanings that are later revealed in the series. Here are just a few of her best metaphors:

“Mrs Dursley was thin and blonde and had nearly twice the usual amount of neck, which came in very useful as she spent so much of her time craning over garden fences, spying on the neighbour. In this metaphor, Rowling compares Dursley to a crane, a bird that is graceful but also very powerful. For long time readers of the series, they will see this image again when her story with Harry comes to an end: she is strong and fierce, but there is also a grace to her. [6]

If you want to learn any foreign language, you must not to stop searching and compering language and culture. It may be help you to understand theme and you comprehend what about it. If you know about different culture, you compare it easy and it is not difficult to translate correctly. When we use metaphor to link two ideas together, you are combining elements that have little or no logical connection. So, metaphorical thinking can help you with creative problem solving.

Foydalanilganadabiyotar ro‘yxati:

1. In Theory of metaphor. Wheelright, P. (1990) Moscow
2. National Animals. Paul.W USE
3. Russian Bear – Khrustalyev,D (2008) Russia
4. The Oxford Companion to the English language (1992)
5. [http:// en. Wikipediya.org/www](http://en.Wikipediya.org/www)
6. <http://en.list> of English language metaphors

ID-020-30-TAR004

Durdona Ermatova

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 3-kurs talabasi

KETMA-KET TARJIMA VA UNDA DUCH KELINADIGAN MUAMMOLAR

Annotatsiya. O'tgan asrning boshidan beri ketma-ket tarjima qilishning ahamiyati oshib bormoqda. Ushbu tarjima turi boshqa tarjima turlariga nisbatan ancha mashaqqatli hisoblanadi. Tarjimondan tezkor xotira, tez yozish, dunyo miqyosi bo'yicha ishlatiladigan maxsus belgilardan xabardor bo'lishni talab etiladi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ketma-ket tarjimada yuzaga keladigan muammolar haqida ma'lumot berish hamda bu muammolarni bartaraf etish usullarini ko'rsatib o'tish.

Kalit so'zlar: *Ketma-ket tarjima, tezkor xotira, tez yozish, maxsus belgilar*

Annotation. The importance of consecutive interpreting has been growing since the last century. It is considered to be more difficult than other types of interpretation. Interpreters are demanded intensive memory, semantogram, special symbols which are used around the world. The main objective of this article is to give information about problems that occurred in consecutive interpretation and demonstrate some methods in order to solve these problems.

Keywords: *consecutive interpretation, intensive memory, semantogram, special symbols*

Ma'lumki, hozirgi kundagi globalashuv jarayonida har bir soha bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar sirasida tarjimonlik yo'nalishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, tarjima bir millatga ikkinchi bir millatni yaqindan tanishtiruvchi omil hisoblanadi. Tarjima millat ko'zgusi ekanligini hisobga olgan holda, undagi muammolarni hal qilish maqsadida ko'plab olimlar ilmiy ishlar olib bormoqdalar. Shuningdek, ushbu maqola ham ketma-ket

tarjimadagi muammolarni o'rganishga va bu muammolarni bartaraf etish usullarini ko'rsatib o'tishga bag'ishlangan.

Ketma-ket tarjima bu maxsus mahorat va o'qitish sohasida ishlaydigan tarjimanni talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu turdagi tarjimani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun har qanday uzunlikdagi nutqni yozib olish va takrorlashga imkon beradigan universal tez yozuv kabi texnikani o'rganish va o'zlashtirish, tezkor xotira talab etiladi.

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi og'zaki axborot berilgandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy xat boshini tinglaydi va tinglash mobaynida yozib olingan eslatmalar yordamida nutqni tarjima qiladi.

Tarjimon shu tariqa asosiy so'zlovchi nomidan ketma-ketlikda so'zlaydi. Ba'zi so'zlovchilar bir nechta gap so'zlab, so'ng tarjimonga tarjima qilishni taklif qilishadi. Tarjimon qisqacha yozib olmasdan ham ishlashi mumkin va u o'z xotirasida aytilgan gaplarni saqlab qoladi. Shunday qilib, ketma-ket tarjima so'zlovchining nutqini tinglangandan so'ng bajariladi. Bunday vaziyatda axborotning barcha mazmunini yodda saqlab qolish zarur. Ketma-ket tarjima muzokoralar, konferensiyalar, davlat arboblari va siyosiy shaxslarning uchrashuvlarida hamda delegatsiyani kuzatib yurish chog'ida qo'llaniladi. Ketma-ket tarjima qilish vaqtiga ko'ra ikki bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich, so'zlovchining nutqini o'z ichiga oladi va bu bosqichda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin. Ikkinchi bosqichda tarjimon aytilgan xabarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi.

Ketma-ket tarjima muammosi ilmiy adabiyotlarda ham yetarlicha muhokama qilinmagan. Shu sababli, ushbu maqolaning asosiy maqsadi ham, ketma-ket tarjimadagi asosiy muammolarni keltirib o'tish sanaladi. Ketma-ket tarjimada to'rtta muhim muammo mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. Eshitish va tushunish

- a) asliyatdagi nutqni tshunmaslik;
- b) sonlarni yaxshi eshitolmaslik;

- d) umumiy mavzuni tushunmaslik;
- e) asliyat nutqining tezliligi;
- f) aksent muammolari;
- g) asliyat nutqning uzunligi;
- h) ma'lumotlarning ko'pligi;
- i) amaliyot kamligi;
- j) diqqatni bir yerga jamlay olmaslik.

2) Eslatma yozish

- a) asliyatdagi nutqni tshunmaslik;
- b) asliyat nutqini yetkazib berish tezligi;
- d) yetarlicha amaliyotga ega bo'lmaslik;
- e) sonlarni yaxshi eslab qololmaslik.

3) Eslatmalarni tushunish

- a) tarjimonning o'zi yozib olgan eslatmalariga tushunmaslik;
- b) tezlikka monand javob qaytarolmaslik;
- d) bog'olovchilarning kam ishlatilishi;
- d) tushunarsiz eslatmalar;
- e) xotira muammosi.

4) Fikrni ifodalash va qayta shakllantirish

- a) asliyat nutqini yetarli darajada tushunmaslik;
- b) tarjimonning asabiy bo'lishi;
- d) tarjimonning o'ziga ishonmasligi;
- e) tushunarsiz eslatmalar;
- f) haddan ortiq bog'lovchilarning ishlatilishi;
- g) fikrni bayon etish muammolari.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, yuqorida aytib o'tigan muammolar ichida tarjimon uchun eng muhim narsa bu tarjimonning dastlabki xabarni tushungan holatda qabul qilish bosqichi va tarjima matnini qayta ishlab chiqarish bosqichi sanaladi. Chunki, dastlabki xabarni qabul qilish

jarayonida tarjimon muvaffaqiyatining kaliti asosan asl xabarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Bu kabi muammolarni bartaraf etish tarjimonning o'ziga bog'liq hisoblanadi. Agar tarjimon o'z ustida tinimsiz ravishda amaliy ishlarni olib borsa, bu muammolardan holi bo'lishi mumkin. Buning uchun tarjimondan o'zida tez yozish, xotira mashqlarini, maxsus belgilar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirib borishi talab etiladi.

Ketma-ket tarjima jarayonida tez yozib olish jarayoni puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Tarjimon oldida har doim A4 shaklidagi varaq yoki qayd qilish uchun qulay daftar olib yurishi zarur. Ushbu tartibga solish tarjimonga uzun bayonni yozib olishga imkon beradi, yozilgan nutqning har qanday joyini osongina topib olishga yordam beradi. Ye.V. Alikina yozuvlarning bir-biriga yopishmasligi uchun varaqning bir tomoniga ma'lumot yozishni maslahat beradi. Tez yozish tarjimonning asosiy quroli hisoblanadi. Tez yozish jarayonini osonlantirish uchun butun dunyo miqyosi bo'yicha gaplarni vertikal holatda yozish usuli qabul qilingan. Bu usulga ko'ra gap bo'laklarga bo'linib (gapning egasi va kesimi yaqqol ko'rinib turishi darkor), vertikal tarzda yozib olinadi va bu usul tarjima jarayonini yanada osonlashtiradi. Masalan, quyida keltirilgan gaplarni ushbu usulga ko'ra quyidagicha yozish mumkin:

1) Konvensiya (ega)

IF

davlatlarda zarur siyosiy hoxish

mavjud,

hatto eng jiddiy xalqaro muammolarni

hal etish uchun ham

o'zaro maqbul qaror

topish mumkinligiga

misol bo'lib xizmat qiladi (kesim)

2) Davlatlar (ega)

biologik qurol zaxiralarini

yo'q qilish
yoki
ulardan tinchlik maqsadida foydalanish
majburiyatini
o'z zimmasiga oldi (kesim)

Bundan tashqari, tarjimonning tez yozish jarayonini yanada osonlashtirish uchun maxsus belgilardan yoki qisqartmalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Butun jahon standarti bo'yicha qabul qilgan belgilardan yoki tarjimon o'zi uchun yaratgan qulay va tushunarli bo'lgan belgilardan foydalanish ketma-ket tarjimada samarali usul hisoblanadi. Masalan, tarjimon quyidagi so'zlarni qisqartish usuli bilan quyidagicha yozishi mumkin:

Sahifa – sah, ehtimol – eht, masalan – mas, bilan- b-n, ko'pchilik- kpchlk va boshqalar.

Ketma-ket tarjimada ishlatiladigan har bir belgi turli xil turkumlarga bo'linadi. Misol tariqasida bog'lovchilar, vaqt ko'rsatkichlari, hafta kunlari, fe'llar, iqtisodiy ko'rsatkichlar uchun ba'zi belgilarni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Bog'lovchilar	Vaqt ko'rsatkichlari	Hafta kunlari	Fe'llar	Iqtisodiy ko'rsatkichlar
& va	↓ hozir, aynidamda shu kunlarda, hozirgi paytda	dushanba (1)	↗ yaxshilanmoq, rivojlanmoq, kuchaymoq, o'smoq, faollashmoq	\$ valyuta
↖ ammo, biroq, lekin	, ...→ kelajakda	seshanba (2)	↘ yomonlashmoq, kamaymoq, pasaymoq, qisqarmoq, inqirozga uchramoq	Σ summa

{ bilan	← kecha, o'tmishda	chorshanba ③	X ta'qiqlamoq, bekor qilmoq, barham bermoq, o'ldirmoq	= teng miqdorda, bir xil
← shuning uchun	< harakat boshlanish sanasi	payshanba ④	→→ ...ga ta'sir ko'rsatmoq, nazorat qilmoq	⊙ o'rtacha, o'rtacha miqdorda
↔ yoki	> harakat tugash sanasi	juma ⑤	↑↑ maqtamoq, olqishlamoq, xursand bo'lmoq	↗ ko'p
? agar	⤿ davomida, hali	shanba ⑥	(qo'llamoq, ko'maklashmoq, targ'ib etmoq	<u>1</u> million, milliard
		yakshanba ⑦	!!! → tavsiya bermoq	
			[ochmoq	
] yopmoq	

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, inson xotirasi barcha gapni yoki ma'lumotlarni yodda saqlab qololmaydi. Tarjimon matnda fikrning mantiqiy zanjirini topishi va so'zlovchi nutqining asosiy mazmunini ochib berishi muhimdir. Shunday qilib, tarjimon so'zlovchining gapini yodda saqlab qolish uchun butun matnni tushunish imkonini beruvchi va gapini asosini yodda saqlab qolishga yordamlashuvchi ketma-ket tarjima unsurlaridan foydalanib, uni tarjima qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umirov I. Ketma-ket tarjimada tez yozuv masalasi // O'zbekiston tarjimashunoslari forumi – 2019 (ilmiy maqolalar to'plami). – T., 2019.
2. Сачаева О.С. Переводческая скоропись: Теория и практика. – Санкт-Петербург, 2011.
3. Peter Newmark. A Textbook of Translation. Prentice International (U.K) LTD. 1988.

ID-020-30-TAR005

Mohira Otaboyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

SHE'RIY TARJIMANING O'ZIGA XOS JIHATLARI

(ingliz adibi Lyuis Kerroll ertaklaridagi she'rlar misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli ingliz adibi Lyuis Kerrollning dunyoga mashhur ikki – “Alisa Mo'jizalar mamlakatida” va “Alisa Ko'zgu orti o'lkasida” ertagidagi she'rlarning tarjima qilish jarayonidagi o'ziga xos jihatlarga to'xtalib o'tilgan. Ma'lumki, mazkur asarlar tarjima qilish uchun murakkab asarlari sirasiga kirishini, rus adabiyotshunoslari ta'kidlab o'tgan. Maqolada asarlarda keng o'rin berilgan she'rlarning tarjima usullari va bu jarayondagi metod hamda usullar misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: poeziya, vazn, ritm, ohang, metod, transformatsiya, syujetli va lirik she'rlar.

Annotation. This article discusses the peculiarities of the process of translating the poems of the famous English writer Lewis Carroll in two world-famous fairy tales – “Alice in Wonderland” and “Through the Looking-Glass and what Alice found there”. It is known that Russian experts have noted that these works are difficult to translate. The article reveals the unique methods of translation of poems, which are widely used in the works.

Keywords: poetry, method, weight, rhythm, melody, transformation, plot and lyric poems.

“Tilning barcha nozik xususiyatlari, fonetikasi, musiqaviy imkoniyatlari, ritmi, tovush va asrlar mobaynida shakllangan lug'at xazinasini, talaffuz qonuniyatlari – bularning hammasi she'rda bor bo'yi bilan namoyon bo'ladi” [1]. Ana shu tilga xos shirani, shoir orqali xalq madaniyatining bir bo'lagini butunligicha o'zga tilga o'girish mumkinmi? Bu savol tarjima sohasida ilk davrlardanoq berilib, unga hamon turli fikrlar bildiriladi. Albatta, prozadagi

singari poeziyada asliyatga juda yaqin kelish va soʻzma-soʻz tarjima qilish mumkin boʻlmagan holat. Buni inkor etmagan holda, tarjimaning tub mohiyatini ham unutmash kerak. Badiiy tarjima asliyatdan matnni oʻgirishdan iborat texnik jarayon emas, bu ijodiy protses. Shuning uchun ham mohir tarjimonlarning oʻz ijodiy laboratoriyasi va, hatto, usullari ham mavjud. Bu sheʼriyat tarjimasiga ham daxldor. Darhaqiqat, bir tildagi ritm, musiqiylik, qofiya, turli sheʼriy janr, vazn kabilar tarjimonga ham koʻmak ham murakkablik tugʻdirishi aniq.

Ingliz sheʼriyatiga ham mazkur unsurlar yot emas, albatta. Ingliz adabiyotshunosligida sheʼrlar ikki yirik turga boʻlib oʻrganiladi. “Narrative poems” (syujetli sheʼrlar)ga epik asarlar, romans va ballalar kirib, bunday prozada voqea-hodisalarga asosiy eʼtibor beriladi, insonning his-tuygʻusi, ichki kechinmalari bayoniga bagʻishlangan va ohangga urgʻu berilgan sheʼrlar esa “lyrics” (lirik sheʼrlar) deb nomlanadi. Men hayoti va ijodiy laboratoriyasini tahlil qilib, oʻrganayotgan dunyoga oʻzining ikki – “Alisa moʻjizalar mamlakatida” va “Alisa Koʻzgu orta oʻlkasida” ertaklari bilan mashhur ingliz adibi Kerrollning deyarli barcha sheʼrlari birinchi turga mansub. Buning birlamchi sababi, ular bolalarga atab yozilgani boʻlsa, ikkilamchi boisi esa sheʼrlar ingliz bolalar folklori bulogʻidan sugʻorilgan, yaʼni shoir ularni yo toʻlaligicha kiritgan, yoki folklor ohanggi va obrazlarini saqlagan holda oʻzi yozgan. Bu xulosa faqat ikki ertakdagi sheʼrlarga taaluqliligini unutmash kerak. Adibning turkum qilingan sheʼrlari alohida tadqiqot uchun material boʻla oladi. Kerroll yashagan Angliyada sheʼriyatning sentamentalizm, klassitsizm oqimlari ommalashgan, romantizm esa oʻzining yangi qirralarini namoyon qilib tilga tushayotgan davrda adib sheʼrlarida ularga murojaat qilmaydi. Uning sheʼriyatidagi ilk oʻziga xoslik ham mana shunda. Kerroll sheʼrlarini oʻqib his-hayajonga berilmaysiz, taʼsirlanmaysiz, hattoki, pand-nasihat ham olmaysiz, ammo kulishingiz, kulganda ham achchiq kulishingiz turgan gap. Adib hayoti va ijodini tadqiq qilgan olim N.Demurova Kerroll ertaklaridagi sheʼrlarini tarjima qilishni “oʻziga xos topshiriq”[2] deya

baholaydi. Adibning “Alisa Mo’jizalar mamlakatida” va “Alisa Ko’zgu orti o’lkasida” ertaklariga kirgan va uning boshqa nazmiy to’plamlaridagi she’rlarining aksariyati parodiya yo’lida yozilgan. Ayni jihat esa tarjimadagi asosiy qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Parodiyani tarjima qilish doim mushkul ish bo’lib qaralgan narazriyotchilar tomonidan, negaki har qanday parodiya bir tilda ma’lumu mashhur matnga asoslanadi, tarjima tilida bu matn ko’pchilikka notanish bo’lishi mumkin. Taniqli adabiyotshunos, yozuvchi Uorren Uiver o’zining “Alisa Mo’jizalar mamlakatida” ertagining tarjimalari haqidagi kitobida parodiyalarni o’girish metodlarni ham keltirib o’tadi. “Ingliz tilida hammaga ma’lum matnni parodiya qiluvchi she’rni boshqa tilgan o’girishning uchta yo’li bor” deydi u o’z tadqiqotida. Ular ichida birinchisi – tarjima tilida mashhur shunga yaqin yo’sindagi she’rni tanlab, ingliz tilida yozilmagan shu she’rga ingliz muallifiga o’xshatib parodiya qilish. Ikkinchi yo’l esa parodiyalarni to’g’ridan-to’g’ri o’girish. Uiver bu usulni ertakdagi she’r mashhur asliyatga parodiya ekanidan bexabar, bu she’rni shunchaki kulguli va bir oz g’alati deb bilgan va so’zma-so’z o’giradigan tarjimon tanlasa kerak, deb hisoblaydi. Uchinchi yo’lni tanlagan tarjimon shunday deydi: “Bu nonsens she’r. Men nonsensni o’z tilimga o’girolmayman, ammo o’z tilimda boshqa nonsens-she’r yozib, asliyatning o’rniga matnga qo’sha olaman”.

Tarjima jarayonida men esa bo’ yo’llardan birortasiga qat’iy amal qilishdan qochdim. She’rlar shunday tarjima qilinishi kerak ediki, ular parodiyaga xos kulguli, kesatiqqa yo’g’rilgan burlishi, shu bilan birga ingliz folkloriga xos lo’nda aniq, ohang, vazn singari unsurlari saqlangan, asosiysi, o’zbek kitobxonlari uchun andak noodatiy yoki ajabtovur tuyulsa-da, nonsens-she’rligini va Kerrollning takrorlanmas uslubini asrashga harakat qildim.

Ma’lumki, folklor she’rlarda vazn va ritmga alohida urg’u beriladi, boisi bunday xalq ijod namunalari oson yodda saqlab qolinishi va aytilayotganda ohangdor bo’lishi kerak. Bu mezon deyarli barcha xalqlar folkloriga xos. Tarjimada ham bu mezonga qat’iy amal qilish talab qilinadi, chunki “she’rning vaznini aks ettirish – uning kuyi, musiqasi, binobarin kayfiyat va tuyg’ularini

aks ettirish demakdir". Bu masalada nazariyotchilar ikkiga – tarjimada vazni saqlashni maqbul ko'ruvchilar, ya'ni ekvimetrik tamoyilini yoqlovchilar va ekviritmiya, boshqacha aytganda, she'rni o'girayotib ritmni (ohangdoshlikni) ushlashni ma'qul ko'ruvchilarga bo'linishadi. She'rlarni o'zbekchalashtirayotib bu ikki yo'lgan birini – ritmni saqlash tarafdori bo'ldim. Zero ingliz va o'zbek tillari bir biridan uzoq til, shuning uchun ham vazni aynan saqlash imkonsiz. Bizning she'riyatdagi barmoq vazni ertakdagi she'rlardagi vaznga yaqinligi, oson o'qilishi va bolalar uchun qulayligini hisobga olib she'rlarni mazkur vaznda tarjima qildim hamda bu bilan asliyatdagi ritm deyarli o'zgarishsiz saqlandi. Masalan, Adi-Badi tilidan aytilgan mazkur she'rdan bir parcha keltirsak:

I sent a message to the fish:

I told them, «This is what I wish.»

The little fishes of the sea,

They sent an answer back to me.

The little fishes' answer was

«We cannot do it, Sir, because – »'

I sent to them again to say

«It will be better to obey.»

The fishes answered with a grin,

«Why, what a temper you are in!»[3]

Bu parchadan ma'lumki, she'rda ortiqcha mubolag'a, bezaklarsiz voqea bayoni sodda tarzda berilgan. Ayni shu jihatlarni saqlagan holda (a-a, b-b... tarzida qofiyalangan) u quyidagicha o'girildi:

Men xat yozdim baliqqa,

Bitdim istagim haqda.

Dengizdagi baliqlar

Menga javob yozdilar.

Shunday edi bu javob:

"Bajarolmaymiz, janob..."

*Xat yozdim yana bir bor,
Dedim: "Bo'ysunmoq darkor".
Mayna qildi baliqlar:
"Qahr neni hal qilar?"*

Shu o'rinda qayd etish joizki, asliyatagi so'nggi ikki qator qolganlaridan uzun esada, o'zbekchalashtirayotib ma'nodan qochmagan holda ritmni bir xil bo'lishini ta'minladim. Ingliz tilida "thump" "pump" so'zlari bilan qofiya keltirilgan, birinchi so'z yurakning gursillab beqaror urishini anglatadi, ikkinchisi, dam, puflab nafas berib to'ldirishni anglatadi. O'zbek tilidagi "dam" omonim so'zi bilan qofiyalar saqlanib, ritmga ham putur yetmadi.

She'rlarni o'g'irish jarayonida yana bir holat – alliteratsiyaga alohida to'xtalib o'tish joiz. Ingliz adabiyotiga xos bu evronik elementdan Kerroll asarlaridagi she'rlarda ham unumli foydalanilgan. Ma'lumki, alliteratsiya – bir xil ohangdosh tovushlarni takrorlanishi bo'lib, undan folklorda samarali foydalanilgan. Alliteratsiya ohangdorlikni ta'minlab, his-hayajonni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayni san'at turi ingliz tilidagi asarlarda ko'p ishlatilishini[4] Ya.Resker ta'kidlab o'tgan. U o'quvchi diqqatini oshirib, misralarni oson yodda saqlashga yordam ham beradi.

*I took a corkscrew from the shelf:
I went to wake them up myself.
And when I found the door was locked,
I pulled and pushed and kicked and knocked.
And when I found the door was shut,
I tried to turn the handle, but – '*

Adibning "Alisa Ko'zgu orti o'lkasida" ertagidagi Adi-Badi tilidan aytilgan bu she'riy parchadagi to'rtinchi qatorda *pulled, pushed, kicked, knocked* va *tried to turn* so'zlari bilan alliteratsiya hosil qiladi. Tarjima jarayonida doim ham alliteratsiyani saqlab o'girib bo'lmaydi, shuning uchun alliteratsiyani sun'iy hosil qilish asliyatga putur yetkazishini unutmazlik lozim:

Qalamtaroshni olib,

Uyg'otishga bordim men.

Eshik berkligin ko'rib,

Tepdim darg'azab bo'lib.

Qulflangan ekan u,

Tutqichidan tortdimu...

Tarjimada aynan asliyatdagi so'zlardan alliteratsiya hosil qilinmasada, boshqa mavjud so'zlar bunga imkon berishi mumkin. Bundan unumli foydalanish esa she'rning tarjimasidagi badiiyligini oshiradi. Keltirilgan muqobil tarjimada ham shunday yo'l tutilgan, ya'ni "*Tutqichidan tortdimu...*" bu so'zlar asliyatda alliteratsiya qilinmagan biroq o'zbekchalashtirayotib bunday yondashuv she'rning jozibali chiqishiga xizmat qiladi.

She'riy tarjimalargagina xos yana bir hodisa borki, uni qo'llash orqali tarjimon ayrim leksik va grammatik o'zgarish, to'g'rirog'i tushirib qoldirishlar qilishi mumkin. Bu metod transformatsiya deb nomlanib, she'r ma'nosiga zarar qilmaydigan holatlarda bundan foydalanish mumkinligini narariyotchilar ta'kidlab o'tishgan. Ingliz she'riyatida uni qo'llashning ikki xil usuli mavjud [5]. Birinchisida, "Mexanik tarzda tushirib yuborish", bu holatda asliyatdagi unurni tarjimada berishning iloji bo'lmasa, bunga vazn va o'lchov yo'l qo'ymaydi. Ikkinchi usulni "ijodiy tushirib qodirish" deb ataladi. Men o'zbekchalashtirgan Lyuis Kerrollning ikki asarida ham bu metoddan unumli foydalanishga harakat qildim. Ayniqsa, she'riy misralardagi vazn va ritmni ta'minlash hamda saqlash uchun ma'noga zarar qilmasligini inobatga olib mexanik tushirib qoldirish usulidan foydalandim. Masalan:

And when I found the door was shut,

I tried to turn the handle, but – '

"Alisa ko'zgu orti o'lkasida" ertagidagi "Adi-Badi" bobidagi bu misralarda mazkur tarjima priyomi yaqqol ko'rinadi. Ya'ni "*when I found the door was shut*" misrasi so'zma-so'z o'girilsa "eshik yopiqligini anglanimda" deb, "*I tried to turn the handle, but*" satri esa "Tutqichni burashga urindim ammo" tarzida tarjima qilinadi. Biroq bunday berish butun she'rning ritmiga to'g'ri kelmasdi,

shu uchun “when” “I” “found”, “tried” “but”, soʻzlari tushirilib qoldirilib quyidagi koʻrinishga keltirildi:

Qulflangan ekan u,

Tutqichidan tortdimu...

Tarjima jarayonida shunday holatlar ham uchradiki, transformatsiya metodining ikkala usulini bir satr yoki misrada qoʻllashga toʻri keldi, albatta asosiy talab asliyatdagi mazmunda ziyon yetkazmalikni inobatga olgan holda, albatta. Misol uchun oʻsha ertakning “Tralyalya va Tlulyalya” bobida egizaklarning balladasidagi quyidagi satrlarni olaylik:

But four young oysters hurried up,

All eager for the treat:

Their coats were brushed, their faces washed,

Their shoes were clean and neat –

And this was odd, because, you know,

They hadn't any feet.

Boshidagi ikki misradagi “hurried up” va “eager” sifatlari shoshqaloq, sabrsiz maʼnolarini beradi ularni “oʻyinqaroq” hamda “beboshroq” sifatlariga almashtirib transformatsiyaning ikkinchi usuli – ijodiy tushirib qoldirishni amalga oshirilgan boʻlsa, ilk satrdagi “young” soʻzi mexanik tarzda qoldirib, u beradigan “yosh” maʼnosini “oʻyinqaroq” va “bebosh” soʻzlari orqali anglashilishiga erishilgan. Soʻnggi ikki satrda ham “you know” (tarjimasi “sen bilasanki”) birikmasi tushirib qoldirilgan, ammo bu asliyatdagi maʼnoga taʼsir qilmagan aksincha sheʼr ruhiyatiga mos tushgan va natijada tugal tarjima quyidagi koʻrinishga keladi:

Ammo toʻrt oʻyinqaroq

Chigʻanoqlar edi asli beboshroq.

Yuzlari ham yuvilgan, boshmoqlari ham toza,

Ust-boshi tartibli, havas qilgudek rosa.

Gʻalati bu taklifdan ajablandilar avval,

Oyogʻi yoʻq chigʻanoqqa bu gʻaroyib tavakkal.

Trasformatsiya metodining mexanik tushirib qoldirish usulida uyushiq bo‘laklardan birini tarjimaga olmasli eng ko‘p uchraydigan holat sanaladi. Biz tahlil uchun olgan balladaning davomida shu usul qo‘llanilgan:

«The time has come, » the Walrus said,

«To talk of many things:

Of shoes — and ships — and sealing-wax

Of cabbages — and kings —

O‘zbekchaga o‘girilganda to‘rtlik quyidagicha bo‘ldi:

“Vaqti keldi”, dedi Morj,

“Qilgani mulohaza.

Boshmoq, kema, karam-u,

Qirol – barisin haqda.

Asliyatdagi *“shoes”, “ships”, “sealing-wax”, “cabbages”, “kings”* so‘zlari uyushiq bo‘lak bo‘lib kelgan, biroq tarjimada *“sealing-wax”* so‘zi tushirib qoldirilgan, boisi ritm va ohang misralar aro ularni saqlash uchun transformatsiyaning bu usulidan foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. F.Саломов,С. Комилов “До‘стлик ко‘приклари - Т.: F. Фулом номидаги адабиёт ва сан‘ат нашриёти - 1979.32 б.
2. Н.Демурова. О переводе сказок Кэрролла – М.: Наука – 1991.
3. L.Carroll. Through the Looking-Glass and What Alice found there – М.: 2010-Р.35.
4. Я. Рецкер. Следуетли переводит аллитерацию в публистическом переводе? // Тетради переводчиков. М., – 1966. №3 стр. 73.
5. Д.Султанова, Ф.Налимова. Ше‘р ва таржима. Самарқанд.: – 2009. 45 б.

ID-020-30-TAR006

Nilufar Isroilova

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 3-kurs talabasi

LEXICAL STYLISTIC DEVICES IN THE UZBEK AND THE ENGLISH LANGUAGES

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tilidagi lug'aviy uslubiy vositalarning o'xshash va farqli tomonlari haqida so'z boradi. Har bir uslubiy vositaga izoh beriladi va misollar orqali yoritiladi. Maqola so'ngida xulosa taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: *lug'aviy uslubiy vosita, ma'no, tushuncha, ong.*

Annotation. The main issue touched upon in the present paper is the commonalities and differences of lexical stylistic devices in the Uzbek and the English language. Each stylistic device is supported with a definition and one or more examples. The conclusion is put forward at the end.

Keywords: *lexical stylistic device, meaning, notion, perception.*

Lexical stylistic devices are basically based on the interaction between primary dictionary and contextually imposed meanings of a word. The primary dictionary meaning of a word is a meaning which is registered in the language as an easily recognized sign for an abstract notion designating a certain phenomenon or object. However, the imposed meaning of a word is perceived by a micro-text. Below we will illustrate a list of lexical devices in Uzbek and English, compare their explanations and examples after which we explain how the interplay between the primary and dictionary meaning of a word can create lexical stylistic devices.

No.	Uzbek	English
1.	Istiora Lug'aviy jihatdan biror narsani oriyat (omonat)ga olish degan	Metaphor

	<p>ma'noni bildiradi, lekin adabiyotda majozning bir ko'rinishi bo'lib, biror so'zning o'rniga boshqa so'z ishlatilishiga aytiladi [1, 50].</p> <p><i>Soqiyo, may tut, mug'anniy, navhai ohangni chol,</i> <i>Kim sipohi umrim o'lmish ko'si rixlat cholg'udek.</i></p> <p><i>Gar bo'lubon nogahon tole' musoid, baxt yor,</i> <i>Topsang ul oy birla so'zlashguncha miqdor, ey ko'ngul</i> [1, 51].</p>	<p>Transference of names based on the associated likeness between two objects [5, 23].</p> <p><i>Mr Dombey's cup of satisfaction was sofull at this moment, however, that he felt he could afford a drop or two of its contents, even to sprinkle on the dust in the by-path of this little daughter</i> (Dickens, "Bombey and Son") [2, 144].</p>
2.	<p>Tashbeh So'zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa, hodisa yoki xususiyatni ular o'rtasida mavjud bo'lgan biror o'xshashlik, umumiylik (sifat, belgi yoki vazifa) nuqtai nazaridan qiyoslash [1, 230].</p> <p><i>Zanburning evi kabi ko'nglum teshuk-teshuk,</i> <i>La'ling xayoli har teshuk ichinda bol ekan.</i></p> <p><i>Kimki buzar sahfani bu nomadek,</i> <i>Bo'ynin oning uzsa bo'lur xomadek</i>[1, 232].</p>	<p>Simile An imaginative comparison of two unlike objects belonging to two different classes which are connected by one of the link words "like", "as though", "as like", "such as", "as...as" [5, 50].</p> <p><i>She has always been as live as a bird.</i></p> <p><i>Children! Breakfast is just as good as any other meal and I won't have you gobbling like wolves.</i></p> <p><i>She was obstinate as a mule, always had been, from a child</i> [5, 51].</p>
3.	<p>Tashxis Hayvonot va nabotot, hatto jonsiz tabiat olamidagi ashyolarga inson uchun xos bo'lgan xususiyatlarni baxsh etib tasvirlashdan iborat [239].</p> <p><i>Uyg'otur subhi bahor elni fig'on birla sahob,</i> <i>Kim sabuhiy chog'idir – mast bo'ling, ey ahhob</i> [1, 239].</p> <p><i>Guli ruxsoringni nogoh tamosho aylasabulbul,</i> <i>Fig'onlar tortibon o'tlug' guli axmarni yod etmas</i>[4, 9].</p>	<p>Personification A stylistic device which is a part of a metaphor and deals with the likeness between inanimate and animate objects [5, 23].</p> <p><i>Autumn comes And trees are shedding their leaves, And Mother Nature blushes Before disrobing.</i></p> <p><i>The sweet wind gently kissed the trees.</i></p> <p><i>The film drew tears from the hardest hearts</i>[5, 23].</p>
4.	Tajnis	Zeugma

	<p>Shaklan bir xil, biroq boshqa-boshqa ma'nolarni ifodalovchi so'zlar (omonim)ni qo'llash orqali nozik so'z o'yinlarini ishlatish [1, 182.]</p>	<p>A strong and effective device to maintain the purity of the primary meaning when two meanings clash, each of which stands out clearly.</p>
	<p><i>La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur, Qoshi qaddimni jafodin yo qilur, Men vafosi, va'dasidin shodmen, Ul vafo, bilmonki, qilmas, yo qilur</i>[1, 185].</p>	<p><i>... And May's mother always stood on her gentility; and Dot's mother never stood on anything but her active little feet [2, 152].</i></p> <p><i>He took his hat and his leave 5, 26].</i></p>
<p>5.</p>	<p>Ihom (iyhom) Ikki ma'noli so'z ishlatiladi: birinchi ma'nosi yaqin, yuzaki, ikkinchisi esa uzoq. ...eshituvchi avval birinchi ma'noni qabul qiladi, vaholanki, so'zlovchining asosiy maqsadi so'zning uzoq, ichki ma'nosidir [3, 326].</p> <p><i>La'bing bag'rimni qon qildi, ko'zumdin qon ravon qildi; Nega holim yomon qildi – men ondin bir so'rorim bor. (Bobur)</i></p> <p><i>Bosh qo'yay dedim oyog'i tufrog'iga, dedi; "Qo'y", Bo'sa istab la'li rangin so'rdum, ersa dedi: "OI" [4,16].</i></p>	<p>Pun A stylistic device based on the interaction of two well-known meanings of a word or a phrase [2, 151].</p> <p>"Bow to the board," said Bumble. Oliver brushed away two or three tears that were lingering in his eyes; and seeing no board but the table, fortunately bowed to that.</p>
<p>6.</p>	<p>Husni ta'lil Go'zal asoslash; chiroyli dalil keltirish, eng murakkab san'atlardan biri [1, 300].</p> <p><i>Senga taqlid qilmish gulki, ochib ko'za bo'ynidin, Tikan ustiga oni turg'uzib gardun adab qilmish [1, 300].</i></p>	<p>Epithet A stylistic device based on the interplay of emotive and logical meaning in an attributive word, phrase, even sentence used to characterise an object and pointing out to the reader with the aim of giving an individual perception or an evaluation of these features or properties [2, 159].</p> <p><i>It is this do-it-yourself, get-it-alone attitude that has thus far held back real development of the Middle East's river resources.</i></p> <p><i>Personally, I detest her smug, mystery-making, come-hither-but-go-away-</i></p>

		<i>again-because-butter-wouldn't-melt-in-my-mouth expression [2, 161]</i>
7.	<p>Tazod Ma'no jihatdan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab, ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratish [4, 18].</p>	<p>Antithesis A stylistic device whose two parts must be semantically opposite to each other [5, 48].</p>
	<p><i>Rahm qilg'il bandag'a, ey shoh, ul tengri uchun</i> <i>Kim etar bizni gado, ul sizni sulton aylagan.</i></p> <p><i>Zahri hajrini berur har dam manga bu, vaslning</i> <i>No'shini in'om etar mandan o'zgaga [4, 18].</i></p>	<p><i>Their pre-money wives did not go together with their post-money daughters.</i></p> <p><i>If we don't know who gains by his death we do know who loses by it.</i></p> <p><i>There is Mr. Guppy, who was at first as open as the sun at noon, but who suddenly shut up as close as midnight [5, 48].</i></p>
8.	<p>Talmeh So'zlovchi (yoki yozuvchi, bayon qiluvchi) nazm yoki nasrda o'z matlabining isboti uchun mashhur qissaga yo oyatga, yo hadisga, yo ma'lum masal kabilarga ishorat qilish [1, 198].</p>	<p>Allusion An indirect reference, by word or a phrase, to a historical, literary, mythological, fact or to a fact of everyday life made in the course of speaking or writing [2, 189].</p>
	<p><i>Sango mensiz ne g'am, jono, ki, mandek oshig'ing yuz ming, Vale Azrodan ayrilmoq, baloi joni Vomiqdur.</i> <i>Chun yuzing ko'rdi ko'zum, qildi vatanning tarkini;</i> <i>Gulni chun Navro'z topdi, yodi Navshod aylamas [1, 199].</i></p>	<p><i>Shakespeare talks of the heraldMercury</i> <i>New lighted on a heaven-kissing hill...</i></p> <p><i>For a lieutenant to climb up; but skill Smooth'd even the Simplon's steep, and by God's blessing</i> <i>With youth and health all kisses are heaven-kissing[2, 190]</i></p>
9.	<p>Ishtiyoq Lug'aviy jihatdan bir so'zdan boshqa so'z olish, hosil qilish degan ma'noni bildiradi va istiloh shundan iboratki, shoir yoki yozuvchi nasr yo nazmda bir o'zakdan hosil bo'lgan so'zlarni ishlatadi [1, 52].</p>	<p>Polyptoton Cognate of words in different cases [6, 15].</p>

	<p>Zarrot aro har zarraki bor, zikringa zokir; Attor aro har qatraki bor, hamdingga go'yo [1,52].</p> <p>Qilsa zulm ul zolim, elni qilmag'il, yo Rab, zabun, Chun tazallumdur ishim, doim meni mazlum qil [4, 18].</p>	<p>The Greeks are strong and skilful to their strength, Fierce to their skill and to their fierceness valiant; But I am weaker than a woman's tear, Tamer than sleep, fonder than ignorance, Less valiant than the virgin in the night And skillless as unpractised infancy.</p> <p>(Troilus and Cressida by William Shakespeare)</p>
10.	<p>Tadrij Obrazning barcha xususiyatlari g'azalning oxiriga qadar tadrijiy ravishda ochila boradi, ya'ni g'azldagi har bir bayt oldingi baytda ifodalangan fikrni davom ettiradi, rivojlantiradi [1, 181].</p> <p>Yozlig'im, eyki, tikarsen, igna mujgonimni qil, Naqsh etarda, tori oning rishtai jonimni qil. Istasang torin qizil yoxud qaro qilmoqqa rang, Ko'z qarosin hal qilib, ko'zdan oqar qonimni qil. Gar desang har yon qizil gullar qilay nusxat anga, Ko'ksun ochib, toza qonlig' dog'i hijronimni qil... [1, 181]</p>	<p>Gradation An arrangement of sentences which secures a gradual increase in significance, importance, or emotional tension in the utterances [2, 219].</p> <p>It was a lovely city, a beautiful city, a veritable gent of a city.</p> <p>Ne barrier wall, ne river deep and wide, Ne horrid crags, nor mountains dark and tall [2, 220].</p>
11.	<p>Mubolag'a Arab tilida "kattalashtirish", "kuchaytirish" ma'nosini bildirib, adabiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki haraaktini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati [4, 4]</p> <p>Ey gado, hijron o'tidurkim, aningkim tobidin, Zarra-zarra bag'ri qon bo'lib, erigay tog'lar. (Gadoiy)</p>	<p>Hyberbole A deliberate overstatement or exaggeration of a feature essential to the object or phenomenon [2, 178].</p> <p>He was so tall that I was not sure that he had a face. (O.Henry)</p>

*Oh ursa, olamni buzari tovushi,
To'qson molning terisidan kovushi.
(Fozil Yo'ldosh o'g'li) [1, 96].*

*Those three words conveyed the idea of Mr. Dombey's life. The earth was made for Dombey and Son to trade in and the sun and moon were made to give them light. Rivers and seas were formed to float their ships; rainbows gave them promise of fair weather; winds blew for or against their enterprises; stars and planets in their orbit to preserve inviolate a system of which they were the centre.
(Dickens)[2, 178]*

We have included the most commonly used lexical stylistic devices in the Uzbek and English languages. Their functions and use overlap in many cases. As a way of an example, *istiora* in Uzbek can be compared with *metaphor*. The examples mentioned above were *sipohi umr – the army of life*, *oy – moon (Allah; a girl as beautiful as a moon)*, and *cup of satisfaction*.

Tazod in Uzbek can be compared with *antithesis* in English. In the example provided above, *banda – shoh (folk –king)*, *gado – sulton (pauper –sultan)*, *pre-money – post-money, gains – loses* are put opposite to each other.

However, there are some lexical stylistic devices in Uzbek that we cannot encounter in English, or vice versa. For example the stylistic device *laffu nashr* in the Uzbek literature does not exist in English. *Laffu nashr* means to decorate in Arabic. A poet uses one or more than one items in the first line (meesrah) of a poem and defines each of the items respectively in the second line of the poem [1, 66]:

Takkallum aylarida tiliyu, tishi-yu labi,

(Her speaking mouth, teeth, and lips)

Biri anqiq-u, biri inju-yu, biri marjon. (Babur)

(Are onyx, pearls, and coral beads.)

Object	til (mouth)	tish (teeth)	lab (lips)
Adjective	anqiq (onyx)	inju (pearls)	marjon (coral beads)

As a way of a conclusion, stylistic devices, particularly, lexical stylistic devices in diverse languages are use of variety of techniques to give an auxiliary meaning, idea, and beauty to the text or speech. Lexical SDs in the Uzbek and the English languages serve as techniques used in beautiful masterpieces most of which can be compared to each other. Though, some lexical SDs in English may not be found in English or vice versa. It shows that the existence of one or another stylistic device intertwined with the nature and use of a language.

References:

1. *Yoqubjon Is'hoqov, So'z san'ati so'zligi*. T.: "O'zbekiston", 2014, 162 b.
2. Galperin I.R., *Stylistics* (1981). Third edition. Moskva Vyssaja Skola. 336 p.
3. *Obidjon Karimov, Mumtoz adabiyot janrlari*. "Namangan nashriyoti", 2015, 78 b.
4. *Anvar Hojiahmedov, She'r san'atlarini bilasizmi?*. T.: "Sharq", 2001, 95 b.
5. Кухаренко В.А. Практикум з стилістики англійської мови: Підручник. – Вінниця. «Нова книга», 2000 - 160 с.
6. Todd Christopher Clary, *Rhetoric and repetition: the figura etimologica in Homeric epic*. Dissertation. August, 2009, 372 p.

ID-020-30-TAR007

Nilufar Tuxtamurodova

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 1-kurs talabasi

FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING TARJIMADAGI MUAMMOLARI VA ULARGA BERILGAN YECHIMLAR

Annotatsiya. Maqola tarjima nazariyasining turg'un birikmalar tarjimalarining muammolari va bu muammolarning ahamiyati, muqobil yechimlariga bag'ishlangan bo'lib, bunda bir qator tarjimonlar tomonidan tarjima qilib, tatbiq qilingan tarjima asarlarmisolida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *ibora, idioma, kalkalash, milliy-madaniy semantika.*

Tarjima to'g'risida yurtimizda bir qator yirik va fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan G'. Salomov, N. Komilov, M. N. Holbekov, M. Q. Baqoyeva, H. Karomatov, S. Olimov, Z. N. Isomiddinov, M. Sobirov, R. Karimov, R. Fayzullaeva, S. Rustamova, M. Javburiev, N. Qambarov, K. J. Juraev, Y. Nurmurodov, A. X. Abdullajonov, N. M. Urmonova va Q. Sidiqovlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. "Tarjima – bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima, va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsil, tadbil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilalarga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirda ham saqlangan"[1]. Mohir tarjimonlarning mehnati tufayli jahonning buyuk shoir va yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlardan ajdodlarimiz huzur qilib kelganlar, hozir esa o'zimiz ham bahramand bo'lib

kelmoqdamiz. Muayyan ixtisoslikka doir ma`lumotga va yillar davomida to`planadigan tajribaga ega bo`lmay turib, tilga oid ma`lumoti bo`lmagan kishi, chet tilini yaxshi bilsa ham hech qachon yaxshi tarjimon bo`la olmaydi.

Bilamizki, tarjimon ikki inson, ikki davlat yoxud ikki xalq o`rtasida turuvchi vositachi hisoblanadi va bu vositachilikning ham o`ziga yarasha qiyinchiliklari va muammolari ham talaygina. Bugungi mavzu esa maqol va idiomalarning tarjimalariga bag`ishlangan. Darhaqiqat, til – xalqning ma`naviyat ko`zgusi deb bejiz aytilmagan. Maqol, frazeologik birliklar esa shu tilning ko`rki, uni bezab turuvchi tom ma`nodagi zeb-ziynatdir.

Frazeologiya (yun. prasis — ifoda, ibora va . . . logiya) — 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini (Frazeologizm) uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo`limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui

Til itimoiy hodisa bo`lganligi sababli undagi har bir so`z madaniyatga aloqador bo`lishi tabiiy. Shunday ekan, o`z - o`zidan madaniyatlar har xilligi, ba`zi so`zlarning tarjima qilinayotgan tilda aniq muqobili yo`qligi, ba`zi tushunchalarning o`zi shu tilda mavjud emasligining o`zi bir qancha muammolarga sabab bo`ladi. Biroq, bu muammolar muammoligicha qolib ketgan emas, aksincha bir qancha izlanishlar ayni shu sohada olib borilgan.

Masalan, *window* – *oyna* yoki *book* – *kitob* bunday tarjimada hech qanday muammo yo`q chunki shu so`zning aynan o`zi ingliz tilida so`zlashuvchi mamlakatlarda mavjud. Biroq bizning milliy qadriyatlarimizga oid bo`lgan so`zlar masalan palov, beshik, chopon, kovush va shu kabilar ularda umuman mavjud emas. Bular ilmiy tilda realiyalar deb ataladi va o`zbek tilida qanday yozilsa shunday ko`chirib yoziladi va ularga tushunarli qilib izoh qoldiriladi.

Frazeologizmlar, turg'un birikmalarning tarjimasiga kelsak, ularda ham shu kabi muammolar ko`zga tashlanadi. Tarjima qilish mobaynida ikki tilning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tarjima qilinayotgan idiomani va uning tarjima variantining mos kelishini yoki mos kelmasligiga qarab tarjima usuli tanlanadi.

Xususan, frazeologik mos kelishlarning asosiy turlari haqida I. G'ofurov, O. Mo'minov, N. Qambarovning "Tarjima nazariyasi" nomli qo'llanmasida quyidagilar sanab o'tilgan:

1. To'liq moslashish. Misol: *to lose one's head - kallasini yo'qotmoq*

2. Qisman moslashish, ular obrazlilik jihatidan yaqin, lekin leksik tuzilishi, sintaktik kelishuvidan va so'zlar tartibi jihatidan farqlanadi. Misol: *to get out of bed on the wrong foot - chap yoni bilan turmoq.*

3. Moslashishning bo'lmasligi. Har xil tillarda ko'p frazeologik birliklarning frazeologik moslashuvi mavjud emas. Ular realiyadir. Realialar leksik birlik bo'lib, insonlar hayotidagi milliy urfodatlar va ularga xos bo'lgan hodisalarni anglatadi. Bunday frazeologik birliklarni so'zma-so'z, analogiya yoki tasviriy yo'l bilan tarjima qilish yaxshiroqdir. Masalan:

So'zma-so'z tarjima.

Cold war - sovuq urush.

The apple of my eye - ko'zginamning nuri

Tahlil orqali tarjima.

To pull somebody's leg - mazax qilmoq

to enter the House - parlament a'zosi bo'lmoq.

Shunday qilib, frazeologik birliklarni tarjima qilishning qiyin muammolaridan biri, bu ularning vazifaviy va semantik tomonidan ajralmas birliklar bo'lib hisoblanishidir. Ularning idiomatik ma'nosi . . . bor va ular nutqda tayyor birlik sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklarning milliy madaniy xususiyatlari mavjud va ular tarjimada muammolar paydo qiladi."

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarga yechim sifatida aynan shu qo'llanmada quyidagicha tarjima qilish yechim sifatida berilgan:

1. Grammatik, semantik va uslubiy moslashishlar orqali;

Example:

Black frost - qora sovuq

Adj+noun=sifat+ot

2. Semantik ekvivalentlar orqali;

Example:

nothing comes out of the sack but what was in it - qozonda bori cho'michga chiqadi

3. Kalka orqali;

Example:

Golden wedding - oltin to'y

4. Tasviriy (bayon) tarjima orqali;

Example:

It is greek to me – jumboq

Grammatik, semantik va uslubiy moslashishga misol qilib

All over – hammasi tugadini olishimiz mumkin.

Bu yerda bu idiomaga ikki tilda ham bir xil Grammatik va semantic xususiyatga ega ya'ni:

Noun+Verb=Ega +kesim.

Semantik ekvivalentga esa

An ass between two bundles key – Ikki o'rtasida qolgan inson

ni namuna tariqasida keltirish mumkin.

Kalkalashga esa *All the better* – hammasi yaxshilikka

Tasviriy ifoda orqali tarjima qilishga misol qilib *A cat in the meal* – juda maxfiy sir ni olishimiz mumkin.

Biroq Nabiyev Azizbek Mahmudjon o'g'li o'zining bitiruv malakaviy ishida turg'un birikmalarning tarjima qilish usullarini quyidagicha beradi:

- 1) obrazni qanday bo'lsa shundayligicha saqlash;
- 2) obrazni qisman o'zgartirish;
- 3) obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish;
- 4) tarjimada butunlay obrazni saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish

Biroq bu usullarni Nosir Qambarov o'z kitobida iboralarning umumiy tarjimasi uchun emas, milliy xususiyatga ega frazeologik birikmalar va ularning tarjimasi sifatida beradi. Bu esa ba'zi bir muhokamalarga sabab bo'ladi. Nima deb o'ylaysiz, turg'un birikmalarni tarjima qilishda qaysi usul samaraliroq?

Frazeologik birliklarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish usullari vamilliy xususiyatga ega frazeologik birikmalarning tarjimasi sifatida alohida guruhlash kerakmi?

“Tarjimaning asl nusxaga sub’ektiv, xolis bo’lmagan munosabati asl nusxaga, beixtiyor, o’zgacha ma’no berib qo’yishi, yo bo’lmasa uni ko’ra bila turib siyqalashtirishi mumkin, bularning hammasi shunga olib keladiki, asarga nomaqbul, yani aslida bo’lmagan mazmun o’rniga o’zgacha ma’no berib yuboradi” [2].

Nutqda frazeologik birliklarning funktsiyalariga ko’ra, A. V. Kunin ularni 2 asosiy guruhga bo’lib tasniflaydi:

1. Nominativ birikmalar – predmet, hodisa, belgi xususiyatlariga ega bo’lib, turli tuzilishga ega bo’lishi mumkin.

A bitter pill to swallow, a wolf in sheepps clothing, a cock and bull story; to stir up a hornetsp nest, much cry and little wool, to call a spade a spade, etc.

2. Nominativ-kommunikativ frazeologik birliklar nutqni kuchaytirib turli tuzilishga ega:

as hell, birds of a feather, this cat wonpt jump, the fatps in the fire, etc.

Tilning frazeologik fondini o’zining yadrosi va chegarasiga ega bo’lgan semantik tuzilish ko’rinishida tasavvur qilish mumkin. Struktura yadrosi bir-biriga o’zaro ta’siri natijasida qismlarining ma’nosini butunlay o’zgartirib yuborgan frazeologik birliklar hisoblanadi. V. V. Vinogradov bunday birikmalarni frazeologik chatishmalar deb ataydi; ingliz tilida esa N. N. Amosova tomonidan iste’molga kiritilgan idiomalar atamasi qo’llaniladi (mareps nest-nonsense spill the beansreveal a secret)[2].

Ko’plab frazeologizmlar-ideomalar boshqa tildagi, ayniqsa qardosh bo’lmagan tillardan tarjima qilish, murakkab ish va shu bilan birgalikda hammani ham birday rozi qilib bo’lmaydigan soha. Lekin tarjimani tugatganingizdan keyin esa bir o’z bahringiz ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I. G'ofurov, O. Mo'minov, N. Qambarov Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma II. – T. : - Tafakkur-Bo'stoni, 2012. 216 b.
2. N. Qambarov Universal lug'at-ma'lumotnoma. – T. : Tron-Iqbol, 2014 – 188b.
3. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т. : Фан, 1966.
4. А. В. Фёдоров. Основы общей теории перевода (лингвистический очерк). Изд-во. «Высшая школа», М., 1968, стр. 155-157
5. Azizova F. S. Inglizcha-o'zbekcha-ruscha frazeologizmlarning qisqa lug'ati. – T. : 2010

ID-020-30-TAR008

Orifa Xudoyberdiyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

O'ZBEK TILIDAGI «AXLOQ» VA INGLIZ TILIDAGI «ETHICS» UMUMIY SEMALI ATOV BIRLIKLARINI TARJIMADA BERISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillaridagi axloq leksemalarining tadqiqiga bag'ishlangan. Maqoladagi leksemalar Shukur Xolmirzayev, Toxir Malik va Jeyn Ostinlarning asarlari asosida o'rganilgan. Ba'zi ingliz tilidagi so'zlar o'zbek tilidagi so'zlar bilan sinonimlik hosil qila oladi, ammo ba'zilari matn ichida boshqa ma'nolarga ham ega. Ushbu maqola orqali o'zbek va ingliz tilidagi axloqiy leksemalarning farqli va o'xshash jihatlarini aniqlashga harakat qildik.

Kalit so'zlar: *sema, tarjima, axloq, leksema, kategoriya*

Annotation. This article deals with the interpretation ethics' lexemes in Uzbek and English languages. The lexeme are analyzed in basis of national novels of Shukur Kholmirzaev, Tokhir Malik and Jane Austen. Some English words can be synonyms with Uzbek, on the other hand some lexemes are not the same in context. In this article we try to analyzed some differences and similarities in Uzbek and English ethical lexemes.

Keywords: *seme, translation, ethics, lexeme, category.*

Til ijtimoiy hodisa, uning shakllanishi, mavjudligi va takomillashuvi bevosita jamiyat bilan bog'liq. Necha asrlardan buyon qaysidir tillarning unutilishi yoki yanada kengayib borishiga asosiy sabablardan biri shuki, o'z vaqtida mazkur tillarning qo'llanish doirasi va imkoniyatlarini kengaytirishga zarur chora-tadbirlarning amaga oshirilmaganidir. Qo'llanish doirasi tor bo'lgan tillarning keng tarqalgan tillar qatoriga qo'shilishida ushbu tildagi

birliklarning tartibga solinganligi va yaratilgan badiiy, ilmiy va publisistik asarlarning jahon tillariga qilingan mohirona tarjimasi katta o‘ringa ega bo‘ladi. Uzoq tarixiy o‘tmishga ega bo‘lgan sharq axloqiga g‘arbliklar juda katta qiziqish bilan qaramoqda. Sharq xalqlariga xos bo‘lgan urf-odatlar, axloqiy qarashlar, milliy qadriyatlar g‘arb dunyosi bilan keskin tafovutda bo‘lsa-da, unda mushtarak jihatlar ham yo‘q emas. Ana shu o‘xshash tomonlar insonlarni yanada kuchli hayajonga soladi.

Tarjimaning maqsadi – xorijiy til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matni ona tili material asosida qayta yaratishdan iborat. Buning uchun tarjimon, birinchi navbatda, asl nusxani to‘la-to‘kis idrok etishi, so‘ngra uni o‘z tilida beku ko‘st qayta ifodalashi darkor [3. 10-bet]. Tarjimon uchun kundalik buyumlar, harakat ifodalovchi fe‘llar, shakl yoki xususiyatni ifodalovchi sifatlar, umuman, universal birliklarni tarjima qilish unchalik ham qiyinchilik tug‘dirmaydi. Insonning ichki kechinmalari, axloqiy xususiyatlari, aqliy salohiyati kabi mavhum tushunchalarni ifodalovchi birliklar tarjimonga birmuncha qiyin kechishi mumkin. Chunki, mavhum tushunchalar ma‘no serqirraligi, turli millatlar madaniyatida farqli semalarga ega ekani bilan xarakterlanadi.

Fikrlarimizni davom ettirgan holda quyida o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan bir necha asar namunalarni ko‘zdan kechiramiz:

O‘zbek tilida	Ingliz tilida
<p>“Ha, shunday! Kishining yaxshiligi keyin bilinadi. Hali bu xotin ko‘p yig‘laydi. Qaynanasi-chi? E, tang, kuyovingni shunchalik sevar ekansan, hayotligida nega uni tergayverding, lo‘li! Yo bu samimiy yig‘layaptimi? Balki, yig‘isi samimiydir. Bir hisobda maddoh kampir ham haq edi. Shular biron narsaga zor bo‘lmasin, der ekan-da. To‘g‘ri, Nodir oilasiga ko‘p beparvo edi” [1. 43-bet].</p>	<p>“That’s it, you will realize that somebody’s good only then when he is away. His wife will be crying for many years to come. How about his mother-in-law? Such a snappy woman, if she’d cared for him so much, why didn’t she call her dogs off him when he was alive? Perhaps she wasn’t crying genuinely at that time, maybe she was. On the other hand she was right as well. She scolded him so that they wouldn’t go short for something. Because it was</p>

true that Nodir was often **indifferent** to his family” [1. 46-bet].

Misol 1

Yuqorida keltirilgan asardan parchada bir necha axloqiy va tarbiyaviy birliklarni ko‘rish mumkin. Garchi parchada berilgan ba’zi birliklar salbiy ma’noga ega bo‘lsa-da, umuman olganda «axloq» qatlami birliklari sifatida qaraladi. Demak, bundan kelib chiqqan holda, axloq kategoriyasi ifodalari dastavval ikki yirik guruhga, ya’ni ijobiy (axloqlilik) va salbiy (axloqsizlik) ma’no bo‘yoqdorligiga ega tushunchalarga ajratib tasniflanadi.

Ushbu parchada o‘zbek tilidagi «axloq» kategoriyasi tarkibiga kiruvchi birliklar quyidagicha tarjima qilingan:

Yaxshilik – good

Lo‘li – snappy

Tergamoq – call of the (one’s) dogs

Samimiy - genuinely

Maddoh -

Beparvo – indifferent

Ta’kidlash joizki, tarjimada *yaxshilik* so‘zi *good (yaxshi)* tarzida ya’ni so‘z turkumlari farqli holda tarjima qilingan. *Lo‘li* so‘zi esa *snappy (jahli tez, juda tez gapirishga moyilligi bor)* deb tarjima qilingan. *Tergamoq* fe’li ingliz tilidagi *call of the (one’s) dogs* (kingadir o‘zini agressiv tutmoq) iborasi bilan tarjima qilingan. Eng e’tiborli jihati shundaki, ushpu parchadagi *maddoh* so‘zi asar tarjimasida uchramaydi, bunga sabab ingliz tilida uning muqobili bo‘lmasligi ya’ni lakuna tushuncha ekani hamda asli arab tilidan o‘zlashgan so‘zning asl ma’nosi yo‘qolib ko‘chma salbiy ma’no ifodalayotgan bo‘lishi mumkin:

МАДДОҲ а. – [мадҳ қилувчи; худога ҳамду сано айтувчи] **1 айн.** Бозор ва кўча-куйларда одам тўплаб, диний мавзуда ваъз, панд-насиҳат айтиб тирикчилик қилувчи шахс

1 кўчма салб. Мақтовчи, мадҳ қилувчи; хушомадгўй. Совуқ уруш маддоҳлари. – Душман фирибин кўп ема ва маддоҳ хушомадин чин дема [6. 521-bet, 3-jild].

Mazkur kitobdan o‘rin olgan Shukur Xolmirzayev qalamiga mansub “Hayot abadiy” nomli hikoyasida “axloq” kategoriyasiga kiradigan shunday so‘zlar berilgan:

O‘zbek tilida	Ingliz tilida
Hammasi orqada qoldi. Xotin, bola, uy. Araz, diqqatpazlik, g‘iybat...Ish. Sovхоз. Ishchilar... Qishloq ham orqada qolib ketdi [1. 44-bet].	All remained behind, his wife, his child, sulk, indifference, gossip , work, the collective farm and the workers [1. 47-bet].

Misol 2

Parchada o‘zbek tilidagi “axloq” atamasi tarkibiga kiruvchi birliklar quyidagicha tarjima qilingan:

Araz – sulk

Diqqatpazlik – indifference

G‘iybat – gossip

Ushbu hikoyat tarjimasida asosida tarjimon *araz* so‘zi o‘rnida *sulk* (xafa bo‘lishlik, xafa bo‘lib qovog‘ini osiltirish) birikmasidan foydalangan bo‘lsa, *diqqatpazlik* birikmasini o‘girishda esa *indifference* (beparvolik, e‘tiborsizlik; loqaydlik, ahamiyat bermaslik) so‘zini qo‘llagan. Tarjima jarayonida ma‘no jihatdan ikkita bir-biriga zid bo‘lgan birliklardan foydalanilgan;

Диққатпазлик айн. **диққатбозлик, диққатчилик.**

Диққатбозлик Диққати жуда ошганлик, юраги ўта сиқилганлик ҳолати; хунобгарчилик. *Кел, бўлар иш бўлди, диққатбозликни қўй. Уйғун, Асарлар. Шундай шодиёна кунда диққатбозлик? Сенга ярашмайди, оғайним. Ҳ.Назир, Кўктерак шабадаси [6. 631-bet, 2-jild]*

Indifference [mass noun] **1** lack of interest, concern, or sympathy: *she shrugged, feigning indifference*

9. unimportance: *it cannot be regarded as a matter of indifference.*

2 mediocrity: *the indifference of Chelsea’s midfield [5].*

Indifference birikmasi ushbu hikoyada ikki o'rinda qo'llanilgan. Asar qahramonining oilasiga befarq ekani haqidagi gapda *indifference befarqlik*, *e'tiborsizlik* ma'nosida qo'llangan va ikkinchi o'rindagi qo'llanilish ham shunga ishora bo'lishi mumkin. Parchada hayot davom etishi, bir insonning o'limi uni to'xtatishga hech qanday asos bo'la olmasligi haqida bo'lib, insonlarga e'tiborli bo'lishni, atrofimizdagi insonlarga befarq bo'lmaslikni anglatadi.

Endi esa quyidagi parchaga e'tiborimizni qaratsak:

O'zbek tilida	Ingliz tilida
<p>Darvoqe, u qanday qilib o'ldi? O'sh kuni majlisdan tanqid yeb keldi, qaynanasi bilan uy xususida janjallashdi, xotini ketib qoldi, ko'chada itni urib, egasidan dakki eshitdi...Keyin eshikka chiqqanda ko'kragiga sovuq shamol urildi. Bu kuz shamoli shunchalik yoqimli, huzurbaxsh ediki, Nodirning xo'rliigi keldi. Keyin... bu adolatsizliklarga chidolmay, o'zini achchiq ustida o'ldirib qo'ydi. Bu kimga foyda bo'ldi? Kim uni maqtadi? Nima bo'ldi, keyin nima? O'sha kechagi seryulduz osmon ham, oppoq yulduzlar ham o'z o'rnida. Daraxtlar, yong'ir...Shabada [1. 45-bet].</p>	<p>By the way how did he die? That day he'd been chided at the meeting, bickered about the house with his mother-in-law. His wife left him. And then he'd been scolded by the owner of the dog which he beat out in the street. Then the cold wind hit his face when he went outside. This wind of autumn was so pleasant, so delightful that his heart sank. Then he couldn't stand that unfair and killed himself. Who was it the use for? Who praised him? What happened then, what? That sky, studded with stars, those twinkling stars were as well as they were the day before. Trees, rain. Breeze [1. 48-bet].</p>

Misol 3

Parchada o'zbek tilidagi "axloq" kategoriyasiga kiruvchi so'zlar quyidagicha tarjima qilingan:

Tanqid yemoq – *to chide* (so'kmoq, urishmoq, koyimoq)

Janjallashmoq – *to bicker* (o'zaro aytishib qolmoq, bahslashmoq)

Dakki eshitmoq – *to scold* (urishmoq, so'kmoq)

Adolatsizlik – *unfair* (adolatsiz, kir, iflos, harom, nohaq)

O'zini o'ldirmoq – *to kill himself*

Asardan olingan ingliz tilidagi *to hide* hamda *to scold* birikmalari izohsiz lug'atlarga nazar solsak, go'yoki sinonimlardek tuyuladi, lekin ular bir-biridan nozik ma'no qirralari bilan farqlanadi:

Chide [with object] scold or rebuke: *she chided him for not replying to her letters (U o'sha qizni xatiga javob bermagani uchun tanqid qildi)*

Scold [with object] remonstrate with or rebuke (someone) angrily: *Mum took Ann away, scolding her for her bad behaviour [5].*

Танқид [а. баҳо бериш мақсадида ўрганиш, таҳлил қилиш ва шу асосдаги хулоса] 4 Камчилик, нуқсон, хатолик ва ш.к. қайд этиш, қоралаш шунингдек уларни ҳал этиш мақсадида билдириладиган танбеҳли фикр-мулоҳаза, гап-сўз. *Танқид бўғилган жойда ҳеч қандай тараққиёт бўлиши мумкин эмас.* Ф.Мусаҷонов, Ҳиммат.

Дакки [ҳинд. “дҳакка” – зарб, туртки; изтироб] Ножўя иш, хатти-ҳаракат учун айтилган аччиқ гап, қаттиқ танбеҳ, таъзир, койиш. *Чакки юрсанг, дакки ерсан.* Мақол. 2 ноҳақ туртки, хўрлаш, таҳқирлаш. *Чўриликдан қутулдим, энди бойнинг хотинларидан дакки емайман.* Ж.Шарипов, Хоразм [6. 527-бет].

Izohlardan ko'rinib turibdiki, tanqid va dakki so'zlari orasidagi farq salbiy hamda ijobiy ma'nolari bilan ajralib turibdi. Ingliz tilidagi *hide* va *scold* so'zlarida ham xuddi shunday, demak tarjimon ushbu so'zlarni tanlashda adashmagan va hikoya mazmunini saqlab qolgan. Matnning tarjimasi nisbatan aniqroq va asl hikoyatdagi ma'no bilan bir xil tarzda tarjima qilinishiga erishilgan.

Ingliz tilidagi «ethics» kategoriyasi ifoda birliklarining o'zbek tiliga tarjima qilinishini ko'rib chiqamiz. Bunda Jeyn Ostinning «Andisha va g'urur» («Pride and Prejudice») asarini tahlil qilib, undan namunalar keltiramiz:

Ingliz tilida	O'zbek tilida
Mr. Bennet was so odd a mixture of quick parts, sarcastic humour, reserve, and caprice, that the experience of three-and-twenty	Mister Bennetning tabiatida aqlining o'tkirligi va istehzoga moyillik, pismiqlik va biroz shoshqaloqlik kabi hislatlar shunchalik aralashib ketgandiki, u bilan birga yashagan 23

years had been sufficient to make his wife understand his character	yillik hayoti davomida xotini unga moslasha olmagan edi [4. 11-bet].
--	--

Misol 4

sarcastic humour- istehzo kayfiyat, tuyg‘u

reserve- kamgaplik, pismiqlik

caprice- injiqlik

Keltirilgan parchadan shuni anglash mumkinki, ingliz tilidan asarni tarjima qilish jarayonida badiiy tarjimaga ko‘proq e‘tibor qaratilgan va bu orqali asl variantidagi ma‘no yo‘qolmagan, balki ma‘no-mazmun yanada kengaytirib o‘quvchiga yozuvchining haqiqiy tuyg‘ularini berishga harakat qilingan. Parchada keltirilgan *sarcastic humour* (istehzoli kayfiyat) so‘zi *istehzoga moyillik* deb tarjima qilingan. Bundan tashqari, *reserve* (pismiqlik) so‘zi o‘zbek tiliga aynan tarjima qilingan va *caprice* (injiqlik) so‘zi esa tarjimada tushirib qoldirilgan bo‘lsa-da, matnning asl ma‘nosi yo‘qolmagan. Yuqoridagi sifatlarning o‘zi qahramonning umumiy sifati, ya‘ni injiq ekanini anglatib turibdi.

Navbatdagi parcha quyidagicha:

Ingliz tilida	O‘zbek tilida
She was a woman of mean understanding, little information, and uncertain temper [2].	U kayfiyati tez-tez o‘zgarib turadigan, juda ham farosatli bo‘lmagan, savodsiz bir ayol edi [4].

Misol 5

Matnni tahlil qilish davomida, *uncertain temper* (noaniq, notayin kayfiyat), *little information* (yetarli bo‘lmagan ma‘lumot), *mean understanding* (yomon anglash, fahmlash) kabi axloqqa oid so‘zlar keltirilgan. Tarjimon *mean understanding* so‘zini *juda ham farosatli bo‘lmagan* deb tarjima qilgan va *farosatsiz* so‘zini qo‘llashdagi kuchli salbiy ma‘nodan qochgan holda asarning mazmunini saqlab qolgan.

Mean understanding-

Little information- savodsiz

Uncertain temper-noaniq, notayin kayfiyat

Yana bir boshqa matn asosida tahlilni davom ettirsak:

Ingliz tilida	O'zbek tilida
<p>He was looked at with great admiration, till his manners gave a disgust which turned the tide of his popularity; for he was discovered to be proud; to be above his company and above being pleased; and not all his large estate in Derbyshire could then save him from having a most forbidding, disagreeable countenance, and being unworthy to be compared with his friend [2].</p>	<p>Lekin, biroz o'tib, hamma mister Darsining o'zini qanday tutishini ko'rgach, uning obro'si tushib ketdi: uning burni osmondaligi, haddan ortiq mag'rurligi va unga bas kelish qiyinligi haqida gapira ketishdi. Biroz o'tgach esa hatto uning Derbishirdagi kattokon yeri ham u haqdagi salbiy fikrlarni o'zgartira olmadi [4]</p>

Misol 6

Yuqorida keltirilgan matnlar misolida shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, barcha millatlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalar tarjimasida biroz oson amalga oshadi. Ya'ni, asl matnda ifoda bir birlik vositasida berilsa, tarjimada ham ayni shu holatni kuzatish mumkin. Ko'pincha birgina birlik anglatgan lug'aviy ma'no umuminsoniy xususiyatga ega bo'lsa, ushbu birlikning tarjima qilinadigan tilida ham aynan muqobili borligini kuzatishimiz mumkin. Lekin milliy madaniyat va millatning o'ziga xos jihatlarini o'z ma'no qirralarida aks ettirgan xususiy realiyalar tarjimasida esa biroz murakkab kechadi. Badiiy asarlarni so'zma-so'z tarjima qilib, uni o'quvchiga yetkazish mumkin emasligi yuqoridagi misollar orqali aniqlashdi. Muallifning nima demoqchi ekanligini va asar mazmunini mahorat bilan saqlab qolish uchun tarjimondan juda katta sinchkovlik talab etiladi. Ba'zida boshqa tilga tarjima qilingan asar muvaffaqiyatsiz bo'lishi mumkin, ba'zida esa asl matndan ham mukammalroq amalga oshirilishi mumkin.

Turli tarixiy bosqichlarni boshidan o'tkazgan har qanday millatning milliy- madaniy tasavvuri, olamning manzarasi turlicha bo'lishi tabiiy hol. Chunonchi, adolat, muhabbat, g'amxo'rlik, insoniylik kabi chuqur ma'noga ega umuminsoniy axloq tushunchalari sharq va g'arb olamida farqli ekanligi ham sir emas. Ularni bir tildan ikkinchi tilga aynan tarjima qilish mushkul masala.

Xulosa shuki, o'zbek tilidagi milliy tushunchalarni ingliz tiliga tarjima qilishda yuksak mahorat va e'tibor talab etiladi. Shu boisdan, asar tarjimasida yakka so'zlar ma'nosiga emas, milliy ruh aks etgan mazmunga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алланазарова Х. Деҳқоннинг бир куни (A day of the peasant). –Тошкент: Мумтоз сўз, 2009.- 80 б.
2. Austen, Jane. Pride and Prejudice. – Free eBooks At Planet eBook.com.
3. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик.–Тошкент: Фан, 2005.–352 б.
4. Остин, Жейн. Инглиз тилидан Муҳаббат Исмоилова таржимаси. Т.: Янги аср авлоди, 2014.-404 б.
5. Oxford dictionary of English. Mobile version.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 556

ID-020-30-TAR009

Shodiyaxon Axrorova

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 4-kurs talabasi

**JAHON ADABIYOTI ASARLARIDA GLYUTONOMIK
DISKURS MUAMMOLARI
(Joanna Harris “Shokolad” asari misolida)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy obrazlarni chuqur o'rganish va adabiyotda “taom” tasviriga eng muhim kompozitsion usullardan biri sifatida yondashib, uni tarjimada berishdagi turli kamchiliklar va uslubiy xususiyatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *taom, taomlanish, glyutonimlar, inson qiyofasi, badiiy tasvir, taomlanish psixologiyasi.*

Annotation. This article analyzes the various shortcomings and methodological features of the translation of the image of "food" as one of the most important compositional methods in the study of artistic images and in the literature.

Keywords: *food, nutrition, glutonyms, human image, artistic image, nutritional psychology.*

Taom-insoniyat va uni qurshab olgan tashqi olam bilan o'zaro bog'liq, uning turmush-tarzi hamda yashayotgan jamiyat madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Inglizlar tili bilan aytadigan bo'lsak, "Tell me what you eat, I will say who you are" ya'ni "Sen menga tanovul qiladigan taomingni ayt, men senga sening kimligingni aytib beraman". Shunday ekan, taomning inson qiyofasini tasavvur etish va ruhiy dunyosini tushuna bilishdagi o'rni katta hisoblanadi.

Rus olimi A.I.Kozlovning fikricha, jamiyatda ovqat "tabiiy", "madaniy", "insoniy" va ilohiy, "o'z" hamda "o'zga" kabi tushunchalar orasida ramziy

ma'no kasb etadi. Ba'zan birovning "maqbul" taomdan voz kechishi, uning g' ayriinsoniy hislati sifatida qabul qilinishi ham mumkin.

Umuman olganda, oshxona va taom - "o'zingniki" ni "o'zganiki" dan farqlash, "ular" va "biz" orasidagi chegarani aniqlab olish vositasidir. (Козлов А.И. Пища людей – Фрязино: Век 3, 2005) [3, 177-bet]

"Taom" *tushunchasi* inson hayotining turli xil jabhalarida-til, urf-odat, an'ana va madaniyatida namoyon bo'ladi. Adabiyot esa madaniyatning ushbu ajralmas qismini taqdim etish vositasidir.

Yevropa adabiyotida XVIII-XIX asrlardan boshlab asarlarda gastronomik mavzuni to'liq yoritish boshlandi. XI-XII asrga oid qadimgi topilmalardayoq taom va ichimliklar haqidagi badiiy tasvirlarni uchratish mumkin. Yunon yozuvchisi Ksenofontning uy-ro'zg' or yuritish va oila iqtisodi haqidagi "Uy-ro'zg' or yuritish" kitobida ro'zg'orni tashkil etish bilan birga dasturxon oldida o'zini qay yo'sinda tutish lozimligi, ibodat kunlari tanovul qilinadigan maxsus taomlar haqida aytib o'tilgan.

Taomni tadqiq etish va ingliz tilida aytganda, "food studies" ya'ni "taomshunoslik" boshqa ijtimoiy fanlar antropologiya, tarix, madaniyatshunoslik va sotsiologiya hamda san'at negizida shakllandi. Taomshunoslik ovqatga doir barcha jarayonlarning: mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, taomlanish jarayonining ijtimoiy hayotdagi o'rni, ovqatlanishdagi odat va marosimlar, tanovul uchun tanlanadigan hamrohlar: ularning etikasi va tabaqasi kabilarni qamrab oladi. Bu jarayonni o'rganish esa insonning jamiyatdagi o'rni va milliy madaniyatning o'ziga xosligini ko'rsatib berishga imkon tug' diradi.

Psixolog Luule Vilmaning aytishicha, insonning taomga va oshqozon ichak traktiga qanday munosabatda bo'lishi, uning o'z hayoti va ishiga qanchalik bog'liqligi, qanday munosabatda ekanligi va hattoki, oldiga qo'ygan biror bir maqsadni bajarishda qay yo'sinda yondashishini belgilab berar ekan [1, 533-bet].

Jamiyatdagi insonlarni kuzatish orqali o'z vaqtida ovqatlanmaslik, tanovul qilinayotgan taomning qandayligi ularning kayfiyati va ruhiy holatida namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Hattoki, iste'mol qilinayotgan taom turi va miqdori jinsga ham bog'liq bo'lib, asrning boshlarida G.Geymer o'zining mashhur so'rovnomasidan foydalangan holda, "Ovqat qaysi jins vakillarinig hayotida ko'proq ahamiyat kasb etadi" degan savoliga, har ikki jins vakillari ham "erkaklar" degan javobni berishadi [1, 69-bet].

Qadimgi adabiyotda ham "taom" obrazi mavjud bo'lib, o'sha davrda ham uning muhim rol o'ynaganini ko'rishimiz mumkin. Qadimgi yunon miflariga ko'ra, ularning taqdiri egalari bo'lmish Olimp xudolari odatda maishat va ziyofatlar bilan mashg'ul bo'lganlar:

"Xudolar o'zlarining oltin saroylarida ziyofat qiladilar... Zevsning qizi, yosh Geba, Zevsning suyuqlisi Troya shahzodasi Ganimed, Zevsdan umrboqiy hayot in'omini olar ekanlar, ularga xudolarning taomi va sharobi-ambroziya va nektar keltiradilar. Xudolar barcha ishlar; insoniyat va dunyoning taqdirini ana shu ziyofatlarda hal qiladilar".

Qadimgi yunonlarning sharob xudosi Dionis, minadlar va satirlar bilan o'rab olingan, yam-yashil vodiylarda raqs tushib, xursandchilik qiladigan obraz deb ta'riflanadi. Mifologiyada Dionis hayotiy kuch va mavjudotlarning tafakkuri sifatida qabul qilingan. Bejizga uning otasi Zevs yosh ma'budning hurmatini bajo keltirmagan va uni ranjitganlarni ayovsiz jazolamagan.

Uyg'onish davrida buyuk insonparvarlar odamzotning fiziologiyasida taomlanish tabiiy hodisa bo'lib, unda hech qanday noodatiy narsa yo'q degan fikrni ilgari surdilar. Bu esa, oziq-ovqat tasvirlarining paydo bo'lishi va taom obrazini yuqori o'ringa ko'tardi. Bu ayniqsa, Fransua Roblening "Gargantyua va Partagrue" asarida yorqin tasvirlangan. Asar qahramonlari, devlarning uch avlodlari, xuddi muallif kabi, yaxshi taom faqat foyda keltirishi mumkinligini aytishadi. Roman oziq-ovqatni iste'mol qilish hech qachon yolg'iz amalga oshirilmasligi ifodalangan sahnalarga boy. Robleda taom bu-har doim

xursandchilik, "butun dunyo uchun bayram". Har qanday holatda ham ziyofat qilinadi: Gargantyaning tug'ilishi munosabati bilan, urush tugashi munosabati bilan ham, yaxshi muzokaralar olib borilgan bahs va dengiz safaridan keyingi saodatli qaytishdan so'ng ham. Oz ustiga kitobda ushbu asarni qandaydir uydirma yoki ertak emas, ayni haqiqat deb qabul qilish lozimligi aytib o'tilgan. Shunday qilib, taom tasviri 20-asr oxiriga kelib ham adabiyotdan chetga surilmadi. Umberto Eko o'zining 1980-yil chop etilgan "Atirgul ismi" asarida noyob tasvirlarni yaratadi-u yerda o'simliklar ensiklopediyasi ham, monastir oshxonasining qiziqarli tajribalari ham bor. O'quvchining omadi chopgani shundaki, u o'rta asrlardagi monastir taomlarining qoidalarini, kichik birodarlarining ovqat borasidagi imtiyozlari haqida; munster, kemember kabi mashhur pishloqlar monastirlar tomonidan yaratilganini ham bilib oladi.

Monastirning asosiy qonuiyatlaridan biri bu-go'sht tanovulining ta'qiqlangani bo'lib, go'sht shakarxo'randalikni va zaiflikni oshiruvchi taom hisoblangan. Bundan tashqari, go'sht qimmat mahsulot bo'lib, kamtarona tushlik qarashlariga zid kelardi. Xo'sh, "Atirgul ismi" deb yozilgan abbatlikda nima berilardi?

"Mahalliy qizil vinoda chayilgan yovvoyi qushdan tayyorlangan issiq taom, cho'chqacha go'shti, Rohiba Klara nonlari, bodom qo'shib pishirilgan guruch, bodring terisidan qilingan do'lma, qiymalangan zaytunlar, qovurilgan pishloq, achchiq qalampirli sous bilan qo'y go'shti, oq loviya va nafis shirinliklar: Avliyo Bernard pishiriqlari, Avliyo Nikolay pirojniylari, Rohiba Lyutsiya ponchiklari, vino va o'tli sharbatlar... Agar og'izga solinayotgan har bir luqmada Xudoga shukronalik keltirilmasa, bu naq ochko'zlikning o'zi bo'lardi.

Rus adabiyotida ham "taom" motivini turli asrlarda yashab o'tgan ijodkorlarning asarlarida, jumladan, N.V.Gogolning "O'lik jonlar", Goncharovning "Oblamov", M.Bulgakovning "It yuragi" hamda "Usta va Margarita" sida uchratishimiz mumkin.

N.Gogolning "O'lik jonlar" romani misolida oladigan bo'lsak, poemada "o'lik jonlar" (vafot etgan, biroq rasman tirik hisoblanadigan krepostnoy

xristianlari) ni qidirib sayohatga chiqqan, ularni topgach, Vasiylik kengashi ro'yxatiga kiritib, katta miqdorda pul olmoqchi bo'lgan asar qahramoni

Pavl Ivanovich Chichikovning sarguzashtlari hikoya qilinadi.

Tipik xarakterdagi personajlarni yaratishga uringan Gogol, ularning so'zlashuv uslubini, kiyimlari va atrofini o'rab turgan muhitni, kundalik turmushi va albatta, taomini ta'riflaydi.

Dastlabki sahifalardan oq, muallif taom tasviriga muhim o'rin ajratgani yaqqol sezilib turadi:

“NN shahri gubernatorligidagi tashrifini Chichikov traktirdan boshlaydi. Bu yerda unga tushlik uchun traktirlarda pishiriladigan odatiy ovqatlar: sayohatchilar uchun bir necha hafta davomida ataylab saqlanadigan sho'rvalar, no'xotli miya, karamli sosiskalar, qovurilgan qushlar, doim tuzlab pishiriladigan pirojoklar doim xizmatigizga shay”.

Haqiqatdan, insoniyat taraqqiy etar ekan, azaldan yegulik topish hayotiy muammolardan bo'lgan. Har bir mumtoz asarni bir yoki bir necha qismat tarixi deb hisoblaydigan bo'lsak, unda hikoya qilinayotgan tarixiy davr taom va ovqatlanish jarayoni bilan bo'liq qanchadan-qancha hodisalardan tarkib topganligini tasavvur qilish qiyin emas. Badiiy asarda uchrovchi, “taom” konseptini tushunishning murakkab tomonlari ham mavjud. Amerikalik olimlar Devid va K.Jonatonlarning fikriga ko'ra, ovqat va unga tegishli an'analar, jamiyki narsa va hodisalar turli yozuvchilar ongida turli asotsiatsiya hosil qiladi. Taom faqat maza va hid bilan emas, balki boshqa jihatlari orqali ham his etiladi. Ovqat haqidagi tasavvurlar adabiyotda biror millat xotirasining negizigacha singib ketgan asotsiatsiyalar manbasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin [5].

Ingliz adabiyotidan Joanna Harrisning “Shokolad” asarida ham glyutonimlar asarning asosiy mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi va har bir taomningning qahramonlar tabiatini anglashda o'ziga xos o'rni bor.

Asarning bosh qahramoni yolg'iz ona Vien Roshe Fransiyadagi Laskne-su-Tann shaharchasiga ko'chib keladi. Uning orzusi shaharchada shokolad do'konini ochish bo'ladi. Muqaddas Pasxa yaqinlashib kelayotgan bir paytda cherkov ruxoniysi Fransis Reyno kishilarni dunyo lazzatidan bahramand etuvchi shokolad do'konini ochishga qarshilik qiladi. Bu masalada shahar aholisi fikri ikkiga bo'linadi. Tug'ma qandolatchilik iqtidoriga ega bo'lgan shaharliklarga zavq, rohat va huzur ulashadi. Yozuvchi qahramoning fe'l atvorini, oshxonadagi ijodkorligini u tayyorlayotgan shirinliklari orqali ochib beradi. Oshxonada kuymalanayotgan ayolni go'zallik yaratuvchi ayol sifatida ko'rsatadi. Adibning aytishicha, asardagi deyarli barcha qahramonlarning prototiplari bor bo'lib, u o'zining yaqinlari va qarindoshlarida ko'rgan taomdan lazzatlanish va xuzurlanish, shu orqali, hayotdan zavq tuyish hissini o'z asarida tasvirlangan. Xususan, Vivianning qizi Anuk yozuvchi qizining prototipi bo'lsa, asar qahramonlaridan biri Armandaning hayot haqidagi qarashlari muallifning katta buvisi fe'li misolida namoyon bo'lgan. Joanna Harris "Shokolad" asarining ko'p qismida o'zining hayotga bo'lgan shaxsiy munosabatini taom tayyorlash va iste'mol qilish jarayoni orqali ramziy tasvirlab beradi. Masalan, qand kasaliga chalingan Armandaning tug'ilgan kunga tayyorgarlik vaqtidagi holati tasvirini olaylik. Unda har bir shirin luqmani og'ziga to'ldirib solayotgan Armanda o'z hayotini xavf ostiga qo'yayotganligini to'la anglagan holda "Bu mening oxirgi luqmam", deydi va yuzida tansiq taom haqida gapirgandagina paydo bo'ladigan huzur ifodasi namoyon bo'ladi. Armandaning fikricha, "Sevimli narsasidan voz kechib qiynalib yashagandan ko'ra, lazzatli o'lim topmoq yaxshiroq". "Endi menyuga o'tsak", deydi ishtaha bilan qo'llarini ishqalib. Garchi shirinliklar yeyish qat'iy ta'qiqlangan bo'lsa-da, qahramonga ovqatdan lazzatlanish baxt va huzur baxsh etadi.

Jon Harrisning "Shokolad" asarida 80 ga yaqin shirinlik nomi va turi keltirilgan bo'lib, noodatiy ta'm va retseptga ega shirinliklar goh badiiy tasvir vazifasini bajarsa, gohida inson ruhiy holatini aks ettiruvchi motiv vazifasini bajargan. Bir qancha shirinliklarni tahlil qilib chiqsak:

“fundaе”- tuxum va pishloqdan qilingan yegulik bo‘lib, rus tilida “фундю” deb tarjima qilinadi va o‘zbek tilida ham muqobil tushuncha yo‘qligi hamda milliy koloritni bildiruvchi narsalar qatori taom sifatida to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinadi.

”Meringue”- tuxum oqi va shakar solib ko‘pirtirilgan bo‘lib, asosan piroglarning ustiga quyilib, pechda pishiriladigan shirinlik. Rus tilida “меренга” deyiladi.

“Florentine”-Florentin biskviti, Italyancha yong‘oq va mevali shirinlik.

“guimauve”- fransuz tilidan olingan bo‘lib, shakar yoki makkajo‘xori siropi, issiq suvda yumshatilgan jelatin, glyukoza, xushbo‘y hid va rang beruvchi vositalar yumshoq popuk holiga keltiriladigan shirinlik. Rus tili va ingliz tilida ham da “марשמеллоу” deyiladi.

“Mendiant”-an’anaviy fransuz konfetlari. Bu to‘rtta monastir buyrug‘ini ifodalovchi, yong‘oq va quritilgan mevalar bilan ishlangan shokolad diskdan iborat desert. Rus tilidagi nomi “мендиган” shaklida berilgan.

“Sugared almonds”-shakarlangan bodomlar. Rus tilida ekvivalenti “сахарные миндалы”.

1) chocolates	21) the pralines	41) Venus's nipples	61) truffles, mendiants
2) candied fruits	22) hazelnut clusters	42) chocolate seashells	62) candied rose petals
3) sugared violets	23) Aladdin's cave of sweet	43) dark chocolate	63) guimauve
4) twisted marshmallows	24) sweet vendors	44) biscuit sized discs of dark	64) milk or white chocolate
5) lemonrind	25) almonds and plump Malaga raisins.	45) creme Chantilly	65) chocolate curls

6)espresso	26) smeared with frothy chocolate	46) Florentines (biscuit,an Italian pastry of nuts and fruit)	66) white buttons with coloured vermicelli
7)marzipan fruits	27) peanut brittle	47) clusters	67) cracknels
8)assorted misshape	28) chocolate liquor	48) vanilla,	68) heated copper
9)cinnamon	29) sugared almonds	49) sugared violets	69) chocolate rose leaves
10) chocolate almonds	30) white chocolate mice	50) cakes	70) pies
11) chocolate animals	31) chocolate hens	51) chocolate rabbits	71) Easter chocolates
12) chocolate raisins	32) chocolate Jesus	52) variegated mice marbled through with truffle and maraschino cream	72) pink and white sugar coconut mice
13) delicately tinted mice	33) sugar dappled frosted mice	53) chocolate chips	73) chocolate Pope
14) Easter eggs	34) the confit de canard	54) the spiced merguez	74) eclairs
15) chocolate cream meringues	35) the violet creams	55) the rose petal clusters	75) the goldwrapped coins
16) nests of spun caramel	36) hard shelled sugar eggs	56) chocolate hen	76) biscuits
17) home made chocolate ice cream...	37) chocolate fondue	57) dark and white chocolate roulade bicolore	77) calvados
18) bitter orange cracknel	38) apricot marzipan roll	58) cerisette russe	78) white rum truffle
19) manon blanc	39) cocoa solids	59) chocolat a croquer	79) creme de cassis

20) three nut cluster	40) peach steeped in honey	60) a crystallized peach sliver on the chocolate lid.
------------------------------	----------------------------	---

Romanda berilgan taom nomlari ko'pligini (hisobga olgan holda, ularni tarjima qilish jarayonida ham o'ziga xos kamchiliklar va stilistik muammolarga duch kelinishi tabiiy. Shulardan biri sifatida quyidagi so'zni ko'rishimiz mumkin:

“guimauve” –shirinlik nomi bo'lib, fransuz tilidan olingan so'z hisoblanar ekan. Fransuzcha tarjimasi quyidagicha beriladi:

“1.Plante des marais et des prés humides.

2.Pâte molle et sucrée (originellement à base de racine de guimauve)”
ya'ni “ ya'ni

1. O'simlik botqoqlari va ho'l o'tlar.

2. Yumshoq va shirin pishloq (dastlab marshmallaning ildizidan)”.
So'zning ikkinchi ma'nosiga ko'ra, bu shirinlikning qanday turi ekanligini tasavvur qila olamiz. Ammo buni inglizlarning mukammallikka eng yaqin lug'atlari hisoblangan “Oxford dictionary” va “Longman dictionary” dan qidirganimizda ushbu so'zning tarjimasi topilmadi. Bunday holatda tarjimon ushbu so'zni transkripsiya shaklida tarjima qilib, misol uchun “jumavye” tarzida ham berishi mumkin. Ammo bunday vaziyatda o'quvchi uchun bu qanday turdagi taom ekanligi haqida hech qanday tasavvur uyg'onmaydi. Google tarjimon dasturi orqali esa, asl manba fransuz tili ekanligini bilgan holda tarjima qildik va taom haqida kengroq asotsiatsiya hosil qilish maqsadida surati qidirilganda ushbu shirinlikning ruscha nomi “marshmelloy” deb berilgan shirinlikning ayni o'zi bo'lib chiqdi. Asarning boshqa bir qismida aynan shu shirinlik “marshmellow” shaklida ham berilgan bo'lib, bu variantida ta'rif berish imkoniga ega bo'ladi. Tarjimon taomning yuqoridagi shaklida chuqur izlanmagan taqdirda tarjimada uslubiy xatolik ro'y beradi va natijada, o'quvchi bu ikki nomda berilgan taom shirinlikning bir turi ekanligini bilmaydi.

“Shokolad” romanida inson qiyofasini va fe’lini tasvirlashda “apricot heart” ya’ni “o’rik qalbli” metafrasi qo’llanilgan. Bizga ma’lumki, yetilgan o’rik mevasi yumshoq va muloyim. Asarda qahramonning yumshoq fe’lini, tabiati muloyimligini tasvirlash maqsadida shunday tasvir qo’llanilgan. Mazkur holatda bu badiiy tasvirni “o’rikdek yumshoq qalbli” singari izohlashimiz mumkin. Lekin o’zbek tili leksikologiyasida insonning yumshoq tabiatga ega ekanligini ifodalash uchun “halimdek muloyim” tashbehi qo’llaniladi. O’zbek kitobxoniga erish tuyulmasligi va tasvirni tezroq uzatish maqsadida ushbu iborani “apricot heart” tashbehi uchun muqobil variant sifatida beradigan bo’lsak, “meva” konseptining o’rnini “koloriyaga boy va odatiy tanovul qilinadigan go’shtli taom” egallaydi. Natijada, asarning shirinlik va mevalar orqali psixologik dunyoni ochib berish uslubi tarjima jarayonida ma’lum misollar tufayli buziladi.

Har bir adibning o’ziga xos professional uslubi mavjud. Kimdir birgina detal, kimdir qahramonning tilidan aytilayotgan so’z orqali personajning fe’l-atvori, tarbiyasi, millatiga xos xususiyatlarni ochib beradi. Osiyo va Afrika millatlari tillaridan tarjima qilish bir muncha qiyinchilik tug’diradi, chunki qahramonning avzoyini bildiruvchi yuz ifodalari va raqsmonand harakatlarni tarjimada berish ancha mushkul. Ba’zan birgina oddiy detal insonning millatini oshkor qilib turgan bo’lsa, bu detalni anglash insonning ziyrakligidan dalolat beradi. O’zbek tilida inson qiyofasiga oid shunday badiiy tasvir vositalari (qovunkalla, bo’tako’z, xumbosh kabi) mavjudki, tarjimon bu kabi iboralarni o’z tiliga juda ehtiyotkorlik bilan o’girishi lozim. Tabiiyki, bu holat chet el adabiyotlarida ham uchraydi. Jon Harrisning o’ziga xos va g’ aroyib uslubi ham aynan shu-inson ruhiyatining tasvirida “taom” motivini qo’llaganidir. Buni bir qancha misollar orqali ko’rishimiz mumkin.

Quyidagi tasvirda muallif insonlarning tanovul qiladigan taomining nafaqat kayfiyati, didi va ruhiyatiga balki ularning turmush-tarzi va hatto ko’rinishiga ham bog’ liq ekanligini tasvirlaydi.

Asliyat:

But I like these people. I like their small and introverted concerns. I can read their eyes, their mouths, so easily: this one with its hint of bitterness will relish my zesty orange twists; this sweet smiling one the soft centred apricot hearts; this girl with the windblown hair will love the mendiant; **this brisk, cheery woman the chocolate brazils.**

So'zma-so'z tarjima:

Lekin men bu odamlarni yaxshi ko'raman. Men ularning biroz tortinchoqliklarini-da yaxshi ko'raman. Ko'zlaridagi ma'noni, og'iz qimirlashlarini osonlikcha o'qiy olaman: bu achchiq xayolga ega bo'lgan ayol mening nozik, to'q sariq burmali shirinliklarimni yaxshi ko'radi; bu shirin tabassum ortida halimdek yumshoq, muloyim qalb yashiringan; sochlarini shamol uchirayotgan bu qiz mendiantlarni sevadi; **bu yoqimtoy braziliyalik ayol esa shokoladlarni yaxshi ko'radi...**

Rus tilidagi tarjima:

Но я люблю этих людей. Я люблю их маленькую застенчивость. Я легко читаю глаза и рот: эта горькая идея, мне нравятся мои тонкие оранжевые конфеты; За этой милой улыбкой у меня все еще было мягкое, нежное сердце; С волосами ветра эта девушка любит мендина; **эта милая бразильская женщина любит шоколад ...**

Braziliyalik ayollar terisi rangi to'qish, shokoladga moyil va yaltiroq bo'ladi. Muallif ushbu parcha orqali insonning tashqi ko'rinishi bilan tanovulidagi narsaning ko'rinishi deyarli bir xil ekanini tasvirlash orqali, ramziy ma'noda ichki dunyosini ham xuddi shunday o'xshashlikka ega ekanligini ifodalagan desak mubolag' a bo'lmaydi.

Keyingi tasvirimizda ham shunga o'xshash ma'no joylangan bo'lib, ichki nafosat va taom orqali bog' liqlik ko'zda tutiladi. Masalan, asar qahramoni shokolad do'konidagi mijozlaridan birining yeydigan shirinlik turiga qarab, uning fe'li haqida o'y suradi. Bu holatda izohni shunday beramiz: tryufellar og' izga solinganda kisirlaydigan, ammo ta'mi o'ta nafis va lazzatli, nozik didli insonlarga xush yoqadigan mahsulot hisoblanadi. Shu sababli ham,

qahramon uni tanovul qilayotgan ayolni “bu beo‘xshov va qo‘pol ko‘rinish ortida esa nozik qalb yashiringan” deb ta’riflaydi. Qiyofaga “beo‘xshov va qo‘pol” sifatining yuklaanishiga esa “ikki hissali ishtaha” sabab deyishimiz mumkin.

Asliyat:

Narcisse's appetite for double chocolate truffles reveals the gentle heart beneath the gruff exterior..

So‘zma-so‘z tarjima:

Narsisning **ikki hissa** shokolad tryuffellariga bo‘lgan ishtahasi qo‘pol qiyofa ortida nafis yurak borligidan nishon.

Rus tilidagi tarjima:

Аппетит Нарцисса для двойных шоколадных трюфелей показывает нежное сердце под грубой внешностью.

Insonning quvonch, g‘am, tushkunlik, tashvish, lazzatlanish kabi ruhiy holatlari bo‘ladi. Vaqti-vaqti bilan odamzot o‘z tabiati mos ravishda uni hayolda yoki suhbat dvomida ifodalashga intiladi va aynan shu ruhiy holatning kayfiyati, uning darajasini tasvirlash uchun borliqdagi nimagadir qiyoslaydi.

Asliyat:

‘Chocolate festival. All welcome.’ My anger is rising like boiling milk, uncontrollable. For the instant I feel empowered, energized by its heat. I stab an accusing finger at her. ‘Don't think I haven't guessed what this is all about.’

So‘zma-so‘z tarjima:

"Shokolad festivaliga barchangiz xush kelibsiz, "Mening g‘azabim qaynayotgan sut kabi, boshqarib bo‘lmaydigan darajada oshib bormoqda.

Men o‘zimga bo‘lgan ishonchni his qilayotgan ayni damda, g‘azabim ham haroratdan qaynab boraverdi.”

Rus tilidagi tarjima:

Шоколадный фестиваль. Все приветствуются. Мой гнев растёт как кипящее молоко, неконтролируемое. В тот момент, когда я чувствую себя уверенным, его подпитывает его жара».

Yuqoridagi misoldan shuni ko'rishimiz mumkinki, inson g' azabining qaynayotgan sutga o'xshatilishi uning g' azab paytidagi hissiyotlari: ichida nimadir qizib, qaynoq narsa quyilib kelayotgandek bo'lishi, uni bosishga uringani sari harorat ham negadir oshib borishi juda ajoyib tarzda o'xshatilgan.

Har bir insonning hayotda o'zi uchun aziz va yashashga ma'lum miqdorda kuch beradigan, soniyalarini zavqqa to'ldiradigan narsa bo'ladi. Asar qahramonining hayotidagi ana shunday narsa-shokolad.

Psixolog E.P.II'inning "Emotsiya va hissiyotlar" kitobida "simpatiya" tushunchasi keltirilib, unda aytilishicha "simpatiya- ("yunoncha,"sympatheia" yoqtirish, ichki qarash) kimgadir yoki biror narsaga nisbatan barqaror ijobiy munosabatdir. Shokolad do'koni egasi qizni quchadi va o'sha paytda qizdan shokolad ifori keladi degan hisni tuyishi, qizga nisbatan iliq va do'stona, hamroz munosabatda ekanligini anglatadi

Asliyat:

Her arms are warm around my neck. She smells of chocolate and vanilla and peaceful untroubled sleep.

So'zma-so'z tarjima:

Qizning iliq qo'llari bo'ynimda. Undan shokolad va vanilni hidi anqib,beozorgina bo'lib osuda uyquga ketgandi.(201)

Rus tilidagi tarjima:

Ее руки теплые вокруг моей шеи. Она пахнет шоколадом и ванилью и спокойным безмятежным сном.

Oziq-ovqat va ichimliklar tasvirlari jahon madaniyatida abadiydir. Ushbu tafsilotga e'tibor muallifning niyatini tushunishga yordam beradi. Oziq-ovqat va ichimliklarga bo'lgan munosabat, "oshxona" tafsilotlari asarlarda va umuman olamdagi mualliflarning baholash usullari sifatida paydo bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, oziq-ovqat qiyofasi ko'pincha masihiy amrlariga parallel ravishda ketadi, shafqatsizlikni ta'qiqalaydi, ruhni buzadi, faqatgina tana ehtiyojlarini qondiradi. Bu, ayniqsa, "O'lik jonlar" asarida yaqqol ko'rinib turibdi.

Rus adibi Gogol qahramon tomonidan oziq-ovqat iste'mol qilish shaklini, oziq-ovqatni ruhning bo'shlig'ini, qahramonning "o'likligini" ko'rsatadigan omil ekanligini tasvirlaydi. Oziq-ovqatlar haddan ortiq oziq-ovqat, mo'l, yog'li, ajoyib hajmda ishlatiladi, hatto o'quvchi hatto nafratlanishi mumkin.

Turli xil mualliflarning uslubida oziq-ovqat qiyofasi mutlaqo turlicha maqsadlar uchun ishlatiladi va kompozitsion texnika shaklida noaniq rol o'ynaydi. Vaqt o'tgach, mualliflar kompozitsiyadagi oziq-ovqat tasvirlarini qo'llash uchun ko'plab variantlarni topishadi. Shunday qilib, ushbu kompozitsion texnika ko'plab asrlar davomida, eng yorqinlardan biri sifatida qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Виилма. Л. "Лекарство для души". Рига:Издательство Аллис, 2003.
2. Е. П.Ильин, "Эмоции и чувство". Питер-2008.
3. Одилова Г. К. Дуне адабиетида таом ва тановул мавзуси. Жахон адабиети 2, 2018
4. Ш.Сирожиiddинов, Г. Одилова. Бадий таржима асослари Тошкент: Mumtoz so'z-2011.
5. David,Jonathan C.Food in Literature.Gale Encyclopedia of Food and Culture.2003.
6. John Harris,Chocolate. P-46
7. Yunon miflari(internet ma'lumotlari)
8. www.ziyonet.uz
9. www.kh-davron.uz

ID-020-30-TAR010

Setora Jo'rayeva

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakluteti 1-kurs talabasi

HOW TO WRITE CV (curriculum vitae) AND A ROLE OF TRANSLATION IN CV

Annotation. This article provides an overview of CV (curriculum vitae) and explains what types are available. In this article, we will focus on the problems associated with CV. And solutions to problems based on best practices in developed countries. Additionally, problems with translation in CV is said in this article. There are also scientific suggestion and recommendations on this topic.

Keywords: *what is CV, types of CV, problems of CV, role of translation CV*

A curriculum vitae is a document that gives a summary of a job seekers career history, academic qualifications and also explains their future potential. Indeed the phrase "curriculum vitae " is Latin for "the story of your life ". It is also occasionally known as a resume, although this term is more commonly used in America. [1]

A completed CV aims to express recruiters and is sent as an application to jobs adverts or as a speculative approach to prospective companies. CVs are valuable and important because they are your first and maybe only direct communication with a potential employer. Presentation is key. For this reason alone it should be carefully thought out, designed and written so that it makes an immediate positive impact on key decision makers. When a reader looks at your resume they should be able to quickly gain a clear indication of your experiences and potential. Bear in mind that the person reading it will never have met you, so keep it grammatically error free and focused, as it will be seen as a reflection of you as a person.

Nowadays, there are a lot of types of CV. When we apply CV, we should pay attention which type we should choose. For instance, Business Supper CV, Education CV, Teacher CV, Student CV, IT CV, Management CV .

In most cases, your CV should be headed with the following titles

- * Profile- an introductory paragraph
- * Core skills- bullet pointed snapshot of your main offerings
- * Career history- detailed list of your roles
- * Education/ qualification/ technical skills [2]

Here is explained Teacher's CV.

CVs for educators such as teachers and lecturers need to project the candidate's expert subject knowledge whilst also demonstrating their abilities to educate successfully and work collaboratively with other staff members.

First of all, we should write Profile. It provides an overview of all the key information that an education institution needs to know such as

- * Personal attach(photo) * Mobile phone
- * Name * E-mail
- * Date of birth * Address
- * Nationality

Second, explained education background

- * Period * Degree
- * School * Others
- * Major

Third, teaching and other experiences

- * Place * Hours
- * Period * Others
- * Position

Fourth, license/ award/ foreign language/ and others

- * License/ subjects
- * Date
- * Issuance

People who have applied a CV have probably confronted some problems which given CV letters. Sometimes they couldn't understand completely what they write to the sections. For example, educational background. Period- we should apply our graduated university/ institute/ collage. Major- is speciality (interpreter, manager, dentist)

Degree- bachelor, politician.

Moreover, anyone who has written a CV has probably had to overcome a number of challenges- whether they be lack of work experience, gaps in employment or explaining a short stint that didn't work out.

Facing these issues when writing your CV does not mean you are not a worthy employee, it just means that you must find ways to explain areas that may appear negative to recruiters. If you are struggling to explain discrepancies on your CV, the following examples will show how you can reflect your experience more positively.

Furthermore, these problems appear students. Students or new grads often do not have enough substance to add to their CV, due to their lack of experience. Accordingly, they try to fill the void by including irrelevant information. One of the biggest mistakes for students is to wait until graduation time to take a hard look at their CVs. They should start "planning" their CVs earlier and accumulate relevant experience or qualifications so that when the time comes for them to apply to their first position, post- graduation they have something concrete to show, beyond their degree.

Reference:

1. <http://www.what is the CV?>
2. <http://wikipedia.www.CV>
3. <http://www.type of documents>

O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODIKASI

ID-020-30-M001

Dilobar Davlatova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

TEACHING UZBEK LANGUAGE THROUGH ACTIVITIES AND INTERESTING GAMES

Annotation. Present article aims to demonstrate efficiency of teaching Uzbek language through various activities and games. In this article has an important end progressive methods of teaching Uzbek language. Furthermore, you can find some types of interesting games and useful activities from this article.

Keywords: *Competition, motivation, pronunciation, fresh atmosphere, acquisition process, strategies, effort, valence, expectancy.*

*"These days people seek knowledge, not wisdom.
Knowledge is of the past, wisdom is of the future".*

(Vernon Cooper)

There are many types of teaching methods, they are audio-lingual method of language teaching, grammar-translation and etc. This article is different from them, this method is for teaching and motivating students to learn languages easily. In my point of view not only teaching Uzbek language but also teaching any kind of language is one of the most hardest and the most responsible work. Uzbek language is difficult for people who is not Uzbek. The games and activities can help them to learn and practice Uzbek language.

How do games help in teaching this language? What kind of games do the teachers need during the lesson? Let's find the answers to these questions step by step.

The games and activities are one of the most important things in teaching language because they help to learn and understand Uzbek language easily. Using

games in teaching language is the effective way to create an enjoyable atmosphere in the class. They help learners to learn and retain new words more easily. There are several effects of using games in teaching Uzbek language for the learners. They are fun, enjoyment and wonderful mood. They usually involve friendly competition and they keep learners interested. These create the motivation for learners as Uzbek language to get involved and participate actively in the learning activities.

The teachers try to use games in teaching language, such as vocabulary and grammar games. There are some problems in learners pronunciation. That's why our teachers should use pronunciation games too. They help to pronounce correctly, put a stress, find stressed syllable and the moving of stress and I think the use of various activities. They are drawing, matching games, questionnaires and others. According to the quantities of participants, the games and activities are divided into three types: They are:

1. Pair work.
2. Group work.
3. Team work.

What do you think which of them are the best? In my opinion pair work, group and team work is very effective teaching strategy for teaching a foreign language, as learners increase their speaking skills. Pairs work is useful for making dialogue, playing games. Working in groups or teams is good for role plays and discussions. By working together, the learners are necessary for developing relationships with each other. In my opinion all types of games and activities are the best. We must know when and how we should use them. In my view, the effects of using games in learning language for the learners are fun, enjoyable and easy to understand. Students need the fresh atmosphere in study any kind of language. If we want to score big success, we should use to teach Uzbek language through activities and interesting games. It is one of the most useful way to learn any kind of language. In today's high-tech learning environment, it would be unfair to limit students to traditional methods. Make sure that your teaching process is enjoyable and stimulating. Encouraging students to relate their classroom experience to outside interests and activities makes developing language skills more relevant. For example, computer-assisted language learning could be linked to playing games or to computer programs that the students are

interested in using. And reading Uzbek Web sites can lead students to broaden their perspective on their language acquisition process.

Motivational teaching strategies such as these can easily increase language learners motivation levels. So, everything is up to learners. If they have belief, patient, force, effort, required performance, outcome, valence, expectancy and also promotion, they can achieve their goals in future.

Reference:

1. Hadfield, J. (1999) *Beginners' Communication games*. Printed: Longman.
2. "Communitative Language Teaching" Patrick Knod, 2005.
3. *Strategies for Success* by Gardner, J.N.Jewler, J.A & Barefoot (2011).
4. *Intermediate Communication Games*, J.Hedfield. 1990.
5. [www.teaching structure.com](http://www.teachingstructure.com)
6. <http://en.wikipedia.org>.
7. Das,B.K.(1984) *Communication learning teaching*.
8. Ziyonet.uz

ID-020-30-M002

Dildora Musurmonova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

EDUCATING SPECIAL CHILDREN: WORKING WITH DISABLED PUPILS

"Never be defeated, my dear children, future is yours"

Islam Karimov.

Annotatsiya. Ushbu maqola imkoniyati cheklangan talabalarni o'qitishning samarali usullari va yo'llarini namoyish etishga qaratilgan. Bu maqola o'quvchilarning nogironlik turlari bilan tanishishga yordam beradi. Unda nogironlik va imkoniyati cheklanganlikni tasniflash tizmilari tavsiflanadi.

Kalitso'zlar: *nogironlar, imkoniyaticheklanganlar, aqliyzaiflik, kar, autizm, fikrni aniqvaravshanifodalayolmaslik.*

Annotation. The following article aims to demonstrate effective ways and methods of teaching disabled and incapacitated students. The article assiststo get acquainted with types of learner's disabilities and itdescribes the classificational systems for disabilities and disorders.

Keywords: *disabilities, disorders, mentally retarded, deaf, autism, articulation, sound contrast.*

It is obvious that teaching learners effectively is one of the most important obligations of our country's policy. Every country own its owneducational system and they have various types of educational methods. In general, education can be separated into two types which are: general education and special education. As far as we know, General education is teaching and giving knowledge at school, colleges or universities for mentally

and physically healthy learners. For these pupils there are traditional educational system and many opportunities in our country by the government. On the other hand, we have the other group of learners who can not be taught effectively with the help of traditional educational system. In this case, instructors teach learners with the aid of special education. For learners who have some problems with their mental and physical health, our government provided special educational system and special trainers. Raising standards in general education and special education refers to improve levels of pupils' attainment and progress in learning. Learning is indicated by what a student shows he knows, understands and what he can do. While teaching special learners with the illness of disability instructors firstly should pay attention to the age of the learner. Lower or higher studying ages indicate lower or higher attainment levels at the same time. Attainment includes the levels reached by the pupil in areas such as literature, mother tongue, math, and foreign language.

It should be faced that these types of learners features various difficulties and problem while learning such as: reading disorder, mathematics disorder and disorder of written or oral expression. Reading disorder is one of the most common characterised complexity which causes difficulties with reading and spelling out words correctly. Teaching learners based oral classes can be functional for this type of pupils. The instructor should teach them conveying their opinions orally and easily. Other complications with disabled learners are communicational disorder of speech and grammar comprehension which imply children to attain in a lower level of skills.

To receive special educational provision covered by federal law in European countries a child has to have a defined disability. Recall that categories of disability under federal law as amended in 1997 are reflected in subsequent designated disability codes. These are:

1. Mentally Retarded
2. Hard of Hearing
3. Deaf

4. Speech and Language Impaired
5. Visually Handicapped
6. Emotionally Disturbed
7. Orthopedically Impaired
8. Other Health Impaired
9. Specific Learning Disability
10. Multi Handicapped
11. Child in Need of Assisment
12. Deaf/ Blind
13. Troumatic Brain Injury
14. Autism

These kind of children need more attention, care and labour. Care needs be taken in interpreting apparent signs. While training the teacher should be very attentive and responsible for his/her duty. Working individually is one the best way to elucidate these learners.

Moreover, incapacitated learners usually face different problems with their speech and the dilemma can be categorized as following:

- ❖ Physical difficulties with articulation
- ❖ Difficulties making sound contrasts that convey meaning
- ❖ Problems controlling pitch

These three difficulties are aspects respectively of phonetics, phonology, each of which are explained later. After the assesment parents and the taecher should notice the child's speech problems. As speech and language are intertwined slow progress with language can be associated with delayed speech. Therefore, with a young child who appears to have speech problems and talk little, it may be better to focus on develpoing vocabluary.Children with speech disorders sometimes find it difficult to communicate with other people and they may be frustrated.Raising awareness lends itself to small group or pair work teaching can be helpful and motivational for these pupils.

It is also an important part of the overall curriculum and literacy development. Where new vocabulary is introduced, the teacher will encourage a keen interest in the work. The teacher teaches various aspects of vocabulary.

They are:

- ✓ Phonological → how do the sounds of the word
Do the pupils know any similar sounding words
- ✓ Grammatical → how is the word used in sentence
- ✓ Semantic → what does the word mean.

These ways can be routinely and briefly accomplished, for example key words are introduced at the beginning of the lesson.

It should be widely acknowledged that from March 16, 2020 compulsory holiday has been announced for secondary school pupils because of quarantine in our country. In cooperation with the National Television and Radio Company of Uzbekistan, the filming of television lessons have begun in order to ensure a meaningful holiday for learners and the timely acquisition of knowledge set out in the curriculum. Certainly, teaching children with disabilities is also taken into account while teaching learners online.

As a result, all lessons are simultaneously translated by deaf educators and sign language interpreters to make them understandable to deaf and hard of hearing children. Blind children will be able to hear and understand television lessons aloud. Experts in the field are involved in this process.

In conclusion it should be stated that educating special children with disabilities is responsible and accountable work for the instructors. The strategies which have been demonstrated in the article can be helpful for teaching incapacitated learners successfully.

Literatures:

1. "Educating special children" Michael Farrel 2005
2. "Inclusive Special Education" Garry Hornby 2008
3. "Education of Children with Special Needs" M.L. Dhawan 2012
4. www.educatingspecialchildren .

ID-020-30-M003

Fazilat Xurramova

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Annotatsiya. Bugungi kunda yurtimizda o'zbek tilini saqlab qolish, rivojlantirish, uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'rganish samaradorligini oshirishga ko'p e'tibor, keng imkoniyatlar berilmoqda. Quyidagi maqolada o'zbek tilini o'qitishda interfaol metodlar, ona tili fanidan noan'anaviy darsni tashkil etish usullari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *interfaol metodlar, kommunikativ, krossvord, audio, esse, fikriy hujum, monitor*

Annotation. Today in our country a lot of attention is paid to the preservation of the Uzbek language in a sense, a lot of attention is paid to improving the effectiveness of the educational process. The following article discusses the organization of non-traditional teaching methods in the native language of interactive methods in teaching the O'zbek language.

Keywords: *interactive methods, communicative, krossword, audio, essay, "brainstorming", monitor*

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim-tarbiya sohasiga katta e'tibor qaratildi. Bizning milliy tilimiz hisoblangan o'zbek tilini rivojlantirish haqida qonun va qarorlar qabul qilindi. ("Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Davlat ta'lim standartlari" ning chop etilishi, "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan o'zgartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror).

Bugungi kunda o'zbek tilining rivojiga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prizdidinti SH. Mirziyoyevning 2019- yil, 21- oktabr 'Davlat tili to'g'risidagi qonun' ning (1989- yil, 21- oktabr)

30 yilligi munosabati bilan imzolagan qarori ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. 'Dunyoda qadimgi va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli. Mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir' deyiladi qarorda. Albatta o'zbek tili bizning milliy ruhimiz, ma'naviy qiyofamiz hisoblanadi. Shunday ekan, fanlar tizimida ona tili fanini o'z o'rnini yaratish va mustahkamlash har bir pedagogdan talab qilinadigan ma'sulyatli ishdir.

Ona tilimizni rivojlantirish, uni kelajak avlodga, ta'lim oluvchilarga, yanada tushunarli bo'lishida, dars jarayonlarida ta'lim oluvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanib kelinmoqda. Barcha rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabiyurtimizda ham ta'lim samaradorligini oshirishda qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar nomibilan qo'llanib kelinmoqda.

Xo'sh, interfaol metodlar o'zi nima va u qay darajada ona tili fani o'qitish tizimini yuksaltira olyapti?

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni darsga chuqurroq jalb etish, ularda kommunikativ qobiliyatni shakillantirish uchun mavzuga oid mashqlar, audio lavhalar, muammoli savollar va 'aqliy hujum' orqali o'quvchilarni mavzu yuzasidan erkin fikrlashga yo'naltiradi. Interfaol metodlarning asosiy maqsadi: ta'lim oluvchini mustaqil hayotga tayyorlash, erkin fikrlashga o'rgatishdir. Brinchi Prizdidint I. Karimov aytganlaridek: 'Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar'. O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'limning maqsadi, ta'lim oluvchilar soni, ta'lim muassasining moddiy tomoni, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining mahorati va boshqalar inobatga olinadi.

O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi: til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakasini hosil qilish,

mantiqiy, ijodiy tafakkuri rivojlantirishdan iborat. O'zbek tilini o'qitishda ta'lim mazmunini shakllantirishda ta'lim oluvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar asosiy o'rin egallaydi. Dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikka asoslanadi. Bugungi zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida 'aktyor' emas, 'rejissiyor' bo'lishi lozim. Darsni tashkillashtirishda o'quvchilar onggiga mavzu ko'proq muhrlanib qolishi uchun o'qituvchi yangi noanaviy usullardan foydalanishi mumkun. Bularga: har xil mavzuga oid slaydlar, krassvord, audio qo'llanmalarni keltirish mumkun. Hozirgi kunda eng ko'p dars jarayoni nazariya bilan emas, amaliy mashg'ulot bilan o'tilishi barchamizga ma'lum. Bu ham aslida o'qitishning bir metodi hisoblanadi. Amaliy mashg'ulot mavzusining esda qolarliligi o'qituvchi darsni qay yo'sinda tashkillashtirishiga bog'liq. Umuman olganda amaliy mashg'ulotni talabning o'ziga qo'yib berish lozim. Yuqorida aytilganidek 'rejissiyor'dars jarayonini va talabalar faolligini faqat kuzatib, baholab turishi kerak. O'quvchilarga amaliy darsning birinchi qismida mavzugaoid krassvord beriladi yoki o'rtaga bitta muammoli savol qo'yiladi. O'quvchilar ikki guruhga bo'linib bahs-munozaralar orqali fikrni bayon etib savolga javob topishlari mumkun.

Boshqa fanlar tizimida bo'lgani kabi ona tilini o'qitishda qo'llaniladigan metodlarni ham guruhlarga ajratish mumkun:

- Nazariy bilim berish ko'nikmalari
- Amaliy ko'nikma va malakalarni o'rgatish metodi
- Matn yaratishga yo'naltiruvchi metodlar

Bu borada o'qituvchi dars vaqtida o'ziga xos pedagogik qo'llanmalarni qo'llashi mumkun. Bular: ta'kidlovchi savollar, 'aqliy hujum' yoki 'fikriy hujum' (A.F. Osborn) ni keltirish mumkun 'Fikriy hujum' metodi ta'lim oluvchilar tomonidan har biri 5,6 kishidan tashkil topgan guruhlarga o'n besh daqiqa ichida ijobiy hal etishlari uchun mavzuga oid masala beriladi. Bu esa ta'lim oluvchilarning izlanuvchanlik, erkin fikr almashinuvi qobiliyatini shakllantiradi.

Dars jarayonida o'qituvchi ta'lim oluvchilar uchun mayoq bo'lib xizmat qiladi. Fan yo'llarining har bir sarhadini ko'zdan kechirib o'rganish uchun o'qituvchi, avvalo, faol va kuchli 'mayoq', eng asosiysi ta'lim oluvchini darsdan zeriktirib, bezdirib qo'yimasligi lozim. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan texnologiyalar asrining yoshlari ham, albatta, eskilikdan qochib, yangilikka intiluvchan. Shunday ekan, dars jarayonida o'qituvchi ham zamon talabidan kelib chiqib ananaviylikni unutmagan holda dars o'tishi, zamonaviy pedagogik metodlarni qo'llay olishi kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyada o'qituvchi reproduktiv bilim berish jarayonida dars aniq bo'laklarga bo'linib, har bir bo'lagida talabalar bilishi shart bo'lgan natijalar ko'rsatilishi mumkun, ya'ni dars jarayoni o'quv materiallaridan kelib chiqib bo'limlarga bo'linadi va har qaysi bo'limga test savoli tuzuladi. Bu esa dars jarayonida birorta o'quvchini darsdan chetda qolib ketmasligini ta'minlaydi. Yana o'quv muassasasining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda darslarda monitor bilan ishlash, eshitib topish, audio tinglash kabi texnologik metodlarni qo'llash mumkun.

Ta'lim muassasalaridagi ona tili mashg'ulotlaridagi asosiy e'tibor o'quvchilardagi ijodiy fikr mahsulini mustaqil va izchil bayon etishga, so'z boyligini oshirish, matn yaratish ko'nikmalarining shakllantirilishiga qaratilishi lozim. O'qituvchi ta'lim oluvchilarni bilim ko'nikmalarini oshirish bilan birga fanning bugungi kundagi dolzarb masalalariga e'tiborini qaratishi kerak. Bugungi kunda asosiy muammolardan biri bo'layotgan imloviy jihatdan so'zlarni to'g'ri yozilishi, chetdan o'zlashgan so'zlarining muqobilini topish masalasini talabalar o'qituvchi hamkorligida yechimni izlash, birgalikda hal qilishi mumkun.

Ta'lim oluvchilar bo'lajak mutaxassis umuman olganda kelajakda o'z tilida bexato yoza oladigan shaxs sifatida ona tilini qaysi bo'limlarini mukammal chuqurroq bilishi kerak? Buning uchun talaba olayotgan bilimni 100% deb belgilasak

60% - orfografiya

20% - orfoepiya

20% - leksikalogiya va boshqa bo'limlar tashkil qiladi

To'g'ri talaba uchun har bir bo'limi muhim sanaladi. Ammo foizlar zamon talabidan kelib chiqib, mavjud muammolarni hisobga olib belgilanadi. O'qituvchining dars jarayonidan maqsadi: talabalarning fanni chuqur o'zlashtirishi va uni amaliyotga to'liq tadbiq eta olishidir. Buni amalga oshirish uchun esa o'qitish metodlarini qo'llaydi. Dars jarayonining noanaviy shakllantirilishi mavzuning o'quvchilarga tez tushunish va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. O'qitish davomiyligi uchta muhim tarkibiy qism asosida amalga oshirilishi mumkun

1. Amaliy dars jarayonlarida talabalar ishtiroki o'qituvchiga qaraganda ko'proq bo'lishi (amaliy darsni o'qituvchi emas, talaba tashkillashtirishi mumkun)
2. Egallanga nazariy bilimlardan amaliy ko'nikma hosil qilish (ko'proq mashq bajarish va eshitib o'rganish orqali)
3. Talabalar o'rganayotgan har bir mavzusidan ijodiy tafakkurni oshirish (mavzu yuzasida o'z fikrini bildirib esse, kichik maqolacha bilan yoritishi mumkun).

O'tilgan mavzularni mustahkamlanishi uchun mavzuni tarixiy, ilmiy, badiiy, she'riy asarlar asosida tahlil qilish mumkun. Bu ham talabaning kengroq fikrlashi, ko'pgina asarlar bilan tanishishga yordam beradi. Masalan: gapning ma'no ko'chish usullarri mavzusida Bobur, Navoiy, Muqumiy ijodidan namunalar keltirib tahlil qilish mumkun.

Quyosh aksimudir hayvon suyida yo ko'runmishdir

Ravonosomay ichra soqiyi gulchehra ruxsori. (A.Navoiy)

Ushbu g'azalda gulchehra so'zi senekdoxa usulida ma'no ko'chgan

Ona tili fani har bir o'quv muassasasida o'qitilishi inobatga olinsa, albatta, o'qitish metodlari ham yosh jihatidan farqlanadi. Axir, maktab o'quvchisi bilan oliygoh talabasiga bir xil ko'nikma shakllanmagan. Yosh jihatidan olib qaraydigan bo'lsak maktab o'quvchilarining psixologiyasidan kelib chiqib dars o'tish maqbul yo'ldir. O'tilgan mavzu bo'yicha savol-javob

qilinar ekan, to'g'ri javob bergan har bir o'quvchini rag'bat kartichkasi bilan rag'batlantirish mumkin. Ana shunda bolalarda darsga bo'lgan qiziqish yana ham ortadi. Bu metodni hatto psixologlar ham dasrda qo'llash foyda berishini ta'kidlashgan. O'sib kelayotgan o'smir psixologiyasida har doim birinchi bo'lish, ko'proq rag'bat olish istagi ustun bo'ladi. Yoki darsda musiqa qo'yib eshittirish, kuyning so'zlari o'rqali gapning ega kesimini topish yoxud mavzuga oid topishmoq kabi 'aqliy hujum' metodlarini qo'llash mumkin.

O'quvchi kelajakda qanday kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar ona tilida ravon gapiradigan, xatosiz yozadigan bo'lishi kerak. Bu esa o'quvchiga ta'lim berayotgan pedagog ma'suliyatini talab etadi. Avvalo, o'quvchilarni imloviy xatosiz, orfografik tamoyil asosida bilimni shakllantirish uchun nashrdan chiqayotgan ona tili dasrliklariga e'tibor qaratish lozim. Darslikni o'zbek tili lug'atidan har mavzudan so'ng kamida 10 ta so'z yodlash uchun yoziladi va ularning izohi beriladi. Bu ham, albatta, o'quvchilar savodxonligiga xizmat qiladi. 5- sinfdan 11- sinfgacha ona tili o'tiladi. Har bir darsda taxminan 25- 30 ta mavzu bo'lishini inobatga olsak, har bir mavzudan keyingi imloviy so'zlarni yod olgan o'quvchi kamida 170- 210 ta so'zni xatosiz yoza oladigan bo'ladi.

Bugungi kunda berilayotgan ta'lim, ona tili darslari milliy ananalarimizga sodiq qolgan holda zamonaviy uslubda o'tilishi darkor. Buni bugungi zamon taqazo etadi. Dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars turlarini qo'llash ta'lim oluvchilarni ta'lim jarayonidagi o'rni, ta'limga yangicha munosabatini taminlash demakdir. Ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan bir necha dars o'tish metodlari mavjud bular:

- Musobaqali darslar (bunda talaba muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana olish, tez va aniqlikni o'rganadi)
- Muammoli savol dars – bunda talaba izlanish, tadqiqot qilish va mustaqil fikrlashni o'rganadi

- ‘Mualliflik’ (ya’ni amaliy mashg’ulotda o’qituvchi emas, mavzuga tayyor talaba ustoz rolini bajaradi) – bunda talabalar darsga mas’uliyat va pedagogik ko’nikmaga ega bo’ladi.

Yuqorida sanab o’tilganlar ham noananaviy turdagi darsga kiradi. Ta’lim oluvchilarning ona tili sirlarini yanada ochish va erkin fikrlash ko’nikmasini shakllantiradi.

Ona tili darslarining oldiga qo’ygan vazifasi qachonki samarador usullar bilan ta’lim oluvchiga tushuntirilsa, shundagina kutilgan natijalarga erishish mumkun. Ona tili fanidan har bir bo’lim, har bir kursning o’zining o’rganish metodi mavjud. Masalan: Fonetika bo’limini olaylik. Fonetikada asosan nutq tovushlari, ularning paydo bo’lishida ishtirok etadigan nutq a’zolari, hosil bo’lish o’rni usuli kabi mavzularda bahs yuritiladi. Shunday ekan, ta’lim oluvchilarni ushbu bo’limda ko’proq talaffuz bilan ishlash, alifbodagi harflar ustida ishlash, undosh va unlilar o’rtasidagi farqni o’rgatishda interfaol metod turlarining grafik organayzerlaridan foydalanish mumkun. Bularga: ‘Baliq skleti’, ‘Jadvalli topishmoq’, ‘T- jadval’ kabilar kiradi.

Masalan: Keltirilgan so’zlardan undoshlarning hosil bo’lish usuliga ko’ra farqlovchi va birlashtiruvchi belgilarini jadvalga yozing. So’zlarda qatnashgan unlilarning og’iz ochilish darajasiga ko’ra farqli va birlashtiruvchi belgilari bilan jadvalni to’ldiring.

Bunday hollarda interfaol usullarning qo’llanilishi yuqorida aytib o’tganimizdek talabalarning darsni o’zlashtirish salohiyatini oshiradi.

Ta’limda zamonaviy innavatsion texnologik metodlarni qo’llash dars samaradorligini oshirib, ta’lim oluvchilarni bilimlarni mustaqil egallashga undaydi. Bunday metodlarga muvofiq o’quvchi darslik materiallarini tayyor holda o’zlashtirmay, izlanadi, ijodiy faoliyatini ko’rsatadi. O’zi orqali bajarilgan topshiriq tez xotiraga muhrlanadi, o’tilgan mavzuni yodda tutish imkonini beradi.

Yaponlarda shunday maqol bor: ‘Hamma narsa unutilganda ham talim esda qoladi’. Shiddat bilan rivojlanib ketayotgan asrdan bir qadam ham ortta

qolmaslik, kelajak avlodga mukammal bilim berish, ularni salohiyatli kadr bo'lib yetishishida har bir pedagogning o'rnini bor. Ona tilimizni ham yuksaltirishda, fanlar tizimidagi o'rnini mustahkamlashda biz yoshlardan tinmay o'rganib, fanning yangi qirralarini kashf etish talab etiladigan mas'uliyatli vazifadir. Bizning iftixorimiz, milliyligimiz ramzi bo'lgan tilimizni yosh avlodga o'rgatish, g'ubor yetkazmay mukammal yetkazish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. To'xliyev. M. SHamsiyeva. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti – T: 2006
2. Barkamol avlod orzusi – T: 2000
3. Interfaol metodlar va ularning tavsifi. Arxiv .uz internet ma'lumoti
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch – T: 2008
5. Ta'limda innavatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish haqida. Baxtiyor.uz internet ma'lumoti

ID-020-30-M004

Husnora Baxtiyorova

O'zbek va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

BOSH HARFLAR IMLOSINI O'QITISHDA TAHRIRLASH USULIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada bosh harflar imlosiga doir ko'nikmalarni maktab yoshidan singdirib borishimiz lozimligi, xususan bir mavzu doirasida chekalanib qolmay, har bir mavzu, har bir fan nuqtayi nazaridan o'quvchining imloviy xatolari o'qituvchi nazoratida o'rganib borilishi kerakligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'quvchiga qoidani yodlatib, mashq bajartirish emas, balki ko'rish hamda uning to'g'ri variantini o'quvchining o'zi yaratishiga erishish eng samarali usul deb topilgan. Shu asosida savol va topshiriqlar berilgan. Tavsiya etilgan savol va topshiriqlarning mazmun-mohiyati, o'quvchining imlo savodxonligiga ta'siri hamda yozma nutqning rivojlantirishdagi ahamiyatli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *bosh harflar imlosi, eshitib tushunish, mantiqiy fikr, tafakkur, tasniflash, izchil yondashuv.*

Annotation. The spelling of the capital letters in the article is accepted through the study of the final points, one has to understand a specific topic, each topic, the ability to draw attention from the point of view of each subject improves the control of the learner. Experience does not have to be done by memorizing the rule of thumb, but at the same time, it helps to improve the quality of work and skills. On this basis, questions and assignments are given. The essence of the content of the questions and assignments on the recommendation will be disclosed to the parties who will contribute to the good growth and development in the affected area of spelling literacy.

Keywords. *capital spelling, meeting concept, logical thinking, thinking, classification, consistent approach.*

Bilamizki, yozma savodxonlik masalasi uzoq yillik tarixga ega bo'lib, ("Ustodi avval" (Saidrasul Saidazizov. Toshkent – 1900, 1902), "Adibi avval" (Munavvarqori Abdurashidxonov. Toshkent – 1907), "Adibi soniy" (Munavvarqori Abdurashidxonov. Toshkent – 1907), "Kitob ul – atfol" – "Bolalar uchun kitob" (Mahmudxo'ja Behbudiy. Samarqand – 1908, 1914), "Birinchi muallim" (Abdulla Avloniy. Toshkent – 1911), "Ikkinchi muallim" (Abdulla Avloniy. Toshkent – 1912), "Turkcha qoida" (Fahriddinov Muhammadamin. Toshkent – 1913), "Savod" (Xevalik muallim Muhtor Bakr. Qozon – 1913), "Ta'limi avval" (Rustambek Yusuf o'g'li. Toshkent – 1912, 1914), "Turkiy alifbe" (Muhammadxon Abdulholiq o'g'li. Qo'qon – 1916), "Rahbari soniy" (Abdullaxo'ja Saidmuhammadxo'jayev, 1916), "Birinchi yil" (Saidrizo Alizoda. Samarqand – 1917), "Rahbari avval" (Fahriddinov Muhammadamin. Toshkent – 1917) kabi kitoblar shular jumlasidandir. Bunday kitoblarda yozuvni isloh qilish masalalarini ko'rish maqsad qilinmagan bo'lsa-da, ularni (kitoblarni) yaratish, shular asosida savod chiqarish, to'g'ri yozish va to'g'ri o'qish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida imlo qoidalarini mukammallashtirish, alifboni o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirish, tinish belgilari tizimini va qoidalarini shakllantirish zarurati borligi sezila borgan [1; 6-b.]. Bugungi kunda ham savodxonlik har bir fuqaro, har bir pedagog, har bir ziyoli insonning madaniyatlilik belgilaridan biridir.

Yozma nutqning shakllanishi inson fikrlashining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu nutq orqali og'zaki nutqimizni ham rivojlantira boramiz. Imlo savodxonligi orqali yozma nutqimizni baholaymiz. "O'zbek tilining imlo qoidalari" kitobida yozma nutqimizning ma'lum tartib-qoidalari berilgan. Ammo yozma savodxonligimizda ko'plab xato va kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin.

Darsni tashkil etish va o'qitish bola psixologiyasi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, o'quvchining yoshi va shaxsiy xususiyatlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning darsga tayyorlanish jarayonidagi holatlarini e'tiborga olib darsni boshlashi zarur. Bunday vaziyatda o'quvchining darsga diqqatini jalb etish, e'tibor markaziga mavzuga oid tushuncha hosil qilish, tafakkur ko'lamini kengaytiruvchi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Bosh harflar imlosiga doir mavzular akademik litsey darsligida hamda 6-sinf "Atoqli otlar" mavzusida qisman berib o'tilgan. Bolada bosh harflar imlosiga doir ko'nikmalarni maktab yoshidan singdirib borishimiz lozim. Xususan, u aynan bir

mavzu doirasida cheklanib qolmay, har bir mavzu, har bir fan nuqtayi nazaridan o'qituvchi nazoratida o'rganib borishi lozim.

O'quvchining diqqatini jamlash maqsadida har bir mavzuni boshlashdan oldin “**Aqliy hujum**” metodidan foydalanib, og'zaki tarzda noodatiy savol va topshiriqlar berib borishimiz samarali usul. Beradigan savol va topshiriqlarimizni “O'zbek tilining imlo qoidalarini”dagi kitobdan har bir mavzuga moslab tuzib chiqsak, imlo savodxonligimizni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, atoqli otlar mavzusini boshlashdan oldin o'quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilamiz:

✓ **Savol: Diqqat qiling! Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning imlosidagi farqni izohlang.**

1. **Go'zal** opasi bilan kutubxonaga bordi.
2. Uning qarshisidan **go'zal** qiz shoshib o'tib ketdi.
3. **Yakshanba** kuni negadir mashinalar qatnovi kamayadi.
4. Dadam bilan **yakshanba** kuni toqqa chiqamiz.

Bu topshiriq orqali o'quvchiga Atoqli otlar va so'z boshida kelgan har qanday so'z bosh harf bilan yozilishi kerakligini tushuntirish maqsad qilingan.

“O'zbek tilining imlo lug'ati” [2; 21-23-b.]da “Bosh harflar imlosi”si uchun alohida qonun-qoidalar kiritilgan bo'lib, unga ko'ra quyidagi holatlarda bosh harflardan foydalanishimiz kerakligi aytib o'tilgan:

1. Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi.
2. Yulduz va sayyoralar, boshqa xil osmon jismlarining atoqli oti bosh harf bilan yoziladi.
3. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi.
4. Madaniy-maishiy va savdo korxonalariga, adabiyot va san'at asarlariga, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlariga, transport vositalari, sport inshootlariga qo'yilgan nomlar bosh harf bilan boshlanadi.
5. Muhim tarixiy sana va bayramlarning nomlari tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlanadi.
6. Davlatlarning, davlat oliy tashkilotlari va mansablarining, xalqaro tashkilotlarning nomidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi. Davlatlarning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan boshlanadi.

Bu va boshqa holatlarda biz soʻzlarni bosh harf bilan boshlaymiz. Bu holat faqat yozma nutqimiz uchun xos boʻlib, yozma nutqimizda qoʻllaniladigan barcha yoʻnalishlarda ahamiyatlidir.

Kishilar oʻrtasida yoʻl qoʻyiladigan xatolarning koʻpchiligi ham aynan imlo xatolar bilan bogʻliq. Masalan, biz kuzatuvimiz davomida maktab yoshidagi bolalarning ona tili, adabiyot, tarix, geografiya kabi fan daftarlarining muqovasini tekshirib chiqdik. Ularning koʻpchiligida bosh harflar imlosi bilan bogʻliq xatolar kuzatildi. Oʻquvchilar, eng avvalo, daftar muqovasida yozilishi kerak boʻlgan maʼlumotni yozishda xatoga yoʻl qoʻyishadi. Yaʼni, fan, fakultet nomini kichik harf bilan yozish hollari koʻp uchraydi. Shuningdek, 5-6 sinflar orasida **o, u, s, z, oʻ** harflarini qoʻllash bilan bogʻliq xatolik ham kuzatiladi. Ular bu harflarni yozuvda katta va kichik koʻrinishlarini soʻz oʻrtasida (koʻpincha ikkinchi harf boʻlib kelganda) bir xil usulda qoʻllab yozganlar: “Doston” soʻzini “DOston”, “Zumrad” soʻzini “ZUmrاد”. Bu holat toʻgʻridan toʻgʻri husnixat bilan bogʻliq hodisa boʻlib, uni vaqtida toʻgʻirlamasak, bosh harfalar imlosi bilan bogʻliq xatolarni yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

Bundan tashqari, nazorat diktantlari, insho, bayon yozganlarida ham bosh harflar imlosiga doir kamchiliklarga guvoh boʻlamiz. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun oʻquvchilar bilan bosh harfalar imlosiga doir topshiriqlarni boshqa mavzular doirasida integratsiya orqali bogʻlab, ishlab chiqishimiz kerak, degan xulosaga keldik. Chunki aynan bosh harflar imlosiga doir mavzu akademik letsiy darsligida va 6-sinf darsligining atoqli otlar mavzusida qisman berilgan.

Shu jarayonlarni inobatga olib, oʻquvchilarga har bir boʻlim yakunida boʻladigan mustahkamlash darslari va nazorat darslarida quyidagi topshiriqni qoʻllashlarini tavsiya etaman:

Bu jarayon ikki bosqichdan iborat boʻlib, audiomatn orqali ikkita topshiriq uzviylikni uzmaganda holda ketma-ketlikda olinadi. Oʻquvchiga audiomatn qoʻlyozmasi har bir topshiriq oldidan tarqatma shaklda beriladi

➤ **Topshiriq.** *“Ahmad al-Fargʻoniy” haqidagi quyidagi audiomatnni diqqat bilan tinglang. Matn ohangiga eʼtibor bering. Matnda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini oʻz oʻrniga qoʻying.*

Audiomatn:

Ahmad al-Fargʻoniy

Ahmad al-Fargʻoniyning toʻliq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Kasir al-Fargʻoniydir u VIII asr oxirlarida Qubo hozirgi Quva shahrida dunyoga keladi quva shahri oʻsha davrning madaniy-ilmiiy markazlaridan boʻlgan 20 yoshgacha Quva shahrida yashab shu yerda taʻlim oladi uning nomi oʻsha davrlardayoq keng tarqalib Marv shahriga taklif etiladi Ahmad al-Fargʻoniy nomi koʻp oʻtmay shunchalik eʻtibor qozondiki 30-35 yoshlarida uni Tinchlik shahri deb atalgan Bogʻdodga Bilim uyi yaʻni Xizonat al-hikma yoki Bayt ul- hikmat ga taklif etishadi uning koʻpchilik asarlari Maʻmun huzurida yashagan davrida yaratildi uning mashhur Kitob javome ilm an-nujum val-harakat as-samoviya Astronomiya va sayyoralar harakati kitobi ham oʻsha davrda yaratildi olimning asarlari XII asrdayoq Italiya, Fransiya hamda Germaniya universitetlarida oʻqitila boshlandi bu davrda uning mashhur asarlari lotin tiliga Yaʻqub Onadoʻliy tominidan ibroniy tiliga oʻgʻiriladi Ahmad al-Fargʻoniy Oʻvroʻpada Alfraganus nomi bilan mashhur boʻldi uning qoʻlyozmalari dunyo boʻyicha tarqalgandir Amerikaning Priston universiteti Sankt-Peterburg Qohira Parij Mexiko va Hindistonda olimning qoʻlyozmalari mavjudligi roʻyxatga olingan al-Fargʻoniy kabi buyuk bobokalonlarimizning nomlarini va asarlarini tiklashimiz milliy qadryatlarimizni anglashda oʻzligimizni idrok etishimizda ibratli saboq boʻladi.

Bu topshiriqni Toshkent shahrida joylashgan maktab oʻquvchilaridan oldik. Oʻquvchilarga audiomatn ikki marta eshittirildi. Audiomatn uchun 5 daqiqa vaqt yetarli boʻldi. Audiomatnning tinglagan oʻquvchi matn ohangiga eʻtibor qaratib, tinish belgilarini oʻz oʻrniga qoʻygan. Ammo ularning koʻpchiligi bosh harflar imlosiga eʻtibor qaratmagan. Yaʻni gapning tugal qismiga nuqta qoʻygan, lekin keyingi gapning boshlanish belgisiga eʻtibor qaratmagan: *Ahmad al-Fargʻoniyning toʻliq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Kasir al-Fargʻoniydir. u VIII asr oxirlarida Qubo hozirgi Quva shahrida dunyoga keladi*

Biz aynan ularning bosh harflar imlosini tekshirish maqsadida topshiriqning shartini chalgʻituvchi usulda: *“Matnda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini oʻz oʻrniga qoʻying”*, deb bergandik.

Topshiriqni ikkinchi shaklida oʻquvchilarga ushbu matnning xato shaklida taqdim etdik. Yaʻni unda barcha soʻzlarni kichik harflar bilan yozib, oʻquvchilardan imloga doir xatolarni topishini soʻradik. Oʻquvchilar matn bilan tanish ekanliklari inobatga olinib, audiomatn bir marta eshittirildi.

➤ **Topshiriq.** *“Ahmad al-Farg‘oniy” haqidagi quyidagi audiomatnni diqqat bilan tinglang. Matn ohangiga e‘tibor bering. Ushbu matndan imloga doir xatolarni aniqlang hamda ularning to‘g‘ri variantini yozing.*

Audiomatn: Ahmad al-Farg‘oniy

Ahmad al-farg‘oniyning to‘liq ismi abul abbos ahmad ibn muhammad ibn muhammad ibn kasir al-farg‘oniydir. u VIII asr oxirlarida qubo (hozirgi quva) shahrida dunyoga keladi. quva shahri o‘sha davrning madaniy-ilmiiy markazlaridan bo‘lgan. 20 yoshgacha quva shahrida yashab, shu yerda ta‘lim oladi.

Aning nomi o‘sha davrlardayoq keng tarqalib, marv shahriga taklif etiladi. ahmad al-farg‘oniy nomi ko‘p o‘tmay shunchalik e‘tibor qozondiki, 30-35 yoshlarida uni “tinchlik shahri” deb atalgan bog‘dodga “bilim uyi”, ya‘ni xizonat al-hikma” yoki “ bayt ul- hikmat” ga taklif etishadi. Uning ko‘pchilik asarlari ma‘mun huzurida yashagan davrida yaratildi. Uning mashhur “kitob javome ilm an-nujum val-harakat as-samoviya” (“astronomiya va sayyoralar harakati”) kitobi ham o‘sha davrda yaratildi. olimning asarlari XII asrdayoq italiya, fransiya hamda germaniya universitetlarida o‘qitila boshlandi. bu davrda uning mashhur asarlari lotin tiliga, ya‘qub onado‘liy tominidan ibroniy tiliga o‘g‘iriladi. ahmad al-farg‘oniy o‘vro‘pada alfraganus nomi bilan mashhur bo‘ldi. uning qo‘lyozmalari dunyo bo‘yicha tarqalgandir. amerikaning priston universiteti, sankt-peterburg, qohira, parij, mexiko va hindistonda olimning qo‘lyozmalari mavjudligi ro‘yxatga olingan.

Al-farg‘oniy kabi buyuk bobokalonlarimizning nomlarini va asarlarini tiklashimiz milliy qadryatlarimizni anglashda, o‘zligimizni idrok etishimizda ibratli saboq bo‘ladi.

Bu topshiriqni bajarishda o‘quvchining eshitib tushunish, eslab qolish xotirasi sinovdan o‘tkaziladi. O‘quvchi birinchi topshiriq davomida matn hama tinish belgilari ustida ishlaydi, keyingi bosqich davomida ko‘z xotirasida saqlagan matnni eshitish orqali yodga oladi va imloviy savodxonligini ishga solib topshiriqni bajaradi. Bu topshirqni bajarishga **45** daqiqa yetarli.

T/r	Audiomatnni tinglash	Topshiriqni bajarish
1-topshiriq	5 daqiqa (2 marta)	15 daqiqa
2-topshiriq	2 daqiqa (1 marta)	18 daqiqa
Darsning tashkiliy qismi uchun: 5 daqiqa		

E'tibor qaratgan bo'lsangiz, imlo xatolarining barchasi bosh harflar imlosi bilan bog'liq. Bu topshiriq natijalarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilarga bosh harflar imlosiga doir ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, bosh harflar imlosi bo'ladimi yoki boshqa grammatik hodisalarni o'rganishmi, dastlab qoida yodlatiladi, keyin mashq bajartiriladi. Bu mutlaqo noto'g'ri yondashuv. Yuqoridagi kabi *tahrirlash* usulini qo'llab, ya'ni real vaziyatdagi xatolarni ko'zi bilan ko'rish hamda uning to'g'ri variantini o'quvchining o'zi yaratishiga erishish eng to'g'ri yondashuvdir.

Xulosa o'rnida M.Mirtojiyevning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Tilshunoslar metodikani, metodistlar til qonuniyatlarini bilmaydi. Shunisi yomon. Masalan, qoidani yodlatish kerak emas, nutq qaysi qonuniyat doirasida ketayotganini anglatish zarur. Darsliklarda qoida o'qitilib, ortidan misol berib ketilaveradi. Bu – noto'g'ri. Misoldan qonuniyat yaratish kerak. Darsliklarda bu hisobga olinmaydi. Bolaning o'zi bajarib ko'rishi, o'zi misoldan qoidani chiqarishi kerak" [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamolxonov H., Sapayev Q. Imlo muammolari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007.
2. Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev. O'zbek tilining imlo lug'ati. – T.:O'qituvchi, 2003. – 240 b.
3. <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ona-tili/davr-va-ona-tili-talimi-muammolari-davra-suhbati.html>

ID-020-30-M005

Jamshidbek Xojiyev

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi

LISONIY MEROS – O'ZBEK TILI TARAQQIYOTINING POYDEVORI

Annotatsiya. Mazkur maqola o'zbek tili izohli lug'atining amaliyotda qo'llanilishi muammolariga qaratilgan bo'lib, ana shu muammolarni bartaraf etish yo'llari hamda uning asosiy xususiyatlari ochib berilgan. Lug'atlar orqali ana shu jarayonga yanada aniq oydinlik kiritish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *o'zbek tilining izohli lug'ati, so'zning ma'no tomoni, sinonimlar lug'ati, omonimlar lug'ati, ularning amaldagi o'rni va ahamiyati*

Annotation. This article takes into consideration for difficulties of application of the Uzbek explanatory dictionary and issues related to this complication are depicted in this article. The necessity of process with working dictionary is emphasized.

Keywords: *The Uzbek explanatory dictionary, semantic theory of word, the dictionary of synonyms, homonyms, their role and importance in the sentences.*

Til inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir inson o'zining tilidan foydalanib, jamiyat bilan muloqot qiladi, o'z fikr-mulohazalarini tinglovchiga bayon qiladi. Biz uchun o'zbek tili ana shunday imkoniyat beruvchi ona tilidir. Darvoqe, ona tilimizning boyligi-yu qudratini, g'o'zalligi-yu nafosatini, hayotimizda tutgan o'rni-yu va salohiyatini kim ham bilmaydi?!

O'zbek tilining boy til ekanligiga XV asrda yashab ijod qilgan ulug' mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy(o'z asarlarida 26 mingdan ortiq so'z qo'llagan)ning ilmiy va badiiy merosi ham dalolatdir. Turkiy til qudratini dunyoga yoygan bobomiz Alisher Navoiy o'zining ikki til muhokamasiga

bag'ishlangan "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida juda ko'plab turkiy so'zlarning keng imkoniyatlarini ochib, ma'nosi va mazmunini hamda samarali foydalanish o'rinlarini asoslab berdi. Asrlar davomida til jamiyat taraqqiyoti natijasida boyib, sayqal topib kelgan. Til taraqqiyotida buyuk mutafakkirlarimiz, so'z san'atkorlarining lisoniy merosi va so'z qo'llash mahorati muhim omillardan sanaladi. Til hamisha so'z bilan tirikdir. So'z jamiki insoniyatning voqelikni idrok qilish va bayon qilish vositasidir.

Tilning barcha imkoniyatlari so'z va uning ma'nolari orqali borlig'icha namoyon bo'lishi e'tiborga olinsa, til jamiyatining bugungi vakillari, xususan, yosh avlod til imkoniyatlarini qay darajada o'zlashtirishi; so'zni, uning ma'no tomoni va ularning nozik tovlanishlarini qay darajada idrok etishi, his qilishi birlamchi dolzarb masala sifatida qayd qilinishi tabiiy.

Ma'lumki, umumta'lim maktablari va akademik litseylarda ona tili fanini o'qitish faqatgina grammatik qonun-qoidalarga asoslanadi. Fikrimizcha, ona tilining ulug'vorligi, qudrati va jozibasini faqat nazariy bilimlarni o'rganish orqali his qilish juda ham mushkuldir. Binobarin, 10-, 11-sinflar Ona tili darsliklarida so'zlarning ma'nosi izohlanganligini ko'ramiz. Ammo bu ma'lumotlar, izoh va manbalar yetarli darajada emas. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 85 000 dan ortiq so'z jamlanganligining o'zi ham ona tilimizning nihoyatda boy til maqomida ekanligini ko'rsatib turibdi.

Tilimiz lug'at boyligi rang-barang so'z va ifodalarga to'la, turli ma'no va ularning nozik tovlanishlari beqiyos va betakrordir. Faqat ularni o'rganish, his qilish, maqsadli va samarali foydalana olish talab etiladi, xolos. Ana shunday so'zlar miqdori va turli munosabatli ko'rinishlarini istagancha kuzatishimiz mumkin. Xususan, nutq ta'sirchanligini ta'minlash, go'zal ifoda yaratish, nutqni chiroyli tuzish va uni ifoda etish kabilarga xizmat qiluvchi so'z va uning ma'nolariga diqqat qaratamiz. Masalan:

Boshliq I – 1 Idora, muassasa, tashkilotlarga rahbarlik qiluvchi shaxs.
Boshliq bo'lish oson, boshlamoq qiyin.

2 Umuman, boshchilik, rahbarlik qiluvchi; rahnamo.

Boshliq II – 1 Ba’zi Sharq xalqlarining sovuq, qor-yomg’ir va oftobdan saqlanish uchun boshga kiyadigan jun yopinchi*g*’i.

2. Oyoq kiyimining yuzi va yonini qoplab turadigan qismi va shu qism uchun bichilgan teri.

Boshliq III - 1 Yuganning yuqori qismi.

2 Mokining ichida uning ikki qovurg’asini birlashtirib turgan ikkita temir qism.

Ananas I - 1 Ananasdoshlar oilasiga mansub o’tlar turkumi.

2 Shu o’simliklardan ba’zisining yirik, cho’zinchoq, xushbo’y va shirali mevasi.

Ananas II – Ertapishar, to’rlama, eti va urug’i qizg’ish kuvrak va xushbo’y qovun navi.

Qirov I -Ayoqli, havo ochiq, sokin tunlarda tuproq, o’t va yerdagi narsalar ustida hosil bo’ladigan muz kristallari.

Qirov II- Yangi charxlangan pichoq, xanjar va shu kabi asboblarning betida qolgan zarralar.

Qirov III (vet.) - Mollarning tilida qipiqsimon bo’rtiqlar paydo qiladigan kasallik.

Chog’ I - Vaqt, davr, kez, kun, on.

Chog’ II- Xursand, shod, yaxshi.

Chog’ III - O’lchovi, o’lchami mo’ljaldan kichik,kichkina.

Chog’IV - Chog’ bo’lib turmoq, tayyor, shay bo’lib turmoq.

Chog’V - Kuch-quvvat, imkoniyat, istak.

E’tibor qilinsa, mazkur o’rinlarda *boshliq, ananas, qirov, chog’* so’zlari va ularning leksikografik ma’nolari qayd qilindi. Bu so’zlar bir tomondan shakldoshlik, yana bir tomondan ko’p ma’nodlilik munosabatlarida ekanligini namoyon qilgan bo’lsa, o’z qatlam so’zi yoki o’zlashganlik belgilari, qo’llanilish davri va doirasi, nutq vaziyati va maqsadi, nutq uslubi va sohaga mansublik nuqtayi nazaridan ham o’zaro farqlilik xususiyatlarini ham o’zlarida mujassamlashtirgan lisoniy hodisalardir.

Qayd qilingan ushbu soʻzlarning har biri alohida olam, har biri mustaqil va alohida, har biri betakror maʼno va vazifalarga egaki, ularni kuzatish, tahlil qilish, imkoniyat va samaradorligini aniqlash zamonaviy tilshunosligimiz, nutq madaniyatimiz, qolaversa, texnika va kompyuter tili uchun katta imkoniyat va manba sifatida xizmat qiladi.

Agar biz taʼlim tizimimizda lugʻatlar ustida ishlashni yoʻlga qoʻysak, yosh avlodning savodxonlik darajasi yanada yuqori boʻlar edi. Ona tilimizni yanada yuksaltirish va uning keng imkoniyatlarini lugʻatlarsiz tasavvur etish qiyin, mayli u qogʻoz yoki elektron shaklda boʻlsin. Yuqoridagi kabi har bir soʻzni anglash, his qilish, undan oqilona foydalana olish koʻnikma va malakalarni faqat lugʻatlar yordamida, ular ustida ishlash orqaligina taʼminlash eng qulay va yuqori samarador yoʻl, usul yoki omil hisoblanadi.

Ona tili taʼlimi jarayonini oʻquv lugʻatlari, umuman taʼlimiy lugʻatlar bilan taʼminlash, imlo lugʻati, izohli lugʻat, omonimlar lugʻati, sinonimlar lugʻati, paronimlar lugʻati, frazeologizmlar lugʻati, etimologik lugʻat kabi manba va vositalarni oʻquvchilarga qoʻllanma sifatida yetkazib bermogʻimiz shart va zarur deb hisoblayman.

Negaki hozirgi paytda yoshlarimiz oʻrtasida soʻzlarni bilib-bilmasdan qoʻllash holatlari juda koʻp uchramoqda. Aynan shu sababdan koʻcha-koʻyda istagancha uchratish mumkin boʻlib qolgan, savodsizlarcha yozilgan soʻzlarga, chet tili soʻzlariga mansub yot nomlarga chek qoʻyolmayapmiz. Men shuni faxr ila tan olamanki, ona tilimiz biz uchun har qanday tildan goʻzal, jozibador, betakror va bebaho xazina tildir. Buni faqat anglamoq va undan faxr hissini tuymoq kerak, uni muqaddas deb asramoq, sofliги va daxlsizligiga sadoqat bilan xizmat qilish kerak, ona tilimizni bilmagan tildoshlarimizga uni oʻrgatmoq, bor boʻy-bastini koʻrsatmogʻiz kerak.

Ana shu maqsadlar yoʻlida biz lugʻatlarimizni mukammal oʻrganmogʻimiz kerak, deb hisoblayman. Hukumatimiz tomonidan bizning mana shu tabarruk universitetimiz ona tilimizni yanada yuksaltirish, rivojini taʼminlash, muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, tilimizni dunyoga yoyish,

uning jozibasidan butun duyo ahlini bahramand etish kabi yuksak maqsadlar yo'lida bunyod etildi. Biz esa mazkur universitetimizning yetuk mutaxassislari, jonkuyar fidoyi ustozlarimiz ko'magida yuqoridagi ishlarni amalga oshirmog'imiz darkor.

Xulosa shuki, o'quvchida so'zga bo'lgan hisni uyg'otishda yordam beradigan, so'zning sehri va sinoatlarini o'rgatadigan lug'atlar banki ko'paytirilsa; umumta'lim maktabidan to oliy o'quv yurti bosqichi talabalari uchun alohida fan va yo'nalishlar bo'yicha lug'atlar yaratilsa, yosh avlod ona tilimizdagi so'zlarning ma'nosi, ichki tovlanishlari, jozibasini his qiladi. So'zni anglash qobiliyati shakllanib, tafakkur dunyosi boyib boradi. Bu holat yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishda, asarlarni tahlil qila olish ko'nikma va malakasini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bu tilda Navoiylar go'zal ash'orlar bitgan, bu tilda Zahiriddin Muhammad Bobur ona Vataniga o'z muhabbatini izhor etgan. Bu tilning betakrorligidan Gadoiy, Lutfiylar hayratga tushgan, Jaloliddin Manguberding yuragiga mardlik kabi tuyg'ularni alla bo'lib singdira olgan tildir. Uning jozibasidan bir paytlar butun dunyo hayratda edi. Shunday buyuk tilimizni yanada qudratli qilishimiz uchun lug'atlarni mukammal tarzda va zamonaviy talablar darajasida yaratish va undan oqilona foydalana olish, qisqa muddat ichida yangilash imkoniyatiga ega shakllarda barpo etish kabi vazifalarni jadallashtirishimiz, o'zimizning munosib hissamizni qo'shmog'imiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: Yangi avlod, 2009.
2. Каримов Б. Р., Мираъзамов К. Миллат равнақи ва тил муаммолари. – Т.: Tafakkur, 1993.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. 1–5-жилдлар. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006-2008.

ID-020-30-M006

Malika Nomozova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

O'QUVCHILARDA NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson hayotida nutqning ahamiyati, nutqning doimiy o'sib boruvchanligi, oilada, jamiyatda va ta'limda nutqning rivojlanish xususiyatlari aks etishi, ayniqsa, ona tili ta'limining jamiyat a'zolari o'rtasida bajaradigan vazifasi – o'quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlash vazifasidan kelib chiqqan holda, dars jarayonida nutqni og'zaki va yozma tarzda bayon etishga o'rgatish, o'quvchi lisonidagi so'zlardan o'rinli foydalanish, uni yuzaga chiqarish to'g'risida fikr yuritilgan. Bunday murakkab jarayonni amalga oshirishga xizmat qila oladigan, ona tili fanining adabiyot va jamiyatdagi boshqa sohalar bilan integratsiyasini hosil qilish orqali nutqni yuzaga chiqara oladigan mashq hamda topshiriqlar tavsiya etilgan. Bunda, albatta, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan.

Kalit so'zlar: *Ongli ta'limiy faoliyat, pedagogik ta'sir, nutq, kamiste'mol so'zlar, aqliy mehnat, ta'riflash, tasvirlash.*

Annotation. This article reflects the importance of speech in human life, the constant growth of speech, the developmental characteristics of speech in the family, society and education, especially the role of mother tongue education among members of society - to express schoolboys' opinions based on the task of preparing for the activity, in the course of the lesson the idea of teaching to express speech orally and in writing, the appropriate use of words in the schoolboy's language and its manifestation was considered. Exercises and assignments that can serve to accomplish such a complex process and generate speech by creating an integration of mother tongue science with literature and other areas of society are suggested. This, of course, takes into account the age of the schoolboys.

Keywords: *Conscious educational activity, pedagogical influence, speech, rarely used words, mental labor, definition, description.*

Ona tilini o'qitish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish, birinchi navbatda, ularning so'z boyligini oshirishni taqozo etadi. O'quvchilarni doimiy ravishda ular birinchi marta duch kelayotgan yangi so'zlar hamda fan-texnika taraqqiyoti natijasida tilimizga kirib kelayotgan yangi so'zlar bilan tanishtirib borish, so'zlarning yangi ma'no qirralarini, tildagi kamiste'mol so'zlarni seriste'mol so'zlarga aylantirish, adabiy til uchun zid bo'lgan so'zlarni o'quvchilar nutqidan chiqarib tashlash faqat ona tili fanining emas, balki maktabda o'qitilayotgan barcha fanlarning, shuningdek, oila va jamoatchilikning asosiy vazifasidir[1.316-bet]. A. R. Sayfullayev o'zining "Ona tili darslarida nutq o'stirish"(5-sinf materiallari asosida.Toshkent, 1997), "Ona tili darslarida nutq o'stirish" (6-sinf materiallari asosida. Toshkent, 1998), "Ona tili darslarida nutq o'stirish"(7-sinf materiallari asosida. Toshkent, 2000), "Ona tili darslarida nutq o'stirish"(8-sinf materiallari asosida. Toshkent, 2002) nomli metodik qo'llanmalarida o'quvchilarning o'g'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkurini rivojlantirishga alohida ahamiyat berib, mavzularni o'rgatish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirishning metod va usullarini keng bayon qilgan.

Har bir sinfda nutqiy kompetensiyaga ona tili darslarida o'rganiladigan jami bilim, ko'nikma va malakalarga to'la erishilganlik natijasi sifatida qaramasligi lozim: u darsdan darsga, sinfdan sinfga oz-ozdan o'rganiladigan til hodisalari vositasida hosil qilib boriladi, maktab ona tili ta'limida nihoyasiga yetmaydi. Inson o'zidagi tildan foydalanish imkoniyatlarini umr bo'yi boyitish harakatida bo'ladi. Darsda esa: "Bunda mana bularni bilmas, og'zaki va yozma nutqda xatolarga yo'l qo'yardi-yu, o'qib-o'rganish natijasida to'g'ri gapiradigan va yozadigan bo'ldi" kabi xulosalar bilan ish ko'riladi. Qoidani eslab xatoni tuzatish esa ko'nikma darajasidagi **ongli ta'limiy faoliyat** sanaladi[2. 24-bet].


So'zlovchining nutq saviyasi biror erishilgan holatda qotib turmaydi: til muhit ta'sirida rivojlanuvchan, harakatchan va pragmatikaga moyil bo'ladi. "Tayyor bilimlar, tayyor nutqiy namunalar kor qilmaydigan dori-darmonlar kabi o'quvchi nutqini o'zgartirmaydi" [2. 21-bet]. M. Yo'ldoshevaning fikricha,

dars loyihasi tuzilayotganda “zarur bo‘lgan pedagogik ta’sirni ham aks ettirish lozim” [3. 38–39-betlar]. Pedagogik ta’sir tufayli har bir dars, har bir ish turi o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi, ularni aqliy faoliyat ko‘rsatishga undashi, nutq tuzilishini o‘rganish orqali qanoat hosil qilishi kerak. Bunda 5–11-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni “tahlilga”, “o‘ylashga”, “izlanishga” undaydigan, ularda qiziqish uyg‘otadigan, ruhiy safarbarlikni yuzaga keltiradigan aqliy mehnatni talab etadigan mashqlar zarur.

“So‘z olamiga sayohat” intellektual o‘yini

Bunda so‘zlarni turli xil: *Adabiyotshunoslik, Ta’lim-tarbiya, Texnika, Siyosat, Oshpazlik, Jamiyat, Oila* va boshqa shu kabi mavzular doirasida o‘rganishni ma’qul topdik. Albatta, o‘quvchilarning qiziqishini hisobga olamiz.

Masalan:



Ushbu chizmaning bosh qismida ko'rsatilgan "ekmoq" so'zini bir necha qadamlarda "murabbo" so'ziga aylantirish talab etiladi. Bunda o'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplardan foydalanadi va oxirida bog'lanishli nutq hosil qiladi. O'qituvchi vaqtni ham hisobga olishi lozim. O'quvchi qisqa vaqt davomida ikki so'z chegarasini to'ldiradi va bu jarayonda tilning turli turkumdagi, turli vazifadagi va turli ma'nolardagi birliklariga murojaat qiladi. Bu sxema turli xil mavzularda va barcha (5–11) sinflarda qo'llashga mo'ljallangan bo'lib, natijada o'qituvchi quyidagilarni nazorat qilib boradi:

so'z(so'z birikmasi, gap) ning uslubiy jihatdan tog'ri tanlanishi va qo'llanilishi;

lisoniy boylikdagi eng maqbul (chiroyli, jozibador) birliklarning saralanishi;


birliklarning o'zaro bog'langanligi;

tezkorlik;

qadamlarning son jihatdan ko'p yoki kamligi.


Bizningcha, yuqoridagi topshiriqni, asosan, og'zaki nutqni o'stirish va tekshirishda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'quvchini "tafakkurda so'z qidirish" va uni yuzaga chiqarishga majburlash nutqning vazifasidir. Nutqni yuzaga chiqarish esa adabiyot fanidan ko'ra ko'proq ona tiliga bog'liq. O'quvchi qanchalik ko'p kitob o'qimasin yoki nazariy ma'lumotlarni bilmasin, uning nutq malakasini oshirmasak, maqsadga erisha olmaymiz. Badiiy san'at turlaridan biri bo'lgan "tashbeh"ni ona tiliga **"ta'riflash, tasvirlash"** mashqi sifatida olib kiramiz. Bunda o'qituvchi tomonidan turli so'zlar (asosan, nutqda kam ishlatilgan so'zlar) yozilgan kartochkalar tarqatiladi, masalan quyidagicha so'zlar bo'lishi mumkin: **ishbilarmon, hilm, sarob, harir, hujra, hamiyatli (oriyatli) va h.k.**



Savol: Ushbu soʻzni eshitganingizda koʻz oldingizga kim (nima) keladi va siz buni qanday tasvirlaysiz?

Oʻquvchi birinchi navbatda, bu soʻzning sinonimini topishga harakat qiladi, keyin uni taʼriflash bosqichiga oʻtadi. Bu soʻzni eshitganda uning xayolida maʼlum bir voqea-hodisa, jarayon yoki predmet gavdalanadi. Va uning atrofida shu jarayonga oid soʻzlar aylana boshlaydi.



Savol: Ushbu suratni koʻrganingizda xayolingizga nima keladi va suratni tasvirlang.

Bunda, asosan, mantiqiy, oʻquvchini oʻylantiradigan suratlardan foydalaning. Oʻquvchi ranglar, harakatlar va belgilarga ahamiyat beradi va ularning maʼno-mazmunini yoritib beruvchi soʻzlarni qoʻllashga harakat qiladi. “Tasvirlash” – bu tafakkurni ishga solishdir. Ayniqsa vizual tasvirlash oʻquvchining soʻzlar, maʼnolar va fikrlar chegarasini kengaytiradi. Shuning uchun ham bu usuldan foydalanish samarali.

Oʻquvchilar nutqini oʻstirish ishlari zoʻr tayyorgarlikni, materiallarning xilma-xil va qiziqarli boʻlishini talab etadi va asosan, dastlabki davrlarda ogʻzaki tarzda olib boriladi. Nutq oʻstirish ishlarining xilma-xil tarzda oʻtkazish oʻquvchilarning faolligini oshiradi, lugʻatini yangi-yangi soʻzlar bilan boyitadi, ularda bogʻlanishli nutq malakalarini rivojlantiradi.

“Siz shoirsiz”.Oʻqituvchi tomonidan butun guruhga ikki misra sheʼr beriladi va oʻquvchi uni boshlashi yoki davom ettirishi lozim.

Sheʼrni davom ettiring.

Hovli sahnidagi suluv rayhonlar

Shamollar uyg'onsa tebrantar mayin[7].

.....
Yoki she'rni boshlab bering.

.....
Qurtga aylanarkan bir kun kapalak,

Senga nima kerak, ayt, nima kerak[4. 232-bet].

tarzida amalga oshiriladi. Topshiriqni bajarish davomida o'quvchi misralardagi har bir so'zning ma'nosini tushunishga va unda yuzaga chiqqan fikr yoki go'yani davom ettirishga, to'ldirishga, tadrijiy rivojlantirishga, qofiyadosh so'zlarni topishga, yakuniy va qisqa xulosa chiqarishga (yoki chiqarilgan(cheklangan) xulosani mazmuniy isbotini ifodalashga) harakat qiladi. O'quvchi o'zini shoirlardek his qiladi, uning o'rnida bo'lganda bu misralarga qanday so'zlardan jilo berishi va yangicha ma'no-mazmun kashf etishi mumkinligini o'ylaydi. Va bu har bir o'quvchining individual uslubini yaratish, mustaqil fikrlash, go'zal tasviriy vositalardan o'rinli foydalanish, "eng nozik" ifoda yaratish, (tarqoq yoki betartib) fikrlarni "bir tizimga terish" ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bu, albatta, o'quvchida improvizatsiya(ijodiy fantaziya) hosil qilishga va ijodiy fikrlashga undaydi. Topshiriqning yakuniy qismida o'qituvchi tomonidan she'rning asl varianti o'qib beriladi va o'quvchilarning yaratgan she'rlari asl variantga qanchalik yaqin yoki uzoqligi, shoir mantig'iga mos kelish-kelmasligi, so'zlardan o'rinli foydalanganligi, qay birida ma'no ifodalash uslubi ixcham va ta'sirchan ekanligi solishtiriladi. Va nihoyat sinfda kim shoir-u, kim esa shoir emasligi aniqlanadi. Bu orqali o'qituvchi o'quvchining so'z boyligini, uning nutqini yuzaga chiqara olganligini, og'zaki va yozma nutq rivojlanishining qay darajisida ekanligini aniqlab boradi.

"O'quvchining nutqini o'stirish murakkab jarayon bo'lib, unda barcha imkoniyatlar to'laligicha ishga solinsa, fikrni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish osonlashadi. Natijada o'quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo'l ochiladi"[6].

Xullas, ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilar nutqini rivojlantirish, birinchi navbatda ularning so'z boyligini oshirish, bog'lanishli nutq hosil qilish va uni yuzaga chiqarishni taqozo etadi. Bunda o'g'zaki va yozma nutq ko'nikmasini hosil qiluvchi, rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlarning ahamiyati kattadir. Zero, og'zaki va yozma jihatdan to'g'ri va ravon nutq egasi – davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. G'ulomov, M. Qodirov, M. Ernazarova. A. Bobomurodova, N. Alavutdinova, V. Karimjonova. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent. 2012 .
2. R. A.Yo'ldoshev, L. R. Mirjalolova. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. – T.: 2009.
3. M. Yo'ldosheva. Ona tili darslarining pedagogik asoslari va yangi pedagogik texnologiyalar// O'zbek tili ta'limida pedagogik texnologiyalarning o'rni: "O'zbek tili" doimiy anjumani o'n birinchi yig'ini materiallari. – Toshkent: RTM, 2011.
4. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko'rmasam bo'lmas. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
5. A. R. Sayfullayev . Ona tili darslarida nutq o'stirish (5-sinf materiallari asosida) – Toshkent 1997; Ona tili darslarida nutq o'stirish (6-sinf materiallari asosida) – Toshkent, 1998; Ona tili darslarida nutq o'stirish (7-sinf materiallari asosida) – Toshkent, 2000; Ona tili darslarida nutq o'stirish (8-sinf materiallari asosida) – Toshkent, 2002.
6. ziyonet.uz
7. <https://gulxan.uz>

ID-020-30-M007

Mohigul Esonova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs magistranti

5-SINF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI BAHOLASHDA E'TIBOR QARATISH LOZIM BO'LGAN JIHATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada 5-sinf o'quvchilaridagi lisoniy imkoniyatlarni hisobga olgan holda yozma nutqidagi ijodiy va ilmiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan metodik tavsiyalar o'rin olgan. Berilgan tavsiyalar asosida tadqiqot ishlari o'tkazilgan va tajriba natijalari uch asosiy parametr asosida umumlashtirilgan. Bu talablar o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashiga qaratilgan. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirish uchun beriladigan topshiriqlar ham shu parametrlar asosida soddadan murakkab fikrlashga olib boradigan usulda tuzilgan. Maqolada shunday topshiriqlardan biri o'quvchilarning yozma nutqida qanday o'zgarishlarga olib kelgani tajriba tahlillar asosida isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar: *persepsiya, lisoniy malaka, nutqning mazmundorligi, lug'at boyligi, nutqning tushunarligi.*

Annotation. This article includes methodological recommendations that are related to developing creative and scientific thinking in written speech, taking into account the linguistic potential of 5th grade students. The researches were conducted on the basis of the given recommendations and the results of the experiments were summarized on the basis of three main parameters. These requirements focus on students' logical and creative thinking. The assignments that are designed to enhance students' written speech are also structured on the basis of these parameters and in a way that leads to complex thinking from simple thinking. The article shows what changes one of such assignments has been responsible for in students' written speech through experimental analysis.

Keywords: *perception, linguistic skills, content of speech, richness of vocabulary, comprehensibility of speech.*

Zamon taraqqiyotining jahon miqyosida jadallashuvi, tezkor axborot uzatish va olish zaruriyatining oshishi o'quvchilarda nutqiy kompetentlikni, ravon va aniq bo'lgan nutq malakasini o'stirishni, ulardagi ilmiy-ijodiy tafakkurni maqsadli yo'naltiruvchi topshiriqlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bunday talab asosan maktablardagi ona tili darslari zimmasiga tushadi.

Maktablarda ona tilini o'qitishda asosiy e'tibor til qoidalarini yod olish, til hodisalarini tahlil qilish kabi nazariy bilimlarni egallashga qaratilgan. Nutq madaniyati – so'z boyligi, og'zaki va yozma nutq taraqqiyoti, uslubiyat masalalari ilmiy grammatizm soyasida qolib, ularga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash odat tusiga kirdi [4. 80-bet]. Tilga doir nazariy nazariy bilimlarni egallash o'z davrida katta ahamiyat kasb etgan, ammo bu yondashuv bugungi kunning talablari uchun yetarli bo'lmay qoldi.

Bunday vaziyatda umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darslarida mustaqil fikrlash, nutqiy bilimlarni og'zaki va yozma tarzda to'g'ri ifodalash masalasi ustuvor mavqeni egallab bormoqda. Xususan, M. Rixsiyevaning "Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o'zbek tili darslarida o'quvchilarni matn tuzishga o'rgatish", H. Muhitdinovanning "Ta'lim boshqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish", N. Sattorovanning "O'quvchilarning insho yozish malakalarini shakllantirish" nomli tadqiqotlari fikrimizning isbotidir.

O'quvchilarda matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion texnologilari borasida ish olib borayotgan f.f.n dotsent T. Ziyodova ushbu yo'nalishda MYBT -4 (Matn yaratishning to'rt bosqichli texnologiyasi) ni taklif qiladi. Bu texnologiyada, o'quvchilarga shunday topshiriq yuklatiladi:

- "1-bosqich. Tayanch so'zlarni tanlash (uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli);
- 2-bosqich. So'z birikmasini hosil qilish ("Ot + ot", "olmosh + ot", "sifat + ot", "ot + fe'l");

3-bosqich. Soʻz birikmasidan gap tuzish (sodda yoyiq va sodda yigʻiq, kirish soʻz va kirish gapli, sodda va qoʻshma gaplar);

4-bosqich. Gaplardan matn yaratish (monologik, ramziy matnlar)” [7. 23 – 29-betlar].

Lekin bu usul bizningcha, xuddi shu koʻrinishdagi topshiriq sifatida oʻquvchilarga berilsa, ular uchun bu birmuncha qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. Chunki koʻrinib turganidek, bu texnologiya grammatikaga asoslanadi va oʻquvchilarning matn tuzishdagi erkinligini cheklaydi. Grammatik qoidalardagi xatoliklar oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqini tekshirishda baho tushiradigan asosiy sabab boʻlib qolmasligi kerak.

5-sinf ona tili darsligidagi mashq va topshiriqlarning oʻquvchilardagi yozma nutqni oʻstirishga qay darajada xizmat qilishini koʻrib chiqadigan boʻlsak, mashqlarning koʻpgina qismini oʻquvchilarning ijodkorligini oʻstirish uchun xizmat qiluvchi oʻtilgan mavzuga mos bayon, hikoya, kichik matn kabilarni tuzish topshiriqlari berilgan, lekin bunday topshiriqlarga Grammatik vazifa ham yuklatilgan boʻladi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligidagi “Soʻroq olmoshlari yordamida ifodalangan soʻroq gaplar” mavzusining 94-mashqida buni koʻrishimiz mumkin: “Qarisi bor uyning parisi bor” mavzusida matn tuzing. Unda soʻroq olmoshlari ishtirok etgan soʻroq gaplardan foydalaning” [5. 30-bet].

Oʻquvchilarning koʻpchiligi uyda kimningdir yordamida matn tuzishadi, undagi soʻzlarning grammatik vazifasiga eʼtibor bera olmaydi, yoki bunday qoʻshimcha topshiriq ularni chalgʻitadi. Shunday ekan, matn tuzish uchun berilgan topshiriqlarda oʻquvchilarning diqqatini bir tomonga yoʻnaltirgan mavzularga qaratish lozim, yaʼni ular uchun qiziq boʻlgan sarlavha asosida matn yaratish topshirigʻi berilishi va unda asosan, mazmunga eʼtibor qaratishlari kerakligi aytilishi lozim. Nutqni oʻstirishda ularning lisoniy malakasini va qiziqishlarini hisobga olgan holda oʻquv topshiriqlarini berib borish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchi nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida hamda ona tili darslarni samarali tashkil etish uchun an'anaviy subyekt-obyekt emas, balki subyekt-subyekt tarzi barchaga birdek manzur bo'lmoqda. Unda o'quvchi ta'lim jarayonining ishtirokchisi emas, ijrochisi, kashfiyotchisi hisoblanadi. O'qituvchi esa tushuntiruvchi, nazorat qiluvchi, baholovchigina bo'lib qolmay, balki o'quvchilarni mavzuga yo'naltiruvchi va boshqaruvchi vazifasini bajaradi.

Buni XX asrning 60-yillarida Osiyo va Yevropaning rivojlangan davlatlari ta'lim tizimiga kirib kelgan kognitivizm hodisasiga bog'lashimiz mumkin. O'sha davrda bu hodisa ancha keng ommalashdi. Bunda kognitivizm o'quvchi bilimining ko'proq og'zaki yo'sinda bayon etilishi (verbal tizim) bilan birlashib, ongli verbal-kognitiv ta'lim yo'nalishi paydo bo'ldi (OVKT). Bu yo'nalishga taniqli pedagog D. Ozbel asos solgan bo'lib, u ta'lim jarayonida "Discovery" ya'ni kashfiyot yetakchi usul ekanligini ta'kidlaydi [3. 191-bet]. Bu usulning mohiyatida ta'lim oluvchini har bir topshiriqni bajarishi paytida yangi hodisalarni kashf etish yoki nimanidir yaratish bilan shug'ullanishi yotadi. Ushbu jarayonda onglilik (ing. *Meanigool learning*) yetakchilik qiladi.

Ingliz tadqiqotchisi Ann Raimes o'z maqolasida o'qituvchilar uchun bolalarda yozma nutqni o'stirishning o'nta bosqichli rejasini ko'rsatib o'tgan. Ulardan biri taklif va fikr-mulohazalar yordamida mashg'ulot turini tanlash bosqichidir. Ya'ni bunda o'quvchining ehtiyoji hisobga olinadi, bolalardan talab va takliflar yozma ravishda so'raladi. Shu asosida dars mashg'ulotlarining turi tanlab olinishi ko'zda tutiladi [1. 306 – 315-betlar].

Aytilgan takliflar va tajribalarga asoslangan holda poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 114-maktabning 5- sinf o'quvchilari ishtirokida tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Tadqiqot davomida o'quvchilarning tinglab, o'qib, ko'rib tushungan holda yozma matn yaratishlariga imkon berildi. Shunga ko'ra, 5-sinf o'quvchilari yozma nutqini o'stirishga qaratilgan matnlarni tanlashda, asosan, shu jihatlarga e'tibor berdik, ya'ni shu yoshdagi o'quvchilarga tushunilishi mos bo'lgan, ular yoshidagi bolalarni qiziqтира oladigan matnlarga e'tiborimizni qaratdik. Bu mazmun jihatdan boy bo'lgan bayon yaratishlari

uchun muhim omil hisoblanadi. O'quvchilarning tanlangan matnni tushunish jarayoni shu asosda darajalandi hamda tahlil qilindi:

1. Assotsiativ daraja – tayanch matnning uslubi, unda qo'llanilgan so'zlarning ma'nosi, o'qib berilgan matn tarkibida yo'q so'zlardan foydalanganligi yoki so'zlarning sinonimlarini qo'llaganligi.
2. Struktural daraja – tayanch matndagi mazmuniy jihatdan ajratilgan tarkiblarning ketma-ketligi, ularning o'zaro bog'lanishi.
3. Matn darajasi – o'qib eshittirilgan matnning yaxlit holda hosil qilinishi. Bunda eshittirilgan matn mazmun va shakl jihatdan to'ldirilgan holda bayon qilinadi, lekin tayanch matnning oldingi mazmuniga putur yetkazilmaydi [2. 88-bet].

Matn tushunish jarayoni yuqorida sanab o'tilgan parametrlar asosida darajalangan bo'lsa, ularning yozma nutqida aks ettirilishini tekshirish va bahoshda ham alohida talablar hisobga olindi:

1. Nutqning mazmundorligi (3 ball)– bunda matn tarkibida asosiy fikrning mavjudligi (1 ball), axborot dalillarning muhimligi (1 ball), berilgan axborotning yangiligi (1 ball).

2. Yozma nutqning tushunarligi (2 ball)– yaratilgan matn qay darajada mantiqiy (1 ball) hamda tilning aniq va ravshanligi (1 ball).

3. Nutqning ifodaliligi (1 ball)– lug'atning boy yoki sayozligi (1 ball) [6. 26-bet].

Jami: 6 ball

Ayni damda bu tadqiqot ishlari davom etmoqda. So'nggi xulosa chiqarilmagan bo'lsa-da, o'quvchilar yozma nutqida mustaqil fikrlash ko'nikmasi hosil bo'lmoqda.

Tajriba sinfiga berilayotgan topshiriqlar, nafaqat, ularni ijodiylikka, balki mantiqiy fikrlashga undaydi. O'quvchilar bilan o'tkazilgan bir tajribani yuqoridagi talablar asosida ko'rib chiqamiz:

Tajriba jarayoni tavsifi: tadqiqotning 5-kunida o'quvchilarning yozma nutqini o'stirish uchun quyidagi savol va topshiriqdan foydalandik: Telefon

yoki kompyuterlardan qanday maqsadda foydalaniladi? Ularning foydali va zararli jihatlarini yozing.

Tajriba ishtirokchilari: 2019 – 2020-o‘quv yilida Chilonzor tumani 114-maktabning 5-sinfda tahsil olayotgan 15 nafar o‘quvchi.

Tajriba natijalari: Yozma ishlar natijasi quyidagi jadvalda aks ettirildi:

O‘quvchi soni	To‘plangan ball	Foiz
1 nafar	6 ball	7 %
7 nafar	5 ball	46 %
4 nafar	4 ball	26 foiz
1 nafar	3 ball	7 %
1 nafar	2 ball	7 %
1 nafar	1 ball	7 %

Tajriba natijalari tahlili: Umumiy hisobda oladigan bo‘lsak, 53 foiz o‘quvchi yozma ishlarini a‘lo darajada bajargan. Bu esa bundan oldin o‘tkazilgan 4 ta mashg‘ulotda erishilgan natijalardan 20 – 30 foizga yuqoridir.

O‘quvchilarning yozma ishlariga e‘tibor qaratsak, Maksimal 6 ball olgan o‘quvchining yozgan matnida quyidagi jumlar uchraydi: *“Foydali tomoni: yangiliklardan boxabar bo‘lish, hujjatlar, rasmlar tayyorlash va ularni uzatib-qabul qilish, uzoqdagi yaqinlar bilan suhbatlashish mumkin. Zarari: ko‘p foydalanilganda ko‘z nurini oladi, miya faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, inson xotirasi ishdan chiqishiga sabab bo‘ladi, ijtimoiy tarmoqlardan boshini ko‘tara olmay, real hayotdan ko‘ra virtual hayotga bog‘lanib qoladi...”*

5 ball olgan o‘quvchilardan birining ishida quyidagi mantiqiy faktlarni uchratdik: *“Kompyuter va telefonlarsiz hozirgi hayotimizni tasavvur eta olmaymiz. Ularning foydali jihati shundaki, har xil dasturlar, loyihalar tuzishda, foydali o‘yinlar o‘ynashda foydalanamiz, zarari esa ko‘z nuruning pasayishi, insult kasalining kelib chiqishi, internet yoki kompyuter o‘yinlariga mukkasidan ketish oqibatida dangasalik kelib chiqishi mumkin. Oldini olish choralari:*

kompyuter oldiga kaktus qo'yish va maxsus ko'zoynak taqish, ulardan 1 soatdan ortiq foydalanmaslik..."

O'quvchilarning yozma ishlariga ball berishda, ayniqsa, mana shunday faktlardan foydalangan holda fikrlarini aniq, ravshan ochib bera olganligi hisobga olindi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga qaratilgan topshiriqlar ular yoshiga mos, absurd tushunchalardan xoli, ular uchun qiziqarli bo'lgan matnlar yaratishiga imkon beradigan bo'lishi lozim. Bunday tarzda fikrlashga o'rgatish o'quvchilarda maktabdagi ona tili darslarida zerikib qolmaslik bilan birga jahondagi ta'lim standartlariga muvofiq kadrlar yetishtirib chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ann Raimes. Ten steps in planning a writing course and training teachers of writing // Methodology in language teaching. 2002. O'z tarjima
2. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi (monografiya): F.f.n.dis. –T. O'zMU, 2008.
3. Bushiy T., Safarov Sh. Til qurilishi: Tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent. 2007.
4. Hojiyev A. , va boshqalar. Ona tili. 7 – 9-sinflar uchun darslik. – Toshkent; O'qituvchi, 1993.
5. Mahmudov N. va boshq. Ona tili. 5-sinflar uchun darslik. – Toshkent; Ma'naviyat, 2007.
6. Mo'minova O. Nutqni rivojlantiruvchi trening mashg'ulotlari. Til va adabiyot ta'limi 2018. 5-son.
7. Ziyodova T. Tilni tizimli o'rganishda o'quvchilarda kommunikativ savodxonlikni oshirish bosqichlari. Xalq ta'limi. 2015. 3-son

ID-020-30-M008

Qobiljon Abdurasulov

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs magistranti

DEVELOPING THE ABILITY TO EXPRESS IDEA ORALLY IN 5th GRADE STUDENTS

Anotatsiya. Ushbu maqolada fikrni og'zaki bayon qilish ko'nikmasining psixologik asosi tahlil etilgan. Bundan tashqari, o'quvchilarning nutqni o'stirish yo'llari, pedagogik texnologiyalar orqali fikrni og'zaki bayon qilish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *nutq, og'zaki nutq, psixologiya, lug'at, grammatika, grammatik struktura.*

Annotation. This article analyzes the psychological basis of verbal expression skills. In addition, the students are provided with a variety of ways in which speech is learned, and pedagogical technologies are used to provide oral feedback.

Keywords: *Speech, oral speech, psychology, dictionary, grammar, grammatical structure.*

INTRODUCTION

Spoken language is a fast, automatic process that it is difficult to think and then proceed. Speech and reasoning are realized at the same time. In other words, it is realized during the speech. Oral speech is personal, individual activity. Therefore, neither the thoughtful statement, nor the colloquial style of speech, nor the expressions of sound, are similar to each other. Oral speech also depends on the mood, nature, as well as the situation, the healthy and normal functioning of the speech organs. It is not difficult to notice the difference between a person's speech at a time of sick time and his speech at a healthy, spiritual trigger. A person does not pay enough attention to his speech as writing when he speaks. When speaking in a certain period

of time, one feels that he has made a mistake in his speech, the next state of speech can not be as if he is disappointed. Oral speech will have a specific grammatical structure and the order of construction. In it, it is observed that the sentence fragments fall, shrink, exchange, repeat, contain unnecessary elements. The oral speech the meaning is realized through the intonations, the signs of confirmation or denial in the relationship, the means of tone, pronunciation, sign. This type of speech requires each person to quickly understand the opinion of his interlocutor, to quickly understand the word necessary in the conversation, to quickly find the word necessary in the conversation, to explain the meaning of each word in relation to the text, to find and use the applicable, appropriate synonym of the word. Naturally, in oral speech there will not be time to choose a thoughtful word. Accordingly, the words that were in the consumption before and were remembered are used.

This situation is more observed especially in students of the 5th grade. They use the most simple and familiar words for themselves, because they do not always fully understand the meaning of the words they use, the lack of vocabulary wealth. The main goal of the cultivation of oral speech in students is to be able to quickly find the words that correspond to the thought being described, to make a plan that systematizes the thought during the speech, to teach his own opinion to be persuasive and decisive, and, finally, to cultivate the ingenuity in the students. It is necessary to achieve that, let the schoolchildren also notice the inaccuracies in the speech process, be able to critically look not only at the speech of strangers, but also at the shortcomings in his speech. The perception of the non-application of the word in speech can be an open view of the conscious and logical approach to speech in the reader. Oral speech is also a process of creativity. In it, a person discovers extraordinary unique thoughts, ideas, artistic expressions. There are a number of functional manifestations of oral speech, which give colorful to written speech. Increases its effectiveness. Daily

colloquial speech, speakers speech, radio and media speech, stage speech each of these requires a separate study. "Oral speech is formed relatively in the process of transition from the primary class to the higher, that is, to the 5th class. Oral speech of schoolchildren at this age will be in the simplest form, they will carry out the speech process in the case when they use the words that are constantly accompanying them" [5,63]. In order to formulate oral speech in them, it is necessary to give instructions on the development of speech skills during lessons aimed at developing native language and literature, as well as other speech.

Literature lessons are of particular importance in the cultivation of oral speech in the 5th grade students. The development of oral culture of students depends on the quality of literature teaching. At the same time, the development of the culture of speech dictates the organization of such classes as lexical exercises, re-storytelling, statement, essay in the lesson. A distinctive feature of the development of students' speech in their lessons is that the teacher in the lesson achieves that by reading, memorizing, developing expressive speaking skills, they master the rules of writing, the legalities of the word art, develop their literary speech. In the literature of this class, fairy tales and stories that are interesting to students are given. Every reader who reads them will have different impressions, and each reader will approach him in a situation that is caused by his own world of imagination, and the method of storytelling will also be different, that is, understanding and acceptance will be an unusual process in everyone. It is also necessary to pay attention to some aspects in the cultivation of oral speech of students. In particular, not all students in the 5th grade can freely express their opinion, therefore, in the questions posed as assignments, attention should also be paid to the situation of similar pupils. Even if they can not express their thoughts, they should at least have the opportunity to memorize the story told or given by the teacher in mind. In the school experience, there are full, concise, selective, and creative re-storytelling

types. For students of the 5th grade, it is much easier to retell the text in full or close to the text, while other types are relatively difficult. The teacher's question on the content of the story, which was read again in the storytelling, should focus on giving the reader an idea of the details of the story, the cause and consequences of the connection between certain events.

METHODS AND DISCUSSION

Persons participating in the development of the text plot, their behavior plays a key role. Children are well aware of the content of the work with the help of the analysis of the persons involved in it and their behavior, harakterly characteristics. The question of the teacher should be directed to talk about what the heroes of the work did, where and under what circumstances they did this or that behavior, to a coherent statement of events and to enlighten the interdependence. The pupil uses not only the analysis, but also the synthesis in telling the contents of the work with the help of the teacher's question:

- connects some facts;
- compares to each other;
- maintains discussion on them;
- conclusion;

Basically, students of the 5th grade can not perceive the content of the text as a result of a lack of a good understanding of the behavior of the participants, sometimes misunderstand or superficial understanding. Therefore, the teacher should think very much about the question, he should force the child to think, discuss the behavior of the persons participating in his speech, the connection of events, help them to compare among themselves, determine the pros and cons. For instance, let's take the work of Antuant De Saint Exupery "little prince" in the textbook of literature of the 5th class. In order to formulate the qualification for the cultivation of oral speech on this work, it is necessary not only to limit it to the textbook of

literature [1,76]. The question on one subject can cover many subjects, other areas. Through this, the reader understands at least a certain part of the task that is being given and can explain his own opinion on this. For example:

1. Show the picture given in the story and ask what is depicted in the picture

(it is given before reading the work);

2. Describe the places where the little prince went in his speech;

3. What do you know about the creatures that the little prince met?

5-graders can not remember the text or any information in a complete state, can not fully talk about it, so it is possible to formulate oral speech in them by making a selective narrative [2,45]. Readers of the selected text:

1) consciously separates a part of the read text and talks it;

2) tells only one story from the text of the story;

3) the content of the story is told only in the direction of the plot [5,79].

Assignment. Copy and write sentences into your notebook, comment on the formative words.

Thanks to independence, many parks have been restored in our country. Freedom is the biggest state for us. In the morning, a thick fog covered the perimeter. In our district, several sports facilities have been built. Through this assignment, it is determined to what extent the student first understood or did not understand the subject. Part of the explanation of the assignment will pass in connection with oral speech. The teacher can use images to move away from the rules, that is, taking pictures of the formative expression given in the interpretation of the formative words, asking the reader, each student can participate in the course of the lesson and through these pictures grow his oral speech.

In order to improve oral speech in pupils of the 5th grade, coherent speech is one of the parties to which attention should be paid. Types of exercises for connecting coherent speech can be included:

1) wide, perfect answer to the question posed;

2) to analyze the read-out text, to study the grammatic material; different text exercises in connection with the activation of the students ' dictionary;

3) oral retelling of the read text in different variants; [4, 66-67]

SUMMARY

It is interesting organization of each educational process in the formation of oral speech skills in the 5th grade students and the chances of achieving the intended goal increases by applying them to life.

References:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi".

2. Abduraimova.M. Ona tili darslarida o'quvchilar nutqini ko'makchili birikmalar bilan boyitish. – T.: O'qituvchi, 1985. – B.45.

3. Muhiddinova X. Fe'l shakllarini o'rganishda o'quvchilarni nutqini o'stirish. Maktabda o'zbek tili va adabiyot o'qitishni takomillashtirish masalalari to'plami. Toshkent, 1982. –B. 37.

4. Ravshanov M. Ona tili darslarida sistem - semantik mashqlar bajarish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish. Ta'lim jarayonida so'z boyligini oshirishning asosiy omillari. Toshkent.:O'qituvchi, 1998. –B.76-77.

5. Sayfullayev A.R Ona tili darslarida nutq o'stirish, 5-sinf ona tili darsligi materiali asosida metodik qo'llanma. Toshkent – 1998. –B.63.

ID-020-30-M009

Charos Olimova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi

TA'LIMDA RAQAMLI TIZIMLARNI QO'LLASHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Bu maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning tarixi, jahon hamda O'zbekistondagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, uning asosi hisoblangan axborot kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli tizimlarning turlari, ta'limdagi imkoniyatlari hamda ulardan foydalanish usullari ko'rsatib o'tiladi. Namunalar orqali qulaylik tomonlari va afzalliklari tushuntirib beriladi. Bugungi kunda respublika hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalarida joriy etilgan masofaviy o'qitish tizimining afzalliklari, qulayliklari va o'ziga xos jihatlari ifodalanadi. Maqola orqali ta'lim tizimida raqamli iqtisodiyot mavzusiga doir jahondagi yirik olimlarning ishlarining o'rganilganlik darajasi haqida, yurtimizda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga qaratilgan ishlarning amalga oshirilayotganligini bilib olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, masofaviy ta'lim, axborot texnologiyalari, multimedia, kompyuter, elektron hukumat.*

Annotation. This article discusses the concept of digital economy, its history, significance in the world and in Uzbekistan. It also outlines the types of information and communication technologies and digital systems that underlie it, its educational capabilities, and how to use them. Samples explain the benefits and advantages of convenience. Today, the advantages, conveniences and peculiarities of the distance learning system introduced in all higher education institutions of the country are reflected. Through the article, you can learn about the level of study of the world's leading scientists on the subject of digital economy in the education system, the work being done in our country to accelerate the development of the digital economy.

Keywords: *digital economy, distance learning, information technology, multimedia, computer, e-government.*

Bugungi kunda insoniyat taraqqiyoti ko'p jihatdan axborot texnologiyalarining rivojlanib borishi bilan bevosita aloqador. Raqamli texnologiyalar davlat hamda jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada odamlarga keng imkoniyatlar eshigini ochadi, mahsulot va xizmatlarning sifati darajasini yaxshilaydi, ortiqcha xarajatni va vaqtni tejaydi, asosiysi korrupsiyaga chek qo'yadi.

Biz raqamli texnologiyalar haqida gapirar ekanmiz, avvalo, raqamli iqtisodiyot va raqamli ta'lim tizimi tushunchalariga e'tibor qaratsak.

XX asr oxiri- XXI asr boshlarida internet tarmog'i jamiyat hayotining bir qancha sohalariga kirib keldi va "elektron hukumat", "elektron savdo", "raqamli iqtisodiyot" kabi atamalar qo'llana bo'shlandi.

Manbalarga ko'ra, raqamli iqtisodiyot atamasi ilk bor 1995-yilda Massachusetts universitetida faoliyat olib borgan amerikalik informatik olim Nikolas Negroponte tomonidan o'z hamkasblariga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan iqtisodiyotnig eski iqtisodiyotdan ustun ekanligini isbot qilishga bag'ishlangan ma'ruzasida tilga olingan.

Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, "raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo'lib 1995-yil Don Tepkott muallifligida chop etilgan "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va'da va xavf-xatar" (The Digital Economy: Promise and Peril in the age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo'tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog'lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko'rsatiladi. Keyinchalik bu tushuncha yaxlit bir ifodaga aylanadi va quyidagicha ta'riflanadi:

Raqamli iqtisodiyot -bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirish tizimi bo'lib, bunga avvalombor, onlayn xizmatlar, masofaviy ta'lim, elektron to'lovlar, tovar va

xizmatlarning internet savdosi misol bo'la oladi. Ma'lumotlarga asoslanib bugungi kunda "raqamli" mamlakatlar ichida Norvegiya, Shvetsiya, hamda Shvetsariya davlatlari yetakchi o'rinlarni egallab kelayotganligini aytishimiz mumkin.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish axborot texnologiyalarining sifatini yaxshilash bo'yicha sharoitlar yaratish maqsadida amaliy ishlar bajarib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham shu tadbirlar jumlasidandir. 2020-yilni "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilindi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida elektron hujjat aylanishi, elektron to'lovlar, elektron tijorat hamda elektron ta'lim sohalari jadal rivojlanmoqda.

Shu jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli iqtisodiyotning roli bugungi kunda Oliy ta'lim tizimida ham kun sayin ortib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan axborot texnologiyalari ta'lim tizimi samaradorligini oshirish bilan birga uzluksizligini ham ta'minlaydi.

Zero, axborot texnologiyalari- bu obyekt, jarayon yoki hodisalar holati haqida ma'lumotlarni bir ko'rishdan, ikkichni sifat jihatdan mutlaq yangi ko'rinishga keltiruvchi ma'lumotlarni to'plash, qayta izlash, uzatishning vositasi va usullari majmuasidan foydalanish jarayonidir. Bu izoh, albatta, keng ma'noda. Lekin shuni e'tiborga olishimiz kerakki, hozirgi mobil aloqa vositalari, internet xizmatlari va telekommunikatsiyalari vositalarini keng qo'llar ekanmiz, axborot texnologiyalarining markaziy qismi hisoblash mashinasi bo'lganligi sababli axborot texnologiyalarini tor ma'noda kompyuter axborot texnologiyalari ma'nosida qo'llaymiz. Demak, kompyuter axborot texnologiyasi zamonaviy axborot texnologiyasi bo'lib, bu kompyuter yordamida axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uni uzatish uslubidir.

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarinig jahonda rivojlanishiga e'tibor beradigan bo'lsak, ta'limning kompyuter texnologiyalari muammosini hal qilishga rus va xorijiy olimlarning hissasi katta ekanligiga guvoh bo'lamiz: G.R.Gromov, V.I. Gritsenka, V.F.Sholoxovich, O.I. Agapova, O.A.Krivosheev, G.Kleyman, B. Sendov, B. Hunter va boshqalar. Yurtimizda esa hozirda faoliyat yuritayotgan ta'lim tizmi uchun innovatsion darsliklar yaratish guruhi rahbari Komil Allamjonov ham hayotimizning har jihatdan texnika va texnologiyalari biln bog'liq ekanligini chuqur anglagan holda raqamli darslik yaratish ustida ilmiy izlanishdadir. Bu ilmiy tadqiqotlarning barchasi, albatta, o'quv jarayonini tashkil etishda qulay axborot texnologiyalarini yaratish va uni tatbiq qilish bilan ifodalanadi.

Demak, o'quv jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ko'rib chiqamiz:

- 1) Kompyuter va multimedia projektori yordamida namoyish etiladigan elektron darslik va qo'llanmalar;
- 2) Elektron ensiklopediya va ma'lumotlar;
- 3) Internet ta'lim resurslari;
- 4) Rasmlar va rasmlar bilan DVD va CD disklar;
- 5) Video va audio uskunalalar;
- 6) Ilmiy tadqiqot loyihalari;
- 7) Interfaol doska.

Axborot texnologiyalarini qo'llashning eng samarali va zamonaviy usullaridan biri bu multimedia taqdimolaridir. Ular o'qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham birdek qulaydir. Bu taqdimotlar orqali siz asosiy kompyuter savodxonligi bilan ham o'quvchilarni qiziqtiradigan, jalb qiladigan o'qiv materiallarini yaratish imkoniga egasiz. Bu taqdimot yuqorida sanab o'tilgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositlarining deyarli barchasini qamrab oladi. Bundan tashqari, ta'limda asosiy o'rinni egallagan ko'rgazmalilikni ham ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining ijobiy motivini hosil qiladi, mashg'ulotlarni jonli va muloqot tarzida olib borishga zamin yaratadi.

Raqamli texnologiyalar orqali nafaqat ma'lum bir o'quv muassasasida, balki har bir shaxs istalgan joyda bo'la turib ta'lim olish imkoniyatiga ega. Masofaviy ta'lim ma'lumotlaridan o'quv kursining saytida ro'yxatdan o'tgach foydalanish mumkin bo'ladi. Har bir dars tinglovchining bilimni egallaganini tekshiruvchi alohida misollar, sinovlardan iborat bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan turli multimedia vositalari yordamida fikr almashish mumkin. Kursni muvaffaqiyatli yakunlashda esa o'quvchilar imtihon orqali maxsus sertifikatni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Yaqin vaqtgacha bir qator mahalliy oliy o'quv yurtlarida, jumladan, SamDTI, ToshDPI Termiz filialida yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bugungi kunda Covid-19 pandemiyasi keng tarqalmasiligini oldini olish maqsadida respublika hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari vaqtinchalik yopilganligi munosabati bilan barcha oliy o'quv yurtlari masofaviy ta'lim tizimiga o'tgan.

Onlayn ravishda bilim olishni masofadan turib o'qishni istaganlar uchun turli xildagi saytlar mavjud. Jumladan, moodle-masofaviy o'qitish tizimi ham barcha foydalanuvchilar uchun qulaydir.

Masofaviy ta'limning afzallikari, albatta, dars jadvalining qulayligi, istalgan joydan turib ta'limdan foydalanish manzillari, ma'lumotlar bazasining to'planishi, multimedia imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkoniyatlari bilan tavsiflanadi. Shuningdek, bu ta'lim turi an'anaviy ta'limga qaraganda bir necha barobar arzonroq bo'lishini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Albatta, masofaviy ta'limning imkoniyatlari bilan birga, o'z navbatida bir qancha noqulayliklari ham mavjudligini inobatga olgan holda respublikaning barcha hududlarida internet tezligidan qat'i nazar ishlashga qulay bo'lgan onlayn muloqotlar va darslar uchun dasturlar yaratish kerakligini unutmazlik kerak.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda, masofadan bilim olishni kengaytirish va uni hamma uchun ochiq qilish asosiy jihatlardan biridir va uydan turib masofaviy ta'lim tizimining imkoniyatlaridan foydalanish har bir talaba uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. X. Alimov., G. T. Yulchiyeva., O.Q. Rixsimboyev., Sh. A. Alishov. Axborot texnologiyalari va tizimlari. 2011
2. Иванов В.В., Малинецкий Г. Г. Цифровая экономика: мифы, реальность, перспектива. -М., 2017
3. Капранов В. К., Капранова М.Н. Повышение доступности качественного образования через сетевое взаимодействие школьных библиотек// Открытое и дистанционное образование 2012ю №3(47)
4. Цифровые технологии//<https://ru.wikipedia.org/wiki>.

ID-020-30-M010

Fayzullo Mamatmusayev

O'zbek tili fakulteti 1-kurs talabasi

TURKIYLAR UYG'ONAYLIK! BIR TILDA SO'ZLASHAYLIK! YOXUD BUGUNGI KUNIMIZDA O'RTATURK TILI QANCHALIK DOLZARB?

Annotatsiya. Maqolada hozirgi barcha turkiy xalqlarning tillarini o'rtalashtirish orqali bitta umumiy o'rta til yaratish haqida so'z yuritiladi. Shu o'rinda hozirda vositachilik qilayotgan yoki vositachilikka da'vo qilayotgan boshqa tillarning ijobiy va salbiy jihatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Etnolingvopozizm, o'rtaturk tili, o'rtalashtirish, turkchilik, turkiy tillar, vositachi til.*

Annotation. The article discusses the creation of a single common language by sharing the languages of all modern Turkic peoples. It discusses the pros and cons of other languages that are currently being mediated or claimed to be mediated.

Keywords: *Ethnolinguopozism, Middle Turkic, Middle Ages, Turkism, Turkic languages, intermediate language.*

Insoniyat yaralibdiki, til uning eng yaqin tayanchi, suyanchig'i sifatida u bilan birga yashab kelmoqda. Darhaqiqat, til insoniyat uchun aloqa almashinuvi vositasi sifatida bebaho ne'matdir. Shuning bilan birga til inson ijtimoiy ehtiyoji bo'lgan insonlar o'rtasidagi ruhiy yaqinligini, yakdilligini taminlovchi va ajralmas qadriyatining bir qismi bo'lgan ma'naviy boyligidir. Demakki, tilning asosiy vazifasi bu- insonlarning birligi, hamjihatligiga xizmat qilishdir.

Bugungi kunda, millatlararo ziddiyatlar keskinlashib bu ba'zan davlatlar o'rtasida to'qnashuvga, ba'zan ichki ziddiyatlarga, ba'zan esa mustahkam

ko'ringan davlatlarning parchalanishiga olib kelayotgan bir paytda tilning asosiy vazifasi, millatlar, xalqlarni birlashtirish vazifasi kun tartibiga chiqadi. Aynan mana shunday barqaror, mo'tadil bo'lmagan siyosiy vaziyatda barcha turkiy xalqlarni siyosiy, iqtisodiy va eng muhimi madaniy, ma'naviy jihatdan birlashtirib hamjihat bo'lishiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan, hozirda mavjud barcha turkiy tillar uchun shaklan va mazmunan bir xil uzoqlikda va yaqinlikda bo'ladigan o'rtaturk tili taklif qilinyapdi.

Tarixda ming yillar davomida yagona bo'lgan qadimgi turk tili bugungi kunga kelib mustaqil, shaklan ma'lum darajada bir biridan uzoqlashgan bir nechta tillarga bo'linib ketgan. Turkiy tilning shakillanish davrida bu tilda so'zlashuvchi xalqlar nafaqat til balki madaniy, manaviy, iqtisodiy jihatdan ham yakdil bo'lgan. Turkiy tilning sheva va lahjalarga bo'linish jarayoni o'rta asrlarda boshlangan bo'lishiga qaramay alohida til darajasidagi farqlanish XX asrda vujudga kelgan. Shu davrdagi ma'lum tarixiy jarayonlar natijasida til parchalangan va bu til bilan birga shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning ham madaniy, iqtisodiy va boshqa muhim ijtimoiy jihatdan bo'linishiga sabab bo'lgan. .

Ushbu tilni qayta birlashtirish harakati XIX asr oxiri XX asr boshlarida qayta jonlanadi. Bu harakat shu davrdagi turkiy ellarning birlikka intilishi jarayoni bilan barobar kechdi hamda birgalikda "turkchilik", "panturkizm" nomini oldi. turkiy xalqlarning keyingi taqdiri mustamlakasi bo'lgan davlati bilan bog'liq bo'lib qoldi. Barcha qaram bo'lgan turkiy tillarga rus tili va xitoy tilining fonetik leksik va uslubiy ta'siri kuchayib bordi. Turkiyadan tashqarida turkiy olamning rivojlanishi to'xtab yagona turkiy til yaratish umidi ham tugatildi.

Keyingi davrda esa turkchilik tarafdorlarini taqib va qatag'on kutib oldi. Natijada, turkiy tillar rivojlanishi qiyin masalaga aylandi. Aslida turkchilik yoki barcha turkiy xalqlar uchun yagona til yaratish erkin, demokratik, xolis tushunchadir.

"Turkchilik(panturkizm), slavyanchilik (panslavyanizm), germanchilik (pangermanizm), eronchilik(paneronizm) singari mohiyatan o'xshash tushunchalarni qamrab oluvchi umumiy tushunchaga kiradi. Bu tushunchani etilchilik(etnik lingvistik panizm, qisqacha etnolingvopanizm) termini bilan ifodalaymiz. Etilchilik(etnolingvopanizm) potensial(salohiyat) yaxlitlik falsafiy konsepsiyasining tegishli ellar guruhiga nisbatan qo'llanilishidir...

Agar muayyan etilchilikka oid mafkuraviy qarashlar demokratik huquqiy ko'p millatli davlat konstitutsiyasiga xilof bo'lmasa, mazkur davlatda ushbu etnolingvopanizmga mansublik boisidan qatag'on usullarini adolatga zid deb tushunmoq kerak. Aks holda, millatning o'z taqdirini o'zi belgilash umumdemokratik huquqi tugul, hatto millat o'z imkoniyatlarini, rivojlanish yo'llarini o'rganishi ham ta'qiqlangan bo'lib chiqadi.

Fikrimizcha, etnolingvopanizm quyidagi turlardan iborat:

1. Til-madaniyat etnolingvopanizmi, ya'ni tegishli ellar guruhi uchun ularning til va alifbolarini yaqinlashtirish, ular uchun yagona yoki yordamchi umumiy tilni yaratish, madaniyatning umumiyiligini oshirish, o'zaro muloqotlar va yordamni kuchaytirish g'oyalari.

2. Siyosiy etnolingvopanizm, ya'ni muayyan ellarning milliy davlatlarini birlashtirish yo'li bilan ularning federativ davlatini, konfederativ hamdo'stligi yoki unitar (yagona, bo'linmas) davlatini barpo etish g'oyasi.

3. Avjiga chiqqan etnolingvopanizm, ya'ni yakkayu yagona tilni joriy etish, o'zaro yaqin, lekin alohida ellardan, hatto millatlardan yagona yirikroq millatni shakllantirish va ushbu millatning yagona milliy davlatini vujudga keltirish zarurligi to'g'risidagi g'oyalar...

Etilchiliklarning boshqa demokratik shakllari kabi, demokratik panturkizm ham millat va insonning xalqaro huquqiy normalariga zid kelmaydi, balki u umuminsoniy qadriyatdir" [1].

Mana shunday qiyin bosqichlardan o'tgan turkiy tillar va xalqlar oldiga tarixning o'zi yana yaqin madaniyatni yaratish uchun yagona bir umumiy tilni shakllantirish vazifasini qo'ydi.

Biz yaratadigan bu umumiy til mukammal, nuqsonsiz va har tomonlama qulay bo'lishi uchun esa bugungi kunda dunyoda vositachilik qilayotgan hamda vositachilik qilishi uchun taklif qilinayotgan tillardagi afzal jihatlar va kamchiliklarni ko'rib chiqishimiz lozim bo'ladi.

Barchamizga ma'lumki, hozirda dunyoda eng ko'p axborotlar almashinuvi vositachi tili bo'lib ingliz tili xizmat qilyapdi. Ingliz tili yoki boshqa biror millat tilining vositachi til bo'lishining ma'lum ijobiy va salbiy jihatlari bor:

Millat tili vositachi til bo'lishining ijobiy jihati shundaki, vositachi til sifatida tanlanadigan til boshqa xalqlar hayotiga kirib borganda nafaqat shu til, balki shu tilda so'zlashuvchi xalqning madaniyati ham boshqa xalqlar madaniyatini boyitadi.

Salbiy jihatlar esa quyidagilar:

"Millat tili vositachi til bo'lishining ikki nomaqbul jihatlari bor:

Ma'naviy-huquqiy jihati, ya'ni vositachi til egalaridan boshqa xalqlar o'zlarini doim ikkinchi darajali, huquqi bir oz kamsitilgan til egalari deb sezadilar, demak, millatlar va shaxslarning til huquqlari buziladi.

Iqtisodiy jihati, ya'ni vositachi til egalaridan boshqa xalqlar ona tilidan boshqa tilni o'rganishga majbur bo'lishlari tufayli dunyo axboroti boyliklarini o'zlashtirishdan bir necha yil orqada bo'ladilar"[1]

Bulardan shu narsa ko'rinib turibdiki, vositachi til qaysidir bitta millat tili bo'lmagni maqul.

Bundan tashqari lotin tilini qayta tiklab vositachi til qilish takliflari ham mavjud bo'lib buning ham bir nechta ijobiy va salbiy tomonlari bor:

Bundagi ijobiy jihatlar shundan iboratki, lotin tili hozirgi ko'pgina xalqlar uchun bobo til sanaladi. Bu esa shu oilaga mansub tillarda so'zlashuvchi xalqlarning barchasiga lotin tilini bir xil darajada yengil o'rganish imkoniyatini beradi.

"Lotin tilini tiklashga bo'lgan e'tirozlar quyidagicha:

Lotin tili o'lik til bo'lib, uning lug'aviy boyligi hozirgi voqelikni to'la ifodalashga yaroqsizdir. Shu bois, lug'at ustida ishlash va unga boshqa tillardan so'zlar kiritish zarur bo'ladi;

Lotin tili grammatikasi ancha murakkab, shuning uchun lotin tilini o'rganish kishidan ko'p vaqt va kuch talab qiladi.

Lotin tili hozirgi roman tillar guruhi uchun bobotildir. Shuning uchun bu guruh tillarida so'zlovchilar o'zlarining tillari vositachi tilga yaqinligi tufayli afzalliklarga ega bo'ladilar va shu jihatdan teng huquqlilik buziladi" [1].

Jahon vositachi tili bo'lishi uchun yana bir taklif bu- so'ngi yillarda ishlanib taklif qilinayotgan sun'iy tillardir (masalan, shunday tillardan eng maqulrog'i esperanto tili). Ammo bunda ham ma'lum ijobiy va salbiy jihatlar bor:

Bunda ijobiy jihat shuki, hozirgi taklif qilinayotgan sun'iy tillar qisqa so'zlardan iborat bo'lib, bu muloqot ixchamligini ta'minlaydi.

"Sun'iy tilni ishlatish soddalik va hozirgi kun voqeligini aks ettirish jihatlaridan lotin tilidan afzal, ammo hozir mavjud sodda, kommunikatsiya uchun yaroqli tillar (jumladan, keng qo'llanilayotgan esperanto tili) biron bir guruh tillar asosida tuzilgan. Aksariyat tillar (esperanto, Ido, Oksidental, Idiom-neytral va boshqalar) G'arbiy Yevropa tillari materiali asosida tuzilgan. Shuning uchun asos tillarning egalari afzal holatda bo'lib, kishilarning va xalqlarning teng huquqliligi buziladi" [1].

Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, jahon vositachi tili yoki mintaqaviy vositachi til qo'llanilishi mo'ljallanayotgan hududdagi asos bo'layotgan tillarga birday yaqin yoki uzoq til bo'lishi kerak.

"Mintaqaviy tillarni yaqin tillar guruhi asosida ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ayni shu usul yuqorida tilga olingan etnolingvopozitsiyalar xalqlarning xohish-irodasini ifoda etgan taqdirda o'zaro yaqin xalqlar millatdan yuqoriroq darajada birliklarga erishishlarini ta'minlaydi" [1].

Xo'sh, biz aytayotgan o'rtaturk tili qanday bo'ladi? Uning ko'rinishi, ichki grammatikasi qanday tuziladi? Lug'at boyligi qanday tuzib chiqiladi? Eng asosiysi bu til barcha turkiy xalqlar uchun birdek manzur bo'ladimi?

Baxtiyor Karimov shu borada o'zining "o'rtalashtirish" deb atalgan usulini taklif qilmoqda.

"Biz bunday tilni ishlab chiqish usulni taklif qilganmiz. Bu usulda biz "o'rtalashtirish" deb atagan yo'l qo'llanib, o'rta tildagi birliklar mumkin qadar ko'proq tillarda mavjud bo'lib, ushbu tillarda so'zlovchi ko'proq kishilarga tushunarli bo'lishi maqbulligi hisobga olingan.

Shevalar yoki tillar guruhi uchun matematik tadbir orqali tilning har bir darajasida umumiy fondni aniqlab, shu fond birliklarini o'rtalashtirilgan tilning tegishli darajalari birliklari normasi sifatida ro'yxatlab qo'yiladi.

Umumiy fondni aniqlash uchun avval har bir darajada birliklarning ro'yxati tuziladi. Lug'aviy fond uchun bu ro'yxat sifatida chastotali lug'atning yuqori qismi olinadi...

Biz o'rtalashtirilgan til tuzish usulini turkiy tillar misolida namoyish qilamiz. Darajali struktura barcha tillarda kuzatilgani tufayli bu usulni tub o'zgarishlarsiz har qanday yaqin qardosh tillar guruhiga — eron, hind, slavyan, roman, german va hokazo tillar guruhlariga moslashtirish va o'rtaeron, o'rtahind, o'rtaslavyan, o'rtaroman, o'rtagerman va boshqa o'rta tillarni yaratish mumkin.

Leksika tilning eng hajmi katta va voqelikni bevosita aks ettiruvchi sistemasi ekanligi tufayli so'zlar darajasida o'rtalashtirish eng ko'rgazmali bo'ladi (turkiy tillar uchun ikki tilli lug'atlar sistemasi hali ishlab chiqilib tuzilgan emas. Shuning uchun tillardagi tushunchalar ekvivalentlarini biron bir jahon miqyosidagi til (mas: ingliz yoki rus tili) orqali topishimiz kerak bo'ladi).

Misol uchun o'zbek tilidagi "gapirmoq" leksemasini olaylik. So'ng "gapirmoq" so'zining

sinonimlarini topamiz: “gapirmoq, soʻzlamoq, aytmoq, soʻylamoq (kitobiy), demoq”.

“Gapirmoq” soʻzi ruscha “govorit” ekvivalentining oʻzbekcha va turkchaga tarjimalari quyidagicha:

oʻzbekcha:	turkcha:
gapirmoq	konuşmak
soʻzlamoq	bahsetmek

Koʻrinib turibdiki, bunday lugʻatdan olingan ekvivalentlar soni sinonimlar qatoridagi soʻzlardan kamroq. Shuning uchun turkiy tillarda feʼlning tugallangan va tugallanmagan turlari qarama-qarshi qoʻyilmaganligini hisobga olib, “gapirmoq” tushunchasi uchun rus tili orqali ekvivalentlarni topganda ruscha “govorit” va “skazat” soʻzlarining ekvivalentlarini olishimiz kerak.

Shunda:

Oʻzbekcha:	turkcha:
Gapirmoq	konuşmak
Soʻzlamoq	bahsetmek
Tildan foydalanmoq	söylemek
Aytmoq	demek
Izhor qilmoq	

guruh ekvivalentlar topildi. Koʻrinib turibdiki, oʻzbek tilidagi guruh “gapirmoq” soʻzining sinonimlari qatoriga yaqinroqdir. Shu tariqa barcha turkiy xalqlar tillarida “gapirmoq” tushunchasining ekvivalentlari topiladi” [1]

Shu shaklda barcha turkiy tillardagi ekvivalentlar topilgach, ular orasidan ham maʼno jihatdan, ham shakl jihatdan bir xil yoki oʻxshashligi nisbatan koʻproq tillarda mavjudlari lugʻat tarkibiga kiritiladi. Qolgan soʻzlar ham shu mezon asosida saralanib ikkinchi darajali sinonimlar sifatida lugʻatdan joy oladi.

Bu fikrlarga qoʻshilgan holda yana shuni ham aytishimiz mumkinki, biror tilda aniq bir tushunchani ifodalaydigan bir soʻz boshqa tillarda oʻz

shakliga yaqin boshqa bir soʻz juftiga ega boʻlmasa, yoki bunday soʻzlar kam boʻlsa, bu soʻzlar ikkinchi darajali sinonim soʻzlar sifatida lugʻatga kiritilishi mumkin. Bu bir tomondan til lugʻat boyligi mahsuldorligiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan har bir millatning til bilan bogʻliq ijtimoiy huquqlarini himoya qilgan boʻlar edi.

Oʻrtalashtirish deb atalayotgan bu usulni nafaqat hozirgi turkiy tillarga, balki eski, qadimgi turkiy tillarga ham qoʻllasa boʻladi. Shunda tarixdan oʻz shaklini yoʻqotmay kelayotgan soʻzlar ham oʻrtaturk tili lugʻatini boyitadi.

Yana shuni ham qoʻshimcha qilgan boʻlardikki, ushbu til leksikasi shakllantirilayotganda imkon qadar kam boʻgʻinli soʻzlar asosiy foydalaniladigan soʻzlar qatoriga kiritilsa, foydali boʻlar edi. Fikrimizcha, bu muloqot ixchamligiga va qulayligiga imkon beradi. Turk tillari tarixi uzoq oʻtmishga borib taqalishini hisobga olsak, etimologiyasi turkcha boʻlgan soʻzlarning deyarli barchasi qisqa boʻgʻinli soʻzlardan iborat boʻlib bu turkiy soʻzlarga deyarli taʼsir qilmaydi.. Sababi insoniyat tarixida dastlabki yaratilgan tillarning koʻpchiligi qisqa boʻgʻinli soʻzlardan tashkil topgan.

Biz yuqorida tilning leksik qismini shakllantirishda oʻrtalashtirish usuli qanday amalga oshirilishi haqida qisqacha, umumiy maʼlumot berdik. Oʻrtalashtirish usulini tilning barcha sathlarida ham xuddi shunday ishlatish mumkin. Shu jumladan, bu usulni biz alifboga nisbatan ham qoʻllay olamiz..

"Tilning grafikasi, yozma shaklining xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u boshqa darajalarga nisbatan koʻproq jamiyatning ongli taʼsirlariga boʻysunadi. Agar barcha turkiy xalqlar oʻzlarining mavjud alifbolari saqlanishini bir xil darajada istashganda, alifbolarni oʻrtalashtirish uchun yuqorida taklif qilingan usul ishlatilishi mumkin boʻlar edi. Bunday vaziyatni qamrab olish uchun formulalarga xalqlarning istagi darajasini belgilovchi koeffitsiyentlar kiritib hisoblab chiqsa boʻladi. Turkiy xalqlar hozir kirill alifbosidan boshqa alifboga, koʻpchiligi lotin alifbosiga oʻtishga harakat qilayapti, chunki turkiy til xususiyatlari lotin yozuvi orqali toʻlaroq aks ettirilishi mumkin.

Turkiy xalqlar o'zaro yaqinlashishga intilish natijasida bir alifboga o'tishsa yaxshi bo'lar edi, lekin agar ularda bir necha alifbo saqlansa, o'rtaturk tili ayni vaqtning o'zida shu bir necha alifboda mavjud bo'lishi mumkin. Albatta, so'nggi holda ko'proq iqtisodiy sarf-xarajatlar talab qilinadi, lekin bu turkiy xalqlarning o'z taqdirini o'zlari belgilab erkin rivojlanishiga va shunday yo'l bilan o'z ixtiyorlari bilan bir-birlariga yaqinlashishlariga xizmat qiladi"[1].

Bu ezgu maqsadni boshlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish o'rinli bo'lar edi:

- "Amaliy ishlarni boshlash uchun, o'rtaturk tilini yaratishbo'yicha xalqaro tadqiqot institutini (markazini) ta'sis etish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Bu markaz har bir turkiy davlatda o'z bo'linmasiga (filialiga) ega bo'lib, ularning ishlarini muvofiqlashtirib turadi (milliy davlatiga ega bo'lmagan xalqlar uchun markaz ekspeditsiyalar tashkil qilishi mumkin). Turkiy xalqlarning istagi bilan, bu markaz Toshkentda joylashishi mumkin, chunki, avvalo Toshkent turkiy dunyoning markaziy qismida joylashgan eng yirik ilmiy kuchlarga ega shahardir. Ikkinchidan, Toshkent — turkiy xalqlarning otamakoni bo'lmish Turkistonning keyingi davrlardagi nufuzli markazidir".[1]

O'rtaturk tili hozirgi va tarixdagi barcha turkiy tillarga yaqin bo'lar edi. Bu til turkiy xalqlar uchun qardosh, ammo betaraf, hech qaysi turkiy millatga ayrim imtiyozlar bermaydigan millatlararo muloqot tili bo'lishi ahamiyatlidir.. Shuningdek, u barcha turkiy xalqlar uchun muhim o'rin tutuvchi fan-texnika axboroti, adabiy va boshqa madaniy qadriyatlarning o'zaro almashuv tili mavqeiga ega bo'lishi e'tiborga molikdir.

Har qaysi turkiy xalq vakillari o'z ona tilini bilish va uni o'z yurtida ishlatish bilan bir paytda, qo'shimcha ravishda qardosh va yaqin bo'lgan o'rtaturk tilni katta qiyinchiliksiz, tez va oson o'rganadilar.

Shu qatorida o'rta turk tili kelajakda har bir turkiy tilni jahon miqyosidagi tillar ta'siri ostida o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotishdan himoya qiladi. Barcha turkiy tillarning boyligi, imkoniyatlaridan foydalangan o'rtaturk tili har tomonlama yuksak, barcha jahon miqyosidagi tillar bilan teng raqobatlasha

oladigan, yuksak darajada rivojlangan til sifatida turkiy olam birligini yuqori o'rinlarga ko'tarishda ko'mak bo'lar edi.

"O'rtalashtirilgan til yordamida dunyodagi barcha yaqin, qardosh xalqlarni birlashtirish mumkin. Buning quyidagi afzalliklari bor deb hisoblaymiz :

- Hech qaysi etnik umumiylikning tili bo'lmagani tufayli ularning hech qaysisiga afzallik yoki imtiyozlar bermaydi, ya'ni tildan foydalanish jihatidan tenglikni buzmaydi va shuning uchun, til siyosati boisida adovat qo'zg'atmaydi.

- Etnoslar tillari asosida tuzilgan bo'lib, o'rtalashtirilgan til maxsus o'qitilmasa ham asos bo'lgan tillar homillariga ma'lum darajada tushunarli bo'ladi.

- Qabilalardan millat paydo bo'layotgan davlatda yoki milliy davlatlar federatsiya yoki konfederatsiya bo'lib uyushayotganda, mahalliy tillardan birini davlat tili sifatida yoki bir millat tilini federatsiya (konfederatsiya) miqyosida rasmiy til sifatida qabul qilishdagi asossizlikni va bunday asossizlikdan kelib chiqadigan elatlararo nizolarni bartaraf qiladi.

- Garchi mustamlaka sistemasi yemirilgan bo'lsa-da, sobiq mustamlakalar sobiq metropoliyalari bilan asosan iqtisodiy, shuningdek, madaniy hamda ilmiy jihatlardan bogliqlar. Bunday ahvol sobiq metropoliya tilini davlat tili sifatida qabul qilishga majbur etadi. O'rtatil sobiq mustamlakachilar tilini umumdavlat tili sifatida qabul qilish masalasini bartaraf qiladi va shuning bilan madaniyat va axborotlar sohasida sobiq metropoliyaga bog'liqlikni kamaytiradi, ya'ni erkinlikka erishib rivojlanayotgan millatning oykumenasi mukammalroq bo'ladi. Millat uning oykumenasiga kiruvchi boshqa millatlar bilan erkin muloqotda bo'lib, ular bilan hamkorlikdagi umumiy maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyati natijasida boshqa millatlar bilan yaqinlashadi, aks holda yaqinlasha olmaydi, yotsiraydi, ya'ni hozirgi davrda shakllanib bo'lgan turkiy millatlar faqat erkin umumiy faoliyat natijasida yotsiramay, borgan sari yaqinlashishi mumkin, chunki bizlarning umumiy turkiy tilimizni, madaniyatimizni,

ma'naviyatimizni, dunyomizni rivojlantirish kabi ko'plab fundamental umumiy maqsadlarimiz va porloq istiqbollarimiz bor".[1]

Turkiy xalqlar juda boy milliy madaniyat va adabiyotga egadir. Turkiy til esa jahondagi eng qadimgi adabiy tillar sirasiga kirib boy tarixga ega. Boshqa tillar singari, turkiy til tarixida ham yuksalish va inqiroz davrlari bo'lgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijod qilib, turk mamlakatini rivojlantirgan vaqt yuksalish davri cho'qqilaridan biri edi. XIX asr oxiridan XX asr so'ngi choragigacha bo'lgan davr esa inqiroz davri bo'ldi. Yangi yuksalish davri bizning kunlarda boshlanishi mumkin, va bu barchamizga birday bog'liqdir. Biz turkiy xalqlar baxti, ravnaqi uchun harakat qilishni Navoiy vasiyati, 20-yillar jonkuyarlari bo'lmish jadidlar xotirasiga hurmat va xalqlarimiz oldidagi burchimiz, deb bilmog'imiz lozim. O'rtaturk tilining bu yo'lda xizmat qilish imkoniyatlari nihoyatda ulkan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Ўртатурк тили. Тошкент. Мехнат. 1992.
 2. Nurmonov A. Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar.-Toshkent: Sharq, 2001.
- Каримов Б.Р., Муталов Ш.Ш. Усредненные языки: Попытка решения мировой языковой проблемы. Тошкент. Фан. 2008.

O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI

ID-020-30-M011

Dildora Abdullayeva

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

ADABIY TAHLILNING MUSHTARAK JIHLTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada g'arb adabiy metodikasida qo'llanuvchi "Tahlilgacha", "Tahlilda" va "Tahlildan so'ng" deb nomlanuvchi metodik yondashuvlar xuddi shunday milliy metodika usullari bilan chog'ishtiriladi. Ularning mushtarak jihatlari Behbudiyning "Padarkush" dramasi tahlili orqali ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *adabiyot o'qitish metodikasi, g'arb va milliy metodikasi xususiyatlari, Behbudiy, "Padarkush" dramasi, tahliliy yondashuv.*

Annotation. In this article, the so-called "Before Analysis", "In Analysis" and "After Analysis" methodological approaches used in Western literary methodology are compared with similar national methodological methods. Their commonalities are revealed through the analysis of Behbudi's drama "Padarkush".

Keywords: *The methods of teaching literature, features of western and national methodology, Behbudiy, "Padarkush" drama, analytical approach*

"Metodika" – bu vaqtni tejash malakasi, o'quvchi kuchlarini oqilona sarflash, o'quv materialidagi asosiy va bosh narsani topish malakasi, jamoa mehnatini tashkil qilish san'ati, bu o'quvchilardagi xilma-xil individualliklarga tayanadigan ta'sir tizimidir" (M.A.Ribnikova) [1. 5-bet]

Ma'lumki, adabiyot insonni, uning ruhiyatini, his-tuyg'ularini tarbiyalashda muhim vosita sanaladi.O'qilayotgan asar kishiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatib, hissiy va aqliy zavq bergandagina u o'zining boshqa vazifalarini ham bajara oladi. (Qozoqboy Yo'ldoshev) [2.37-bet]

Go'yo oq qog'ozdek bo'lgan bolajonlarni to'g'ri yo'naltirish, ularning olamiga ehtiyotkorlik bilan ijobiy ma'noda ta'sir o'tkazish doim ham oson kechmaydi. Bunda o'qituvchi mahorati, dars o'tish ilmi, fan bo'yicha bilimi asosiy o'rinda turadi. Darsni to'g'ri tashkil qilish, berilgan mavzuni o'zlashtirishda samarali vositalardan foydalanish talab qilinadi. G'arb metodikasida foydalanib kelinayotgan o'qishgacha jarayon (pre-reading activities), o'qish davomidagi jarayon (while reading activities) hamda badiiy asarni o'qib bo'lgandan keyingi jarayon (post-reading activities) bilan tanishib chiqamiz.

Pre-reading – asarni o'qishgacha bo'lgan jarayon, ya'ni bunda o'quvchi yoki talaba asar muallifi haqida yoki asarning qisqacha mavzusi haqida o'qigan, eshitgan bo'ladi. G'arbda bunga juda katta ahamiyat beriladi. Agar o'quvchining ilmiy salohiyati, qiziqishi yuqori bo'lsa ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar bilan tanishgan bo'lishi ham mumkin. To'g'risi, bu hali o'zimizda unchalik qo'llanmagan usul. Maktabda ham, kollej yoki litseyda ham foydalanilmagan. Bizning metodikamizda o'qishdan oldin (**pre-readingga** o'xshash) jarayonidagi savol-topshiriqlar bor. Biz oliy o'quv yurtiga o'qishga kirib hamda metodika darsida buni o'rgandik. Ta'lim jarayonida boshqa mamlakatlar foydalanayotgan usullardan foydalanish o'zbek o'quvchilariga nechog'li foyda berishini sinab ko'ramiz. Ishonamanki, bu o'z samarasini beradi. Kelgusi faoliyatimizda foydalansak bemalol bo'ladi. Pre-readingni o'quvchi, talabalarga foydasi shundaki, bu o'quvchida o'ziga bo'lgan ishonchni his qildiradi, chunki ular oldindan qanchadir bilimga ega bo'ladi. Asarni o'qishgacha bo'lgan jarayonda ma'lumotlar bilan tanishish samarali natija beradi. Bunda ko'proq muallif haqida, ijodkor yashagan davr, muhit va o'sha ijodkor asosan qaysi usulda ijod qiladi, bu asar bilan nima demoqchi shu taraflariga e'tibor berib ishlansa, savol va topshiriqlar berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shular orqali asarning tushunilishiga zamin yaratiladi.

Keling, Behbudiyning "Padarkush" dramasiga pre-reading, while-reading va post-reading bo'yicha savol va topshiriq ishlab chiqib, o'quvchiga

qanchalik tushunarli va asarning o'qitilishi qanchalik samarali bo'lishini sinab ko'ramiz.

1.Asarni o'qishdan oldin (Pre-reading activities);

A) Asarning asosiy g'oyasi va asosiy g'oyaga yondosh g'oyalarni topishga yo'naltiradigan savol va topshiriqlar. O'quvchilarni shu g'oyani tushunishga tayyorlash uchun qanday savol va topshiriqlar ishlab chiqish mumkin?

1.Shu paytga qadar jadid adabiyoti, ma'rifatchilik harakati degan tushunchalar haqida eshitgansiz. Nima deb o'ylaysiz nega XX asrga kelib bu yurtimizda faol tus oldi? Vaholanki Yevropa mamlakatlarida bu ancha ilgari mavjud edi-ku.

2.“Padarkush” dramasi yaratilgunicha Behbudiyni yirik asarlari ko'p bo'lmagan. Ungacha u ko'proq olim, ma'rifatparvar adib, faol jurnalist sifatida faoliyat olib borgan. Endi ayting-chi yurtga ma'rifatparvarlik g'oyalarni keng yoyish, xalqqa ta'sir o'tkazish uchun qaysi sohada faoliyat yuritish ko'proq natija beradi?

3. Behbudiy “Padarkush”ni nega aynan drama shaklida yozgan deb o'ylaysiz? Nima uchun buni hikoya yoki shunga o'xshash janrlarda yozmadi?

B) Boshqa fanlardan (tarix, tasviriy san'at, psixologiya va hokazo) qanday ma'lumotlar asarni tushunish uchun zarur yoki asarni tushunishga yordam beradi deb o'ylaysiz? Bu ma'lumotlarni o'quvchiga qanday yetkazasiz?

Izoh: Albatta har bir badiiy asarni tahlil qilyotganimizda turli fanlarga, sohalarga integratsiya qilib o'rgansak bo'ladi. Bu bolani dunyoqarashini kengaytiradi, fikrlashga undaydi. “Padarkush”ni aynan tarix hamda psixologiyaga bog'lashni tavsiya qilardim.

1.Siz tarixda padarkush bo'lgan, ya'ni o'z padari qotiliga aylangan kimsalar haqida eshitganmisiz? Ular haqida o'qiganingizda qalbingizda qanday kechinmalarni o'tkazgansiz?

2. Jadidlar jamiyatni rivojlantirish omili sifatida birinchi galda ma’rifat ekanligini yaxshi angladilar va bularni yana qaysi jadid ma’rifatparvarlari misolida ko’rishimiz mumkin?

3. Ma’rifat uchun birgina maktab kifoya qilmaydi. Zamon va dunyoda sodir bo’layotgan voqealar bilan tanishish ham muhim. Millat uchun oyna kerak. Sizningcha, bu “oina” nima bo’lishi mumkin?

2. Asarni o’qish davomida (*While reading activities*)

A) Asarning muhim tugunli nuqtalarini aniqlang. Shu nuqtalarini o’quvchilar yaxshiroq tushunishlari uchun qanday savol va topshiriqlar berasiz?

1. Boyning bola tarbiyasiga munosabati qanday? Uning bolasiga bee’tibor bo’lishiga nimalar sabab deb o’ylaysiz?

2. Sizningcha, Domulla va Boy o’rtasidagi bo’lgan suhbatning kulminatsion joyi, nuqtasi qayerda?

3. Toshmurodning o’z uyiga o’g’irlikka tushishiga kim sababchi?

4. Boyning beparvoligi qaysi o’rinlarda, qanday xatti-harakatlari orqali ochib berilgan?

5. “Padarkush” dramasi Ziyoliva Domulloning birlashtiruvchi va farqli tomonlarini sanang.

6. Agar Boyning uyi bilimsizlik, jaholat maskani bo’lsa, pivoxona qanday ramziy ma’noga ega?

7. “Padarkush” dramasi ilgari surilgan jiddiy muammolar, ya’ni ta’lim va tarbiyani asosiy kuch deb bilish, xalqni jaholat, qoloqlikdan qutqarish kabi munosabatlar sodda va ta’sirli ifodalangan. Siz bunga qanday fikr bildirasiz?

8. Behbudiy o’z dramasi yaratishda tarixiy voqealardan foydalanishdan ko’ra ko’proq nimalarga urg’u berdi?

9. Boy va Domullo o’rtasidagi suhbat ular o’rtasida qarama-qarshilikka sabab bo’ladi va nima sababdan Boy farzandining ilmsizligi qanday oqibatlarga olib kelishi haqida Domullodan so’rab ham ko’rmaydi?

10. Turkistonidagi ilmsiz hayot, qorong‘u turmush va qoloq fikrlaydigan aholining qarashlari nima sababdan Ziyoli yoki Domulloga o‘xshash insonlar tarafidan jon kuydiribaytilsa ham ularga unchalik ta’sir etmay qoldi?

B) O‘qish davomidagi topshiriqlarda kognitiv qobiliyatlarning qaysi bosqichlarini va qanday qilib qamrab olasiz?

1. Birinchi pardada asosiy obraz bo‘lib, barcha personajlarni o‘z atrofida to‘play olgan obraz qaysi?

2. Ikkinchi pardadagi yetakchi, o‘ziga xos bo‘lgan obraz qaysi va siz uni sheriklariga g‘oya beruvchi sifatida baholay olasizmi?

3. Ilmsizlik, jaholat oilaga baxtsizlik olib kelishi qaysi o‘rindagi dialoglarda ta’sirli aks ettirilgan?

4. Dramadagi bir-biriga o‘xshash (xarakter, dunyoqarash va boshqa jihatdan) qahramonlarni bir guruhga ajrating. Ular qaysi xususiyatiga ko‘ra bitta tipga kiritilganini izohlang.

5. Behbudiy dramasiidagi majoziylik nimalarda o‘z aksini topgan?

6. Dramada bir inson fojiasi orqali millat fojiasi qay tarzda ochib berilgan?

7. Olimi diniy hamda olimi zamoniy so‘zlarini izohlang. Sizningcha, qaysi biri ustunroq?

8. Boy va Ziyolio‘rtasidagi suhbatni Boy va Domullo o‘rtasidagi muloqot bilan solishtiring.

9. Behbudiy Xayrullaning maoshi bilan Lizaning kelishi uchun kerak bo‘lgan pul o‘rtasidagi tafovutnina bu qadar katta qilib belgilagan?

10. “Padarkush” dramasiidagi Boybuchchaning ruhiy holati haqida qanday fikrdasiz?

3. Asarni o‘qishdan keyin (Post-reading activities):

Izoh: Asar tahlil qilishning kulminatsion nuqtasi bu asarni o‘qib bo‘lgandagi o‘quvchining ruhiy holati, his-tuyg‘ulari va xulosalari bilan belgilanadi. Savol tuzishda faktlardan ko‘ra o‘quvchi yoki talabaning fikrlashiga turtki beruvchi jihatlariga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi, albatta.

Agar savol va topshiriqlarda fakt so'ralsa testga tayyorgarlikday bo'lib qolardi, nazarimda. Go'yo ko'r-ko'rona ma'lumotlarni yodlash. Aslida adabiyot ko'ngilni charxlashi kerak. Bolani fikrlashga, ongini qo'zg'atishga, badiiy asarni his qildirishga undaydigan savollar ishlab chiqish juda muhim sanaladi.

1. Nega Boyning qotili Tangriqul bo'lgani bilan dramaga "Padarkush" deb nom berilgan?

2. Jamiyatda bo'layotgan bunday hodisalar, ya'ni qoloq ommani tarbiyalash, ularga yangi fikr, g'oyalarni yetkazishda drama qanday ahamiyatga ega?

3. "Padarkush" dramasi o'qish jarayonida Boyning o'ldirilish sahnasi nima uchun ko'pchilik insonlarda Boyga nisbatan achinish hissi uyg'otmaydi?

4. Sahnadagi voqealarni to'g'ri anglab yetgan tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini qanday his qiladi? Sizningcha, ular qalbida yoshlarni o'qitish orqali yangi hayotga olib chiqish mumkinligini tushunib yetadilarmi?

5. "Padarkush" dramasi o'qib tugatganingizdan keyin qalbingizda nimalar kechdi? Ko'zlaringizni bir on yumib, yaxshilab o'ylab so'ngra bu dramani bitta gap bilan qanday ta'riflagan bo'lar edingiz?

Badiiy asarni tahlil qilish asarni boshdan oxirigacha syujetini hikoya qilib berish degani emas. Badiiy asarni tushunish insondan katta tafakkurni talab etadi. Buning uchun o'quvchining bilim bazasini faollashtirish, uni amaliyotga tadbiq etish zarur. O'qituvchidan talab etiladigan narsa shuki, badiiy asar yuzasidan tuziladigan savol va topshiriqlarga jiddiy yondoshish kerak. Bu bolani badiiy asarga qiziqtirish, berilgan adabiyotdagi parchadan tashqari asarning to'liq shakli bilan tanishishga undashda ham muhim hisoblanadi. "Bolaning mustaqil fikrlashi har doim e'tiborda bo'lishi lozim" (Qunduz Husanboyeva) [3. 15-bet] Bundan tashqari bu jarayonlar o'quvchilarning dunyoqarashiga ta'sir etadi va ularda matndagi voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Fikrimizcha, g'arb adabiyot o'qitish metodikasida ustuvor metodlardan bo'lgan yuqoridagi uch usul u yoki bu shaklda bizda ham mavjud. Faqat nomlashda va yondashuvda ayrim o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Biz metodik mushtarak jihatlarni "Padarkush" dramasi tahlili orqali ochib berishga intildik. Ta'kidlash joizki, taniqli olimlarimiz – Ulug'bek Dolimov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Boqijon To'xliyev, Qunduz Husanboyeva, Safo Matjon, Marg'uba Mirqosimova, Roza Niyozmetova, Zulxumor Mirzayeva kabi ko'plab metodist-olimlarimiz biz tilga olgan muammolar bo'yicha ko'p mulohazalar bildirganlar. Bizning kuzatishlarimiz bularning barining jamuljamidan chiqarilgan kichik bir kamtarin xulosalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Barkamol-fayz-media, 2018 – 352 b.
2. Долимов С., Убайдуллаев Х., Ахмедов Қ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1967. – 448 б.
3. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
4. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.
5. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. – Т.: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 504 б.
6. Йўлдошев Қ. Таҳлил машаққатлари. – //Ўзбек тили ва адабиёти. –1993. –№ 3. –33 – 40-б.
7. Йўлдошев. Қ. Ёниқ сўз. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 548 б.
8. Матчон, Сафо. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 138 б.
9. Мирқосимова М. Ҳозирги ўзбек адабиёти намуналарини шарҳлаб ўрганиш. – Т.: ТДПУ, 2015. – 184 б.
10. Рыбникова М. Ф. Очерки по методике литературного чтения. М.; Просвещение. 1963. 316 с.
11. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 152 б.
12. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.

ID-020-30-M012

Gulmira Ergasheva

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

ADABIYOT TO'GARAKLARIDA MAQOLLAR TAHLILI BO'YICHA TAVSIYALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot to'garaklari ishi haqida tavsiyalar beriladi. Xususan, o'zbek xalq maqollarini adabiyot to'garaklarida o'rganish bo'yicha kuzatishlar bayon qilingan. Maqollar tahlili bo'yicha metodik izlanishlar ilmiy dalillar bilan keltiriladi.

Kalit so'zlar: *o'zbek adabiyoti, xalq og'zaki ijodi, maqollar, adabiyot to'garaklari ishi.*

Annotation. This article provides recommendations for the work of literary circles. In particular, observations on the study of Uzbek folk proverbs in literary circles are described. Methodological research on the analysis of proverbs is based on scientific evidence.

Keywords: *Uzbek literature, folklore, proverbs, work of literary circles.*

Ma'lumki, maqollar xalq og'zaki ijodining bebaho boyligi sanaladi. Ular o'zining qisqa shakli va chuqur ma'nosi bilan har birimiz nutqimizda qo'llaydigan bebaho vositaga aylangan. Maqol janri o'z xususiyatiga ko'ra xalqaro janr sanaladi. Ya'ni u dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida uchraydi. Ana shu holatdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrda 2010–2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risidagi 220-son qarorida xalq og'zaki ijodini o'rganish, folklorshunoslik taraqqiyotini ta'minlash bilan bog'liq bir qator tadbirlar belgilangan. Mazkur tadbirlarning hayotga tatbiq etilishi xalq og'zaki ijodini o'rganish sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu

borada davlatimiz Prezidenti Istiqlol mafkurasi g'oyalarini yaratish jarayonida har qanday siyosat va shaxsiy manfaatlardan ustun turadigan folklor merosidan foydalanish zarurligiga alohida to'xtalib "Yurtimiz yoshlarini o'zbek folklorining hayotbaxsh qadriyatlaridan bahramand etish ularni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega" [3] deb ta'kidlaganlar. Folklor janrlari sirasiga esa tarbiyaning asosiy vositasi hisoblangan, kishilarni hayot voqeliklaridan chiqarilgan xulosalar orqali tarbiyalovchi xalq maqollari ham kiradi. Shu sababdan ham yurtimizda olib borilayotgan ta'limning negizida tarbiya yotadi. Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy tarbiya jarayoniga to'xtalar ekan shunday deb yozadi: "Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur" [1]. Ushbu fikrlarning o'zi tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beruvchi dalil vazifasini o'taydi. Shuningdek, ulug' rus yozuvchisi L. N. Tolstoy ham maqollarning xalq hayoti, ruhiy dunyosi bilan naqadar yaqin ekanligi haqida to'xtalib: "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko'raman", [7] deb yozgan edi. Adib M. Sholoxov esa "Maqol qanotlanib asrlardan asrlarga, avloddan avlodga ko'chib yuradi va bu xalq donishmandligi parvoz qilayotgan ufqning nihoyasi ko'rinmaydi", deb xalq maqollarining inson hayotida bitmas-tuganmas xazina ekanligini alohida ta'kidlaydi.

O'zbek folklorshunoslari, jumladan, Sobirjon Sodiqov maqollarning paydo bo'lish jarayonini: "Xalqning qalbida ibratli fikr, hayot haqidagi xulosalar "pishib" yetilib turgan bo'ladi. Ko'pni ko'rgan, zukko va gapga chechan bir odam uni bir necha so'z vositasida yuzaga chiqaradi. Shu tariqa maqol paydo bo'ladi", – deb izohlaydi. Haqiqatan ham, aslida avval og'zaki nutqda paydo bo'luvchi maqollar og'zaki nutqimizda keng qo'llaniladi. Ular nutqimizni ixcham va ravon, teran va mazmunli bayon qilishga yordam beradi. Zero, "So'z ko'rki – maqol", degan gap ham bejiz emas. "Maqollar nutqqa chehradagi qora xoldek, uzukka qo'yilgan ko'zdek yarashadi", [6]

O'zbek tilida maqollar turli davrlarda turli nomlar bilan atalib kelingan. Mahmud Koshg'ariy "Devon"ida turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar ham keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham ayrim o'zgarishlar bilan tilimizda muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda. Masalan, ushbu asarda keltirilgan "Kishi olasi ichtin" (Odam olasi ichida bo'ladi), "Alp yag'ida, alchaq jo'g'ida (Botir dushman bilan to'qnashganda, yuvosh esa majlisda sinaladi), "Alp cherikda, bilga tirikda" (Botir jangda, dono esa majlisda sinaladi) singari maqollar hozirgi vaqtda ham ishlatiladi. O'zbek adabiyotining mumtoz davriga kelib esa maqol ma'nosida "masal" atamasining keng istemolda bo'lganligini ko'rish mumkin. Mumtoz adabiyotdagi she'riy asarlarda maqol qo'llash san'atining "irsoli masal" deb atalishi ham bejiz emas. Bugungi kundagi maqol atamasi XX asrdan boshlab o'zbek paremiologiyasidagi turg'un atamaga aylandi va janrga eng munosib nom sifatida qo'llanilmoqda.

O'zbek tadqiqotchilari tomonidan esa 1924-yildan boshlab maqollar to'plab, nashr etila boshlandi. Biroq bu nashrlarning ayrimlarida maqollarni berishda jiddiy nuqsonlar ham ko'zga tashlanganini ham qayd etib o'tish lozim. Bu holat folklorshunoslarimiz e'tiboridan chetda qolmadi. Bu borada filologiya fanlari doktori Jabbor Eshonqulning "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilingan "Maqol egasiz emas" maqolasini eslatish maqsadga muvofiqdir. Maqolada mazkur to'plamning kamchlik va nuqsonlari haqida so'z boradi. Jumladan, muallif shunday yozadi: "O'zbek xalq maqollari. 65 mavzuda maqollar guldastasi" kitobida xalq og'zaki ijodi va folklorshunoslarimiz mehnatiga bepisand qaralganiga guvoh bo'lamiz. Har bir sahifadagi xatolar, kitob mavzulariga maqollar noo'rin kiritilgani, mazmuniga qaramay qo'shib yuborilgani ham shundan dalolat beradi". Bu fikrlarni o'qib mazkur to'plamni tayyorlashda anchayin e'tiborsiz yondashilgani ma'lum bo'ladi. Maqolada mazkur to'plamdan keltirilgan maqollarning buzilgan shaklini o'qib bunga yana bir bor amin bo'lasiz: "Igna yo'qotgandan sigir yo'qotgan gumonsirar" maqolini o'qib, beixtiyor igna yo'qotgan odamdan nega sigir yo'qotgan odam

gumonsirashi kerak, deb o'ylanib qolasiz. Bunda mantiqsizlik shundoq ko'rinib turibdi. Aslida esa bu maqol quyidagicha: "Igna o'g'irlagandan sigir yo'qotgan odam gumonsirar" [2]. Bu maqolada keltirib o'tilgan kamchiliklar muallif tomonidan keyingi nashrlarda tuzatilsa va maqol to'plamlarini nashrga tayyorlovchilar ushbu jihatlarga e'tibor qaratsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Maqollarni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to'g'ri va ongli o'qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so'zning va yaxlit maqolning ma'nosini to'liq idrok etishga erishishdir. O'quv mashg'ulotlari jarayonida maqolning mazmunini o'rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshi ma'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar ma'nosi yuzasidan ish olib borish ham talab etiladi. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini egallashi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganishlari zarur. O'quvchilarga maqollarni mavzu bo'yicha guruhlab o'rgatishda o'qish mavzulariga asoslaniladi. Bunda maqol mazmuniga mos asarlar nomini keltirish, uning mazmun va g'oyasini maqol bilan bog'lash kerak. O'quvchilar o'qigan maqollariga darslikdan mos asarlarni tanlab, maqolning ma'nosi bilan asarda aytilayotgan fikrning bog'liqligini izohlab beradilar. Masalan, "Elidan ayrilgan yetti yil yig'lar, Vatandan ayrilgan o'lguncha yig'lar", "Begona tuproq – devona tuproq" maqollariga Bobur haqidagi "Hidi, tilimi va mazasidan" asarini misol qilib keltirish mumkin. O'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asari yillar oshgan sari har gal o'quvchini qaysidir jihati bilan sergaklantiradi. Mazkur asardagi Anvar obrazi haqida adabiyot ixlosmandlari yaxshi bilishadi. "Bir kun tuz ichgan joyingga qirq kun salom ber", "Intilganga tole yor" maqollarining ifodasi sifatida bolaligidan tirishqoq va zakiyligi, nozikta'bligi bilan atrofdagilar e'tiboriga tushgan, o'z so'zida sobit tura oladigan, yuqori martabaga erta erishgan Anvar timsolini keltirish mumkin. "Jasur qiz" ta'rifini

olgan Ra'no haqida ham maktab darsliklarida ilk tasavvurlarga ega bo'lganmiz. Zamonasining zulmi yoxud zayli qurboniga aylanmay, o'zining shijoati bilan muhabbati va kelajagi yo'lidagi harakati, aytish joiz bo'lsa, tahsinga sazovordir. "Odob bilan baxt topilar, Sabr bilan taxt", "Yaxshi qiz yoqadagi qunduz" kabi maqollarda tariflanganidek bugungi kunda yoshlarimizga ibrat bo'la oladigan vafodorlik, pokdomonlik, go'zallik, halollik, oliyjanoblik fazilatlarini Ra'noning xulqi, fe'l-atvoriga xos. Xuddi shunday G'afur G'ulomning turfa hangomalarga boy "Shum bola" qissasidagi Qoravoy uyidan ketib qolib, o'zining topqirligi, zukkoligi, sho'x-shaddodligi tufayli turli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Shum bola bir gal o'g'rilarga, bir gal har bir gapga "Innaykeyin?" deb javob qaytaruvchi boyga, bir gal giyohvand mullalarga duch keladi. Axiyri oila sog'inchi uni o'z uyiga yetaklab boradi. Musofirchilikning shuncha qiyinchiliklariga qaramay, Qoravoy taslim bo'lmadi, oldinga intilib yashadi. "Musofir bo'lmaguncha, musulmon bo'lmaysan", "Baxt yalqovga begona", "Gado arazlasa, to'rvasiga ziyon", "To'g'ri so'z tosh yorar, egri so'z – bosh", "O'ylamay qilingan ish, Boshga keltirar tashvish" kabi maqollar Qoravoy hayotidan hikoya qiladi.

Maqollarni o'rgatish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g'oyaga, keltirilgan obrazlarga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim. Maqollar orqali o'quvchilar ongiga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ilm olishga qiziqish, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, o'quvchilarni ko'rgan-bilgan, eshitgan, o'qiganlari yuzasidan xulosa chiqarishga, o'z nutqida maqollardan foydalanishga o'rgatish kerak. Bundan tashqari, "Eling senga cho'zsa qo'l, Unga doim sodiq bo'l" maqolining ma'nosini tushuntirishda shu bo'limdagi asarlardan, bolalar uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan sharoitlardan misollar keltirish ham mumkin bo'ladi.

Demak, hech ikkilanmay aytish mumkinki, xalqimizning bacha fazilati, falsafasi, duynoqarashi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati o'zbek xalq maqollarida aks etgan. Prezidentimiz ta'kidlaganidek "yurtimizning ertangi

kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz" [5] ni ma'nan yuksak qilib tarbiyalamay turib bu vazifani amalga oshirib bo'lmaydi. Zero, "Milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart". [4]. Chunki mafkura o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prik ekanligini unutmasligimiz lozim. Bu borada bizga xalq og'zaki ijodi durdonalari muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshonqulov J. Maqollar egasiz emas, O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2014- yil 4- aprel, № 14, B.4.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 31
3. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Т: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004, 116-б.
4. Каримов И. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. "Тафаккур", 1998, 2-сон,8-б.
5. Қўшоқов М. Сўз кўрки – мақол. Ёш ленинчи, 1963 йил 7май № 55 (5872) - Б. 4.
6. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. "Хуррият", 2009 йил 6 декабрь, 3-б.
7. Шомаксудов Т., Шорахмедов Ш. Нега шундай деймиз? Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987, 40-б.

ID-020-30-M013

Ismigul Nizomova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi

TA'LIM BOSQICHLARIDA YASSAVIY IJODINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. O'zbek mumtoz adabiyotida hikmat janrini boshlab bergan Yassaviy ijodini o'rganish barcha davrlarda adabiyotshunoslar e'tiborini tortib kelgan. Shoir adabiy merosi matnshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Maqolada maktab Adabiyot darsliklarida Yassaviy ijodining yoritilishi xususida fikr bildirilgan. Adib qalamiga mansub axloqiy, ta'limiy hikmatlar tahlil qilingan. Maktab Adabiyot darslarida mumtoz siymolar faoliyatini o'rganish, xususan, Yassaviy hikmatlarini yod olish, mavzu-mundarijasini tushunish, obrazlar tizimi bilan tanishish jarayonida qanday usullardan foydalanish mumkinligi to'g'risida mulohaza yuritilgan. Shoirning ijtimoiy adolatsizlik qoralangan, ilm va ma'rifat ulug'langan hikmatlari matnida uchraydigan insoniy fazilatlar talqiniga e'tibor qaratilgan. Natijada o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida Yassaviy ijodining o'ziga xos o'rni aniqlangan. O'quvchilarga qo'shimcha o'zlashtirish uchun darslikka kiritilmagan hikmatlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: *hikmat, tasavvuf, manba, axloq, tariqat, badiiyat, adolat, tariqat.*

Annotation. The study of Yassavi's works, which gave rise to the genre of wisdom in Uzbek classical literature, has always attracted the attention of literary critics. The poet's literary heritage has been studied from a textual point of view. The article comments on the coverage of Yassavi's work in school literature textbooks. Ethical and educational proverbs of the author are analyzed. The school's literature classes focused on the methods that can be used to study the activities of classical figures, in particular, to memorize the wisdom of Yassavi, to understand their context, and to become acquainted with the system of images. Emphasis is placed on the poet's interpretation of human qualities found in the text of proverbs condemning social injustice and glorifying science and enlightenment. As a result, Yassavi's work has a special place in the history of Uzbek classical literature. Students are encouraged to use proverbs that are not included in the textbook for further study.

Keywords: *wisdom, mysticism, source, morality, teachings, art, justice, enlightenment.*

Ahmad Yassaviy turkiy-tasavvuf she'riyatining asoschisi, atoqli mutasavvuf shoirdir. Xalq orasida "shayxul-mashoyix", "sultonul-orifin" unvonlari bilan ulug'langan buyuk ma'rifiy zotning hikmatlari turkiy xalqlar tomonidan bir necha yuz yillardan beri sevib mutolaa qilinadi. Hikmatlarida tasavvufning barcha yo'nalishini qamrab olgan, hamda she'rlarida mohirlik bilan tasavvuf mohiyatini singdira olgan adib haqida ma'lumotlar yetarli emas. Adibning tavallud yili noma'lum. Vafoti esa turli manbalarda hijriy 562-, milodiy 1166-yil deb ko'rsatiladi. U Turkistonning Yassi shahrida, ruhoniylar oilasida tug'ilgan. Shundoq kichkina jussa, tik qomatli, xushsurat bir kishining avliyo ekanligi, hatto, podshohlar ham u kishi bilan maslahatlashib ish qilishi, hamda dunyoning to'rt tarafida 90 ming muridi borligi hammani hayron-u lol etgan.

Isfijob uning ota yurti. Ota-onasining qabri ana shu shaharda. Adib Ruqiya ismli ayolga uylangan. Ularning Gavhari Shahnoz, Gavhari Xushnoz ismli qizlari hamda Ibrohim ismli o'g'li bo'lgan [3.9-14]. Yassaviy hikmatnavislik an'analarini boshlab bergan ijodkor hisoblanadi. "Hikmat"lar Ahmad Yassaviy merosini jamlagan asar bo'lib, ushbu asarda 240 ga yaqin she'rlar kiritilgan. U Arslonbob hamda Yusuf Hamadoniydan tahsil olgan. She'rlarini asosan chig'atoy tilida yaratgan. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Ibrohim Haqqulning sa'y-harakati bilan Yassaviy hikmatlarini birinchi bor 1990-yil ko'p nusxada nashr etdi. Shundan keyin "Hikmatlar"ning boshqa nusxasi 1992-yili M.Xasaniy tomonidan chop etildi. Yurtimizda va xorijda Yassaviy hayoti va ijodini o'rganishga bo'lgan qiziqishning samarasi o'laroq "Devoni hikmat"ning mustaqil nashrlari birin-ketin o'quvchilar hukmiga havola etildi. Vaqtli matbuotda Yassaviy hayoti va ijodiga doir o'nlab maqola, risola va kitob chop qilindi, ilmiy tadqiqotlar yaratildi [2.110-111-].

10-sinf adabiyot darsligining birinchi qismidan o'rin olgan "O'zbek mumtoz adabiyoti" bobida berilgan Atoyi, Alisher Navoiy, Bobur, Turdi Farog'iy kabi mumtoz siymolar qatorida Ahmad Yassaviy nomining zikr etilishi hamda uning maktab darsligida o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Mavzu o'z

navbatida, Ahmad Yassaviyning hayoti va ijodi, hikmatlari, she'riyati va ularning mavzu ko'lamini qamrab oladi. O'quvchi mavzuni o'zlashtirish jarayonida adib haqidagi bir qancha ma'lumotlarga hamda hikmatlarda qo'llanilgan obrazlar, tasavvufona tarzda yaratilgan ijod namunalaridan bahramand bo'ladi. Mavzu so'ngida berilgan savol va topshiriqlar o'quvchi bilimni belgilashda ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

10-sinf adabiyot darsligida Ahmad Yassaviy ijodining mahsuli hisoblanmish ba'zi hikmatlar va ularning sharxi keltirilgan. Avvalo, adib ijodida ishq talqini hamda uning boshqa mumtoz shoir va ijodkorlarnikidan farqli tomonlari sanab o'tilgan. Yassaviy Ollohga bo'lgan ishqni haqiqiy ishq deb biladi. Chin oshiq sifatlariga e'tibor qaratadi. Chin oshiq kim degan savolga quyidagicha javob beradi: Shoir nazdida chin oshiq bo'lish uchun "Alloh debon ichga nurni to'ldirish, butun tanadagi tomir-u suyaklar larzaga kelgan holda "Haq zikri"ni qilish, rohat-farog'atdan kechish" lozim bo'ladi. Adib hikmatlariga xos yana bir xususiyat-nafsga qarshi kurash masalasi bo'lib, shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsni jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo'lsa, bunday sabrli ishq egasining "mashhar kuni"da armoni bo'lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida "Nafsni tepib dargohiga loyiq bo'lg'il" deb ta'kidlanadi:

Ishqqa tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding,

Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding.

Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding,

Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q.

Ahmad Yassaviy ushbu bandda oshiq holining kuchayganligi, ishq dardiga muhtalo bo'lgan kishidagi ruhiy o'zgarishlarni tasvirlar ekan, oshiq holini bamisoli o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho'g') bo'lgan kapalakka o'xshatadi.

Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganda unga insonning kamolotida xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga "shum"

sifatini beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafsi yo’li”, “nafsi ilgi” singari istioralarni ham qo’llaydi. Adib to’g’ridan to’g’ri nafsga qarshi kurashni, uning yo’rig’iga yurmaslikni targ’ib qiladi. Nafsning domiga ilinishi insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko’rsatib beradi.

Boshqa bir she’rida shunga urg’u berib yozadi:

Nafs yo’lig’a kirgan kishi rasvo bo’lur,

Yo’ldan ozib, toyib, to’zib gumroh bo’lur.

Yotsa, qo’psa shayton bilan hamroh bo’lur.

Nafsni tepkil, nafsnı tepkil, ey bardikor.

Ahmad Yassaviy she’riyatining keng tarqalishi va xalq orasida sevib o’qilishining asosiy sabablaridan biri uning xalq og’zaki ijodiga nihoyatda yaqinligidadir[4.53-55-].

Yassaviy hikmatlarida xalqparvarlik, mehr-muhabbat, sabr-u qanoat tushunchalari ham jonli tarzda o’z aksini topgan. Adib jaholat va razolatni qoralash, nodonlik, do’stlikka xiloflik qilish, manmanlikni ham tanqid qiladi:

Duo qiling nodonlarning yuzin ko’rmay,

Haq taolo rafiq bo’lsa, birdam turmay,

Bemor bo’lsa, nodonlarni holing so’rmay,

Nodonlardin yuz ming jafı ko’rdum mano.

Ayo do’stlar nodon birla ulfat bo’lub,

Bag’rim kuyub, jondan to’yib o’ldim mano.

To’g’ri aytsam egri yo’lga bo’yin to’lg’ar,

Qonlar yutib, g’am zahrıga to’ydim mano.

Qayda ko’rsang ko’ngli sinuq marham bo’lg’il,

Andoq mazlum yo’lda qolsa hamdam bo’lg’il.

Ummat bo’lsang g’ariblarga tobe bo’lg’il,

Oyat, hadis har kim aytsa, some bo’lg’il

Oqil ersang g’ariblarning ko’nglin ovla,

Mustafodek elni kezib, yetim kovla.

G’arib, faqir, yetimlarni qilg’il shodon,

Haqlar qilib, aziz joning ayla qurbon.

Taom topsang joning bila qilg'il ehson

Haqdin eshitib bu so'zlarni aytdim mano.

Bir guruh hikmatlarda shoir kishilarni qadrdon, halol-u pok, ilm-donishli, diyonatli, imon-e'tiqodli bo'lishga da'vat etadi; dilozordan haq bezor, barchaga yaxshilik qilmoq-har bir mo'minning bosh shioridur; chunki, mardumozorlikning jazosi qattiq:

Sunnat ermish kofir bo'lsa, berma ozor,

Ko'ngli qattiq dilozordan xudo bezor.

Oqil ersang eranlarg'a xizmat qilg'il,

Amri ma'ruf qilg'onlarni izzat qilg'il [1.112-113].

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da yozgan: "Nodon-eshak,balki eshakdan ham batar. Eshakka nimani yuklasang ko'taradi;qayoqqa haydasang o'sha yoqqa boradi,unda aql-farosat davosi yo'q bermasang och, bersang to'q. Bu bir bechoradur, yuk tashuvchi, o'tin-cho'p tashuvchi, balki g'alla tashuvchi...

Nodon yuqoridagi sifatlardan holi; bilim libosidan mahrum. Nodoning ishi takabburlik, kekkayish,hayolida yuz xil behuda tashvish..."

Qaysi elda ichki horg'inlik va ruhiy ozurdalik g'olib kelsa, u elda nodonlik avjiga chiqqan bo'ladi. Qaysi yurtda ma'naviy qadriyatlar qimmatini pasaytirilib, adolat ustunlari qulatilsa, u yurtda g'ofil bandalarning baland martaba va mavqelarga ko'tarilmog'lari uchun keng yo'l ochilganidir. Navoiy "Nodonlig' erur elda malomatg'a dalil", deya bashorat so'zlarni yozib qoldirgan. Adabiyotimiz tarixida nodonlik atalmish ofatdan Ahmad Yassaviychalik ranj chekkan shoir bo'lmasa kerak. Nodonlik-xalqning kulfati.Nodonlik-o'ziga xos yovuzlik. Nodon-aql jallodi. Mana shuning uchun Yassaviy "Duo qiling nodonlarni yuzin ko'rmay", deya yolvorgan va o'nlab hikmatlarini nodonlikdan shikoyat mazmunida yaratgan.

Yassaviy dunyoning o'tkinchiligi haqida ushbu misralarni keltiradi:

Beshak biling bu dunyo borcha xalqdin o'taro,

Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro.

Ota-ona, qarindosh qayon ketti- fikr qil,

To'rt oyog'liq cho'bin ot bir kun sanga yetaro.

“Dunyo”ni ishvagar, subutsiz, aldoqchi, zolim, bevafo qiyofalarida xarakterlash turkiy xalqlar she'riyatida XII asrlardayoq g'oyaviy-badiiy an'ana holida shakllangan edi. Yusuf Xos Hojib unga “yiyig' dunya”-bevafo dunyo sifatini beradi. Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy tasvirida ham “dunyo” poetik obrazga aylantirilgandir. “Beshak biling, bu dunyo borcha xalqdan o'taro”dagi “dunyo” ,birinchidan,Ahmad Yugnakiy aytgan,odamlar bir qo'nib yana ketadigan “rabot” ma'nosiga ega.Ikkinchidan, u inson umrining ko'zgiday gap. Unda fikran nazar tashlab, umrning naqadar yugurikligini bilsa bo'ladi. Uchinchidan, u taqdir timsoli. Umrning yelday o'tishi taqdir danmi yo dunyoning ishimi-bilish qiyin. Shunisi aniqki, taqdirning ayovsizligi oldida mol-dunyoga inonmoq nodonlik va g'ofillikdir. To'rtinchidan, bu olam shunday bir “maydon”ki, unda hamma ham oxir-oqibatda “to'rt oyog'li cho'bin ot” ustida jonsiz yastanib ketmakka mahkumdur.Odam tug'lsa nega o'ladi? O'lsa nega tug'iladi?[1;29-39bet].

Sharq mutaffakkirlari o'limni tiriklikning teskari va toza tomoni deb aytishgan. Nega shunday deyishgan? Bu haqiqatni qanday qilib anglash mumkin? Turmushning mayda tashvishlari o'lim qarshisida nimaga arziydi? Inson tirik murdaga o'xshab yashamasligi uchun vaqtni o'ldirmasligi kerak emasmi? Vaqt qahridan cho'chimaslik nima oqibatlarga olib keladi? Bunday savollar xususida tinimsiz o'ylash lozim. O'limni anglash-hayotni ma'rifat bilan qadrlash, odam farzandini g'animat bilish, manmanlik va jaholat “tulpor”larga minib hovliqmaslik degan mantiqlarni ham o'z ichiga oladi.

Ahmad Yassaviy uchun saodat va haqiqat ashyoviy narsalarga ega bo'lish emas. Bular hatto maqsad ham emas. Uningcha, haqiqat Yurakda, Haqiqat-Borliq, Ruh, olam bilan ruhan uyg'unlikka kirishish- oliy saodat. Saodat-ma'rifat nurlaridan ong va dilni tiniqlashtirish. Shoir o'z mavjudligini Ruh va ruhiy hayotdagi o'zgarishlar, to'lg'anishlar, yuksalishlar orqali idrok qilmoqni xohalaydi. U insondagi ichki boylikni muqaddas bilgan.Shuning uchun tashqi

boyliklar, gunoh va mutelik “narxi”ni oshiruvchi ularning har qanday turidan hazar qiladi.

Piri Turkiston qarashlarining millat madaniyati, qadriyati va ma’rifatdagi nufuzi baland bo’lgan. Uning xalq tasavvuridagi tarixiy va manqabiy siymosi, unga doir rivoyatlar xalqning ko’z o’ngida ulug’ shayxni ishq va irfon darg’asi qiyofasida gavdalantirib kelgan. Shu bois xalq unga bo’lgan ehtiromini darig’ tutmagan va asrlar mobaynida Piri Turkiston, Xoja Turkiston, Sulton ul-orifin, Sulton ul-avliyo, Hazrati Sulton, Turklar otasi deya ta’riflab, hurmat ila tilga olishdan to’xtamagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Homidiy H.Ko’hna Sharq darg’alari. Badiiy-ilmiy lavhalar. – Toshkent: Sharq, 2004.392b.
2. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O’zbek mumtoz adabiyoti. O’quv qo’llanma.- T.:O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg’armasi nashriyot 2006.528b.
3. Siyoyev, Sadulla.Yassaviyning so’nggi safari: Roman |Ma’sul muharrir.: N.Komilov; So’zboshi:A.Oripov.-T. “Ma’naviyat”, 2002.256b
4. A 29 Adabiyot[matn]: darslik-majmua\B.To’xliyev [va boshqa.]-Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -184b.

ID-020-30-M014

Madina Abduqodirova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

ADABIY TA'SIR MASALASI NAVOIY VA JOMIY MISOLIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy va Jomiy ijodiy hamkorligining bir-biriga do'stlik va muhabbat rishtalari orqali qattiq bog'langani, bu hamkorlikning ikki buyuk ijodkorlarning asarlarida ifodalanganligi to'g'risida fikrlar keltirilgan. Navoiy va Jomiy munosabatlari, adabiy ta'sir masalalari, Berters va boshqa g'arb olimlari tadqiqotlari misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *Jomiy, Navoiy, g'azal, adabiy ta'sir, "Xamsa"*

Annotation. This article argues that the creative collaboration of Navai and Jami is closely linked by friendship and love, which is reflected in the works of two great artists. Berters and other Western scholars analyzed the relationship between Navai and Jami, issues of literary influence, on the example of research.

Keywords: *Jami, Navai, gazal, literary influence, "Khamsa"*

XV asrning ikkinchi yarmida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy va adabiy hayotning namoyandalari bo'lmish Navoiy va Jomiy ijodiyoti va faoliyati asarlar osha ilm ahli va adabiyot ixlosmandlarining diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Ustoz-shogird munosabatlari ila boshlangan do'stlik va muhabbat ikki iste'dod egasining ma'lum bir qirralarini ochishga va o'lmas durdona asarlarning yaratilishiga sabab bo'lgan deyish mumkin. Navoiy va Jomiy nafaqat ijod sohasida, balki xalq va davlat ishlarida ham maslakdosh bo'lib, doim adolatni yoqlar edilar. Navoiy va Jomiy ijodi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning nafaqat qoldirgan boy adabiy

meroslari, balki insoniy fazilatlari bilan adabiy hayotning ibratli hodisasi sifatida qolganliklari ta'kidlanadi.

Navoiydek she'riyat bilimdoni va shinavandasi o'zining mashhur zamondosh shoiri bo'lgan Jomiyning 1476-yilda o'ziga pir qilib oladi va uning rahnamoligida naqshbandiya tariqatiga kiradi [1.180]. Ular orasida qisqa muddatda do'stlik rishtalari ham ulanadi. Jomiy o'z muridini sevib qoladi va uning she'riyat sirlarini chuqur egallaganligini yuqori baholaydi. Jomiy bu haqda "Yusuf va Zulayho" va "Layli va Majnun" dostonlarida Navoiyga bo'lgan muhabbati va do'stligi haqida keltirib o'tadi [1.182-183]. Navoiy ijodiyoti bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borgan Bertels bu ikki siymoning adabiy va do'stona munosabatlari haqida Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin" deb atalgan mo'jaz asarida ko'proq ma'lumotlar borligini qayd etgan. Ushbu asarda Navoiy ustozini bilan tez-tez uchrashib turganligi, Navoiy uyushtirgan bazmlarda Jomiy ishtirok etmay qolgan holatlarda esa, uning uyiga taomlar jo'natgani haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Navoiy o'zlarining adabiy didlari tog'ri kelishini tez-tez eslatib turgan. Navoiy Jomiy bilan kechgan adabiy suhbatlarining birida mashhur saljuqiylar qasidanavis Anvoriy haqida og'iz ochadi. U shoirning devonini mutolaa qilishni yoqtirar va unga hatto taqlid ham qilar edi. Jomiyning bevosita nazorati ostida Navoiy tasavvuf, poetika, metrika va qofiya kabilar haqida 14ta kitob o'qigan. Jomiy va Navoiy Hirotda bo'lmagan paytlarida bir-birlariga xat yozishgan holda aloqada bo'lganlar. Jomiy 1472-yili haj safarini ixtiyor qilganda Bag'doddan shunday misralar bilan boshlanadigan qasida jo'natgan:

Bar kanori Dajla dur az yor-u mahjur az diyor,
Dorash az ashki shafaqchun dajlayi xun bar kanor.

Tarjimasi:

Dajla daryosi qirg'og'ida yorim uzoq, diyardan judolikda
Shafaqrang ko'z yoshidan ko'ksimda qon dajlasi bor.

Navoiy bu maktubga quyidagicha javob beradi:

In noma, na noma, dofei dardi mann ast,

Oromi daruni ranjparvardi mann ast.

Tarjimasi:

Bu xat emas, har bir shodlik negizidir.

Xursandchilik va ayni hosil qilishning yangi sababidir. [1.190b.]

Bertels har ikkala ijodkor ham ma'no uchun, ham she'riyat mazmuni uchun kurashganliklari, muhabbatni tarannum etganliklari, ijodlaridagi rang-barangliklar haqida ham o'zining xulosalarini keltirib o'tgan.

Mashhur matnshunos olim Porso Shamsiyev "Jomiy va Navoiy" majmuasining muqaddimasida bu ikki yondosh qalb egalari haqida quyidagi fikrlar bildirgan edi: "Chin insoniy xislatlardan sabot, matonat, g'ayrat tolmas mehnatkashlik bu ikki do'stning mushtarak xususiyatlari bo'lib qoldi. Bu mushtarak xususiyat bulardagi buyuk ijodiy kuch va mahoratning deyarli bir mezonda borganligida ko'rinadi. Jomiy biror asar yozsa, birinchi galda Navoiyga taqdim etar, kerak miqdorda isloh etishni, kamchilik va nuqsonlarni ko'rsatib berishni talab etar edi. Navoiy Jomiyni o'ziga madadkor, qiynalganida mushkullarini hal qiluvchi va ishlarga rag'batlantiruvchi ulug' homiy va murabbiy deb bilar edi." [2.] Porso Shamsiyev ularning maktub va yozishmalari asosida "Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy" nomli to'plam e'lon qilgan. Ikki ulug' shoirning hayoti, ilmiy va adabiy faoliyati haqida tanishtiruvchi ushbu asar ular haqidagi eng muhim ma'lumotlar bilan boyitilgan. Ustoz tomonidan ilmiy jamoatchilik uchun eng muhim manba "Xamsat-ul mutahayyirin" asari nashr ettirilgan.

Navoiy va Jomiyning ustoz-shogirdlik munosabatlari asosida ijod qilganliklari ular yaratgan asarlarida ham ko'zga tashlanadi. Ulug' tojik shoiri va mutafakkiri bo'lmish Jomiy o'z shogirdi va muridi Alisher Navoiy maslahati bilan 1486–1488-yillarda "Nafohat ul-uns min hazorat ul-quds" [3.] ("Pok zotlar huzuridan esgan do'stlikning xush islari") asarini yaratadi. Qomusiy yo'nalishda yozilgan asar tarkibi muqaddima bilan boshlanib, unda 618 zohid, so'fiy, mutasavvif hayoti va faoliyati haqida bayon qilinadi. Asar xotima bilan yakunlangan. Oradan biroz muddat o'tgandan keyin Navoiy "Nasoyim ul-

muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” [4] (“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi muhabbat shabbodalarini”)ni Jomiy asari asosida o‘zbek tiliga tarjima qilib, unga ayrim yangiliklar qo‘shadi. Muqaddimaga navoiyona ruh beradi. Navoiy Jomiy asariga kiritilmagan turk mashoyihlarini “Nasoyim ul-muhabbat”ga kiritib, unda 770 nafar tasavvufiy ijodkorlar haqida ma‘lumot beradi. “Nafahot ul uns min hazorat ul-quds” asarida keltirilgan ijodkorlar haqida ham yangi qo‘shimcha manbalar keltirilgan. Bu asarlarning muqaddimalarida tasavvufning ko‘pgina nazariy masalalari haqida ma‘lumot berilgan. A. Abduqodirov muqaddimalardagi o‘xshash va farqli jihatlar haqida to‘xtalib o‘tgan [5.69].

Abdurahmon Jomiy vasfi Navoiyning ko‘p asarlarida uchraydi. Alisher Navoiy “Xamsa”, “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat” kabi asarlarida Jomiy haqida ayrim boblarni bitgan bo‘lsa, “Xamsat ul-mutahayyirin” to‘laligicha “vasfi vasfg‘a sig‘mas” va ta‘rifi ta‘rifiga rost kelmas” ulug‘ insonga bag‘ishlangan. Alisher Navoiy Jomiy ta‘riflar ekan, unga nomiga o‘xshash bo‘lgan “jom” so‘zini shakldosh sifatida oladi, tajnis va ihyom san‘atlari orqali ustozining barkamol ma‘naviy olamini ko‘rsatuvchi poetik timsolini tasvirlaydi.

Mumtoz adabiyotimiz necha asrlardan buyon g‘arb olimlari nigohida bo‘lib kelmoqda. Xususan, Fransiyada Mark Tautant Navoiy ijodiy faoliyati borasida ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshiradi va tarixiy kontekstda, asl manbalar orqali o‘rganishga jiddiy e‘tibor qaratadi. U “Jomiyning Navoiyga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganish: “Saddi Iskandariy” va “Xiradnomayi Iskandariy” (Evaluating Jami’s Influence on Nava’i: The case studies of the Khiradnama-yi Iskandari and the Sadd-i Iskandari) [6] nomli maqolasida Navoiy va Jomiy o‘rtasidagi munosabatlarni, Jomiyning ta‘sirini matnli dalillar bilan ko‘rsatib beradi [6.60]. Navoiy yaratgan “Saddi Iskandariy dostoni” Jomiy masnaviysini ham tushunishga yordam beruvchi vosita sifatida baholaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Navoiy va Jomiy aloqalarini, ijodiy hamkorligini, shaxsiyatini o‘rganish har ikkala shoirning adabiyot sohasidagi

yangi ijod qirralarini kashf etishiga, har ikki ijod sohibining adabiy merosini boyitishga xizmat qiluvchi omillarni yaratishga yordam beradi. Navoiy va Jomiyning o‘zaro do‘stlik rishtalari biz yosh avlod uchun doimo ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bertels. Navoiy. –T.: Tafakkur qanoti, 2015.
2. Shamsiyev P. Ulug‘ do‘stlik lavhalaridan. Jomiy va Navoiy. –T.: Fan. 1966.
3. Jomiy. Nafahot ul-uns. Tehron.: Ittilot, 1373.
4. Alisher Navoiy. MAT. 17-tom. –T.: Fan. 2001.
5. Abduqodirov A. Navoiyga armug‘on. –T.: 2003.
6. Tautant M. Jami in Regional contexts. Leiden. Boston. 2019

ID-020-30-M015

Madina Orifova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi

MUMTOZ SIYMOLAR IJODINING O'RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya. Mumtoz adabiyot asrlar davomida o'z mavzu-mundariyasi, obrazlar tizimi, janr xususiyatlari hamda poetik tasvir usullarini boyitib kelgan. O'tmish ajdodlar ma'naviy merosini yosh avlodga yetkazish va ular tafakkurda milliy qadriyat tuyg'usini shakllantirish muhim vazifa sanaladi. Umumta'lim maktablarining Adabiyot darsliklarida mumtoz namunalarning berilishi ayni shu maqsadga yo'naltirilgan. Maqolada 6-sif Adabiyot darsligida o'zbek adabiyoti tarixiga doir berilgan siymolar faoliyati, ijodiy merosi tahlilga tortilgan. Mavzularni o'zlashtirishdagi mavjud kamchiliklar aytib o'tilgan. Olingan natijalar asosida ayrim taklif va mulohazalar bildirilgan. Zamonaviy va mumtoz adabiyot mushtarakligida o'quvchilarni qadim adabiyotga qiziqtirish usullari aytib o'tilgan. Natijada darslikdagi mavjud kamchiliklar ham ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *adabiyot, tadqiqot, manba, adib, g'azal, ruboiy, qo'lyozma, qiyoslash, an'ana.*

Annotation. Classical literature has enriched its themes, images, and genres over the centuries. It is important to pass on the spiritual heritage of the past to the younger generation and to instill in them a sense of national values. This is the purpose of providing classics in secondary school literature textbooks. The article analyzes the activities and creative heritage of the figures in the history of Uzbek literature in the textbook of literature. Shortcomings in mastering the topics are mentioned. Based on the results obtained, some suggestions and comments were made. The common denominator of modern and classical literature is how to engage students in ancient literature. As a result, there are shortcomings in the textbook.

Keywords: *literature, research, source, writer, ghazal, rubai, manuscript, comparison, tradition.*

Bugungi kunda xalqning jahonda tan olingan o'ringa va dunyo voqeliklarini talqin etishda o'ziga xos shaklga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda har bir xalqning ma'naviy merosini, mafkurasini, milliy ruhini ko'rsatib beruvchi mumtoz adabiyot ham katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiya sohasida ajdodlar merosini yoshlar ongiga singdirish ustuvor yo'nalishlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari" da: "Yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish" [1] kabi vazifalar belgilangan. Bu esa barcha fanlarni, xususan, adabiyot darslarini o'quvchilar ruhiy, psixologik, yosh va jismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish, zamonaviy o'quv materiallari va texnologiyalari yordamida dars soatlari tashkil etishni va kitobxonlik madaniyati shakllantirish lozim ekanligini ko'rsatmoqda.

Mazkur vazifalarni ado etishda umumta'lim maktablarda mumtoz adabiyotning bugungi o'qitish holatlarini, mumtoz matn ustida ishlash jarayonidagi xato va kamchiliklarini ko'zdan kechirish hamda ularni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Umumta'lim maktablarida mumtoz adabiyot o'qitish samarasini qoniqarli ahvolda deb, afsuski, ayta olmaymiz. Bu borada Valijon Qodirov "Umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyoti na'munalarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" mavzusidagi dissertatsiyasida: "Bizningcha qoniqarsiz ahvolning ikki: obyektiv va subyektiv sabablari mavjud bo'lib biri boshqasining chuqurlashuviga sabab bo'lmoqda. Obyektiv omillar o'qituvchi shaxsiyatidan ko'ra ko'proq ta'lim mazmuniga mas'ul muassasalar, direktiv hujjatlar bilan bog'liq. Biz bunda, avvalo, standartlar, dasturlar, darslik va metodik hamda o'quv qo'llanmalarini nazarda tutmoqdamiz..."

...O'qitishdagi nomukammalliklarning subyektiv – adabiyot o'qituvchisi shaxsi bilan bog'liq sabablari ham bor. Muallimlar tayyorgarligining pastligi mumtoz adabiyot na'munalarini o'rganishdagi oqsashlarning asosini tashkil qiladi” deb ta'kidlaydi [6, 14-15].

Darhaqiqat, metodis olimning bu fikrlari ilmiy, nazariy jihatdan dolzarb. Xususan, 6-sinf uchun mo'ljallangan adabiyot darsligining “So'zda hikmat bor” nomli bo'limida mumtoz adabiyot na'munalaridan – xalq qo'shiqlari, Alisher Navoiy, Muhammadsharif Gulxaniy, Avaz O'tar, Abay ijodidan na'munolari o'rin egallagan [2, 27-78]. O'quvchilar aynan shu nazariy ma'lumot orqali o'qitilmoqda. Ammo eng dolzarb tomoni shundaki, ular faqat darslikdagi nazariy ma'lumot orqali cheklanib qolishmoqda. Yozuvchining tili, uslubi va badiiy mahorati, asarning mohiyatini anglash o'rinlari esa ochiq qolmoqda. Valijon Qodirov dissertatsiyasida: “... o'qituvchilar o'quvchi baribir mumtoz matni tushunmaydi, undan ma'no chiqarishga qiynaladi degan bahonani ro'kach qilib asarlar mazmunini so'zlab beradilar va bolalardan ham shuni talab qiladilar” [6, 17].

Bu mumtoz matnning o'qitishdagi eng katta og'riqli nuqtaga aylanmoqda. Bolalar matn mazmunini so'zlab berish bilan cheklanmoqda. Bu nomukammallikning subyektiv –o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq sabablari ham bor. B.To'xliyev yozadi: “...badiiy asarni qanday tahlil qilish kerak? – degan savolga bir xildagi javobni berib bo'lmaydi. Bunga tahlilning maqsad va vazifalari, uni tahlil qilayotgani va kim uchun tahlil qilayotgani, badiiy matnning yaratilgan davri, muallif maqsadi, janri, uslubi, shakli singari ko'plab omillar ta'sir o'tkazib turadi” [3,3]. Kuzatamizki, darsliklarning deyarli barchasida asar na'mularidan so'ng ularning mazmuni nasriy bayon sifatida beriladi. Bu agar matn o'quvchiga tushunarli bo'lmasa yoki uni o'zlashtirishda qiynalsa nasriy bayondan foydalanib, o'zi chiqargan xulosa bilan taqqoslab o'rganishi uchun berilgan.

6-sinf adabiyot darsligida mumtoz na'munalaridan A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridan parcha keltirilgan. “Mahbub ul-qulub” tili bir

qadar mukammal bo'lgani holda darslikda asar tabdili ham havola qilingan [2, 36-46]. Biroq ba'zan o'qituvchi o'quvchilarga asarning faqat tabdilinigina o'qittirib, undan tayyor luqma sifatida foydalanmoqdalar. Ya'ni o'quvchilar faqat nasriy bayonni o'qib, asarning asl varianti parchasi bilan xatto tanishmayptilar. Misol tariqasida "Mahbub ul-qulub" 11-tanbehning Saxovat va himmat bobidan keltiramiz:

Asl variantda: "Saxovat insoniyat bog'ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari. Saxovatsiz kishi – yog'insiz abri bahor va royhasiz mushki tator. Mevasiz yig'och hamon-u o'tun hamon va yog'insiz bulut hamon-u tutun hamon", tarzida kelgan.

6-sinfda berilgan tabdil: "Saxovat insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to'lqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u, o'tin ham bir; yog'insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir" [2, 36-46].

O'ylaymizki, tushinilishi qiyin bo'lgan so'zlar izohi matn ostida keltirilsa ham o'quvchi uni tushuna oladi. Albatta, o'qituvchi lug'at bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishda o'quvchiga yordam beradi. Xattoki, o'rganuvchining so'z boyligi oshadi. Tayyor tabdilni o'rganish ularning fikr-doirasi faqat muallif chiqargan xulosa bilan cheklanib qolishiga olib keladi.

Mumtoz adabiyotni o'rganishda berilgan mazvu va matnlardan so'ng savol va topshiriqlar berilgan. Bu topshiriqlar o'quvchilar mavzu bo'yicha olgan fikrlarini mustahkamlash, matn mohiyatini ochishga qaratilgan. O'quvchilar bular orqali hayot haqiqatiga tayangan badiiy haqiqatni anglashi lozim.

Valijon Qodirov dissertatsiyasida aytadi: "Ijodkor badiiy matn yaratar ekan, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantiradi. Adabiyot darslarida muvaffaqiyatli tuzilgan savol, topshiriqlar esa ters jarayonni vujudga keltiradi:

o'quvchi badiiy haqiqat orqali hayot haqiqatiga qaytadi, turmushga chuqurroq nazar tashlaydi, olam va odam muammolari borasida fikr yurita boshlaydi" [6, 23].

Savol va topshiriqlar ularni izlanishga, asarga badiiy yondashishga, fikrlarini umumiy xulosa tarzida ifodalay olishga undashi kerak. Ularni qay tarzda tuzilgani ham o'rganish saviyasini belgilab beradi. Amaliyotda savol va topshiriqlar mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi:

a) Faktologik;

b) konseptual.

Faktologik savollar asosan darslikdagi faktlarni qayta so'zlab berishni ko'zlaydi. Bunday savollar ko'p bo'lgan darslikda o'quvchilar matn mohiyatini tushunish uchun izlanmaydilar, fikrlamaydilar, faqat tayyor javobni matn ichidan topadilar. Mumtoz adabiyotni o'rganishda bu bir nuqtada qotib qolishning omili bo'lib qoladi. Savol va topshiriqlarning berilishidan asl maqsad esa o'quvchi fikrini yanada oydinlashtirish.

Konseptual savollar o'quvchilarni o'ylashga, fikrlashga, mustaqil nazar bilan qarashga, e'tiborli bo'lishga, o'ziga xosliklarini topishga, farqlay olishga chorlaydi. Berilgan na'munaning mohiyatini anglashga yordam beradi. 6-sinf darsligidagi "Zarbulmasal"da quyidagi savollar keladi:

1. Gulxaniy haqida bilganlaringizni gapirib bering.
2. "Kabutar bilan Zog" hikoyatidan qanday ma'no uqdingiz?
3. Qo'lidan kelmagan ishga uringan kishi, albatta, sharmanda bo'ladi degan fikr qaysi masalda aks etgan?
4. "Tuya bilan Bo'taloq" hikoyati nima haqida? Bo'taloq onasidan nega xafa bo'ldi? Ona tuyaning javobini sharhlang.
5. "Toshbaqa bilan Chayon" hikoyati mazmuni orqali qanday ibratli fikr ilgari surilgan? Tushuntirib bering.
6. O'z ahvolidan doim shikoyat qilib yurish, noshukurlik illatlari fosh qilingan hikoyani topib sharhlashga urinib ko'ring-chi.

7. “Yodgor po‘stindo‘z” hikoyalarida qanday xulqli odamlar hajv qilinadi?
8. “Zarbulmasal”dan keltirilgan naqlardagi odamlarning latifanamo holatini sharhlang. 9. “Zarbulmasal” deb qanday asarga aytiladi?

10. Daftaringizga “Zarbulmasal”dagi maqol va iboralarni ko‘chirib oling. Ularni hozirgi maqollar bilan taqqoslang [2, 62].

Ushbu savol va topshiriqlardan 4-5-6-7-8-10- savollar konseptual savol sifatida berilgan va bu o‘quvchini matnni sharxlashga, taqqoslashga fikr erkinligini oshirishiga yo‘l ochadi. O‘quvchilar o‘z mulohazalarini bildirishga va asoslashga harakat qiladilar. Bu ularni shaxsiy fikrlash doirasini kengaytiradi. “Asoslashga urindimi, u mustaqil fikrlay boshlaydi, mustaqil fikrlay boshladimi , demak, shaxs sifatida shakllana boradi [5, 79].

Mumtoz adabiyot o‘qitishdagi bu muammolarga xalq ta’lim muassasalarida ayni bir o‘qituvchining ham adabiyot, ham ona tili fanining o‘qitayotgani ham sabab bo‘lmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mumtoz adabiyotni o‘rganishda o‘qituvchi mahorati, o‘quvchilarni tushinishga harakat qildirishi muhim omil hisoblanadi. Endi shakllanib kelayotgan avlod uchun o‘qituvchi ko‘rsatayotgan yo‘nalish e’tibor markazidadir.

O‘quvchilar mumtoz adabiyot mazmun- mohiyatini tushunishda ko‘nikma hosil qilishi maqsadida berilgan muallif fikrlaridan to‘g‘ri foydalanishi lozim.

Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim ikkinchi bosqichining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lgan 5-6-7-sinf yoshidagi o‘smirlari uchun “Adabiyot” darsliklariga material tanlashda ularning psixologiyasi, ma’naviy olami, fikrlash doirasining ham hisobga olinishi ta’lim samaradorligini oshirishni ta’minlaydi. O‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham foydalanish ahamiyatlidir. “O‘quv materiallarini o‘quvchi yaxshi o‘zlashtirishi uchun unga doir illyustratsiyalarni ko‘paytirish, ijodkorlarning uy-muziylari haqidagi ma’lumotlarni ham kiritish, ular haqidagi badiiy va hujjatli filmlar katalogini berish maqsadga muvofiqdir” [6, 20].

Mumtoz mavzularni o'zlashtirishda quyidagi holatlarga amal qilish kelajakda samara beradi, deb o'ylaymiz. Bir umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda mutaxassis masalasiga e'tibor qaratish, xususan, ona tili fanini o'tadigan o'qituvchi adabiyot fanini chuqur o'tishi gumon. Yoki aksincha.

Darsliklarda asar matnini asliyatni berilishi maqsadga muvofiq ko'rinadi. Nasriy bayonlar darslikka kiritilishi shart emas. Bu holat o'qituvchini ham, o'quvchini ham o'z ustida ishlamasligiga sabab bo'ladi. Asliyatni tushinish uchun matn ostida lug'atlar berilishi yetarli. Shundagina o'quvchi mumtoz so'z sehrini sezadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi. 15.08.2018-y.,07/18/3907/1706-son.

2. Adabiyot [Matn]. Q. 2. / Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh.- Toshkent: Ma'naviyat, 2017.

3. To'xliyev B. Badiiy asarlarni sharxlab o'rganish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

4. To'ychiyeva M. 5-7- sinflar adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirish tizimi. 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti) (pedagogika fanlari). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: 2019.

5. Вопросы психологии восприятия и мышления. Труды института психологии. – Москва: Академпеднаук, 2018.

6. Qodirov V. Umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'qitishning ilmiy- metodik asoslari. 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti). Pedagogika yo'nalishi. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. – Toshkent: 2019.

ID-020-30-M016

Mahliyo Xurramova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi

DARSLIK VA MANBA QIYOSI

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan Adabiyot darsligidagi mumtoz adabiyot namoyandalarining ijod namunalari asl manba bilan qiyoslangan. Darslikdagi kamchiliklar, tuzatishlar o'rganib chiqilgan. Bu orqali maktab darsligining zamon talablariga qay darajada javob bera olishi ustida izlanilgan.

Kalit so'zlar: *adabiyot, darslik, alloma, devon, internet, telegram, instagram, facebook, talab, o'quvchi, maktab, matn, kompyuter.*

Annotation. The article compares the works of the representatives of classical literature in the 5th literature textbook for 5th grade students of general secondary schools with the original source. Shortcomings and corrections in the textbook are studied. Through this, research was conducted on the extent to which the school textbook could meet the requirements of the time.

Keywords: *literature, textbook, scholar, devon, internet, telegram, instagram, facebook, demand, student, school, text, computer.*

Bugun axborot texnologiyalari rivojlanib, insoniyat umri shiddat bilan o'tayotgan zamonda dunyo ahli kitob o'qish bilan birga kompyuter, telegram, instagram, facebook singari ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma'lumotlar bilan ham o'z bilim va imkoniyatlarini oshirib bormoqda.

Bugungi kun o'quvchisi, eng avvalo, mutolaa jarayoniga jiddiy e'tibor bermog'i lozim. Shu o'rinda o'quvchi asosiy o'quv materialini sanalgan darsliklar, ularda qamrab olgan mavzularni astoydil o'zlashtirishi, esdan chiqarmasligi lozim. E'tibor qaratilsa, maktab adabiyot darsliklariga kiritilgan mavzular matniga talab shundayki, Adabiyot darsligi imloviy, uslubiy kamchiliklardan

xoli, asl matnga tayanilgan holda yozilgan bo'lishi kerak. Chunki darslik orqali badiiy asar qiroati bilan doimiy hamnafas bo'lish zarurligi seziladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: Bugungi avlod o'qiyotgan, o'rganayotgan darsliklar yuqoridagi talablarga javob bera oladimi? Bu savolga javobni biz umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun mo'ljallangan Adabiyot darsligidan izladik.

Maqolada 5-sinf Adabiyot darsligiga Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy, Sa'diy Sheroziy singari mumtoz siymolar ijodidan lavhalar keltirilgan.

Bugun darsliklarning zamon talabiga muvofiq kelishi, o'quvchilar dunyoqarashi, tafakkurining shakllanishida mumtoz adabiyot namunalari eng inja shakllarini yosh avlodga yetkazish masalasi muhim sanaladi.

Darslikning 107–115-sahifalarida Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylaridan namuna berilgan. Darslik mualliflari 1994-yilda nashr etilgan Bobur "Devon"iga tayanishgan. Nashr bilan darslik solishtirib chiqilganida ruboiylar matnida qo'llanilgan tinish belgilarida kamchiliklar va xatoliklar ko'zga tashlanadi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur. [1.110].

Nashrda:

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki, jafo qilsa – jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki, yomon bo'lsa – jazo topqusidur! [2.72].

Ko'rinadiki, misralardagi tinish belgilari tubdan farq qiladi. Darslik mualliflari nashrdagi kamchilikni bartaraf etishgan.

Boburning "Har yerda gul bo'lsa – **tikan** bo'lsa, ne tong?!" deb boshlanuvchi ruboiyninisi 1-, 3-misrasida ikki xillikni ko'ramiz. 1-misrada "tikan" tarzida, darslikda esa "tikon" deya berilgan. Shoirning "Yo qahr-u g'azab

birla meni tufroq qil..." deb boshlanuvchi ruboiysidagi "Rab" so'zi nashrda kichik harf bilan va "rab" deb yozilgan. Darslikda bu kamchilik bartaraf etilgan.

Darslik:

Yo **Rab**, sengadur yuzum qaro gar oq qil! [1, 112].

Nashr:

Yo **rab**, sengadur yuzum qaro gar oq qil! [2, 81].

Demak, darslikda bu kamchilik bartaraf etilgan.

Darslikda iste'dodli adib Muqimiy "Sayohatnoma" asari kiritilgan. Bunda 1974-yilda chop etilgan Muqimiy "Asarlar" to'plamidan foydalanilgan. Nashr va darslikni taqqoslaganimizda ba'zi farqlar ko'rindi.

Darslik:

Bir ma'raka ko'rdim butun,
Jami yopingan boshga to'n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun
Voiz so'zin tinglor ekan [1, 118].

Manba:

Bir ma'raka ko'rdim butun,
Ja'mi yopingan boshga to'n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun
Voiz so'zin tinglor ekan. [3, 427].

Ko'rinadiki, darslikda manbadagi xatolik bartaraf etilgan. Quyidagi xatoliklar ham darslikda to'g'rilab ketilgan:

Darslik:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir "**qo'shtegirmonlik**" kishi,
Xo'ja Iso badkor ekan. [1, 118].

Manba:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,

Bir **“Qo’shtegirmonlik”** kishi,
Xo’ja Iso badkor ekan. [3, 427].

Darslik:

Mag’rur, **xasis-u besh-u kam**,
Har gapda yuz ichgay qasam.
Tagjoy olur moxovdan ham,
Hoji o’zi murdor ekan. [1, 118].

Manba:

Mag’rur xasisu beshu kam,
Har gapda yuz ichgay qasam.
Takjoy olur moxovdan ham,
Hoji o’zi murdor ekan. [3, 427].

Demak, mumtoz adabiyot tarixining yirik vakillari, doimiy ilm bilan mashg’ul bo’lib, adabiyot tarixi, mumtoz siymolarning ijodiy merosi manbalarini sinchiklab kuzatib borgan darslik mualliflari asos uchun olingan manbadagi so’z va jumla, misra va baytlardagi kamchilik va saktaliklarni o’z o’rnida to’g’rilab, maktab o’quvchilari uchun mukammal namunalar berishga muvaffaq bo’lishgan. Zahmatkash ustozlarimiz mehnati tahsinga loyiq.

Lekin shu o’rinda ayrim mulohazalarni bildirib o’tsak. Bizningcha, maktab Adabiyot darsliklarida badiiy asar tahlilini to’g’ridan-to’g’ri berish o’zini unchalik oqlamaydi. Balki tahlilni bermasdan o’quvchini fikrlashga undaydigan savol va topshiriqlarni ko’paytirish lozim. Asar matni mutolaa qilinib, shu mavzu asosida bayon yoki insho olinganida, bola faqat darslikdagi tahlil bilan cheklanib qolmaydi. Shuning uchun ularni fikrlatish, to’g’ri mushohadaga o’rgatish lozim.

Bugungi kun o’quvchisi uchun eng to’g’ri va mukammal manbalarni berish har bir fan mutaxassisining vazifasidir. Bu – davr talabi. Maktab darsligi kamchiliklardan xoli va mukammal bo’lmog’i lozim. Har qanday haqiqiy badiiy asar xatoliklardan uzoq va asl holatida o’quvchiga yetkazilganida haqiqiy kitobxonni topadi. Xonadondagi qiroatxonaning to’rini egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. –T.: Sharq, 2015.
2. Bobur. Devon. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.
3. Muqimiy. Asarlar. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
4. Sa'diy Sheroziy. Bo'ston. – T.: O'zbekiston, 1960.
5. Sa'diy Sheroziy. Guliston. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1968.

ID-020-30-M017

Nasiba Meliyeva

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

BADIIY ASARLARNI O'RGANISHDA DIDAKTIK TAHLIL

(“Qorako'z majnun” hikoyasi misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy ta'lim dasturida berilgan Said Ahmadning “Qorako'z majnun” hikoyasi tahlili haqida gap boradi. Didaktik tahlilning ayrim usullarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan. Bir necha xil didaktik tahlil usullarining samarali qo'llash bo'yicha mustaqil fikrlar tavsiya qilinadi.

Kalit so'zlar: *o'zbek adabiyoti, Said Ahmad, “Qorako'z majnun” hikoyasi, didaktik tahlil usullari.*

Annotation. In this article we will talk about the analysis of Said Ahmad's story “Qorako'z majnun”, which was given in the literature education program. Recommendations were made on the use of some methods of didactic analysis. Independent opinions on the effective application of several different methods of didactic analysis are recommended.

Keywords: *Uzbek literature, Said Ahmad, the story “Qorako'z majnun”, didactic methods of analysis.*

Adabiy ta'limda o'quvchilarning badiiy asardagi ma'no-mazmuni tushunishlari, matndagi estetik jozibani his qilishlari, muallif shaxsiyatini anglashlarida tahlil turlarini qo'llashning ahamiyati xususida talay qarashlar mavjud. Bu borada professor Q.Yo'ldoshevning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: “Adabiy asarni didaktik tahlil etishda o'qituvchi va o'quvchilarning... birgalikdagi faoliyati quyidagi uch usulda uyushtirilishi ta'lim tajribasida ko'proq uchraydi: a) muallifga ergashib yoki matn doirasida amalga oshirilgan o'quv tahlili; b) badiiy obrazlar asosidagi didaktik tahlil; c) muammoli o'quv

tahlili [2; 112-b.]. Darhaqiqat, tahlilni asardagi obrazlarga tayanib o'rganish yoki muammoli tarzda amalga oshirish adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda ahamiyatlidir. Bu jihatlarni biz umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinfida S. Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasini o'rganish misolida ko'rishimiz mumkin.


Birinchi yo'nalishda tahlil qiladigan bo'lsak, o'quvchilarning e'tibori asardagi personajlarga qaratiladi va obrazlar ruhiyatini anglab boorish jarayonida asarning badiiy ma'nosi o'zlashtiriladi. Masalan, e'tibor berilsa, hikoyadagi iymon-e'tiqodli, go'zal inson, alomat onaxonning bu yorug' dunyodan armon, alam-o'kinchlar bilan vidolashuviga sabab bo'lgan oqpadar o'g'lon, milliy-axloqiy qadriyatlarimizni toptashga qaratilgan mudhish siyosatning ham jirkanch mahsuli, ham ayanchli qurbonidir. Bu yo'nalishni timsoli tahlil yo'li deyish mumkin va bu yo'nalishda o'quvchilarning ham anchagina faol ishtirok etishlariga imkoniyat bo'ladi. Ikkinchi yo'nalishda esa, tahlil asosan o'quvchilar tomonidan olib borilishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga muammo qo'yadi va ularga bu muammoni yechish yo'llarini ko'rsatadi. Masalan, hikoyadagi Bo'rivoy obrazini tahlil qilamiz. Inson – eng oliy mavjudot. Inson – tabiat gultoji. U o'zida shunday xazinalarni jo aylaganki, bundan hatto o'zi ham bexabardir. Ammo u o'z iymonini yo'qotar ekan, eng tuban jonzot darajasiga tushib qolishi ham mumkin. Bil'aks, ba'zan hayvonlarda shunday ezgu fazilatlarini ko'rib qolamizki, ularni insonlarning barchasida ham ko'rish imkonsiz. Mazkur hikoyada Saodat ayaga sodiq, vafodor itning qismati, o'g'lining esa vafosizligini ko'rsatish mumkin. Asar tahlili jarayonida o'quvchilar adabiy tushunchalardangina foydalanib qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy tushunchalarni o'zlashtirib ham olishadi. Negaki, ular jamoa bo'lib ishlaydilar. Hikoyada ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo'rixondan ko'ngli soviydi, uni yo'qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o'giradi. Endi ona sahar namozida o'g'lini eslamay qo'yadi. Bu esa o'quvchini bahs-munozaraga chorlaydi. Tabiiyki, bu jarayonda o'quvchilarning ma'naviy

olamida ham, dunyoqarasida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mana shu tarzda olib borilgan o'quv didaktik tahlil o'quvchilarni ma'nan va ruhan sog'lom shaxs bo'lib voyaga yetishiga va tafakkur olamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Badiiy asar tahlilida ta'lim metodlari katta o'rin tutadi. "Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari, majmuasidir" [3; 102-b.].

Bizga ma'lumki, darsliklarda kiritilgan har qanday asar ham o'quvchini o'ziga jalb qila oladi deya olmaymiz. Vaholanki, bunday savolga yechim topishga doim tayyor bo'lishimiz darkor. Hozirgi kunda adabiy jarayonda bir qancha metodlar borki, ular orqali o'quvchini asarga qiziqitira olish, uni tezda anglab, o'z tafakkurini ishlata olish imkonini yaratib beradi. O'quvchilar asarni o'qib, tanishib chiqishlari mumkin, lekin uning chuqur ma'nosini anglolmasliklari tabiiy jarayon. Shunday vaziyatlarda ularga biz bir qancha ta'lim metodlarini qo'llab, o'quvchilarni asarning ichiga olib kira olishimiz mumkin. Bulardan biri "Kungaboqar" metodidir.

Birinchi ilova: o'quvchilar 4-5 a'zodan iborat guruhlarga bo'linadi. O'qituvchi mavzudan kelib chiqib, o'rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o'sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo'yadilar.



O'quvchilar bo'sh qilib joylashtirilgan barglarga muammoga yechim topib o'z mulohazalarini yozib chiqadilar. Bu hikoyadagi birinchi muammo e'tiqod mavzusidir. Shu tariqa o'quvchilar o'z fikrlarining qanchalar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilib olib, o'ziga kerakli xulosani chiqazib oladilar.

Hikoya boshida Qur'oni karimning "Baqara" surasidan "Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarining (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahilidurlar va u yerda mangu qolurlar" (Baqara surasi, 217-oyat) oyati epigraf sifatida keltiriladi. Bu hikoyada keltirilgan sura hikoya mazmunini ochqichi hisoblanadi. Mana shuko'chirmalar aynan hikoyadagi Bo'rixon obraziga taalluqli ekanini hech qiynalmasdan ilg'ab olish mumkin. Lekin, o'quvchilarning barchasi ham buni anglolmasliklari turgan gap. Bu esa, albatta, o'quvchini chuqur o'yga tortadi va o'z e'tiqodiga nisbatan sodiq qolishga undaydi. Shunday holatda asarning mohiyatini teranroq anglash uchun o'quvchilarga boshqa metodlardan ham foydalanilsa, ularning tahlil ko'nikmasi ortishiga eririshiladi.

Fikr, sabab, misol, umumlashtirish (FSMU) metodi

"FSMU" metodining tavsifi: bu metod mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar, savollarbo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarini asoslovchi sabablarni ko'rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish metodidir. Bu metod o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z

fikrini o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va aniqlashga, baholashga o'rgatadi.

Ikkinchi ilova:

Savollar:

Siz hikoya ochqichidan qanday foydalandingiz?

Bu oyat nimani anglatadi?

Oyat hikoyada qanday vazifani bajarmoqda?

Insonning o'z dini oldida qanday burchlarni ado etish lozim?

“FSMU” metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Yuqoridagi savollarni o'qituvchi o'quvchilarga tarqatib chiqadi. Savollarni olgan har bir o'quvchi berilgan metodning sxemasiga asoslangan holda javob beradilar.

O'qituvchi vazifani bajarish uchun vaqtni belgilab e'lon qiladi. O'quvchilar o'zlariga berilgan savollarga javob berib bo'lgandan so'ng, ularning umumiy muhokamasini tashkil qiladi. Vazifani eng yaxshi bajarganlar rag'batlantiriladi.

Savol va topshiriqlar metodi: har bir dars jarayonida bir nechta omillarni hisobga olish kerak. Shulardan bittasi iqtidorli o'quvchilarga va boshqa o'quvchilarga hammo'ljallangan savol va topshiriqlar berilishi lozim. Said Ahmadning “Qorako'z majnun” hikoyasi tahliliga kelganda darsning oxiri yoki kelgusi dars vazifasi qilib, iqtidorli o'quvchilar uchun quyidagi savollarni berish mumkin.

Uchinchi ilova:

1. Matnga qaraydigan bo'lsak, qirg'oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so'ramay qo'ygan palla. Bu qaysi fasl?

2. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Itning bu holati nimani anglatadi?
3. Errayim kampir atamasini qanday izohlaysiz?
4. Kampir hajga ketayotganlarga pensiyasidan yiqqan pullarini "Hoji badal" uchun berib yuborgan edi. Sizningcha, Hoji badal tushunchasi nima?
5. "Ellik bir yoshida yetmish yashar chol bo'lib qo'ya qobdi". Nima sababdan Bo'rixonga bunday ta'rif beriladi?

Shu tarzda berib borilgan savol va topshiriqlarga o'quvchilar tayyorlanib o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tadilar.

"Qorako'z majnun" hikoyasida juda katta ma'no-mazmun jamlangan. O'zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko'rsatish orqali ta'kidlanadi. Itning vafosi bir o'g'ilning ona ko'nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma'naviy martabalarda turishi hamma vaqt ulug'vorlik kasb etadi. O'tkazilgan mashg'ulotlar orqali o'quvchi e'tiqod deganda nimani tushunishi va umr kechirayotgan har bir shaxs e'tiqod bilan yashash hamda mehr, vafo qanday bo'lish ekanligini anglaydi. Bola o'z ongida tahlil qila boshlaydi va o'ziga kerakli xulosaga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. "Ўзбекистон Республикаси халқ таълимни тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5712-сонли Фармони. – Электрон манба: lex.uz/docs/3412785.
2. Said Ahmad. Qorako'z majnun. – T.: O'zbekiston, 2013.
3. Йўлдош Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
4. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. – 152 б.
5. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.
6. Мирқосимова М. Ҳозирги ўзбек адабиёти намуналарини шарҳлаб ўрганиш. – Т.: ТДПУ, 2015. – 184 б.

ID-020-30-M018

Muyassar Qobulova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 1-kurs talabasi

ADABIYOT DARSLIKLARI BO'YICHA AYRIM MULOHAZALAR (9-sinf Adabiyot darsligi misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablari darsliklari, xususan, 9-sinf Adabiyot darsligi bo'yicha tanqidiy-tahliliy va amaliy tahlillar berilgan. Darslikni takomillashtirish bo'yicha asosli takliflar bildirilgan. Birgina Muhammadrizo Ogahiy ijodi misolida mumtoz adabiyot namunasining o'ziga xos tahlili taklif etilgan. Jumladan, faqat g'azal janridagi namunalar bilan cheklanmasdan, balki shoirning boshqa janrlardagi asarlaridan namunalar berish haqidagi taklif muallif tomonidan muayyan tarzda asoslangan. Mumtoz asarlar tahlilida o'quvchilar uchuntushunarli va qiziqarli bo'lishi nazarda tutilishi maqsadga muvofiqligi haqida mulohazalar bayon etilgan. Bunday qarashlar adabiy ta'lim sifatini belgilashda o'ziga xos ahamiyatga egaligi ta'kidlangan. Mumtoz asarlar yuzasidan lug'at tuzishda masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligi aytilgan.

Kalit so'zlar: *o'zbek adabiyoti, adabiyot darsliklari, Ogahiy ijodi, amaliy-metodik tavsiyalar, adabiy janr.*

Annotation. This article provides a critical-analytical and practical analysis of secondary school textbooks, particularly the 9th grade literature textbook. There are sound suggestions for improving the textbook. Only Muhammadrizo Agahi's work offers a unique analysis of classical literature. In particular, the author's proposal to provide samples of the poet's works not only in the genre of ghazal, but also in other genres is based in some way. The analysis of the works is based on the idea that it should be understandable and interesting for students. It is noted that such views play an important role in determining the quality of literary education. It is important to pay special attention to the issue of compiling a dictionary of works.

Keywords: *uzbek literature, literature textbooks, Ogahi's work, practical-methodical recommendations, literary genre.*

Bugungi zamon o'quvchisi rivojlanayotgan texnika asri avlodidir. Unda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish maqsadida mumtoz adabiyotimizga alohida mehr uyg'otmoq adabiy ta'lim oldidagi muhim vazifalardan biridir, Ma'lumki, ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri bu mukammal tarzda tayyorlangan darsliklar hisoblanadi. Mana, qo'limizda umumta'lim maktablarining 9-sinfi uchun mo'ljallangan eng yangi "Adabiyot" darsligi. Darslik mamlakatimizning eng taniqli olimlari va darslik yaratish bo'yicha katta tajribaga ega mutaxassislar tomonidan yaratilgan (Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekov). Bu darslikda o'zbek mumtoz adabiyotining yetuk vakillaridan biri Muhammad Rizo Ogahiyning hayoti va ijodini o'rganish uchun ma'lumotlar 95–108-sahifalarda berilgan. Shoir hayoti haqida o'quvchi uchun yetarli ma'lumotlar berilgan. Ogahiyning g'azalnavislik mahorati haqida o'quvchida ancha keng taassurotlar yaratish maqsadida shoirning eng ajoyib g'azallaridan namunalar keltirilgan, G'azallar sharhida ham mualliflar yosh kitobxonning baytlar mazmunini to'la idrok etishlariga zamin yaratishgan. Jumladan, darslikda shunday mulohazalar beriladi: "Shoir lirikasi mundarijasidan muqaddas Islom dinimiz ko'rsatmalari, tasavvuf ta'limotiga oid qarashlar ifoda etilgan she'rlar ham salmoqli o'rin tutganini kuzatamiz: ***"Mulk-u millatg'a amin o'lsa agar ogohlar, Ikki olam obro'yini hosil etgay shohlar"***. Baytda islomiy qarashlar jamiyat va davlat ijtimoiy-siyosiy tartibi, boshqaruviga uyg'un holda bayon etilgan. Shoir aytmoqchiki, mulk (mamlakat) va millat uchun dunyo va oxirat mohiyatidan, voqeliklaridan ogoh zotlar amin (ya'ni vakolatli amaldor qilib tayinlangan) bo'lsa, bu tartibotni yo'lga qo'ygan shoh (mamlakat rahbari) ikki dunyo obro'yini hosil qiladi (ya'ni xalq va Xoliq – Alloh rizoligini topadi). Har millatning o'zligi ikki qismdan – milliy qadriyatlari va diniy e'tiqodidan tashkil topuvchi yaxlit bir butunlik ekanligini, agar ularning biri bo'lmasa, ikkinchisi ham qulab, o'zlikdan asar qolmasligini anglagan shaxslargina ogoh zotlar maqomida bo'lishiga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari devondagi muxammas, musaddas, ruboiy, tarji'band va qasidalarida ham u

yoki bu darajada o‘z aksini topgan”. [1, 98-bet] Keltirilgan iqtibosda shoir ijodiga xos xususiyatlarni bayon qilish bilan birga, bu ijodkorning hayotga munosabati masalasiga ham e‘tibor qaratilganligi ayni muddaodir. Shoirning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan matn oxirida savol va topshiriqlardan biri quyidagicha: “Ogahiyning adabiyotimiz tarixida tutgan o‘rnini qanday baholaysiz?” [1, 99-bet]. Bizningcha, mana shu topshiriq o‘quvchi uchun og‘irlik qiladi. Chunki bu savol atrofida fikrlash uchun, unga aniq javob izlash uchun o‘quvchi mumtoz adabiyotimizning yetuk bilimdoni bo‘lishi kerak.

Bizning yosh tadqiqotchi sifatida bildirayotgan fikrlarimizda kamchilik va nuqsonlar bo‘lishi tabiiy hol, albatta. Faqat yaqinida maktab partasidan kelgan sobiq o‘quvchi sifatida mumtoz adabiyot namoyandalari ijodini o‘rganishda duch kelganimiz qiyinchiliklar ko‘z oldimizga keldi. Masalan, mumtoz adabiyot namunalari beriladi, ammo deyarli ularning sharhi berilmagani holda, topshiriqlar tavsiya etilgan edi. Mazkur darslikda bu muammolar deyarli hal etilgan va bu jihatdan mualliflarga cheksiz minnatdorchilik bildirishimiz lozim. Faqat Ogahiy ijodi misolida quyidagi mulohazalarga e‘tiborni qaratmoqchi edik.

Darslikda Ogahiy ijodidan, asosan, g‘azallar berilgan. Bugungi o‘quvchi rang-baranglikni xush ko‘radi. Shu sababli shoirning g‘azallarini qisqartirish evaziga boshqa janrlardagi asarlaridan ham namunalari berilsa, o‘quvchining mumtoz adabiyot sohasidagi bilimi yanada chuqurlashib, ijodkorning ijodi haqida ham keng qamrovli ma‘lumotlarga ega bo‘larmidi? Masalaning yana bir jihati shundaki, Ogahiyning chistonlarida, ayniqsa, bugungi hayot mazmuniga monand mavzular ham o‘zining badiiy ifodasini topgan. Jumladan, uning “Tanga” chistoni ana shunday namunalardan biridir. Quyida ana shu asarni to‘la keltiramiz:

Ul na dilbarkim, tani siymin o‘lub,
Badr yanglig‘ surat-u siymosidur.
Xat bitub ikki yuzida sarbasar,
Ziynat afzoyi ruhi zebosidur.

Jussasi tirnog' yuzi yanglig' kichik,
Lek ulug'lar ishqining rasvosidur.
Vaslini istab jahon bozorida
Olam ahli boshida savdosidur.
Ham faqir-u ham g'ani devonasi,
Ham qari-yu ham yigit shaydosidur.
Topsa har adno visolin nogahon
E'tibor ichra ulus a'losidur.
Yetsa har a'log'a gar hajri oning,
Juma adno xalqning adnosidur.
Topmasa gar iltifotin har kishi,
Xordur garchi jahon donosidur. [2, 567-bet]

Ushbu chistonga qisqacha tarzda shunday sharh berish mumkin: shoir mol-mulkka havas qo'yish, unga berilish insonni insoniylikdan uzoqlashtiradi, afsuski, hayotda ko'pincha, odamlar bir-birlariga baho berishda boylikni mezon qilib olishadi. Bizningcha, mana shu chistonni shoirning "Qish" radifli g'azali bilan almashtirish kerak. Chunki o'quvchi darslikdagi savol va topshiriqlar asosida mustaqil ravishda bu g'azalning mazmunini anglab yetishi, bizningcha, mushkulroq. Quyida ana shu savol va topshiriqlarni hamda g'azalda uchraydigan ayrim so'zlar lug'atini to'laligicha keltiramiz:

1. "Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a ushbu qishdin qish"
misrasida ham qofiya, ham radif bo'lib kelayotgan "qish" so'ziga qanday badiiy vazifa yuklanganligini tushuntiring.
2. Ikkinchi baytda qishdagi nochor odamning holati berilgan tasvirni izohlang.
3. Ushbu she'rni yozishdan Ogahiy qanday maqsadni ko'zlagan deb o'ylaysiz?
 1. Yaksar – bir boshda;
 2. Burudat – sovuqlik;
 3. Afvoji – to'dalar;

4. Qoqim-u sinjob-ukishdin – silovsin, olako‘zanak va qunduz terisidan po‘stin.

Bu ma‘lumotlar asosida nafaqat o‘quvchi, balki mumtoz she‘riyat muxlislari ham g‘azal mazmunini tushunishga qiynalgan bo‘lur edilar, ehtimol. Tavsiya etilgan chiston hayotiy va abadiy mavzuning yoritilishida til nuqtayi nazaridan bir qadar soddaligi bilan ham o‘quvchi uchun mustaqil ishlashga o‘ng‘ayroq bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, o‘quvchilarni axloqiy-ma‘naviy jihatdan tarbiyalashda ham bu chiston muhim o‘ringa egadir.

Darslikda berilgan “Qish” radifli g‘azal bilan to‘la tanishamiz:

Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish,

Ki aql-u hisg‘a yaksar mone‘ o‘ldi borcha ishdin qish.

Agarchi asradim ojiz tanim qat-qat libos ichra,

Sovuq yel birla lekin qoltiratdi ko‘b qamishdin qish.

Burudat² shiddati ostida qaddim xam qilib yodek,

Zaif-u notavon-u nozik yetti ham kirishdin qish.

Chiqorg‘a har nechakim ko‘rguzub ko‘b sa‘yi tish qisdim,

Ushotib sangi shiddatdin ayirdi borcha tishdin qish.

Qabob kulbam aro, qo‘ymay chiqorg‘a sarsar afvoji³,

Mani mahrum qildi el bila borish-kelishdin qish.

Manga mushkuldurur topmoq ilojinkim, g‘ino ahli

Iloj aylar sovuqqa qoqim-u sinjob-u kishdin⁴ qish.

Yetishdi, Ogahiy, qish mavsumi, vah, emdi naylarsan

Ki, qottig‘dur qari-yu ojiz elga borcha ishdin qish.

Avvalo, matndagi o‘quvchi uchun tushunarsiz so‘zlar lug‘ati mukammal emas. Masalan uchinchi baytdagi “kirish” so‘zi lug‘atda yo‘q. Shunga asoslanib, o‘quvchi bu so‘zning ma‘nosini o‘z lug‘atida harakat nomi sifatida mavjud bo‘lgan “kirish” deb tushunishi tabiiy hol va bu bayt mazmunini noto‘g‘ri tushunishga olib keladi. “Navoiy asarlari lug‘ati”da bu so‘zning quyidagi ma‘nolari keltirilgan: kerish, irish – Yoy ipi [3, 310-bet]. Demak, shoir bu baytda sovuqning qattiqligidan qaddim yoydek egildi va uning iplaridek

noziklashdi, ya'ni lirik qahramon qahraton qish sababli qaddi bukilib, oriqlab qolganligini bayon qilyapti. Darhaqiqat, mamlakatimiz shimoli hisoblangan qadim Xorazmda avvallari qish faslida juda qattiq sovuq bo'lgan. Ogahiyning sog'ligidagi muammolar, ayniqsa, qish faslida bosh ko'targan. Ya'ni, miroblik qilayotgan paytda otdan yiqilib, bir oyog'i shikastlangan edi. Qish kelishi bilan shoirni ana shu dard qattiq qiynagan va uning ijodida qish faslidan shikoyat motivlarini ifodalovchi she'rlar dunyoga kelgan.

Xullas, bizningcha, o'quvchi qalbida mumtoz adabiyotga, umuman, badiiy ijodiyotga ixlos uyg'otmoq uchun atoqli ijodkorlar asarlaridan namunalarni tanlashda ijodiy imkoniyatlarini inobatga olishni unutmazlik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 4-nashri. T.: O'zbekiston NMIU, 2019.
2. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: ўқитиш муаммолари ва ечимлар. Монография. Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2009.
3. Огаҳий М. "Таъвизул ошиқин", девон. Т.: Фан, 1960.
4. Навоий асарлари луғати. Т.: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
5. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Янги аср авлоди, 2006.

ID-020-30-M019

Quvonchbek Xolto'rayev

O'zbek tili fakulteti 1-kurs talabasi

O'ZGA TILLI GURUH O'QUVCHILARINI ASAR QAHRAMONLARINING PSIXOLOGIK QIYOFASI TAHLILIGA O'RGATISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zga tilli guruh o'quvchilariga asar qahramonlarning psixologik qiyofasi tahliliga o'rgatish usullari yoritilgan. Maqolada rus adibi Anton Pavlovich Chexovning "Garov" hikoyasi tahlil qilingan. Tahlil davomida Chexovning hikoya qahramonlarning psixologiyasini ham chuqur bilishiga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: *Fikr, psixologik qiyofa, munozara, garov, mulohazalar.*

Annotation. This article describes teaching methods for analyzing the psychological portrait of heroes for students of foreign-language groups. In this article analyzed the story "Deposit" has written by Auton Pavlov Chekhov. During the analyzed pay attention to psixoliguistical position of heroes

Keywords: *Opinion, psixological appearance, discussion, deposit, reflection.*

O'zga tilli guruh o'quvchilariga qahramonlarning psixologik qiyofasi tahliliga o'rgatishda hikoya janridan foydalanish ancha tajribaga ega ettiradi. Bugungi kunda asrlar adavomida sayqal topgan adabiy merosdan bahramand bo'lish ahamiyati yanada kuchaymoqda. O'zga tilli guruhlarda adabiy ta'lim bo'yicha adabiyotdan saboq berishda o'qituvchi mahoratli, adabiyotsevarman bo'lishi talab qilinadi. Hikoyada qahramonlarning tashqi va ichki qiyofasini tahlil qilish, o'quvchi bilimida sezgirlikni, adabiy uquvni shakllantiradi. Nafaqat rus adabiyoti, balki, jahon adabiyotida hikoyachilik janr rivojiga katta hissa

qo‘shgan yozuvchi Anton Pavlovich Chexov ijodi misolida qahramonlarning psixologik qiyofasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Rus adibi A.P.Chexov dunyo hikoyachiligiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri sanaladi. Uning hikoyalari qisqaligi, real hayotiy voqealarga asoslangan, shuningdek, o‘ziga xos badiiy uslubi bilan ajralib turadi. A.P.Chexov o‘z hikoyalarida ulkan tarixiy, yoki favqulotda jahonshumul hodisalarni qalamga olmaydi. Balki oddiy rus odamlari qatnashgan, bir tomondan juda sodda ko‘ringan voqealarni qiziqarli bayon qiladi; unga mahorat bilan badiiy bo‘yoq beradi.

Chexovning “Garov” hikoyasi real voqealarga asoslangan. Bu hikoya juda ham teran ma’noga ega hikoya bo‘lib, unda quyidagi voqealar aks etgan va shunday boshlanadi:

“Bankir xonada u yoqdan bu yoqqa yurar va chuqur o‘yga tolgan edi. Favqulotda xayoliga o‘n besh yil oldin bo‘lib o‘tgan bazm yodiga tushdi. Birdan butun tanasi muzlab ketgandek bo‘ldi. Shu bazmda olimlar, muxbirlar va huquqshunoslar yig‘ilishgan edi. U yerda shunday bahs ketar edi. Ya’ni mamlakatda o‘lim jazosini bekor qilish to‘g‘risida edi. Shunda davradagilar o‘lim jazosini umrbod qamoq jazosi bilan almashtirish haqida fikrni ilgari surishadilar va shu taxlit bahs boshlanib ketadi. Kimdir o‘lim jazosi bu xristianlarga to‘g‘ri kelmaydi desa, yana kimdir bu fikrga qarshi chiqardi. Shunda uy egasi, ya’ni bankir o‘z fikrini bildirib o‘tdi. Menimcha, dedi u – o‘lim jazosi ma’qul chunki odam umrini zulukdek sug‘urib oluvchi qamoqdan o‘lim afzalligini ta’kidlab o‘tdi. Shunda Bankirning fikrga bir yigirma besh yoshdagi huquqshunos qarshi chiqadi, bu ikki jazo turini farqlab beradi. Shu onda ular o‘rtasida tushunmovchilik kelib chiqadi va natijada garov bog‘lanadi”. [2. 201-bet].

Garov shartlari shunday edi: huquqshunos o‘n besh yil muddatga qamoqda o‘tirishi va buning evaziga bankir agar garovda yutqazib qo‘yadign bo‘lsa, ikki million rubl berishi kerak edi. O‘n besh yil davomida huquqshunos deyarli yuzdan ortiq asarlar bilan tanishib chiqadi. U nafaqat o‘qib mutolaa

qiladi balki o'zi ham bir nechta asarlar yozadi. Turli xildagi asarlarni o'qib ular bilan tanishib chiqadi: masalan tibbiyot, tarix, falsafa, hattoki dinga oid eng oliy kitoblarni ham o'qib chiqadi. Huquqshunos nazarida hayotning asl ma'nosi bu yaxshi taom, boylik, issiq to'shak emasligi aslida barcha maqtab, madh etadigan jamiyki narsalar butunlay o'zgachaligini tushunib yetadi. Asar so'ngida bankirning garov bog'lab xato ish qilganligini yosh huquqshunos o'zining so'nggi maktubi bilan isbotlab beradi. Hattoki bankir juda ham ko'p miqdorda pul mablag'i yutqazib qo'yganida ham bu qadar afsuslanmaganligini Chexov ustalik bilan o'zining "Garov" hikoyasida mohir rassom kabi turfa xil ranglar orqali yorqin ifodalab bergan. A.P.Cheovning ushbu "Garov" hikoyasi inson umri, erkin hayot, mutolaa, kitobning foydasi, olingan ilmning hayotga tatbig'i, kamolotning darajasi va boshqa hayotiy masalalar haqida fikirlashga undaydi. Ayni damda, hikoya mazmuni, bankir va huquqshunosning qilmishlariga sharqona odob-axloq mezonlari bilan qaralganda, ikki dunyo saodati degan tushuncha o'rta qalqib chiqadi. Bir qarashda, mahbus o'z-o'zini tarbiyalagan, komillikka erishgan va ruhan tozalangan inson sifatida namoyon bo'ladi. Biroq inson zoti bu dunyoni deb u dunyoni esdan chiqarmasligi hamda u dunyoni deb bu dunyodan voz kechmasligi lozim, hikoya shunday muhim hayotiy masalada ham ogohlikka chorlaydi. Umr yelga sovurilmasligi kerak. Shu ma'noda hikoya noo'rin bahs-munozaraning oqibati, xususan, garov ikki inson taqdirini boshqa o'zanga solganligi haqida saboq beradigan realitik hikoyalar sirasiga kiradi. Ana shu mohiyatni o'quvchilar ongiga to'g'ri singdirish kerak.

Adibning mashhur hikoyalaridan biri bo'lgan "Garov" hijoyasi bankir va yosh huquqshunosning qatl hukmi bilan qamoq jazosi borasidagi o'zaro ziddiyatlar asosiga qurilgan. Hikoyada hayotning mazmuni, yoshlik faslining qadri, mol-dunyoning nimaga zarurligiga urg'u beriladi... hayot hamma vaqt go'zal, anyiqsa, saodatli va fayzli umr har qanday odamning orzusidir. Bunday hayot tarzi uchun faqat cheksiz boylikning o'zigina yetarli emas. Bunday umr uchun dunyoning hamma turdagi kerakli-keraksiz minglab kitoblarni o'qish ham kamlik qiladi. Muhimi – uqish. O'qilgan kitoblar ijtimoiy hayot va inson

umri bilan bog'lanishi, har qanday odamni kamolot cho'qqisiga olib chiqishi, shuningdek, umr mazmunini teran anglashga yordam berishi lozim. Aks holda, bunday ta'lim va tahsil hayotdan uzilgan bo'ladi. Shu ma'noda hikoyadagi bayonga ko'ra bankirni hamisha boylikdan ajralib qolish xavfi ta'qib qiladi. Garov o'ynashning o'zi be'manilik emasmi? Asar boshidayoq bankirni mana shu savol o'z iskanjasiga olib uni qiynoqqa soladi. Bu narsa kamina tomonidan badavlat kishining shunchaki to'qlikka sho'xligi bo'lsa, huquqshunos tomonidan – pulga o'chlik, boylikka hirs qo'yish, bu yog'i kundek ravshan, tamom-vassalom...”, deb mulohaza yuritadi. Oradan yillar o'tgan sari uning boyliklari kamayib, hatto qarzga botadi. Shunda o'z boyliklari, xususan, ikki million pulni asrab qolish uchun qamoqda umrini hazondek o'ztkazgan huquqshunosni qatl etishni niyat qiladi. “Har holda, yashamoq- o'limdan afzalroq”, degan fikrni isbotlash va garovga qoyilgan pul uchun o'zini o'n besh yillik hibsga mahkum etgan yosh huquqshunos qirq yoshga yetganida hayot mazmunni o'zicha, o'z qarichi bilan o'lchab ko'radi. Ma'lum bir xulosalarga keladi. Shu xulosalarni mahbus qog'ozga tushiradi. Bankir qamoqxonaga kirib, ozib-to'zi qolgan va pinakka ketgan mahbus yonida shu maktubni ko'radi. Bu mulohazalari davomida bir necha marta kitoblarni tilga olib “Endi kamina o'zimni sizlarning barchangizdan har jihatdan komil va yetuk ekanligimga ishonch hosil qilmoqdaman” ...,deb ta'kidlaydi. [2. 203-bet].

Hikoyada bankirning psixologik qiyofasi quyidagicha tasvirlanadi: umri davomida boylik orttirgan shaxs. Juda ham qiziqqon, sabrsiz kishi. Ko'p o'ylashga hojat yo'q deya hisoblaydi, bu so'zlar uning shioriga aylangan desam adashmagan bo'laman. Sababi shundaki garovni ham oqibatini o'ylab o'tirmasdan o'ynashga qaror qiladi. U xudbin va xasis kishi timsolida tasvirlangan. Asar boshida garov bog'lashdan oldin puli qanchaligini ham o'ylab ko'rmaydi. Asar nihoyasiga yetganida esa o'zing kimdan qancha qarzi bor yoki yo'qligi haqida o'ylaydi va hatto garovda yutqazib qo'ymaslik uchun huquqshunosni o'ldirmoqchi ham bo'ladi.

Huquqshunosning psixologik qiyofasi quyidagicha tasvirlanadi: garov bog‘lab qamoqqa tushib qolishidan oldin hamma qatori adolatpesha, o‘zini haq deb biluvchi, o‘z so‘zidan qaytmaydig‘an, bir so‘zli qahramon. Yana bir jihati shundaki, u zamon talabiga ko‘ra yetarlicha bilim va malakaga ega edi. Huquqiy masalalar borasida istalgan shaxs bilan munozara qila olardi. Shu sababli ham ko‘p yillar davomida qamoqxonada xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boboxonov M. Ruhiy holat tasvirida qahramon portretining o‘rni. // O‘zbek tili va adabiyoti. 2010. №3. 51-54.
2. Chexov A.P. Tanlangan asarlar. Povest va hikoyalar. -T.: O‘zbekiston badiiy adabiyot, 1957.-347b
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: Fan, 2007. – 228.

ID-020-30-M020

Quvonchbek Xolto'rayev

O'zbek tili fakulteti 1-kurs talabasi

O'ZGA TILLI GURUH O'QUVCHILARIGA MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zga tilli guruh o'quvchilariga mumtoz adabiyot namunlarini o'rgatish yoritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: *metod, she'riyat, tahlil, sharhlash, pedagogik texnologiya.*

Annotation. This article describes the teaching of classical literature to students of other languages. Modern pedagogical technologies are used.

Keywords: *Method, poetry, analysis, interpretation, pedagogical technology.*

O'zga tilli guruh o'quvchilariga mumtoz adabiyot namunlarini tahlil qilishga o'rgatishda izohli lug'atdan foydalanish tajribaga ega ettiradi. Bugungi kunda asrlar davomida sayqal topgan adabiy merosdan bahramand bo'lish ahamiyati yanada kuchaymoqda. O'zga tilli guruhlarda adabiy ta'lim bo'yicha adabiyotdan saboq berishda o'qituvchi mahoratli, adabiyotsevar bo'lishi talab qilinadi.

Adabiyot ta'limida mumtoz she'riyatimizni o'rganishda DTS hujjatlarida aks ettirilgan talab va tavsiyalarga muvofiq tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Davlat ta'lim standarti ta'lim xodimlari o'qituvchilar uchun me'yoriy hujjat sifatida xizmat qilmoqda. Standart talablari esa ta'lim jarayonida bir necha yangi usullarni tatbiq etishni taqozo qiladi. Buning samarali yo'llaridan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni mahalliy ta'limga olib kirish, milliyashtirish va uni ta'limga tatbiq etishdan iborat. Ilg'or pedagogik texnologiya ham shu

maqsadni o'zida ifoda etgan bo'lib, DTS talablarini bajarishga xizmat qiluvchi usullardan hisoblanadi. "Ilg'or pedagogik texnologiyaning maqsadi ta'lim arayonida, ayniqsa DTS talablari asosida bilimlarni egallashda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligini shakllantirishga qaratilgan".[2. 45-bet].

Adabiyotga o'zgacha nigoh bilan naza rtashlash, albatta yoshlarning badiiy saviyasini oshirmoqda. Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtai nazardan tekshirishga moslashgan bo'lsa, endi mavjud qoliplardan voz kechilmoqda. Badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinilmoqda. Natijada, ko'plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik tafakkuri taraqqiyotidagi tarixiy o'rni xolisona belgilanayotir.

Mumtoz adabiyotlarni, xususan, hazrat Mir Alisher Navoiy ijodini o'rganishda qo'llaniladigan usullarni tahlil qilamiz.

Milliylik metodi – an'ana qadriyatlarini unutmagan holda ish ko'rish metodi, ya'ni mumtoz asarlar yaratilgan davrda o'quvchilar uni qanday o'rgangan qay tartibda o'rgangan. Agar u davr murakkablik qilsa ijodkor, mahoratli ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosdagi metodlar ham milliy metodga tayanch bo'la oladi. Masalan, Alisher Navoiyning "Xamsa" asarini o'tish jarayonida berilgan hikoyatlarga tayangan holda tariximizda o'tgans hohlarimizning olib brogan siyosatlari haqida qisqacha to'xtalish yoki bo'lmasa ishqiy mavzudagi g'azallardagi xalqimizga xos ibo-hayo, ayollarga hurmat, shukronalik kabi jihatlar to'g'risida o'quvchini fikrlashga undaydigan ma'lumot keltirish dars saviyasini oshiradi.

Audio-video vositalarini qo'llash metodi- mumtoz she'riy asarlarning juda ko'pchiligi qo'shiqqa aylanib ulgurgani sir emas. Ammo bu metodni farqli jihati shundaki bunda o'quvchilar aruz ilmidan xabar olganini hisobga olgan holatda o'zlar iuyda ovoz yoshish moslamasi (*bu o'rinda telefon ovoz yozishi nazarda tutilmoqda*) orqali tayyorlab keladi bu albatta guruhni jamoaga bo'lib vazifa qilib beriladi. Eng chiroyli o'qilgan asar rag'batlantiriladi. "Qo'shimcha sifatida bugungi kunda odatga aylangan darsda notiqalar tomidan maromiga

yetkazib o‘qilgan asarlar ham eshittirilsa o‘quvchilarda ancha ko‘nikma hosil bo‘ladi”.[1. 35-bet].

“6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a‘zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. “6x6x6” metodi asosida tashki etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala) ni, masalan, “Alisher Navoiy ijodida besh tashabbus tahlili” muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhlar bittadan vakil bo‘ladi. Yangi shakllangan guruh a‘zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

Sharhlash metodi- bumetod ham yuqoridagi metodlarimiz kabi o‘zimizning innovatsion metodlarimizdan. Bu metod ko‘pincha chorak so‘ngida, mustahkamlash darslarida, ochiq darslarda o‘z nomini oqlaydi. Chunki bu metoddan o‘qituvchi guruhni ma’lum bir nomlar ostida (masalan yigitlardan iboratini “Farhodlar”, “Qayslar”, qizlardan iboratlarini “Shirinlar”, “Laylilar”) kabi guruhlarga bo‘linadi. Birinchi jamoa jumla keltiradi ikkinchi jamoas harhlaydi ketma- ketlik davom etadi. Natijada she’riy parchaning mohiyati o‘quvchi miyasida chuqurroq o‘rnashadi. Misol uchun: “Zohid, sanga - hur, manga – jonona...

Ilg‘or pedagogik texnologiya o‘quvchi tafakkurida bilim, malaka va ko‘nikmani hosil ettirishda katta ahamiyatga ega. Ilg‘or pedagogik texnologiyaning maqsadi ta’lim jarayonida, ayniqsa DTS talablari asosida bilimlarni egallashda o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorligini shakllantirishga qaratilgan. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullar, uslublar, innavatsion pedagogic va axborot texnologiyalaridan foydalanib,

ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibo rkundan-kunga kuchayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ta'limda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari / o'quv-uslubiy majmua. - Toshkent, 2017.
2. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari / xalq ta'limi xodimlari uchun qo'llanma. -Toshkent, 2004.
3. Ishmuxamedov R. va boshqalar Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: - 2008
4. Muxitdinova X.S va boshqalar. O'zbektili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. - T.: Davr, 2018. - 192 b.

ID-020-30-M021

Sevara Yarasheva

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 4-kurs talabasi

MAKTAB DARSLIKLARIDA KELITIRILGAN G'AZAL JANRINING VAZN XUSUSIYATLARI (9-sinf adabiyot darsligi misolida)

Annotatsiya. Mumtoz poetikaning asosini ilmlar uchligi tashkil etadi. Bular: ilmi aruz, ilmi badi' hamda ilmi qofiyadir. Adabiyotimiz tarixida bu uch ilm birgalikda mumtoz she'rning nafasoti va shoirning salohiyatini belgilovchi mezon hisoblangan. Ular orasida aruz ilmi nisbatan murakkab hisoblanib, uni yaxshi bilmaslik mumtoz janrlarda yaratilgan badiiy namunalar mohiyatini anglashda qiyinchilik tug'diradi. Maktab darsliklarida ushbu vazn tahliliga bag'ishlangan qismlar mavjud. Jumladan, 9-sinf "Adabiyot" darsligida ham mumtoz adabiyotimiz namunalari berilgan bo'lib, ular aruz tizimining *ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib* bahrlarida bitilgan. 9-sinf adabiyot darsligidagi Ogahiyning "Navro'z", "Bo'lsun", "Ustuna" g'azallari o'quvchilarning o'rganishi uchun berilgan. Ushbu maqolada 9-sinf adabiyot darsligida keltirilgan Ogahiy g'azallarining vazn xususiyatlari va o'lchov imkoniyatlari tahlil qilindi, o'rganildi. Tahlil jarayonida g'azallarning vazni bilan birgalikda ularning mazmuni, qofiya tizimi, qo'llanilgan badiiy san'atlariga ham to'xtaldik. Bu esa o'quvchining mavzuni puxta bilishi va yaxshi o'zlashtirishiga olib keladi

Kalit so'zlar: *9-sinf "Adabiyot" darsligi, Ogahiy, hazaj, rajaz, qofiya.*

Annotation. The basic of selected poetry consist of three figures. That figures called: ilmi aruz, ilmi badi', ilmi qofiya. These three knowledge were known as the main measure to marked poems' elegance and poet's ability in our history of literature. The knowledge of Aruz was complicated compare with other knowledge. So that to be not aware of this knowledge may bring up some difficulties at realizing essence of selective samples. There are some parts about analyzing of Aruz's weight in school's textbooks. For instance, there are given some samples of selected literature in textbook of 9- class and they are written in ramal, hajaz, rajaz, mutaqorib measures. Ogahiy's "Navruz", " Bo'lsun", " Ustina" ghazals are given in 9-class textbook for students to learn them. Therefore, in this article, Agahiy's works are analyzed and learned according to their feature of weight and opportunities of measure. During the analyze, there are explained ghazals' content, structure of rhyme and some selected arts with their measure. Such kind of analysis help students to know theme deeply and acquire knowledge very well.

Key words: *9-class textbook of literature, khajaz, radjaz, rhyme.*

Sharq xalqlari adabiyoti, jumladan, o'zbek mumtoz va qisman hozirgi zamon adabiyotida qo'llanib kelinayotgan maxsus vazn Aruz tizimi hisoblanadi. Bu adabiyot darsliklarida ushbu vazn tahliliga bag'ishlangan qismlar mavjud. Jumladan, 9-sinf "Adabiyot" darsligida ham mumtoz adabiyotimiz namunalari berilgan bo'lib, ular aruz tizimining *mutaqorib*, *ramal*, *hazaj*, *rajaz* bahrlarida bitilgan. 9-sinf "Adabiyot" darsligida dastlab Muhammad Rizo Ogahiyning aruz vaznida yozilgan "Navro'z" radifli g'azali keltiriladi. Bu g'azal hajman 9 bayt, 18 misrani tashkil qiladi. Ogahiyning "Navro'z" radifli g'azali tabiat lirikasining go'zal namunasi sanaladi. Shoir she'rda tashxis san'atidan foydalangan holda bahoriy kayfiyatni madh etadi. G'azal quyidagi matla' bayt bilan boshlanadi:

Baland aylab quyoshga poya¹ navro'z,
Ko'tardi yer yuzidan soya navro'z [5, 99]

Ogahiyning "Navro'z" radifli g'azali she'riyatimizda keng qo'llanilgan hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan bo'lib, uning ruknlari va taqti'i:

mafoiylun mafoiylun fauvlun
V - - - V - - - V - -

tarzidadir. Navro'z radifi esa misra oxirida takrorlanib keladi. She'rda vazni saqlash uchun birinchi misradagi "baland aylab" so'zlarini qo'shib talaffuz qilish lozim. Shunda hazaji musaddasi mahzuf o'lchovi qonuniyatiga mos tushadi. Umuman, "hazaji musaddasi mahzuf vazni qo'llanilish jihatdan epik poeziyada yetakchi o'rinni egallaydi. XIX asrgacha bo'lgan epik poeziyada mazkur vazn, asosan, ishqiy mavzudagi dostonlarda istifoda etildi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si va umuman barcha nomalar, Sayfi Saroyining "Suhayl va Guldursun", Qutbning "Xusrav va Shirin", Haydar

¹ Poya – qadr, daraja, bosqich.

Xorazmiyning “Gul va Navro‘z”, Sayyid Qosimiyning “Ilohiynoma” va “Haqiqatnoma” hamda Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonlarining mazkur vaznda bitilganligi fikrimizni isbotlaydi” [4, 100].

Shoirning “Bo‘lsun” radifli g‘azali ham *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yaratilgan. Tahlil jarayonida ushbu g‘azal baytlari orasida yuqorida keltirilgan she‘rdan farqli ravishda *hazaji musaddasi maqsur* o‘lchovida bitilgan misralar ham uchrashiga guvohi bo‘ldik. Quyida baytni keltiramiz:

Sango doyim bo ‘lub davlat qushi rom,

Shikorandoz-u² dastomuz³ bo‘lsun [5, 103]

Keltirilgan g‘azalning 4-baytining 1-misrasi *hazaji musaddasi maqsurda* yaratilgan. Chunki, so‘ngi ruknda kelgan “rom” hijosi tarkibida “o” cho‘ziq tovushi ishtirok etgan. Aruzshunos D.Yusupovanning ta‘kidlashicha, tarkibida cho‘ziq unlisi bo‘lgan yopiq bo‘g‘inning oddiy yopiq bo‘g‘indan farqi shundaki, uning tarkibida nisbatan cho‘ziqroq talaffuz qilinuvchi unlilar (aksariyat holatlarda “o”, “e”, “u” tovushlari) qatnashadi [6, 13]. Shuning uchun biz keltirilgan baytning 1-misra oxirgi hijosini o‘ta cho‘ziq hijo deb belgiladik.

Muhammad Rizo Ogahiyning 9-sinf darsligida keltirilgan keyingi she‘ri “Ustina” radifli g‘azali bo‘lib, o‘zbek adabiyotining durdonalaridan biri hisoblanadi. “G‘azalda yorning cheksiz go‘zalligi ta‘riflanadi, lirik qahramonning ishqdagi o‘rtanishlari tasvirlanadi [5, 138]. G‘azal

Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina,

Qatlim uchun “nas” keltirur “nun” eltibon “sod” ustina [5, 104].

singari matla’ bilan boshlanib, *rajazi musammani solim* (– – V –/– – V –/– – V –/– – V –) vaznida yozilgan. Mazkur o‘lchov she‘riyatimizda keng qo‘llanilgan bo‘lib, qator mumtoz kuylarga mos tushadi. “Rajazi musammani solim vazni mustaf‘ilun (– – V –) aslining aynan takroridan hosil bo‘ladi” [3, 24].

² Shikorandoz – ov qiluvchi.

³ Dastomuz – qo‘lga o‘rgatilgan.

Matla' taqti'sini jadval asosida ko'zdan kechiramiz:

Mush	kin	qo	shi	ning	hay'	a	ti	ul	chash	mi	jal	lod	us	ti	na
-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
Qat	lim	u	chun	nas	kel	tu	rur	nun	el	ti	bon	sod	us	ti	na
-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

Jadvaldagi matla'ga e'tibor bersak, mustaf'ilun (- - V -) aslining ketma-ket takrorlanishi g'azalga vazmin ohang bag'ishlagan. Bu esa *rajazi musammani solim* vaznining o'ziga xos ekanligini bildiradi. Shuningdek, qofiyalar oldidagi so'zlarni *ustina* radifiga qo'shib o'qish bilan g'azal vaznini saqlashga erishish mumkin.

Birgina Ogahiy ijodi orqali aruz vazniga tegishli bo'lgan tushunarsiz o'rinlarni ko'rish mumkin. Mumtoz asarlarimizni o'rganishda bu o'lchov imkoniyatlari kerakmi? Shusiz ham o'quvchi adabiyotni biladi va his qila oladi kabi jumboqli savollarga duch kelamiz. O'quvchilarda mutaqorib, ramal, hazaj vaznlar haqida faqatgina 8- va 9- sinf adabiyot darsliklarida uchratiladi. Bundan tashqari, 8-sinf adabiyot darsligida qisqacha g'azal janri haqida tushuncha berilib, aruz nazaryasiga oid ma'lumotni Lutfiy, Navoiy g'azallarining tahlillari natijasida ko'riladi. Lekin o'quvchi bu haqida to'liq emas faqatgina qaysi chizmalar foilun yoki ramal, hazaj qanday shaklda kelishi haqida qisqa ma'lumotni o'qishga kirishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida kuzatadi. To'g'ri bu nazariya haqida hammaga ham ma'lumot kerak emas, ammo mutaxassis kadrlarimizning o'zi o'quvchilarga nima haqida gapirayotganini bilmaydigan o'rinlarimiz ham bor. O'quvchilarga hammasini birdan emas, bosqichma-bosqich tushuncha berishimiz kerakmasmikan-a? Oddiy she'r o'qish jarayonida o'quvchi bo'g'inga ajratishda xatoliklarga yo'l qo'yishini kuzatamiz. Mana shu birgina xatosi, butun bir she'rning musiqiylikiga putur yetkazadi.

V.Qodirov o'zining "Mumtoz adabiyot: O'qitish muammolari va yechimlar" kitobida shunday jumlar ketadi: "Aruzni o'rgatishni boshlar ekan, avvalo, bu vazn etimologiyasi, tarqalishi, rivojlanishi to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tishi maqsadga muvofiq", - degan jumalarni aytgan edi. Haqiqatdan ham, o'sha dars jarayoniga kirayotgan o'qituvchining o'zi ham qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarni qay o'rinda qanday kelishini bilmasligi mumkin. A.Hojiahmedov aytganidek, 5-sinfdan boshlab o'quvchilarga aruz nazariyasi haqida ketma-ketlikda ma'lumot berib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. MAT. 20 tomlik. 16-jild. – T.: Fan, 2000. – B. 246.
2. Hojiahmedov A. "Maktabda aruz vaznini o'rganish". – T.: O'qituvchi, 1995. – B. 192.
3. Rahmonova Sh. Chustiy g'azallarining vazn xususiyatlari // Oltin bitiklar. – Toshkent, 2019. – № 1. – B. 89-109.
4. Rahmonova Sh. Maktab darsligida keltirilgan aruz vaznlari tahlili (8-sinf "Adabiyot" darsligi misolida) // Til va adabiyot ta'limi.- Toshkent, 2019. - № 9. – B. 23-25.
5. Yo'ldoshev Q., Qodirov V. va Yo'ldoshbekov J. 9-sinf "Adabiyot" darsligi. – T.: O'zbekiston, 2019. – B. 366.

ID-020-30-M022

Sevinchoy Yoqubova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs magistranti

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATINI O'RGANISHDA VIZUAL YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda adabiyot o'qitish metodikasida yangi tushuncha bo'lgan vizual yondashuv masalasi o'rganilgan. Unda badiiy asarga vizual yondashuvning ahamiyati tahlil etilgan. Unda taniqli o'zbek shoiri M.Yusuf lirikasida vizual materiallarning o'rni tadqiq etiladi.

M.Yusuf she'rlarini vizual yondashuv asosida o'rganishga oid e'tiborga molik mulohazalar bayon etilgan. Ushbu maqolada adabiy ta'limda bugungi kunda dolzarb bo'lgan ayrim masalalar muxtasar holda o'z yechimini topgan.

Maqola muallifi vizual yondashuvning muhimligini ayrim she'rlar tahlili misolida kuzatadi va ilgari surilgan fikrlarini umumlashtiradi.

Kalit so'zlar: *Vizual yondashuv, metodika, badiiy tahlil, badiiy o'qish, adabiy ko'nikma, she'riy asar, adabiy janr, o'ziga xoslik.*

Annotation. This article explores the issue of visual approach, which is now a new concept in the methodology of teaching literature. It analyzes the importance of a visual approach to a work of fiction. It explores the role of visual materials in the lyrics of the famous Uzbek poet M. Yusuf.

Significant comments are made on the study of M. Yusuf's poems on the basis of visual approach. This article provides a brief overview of some of the most pressing issues in literary education today.

The author of the article observes the importance of the visual approach by analyzing some of the poems and summarizes their ideas.

Keywords: *Visual approach, methodology, artistic analysis, artistic reading, literary skills, poetry, literary genre, originality.*

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotning ko'pgina jabhalari qatori adabiyot sohasida ham tub o'zgarishlar va yangicha izlanishlar amalga oshirila boshladi. Shubhasiz, bunday yangilanishlar istiqlol davridagi nasr, dramaturgiya, publitsistika bilan bir qatorda she'riyatda ham kuzatiladi. Adabiyotshunos Q. Yo'ldoshev aytganidek: "Istiqlol butun o'zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o'zbekka yaqinlashtirgan bo'lsa, istiqlol she'riyati har bir o'zbekni o'z ko'ngliga yaqinlashtirdi, uning adoqsiz labirintlarini, purviqor cho'qqilarini, tubsiz teranliklarini, xullas, alohida qalbning naqadar poyonsiz va serqirra ekanligini aks ettirdi. Uning har bir qirradi olam hodisalari qadar murakkab va jilvagar ekanligini anglatdi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligini ifodaladi" (3. 86). Darhaqiqat, endilikda istiqlol davrida yaratilayotgan she'riyatni o'rganish, uni anglash va ta'lim tizimida o'qitishga ham o'ziga xos tamoyillar asosida yondashuv zarurdir.

Respublikamiz Prezidenti SH. Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: *"Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"* (1. 3). Prezidentimizning ushbu fikrlari bevosita adabiy ta'limga ham taalluqlidir. Ijodkorlarimiz asarlarini yangicha ta'lim usullari asosida o'rgatish orqali yosh avlodni zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson sifatida kamol topishlariga erishishimiz lozim. Ayniqsa, shoirlarimiz she'rlarini o'qitishda o'quvchilarning vizual fikrlashini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish muhimdir. Chunki vizual fikrlash muammoli vazifalarning ijodiy yechimi bo'lib, hissiy anglash va bir-biriga yaqin jihatlarni taqqoslash yetakchilik qiladi.

Darsda vizual usullardan foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi, asarni o'rganishga qiziqish uyg'otadi va o'quvchi fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. O'quvchi bilimining mazmunliligi, ravshanligi va mustahkamligi adabiyot darslarida vizual vositalarni mohirona va o'z vaqtida ishlatishga ham

bog'liqdir. Ta'lim tizimida vizual vositalardan foydalanish o'qituvchining maqsadga tez va oson erishishiga yordam beradi.

Avvalo, ushbu atamaning lug'aviy ma'nosiga ahamiyat beradigan bo'lsak, vizual, vizullashtirish so'zi lotin tilidagi visualis so'zidan olingan bo'lib, o'zbekchada ko'rgazmali degan ma'noni bildiradi. Lug'atlarda bu so'z turli xil ma'nolarda keltiriladi.

Vizual – (lotin tilida visualis vizual) ko'z bilan ko'rilgan, xotira va tasavvurlar (7. 219) dir. “Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar”da esa, vizual so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, (visualis) ko'rinadigan, ko'z yoki optik qurilma yordamida ishlab chiqarilgan vizual kuzatishlar (2. 204) degan ma'noni bildiradi.

Ushbu so'zning lug'aviy mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, ta'lim jarayonida o'quvchiga tushuntirish uchun qulaylik tug'diradigan ko'rgazmali qurollar, tarqatmalar, axborot texnika vositalari, video va audio vositalar vizual materiallarni tashkil etadi. Ta'lim tizimida qo'llaniladigan vizual materiallar g'oyatda keng va rang-barang bo'lib, ular darsda o'rni bilan turli xil maqsadlarda foydalaniladi.

Kuzatishlarimiz natijasida adabiyot o'qitishda qo'llaniladigan vizual materiallarni shartli ravishda quyidagi shakllarga bo'lib o'rganishni tavsiya etamiz: a) sinf yozuv taxtasi (doska) yoki plakatlar; b) taqdimotlar namoyish qilish; d) tarqatma materiallar.

Jajji bir tadqiqot doirasida istiqloq yillarida yaratilgan shoirlar asarlarini vizual yondashuv asosida o'rganish haqida keng ko'lamli ma'lumot berish imkoniga ega emasmiz. Shuni e'tiborga olgan holda biz ushbu maqolada istiqloq davri she'riyatini vizual yondashuv asosida o'rganish haqidagi muayyan kuzatishlarimizni Muhammad Yusuf ijodi misolida ifodalashga harakat qildik.


Umumta'lim maktablarining 8-sinfi dasturida ko'pgina o'zbek shoirlari qatori Muhammad Yusuf ijodiga ham muayyan dars soatlari ajratilgan. Dasturda shoirning «Vatanim», «Mehr qolur», «Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor..», «Biz baxtli bo'lamiz» nomli she'rlarini o'rganishga 2 soat




ajratilgan (6. 82). Ushbu sinf uchun tuzilgan darslik-majmuada Muhammad Yusufning dasturda keltirilgan she'rlari beriladi (4). Darslikda shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot beriladi. M.Yusuf she'rlarida insondagi yashirin tuyg'ularning samimiy tasvirlanishi tahlilga tortiladi.

M.Yusuf she'rlarini o'rganishga bag'ishlangan darsda shoir she'riyatining jozibadorligi va ta'sirchanligini ta'minlab turgan samimiylik, musiqiylik va tasvir o'ynoqiligi haqida vizual yondashuv asosida fikr yuritiladi.


O'qituvchi darsni Muhammad Yusufning "Vatanim" she'ri asosida xonanda Sevara Nazarxon tomonidan ijro etilgan qo'shiqni eshittirish bilan boshlaydi. Qo'shiqning ma'lum bir qismi o'quvchilarga eshittirilib, ulardan she'r muallifi, uning mazmuni haqida nimalar bilishi so'raladi. O'quvchilar javoblaridan keyin bugungi mavzu Muhammad Yusuf she'rlarini o'rganishga bag'ishlangani aytiladi va shoir hayotiga oid qanday ma'lumotlarni bilishlari so'rab o'tiladi. Doskaga M.Yusuf portreti ilib qo'yiladi. Rasmda aks etgan shoir siymosiga ta'riflar beriladi. Shu orqali o'quvchilar fikrlashga, shoir shaxsi va asarlarini chuqurroq anglashga yo'naltiriladi.

Ushbu darsga o'qituvchi tomonidan oldindan slayd taqdimotlari tayyorlangan bo'lib, shu asosda mashg'ulot olib boriladi. O'qituvchi tomonidan vizual vositalar o'rni bilan taqdim etilib, o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga yo'naltirib boriladi.





Shoirning qo'shiqqa aylangan she'rlari



O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan ushbu vizual materiallar o'quvchi diqqatini tez va oson jamlashga yordam beradi.

Keyingi yillarda adabiyot o'qitish metodikasida badiiy asarni tushunish, idrok etish va maqsadli holda asarni tahlil etish uchun asarni o'qishdan oldin, o'qish jarayonida, asarni o'qishdan keyin o'quvchiga muayyan savol va topshiriqlar berish muhim ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratilmoqda (5. 43). Shu asosda o'quvchi ijodkor ifodalayotgan g'oyani chuqurroq anglashi va mustaqil munosabatini ifoda etishi mumkin. Fikrimiz tasdig'ini M.Yusufning "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" she'ri misolida kuzatishimiz mumkin. Ekranida she'r matni ko'rsatib boriladi va o'quvchilarga savol-topshiriqlar taqdim etiladi.

Asarni o'qishdan oldin beriladigan namunaviy savol va topshiriqlar:

1. Yurt deganda nimani tushunasiz. Siz uni qanday tasavvur qilasiz?
2. Ona yurt madhiga bag'ishlangan qanday she'rlarni bilasiz? Siz ulardan yod olganmisiz?
3. Siz yurtimiz o'tmishiga oid nimalarni bilasiz? XX asr boshlarida xalqimizning asl farzandlari boshiga tushgan fojialarni qanday anglaysiz?
4. Agar sizga ona yurtigingiz ta'rifini rasmda aks ettirish topshirilsa, uni qanday chizasiz? Musavvir sifatida yurtimizning qaysi jihatlarni tasvir etasiz?

She'zni o'qish davomida beriladigan namunaviy savol va topshiriqlar:

Aytingchi, sizga "Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor" degan ifoda nimalarni anglatdi? Sizningcha, armon o'zi nima? Yurtning ado bo'lmas armoni nima ekanligini aytishga harakat qilib ko'ring.

Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor,
O'tmishingni o'ylab og'riydi jonim,
Ko'ksing to'la shahid o'g'lonlaring bor.

Banddagi kayfiyat sizga ham yuqdimi? Yurt o'tmishi uchun joni og'riyotgan shoir lirik qahramoni ruhiyatidagi qanday kechinmalarni tuyganday bo'ldingiz? Shoir esga olayotgan "shahid o'g'lonlar" kim?

Qayinbarglar yopib qaro ko'zini,

Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Nima uchun shoir "Olislarda qolgan Usmonlar" haqida so'z yuritmoqda?

"Qayinbarglar yopib qaro ko'zini" misrasi nimani anglatadi?

Shoirning qalbi nimadan iztirob chekmoqda?

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,

Ana, yurishibdi kiyganlari zar,

Qodiriyini sotib shoir bo'lganlar

Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...

Nima uchun shoir "alhazar" so'zini takror qo'llayapti? Shoir nazarda tutgan "mehrobdan chiqqan chayonlar" kimlar?

She'zni o'qishdan keyin beriladigan namunaviy savol va topshiriqlar:

1. "Yurtim, ado boimas armonlaring bor" she'rida nima sababdan shoir "Aybin bilmay ketgan Akmal Ikromlar", deydi? Hamma ham shoirning bu so'zlarini ayta oladimi?

2. Shoir nima uchun "Fayzullodek mardi maydonlar" qismatini "bahor ayyomlar" va "oy botgan yoqlarga termilib shomlar" o'ylaydi? Bunda "bahor ayyomi" bilan "oy botgan shom" qanday holat va kayfiyatning ifodasi?

3. Yurtning "yulduzni yig'latgan dostonlari" dan xabardormisiz? Bu yerda gap faqat o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari ustida ketyaptimi yoki boshqa mazmun ham bormi?

4. Nega Cho'lponning ko'zlari "jayrondek termilgan"? Shoir ijodida shu misrani eslatuvchi boshqa she'r ham borligini bilasizmi?

5. "Qurboning bo'layin, ey onajonim", deganda shoir kimga murojaat qilyapti? Shu murojaat she'rdagi ma'noga qanday qo'shimcha ma'nolar yuklaganini o'ylang.

Darsda savol va topshiriqlarning bu tarzda tuzilishi va berilishi o'quvchini mustaqil fikrlashiga yordam beradi. O'quvchi kitobiy fikrlash bilan birgalikda masalaga hayotiy va shaxsiy nuqtayi nazardan yondashsa, bu uning aqliy faoliyatini yuksaltiradi. O'quvchining hayotdagi muammolarga javob topishiga, tevarak-atrofga teranroq qarashiga ham yordam beradi. Ana shunda o'quvchilar badiiy adabiyotning olam, odam, tabiat, jamiyat bilan bog'liq masalalar haqidagi fan ekanligini oson idrok eta oladilar.

Umuman, istiqlool davri she'riyatini vizual yondashuv asosida o'rganish o'quvchini fikrlashga undashi bilan bir qatorda shoir tuyg'u-kechinmalarini yaqqolroq anglashiga yordam beradi. Shuningdek, she'riy asarlarni vizual materiallar asosida tahlil etish o'quvchining individual xususiyatlarini ham yorqin namoyon etishiga yordam beradi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikni to'g'ri hal qilishi uchun imkoniyatni yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar. –Moskva, 1993.
2. Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva, 2010.
3. Kambarova S. Mutolaaga qiziqtirishga doir bir usul xususida //Til va dabiyot ta'limi , 2018. – № 6. – B. 42-45.
4. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. "Xalq so'zi" // 2016- yil 8- dekabr.
5. Olimov S. , Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. – T. : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.
6. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili, adabiyot, O'zbek tili. (5–9- sinflar) – T., 2010.
7. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006.

ID-020-30-M023

Xosiyat Navruzova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-kurs talabasi

SAID AHMADNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasidagi obraz yaratish mahorati ochib berildi. Yozuvchi trilogiyaning har bir qahramoniga ma'lum vazifani yuklagan. Trilogiya tariximizning uch muhim davrini qamrab olgan. Yozuvchi bu davrlardagi qahramonlarning barchasini o'ziga xos mahorat bilan kitobxon ko'z o'ngida gavdalandira olgan. Tarixiy faktlarni badiiy to'qima bilan tasvirlab, o'z qahramonlari orqali shu tarixiy faktlar bilan kitobxonni tanishtira olgan. Maqolada Said Ahmadning psixologik tasvir mahoratining kuchliligi, ixcham va teran fikrlashi, qahramonlar nutqida o'zidagi yumorni singdira olganlik mahorati bilan birga uning "Ota" obrazini yaratishda o'ziga xos qirralari ochib berildi va Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani bilan qiyoslandi.

Kalit so'zlar: *urush, qochoq, qahramon, umid, otalik, burch*

Annotation. In this article explains the skill of image creation in trilogy of "Ufq" by Said Ahmad. The writer assigns a specific task to each protagonist of the trilogy. The trilogy covers three important periods of our history. The writer was able to portray all the heroes of this period in the eyes of the reader with a unique skill. He was able to reflect historical facts in an artistic style and convey these historical facts to the reader through his heroes. The article reveals the strengths of his visual skills, his concise and deep thinking, his ability to absorb his humor in the speech of the protagonists, as well as his unique aspects in creating the image of "father" and compared with Ulugbek Hamdam's "Father" novel

Keywords: *war, refuge, hero, hope, paternity, duty*

Yer kurrasida chumolidek mehnat qilayotganlardan ko'ra, tuproq tagida yotganlar ko'p. Yer qatlami odam suyaklariga to'lib ketgan. Ammo hech bir inson oyoq tagiga qarab yashamaydi. Olis ufqlarni mo'ljalga olib yo'l yuradi. Said Ahmadning trilogiyasi qahramonlari ham "UFQ"qa intilish orqali

hayotning chigil sahifalaridan porloq sahifalariga o'tishdi. Ufqqa intilish odamlarning ertangi kun, yashash, yasharish, yaratish ishtiyoqidir. Mana shu ishtiyoq sababli "Ufq" trilogiyasi yuzaga keldi. Yozuvchi roman orqali urushdan oldingi, urush va urushdan keyigi hayotni o'z qalami bilan kitobxon ko'z o'ngida gavdalandira olgan. Said Ahmadning psixologik tasvir mahoratining kuchliligi, ixcham va teran fikrlashi, qahramonlar nutqida o'zidagi yumorni singdira olganligi asarning yashovchanligini taminlagan. Oz so'zda ko'p ma'no bera olgan yozuvchi A.Qahhor asarga shunday ta'rif bergan: "Bu kitobni ("Ufq" romanini) kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerga tutilmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost..." Darhaqiqat, ushbu asar "...odamga quvvat beradigan umid, uning boshini "toshdan" qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir." Bir asarga bundan ortiq baho berish mumkin-mi!?

Romanda qishloq hayoti manzarasi bo'yab-bejamasdan, haqqoniy tasvirlangan. Buni birinchi jumladanoq anglash qiyin emas. "Zirillama guzaridan sal nari o'tib chap tarafga tor ko'cha ketadi. Qalin tollar soya tashlagan, chetida tinimsiz jildirab suv oqadigan bu ko'cha ayniqsa saraton kezlarida juda jimjit bo'ladi. Guvala devorlar orqasida bekingan chang bosgan behi g'o'ralari, terakka chirmashgan aymoqi uzumlar bu ko'chaga ajib bir husn bag'ishlaydi." Asarning birinchi qismi "Qirq besh kun" deb nomlangan. Bu romanda Azizxon va Lutfinisaning sevgi motivi atrofida tarixiy haqiqatlar badiiy talqin etilib o'zbek xalqining fidokorligi aks ettirilgan. Xalqimizning qirq besh kunlik og'ir kunni to'ydek qarshi olishi, garchi bezgakdan qiynalsada, kunduzi saraton issig'ida tani kuyib, kechasi chivin azobidan qashinib uxlay olmasada sabr qilishi, erkaklar qatori ayollarning ham jasorat ko'rsatishi, haq to'lanib buzulishi kerak bo'lgan yeri, tomorqasi, bog'ini "Hukumat bizga suv olib keladi-yu, arzimagan chorbog'imizga pul olamizmi", deb, bu ham kamlik qilgandek, bittasi g'unajinni, ikkitasi bittadan qo'yni

so'yib, uyini buzgan traktorчилarga yedirib yuborishi va yana qanchadan-qancha shu kabi jonli tasvirlar orqali yozuvchi xalqning qanday ekanligini o'qirmanga ifodalab bera olgan. Romanga asos bo'lgan voqelikning davlat siyosati darajasida amalga oshirilganligi U. Yusupovning Stalin bilan telefon suhbatini orqali ham anglashimiz mumkin. Asarda keltirilgan majlis va yig'ilishlar tasviri orqali yozuvchi o'zining muhim fikrlarini va davrning dolzarb masalalarini yoritish bilan birga shu majlislarni qahramonlar taqdiri bilan bog'lagan holda uni o'qiyotgan har bir kitobxonni asar muhitiga olib kira olgan. Siyosiy va tarixiy faktlar asarga mohirona singdirilganligidan kitobxon asarning hech bir joyida to'xtamasdan o'qiydi. Masalan, kanal qurilib bo'lgach, U. Yusupovning muxbirlar iltimosiga ko'ra matbuot konferensiyasi o'tkazishi va bu konferensiyada Azizxon va Ikromjonlarning ham ishtirok etishi va u yerdagi kanallar o'rtasidagi qiyoslar haqidagi faktlar va qizg'in savol-javoblarni o'qirman o'zini Azizxonning yonida o'tirib majlisda ishtirok etayotgandek his qiladi. Yozuvchining yana bir mahorati kitobxonda tug'ilishi mumkin bo'lgan har qanday savolga javobni asarning o'zida aks ettira olishida ko'rinadi. Masalan, Butun dunyo tanigan kinorejissor Eyzenshteyn hammadan ko'p yer qazishda jonbozlik ko'rsatgan Do'stmatovga shunday savol beradi: "...siz oddiy bir dehqon odamsiz. Hammadan ko'p yer qazishga, hammadan ko'p tuproq tashib chiqishga sizni nima majbur qildi? Boshqalar qatori kunlik topshiriqni bir me'yorda bajarib yuraversangiz bo'lmasmidi?.." Shu savolga Do'stmatovning javobi kanalning xalq hayoti uchun qanchalik zarurligi va kanalga bo'lgan ehtiyoj bilan birgalikda qanchadan qancha do'stmatovlarning yuragidagi g'urur, yonib turgan o'tni ko'rsatib bera olgan. "...Ota-bobolarim Norin bo'yida yashashgan. Butun umr yelkalaridan obkash tushmagan. Eshikka yarim bo'yra eni o'sma ekan bo'lsalar shuni ham obkashda suv tashib sug'orishgan. Hammamiz daryo bo'yiga tashna yashaganmiz... Agar boshqalardan ko'p ishlayotgan bo'lsam, bu sevinganimdan, bolalarimning rizqini o'ylaganimdan, dalalarimga suv chiqishiga quvonganimdan bo'lsa, ajabmas. Mening-ku bitta jonim bor agar

o'nta jonim bo'lganida ham yurtga suv beraman deganga bag'ishlavoraman..." Azizxon, Esh polvon, O'sar polvon va Ali polvonlar orqali yozuvchi polvonlar hayoti, kurashdagi halollikni ham aks ettirgan. Kurashdagi bu tasvirlarni Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida ham uchratishimiz mumkin. Ali polvonning Esh polvonga aytgan maslahati zamirida yozuvchi Esh polvondan polvonning holdan toyishini kutib, so'ng kurashga tushadigan ayrim polvonlarga kurash qoidalarini uqtirib ham o'tgan. "...Men hech qachon arzon obro' olishga intilmaganman. Yengilishiga ko'zim yetgan polvonning belini tutmayman. Chog'im kelmaydigani bilan bellashaman. Eshitganmisan: osilsang baland dorga osil, degan gapni. Sen boshqa, men boshqa. Sen polvonning holdan toyganini qidirasan. Men kuchga to'lganini. ...Charchagan polvonni yiqitish mening taomilimda yo'q..." Ali polvonning otasining maslahati orqali o'zbekona tarbiyaning bir ko'rinishi ham aks ettirilgan. "Ey nodon, ular sendan yiqiladigan anoyi polvonlardan emas, atayin yiqilib berishgan. Azbaroyi oramizga bitta navqiron polvon kirsin, deganlaridan shundoq qilishgan." Trilogiyaning qismlarini Ikromjon Usmonov obrazi o'zaro bog'lab turadi. Birinchi kitobda Ikromjon, Jannat xola va ularning arzanda farzandi Tursunboy haqida kichik lavhalar keltirilgan bo'lsa, ikkinchi kitobda esa taqdir charxpalagining bir ko'zasi oila boshiga singanligi aks ettiriladi. Birinchi qismda Azizxon va Tursunboyning teng yosh ekanligi, ikkalasi ham oilada bir farzand ekanligi tasvirlanib bir muhitda voyaga yetganligi kontrast tarzda tasvirlanib, bu tasvir asarning oxirigacha davom etgan. Birinchi qismning o'zidayoq yozuvchi bolalarning o'yin jarayonida ularning taqdiriga ishora qilib, ikkinchi kitobdagi voqealar rivojiga urg'u berib qo'ygan. "Ummatali bir kuni uyiga kelsa, Azizxon Tursunboyning ostonaga yotqizib, qorniga "qilich" tirab, gapir xoin, deb do'q uryapti." Romanning ikkinchi qismida bolalik o'yinidagi xoin asl haqiqatga aylanadi va ikkinchi qism syujeti shu motiv atrofida birlashtirilgan. "Hijron kunlarida" romanida urush yillari xalqimizning boshiga kelgan fojealar, front ortidagi og'ir mehnat, qanchadan-qancha Do'stmatovlardek polvonlarning uyiga qoraxat kelib aza

ochilsa, yana qanchadan-qancha Ikromjonlar yarim jon bo'lib qaytishi, qanchadan-qancha Karimjonlar garchi urush tugasada, qayta urushga safarbar etilsada, qanchadan-qancha Xolmatjonlar o'lgan buvisi nomidan yozilgan xatlardan ilhomlanib urushda qahramonlik ko'rsatishi, qanchadan-qancha Nizomjonlar urushga ketganlarning o'rnini bildirmay yangi yerlar ochishi, qanchadan-qancha Dildorlarning hijron kechalarini o'tkazishi, qanchadan-qancha Asroralarning ayollik nafosatini erkaklardek shijoatga almashuvi ... aks ettirilgan. Bu tasvirlar orasidan Ikromjon va Jannat xolaning hayot yo'li o'zgacha mehr bilan yoritilgan. Ular to'qqiz farzandning ota-onasi edi. Ammo ularning taqdiriga bitilgani faqatgina Tursunboy edi. Shu sababdan bolani shunday tarbiya qilishdiki, bir og'iz yomon so'z aytishsa, xuddi bolasidan ayrilib qoladigandek, qo'rqib, ko'zlaridagi qorachiqdek asrashdi. Ammo oqibatda oson hayotga ko'nikkan bola qiyin kundan oson yo'l bilan chiqmoqchi bo'lib, dunyoni o'z qarichi bilan o'lchadi. Bu qarich aksincha uning o'z hayotini o'lchagan edi. "Zirillama qishlog'i bu tong uch voqeaning shohidi bo'lib uyg'ondi: Azizxon Sovet Ittifoqi Qahramoni, Tursunboy qochoq, o'ttiz xo'jalik naymanga ko'chadi. Ikromjon bolasini mard bo'ladi deb o'ylardi, yuzini yerga qaratadi deb hech o'ylamagan edi. U Tursunboyning shunchalar yaxshi ko'rar ediki, Tursunboy uning ko'rar ko'zi edi. Hatto oyog'ini kesayotganda ham bolasini o'ylagan, o'z jonini unutgan ota edi. "Qirt-qirt kesyaptiyamki, tentak Tursunboyim ko'zimga ko'rinadi. Xuddi meni kimga tashlab ketyapsan, deya yotganga o'xshayveradi. Yo'q yolg'izimning toleyiga o'lmadim omon qoldim." Ammo Tursunboyning qochoq ekanligini eshitishi uning butun otalik mehrini qahrga aylantirdi. Hatto "Bunaqa o'g'lim yo'q! Befarzand odamman!" deya farzandidan kechdi. Yor-do'stlarining yuziga qarolmay qoldi. Uy ostonasidan hatlab ko'chaga chiqolmay qoldi. Hatto oshxona devoriga Tursunboyning loy chaplaganidan qolgan besh panjasining izini ham buzib, uning izini ham o'z uyidan sidirib tashladi. Ammo alami bosilmaganidan sandal ustida turgan Tursunboyning suratiga yig'lagan cha tikilib, suratning yuz tomoni bilan yog'och oyog'ining tizzasiga bir urib oynali

ramkani chil-chil sindirdi. Uning ichki iztirobini yozuvchi shunday mahorat bilan ta'riflaganki, kitobxon bu tuyg'uni o'z vujudida his qila oladi. "Sen uchun, sen uchun yaramas bola! Sen juvonmargni bolaligingda akalaring qatori dard olib ketsa bo'lmasmidi! Seni opichlab ko'targan otangning bellari qarsillab sinib ketsa bo'lmasmidi! Qandoq qiladi, qandoq qiladi. Endi qandoq yashaydi! Sen juvormargni yaxshi yashasin, deb urush ko'chalariga bir oyog'ini tashlab keldi! Laxta-laxta qon yutdi. Muzlar ustida emaklab dushmanning yelkasidan bo'g'di! Sen juvonmarg tug'ilgan kuningdan boshlab nimaiki qilgan bo'lsa hammasi sen uchun, seni odam qilish uchun urindi. Har bir tomchi peshona teri sen juvonmargning baxting bo'larmikan deb qilindi. Mana mehnatlarining mukofoti! Ikromjon ich-ichidan, ovozi chiqarmay yig'lardi. Yig'lardi-yu bu bedavo darddan qutulish yo'lini izlardi. Bu yo'l unga naymanga ko'chishdek bo'lib ko'rindi. Qancha o'zini ish band etishga harakat qilmasin, Ikromjonning yuragi kuyardi. "Ota o'z bolasini ming marta oq qilganda ham yuragining bir chekkasida shu bolaga atab ardoqlagan, uning kamolini ko'rishga asragan mehrning zarralari yotadi. Bu zarralar vaqti-vaqti bilan alanga olib, yana so'nadi. Hozir Ikromjon yigirma bir yil qalbidan nari ketkizmagani, har bir daqiqasi katta umidlar va'da qilgan niyatlari bilan keyingi bir hafta orasida bolasini olislarga olib ketgan, porloq niyatlarini kuydirib jizg'anak qilgan hodisalar orasida o'rtanardi. Ikromjonni bir narsa ko'proq qiynardi.

Nega shunday bo'ldi? Nega uning bolasi qo'rqqoq chiqdi?

U o'ylab-o'ylab o'yiga yetolmasdi.

Yemay yedirdi, kiymay kiydirdi...

Ikromjonning birdan ko'zlari ochilib ketdi.

Ha, ha hamma gap ana shunda. Qo'lini sovuq suvga urdirmadi. Og'ir ish qildirmadi. Yig'laganda qo'shilib yig'ladi. Kalishini ham yuvib qo'yardi. Kasal paytida ham uni tayloqdek qilib opichib yurardi. Betini yuvganda o'zi suv qo'yib turardi...

Ikromjon peshonasiga shatillatib bir tushirdi.

Jazangni tort, jazangni tort, Ikrom. Uni o'zing shu ko'yga solding. Endi ming yig'la befoyda. Senga bu jazo kam!

Ikromjon o'g'lining shu ko'yga tushishini sira o'zidan ko'rmagan edi. Endi bunga iqror bo'ldi. Iqror bo'ldi-yu, alamiga chidolmay ingrab yubordi.

Shunday iztiroblar girdobida qolgan kishini hech narsa bilan yupatib bo'lmaydi."

Oppoq bo'lib otayotgan bir tongda ota o'z bolasini o'limda hukm qildi. Boshiga shuncha falokatlarni solgan nomard bola qani endi shu topda oldida bo'lsa... O'ldirardi! Qariligini harom qilgan, dunyoni ko'ziga qorong'u qilgan bolaning bahridan o'tardi! U qanday bola boqdi o'zi? O'z boshiga balo qilib bola boqdi. Endi uni qo'lga tushgan kuni it bolasidek o'ldiradi. Shunday bo'ldi ham, Ikromjon Tursunboyni to'qayda uchratdi. Uchratdi-yu shuncha qahr o'rnini yana otalik mehri egalladi. Ikromjon bora solib uning bo'yniga osildi. Ammo onasining o'limini to'qaydagi bo'ridek kuzatib turganini eshitgan Ikromjon ortiq chiday olmay qarshisida o'tirgan bolasini yagona oyog'i bilan tepib yubordi. Shu kungacha yuragini tirnayotgan, yig'ilib ketgan so'zlarni (xoin, qochoq, nomard, hezalak, iflos, it) aytishiga qaramasdan, uni insofga chorlamoqchi bo'ladi. Bu ham otalik mehrini ko'rsatadi. Ayniqsa tepkini bosgach hamon qamishlarni qayirib chopib ketayotgan o'g'lini ko'rgach "Xayriyat, tegmabdi" deyishi, oradan vaqt o'tib uni "bolam, bolam" deya qidirishidan kitobxon Ikromjonning qahri otalik mehri bilan aralashib uni o'zi anglamagan holda ko'ngil buyrug'i bilan ish tutayotganligini tushunadi. Said Ahmad shu o'rinda qochoqning taqdirini o'z qalam bilan yorqin aks ettirgan. U "... ota diyorida, ona mehridan, yor-birodarlari davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetadigan joyda quvg'in bo'lib, olamdan o'tadi." Bu ham kamlik qilgandek uning qabrini o't-alangalarda qoldirdi. Shu o'rinda Ikromjon va Jannat xolaning o'zaro munosabati, bir-birini avaylashi zamonaviy adabiyotimiz namoyondasi U. Hamdamning "Ota" romanidagi Po'latjon va Yog'dularning ham bir-birini asrashiga qiyoslasa bo'ladi. Yana o'xshash jihati shundaki, Ikromjon va Po'latjonlarning otalik mehri bir-biridan qolishmaydi.

Ammo Ikromjonning irodasi o'z farzandini o'ldirishga yetmadi. Po'latjonda aksincha. U. Hamdamning "Ota " romanida tasavvufiy ramzlar yashiringandek. Jaloliddin Rumi "Ichingdagi ichingdadir" asarida mohiyatdan so'z ochib quyidagi savol-javobni keltiradi:

Dediki: Onangni nechun o'ldirding?

Dedi: Unga yarashmagan bir ishni ko'rdim.

Dediki: Ammo onangni emas, yeti yot begonani o'ldirsang bo'lmasmidi?

Dedi: Har kuni bittadan o'ldiraymi?

Mavlono bu yerda qilmishlarni berkitish emas, barchasiga asos nafsni (onani) jilovlash kerakligini uqtiradi.

Po'lat ota o'z qizi Sevinchni o'ldirgach, asarning hech bir o'rnida qilgan ishidan afsuslanishni his qilmaydi, toki Yodgorni nikoh bilan tug'ilganini eshitmaguncha.

"Ufq" romanida yozuvchi har bir qahramonga ma'lum bir vazifa yuklagan. Masalan, har gapiga maqol yoki matal qo'shib gapiradigan To'lanboyga xalq og'zaki ijodi durdonalarini vaziyatga moslab aytish yuklatilgan. Yozuvchi qiyoslash-zidlash usulidan unumli foydalana olgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, Tursunboy va Azizxonni qiyoslagan bo'lsa, asar davomida A'zamjon va Xolmatjonlarning manmanlik va kamtarlik fazilatlarini, bir o'rinda Ikromjonning farzand dog'iga kuyishi-yu, shunday bo'lsada xalqiga qo'lidan kelgancha yordam berib, hatto uyini bog'cha qilishga ruxsat berishi, Inoyat (Jinoyat) oqsoqolning esa farzandini oq qilishi, xalqning og'ir kundan foydalanib, arzon narxda narsalarni sotib olib, dunyo boyligiga uchib, o'zligini unutishi kabi tasvirlar orqali qora rang bo'lmasa oq rangni his qilib bo'lmasligini anglagan yozuvchi hayotning oq va qora tomonlarini kitobxonga yaqqol aks ettira olgan. Ikromjonni yengilmaslik timsolida tasvirlagan yozuvchi asarning oxirida ham uning matonatini ko'rsatib bera olgan. "O'lish oson, o'lib ketish oson. Yashash qiyin. O'lish nomardning ham qo'lidan keladi. Mard yashaydi... Ufqni naymanga olib kelamiz. Yo'q, yo'q naymanni ufqqa olib boramiz." Hatto uning oxirgi so'zlarida ham, yashashga, yasharishga,

yangilikka intilish borligi har bir kitobxonga vasiyatdek bo‘lib qolgan. “Endi sen Ikromjon bo‘lib yasha! Hayotdan Ikromjonning haqini ol!” deya uni yangi marralarga chorlayveradi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Karimov. S.Mamajonov, B.Nazarov va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: “O‘qituvchi”, 1999. –544 b.
2. Sanjar Sodiq. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. –T. : O‘qituvchi NMIU, 2019. –720 b.
3. Said Ahmad. “Yo‘qotganlarim va topganlarim”. –T.: “SHarq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati, 1998. – 300 b.
4. Said Ahmad san‘ati. Zamondoshlari mashhur adib haqida. –T.: “O‘zbekiston”, 2010. – 286 b.
5. Said Ahmad. “Ufq”. –T.: “Sano-standart”, 2015

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH

ID-020-30-X001

Doston Isrofilov

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 4-kurs talabasi

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHNING AVVALGI VA HOZIRGI HOLATI

Annotation. The article discusses the history, current status, problems and solutions of teaching Uzbek as a foreign language. There are also some statistical data, analysis, and practical suggestions, which help to reveal current status of Uzbek language as a second or foreign language. Moreover, article informs about condition of teaching materials, some online platforms, level of language proficiency, collection and enrichment of resources.

Keywords: *foreign language, second language, teaching methods, history, current status.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish tarixi, hozirgi holati, u bilan bog'liq muammo va yechimlar xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'zbek tilini xorijiy yoki ikkinchi til sifatida o'qitishning joriy holatini ochib berish uchun bir qancha statistik ma'lumotlar, tahlil va amaliy yechimlar keltirib o'tiladi. Bundan tashqari maqolada o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish materiallarining holati, onlayn platformalar, til bilish darajasi, resurslarni boyitish choralari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Xorijiy til, ikkinchi til, o'qitish metodikasi, tarixi, hozirgi holati.*

Yer yuzida tillarning yo'qolib ketishi, yoki aksincha takomillashib taraqqiy etishi o'sha til egalarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy holati bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Muayyan xalq elat yoki davlat sifatida jahon shohsupasida balandroq ko'tarilib, mavqeyi, obro-e'tibori, nufuzi ortib borar ekan, o'sha xalqning ona tili ham jamiyat va davlatga homahang tarzda har tomonlama muhim ahamiyat kasb etib boraveradi. Xususan, mustaqil O'zbekistonning dunyo hamjamiyati oldidagi nufuzi yildan-yilga ortib

boravergani sayin, biz bilan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamkorlik qilish istagini bilduruvchilar miqdor va makon jihatidan ko'payib bormoqda. Bu esa o'z navbatida jahon miqyosida o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborda ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

O'zbek tilini xorijiy yoki ikkinchi til sifatida o'rganish harakatlari bir necha yillardan buyon u yoki bu shaklda yuzaga kelib, takomillashib bormoqda. Bu jarayonlarga xalqimiz boshidan kechirgan tarixiy jarayonlar, siyosiy va iqtisodiy omillar o'z ta'sirini o'tkazib kelgan va bu haligacha davom etmoqda. O'zbek tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o'qitish o'zining navbatdagi bosqichiga o'tgan asrning o'rtalarida ko'tarilgan desak yanglishmagan bo'lamiz. Mavjud manbaalarni tahlil qilsak, o'tgan asrning 60-yillarida Amerikaliklar tomonidan o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganish uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yaratilgan. Bu darslik va qo'llanmalarni tuzishda o'zbek tili mutaxassislari ishtiroki yuqori bo'lmaganligi bois, ularda xato va kamchiliklar seziladi. Lekin o'sha yillarda o'zbek tilshunoslari tomonidan bu borada deyarli hech narsa qilinmagan edi. O'tgan asr o'rtalaridan yangi asr boshlarigacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'zbek tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o'qitish uchun bir qancha darslik va qo'llanmalar xorijlik va mahalliy mutaxassislar tomonidan ishlab chiqildi va amaliyotda foydalanildi. O'tgan yillar mobaynida dunyoning turli davlatlarida mamlakatshunoslik, til va tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu markazlarda va bir nechta xorijiy ta'lim muassasalarida o'zbek tili bilan bog'liq tadqiqot va izlanishlar olib borish va uni xorijiy til sifatida o'qitish faoliyati yo'lga qo'yildi.

XXI asr boshlariga kelib bu jarayonlar o'zining yangi bosqichiga ko'tarildi. Oradan salkam chorak asr vaqt o'tdi va bugungi kunga kelib chet elliklar tomonidan o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan intilish, qiziqish toboro ortib bormoqda. Hozirgi kunda bir qator davlatlar, xususan, Koreya, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoyda mamlakatshunoslik doirasida O'zbekistonni o'rganishga e'tibor qaratgan ilmiy tadqiqot markazlari mavjud. O'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya,

SHvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning oltmishga yaqin universiteti va yuzdan ortiq maktablarida o'rganilmoqda. Hozirgi kunga kelib o'zbek tili va madaniyatini o'rgatuvchi, tadqiq etuvchi oliy ta'lim muassasalari, markazlar va assotsiatsiyalar soni 60 dan ortiq. Xususan, Amerikaning 8 ta shtatida Arizona, Indiana, Texas, Michigan, Ogayo, Nyu-York, Yaponiyaning 8 ta universitetida, Koreyaning Busan, Kyokl universitetlarida, Germaniyaning 4 ta oliy ta'lim muassasasida, Xitoyda, Hindistonda, Turkiyada 18 ta, Qozog'istonda va boshqa qardosh xalqlarda xorijiy til sifatida o'qitilishi o'zbek tiliga bo'lgan qiziqishni yanada orttirmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ishtagidagi xorijlik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish masalalari uzoq yillardan buyon tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lganligiga qaramay, bu boradagi muammolar hali o'z yechimini topgani yo'q [2, 51-bet].

Bugungi shiddat bilan ketayotgan globallashuv davrida o'zbek tilini ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda zamon va ilm fan talablariga javob beruvchi tizimli ishlarni amalga oshirish tilshunoslarimiz va soha mutasaddilari oldida turgan dolzarb vazifa sanaladi.

Yaqin kelajakda bajarilishi kun tartibida turgan vazifalarga o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning A1 A2, B1 B2 darajadagi izchillik asosida tuzilgan dasturlarini hamda tizimli dastur asosida qardosh tillar va noqardosh til egalariga til o'rgatish darsligini ishlab chiqish, shuningdek, til o'rgatishga yordamchi vositalar bo'lib xizmat qiladigan elektron resurslar, o'zbek tilining milliy korpusi va universal grammatikasini yaratish hamda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish metodikasini ishlab chiqish kabilarni kiritishimiz mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, o'zbek tili bilimni baholash tizimini yaratish va daraja sertifikatini berishni joriy etish, mustaqil ta'lim tizimini shakllantirish, xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha maxsus metodika asosida, o'zbek tilini

xorijiy til sifatida onlayn darslar va platform yaratish hamda o'zbek madaniyatini targ'ib etuvchi videoroliklarni yaratish va ularni keng miqyosda targ'ib etish kabilar yuqoridagi maqsad va vazifalarning izchil mantiqiy davomi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ishlarning ba'zilarini bajarish uchun qo'l urilgan. Lekin ular nihoyasiga yetmay qolgan yoki qoniqarsiz holatda. Masalan: o'zbek tilini masofaviy tarzda o'rganish yoki mustaqil o'qish uchun pulli va tekin onlayn saytlar ishlab chiqilgan. Ammo ularning aksariyati talab va takliflardan kelib chiqib rus, ingliz va boshqa millat vakillari tomonidan yaratilgan. Masalan: teachyourselfuzbek.com sayti muallifi amerikalik xavaskor til o'rganuvchi Brain Greko bo'lib, u saytda joylashtirgan elektron resurslar talabga javob bermaydi va xorijlik til o'rganuvchida noto'g'ri tushuncha, tasavvur va chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bu saytning talabga javob bermasligiga sabab esa o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish uchun muvofiq keluvchi resurslarning mavjud emasligi hamda sayt muallifining o'zbek tili mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlamaganligidir. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish borasida yuzaga kelgan ehtiyoj "bo'shlig" ini xorijliklarning o'zi to'ldirishga harakat qilyapti. Tabiiyki, ular o'zbek tilining real muhitini his qila olmaganligi bois chalkashlik va xatolarga yo'l qo'yishmoqda. Ana shu holatlarga chek qo'yish uchun o'zbek tili posponlari va mutaxassislari yuqorida sanab o'tilgan ustuvor vazifalarni birdamlik va tirishqoqlik bilan amalga oshirishi davr talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barak, M. (2017). Science teacher education in the twenty-first century: A pedagogical framework for technology-integrated social constructivism. *Research in Science Education*, 47(2), 283-303. doi: <https://dx.doi.org/10.1007/s11165-015-9501-y>
2. Ergasheva G. Global ta'lim va milliy metodika masalalari O'zbek tilini ikkinchi sifatida o'qitish: muammo va mulohazalar., Toshkent., 2019.51.
3. Ergasheva G.. Issues of creating an online platform for teaching uzbek language as a foreign language. India. Academia.2020.

4. Marin, V., Sampedro, B. E., & Vega, E. (2017). Percepciones de los estudiantes universitarios sobre las plataformas de formacion. estudio de caso [Perceptions of University Students about Training Platforms. Case Study]. Revista Iberoamericana De Educacion a Distancia, 20(1), 283-303. doi: <https://dx.doi.org/10.5044/ried.20.1.16518>.
5. Sakayeva L. , Baranova A. Методика обучения иностранным языкам, Kazan 2016.

ID-020-30-X002

Elvira Ilyasova

O'zbek tili fakulteti 1-kurs talabasi

O'ZBEK TILI DARSLARIDA TALABALAR NUTQINI O'STIRISH USULLARI

Annotatsiya. Bu maqolada o'zbek tili fan dasturi sifatida ma'naviy va kasbiy mavzular vositasida o'quvchilarga xalqimizning milliy-madaniy merosi va qadriyatlari, jahon hamda o'zbek adabiyotida aks etgan insonparvarlik g'oyalarini singdirishga qaratilgan ekanligi ko'rib chiqiladi. O'zbek tili darsida o'quvchining turli mavzularda erkin fikr yuritish, fikrini asoslash malakalarini rivojlantirishi mumkin bo'lgan bir qator fikr-mulohazalar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Dialogik, monologik, nutq o'stirish, polilog, metod, xarakterlash.*

Annotation. This article is aimed at inculcating in students the national and cultural heritage and values of our people, the ideas of humanity reflected in world and Uzbek literature through spiritual and professional topics as a science program of the Uzbek language. The Uzbek language course provides a number of ideas and recommendations that can develop students' ability to think freely and reason on various topics.

Key words: *Dialog, monologue, increase speech, polylogue, method, characterization.*

O'zbek tili darslarida adabiy ta'limni tashkil qilishda o'qituvchi mahorati katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, adabiyotga qiziqish bolada ilk bor oilaviy muhitda shakllanib, umumta'lim maktabida o'qish jarayonida rivojlanib boradi. Biroq amalda adabiy asarlarni o'qishga bo'lgan motivatsiya oily ta'lim bosqichiga qadam qo'ygan talabalarda ham nihoyatda past ekanligi kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'zga tilli guruhlariga joriy etilgan "O'zbek tili" fan dasturi ma'naviy va kasbiy mavzular vositasida o'quvchilarga

xalqimizning milliy-madaniy merosi va qadriyatlari, jahon hamda o'zbek adabiyotida aks etgan insonparvarlik g'oyalarini singdirishga qaratilgan. Yuqoridagi talablarga hamohang tarzda dasturga "Kitob mutolaasi", "Milliy kutubxona", "Adabiyot – ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba", "Men sevgan asar" kabi mavzular kiritilgan. Ularni o'rganish jarayonida, jumladan, dialogik va monologik nutqni o'stirish, polilog, bahs-munozara, rolli o'yinlar metodlaridan foydalanish o'quvchilarning muloqot madaniyatini, turli mavzularda erkin fikr yuritish, fikrini asoslash malakalarini rivojlantiradi. "Shuningdek, o'quvchilarning internetdan foydalanish ko'nikmalarini adabiy asarlarni o'qishga qaratish maqsadida ularga elektron kutubxona bilan ishlash haqida tavsiyalar, badiiy asarlar jamlangan saytlarning ro'yxatini tuzish kabi topshiriqlar berish tavsiya etiladi". [2. 70-bet].

Mashg'ulotlarda dunyoga mashhur adiblar hamda o'zbek yozuvchilarining tarbiyaviy mazmundagi hikoyalarini tahlil qilish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mustaqil ish turlari sifatida esa adabiy qahramonlarni bugungi hayot nuqtai nazaridan xarakterlash, adabiyotning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati kabi mavzular ustida ishlash maqsadga muvofiq. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish pasayib ketganligining sabablarini aniqlash, adabiy asarlarni o'qish hamda tahlil qilishga motivatsiyani kuchaytirish til ta'limining vazifalaridan biriga aylanmog'i darkor.

O'zga tilli guruhlarida o'zbek tili dars jarayonida qo'llaniladigan usullar bilan fikrimizni davom ettiramiz.

9-sinf o'zbek tili darsligida berilgan "Yaxshilik unutilmaydi. (Gap bo'laklari. Eganing ifodalanish) mavzusini kuzatamiz va o'rinli usullarni qo'llash haqida ma'lumot beramiz.

Darsning ta'limiy maqsadi:

-O'quvchilarning "Yaxshilik unutilmaydi" mavzusiga oid leksik minimumini boyitish.

-Mavziga oid yangi so'zlarni nutqiy faoliyatga tadbiiq qilish.

-Savodxonlik, to'g'ritalaffusustidaishlash.

-Gap bo'laklari haqida grammatik bilimlarni mustaqil ravishda nutqiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirish.

-Mustaqil fikrlashga o'rgatish. **Darsning tarbiyaviy maqsadi:** Milliy-madaniy an'analarni bilish, ulardan ta'sirlana olish kabi milliy va umummadaniy kompetensiyalarni, o'zaro munosabatlarda muomala madaniyatiga ega bo'lish orqali ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish. **Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:**

-O'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish.

-O'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

-O'rganilgan mavzu asosida o'zaro muloqatga kirishish.

-O'rganilgan grammatik bilimlarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash.

Darsning turi: Interfaol. Mustahkamlovchi.

Darsning jihozlanishi: Mavzuga oid rasmlar, grammatik mavzuga ko'rgazmali qurollar, darslik. **Darsda foydalanadigan texnologiya:** Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o'qitish texnologiyasi).

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: Darsni tashkil qilish. O'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish. Darsning borishi maqsadi bilan tanishtirish. Uyga berilgan vazifani tekshirish. Bunda o'quvchilarning yaxshilik haqida yod olib kelgan maqollarini "Zanjir" usulida so'rash. O'tilgan mavzular bo'yicha savollar tarqatiladi. O'quvchilar savollarga javob beradilar.

3-topshiriqda dialog berilgan bo'lib, uni o'quvchilarga og'zaki bajartiriladi. O'quvchining nutqi, so'z tanlashi kuzatiladi va o'qituvchi tomonidan tuzatiladi.

Darsni mustahkamlashda "Blits sorovnoma"sidan foydalanish mumkin. Buning uchun o'quvchilarga quyidagi jadval-tarqatma beriladi. O'quvchilar ushbu jadvalni to'ldiradilar, ega qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini topadilar.

Nº	Gaplar	Ot	Sifat	sifatdosh	olmosh	son	Harakatnomi
1.	Kamtalik kishiga zeb - ziynatdir						
2.	Ikkalasi hozir chiqib ketdi						
3.	Hamma hasharga to'plandi						
4.	Bahor keldi.						
5.	Bodom qiyg'os gullagan						
6.	Yugurish sportning bir turi						
7.	Birlashgan o'zar-birlash- magan to'zar.						
8.	Mard bir o'lar, nomard yuz o'lar						
9.	Sayohatga boradiganlar ro'yhatga yozilsin						
10.	U bu uyda yashamaydi.						

Yozma bajartirilishi lozim bo'lgan mashqlarni bajartirishda interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Kim? Nima? So'roqlari o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchilar ushbu tarqatma orqali o'zlariga tegishli gapni topib doskaga yozadilar va daftarga ko'chiradilar.

KIM?

NIMA?

“Kim zukko va zehqli?” mashgu'loti tashkil qilinadi. Darslikda berilgan matn tarkibidagi gaplar o'quvchilarga bo'lib beriladi, o'quvchilar darslik talabi bo'yicha ushbu gapdagi ma'noni tushuntiradilar. Gap tuzishda o'quvchilar quyidagi ko'rgazmadan foydalanish mumkin:



Darslikda adabiy o'qish uchun tavsiya qilingan “Bilim qudrati” matnini “Rolli o'yin” usulidan foydalanib, mustahkamlash mumkin.

O'zga tilli guruhlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun o'quvchilarni to'g'ri va izchil gaplar tuzishga o'rgatish lozim. Ushbu

jihatlari albatta, badiiy adabiyotdan namunalari o'qish bilan ancha samara berishi ta'minlanadi. Bundan tashqari o'quvchilarning yozma va og'zaki savodxonligini rivojlantirish uchun turli innovatsion nazorat ishlarini tashlik qilish ham ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuxamedov R. va boshqalar. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. T.: - 2008 y.
2. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida/O'zR Prezidentining qarori/ "Xalq so'zi", 2017-yil 14-sentabr, 184 (6878).
3. Muxitdinova X.S va boshqalar. O'zbek tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Davr, 2018. – 192 b.

ID-020-30-X003

Nilufar Isroilova

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 3-kurs talabasi

O'ZBEK TILINI CHET ELLIKLARGA O'RGATISH BO'YICHA ONLAYN PLATFORMA YARATISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilining onlayn platformasini tuzishning hozirgi holati, unga oid muammolar va yechimlar haqida so'z boradi. Fikrlarni oydinlashirish uchun turli xil o'qitish platformalaridan havolalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *onlayn dars, Learning Management System (LMS), virtual ta'lim, internetga asoslangan ta'lim, kompyuter yordamidagi ta'lim, onlayn kontent.*

Annotation. The article discusses the current state of the Uzbek language online platform, its problems and solutions. There are links from various learning platforms to clarify the ideas.

Keywords: *online course, Learning Management System (LMS), virtual learning, internet-based learning, computer-assisted learning, online content.*

Onlayn o'qitish platformasi deganda, foydalanuvchilarga raqamli ma'lumot ulashish tushuniladi. Onlayn ta'limda instruktor tomonidan o'rganuvchilarga video, rasm, matn va audio kabi turli xil shakldagi bilim beriladi. Onlayn o'qitish *Learning Management System (LMS)*, ya'ni "Ta'limning boshqaruv tizimi" tarkibiga kiradi. Onlayn ta'lim *virtual ta'lim, internetga asoslangan ta'lim, kompyuter yordamidagi ta'lim* deb ham ataladi. Onlayn ta'limga **Desmond Kigan** quyidagicha ta'rif bergan[1]:

- yuzma-yuz ta'limdan farqli ravishda, o'qituvchi va o'rganuvchining bir-biridan mustaqil faoliyatini ta'minlaydi;

- ma'lum ilmiy kontentni kompyuter tarmog'i yordamida ulashish imkonini beradi.

Onlayn o'qitishni tashkil etishda eng samarali ikki model qo'llaniladi. Ulardan biri **Boshqotirma** (Jigsaw) va **To'rsimon** (Hub) modellardir [1].

Onlayn kontent yaratishning asosiy tushunchalari, metod, usul va vositalari haqida dunyo miqyosida ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan, shunga uchun bunga bag'ishlangan manbalarni topish qiyin emas. Aynan o'zbek tilini o'qitish masalasiga yondashsak. Quyida o'zbek tilini onlayn o'qitish talabi, muammolari va yechimlari haqida so'z yuritamiz.

O'zbekchani onlayn o'qitish talabi

O'zbek tilini chet elliklarga o'qitishga mo'ljallangan kitob holatidagi bir necha darsliklar yaratilgan va yaratilmoqda. Bu muammo alohida masala bo'lib, biz faqat onlayn kontent haqida fikr yuritamiz. Bugungi kunda, texnologiya va internet tarmog'ining keng yoyilishi natijasida onlayn bilim oluvchilar soni tobora ko'payib bormoqda. Onlayn ta'limning mazmuni cheksiz, tushunarli va ko'pincha, ishonchli bo'ladi. O'zbek tilidagi onlayn ta'limning bugungi holati bilan tanishamiz:

Tiliga ko'ra: Ingliz tilidagi va o'zbek tilidagi

Tuzilishiga ko'ra: matn va video ko'rinishidagi:

Matn ko'rinishidagi:

<http://uzbek-glossary.com/>

<http://polymath.org/uzbek.php>

<https://www.orexca.com/uzbekistan/uzbek language.htm>

<http://www.uzbek-dictionary.com/> (kontent yo'q)

<http://www.ismanov.com/> (kontent yo'q)

Video ko'rinishidagi mazmun quyidagi turlarga bo'linadi:

✓ O'zbek tili haqida umumiy ma'lumot beruvchi:

<https://www.youtube.com/watch?v=RNQRWeSWk3I&feature=youtu.be>

✓ Fonetikaga bag'ishlangan:

<https://www.youtube.com/watch?v=x--jEYygkas&feature=youtu.be>

✓ Lug'at boyligini oshirishga qaratilgan:

<https://www.youtube.com/channel/UC0Jy9r3lBg2ldliL6mAlpFQ/feature> (Aman)

<https://www.youtube.com/channel/UC0Jy9r3lBg2ldliL6mAlpFQ/videos>

✓ Grammatikani o'rgatadigan:

<https://youtu.be/USlucVmBG0k>

Muammolar:

- To'g'ri talaffuz;
- Grammatika (morfologiya va sintaksis);
- Lug'at;
- Madaniyatni o'rgatish;
- Bilimlarni sinash.

Eng katta muammo shundaki, chet elliklarga o'zbek tilini o'qitishga mo'ljallangan hozirgacha yaratilgan onlayn mazmunning deyarli 50 foizi boshqa millat vakillari tomonidan ishlab chiqilgan.

Yechim:

Fonetika. Har bir tilning deyarli boshqa barcha tillardan farqlanuvchi alohida talaffuz tizimi mavjud. Ayni bir belgi turli tillarda turlicha, so'zning har xil qismida o'zgacha talaffuz qilinadi. O'zbek tili alifbosi lotin alifbosiga asoslangan bo'lsa-da, tovushlar lotin alifbosidan foydalanuvchi boshqa tillardagidan anchayin farqli. Ba'zi tadqiqotchilar tilni grammatikadan boshlash kerak, degan fikrni ilgari surishadi. Bizning fikrimizcha, agar tilni o'rganishning boshlang'ich bosqichida to'g'ri talaffuz me'yorlari o'rgatilmasa, grammatik qoidalar to'liq o'rganilgandan keyin ham, talaffuzni qayta tuzatish anchayin qiyin, ba'zan imkonsiz. Shu sababdan, o'zbek tilini o'rgatish ishini fonetikadan boshlash kerak va bunda avval chet elliklar uchun talaffuz qoidalari o'rgatilishi, undan keyingi bosqichda o'zbeklar tomonidan talaffuz qilinishi qiyin so'zlar o'rgatilishi kerak. Bu o'rganuvchilarning haqiqiy til muhitiga integratsiyasini tezlashtiradi.

- Chet elliklar uchun muammo tug'diradigan o'zbek fonologiyasi xususiyatlarini o'rgatish: <https://youtu.be/C6WqhKZ0nuo>;

- Til egalari (o'zbeklar) duch keladigan fonetik muammolar bilan tanishtirish: <https://youtu.be/x4T96RReg4c>

Grammatika. Ma'lum bir reja ishlab chiqilib uslub tanlab olinsa, grammatik qoidalarni onlayn darslar orqali o'rgatish qiyin emas. Izohlar o'zbek yoki ingliz tilida berilish+idan qat'i nazar, istalgan mavzuni aniq tushuntirish mumkin.

Lug'at. Videoda lug'atni faqat izoh yoki animatsiya yordamida tushuntirish mumkin. Izoh uslubida o'qituvchi ma'lum bir so'zni aytadi va uning nimaligini tushuntirib beradi. Animatsiya yordamidagi izoh usulida izohlanayotgan so'zning tasviri ko'rsatiladi va o'qituvchi uni orqa fonidan tushuntiradi. Umuman olganda, video ko'rinishidagi lug'at o'rgatishda audio albatta bo'ladi. Matn ko'rinishidagi lug'at onlayn bo'lsa, audiosi bo'ladi, oflayn faylda audio bo'lmaydi.

Izohlab lug'at o'rgatish:

<https://www.youtube.com/watch?v=nuMIRI8Ypi4&feature=youtu.be>

Animatsiya yordamidagi lug'at o'rgatish:

<https://youtu.be/rVk6dTmAWvc>

Audiosiz matn ko'rinishidagi lug'at: <https://ieltsliz.com/crime-and-punishment-vocabulary/>

Audioli matn ko'rinishidagi lug'at:

<https://www.english-at-home.com/vocabulary/english-words-for-crime-and-punishment/>

Madaniyatni o'rgatish: O'zbekiston bo'ylab turli hududlarga borib, ma'lum bir mavzuga yo'naltirilgan lug'atni o'rgatish, o'zbek tilida eshitish ko'nikmasini shakllantirish/yaxshilash, madaniy xususiyatlardan xabardor qilish nazarda tutiladi. Bunda taqdim qilinayotgan ma'lumot qayerda, qachon va qay yo'sinda berilishi katta ahamiyatga ega. Rus tilidagi madaniyatga oid videoga misol: <https://www.russianfromrussia.com/learn-russian-ded-moroz/>

Bilimlarni sinash: Uzoq muddatdan beri foydalanuvchilari soni ko'payib borayotgan muvaffaqiyatli onlayn platformalarda shunday bir usul bor. Darsni o'rgatish jarayonida o'qituvchi mavzuga oid qandaydir gap yoki misol keltiradi va shu narsa bo'yicha o'rganuvchilar o'z fikrini izoh qilib qoldirishlarini so'raydi. Bu juda oddiy savol bo'lishi ham mumkin. Deylik:

“Mening yoshim 21da. Sizniki-chi? Yoshingizni izohda qoldirishingiz mumkin.” O’rganuvchilarga bu bosqichgacha sonlar albatta o’rgatilgan bo’ladi va ular o’zlarining yoshlarini o’rgangan bilimlari asosida to’g’ri yozib izoh qoldirishadi. Ba’zi holatlarda murakkabroq savolga javob topish musobaqasi o’tkazib, dunyoning istalgan nuqtasidagi g’olib(lar)ga qandaydir esdalik sovg’asi jo’natish mumkin.

Bilimlarni sinash uchun alohida dars tayyorlanishiga kelsak. O’quvchilarning bilim darajasini inobatga olgan holda, quyidagicha platforma yaratish mumkin: <https://youtu.be/XIT4qJdWeiU>

Umuman olganda, istalgan turdagi onlayn ta’limda quyidagilar inobatga olinishi zarur:

Mazmun. Mazmun o’ta sayoz yoki o’ta murakkab bo’lmasligi kerak. Onlayn kontent har doim ochiq bo’ladi va uni istagancha takroran ko’rish mumkin. Shuning uchun mazmuni qadamma-qadam kengaytirib borish zarar qilmaydi.

Vaqt. Ma’lumot matn, audio yoki video holatda berilganda ham, bir sonda beriladigan ma’lumotni bir marta o’qish, eshitish yoki ko’rish uchun uzog’i bilan 20 daqiqadan ko’p vaqt ketmasligi kerak [2]. O’rtacha davomiyligi 6-9 daqiqalik videolar ayni muddao, deydi Mayer va Moreno [3].

Tashqi ko’rinish: Ma’lumotning har xil dunyoqarash, yosh va kasbdagi insonlarga mos kelishi uchun optimal dizayn yaratish muammosi onlayn platforma tuzish muammolaridan biridir. Mazmuni nisbatan boy bo’lsa-da, kontentga umuman mos bo’lmagan dizayn ta’limning muvaffaqiyatsiz tugashiga olib kelishi mumkin. <https://youtu.be/FJbxe F-6U4>

O’ziga xos yondashuv: Turli tillardagi o’qitish platformalarini o’rgatish jarayonida ularning dunyoqarashiga mos alohida bir uslubni his qilish mumkin. Ularning tashqi ko’rinishi yoki o’qituvchilarning kiyinish uslubida sezilarli farq bo’lmasa-da, har bir platformaning o’ziga xos alohida belgisi mavjud.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o’zbek tilini o’rgatishga katta talab qo’yilayotgan bir vaqtda, kitob shaklidagi manbalar bilan birgalikda onlayn

ta'limni ham iloji boricha tez fursatda ishga tushirish kerak. Bunda til mutaxassislari birgalikda yuqoridagi kamchiliklar va muammolarni hisobga olgan holda, amaliy ishga o'tishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Paulsen, F. Morten, *Online Education. Global learning from a Scandinavian Perspective.* (NKI Forlaget. Norway, 2003), 25-28
2. <https://www.learndash.com/how-long-should-videos-be-for-e-learning/>
3. Mayer, R. E., & Moreno, R. (2003). Nine ways to reduce cognitive load in multimedia learning. *Educational Psychologist*, 38(1), 43-52.]

ID-020-30-X004

Sevara Umurzakova

O'zbek tili fakulteti 1-kurs talabasi

ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGATISHDA O'ZBEK TILI O'QITUVCHILARIDA KOMPETENTLILIK XUSUSIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zga tilli guruhlarda o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'rgatishda innovatsion yondashuv talab qilinishi, bunda o'zbek tili o'qituvchisida kompetentlikning muhim ahamiyatini Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari misolida tahlil qilinishi keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Kompetentlilik, Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub", xulq-atvor, o'quvchi, ijod, axloq, fikrlash, nasihat, falsafa.*

Annotation. This article calls for an innovative approach to teaching Uzbek classical literature in other language groups, with an analysis of the importance of competence in the Uzbek language teacher on the example of Alisher Navoi's Mahbub ul-Qulub.

Keywords: *Competence, Alisher Navoi, "Mahbub ul-qulub", behavior, student, creativity, ethics, thinking, advice, philosophy.*

Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish, o'rgatish asrlar osha sayqallanib kelgan adabiyotimiz mohiyatini oydinlashtiradi. Hazrat Navoiy asarlaridagi ezgulik, milliy qadriyatlarni o'zga tilli guruh o'quvchilariga tushuntirishda o'qituvchidan ta'limga an'anaviy va zamonaviy yondashuvni talab qiladi.

O'zga tilli guruhlarda Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini o'rgatishda kompetentlik masalasi qanday ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilishga harakat qilamiz. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida yuksak insoniy fazilat va ezgulikni madh etish, targ'ib, tashviq etish bilan cheklanmaydi. U ayni zamonda odamlardagi yomon, nopok, insoniylikka xilof

xislatlarni, insonlar uchun, jamiyat uchun zararli, sharaflı inson sha'niga yarashiqsiz xulq- atvor va sifatlarni qoralaydi, tanqid ostiga oladi. Navoiy bu qismda, o'zining ijtimoiy qarashlariga oid fikrlarini davom ettiradi, chuqurlashtiradi, yangi-yangi dalillar bilan asoslaydi. Navoiy ilm ahlini g'oyat yuksak baholaydi, mamlakat obodonligini ta'minlashda, xalq ahvolini yengillashtirishda ularga juda katta umid bog'laydi.

Yangi mavzuni tinglashga, diqqatini qaratish uchun o'quvchilarga savol bilan murojaat qilishdan boshlash kerak.

Siz Alisher Navoiyning axloqiy –falsafiy yo'sinda yozilgan qanday asarlarini bilasiz? Bildiriladigan fikr-mulohazalarga "Nima uchun?", "Nima sababdan?" so'rovlari orqali yondashiladi. Javoblar qabul qilingach, o'qituvchi tomonidan yangi mavzuning mohiyati haqida ma'lumot beriladi. O'zbek tili o'qituvchisida kompetentlik muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetentlik nima?

Kompetentlilik-lotinch "competens" so'zidan olingan bo'lib, layoqatli, qobiliyati bor degan ma'nolarni anlatadi. Kompetentlilik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. O'qituvchi shu tamoyillarni yaxshi o'zlashtirib, dars jarayonida faoliyat ko'rsatadi. Quyida darsni tashkil qilish va asarni tahlil qilishga oid usullar bilan tanishamiz.

Yangi mavzuning bayoni, xususan, "Mahbub ul-qulub" asarida tanbeh va hikoyatlarning mohiyati o'qituvchi tomonidan tushuntirib beriladi.

Navoiy ijodkor inson, kashfiyotchi olim, teran mushohadali tarixchi, nozik didli mutasavvuf, aruz ilmining bilimdoni bo'lganlar. She'riyat mulki sultonining qay bir asarini olmaylik, unda insonning ma'naviy tarbiyasi bilan bog'liq biron fikr, hikmat uchramasdan qolmaydi

Hikmatli so'z, pand-u o'git sharq adabiyotining qon-qoniga singib ketgan. "Mahbub ul-qulub" asarida pand-u nasihat, axloqiy qarashlar bosh mavzuga aylanib, to'g'ridan to'g'ri ifoda etiladi, ularga har tomonlama ta'rif

berilib, falsafiy-axloqiy xulosalar chiqariladi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib “Mahbub ul-qulub” pandnoma yoki nasihatnoma ekanligiga amin bo‘lamiz. Darsda taqdimotdan foydalanish mumkin:



Alisher Navoiy bu asarni 1500-yilda yaratgan, arab tilidan “Ko‘ngillarning sevgani” deb tarjima qilinadi. Asarda o‘zining 60 yillik umri mobaynida ko‘rgan–kuzatganlarini teran tahlildan o‘tkazib muayyan xulosalar chiqargan donishmand adibning bizlarga qoldirgan buyuk ma’naviy merosidir.

O‘quvchilarga darslikdan tashqari qo‘shimcha ma’lumotlar ham beriladi.

“Mahbub ul-qulub” 3 qism, 127 ta tanbeh, 13 ta hikoyatdan iborat. Musajja san’atining nodir na’munasi hisoblanadi. [2, 25-bet]

1-qismda insonlar xulq-atvorida uchraydigan yaxshi- yomon xislatlar, illatlar haqida;

2-qismda tasavvufiy allomalar va ular hayoti bilan bog‘liq hikoyatlar;

3-qismda pand-nasihat ruhidagi 127 ta tanbeh kiritilgan.

O‘quvchilarning faolligini oshirish uchun ularga asardagi mashhur jumladan o‘qib berish yaxshi taassurot hosil ettiradi, masalan:

Bahrdin qatrag‘a ta‘zim ila tahsin ko‘rdim,

Mehrdin zarraga e‘zoz ila ehson topdim.

Ya‘ni, Dengizning tomchiga ta‘zim ila tahsin qilganini ko‘rdim.

Quyoshning zarraga e‘zoz va ehson ko‘rsatganiga guvoh bo‘ldim.

Mavzuni mustahkamlash uchun “Xotira” mashqidan foydalaniladi. O‘quvchilarga tarqatmalar beriladi, shu tarqatmadagi berilgan jumlagi o‘z munosabatini bildiradilar.

1-O‘quvchi: Saxovat insoniyat bog‘ining hosildor daraxti.

2-O'quvchi: Hilm bu- muloyim tabiatlik odamiylik olamining javohir tog'idir.

3-O'quvchi: Bayt; Yaxshi so'zga kim mast-u behush bo'lsa
Sharbat ichida zaharni totli qiladi.

4-O'quvchi: Har kimningki so'zi –yolg'on,
Yolg'onligi bilingach, uyatda qolg'on.

5-O'quvchi: Qita' Yor uldirki, o'ziga ravo ko'rmagan narsani
Yoriga ham ravo ko'rmagay

O'zi yori uchun o'lmoqqa tayyor esada
Lekin yorini bu ishga sherik qilmagay.

6-O'quvchi: Bayt; Gahi topdim falakdin notavonlig',
Gahi ko'rdum zamondin kamronlig',
Base issig', sovug' ko'rdum zamonda,
Base achchig', chuchuk totdim jahonda.

7-O'quvchi: Safar-xom odamlarni pishiruvchi va taomlarni
singdiruvchidir. Odam uchun doim harakatda bo'lish hayotlikdan asardir;
jonsiz mavjudotlar tiriklik nishonasidan bexabardir.

O'qituvchi: Safar-ayriliqqa uchraganlarni maqsadiga yetkazuvchi
mahruamlarni murod uyiga olib kiruvchidir.

Bildirilgan fikr-mulohazalarga "Nima uchun?", "Nima sababdan?"
so'rovlari orqali yondashiladi, izohi talab qilingan so'zlar uchun lug'at ishi
amalga oshiriladi.

"Moslikni toping" usulidan foydalanib, o'quvchilarga jadval
to'ldirtiriladi.

Fazilatlar	Izohi
Saxiy	Bir kulchani yarmini bergan
Safar	Xom odamlarni pishiruvchi
Saxovatsiz	Yog'insiz bahor buluti
Nodon	Eshakning bemahal hangramog'idir
Axiy	Bir kulchani hammasini bergan

Darsni mustahkamlash uchun test nazoratini amalga oshirish mumkin:

1. Alisher Navoiyning “Ko‘ngillarning sevgani” deb tarjima qilinuvchi asarini belgilang.

A) “Hayrat ul –abror”

B) “Xamsa”

C) “Mahbub ul-qulub”

2. Insonlar xulq-atvorida uchraydigan yaxshi-yomon xislatlar, illatlar “Mahbub ul-qulub” asarining qaysi qismida yozilgan?

A) 1-qismda

B) 2-qismda

C) 3-qismda

3. Arslonning maqsadi-....?

A) Och yirtqichlarni to‘yg‘azmoq

B) Don o‘g‘irlab tugun axtarmoq

C) Hukumronlik qilmoq

4. “Mahbub ul-qulub” asarida pand-nasihat ruhidagi nechta tanbeh kiritilgan?

A) 127 ta

B) 271 ta

C) 172 ta

5. Mevasiz daraxt va yog‘insiz bulutga o‘xshatilgan xislat qaysi banga to‘g‘ri keladi?

A) Isrofgarchilik qilgan inson

B) Saxovatsiz odam

C) Himmatsiz kishi

O‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish uchun “So‘z sehri” usulidan foydalaniladi.

Tushunilishi qiyin so'zlar	Izoh	Ma'nodosh so'z	Zid ma'noli so'z
Laim	Xasis	Past, nokas	Saxiy
As'hob	Suhbatdosh	Hamsuhbat	
Ba'zi ahhobki	Ayrim do'stlar		Dushman

“Mahbub ul-qulub” asarida ma’naviy san’atlarning eng ta’sirchan va ko’p ishlatiladigan turlaridan “Tazod” nazm va nasrda mohirona qo’llanilgan. Hikoyatlarda esa Tarse’ san’ati ham ko’p uchraydi. Tarse’ning lug’aviy ma’nosi “gavharni ipga tizish” dir. Navoiy har bir hikoyatdan keyin she’riy izohlar keltirgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari va undagi hikoyalar g’oyaviy-badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega asardir. Asarga kiritilgan she’riy san’atlar esa hikoyatlarning badiiyligini yanada oshirgan.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g’ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o’lmas so’z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo’lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so’zlovchi biron bir inson yo’qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa" beriladi [2. 8-bet].

Dars yakunida faol ishtirok etgan o’quvchilarni bergan javoblariga ko’ra baholash, qisman rag’batlantirish o’quvchilarga o’ziga ishonchini oshiradi.

O’zga tilli guruhlarda o’zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o’rgatishda innovatsion yondashuv muhim ahamiyatga ega. Asar tahlilida turli interfaol metodlarni qo’llashda o’quvchining imkoniyatlari hisobga olinsa, yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub” Mukammal asarlar to’plami. 9-jild. Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2011. b. 764.
2. Ochilov E. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent. 2010. b. 224.
3. Muxitdinova X.S va boshqalar. O’zbek tili: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – T.: Davr, 2018. – 192 b.

ID-020-30-X005

Sherquzi Qulbulov

Tayanch doktorant

KOMPYUTER LEKSIKOGRAFIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompyuter leksikografiyasining asosiy tushunchalari haqida qisqacha so'z yuritilgan bo'lib, elektron lug'atlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, an'anaviy bosma lug'atlardan farqlari va afzalliklari haqida to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, elektron lug'atlarning lug'at maqolalarini tuzishdagi qulayliklar, elektron lug'atlarning turlari, tuzilish element (qism)lari, foydalanish prinsiplari haqida qisqacha mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: *kompyuter leksikografiyasi, elektron va bosma lug'atlar, gipermatn, morfologik shakllar, tahrirlash, onlayn lug'atlar, lug'at dasturi, leksik ma'no.*

Annotation. In this article, there are some data about the main points of computer lexicography, digital dictionaries and their main aspects, differences and advantages from traditional printed dictionaries. Moreover, digital dictionaries' sections, types and principles of usage, convenience of digital dictionaries on writing dictionary articles are emphasized.

Keywords: *computer lexicography, digital and printed dictionary, hypertext, morphological forms, editing, online dictionaries, dictionary program, lexical meaning.*

Leksikograf (lug'atshunos)larning ishini boshqa turli yo'llar bilan osonlashtirishga xizmat qiladigan kompyuter dasturlari leksikografiya ishlarini qo'llab-quvvatlash dasturlari hisoblanadi. So'z ma'lumotlarini aniqlashning an'anaviy shakli – bu so'zlarni, so'zlardan foydalanishning namunasini, namunalarning manbasini, sintaktik ma'lumotni va lug'at yaratish maqsadlariga asoslangan qo'shimcha ma'lumotlarni tavsiflovchi kataloglar kartadir. Katalog kartalari o'zida foydalanuvchilar uchun kerakli ko'plab

ma'lumotlarni jamlagan bo'lib, har xil turdagi bosma lug'atlar allaqachon katalog kartochkalaridan iborat.

Kompyuter muhitida odatiy fayllar o'rniga yozuvlar ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Leksikografik ma'lumotlar bazalarida lug'atlarning lug'at maqolalarini yozish bazalari mavjud emas, lekin an'anaviy standart ma'lumotlar bazasi paketlari (MS Access, Paradox, D-Base) [1] bunday talabga javob beradi. Lug'atshunoslik ishining yana bir bosqichi – so'zlarni ishlatish va namuna fayllarini shakllantirish uchun misollar yig'ishdir. Kompyuterda bu juda oson bo'lib, matnlarning tanlangan namunalari yoki maxsus muvofiqlashtiruvchi dasturlar (misollar lug'ati) yordamida avtomatlashtiriladi, bunda gipermatn matn ularni bog'laydigan (o'tish tizimi) matnlar majmuini umumlashtiradi.

Lug'atning qidiruv funksiyalari elektron muhitning turli elementlarida joylashgan havolalar bo'lib, ular semantik strukturaning tarkibiy qismi, muayyan tarkibiy va ichki muhitning o'zaro aloqalar tuzilishi, shuningdek, insonning semantik birikmalar tuzilishini boshqarishga imkon beruvchi texnik vositalar bilan bir-biriga bog'liq bo'lgan elementlar orasidagi o'tishni amalga oshirishga yordam beradigan [2] gipermatnli elektron lug'atning bir qismi hisoblanadi.

Elektron lug'at foydalanuvchi uchun ro'yxat, jadval yoki ro'yxat shaklida taqdim etilgan, kompyuter xotirasida joylashtirish uchun qulay va avtomatlashtirilgan qayta ishlash va to'ldirish dasturlari bilan jihozlangan, turli usulda tartiblashtiriladigan lingvistik ma'lumotlarning yakuniy majmuasi sanaladi. Elektron lug'atlar foydalanuvchi tezda morfologik shakllarni va so'z birikmalarini (foydalanish namunalari) qidirish, shuningdek, tarjima yo'nalishini o'zgartirish imkoyatini (masalan, inglizcha-ruscha yoki ruscha-inglizcha) o'z ichiga olgan to'g'ri so'zlarni qidirishga imkon beradi.

Elektron lug'atlarning an'anaviy bosma lug'atlardan ustunliklaridan biri shundaki, ularni to'plashda leksikograf oz vaqt va kuch sarflaydi. Agarda an'anaviy bosma lug'atlar kerakli matnni (qo'l bilan) tuzish, lug'atning qo'lda

yozilgan nusxasini yaratish, qo‘lyozma-nashrni qayta nashr qilish va tahrirlash, lug‘at tuzish, qayta nashr qilish va tahrirlash, lug‘atning tuzilishi, lug‘atning lug‘at maqolasini bosish jarayonini o‘z ichiga olsa, elektron lug‘atlar yaratish lug‘atni shakllantirish, elektron misollarni qo‘llash, lug‘at yozuvlarini yozish, uni ma‘lumotlar bazasiga nusxa ko‘chirish, lug‘at matnini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma‘lumotlar bazasiga yuklash va tahrirlashdan iborat bo‘ladi.

An’anaviy bosma lug‘atlar kabi elektron lug‘atlar ham bir necha xil turlardan iborat bo‘ladi. Ularning asosiy turlari haqida quyida to‘xtalib o‘tamiz.

Portativ elektron lug‘atlar – bunda maxsus ko‘chma qurilma elektron lug‘at vazifasini bajaradi. Bu turdagi elektron lug‘atlar, asosan, sayyohlar, tarjimonlar, chet tillaridan foydalanadigan boshqa kishilarga mo‘ljallangan bo‘lib, bunday turdagi elektron lug‘atni o‘zida aks ettiradigan ko‘plab qurilmalar mavjud. Ular oddiy elektron lug‘atlar, so‘zlashuv lug‘atlari, nutq so‘zlash lug‘atlari (elektron lug‘atlar sintezi va nutqni aniqlash modullari), skayner-tarjimonlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Lug‘at-dasturlar (masalan, lingvo).

Onlayn lug‘atlar – veb-saytga joylashtirilgan elektron lug‘atlar bo‘lib, ulardan foydalanish doimiy internetga ulangan kompyuter aloqasini talab qiladi.

Terminologik ma‘lumotlar bazalari – yuqori darajada ixtisoslashgan sohalarga bo‘lingan va har xil qiziqish, bilim va ta‘lim darajasi bilan aniq foydalanuvchilar guruhlariga mo‘ljallangan elektron ma‘lumotni o‘zida aks ettiruvchi elektron lug‘atlar [3].

Elektron lug‘atlarning tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib, asosan, quyidagi element (qism)lardan tashkil topadi:

- a) lug‘at dasturining asosiy oynasi;
- b) lug‘at ("yordam", FAQ) dan foydalanish qoidalari bo‘yicha yo‘riqnoma;
- c) input line – tarjima yoki qidirish uchun so‘z yoki iboralar kiritiladigan satr;

d) “qidiruv natijalari” qismi – qidiruv natijalarini aks ettiruvchi alohida oyna [4].

Shuningdek, elektron lug‘atlarda, odatda, “so‘rovlar (yoki qidiruv) tarixi” kabi foydali funktsiya ham mavjud bo‘lib, foydalanuvchi oldindan lug‘atga berilgan so‘rovlar ro‘yxatiga kirishga imkon beradi. Elektron lug‘atlarda gipermatnli qurilma yordamida uning tarkibiy qismlarini har qanday vaqtda va istalgan paytda faollashtirilish mumkin. Qolaversa, elektron lug‘atlar bosma lug‘atlardan farqli o‘laroq, bosma lug‘atlarning bir nechta varianlarini elektron tarzda, shuningdek turli xil yordamchi tasviriy materiallarni (grafik, audio, video) ham bir vaqtda aks ettira olish xususiyatiga ega.

Elektron lug‘atlarda qidiruv natijalari turli prinsiplarga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bunda quyidagilar aks etadi:

- xochning bir qismi (birinchi ism, keyin fe‘l, yoki aksincha);
- leksik ma‘noda (to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chma, umumiydan tortib to maxsus)
- bevosita terilgan so‘zdan olingan so‘zlarga, barqaror ifodalarga, iboralarga;
- to‘liq matnli qidiruv funksiyasidan foydalanilganda qidiruv natijalari manbalari bo‘yicha: a) qidiruv natijalarini birliklar nomi bilan; b) tarjimalar bilan; c) foydalanish natijalari bo‘yicha qidiruv natijalari bilan, d) sharhlar bilan [5].

Elektron lug‘atlarning o‘ziga xos xususiyatlari an‘anaviy “qog‘oz” lug‘atlardan foydalanishdagi ba‘zi cheklovlarni bartaraf eta oladi. Masalan:

- lug‘atlarning to‘liq tarkibini emas, balki turli xil mezonlar bo‘yicha qisman ekranni, oddiy lug‘atlarda ishlatilmaydigan turli xil grafik vositalarni aks ettirish imkoniyatlari;
- elektron lug‘atda turli tillardagi texnologiyalar qo‘llaniladi (morfoloqik va sintaktik tahlil, to‘liq matnli qidiruv, tovushni tan olish va sintez qilish va boshqalar);

- leksik ma'nolarni to'liq va ishonchli ta'riflarga ega bo'lgan katta hajmdagi lug'at maqolalari bilan yanada boyitish va undan qulay foydalanish imkoniyati;

- lug'atlarning muntazam yangilanib turishi. Bu omil bugungi tezkor texnologiyalar davrida yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan faktlar va aytib o'tilgan omillardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda avtomatlashtirilgan elektron lug'atlar yaratish, ularni ilm-fan, qolaversa hayotimizning har bir jabhasiga olib kirish davrimizning muhim ahamiyatga ega bo'lgan kechiktirib bo'lmas vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baranov A.N. Amaliy tilshunoslikka kirish: Moskva: LCI nashriyot uyi, 2007. B. – 358.
2. Gerd A.S. Amaliy tilshunoslik. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg universitetining nashriyot uyi, 2005. B. – 268.
3. Grinev-Grinevich S.V. Terminologiya: tadqiqotlar. Moskva: Akademiya, 2008. B. – 303.
4. Zubov A.V. Tilshunoslikka oid axborot texnologiyalari. Moskva: Akademiya, 2004. B. – 208.
5. Leichk V.M. Terminologiya: mavzu, uslub, tuzilma. Moskva.: URSS, 2009. B. – 255.

ID-020-30-X006

Gulobar O'ltanova

O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 2-kurs talabasi

IERONIM MEGIZER VA UNING “INSTITUTIONUM LINGVAE TURCICAE LIBRI QUATUOR” (“TURKIY TIL NEGIZLARI”) ASARI HAQIDA *

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ieronim Megizerning “Turkiy til negizlari” asari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, asardan o'rin olgan turkiy xalqlarga tegishli bo'lgan ba'zi maqollar mavzu jihatdan tasnifi yoritiladi.

Kalit so'zlar: *Ieronim Megizer, maqol, turkiy tillar.*

Annotation. The article provides information about the book of Ieronim Megizer “Institutionum linguae Turcicae libri quatuor”. And also, a thematic classification of some proverbs has been made.

Keywords: *Iaronym Megizer, proverb, Turkic languages.*

Ieronim Megizer grammatikasi “Institutinnum linguae Turcicae libri quatuor” (Turkiy tilning to'rt kitobdan iborat asosiy qoidalari) turkiy tilning Yevropada ishlangan ilk chop etilgan grammatikasi bo'lib, 1612 yilda Leypsigda nashr qilingan, uning nusxasi Leypsig universitetining kutubxonasida saqlanadi. Ieronim Megizer (Hieronim Megisero), uning biografi T.Elsening ta'riflashicha, “Asosli va ko'p qirrali bilimlarga, boy

* Maqola *F.SH.Nuriyeva, M.M. Petrova, M.M.Sunggatullinalarning “Особенности перевода тюрко-латинской грамматики Иеронима Мигизера «Institutionum linguae Turcicae libri quatuor» (1612) (Российская тюркология. – М.: 2012. №2 (7). С. 92-97.)*” maqolasi tarjimasida tayyorlandi.

sayyohlik tajribasiga ega bo'lgan olimdir" (Elza 1885: 183-185). Ieronim Megizer 1554-yilda Shtutgardda tug'ilgan. 1571-1577-yillarda Tyubengenda o'qigan, o'qituvchi bo'lib ishlagan, mustaqil mashg'ulotlar olib borgan. 1582-yilda Paduya shahrida huquqni o'rgangan. Ko'p sayohat qilgan: Italiyada, Maltada, Angliyada, Gollandiyada bo'lgan. Shuningdek, tarixni o'rgangan, kartografiya va astronomiya bilan shug'ullangan. 1590-yildan Grasda ersgersog Karlning tarixnavisi lavozimini egallagan. 1593-1601-yillarda Klagenfurtdagi protestantlar maktabining direktori bo'lib ishlagan. Frankfurtga qaytgandan keyin Leypsig universiteti professori lavozini egallagan. 1612-yilda unga Avstriyaning Linse shahridagi shahar kutubxonasida direktor lavozimini taklif qilishgan. Ieronim Megizer 1619-yilda Linseda vafot etgan.

I.Megizer adabiyotda tarixiy, geografik, falsafiy va she'riy asarlar muallifi sifatida nom qoldirgan. Biz unga "Marko Poloning sayohatlari" –ilk nemis nashri uchun, sayohatchilarning Sibir haqidagi hikoyalaridan kompelyatsiyalar (Alekseev 1968: 75-282) uchun, ilk cho'ntak yo'lko'rsatkichlar, ilk turkiy grammatika uchun minnatdormiz. U 36 tadan ortiq bir necha martalab nashr qilingan ijod namunalarini qoldirgan bo'lib, ular hozirgi vaqtda kutubxonamizning nodir manbalari sifatida saqlanadi.

Megizer ko'p tilni bilgan, bu esa uning ko'p sonli mehnatlarida o'z tasdig'ini topgan: 759 bet hajmli "Barcha tillar xazinasini yoki Ko'p tilli lug'at" – eski va zamonaviy olamning muhim lahjalari qiyosiy lug'ati. Ushbu lug'atda lotincha so'zlarga muvofiq keluvchi, muallif ixtiyoridagi manbalar qanchalik imkon bergan bo'lsa, shuncha turli tillardagi so'zlar berilgan. Masalan A, Ab harflari bilan boshlanuvchi lotincha so'zlar 31 ta, brevis so'zi 19 ta, cavea so'zi 13 ta, color so'zi esa 16 ta tildagi misoli bilan birga beriladi (Alekseev 1968: 55-56).

"Institutinum linguae Turcicae libri quatuor" grammatikasi lotin tilidagi grammatikalar namunasi asosida tuzilgan (Kononov 1976: 16). Bizning davrimizda ushbu ishga berilgan ilk ta'riflar turk olimi A.Dilyacharga (Dilaçar

1970: 197-210), tatarcha chop etilgan kitob tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlar muallifi, tatar olimi A.Karimuldinga (Karimuldin 2002: 42-46), Tatar folklorshunosi X.Mahmudovga (Mahmudov 2002: 175-178), nemis olimi Shtaynga (Stein 1984: 55-104) mansub.

Umumiy hajmi 340 sahifani tashkil etgan grammatika aniq tuzilishga ega. "Institutinum linguae Turcicae libri quatuor"ning kirish qismi titul varag'i, ish qismlarining kengaytirilgan mazmuni va bag'ishlov murojaatidan iborat (Megisero 1612: 12-26). Murojaatnoma eski rasmiy uslub qoidalariga ko'ra ancha mufassal bo'lib, "Bag'ishlov"ni hamda mazkur ishning zarurligi va dolzarbligi asosini o'z ichiga oladi. Ishning bu qismi nafaqat tilshunoslar, balki Yevropaning XV-XVII asrlardagi tarixini o'rganuvchi olimlarda ham qiziqish uyg'otadi, chunki ayrim tarixiy voqealarning aniq sanalarini saqlaydi. Muallif tillar ham jang qilishi va hayotni asrab qolishi mumkinligi ta'kidlaydi.

Grammatik materialni o'rganish o'sha davrda tillarning qiyosi bo'yicha tadqiqotlar boshlanganligini ko'rsatadi. Lotin grammatikasidagidek birinchi bo'lim tovush tizimini ifodalaydi, ikkinchi bo'limda esa so'z turkumlari ko'rib chiqiladi.

"De Orthographia Turc-Arabica" (Megisero 1612: 27-77) nomli birinchi bo'lim fonetikaga bag'ishlanadi, arab-turkiy alifbosining umumiy xarakteristikasi beriladi. 31 harfdan iborat bo'lgan alifbo nomlari bilan ta'riflanadi, so'zdagi o'rniga muvofiq variantlari ko'rsatiladi, lotin grafikasi orqali harflarning tovush ma'nolari aniqlashtiriladi, shuningdek, arab shrifti namunalari keltirib o'tiladi. Muallif arab alifbosining turkiy fonetikaga moslashishini mulohaza qiladi, arab alifbosida mavjud bo'lmagan harflarni alohida ko'rib chiqadi va qo'shimcha belgilarni ishlatadi. Lotin tilida mavjud bo'lmagan, turkiy tildagi sirg'aluvchi tovushlarni belgilashda harf birikmalaridan foydalanadi, masalan, fch, dfch, tfch.

Grammatika matnida "harf va tovush" munosabati masalasi, lotin grafikasining turkiy til o'ziga xosliklarini ifodalash uchun moslashishi kuzatiladi. Masalan, ayrim so'zlarning yozilishida variativlik: seumek, seufmek,

sevmek “sevmoq”; tschachsir, tschakfchir “etig”; baschka, baschkaia “boshqa”; abret, affaret, avurat “ayol” va boshq.; “s” s tovushining ifodalanishidagi turli-tumanlik kuzatiladi. Nazarimizda, bu axborot beruvchilar dialektidagi ortiqcha talaffuzning in’ikosidir. Turkiy tillarga xos bo’lgan til oldi chuqur unilarni berish uchun I.Megizer quyidagi usullarni qo’llaydi: {ü} ko’p hollarda “u” harfi yordamida (hurmet “hurmat”, iurekli “yurakli”), kam hollarda “ü” yordamida beriladi (elirlük “hayot”, eutlelük “avliyolik”); {ö} asosan {o} yoki {io} orqali ifodalanadi (dort “to’rt”, giog “osmon”) va boshqalar.

Undoshlarning hosil bo’lishiga katta ahamiyat beriladi. Muallif undoshlarni quyidagicha tasniflaydi: labial, labli va o’rta undoshlar. Shuni ham qayd qilish joizki, I.Megizer tomonidan qator undoshlar bilan boshlanuvchi so’z boshiga qo’shimcha unli tovush qo’shilishi o’rinli qayd qilinadi, masalan: fçendere, ifçendere. Bularning barchasi I.Megizerning nozik lisoniy idroki va uning kitobxonga turkiy til talaffuzini nisbatan to’liq va aniq ifodalashga xohishi borligidan dalolat beradi.

Bo’lim fasllarida arab kalligrafiyasini va bog’lanishli nutq mashqlari xususiyatlarini qayta ishlash maqsadida Qur’on matnidan namunalar, arab yozuvidagi maqol va matallar, ularning lotin tilidagi transkripsiyasi va tarjimasi keltirilgan. I.Megizer turkiy nutqni to’g’ri va erkin o’zlashtirish uchun amaliyotning muhimligini ta’kidlaydi.

“Isagoges Grammatica Turcica” (Megisero 1612:79-181) nomli ikkinchi bo’limda quyidagi so’z turkumlari va grammatik kategoriyalar batafsil izohlangan: ot, son, olmosh, fe’l, sifatdosh, ravish, ko’makchilar, bog’lovchilar, undov so’zlar. So’z turkumlarining lotin grammatikasi namunasi bo’yicha umumiy ta’riflari berilmagan, ot, sifat va olmosh otlar tarkibida ko’rib chiqiladi, jins kategoriyasi tilga olinadi (generis). I.Megizerning qayd qilishicha, jins grammatik kategoriyasi va so’zlarning moslashishi ushbu tamoyil bo’yicha turkiylarga xos emas, son va kelishiklarda o’zgarish esa lotin tili bilan muayyan o’xshashlikka ega (Megisero 1612:79-89). Faqat turkiy tillarga xos bo’lgan egalik kategoriyasi alohida qiziqishni uyg’otadi. Megizer nafaqat ushbu o’ziga

xos kategoriyaga e'tibor qaratdi, balki uni ancha to'g'ri talqin qildi ham. Biroq egalik olmoshini alohida guruh qilib ajratdi. (Megisero 1612:96-106). Turkiy tillarga nisbatan qo'llaniluvchi terminologiya hali shakllanmaganligi uchun qo'shimchalarni belgilash uchun I.Megizer "chastitsa (parcha, yuklama)" va "slovso (so'zcha)" terminlarini ishlatadi. Tatar tiliga tarjima qilinganda ular zamonaviy terminlar bilan almashtirildi.

Turkiy tillardagi eng murakkab so'z turkumlaridan biri bo'lgan fe'l ta'rifiga alohida o'rin ajratiladi (Megisero 1612:106-159). Xususan, son, shaxs, tuslanish, zamon, nisbat, inkor va tasdiq shakllari ajratilgan. I.Megizer fe'l asosini tadqiq qiladi, uni ajratish qoidasini keltirib o'tadi. Shaxs fe'llari (balki fe'l shaxslari nazarda tutilgan bo'lishi mumkin) orasida indicativus, imperativus, subiunctivus fe'llari ko'rib chiqiladi. Ehtimol sub'yunktiv deganda muallif lotin tilidagi qo'shimcha maylni nazarda tutib, to'rtta zamondagi tuslanishni keltirib o'tadi. Biroq, turkiy tilda bu kabi turli zamonli tuslanish mavjud emas. Tatar tiliga tarjima qilish jarayonida muallif fikrlarini berish bilan cheklandik, shuning uchun ayrim o'rinlarda tarjima formal xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Fe'lning shaxssiz shakllaridan faqat sifatdosh va infinitiv ajratiladi, ravishdoshga muvofiq keluvchi shakllar esa infinitivus paradigmasiga kiritilgan.

Ushbu bo'limda shu kabi bo'linishlarga ega ravishlar ro'yxati beriladi va muallif ba'zan mazkur so'z turkumini juda keng izohlaydi. Bu yerda ko'makchilar, bog'lovchilar va undovlar illustrativ materialni jalb qilgan holda ko'rib chiqilmaydi.

Tabiiyki, muallif fikrlarida biz qo'shilmaydigan o'rinlar ham bor. Shu o'rinda qayd etish joizki, bu yevropaliklarning turkiy til haqidagi dastlabki ishlardan biri. Qolaversa, o'sha davr tilshunoslarida mavjud steriotiplarga qaramasdan I.Megizer turkiy tilning fundamental asoslarini va uning o'ziga xosligini ochib berishga muvaffaq bo'lgan.

Uchinchi bo'limda majmuaviy material, turli mashqlar, Xristian dining asosiy holatlari, bir qismi turkiy asosga ega bo'lgan, bir qismi esa turkiy tilga lotin tilidan tarjima qilingan maqol va matallar keltirilgan. Poliglot sifatida I.Megizer fikrlardagi o'xshashlikni yaqqolroq yetkazib berishni xohlagan, shuning uchun mazmunan o'zaro yaqin bo'lgan tillar: turkiy, arab, forsiy, lotin, nemis, italyan tillaridan maqollar kiritgan.

Uchinchi bo'limdagi materiallarni tatar va rus tillariga tarjima qilish jarayonida muallif matnini saqlashga harakat qildik. Ammo ish jarayonida bir qadar murakkabliklarga duch keldik. Megizer tomonidan maqollarning turkiy qismi bir variantda, ayrim o'rinlarda esa ularning arab va fors tillaridagi ekvivalentlari keltirib o'tiladi. Lotin tilidagi qismida turkiy maqollar mazmunini yetkazishning turli usullarini ko'rishimiz mumkin. Ko'p hollarda lotin, nemis va italyan tillaridagi ekvivalenti qo'llanilgan. Muallif turkiy tillardagi maqollarning ekvivalentini topa olmagan paytda maqollarni lotin yoki nemis tiliga so'zma-so'z tarjima qilgan. Ayrim o'rinlarda, u bunday tarjimani qo'shimcha izoh bilan bergan (masalan: № 5, 37, 190 va hokazo).

Muallif tomonidan tarjima ekvivalentlari qo'llanilgan o'rinlarda turkiy maqollarni so'zma-so'z tarjima qilish kerakmi, yoki muallif tomonidan berilgan Yevropa tillaridan olingan ekvivalentlarni asos sifatida olish kerakmi, degan mulohazalar paydo bo'ldi. Tatar tiliga tarjima qilish jarayonida turkiy tildagi maqollarni asos sifatida olishga urindik, ularning leksik va mazmuniy yetkazilishini ta'minlash bilan cheklandik. Rus tiliga tarjima qilganda esa biz boshqa usullardan foydalandik. Ko'p o'rinlarda muammoga duch kelmadik, negaki tarjimalar juda yaqin edi, turkiy va lotin tilidagi maqollar ayrim leksik tafovutlarni hisobga olmaganda o'zaro mos kelar edi. Muqaddas kitoblardan yoki mashhur antik mualliflardan hikmatlar berilganda lotin tilidagi variantni afzal ko'rdik (masalan: № 7, 13, 61, 88, 187 va boshq.). Qolaversa, bu frazeologik birliklarni turli tizimga oid tillarga tarjima qilishning ma'qul usullaridan biri (istalgan ikki tilli lug'atga qarang). Ayrim holatlarda so'zma-so'z turkiy tarjimadan foydalandik (№ 184, 188, 189, 193 va boshq.).

Oxirgi (to'rtinchi) bo'lim "Dictionarium Latino-Turcicum et Turcico-Latinum" (Megisero 1612: 228-338) ikkita lug'atdan iborat: lotincha-turkiycha (2560 so'z) va turkiycha-lotincha (2440 so'z). Bizning ishda lug'atning faqat turkcha-lotincha, lotincha-turkcha qismi keltirilgan va tatar hamda rus tillariga tarjima qilingan.

Lug'at mazmuni rang-barang bo'lib, hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab oladi. Lug'atning asosiy qismini nisbatan faol qo'llaniluvchi tushuncha, hodisa va predmetlarning nomlari tashkil qiladi. Bundan tashqari, juda ko'p atoqli otlar keltirilgan. Atoqli otlar qatorining aksariyat qismi erkaklarning ismi. Bunda Bibliyadagi matnlar yoki siyosiy, tarixiy voqealar bilan bog'liq ismlar keltirilgan (Avraam-Abram-Ibragim, Aleksandr-Iskander, Mariya va boshq.). Geografik nomlar alohida guruhni tashkil etadi. Toponimika o'zining rang-barangligida berilgan. Aholi punktlari, suv ob'ektlari, relef xususiyatlari, siyosiy-boshqaruv birliklari nomlari kitob yozilgan davr yoki uzoq bo'lmagan o'tmish, tarix bilan bog'liq voqealar bilan aloqador.

Lug'atda ilmiy material ham mavjud bo'lib, asosan ular tibbiy nomlar, shuningdek o'simlik yoki hayvonot olamiga taalluqli. Harbiy leksika lug'atda ancha keng ifodalangan: harbiy bo'linmalar, harbiy lager inshootlari, qurol-yarog'lar nomlari, ot anjom-aslahalari (abzal), oshxona buyumlarini nomlovchi so'zlar.

Savdo-sotiq va boshqaruv faoliyatiga dahldor leksika juda qiziq. Oziq-ovqat mahsulotlari, noz-ne'matlar, ichimliklar, jumladan turkiy taomlarning nomlari berilgan (masalan: palov, sharbat, qatiq).

Lug'at tarkibi hech ham nazariy qismdagi material ilustratsiyasi bilan cheklanmaydi. Lug'at leksik materialining kengligi, grammatik qismdagi ayrim metodik xarakterdagi izohlar, materiallarni berish xarakteri, ancha erkin ifoda uslubi, boy sinonimika Megizer turkiy tili grammatikasi o'zining aniqligi va grammatik ravshanligi bilan bir qatorda, mustaqil o'rgatuvchi qirralarini ham ifodalaydi. Bu ishning qimmatini sira pasaytirmaydi, aksincha, nafaqat

umumadabiy til leksikasiga doir material, balki soʻzlashuv nutqini aks ettiruvchi, undov xarakteridagi kundalik ifodalar bilan oʻziga jalb qiladi.

Grammatika, shuningdek maqollar lugʻati turkiy tilni oʻrganuvchilar uchun qimmatli material boʻlib, uning turli insonlar tomonidan qoʻllanilishi uchun istiqbolni ochib berdi.

Lugʻat tarkibi ancha sodda. Lugʻat maqolasi ikkita ustundan iborat: birinchi ustun –turkiy soʻzlar, ikkinchi ustun –lotincha soʻzlar. I.Megizer nashrining ayrim oʻrinlarida texnik kamchiliklar uchraydi: bir ustunchadagi soʻzlar ikkinchi ustunchada ham berilib qolgan. Masalan: turkiy materialdagi feʼlning va otning qoʻshimcha shakllarini koʻrsatib beriladi. Odatda, soʻzlar bitta tarjima bilan berilgan va ular har doim ham soʻz maʼnosini toʻgʻri tushunish uchun kifoya qilmagan. Megizerning oʻzi ham buni qayd etib oʻtadi va soʻzning faqat asosiy maʼnosini olganligini taʼkidlaydi: “Ushbu turkiy tilni hatto yuzaki bilgan holatda ham juda katta foyda va qulayliklar yuz beradi. Bu tildagi soʻzning faqat asosiy maʼnosi oʻzlashtirilsa ham, ishonamanki, maʼno toʻliq tushuniladi. Sen Muhtaramga bu yaxshi maʼlum, shuning uchun tushuntirish uchun koʻp soʻz ishlatishning hojati yoʻq. Inson hayotining barcha jabhalarida, hatto, tinch zamonda ham, urush vaqtida ham, uyda ham, harbiy yurishda ham barcha joyda chet tillarini bilish, xususan bizning asrda ham turkiy tilni bilish va tushunish ajoyib, faxrli, maqtovga loyiqdir” (Megizer 2012:15-16). Maqollarga batafsil izohlar berilgan boʻlsa, lugʻatda lotincha qism sxematik tarzda, koʻrsatmalarsiz beriladi.

Bu oʻrinda shunday taxminni ilgari surish mumkinki, lotin tilini biladigan insonlar uchun bu kabi koʻrsatmalar ortiqcha edi. Oʻsha davrning esa deyarli har bir ziyoli insoni lotin tilini bilgan. Turkiy qismda qoʻshimcha maʼlumot keltiriladi. Masalan, feʼllarda nafaqat infinitiv, balki aniqlik maylidagi birinchi shaxs shakli ham beriladi. Lotin qismida esa bir oʻrinlarda infinitiv, boshqa oʻrinlarda esa hozirgi zamonning birinchi shaxs shakli beriladi. Bu tarjimalarimizda ham aks etdi: tatarcha tarjima turkiy qismdagi soʻzni yetkazishga asoslangan, ruscha tarjima esa lotin tilidagi qismga asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Diaçar A. 1612 de Auropada yayımlanan ilk türkçe grammerinin özellikleri. – TDAYB, 1970. S. 197-210.
2. Elze Th. H. Migiser. Allgemeine. Deutsche Biographi. – Bd. XXI, 1885. S. 183-185.
3. Megizer Ieronim. “Institutionum linguae Turcicae libri quatuor” («Основы тюркского языка»). “Magarif – Vakit”. – Kazan, 2012.
4. Stein Heidi. Eine türkische Sprichsammlung des 17. Jahrhunderts // Acta Orientalia Academiae Scientiarum Hung. Tomus XXXVIII (1-2). - Leipzig, 1984. S 55-104.
5. Кононов А.Н. Очерки истории изучения турецкого языка. – Л.: Наука, 1976. С. 118.
6. Махмудов Х. Слово, сказанное предками (Афоризмы в тюрко-татарских памятниках 8-17 в.). – Казань: Фикер, 2002, С. 256.
7. Нуриева Ф.Ш., Петрова М.М., Сунгатуллина М.М. Особенности перевода тюрко-латинской грамматики Иеронима Мигизера «Institutionum linguae Turcicae libri quatuor» (1612) // Российская тюркология. – М.: 2012. №2 (7). С. 92-97.

Fotima Ernazarova

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

“DEVONU LUG‘OTIT-TURK” ASARINING BADIY QIYMATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Devonu lug‘atit turk” asarining badiiy qimmati, o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligidagi o‘rni tahlil qilingan. Bundan tashqari, mazkur asarning lug‘atshunoslikdagi ahamiyati va o‘zbek tilidagi so‘zlarning etimologiyasi haqidagi o‘rinlar ham tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *lug‘at, etimologiya, transkripsiya, tarjima, devon,sa‘j, maqol, qo‘shiq, morfologik.*

Аннотация. В статье анализируется художественная ценность “Devonu lug‘otit-turk” и его роль в узбекской лингвистике и литературе. Кроме того, изучается значение этой работы в лексикографии и этимологии слов в узбекском языке.

Ключевые слова: *словарь, этимология, транскрипция, перевод, девон, садж, пословица, песня, морфология.*

“Devonu lug‘otit-turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) — Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari (1071—72). Bu asarda 11-a. ning 2-yarmida Markaziy Osiyoda va G‘arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan turkiy urug‘ va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma‘lumotlar yozib qoldirilgan. “Devonu lug‘otit-turk” ning qo‘lyozmasi 1914-y. Turkiyaning Diyorbakr shahridan topilgan. 319 sahifali bu qo‘lyozma Istanbulda saqlanadi.

Bu nusxa «Devonu lug'otit-turk» yozilganidan salkam 200 yil keyin, ya'ni Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan 1266-yilda kotib Muhammad ibn Abu Bakr ibn Fotihal-Soviy al-Damashqiy tomonidan ko'chirilgan.

“Devonu lug'otit-turk” arab tilida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlar (harflardagi ost-ust ishoralar)dan foydalanilgan. Bunda, albatta, muallif ancha qiyinchilikka uchragan, chunki arabcha harf va alif, vov, yo) ishoralari bilan turkiy tovushlarni berib bo'lmas edi. Turkiy tildagi cho'ziq va qisqa unlilar, yumshoq va qattiq tovushlar uchun Maxmud Koshg'ariy maxsus belgilar (harakatlar)ni qo'llaydi yoki so'z boshidagi cho'ziqlikni ikki alif bilan ko'rsatadi yoki ikki xil talaffuz qilinadigan so'zlarga 2 xil ishora qo'yadi: **azuqluq, eritmak** so'zlaridagi “**Z**” va “**R**” harflari ustiga ham kasra, ham damma ishorasini qo'ygan, demak, bu so'zlar o'sha davrda ikki xil talaffuz etilgan: **azmqluq — azuqluq, eritmak — erutmak** kabi. Arabcha harf b-n ko'rsatish mumkin bo'lmagan turkiy talaffuzni «Devonu lug'otit-turk»da izohlab, ta'riflab o'tgan. “Devonu lug'otit-turk”da, avvalo, otlar, so'ng fe'llar izohlanadi. So'zlar tartibi ularning tarkibidagi harflarning orta borishiga (2 harfdan 7 harfgacha) qarab amalga oshirilgan.

V. V. Bartold «Devonu lug'otit-turk»dan o'z ilmiy ishlarida keng foydalanganini sharqshunos S. Volin ko'rsatib o'tgan. Tilshunos olim V. I. Belyaev “Devonu lug'otit-turk” haqida shunday yozadi: “Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan... Muallif bergan ma'lumotlar... arxeologik kashfiyotlar bu ma'lumotlarning aksariyatini isbot etmoqda”. Nemis sharqshunosi K. Brokkelman “Devonu lug'otit-turk” asarini 1928-yili nemis tiliga tarjima qildi. “Devonu lug'otit-turk” qo'lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli; 1915—17) keyinchalik Besim Atalay tomonidan (3 jildli; 1939—41) turk tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. “Devonu lug'otit-turk” ning turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957-y. amalga oshirildi. “Devonu lug'otit-turk” ikkinchi bo'lib o'zbek tiliga tarjima qilinib, muhim izoh va

tafsirlari bilan 1960—63 y. lari Toshkentda “Fan” nashriyotida 3 jildda chop etilgan.

Qoraxoniylar davlati hukm surgan to‘rt asr mobaynida Markaziy Osiyo xalqlari nisbatan tinch-osuda va farovon yashadi. Buning oqibatida barqaror vaziyat hukm surib, ilm-fan va madaniyatning ravnaq topishi uchun imkoniyatlar vujudga keldi. Natijada ulug‘ ajdodlarimiz - faylasuflar, tarixchilar, astronomlar, shoirlar samarali ijod qilishdi. Turkiy olimlar arab va fors tillarini, binobarin, G‘arb ijodkorlarining yunon tilidan arabchaga o‘g‘irilgan asarlarini mukammal bilishgan va turkiy islom madaniyatini yaratishda ulardan foydalanishgan.

Qoraxoniylar davri yuqori darajali madaniyatdan buyuk Firdavsiyning “Shohnoma” dostoni bilan qiyoslanishi mumkin bo‘lgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim”) - falsafiy-didaktik dostoni va Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asari chinakamiga guvohlik beradi. Buyuk tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari Qoraxoniylar davrining noyob durdonasi hisoblanadi. U o‘lmas obida sirasiga kiradi va o‘zida davr tili, adabiyoti, tibbiyoti, tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, hunarmandchiligi va astronomiyasi haqidagi bilimlarni qamrab olgan.

“Devoni lug‘atit turk”dagi geografiyaga oid ma'lumotlar g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Sababiki, asarida turkiy xalqlar joylashgan hududlar ta'rifini keltirgan va u muallif dunyodagi eng qadimiy turkiy xarita muallifi hisoblanadi. Ushbu xarita XI asrdagi Osiyoning eng qadimiy va ahamiyatli xaritasi bo‘lib, unda geometrik aniq shakllarda tog‘lar, ko‘llar va daryolar ko‘rsatilgan, eng muhim shaharlar va qabilalar qayd etilgan. Yer yumaloq ekani haqidagi qarashlar qadimdan paydo bo‘lganini bilasiz. Mahmud Qoshg‘ariy bu boradagi fikrlarni ilmiy asosda rivojlantirgan. Yer yumaloqligini tasdiqlovchi u yaratgan xarita o‘z davri uchun g‘oyatda qadrli hisoblanadi. Vaholanki, Yevropada XVI asrdagina Kopernik (1473-1543) Mahmud Qoshg‘ariy haqligini - yer yumaloqligi, o‘z o‘qi atrofida aylanishini isbotlab berdi. Mahmud

Qoshg'ariy Qoraxoniylar davlati hukmdori Yusup Qodirxonning evarasi edi. Bu haqdagi xabar "Devoni lug'atit turk" da uchraydi.

Qoraxoniylar davrida turkiy tildagi adabiyot jadal taraqqiy etdi. Mahmud Qoshg'ariy turkiy tillar shevalarini tadqiq qiluvchi asari orqali mumtoz turkiy adabiyot va she'riyat, xalq og'zaki ijodi ravnaqi uchun zamin hozirladi, turkiy xalqlar adabiy tilini ishlab chiqdi, unga sayqal berdi. Natijada turkiy she'riyatning asosiy janrlari shakllandi, rivojlangan she'riy leksikaga ega istioralar tizimi va nutq vositalari tug'ildi. Mahmud Qoshg'ariy jahonda turkiy tilning ijtimoiy lingvistikasi asoschisi, deb tan olinishi bejiz emas.

Yanada muhimi shundaki, "Devoni lug'atit turk" asarida o'sha davrning ilg'or kishilarini o'ylantirgan hamda turkiy xalqlarning tub manfaatlarini aks ettirgan fikrlar va g'oyalar jamlangan, shaxs va jamiyatning yanada ijtimoiylashuvi yo'llari belgilab berilgan. Ko'p bosqichli falsafiy-axloqiy muammolar, binobarin, boylik va bilimning o'zaro bog'liqligi haqidagi fikrlar chuqur ifodalangan.

Boshqacha aytganda, ilk o'rta asrlar olimi va ijtimoiy faylasufining qarashlari olam, xalq taqdiri, inson, madaniyat, ijtimoiy adolat to'g'risidagi mushohadalarga yo'g'rilgan edi.

Bilim va boylik go'yoki atirgul va nargis kabi

Gullamaydi gar tursalar yonma yon.

Kimdaki boylik bisyor, uning bilimi yo'qdir,

Kimdaki bilim bo'lsa - boyligi yo'q hisobi.

Qadimiy turkiy she'riyatda tilga olingan ushbu muammo - bilim va boylikning bir-biriga zidligi to'g'risidagi tushuncha o'sha davr uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan. Bu masala sharhi o'rta asrlardagi ko'plab shoirlar, olimlar, mutafakkirlar merosida uchraydi. Ayni paytda u turkiy til va adabiyotining asoschisi - Mahmud Qoshg'ariy asarlarida alohida o'rin egallaydi. Mahmud Qoshg'ariy voqelikni jonli bo' yoklarda aks ettiradi, unumli hayot kechirish, insofli bo'lish, ilm egallash, barcha quvonchlardan bahramand bo'lishga da'vat etadi. "Devonu lug'atit turk" nihoyatda yuksak tarixiy va badiiy

ahamiyatga ega, ayni paytda u turkiy xalqlar va umuman turkiy olamning ijtimoiy-ma'naviy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Tarixiy va tarixiy-adabiy manbalarda Mahmud Qoshg'ariy hayoti haqida nihoyatda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Ma'lumki, u 1008-yilning boshida Qoshg'ar shahri yaqinidagi Opal qishlog'ida tug'ilgan. 1105-yilda 97 yoshida olamdan o'tgach, Opalda dafn etilgan. Maqbarasi Muqaddas ustoz sag'anasi, deya nom olgan bo'lib, unga behisob ziyoratchilar tashrif buyurishadi va mutafakkir xoki oldida bosh egishadi.

Koshg'ariy asari, o'zi ta'kidlashicha, "... oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda" tuzilgan. Unda ko'p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko'rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug'dirish uchun sodda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug'atda turkiy so'z tuzilishi an'analari, jumladan so'z tartibi, fe'l shakllari, so'z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan. Muallif ko'rsatishicha, kitob bo'limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo'limda ot-ism so'zlar, fe'llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. Asarda 7500 dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. "Devonu lug'atit turk" ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo'lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o'rtacha adabiy tildagi 10-12 so'zga, shevaga oid bir so'zga to'g'ri keladi, ya'ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan. Bu holat o'sha davr islom mintaqasida turkiy adabiy til qancha keng tarqalgani va mustahkam mavqega ega bo'lganini tasdiqlovchi qat'iy dalildir.

Lug'atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o'lka nomlari, daryo, tog', yaylov, vodiy, dara, yo'l, dovon, ko'l, soy kabi geografik atamalar, turli qabila, urug', elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi. Asarga Mahmud Qoshg'ariy tuzgan dunyo xaritasi, dunyoning doira shaklidagi tasviri ham ilova qilingan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. XI asr geografiya

ilmining namunasi bo'lmish bu xarita Qoshg'ariyning qomusiy olimligining dalilidir.

Mahmud Qoshg'ariy butun Sharqqa mashhur bo'lgan So'ngra madrasasida tahsil olib uni taxminan 1055-yilda tamomladi. So'ngra o'qishini Buxoro va Nishopurda davom ettirdi. Tahsil davrida falsafa, mantiq, adabiyot, huquqshunoslik, tarix, ilohiyot, matematika, astronomiya, tibbiyot fanlarini puxta o'zlashtirdi. Turkiy tildan tashqari arab va fors tillarini mukammal egalladi, ularning grammatikasidan xabardor bo'ldi va haqiqiy qomusiy bilim sohibiga aylandi. "Devonu lug'atit turk" asarini yaratish uchun Mahmud Qoshg'ariy turkiy qabilalar yashaydigan ko'plab shaharlar va qishloqlarni kezib chiqqan. 14 yillik (taxminan 1057-yildan 1071-yilgacha) safari davomida keng ko'lamli tarixiy materiallarni to'pladi. Buyuk olim o'z kitobida 6800 dan ziyod turkiy so'zni guruhlashtirdi, (110 hudud, ko'l va daryo, 40 elat va qabila nomlari), turkiy tilda izohlar keltirdi. Kitobdan 242 ta she'r, 262 ta maqol va matal o'rin olgan. Hayratlanarlisi shundaki, u qo'llagan 875 ta so'z, 60 ta maqol va matal biron-bir o'zgarishsiz zamonaviy turkiy tilimizga kirib kelgan.

Ushbu asar ilk filologik tadqiqot va turkiy so'zlar etimologiyasi keltirilgan birinchi qiyosiy lug'atdir. Ayni paytda bu asarni faqat lug'at deb hisoblash noto'g'ri, unda Markaziy Osiyo xalqlarining xalq og'zaki ijodi namunalariga xos ko'plab noyob ma'lumotlarni kuzatamiz.

Kirish so'zida Mahmud Qoshg'ariy shunday yozadi: "Men Falak turkiylar zaminida davlat yaratganini ko'rdim. Falak bu xalqlarni "turkiy" deya atadi va ularni davlat boshqaruviga qo'ydi. Hukmdorlar turkiylar edi va hokimiyat ularning qo'lida edi, ular odamlarni boshqardi. Odamlar o'z hukmdorlarining adolatli ishlarini qo'llab-quvvatlardi, ular bilan yonma-yon kurashar edi va turkiylar yomon ishlardan saqlanishga qodir edi. Turkiylardan saqlanish uchun har bir oqil kishi ularga ergashmoqqa intilardi. Turkiylar qo'llab-quvvatlashlari uchun ularning tilida so'zlamok kerak". Ushbu fikrlar XI asrda tashkil topgan Qoraxoniylar davlati to'g'risida aytilgan edi. Chindan ham "Devonu lug'atit

turk” qomusiy asardir. U turkiy islomiy madaniyatni yanada boyitib, yuksak pog‘onaga ko‘tardi.

Mahmud Qoshg‘ariy qonun va tartibga rioya qilishga da‘vat etish bilan birga hayotni bebaho ne‘mat sifatida qadrlashni uqtirdi, qayta-qayta ilmni ulug‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda “Devonu lug‘atit turk” butun ma‘naviy badiiy xususiyatlari bilan betakror obidaga, turkiy xalqlar tarixi to‘g‘risidagi dostonga aylandi.

Asar bosh g‘oyasi bitta falsafiy fikrga yo‘naltirilgan. Olim yurtni ulug‘lash, turkiy xalqlarni birlashtirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish muhimligini ta‘kidlaydi. 700 sahifadan iborat "Devoni lug‘atit turk" asari jahon madaniyati va ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan xisoblanadi. Qo‘lyozmaning yagona va eng qadimgi nusxasi 1226-yilga oid bo‘lib, Turkiya Milliy kutubxonasida saqlanadi. Mahmud Qoshg‘ariy shuni isbotladiki, turkiy tilning ahamiyati arab tilinikidan kam emas. Til va adabiyotning qadimiy obidasi – “Devonu lug‘atit turk” yaratilganidan buyon o‘n asrdan oshiq vaqt o‘tdi. U hamon turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda betakror manba hisoblanadi. Buyuk olim, turkiy leksikograf, grammatist va dialektolog Mahmud Qoshg‘ariy nomi turkiy xalqlar tarixiga qiziquvchi barcha insonlar uchun qadrlidir. Ko‘ramizki, Mahmud Qoshg‘ariy o‘z davridan o‘zib ketgan qomusiy bilim va iqtidorga ega inson bo‘lgan, dunyoda o‘xshashi yo‘q nodir lug‘at yaratgan. Zamonaviy turkologiyani bu asarsiz tasavvur etish mushkul. O‘ziga xos xususiyati shu bilan izohlanadiki, u birinchi tarixiy-qiyosiy tadqiqotdir. Jahon kitobxonlari hamon bu asarga katta qiziqish bilan qarashadi. Uning to‘liq tarjimasini Turkiyada amalga oshirilgan. Ayni paytda asar ingliz, nemis, frantsuz, uyg‘ur, qozoq, ozarbayjon, turkman, o‘zbek va rus tillariga o‘girilgan. Materiallarining ko‘p qismi Germaniyada bosilgan qadimiy turk tillari lug‘atida foydalanilgan. O‘tgan asrda chop etilgan “Qadimiy turkiy lug‘at” asari katta shuhrat qozongan bo‘lib, unga “Devonu lug‘atit turk” asari asos bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbekistonda Mahmud Qoshg‘ariyning ijodiy merosi mufassal o‘rganib kelinmoqda. Xususan, Respublika Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti

olimlari "Devonu lug'atit turk" asariga tayangan holda quyidagi qimmatli ma'lumotlarni to'plashdi:

lug'at boyligi, ma'lum turdagi leksika;

turkiy xalqlar joylashgan yerlar haqida ma'lumotlar;

turkiy tillarning guruhlashtirilishi;

tarixiy fonetika va grammatika haqida ma'lumotlar;

turkiy she'riyat, folklor haqida ma'lumotlar;

qiyosiy tilshunoslik haqida ma'lumotlar;

turkiy ijtimoiy lingvistika asoslari to'g'risida ma'lumotlar va hokazo.

Shuni alohida qayd etish kerakki, institut olimlari professor S.Mutallibov rahbarligida bu asarni o'zbek tiliga o'girib, to'rt tomda nashr qildirishdi. (Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1967-yil). Ayni paytda ushbu mavzuda bir qator ilmiy maqolalar va risolalar chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida Mahmud Qoshg'ariy ijodiga mansub qo'lyozmalar saqlanmoqda. Mahmud Koshg'ariy buyuk ustoz, shoir, olim, mutafakkir sifatida ardoqlanadi. Yubileyi turkologik tadqiqotlar an'analari rivojlangan Germaniya va Frantsiyada, Turkiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, XXRning Shinjon Uyg'ur avtonom tumanida tantana qilinmoqda. U turkiy olamning buyuk allomasi bo'lib, oradan ming yil o'tsa-da, hamon biz bilan yonma-yon yashamoqda. YUNESKOning fan va madaniyat bo'yicha xalqaro tashkiloti Mahmud Qoshg'ariyning 1000 yilligini keng nishonlash haqida qaror qabul qilgani bejiz emas. Ushbu lug'atning ahamiyati shundaki, Mahmud Koshg'ariy so'zlarni bevosita o'zi eshitib, o'zi qayd etgan. Shu sababli uning ma'lumotlari ishonchli. Bu haqda u shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim".

Asarning hozirgi kundagi ahamiyati. Lug'at chin ma'noda qomus hisoblanadi. Unda tarix, etnografiya, geografiya, iqtisod, til, adabiyot, qishloq xo'jaligi, geologiya va boshqa sohalarga oid ma'lumotlar to'plangan.

Olim soʻzning maʼnosidan kelib chiqib turlicha izohlaydi. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, muallif ayrim soʻzlar yoniga elat, qabila nomini yozib qoʻyadi, bu narsa oʻquvchiga XI asrda yashagan turkiy qavmlar haqida noyob maʼlumotlar beradi. Mahmud Koshgʻariy ushbu lugʻatda xalq ogʻzaki ijodi namunalaridan keng foydalangan. Soʻz maʼnolarini ochish uchun maqollar keltirgan.

“Devon”da juda koʻp sheʼriy parchalar uchraydi: dengiz, koʻl va vodiylarga quyiladigan suvning bir tarmogʻi maʼnosida **“tamgʻa”** soʻziga quyidagi sheʼriy parcha keltirilgan:

Tamgʻa suvi tashra chiqib tagʻigʻ oʻtar,
Artuchlari tegra unub tizgin yetar.

Maʼnosi: bu suvning tarmogʻi togʻga va togʻ atrofiga tarqaladi, siljiydi. U yerlarda sarv daraxtlari ot tizimidek qatorlashib koʻkaradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yer sharining katta hududida yashayotgan turkiy urugʻlar, qabilalar, xalqlar hayoti haqida atroflicha maʼlumot beradigan ushbu asarning topilganiga yuz yildan oshdi. Shu davr mobaynida asarning matni, turli tillarga qilingan tarjimalari bir necha marta chop etildi. “Devon” xususiyatlarini, Mahmud Koshgʻariy hayotini oʻrganishga bagʻishlangan yuzlab tadqiqotlar maydonga keldi, dissertatsiyalar himoya qilindi, ilmiy toʻplamlar, monografiyalar nashr etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. “Devonu lugʻatit turk” oʻzbek tilidagi nashri. “Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi” nashriyoti. Toshkent, 1960.
2. A.Aliyev, Q.Sodiqov “Oʻzbek adabiy tili tarixidan”, “Oʻzbekiston” nashriyoti, 1994.
3. Botir Valixoʻjayev “Oʻzbek adabiyotshunosligi tarixi (X-XIX asrlar)”, “Oʻzbekiston” nashriyoti, 1993.
4. Ushinskiy K.D. “Taʼlim va tarbiya masalalari”, Toshkent, 1959.
5. G. Abdurahmonov “Oʻzbek xalqi va tilining shakllanishi haqida”, Toshkent, 1999.
6. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 12 jild, Toshkent, Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

Sanjar Mavlyanov

ToshDO'TAU tadqiqotchisi

UZBEK AND ENGLISH DIPLOMATIC TERMINOLOGY AND IT'S FEATURES

Annotation. The diplomatic language, like the political language, remains a hot topic. By now, the forms of diplomatic communication have changed, to the fore new varieties of diplomacy have emerged. All this can surely find reflection in language. This article is divided into two relatively independent parts. In the first part, the author examines the problem of fixing diplomatic terms in selected Uzbek and English dictionaries. The second part of the study proposes general analysis of one-word terms and two-word diplomatic terminology, some aspects of comparative analysis of terms in Uzbek and English languages, as well as the use of term combinations in the text is considered.

Key words: *diplomatic language, terms, dictionary, diplomacy, two-word diplomatic terms.*

Annotatsiya. Diplomatik til, siyosiy til singari, dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Hozirga kelib, diplomatik aloqa shakllari o'zgarib, diplomatiyaning oldindan ma'lum bo'lgan turlarini shakllantirdi. Bularning barchasi, albatta, tilda o'z aksini topishi mumkin. Ushbu maqola nisbatan mustaqil ikki qismga bo'lingan. Birinchi qismda muallif tanlangan o'zbek va ingliz lug'atlaridagi diplomatik terminlarni aniqlash muammosini ko'rib chiqadi. Tadqiqotning ikkinchi qismida bir va ikki so'zli diplomatik terminologiyaning umumiy tahlili, o'zbek va ingliz tillaridagi atamalarni qiyosiy tahlil qilishning ayrim jihatlari hamda matnda termin birikmalaridan foydalanish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: *diplomatik til, termin, lug'at, diplomatiya, ikki so'zli diplomatik terminlar.*

Introduction

Before revealing the essence and meaning of diplomatic and political terms, I would like to make a brief excursion into the very essence and meaning of words “Term” and “terminology” in terms of other sources. The term (from the Latin terminus – “limit, border”) - a word or word-combination that accurately and unambiguously names the concept and its relationship with another by different concepts within a special sphere. The terms are specialized limiting, restrictive designations characteristic of this sphere objects, phenomena, their properties and relationships. Unlike the words of the general vocabulary that is often ambiguous and emotional, terms within their scope are unambiguous and devoid of expression. Terminology as a specialized field of knowledge is attracting more and more attention of researchers. This is due to the international nature of the joint scientific knowledge caused by the integration processes and, as a consequence, via, the desire to unify terms as a way to overcome linguistic barriers in various spheres of social and economic activity. According to modern researchers (Н.В. Подольской, А.В.Суперанской, Г.П. Немца, Н.В. Васильевой, В.П. Даниленко, В.М. Грязновой, Т. Л. Канделаки and others), the terminology of the present tense is artificial formed lexical layer, each unit of which has a definite specific restriction for use and optimal conditions for existence and development. It should be noted that diplomatic terms are created in their most in Latin, English, French or borrowed through English and French as intermediary languages. In Uzbek the language of the terminosphere of diplomacy and politics is actively developing, therefore it is logical to assume that, thus, the results of mental activity humanities associated with diplomacy and externally - state relations, are fixed in terms. Unlike objects that exist independently of a person, an object science is formed by the subject cognizing it from the standpoint of theoretical knowledge epoch, therefore, turning to the theoretical past of the question is theoretical research in the field of terminology in the post-Soviet space is traditionally associated with the names of A.A.

Реформатско, Г.О. Винокура, В.В. Виноградова, С.Г. Бархударова, О.С. Ахмановой, К.А.Левковской, Б.Н. Головина, В. П. Даниленко, В. М. Лейчика, and the consideration terminology in the applied aspect - with the names of Э.К. Дрезена, Д.С. Лотте, С.А. Чаплыгина, С.И. Коршунова, Т.Л. Канделаки, В.И. Сифорова, В.С. Кулебакина, Я.А. Климовицкого (1,СаидовХ.А.)

As for the definitions of the term, over time they change-are, but the provisions put forward by D.S. Lotte remain generally accepted:

1) the term is considered as a member of the national terminological systems;

2) a term element is the minimum unit that has a terminological meaning and participating in term formation;

3) naturally formed terminologies have certain "Disadvantages";

4) distinguish between "absolute" and "relative" unambiguity of the terminus;

5) it is necessary to divide the array of concepts into "own" and "attracted" (only the terms of their own concepts are ordered);

6) you should initially give ordered terms a status terminological recommendation so that specialists get used to the new understanding of terms;

7) first of all, attention should be paid to correct post-swarving of nodes of terms that are producer terms, for from their structure also depends on the entire structure of its own industry terminology;

8) the formed term must be the proper name of the objector a concept without synonyms in this area and not representing homonym;

9) the existing and newly created term should cause a certain divided association – "private" (semantic) or "nodal".

The term as a linguistic phenomenon throughout its history of development was considered by each scientist from a certain point of view, and, despite a large number of works devoted to terminology, many problems regarding the term have not yet been resolved. None of the researchers have a monopoly on truth, so terminological work must continue (2).

Terms, as well as general literary vocabulary, are inherent in ambiguity, homonymy, synonymy, which to a certain extent limits the accuracy and uniqueness of terms. However, along with similar features, there is also a significant difference. First of all, this is the specific nature of the term (3; p 86-89), which is noticeably manifested at the level of semantics, as well as in the fact that terminology covers a closed vocabulary context. When defining the concept of "term" from a semantic point of view, the dependence of the corresponding linguistic units on their lexical meanings, as well as the possibility of terminological use (along with individual words) and word combinations, which is especially typical for new terminology. When creating a new term, the search for the necessary sign information is carried out. Knowledge based on the available language experience, consolidating it in a special «Information and terminological sphere of language" and forecasting new achievements in this direction. On the formation of a new term has a significant impact on extra-linguistic factor associated with the emergence of new sciences and other achievements. In some cases, extra linguistic factors are defining what contributes to borrowing the term together with a concept from the source language.

For example:

depository - "Institute for the Preservation of International Documents cops at the UN"; (BMTdagi Xalqaro hujjatlarni saqlash instituti)

persona grata - in diplomatic practice, diplomatic representative for whom the host the state has agreed to his appointment and arrival. (diplomatik

amaliyotda diplomatik vakil lavozimiga tayinlanishi mo'ljallangan shaxsni qabul qiluvchi davlat tomonidan maqbul shaxs deb topilishi)

persona non grata – “a person with a diplomatic rank, residing in another country, but at the same time, by definition for certain reasons, which has become undesirable in this country”; nomaqbul shaxs - (Persona non grata). Nomaqbul shaxs deb e'lon qilinish –diplomatning, uning oila a'zosi yoki diplomatik vakolatxonaning boshqa bir xodimining o'sha davlat hududida qolishi istalmagani to'g'risida davlatning bayonoti.

ratification (ratifikatsiya)- “signature and acceptance of a treaty (inter-international) at the highest level (President, Parliament, Senate), which will have a mandatory character”; (majburiy xususiyatga ega bo'lgan (Prezident, parlament, senat) eng yuqori darajadagi shartnomani (xalqaro) imzolash va qabul qilish.

convention (konvensiya) - “a document drawn up and having an obligation the strict nature of the fulfillment of its conditions by the signatories and other new members” (convention) –“konvensiya - bu uni imzolaganlar va boshqa yangi a'zolar tomonidan o'z shartlarini bajarishning qat'iy xususiyatiga ega bo'lgan va majburiy bo'lgan hujjat.

Declaration (deklaratsiya)- “a document drawn up and having a recommendation mandatory in the implementation of its terms and conditions by signing their participants and other new members”).

In diplomatic terminology, as in the terminology of any other branches of science, in the linguistic aspect there are mainly two varieties of terms:

- **One-word terms:** Ambassador - elchi, consul -konsul, agreement - shartnoma (rozilik), acclamation –akklamatsiya (xitob, nar'a), agent - agent, dragoman -dragoman, etc.

- **Two-word terms:** Diplomatic channel - diplomatik kanal, diplomatic act-dipomatik akt, verbal note - verbal nota, international relations - xalqaro munosabatlar, diplomatic visit - diplomatik tashrif, etc

Diplomacy, being a political science, more precisely, a branch political sciences, is strongly intertwined with another, no less famous and important science - jurisprudence, more specifically, with such a branch as international law. The diplomatic terminology used can be divided into two varieties: 1) the terms of political, diplomatic and general legal character, which has been given a specific interpretation; 2) international legal terms. The first group includes the terms political - sovereignty, self-determination of peoples and nations, peace, security, war, aggression; diplomatic - diplomatic relations, diplomatic immunities, consular district, international organizations; The second group includes legal terms - general legal - legal norm, source of law, legal personality, legal responsibility, etc. Their international legal interpretation gave rise to derived phrases: the principle of the sovereign equality of states, contracting states, international security law, abandonment of aggression as an international crime and responsibility for aggression, diplomatic and consular law, international legal norm, source of international law, international legal personalities. Situations are possible when one term has in the domestic military and international law ambiguous meaning (for example, various qualitative characteristics are characteristic of the term "contract", in national, labor or civil law, and on the other - and in inter-popular law) (4, Саидов Х.А.).

Diplomatic terminology is complex dynamic system that includes terms from such spheres of diplomacy, as a diplomatic service, diplomatic law, diplomatic protocol, diplomatic etiquette, etc. A significant part of the terms the area under study consists of names related to the following terminology groups: diplomatic agents / representatives, diplomatic ranks, diplomatic documents, diplomatic procedures, diplomatic visits, diplomatic missions, diplomatic rights and privileges, diplomatic receptions, etc.

Group “**diplomatic agents / diplomatic ranks**” positions and diplomatic ranks' includes, for example, terms such as “ambassador” (elchi), “ambassador extraordinary” (Favqulodda elchi), “ambassador extraordinary and plenipotentiary” (favqulodda va muxtor elchi), “attaché” (attashe), “chargé d'affaires” (muvaqqat ishlar vakili), “consul” (konsul), “consul general” (bosh konsul), “counselor” (maslahatchi), “diplomat” (diplomat), “doyen”- petty officer of the diplomatic corps' (duayen, diplomatik korpusning kichik xodimi), “envoy” (xabarchi), etc.

The terminological group “**diplomatic documents**” includes for example, the names of diplomatic documents such as “accord” (kelishuv); “aide-mémoire” (eslatma); “concordat” (kelishuv; jismoniy shaxslar, hukumatlar o'rtasidagi shartnoma); “contract” (shartnoma), “convention” (konvensiya), credentials (letters of credence) (ishonch yorlig'i); letters of recall (chaqirib olish yorlig'i), “note verbal” (verbal nota), etc.

The names of diplomatic missions are united in group “**diplomatic bodies**”: chancellery (kansler va unga taaluqli xodimlar ishlaydigan joy), “consulate” (konsulxona), “embassy” (elchixona), “consulate general” (bosh konsulxona);

The group “**diplomatic procedures**” unites the names of various diplomatic procedures: “accession”, “accreditation”, (accreditation of diplomatic representatives), “arbitration” (arbitration court); “diplomatic asylum” (diplomatic refuge), “demarche”, “diplomatic step” “exequatur” (exequatur certificate of recognition of a foreign consul), “extradition”, (extradition to a foreign state of a criminal), ratification and etc.

To the terminological group “**diplomatic privileges and immunities**” include such names as “extraterritoriality”, “inviolability of person” (shaxs daxlsizligi), “inviolability of domicile” (uy daxlsizligi), exemption from local taxation (mahalliy soliqlardan ozod qilinishi), exemption (from local criminal

and civil jurisdiction) (mahalliy jinoiy va fuqarolik yurisdiksiyasidan ozod qilish), etc.

The group “*diplomatic receptions*” includes the names of various types of diplomatic receptions (official / unofficial; day / evening; with / without seating): a glass of wine (stakan sharop), a glass of champagne (bir stakan shampan), “breakfast” (nonushta), lunch buffet, “dinner” (tushlik), cocktail; (5, 116-118)

In conclusion, I would like to note that diplomatic terminology has a very wide range of linguistic features. For example, diplomatic documents have a specific character in such industries as a translation of a document using diplomatic terms the authenticity of the translation, has its own style and category terms of politeness, formality, etc. Due to such a feature as the brevity of the article, we cannot reveal other given linguistic technical features.

References

1. Саидов Х.А.; <https://cyberleninka.ru/article/n/diplomaticheskaya-terminologiya-i-eyo-osobennosti-v-raznosistemnyh-yazykah-1> 25.04.2020
2. https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=4846, 26.04.2020
3. Даниленко В.П. Терминологизация разных частей речи (термины-глаголы //Проблемы языка науки и техники. – М.: Наука, 1970, -с. 86-89.
4. Саидов Х.А.; <https://cyberleninka.ru/article/n/diplomaticheskaya-terminologiya-i-eyo-osobennosti-v-raznosistemnyh-yazykah-1>
5. Михалькевич, Г.Н. Протокол и этикет международного общения /Г.Н. Михалькевич. – 2-е изд., испр. и доп. – Минск. : РИВШ, 2009. – 260 с.

Latofat Fayziyeva

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs magistranti

O'ZBEK TILIDA "HARAKAT TARZI" MA'NOSINI IFODALOVCHI VOSITALAR

Annotatsiya. Maqolada "Harakat tarzi" atamasining mazmuni, o'zbek tilshunosligida tutgan o'rni, olimlarning termin va terminologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari hamda harakat tarzi ma'nosini ifodalovchi vositalar ketma-ketligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *fe'l, kategoriya, harakat tarzi, ko'makchi fe'l, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, ravishdosh shakli + ko'makchi fe'l, analitik shakl.*

Annotation. This article discusses the essence of the concept of "manner of action", the introduction of this unit in Uzbek linguistics, the views of linguists on the essence of this topic. It also describes the sequence of means by which a manner of action is expressed.

Key words: *verb, category, manner of action, auxiliary verb, auxiliary verb conjugation, adverbial form + auxiliary verb, analytic form.*

Dastlab, harakat tarzi tushunchasining mohiyatiga to'xtalib o'tsak. Ushbu atama tishunosligimizga yaqinda kirib keldi. Shu kungacha ko'makchi fe'l, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi kabi istilohlardan foydalanildi. Harakat tarzi atamasi boshqalarining aynan muqobili emas, ammo nazarda tutilayotgan fikrning mohiyatini to'laqonli ochib bera oladigan termin sifatida e'tirof etildi. F.Kamolov, F.Abdullayev, G'.Abduraxmonov, Sh.Shoabduraxmonov, M.Asqarova, Sh.Rahmatullayev, A.Abduazizov, A.Nurmonov, H.Ne'matov, E.Begmatov, R.Qo'ng'urov, I.Qo'chqortoyev, Y.Tojiyev, E.Qilichev, G'.Zikrillayev,

B.Mengliyev, R.Sayfullayeva, R.Rasulov, O.Bozorov, Sh.Shahobiddinov, M.Qurbonova kabi olimlarning ushbu mavzuga bag'ishlangan ishlarida ham mazkur masalaga doir foydali fikr va mulohazalar bayon qilingan. Shuni ham aytib o'tish joizki, sho'ro hokimiyati hukmron yillarida mazkur hodisa xuddi rus tilidagidek "вид категорияси" deb nomlangan edi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng, tilimizning o'ziga xosligi inobatga olinib, ushbu hodisaga o'zgacha nom berishga kirishildi. Prof. H.Ne'matov va boshqalar buni *harakat tarzi shakli* deb nomlab, uning *ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l* qolipli yasalish xususiyatiga alohida e'tiborqaratdilar. Yuqoridagi kabi yasalish xususiyatiga ega bo'lgan fe'llarga *ko'makchi fe'l* atamasi yaqin emas, bizga ma'lumki, o'zbek tilshunosligida lisoniy hodisalar ifodalanmishning ma'nosi asosida nomlanadi.

Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning tarzini ifodalaganligi bois ham harakat tarzi shakli atamasini qo'llash an'anaga muvofiq keladi. Shuningdek, ko'makchi fe'l ravishdoshning ma'lum bir shakli bilangina nutqqa birikib, harakat tarzini hosil qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, an'anaviy ko'makchi fe'l atamasi ushbu hodisaning bir qisminigina nomlab keladi xolos.

O'zbek tilidagi morfologik shakllar sintetik tabiatga ega, biroq so'zlarning analitik (Ahmad *uchun*, qalam *bilan*) va sintetik-analitik (uyga *tomon*, qishloqqa *qadar*) shakllari ham mavjud. Harakat tarzi shakllari ham, aytilganidek, so'zlarning sintetik (*borolmayman*, *kelaveradi*), sintetik-analitik (*o'qiy boshla*, *ko'rib chiq*) hamda analitik (*sotdi-qo'ydi*, *ketdi-qoldi*) shakllarni hosil qiladi.

A.Hojiyev ko'makchi fe'llarni tartiblashtirishda boshla fe'lini qator boshiga qo'yib, uning ko'makchi fe'l vazifasida ifodalaydigan ma'nolari ko'proq "mustaqil fe'l sifatida qo'llanganda ifodalaydigan ma'nolariga to'g'ri kelishi"ni bir necha marta ta'kidlaydi. Ustoz tilshunosning qarashlariga tayangan holda biz harakat tarzi shakllaridagi ko'makchi fe'llarning ma'noviy darajalanishini "Lug'aviy ma'noni yo'qotish" belgisi

asosida kuzatamiz. Chunki ko‘makchi fe‘llar o‘z lug‘aviy ma‘nosidan qancha uzoqlashsa, uning grammatik shakllik xususiyati shunchalik kuchayib, fe‘l esa qo‘shimchalashib boradi. Bunday darajalanishda qator boshiga *yoz, ol, ber* tartiblanishidagi fe‘llar chiqadi va boshla fe‘li qator oxiriga o‘tadi. Chunki bugungi kunda *yoz* fe‘li o‘z sirasidan lug‘aviy ma‘nosini butkul yo‘qotganligi, taxminiy ildizi bo‘lgan *ozmoq* fe‘lidan uzilganligi bilan farqlanib turadi.

Harakat tarzi shakllarining barchasini lug‘aviy ma‘nosini yo‘qotish darajasiga ko‘ra qat‘iy tartibga qo‘yishning iloji yo‘q. Chunki ularning aksariyati ko‘p ma‘noli bo‘lib, anglanayotgan ba‘zi ma‘nolari mustaqil ma‘nolari bilan bog‘lansa, ayrimlari mutlaqo aloqador emas. Buni ol fe‘li misolida kuzatish mumkin.

Ol ko‘makchi fe‘l sifatida *-a/y* qo‘shimchasi bilan ham *-(i)b* qo‘shimchasi bilan ham tarz shaklini hosil qiladi. *-(i)b* ko‘shimchasi bilan shakllangan harakat tarzi “yetakchi fe‘ldagi harakatni o‘z ustiga olgan obyektga tomon, ba‘zan uning manfaati uchun yo‘nalishi” ma‘nosini ifodalaydi: *Siddiqjon hammasini yig‘ishtirib oldi-da, avonning tokchasiga eltib qo‘ydi (A.Qahhor) Qurbon ota yelib yugurib, sal kunda qishki va yozgi choyxonaning kam-ko‘stini to‘g‘rilab oldi (A.Qahhor).*

Xulosa: Tahlilga tortilgan materiallarning o‘zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosliligi, metodologik mukammalligi, qo‘yilgan masalaning aniqligi bilan asoslanadi. Tilshunosligimizda “harakat tarzi” atama sifatida qo‘llanishi terminlarning funksional va ma‘no jihatidan to‘g‘ri kelishini, ilmiy adabiyotlardagi juda ko‘p istisno holatlarning kelib chiqishiga to‘siq bo‘ladi. O‘zbek tilida harakat tarzi ma‘nosini ifodalovchi vositalar tizimi milliy-madaniy, gender va pragmatik xususiyatga ega birliklarni ilmiy o‘rganisgda nazariy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy. Kichik asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1969. – 134 b.
2. Abdurahmonov G'. O'zbek adabiy tilining stilistik normalari// O'zbek tili nutq madaniyati normalari//O'zbek tili nutq madaniyatiga oid masalalar.- Toshkent: 1973. – 51-55 b.
3. Abuzalova M. Morfologiya va uning tadqiq tamoyillari//zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya.-Toshkent: Mumtoz so'z, 2008. – 100-101 b.
4. A. Hojiyev, A. Nurmonov va b. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "Sharq". 2001.
5. Абдурахмонов Ғ.А., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий рамматикаси. -Т.: Ўқитувчи, 1973. - 320 с.

Erkinjon Abdumalikov

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 3-kurs talabasi

TRANSLATION OF POLITICAL LITERATURE AND TERMS IN ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGE

Annotation. In this article, we will look at ways to translate political literature and in-depth study of political terms, study political literature, types and methods of translating political terms, and the role of political literature in human daily life.

Key words: *Political literature, terms, lexical, grammatical, stylistic problems of translation of political literature.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz siyosiy adabiyotlarni tarjima qilish usullari va siyosiy atamalarni chuqurroq o'rganish, siyosiy adabiyotlarni, siyosiy terminlarni tarjima qilish turlari va usullarini o'rganish, siyosiy adabiyotlarning insoniyat kundalik hayotida tutgan o'rni kabi jihatlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Siyosiy adabiyot, terminlar, siyosiy adabiyotning tarjimadagi leksik, gramatik, stilistik muommolari.*

Most translators prefer to think of their work as a profession and would like to see others to treat them like professionals rather than as skilled or semi-skilled workers. But to achieve this, translators need to develop an ability to stand back and reflect on what they do and how they do it. Like doctors and engineers, they have to prove to themselves as well as others that they are in control of what they do; that they do not just translate well because they have "flair" for translation, but rather because, like other professionals, they have

made a conscious effort to understand various aspects of their work. Unlike medicine and engineering, translation is a very young discipline in academic terms. It is only just starting to feature as a subject of study in its own right, not yet in all but in an increasing number of universities and colleges around the world. Like any young discipline, it needs to draw on the findings and theories of other related disciplines in order to develop and formalize its own methods, but which disciplines it can naturally and fruitfully be related to is still a matter of some controversy. Almost every aspect of life in general and of the interaction between speech communities in particular can be considered relevant to translation, a discipline which has to concern itself with how meaning is generated within and between various groups of people in various cultural settings. This is clearly too big an area to investigate in one go. So, let us just start by saying that, if translation is ever to become a profession in the full sense of the word, translators will need something other than the current mixture of intuition and practice to enable them to reflect on what they do and how they do it. They will need, above all, to acquire a sound knowledge of the raw material with which they work, to understand what language is and how it comes to function for its users. Translation is a process of rendering a text, written piece or a speech by means of other languages. The difference of translation from retelling or other kinds of transfer of a given text is that that translation is a process of creating an original unity in contexts and forms of original.

No matter how a translator (interpreter) is talented he should remember two most important conditions of the process of translation: the first is that the aim of translation is to get the reader as closely as possible acquainted with the context of a given text and then second - to translate - means to precisely and completely express by means of one language the things that had been expressed earlier by the means of another language.

A translation can be done:

1. from one language into another, kin-language, non-kin,

2. from literary language into its dialect or visa versa
3. from the language of an ancient period into its modern state

The process of translation, no matter how fast it is, is subdivided into two moments. To translate one should first of all to understand, to perceive the meaning and the sense of the material. Furthermore, to translate one should find and select the sufficient means of expression in the language the material is translated into (words, phrases, grammatical forms).

Political literature like any other scientific kind of literature have languages items characteristic to them, that requires the translator to be precise and sharp. Most books on general politics are characterized by the passion of expression, polemic style and the specific feature is in blending the elements of scientific speech from one side with different emotionally colored means of expression from another side. The translation of political literature can be considered in two ways: as a field of linguistic activity and as a separate field in science. As a field of linguistic activity translation of political literature represents one of the types of special translations possessing as objects of its activity different materials of political character. The political translation comes out into a special field of study due to its specific features of written and verbal speech on political topics, which is specified by its essential character and the knowledge of this science. Sometimes these features are so diverse that in order to understand them (Russian, Uzbek and English politics as well) one should have a special knowledge without which it would be very hard to clearly perceive the inner sense on politics or a translated piece.

So we can some examples for political translation:

The translation process of political literature from one language into another is inevitable without necessary grammatical transformations (change of structure). It gets great importance while making translation to add or omit some words since the structures of languages are quite different. Grammatical transformations are characterized by various principles - grammatical, and lexical as well, though the principal role is given to grammatical ones. Very

often these grammatical changes are mixed so that they have lexical-grammatical character. So we can see some examples below:

*The **vigil** of the British Embassy, **supported** last week by many prominent people and still continuing, the marches last Saturday, the resolutions or organizations **have done something to show** that Blair doesn't speak for Britain.*

O'tgan hafta ko'plab taniqli shaxslarning qo'llab-quvvatlovini olgan Buyuk Britaniya konsulligi oldida tunu kun namoyishlar davom etmoqda. Ushbu namoyish va shanba kungi aksiya, shuningdek turli tashkilotlar tomonidan qabul qilingan qarorlar Blerning butun ingliz xalqi nomidan gapirmasligini aniq ko'rsatmoqda.

Круглосуточная демонстрация у здания британского консульства, получившая на прошлой недели поддержку многих видных деятелей, всё ещё продолжается. Эта демонстрация и состоявшиеся в субботу поход, а также принятые различными организациями резолюции, явно свидетельствуют о том, что Блэр отнюдь не говорит от имени всего английского народа.

While translating this article we have made the following changes.

The sentence was divided into two parts. We often do that when translating short newspaper articles (news in brief) and the first lines of the articles of informative character (leads). Practically, we are forced to do that because the first lines usually contain main information given in the paragraph. These sentences containing various information are not characteristic to the style of Russian writing. The division of the sentence made us repeat the word *демонстрация*.

The word *vigil* - (кечайу kunduz namoyish) бдение acquired here quite another political meang *круглосуточная демонстрация*. Since *ночное бодрствование* is one of the semantic components of the

word *vigil* the term *круглосуточная демонстрация* fully renders the sense of the given word.

We have also added additional words like (*binoda (elchixonada), o'tkaziladigan (shanba kungi kompaniyalarda), shuningdek turli xil (qaror tashkilotlari) tomonidan qabul qilingan*) у здания (посольства), состоявшиеся (в субботу походы), а также принятые различными (организациями резолюции). The word *last* in the *last Saturday* was omitted because it would make the translation more difficult, but we can conceive it by the contextual meaning of the sentence.

And the English cliché *to speak for (kimdir uchun gapirmoq yoki kimdir uchun javob bermoq)* was translated by the Russian one *говорить от имени*. And at last I should say that I metonymically translated the word Britain into (*butun ingliz xalqi*) *весь английские народ*.

Thus, while translating this sentence we have made use of grammatical transformations and lexical as well.[2, 35p]

As you know, English has an analytical character and therefore the relation between words is mostly expressed by word-order, that's by syntactic means, and morphological means play the secondary role. The priority of the role of syntactical changes appears in many cases but they do not always have similar conformities in Russian and Uzbek languages which make the translator make use of various transformations while translating a piece of political literature. Here we can point to well-known features of the location of syntactic items in the English, e.i. the combination of logically incompatible homogeneous part of the sentence, the essential use of introductory sentences, the break of logical chain of the sentence, and especially while expressing the noun and the attribute of the sentences.

The structural features of English language require structural completeness of the sentence. One can not omit a word without supplying another one instead. This criterion is governed by stylistic preference of the language to prevent word and make the sentence more emphatic. Even if the

repetition is frequent in English its use in most cases is logically required and stylistically proved to be necessary. Otherwise, repetition is accepted as unnecessary component of the sentence or one of the stylistic shortcomings of the translation. The demand of syntactical completeness of the sentences and others stylistic criteria explain here the wide usage of *structure filling words*. The structure filling words include pronouns (one, ones, this, that, these, those) and verbs (*to do, to be, to have, shall, should, will, would, can, could, might, may, must, ought, need, dare*).

Its quite evident that the structure filling words do not have denotative meaning, they are absolutely contextual. They should be related to conforming nouns and the verb form the fill and only afterwards they acquire lexical completeness. The verb-filling words are usually divided into two parts: fully filling and partially filling ones. To the first group belong the verb *to do* in the Present Indefinite which act in the role of fully filling word. It can replace the verbs of function. To the second group belong all other structure filling words. They act like a part of the whole just like the representative of compound verb form.[1,34-45p]

While translating the structure filling words we have to use words with complete meaning (sometimes pronouns) or make use of some other kinds of functional filling.

While translating the structure filling words we have to use words with complete meaning (sometimes pronouns) or make use of some other kinds of functional filling.

*The new British Government will face many problems, both acute and chronic: an acute **one** will be Northern Ireland, acute among chronic **ones** will be inflation and rising prices.*

Britaniyaning yangi hukumati shoshilinch va uzoq davom etadigan ko'plab muammolarga duch keladi. Shimoliy Irlandiyadagi favqulodda muammolar qatoriga inflyatsiya muammolari va narxlarning ko'tarilishi kabi kiradi.

In Uzbek Language some pronouns are omitted like this sentence.

Новое британское правительство столкнётся со многими проблемами как неотложного, так и затяжного характера. К неотложным проблемам относится положение в Северной Ирландии, а к проблемам, носящим затяжной характер, - инфляция и рост цен.

Another problem is idioms and phraseological units also:

As far as idioms and phraseological units are concerned in translation, the first difficulty that a translator comes across is being able to recognize that s/he is dealing with an idiomatic expression. This is not always so obvious. There are various types of idioms, some more easily recognizable than others. Those which are easily recognizable include expressions which violate truth conditions, such as *It's raining cats and dogs- juda kuchli yomg'ir*, *throw caution to the winds- xavfni mesimay harakat qilmoq*, *storm in a tea cup- biror narsadan juda qattiq jahli chiqmoq*, *jump down someone's throat- biror kimga jahl bilan javob berish*, and *food for thought- o'ylashga arzidigan narsa*. They also include expressions which seem ill-formed because they do not follow the grammatical rules of the language, for example *trip the light fantastic- hursand bo'lmoq*, *blow someone to kingdom come- kimnidir hayotini buzmoq*, *put paid to, the powers that be, by and large- qiyin vaziyatga tushib qolmoq*, and *the world and his friend*. Expressions which start with *like* (simile-like structures) also tend to suggest that they should not be interpreted literally. These include idioms such as *like a bat out of hell- juda tez harakat qilmoq* and *like water off a duck's back- dunyoni suv bossa o'rdakka ne g'am*. Generally speaking, the more difficult an expression is to understand and the less sense it makes in a given context, the more likely a translator will recognize it as an idiom. [4] Because they do not make sense if interpreted

literally, the highlighted expressions in the following text are easy to recognize as idioms (assuming one is not already familiar with them):

*This can only be done, I believe, by a full and frank airing of **the** issues. I urge you all to **speak your minds** and not to **pull any punches**.*

Tarjimasi:

Menimcha, bu masalalarni to'la va ochiqchasiga namoyish etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Barchangizni fikrlaringizni aytishga va bu narsaga oddiy qaramasliklaringizni xohlayman.

Provided a translator has access to good reference works and monolingual dictionaries of idioms, or, better still, is able to consult native speakers of the language, opaque idioms which do not make sense for one reason or another can actually be a blessing in disguise. The very fact that s/he cannot make sense of an expression in a particular context will alert the translator to the presence of an idiom of some sort.

There are two cases in which an idiom can be easily misinterpreted if one is not already familiar with it:

(a) Some idioms are 'misleading'; they seem transparent because they offer a reasonable literal interpretation and their idiomatic meanings are not necessarily signalled in the surrounding text. A large number of idioms in English, and probably all languages, have both a literal and an idiomatic meaning, for example *go out with* ('have a romantic or sexual relationship with someone') and *take someone for a ride* ('deceive or cheat someone in some way'). Such idioms lend themselves easily to manipulation by speakers and writers who will sometimes play on both their literal and idiomatic meanings. In this case, a translator who is not familiar with the idiom in question may easily accept the literal interpretation and miss the play on idiom.

(b) An idiom in the source language may have a very close counter part in the target language which looks similar on the surface but has a totally or partially different meaning. For example, the idiomatic question *Has the cat had/got your tongue?* is used in English to urge someone to answer a

question or contribute to a conversation, particularly when their failure to do so becomes annoying.

Apart from being alert to the way speakers and writers manipulate certain features of idioms and to the possible confusion which could arise from similarities in form between source and target expressions, a translator must also consider the collocational environment which surrounds any expression whose meaning is not readily accessible. Idiomatic and fixed expressions have individual collocational patterns. They form collocations with other items in the text as single units and enter into lexical sets which are different from those of their individual words. Take, for instance, the idiom *to have cold feet*. *Cold* as a separate item may collocate with words like *weather*, *winter*, *feel*, or *country*. *Feet* on its own will perhaps collocate with *socks*, *chilblain*, *smelly*, etc. However, *having cold feet*, in its idiomatic use, has nothing necessarily to do with *winter*, *feet*, or *chilblains* and will therefore generally be used with a different set of collocates.[2, 45-56]

The aim of this work was to introduce the translation approach to Political literature so that to make it easy to perceive for those willing to keep up their educational and scientific carrier in the science of translation, it was purposed to broaden their view on translation studies and peculiar features while translating Political literature.

In this work we've completed the following tasks:

- we've reviewed all the sources of Political literature
- methods of translation of Political literature have been carefully studied
- the grammatical, lexical, stylistic and phraseological difficulties of translation of political literature were discussed.[2,78p]

In short, translating political literature and political terms is a very difficult task and requires great care. So I think we translators need to approach these issues with caution.

References

1. Fathy A. Osman. Senior interpreter/translator, IMF, Washington, DC
2. In other words - a course book on translation. Mona Baker, London and New York, 1992.
3. 14. www.worldtranslationservice.com
4. 15. www.translateweb.org
5. 16. www.monabaker.trans.com
6. 17. www.chicagopress.com

Xurshida Rizayeva

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 3-kurs talabasi

TARJIMA JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI GRAMMATIKASINING INTERFERENSIYA HODISASI QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqola interferensiya hodisasi nima ekanligini chuqurroq o'rganish, uning yuzaga kelish sabablarini aniqlash, o'zbek va ingliz tillaridagi grammatik interferensiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish hamda tarjima jarayonida interferensiya hodisasining o'rni nechog'lik muhim ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *interferensiya, grammatika.*

Annotation. This article deals with an in-depth study of what an interference phenomenon is, identifies its causes, explores the specifics of grammatical interventions in Uzbek and English languages, and the importance of the interference phenomenon in the translation process.

Key words: *interference, grammar.*

Interferensiya-bir tilning boshqa tilga ta'siridir. Interferensiya hodisasi ikki tilda birday gaplasha oladigan insonlar nutqida ko'proq kuzatiladi. Ular o'z nutqida chet tili orqali suhbat qurayotganlarida o'z ona tilisining ta'siri natijasida ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Bundan tashqari hozirgi kunda interferensiya hodisasi tarjima jarayonida ham kuzatilib, bu hodisa tarjima natijasiga putur yetkazmoqda. Interferensiya hodisasi til o'rganish jarayonida

ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. “Interferensiya” atamasi aslida lotin tilidan olingan bo‘lib, “inter-ichki, o‘zaro mos yoki o‘rtasida”, “ferio-teginaman yoki olib yurish” kabi ma’nolarni bildiradi”. Interferensiya hodisasi haqida ko‘plab olimlar izlanish olib borishgan va o‘z tushunchalarini atroflicha izohlashga uringanlar. “E. Xaugen nazariyasi, tushunchasi bo‘yicha interferensiya qisman lingvistik muvofiqlik deb qaraladi”.⁴ Interferensiya hodisasi ko‘pincha chet tilini endigina o‘rganayotgan kishilar nutqida kuzatiladi. Ular tarjimani so‘zma-so‘z qilib qo‘yishlari mumkin. Ana shu holatda interferensiya hodisasi ro‘y berishi mumkin. Tarjimada semantic muammolar, gap qurilishi va gap bo‘laklarining joylashishida xatoliklar vujudga kelishi mumkin. Bu o‘ziga yarasha qiyinchiliklarni vujudga keltiradi. Eng katta qiyinchiliklardan biri yozuv bilan bog‘liq. Chet tilini endigina o‘rganayotgan odam o‘zining fikrlarini aniq, to‘g‘ri, to‘liq ifoda eta olmaydi. Chunki, u hali o‘zlashtirayotgan tilidagi barcha yozuv qoidalari va standartlarini mukammal bilmagan bo‘ladi. Hozirgi kungacha ham talabalar, tilni yaxshi bilgan kishilar ham o‘z fikrlarini boshqa tilda aniq ifoda etib berishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ayrim vaqtlarda o‘z fikrini ifoda etishda madaniyatning ham ta’siri bo‘lib, boshqa yo‘l bilan, boshqacha ma’no berib qo‘yishlari mumkin.

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillari qiyoslashning ba’zi umumiy metodologik masalalarini ko‘rib chiqilgan. Ingliz va o‘zbek tillari qardosh emasligi va turli strukturada bo‘lgani uchun ham qardosh bo‘lmagan tillarni qiyoslash masalalarigagina to‘xtalgan. Har xil yaruslardagi darajalarni ifoda etish uchun metodikaga nisbiy tipologiyaning xulosalari darkordir. Chunki, qiyoslanayotgan tillarning birida ma’lum darajaning bo‘lishi, ikkinchisida esa mazkur darajaning bo‘lmasligi ham mumkin”.⁵ Masalan, ingliz tilidagi perfect, aniqlik, noaniqlik va boshqa mustaqil darajaga ajratiladi, o‘zbek tilida esa ularni ifodalash uchun maxsus grammatik shakllar mavjud emas. Xuddi shuningdek o‘zbek tilida predlog

⁴<http://www.wikipedia.org//interferensiya>

⁵MasharipovaG. O‘zbekistondachog‘ishtiratilshunoslikningtaraqqiyoti.Filol.fan.nomz...diss. - T., 2012- B.10.

tushunchasi mavjud emas, ulardan foydalanishda turli usullar qo'llaniladi. Masalan, agar ingliz tilidagi *in* predlogiga o'zbek tilida ichida so'zi to'g'ri kelsa, bu o'zbek tilidagi ichida so'zi predlog degani emas. Yoki o'zbek tilida oltita kelishik bor, bu ingliz tilida ham oltita kelishik shaklini izlash kerak degan ma'noni anglatmaydi. "Biror daraja qiyoslanayotgan tillarning birida bo'lib, birida bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, hozirgi ingliz tili uchun perfect darajasi, ya'ni biror oppozitsiyasi perfect-non-perfect xos bo'lib, bu darajaning ma'nolarini o'zbek tilida turli qurilmalar ishtirokida anglatish mumkin bo'lsa ham, bu til uchun xos emasdir".⁶ Nisbat mustaqil daraja sifatida hozirgi o'zbek va ingliz tillarida ham bor. Nisbat darajasini hozirgi o'zbek tilida qiyoslash anchagina qiyin, chunki o'zbek va ingliz tillari turli tizimga taalluqlidir.

"Hozirgi ingliz va o'zbek tillarida nisbat darajasi turli shakllarda ifodalanadi. Mazkur daraja yasalishining asosiy usullarini, fe'llarning leksik-gramatik tasnifni aniqlash va bayon etish metodikasi ifodalanishida ham, mazmunda ham metodika uchun katta ahamiyatga ega. Turli tizimda bo'lishiga qaramay, ingliz va o'zbek tillarining o'ziga xos struktura xususiyatlari borligi kauzativ fe'llarni qiyoslab o'rganish borasida amaliy ahamiyat kasb etadi".⁷

Ona tili bilan qiyoslab o'rganiladigan chet tili o'rtasidagi farq qiluvchi xususiyatlarning chalkashtirilishi interferensiya deyiladi. Interferensiya jarayoni tillararo aloqa va bilingvizm (ikki tillilik) bilan chambarchas bog'liq.

"Ikki yoki undan ortiq til tizimlarini qiyosiy o'rganish fonologiya, leksika va grammatika tizimlarining differensial xususiyatlarini aniqlash hamda chet tili o'qitishga ona tilidan foydalanish yoki foydalanmaslikni aniqlash uchun interferensiya o'rganiladi".⁸ "Demak, interferensiya nazariy jihatdan o'rganilganda tipologik izomorfizm va allomorfizm aniqlanadi, amaliy jihatdan o'rganish esa chet til tizimiga ona tili tizimining ta'sirida til o'rganishning dastlabki bosqichida paydo bo'gan xolatlarni bartaraf etishga yordam beradi".⁹

⁶Masharipova G. O'zbekistondachog'ishtirmatilshunoslikning taraqqiyoti. Filol.fan.nomz...diss. - T., 2012.-B. 12.

⁷ O'sha bet

⁸ Qo'shoqova S. Fe'lning to'ldiruvchilik sintaktik vazifasi. dok...diss. - T., 2016. -B.16.

⁹ O'sha bet

Chet tilini ona tili zaminida o'qitilganida interferensiyaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lishi mumkin. Interferensiyaning ijobiy tomoni shundaki, o'quvchilarning ona tili sohasidagi bilim va malakalari to'g'ri analizga asoslanadi. O'quvchilar analizdan so'z shakllari, qurilma va gaplar tuzilishlari, talaffuzni o'rganishda artikulyatsiya holatini qiyoslashlari mumkin. "Ona tilidagi struktural modellar chet tilida ham xuddi shunday modellar yasashga imkon beradi".¹⁰

Interferensiyaning salbiy tomoni, chet tili o'qitish jarayonida, shu til tizimiga ona tili tizimining salbiy ta'sir etishidir.

V. Komissarov " Tarjima nazariyasida interferensiya muammosi" nomli ishida tarjimadagi har qanday interferensiyaning inobatga olish lozim, garchi uni o'rganishni istamasak-da, u eng keraklilardan biridir, deb ta'kidlab o'tgan¹¹. V. Rozensviyning fikriga ko'ra, interferensiya deganda ikki tilda muloqot qilayotgan vaqtida ikki tilning qoida va normalarini buzishga aytiladi. G. Vishnevskoyning tadqiqotlariga qaraganda, hozirgi vaqtda aloqa almashish maqsadida turli millatga ya'ni turli tilda gaplashadigan kishi bo'lish muammo bo'lmay qoldi¹². Ayniqsa, hozirgi kunda ingliz tili barcha tillar orasida eng birinchi xalqaro til sifatida odimlab bormoqda. Dunyoning deyarli barcha burchagida ingliz tilini tushunishadi, bu tilda bemalol gaplasha olishadi. Shu sababdan ham har bir inson o'z oldiga ingliz tilini o'rganishni maqsad qilib qo'ymoqda. Shuning uchun ham interferensiya jarayoni ingliz tilida juda ko'p uchraydi. Albatta, boshqa tillarda ham xuddi ingliz tilida bo'lgani kabi interferensiya hodisasi mavjud. Tarjimon malakasi qaysi darajada bo'lsa, interferensiya hodisasi ham shunga munosib tarzda yuz beradi. Masalan, endigina tarjima sohasi bilan shug'illanishni boshlagan kishilarda, ko'p hollarda, grammatik interferensiya hodisasi kuzatiladi. Bundan tashqari, so'zlarni matnga mos qilib to'g'ri tanlay olmaslik natijasida leksik

¹⁰ Qo'shoqova S. Fe'lining to'ldiruvchilik sintaktik vazifasi.dok...diss. - T., 2016. -B. 20.

¹¹<http://www.wikipediya.org//interferensiya/>

¹²<http://www.wikipediya.org//interferensiya/>

interferensiya hodisasi ham ko'p uchrab turadi. Tarjima sohasi bilan shug'illanaverish grammatik ko'nikmalarni ancha o'rganib olgandan so'ng, yangi so'zlarni o'rganish jarayonida ko'proq fonetik interferensiya jarayoni kuzatiladi. Albatta, bu paytda fonetik intereferensiyabilan bir qatorda grammatik interferensiya hodisasi ham yuzaga kelaveradi. Yana tarjima jarayonidagi qisman qiyoslash metodikasiga chuqurroq to'xtalib o'tamiz. Qisman qiyoslash metodiga muayyan grammatik darajani ifoda etishda aniqlanadigan ma'lum o'xshash bo'lmagan hodisalar kiradi¹³. Masalan: ot darajasi har ikkala til tizimiga oid bo'lsa ham, bu tillar strukturasi geterogen (har xil)ligi munosabati bilan har ikkala tilning faqat bittasigagina xos bo'lgan bir qancha xususiyatdir.

1. Aniqlovchining otdan oldin kelishi va otni olmosh, sifat, sonturkumlari orqali aniqlanishi ingliz va o'zbek tillari tizimiga xos xususiyatdir.

Masalan:

This book

Bu kitob;

His book

uning kitobi;

Some books

bir qancha kitob.

Artiklning ingliz tilida bo'lib, o'zbek tilida yo'qligi esa farq qiluvchi xususiyatdir.

a book – the book

an apple – the apple

Aniqlik va noaniqlik ma'nosi mazmun jixatdan har ikkala til uchun xos, ammo bu ma'no maxsus markerlar bilan ifodalanmaganligi uchun o'zbek tilining ifodalanishida mustaqil daraja sifatida ajratilmaydi.

Aniqlik darajasini ifoda etishda qo'llanadigan leksik-grammatik birliklar asosiy muvofiqlashuvchi birliklar hisoblanadi. Ular olmosh, son, so'z yasovchi va shakl yasovchi morfemalar va boshqa vositalardir, masalan:

Give me the book lying on the table.

¹³Masharipova G. O'zbekistondachog'ishtirtilshunoslikning taraqqiyoti.diss.- T., 2012. b- 21.

Menga stolustidagi (ustida turgan) kitobni bering¹⁴.

Bu misoldagi aniq artikl o'zbek tilida qo'shimcha leksik – grammatik aniqlik markeridagi vositasida ifoda etilgan. Bunda ona tili interferensiyasi bo'lishi mumkin emas.

1. Maxsus katigorial affiksial morfemaning borligi har ikki til tizimiga taalluqli: a) ingliz tilida asosan ko'plik son fleksiyasi –s, -es bo'lib, qator boshqa usullar ham mavjud. Masalan: man-men ox-oxen datum-data.

O'zbek tilida grammatik ko'plik ma'no asosan lar qo'shimchasi yordamida ifoda etiladi. b) o'zbek tilida qaratqich kelishigi morfemasi ishlatiladi chegaralanadi. O'zbek tilidagi kelishik tizimi ingliz tili kelishik tizimiga ta'sir etadi. Shu sababli ingliz tilidagi turdosh otni o'quvchilar qaratqich kelishigida qo'llaganlarida interferensiya holati ro'y beradi. Shaxs darajasi ham qisman o'xshash bo'lgan interferensiyali hollarga kiradi. O'zbek tilida «men keldim» o'rniga «keldim», «sen kelding» o'rniga «kelding» deyish mumkin¹⁵. Ammo ingliz tilida bunday deb bo'lmaydi, chunki shaxs qo'shimchalari yo'q. Ona tili ta'sirida o'zbek o'quvchilari o'z nutqida fe'ldan oldin olmoshni tushirib qoldirishlari mumkin: I *cameo* o'rniga *came*. Egalik olmoshlari ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida ma'lum tafavut bor, chunonchi: ingliz tilidagi bog'langan (conjoint) egalik olmoshlari shakllari o'zbek tilidagi qaratqich kelishigidagi kishilik olmoshlariga, mustaqil (absolute) egalik olmoshlari o'zbek tilidagi egalik olmoshlariga to'g'ri keladi. Masalan, *my, your, his, her* kabilar ingliz tilida egalik olmoshlari bo'lsa, o'zbek tilida ularga mos keluvchi *mening, sening, uning* kabi olmoshlar kishilik olmoshlaridir.

3) ingliz tilida otlar oldidan yordamchi so'zlar (predloglar) ning qo'llanilishi ingliz tilidagi ot turkumiga xos xususiyatlardan biridir, chunki, ingliz tilida otlar fleksiyaga boy emas. Ba'zi ingliz predloglari o'zaro ma'nodoshdir. Chunonchi, o'zbek tilidagi jo'nalish kelishigi *N+ga ingliz tilidagi*

¹⁴O'sha betda

¹⁵Masharipova G. O'zbekistondachog'ishtirmatilshunoslikning taraqqiyoti. diss.- T., 2012. b- 23.

to+N, into+N, on+N, towards+N, at+N strukturalariga muvofiq keladi. Bu esa o'quvchilar predlog tanlashlarida xato qilishiga sababchi bo'lishi mumkin. O'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradigan xollardan biri ingliz tilidagi *from+N* predlogi birikmasi

o'zbek tilidagi *N+danshakliga* ba'zan muvofiq kelishi yoki aksincha bo'lishi mumkindir. O'quvchilar ko'pincha *I asked him* strukturasi o'rniga *I asked from him* tarzida predlogni noo'rin qo'llashadi¹⁶.

4) ona tilining interferensiyasi tarjimada so'z tartibini noto'g'ri qo'llashga ham sababchi bo'ladi. Ma'lumki, ingliz tilidagi turg'un so'z tartibi eng asosiy grammatik belgilardan hisoblanadi. O'zbek tilida esakelishik tizimining taraqqiy etganligi so'z tartibini turg'un qo'llashni qisman taqozo etmaydi. O'zbek tilida so'z tartibining nisbatan erkinligi ingliz tilidagi turg'un so'z tartibining buzilishiga olib keladi. Masalan: *The cat ate the mouse- Mushuk sichqonni yedi.*

Ingliz tilida so'z tartibi o'zgarsa, mazmun ham o'zgaradi: *The mouse ate the cat- sichqon mushukni yedi.* Ingliz tilidagi turg'un gap tartibi anglatadigan fikrni o'zbek tilida so'zlar o'rtasidagi aloqani o'zgartiradigan maxsus grammatik belgilar vositasida anglatasa bo'ladi. Tarjima jarayonida ingliz va o'zbek tillari grammatikasining taqqoslab o'rganish yaqindagina boshlangan bo'lib, hozirgi kunda bu ikki til tizimini mufassal taqqoslash uchun mavjud manba yetarli emas. Shu sababli ikkala til tizimining universal taksonomiyasini yaratish uchun avval ish metodining ma'lum mezonini yaratish, grammatik yarus o'lchov birliklarini tanlab, grammatik darajalarni ifodalashda ulardan foydalanish yo'llarini o'rganish va ularni tipologik tatbiq qilishni bilib olish shart. Shunday qilib, turli til tizimlarini taqqoslashda tillar tizimlarini umumlashtirish va qiyoslash ko'zda tutiladi. J. Bo'ronov ikkita tilning chog'ishtirma- tipologik tadqiqini turli til xodisalarini mushtarak yoki farqliligini aniqlash va tizimlash yo'lidagi dastlabki qadam, deb hisoblash

¹⁶O'sha bet

mumkin, deb to'g'ri qayd qiladi¹⁷.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, ushbu maqolani yozish jarayonida chuqur izlanish olib borishga to'g'ri keldi, chunki o'zbek tarjimashunosligida bu mavzu hali to'liqligicha, batafsil yoritilmagan edi. Interferensiya hodisasi shunday hodisaki, tarjima bor ekan u ham mavjud. Interferensiya hodisasini butunlay yo'qotib bo'lmaydi. Faqatgina uning oldini olish va interferensiya hodisasini sodir etmaslikka harakat qilishimiz mumkin. Ammo zamon o'zgarib rivojlangani sari interferensiya hodisasi ham yangilanib, rivojlanib boraveradi va uning yangidan yangi turlari paydo bo'lish ehtimoli katta. Interferensiya hodisasining oldini olishning yo'li tilni o'sha muhit doirasida o'rganishdir. Albatta bu holat interferensiya hodisasini to'laligicha bartaraf etmaydi, hech bo'lmaganda bu hodisaning kam holatlarda kuzatilish ehtimolini keltirib chiqaradi. Ushbu ilmiy maqolani yozish mobaynida quyida keltirilgan bir qator natija va xulosalarga erishildi:

1. Grammatik interferensiyaning tarjimaga hamda tilshunoslikka ko'rsatadigan ta'siri atroflicha o'rganib chiqildi;

2. Grammatik interferensiya muammolarini bartaraf etish uchun birinchi navbatda interferensiya tushunchasi, uning mohiyati, kelib chiqish sabablariga oydinlik kiritish talab etiladi. Shu sababdan ham, ushbu maqolada interferensiya hodisasiga kengroq to'xtalish, uning turlariga aniqlik kiritishga alohida e'tibor berildi;

3. Interferensiya hodisasi ikki va undan ortiq tilda so'zlashuvchilar nutqida hamda tarjima jarayonida paydo bo'ladigan til normalarining buzilish holati bo'lganligi sababli ushbu hodisani o'rganish jarayonida tarjima va tilshunoslik sohasi aloqada bo'lgan holatda o'rganildi;

4. Grammatik interferensiya hodisasi bartaraf etilmagan taqdirda, anglashilayotgan mazmunga putur yetishda davom etadi;

¹⁷Masharipova G. O'zbekistondachog'ishtirmatilshunoslikning taraqqiyoti.diss.- T., 2012. b- 25.

Mazkur ilmiy maqola grammatik interferensiya muammosiga ma'lum qadar yechim topish maqsadida ushbu hodisaga uchrashi mumkin bo'lgan holatlarni tuzilishi hamda keng ommaga havola etish zaruratining mavjudligini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyotining tashkil etilishi to'g'risida" gi PF//Toshkent. – 2016-yil, 13-may
2. Odilova G. Interference in translation (ma'ruzalar majmuasi) // Toshkent. – 2018
3. Masharipova G. M. O'zbekistonda chog'ishtirma tilshunoslikning taraqqiyoti. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2011-yil. - 70 b
4. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. O'zbekiston. – Toshkent, 2002
5. Ne'matov H. English Uzbek Learner's Dictionar – Samarqand, 2004
6. Qo'shoqova S. Fe'lining to'ldiruvchilik sintaktik vazifasi.diss.- T., 2016.-60 b.
7. Siddiqov A. So'zlarning guruhlanishi...diss.-T., 2014.-60 b
8. Masharipova G. O'zbekistonda chog'ishtirma tilshunoslikning taraqqiyoti.diss.- T., 2012.- 80 b

Ramazonbek Rixsiyev

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 2-kurs talabasi

“AZIZIM” LAQABLI DYURUANNING AJIB XARAKTERI XUSUSIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada fransuz adibi Gi De Mopassan qalamiga mansub “Azizim” romani haqida mulohaza yuritiladi. Asarning asosiy qahramoni Jorj Dyurua obrazi o’sha davr ijtimoiy qonunlari asosida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *Mopassan, “Azizim”, Dyurua, mustamlaka, xonimlar*

Annotation. In this article “Azizim” written by Mopassan is analyzed, and major hero of this work is researched based on society rules in that period.

Key words: *Mopassan, “Azizim”, Dyurua, colony, women*

“Yemoq, ichmoq, nafas olmoq, yotmoq, ishlamoq, orzu qilmoq – bu o’limga bormoqdir. Yashamoqning asl ma’nosi ham o’lmoqdir.”

Gi De Mopassan “Azizim” romani

Har qanday badiiy kitobda sirli xilqat - insonning nozik hissiyotlari, yashirin ruhiyati, fe’l-atvori, umuman, o’zlikni anglatish g’oyalari aks etadi. Jahon adabiyotining yorqin namoyondasi, mahoratli fransuz yozuvchisi Gi De Mopassan asarlarida ham aynan shunday g’oyalar mushtarakligini kuzatamiz. Mopassanning ijodi ko‘pincha san’at o‘rnida qabul qiladiganimiz chalkashlikka, yuzaki ekspressionalizmga va mavhum subektivizmga qarshi qaratilgan jonli

ta'madir. Butun vujudi bilan intizomli yozuvchi bo'lgani vajidan u inson tuyg'ularining ich-ichiga kirib bora oladi va ularni ko'rsatib beradi. Uning chaqib oladigan tabiati xurofotlardan va hamoqotlardan nafratlanardi, kamdan kam yozuvchilarda odamlilik, hamdardlikni topish mumkin, u har narsani bilishga qiziqadigan, nazarkarda odam edi. Bularning bari unga hayotni to'g'ri aks ettirishga yordam berdi.[3, 390] Ayniqsa, uning shafqatsiz realizm aks etgan "Azizim" romanida cheksiz idrok egasi bo'lgan insonning ayrim illat va qusurlari ro'yi-rost ko'rsatiladi. Ushbu romani orqali yozuvchi o'sha davr siyosatdonlarining va ularning qo'lidagi qog'irchoqqa aylangan jurnalistlarning hayotini, mamlakatda sodir bo'layotgan jaholat va adolatsizlikning qurboniga aylangan shaxslar, razolatning ichki dunyosini to'laqonli ochib bergan. Bu asar 1975-yili o'zbek tiliga Ibrohim G'ofurov tomonidan tarjima qilingan bo'lib, ko'p o'tmay o'zbek kitobxonlarining ham sevimli kitobiga aylanib ulgurdi.

XIX asr boshlarida Fransiya o'z mustamlakalarini kengaytirish yo'lida bosqinchilik urushlarini olib boradi. Bu jarayondan ham o'z manfaatini ko'zlagan yuqori tabaqa vakillari - dvoryan va zodagonlar katta daromad olish maqsadida hech qanday xunrezlikdan qaytishmaydi. Asar bosh qahramoni qishloq qahvaxonachisining o'g'li Jorj Dyurua aynan shu "Firibgarlar to'dasiga" dadil kirib boradi. Ushbu kiborlar jamiyatida esa faqatgina pastkash va razil kimsalargina g'olib bo'la olardilar. Inson amali donga o'xshaydi: o'sib-unib, hosilga kirishi uchun vaqt kerak bo'ladi.[5, 150] Romanda Jorj Dyurua ham o'sha donni yorib chiqqan va endigina kurtak yozayotgan yosh bir niholdek asar davomida "gurkirab" o'sib, yuqori amal pillapoyasini zabt etadi. Shuningdek, maqsadga erishish dastagi sifatida ayollardan foydalanadi. U Afrikada harbiy bo'lib xizmat qilgan va mustamlaka xalqlarini kamsitish, qo'lga o'lja kiritish ko'zlangan harakatlarda qatnashadi. Albatta, bu omillar uning fe'l-atvorida qo'pol shaxsiyatparastlikni shakllantirishga xizmat qilgan. Oqibatda, qay yo'l bilan bo'lsa-da, davlat orttirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bu yigit Parij jamiyatining elita qatlami ichida o'z omadini sinab ko'rmoqchi

bo'ladi. Bu qatlamning eng baland nuqtasidagi kuch-qudrat esa, erkaklardan ko'ra ko'proq ularning rafiqalari qo'lida bo'ladi. Yigit o'z niyati yo'lida avval qaysi xonimni yo'ldan ozdirishi "zarurligi"ni darhol anglab yetadi va firibgarona sarguzashtlarini boshlaydi. Biroq odam bolasi elektr simi emaski, birini musbat, birini manfiy desang[4, 334]. Ya'ni dunyoda mutlaq yaxshi yoki mutlaq yomon odam bo'lmaydi. Dyurua ham gigant Moliya nahanglaridan razillik va firibgarlikni o'rganib olib, o'zi ham yirik tovlamachilardan biriga aylangan bo'lsa-da, uning olg'irligi, uddaburonligi va ziyrak zakovatiga tan berish kerak. Negaki, Dyurua uzoqni oldindan ko'ra biladi va har qanday qaltis vaziyatlardan ham bosiqlik bilan chiqib keta oladi. Asardagi De Marel xonim, Janob Volter va Volter xonim, Szyuanna, Larosh Mate, Janob Vodrek, Roza xonim, shuningdek, janob Foreste singari obrazlar esa shubhasiz, Dyuruaning kamol topishida poydevor vazifasini o'taydi. "Fransuz hayoti" gazetasining "siyosiy bo'limi" rahbari ayyor Janob Forestening Dyuruaga qarata aytgan gapi go'yoki uning tuban shaxsiyatiga ishora qiladi: " – Gapimga ishon, o'zingni bilag'on qilib ko'rsatishdan oson ish yo'q. Hamma gap o'zingning nodonligingni boshqalarga oshkor qilib qo'ymasligingda. Odamlarning hammasi – g'irt omi va ahmoq, hech birining to'nkadan farqi yo'q".

Sen birovning yomon qiligidan kulsang-rohatlanib kulma, achinib, izza bo'lib kul. Zotan, achinib, izza bo'lib kulishning o'zi-qayg'u-hasratdir.[3, 275] To'g'ri, asar boshida kitobxonda Dyurua obraziga nisbatan nafrat uyg'onishi, zaharxanda kulgu qo'zg'alishi mumkin.[3, 275] Lekin Dyuruaning illatlaridan xulosa chiqarib, fazilatlaridan topqirlikni, qat'iyatlilikni, o'z maqsadi yo'lida hech narsadan qaytmaslikni o'rnak olish mumkin. Zero, badiiy adabiyotning ham, yozuvchining ham maqsadi shundadir. Qo'shimcha sifatida asar qahramonlari tilidan aytilgan fikr-mulohazalar o'sha davr muhitining nechog'lik qahramonlar ongiga ta'sirini ko'rsatib, insonni chuqur mushohada qilishga va asar mazmun mohiyatini teran anglashga ko'maklashadi.

"- Ha, muhabbat umrning birdan-bir quvonchi, biroq har xil talablar qoyaverib, biz uni rasvo qilamiz". Asar bosh qahramonlaridan biri De Marel

honim tamonidan aytilgan ushbu soʻzlar ham muhabbatning ilohiy tuygʻu ekanligi ammo uning kamol topishi insonning saʼy-harakatlariga nechogʻlik bogʻliq ekani koʻrsatib oʻtilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Sharafiddinov O. Jahon adiblari adabiyot haqida.–Toshkent, 2010.
2. Sattorov Sh. The formula of a decent life.–Toshkent, 2013.
3. Hoshimov Oʻ. Daftar hoshiyasidagi bitiklar.–Toshkent, 2011.
4. Abay.Saylanma.–Toshkent, 2018.

MUNDARIJA

TILSHUNOSLIK

Charos Avazova O'zbek bolalar nutqida metaforik nominatsiyaning namoyon bo'lishi	5
Dilafruz Nu'monova O'zbek tilshunosligida taqlid so'zlar lingvostatistikasi	10
Dilbar Mirnosirova O'zbek bolalar muloqotida noverbal assotsiatsiyaning ifodalanishi	16
Diyora Azizova So'z birikmalari sintaktik derivatsiyasi. Ularda operator, operand, derivatterminlarning ifodalanishi. Lisoniy sintaktik qolib (LSQ)	21
Doston Ro'ziqulov Ko'plik shaklida yashiringan ma'nolar xususida	28
Lobar Aralova Rus tilini boyitgan turkiy tillarga bir nazar	33
Madina Jo'raqulova Assotsiativ birliklarning gender xoslanishi	40
Madina Samatboyeva "Tarixi muluki ajam" da Antroponimlar etimologiyasi.	49
Nargiza Isomiddinova Samarqand viloyati Oqdaryo tumani shevalarining o'ziga xos xususiyatlari	59
Sadoqat Rajabova Hukumat qarorlari tili haqida	66
Shahnoza Sidiqova Rang-tus bildiruvchi belgilarning lingvomadaniy xususiyatlari	70
Shohsanam Abduraimova Implikatsiya haqidagi nazariy qarashlar tahlili: talqin va munosabat	79
Charos Quchqorova Iboralar so'z turkumlari tizimida	85
Fazilat Tursuntosheva To'ra Sulaymon she'rlarida so'z ma'nolarining ko'chishi	89

Gulira'no Isaqulova Usmon Nosir she'riyatida ma'nodosh so'zlarning qo'llanishi	95
Kamoliddin Sadullayev Tohir Malikning "Talvasa" asaridagi individual frazemalarning qo'llanishi	102
Mohidil Abdullayeva Bolalar nutqidagi neologizmlar	106
O'g'iloy Nomozova Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida qo'llangan deyktik birliklarning o'rni	116
Rafiqjon Zaripov Mustaqillik arafasida O'zbekistondagi lisoniy vaziyat	122
Vazira Nuriddinova Marhabo Karimova she'rlarida ko'chimlar	130
Zarina Fayziyeva Ba'zi o'zbek taom nomlarining etimologiyasi	138
Elyor Alimardonov O'zbek va turkman tillaridagi undosh fonemalar va ularning tavsifi	143
Jo'shqin Tursunov, Shahlo Qurbonova O'zbek tilining izohli lug'atlarida sinonimlar tavsifi va talqini	151
Marhabo Nazarova Navoiy asarlarida don mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari	156
Umriniso Po'latova Qarindosh urug'chilik nomlari tarixidan	164
ADABIYOTSHUNOSLIK (zamonaviy adabiy jarayon)	
Aida Kamolova Isajon Sulton hikoyalarining uslubi va ularning badiiy tahlili	170
Aziza Hazratqulova Zamonaviy adabiyot namunalari kitobxon ongidagi amaliy tahlili: "Alkimyogar" va "Boqiy darbadar". Ramzlar tahlili	180
Dilbar Fayziyeva Sinesteziya	190

Sabina Habibullayeva “Puankare” yoxud o‘zlikn anglash iztiroblari	196
Quvonchbek Mamiraliyev Abdulla Oripov she‘riyatida vatan obrazi talqinlari	202
Sitora Abduqodirova Zulfiyaxonim ijodida sog‘inch timsoli	208
Dilnavoz Shamsiyeva Xurshid Do‘stmuhammad ijodida milliy qadriyatlar tasviri	215
Bunyodbek Niyozmetov Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasida davr va shaxs talqini	219
Ozoda Bozorboyeva, Donogul Xo‘janiyozova “Bog‘i eram” behadliklari (Isajon Sulton hikoyasi misolida)	223
Shahzod Jo‘rayev Chingiz Aytmatov va global muammolar talqini	229
Odila Otaboyeva Qariyani yashartirgan tuyg‘u (Shukur Xolmirzayev)	242
Nilufar Murodova Normurod Norqobilov asarlarida tabiat tasviri	249
Javlon Yaxshiboyev Usmon Azimning “Saylanma” va “Kuz” to‘plamlarida muhabbat mavzusi talqini	255
Muxlisa Vohidova O‘tkir Hoshimov ijodida ona obrazi	264
Yulduz Ziyayeva “Lolazor” romanidagi Yaxshiboyev nutqida kinoyaning ifodalanishi	272
Go‘zalxon Ortiqaliyeva “Zulmat ostonasidagi muhabbat” romani: sevgi va do‘stlik to‘qnashuvi talqini	280
Mohira Abdurahmonova Ahmad A‘zamning “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanida ramz poetikasi	285
Orifjon Olimjonov Shukur Xolmirzayev – o‘zbek hikoyachiligining sohir ovozi	292
Chaman Jonuzoqova XX asr o‘zbek va g‘arb adabiyotida so‘zning poetik vazifasi	299

Gulzoda Safarova Munozara janrining badiiy adabiyotdagi vazifasi	305
Dildora Ibragimova Dramaturgiyada obraz va talqin ("Tanho qayiq" dramasi misolida)	309
Mohiya Jumaboyeva Satira va yumor – badiiy tarbiya vositasi	315
Nilufar Kenjayeva Said Ahmad ijodida inson talqini	322
Dilnavoz Najmiddinova Vilyam Shekspirning "Hamlet" tragediyasida qahramonlar psixikasi	326
Dilobar Mirzahakimova Ilk boshlanmalarning badiiy asar poetikasidagi ahamiyati	329
Nazokat Qahhorova Urushdan uzoqdagi unsiz taqdirilar	334
Nozima Sulaymonova Absurdizm Albert Kamyu talqinida	339
Parizoda Ro'ziboyeva Isajon Sulton hikoyalari badiiyati	348
Hulkar Murtazayeva "Paranji sirlaridan bir lavha yoki yallachilar ishi" asarida oila tushunchasining talqini	355
Gulhayo Uralova Maktub – botiniy ehtiyoj mahsuli	362
Sohiba Karimova Abdulla Qahhor hikoyalarida bemor obrazi talqini	367
Nafisa Karimova Adabiyotshunosligimizda ijod laboratoriyasi masalasi	372
Anvarjon Jabborov Xurshid Davron she'riyatidagi yaqin o'tmishda yashab o'tgan tarixiy shaxs obrazlari	377
Davronbek Oripov Dunyo kezayotgan "Orzigul"	386
Nurjahon Qayumberdiyeva "O'tkan kunlar"dagi she'rlar badiiyati	391

Akmal Ikromov Oybek asarlarining yangicha talqini	396
Xurshida Rahmonova Xurshid Do'stmuhammadning "Vasiy" hikoyasida badiiy-psixologik tasvir vositalari	400
ADABIYOTSHUNOSLIK (adabiyot tarixi va folklor)	
Aziza Almardonova Alisher Navoiy biografiasiga doir tadqiqotlar tahlili	406
Bo'ritosh Nurbadalova Bobur g'azallarida g'ofiya tizimi	413
Zebiniso Davronova Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'ati-t turk" asaridagi xalq maqollari	418
Dilafruz Jumag'ulova Maqollar - xalq ma'naviyatining ko'zgusi	424
Dilbar Usmanova Allada lirik qahramon xarakterining aks ettirilishi	432
Dildorabegim Najmiddinova "Shohnoma"da kasb-hunar talqini	438
Dilnoza Suyunova Fitrat va yangi o'zbek adabiyoti	444
Dilzoda Yusupova Mavsum marosim folklorining tarixiy asoslari	452
Fanuza Adilova Komil Xorazmiy g'azallarida ishq talqini	464
Farog'at Nasimova Navoiy lirikasida may mavzusi	467
Go'zal Qodirova "Sadoi Farg'ona" gazetasida adabiyot materiallarining yoritilishi	473
Gulandom Abdumurodova Tog'ay Murod asarlarida xalq marosimlari	480
	485

Gulfiza Olimova Soʻzning magik qudratiga asoslanuvchi marosim folklori: “Qora qozonning tagidan oʻtkazish” marosimi	
Gulshoda Yodgorova, Jahongir Toʻxtasinov Maʼrifat durdonasi	493
Gulzoda Omonova Baxshili el – yaxshili el	502
Gulzoda Soatova “Toʻnyuquq” yodnomasidagi TONUQUQ ismining oʻqilishi va maʼnolari	509
Husan Maqsudov Navoiyning nasriy asarlarida fano va baqoga munosabat	517
Joʻshqin Imomov Navoiy ijodining oʻrganilishi	527
Maftuna Ahmadjonova “Devoni lugʻati-t turk” asarining Ozarbayjonda oʻrganilishi	533
Maftuna Saparova Ahli qabul va ahli rad zikrida	541
Mahbuba Salomova, Iroda Akbarova “Alpomish” dostonida Yortiboy obrazining poetik yuki	549
Maxliyo Xurramova Nasaf va nasaflik allomalar	555
Mirzohid Umarov Goʻroʻgʻli turkum dostonlari va ularning qiyosiy tahlili	565
Mohichehra Muhammadiyeva “zarbulmasal” da qush obrazlari talqini	572
Mohiniso Shomurodova “Gʻaroyib us-sigʻar” devonining tuzilishi va devondan oʻrin olgan mumtoz sheʼriy janrlar tasnifi	577
Mohinur Eshonqulova Qadimiy inonchning badiiy talqini	587
Muhsinabonu Alimardonova Navoiyning devonlarga kirmagan gʻazallari xususida	595

Munavvar Obidova “Boburnoma”da falsafiy g’oyalari tasviri	600
Nurjahon Abdullayeva Alisher Navoiy asarlarida fantastika janri xususiyatlari	603
Quvonchoy Nurmetova Sultoniy hayoti va ijodi manbalari haqida ayrim mulohazalar	612
Quvondiq Davronov O‘zbek xalq qo‘shiqalarida ramzli obrazlilik	616
Sadoqat Hakimjonova Ibrat ilmiy faoliyati va mahorati	621
Sevara Fayzullayeva Najmiddin Komilov – sharh ilmi bilimdoni	627
Sevinch G‘afforova Maqollarda tabiat hodisalarining aks ettirilishi	634
Shahnoza Isroilova Sodiqiy hayoti va ijodi manbalari haqida	641
Shohsanam Abumannapova “Farhod va shirin” dostonida qofiya, radif va vazn munosabati	646
Xurshid Serobov Zamonaviy o‘zbek she‘riyatida tabiat unsurlarining poetik talqini muammosi	652
Xusniddin Xaitov To‘ra Sulaymon she‘riyatining folklor-dialektologik xususiyatlari	661
Yorqinoy Ismonova Bolalar folklori – ezgulik timsoli	668
TARJIMASHUNOSLIK	
Dilnoza Shonazarova Syntactic problems in simultaneous interpretation (on the example of English and Uzbek languages)	674
Dilsora Ashrapova, Dilsora Paritdinova Badiiy tarjimada adekvatlik muammolari (Mark Tvenning “Tom Soyerning boshidan kechirganlari” asari misolida)	679

Dinora To'g'onova Different views of metaphor in different culture	684
Durdona Ermatova Ketma-ket tarjima va unda duch kelinadigan muammolar	688
Mohira Otaboyeva She'riy tarjimaning o'ziga xos jihatlari (Lyuis Kerrol ertaklari misolida)	694
Nilufar Isroilova Lexical stylistic devices in the uzbek and the English languages	702
Nilufar Tuxtamurodova Frazeologik birikmalarning tarjimadagi muammolari va ularga berilgan yechimlar	709
Orifa Xudoyberdiyeva O'zbek tilidagi "axloq" va ingliz tilidagi "ethics" umumiy semali atov birliklarini tarjimada berish muammolari	715
Shodiyaxon Axrorova Jahon adabiyoti asarlaridagi glyutonomik diskurs muammolari	724
Setora Jo'rayeva How to write CV (curriculum vitae) and a role of translation in CV	738
O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASI	
Dilobar Davlatova Teaching Uzbek language through activities and interesting games	742
Dildora Musurmonova Educating special children: working with disabled pupils	745
Fazilat Xurramova O'zbek tilini o'qitishda interfaol metodlar	749
Husnora Baxtiyorova Bosh harflar imlosini o'qitishda tahrirlash usulidan foydalanish	757
Jamshidbek Xojiyev Lisoniy meros – o'zbek tili taraqqiyotining poydevori	764
Malika Nomozova O'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish usullari	769

Mohigul Esonova 5-sinf o'quvchilarining yozma nutqini baholashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar	776
Qobiljon Abdurasulov Developing the ability to express idea orally in 5 th grade students	783
Charos Olimova Ta'limda raqamli tizimlarning qo'llashning zamonaviy imkoniyatlari	789
Fayzullo Mamatmusayev Turkiylar uyg'onaylik! Bir tilda so'zlashaylik! Yoxud bugungi kunimizda o'rtaturk tili qanchalik dolzarb?	795
O'ZBEK ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI	
Dildora Abdullayeva Adabiy tahlilning mushtarak jihatlarini	807
Gulmira Ergasheva Adabiyot to'garaklarida maqollar tahlili bo'yicha tavsiyalar	814
Ismigul Nizomova Ta'lim bosqichlarida Yassaviy ijodining o'rganilishi	820
Madina Abduqodirova Adabiy ta'sir masalasi Navoiy va Jomiy misolida	827
Madina Orifova Mumtoz siymolar ijodining o'rganilishiga doir	832
Mahliyo Xurramova Darslik va manba qiyosi	839
Nasiba Meliyeva Badiiy asarlarni o'rganishda didaktik tahlil	844
Muyassar Qobulova Adabiyot darsliklari bo'yicha ayrim mulohazalar	850
Quvonchbek Xolto'rayev O'zga tilli guruh o'quvchilarini asar qahramonlarining qiyofasi tahliliga o'rgatish	856
Quvonchbek Xolto'rayev O'zga tilli guruh o'quvchilariga mumtoz adabiyot namunalarini o'rgatishda zamonaviy yondashuv	861

Sevara Yarasheva Maktab darsliklarida keltirilga g'azal janrining vazn xususiyatlari	865
Sevinchoy Yoqubova Muhammad Yusuf she'riyatini o'rganishda vizual yondashuv	870
Xosiyat Navruzova Said Ahmadning obraz yaratish masalasi	878
O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH	
Doston Isrofilov O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning avvalgi va hozirgi holati	888
Elvira Ilyasova O'zbek tili darslarida talabalar nutqini o'stirish usullari	893
Nilufar Isroilova O'zbek tilini chet elliklarga o'rgatish bo'yicha onlayn platforma yaratish muammolari va yechimlari	899
Sevara Umurzakova Alisher Navoiy ijodini o'rgatishda o'zbek tili o'qituvchilarida kompetentlik xususiyati	905
Sherquzi Qulbulov Kompyuter leksikografiyasining asosiy tushunchalari	911
Gulobar O'ltanova Ieronim Megizer va uning "Institutionum Linguae Turcicae Libri Quatuor" ("Turkiy til negizlari") asari haqida	916
Fotima Ernazarova "Devonu lug'otit-turk" asarining badiiy qiymati	925
Sanjar Mavlyanov Uzbek and English diplomatic terminology and it's features	934
Latofat Fayziyeva O'zbek tilida "harakat tarzi" ma'nosini ifodalovchi vositalar	942
Erkinjon Abdumalikov Translation of political literature and terms in English, Russian and Uzbek language	946

Xurshida Rizayeva Tarjima jarayonida o‘zbek va ingliz tillari grammatikasining interferensiya hodisasi qiyosiy tahlili	956
Ramazonbek Rixsiyev “Azizim” laqabli Dyuruanning ajib xarakteri xususida	965

**UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)**

“Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” universitet talabalarining ilmiy-amaliy anjumani materiallari.
Toshkent – 2020. 934 bet.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan “Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” nomli an’anaviy talabalar ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tuzilgan.